

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**TARIX FAKULTETI
JAHON TARIXI KAFEDRASI**

**“Tarix” (mamlakatlar va mintaqalar bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi
4-kurs talabalari uchun**

JAHON TARIXI (ENG YANGI TARIX) fanidan

MA‘RUZALAR MATNI

Tuzuvchi: katta o‘qituvchi B. Abdullayev

ANDIJON-2016

MA'RUZALARNING QISQACHA MAZMUNI.

I-II Jahon urushi o`rtasida Yevropadagi mamlakatlar va AQSH.

I Jahon urushining nihoyasi va insoniyat tarixida eng yangi davrning boshlanishi. 1917 yilgi Rossiyadagi fevral demokratik inqilobining g`alabasi va oktyabr voqealarining g`arb mamlakatlaridagi ta`siri. 1918 yil kuz faslidagi Germaniya va Avstriya-Vengriyadagi demokratik inqiloblar va ularning oqibatlari. 1918-1923 yillarda xalqaro munosabatlar.

Angliya 1918-1939 yillarda.

1918-1939 yillarda Angliya siyosiy tarixiga bag`ishlangan manbalar, iqtisodshunoslik. 1918-1924 yillarda Angliyaning ichki va tashqi siyosati. Angliya mustamlakalarida milliy-ozodlik harakatlari. Dominion va mandat sistemalari Nevill Chamberlin va uning ichki va tashqi siyosati..

Germaniya 1918-1939 yillarda.

Veymar Respublikasining ichki va tashqi siyosati. 1919-1923 yillarda Germaniyada o`tkaziladigan islohotlar. 1932 yilda o`tkazilgan saylovlar va uning natijalari. 1933 yillarda A.Gitlarning hokimiyat tepasiga kelishi va Veymar respublikasining qulashi. 1933-1939 yillarda Germaniyada totalitarizmga asoslangan siyosiy sistemaning mohiyati. Gitler boshchiligidagi natsional-sotsialistlarning ichki va tashqi siyosati.

Frantsiya 1918-1939 yillarda.

Frantsiya sudxo`rlik kapitalimining taraqqiyoti. 1926-1927 yillarda Puankare boshchiligidagi "Milliy birlik" hukumati. E.Dalade hukumatlari. "Xalq fronti" hukumatining faoliyati va uning tarixiy ahamiyati II jahon urushi arafasida Frantsiya va xalq frontining tarqab ketishi.

AQSH 1918-1939 yillarda.

Iqtisodiy va siyosiy inqiroz yillarida AQSH (1918-1921 y.). Parij konferentsiyasida AQShning ishtiroki. Vashington sistemasi. 1928 yilgi Prezident saylovlari va G.Guvernning (1929-1932). Prezidentligi. 1932 yil Prezident saylovlarida demokratlar g`alabasi va F.D.Ruzveltning "Yangicha siyosati" mohiyati..

Italiya 1918-1939 yillarda.

Italiyada fashizmning paydo bo`lishi va hokimiyat tepasiga kelishi sabablari. B.Mussolini. Italiya fashizmining o`ziga xos xususiyatlari. II-jahon urushi arafasida Italiya.

SSSR 1918-1939 yillarda.

Sovet davlatining ichki siyosati. Sovet imperiyasining shakllanishi. Totalitar tuzumning vujudga kelishi. Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy munosabatlarning rivojlanishi. Stalin diktaturasi. Sovet davlatining tashqi siyosati.

Yevropa va Amerika mamlakatlari ikkinchi jahon urushi yillarida.

Ikkinchi jahon urushining kelib chiqish sabablari. Ikkinchi jahon urushining davrlari. Fashistlar Germaniyasining Polshaga hujum qilishi va ikkinchi jahon urushining boshlanishi. G`arbiy frontdagi "G`alati urush". Yevropadagi harbiy harakatlar. Osiyo-Tinch okeani mintaqasida harbiy harakatlar. Germaniyaga qarshi koalitsiyaning vujudga kelishi. Moskva va Tehron konferentsiyalari.

Xitoy 1918-1945 yillarda.

Vashington konferentsiyasining Xitoy to`g`risidagi qarorlari. Sovet-Xitoy munosabatlari. 1924 yilgi bitim. Shimolda chet el mamlakatlariga qarshi harakatning kuchayishi. Sun Yatsen

o'limi va uning siyosiy vasiyati. 1925-1927 yillarda Xitoy inqilobi va uning natijalari. Gomindan hukumatining o'rnatilishi, siyosati va uning xarakteri. Janubiy Xitoydagi inqilobiy qo'zg'olonlar. Sovet hududlarida Xitoy harbiy qismlarining tuzilishi. Xitoy sovetlarining birinchi syezdi. Xitoyda agrar siyosat. 1930-1933 yillardagi Gomindan yurishlarining daf qilinishi.

Yaponiya 1918-1945 yillarda.

Jahon iqtisodiy inqirozining Yaponiyaga ta'siri. Yaponiya tajovuzining kuchayishi. Shimoliy-Sharqiy Xitoyning bosib olinishi. Yaponiyaning Xitoyga qarshi hujumi (1937), Yaponiya qo'shinlarini Xasan ko'li, Xalxingol daryosi yonida mag'lubiyatga uchrashi. Yaponiyaning Janubiy-Sharqiy Osiyodagi ekspansiyasining kuchayishi. Yaponiyaning Germaniya bilan harbiy-siyosiy ittifoqi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarida Yevropa va Amerika mamlakatlari.

1944-1945 yillarda xalqaro munosabatlarning vujudga kelishi. "Sovuq urush". 1950 yillarda G'arbiy Yevropada tuzilgan iqtisodiy birlashmalar va "Yevropa iqtisodiy hamkorligi" (Umumiy bozor). 1950-1970 yillardagi ikki lager o'rtasidagi qarama-qarshilik, qurollanish poygasi. 1980-1990 yillarda xalqaro vaziyat va g'arb mamlakatlari.

GFR II-jahon urushidan keyingi yillarda.

II-jahon urushidan keyin Germaniyada vujudga kelgan G'arbiy va Sharqiy zonalar 1949 yil may oyida "Bonn Konstitutsiyasi"ning ishlab chiqarilishi. Bonn konstitutsiyasi asosida o'tkazilgan saylovlar va GFR-ning tashkil topishi. Ikki palatali parlament. Bundestag va Bundesrat. GFRda parlament respublikasining takomillashuvi.

G.Kol hukumatining ichki va tashqi siyosati. 1989 yil Sharqiy Yevropa mamlakatlaridagi tanazzul va GDR-dagi tinchlik. Germaniya birlashuvi.

AQSh II-jahon urushidan keyingi yillarda.

G.Trumenning ichki va tashqi siyosati. D.Marshall rejasi va uning mohiyati. Shimoliy Atlantika (NATO) blokining vujudga kelishi. 1952 yilgi Prezident saylovlari va respublikachi D.Eyzenxauerning g'alabasi. 1960 yilgi Prezident saylovlarida respublikachilar va demokratlarning hokimiyat uchun olib borgan kurashlari. 1962 yilda Karib inqirozi va Sovet-Amerika munosabatlari. 1968 yil prezident saylovlarida R.Niksonning g'alabasi. Uning ichki va tashqi siyosati. J.Ford prezidentligi (1973-1976). 1980 yilgi prezident saylovlarida respublikachi R.Reygan g'alabasi. 1992 yil prezident saylovlarida demokrat B.Klinton g'alabasi.

Fransiya ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda.

1944 yilda Fransiyaning Gitlerchilar istibdodidan ozod etilishi va Sh. de Goll boshchiligidagi Muvaqqat hukumatning faoliyati. 1945 yilgi Referendum hamda ta'sis majlisida o'tkazilgan saylovlar va ularning natijalari. Frantsiyada IV respublikaning ta'sis etilishi (1946-1958). IV respublikaning qulashi va V respublikaga asos solinishi. V respublikaning Konstitutsiyasi. Prezidentlik respublikasi. Sh. de Gollning (1958-1968) ichki va tashqi siyosati. Prezident Valeri Jiskar D.Esten davrida Fransiya F.Mitteranning prezidentlikka saylanishi. 1988 yilgi prezident saylovlarida F.Mitteranning prezidentlikka saylanishi.

Angliya ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda.

1945 yil Parlament saylovlari K.Ettli boshchiligidagi hukumatning (1945-1951). U.Churchill konservativ hukumatining (1951-1954) ichki va tashqi siyosati. 1970 yilgi parlament saylovlari va konservatorlar g'alabasi (1970-1974). Leyboristlar partiyasining 1974-1979 yilgi hukumati. 1978 yil saylovlarida konservatorlarning hokimiyat tepasiga kelishi. M.Tetcher. M.Tetcherning ichki va tashqi siyosati.

Italiya ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda.

1946 yil 2 iyundagi davlat tuzumi to'g'risidagi referendum va ta'sis majlisida o'tkazilgan saylovlar. Referendum va saylov natijalari. Italiyada Respublikaning ta'sis etilishi. Italiya va Shimoliy Atlantika (NATO) bloki. AQShning Italiya iqtisodiyotiga ta'siri. 1950-1960 yillardagi Italiyaning iqtisodiy-siyosiy taraqqiyoti. Italiyaning 1957 yilda G'arbiy Yevropa mamlakatlarining "Yevroatom" va "Umumiy bozor" to'g'risidagi shartnomalarga qo'shilishi.

SSJI urushdan keyingi davrda.

40-80-yillarda iqtisodiy rivojlanish. Stagnatsiya va inqiroz jarayonini kuchayishi. 40-80-yillarda davlatda ijtimoiy-siyosiy ahvol. Tashqi siyosat. Sharqiy Yevropada sovet hukmronligining o'rnatilishi. Varshava shartnomasi. SSJI va G'arb. "Sovuq urush".

Osiyo va Afrika mamlakatlari XX asr ikkinchi yarmida.

Osiyo va Afrika davlatlaridagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar.

Xitoy XX asr ikkinchi yarmida.

Xitoy Xalq Respublikasining ilk qadamlari va 1949-1957 yillardagi ichki va tashqi siyosati. "Katta sakrash", "Xalq kommunasi", "Madaniy inqilob". 1979-1996 yillarda Xitoy Xalq Respublikasi. 80-yillarning boshlarida Xitoydagi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar. 90-yillardagi XXR-dagi siyosiy, Ijtimoiy, iqtisodiy vaziyat.

Yaponiya XX asr ikkinchi yarmida

Yapon hukumatining tashqi siyosati. 50-60 yillarda Yaponiyaning ichki va tashqi siyosati. 70-80 yillarda Yaponiya. 90-yillardagi Yaponiyaning siyosiy, madaniy va ijtimoiy, iqtisodiy rivojlanishi. Yaponiya va jahon hamjamiyati.

Hindiston XX asr ikkinchi yarmida.

1947 yil "Hindiston ittifoqi" va "Pokiston". Mustaqillikni qo'lga kiritgandan keyin Hindiston. Mamlakatning ikkiga bo'lib yuborilganidan keyingi ijtimoiy va iqtisodiy ahvoli. Hindistonning respublika deb e'lon qilinishi. J.Neruning ichki va tashqi siyosati. Hozirgi davrda Hindiston taraqqiyoti. 60-70 yillarda Hindistondagi ichki siyosiy vaziyat. Hozirgi davrda Hindistondagi madaniy va ijtimoiy, iqtisodiy taraqqiyot. 80-90 yillarda Afg'oniston. II-jahon urushidan keyin Afg'onistonning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli. Sovet-Afg'on munosabatlari. 1973 yildagi to'ntarish va Respublika e'lon qilinishi. M.Dovud siyosati. 1978 yildagi aprel inqilobi. X.Amin faoliyati. B.Karmal hukumatining ichki va tashqi siyosati. 80-90 yillarda Afg'onistondagi ichki va tashqi vaziyat.

Eron XX asr ikkinchi yarmida.

Eron va Bog'dod pakti (SENTO). Eronning tashqi siyosati. Eron va AQSh. 1978-1979 yillardagi shoh rejimiga qarshi qaratilgan inqilob. R.Xomeyni boshchiligidagi harakatning Eron tarixidagi roli. Eron Islom Respublikasining e'lon qilinishi. 80-90 yillarda Eron hukumati olib borgan ichki va tashqi siyosat.

Arab mamlakatlari XX asr ikkinchi yarmida.

Arab-Isroil urushi. 60-yillarning oxirida Arab mamlakatlari. 70-80 yillardagi Arab mamlakatlarining ichki va tashqi siyosati. Arab davlatlarining neft borasida olib borgan siyosati. Arab davlatlarining 70-80 yillardagi sanoati taraqqiy etgan davlatlar bilan munosabatlari. Arab mamlakatlaridagi siyosiy, madaniy va ijtimoiy, iqtisodiy o'zgarishlar.

KIRISH

G'arb mamlakatlarining eng yangi tarixi (1918-2005 yillar) kishilik jamiyatining XVII asr 40-yillaridan boshlangan yangi tarixning davomi, umumiy tarixning so'nggi, eng murakkab va eng muhim qismi hisoblanadi. G'arb mamlakatlarining eng yangi tarixi 1918 yildan hozirgi vaqtgacha dunyoda bo'lgan muhim voqealarni, mamlakatlarning sotsial-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishlarini, jahon tarixiy taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini, jahon miqyosida yuz bergan ziddiyatlarni, ozodlik kurashi jarayonlarini, sotsializmning inqirozi sabablari va undan keyingi rivojlanish taraqqiyot bosqichlarini, shuningdek, 1918-2005 yillar ichida sodir bo'lgan xalqaro munosabatlar muhim xususiyatlarini o'rgatadi.

Dunyo xalqlari hayotida yuz bergan va yuz berayotgan tub ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni, xalqaro munosabatlar rivojlanishining yo'nalishlarini bayon qilish eng yangi tarix fanining muhim vazifasidir.

Shuningdek, eng yangi tarix fani urush va tinchlik muammolarini, tinchlik uchun kurash masalalarini, tashqi siyosatdagi qarama-qarshi yo'llar va tendensiyalarni tushuntiradi.

Eng yangi tarix masalalari g'oyatda katta siyosiy ahamiyatga ega bo'lib, bunda sinflar, partiyalar, oqimlar, turli nuqtai nazarlar kurashi, haqiqat va adolat, ozodlik va sotsial taraqqiyot uchun kurash masalalari turli mamlakatlar misolida keng va chuqur gavdalanadi.

Hozirgi dunyo murakkab va turfa xil dunyodir. Unda turli mamlakatlar yonma-yon yashaydi va bir-biriga ta'sir ko'rsatadi. Butun dunyo bilan muvaffaqiyatli munosabatlarga kirishish, do'stlik va hamkorlikni rivojlantirish uchun mavjud voqeylikning muammolarini chuqur bilish va bu bilimdan umum manfaat yo'lida foydalanish lozim bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov o'zining "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" kitobida dunyo mamlakatlari bilan tinch-totuv yashash xususida shunday yozadi: "Biz yashayotgan davr qanday xususiyatlarga ega? So'nggi vaqtlarda jahonda yuz bergan, dunyoning jo'g'rofiy-siyosiy tuzilishini va xaritasini tubdan yangilagan o'zgarishlar hozirgi zamon va kelajak uchun qanday tarixiy ahamiyatga molik? Bular haqida mulohaza yuritish va ularga to'g'ri baho berish juda muhim".

Insoniyat XX asrda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotda ulkan qadamlar tashladi. Asrimizning 20-yillarida boshlangan ilmiy-texnikaviy inqilob hayotning barcha sohalarida tub o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Inson tarixda birinchi marta ochiq fazoga chiqdi va Oyga qadam qo'ydi. Atom energiyasi, inson irsiyati sohasidagi kashfiyot, elektronika, fazoviy televideniye, eng yangi harakat vositalari xalqlarning o'zaro munosabatlarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tardi.

Shu bilan birga hali hal etilmagan bir talay muammolar borki, ularni bartaraf etish uchun insoniyat o'z kuchlarini birlashtirishi zarur. Ochlik va qashshoqlik, atrof-muhitning ifloslanishi, og'ir yuqumli kasalliklarga qarshi kurash va turmush darajasini yuksaltirish, inson huquqlari va erkinliklari uchun kurash, xalqaro huquq mezonlarini qaror toptirish shular jumlasidandir.

Ilmiy-texnikaviy inqilob va uning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy sohalaridagi ko'rinishi muhim ahamiyat kasb etdi, jahon ijtimoiy hayotida quyidagi yangi tamoyillarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Insonparvarlik. Zamonaviy fan va texnikaning ulkan yutuqlari sababchisi inson, shaxsdir. Hozirgi kompyuterlar qanchalik katta ahamiyatga ega bo'lmasin, baribir, uni yaratgan va boshqarayotgan insondir. XX asr tarixida inson omili hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi va barcha tarixiy o'zgarishlarning harakatlantiruvchi kuchiga aylandi. XX asrda shaxsning o'zi ham tubdan o'zgardi. Yalpi o'rta ma'lumot, ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi, ommaviy madaniyatning paydo bo'lishi insoniyat umumiy madaniy darajasining yuksalishiga va uning o'ziga xos jihatlarining takomillashuviga olib keldi.

Demokratlashtirish. Yalpi saylash huquqi va inson omilining tarixiy jarayonlarga hal qiluvchi ta'sir kuchiga ega bo'lishi jahon siyosiy hayotini o'zgartirib yubordi. Xalq vakillari siyosiy hayotga faol aralasha boshladilar, partiya va davlat, jamoatchilik harakatlari va

tashkilotlari rahbarligiga keldilar. Ular ayni paytda keng xalq ommasining mafkurasini ham olib keldilar. Davlatni boshqarishga yo'l topgan ijtimoiy guruhlar doirasi kengaydi, keng xalq qatlamidan chiqqan professional siyosatchilar paydo bo'ldi, ommaviy axborot vositalarining siyosiy hayotga ta'siri kuchaydi. Bularning hammasi provardida jahondagi siyosiy vaziyatni tubdan o'zgartirib yubordi.

Globallashuv. Birinchi jahon urushidan so'ng dunyo iqtisodiy hayotining baynalmilallashuvi tez sur'atlar bilan davom etdi. Sof siyosiy g'oya sifatida paydo bo'lgan Yevropani "Yevropa Qo'shma Shtatlari" shiori ostida birlashtirish, dunyo iqtisodiy hayotining integratsiyasi taraqqiyot, xalqaro iqtisodiy va madaniy aloqalarni kuchaytirish va chuqurlashtirishning obyektiv jarayoniga aylandi. Bu jarayon davlatlararo birlashmalar va muassasalar barpo etish, xalqaro mehnat taqsimotini chuqurlashtirish, ishlab chiqarish va ilmiy kooperatsiyani rivojlantirishga turtki bermoqda. Integratsiya asta-sekin turli mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotini bir-biriga yaqinlashtirish va tenglashtirish, o'zaro manfaatli savdo, iqtisodiy va valyuta-xo'jalik aloqalarini kengaytirishga yordam bermoqda. Hozirgi paytda mazkur jarayon dunyoviy miqyos kasb etdi va ravnaq topdi.

Dunyo iqtisodiy hayotining globallashuvi muhim hayotiy va milliy manfaatlarga javob beradi. Chunki u davlatlarning dunyo xo'jalik jarayoniga qo'shilishiga va dunyo texnologiyasi, fani va madaniyati yutuqlaridan foydalanishiga ko'maklashadi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Prezidenti I.Karimov shunday yozadi: "Milliy tafakkur o'z taraqqiyotida madaniy qurilish vazifalariga dunyo miqyosida yondoshishi, boshqa xalqlarning taqdiri, ularning o'zaro munosabatlari bilan yaqindan qiziqishi, ular hayotining eng teran nuqtalarigacha kirib borishi, milliy manfaatlarni hisobga olishi kerak".

XX asrda Yevropa mamlakatlarining ochiqdan-ochiq qarama-qarshiligi jahon harbiy mojarosiga aylanib ketdi. Ko'pgina mamlakatlarda bu hol biqlik jarayoniga, ya'ni jahondagi jarayonlardan chetda turishni nazarda tutuvchi yopiq iqtisodiy taraqqiyot yo'liga sabab bo'ldi. Natijada ular dunyo iqtisodiyotidan ajralib qoldilar. Mazkur mamlakatlarda totalitar, antidemokratik tuzumlar shakllandi, og'ir iqtisodiy qiyinchiliklar yuzaga keldi. Pirovardida bunday mamlakatlarning ba'zilar harbiy mag'lubiyatga uchradilar (Germaniya, Italiya, Yaponiya), boshqalarida esa siyosiy falokatlar ro'y berdi (sobiq SSSR va sharqiy Yevropadagi sotsialistik lager mamlakatlari).

Shu sababli XX asr birinchi yarmining asosiy mohiyati demokratiyaning totalitarizm bilan, insonparvarlikning fashizm bilan va globallashuvning ayrimchilik bilan kurashidan iborat bo'ldi.

XX asr voqealari asosan shu tariqa kechdi. Bu voqealar bir tekis rivojlanmagan va kechmagan, albatta, ular har bir mamlakatda o'z xususiyatlariga, namoyon bo'lish shakllariga ega edi. Eng yangi tarix va dunyo siyosati yigirmanchi yuz yillikda ularning ta'siriga bog'liq holda uch bosqichni o'tadi. Bular quyidagilardir:

I bosqich. 1914-1945 yillardagi ikki jahon urushi o'rtasidagi davr. Unda dunyoni qayta taqsimlab olishga, yangi dunyo tartiboti o'rnatishga yo'naltirilgan jahon mojarolari juda ko'p. Birinchi jahon urushi imperialistik, ya'ni ikkala imperialistik guruh boshlagan bosqinchilik urushi bo'ldi. U talonchilik va buzg'unchilik urushi edi. Shunday bo'lsa-da, barcha mamlakatlarni qamragan demokratik harakat rivojlanishi uning natijasidir. Ushbu davrda maqsadi demokratik islohotlarni amalga oshirish bo'lgan umumdemokratik xarakterdagi kuchlar yuksalishi ustunlik qildi. Kapitalistik tizimning ham iqtisodiy, ham ijtimoiy-iqtisodiy inqirozi jahonni ikkita – ham demokratik, ham fashistik-totalitar lagerga bo'lib yubordi. Ikkinchi jahon urushi endilikda birinchisiga qaraganda butkul boshqacha xarakterda edi. U demokratik lager davlatlari tomonidan umumdemokratik xarakterdagi, fashistik lager davlatlari tomonidan esa tajovuzkorlik, bosqinchilik va talonchilik urushi edi. Ikkinchi jahon urushida demokratik davlatlar g'alaba qozondilar. Bu demokratik kuchlarning umumjahon tarixi ahamiyatiga molik g'alabasidir.

II bosqich. Sovuq urush davri. 1946 yildan 1991 yilgacha, ya'ni Ikkinchi jahon urushi tugashidan to Sovet Ittifoqi parchalangunga qadar kechgan davrni o'z ichiga oladi. Butun

jahonda jamiyatni insonparvarlashtirish uchun kurash keng avj oldi. Inson huquqlari uchun kurash, mustamlakalarni ozod qilish, irqchilikka barham berish, totalitar va mustamlaka tuzumlarini tugatish sovuq urush davrining asosiy mazmuniga aylandi. U faqat tashqi jihatdan ikki buyuk davlat yoki ikki tizimning mojarosi tarzida tasavvur etilsa ham, aslida aksilinsoniy tizimlar va tuzilmalarni tugatish uchun umumjahon kurashi edi.

III bosqich. Yangi demokratiya davri. U Sovet davlati parchalanganidan so'ng boshlandi va globallashuv jarayonlarining jahon miqyosida jadal ilgarilashi bilan tavsiflanadi. Globallashuvni rivojlantirish yo'lidagi oxirgi to'siqlar qulab tushdi. Jahon maydonida dunyo hamjamiyati tuzilmalarini insonparvarlashtirish, demokratlashtirish va globallashtirish jarayoniga o'z hissasini qo'shayotgan yangi demokratik davlatlar paydo bo'ldi. Ko'p qutbli dunyo siyosati tarix maydoniga keldi.

Eng yangi tarixning 1918-1945 yillarni o'z ichiga olgan 1-chi qismini ham davrlarga bo'lib o'rganamiz.

1) 1918-1923 yillar bu davr 1-chi jahon urushidan keyingi iqtisodiy va siyosiy inqirozlar davri bilan, Rossiyada yuz bergan oktabr to'ntarishining ta'siri tufayli chet ellarda yuz bergan inqilobiy jarayonlar bilan xarakterlanadi.

2) 1924-1928 yillarni o'z ichiga olgan kapitalizmning vaqtincha va qisman stabillashuvi bilan, kapitalizm bilan tarix maydoniga kelgan yangi tuzum sotsializm o'rtasida tinchlik masalasida ba'zi bir muvofiqlik kelishi bilan, shuningdek, kapitalistik dunyoda paydo bo'layotgan fashistik partiyalarining hokimiyat sari intilishlari bilan xarakterlanadi.

3) 1929-1933 yillar davri dunyo iqtisodiyotini qamrab olgan jahon iqtisodiy inqirozi bilan va uni bartaraf qilish uchun olib borilgan chora-tadbirlar bilan xarakterlanadi.

4) 1933-1939 yillar davri dunyo davlatlari o'rtasidagi ziddiyatlarning keskinlashishi bilan, reaksiya va fashizm kuchlarining faollashishi bilan, dunyoning yirik davlatlari sayi xarakatlari tufayli yangi jahon urushining tayyorlanishi bilan xarakterlanadi.

Mavzu: 1918-1939 YILLARDA ANGLIYA

1-§. Urushdan keyingi iqtisodiy va siyosiy inqiroz yillarida Angliya

I jahon urushi yillarida ishlab chiqarish va kapital konsentatsiyasi o'sdi. Sanoatning notekis rivojlanishi kuchaydi. Toshko'mir va kemasozlik sanoatlarida maxsulot ishlab chiqarish kamaysada, sanoatning avtomobil, kimyo, aviatsiya va qurolsozlik tarmoqlari tez o'sdi, natijada urush davrida Angliya monopoliyalarining foydasi 4 milliard funt sterling hajmida ko'paydi. Urush ingliz monopoliyalari uchun ulkan foyda manbaiga aylandi. U ingliz iqtisodiyotining barcha kuchlarini jamlashni taqozo etdi. Bu esa o'z navbatida sanoatning va kapitalning birligini kuchaytirdi. Kichik va o'rta korxonalarning majburiy kooperativlashtirilishi hamda banklarning birlashuvi ro'y berdi. Ayni shu jarayonda yirik London banklari - "Lloyd", "Barklay", "Midlend", "Vestminster" va Ingliz bankidan iborat "katta beshlik" vujudga keldi. Ularning tasarrufida Angliya pul resurslarining 85 foizi jamlangan edi. Sanoatda oltita yirik monopoliya paydo bo'ldi. Bular "Rooyal Datch shell" (neft), "Ingliz-Eron neft kompaniyasi" (neft), "Yunilever" (keng iste'mol mahsulotlari), "Imperial kemikl indastriy" (kimyo sanoati), "Danlop rabbers" (kauchek, rezina) va "Vickers" (qurol-yarog') edi. Mazkur olti yirik monopoliya amalda ishlab chiqarishning barcha sohalarida hukmron edi. Beshta eng yirik bank bilan birgalikda ular Angliya ichki va tashqi siyosatining yo'nalishlarini ham belgilardilar.

Urush yillarida Angliya mehnatkashlari va mustamlaka xalqlari yanada ko'proq talandi. Ishchilar ahvoli jiddiy ravishda yomonlashdi. Urush mobaynida aholining turmush darajasi ancha pasaydi. Ish haqining real darajasi ham pasayib bordi. Deyarli cheklanmagan ish kuni, favqulodda tezkor ish sur'ati, oz ish haqi, yomon uy-joy va maishiy sharoitlar, oziq-ovqatlarning yuqori narxlari o'lim va kasb kasalliklarining yuksak darajada bo'lishiga olib keldi.

Ayni paytda bo'lib o'tgan urush ingliz mehnatkashlari ijtimoiy ongining yuksalishida katta ahamiyatga ega bo'ldi. 1916 yilda Irlandiya milliy ozodlik harakati ko'tarildi. Bu qo'zg'olon hukumat tomonidan shafqatsizlik bilan bostirildi.

Siyosiy vaziyat keskinlashgan vaqtda, 1916 yil oxirida liberallar partiyasining rahbari Lloyd Jorj (1863-1945 yy) boshchiligida liberallar, konservatorlar va o'ng leyboristlardan iborat 1-chi koalitsion hukumat tuzildi. Lloyd Jorj hukumati Germaniya ustidan g'alaba qozonish munosabati bilan shovinistik kayfiyatni avj oldirdi. Hukumat Angliyaning harbiy qudrati va xalqaro roli oshib borayotganidan foydalanib o'sha vaqtda tashkil topgan xalqaro tashkilot-Millatlar Ittifoqi orqali mustamlakachilik hukmronligini saqlab qolish uchun alohida rejim bo'lgan mandat sistemasini joriy qildi. Buning natijasida Germaniya mustamlakalari (Afrikada-Tanganika, bundan tashqari Fransiya bilan bo'lishib olish asosida Togo va Kamerunning katta qismi) va Turkiya imperiyasi xududlari (Falastin, Transiordaniya va Iroq) hisobiga Angliyaning mustamlaka yerlari kengaydi.

Biroq, Germaniya va uning ittifoqchilari ustidan qozonilgan g'alaba ko'p zararlar evaziga bo'ldi. Angliya jahonda moliya ustunligidan mahrum bo'ldi. Urush xarajatlari 11 milliard funt sterlingni tashkil etdi. Davlat qarzi 1913 yilda 645 million funt sterling bo'lsa, 1919 yilda qariyb 7 milliard 800 million funt sterlingga yetdi. Urushdan oldin ko'pgina mamlakatlarga hatto AQShga ham qarz berib kelgan Angliyaning o'zi AQShdan(1919 yilda 850 million funt sterlingdan ortiq) qarzdor bo'lib qoldi. Urushda Angliya tomonidan 747,7 ming kishi halok bo'ldi, 1 million 693 ming kishi yarador bo'ldi. U savdo flotining 70 % idan ajraldi. Jahon bozorida Angliyaning pozitsiyasi sezilarli darajada bo'shashib qoldi. AQSH harbiy floti tez rivojlanib ketganligidan Angliya harbiy-dengiz flotining jahon flotidagi salmog'i kamaydi.

Urushdan so'ng Angliyaning iqtisodiyoti ancha zaiflashib, keyinchalik uzoq vaqtgacha deyarli turg'unlik holatida bo'ldi. Sanoat mahsulotining xajmi 1913 yildagiga nisbatan 1920 yilda 61%, 1921 yilda 62%, 1924 yilda 88%, 1929 yilda 99,1% ni tashkil qildi.

1918 yil dekabrda Liberal partiya yetakchisi Lloyd Jorj boshchiligida tezkor saylovlar o'tkazildi. U xalqqa tinchlik, ijtimoiy islohotlar, urush aybdorlarini jazolash va'dalarini berdi. Saylovda Lloyd Jorj g'alaba qozondi.

1919 yil yanvarida L.Jorj boshchiligidagi konservatorlar va liberallardan iborat ikkinchi koalitsion hukumat tuzildi. Mazkur hukumat mamlakatni 1922 yil kuzigacha boshqardi. Konservatorlar hukumat tepasida epchil liberal L.Jorjning bo'lishini afzal ko'rdilar, asosiy ministrlar esa o'z qo'llarida bo'ldi. Konservatorlar partiyasining vakillari Kerzon tashqi ishlar ministri qilib, Cherchel harbiy ministri qilib tayinlandi.

Angliya mustamlaka va dominionlarida milliy ozodlik harakatlari ko'tarildi va rivojlandi. 1918 yilgi saylovlarda "Shinn feyn" ingliz parlamentining irlandiyaliklari uchun ajratilgan barcha o'rinlarini egallab oldilar va Angliya parlamentida qatnashishdan bosh tortdilar.

1919 yil 21 yanvarda Angliya parlamentining Irlandiya deputatlari Dublinda yig'ilishib, mustaqil Irlandiya parlamentini tuzdilar: Irlandiya respublika deb e'lon qilindi. Muvaqqat hukumat va armiya tuzildi. Edmon de Varle Irlandiya respublikasi birinchi prezidenti qilib saylandi.

Irlandiya va Angliya qo'shinlari o'rtasida jiddiy harbiy to'qnashuvlar bo'ldi va janglar boshlanib ketdi. Milliy ozodlik kurashiga rahbarlik milliy burjua kuchlari-shinfeynerlar ("yolg'iz o'zimiz") qo'lida bo'ldi. 1921 yil dekabrda ingliz hukumati o'ng shinfeynerlar, ya'ni milliy burjuaziya kuchlari bilan Angliya-Irlandiya bitimini imzoladi. Bitimga ko'ra, Irlandiya ikkiga bo'lib yuborildi: Shimoliy Irlandiya Angliya tarkibida qolaverdi va Angliya shundan boshlab "Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya qo'shma qirolligi" nomini oldi. Janubiy Irlandiya "Ozod Irlandiya davlati" deb e'lon qilindi va dominion huquqini oldi.

Lloyd Jorj hukumati (1918-1922 yy) Angliyaning xalqaro mavqeiini saqlab qolishga intildi. U Rossiyaning ichki ishlariga qo'pol ravishda aralashdi. Ingliz qo'shinlari Murmansk va Arxangelsk shaharlariga kiritildi, mahalliy hokimiyat ag'darildi. 1918 yil yozida ingliz qo'shinlari Ashxobod va Boku shaharlarini egalladilar va Kaspiy dengizida o'z flotiliyalarini yaratib, dengizdagi barcha qatnovni nazorat ostiga oldilar. Shuningdek, ular Boku-Batumi temir yo'li ustidan nazorat o'rnatdilar, Gruziya, Ozarbayjon va Armanistonda mustaqil hukumatlar tuzilishiga ko'maklashdilar. Angliyaning maqsadi Rossiyani bo'lib yuborish, 1916 yilda Fransiya bilan bitimda qayd etilgan va 1918 yil 13 noyabrda tasdiqlangan hududlar ustidan o'z hukmronligini o'rnatish edi. Angliyaning o'zida Rossiyaga qarshi harbiy yurishlar xalqning keskin noroziligi va namoyishlariga sabab bo'ldi. Ingliz hukumati qurolli yo'l bilan Rossiya hukumatini yo'q qilishga urinishdan voz kechishga majbur bo'ldi. Bu esa Lloyd Jorj hukumatiga berilgan og'ir zarba edi.

Hindistonda ingliz mustamlakachilariga qarshi ozodlik xarakati yuksaldi. Amritsar shahrida qonli voqea (1919 yil 13 aprel) Panjob viloyatida qo'zg'olon (1919 yil aprel-may) va Hindistonning boshqa joylarida kuchli ommaviy chiqishlar yuz berdi. Ingliz hukumati o'z mustamlakachilik rejimini saqlab qolish maqsadida yon berishlarga, konstitutsion reforma o'tkazishga majbur bo'ldi. Hindiston milliy burjuaziyasining yuqori tabaqasi va pomeschiklar mamlakatning siyosiy hayotida qatnashadigan bo'ldilar.

1919 yilda Afg'oniston xalqi o'z mamlakatiga bostirib kirgan ingliz bosqinchilariga qarshi qurolli kurashga otlandi va uchinchi Angliya-Afg'oniston urushida o'z mustaqilligi uchun mardonavor kurashib g'alaba qildi. Angliya Afg'onistonning mustaqilligini tanishga majbur bo'ldi.

1919 va 1921 yillarda Misrda ingliz mustamlakachilariga qarshi katta namoyishlar, ish tashlashlar, politsiya bilan to'qnashuvlar va qurolli qo'zg'olonlar bo'ldi. Shahar va qishloq mehnatkashlari bu kurash va qo'zg'olonlarning asosiy kuchlari edi. 1922 yil fevralida Angliya yon berishga majbur bo'lib, Misr ustidan bo'lgan o'z protektoratini bekor qilajagini bildirdi. Misr rasman mustaqil davlat deb e'lon qilindi. Lekin ingliz qo'shinlari ilgargidek Misrda qola berdi.

Angliya strategik jihatdan muhim bo'lgan O'rta Yer dengizi hududida tayanch nuqtasiga ega bo'lishni istar edi. Kipr Angliya tasarrufida bo'lib, Gretsiyani ham o'z ta'sir doirasiga oladigan bo'lsa, O'rta Yer dengizi mintaqasida Angliyaning rolini oshirib yuborar edi.

Angliyaning bu rejalarini Turkiya buzib yubordi. 1920 yilda Izmirning greklar tomonidan bosib olinishi bilan boshlangan grek-turk urushi 1922 yilgacha davom etdi. Angliya Egey

dengizining har ikki tomonida Buyuk Gretsiya davlatini yaratish niyatida bo'lgan greklarning da'vosini qo'llab-quvvatladi. Ingliz siyosatining mohiyatini yaxshi tushungan Fransiya va Italiya esa Gretsiyaning kuchayishiga qarshi chiqdilar. Angliya birinchi jahon urushidan keyin birinchi marta yakkalanib qoldi.

1922 yil 9 sentabrda Muddaniya yaqinidagi jangda grek qo'shinlari tor-mor etildi va turk qo'shinlari Izmirga kirdi. Angliyaning Turkiyaga qarshi urushda yordam so'rab Yugoslaviya va Ruminiyaga qilgan murojaatlaridan natija chiqmadi. U o'ziga qaram davlatlardan ham rad javobini oldi. Birinchi jahon urushida g'alaba qozongan Angliya turk milliy-ozodlik harakati bilan urushda mag'lub bo'ldi.

Grek-turk urushidagi bu mag'lubiyat Lloyd Jorj hukumatining ham mag'lubiyati edi. Lloyd Jorjga qarshi matbuotda ayovsiz kompaniya boshlandi.

1919-1922 yillarda Turkiya va Eronda milliy ozodlik harakati, revolyutsion-demokratik kurashning yuksalishi natijasida Angliyaning bu mamlakatlardagi siyosati mag'lubiyatga uchradi. Ingliz mustamlakachilari va Gretsiya bosqinchilarining Turkiyadagi intervensiyasi tor-mor qilindi. Imperialistlarning Turkiyada zo'rlik bilan o'rnatgan taslimchilik rejimi tugatildi. 1919 yilda Angliyaning Eron bilan imzolagan og'ir shartli shartnomasi ham 1921 yil fevralida bekor qilindi. Angliya Afg'onistondan tashqari, Turkiya bilan Eronning mustaqilligini ham e'tirof qilishga majbur bo'ldi.

Lloyd Jorj hukumatining ichki va tashqi siyosati, xususan Irlandiyadagi voqealar mamlakatda norozilikni kuchaytirdi. tashqi siyosatning muvaffaqiyatsizliklari va mustamlaka masalalarida boshqa davlatlarga yon berish 1922 yil oktabrida konservatorlarni L.Jorj boshchiligidagi liberallar bilan aloqani uzishga majbur etdi, hamda 1922 yil oktabrida Bonar Lou boshchiligidagi va 1923 yil mayida Stenli Bolduin boshchiligidagi konservator hukumatlarining tuzilishiga olib keldi.

Angliya 1919-1920 yillarda vujudga kelgan imperialistik Versal sistemasining asosiy tashkilotchilaridan biri bo'ldi. Angliya Parij sulh konferensiyasining tor doiradagi kengashlarida (masalan To'rtlar kengashida) aktiv qatnashdi.

Angliya 1919 yilgi Parij konferensiyasida tashkil topgan Millatlar Ittifoqining boshliqlaridan biri bo'lib qoldi.

Osiyo va Janubiy Amerika bazalari uchun, jahonda hukmronlik qilish uchun Angliya bilan AQSH o'rtasidagi ziddiyat, Tinch okean zonasi va Uzoq sharqda Angliya bilan Yaponiya o'rtasidagi ziddiyat, Yevropada va Yaqin Sharqda gegemonlik qilish uchun Angliya bilan Fransiya o'rtasidagi kurash keskinlashdi. Angliya, ayniqsa, urushdan keyingi yillarda Yevropaning Sharqi va Janubi-Sharqida Fransiya pozitsiyasining kuchayishiga, Fransiya boshchiligidagi Chexoslovakiya, Ruminiya va Yugoslaviyadan iborat Kichik Antantaning tuzilishiga e'tiborsiz qaray olmas edi, albatta.

AQShdan olingan qarzlar masalasida ham Angliya bilan AQSH o'rtasidagi munosabatlar jiddiy tus oldi. AQSH qarzlarning Angliya uchun ancha og'ir bo'lgan shartlarda to'lashini talab qildi. Nihoyat, 1923 yil fevralida ikki o'rtada bitim tuzilib, Angliyaning AQShdan olgan qarzlari 30% kamaytirildi va Angliya qarzlarning qolgan qismini 62 yil mobaynida to'lash majburiyatini oldi.

2-S. Kapitalizmning qisman stabillashuvi yillarida Angliya

1924 yildan boshlab ko'pgina kapitalistik mamlakatlarda, shu jumladan Angliya xalq xo'jaligida ham qisman stabillashuv davri boshlandi. Lekin Angliyadagi stabillashuv juda bo'sh va qisqa stabillashuv edi. Uning iqtisodiyoti asosan turg'unlik holati bilan xarakterlandi; u AQSH va hatto Fransiyadan ham ancha orqada qolib ketgan edi. Turg'unlik holati ko'proq metallurgiya, ko'mir, to'qimachilik va kemasozlik sanoatlarida ro'y berdi. Hatto 1929 yilga kelganda ham Angliyaning sanoat mahsuloti 1913 yildagi darajaning 99,1% ini tashkil etdi. Ishsizlar 1 mln. kishidan ortiq edi, tashqi savdoda ham Angliya hissasi kamaya bordi, jahon bozori uchun kurashda AQSH va Yaponiyadan tashqari, tiklanib kelayotgan Germaniya ham

Angliyaga raqobatchi bo'lib qolmoqda edi. Angliya hukmron doiralari xo'jalikdagi turg'unlik holatidan chiqish va iqtisodiyotda barqaror stabilashuvga erishishga barcha choralar bilan urindilar. Bolduin Buyuk Britaniya sanoatini surunkali xastalik-ishsizlik va korxonalarining to'la quvvat bilan ishlamasligidan xolos etmoqchi bo'ldi. Shu maqsadda erkin tijoratni bekor qildi va milliy iqtisodiyotni himoya qilish maqsadida bir qator boj soliqlari joriy etdi. Ammo bu choralar foyda bermadi va ingliz iqtisodiyotidagi turg'unlik 1929 yilgacha davom etdi. Buning ustiga Angliya 1923 yil oxiriga kelib yana iqtisodiy jihatdan boshi berk ko'chaga kirib qoldi. Birorta ham partiya undan chiqish yo'lini topa olmadi. Konservatorlarning boj siyosati ham ko'pchilik siyosiy arboblarning tomonidan rad etildi. Britaniya saylovchilari ham bu siyosatni rad etdilar va 1923 yil dekabrda bo'lib o'tgan saylovlarda konservatorlar parlamentdagi nisbatan ko'pchilik mavqeini boy berdilar. Liberal partiya endilikda muxolif partiya rolini bajara olmas edi. Ikki partiyali tizimda uning o'rnini egallaydigan yangi kuch zarur edi. Qirol Georg Beshinchi 1923 yil 23 dekabrda Leyborist partiyasi rahbari **Ramzey Makdonaldga** Angliya tarixida birinchi marta leyboristlar hukumatini tuzishni topshirdi.

1924 yil yanvarida leyboristlar rahbari Ramzey Makdonald boshchiligidagi yangi, birinchi leyboristlar hukumati "ishchilar hukumati" tuzildi. Bu hukumat "ishchilar hukumati" deb atalgan bo'lsada, haqiqatda hukmron burjuaziya manfaatini ko'zlab siyosat yuritdi.

Leyboristlar hukumati ochiqdan-ochiq korxona egalarini yoqlab chiqdi, mustamlakachilik tarafdori bo'lib ish ko'rdi. "Ishchilar hukumati"ning siyosati amalda konservatorlar hukumatining siyosatidan farq qilmadi. Ishchilarning noroziligi kuchaya bordi. O'ziga-o'zi isnod keltirgan "ishchilar hukumati" 1924 yil oktabr oxiridayoq (hukumatning tuzilganiga bir yil to'lmay turib) iste'fo berishga majbur bo'ldi. 1924 yil 29 oktabrda yangi parlament saylovlarini o'tkazdi. Konservatorlar parlamentda 413 ta leyboristlar 151 ta va liberallar 40 ta deputatlik mandatiga ega bo'ldilar. 1924 yil noyabr boshida Bolduin boshchiligidagi konservatorlar hukumati tuzildi va mamlakatni 1929 yilgacha boshqardi.

Iqtisodiyotdagi turg'unlik hamon bosh muammo bo'lib qolmoqda edi. Ishbilarmonlar va siyosiy arboblarning qachonlardir jahon bozorida Britaniya hukmronligining asosi bo'lgan, hamda Britaniya sanoatining yuksak foyda olishini ta'minlagan tijorat erkinligini tiklashni talab eta boshladilar. Ammo buning uchun, eng avvalo, ingliz valyutasining (funt sterling) oltin asosini yaratish lozim edi. Faqat shunday tadbirgina ingliz pul tizimining oldingi barqarorligini tiklashi mumkin edi. Ammo hukumat boshqa mamlakatlarning pul birliklariga nisbatan funtning qiymatini yuksak darajada belgilaganligi tufayli ingliz mahsulotlarining narxlari keskin oshib ketdi, natijada ingliz mahsulotlari raqobatga bardosh berolmaydigan bo'lib qoldi. Bu esa turg'unlikni yanada kuchaytirdi va ishsizlikni keskinlashtirdi.

Ingliz sanoatchilari ko'pgina salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin bo'lgan eng so'nggi choraga qo'l urdilar-ishchilarning usiz ham past darajada bo'lgan ish haqini qisqartirishga qaror qildilar. Bunga javoban **Tred-yunionlar Bosh kengashi** (ingliz kasaba uyushmalarining rahbar organi) barcha ishchilarni yalpi ish tashlashga chaqirdi. 1926 yil 4 mayda Angliyada ishchilarning yalpi ish tashlashi boshlandi. Sanoatning ish tashlagan sohalarida faoliyat tamomila to'xtadi.

Ishchilar o'z harakatlarini g'alabaga qadar davom ettirishga rozi edilar. Ammo ularning yetakchilari - Leyboristlar partiyasi ijroiya qo'mitasi va Tred-yunionlar Bosh kengashi kurash eng qizigan paytda-1926 yil 12 mayda uni to'xtatishga qaror qildilar.

Ishchi tashkilotlarining rahbarlari ishchilarning mag'lub bo'lishidan ko'ra, ularning g'alaba qozonishidan ko'proq qo'rqardilar. Chunki bunday kurashning siyosiy nizoga aylanib ketishidan nihoyatda cho'chirdilar. Kasaba uyushmalari rahbarlari Britaniya ijtimoiy-siyosiy tizimining tarkibiy qismiga aylangan va bu tizimni saqlash, Britaniya iqtisodiyotining barqarorligini ta'minlash borasida ko'proq tashvishlanardilar.

Bolduin hukumati tomonidan 1925 yilda moliya reformasi o'tkazilib qadrsizlanib ketgan pul (funt sterling)ning oltin standarti (banknotni oltinga tenglashtirish va oltinga almashtira olish) tiklandi.

Konservatorlar hukumati 1925 yil oktabrida Lokarno bitimlarini tuzishda, Germaniya agressiyasini Sharqqa qaratish uchun zamin hozirlashda faol qatnashdi. Angliya "Daues plani"ga ko'ra, Germaniya harbiy sanoatining tiklanishiga katta yordam qilib turdi va yangi "Yung plani"ni qabul qilishda ishtirok etdi.

Jahon bozori, xom ashyo manbalari va chetga kapital chiqarish obyektlari uchun kurashda, ayniqsa Angliya-Amerika ziddiyati keskinlashdi. Iqtisodiy va siyosiy jihatdan ancha rivojlangan Buyuk Britaniya dominionlari Kanada, Avstraliya va boshqalar o'zlariga Angliya bilan teng iqtisodiy huquqlar berilishini talab qildilar. Ingliz burjuaziyasi yon berishga majbur bo'ldi. 1926 yili imperiya konferensiyasida dominionlar Britaniya imperiyasi tarkibida qolgani holda ichki va tashqi siyosatda mustaqillikka erishdilar va Angliya bilan yuridik jihatdan tenglashdilar.

1931 yilda parlament akti (Vestministr statuti) bilan kuchga kiritildi va Britaniya mustamlaka imperiyasi "Britaniya millatlar hamkorligi" degan nom oldi.

3-§. Jahon iqtisodiy inqirozi yillarida Angliya

Inqiroz Angliya iqtisodiyotini yanada orqaga surib yubordi. 1930 yildagi sanoat mahsuloti 1929 yildagi ko'rsatkichning 92,4% ga, 1931 yilda 83,8% ga, 1932 yilda esa 82% ga tushib qoldi.

Ko'mir, mashinasozlik, kemasozlik va boshqa ba'zi sanoat tarmoqlarining mahsuloti 40% ga kamayib, 1897 yildagi darajaga tushib qoldi. Angliyaning jahon savdosidagi roli ham pasaydi. Tashqi savdoning hajmi ikki hissa kamaydi. Angliyani an'anaviy bozorlardan siqib chiqarish jarayoni avj oldi. Inqiroz natijasida juda ko'p mamlakatlar kasodga uchrab, Angliya mahsulotlarini rad etdilar. Bir vaqtning o'zida xorijiy raqiblar Angliyani hatto uning ichki bozori ham siqib chiqarishga urindilar. Yevropa va AQShda ro'y bergan moliyaviy inqiroz, Markaziy Yevropadagi banklarning kasodga uchrashi Angliya pulining qadrsizlanishiga olib keldi va uning oltin bilan ta'minlanishiga barham berdi.

Angliya iqtisodiyotining eng zaif joyi ishsizlik bo'ldi. 1929-1933 yillardagi inqiroz ishsizlikning Angliya tarixida bo'lmagan darajada o'sishiga olib keldi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 1930 yilda barcha ishchilarning 17% i ishsiz edi, 1931 yilda ishsizlik darajasi 23% ga, 1932 yilda esa 25% ga o'sdi. 1932 yilda har to'rtinchi ishchi ishsiz edi. Iqtisodiy inqirozning boshlanishi leyboristlar partiyasining yana hukumat tepasiga kelish vaqtiga to'g'ri keldi. 1929 yil mayidagi parlament saylovlarida konservatorlar hukumatining ichki va tashqi siyosatidan norozi bo'lgan ishchilar leyboristlarga ko'p ovoz berdilar. 1929 yil iyunida R.Makdonald (1866-1937 yy) boshchiligidagi leyboristlarning ikkinchi hukumati tuzildi.

R.Makdonald realist siyosatchi bo'lib, Angliyaning sobiq buyukligini qaytarishni xomxayol deb hisoblardi. Biroq u Angliyani bostirib kelayotgan halokatdan qutqarishga va mamlakatning jahondagi mavqeini eng avvalo muvaffaqiyatli diplomatik kombinatsiyalar uyushtirish hamda Millatlar Ligasidan foydalanish yo'li bilan saqlab qolishga urindi.

Biroq R.Makdonald boshchiligidagi ikkinchi leyboristlar hukumati qiyin ahvolda qoldi. Bir tomondan, ish berish va yashash sharoitlarini yaxshilashni talab qilgan mamlakat aholisiga berilgan va'dalarni bajarish, ikkinchi tomondan esa, davlat ijroiya hokimiyati vazifalarini bajarish va mamlakatni bosib kelayotgan iqtisodiy inqirozdan saqlab qolish lozim edi. Leyboristlar o'z majburiyatlarini qisman bajardilar. Ko'mir konlarida 7 soatlik ish kuni joriy etildi. 1930 yilda ishsizlik bo'yicha sug'urta to'g'risidagi yangi qonun qabul qilindi, ishsizlik bo'yicha nafaqalar olish muddati 3 oydan 12 oygacha uzaytirildi. Ishsizlikka qarshi kurash bo'yicha maxsus vazirlik hamda ishsizlar uchun ish qidirish bo'yicha maxsus qo'mita tashkil qilindi. Bu choralar ishsizlarning ahvolini ma'lum darajada yaxshilashga xizmat qildi.

Biroq, umuman olganda, ikkinchi leyboristlar hukumati inqiroz og'irligining katta qismini mamlakat mehnatkashlari yelkasiga yuklashga urindi. 1930 yil bahorida Angliyani yana sinfiy kurash to'foni larzaga soldi. Butun mamlakat ishsizlarning harakatida ishtirok etdi. 1930 yil martdan aprelgacha ishsizlar va ochlarning ommaviy yurishi bo'lib o'tdi va u Londonga

Gayd-parkdagi ulkan namoyish bilan yakunlandi. Angliyada vaziyat kundan-kunga keskinlashib borardi. Ishlab chiqarishda ommaviy ish tashlashlar boshlandi, tadbirkorlar bunga javoban ommaviy ishdan bo'shatishlar bilan javob berdilar. Faqat to'qimachilik sanoatida 250 ming ishchi, temir yo'llar, junni qayta ishlash sanoatining yuz minglab ishchilari ishdan bo'shatildi.

Leyboristlar hukumati moliyaviy inqirozdan qutulish uchun 1931 yildan ijtimoiy extiyojlarga oid xarajatlarni yanada qisqartirish va egri soliqlarni oshirishni mo'ljalladi. Bu esa leyboristlar partiyasining o'zida ham norozilik tug'dirdi, natijada partiya inqirozi, ixtilof va ajralish ro'y berdi. Leyboristlarning ikkinchi hukumati 1931 yil avgustida iste'fo berdi. Angliya hukmron doiralari yirik siyosiy nayranglarni amalga oshirishga ahd qildilar. 1931 yil avgustida R.Makdonald hukumati iste'foga chiqdi, biroq ertasi kuniyoq qirol Georg U (1865-1936, 1910-1936 yillarda hukmronlik qilgan) unga hamkorlik asosida konservatorlar ishtirokida yangi hukumat tashkil qilish vazifasini topshirdi. Hukumatdagi ko'pchilik o'rin konservatorlarga tegishli edi, biroq Bosh vazir kursida Makdonald qoldirildi. Bu yangi siyosiy xiyla-nayrang bo'lib, unda leyboristlar rahbarlik, konservatorlar esa hukmronlik qilardilar.

Yangi hukumat mehnatkashlarning ijtimoiy imtiyozlariga qarshi yoppasiga xujum boshladi. Ishsizlik bo'yicha nafaqa 10% ga pasaytirildi. O'ng leyboristlar, konservatorlar va liberallar bilan birlashib, Makdonald boshchiligidagi Reaksion "milliy hukumat" 1935 yil yozigacha hokimiyat tepasida turdi.

Milliy koalitsiya hukumati Britaniya iqtisodiyotini oyoqqa turg'izish bo'yicha qizg'in ishga kirishdi. 1931-1932 yillarda parlament Angliyaga olib kiriluvchi barcha turdagi mahsulotlarga narxining kamida 10% miqdorida bojxona solig'i belgiladi. Angliya tarixda birinchi marta erkin savdo tamoyillariga qarshi borib, milliy iqtisodiyotni himoya qilish (proteksionizm) yo'lini tutdi.

Angliya "Milliy hukumat" tashqi siyosatida AQSH va Fransiya hukumatlari bilan birgalikda Yaponiyaning Manchjuriyani bosib olishiga, Germaniyada hokimiyatning gitlerchilar qo'liga o'tishiga, urush o'choqlari va tugunlarining paydo bo'lishiga, urush olovining kuchayib borishiga yo'l qo'ydi va fashist agressorlarni rag'batlantirdi. 1933 yilda Angliya, Fransiya, Germaniya va Italiya o'rtasida "To'rtlar ahdnomasi" tuzildi va fashist agressorlar bilan til biriktirildi.

Ingliz mustamlakachilari o'z mustamlakalarini, ayniqsa, Hindistonni tobora ko'proq talashga zo'r e'tibor berib keldilar. Ular Hindistonga chiqariladigan ingliz sanoat tovarlarining narxini pasaytirmaslikka, Hindiston qishloq xo'jalik mahsulotlarini arzon bahoda olib turishga intildilar (1929-1933 yillarda ingliz sanoat tovarlarining narxi faqat 20-25% pasaygan bo'lsa, Hindiston oziq-ovqat mahsulotlarining 2-3 baravar pasayib ketdi). Inqiroz yillarida Angliya kapitalining Hindistonga chiqarilishi 3 marta ko'paydi, og'ir shartlar bilan zayomlar berildi. Hind aholisi haddan tashqari talanib, Angliyaga ko'plab oltinlar keltirildi. Shu bilan birga Angliya Hindiston milliy kuchlarining jipslashuviga yo'l qo'ymaslik maqsadida hamda qonli terror va jazo-ta'qib siyosatini kuchaytirdi. Unga ko'ra Germaniyaga Angliya harbiy-dengiz flotining 1/3 ga teng harbiy-dengiz floti tuzishga ruxsat etildi. Bunday flotni tuzib Germaniya butun Boltiq dengizida xo'jayinga aylanardi. Angliya-Germaniya bitimi Versal bitimini buzardi, biroq buzg'unchi bu safar Angliya bo'lib, u Germaniyaning bunday buzg'unchiliklariga qarshi norozilik bildirishga ma'naviy huquqni yo'qotardi. Fashistlar tomonidan Reyn hududining bosib olinishini Angliya jim turib kuzatdi. Bu Germaniyaga qilingan tajovuzni davom ettirish haqida qilingan taklifdan boshqa narsa emasdi. Angliya Ispaniya respublikasi taqdirida ham salbiy rol o'ynadi. 1936 yil avgustida Londonda Angliya hukumatining tashabbusi bilan Yevropa mamlakatlari Ispaniyaga qurol-yarog' (shu jumladan samolyotlar)ni eksport va tranzit qilishni taqiqlovchi Ispaniya ishlariga aralashmaslik to'g'risidagi bitimni imzoladilar. Bu taqiqning bajarilishini kuzatish va nazorat qilish uchun ingliz lord Plimut rahbarligida Aralashmaslik qo'mitasi tuzildi. Bu qo'mita fashist davlatlariga Ispaniya respublikasini yo'q qilishga ko'maklashdi. U Ispaniyada respublika uchun kurashayotgan respublikachi va demokratlar uchun qurol-yarog' va hatto oziq-ovqat keltirilishining yo'lini to'sdi va fashist isyonchilarini ta'minlash uchun barcha yo'llarni ochib berdi. Politsiya va qo'shinlar bilan to'qnashuvlar bo'lib,

ularda yuzlab namoyishchilar o'ldirildi. Mamlakatda kasaba uyushmalari harakati faollarining ishi bo'yicha jarayon o'tkazildi. Ularga juda og'ir jazolar belgilandi - ayrimlari umrbod katorga ishlariga, boshqalar esa 12 yil qamoq jazosiga hukm qilindi. Shunday qilib Angliya hukumati o'z mustamlakalarini tark etish niyati yo'qligini bildirdi.

Angliya hukmron doiralari dominionlardagi aholiga nisbatan bir qancha yon berishlarga majbur bo'ldi. 1931 yilda Angliya parlamenti uning biror-bir qonuni dominionlarga ularning rasmiy rozilgisiz tadbqiq etilmasligini ko'zda tutuvchi xujjatni qabul qildi. Dominionlar qabul qilgan qarorlar endi. Angliya parlamenti tomonidan tasdiqlanmasdi. Angliya parlamentining bu xujjati Vestministr nizomi nomini oldi. U Angliya parlamentining mustamlaka va dominionlarda qabul qilingan qonunlarni bekor qilish huquqiga barham berdi. Vestministr nizomi dominionlarning mustaqilligini jilovlovchi so'nggi huquqiy cheklovlarni yo'q qildi (Kanada, Yangi Zelandiya, Avstraliya). Shu bilan birga, Britaniya hukumati mustamlaka va dominionlarning Angliyaga qaramligini mustahkamlashga urindi. Ular Angliyaning sanoat ustaxonasi bo'lib qolishlari lozim edi.

4-§. Ikkinchi jaxon urushi arafasida Angliya

Iqtisodiy va siyosiy sohalarda ko'rilgan tadbirlar hamda sanoatning rivojlantirilishi natijasida 1934 yildan boshlab umuman Angliya sanoat ishlab chiqarishi bir muncha o'sdi va 1929 yildagi darajaga yetib undan bir oz oshdi. Bu esa aviatsiya ximiya va boshqa bir qator sanoat tarmoqlarining yuksalishi hisobiga bo'ldi. Tashqi savdo aylanmasi ko'paydi. Lekin mamlakat ilgari vaqtlardagidek, yangi iqtisodiy yuksalish davriga kirolmadi. Urush xavfiga qarshi, tinchlik uchun bo'lgan umumdemokratik harakat sezilarli darajada rivojlana bordi. 1935 yilda "tinchlik plebissiti" o'tkazildi. Ovoz berishda 11,5 million kishi qatnashdi. Plebissit ishtirokchilarining mutloq ko'pchiligi kollektiv xavfsizlik uchun, qurolsizlanish va agressiv davlatlarga qarshi ta'sirli sanksiya qo'llanish uchun ovoz berdi. Hukmron doiralar plebissit natijalarini hisobga olib, hukumat tarkibini qaytadan tuzdilar.

"Milliy hukumat"ning bosh ministri Makdonald 1935 yil iyunida iste'fo berdi va konservatorlar lideri Bolduin bosh ministr qilib tayinlandi. 1935 yil noyabrida navbatdagi parlament saylovida Bolduin boshliq konservatorlar xalq xo'jaligini tiklash va rivojlantirish, kollektiv xavfsizlik siyosatini yuritish kabi va'dalar berish yo'li bilan g'alaba qildilar. Konservatorlar keng jamoatchilik oldida o'z pozitsiyalarini mustahkamlash uchun 1937 yilga qadar milliy leyboristlar va milliy liberallar bilan bir blokda bo'ldilar va Bolduin boshchiligida ikkinchi konservativ "Milliy hukumat" tuzdilar. 1937-1940 yillarda Nevil Chamberlen ushbu konservativ hukumat tepasida turdilar.

Bolduin va Chamberlen boshliq konservativ xukumatlari tashqi siyosatda leyboristlar partiyasining qo'llab-quvvatlashi bilan Angliya-Germaniya, Angliya-Yaponiya ziddiyatlarini SSSR hisobiga bartaraf qilishga intildi. Boltiq dengizida Germaniyaning pozitsiyasini kuchaytirish maqsadida 1935 yil 18 iyunda Angliya Germaniya bilan dengiz bitimini tuzdi.

Angliya AQSH va Fransiya bilan birgalikda "aralashmaslik" siyosati niqobi ostida ish ko'rib, fashist davlatlarning agressiyasini rag'batlantirdi, 1935-1936 yillarda Italiyaning Xabashistonga qarshi, 1936-1939 yillarda Germaniya va Italiyaning Ispaniyaga qarshi intervensiya qilishlariga va 1937 yilda Yaponiyaning Uzoq Sharqda Xitoyga qarshi urush ochishi uchun keng imkoniyat berdi. Angliya, AQSH va Fransiya g'arbda (mavjud holatni) saqlab qolish. fashizm agressiyasini Sharqqa-SSSRga qarshi qaratish uchun zo'r berib urindilar. 1937 yil noyabrida Angliya hukumati lord Ralifaksni Germaniyaga yuborib, SSSRga qarshi Angliya, Germaniya Italiya va Fransiyadan iborat ittifoq tuzishni Gitlerga taklif qildi. Shu bilan birga Gitlerga Germaniyaning Dansigni, Avstriya va Chexoslovakiyani bosib olishga Angliyaning rozi ekanligini bildirdi. Angliyaning roziligi bilan Germaniya 1938 yil 12 martida Avstriyani bosib oldi.

N.Chamberlen fashist agressor davlatlari bilan juda yaqinlashish natijasida konservatorlar partiyasida va hukumatda oppozitsiya vujudga keldi. Oppozitsiya tashqi siyosatda fashist

agressorlariga qarshi, mamlakatning mudofaa qobiliyatini oshirish, ehtiyoj choralari ko'rishni talab qildi. Oppozitsiya tashqi siyosat masalalari munosabatlari bilan vujudga kelgan edi. SSSRga qarshi kurash masalasida esa ularning hammasi bir maslakda edi. Oppozitsiya munosabati bilan hukumat tarkibida o'zgarishlar bo'lib turdi. (1937 yil mayida bosh ministr Bolduin o'rniga Chamberlenning kelishi, 1938 yil fevralida tashqi ishlar ministri Iden o'rniga Ralifaksning kelishi va hokazo).

Uch yil davomida N.Chamberlen Gitlerni ko'p sonli yon berishlar yo'li bilan "tinchlantirish" siyosatining tashabbuskori va ijrochisi bo'ldi. N.Chamberlenning siyosiy maqsadi to'rt davlat-Angliya, Germaniya, Italiya va Fransiya o'rtasida bitim tuzishdan iborat edi. Uning fikricha, bunday bitim Yevropaning qolgan qismiga hukmini o'tkazuvchi ittifoqning tuzilishiga olib kelardi. Shu sababli N.Chamberlen hukumatining tashqi siyosati Germaniya bilan murosas yo'llarini izlashdan iborat bo'ldi. N.Chamberlen sharmandali Myunxen kelishuvining bosh mualliflaridan biri edi. Gitler o'zining Chexoslovakiyani to'liq yo'q qilish rejalarini yashirmas va bu bilan Sudet viloyati faqat boshlanishi ekanini uqtirar edi. N.Chamberlen bunga qarshilik bildirmadi va Chexoslovakiya hukumatidan Gitlerning Sudet viloyatini berish to'g'risidagi talabini qondirishni talab qildi.

Angliya hukumati, Chexoslovakiya hukumati bilan nemis fashistlari o'rtasida vositachilik qilish uchun maxsus missiyani Rensimenni Pragaga yubordi. Chamberlenning o'zi esa ikki marta (1938 yil 15 va 22 sentabrda) Germaniyada Gitler huzurida bo'ldi.

1938 yil 29-30 sentabrda Germaniyaning Myunxen shahrida AQShning qo'llab-quvvatlashi bilan to'rt davlat-Germaniya, Angliya, Italiya va Fransiya hukumatlari rahbarlarining kengashi bo'lib, sharmandali bitim tuzildi. Myunxen bitimi Chexoslovakiya xalqiga nisbatan o'ta ketgan xoinlik va katta jinoyat edi.

Ko'p o'tmay Angliya hukumati Germaniya Sharqda Sovet Ittifoqiga qarshi emas, G'arbda Angliya va Fransiya qarshi urush boshlashi mumkinligi to'g'risidagi ma'lumotni qo'lga kiritdi. Bu ma'lumot 1937 yildayoq Gitlerning G'arbda urush boshlash, avval Versal bitimi mualliflari va yirik mustamlakalar egalari bir yoqli qilib, so'ng Sharqqa yuz burish niyatida ekanidan dalolat berardi. Shuning uchun Angliya armiyasini qurollantirishga xarajatlar 1938 yildagiga nisbatan ikki baravar oshirildi. 1939 yil iyunida xarajatlar miqdori yana oshirildi. 1939 yil 15 aprelda Angliya tarixida birinchi marta tinch davrda umumiy harbiy majburiyat joriy qilindi. 1938 yil oxiriga kelib Angliya aviatsiyasi son jihatidan o'sdi va sifat jihatidan Germaniya aviatsiyasidan ustun yangi samolyotlar bilan ta'minlandi.

1939 yil martida N.Chamberlen Polshaga harbiy kafolatlar berilishini ma'lum qildi. Xuddi shunday kafolatni Polshaga Fransiya ham berdi. Bu Germaniya Polshaga xujum qilgan taqdirda Angliya va Fransiya unga barcha, shu jumladan, harbiy vositalar bilan ham yordam ko'rsatishini anglatardi. Shunday kafolatlar Gretsiya va Ruminiyaga ham berildi. Biroq, bu "kafolat"larga juda kam odam ishonardi. N.Chamberlen hanuz Germaniya bilan dunyoni bo'lib olish va Sovet Ittifoqiga qarshi salib yurishi uyushtirish to'g'risida yaxshilikcha kelishish mumkinligiga ishonardi.

1939 yil martida Gitler Germaniyasi Chexoslovakiyaning hamma qismini bosib olgandan keyin Chamberlen hukumati tashqi siyosat va harbiy sohalarida ba'zi tadbirlarni ko'rishga (bir qancha mamlakatlarning ittifoqchisi bo'lishga tayyor ekanligini bildirishga, harbiy xarajatlarni oshirishga, majburiy harbiy ta'limni joriy qilishga) majbur bo'ldi.

1939 yil bahorida Sovet hukumati kollektiv xavfsizlik sistemasi tuzishni hamda bu haqda muzokaralar boshlashni Angliya va Fransiya hukumatlariga taklif qildi. Mazkur hukumatlar bu taklifning xalqaro ta'sir kuchini va fashizmga yon berish siyosatidan mehnatkashlar ommasining noroziligi kuchayib borayotganligini hisobga olishga majbur bo'ldilar. Oldin (mart-iyulda) diplomatik yo'l bilan siyosiy muzokaralar so'ngra (avgustda) Moskvada harbiy muzokaralar bo'lib o'tdi. Ayni bir vaqtda Angliya va Fransiyaning ig'vosi natijasida Polshaning o'sha paytdagi reaksion hukumati SSSR bilan hech qanday bitim tuzmasligini va fashist agressiyasiga qarshi kurashda sovet qo'shinlarining boshqa mamlakatlarga yordam qilishi uchun Polsha xududlaridan o'tkazmasligini bildirdi. Muzokaralar natijasiz tugadi. Shundan so'ng 1939 yil

avgustida Germaniyaning taklifiga muvofiq Sovet Ittifoqi Germaniya bilan xujum qilishmaslik to'g'risida shartnoma tuzdi.

Keskinlashib borayotgan xalqaro ahvol Angliya, Fransiya va AQSH hukmron doiralari umid qilganidek rivojlanmadi. 1939 yil 1 sentabrda Fashistlar Germaniyasi Polshaga xujum qildi. Shundan keyin Angliya va Fransiya hukumatlari xalq ommasi oldida uzil-kesil sharmanda bo'lmalik uchun va Germaniya dunyoni qaytadan ta'sir doiraloriga bo'lish to'g'risida Angliya bilan kelishmay, Yevropa va jahonda o'z hukmronligini o'rnatish yo'liga butunlay o'tib ketganligi uchun 1939 yil 3 sentabrda Angliya va Fransiya, Germaniyaga urush e'lon qildilar.

Mavzu: 1918-1939 YILLARDA FRANSIYA

1-§. Urushdan keyingi iqtisodiy va siyosiy inqiroz yillarida Fransiya

Urush 10 ta sanoat departamentini va ko'pgina qishloq rayonlarni butunlay vayron qildi. Urushda 1 million 400 ming kishi halok bo'ldi. Urush xarajatlari natijasida ko'rilgan zararining umumiy summasi 200 milliard frankka yetdi. Urush sutxo'r imperiazizm mamlakati bo'lgan Fransiyaning moliyaviy quvvatiga katta zarba berdi. Fransiya AQSH dan 4 milliard dollar va Angliyadan 650 million funt sterling qarzdor bo'lib qoldi. Fransiya shunday katta zarar evaziga o'z ittifoqchilari bilan birgalikda Germaniya va uning ittifoqchilari ustidan g'alaba qozondi. U Germaniyadan Elzas-Lotaringiyani qaytarib oldi, Marokash ustidan protektoratini mustahkamladi, Turkiya mustamlakalari bo'lgan Suriya va Livanni idora qilish mandatini oldi. Germaniyaning Afrikadagi mustamlakalari Togo va Kamerunni Angliya bilan bo'lishib oldi. Fransiya Yevropada o'z gegemonligini o'rnatishga zo'r berib urindi. U 1919 yilgi Parij konferensiyasida Saar oblastining o'ziga berilishini, Fransiya "himoyasida" Reyn avtonom davlatini tuzishni, Bavariyaga mustaqillik berishni, Polsha territoriyasini kengaytirishni talab qildi. Fransiyaning bundan ko'zlagan maqsadi Germaniyani ancha zaiflashtirish, Bavariyani o'ziga bo'ysundirish va Polshani kuchaytirib, undan o'z maqsadlari yo'lida foydalanish edi. Biroq, bunga Angliya va AQSH davlatlari rozi bo'lishmadi. Konferensiya qaroriga binoan, urushda ko'p zarar ko'rgan Fransiya Saar oblasti toshko'mirini olib turishga ijozat berildi, lekin uning Germaniyadan oladigan reparatsiya hissasi tezda aniqlanmadi, ko'p tortishuvlardan keyin, 1920 yilga kelib u reparatsiyaning 52%ini (8 mlyard oltin marka) olish huquqiga ega bo'ldi. Ammo Fransiya oladigan summasi uning AQShdan olgan qarzlariidan oz edi. Shunga qaramasdan, urushdan keyingi yillarda Fransiyaning janubiy va g'arbiy-janubiy tomonlarida yangi sanoat rayonlari paydo bo'ldi. Vayron bo'lgan joylar tiklana boshladi. Ichki bozor kengaydi. Elzas-Lotaringiyaning Fransiya qaytarilishi va Saar ko'mirining Fransiya qaytarilishi bilan unda muhim xom ashyo manbalari vujudga keldi. Metallurgiya, avtomobil, aviatsiya, to'qimachilik va ximiya sanoatlari rivojlandi. Elzas va Lotaringiyaning qo'shib olinishi natijasida fransuz metallurgiya sanoatining quvvati 1,5 marta oshdi. Temir rudasi qazib olish bo'yicha Fransiya Yevropada birinchi o'ringa chiqdi. Saar ko'mir havzasidan foydalanish huquqi uni 15 yil davomida ko'mir bilan ta'minlar edi. Nihoyat, Germaniyadan olingan 8 milliard marka tovon puli sanoatni texnologiya jihatidan to'la qayta qurish imkonini berdi. Ayniqsa, og'ir sanoat, harbiy sanoat taraqqiy qildi. Ishlab chiqarish va kapital konsentratsiyasi kuchaydi. Bank va davlat apparati bilan bog'liq bo'lgan gigant monopolistik birlashmalar ("200 oila") kuchayib ketdi. Fransuz bankining roli g'oyat oshdi. Qudratli banklar paydo bo'ldi, "Mirabo", Rotshildlar oilasi, aka-uka Lazarlar, Vorms, Malle va boshqalarga qarashli eng yirik banklar o'z sarmoyalarini ko'paytirdilar, natijada ularning mamlakat hayotiga ta'siri kuchaydi. Sanoatning yetakchi tarmoqlarida "Reno", "Sitroyen", "Pejo", "Simka" kabi ulkan kompaniyalar tashkil topdi. Lekin boshqa sanoat tarmoqlari, ayniqsa, yengil sanoat orqada qoldi va 1939 yilgacha urushdan oldingi darajaga yetolmadi, mayda sanoat korxonalari esa avvalgidek ko'p edi. Jahon miqyosida Fransiya sanoat mahsuloti ishlab chiqarish jihatidan boshqa bir qator yirik kapitalistik mamlakatlardan orqada qoldi. Barcha kapitalistik mamlakatlarning birgalikda olgan umumiy sanoat mahsulotida Fransiyaning hissasi 1913 yilda 7,2% bo'lsa, 1937 yilda 5,1% ni tashkil qildi, xolos. Urush Fransiya qishloq xo'jaligiga og'ir ta'sir qildi. Aholining anchagina qismi (1936 yilgi ma'lumotiga ko'ra 47,6%i) qishloq aholisi edi. Urush dehqonlar o'rtasida tabaqalanishni kuchaytirdi, vayron bo'lgan mayda xo'jaliklar hisobiga katta yer egaligi o'sdi, yer maydonining ko'p qismi yer egalari qo'lida to'plandi. 1917 yil noyabridan beri mamlakatni Klemanso boshliq radikallar hukumati boshqarib keldi. Radikallar partiyasi mayda va o'rta burjuaziyaga tayanuvchi partiya bo'lib, uning lideri Klemanso monopolialarning odami edi. U mamlakatda yarim harbiy-diktatorlik rejimini o'rnatdi. Keyinchalik, sharoitga qarab Fransiya turli burjua partiyalaridan iborat "milliy blok" va "so'l blok"lar tuzildi. "Milliy blok" 1919 yilda inqilobiy harakat yuksalib borayotgan sharoitda tashkil topdi. Eng reaksion burjua partiyalari

Respublikachilar federatsiyasi, Respublikachi-demokratik ittifoq va boshqa partiyalar 1919 yil noyabrida navbatdagi parlament saylovlarida o'ta ketgan reaksioner Puankare va Milyeran boshchiligida "Milliy blok" tuzdilar, hamda bunga radikallar radikal-sotsialistlar partiyasini ham jalb qildilar. "Milliy blok"ning maqsadi inqilobiy harakatni bostirish, Germaniyaning urushda mag'lubiyatga uchraganligidan ko'proq foydalanib, Yevropada Fransiya gegemonligini o'rnatish, mustamlakalarni yanada kengaytirish va ularni talash edi. "Milliy blok" mayda va o'rta burjuaziya saylovchilarini inqilob xavfi bilan qo'rqitib va shovinistik kayfiyatni kuchaytirib, ularni ancha chalg'itdi; Germaniya bilan tuzilgan Versal sulhi Fransuz aholisi uchun juda manfaatli bo'ladi deb avradi. "Milliy blok" saylovlarda ko'p ovozga va deputatlar palatasi mandatlarining 2/3 qismiga ega bo'lib, katta g'alabaga erishdi. 1920 yil yanvaridan 1924 yil mayigacha mamlakatni "Milliy blok" hukumati (Milyeran, Ley, Brian, Puankare hukumatlari) boshqardi. Ko'p o'tmay Milyeran prezidentlik lavozimini egalladi.

Antanta bilan Germaniya va uning sobiq ittifoqchilari bo'lgan Avstriya, Bolgariya, Vengriya va Turkiya o'rtasidagi sulh shartnomalarining hammasi 1919-1920 yillarda Fransiyada Parij yonidagi joylar va saroylarda (Versal, Sen-Jermen, Neyi, Trianon, Sevr)da imzolandi. Ushbu shartnomalarda rasmiylashtirilgan xalqaro munosabatlar tizimi Versal sistemasi nomini oldi. Fransiya Angliya bilan birgalikda 1919 yilgi Parij konferensiyasida tashkil topgan xalqaro tashkilot Millatlar ittifoqida yetakchi rol o'ynadi. Germaniya bilan Versal sulh shartnomasini tuzishda Fransiya Yevropada gegemonlik pozitsiyasini egallashni va Germaniyani ancha zaiflashtirishni mo'ljallagan edi. Ammo yuqorida aytilganidek, Angliya va AQSH bunga yo'l qo'ymadi. Shunga qaramay, Fransiya Elzas-Lotaringiyani Germaniyadan qaytarib olishdan tashqari, Germaniya va Turkiya mustamlakalari hisobiga o'z mustamlakalarini kengaytirdi, yaqin Sharqda Turkiya mustamlakalaridan Suriya va Livanni egalladi. U Turkiyaning O'rta Yer dengizi sohilidagi Aleksandrettani, Klikiyani, Suriya chegarasi yaqinidagi bir qator rayonlarni bosib oldi. Fransuz harbiy kemalari boshqa davlatlarning harbiy kemalari bilan birga Istanbul yonida, Dardanel va Bosfor bo'g'ozlarida suzib yurdi, Fransiya ham Turkiyada o'z ta'sir doirasini kengaytirishni mo'ljalladi. Lekin fransuzlar turk xalqining jiddiy qarshiligiga uchradi. 1919 yildayoq Klikiyada turk partizanlari fransuz bosqinchilariga qarshi chiqdi. 1921 yil yozida turk qo'shinlarining ingliz-grek bosqinchilari ustidan qozongan g'alabasi Fransuz agressorlarini shoshirib qo'ydi va o'sha yilning oktabrida Turkiya hukumati bilan separat sulh shartnomasi tuzishga majbur qildi. Klikiyadan Fransuz qo'shinlari olib chiqib ketildi. Klikiya Turkiya tarkibiga kirdi. Aleksandrettada Fransiya imtiyozlari cheklab qo'yildi. Turkiya hukumati Suriyaga yaqin chegara rayonlariga yaqin ayrim yerlarni Fransuz kompaniyasiga konsepsiyaga berishga rozi bo'ldi. 1921 yilda Fransiya Polsha bilan, 1921-1922 yillarda Chexoslovakiya, Yugoslaviya va Ruminiya bilan ittifoqchilik bitimlarini va Fransiya ta'siri ostida keyingi uch davlatdan iborat bo'lgan ittifoq tuzdi. Bu bitimlar va uch davlat ittifoqidan iborat bo'lgan Kichik Antantaning tuzilishi avvalo Sovet Rossiyasiga, so'ngra Germaniyaga qarshi qaratilgan va Fransiyaning Yevropada gegemonlik maqsadlariga qaratilgan edi. Bunga javoban Germaniya bilan Rossiya 1922 yilda, Genuya konferensiyasi paytida diplomatik munosabatlar o'rnatish haqida shartnoma tuzdi. Bu ahdlashuv keng miqyosli iqtisodiy munosabatlar o'rnatish yo'lini ochar edi. Shunday qilib, Germaniya birinchi bo'lib Rossiyani iqtisodiy jihatdan qamal qilish haqidagi kelishuvni buzdi. Germaniya va Rossiya o'rtasidagi shartnoma Genuya yaqinidagi Ropallo degan joyda imzolangani uchun shu nom bilan ataldi. U ikkala mamlakatning ham xalqaro mavqeini mustahkamladi. O'z navbatida Yevropada, shu jumladan Bolqonda gegemonlik qilish uchun urinayotgan AQSH, Angliya va Italiya davlatlari bilan Fransiya o'rtasidagi ziddiyatlar ham kuchayib bordi. Tinch okean va uzoq Sharq rayonlarida Fransiya bilan AQSH va Angliya o'rtasidagi ziddiyat kuchaydi. 1923 yili Fransiyaning ichki va tashqi siyosiy hayotida muhim voqealar bo'lib o'tdi.

1922 yil yozida Buyuk Britaniya va AQSH tomonidan qo'llab-quvvatlangan hamda Rapollo shartnomasidan ruhlangan Germaniya har yilgi tovonni to'lashdan bosh tortdi. Bunga javoban Fransiya, Belgiya va Italiyaning qo'llab-quvvatlashi bilan 1923 yil yanvarida o'z qo'shinlarini Germaniyaning og'ir sanoat markazi bo'lgan Rur oblastiga va Reyn viloyatining bir

qismiga kiritib, bu yerlarni bosib oldi. Ammo Fransiya hukmron doiralarning rejasi amalga oshmadi. Germaniya hukumati da'vati bilan Rur aholisi ishdan bosh tortdi. Fransiya Rur ko'miri butunlay bormay qoldi. Natijada cho'yan va po'lat quyish keskin qisqardi. Fransuz franki kursi tushib ketdi. Rurning bosib olinishi ichki siyosiy inqiroz va xalqaro munosabatlardagi chigalliklar bilan yakunlandi. Rurning okkupatsiya qilinishi va Germaniyada inqilobiy vaziyatning yetilishi AQSH va Angliya davlatlarini bezovta qildi. Ular Yevropada o'z rolini oshirish uchun urinayotgan edilar. AQSH va uning himoyasidagi nemis burjuaziyasi va hukmron doiralari Fransiya oldida taslim bo'lmadi. Moliya qiyinchiliklari natijasida Fransiya AQShdan qarz so'rashga majbur bo'ldi. AQSH qarz berishdan oldin Rurni bo'shatib chiqishni talab qildi. Fransiyaning imperialistik agressiyasi siyosati va Rur avantyurasi shu tariqa mag'lubiyat bilan tugadi.

2-§. Qisman stabillashuv yillarida Fransiya

1924 yildan boshlab boshqa kapitalistik mamlakatlardagi singari Fransiya ham stabillashuv boshlandi. Urushda zarar ko'rgan mamlakat xalq xo'jaligini tiklash, mashina uskunalari yangilash va ayrim strategik ahamiyatga ega bo'lgan qurilishlar boshlandi. 1924-1925 yillarda Fransiya sanoat mahsuloti urushdan oldingi darajadan uzib keta boshladi. 1925 yilda ko'mir qazib chiqarish urushdan ilgari darajaga nisbatan 107 % ga, po'lat eritish bo'yicha 102 % ga yetdi. Ishlab chiqarish va kapitalning konsentratsiyalashuvi kuchaydi. Monopolistlarning foydasi ko'paydi. 1924 yil mayida navbatdagi parlament saylovi arafasida radikal va radikal-sotsialistlar partiyasi boshqa mayda va o'rta burjua partiyalaridan (respublikachi sotsialistlar, mo'tadil antiklerikallardan), sotsialistik partiyadan iborat, "So'l blok" tuzildi. So'l ittifoq o'z dasturida ijtimoiy sohada ijobiy o'zgarishlar qilish, Milliy ittifoqning xalqqa qarshi qaratilgan tadbirlarini bekor qilish, Sovet Ittifoqi bilan diplomatik munosabatlar o'rnatish, Germaniyadan qo'shinlarni olib chiqish va u bilan yarashish, Angliya va AQSH bilan mustahkam aloqalarni tiklashni va'da qilgan edi. Saylovda bu blok g'alaba qozondi, "milliy blok" esa mag'lubiyatga uchradi. Mamlakatda "so'l blok"ning Eduard Errio boshliq hukumati tuzildi. "So'l blok" mamlakatni 1924 yil iyunidan 1925 yil apreligacha boshqardi. Avval boshda Eduard Errio boshchiligidagi radikallardan iborat tuzilgan so'l burjua hukumati xalq ommasining qat'iy talablarini hisobga olib, "so'l blok" programmasining ba'zi moddalarini amalga oshirishga majbur bo'ldi. Chunonchi, qisman siyosiy amnistiya e'lon qilindi, 1920 yilda ish tashlashda qatnashganligi uchun ishdan bo'shatilgan temir yo'lcilar qaytadan ishga olindi, uy-joy qurilishiga bir oz mablag' ajratildi. Rurdan fransuz qo'shinlari olib chiqildi, frankning qadrini oshirish maqsadida majburiy zayomlar chiqarish to'g'risidagi qonun loyihasi parlamentga kiritildi.

1924 yil oktabrida o'ng partiyalarning qarshiligiga qaramay Fransiya bilan Sovet Ittifoqi o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatildi. Lekin Errio hukumatining mehnatkashlarga ba'zi yon berishlik siyosati monopolistik burjuaziyaning moliya oligarxiyasiga mutlaqo yoqmad. Moliya oligarxiyasi frankni qadrsizlanishidan manfaatdor edi. Senat majburiy zayomlar haqidagi loyihani rad etdi. Bunday ommaviy norozilik va kurash sharoitida sotsialistik partiya "so'l blok"dan chiqishga majbur bo'ldi. "So'l blok" tarqalib ketdi. 1925 yil aprelda Puankare boshchiligidagi yirik burjuaziyaning "Milliy birlik" hukumati tuzildi. Hukumatda radikallar ishtirok etdi. "Milliy birlik" hukumati mamlakatni uch yil idora qildi. O'ng sotsialistlar blokdan tashqarida bo'lsada, Puankare hukumatini qo'llab-quvvatladi.

Puankare inflyatsiyaga qarshi kurash, frankni barqarorlashtirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashni o'z ichki siyosatining muhim vazifasi deb e'lon qildi. Hukumat davlat xarajatlarini qisqartirdi, yangi soliqlar joriy etdi va sanoat korxonalariga imtiyozlar berdi. AQSH va Angliyadan olingan yirik kreditlar hisobiga frank kursi barqarorlashtirildi. 1926 yilga kelib davlat daromadlari urushdan keyin birinchi marta xarajatlardan ortiq bo'ldi. Frank barqaror valyutaga aylandi.

Valyuta-moliya munosabatlarining barqarorlashuvi fransuz iqtisodiyotining umumiy yuksalishi boshlanganidan dalolat edi. Tabiiyki, bu urushdan keyingi inqirozni bartaraf etgan jahon iqtisodiyoti ravnaqining umumiy jarayonlari bilan ham uzviy bog'liq edi. 1925 yilda Fransiya sanoati mahsuloti hajmi birinchi marta urushdan oldingi darajadan ortiq bo'ldi. Oradan besh yil o'tgach, 1930 yilda Fransiya urushlar oralig'idagi eng yuksak sanoat ishlab chiqarishi va savdo hajmi qayd etildi. Fransiya sanoat taraqqiyoti sur'atlari bo'yicha (yiliga o'rtacha 5%) Angliya va Germaniyani ortda qoldirib, AQShga yaqinlashdi. O'nlab yangi yirik zavodlar, elektr stansiyalari, temir yo'llar qurildi. 1924 yildan 1932 yilgacha mamlakat iqtisodiyotini barqarorlashtirish davri bo'ldi. Bu davr aholi turmushiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Narxlar barqarorlashib, pulning qadrsizlanishi barham topdi. Bu esa hukumatga aholining bir qator qatlamlari ijtimoiy ahvolini yaxshilash tadbirlarini amalga oshirish imkonini berdi. 1926 yilda ishsizlik nafaqasi joriy etildi, keksalik nafaqasi, kasallik, nogironlik va homiladorlikda yordam puli beriladigan bo'ldi.

Tashqi siyosatda Puankare hukumati mustamlakachilik tadbirlarini kuchaytirdi. 1926-1927 yillarda Marokash va Suriyadagi milliy ozodlik harakati yovuzlarcha bostirildi. Shovinistik va fashistik tashkilotlar aktivlashdi va polkovnik De Lya Rok boshchiligida 1927 yilda "Jangavor krestlar" nomli yangi harbiy-fashistik tashkilot tuzildi. (Peten va De Goll fashistik tashkilotning yashirin a'zolari bo'lganlar). Burjua parlamentarizmining inqirozi kuchaydi. Monopolistik burjuaziya mehnatkashlar ommasiga qarshi o'z pozitsiyasini mustahkamlash uchun kurashdi. O'ng burjua partiyalari 1928 yil aprelida bo'lgan navbatdagi parlament saylovlarida ko'pchilik o'rinni egalladi. Saylovda kam o'rinni egallagan radikallar hukumatdan chetlashib bordi va oppozitsiyaga o'tishga majbur bo'ldilar. Puankare hukumati tarkibida o'ta ketgan reaksionerlar mamlakatni idora qildi.

3-§. Jahon iqtisodiy inqirozi yillarida Fransiya

Fransiya 1929 yilda boshlangan jahon iqtisodiy krizisiga kechroq, 1930 yildan kirdi. Chunki bu mamlakatda jahon urushida xarob bo'lgan xo'jalikni tiklash, strategik qurilish-sanoat mashina uskunalarini yangilash davom etmoqda edi. Krizis Fransiya bir necha yillarga cho'zilib ketdi ishlab chiqarishning ba'zi tarmoqlari esa ikkinchi jahon urushigacha krizisdan qutila olmadi, mahsulot ishlab chiqarish hajmi qisqardi sanoat mahsulotining uchdan biri, qishloq xo'jalik mahsuloti va tashqi savdoning beshdan ikkisi, Milliy daromadning uchdan biri qisqarib ketdi. Ishchilarning ish haqi 40% ga kamaytirildi. Ishchilar ish haqining umumiy fondi 23 mlrd frankka kamayib ketdi. Shtraflar olish avjiga chiqib ketdi. Ishlab chiqarish tobora ixchamlashtirilib, mehnat jarayoni jadallashtirildi va ish kuni 10-12 soatga uzaytirildi. Xotin-qizlar va bolalar haddan tashqari ekspluatatsiya qilindi. Narx-navo ko'tarildi. Egri soliqlar oshdi. Ishsizlar ko'payib ularning soni 1,5 mln kishidan oshdi, ishchilarning 50% butunlay va qisman ishsiz qoldi.

Inqiroz mamlakatdagi siyosiy beqarorlikni kuchaytirdi va hukumatdagi guruhlar o'rtasidagi kurashning avj olishiga olib keldi. Faqat 1937 yildagina Fransiya sanoati va tashqi savdosi inqirozdan oldingi darajaga qaytdi, biroq 1938 yilda yangi tanazzul boshlandi va u deyarli ikkinchi jahon urushi boshlangunga qadar davom etdi. Fransiya iqtisodiy rivojlanishning normal o'zaniga qaytib tusha olmadi. Fransiya siyosiy vaziyat keskin o'zgardi, keng ommaning noroziligi kuchaydi. Bu, jumladan, fransuz burjuaziyasining an'anaviy yirik partiyalari obro'sining tushishida aks etdi. Ma'lumki, moliyaviy oligarxiya va yirik sanoat monopoliyalarining manfaatlarini himoya qiluvchi bu partiyalar Fransiya hokimiyat tepasiga 1926 yilda kelgan edi. 1929 yil noyabridan 1932 yil maygacha mamlakatda 8 ta hukumat almashdi.

1932 yil maydagi saylovlar Fransiya inqirozning ikki yili davomida so'lga qarab burilganini ko'rsatdi. Saylovlar sotsialistlar va radikal-sotsialistlar blokiga g'alaba keltirdi. Yangi hukumatni yana Eduard Errio boshqardi. Deputatlar palatasidagi 594 o'rindan 386 tasini so'l blok vakillari olib, o'z dasturlarini amalga oshirish imkoniyatini qo'lga kiritdilar. Biroq, ular bu

imkoniyatni boy berdilar. O'ng doiralari so'1 hukumatga qarshi kuchli hujumni avj oldirdilar va bu hukumatning normal faoliyat ko'rsatishiga imkon bermadi. E. Errio hukumati bor-yo'g'i 6 oy ishlab, iste'fo berishga majbur bo'ldi. 1932 yil dekabridan 1934 yil yanvariga qadar Fransiyada so'llarning 5 ta hukumati almashdi va ularning har biri uch oydan oz hukmronlik qildi. Ularning eng so'nggisi Eduard Daladye (1884-1970) hukumati bo'ldi.

Ishchilar sinfi va mehnatkash dehqonlarning ommaviy inqilobiy chiqishlari monopolistik burjuaziyaning Laval va Tardye hukumatlarini (1931-1932) g'oyat zo'r tashvishga soldi. Monopolistik burjuaziyaning parlament metodlaridan ko'ra fashizmga moyilligi oshib bordi. 1932-1933 yillarda "Fransuz birdamligi", "fransistlar" degan yangi fashistik partiya va soyuz tuzildi. Ilgari tuzilgan "Jangovar krestlar", "fransuz harakati" kabi fashist tashkilotlari aktivlashdi. Bu tashkilotlar bir necha 10 ming (keyinroq esa bir necha yuz ming) a'zoga ega bo'ldi, hamda to'p va pulemyotlar bilan qurollanib oldilar. Ularning ixtiyorida yuzdan oshiq samolyot ham bor edi. Fashistik tashkilotlarning boshliqlari (De Lya Rok) va boshqalar Gitler va Mussolini bilan aloqada bo'ldilar. Buning ustiga, Fransiya hukmron doiralari xalqaro vaziyat keskinlashib borayotganiga va Germaniyadan reparatsiya olish to'xtaganligiga qaramay, German fashizmini qo'llab-quvvatladilar.

4-§ Ikkinchi jahon urushi arafasida Fransiya

Gitlerning hokimiyatga kelganidan ruhlangan Fransiya yirik moliya va sanoat sarmoyasining o'ng doiralari Fransiyada ham fashistlar diktaturasini o'rnatishga urindilar. Reaksion doiralari mamlakatni fashistlar to'ntarishiga va hokimiyatni fashistlar egallashiga ruhan tayyorlash maqsadida ommaviy targ'ibotni avj oldirdilar. Bir vaqtning o'zida buyruq berilgani zahoti hokimiyat uchun kurashni boshlashga tayyor ko'p sonli fashistlar tashkilotlari tashkil qilindi. 1933 yil oxirida fashistlarning tashkilotlari hukumatda yuzaga kelgan inqirozga bahona qilib hokimiyatni egallashga ochiq-oydin tayyorlana boshladilar. 1934 yil 6 fevralda, hukumat inqirozi siyosiy inqirozga o'sib o'tganidan so'ng, Parijda fashistlar isyoni boshlandi. Bir necha o'n ming qurollangan fashistlar ko'chalarga chiqdilar va Burbonlar saroyi, parlament binosiga yorib o'tishga urindilar. Hukumatning beparvoligidan foydalanib, fashistlar pochta, telegraf, vokzallar va Yelisey dalasidagi Murosa maydoniga hujum qila boshladilar.

Hukumatning faoliyatsizligini ko'rib, Fransiya poytaxtining turli tumanlarida yuz minglab ishchilar ko'chalarga chiqdilar. Germaniya fojiasining Fransiyada takrorlanishini istamagan odamlarning barchasi oyoqqa turdi. Bunday ommaviy namoyishlar mamlakatning Marsel, Lion, Ruan, Nant, Nansi va boshqa shaharlarida ham bo'lib o'tdi.

Mamlakat mehnatkashlari Fransiya tarixidagi eng muhim g'alabani qo'lga kiritdilar. Fashistlar milliy demokratik kuchlari fronti oldida chekinishga majbur bo'ldilar. Biroq, kurash shu bilan tugamadi. Reaksion va konservativ kuchlar hokimiyatni xuddi Germaniyadagi singari siyosiy nayranglar yo'li bilan egallashga qaror qildilar. 1934 yil 7 fevralda E. Daladye o'ziga ishonch bildirganiga qaramay iste'fo berdi. Bosh vazir qilib fashizmning ochiq tarafdori bo'lgan Gaston Dumerg (1863-1937) tayinlandi.

Fransiya mehnatkashlari fashistlar to'ntarishi mualliflari rejasini barbod qildilar. Hokimiyat tepasiga Dumerg kelgani to'g'risidagi xabar tarqalgani hamon yana isyonchi va ishchilar o'rtasida ashaddiy janglar boshlandi. Butun Parijda, har bir tumanda, Fransiyaning hamma yerida ishchilar fashistlarni hokimiyatga qo'ymaslik shashti bilan yondilar. Mamlakatda demokratiya va Fransiya ozodligi uchun kurashuvchilarning umumiy fronti vujudga kela boshladi.

Namoyishlar taqiqlanganiga qaramay, 9 fevral kechqurun 50 ming Parijlik fashistlarga qarshi namoyishga chiqdi. Shaharda politsiya va ishchilar o'rtasida haqiqiy ko'cha janglari avj oldi. Parij kasalxonalari yaradorlar bilan to'lib-toshdi. Ishchilar hukumat fashistlar tomonida ekaniga ishonch hosil qildilar, zero, uning buyrug'iga ko'ra politsiya va qo'shinlar De Lya Rok bandalariga qarshi emas, Parij mehnatkashlariga qarshi chiqdilar. 1934 yil 9 fevralda Parij va

boshqa shaharlarda antifashist kuchlarining katta namoyishlari bo'lib, politsiya bilan to'qnashuvlar yuz berdi bir necha kishi halok bo'ldi.

12 fevralda butun Fransiya umumiy ish tashlash boshlandi. Unda 4,5 mln. kishi qatnashdi. Shu kuni Fransiya fashistlarga tarafdor reaksiya kuchlar tomonidan tayyorlangan davlat to'ntarishi barbad bo'lgani oydinlashdi. Fashizm Fransiya g'alabaga erisholmadi.

1934 yil fevral voqealari fashizm xavfining kuchayganligini, shu bilan birga, fashizmga qarshi demokratiya tomonining katta kuchga ega ekanligini, birdamlik bilan chiqishning g'oyat muhim ahamiyatini ko'rsatdi va birlashgan front tuzish uchun zamin yaratdi. Fashizm yengilgan bo'lsada, lekin uning xavfi batamom yo'qolmagan edi. Germaniya va Italiya fashistlari esa keng agressiyaga zo'r berib tayyorlanmoqda edi. Shunga qaramay, Dumerq hukumati, xavfsizlik tadbirlarini ko'rmadi. Hukumatning ayrim a'zolari masalan, tashqi ishlar ministri Lui Bartuning ehtiyotkorlik choralarini ko'rish haqidagi takliflari ma'qullanmadi. Bartu Germaniya fashizmi xavfiga qarshi bo'lgan burjua nomayondasi edi. U 1934 yil bahorida Markaziy va Janubi-Sharqiy Yevropa mamlakatlarini aylanib chiqdi, hamda fashizm agressiyasi xavfiga qarshi bir qancha davlatlar ittifoqini tuzish g'oyalarini ilgari surdi. Lekin o'sha yili oktabr oyida Bartu Fransiya hukumat doiralarining panohidagi Gitlerchi agentlar va Xorvat fashist terrorchilari tomonidan o'ldirildi. Ishchilar ommasi talablarining va sotsialistik partiyada birlashgan front tarafdorlarining ko'payib borayotganini nazarda tutib sotsialistik partiya rahbarlari kommunistik partiya taklifini qabul qilishga majbur bo'ldilar. 1934 yil 27 iyulda kommunistik partiya bilan sotsialistik partiya o'rtasida fashizm xavfiga qarshi kurashda birgalikda harakat qilish to'g'risida ahdnoma tuzildi. Bu ishchilar sinfining katta g'alabasi edi. 1935 yil mayda Fransiya kommunistik partiyasining tashabbusi bilan so'l partiya va gruppalarining kengashi o'tkazilib, fashizm va yangi jahon urushi xavfiga qarshi xalq fronti tuzish to'g'risida qaror qabul qilindi. 1935 yil 14 iyulda, milliy bayram kuni 2 mldan ortiq kishi ko'chalarga chiqib namoyish qildi. Parijda 500 mingdan ortiq kishi miting o'tkazdi va fashistlarning hokimiyat tepasiga kelishlariga yo'l qo'ymaslik, tinchlik va demokratiyani mustahkamlash uchun kurash olib borishga qasamyod qildilar. Shunday qilib, 1934-1936 yillarda keng xalq ommasi-ishchilar, dehqonlar, shahar mayda burjuaziyasi, mehnatkash ziyolilarning antifashistik xalq fronti vujudga keldi.

1936 yil yanvarida Xalq frontining dasturi e'lon qilindi. Uni ishlab chiqishda mamlakat demokratik kuchlarining vakillari ishtirok etdilar. Dastur fashistlarga qarshi demokratik xususiyatga ega edi. Barcha fashistlarning tashkilotlarini qurolsizlantirish va tarqatish talabidan tashqari, u keng xalq ommasining ahvolini yaxshilash-ish haftasini qisqartirish, ishsizlarga yordam ko'rsatish milliy jamg'armasini tashkil qilish, qishloq xo'jaligi mahsulotlariga qat'iy narxlarni belgilashni ko'zda tutuvchi dasturni ham ilgari surardi.

1936 yil bahorida Fransiya deputatlar palatasiga saylovlar bo'lib o'tdi. Xalq fronti partiyalari birgalikda, umumiy dastur asosida ishtirok etdilar. Saylovlarda Xalq fronti umumiy hisobda 57% ovoz to'plab, g'olib chiqdi.

Xalq fronti hukumati Sotsialistik partiya yetakchisi Leon Blyum (1872-1950) rahbarligida Fransiya inqirozning yangi bosqichi boshlanayotgan bir paytda ish boshladi. Shunga qaramay, u o'z dasturini amalga oshirish va bergan va'dalarini bajarish borasida juda katta ishlarni amalga oshirdi. 1936 yil yozi davomida parlament Xalq fronti dasturiga mos keluvchi 100 dan ortiq qonunlarni qabul qildi. Fashistlarning tashkilotlari taqiqlandi. O'z va'dalariga muvofiq, hukumat parlament orqali uchta qonunni o'tkazdi: 40 soatlik ish haftasi to'g'risidagi qonun, ikki haftalik haq to'lanuvchi ta'tillar to'g'risidagi qonun va jamoaviy shartnomalar to'g'risidagi qonun. Xizmatchilarning maoshlari va nafaqalari oshirildi. Ishsizlik bo'yicha nafaqaga soliq solinishiga barham berildi. Ishsizlar uchun jamoat ishlari tashkil qilina boshlandi.

Aholining o'rta tabaqalari ahvoli ham yaxshilandi. Hukumat sanoat, savdo va qishloq xo'jaligi sohasidagi korxonalarning qarz to'lash muhlatlarini kechiktirdi va bu bilan minglab mayda ishlab chiqaruvchilarni kasodga uchrashdan asrab qoldi. Mayda korxonalardan olinuvchi soliqlar miqdori kamaytirildi, yirik korxonalardan olinuvchi soliqlar esa oshirildi. Fransiya banki va qator harbiy zavodlar davlat tasarrufiga o'tdi. 1937 yilda Temir yo'llar milliy jamiyati tuzilib,

uning qo‘l ostiga mamlakatdagi barcha temir yo‘llar o‘tkazildi. Yevropaning boshqa mamlakatlarida bo‘lgani kabi, Fransiya ham iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish joriy qilina boshlandi.

Xalq fronti hukumati o‘z qonunlarini amalga tadbqiq etishda juda katta qiyinchiliklarga to‘qnash keldi. Davlatda pul yo‘q, demakki, tadbirkorlarni qabul qilingan qonunlarni bajarishga majbur qilish uchun mablag‘ ham yo‘q edi. Hukumat nisbatan ongli yo‘lni tanladi - u Fransiya valyutasi bo‘lgan frankni fransuz xalqining barcha ijtimoiy yutuqlarini yo‘qqa chiqargan holda 30%ga devalvatsiya qildi. 1937 yil fevralida L.Blyum mamlakatning og‘ir moddiy ahvolini bahona qilib, Xalq fronti dasturini bajarishda tanaffus e‘lon qilish taklifini kiritdi. U kuch to‘plab, so‘ng yutuqlarni mustahkamlash uchun “nafas rostdash” lozimligini uqtirdi. Bu aholining noroziligiga sabab bo‘ldi. 1937 yil iyunida Blyum iste‘fo berdi.

Reaksion kuchlar Xalq fronti hukumatiga qarshi ochiq xujum boshladilar, uning faoliyatini xalqqa qarshi yo‘naltirishga urindilar. Ular davlatning ijtimoiy ehtiyojlar uchun xarajatlarini qisqartirishga erishdilar, hukumatning moddiy ahvolini og‘irlashtirishga qaratilgan qator tadbirlarni amalga oshirdilar. Hukumat tamaki mahsulotlari, gugurt, spirtli ichimliklar, pochta-telegraf va temir yo‘l tashuvlariga yangi soliqlar belgilashga majbur bo‘ldi. Xalq frontining yangi hukumati - Shotan hukumati yangi devalvatsiyani amalga oshirdi. Ichki devalvatsiya natijasida Fransiya yashashning qiymati 1936 yil maydan 1937 yil dekabrgacha 40% qimmatlashdi.

Xalq fronti obro‘sizlandi. Uning saflarida parchalanish yuz berdi. Eduard Daladye boshchiligidagi guruh Xalq fronti partiyalari bilan orani uzish va o‘ng reaksiyon partiyalarga tayangan holda bir partiyali hukumatni tuzishni talab qildi. Eduard Errio boshchiligidagi ikkinchi guruh esa Xalq fronti dasturiga sodiq qoldi. Radikal-sotsialistlarning 1938 yil oktyabrda Marselda bo‘lib o‘tgan syezdida Xalq frontidan ajralish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Fransiyaning xalq fronti parchalandi.

Xalq frontining parchalanishi reaksiyon kuchlarga yo‘l ochdi. 1938 yil 10 apreldan 1940 yil 18 maygacha hokimiyatni boshqargan E.Daladye hukumati davridayoq Fransiya mehnatkashlari uchun Xalq fronti hukumati joriy qilgan imtiyozlarga barham berila boshlandi. Barcha mahsulot va xizmat turlariga soliqlar oshirildi. Tadbirkorlar oz miqdorda haq to‘lagan holda xizmat vaqtidan tashqari ishlarni joriy qilish huquqini qo‘lga kiritdilar. Ish haftasi 5 kundan 6 kunga uzaytirildi. Ijtimoiy himoya kamaydi, soliqlar miqdori 13 baravar oshirildi, yirik korxonalarga solinuvchi soliqlar esa kamaytirildi.

Mamlakat mehnatkashlari bunga ommaviy namoyishlar bilan javob berdilar. 1938 yil 30 noyabrda Fransiya umumiy ish tashlash boshlandi. Hukumat qo‘shinlarni safarbar qildi, askarlarga jangovar o‘qlar tarqatildi. Hukumat va tadbirkorlar birgalikdagi harakatlari bilan ish tashlovchilardan shafqatsiz o‘ch oldilar. Ko‘plab zavodlar yopildi, 1,5 mln. kishi ishdan bo‘shatildi, minglab ishchilar qamoqqa olindilar.

E.Daladye hukumati “milliy xiyonat” hukumatiga aylandi. Ostonada esa dushman-birinchi imkoniyat tug‘ilgandayoq Fransiya bosib olish niyatini hech kimdan yashirmagan fashistlar Germaniyasi turardi.

Xiyonat, xo‘rlanish va mag‘lubiyatlar yo‘li Fransiya tashqi siyosatini bu davrda Fransiya yirik sarmoyasi bilan yaqin aloqada bo‘lgan reaksiyon va fashistlarga tarafdor qarashlarini hech kimdan yashirmagan davlat va siyosat arboblari belgiladilar. Bular 1931 yil yanvardan 1932 yil fevralgacha, 1935 yil iyundan 1936 yil yanvargacha Fransiya Bosh vaziri bo‘lgan P.Laval, 1934 yil oktabrdan 1936 yil yanvargacha tashqi ishlar vaziri lavozimida ishlagan P.Tardye, E.Daladye, J.Bone, A.Sarro va boshqalar edilar. Fransiyaning Yevropada gegemonligi qaror topishiga ishonchi yo‘qolgan bu davlat va siyosat arboblari Germaniya va Italiya fashistlari bilan til biriktirish yo‘liga tushdilar, shu taxlit ular bilan to‘qnashishdan qutulib qolishga umid qildilar. Ular mudofaaga asoslangan urush g‘oyasini ilgari surdilar.

Germaniyada fashistlarning hokimiyatga kelishi, 1934 yil fevral voqealari va xalq frontining 1936 yildagi muvaffaqiyatlari reaksiyon qarashlarni yanada mustahkamladi va fashistlarni faol harakatlar boshlashga da‘vat etdi. Ularning millatga qarshi qarashlari davlatning

rasmiy siyosati darajasiga ko'tarildi. Fransiya tashqi siyosatining asosiy konsepsiyasi faolligini Sharqqa yo'naltirish Fransiya diplomatiyasining bosh maqsadiga aylandi. 1940 yilda Fransiya bu siyosati uchun harbiy mag'lubiyat va milliy mustaqillikni boy berish bilan haq to'ladi.

Fransiya hukmron doiralarining bir qismi fashistlar Germaniyasini Fransiyadagi mavjud tuzumni saqlab qolishning kafolati deb hisobladilar. Bunday siyosatchilarni kollaboratsionistlar deb nomladilar, ular Gitlarning tashqi siyosatini amalga oshirishi uchun yo'l ochib berdilar.

1933 yil iyunida Fransiya diplomatiyasi fashistlar bilan kelishuvga bordi. 1933 yil 7 iyunda Angliya, Fransiya Italiya va Germaniya o'rtasida "To'rtlar bitimi" imzolandi. U kuchga kirmadi, biroq Fransiya tashqi siyosatining mohiyatini ochiq ko'rsatdi. 1934 yil oktabrida Fransiya bosh vazirligiga P.Laval tayinlandi. U ikki yoqlama o'yin olib bordi, ya'ni fashist davlatlari e'tiborini jalb qilish maqsadida o'zini go'yoki Sovet Ittifoqi bilan yaqinlashmoqchidek qilib ko'rsatdi. 1935 yil 2 mayda o'zaro yordam to'g'risidagi sovet-fransuz bitimi imzolandi. Unga qadar Fransiya diplomatlari "Fransiyaning Germaniya bilan to'la va uzil-kesil kelishishi uchun zarur bo'lsa" sovet-fransuz bitimidan voz kechishga tayyorligini aytib, Germaniya bilan til topishga rosa urindilar. Gitler esa rad javob berdi.

1936 yil martida Gitler qo'shinlari harbiysizlashtirilgan Reyn hududiga kirdi. Bu bilan Gitler Fransiyaning ochiq-oydin kurash maydoniga chaqirdi. Versal bitimining 42- va 43-moddalari buzilganiga qaramay, Fransiya chekindi, fashistlar Germaniyasining birinchi tajovuzkor harakatiga hech qanday qarshilik ko'rsatmadi. Kollaboratsionistlar Gitler tuzumiga qarshi zarba mehnatkash ommani inqilobga ruhlantiradi, vatanparvarlik tuyg'ularini oshirib, fashizmga qarshi kurashning kuchayishiga olib keladi, deb qo'rqdilar.

1938 yil martida Gitler Avstriyani ham bosib oldi. Fransiya o'zining so'nggi ittifoqchisidan ayrildi. 1936 yil 27 aprelda Belgiya o'zini betaraf deb e'lon qildi, ya'ni Fransiyaning sharqiy chegaralarini qo'riqlovchi Reyn bitimining kafolatchisi bo'lishdan bosh tortdi.

Reyn voqealaridan ko'p o'tmay, 1936 yil iyulida, Ispaniyada fuqarolar urushi boshlanib, Germaniya va Italiya fashistlari isyonchilarga ochiq-oydin yordam bera boshlaganlaridan so'ng, Fransiya Ispaniya ishlariga o'zining aralashmasligini e'lon qildi va Ispaniya respublikachilariga qurol-yarog' sotishni man etdi. Fransiya hukumati Gitlarning malayiga aylandi. 1938 yilda Gitler yangi qurbon - Chexoslovakiyani talab qildi. Fransiya Bosh vaziri E.Daladye Chexoslovakiya hukumatining fikrini surishtirmay Sudetni Germaniyaga berishga rozilik bildirdi.

1938 yil 4 oktabrda Fransiya Milliy Majlisi sharmandali Myunxen bitimini ratifikatsiya qildi va bu mamlakatning fashistlar Germaniyasi bilan til biriktirish yo'liga ochiq-oydin tushganini tasdiqladi.

Myunxen bitimi ratifikatsiya qilingach, Fransiya kollaboratsionistlari nihoyat yengil tin oldilar. Ular Gitlerga Sharq tomon yo'l ochdilar. Endi Germaniyadan "kelishuv" to'g'risida so'rash mumkin edi. Germaniya rozi bo'ldi va Myunxen bitimidan ikki oy o'tib, 1938 yil 6 dekabrda Parijda Fransiya tashqi ishlar vaziri J.Bonne va Germaniya tashqi ishlar vaziri I.Ribbentrop o'zaro xujum qilmaslik to'g'risidagi bitimdan umuman farq qilmagan qo'shma deklaratsiyani imzoladilar.

1938 yil 16 noyabrda Daladye Fransiyaning mustamlaka masalasida aslo yon bermasligini ochiqdan-ochiq aytdi. Daladye hukumati Germaniyasining agressiyasini Sharqqa qaratishga urindi. 1939 yil mart-avgust oylarida olib borilgan muzokoralar Fransiya va Angliya hukumatlarining aybi bilan natija bermadi. Fransiya hukmron doiralarining siyosati ham ikkinchi jahon urushining boshlanishini tezlashtirdi.

Mavzu: 1918-1939 YILLARDA GERMANIYA

1-§. Urushdan keyingi iqtisodiy va siyosiy inqiroz yillarida Germaniya

Birinchi jahon urushi arafasida Germaniya eng kuchli imperialistik mamlakatlardan biri edi. Sanoat taraqqiyoti sohasida Germaniya, Angliya va Fransiya o'zib ketgan edi.

Germaniya imperializmi o'taketgan reaksiya, yirtqich va bosqinchi imperializm bo'lib, birinchi jahon urushining eng asosiy aybdorlardan biri hisoblanadi.

Birinchi jahon urushi yillarida ishlab chiqarish hamda kapitalning konsentratsiyalashuvi va markazlashuvi, monopoliyalarning o'sishi tezlashdi. Urush paytida yirik nemis konsernlari, oliy rutbali harbiylar va Kayzerning yaqinlari boyib ketdilar. Faqatgina Krupp konsernining daromadi 15 marta oshdi.

Germaniyaning yirik biznesi urushdan katta foyda oldi, mamlakatdagi qudratli ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy kuchga aylandi. Harbiy buyurtmalar va harbiy ishlab chiqarishdagi chayqovchilik amallari nemis monopolistlarini nihoyatda boyitib yubordi, ularning saflarini kengaytirib, hukumat siyosatiga ta'sirini kuchaytirdi.

Mayda va o'rta korxonalar tobora vayron bo'ldi. Monopolistik kapital davlat-monopolistik kapitalga aylandi. U moliya oligarxiyasi bilan birlashib ketib davlat apparatini o'ziga buysindira bordi. Iqtisodiy va siyosiy tizimda hali feodalizm qoldiqlari bor edi. Davlat tuzumi esa yarim absolyut monarxiyadan iborat edi. Kapitalistik ekspluatatsiya zulmining yarim feodal formalari (yerni ijaraga olganlik evaziga ishlab berish rentasi, "Xizmatkorlar haqida yarim krepostnoylik qonuni) bilan qo'shib ketgan edi.

Ishchilar sinfi mamlakat aholisining ko'pchiligini tashkil etar edi. 1920 yilda Germaniyada yollangan ishchi kuchlari soni 19,5 million kishi bo'lib, shundan 13 million kishi sanoat, savdo va transportda 3,8 million kishi qishloq xo'jaligida ishlar edi. Birinchi jahon urushi mamlakatga katta zarar, xalq ommasiga og'ir kulfatlar keltirdi. Iqtisodiy va siyosiy zulm kuchaydi. Sanoat korxonalarida harbiy katorga rejimi o'rnatildi. Ish soatlari oshirilib ish haqi pasaytirildi. Qishloq xo'jaligi chuqur inqirozga uchradi. Ekin maydonlarining yarimidan ortig'i qisqardi. Ko'p sanoat markazlari vayron bo'ldi. Moliyaviy ahvoli yomonlashib davlat qarzi ko'paydi. Ochlik va epidemiya natijasida 900 mingdan ortiq kishi o'ldi. Urushda 1 million 800 mingdan ortiq kishi halok bo'ldi, 1 million 500 ming kishi mayib majrux bo'lib qoldi.

1918 yil avgustida Antanta g'arbiy frontda hujumga o'tdi. Germaniya va uning ittifoqchilari jiddiy mag'lubiyatga uchradi. 1918 yil kuzida Turkiya, Bolgariya, Avstriya-Vengriya birin-ketin Antantaga taslim bo'ldi.

Frontlardagi harbiy holat siyosiy krizisni chuqurlashtirib yubordi. Germaniya imperializmini qutqarib qolishga intilgan AQSH prezidenti Vilsonning maslahati bilan 1918 yil 3 oktabrda sotsial partiya o'ng qanotining vakillari (SHeydeman va Bauer) ishtirokida shaxzoda Maks Badenskiy boshchiligida yangi, kaolitsion hukumat tuzildi. Lekin hukumat o'zgarishi ichki siyosiy ahvolni yengillashtira olmadi. Mehnatkashlar ommasini inqilobiy chiqishlari kuchayib, Vilgelm 11 ning monarxiya hokimiyatini yo'qotish qat'iy talab qilinmoqda edi.

1918 yil 3 noyabrda Kilda harbiy flot matroslarining qo'zg'oloni bo'lib, Germaniyada inqilob boshlanib ketdi. Kil shahri qo'zg'olonchilar qo'liga o'tdi. Inqilob bir hafta ichidayoq mamlakatning shimoliy, markaziy va janubiy tomonlariga yoyildi. Ayniqsa, poytaxt Berlinda inqilob avj oldi. Bu yerda spartakchilarning chaqirig'i bilan 9 noyabrda umumiy ish tashlash boshlandi va qurolli qo'zg'olon ko'tarildi. Soldatlarning bir qismi qo'zg'olonchilarni qo'llab-quvvatladi. Strategik punktlar ishg'ol qilindi. Monarxiya hokimiyati ag'darilib tashlandi. Imperator Vilgelm 11 Gollandiyaga qochdi.

10 noyabrda Berlin Sovetining birinchi plenumi yangi hukumatni "Xalq vakillari Soveti"ni tuzdi. Plenumda ko'pchilik sotsial-demokratlar va "Mustaqil" sotsial-demokratlar bo'lganligidan, bu hukumat sotsial-demokratik hukumat edi.

Ebert va SHeydemanlar hukumat boshliqlari bo'lib oldilar va hukumatni "Sof sotsialistik hukumat" deb atadilar. "Topilmas mutaxassislar" bazonasi bilan hukumatga burjua amaldorlari

bir qancha sobiq ministrlar ham kiritildi. Bu hukumat aslida burjua-yunkerlar manfaatlarini himoya qiluvchi burjua hukumati edi.

1918 yil 12 noyabrda Germaniya bilan Antanta o'rtasida Germaniyaning batamom taslim bo'lishi to'g'risida yarash bitimi imzolandi. 1918 yilning 16-21-dekabrda Sovetlarning birinchi umumiy Germaniya syezdi bo'lib o'tdi. Syezdda o'ng sotsial-demokratlar va "Mustaqil" sotsial-demokratlar ko'pchilikni (485 kishidan 375 kishi) tashkil etdi. Syezd butun hokimiyatni Ebert hukumati qo'lida qoldirish va Ta'sis majlisiga saylovlar o'tkazish to'g'risida qaror qabul qildi.

1919 yil 19 yanvarda Milliy ta'sis majlisiga saylovlar o'tkazildi. Ko'pchilik o'rinni burjua partiyalari (Xristian demokratik partiya", "Katolik-Markaz" partiya, savdo-sanoat burjuaziya partiyasi bo'lgan "Demokratik partiya" sanoat va moliya magnatlari partiyasi bo'lgan "Xalq partiyasi" va boshqa partiyalar) egalladi.

1919 yil 6 fevralda kichik Veymar shahrida Ta'sis Majlisi ochildi. Shu kuni o'ng sotsial-demokratlar qo'lida bo'lgan ishchi va soldat deputatlari markaziy Soveti o'z huquq va majburiyatlarini Ta'sis Majlisiga topshirdi. Germaniya ishchi demokratlari sovetlari batamom tugatildi. SHeydeman boshchiligida sotsial demokratlardan, demokratik va katolik partiyalari vakillaridan iborat yangi hukumat tuzildi. Ebert prezident qilib saylandi.

1919 yil 31 iyulda Milliy majlis tomonidan qabul qilingan konstitutsiyaga (Veymar konstitutsiyasi) muvofiq burjua parlamenti formasidagi burjua respublikasi qaror topdi. Burjua-yunkerlar ittifoqida rahbarlik burjuaziya qo'liga o'tdi. Konstitutsiyaga muvofiq, federativ tuzum saqlangan holda, markaziy hokimiyat kuchaytirildi. Markaziy hokimiyat - reyxstag (qonun chiqaruvchi organ - quyi palata), reyxstrag (O'lkalar vakillari Soveti-yuqori palata) va prezidentdan iborat bo'lib, prezidentga katta huquqlar berildi va uning vakolati yetti yil qilib belgilandi.

Ikki palatadan iborat bo'lgan qonun chiqaruvchi hokimiyat ta'sis etildi. Quyi palata - Reyxstag yalpi ovoz berish yo'li bilan saylanar, yuqori palata - Reyxstrat o'lka va viloyatlar vakillaridan iborat bo'lar edi.

Reyxstrat veto huquqiga ega bo'lgan nazorat organi edi. Ijroiya hokimiyati rahbari - prezidentga favqulodda keng vakolatlar berilgandi. U mamlakat qurolli kuchlari Reyxsverning bosh qo'mondoni hisoblanar, chet ellarda davlat nomidan faoliyat olib borar, vazirlar va kanslerni tayinlar va ishdan bo'shatar edi. U reyxstagni tarqatib yuborish va yangi saylovlar belgilash huquqiga ham ega edi.

Konstitutsiyaning 48-moddasi prezidentga favqulodda dekretlar chiqarish, ya'ni mamlakatni dekretlar vositasida boshqarish, majburlash choralarini qo'llash, konstitutsiyaning muhim moddalari amaliyotini to'xtatib qo'yish huquqini berar edi. Amalda ijroiya hokimiyat diktatura o'rnatish uchun konstitutsiyaviy asoslarni qo'lga kiritgandi. Prezident vakolatlari uni qonun chiqaruvchi hokimiyatdan yuksakka qo'ygan, u reyxstagga ham bog'liq emas edi, chunki yalpi ovoz berish yo'li bilan 7 yilga saylanardi.

Veymar konstitutsiyasi davlatdagi rahbarlik roli burjuaziyaga o'tganligidan dalolat edi. Ammo yirik yer egalari - pomeshchiklar ham o'zlarining kuchli mavqelarini saqlab qolgandilar. Germaniyada e'lon qilingan burjua-demokratik respublikasi burjuaziya siyosiy hukmronligining eng to'liq shakli edi. Veymar konstitutsiyasi burjuaziyaning siyosiy hukmronligini o'rnatgan bo'lsa-da, Germaniya demokratik kuchlarining ham muhim yutug'i bo'ldi.

Sotsial-demokratik partiya reyxstagda ko'pchilik o'ringa ega bo'lmasa ham, Germaniya hukmron doiralari hokimiyatni sotsial-demokratlar qo'liga topshirishga qaror qildilar. Germaniya sotsial-demokratik partiyasi (GSDP) raisi Fridrix Ebert mamlakat prezidenti qilib saylandi, partiya boshqaruvi a'zosi Filipp SHeydeman esa kansler etib tayinlandi.

Respublika tuzilishi muhokamasi davom etayotgan bir paytda sotsial-demokratlar boshchiligidagi hukumat ikkita muhim qadam qo'ydi. Dastlab Bavariya sovet respublikasi tormor qilindi. Bu voqea 1919 yil 1 mayda ro'y berdi. So'ngra yangi hukumat vakillari Parijda Versal tinchlik shartnomasini imzoladilar. 1919 yil 28 iyunda Versalda Germaniya bilan Antanta o'rtasida tuzilgan sulh shartnomasi mamlakatning iqtisodiy ahvolini yanada yomonlashtirib yubordi.

Versal sulhining ijodchilari avvalo AQSH, soʻngra Angliya va Fransiya davlatlari edi. Sulh shartnomasiga muvofiq Germaniya oʻz mustamlakalaridan va Yevropadagi yerlarining 8 dan bir qismidan masalan (Poznan, Sileziyaning bir qismi, Elzas, Lotarengiya va boshqalardan) mahrum boʻldi. Dansig (Gdansk) oʻsha vaqtda taʼsis etilgan Millatlar Ittifoqi ixtiyorida (erkin shahar) deb ataldi. Polsha karidori tufayli Sharqiy Prussiya Germaniyaning markaziy rayonlaridan ajratib qoʻyilgan, Polshaning bir qancha yerlari esa Germaniya tarkibida qoldirilgan edi. Angliya va Amerika davlatlari Germaniyaning zaiflashib qolishini istamadilar, Reyn boʻyi qirgʻoqlari demilitrizatsiya zonasi (qoʻshin kiritish va istehkom qurish man etilgan zona) deb eʼlon qilindi. Sharqiy chegaralar va Boltiq boʻyida esa Germaniya qoʻshin saqlashga haqli deyilgan edi. Reyn daryosi soʻl tomoni, Kyoln va Mayns shaharlari bilan birga 15 yil muddat bilan Antanta qoʻshinlari tomonidan nazorat qilib turiladigan boʻldi. Saar viloyati 15 yil muddat bilan Millatlar Ittifoqi ixtiyoriga topshirildi.

Versal sulhi xalq xoʻjaligiga katta zarar yetkazdi, mehnatkashlarga kulfat keltirdi. Germaniya temir rudaning 75% dan, koʻmirining 33,9% dan, choʻyan ishlab chiqarishning 33% dan, gʻalla va kartoshka mahsulotlarining 25%dan mahrum boʻldi. Sulh shartnomasiga koʻra, Germaniya urushda Antanta mamlakatlariga yetkazilgan barcha zararlarni qoplaydigan boʻldi. Umuman toʻlanadigan reparatsiya summasi keyinroq (1921 yil mayida) oltin bilan 132 mlrd marka qilib belgilandi.

1919 yilda sobiq kayzer armiyasining jinoyatchi ofitser va soldatlaridan, reaksiyon va shovinistik elementlardan iborat fashistik partiya tuzildi. Bu partiya “qora reyxever” bilan yaqin aloqada boʻldi va niqoblanish maqsadida oʻzini “Milliy sotsialistik ishchi partiyasi” deb atadi. Fashistik partiyaning 25 banddan iborat boʻlgan dasturida ishchilarning ish kunini qisqartirish va ish haqini oshirish, dehqonlarga yer berish va sudxoʻrlik protsentini bekor qilish, mayda savdogarlarga arzon kredit berish, universal magazinlarni yoʻqotish, trestlarni davlat ixtiyoriga olish, Versal shartnomasini bekor qilish, Avstriya va Germaniyani birlashtirish, yahudiylarni nemis fuqaroligidan mahrum etish vaʼda qilindi.

Natsistlar dasturi barcha nemislarni bir davlatda - Buyuk Germaniyada birlashtirishni talab etardi. Bu esa nemislar yashaydigan hududlarni - Chexoslovakiya, Avstriya, Polshaning bir qismi, Belgiya, Gollandiya, Boltiqboʻyini Germaniyaga qoʻshib olishni bildirardi. Dasturda “yerlar” va “mustamlakalar” zarurligi ilgari surilib, ular goʻyo Germaniya aholisini zarur oziq-ovqat mahsulotlari bilan taʼminlash va ortiqcha aholini joylashtirish uchun lozim boʻlishi koʻrsatilgan edi. AQSH ham, Angliya va Fransiya ham bunga eʼtibor bermadi va fashistlarga jiddiy yondoshmadi. Adolf Gitler 1920 yildan boshlab fashistlar partiyasining lideri boʻlib qoldi. U sobiq Kayzer armiyasining yefreytori va urushdan soʻng Myunxen shahar politsiyasining maxfiy agenti edi. Fashistlar shturm otryadlarini tuzdilar. “Irqi ozodlik” shiori ostida reaksiyon-shovinistik propaganda avj olib ketdi. Versal sulhiga qarshi, bosqinchilik urushlariga tayyorlanish asosiy vazifa qilib qoʻyildi. Mamlakatda ahvol keskinlashib bormoqda edi. 1921 yil avgustidan eʼtiboran Germaniya reparatsiya toʻlay boshladi. Urushda gʻalaba qozongan davlatlar-AQSH, Angliya va Fransiya Germaniya moliyasini oʻz nazoratlari ostiga olish xavfini kuchaytirdi va mamlakatning moliyaviy hayotiga yomon taʼsir qildi. Natijada mamlakatda siyosiy vaziyat keskinlashib, hukumat krizisi yuz berdi. Yirik burjuaziya va harbiy-monarxist doiralar reparatsiya toʻlamaslikni talab qilib chiqdilar. Germaniya hukumati reparatsiya toʻlovini toʻxtatishga majbur boʻldi. Fransiya bilan Belgiya Germaniyaning reparatsiya toʻlashdan bosh tortganligidan foydalanib, 1923 yil 12 yanvarda Rur sanoat viloyatini okkupatsiya qildi. Rur havzasida Germaniya aholisining 10 foizi yashar edi, mamlakatda ishlab chiqariladigan poʻlatning 40%i, choʻyanning 70%, koʻmirning 88% Rur viloyatida ishlab chiqarilar edi.

Okkupatsiya qilish natijasida Rurda sanoat ishlab chiqarish qisqardi, ishsizlik koʻpaydi, ishchilarning ish haqi kamayib ketdi. Koʻpgina sanoat korxonalari yopildi. Ishsizlar soni koʻpayib, qariyb 5 million kishiga yetdi. Qogʻoz pul yanada qadrsizlandi, binobarin, inflyatsiya gʻoyat kuchaydi. 1923 yil Amerikaning bir dollari 10 ming markaga, oktabrda 8 milliard markaga tenglashdi. Mehnatkashlar amalda ish haqidan mahrum boʻldilar. 1923 yilning

sentabrda malakali ishchi bir haftada 126 million marka olardi, bu pul hisobiga esa faqat ikki kun tirikchilik qilishi mumkin edi. Mamlakat ochlik va qashshoqlik girdobida qoldi.

Reyn viloyatida Germaniyadan ajralib chiqish va mustaqil Reyn Respublikasi tuzish uchun ayirmachilik harakati avj olib borardi. Unga Kyoln shahri burgomistri, GFRning bo'lajak kansleri Konrad fon Adenauer boshchilik qildi.

1923 yil 8 noyabrda Gitler boshchiligidagi qurolli natsistlar guruhi Bavariyaning amaldagi diktatori tomonidan tashkil etilgan majlis zaliga bostirib kirdi. Adolf Gitler "xalq inqilobi" amalga oshirilganligini e'lon qildi. Ertasi kuni politsiya namoyishga chiqqan natsistlarni tarqatib yubordi. Isyon shu tariqa yakun topdi. 11 noyabr kuni Gitler va Lyudendorf qamoqqa olindi.

2-§ Stabillashuv yillarida Germaniya

Nemis burjuaziyasi hukumatga qarshi yuz bergan harakatlarni bostirib o'zining iqtisodiy va siyosiy mavqeini vaqtincha mustahkamlab oldi. 1923 yil oxirida o'tkazilgan pul islohoti inflyatsiyani bir muncha bartaraf qildi. 8 soatlik ish kuni nogironlar va keksalarga beriladigan nafaqalar bekor qilindi. 1924 yil boshida harbiy holat yo'qotilib, yana parlament boshqaruviga o'tildi.

Germaniya iqtisodiyotini izdan chiqarish AQSH rejasida yo'q edi. Shu sababli Amerika hukumati vaziyatni o'zgartirishga qaror qildi. AQShning taklifi bilan amerikalik bankir Daues boshchiligidagi ekspertlar komissiyasi tashkil etildi. Komissiya Germaniyaning tovon to'lovlarini tartibga solish rejasini ishlab chiqdi. Uning takliflari 1924 yil 16 iyulda Londonda bo'lib o'tgan mamlakatlar konferensiyasida qabul qilindi.

Daues rejasiga ko'ra Germaniya sanoatini chet el zayomlari va kreditlari yordamida, shuningdek, Germaniya va Rossiya o'rtasidagi savdoni rivojlantirish yo'li bilan tiklash ko'zda tutilgandi. Reja bo'yicha Germaniya 1924-1925 budjet yilida g'olib davlatlarga oltin bilan 1 milliard marka tovon to'lashi kerak edi. Keyingi yillarda to'lov miqdori yiliga 2,5 milliardgacha ko'payishi ko'zda tutilgandi. Asta-sekin to'lovlar kamaytirilib, Germaniya iqtisodiyotining ahvoliga ko'ra amalga oshirilishi mo'ljallangan edi. Bu shart qabul qilingan taqdirda AQSH Fransiyaning qarzlaridan voz kechishini bildirdi. Fransuzlar bu rejani qabul qildilar va 1925 yilda so'nggi fransuz askari Rurdan chiqib ketdi. "Daues rejasi"ga muvofiq, AQSH Germaniyaning moliya ishlarini o'z nazoratiga oldi, hamda Germaniyaning og'ir va harbiy sanoatini tiklash uchun mo'ljallangan uzoq muddatli zayom va kreditlarning 70% ini berdi. 1924-1929 yillarda chet eldan Germaniyaga berilgan uzoq muddatli qarz 10-15 milliard markani va qisqa muddatli qarz 6 milliard markani tashkil qildi. Bu esa Germaniyaning shu yillardagi reparatsiya to'lovlaridan ikki hissa ko'p edi.

Daues rejasi qabul qilingach, Germaniyaga Amerika sarmoyasi to'xtovsiz oqib kela boshladi. AQShda Germaniya sanoatini zaruriy xom ashyo bilan ta'minlovchi qo'shma korxona tashkil etildi. Germaniyaning o'zida ham Amerika kompaniyalari o'z sho'balarini ochib, yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqara boshladi. 1925 yildan 1930 yilgacha AQSH Germaniya iqtisodiyotiga 10 milliard dollar sarmoya kiritdi. Bu esa Germaniya iqtisodiyotining tez sur'atlar bilan yuksalishi uchun zamin yaratdi.

Xorijiy sarmoya yordamida Germaniya sanoatchilari sanoatni tamomila qayta tikladilar va zamonaviylashtirdilar. Sarmoya va ishlab chiqarishni birlashtirish va markazlashtirish tez sur'atlar bilan davom etdi. Germaniyada kimyo, po'lat quyish va boshqa sohalarda ulkan monopol birlashmalar (IG Farbenindustri, "Po'lat tresti" va boshqalar) vujudga keldi. 1930 yilda bunday yirik konsernlar soni 2100 taga yetdi. Xo'jalik sohasi, transport, gazeta-jurnallar, kinostudiyalar, ko'ngilochar ermaklar, sport ularning tasarrufida edi. Iqtisodiyot va jamoatchilik fikrini belgilashda ular hal qiluvchi mavqega erishdilar.

Germaniya iqtisodiy taraqqiyotda katta muvaffaqiyatni qo'lga kiritdi. Veymar respublikasi yirik burjuaziyaning boyishi va sanoatning rivojlanishi uchun nihoyatda qulay

sharoitlar yaratgan ideal siyosiy ustqurma bo'lib chiqdi. Davlat iqtisodiy yuksalishni faollashtirish maqsadida o'zining budjet mablag'laridan o'rinli foydalandi.

Veymar respublikasi eski sarmoya sohiblari guruhini boyitibgina qolmay, yangi sanoatchilarning paydo bo'lishiga ham imkoniyat yaratdi. Masalan, 1925 yilda tashkil etilgan "IG Farbenindustri" kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha Yevropadagi eng yirik trestga aylandi. Germaniyaning butun kimyo sanoati uning tasarrufida edi. 1926 yilda tashkil etilgan birlashgan "Po'lat tresti" barcha temir va po'latning 40 foizini, ko'mirning 25 foizini ishlab chiqarardi.

1928 yilda Germaniyada 1913 yilga nisbatan 5 barobar ko'p elektr energiyasi, 7 barobar ko'p avtomobil, 32 barobar ko'p alyuminiy ishlab chiqarildi. Shu yili Germaniya kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda birinchi va po'lat ishlab chiqarish bo'yicha ikkinchi o'rinni egalladi. 1929 yilda Germaniya 16 mln. tonna po'lat ishlab chiqardi (Angliya - 10 mln., Fransiya-10 mln.), mashinalar eksporti bo'yicha dunyoda ikkinchi o'rinni oldi. Kapitalizmning stabillashuvi yillarida Angliyadan, ayniqsa, AQShdan olingan qarzlar hisobiga Germaniya sanoatida ratsionalizatsiya keng avj oldi. Ishlab chiqarish va kapital konsentratsiyasi hamda markazlashuvi yanada kuchaydi. Harbiy sanoat quvvati tiklanib bordi. Nemis-Amerika, Nemis-Ingliz monopoliyalarning aloqalari kengaydi. Germaniyada xususan Amerika kapitalining, ayniqsa, Morgan, Rokfeller, Mellon moliya gruppalarining mavqei tobora mustahkamlandi.

Germaniya G'arb davlatlari bilan yarashish yo'lini qidirardi, Sharqda esa, o'zining azaliy hududlarini qaytarib olish niyatida edi. Shu maqsadda, Germaniya 1925 yil oktabrda Angliya, Fransiya, Italiya, Belgiya, Polsha va Chexoslovakiya bilan birga Lokarno (Shvetsariya) konferensiyasida qatnashdi. Konferensiyada bir qancha bitimlar, jumladan Reyn ahdnomasi imzolandi. Sobiq dushmanlar muzokaralar stoli atrofida Yevropada yangi tartiblar o'rnatish haqida kelishib oldilar. Fransiya va Germaniya Versalda belgilangan o'zaro chegaralarning qonuniyligi va buzilmasligini tasdiqladilar. Angliya va Italiya bu bitimning kafolatchisi bo'ldi. Lokarno konferensiyasida qatnashgan davlatlar Germaniyaning g'arbiy chegaralarini buzmaslik to'g'risida o'zaro kelishib oldilar, lekin uning sharqiy chegaralari haqida hech qanday majburiyat olishmadi.

Germaniya Lokarno bitimlariga binoan, 1926 yil 10 sentabrda Millatlar Ittifoqiga kirdi. Ayni paytda Germaniya Versal tartibini yo'qotish va ittifoqchilar nazorati ostidan xolos bo'lishga intilmoqda edi.

Germaniya Amerika-Angliya moliya kapitalining yordami va AQSH monopolist doiralarning vakili Yungning aktiv ishtiroki bilan 1929 yil fevral-avgustida reparatsiya plani o'rniga yangi "Yung plani" qabul qilindi va u 1930 yil yanvaridan kuchga kirdi. Bu planga muvofiq, reparatsiya to'lovlari 20% kamaytirildi, reparatsiyaning umumiy summasi 113,9 milliard oltin markaga keltirilib, yillik to'lash summasi 2 milliard markagacha qilib belgilandi, to'lash 59 yilga (1988 yilgacha) uzaytirildi. Antantaning Germaniya iqtisodi ustidan nazorati batamom tugatildi.

Stabillashuv yillarida nemis burjuaziyasining siyosiy mavqei ham birmuncha mustahkamlandi. Burjuaziya bilan yunkerlar bloki tuzildi. 1923 yil oxiridan 1928 yil iyunigacha mamlakatni "Kichik koalitsiya"- o'ng burjua respublikachi partiyalari (katolik "Markaz", "Xalq partiyasi") koalitsiyasi boshqardi. Vilgelm Marks va Lyuter shu davrda tuzilgan hukumatlar tepasida turdilar. 1925 yil Ebert vafotidan keyin Kayzer armiyasining feldmarshali, birinchi jahon urushi jinoyatchilaridan biri bo'lgan ashaddiy monarxist Gindenburg prezident qilib saylandi.

Gindenburg reaksiya kuchlarini yanada mustahkamlash maqsadida 1928 yil martida reyxstagni tarqatib, may oyida yangi saylovlar o'tkazdi.

Gindenburgning topshirig'iga muvofiq, 1928 yil iyunida reyxstagdagi Sotsial-demokratiya fraksiyasining lideri German Myuller sotsial-demokratlardan va o'ng burjua partiyalari vakillaridan iborat "Katta koalitsiya" hukumatini tuzdi va 1930 yil martigacha mamlakatni boshqardi.

3-S. Jahon iqtisodiy inqirozi yillarida Germaniya. Fashizmning hokimiyati tepasiga kelishi

1928 yildayoq mamlakatda iqtisodiy krizisning yaqinlashayotganligi sezila boshlagan edi: ishlab chiqarish sur'ati pasaymoqda, ishsizlar soni ortmoqda, aholining xarid quvvati tobora kamaymoqda edi. Beqaror negizdagi stabillashuv 1929 yilga kelib barbod bo'ldi. Boshqa kapitalistik mamlakatlar qatorida Germaniyada ham iqtisodiy inqiroz boshlandi.

Versal shartnomasi va reparatsiya to'lovlari tufayli Germaniya G'arb davlatlariga moliyaviy jihatdan qaram bo'lib qolganligidan bu inqiroz chuqur inqirozga aylandi. Inqiroz xalq xo'jaligining hamma sohalarini chulg'ab oldi. Sanoat inqirozi agrar inqiroz bilan qo'shib ketdi va uzoq davom etdi. 1932 yilda sanoat mahsuloti 1929 yildagiga qaraganda 40,6% ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish esa 53% kamaydi. Sanoat ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish 23% pasayib ketdi. 1929 yilda 16,1 million tonna po'lat eritilgan bo'lsa, 1932 yilda 5,6 million tonna eritildi. Germaniya sanoatining barqarorlik yillaridagi (1924-1929) o'sishiga xorijiy davlatlardan olingan qarzlar va kreditlar sabab bo'lgan edi. Inqirozning ilk alomatlari ko'zga tashlanishi bilan barcha xorijiy sarmoyalar Germaniya iqtisodiyotidan qaytib olina boshlandi. Bu inqirozni yanada chuqurlashtirdi.

Iqtisodiy inqiroz va reparatsiya to'lovlari mehnatkashlarning ahvolini juda ham yomonlashtirib yubordi. Ishsizlar soni 1932 yilda 7 million kishiga yetdi. Burjuaziya Germaniyani fashistlashtira boshladi. Nemis monopoliyalari gitlerchilarni moliyaviy jihatdan tobora ko'proq qo'llab-quvvatladilar. 1931 yil oktabrida Gansburgdagi fashistlar partiyasi va tashkilotlari boshliqlarining o'ng burjua partiyalari va yirik monopoliyalar vakillarining, 1932 yil yanvarida Dyusseldorfda Gitler ishtirokida sanoatchilarning kengashlari o'tkazildi va mamlakatda fashistlar diktaturasini o'rnatish tadbirlari muhokama qilindi.

1930 yil 1 aprelda prezident Gindenburg Myuller o'rniga reyxkansler qilib katolik "Markaz" partiyasining lideri Genrix Bryuningni tayinladi. Yangi hukumat favqulodda dekretlar chiqardi, reyxstang tarqatildi. Mehnatkashlarning moddiy turmush darajasini yanada pasaytirib yubordi. Ishchi va xizmatchilarning ish haqi, ishsizlarga beriladigan nafaqalar ancha kamaytirildi. To'g'ri va egri soliqlar oshirildi. Jazo choralari kuchaytirildi. U buyuk iqtisodchi hisoblanadi, xalqqa uning asosiy maqsadlari iqtisodiyotni tushirishdan iborat, deb tushuntirishdi. Biroq, u bu niyatlarining birortasini ham amalga oshirishni uddalay olmadi. Aksincha, Gitlarning hokimiyat tepasiga kelishini aynan u ta'minladi, deb hisoblash uchun barcha asos bor. AQSH hukumati 1931 yilda reparatsiya to'lovlari muddatini kechiktirdi. 1932 yilda esa, bu to'lovlarni butunlay bekor qildi. Amerika monopolistlari fashistlar partiyasini qo'llab-quvvatladilar. 1929-1931 yillarda ular Gitlarga 25 million dollar berdilar.

Mamlakatda fashistlar va millitaristlar aktivlashdi, terror siyosati kuchaydi. Ular Germaniyada Versal sulh shartnomasini bekor qilishga chaqirdilar. Fashistlar partiyasi qoloq ishchilar va ishsizlarni, dehqonlar va mayda burjuaziyani o'z tomoniga ko'proq jalb etish uchun inqiroz qiyinchiliklaridan foydalanib, ishsizlikni tugatish, agrar islohat o'tkazish, trestlar ustidan davlat nazoratini o'rnatish kabi shior va yolg'on va'dalar bilan, millatchilik va shovinizm, tajovuzkor irqiy "nazariya"ni tobora keng tashviqot qilish yo'li bilan, "Buyuk Germaniya" barpo qilish shiori bilan o'z ijtimoiy tayanchini kengaytirdi. Ular "SS" (soqchi qo'riqchi otryadlari) va "SA" (shturm otryadlari) tuzdilar. Ular Tyuringiyada, Braunshveyg va Oldenburgda hokimiyatni qo'lga oldilar. 1930 yil sentabrida, ayniqsa, 1932 yil iyulidagi reyxstagga bo'lgan saylovlarda fashistlar ham ancha ko'p (6,4 va 13,7 million) ovozga ega bo'ldi. (1928 yilgi saylovlarda esa 800 ming ovoz olgan edilar). Ularning deputatlik mandatlarining soni 230 ga yetdi. 1932 yilda prezidentlikka Gitler nomzodi ko'rsatildi. Gitler saylovning birinchi davrasida 11,3 million (30%), ikkinchi davrasida 13,4 million (37%) ovozga ega bo'ldi. Saylov kompaniyalarida Gitlerchilarning muvaffaqiyat qozonishi o'ng burjuaziya lagerida ularning mavqeini kuchaytirdi. Burjua hukumati esa fashizmga keng yo'l ochib bermoqda edi. Sotsial-demokratiya xoinlari 1932 yil mart-aprel oylarida xalq ommasiga murojaat qilib prezident saylovlarida Gindenburg uchun ovoz berishga chaqirdilar. Gindenburg 19 million ovozga ega bo'lib, 83 yoshda bo'lishiga qaramay prezidentlikka qayta saylandi.

Bryuning parlamentning emas, shaxsan Gindenburgning qo'llab-quvvatlashiga tayanib mamlakatni 2 yil davomida boshqardi. Iqtisodiy ahvol yaxshilanmadi, siyosiy vaziyat esa keskinlashib bordi. Bryuning Germaniya hukmron doiralaridagi konservativ kuchlarning ko'magidan mahrum bo'ldi. 1932 yil 30 mayda Bryuning vazifasidan chetlashtirildi va uning o'rniga Frans fon Papen (1879-1969) tayinlandi. "Baronlar kabineti" degan nom olgan hukumat tarkibiga prezident o'g'li va Birinchi jahon urushida nom chiqargan bir nechta harbiy arboblarni kiritildi. Reyxstag faoliyati to'xtamadi, yangi kabinet bir necha oy davomida nazoratsiz hukmronlik qildi.

1932 yil mayda prezident tomonidan katolik "Markaz" partiyasining reaksiyon arbobi Fon Papen boshchiligidagi manapolistik hukumat tuzildi. U gitlerchilar bilan yaxshi aloqada edi. Gindenburgning qayta saylanishi va Fon Papen (1932 yil dekabrda esa general Shleyxer) hukumatining tuzilishi fashistlar uchun tag'in ham qulay sharoit yaratdi. Mamlakat yanada fashistlashib bordi. Xuddi shu hukumatning yordami bilan Tyurengiya kabi ba'zi o'lkalarda milliy-sotsialistlarning hukumatlari tuzildi.

Gitlerning hokimiyatga bunday tez ko'tarilishiga Germaniya yirik sarmoyasi ko'maklashdi.

Gitlerning o'z homiylari bilan birinchi uchrashuvi 1932 yil 27 yanvarda bo'lib o'tdi. "Po'lat tresti"ning direktori Tissen uni Germaniya sanoatchilariga tanishtirdi. Gitlerning 4 soatga cho'zilgan nutqi shunday iboralardan tuzilgan edi: "Demokratiya - axmoqlar ishi", "Biz Germaniyada marksizmning ildizini quritishga qaror qildik", "Oq irq Yerni kurrasida yashovchi boshqa barcha xalqlarni o'ziga bo'ysundirishi lozim". Stinnesning "Buning uchun nima kerak?"- degan savoliga, Gitler qisqa qilib: "8 mln. kishilik armiya", deb javob berdi.

Germaniya sanoatchilari mamnun edilar. Ularga serharakat odam kerak edi, Gitler ularning millat rahbari borasidagi talablariga to'liq javob berardi. Ular Gitlerni rasman fyurer, ya'ni dohiy deb atay boshladilar. Sanoatchilar Gitlerning hokimiyatga kelishini ta'minlash uchun juda qattiq ish olib bordilar.

Gitlerning boshqa homiylari ham bor edi. Yirik Amerika tijoratchilari Gitlerga Germaniya sanoatchilaridan ham oldinroq e'tibor bergandilar. Amerikaning avtomobil qiroli Genri Ford Gitlerni 1922 yildayoq mablag' bilan ta'minlay boshladi. 1938 yilda, hokimiyat cho'qqisida bo'lgan paytda Gitler G.Fordni Germaniyaning oliy ordeni - Katta Xoch bilan mukofotladi. Gitlerning hokimiyatni egallashiga ko'maklashgan yana bir Amerika kompaniyasi "Jeneral Elektrik" edi. Shu ikki kompaniya ko'maging o'zi Gitlerni butun Amerika yirik tijorati qo'llab-quvvatlashi uchun yetarli bo'ldi. Gitler - urush degan so'z ekanini hamma yaxshi tushunardi, Yevropadagi urush esa Amerika tijorati uchun daromad manbai edi. Ikkinchi jahon urushi davrida Ford ikkala tomondan - Gitler vermaxti uchun transport vositalari ishlab chiqargan Fransiya va Germaniyadagi korxonalari hamda Amerika armiyasi uchun undan harbiy avtomobillar xarid qilgan AQSH hukumatidan foyda olgani ma'lum.

1932 yil sentabrda Fon Papen Reyxstagni tarqatdi, general Shleyxer hokimiyat tepasida turgan vaqtda (1932 yil dekabr - 1933 yil yanvar) Gitlerchilar, "Po'lat Dubulg'a", reyxsver va o'ng burjua partiyalari bilan birgalikda harakat qilish to'g'risida qat'iy bitimga keldilar. Barcha eng reaksiyon partiya va bloklarning "Milliy konsentratsiya" degan bloki paydo bo'ldi. Yirik monopoliyalarni, banklarning vakillari va generallar uzil-kesil fashistlar tomonga o'ta boshladilar. Gindenburgga Germaniyaning 20 dan ortiq moliya magnatlari imzolagan noma yuborilib, unda Gitlerni darhol reyxskansler etib tayinlash talabi qo'yildi. 1933 yil 4 yanvarda Gitler Germaniyaning yirik va yetakchi sanoatchi va sarmoyadorlari ishtirokida majlis o'tkazdi, unda Gitler kansler bo'lishi kerak, degan qarorga kelindi. 1933 yil 30 yanvarda prezident Gindenburg fashistlar partiyasining boshlig'i Gitlerni reyxskansler qilib tayinladi. Fon Papen vitsekansler lavozimini egalladi. Shunday qilib, Germaniyada oshkora fashistik diktatura-moliya kapitalining eng reaksiyon, eng shovinistik va eng imperialistik elementlarining terroristik diktaturasi o'rnatildi.

Natsistlar partiyasining qat'iy nizomga bo'ysundirilgan tizimi va ommaviy siyosiy targ'ibot totalitar tuzum apparatini vujudga keltirdi. U yirik sarmoya manfaatlarining ijrochisi,

hukmron sinflarning quroliga aylandi, biroq uning ommaviy tayanchi shaharlar va qishloqlar, ulardagi sinfsizlashgan unsurlar hisoblanardi. Bu ijtimoiy guruhlar oldingi hukumatlar tomonidan o'z holiga tashlab qo'yilgan bo'lib, umidsizlikka tushgan va qashshoqlashgan, keskin o'zgarishlar ro'y berishiga mushtaq edilar. Gitler ularga ish, faravonlik va yashash sharoitlarini yaratib beruvchi hukumat va'da qildi. U buyuk va qudratli Germaniyani tiklashga, Germaniya xalqining barcha musibatlari sababchisi bo'lgan Versal bitimini bekor qilishga so'z berdi. Bu uning bayroqlari ostiga juda ko'pchilikni jalb qildi, ular Gitlarga ko'r-ko'rona ergashdilar. 1933 yil iyulida Germaniyada shturmchilar nazorati ostida umumxalq plebissiti o'tkazilib, unda 36 mln. aholi Gitler siyosatini qo'llab-quvvatlashlarini bildirdi. Bu Gitlerni ruhlantirdi va o'z siyosatining amalga oshishiga to'liq ishonch bag'ishladi.

Natsistlar rahbariyatining bosh maqsadi Yevropa qit'asida hukmronlik o'rnatish edi; bunga oldin barcha nemiszabon xalqlarni birlashtirish, so'ng esa hayotiy kenglik ("lebenstraum") uchun kurash shiori ostida hududlarni bosib olish yo'li bilan erishish ko'zda tutilardi. Gitler asosiy e'tiborini shu maqsadni amalga oshirishga qaratdi.

4-§. Ikkinchi jahon urushi arafasida Germaniya

Hokimiyatni qo'lga olgan fashistlar so'l kuchlarga va ularning barcha tashkilotlariga qarshi mislsiz terrorni avj oldirib yubordilar. Gitlerchilar kommunistlarni va progressiv kishilarni ko'plab qirish maqsadida qabih ig'vogarlik bilan 1933 yil 27 fevralda reyxstag binosiga o't qo'yib, bu voqeada kommunistlarni aybladilar. Sotsialistlar partiyasidan boshqa barcha siyosiy partiyalarni tarqatish to'g'risida qonun qabul qilindi. Vaxshiyona millatchilik, yaxudiyarga qarshi pogrom (ur-yiqit)lar, kuchaytirildi. Dunyo madaniyatiga qarshi kurash avj oldirildi. Ko'chalarda kitoblar gulxan qilib yoqildi. 5 mingdan ortiq olimlar, yozuvchilar, san'atkorlar mamlakatdan haydaldi va kanslagerlarga tashlandi.

1933 yil mart oyi boshlarida Germaniyada yana saylovlar bo'lib o'tdi. Natsistlar unda 44% ovoz oldilar. Gitler o'zining natsistlar hukumatini tuzdi va 23 martda reyxstag Gitlarga o'z dekretlari bilan mamlakatni boshqarish huquqini beruvchi qonun qabul qildi. Gitler cheklanmagan huquqlarga ega bo'ldi. Reyxstag saqlab qolinsada, uning ahamiyati qolmadi. Nemis o'lkalarining avtonomiyasi bekor qilindi: o'lkalar Gitler tayinlagan maxsus kishilar tomonidan boshqarila boshladi. 1934 yil avgustida Gindenburg vafotidan so'ng prezidentlik lavozimi bitirildi. Gitler prezidentlik huquqini va vakolatini ham o'z qo'lga kiritib olib total (umumiy, yalpi) diktatura o'rnatdi va umrbod "fyurer" (dohiy) va "reyxskansler" unvoniga ega bo'ldi.

Hokimiyatni egallagach, Gitler natsistlar partiyasidan boshqa barcha siyosiy partiya va tashkilotlarni ta'qiqlovchi farmon chiqardi. Reyxstag tarqatildi, kasaba uyushmalari o'rniga natsistlar partiyasiga to'liq bo'ysunuvchi va korxonalarning xo'jayinlari irodasiga itoat etuvchi "Germaniya mehnat fronti" tashkil qilindi. Barcha matbuot nashrlari (gazetalar, jurnallar, byulletenlar) yopildi yoki natsistlar partiyasi nazorati ostiga o'tkazildi. Barcha bolalar va o'smirlar tashkilotlari tarqatildi yoki natsistlar tashkilotlariga bo'lajak a'zolari tarbiyalovchi "Gitleryugend" yoshlar tashkilotiga qo'shib olindi. Davlat apparatida puxta tozalash ishlari amalga oshirildi.: natsistlar mafkurasidan ozgina chekingani sezilgan yuz minglab xizmatchilar ishdan bo'shatildilar, ularning o'rinlarini esa jigarrang mundirdagi "partaygenosse" (ya'ni natsistlar partiyasi a'zolari) egalladilar.

Qurolli kuchlarda barcha ofitserlar natsistlar partiyasiga a'zo bo'lishlari va Gitler mafkurasiga so'zsiz itoat etishlari shart edi. 1933 yil oxiriga kelib muxolif marralarda turgan barcha tashkilotlar yo'q qilindi. Terror faqat siyosiy raqiblarni yo'q qilish vositasi emas, nemis xalqini qo'rqitish omili ham hisoblanib, har bir nemis fuqarosi qarshilik ko'rsatishning befoydaligini, qarshilik ko'rsatgan muqarrar halok qilinishini va natsistlar rahbariyatiga so'zsiz itoat etish zarurligini anglab yetishi lozim edi. Natsistlar tuzumining bosh jazo idorasi xavfsizlik otryadlari (SS) bo'lib, uni Genrix Gimmler (1900-1945) boshqarardi.

SSning tarkibiy qismini maxfiy politsiya (gestapo) va SS qo'mondoni (reyxsfyurer)ning xavfsizlik xizmati - SD tashkil qildi. Ular xalqi va bosib olingan hududlarning aholisi ustidan yalpi nazorat o'rnatdilar.

"Reyx dushmanlari", ya'ni o'zgacha fikrlovchilar, demokratik tashkilotlarning vakillari, harbiy asirlarni ommaviy ravishda qirg'in qilish uchun maxsus konsentratsion lagerlar barpo etilib, ularda odamlar ommaviy qirg'in qilindi. Bunday lagerlar jami 15 ta bo'lib ularda 10 mln.ga yaqin odam yo'q qilindi. Natsizm yahudiy aholini to'liq qirib tashlashning maxsus dasturini ishlab chiqdi. Natsistlar hokimiyatni qo'lga kiritganlaridan so'ng antisemitizm rasmiy siyosatga aylandi. Bu insoniyat tarixidagi eng shafqatsiz, g'ayriinsoniy va keng miqyosli irqiy ta'qib bo'ldi. Natsistlar antisemitizmdan "ommani alangalatuvchi ruhiy uchqun" sifatida foydalandilar. Yahudiylar maxsus ajratilgan joylar (getto)da yashashlari lozim edi, ular davlat idoralariida ishlash huquqidan mahrum qilindilar, shuningdek, ular kiyimlarida maxsus belgi (olti qirrali yulduz) taqib yurishga majbur edilar. Maxsus dastur ("xolokast" - yakuniy qaror)ning amalga oshirilishi natijasida Yevropada 6 mln.dan ortiq yahudiy qirib tashlandi.

Germaniya iqtisodiyotida mamlakat sanoatining asosini tashkil qiluvchi 30 ta eng yirik sanoat konsernlari - "IG Farbenindustri" (kimyo mahsulotlari, dori-darmon, porox, sintetik benzin va kauchuk ishlab chiqarish), "Feraynigte Shtalverke" (po'lat ishlab chiqarish), "Krupp", "Flik", "Mannesman", "Simens", AEG va boshqalar yetakchi o'rin egallab turardi. Butun natsistlar siyosiy tizimi ularning imkon qadar ko'p foyda qilishlari asosiga qurildi va butun nemis xalqi ularning xizmatiga jalb qilindi. Gitler ularning boyishi uchun eng qulay sharoitlarni yaratib berdi. "Krupp"ning daromadi 1934-1940 yillarda 4 baravar, "IG Farbenindustri"ning daromadi 17 baravar, "Flik"niki - 65 baravar oshdi.

1936 yilda militaristik "4 yillik plan" qabul qilindi. Avtarkatsiya siyosati (bosqinchilik urushiga tayyorlanish uchun mamlakat mustaqil iqtisodiga ega bo'lishga qaratilgan iqtisodiy siyosat) "yog' o'rniga zambarak" siyosati yurgizildi. 1937 yilgacha qayta qurollanish uchun 46 mlyard marka sarflandi. To'rt yil ichida barcha mamlakatlarning armiyasidan bir necha baravar ustun bo'lgan eng zamonaviy armiya tashkil qilinishi lozim edi. Butun siyosat faqat urush olib borish nuqtai nazaridan ko'zdan kechirilardi. Qisqa vaqt ichida sanoatchilar eng zamonaviy qurol-aslahalarni yaratdilar. Tanklar, samolyotlar va artilleriya boshqa mamlakatlarning qurollaridan sifat jihatidan ancha ustun edi. Barcha imkoniyatlar qurol-aslaha ishlab chiqarishga safarbar etildi. "Moy o'rniga to'plar" - natsistlar rahbariyatining shiori shunday edi. Germaniyaning urushga tayyorgarlik ko'rish borasidagi xarajatlari besh yil ichida 10 baravar oshdi, bu davrda 90 mlyard. marka sarf qilindi. 1939 yilda qurollanishga mutanosib narxlarda Angliya - 5 mlrd., Fransiya - 2,3 mlrd. marka pul sarflagani holda, Germaniyaning bu boradagi xarajatlari 18 mlrd. markani tashkil qildi.

1938 yilda Germaniya sanoat mahsulotining yalpi xajmi jihatidan Angliya va Fransiya yana o'zib ketdi va kapitalistik dunyoda AQShdan keyin ikkinchi o'rinni egalladi. 1933 yil Oktabrida Germaniya Millatlar ittifoqidan chiqdi. U Versal sulh shartnomasini va Lokarno shartnomasini qo'pol ravishda buzdi. Gitler Germaniyasi Angliya va Fransiya mustamlakalarini bosib olishni, Angliya va Fransiyaning, hatto AQShni ham o'ziga bo'ysundirib kapitalizmning "birlashtirilgan" kuchlarini Sharqqa qarshi qaratishni, jahonda o'z hukmronligini o'rnatishni asosiy maqsad qilib qo'ydi.

1935 yil mayda esa Versal bitimining qurollanishga tegishli bandlarini bekor qilganini e'lon qildi. Kapitalistik davlatlar o'rtasida kuchlar nisbati Germaniya foydasiga o'zgara boshlagach, 1936 yildan e'tiboran German fashistlari mustamlakalar va ta'sir doiralarini qayta taqsimlashni qat'iy talab qildilar. 1936 yilda imperiya mustamlaka soyuzi tuzildi. 1938 yilda uning a'zolari 1 mln. kishiga yetdi. Shovinistik mustamlakachilik tashviqoti avj oldi. AQSH, Angliya va Fransiya hukmron doiralari Germaniya imperializmini rag'batlantirib, uning qayta qurollanishiga yordam berdilar. 1933 yil iyulida Angliya va Fransiya hukumatlarining tashabbusi bilan Rimda Angliya, Fransiya, Germaniya va Italiya hukumatlari o'rtasida "birdamlik va hamkorlik ahdnomasi" ("To'rtlar ahdnomasi") imzolandi. 1934 yil yanvarida Germaniya bilan Polsha o'rtasida o'zaro hujum qilmaslik to'g'risida shartnoma tuzildi. Bu shartnoma SSSRga

qarshi agressiya tayyorlashda muhim bir qadam bo'lishi bilan birga, Fransiyaning Sharqiy Yevropadagi pozitsiyasiga ham zarba berar edi. 1935 yil yanvarida fashistlar Saarda "plebissit" o'tkazib, uni Germaniyaga qayta qo'shdilar va Germaniya Yevropada Saardan boshqa joylarga nisbatan hudud masalasida biror talab bilan chiqmaydi, deb nayrang ishlatdilar. 1935 yil martida Gitler hukumati umumiy harbiy majburiyat joriy qildi, doimiy armiya tuzilishini rasmiy e'lon qildi. Yuz minglab nemis yoshlari armiyaga olindi nemis bosh shtabi qayta tiklandi. 1934 yil mayida bosh shtab monopoliyalarining vakillari bilan birgalikda qurollanishning maxfiy planini ishlab chiqib, 1935 yil iyunida Angliya-Germaniya dengiz bitimi asosida harbiy dengiz floti qurila boshladi. 1936 yil 7 martda esa, Versal va Lokarno shartnomalariga muvofiq demilitarizatsiyalashtirilgan Reyn zonasiga qo'shin kiritdi va bosib oldi. Bu Versal bitimining to'g'ridan-to'g'ri buzilishi edi. 1936 yil iyulida Germaniya Avstriya bilan bitim va yashirin protokolini imzolab, amalda Avstriyani ichki va tashqi siyosatini o'z nazorati ostiga oldi, bu esa german fashistlarining Avstriyani Germaniyaga qo'shib olish ("anshlyus") rejalarilarini amalga oshirish uchun qulaylik tug'dirdi. Gitler Germaniyasi 1936-1939 yillarda Ispaniya respublikasiga qarshi fashistik Italiya bilan birgalikda intervensiya uyushtirdi. 1936 yil oktabrida Germaniya bilan Italiya o'rtasida ittifoqlik shartnomasi tuzildi. 1936 yil noyabrda Germaniya bilan Yaponiya "Antikomintern pakti" tuzdilar. 1937 yil noyabrda "Kommunizmga qarshi kurash" shiori ostida tuzilgan bu harbiy siyosiy blokka Italiya ham qo'shildi va "Berlin-Rim-Tokio uchburchagi" vujudga keldi. Gitlerga ayniqsa, ikki mamlakat- Avstriya va Chexoslovakiya zarur edi. Ikkala mamlakat ham rivojlangan og'ir sanoatga ega bo'lib, Markaziy Yevropada muhim mavqeni egallardi. Chexoslovakiya Ruminiya, Vengriya, Polsha, Avstriya va SSSR bilan umumiy chegaralarga ega edi, Avstriya esa Germaniyaga Yugoslaviyaga bostirib kirish imkonini berardi. 1938 yil 13-14 mart kunlari Gitlerchilar Avstriyani bosib oldilar.

1938 yil 21 aprelda Gitler Bosh shtab boshlig'i general Keytel (1882-1946)ga Chexoslovakiyaga bostirib kirish va uni ishg'ol qilish rejasini ishlab chiqish to'g'risida ko'rsatma berdi. Bundan ham oldin Sudet nemislari natsistlari rahbari Konrad Genleyn (1898-1945) Gitlerdan Chexoslovakiya hukumatiga bajarib bo'lmaydigan talablar qo'yish, hukumat ularni qabul qilsa, yanada og'irroq talablar bilan murojaat qilish to'g'risida ko'rsatma oldi. Chexoslovakiya hukumati Genleynning asosan nemislar yashovchi Sudet viloyatiga muxtoriyat berish to'g'risidagi talablarini qondirishdan bosh tortdi. Berlindan berilgan buyruqqa muvofiq butun Chexoslovakiyada nemis aholisi bosh ko'tardi, politsiya bilan qurolli to'qnashuvlar ro'y berdi. 1938 yil 29 sentabrda Myunxenda AQSH ning maslahatiga ko'ra Germaniya, Italiya, Angliya va Fransiya hukumat boshliqlarining konferensiyasi bo'lib o'tdi, sharmandali va jinoiy bitim imzolandi. 10 oktabrda konferensiya qaroriga ko'ra Chexoslovakiya Teshen viloyatini Polshaga berdi, 2 noyabrda esa Germaniya tashqi ishlar vaziri Ribbentrop va Italiya tashqi ishlar vaziri graf Chiano Vengriyaga Slovakiyaning bir qismini berish to'g'risidagi bitimni imzoladilar. Shu taxlit Chexoslovakiyani bo'lib tashlash amalga oshirildi. Myunxen bitimiga muvofiq - 1938 yil kuzida Gitler qo'shinlari Chexoslovakiyaning Sudet viloyatini, 1939 yil martida Chexoslovakiyani butun viloyatini bosib oldi. Chexoslovakiya parchalab yuborildi. Slovakiya rasman mustaqil, amalda Germaniyaga tobe davlatga aylandi. Chexoslovakiyaning asosiy qismi Bogamaya va Moraviya "Protektorati" nomi bilan Germaniya tarkibiga qo'shib olindi.

Gitlerchilar o'sha yilning 1939 yil martida Litvaning Klaypet viloyatini ishg'ol qildilar. Fashistlar Yevropaning Sharqi va Sharqi-Janubida o'z pozitsiyalarini tobora kuchaytirdi. 1939 yil boshlarida Vengriya va Ispaniya "Antikomminterin pakti"ga jalb qilindi. 1938 yil oktabr va 1939 yil martida Gitler Germaniyasi Dansigni Germaniyaga qo'shish, Germaniyaning asosiy tumanlari hududini sharqiy Prussiya bilan bog'lash uchun Polsha hududidan avtomashinalar qatnaydigan maxsus uskunalar yo'l va tor izli temir yo'l qurish to'g'risida Polshaga talablar topshirildi. Germaniya bilan Polsha o'rtasida jiddiy nizo boshlandi. Gitlerning topshirig'i bilan 1938 yil noyabrda Polshani bosib olish "Veys" rejasi ishlab chiqildi.

Germaniya haddan tashqari tezkor usulda harbiylashtirildi. 1933 yildan 1939 yilgacha qurollanishga juda katta pul 90 milliard reyx marka sarflandi. Urushga tayyorlanishga har yili davlat budjetini 2/3 qismi ajratildi. 1938 yilga kelib Germaniya xo'jaligi va armiyasining "katta

urush”ga tayyorligi asosan tugallandi. Revanshist German armiyasi qayta tiklandi, soldat va ofitser soni 1,5 million kishidan oshdi. Diviziyalar soni 1939 yilda 51 taga yetdi. Harbiy havo floti tez rivojlandi. 1939 yilda chegara istehkomlari qurilishi tamomlandi.

Angliya 1938 yil sentabrida, Fransiya 1938 yil dekabrda Germaniya bilan hujum qilmaslik to‘g‘risida bitimlar tuzdilar. Gitler Germaniyasi oldin g‘arbiy davlatlarga hujum qilishni, shu bilan butun Yevropani kuch qudratini o‘ziga bo‘ysundirishni rejalashtirdi.

Biroq, Chexoslovakiya bosib olinganidan so‘ng G‘arb mamlakatlari tashvishga tushib qoldilar. 1939 yil 31 martda Angliya hukumati Polshani chetdan unga qarshi agressiya uyushtirilgan taqdirda, «har tomonlama yordam» berishiga ishonitirdi. Fransiya hukumati ham xuddi shu gapni takrorladi. Biroq, Gitler Angliya ham, Fransiya ham Polsha uchun urushmasliklari, buning ustiga ular urushga tayyor emasliklarini yaxshi tushunardi. 1939 yil 11 aprelda «Veys» rejasining uzil-kesil varianti tuzilib, unda Gitler «Polshani nihoyat bir yoqli qilish», «Polshaning harbiy qudratini yakson qilish» va Polshani davlat sifatida tugatish zarurligini uqtirdi. Polshaga hujum 1939 yil 1 sentabrga belgilandi.

1939 yilning yozida Germaniya SSSRga murojaat qilib xujum qilmaslik to‘g‘risida shartnoma tuzishni taklif qildi. 1939 yil 23 avgustda Germaniya bilan SSSR o‘rtasida hujum qilmaslik ahdnomasi imzolandi. Endi Polshaga hujum qilish uchun yo‘l ochiq edi. 1939 yil 1-sentabrda Gitler Germaniyasi Polshaga hujum qildi va ikkinchi jahon urushini boshlab berdi. Bundan tashvishga tushgan Angliya va Fransiya 3 sentabrdan Germaniyaga urush e‘lon qilishga majbur bo‘ldilar shunday qilib, ikkinchi jahon urushi boshlandi.

Mavzu: 1918-1938 YILLARDA AVSTRIYA

1-§. Urushdan keyingi iqtisodiy va siyosiy inqiroz yillarida Avstriya

Ko'p millatli Avstriya-Vengriya imperiyasi Yevropaning eng qoloq mamlakatlaridan biri edi. Mehnatkashlar ommasi kapitalistik va feodal zulm ostida azob chekdi. Birinchi jahon urushi mehnatkashlarning ahvolini yanada yomonlashtirib yubordi.

Sanoat kapitalining konsentratsiyasi va markazlashuvi, moliya oligarxiyasi kuchayib ketdi. Germaniyaning yordami bilangina Avstriya-Vengriya to'la halokatga uchramay, urushni ma'lum vaqtga qadar davom ettira oldi. Lekin urushda Avstriya-Vengriya ko'p talofat ko'rdi, 4 mlndan ortiq kishi o'ldi, yarador bo'ldi va asir tushdi. Avstriya-Vengriya 1918 yil 3 noyabrda taslim bo'lish to'g'risida Antanta bilan bitim imzoladi. Avstriya-Vengriya monarxiyasi urushda yengilishi va milliy ozodlik harakatining yuksalib borishi natijasida halokatga uchradi. Imperiya parchalandi; Vengriya va Chexoslovakiya mustaqil davlat sifatida imperiya tarkibidan chiqdilar. Janubiy slavyan viloyatlarida Serbiya bilan birgalikda yangi Yugoslaviya davlati barpo etildi. Triyent, Triyest va Janubiy Tirol Italiyaga o'tdi. Transilvaniyaning bir qismi, Banat va Bukovina Ruminiyaga qo'shildi. Shu tariqa, reaksiya Avstriya Vengriya imperiyasi yakson bo'ldi. Mamlakatda monarxiyani bitirish va respublika tartibini joriy qilish talablari ilgari surildi. 1918 yilda 29-30 oktabrlarda Venada xalq ommasining ishchilar va soldatlarning respublika barpo qilish shiorlari ostida ommaviy namoyishlari bo'ldi. Noyabr oyida ham kurash davom etdi. Shu tariqa, siyosiy kurash keskinlashayotgan bir sharoitda, 1918 yil 12 noyabrda Muvaqqat millat majlisi Avstriyani respublika deb e'lon qildi. Gabsburglar monarxiyasi davrida burjuaziya Avstriya mehnatkashlarini va 52 mln. kishidan iborat bo'lgan slovyan aholisini qattiq ekspluatatsiya qilish hisobiga yashadi va boylik orttirdi. Monarxiya parchalanib ketgandan so'ng yangi Avstriya davlatining hududi ancha torayib aholisining soni 6,1 million kishidan iborat bo'lib qoldi, xolos.

Avstriya sanoati agrar mamlakat edi. Ishga layoqatli aholining 33% sanoat va hunarmandchilikda, 31% qishloq xo'jaligida va o'rmon xo'jaligida ishlar edi. 1919 yil 16 fevralda Ta'sis majlisiga saylovlar o'tkazildi, demagogiya metodlarini ishga solgan sotsial-demokratlar 170-deputatlik mandatidan 72 tasini egalladilar. Sotsial-demokratlar burjua partiyalari bilan birga 1919 yil martida yana koalitsion hukumat tuzdi. Asosiy ministrlar lavozimlarini va hatto muhim davlat mansablarini egalladilar: Sotsial-demokratlardan Karl Zeyts respublika prezidenti qilib saylandi. Karl Renner davlat kansleri va ichki ishlar ministri qilib saylandi. 1919 yil 10 sentabrda Parij yonidagi Sen-Jermenda Antanta bilan Avstriya o'rtasida sulh shartnomasi tuzildi. Shu shartnomaga muvofiq, Avstriya ilgari bosib olgan bir qancha hududlaridan mahrum bo'ldi, hamda ko'pgina yerlar Italiya, Yugoslaviya, Chexoslovakiya va Ruminiya kabi davlatlar ixtiyoriga o'tdi. Avstriyaga faqat 30 ming kishilik armiyaga ega bo'lish huquqi berildi va mamlakatda umumiy harbiy majburiyat bekor qilindi. Avstriyaning Dunay flotiliyasida va boshqa yerlardagi hamma harbiy kemalari Antanta davlatlariga topshirildi. Avstriya 30 yil davomida Antantaga reparatsiya to'laydigan bo'ldi. Maxsus reparatsiya komissiyasi tuzilib, Avstriya iqtisodiyoti ustidan Amerika, Angliya va Fransiya davlatlarining nazorati o'rnatildi. 1920 yil 1 oktabrda ta'sis majlisida Avstriya respublikasi konstitutsiyasi qabul qilindi. Konstitutsiyaga muvofiq Avstriya bir necha o'lkalardan (Yuqori Avstriya, Quyi Avstriya, Shtiriya, Karintiya, Tirol, Forarlburg, Zalsburg, Burgenland va Venadan) tashkil topdi va «federativ davlat» deb ataldi. Keyinroq bu davlat «Avstriya respublikasi» nomini oldi, o'lkalar avtonom huquqga ega bo'lib, ularda qonun chiqaruvchi mahalliy organlar - landtaglar tashkil qilindi. Avstriya parlamenti quyi palata - «Milliy Sovet» va yuqori palata - «Federal Sovet»dan iborat edi. «Milliy Sovet» esa, landtaglarning vakillaridan tuzildi. «Federal Sovet» keng huquqlarga ega bo'ldi. Prezident ikki palataning qo'shma majlisida saylandi va uning huquqlari cheklandi. 1920 yil 17 oktabrda yangi konstitutsiya asosida «Milliy Sovet»ga saylovlar o'tkazildi. Katolik cherkovi dehqonlarga kuchli ta'sir ko'rsatganligi natijasida hukumat Xristian-sotsialistlardan tuzildi. Yirik pomeschik Gaynish respublika prezidenti qilib saylandi. Sotsial-

demokratik partiya hukumat tarkibidan chiqib, «Oppoitsiya»ga o'tib oldi va amalda, shu niqob ostida burjua -pomeschiklar hukumatini qo'llab-quvvatladi. Avstriya burjua reaksiyasining asosiy partiyasi bo'lgan Xristian-sotsial partiya ishchilar sinfining yangi inqilobiy ko'tarilishiga qarshi kurashda xeymver («vatanni himoya qilish soyuzi») qurolli fashist to'dalariga tayanib ish ko'rdi. Xeymver 1919-1920 yillarda tuzilgandi. 1922 yil mayida Xristian-sotsial partiya o'ng gruppasining lideri Ignats Zeypel boshchiligida «kuchli» hukumat tuzildi. Nemis natsional partiyasi vakillari ham shu hukumat tarkibiga kirdi. Bu hukumat ichki siyosatda reaksion diktatura rejimini o'rnatishga, tashqi siyosatda Markaziy va Sharqi-Janubiy Yevropada o'z hukmronligini tiklashga, Dunay federatsiyasi loyihasini amalga oshirishni ko'zda tutdi. 1922-1924 va 1926-1929 yillarda mamlakatni Zeypel hukumati boshqardi.

2-§. Stabillashuv yillarida Avstriya

Avstriyada beqaror stabillashuv 1925 yildan boshlandi. Lekin inqiroz davom etdi. Hukumat inqirozdan qutulish maqsadida chet el davlatlariga Millatlar ittifoqiga yordam so'rab murojaat qildi. 1924 yil 4 oktabrda Jenevada Avstriya bilan Angliya, Fransiya, Italiya va Chexoslovakiya o'rtasida bitimlar imzolandi. Jeneva bitimlariga muvofiq Avstriyaga iqtisodiy va moliyaviy jihatdan yordam berish uchun oltin bahosida 650 mln kron uzoq muddatli zayom berildi, reparatsiya to'lash muddati 20 yilga uzaytirildi. 1923 yilda Rurning Fransiya tomonidan okkupatsiya qilinishi natijasida G'arbiy Germaniya sanoatining og'ir ahvolda qolishi munosabati bilan Avstriyadan temir va metal buyumlari ko'p eksport qilindi. Natijada mamlakatning xo'jalik ahvoli bir muncha yaxshilandi. Biroq, Rur okkupatsiyasi tamom bo'lishi bilan Avstriya eksportining qisqarishi orqasida 1924 yilda yangi iqtisodiy inqirozi so'ngra depressiya boshlandi. 1927 yili Avstriya sanoat ishchilarining 1/3 qismi ishsiz qoldi. Faqat 1928 yilga kelib sanoat ishlab chiqarishi rivojlanib, urushdan oldingi darajaga yetdi. Sotsial-demokratik partiya siyosati va taktikasi Avstriya burjua reaksiyasiga juda ham qo'l keldi. Mamlakatda fashistik tendensiya va fashistik tashkilotlari kuchaya bordi. Hukmron doiralar ishchilar harakatiga qarshi kurash olib borish uchun fashist tashkilotlarining o'sishiga yo'l ochib berdi. German fashizmining to'g'ridan-to'g'ri agentlari bo'lgan natsist gruppalar va partiya rasmiylashdi va aktivlasha bordi. Buning ustiga xeymver va frontaviklar (jahon urushi qatnashchilarining qolgan qismlari) ko'plab qurollantirildi, fashistik xeymver natsistlarning terrori kuchaya bordi. Sotsial demokratiya esa fashizmga qarshi kurash niqobi ostida 1923 yilda yangi harbiylashtirilgan tashkilot Shutsbund (himoya qilish soyuzi) tuzdi. Fashizmga qarshi kurash maqsadida unga juda ko'p ishchilar va kommunistlar kirdilar. Shutsbund a'zolarining soni tezda yuz ming kishidan oshdi. Lekin sotsial demokratiya liderlari 1925 yilda Shutsbunddan kommunistlarni chiqarib yubordilar. Shutsbund amalda burjuaziya reaksiyasiga xizmat qildi va inqilobiy harakatga qarshi qaratildi. Shober 1929 yil sentabrda hokimiyat tepasiga keldi u sotsial demokratiyaning qo'llab-quvvatlashi bilan konstitutsiyani ochiqdan-ochiq fashistik ruxda o'zlashtirilishiga erishdi. 1929 yil dekabrda yangi konstitutsiya qabul qilindi: saylovchilar soni cheklandi, prezidentning huquqlari oshirildi. U parlamentni tarqatish va hukumatni tayinlash huquqiga ega bo'ldi, parlament muassasalariga fashistik korporativ elementlar kiritildi. Toifalar (sanoatchilar, yer egalari va hokazo) soveti degan uchinchi palata tuzildi. 1929 yilda konstitutsiya Avstriya burjua davlatini fashistlashtirish yo'lida katta bir qadam bo'ldi.

3-§. Jahon iqtisodiy inqirozi yillarida Avstriya

Avstriya-kapitalizmning zaif bo'g'inlaridan biri edi. Avstriyaning iqtisodi chet el monopolistlariga qaram bo'lganligi va Janubi Sharqiy Yevropa mamlakatlari bilan savdo aloqalari susayib ketganligi sababli jahon iqtisodiy inqirozi Avstriyaga qattiq ta'sir qildi. Fabrika va zavodlar ko'plab yopildi. 1931 yilda temir va po'lat mahsulotlari inqirozdan oldingi mahsulotning faqat 17,8 % ni tashkil etdi. 1932 yilda yog'och tilish zavodlarining 60% i to'xtadi. Ishsizlar soni 1934 yil boshida 600 ming kishiga yetdi. Bundan tashqari mamlakatda 100 ming

kishidan ortiq qisman ishsiz bor edi. Qishloq xo'jaligining ham hamma tarmoqlari inqirozga uchradi. Mahsulot narxlari ancha pasayib ketdi. Ko'p minglab dehqonlar yer va mulkdan mahrum bo'ldilar. Savdodan keladigan foyda kamayib qoldi. Tashqi savdo 1934 yilda 1929 yildagiga nisbatan 66% kamaydi. Mamlakatning moliyaviy ahvoli yanada yomonlashdi. Ishchilar sinfi va mehnatkashlar ommasining turmush darajasi tag'in ham og'irlashdi.

1930-1931 yillarda Avstriya reaksiyon burjuaziyasining Germaniyaga tayanuvchi qismi bilan Angliya va Fransiya ta'siridagi qismi o'rtasida kurash keskinlashib ketgan edi. Bu kurash «anshlyus» tarafdorlari gruppasi, ya'ni germanparastlar (nemis natsional partiyasi, natsist va boshqalar) bilan «anshlyus»ga qarshi bo'lgan gruppaga, ya'ni italyanparastlar (xeymver, xristian sotsial partiya) o'rtasidagi kurash edi. Avstriya fashizmining Germaniya va Italiyadagi fashizmga nisbatan o'ziga xos xususiyati shunda ediki, u bir-biriga qarama-qarshi turgan ikki asosiy oqimdan: Xeymverchilar va natsistlardan iborat edi. 1931 yil 19 martda Germaniya bilan Avstriya o'rtasida bojxona ittifoqi tuzildi. Lekin «Anshlyus»ga qarshi bo'lgan gruppaning noroziligi hamda Angliya va Fransiyaning aralashuvi natijasida bu ittifoq bekor qilindi. 1932 yil mayda Shober hukumati iste'fo berdi. Xristian sotsial partiya o'ng qismining lideri Dolfus boshchiligidagi yangi hukumat tuzildi. Dolfus hukumati Xeynverga tayanib ish ko'rdi. Bu hukumat Italiya fashizmi bilan yaqinlashish siyosatini yurgizdi. Iqtisodiy inqirozdan qutulish qiyin bo'lganligi sababli 1932 yil 15 iyulda Lozanno shahri (Shvetsariyada)da Italiya, Fransiya va Angliya bilan maxsus protokollar tuzildi. Shunga muvofiq, Avstriyaga 300 mln. shilling miqdorida zayom berildi. Buning evaziga Avstriya «anshlyus» rejasini amalga oshirmaslikka va'da berdi.

4-§. Ikkinchi jahon urushi arafasida Avstriya

1933 yil yanvarida Germaniyada Gitlerchilarning hokimiyat tepasiga kelishi va terroristik siyosati Avstriya hukumatini rag'batlantirib yubordi. 1933 yil 15 martda Dolfus parlamentni tarqatib fashistik diktatura o'rnatdi. Xeymver rasmiy suratda tanilib, yordamchi politsiyaga aylantirildi, uning soni 100 ming kishiga yetkazildi. Dolfus hukumati Italiya fashist hukumati bilan yaqin aloqa o'rnatdi. 1933 yilda Dolfus Mussolini bilan uch marta uchrashdi. Italiya-Avstriya-Vengriya ittifoqi tuzildi. Fashistik diktaturani mustahkamlash maqsadida hukmron sinflar 1934 yil 1 mayda yangi konstitutsiyani qabul qildilar. Avstriyada Italiyadagidek fashistik korporativ tuzum o'rnatildi. Avstriya avtoritor davlat deb e'lon qilindi. Bu davlat hokimiyatga ko'r-ko'rona bo'ysunishga asoslangan davlat edi. Qonun chiqarish deyarli prezident ixtiyoriga topshirildi. Ishchilar siyosiy huquqlardan butunlay mahrum qilindi. Fashistik «vatan fronti» birdan-bir siyosiy partiya deb tanildi. Dolfus hukumatining Mamlakatda mustahkam tayanchi yo'q edi. U asosan Avstriya fashistlarining italyanparast qismiga suyanar edi. 1934 yil 17 martda Italiya-Avstriya-Vengriya o'rtasida aloqa va maslahatlashib turish maqsadida ahdnoma-Rim protokoli imzolandi. Avstriya hukmron, doiralari mamlakatning milliy manfaatlariga xiyonat qildilar. Avstriya fashistik Italiyaga qaram bo'lib qoldi. Shunday vaziyatda «anshlyus» tarafdorlari bo'lgan germanparastlar, Avstriyadagi gitlerchilari tarafdorlari bo'lgan natsistlar isyon ko'tarib, Avstriyani Germaniyaga qo'shib olish rejasini amalga oshirishga urindilar. Germaniya fashizmining ko'rsatmasiga muvofiq 1934 yil 25 iyulda Avstriya natsistlarining qurolli guruhi isyon ko'tardi. Natsistlar radiostansiyaga va hukumat binolariga hujum qildilar. Isyonchilar kansler Dolfusni o'ldirdilar va hokimiyatni qo'lga olishga urindilar. Shtiriya va Karintiyada ham shunday isyonlar ko'tarildi. Germaniya qo'shinlari anshlyussni amalga oshirish maqsadida Avstriyaga bostirib kirishga tayyorlandilar. Lekin Avstriya gitlerchilari va Germaniya o'z maqsadlariga erisha olmadilar. Avstriya hukumat qo'shinlari isyonni bostirdi. Avstriya Italiyaning roziligisiz atrofdagi mamlakatlar bilan muzokoralar olib bormaslik majburiyatini oldi. Lekin keyinchalik Musollining Gitler bilan yaqinlasha boshlagani sababli Shushning hukmati germanparast elementlar bilan yaqinlasha boshladi. Italiyaning Habashiston urushida (1935-1936 yillar) zaiflanib qolganligi va Germaniyaning harbiy jihatdan kuchayib borayotganligi sababli Shushning hukumati uzil-kesil Germaniya tomon burildi. 1936 yil 11

iyulda Avstriya bilan Germaniya o'rtasida «Normal va do'stlik aloqalarini tiklash to'g'risida» shartnoma imzolandi. Gitler hukumati Avstriya suverenitetini tan oldi. Shunga binoan, Avstriya rasman mustaqil davlat bo'lib qolsada, amalda u Germaniya ta'siridagi mamlakatga aylandi. Shushning hukumati Avstriya natsional sotsialistlariga yana legal ishlash huquqini berdi. Gitler agentlari Avstriya davlat organlariga va armiyaga ko'plab suqilib kirdilar. Avstriya siyosati Germaniya manfaatlariga bo'ysundirildi. 1938 yil boshidan e'tiboran nemis fashist matbuoti Avstriyani Germaniyaga qo'shib olish kompaniyasini kuchaytirib yubordilar. 1938 yil 12 fevralda Shushning Gitler huzuriga chaqirildi va unga ultimatum topshirildi. Gitler Shushningdan qamoqqa olingan barcha natsistlarni ozod qilishni, natsist Zeys Inkvartni ijtimoiy tartib va xavfsizlik ministri qilib tayinlashni, natsistlarning agitatsiyasiga to'la erkinlik berishni talab qildi. Shushning oldida Gitler Keytelni chaqirib uning Avstriyaga bostirib kirishga tayyor turgan qo'shinlar haqidagi axborotini tingladi. Shushning Gitler talablarini qabul qildi. Venada va boshqa shaharlarda ish tashlashlar, namoyishlar va mitinglar bo'lib turdi, 1 mln 600 ming kishi Shushning siyosatiga qarshi yozilgan xujjat memorandumga qo'l qo'yib, mamlakat mustaqilligini saqlab qolishga tayyor ekanligini bildirdilar. Shushning xalq ommasining qat'iy talabiga muvofiq Avstriyaning mustaqilligi masalasida 13 martda plebissit o'tkazishni e'lon qilishga majbur bo'ldi. Shushning Gitlarning talablarini qabul qilib, iste'fo berdi va radio orqali so'zlab, armiya bilan xalqni nemis qo'shinlariga qarshilik ko'rsatmaslikka da'vat etdi. Natsist Zeys Inkvart Avstriyaning yangi kansleri qilib tayinlandi. 11 mart kuniyoq 250 ming kishilik nemis armiyasi Avstriya chegarasidan o'tib uni ishg'ol qildi. 13 martda Zeys Inkvart hukumati chiqargan qonunda Avstriya Germaniyaning bir qismi deb e'lon qilindi. O'sha kuni Gitler Avstriyani Germaniya tarkibiga qo'shdi. 10-aprelda esa Gitler terror va shovinistik kayfiyat avj oldirilgan bir sharoitda Avstriya va Germaniyada plebissit o'tkazib, Avstriyaning Germaniyaga qo'shib olinganligini «qonunlashtirdi». Shu tariqa butun bir davlat Yevropa xaritasidan yo'qotildi, hatto Avstriya nomi ham o'chirildi. Avstriya 7-oblast (GAU)ga bo'lindi. «Ostmark» (Sharqiy marka) nomini oldi. Ostmark hududi Gitler bosqinining muhim strategik rayoni bo'lib qoldi. Avstriya boyligi, harbiy sanoat potensiali va armiyasi Gitler Germaniyasi ixtiyoriga o'tdi.

Mavzu: MAVZU: 1918-1939 YILLARDA ITALIYA

1-§. Urushdan keyingi iqtisodiy va siyosiy inqiroz yillarida Italiya

Birinchi jahon urushi xalq xo'jaligiga katta zarar keltirdi. Urush harakatlari natijasida Italiyaning shimoliy-sharqiy viloyati vayron bo'ldi. Qishloq xo'jaligi juda katta ziyon ko'rdi. Savdo flotining 60% ishdan chiqdi. 635 ming kishi halok bo'ldi, 2 mln kishi yarador bo'ldi va asir tushdi. Mamlakatning moliyaviy ahvoli yomonlashib ketdi. Italiyaning ko'proq Angliya va AQShga qaramligi kuchaydi va ulardan katta qarzdor bo'lib qoldi. Urush Italiya imperializmining butun ichki zaifligini yaqqol ko'rsatdi. Urush yillarida iqtisodiyotda tengsizlik kuchayib ketdi. Militaristik siyosatning avj oldirilishi va chet eldan olingan zayomlar natijasida mashinasozlik metallurgiya, ximiya sanoati kabi ayrim sanoat tarmoqlari rivojlanib, mamlakat agrar mamlakatdan industrial-agrar mamlakatga aylandi. Sanoat bir yoqlama taraqqiy qildi, davlat buyurtmalariga muvofiq, urush extiyojlariga kerakli mahsulotlar ishlab chiqarildi. Tashqi savdo rivojlandi. Ishlab chiqarish va kapital konsentratsiyasi kuchaydi. «Onsaldo», «Fiat», «Breda» kabi konsernlar o'sdi.

Bu kabi iqtisodiy gigantlar Italiya sanoatining o'zagini tashkil etgan avtomobilsozlik, qora metallurgiya, konchilik va kimyo sanoatida hukmron mavqega erishdilar. Ayni paytda umumiy soni 120 mingga yetgan kichik korxonalar ham mamlakat iqtisodiy hayotida katta o'rin egallardi. Ularda 800 mingdan ortiq ishchi ishlardi.

Italiya iqtisodiyotining o'ziga xos jihatlaridan biri qishloq xo'jaligining nihoyatda qoloq ekanligi edi. 40 ming yirik zamindor 10 mln. gektar yerga ega bo'lsa, 2,5 mln. dehqonning bor-yo'g'i 6 mln. gektar yeri bor edi. Dehqonlarning yarmi yersiz bo'lib, yirik zamindorlardan dala ijara olishga majbur qilingandi. Ijara uchun dehqon hosilning yarmini berardi. Urushdan keyin xo'jalik qiyinchiliklari kuchayib ketdi. Aholi xarid quvvatining pasayib ketishi, xomashyo va yoqilg'i yetishmasligi harbiy buyurtmalarning kamayishi natijasida sanoat ishlab chiqarish xajmi qisqardi. Ishsizlar soni asta-sekin ko'payib bordi. Real ish haqi urushdan oldingi davrdagiga qaraganda kamayib ketdi. Mehnatkashlarning turmush darajasi yanada pasaydi.

Italiya iqtisodiyoti katta harbiy xarajatlarni ko'tara olmadi. Ichki davlat qarzlari to'rt yil ichida uch barobar ko'paydi. Bundan tashqari, Italiya o'z ittifoqchilaridan ham anchagina qarzdor bo'lib qoldi. Natijada soliqlar keskin oshib ketdi, pul qadrsizlandi. Pulning qiymati 1920 yilning oxiriga kelib 1914 yilga nisbatan besh barobar pasaydi. Italiya burjuaziyasining Orlando boshchiligidagi, 1919 yil iyunida Nitti boshchiligidagi tuzilgan so'l liberal hukumatlari zo'rlik va senzura yo'li bilan, shuningdek, ayrim yon berish va nayranglar yo'li bilan inqilobiy harakatni bostirishga urindi. Nitti hukumati 8 soatlik ish kuni to'g'risida qonun chiqardi. Bir qancha tumanlarda narx-navo qisman pasaytirildi, siyosiy mahbuslarga amnistiya e'lon qilindi, hatto yerlarning dehqonlar tomonidan egallanganligi ham tan olindi. Italiya davlati 1919 yilgi Parij sulh konferensiyasidan norozi bo'ldi, chunki hududlar masalasida Antanta 1915 yilgi London shartnomasida bergan va'dalarini bajarmagan edi. 1919 yil maydayoq Italiya Turkiyaning janubiy-g'arbiy qismini va birinchi galda Smirnani bosib olish maqsadida Turkiyaning g'arbiy qirg'oqlariga qo'shin tushirdi. Bu esa Italiyaning xalqaro pozitsiyasiga yanada salbiy ta'sir etdi. Smirna masalasida Italiya va Gretsiya o'rtasida nizo paydo bo'ldi. Italiya muvaffaqiyatsizlikka uchradi. 1919 yil sentabrida Antanta bilan Avstriya o'rtasida imzolangan Sen-Jermen shartnomasiga muvofiq, Italiya faqat Trentino va Janubiy Tirolni oldi, Albaniyani boshqarish mandatiga ega bo'ldi. Albaniyaning Vlora portidan Sarantada portigacha bo'lgan dengiz qirg'oq tumanlarini italyanlar okkupatsiya qilib turdilar. Lekin va'da qilingan bir qancha janubiy slavyan yerlari, masalan Dolmatsiya, Turkiya Smirnasi (Izmir) Italiyaga berilmadi. Italiya davlati agressiv siyosatni davom ettirdi. Ular Adriatik dengiz bo'ylarida hukmron bo'lib olish va alban xalqining okkupantlarga qarshi kurashini bostirish uchun Albaniyaga qarshi harbiy avantyurani rejalashtirdi, albanlarga qarshi Tripolitaniyaga qo'shin yuborishga tayyorlandilar. O'sha yillarda hukmron doiralar inqilobiy harakatlarni bostirish va agressiv siyosatni kuchaytirish maqsadida yangi reaksiya partiyasi va tashkilotlar («Harakat ligasi», «Antibolshevistik xalq soyuzi» va

boshqalar) tuza boshladi va Vatikanga tobora ko'proq tayandilar. Vatikan tashabbusi bilan 1919 yil yanvarida katolik «Xalq partiyasi» tuzildi. Bu partiyaning sotsial bazasi quloqlar va mayda burjuaziyasi edi.

Italiya burjuaziyasining eng ilg'or va zarbdor kuchi siyosiy demogog, avantyurist, sobiq sotsialist, renegat Benito Mussolini boshchiligida 1919 yil boshida tuzila boshlagan «fashist soyuzlari» va ularning qurolli fashist otryadlari edi. Terroristik totalitar tuzum ramziga aylangan «fashizm» atamasi Italiyada tug'ilgan va u italyanchadan «bog'lam», «dasta» degan ma'noni anglatadi. Bu atama 1919 yilda, frontdan qaytgan sobiq askarlar o'z manfaatlari himoyasi uchun «Fashi di kombattimento» («Quroldoshlar uyushmasi») deb nomlangan tashkilot tuzgan paytda tug'ilgan. Mussolining «milliy sotsializm» dasturiga ko'ra, davlatning mohiyati o'zgarishi, u mehnat va sarmoya o'rtasidagi hamkorlik shakliga, «korporatsiya»ga aylanishi lozim edi. Mehnat va sarmoyaning samarali o'zaro ta'siri natijasida Italiya yagona korporatsiyaga aylanishi, barcha sarmoya egalari va ishchilar, zamindorlar va dehqonlar bir oila a'zolari sifatida ishlashlari targ'ib qilinardi. Albatta, bunda demokratik va progressiv kuchlar siyosiy hayotdan quvilishi kerak edi. Fashistlar keng demogogik «dastur» bilan ish boshladilar va fashistik partiya bo'lib uyushdilar. Ular monarxiya va senatni yo'qotishni hamda Ta'sis majlisini chaqirishni, yirik kapitalga soliq solishni, harbiy sanoatni natsionalizatsiya qilishni, agrar islohat o'tkazishni, mehnatkashlarga yaxshi turmushni va'da qildilar.

1919-1921 yillardagi ichki kurash burjuaziyani mamlakatda «tartib» o'rnatadigan kuchli hokimiyat qidirishga majbur qildi. Fashistlar bu maqsadga eng mos keladigan kuch edilar. 1920 yilning kuzidan boshlab fashist tashkilotlari tez ko'paya bordi. Fashistlar «Ulug' Italiya» shiori ostida keng bosqinchilik g'oyalarini, ashaddiy shovinizmni targ'ib qildilar. 1920 yil avgustida Antanta bilan Turkiya o'rtasida tuzilgan Sevr sulh shartnomasiga binoan, Italiya Egey dengizidagi Dodekanes orollariga ega bo'ldi. Italiyaga Millatlar Ittifoqi sovetidan doimiy o'rin berildi. 1921-1922 yillardagi Vashington konferensiyasida katta harbiy kemalar bo'yicha Italiyaning harbiy dengiz floti Fransiya floti bilan tenglashtirildi. Italiya ko'p qiyinchiliklar evaziga o'z hududini ancha kengaytira olganligi va ayrim imtiyozlarga ega bo'lishi natijasida uning ulug' davlat sifatidagi ahamiyati oshgan bo'lsada, mamlakatning iqtisodiy va siyosiy ahvoli beqaror bo'lib qolaverdi.

Fashistlar yirik monopoliyalarning qo'llab-quvvatlashidan, burjua hukumatlarining keng yo'l berib qo'yishi va sotsialist islohatchilarning murosachiligidan foydalandilar.

Fashistlar shiddat bilan hokimiyat sari intildilar. 1921 yil may oyidagi saylovlarda ular parlamentda 35 o'ringa ega bo'ldilar. 1922 yil kuziga kelib, ko'pgina munitsipalitetlar ustidan nazorat o'rnatdilar. Mamlakatning Emiliya, Toskana va Lombardiya kabi eng nufuzli viloyatlari ham fashistlar nazorati ostiga o'tdi. 1922 yil oktabrida ular o'z vakillariga bir necha vazirlik lavozimini berish talabi bilan hukumatga murojaat qildilar. Rimga yurish qilish uchun tayyorlanish maqsadida fashist guruhlarining yalpi safarbarligi e'lon qilindi.

Qirol fashist isyoniga qarshi armiyani qo'llash huquqini beradigan farmonni imzolashdan bosh tortdi. Buning o'rniga 29 oktabr kuni u Milanga telegramma yo'llab Mussoliniga bosh vazir bo'lishni taklif qildi.

1922 yil 27-28 oktabrda fashist otryadlari «Rimga yurish» qildilar. Hukumat qo'shinlari va politsiya ularga hech qanday qarshilik ko'rsatmadi. Yirik sanoat egalari konfederatsiyasi korol Viktor Emmanuel 111 ga murojaat qilib, Mussolini boshchiligida yangi hukumat tuzilishini talab etdi. Mussolini 30 oktabrda fashistik partiyaning 4 ta, liberal, katolik va monarxistlarning 10 ta vakilidan iborat koalitsion hukumat tuzdi. Fashistlar hukumatda asosiy lavozimlarni egallab oldilar.

Shunday qilib, Italiya hukmron doiralarning qo'llab-quvvatlashi bilan mamlakatda moliya kapitali va yer aristokratiyasining eng reaksion, eng shovinistik, eng imperialistik elementlarining diktaturasi - Mussolini fashistik diktaturasi o'rnatildi.

1922 yil 23 noyabrda qirol va parlament Mussoliniga cheklanmagan hokimiyat berdi. Endi u vazifalarga tayinlash tartibini ham belgilar edi. Shundan keyin barcha amaldorlar va

davlat xizmatchilari fashist partiyasi a'zolari bo'lishi yoki partiya rahbarlari roziligi bilan tayinlanishi zarurligi belgilab qo'yildi.

1924 yil oxirida Mussolinining tazyiqi ostida parlament saylov qonunini o'zgartirdi. Yangi qonunga ko'ra, saylovlarda eng ko'p ovoz olgan partiya (kamida 25 fozi ovoz) deputatlar palatasida o'rinlarning uchdan ikki qismini olar edi. 1924 yilgi saylovlarda fashistlar katta g'alabaga erishdilar va deputatlar palatasini to'la o'z nazoratlari ostiga oldilar.

2-§. Stabillashuvi yillarida Italiya

1923-1924 yillarda Italiyada sanoat ishlab chiqarishi bir muncha jonlandi. Harbiy sanoat tarmoqlariga ko'proq ahamiyat berildi. Italiya fashizmi chet el imperialistlariga avvalo AQSH monopolistlariga tayandi. Bankir Morgan xonadoni 1924 yili Mussolini hukumatiga 100 million dollar miqdorida zayom berdi. Amerika imperialistlari Italiya aksiyali jamiyatlariga qariyb 200 million dollar mablag' qo'ydi. Ba'zi munitsipalitetlar Amerika monopoliyalaridan 20-30 million dollarlab mablag' oldilar. Mamlakatda norozilik kuchayib bordi va Mussoliniga qarshi suiqaqdlar bo'ldi. Ana shu bahona bilan 1926 yil noyabrda bir qancha terroristik favqulodda qonunlar qabul qilindi. Fashistik partiyadan tashqari hamma siyosiy partiyalar tarqatib yuborildi. Mussoliniga cheklanmagan diktatorlik huquqlari berildi. «Davlatni qo'riqlash to'g'risida»gi qonun o'lim jazosini tikladi. «Maxsus tribunal» tuzildi. Siyosiy jinoyat uchun o'lim jazosi joriy qilindi. Fashist oxrankasi («Ovra») tuzildi. Fashistlar totalitar rejimni niqoblash maqsadida sinflarni «yarashtirish» nazariyasini korporativ, ya'ni go'yo g'ayri sinfiy davlat tuzishni targ'ib qildilar. 1927 yil aprelida «Mehnat xartiyasi» chiqarildi. «Mehnat xartiyasi»da kapitalistik ishlab chiqarish usuli maqtaldi: «korporativ davlat» va kapitalistlar hamda fashistik partiya va sindikatlar vakillaridan iborat «korporatsiya» tuzish haqida gapirildi.

Italiya diktatori o'zining mamlakatdagi hokimiyatini mustahkamlash yo'lida yana bir muhim qadam qo'ydi.

1928 yil fevralida Mussolini Vatikan bilan bitim (Lyuteran ahdnomasini) tuzdi. Vatikan bilan karollik o'rtasidagi eski nizolar bartaraf qilindi. Vatikan to'la suveren davlat huquqiga ega bo'ldi. Aktiv reaksion kuch - Vatikan xalqni chalg'itish yo'li bilan fashizmga katta yordam ko'rsatdi. Shunday qilib Italiyada totalitar (cheklanmagan) fashistik diktatura rejimi tuzildi.

Italiyada G'arbdagi birinchi totalitar tuzum tashkil topdi. Bu tuzum iqtisodiy qayta qurish sohasida nihoyatda katta vazifalarni ilgari surdi. Fashist davlati mamlakatdagi butun ijtimoiy va iqtisodiy hayotni qamrab oladigan «korporativ tartib» yaratishni rejalashtirgan edi. Bu tartibning asosiy tamoyillari Katta fashist kengashi tomonidan 1927 yilda qabul qilingan «Mehnat xaritiyasi»da bayon etilgan edi. U ishlab chiqarish muammolarini birgalikda hal etish uchun kasaba uyushmalarini va ishbilarmonlarni teng asosda korporatsiyalarda birlashtirishni nazoratda tutardi. Ishbilarmonlar va ishchilar bir tashkilotning teng huquqli a'zolariga aylanardilar. Xalq xo'jaligining sanoat, qishloq xo'jaligi, savdo, banklar, transport kabi sohalariga mos keladigan 22 korporatsiya tuzildi. Bu beso'naqay tashkilotning tepasida Korporatsiyalar milliy kengashi turardi.

Italiyadagi voqealar xalqaro imperialistik burjuaziyaga juda ma'qul keldi, Rim xalqaro reaksion doiralarining ziyorat markazi bo'lib qoldi. 1925-1929 yillar davomida Angliya-Amerika bankirlari Italiyaga 7 mlrd. lira kredit berdilar. 1928 yil yana bir qancha qonunlar qabul qilinib, amalda parlamentchilik rejimi tugatildi. Parlament batamom o'z ahamiyatini yo'qotdi. Yirik burjuaziya va pomeschchiklar manfaatini ko'zlab «Ulug' Rim imperiyasi» tuzish rejasi ishlab chiqildi. Bu rejaga muvofiq Bolqon, Tunnis, Misr, Angliya-Misr Sudani, Baleor orollari va Korsikani bosib olish mo'ljallandi. O'rta dengizni Italiyaning ichki dengiziga aylantirish ko'zda tutildi. Italiya fashistlari Yaqin Sharqda ham hukmron bo'lib olishni xayol qildilar. 1923 yilda Italiya Bolqonda ustun bo'lishga intilib, Gretsiyaga qarshi agressiv harakat boshladi va Korfu orolini bosib oldi. Birok, Angliya jiddiy e'tiroz bildirgach, Italiya o'z qo'shinlarini Korfudan olib chiqib ketdi. 1923 yil sentabrda Italiya 1920 yilgi Rapollo shartnomasini buzib, Fyumenni bosib oldi. 1924 yil yanvarida Italiya bilan Yugoslaviya o'rtasida Rimda imzolangan shartnomaga

muvofig «Fyumen shahri va Fyumen porti Italiyaniki» deb tanildi. Italiya fashistlari 1920 yilda qo'lga kiritilgan Egey dengizidagi Dodekanes orollarini butunlay o'zlariniki qilib oldilar. Yugoslaviyaning qarshiligiga qaramay, Italiya Albaniyani o'ziga tobe qildi. Italiya 1926 yili Albaniya bilan do'stlik to'g'risida, 1927 yili esa «ittifoqlik» to'g'risida shartnoma tuzdi va Albaniya ustidan o'z protektoratini o'rnatdi. Italiya 1926 yili Ispaniya bilan, 1927 yili Ruminiya va Vengriya bilan, 1928 yili Gretsiya va Turkiya bilan «Do'stlik» to'g'risida shartnomalar tuzdi. U Yevropa sharqi-janubida, hatto uning markaziy tumanlarida hukmron bo'lishga zo'r berib urindi. Bu masalalarda Italiya bilan Fransiya o'rtasidagi ziddiyatlar keskinlashdi.

3-§. Jahon iqtisodiy inqirozi yillarida Italiya

1929 yilda Italiya iqtisodiy inqirozga duchor bo'ldi. Inqiroz yillarida sanoat mahsuloti 33%, tashqi savdo 3 marta qisqardi, mehnatkashlarning turmush darajasi yanada pasayib ketdi. Ish haqi keskin suratda kamaydi. Ishsizlar soni 200 ming kishidan 1 mln. kishiga yetdi. Soliqlar ko'paydi. Ko'p minglab mayda va o'rta korxona egalari, hunarmandlar xonavayron bo'ldi. Yirik sanoat kompaniyalarining tayanchi hisoblangan uchta eng yirik bank kasodga uchradi. Davlat birinchi navbatda kasodga uchragan uchta eng yirik bankni qutqarish choralarini ko'rdi. 1933 yil boshida Italiyada davlat moliya idorasi - Sanoatni qayta qurish instituti tuzilib, u kasodga uchragan banklarning qimmatbaho qog'ozlarini davlat hisobiga sotib oldi. Bu harakat natijasida Sanoatni qayta qurish instituti banklar ustidan, ular orqali esa metallurgiya va mashinasozlik korxonalarining aksar qismi, kemasozlik va deyarli butun harbiy sanoat ustidan nazorat o'rnatdi.

Burjuaziya pozitsiyasini butunlay moliya kapitaliga bo'ysundirish maqsadida 1933-1934 yillarda mamlakatda «Korporativ sistema» tuzildi. Xalq xo'jaligining hamma sohalarini qamrab oladigan 22 ta korporatsiya tuzuldi. Korporatsiyalar tarkibiga fashistik kasaba soyuzlari (sindikatlar)dan ham vakillar kiritildi. Fashistik matbuot, korporativ tuzum sharoitida go'yo mehnat bilan kapital o'rtasida nizolar sinfiy hamkorlik asosida hal qilinmoqda deb, ishchilar ishlab chiqarishni va davlatni boshqarishda ishtirok etmoqdalar deb jar soldi. Korporatsiyalar Mussolini boshchiligidagi maxsus korporatsiyalar ministrligiga bo'ysuntirildi. Korporatsiya sistemasi parlamentchilik qoldiqlarini tugatib rahbarlik rolini o'ynadi.

Italiya fashizmi o'ttizinchi yillarda mamlakat hayotining barcha tomonlarini o'ziga bo'ysundirib, totalitar diktaturani o'rnatdi. Demokratiyaning barcha, hatto rasmiy belgilari, shu jumladan, parlament ham tugatildi. Parlamentning saylanuvchi palatasi o'rniga fashi di kombattimento va korporatsiyalar palatasi tuzilib, unga tayinlanuvchi «deputatlar» kirdilar. Fashistlar partiyasi esa davlat tizimiga to'liq qo'shildi. Partiya nizomiga ko'ra u duce Mussolini buyruqlariga bo'ysunib, davlat xizmatini bajaruvchi «fuqarolar militsiyasi» (lotincha «milicia-qo'shin»)ga aylandi.

Ommaviy axborot vositalari fashizmga xizmatga o'tib, fashist senzurchilari tomonidan qattiq nazorat qilindilar. Dorilfununlarda professorlar duchega (Duche - (italyancha duce-dohiy)-Italiyadagi fashistlar diktatori B.Mussolinining unvoni.) sodiqlikka qasamyod qildilar. Ommaviy tashkilotlar tizimi, fashistik matbuot va maktab orqali, sershovqin targ'ibot kompaniyalari yordamida fashist g'oyalari ommaga singdirildi.

Biroq, fashizm italiyaliklarning ongini zaharlay yoki unga chuqur singa olmadi. Fashizm Italiya millati ongiga, uning diniy va demokratik an'analariga tamomila zid edi. Demokratik kuchlarning vakillari yashirin sharoitda fashistlarga qarshi kurashni davom ettirdilar. Fashistlarning tashkilotlariga joylashib, ularga qarshi faol qo'poruvchilik ishlarini olib bordilar, yoshlar orasida fashizmga qarshi kayfiyatlarining uyg'onishiga sabab bo'ldilar. Fashizmga qarshi kurashda katolik cherkovining qator vakillari ham munosib hissa qo'shdilar. Korporatsiya sistemasi parlamentchilik qoldiqlarini tugatish va militarizmni kuchaytirishga imkon berdi. Turli fashistik tashkilotlar ko'paytirildi va ularning a'zolari soni 12 mln. kishiga yetdi.

4-S. Ikkinchi Jahon urushi arafasida Italiya

Mamlakat iqtisodiyoti imperialistik agressiyaga tayyorlandi. Qurolli kuchlar ko'paytirildi. Italiya va Fransiya o'rtasida ziddiyat kuchaydi. Italiya bilan Germaniya o'rtasida Avstriya masalasida nizo paydo bo'ldi. Italiya Avstriyani o'z ta'siriga olish uchun harakat qilar edi. Italiya fashistlari esa Avstriya hukumati va Xeymverni qo'llab-quvvatlar edi. 1934 yil iyulida Gitler Avstriyani bosib olishga urungan vaqtda Mussolini bunga e'tiroz bildirdi. Italiya fashizmi Yaponiya va Germaniya fashist agressorlari tomonidan Versal-Vashington sistemasi (Italiya bu sistemadan norozi edi) poymol qilina boshlagan sharoitdan foydalanib, «ulug' Rim imperiyasi» tuzishga kirishdi. «Buyuk Italiya» davlati butun O'rta Yer dengizi bo'ylarini o'z ichiga olishi va u «Buyuk Italiya»ning ichki dengiziga aylanishi lozim edi. Bu davlat bir paytlar Rim imperiyasi tarkibiga kirgan barcha hududlarni birlashtirishni ko'zda tutardi. Mussolini italiyaliklarni O'rta Yer dengizini «o'z dengizimiz»ga aylantirishga chaqirdi. 1934 yilda jadal sur'atlarda harbiy-dengiz floti va harbiy aviatsiyani qurishga kirishildi.

1935 yil 3-oktabrda Afrikada yangi mustamlakalarga ega bo'lish, shuningdek, Yevropadan Hindistonga boradigan dengiz yo'llarida Angliyani zaiflashtirish maqsadida Italiya fashistlari urush e'lon qilmasdan, Habashistonga qarshi urush boshladilar. Habashiston qoloq, feodal mamlakat edi. Habash xalqi bosqinchilarga qarshi qaxramonona kurashdi. Lekin kuchlar barobar emas edi. Agressorlar eng yangi texnika bilan qurollangan 600 ming kishilik armiyani Habashistonga yubordilar va yaxshiylarcha qirg'inchilik urushi olib bordilar, hatto zaharli gazlardan foydalandilar. 1936 yil mayda Habashiston Italiya tomonidan bosib olindi. Italiya-Habashiston urushi vaqtda Italiya Germaniya bilan yaqinlashdi. 1936 yil iyulida Italiya va Germaniya fashistlari respublikachilar Ispaniyasiga qarshi isyon, keyinroq intervensiya uyushtirdilar. Italiya qo'shinlari bir necha marta (ayniqsa, 1937 yil martida Gvadalaxara yonida) jiddiy talofatga uchradi. Germaniyagina Italiyani halokatdan qutqarib qoldi. Italiya Germaniyaning Yevropa markazidagi yetakchilik rolini tan oldi. 1936 yil oktabrida Italiya bilan Germaniya o'rtasida ittifoqlik shartnomasi (Berlin-Rim o'qi) tuzildi. 1937 yil 6-noyabrida Italiya, Germaniya bilan Yaponiya o'rtasida tuzilgan «Antikomintern ahdnomasi»ga qo'shildi va «Berlin - Rim - Tokio uch burchagi» vujudga keldi. Bu esa «kommunizmga qarshi kurash» niqobi ostida barcha demokratik harakatlarni bo'g'ish va yangi agressiyani amalga oshirish maqsadida tuzilgan fashist davlatlari ittifoqi edi.

Mussolini uni bu ittifoqni o'z atrofida butun Yevropa birlashishi lozim bo'lgan «doira» sifatida ta'rifladi. («Berlin-Rim-Tokio doirasi» degan nom shundan kelib chiqdi). Ushbu bitimga ko'ra Germaniya Efiopiyaning bosib olinishini tan oldi, xalqaro aloqalarda umumiy bo'lgan yo'nalish belgilandi, harbiy aviatsiyani rivojlantirishning yagona siyosati ishlab chiqildi. Bolqon va Dunaybo'yi davlatlaridagi ta'sir doiralari chegaralandi.

1937 yil 11-dekabrda Italiya Millatlar Ittifoqidan chiqdi. 1938 yil martida Mussolini hukumati Avstriyaning German fashistlari tomonidan bosib olinishiga rozilik berdi. 1938 yil sentabrida fashistik Italiya sharmandali Myunxen bitimini tayyorlashda ishtirok etdi. Bu bitim esa Gitler Germaniyasining Yevropadagi agressiyasiga keng yo'l ochib berdi. 1939 yil aprelida Italiya Albaniyani bosib oldi. O'sha yili 22 mayda Mussolini hukumati Germaniya bilan harbiy siyosiy ittifoq to'g'risidagi «Po'lat bitim»ni imzoladi.

Mavzu: 1918-1939 YILLARDA AMERIKA QO'SHMA SHTATLARI

1-§. Urushdan keyingi iqtisodiy va siyosiy inqiroz yillarida AQSH

1. Birinchi jahon urushi yillarida AQSH qirg'inchilik urushini cho'zish, yanada ko'proq foydani qo'lga kiritish, boshqa mamlakatlarni iqtisodiy jihatdan qaram qilib qo'yish maqsadlarini ko'zda tutdi. AQSH urushning dastlabki yillarida «betaraflik» yo'lini tutdi, 1917 yil aprelidan jahon urushida ishtirok etdi. AQShdan urushda halok bo'lgan va yarador bo'lganlarning soni 300 ming kishidan sal oshdi. Ishlab chiqarish va kapitalning konsentratsiyalashuvi yanada kuchayib ketdi. Buning natijasida yirik monopolistik birlashmalar, juda katta trestlar vujudga keldi. Neft ishlab chiqarish, po'lat eritish singari yirik sanoat tarmoqlari, temir yo'llar Rokfeller, Morgan, Dyufon, Vanderbild, Mellon kabi yirik milliarderlar qo'lida to'plandi. Bunday monopolistlarning foydasi ikki baravardan ortiq ko'paydi. Ularning olgan foydasi 1914 yil 3 mlrd. 940 mln. dollar bo'lsa, 1919 yilda 9 mlrd. 411 mln. dollarga yetdi. Chet mamlakatlarga mahsulot va kapital chiqarish tezlashib ketdi. 1920 yilda chet elga chiqarilgan mahsulot summasi 8 mlrd. dollarga, kapital chiqarish 6,4 mlrd. dollarga yetdi. Eksport importdan ancha oshib ketdi. AQSH boshqa davlatlardan qarz oluvchi mamlakatdan qarz beruvchi mamlakatga aylandi. 1914-1919 yillarda tashqi mamlakatlarning AQShdan qarzi 3,5 mlrd. dollardan 6,5 mlrd. dollarga yetdi. Amerika kompaniyalari urush davrida jami 35 mlrd. dollardan ortiq sof daromad oldilar. Bundan tashqari, Yevropadagi 20 mamlakat AQShdan 10 mlrd. dollar qarzдор bo'lib qoldi. Ular har yili AQShga kamida 1 mlrd. dollardan to'lab turishlari lozim edi. AQSH 1914-1919 yillarda dunyodagi oltin zahirasining 50%dan ko'prog'iga ega bo'ldi. Dunyoni moliya jihatidan ekspluatatsiya qilish markazi Fransiya, Germaniya va Angliyadan AQShga ko'chdi. Olti yil ichida-1914 yildan 1920 yilgacha mamlakat milliy boyligi 2,5 baravar oshdi. 1920 yilda AQShda butun dunyoda ishlab chiqarilgan yalpi mahsulotning 47%i yaratildi. Boshqa ayrim ko'rsatkichlar bo'yicha AQShning yutuqlari yanada salmoqliroq edi. Mamlakatda dunyodagi jami avtomobillarning 80%i, neftning 67%i ishlab chiqarilardi. Amerika floti urush davomida 10 baravarga o'sdi. AQSH Angliya qatori dunyodagi yetakchi dengiz davlatiga aylandi.

Urushdan keyingi dastlabki yillardayoq AQShda mamlakat tarixidagi eng shafqatsiz va keng miqyosli qatag'on avj oldirildi. 1918 yil mayida AQSH hukumati «Da'vatkorlik to'g'risidagi hujjat»ni e'lon qildi. Unga ko'ra mamlakatdagi mavjud tuzum to'g'risida bildirilgan barcha salbiy fikrlar jinoyat deb e'lon qilindi. Bunday ayb bilan qamoqqa olingan har qanday odamga 10 ming dollar jarima solish yoki 20 yil muddatga qamoq jazosi ko'zda tutildi. 1920 yil yanvarida AQSH politsiyasi 70 shaharda taraqqiyparvar tashkilotlarning a'zolariga qarshi tadbir uyushtirdilar. 10 mingdan ortiq kishi qamoqqa olindi. Xuddi shu yili kasaba uyushmalari harakati faollari sanalgan italiyalik muhojirlar-Sakko va Vansetti qamoqqa olindilar. Ular bankni o'g'irlash va politsiyani o'ldirishda ayblandilar. 1927 yilda ular elektr kursida qatl qilindilar. Faqat Ikkinchi jahon urushidan so'ng ularga sohta guvohliklar asosida ayb qo'yilgani ma'lum bo'ldi.

20-yillar o'rtasiga kelib AQShda o'zgacha fikrlovchilar va so'l tashkilotlarga barham berildi. Radikal g'oyalari bilan farq qiluvchi so'l yo'nalishdagi kasaba uyushmalari – «Jahon sanoati ishchilari» tashkiloti deyarli tugatildi (1917 yilda uning saflarida 100 ming a'zo bor edi. 1922 yilga kelib faqat 1000 ta a'zo qoldi). Hukumat tomonidan amalga oshirilgan qatag'on AQShdagi so'l harakatning tanazzuliga olib keldi.

AQSH Parij sulh konferensiyasida imperialistik Versal sistemasini tuzushda katta rol uynadi. U Germaniyani zaiflashtirib yubormaslikka, hatto Chexoslovakiyaning bir qismini Germaniya foydasiga ajratib olishga, kuchli nemis armiyasini saqlab qolishga, binobarin, Germaniyaning Antanta davlatlariga, avvalo Sovet Rossiyasiga, shuningdek, Angliya va Fransiya qarshi kuchli bir davlat bo'lib qolishiga intildi. AQSH urushdan keyingi xalqaro munosabatlarga yetakchi rol o'ynashga, Angliya Fransiya Yaponiyani Xitoy hamda boshqa mamlakatlardan siqib chiqarishga urundi. Versal sulh shartnomasi Angliya va Fransiya

davlatlarining manfaatlariga muvofiq bo'lib chiqdi. Germaniyaning mustamlakalari Angliya, Fransiya va Yaponiya qo'liga o'tdi. Germaniyaning Xitoydagi mustamlakasi Shandun viloyati masalasida Parij konferensiyasida ko'p tortishuvlar bo'ldi. Vilson bu viloyatni keyinchalik AQShga buysindirib olish maqsadida Shandunni «kollektiv bo'lib idora qilish»ni taklif etdi. Xitoy delegatsiyasi Shandunni Xitoyga qaytarilishini talab qildi. Yaponiya delegatsiyasi esa Shandunni Yaponiyaga bo'ysundirish uchun kurashdi. Pirovardida prezident Vilson Yaponiyaning Angliya tomonidan qo'llab-quvvatlangan Shandun haqidagi talablari oldida taslim bo'ldi. Shandun Yaponiyaga o'tdi. 1921 yilda AQSH Germaniya va uning sobiq ittifoqchilari bilan separat sulh shartnomalarini tuzdi. Yevropa ishlaridan chetda turish, «izolyatsionizm» (ajralib va yakkalanib turish) niqobi ostida AQSH Yevropa ishlarida aktivlashib bordi. «Izolyatsionizm» Amerika burjuaziyasining Vilsonizmga qarshi bo'lgan qismining dunyoda hukmronlik qilishga erishish maqsadidagi niqoblangan usuli edi. U burjuaziyaning o'taketgan reaksion doiralardagi siyosiy oqim edi. AQSH Germaniya va bir qancha mamlakatlarning savdo-sanoat korxonalari va muassasalarini o'ziga qaratib oldi, Germaniya monopoliyasi bilan yaqin aloqada bo'ldi. Yevropada «dollar diplomatiyasi»ni ishga soldi. 1919 yil aprelidayoq AQSH federal zahira byurosi Germaniyaga zayom berishga qaror qildi. AQSH kapital chiqarish yo'li bilan boshqa mamlakat xalqlarini iqtisodiy va siyosiy asoratga solishga zo'r berib urindi. AQSH davlati Markaziy va Janubiy Amerika, Lotin Amerikasi mamlakatlariga og'ir shartlar bilan qarz berish, ularning hukmron doiralarini pora berib sotib olish, hukumat o'zgarishlari qilish orqali bu mamlakatlarda o'z iqtisodiy va siyosiy pozitsiyasini mustahkamlay boshladilar. 1923 yilda «Monro Doktrinasi»ni yangidan yuzaga chiqarib uni amalga oshirishga harakat qildilar. AQSH bir necha yillar davomida bu mamlakatlarga boshqa kapitalistik mamlakatlarga nisbatan olti baravardan ko'proq kapital chiqarib, Latin Amerikasi mamlakatlarini birin-ketin o'ziga bo'ysundirdi. AQSH tinch okeaniga, Uzoq Sharqqa, Xitoyga ham katta e'tibor berdi. 1919 yil Parij konferensiyasi natijalaridan norozi bo'lib qolgan AQSH o'zining iqtisodiy va moliyaviy quvvatidan foydalanib, Uzoq Sharqqa (xususan Xitoyda) va Tinch okeandagi o'z raqiblariga (Yaponiya va Angliyaga) jiddiy shikast yetkazishga, bir qancha imperialistik davlatlarning Uzoq Sharq hududlaridagi ziddiyatlaridan foydalanib bu yerda (ayniqsa Xitoyda) va tinch okeanda o'z pozitsiyasini kuchaytirishga harakat qildi. Shu maqsadda AQSH 1921 yil noyabridan 1922 yil fevraliga qadar Vashingtonda xalqaro konferensiya chaqirdi. Konferensiyaning eng asosiy qarorlari quyidagi uchta shartnomada o'z ifodasini topdi:

1) To'rt davlatning (AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya va Yaponiyaning) «Tinch okeandagi bir-birlarining mustamlaka yerlarining dahlsizligi to'g'risidagi shartnomasi»;

2) To'qqiz davlatning (konferensiyada ishtirok etgan hamma davlatlarning) «Xitoyning territorial va ma'muriy mustaqilligi prinsipini tanish to'g'risidagi shartnomasi»;

3) Besh davlatning (AQSH, Angliya, Fransiya, Yaponiya va Italiyaning) «Dengiz qurollarini cheklash to'g'risidagi shartnomasi»;

Bu shartnomalar Vashington sistemasini vujudga keltirib, Uzoq Sharq va Tinch okeanida AQShning pozitsiyasini mustahkamladi. Natijada AQSH Angliya bilan Yaponiya o'rtasida 1902 yilda tuzilgan shartnomani bekor qilishga, Angliya dengiz flotining AQSH dengiz floti bilan baravar bo'lishiga, Xitoyda Yaponiyaning xukmronligiga barham berib, Xitoydan «teng imkoniyatlar prinsipi» asosida bab-baravar foydalanishga erishdi.

AQSH ittifoqchilari bo'lgan mamlakatlarning Qo'shma Shtatlardan olgan qarzlarini to'lashlarini vaqti-vaqti bilan qistab turdi va bu masalada AQSH bilan qarzдор mamlakatlar o'rtasidagi, ayniqsa, AQSH bilan Angliya o'rtasidagi munosabatlar keskinlashdi. AQSH Angliyaning qarzlarini ancha og'ir shartlar asosida to'lashini talab qildi va nihoyat, 1923 yil fevralida Vashingtonda imzolangan AQSH-Angliya bitimiga binoan, Angliya o'z qarzlarini 30% kamaytirilgan holda, 67 yil davomida AQShga to'lash majburiyatini oldi.

2-§. Stabillashuv yillarida AQSH

1922-1929 yillarda AQShda vaqtincha, qisman stabillashuv yillari bo'ldi. AQShdagi stabillashuv Yevropa mamlakatlaridagi stabillashuvdan ilgariroq (1922 yil oxirida) boshlandi, hamda Angliya, Fransiya, Germaniya, Italiya va Yaponiyadan oldinda bordi. 1923-1929 yillarda AQShdagi sanoat mahsulotining umumiy hajmi 20% oshdi, yollanma ishchilar soni esa 7,6% kamaydi. 1926-1929 yillarda AQSH sanoat mahsuloti yuqoridagi 5 ta mamlakat mahsulotidan 9% ortiq bo'ldi. 1928-1929 yillarda AQSH iqtisodiyotining juda yuksalgan yillari bo'ldi. Stabillashuv yillarida kapital tez konsentratsiyalashdi va markazlashdi. Juda ko'p sanoat korxonalari birlashtirildi minglab kichik va o'rta korxonalar tugatildi. Qishloq xo'jaligida ham yirik fermer-kapitalistlar xo'jaligi mayda fermerlarning xonavayron bo'lishi hisobiga kengaydi. O'sish yangi texnikaviy asosda, eng yangi texnika uskunolari, konveyyer tizimi, standartlashtirish, modernlashtirish usullarini keng tadbqiq etish yo'li bilan amalga oshirildi. Ishlab chiqarishda yangi fan va texnika kashfiyotlari, seriyali ishlab chiqarish usuli keng qo'llanila boshlandi. Ishlab chiqarishda aql bovar qilmas o'sish ro'y berdi. 1927 yilga kelib AQShda yiliga 7 mln. avtomobil ishlab chiqarilardi. Avtomobilsozlikning o'sishi keng shosse yo'llarining barpo etilishiga turtki bo'ldi, shahar va qishloq qurilishining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi. Ishlab chiqarishning o'sishi Amerika monopoliyalariga ulkan daromadlar keltirib, ularning raqobatbardoshligini oshirdi.

Iqtisodiyotdagi jadal o'sish o'z qo'llarida katta iqtisodiy va siyosiy hokimiyatni jamlagan ulkan ishlab chiqarish va moliya birlashmalarining tashkil topishiga olib keldi. Avtomobilsozlikda uch yirik kompaniya - «Ford», «Jeneral Motors» va «Kraysler» butun avtomobil sanoatini o'ziga buysundirdi. Kimyo sanoatida «Dyupon» firmasi, po'lat qo'yish sanoatida «Po'lat tresti» hukmronlik qildi. Banklarning hukmronligi ayniqsa beqiyos bo'ldi. Morgan va Rokfeller nazorati ostidagi olti yirik bank mamlakatdagi jami sarmoyaning yarmidan ortig'ini nazorat qildi. Amerikaning barcha yirik moliya va sanoat kompaniyalari birgalikda mamlakat ichki va tashqi siyosatini, Amerikadagi butun siyosiy tizimni nazorat qildilar. Ular Amerika davlat siyosatining shakllanishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatdilar.

20-yillarda mamlakat siyosiy hayotida yangi sharoitga moslashishga erishgan Respublikachilar partiyasi muhim rol o'ynadi. 1920 yildagi prezidentlikka saylovlarda Demokratlar partiyasi mag'lubiyatga uchradi va Oq uyni respublikachilar egalladilar. Ular Oq uy va Kongressda 1932 yilgacha hukmronlik qildilar. Bu davrda prezidentlik kursida U.Garding (1921-1923), K.Kulij (1923-1924 va 1925-1929) va G.Guver (1929-1932) o'tirdi. Bu davr Amerika iqtisodiyotining gullab-yashnash (prosperiti) davri bo'ldi. Unga U.Garding asos soldi. 1922 yilda u qo'shimcha foyda solig'ini, narx-navo ustidan nazoratni bekor qildi va kompaniyalarga ishchilar bilan munosabatlarda to'liq erkinlik berdi.

U.Garding ishini davom ettirgan K.Kulij 1925 yilda: «Amerikaning ishi – tijorat», deb e'lon qildi. Bu jumla Amerika hukmron doiralarning bosh tamoyiliga aylandi. Amerika iqtisodtchilari AQShning stabillashuvini, mamlakatning gullab yashnashi deb atadilar, Amerika kapitalizmini «alohida kapitalizm» deb maqtadilar, endi inqirozlar bo'lmaydi deb jar soldilar. 1925 yili Deyton shahrida yosh biologiya o'qituvchisi Jon Skops maktabda darvin evolyutsiya ta'limotini o'qitganligi uchun qamoqqa olinib sud qilindi. bu sud «maymun sudi» degan hajviy nomni oldi Xukumat ishchilar harakatini bo'g'ish uchun hamma choralarni ko'rdi. Fabrika kassirini o'ldirishdi nohaq ayblangan Italiyalik inqilobchi ishchilardan Sakko va Vansetti turmada 7 yillik qamoqdan keyin, 1927 yili sud qilindi. Tuxmatlarni ochib tashlagan 100 dan ortiq guvohlarning so'zlarini azar e'tiborga olishmadi. Sudning adolatsiz hukmiga binoan, 1927 yil 23 avgustda Sakko va Vansetti elektr toki o'tkazilgan stolda azoblab o'ldirildi. Kulij hukumati jahon miqyosida agressiv siyosatini kuchaytirib yubordi. Amerika burjuaziyasi jahonda hukmronlik qilish uchun kurashning niqoblangan izolyatsionistik metodidan foydalanishini davom ettirdi. 1924 yilda Amerikalik bankir Charliz Daues tashabbusi bilan Germaniyadan olinadigan reparatsiya bahonasi bilan «Daues rejasi» degan maxsus reja tuzildi. Bundan maqsad Germaniya iqtisodiyotida AQShning moliyaviy pozitsiyasini kuchaytirish, katta

foйда olish, Germaniya og'ir sanoatini rivojlantirish edi. 1924-1929 yillarda AQSH, Angliya va boshqa mamlakatlarning Germaniyaga bergan qarzlar 23 mlrd. marka miqdorida bo'lsa, shundan 70% AQSH bergan qarz edi. Shimoliy Amerika zo'ravonlari «katta tayoq» siyosatiga amal qilib, butun Amerika qit'asida hukmron bo'lib olish uchun kurashdilar. Markaziy Amerika mamlakatlariga (masalan, Gaiti, Gonduras, Kuba va boshqalarga) qarshi qurolli intrvensiya uyushtirildi. Panamadagi askarlar soni oshirildi, Panama AQShning harbiy strategik platsdormiga aylantirildi. Meksika neft boyligining 73% AQSH monopolistlari qo'liga o'tdi. 1928 yilga kelib Lotin Amerikasidagi 20 ta mamlakatdan 14 tasi AQShga qaram bo'lib qoldi. AQSH 1929 yilda Filippindagi milliy ozodlik harakatini qurol kuchi bilan yovuzlarcha bostirdi.

Amerika Qo'shma Shtatlari G'arbiy Yevropadagi moliya tizimlarida ham yetakchi marralarni qo'lga kiritib, bundan qit'a ustidan o'z siyosiy hukmronligini o'rnatish yo'lida foydalandi. Daues rejasi (1924) ko'magida moliya sarmoyasi G'arbiy Yevropaga kiritildi va Germaniya harbiy-ishlab chiqarish qudrati hamda Germaniya militarizmining tiklanishiga ko'maklashdi. Amerika kompaniyalarida, ayniqsa Polsha katta qiziqish uyg'otdi, Amerika sarmoyasi bu yerda Polsha qazilma va metallurgiya sanoatining 50%i ustidan nazorat o'rnatishga erishdi. 1928 yilgi prezident saylovlarida respublikachilar partiyasi prezidentlikka Gerbert Guver nomzodini ko'rsatdi. Guver demokratlar partiyasining nomzodi Smitga nisbatan ko'proq ovoz oldi va prezidentlikka saylandi.

3-§. Jahon iqtisodiy inqirozi yillarida AQSH

Mamlakat iqtisodini o'rganish uchun G.Guver boshchiligida tuzilgan maxsus hukumat komiteti 1929 yil fevralida o'zining tekshirish ishini tamomlab, «yuqori iqtisodiy aktivlik», «barqarorlik» va «mustahkam iqtisod», «ajoyib taraqqiyot» haqida hisobot yozdi. Ammo oradan ko'p o'tmasdan, 1929 yil oktabridayoq zo'r iqtisodiy inqiroz boshlanib ketdi. AQSH 1929-1933 yillardagi jahon iqtisodiy inqirozning asosiy o'chog'i bo'lib qoldi. 1929-1933 yillar iqtisodiy inqirozi AQSH sanoat mahsulotini 56% kamaytirib, 1905-1906 yillardagi ishlab chiqarish darajasiga tushirib qo'ydi. Po'lat quyish 76% qisqardi, ya'ni 1901 yilgi darajaga tushib qoldi. Sanoat ishlab chiqarishi deyarli yarmiga qisqardi, avtomobillar chiqarish 80%ga, eksport, import, chakana savdo aylanmasi ikki barobarga kamaydi. Ushbu inqiroz «Buyuk depressiya» deb nomlandi, zero, 1929-1932 yillarda 130 mingga yaqin firmalar bankrotlikka uchradi.

Qishloq xo'jaligidagi vaziyat ham keskin yomonlashdi. Qishloq xo'jalik mahsulotlarining xarid narxlari tushib ketganligi fermer xo'jaliklarining ommaviy inqiroziga sabab bo'ldi. Inqiroz yillarida milliondan ortiq fermer xo'jaliklarining bor-budi sotib yuborildi. Ularning egalari esa ishsizlar safiga qo'shilishdi. Ishsizlik amerikaliklar uchun haqiqiy ofatga aylandi. 1933 yili mamlakatda 17 mln. ishsiz bo'lib, har uchinchi ishchi ish haqidan mahrum edi.

Buyuk depressiya ommaviy ish tashlashchilik harakatiga turtki berdi, ishchilar va fermerlarning chiqishlari boshlandi. 1931 yil dekabrda va 1932 yili ishsizlarning Vashingtonga yurishlari tashkil etildi. Ular «ocharchilik yurishlari» deb nomlandi. G'alayonlar qishloq xo'jalik hududlariga ham tarqaldi. 22 shtatni fermerlarning chiqishlari qamrab oldi. Davlat beshafqat qatag'on yo'li bilan chiqishlarni bostirdi. 130 mingga yaqin savdo va sanoat firmasi, 58 ta temir yo'l kompaniyasi, 10 ming bank (hamma banklarning 40%) sindi. Inqiroz va sinfiy kurash eng kuchaygan, 1932 yili navbatdagi prezident salovi o'tkazildi. Respublikachi Guver bu saylovda mag'lubiyatga uchradi. Demokratlar partiyasi tajribali va tadbirli siyosatchi bo'lgan Franklin Ruzveltni prezidentlikka nomzod qilib ko'rsatdi. Amerika burjuaziyasi shunday prezident bo'lishini talab qilmoqda edi. Chunki burjuaziya oldida iqtisodiy inqirozning jiddiy sotsial va siyosiy inqirozga aylanib ketish xavfi tug'ilgan edi. F.Ruzvelt moliya magnatlari bilan qarindoshlik aloqasida bo'lgan, burjua siyosiy arboblardan bo'lib, Nyu-York shtatining gubernatori edi.

F.Ruzvelt AQShning o'ttiz ikkinchi prezidenti hamda Amerika tarixidagi eng mashhur prezidentlardan biri edi. U 1932 yildan 1944 yilgacha prezidentlikka to'rt marta saylangan yagona prezident ham edi. Zero, konstitutsiyaga ko'ra, prezident faqat ikki muddatga saylanishi

mumkin. Ruzvelt prezident bo'lgach, Amerika iqtisodiyotida «yangi yo'nalish» sifatida shuhrat qozongan keng miqyosli islohotlarni boshladi. Bu yo'lning mohiyati ishlab chiqarish vositalariga xususiy mulkchilik to'liq saqlangan holda davlat boshqaruvini iqtisodiyotga va ijtimoiy munosabatlarga keng joriy etishdan iborat edi. Ruzvelt hamda uni quvvatlovchi siyosiy arboblardadil qadam tashlay olishdi - mamlakat iqtisodiyotini boshqarishning davlat dastaklarini qo'llash ko'zda tutilar, mehnat huquqini jiddiy qayta ko'rish, ishsizlikka qarshi kurashga katta mablag'lar ajratish va ijtimoiy sug'urta asoslarini yaratish (pensiylar, kasallik bo'yicha nafaqalar, sog'liqni saqlash, xalq ta'limi tizimini takomillashtirish) rejalashtirilgandi. Shunday qilib, Ruzveltning «yangi yo'nalish»idagi asosiy vazifa davlatning iqtisodiy faoliyat jarayoniga faol aralashuvi yo'li orqali mamlakatni inqirozdan chiqarishdan iborat edi.

1933 yil 16 iyunda kuchga kirgan «Sanoatni qayta tiklash haqidagi qonun» «yangi yo'nalish» doirasidagi yana bir muhim tadbir bo'ldi. Bu qonun sanoatning davlat tomonidan boshqarilishi tizimini joriy qildi. Sanoatning har bir sohasi uchun davlat qonuni sifatida tadbiriqilingan «halol raqobat kodekslari» ishlab chiqildi. Mazkur kodekslar har bir korxona uchun muayyan ishlab chiqarish xajmini, mahsulot narxini, savdo bozorini belgilab berardi.

Qonun ishbilarmonlarga ish haqining eng kam darajasini va ish haftasining maksimal vaqtini kodekslarda qat'iy qayd etishni ham belgilardi. Shuningdek, ishchilarning kasaba uyushmalar vujudga keltirish va jamoaviy shartnomalar tuzish huquqi e'lon qilingandi. Sanoatni qayta tiklash haqidagi qonun bo'yicha ishsizlarga yordam choralari ko'zda tutilgandi. Ijtimoiy ishlar maxsus qo'mitasi tuzilib, uning ixtiyoriga yo'llar qurish, maktablarni ta'mirlash, sport majmualari va boshqa inshootlar barpo etish uchun katta miqdorda mablag' berildi. mazkur tadbirlar 8 mln. amerikaliklarni ish bilan ta'minladi. Ajratilgan mablag'larga 10.000 km. katta yo'llar qurildi. 77 ming ko'priklar va 800 ta aerodrom barpo etildi, o'nlab harbiy kemalar yaratildi. Qashshoq oilalardagi 18 dan 25 yoshgacha bo'lgan ishsizlar uchun maxsus lagerlar barpo etildi. Bu yerda davlat hisobidan ta'lim olib, sanoatning yangi tarmoqlari uchun zarur ixtisosliklarni egallashardi. Har bir shtatga ishsizlarga yordam ko'rsatish uchun dotatsiyalar ajratildi.

Ruzvelt amerikalik fermerlarni qutqarishga alohida e'tibor qaratdi. Inqiroz AQSH qishloq xo'jaligiga ulkan ziyon yetkazdi. An'anaviy bozorlaridan mahrum bo'lgan, bank kreditlarini yo'qotgan ko'plab fermer xo'jaliklari halokatga uchradi. Jorjiya, Alabama, Oklaxoma, Texas fermerlari o'z fermalarini tark etib, boshqa shtatlarga ish va yer topish uchun jo'nab ketishdi.

1933 yil 12 mayda «Fermerlarga yordam haqidagi qonun» qabul qilindi. Ularning mahsulotlariga bo'lgan narxlarni oshirish zarur edi. Fermerlarga ekinzor maydonini va chorva sonini qisqartirish haqida davlat bilan kontrakt tuzish taklif etildi. Buning uchun ularga mukofotlar berildi. Fermerlarning qarzlari davlat hisobiga qabul qilindi va noma'lum muddatga to'xtatib qo'yildi. Davlat yuzminglab fermerlarga kreditlar berdi.

«Yangi yo'nalish» AQSHdagi ijtimoiy munosabatlarni liberallashtirish uchun ijtimoiy qonunchilik sohasida muhim siljishni amalga oshirdi. 1935 yili AQSH Kongressi «Vagner qonuni»ni qabul qildi, mazkur qonun bo'yicha ishchilar jamoaviy shartnomalar tuzish huquqiga va ish tashlash huquqiga ega bo'lishdi. Bundan buyon ish tashlashda qatnashganligi uchun ta'qib qilish man qilindi. Xuddi shu yili AQSH tarixida birinchi marta ijtimoiy sug'urtalash haqidagi qonun qabul qilindi. Bu qonunda keksalarni ta'minlash va ishsizlik bo'yicha kompensatsiya to'lash, ko'zi ojizlarga, majruhlarga, yolg'iz onalarga va yetimlarga yordam berish ko'zda tutildi.

AQSH kongressi 1933 yilda 3,5 oy ichida 70 ta qonun qabul qildi. Bular orasida ayniqsa «Milliy sanoatni tiklash to'g'risida akt», «Qishloq xo'jaligini tartibga solish to'g'risida akt» («Fermerlarga yordam berish to'g'risida qonun») muxim qonunlar edi. Ruzvelt hukumati sanoat, savdo va transport kompaniyalarini, banklarni, sug'urta jamiyatlarini halokatdan qutqarishga urindi va shu maqsadda ssuda (qarz)lar berildi. Hukumat qishloq xo'jalik mahsuloti narxlarini oshirishni ko'zda tutdi. Kongress tomonidan qabul qilingan va 1933 yil 12 mayda kuchga kirgan 2 chi asosiy qonunga ko'ra, qishloq xo'jaligi sohasida «Qishloq xo'jaligini tartibga solish to'g'risida» AAA va qishloq xo'jaligi krediti ma'muriyati tuzildi. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishni «rejali ravishda» kamaytirish va ularning narxlarini oshirish vazifasi ana shu ma'muriyatga (AAAg) yuklandi. AAA qishloq xo'jalik mahsulotlarining

narxini oshirish bilan birga, fermerlarning xarid quvvatini ham oshirishni va ichki bozorni kengaytirishni, shu bilan bir qatorda fermerlar harakatining yuksalishiga yo'l qo'ymaslikni nazarda tutdi. «Yangi yo'l» siyosati AQShda davlat-monopolistik kapitalizmini kuchaytirish va mustahkamlanishida, burjuazianing zaiflashib qolgan pozitsiyasini kuchaytirishda ularning inqirozdan chiqib olishda rol o'ynadi. 1936 yilda ishlab chiqarish jamlana boshladi. Agar 1932 yilda sanoat kompaniyalari 3,42 mlrd. dollar defitsit bilan yakunlangan bo'lsa, 1936 yilda kompaniyalarning sof foydasi 4,27 mlrd. dollarni tashkil etdi.

4-§. Ikkinchi jahon urushi arafasida AQSH

Ruzvelt prezidentligi davrida ichki siyosatning liberallashtirilganligi tashqi siyosatda ham aks etdi. AQShning tashqi siyosati yanada moslashuvchan va haqqoniyroq bo'lib qoldi. Yangi ma'muriyatning tashqi siyosatdagi birinchi yirik ishi - 1933 yil noyabrda Sovet Ittifoqi bilan diplomatik munosabatlar o'rnatganligidir. Ikki mamlakat o'rtasida munosabatlar meyorlashganligi ularning iqtisodiy aloqalarini faollashtirdi. 1935 va 1937 yillarda AQSH bilan SSSR o'rtasida ikki mamlakatning o'zaro foydali iqtisodiy munosabatlari rivojlanishiga imkon beruvchi savdo bitimlari tuzildi.

1933 yili AQSH hukumati Lotin Amerikasi mamlakatlariga nisbatan «yaxshi qo'shnichilik» siyosatini e'lon qildi. F.Ruzvelt Gaitidan Amerika qo'shinlarini chaqirib oldi. Kuba bilan shartnoma tuzilib, AQShning intervensiya huquqi bekor qilindi. Lotin Amerikasi davlatlari bilan ular uchun qulay savdo bitimlari tuzildi. Siyosatining yangi usullari tufayli AQSH Janubiy Amerikadagi asosiy raqiblar – Angliya va Germaniyani tezda qisib qo'yishga erishdi.

30-yillar o'rtalarida AQShdagi hukmron doiralarning diqqat markazini Yevropa va Uzoq Sharq siyosati muammolari egalladi. Bu masalalar bo'yicha o'tkir siyosiy kurash avj oldi. Izolyatsionistlarning mavqei Amerikaning keng xalq doiralariida hukmron bo'lgan urushga qarshi kayfiyatlar, shuningdek, Demokratik partiyaning o'zida «betaraflik-urushga qarshi vositachi» shiorini ilgari suradigan kuchli senatorlar guruhi mavqei tufayli kuchaya bordi. Bu senatorlar guruhi ko'pgina holatlarda tashqi siyosat masalalari bo'yicha muhim qarorlar qabul qilinishiga faol ta'sir ko'rsatishga muvaffaq bo'ldi. 1935 yil avgustida ularning tazyiqi bilan betaraflik haqidagi qonun qabul qilindi. Bu qonun Yevropa qit'asidagi urushayotgan mamlakatlarga qurol-aslaha va harbiy materiallar yetkazilishini taqiqlardi. O'sha yillarda Xitoy va Uzoq Sharq rayonlarida AQSH bilan Yaponiya, Yevropa va Lotin Amerikasida AQSH bilan Angliya, AQSH bilan Germaniya o'rtasidagi ziddiyatlar kuchayib bormoqda edi. Tashqi savdo, kapital chiqarish va neft mahsuloti ishlab chiqarish sohasida AQSH Angliyadan o'zib ketdi, lekin jahon neft boyligining 75%i Angliya nazoratida edi.

Ruzvelt 1937 yil 5 oktabr kuni Chikagoda so'zlagan nutqida agressorlar atrofida «karantin» o'rnatishga chaqirdi. U fashistik davlatlarning bosqinchilik harakatlarini ham keskin qoraladi. Shunday bo'lsada, AQSH davlat departamenti rahbarlari Myunxen bitimidan mamnun bo'lib, u «yangi xalqaro tartib» o'rnatadi, dedilar. Yirik monopolist Nudsen Gitlerni tabriklab telegramma yubordi. Reaksion diplomat Bullit o'zining bir maktubida Sharqda Germaniya bilan Rossiya tezroq harbiy to'qnashuvini istayotganligini bildirdi. Myunxen bitimidan keyin Germaniya agressiyasining kengayishi va Yaponiya agressiyasini Xitoyning janubiy tomonlariga qaratilishi AQSH hukmron doiralariini ancha tashvishga solib qo'ydi.

1936 yil 26 iyul kuni AQSH Yaponiya bilan savdo shartnomasini bekor qildi. 1939 yil 4 noyabrda Ikkinchi jahon urushi boshlangandan so'ng betaraflik haqidagi qonun qayta ko'rib chiqildi va bu Angliya hamda Fransiyaga AQShdan qurol-yarog' sotib olish imkonini berdi. AQSH demokratik davlatlar tomonidagi o'z holatini qat'iy belgiladi.

1941 yil 11 martda Kongress AQSH mudofaasi uchun hayotiy muhim hisoblangan qurol va harbiy anjomlar qarzga (lend), yoki ijaraga (liz) berish uchun imkon yaratgan lend-liz haqidagi qonunni qabul qildi. AQSH lend-liz bo'yicha amalda Angliyaga, Sovet Ittifoqi va Xitoyga qurol bilan katta yordam berdi. Imperialistik ziddiyatlarning kuchayib borishi sharoitida

AQSH hukumati Yaponiyaga diplomatik norozilik bildirdi. Amerika mahsulotlari uchun bozorlarni kengaytirishga urindi. Iqtisodiy va harbiy tayyorgarlik yanada kuchaytirildi. Tashqi siyosat masalalari yuzasidan AQShning hukmron lagerida munozara zo'raydi. Agressor davlatlarning, xususan Germaniyaning jahonda hukmronlik qilish uchun zo'r berib kurashayotganini hisobga olib va buning AQSH manfaatlariga xavfli ekanligini anglab prezident F.Ruzvelt 1939 yil martida «betaraflik» to'g'risidagi qonunni qayta ko'rib chiqishni taklif etdi. Bu masala kongressda qizg'in ravishda muhokama qilindi. Vakillar palatasida izolyatsionistlardan iborat ko'pchilik (188 ovozga qarshi 200 ovoz bilan) «betaraflik» to'g'risidagi qonunni o'z kuchida qoldirdi. Bu bilan fashist agressorlari uchun qulay sharoit saqlanib qoldi.

Mavzu: 1918-1939 yillarda SSSR

1-§. Rossiya 1917 yil to'ntarishidan keyingi xalqaro intervensiya va fuqarolar urushi yillarida

1917 yilning fevral oyi oxirida Rossiyada ro'y bergan inqilob Romanovlar sulolasining 304 yillik hukmronligiga barham berdi. 1917 yil 2 martda podsho Nikolay 11 o'z ukasi Mixail foydasiga taxtdan voz kechdi. Ammo hokimiyatning podsholik shakliga qarshi noroziliklar tufayli Mixail Romanov bu taklifni qabul qilmadi. Faqatgina Ta'sis majlisi roziligi bilan taxtga vorislik qilishi mumkinligini bildirdi.

Mamlakatda amalda ikki hokimiyatchilik qaror topdi. Hokimiyat burjua partiyalari vakillaridan iborat Muvaqqat hukumat bilan ishchi va askar deputatlari organi bo'lgan Sovetlar o'rtasida taqsimlangan edi. Ikki hokimiyatchilik-ikki diktaturaning yakka hukmronlik uchun kurashi davri 1917 yilning 1 martidan 2 iyuligacha davom etdi. Muvaqqat hukumat parlamentar monarxiyani e'lon qilish tarafdori edi. Ishchi va askar deputatlari proletariat va dehqonlarning inqilobiy-demokratik diktaturasiga tayanib, respublika o'rnatish uchun kurash olib borardilar. 1917 yil 4 iyulda Petrogradga ishchilar namoyishining o'qqa tutilishi bilan ikki hokimiyatchilik barham topdi va Muvaqqat hukumat hokimiyati o'rnatildi.

Muvaqqat hukumat asosan o'rta va yirik burjuaziya manfaatlari ifodachisi bo'lgan konstitutsiyaviy demokratlar (kadetlar) partiyasi a'zolaridan tuzilgan edi. Sovetlar sotsialist-inqilobchilar (eserlar) va Rossiya sotsial-demokratik ishchilar partiyasi (RSDRP) tomonidan tashkil etilgan bo'lib, o'sha davrda rahbarlik mensheviklar qo'lida edi. 1917 yilning fevralida bolsheviklar RSDRP ichida kichik bir guruhni tashkil etardi. Rossiya bolsheviklari dohiysi V.Lenin Shveytsariyada muhojirlikda yashar, Rossiyadagi inqilobiy voqealar xususida ham gazetalar orqali xabar topgan edi. Germaniya hukumati uni o'z mamlakatiga Finlyandiya orqali Petrogradga jo'natishga rozilik berdi.

1917 yilning 3 aprel kuni kechqurun V.Lenin Petrogradga yetib keldi. Rossiyaga kelgan zahoti u mavjud tuzumni «sotsialistik inqilob» yo'li bilan ag'darish dasturini ilgari surdi. Lenin tomonidan qo'yilgan vazifa inqilob yo'li bilan yangi hokimiyat o'rnatish va bu hokimiyat vositasida cheklanmagan huquqlarga ega bo'lgan proletariat diktaturasini qaror toptirish edi. Amalda u bolsheviklar partiyasining mutlaq hukmronligini o'rnatishni, iqtisodiyotda esa barcha korxonalar, zavod va fabrikalarni davlat ixtiyoriga o'tkazish, shuningdek, yerlarni mulkdorlardan olib, dehqonlarga bo'lib berishni nazarda tutar edi.

Davlat hokimiyatining Lenin tomonidan ilgari surilgan proletariat diktaturasi shakli totalitar hokimiyatning yorqin namunasi edi. Lenin shunday deb yozgandi: «Proletariat diktaturasi qonunga emas, ko'pchilikning zohiriy irodasiga emas, balki to'g'ridan-to'g'ri zo'ravonlikka tayanadi. Zo'ravonlik- hokimiyatning qurolidir». Lenin shunday derdi: «Inqilobda eng asosiysi - hokimiyat, u qo'lga kiritilgach. hech qanday qonunning va ko'pchilik irodasining hojati yo'q».

Muvaqqat hukumat qiyofasidagi boshqaruvning respublikachi - demokratik shakli hokimiyat tepasida uzoq tura olmadi. Yangi hukumat paytida tuzilgan maxsus nazorat muassasalari faoliyati yirik banklar va korxonalar zimdan qarshiligi tufayli to'xtab qoldi.

Muvaqqat hukumat vazirlari urushni g'alabagacha davom ettirish, ittifoqchilar oldidagi majburiyatlarni bajarish haqida ko'proq gapirar edilar. Yirik banklar va korxonalar egalaridan iborat hukumat o'zining cheklanmagan hokimiyatiga xavf tug'ilishini istamasdi. Chunki bu urush tufayli ular qurol-yarog' sotish va pulning qadrsizlanishidan katta foyda ko'rmoqda edilar.

Bolsheviklarning asosiy shiori – «Xalqlarga tinchlik!» - mamlakat aholisining katta qismi tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Xalq urushdan charchagan va boshqa urushishni istamas edi. Mamlakatda Muvaqqat hukumatni ag'darishga qaratilgan harakat boshlandi. Ana shunday targ'ibot ishlari natijasida askarlar frontdan ommaviy shaklda qochib kela boshladilar. Bundan keyin ularni to'xtatishning iloji yo'q edi.

Muvaqqat hukumat o'z ishlarini harbiy muvaffaqiyatlar bilan tuzatib olish umidi bilan 1917 yil iyun oyi boshida qo'shinlarga hujumga o'tish haqida buyruq berdi.

18 iyunda rus armiyasi Lvov tomondan hujumni boshlab yubordi va dushman mudofaasini yorib o'tdi. Ammo hujum muvaffaqiyatlari uzoq davom etmadi. Nemis qo'mondonligi g'arbiy frontdan bir necha diviziya tashladi. Sharqiy frontning boshqa uchastkalaridan kuchlarni bu frontga olib kelib qarshi hujumga o'tdi. Rus qo'shinlari Galitsiyadan siqib chiqarildi. Rus armiyasi 60 ming kishisini yo'qotdi.

Frontda hujumga o'tish uyushtirilishi bilan aksilinqilobchilar ham bosh ko'tardi. Inqilobiy qismlar tugatilib, undagi askarlar boshqa joylarga yuborila boshladi, ishchilarni qamash boshlandi, mamlakatning siyosiy hayotida reaksiya harbiylarning roli kuchaydi.

Mamlakatning iqtisodiy ahvoli tobora yomonlashdi. Korxonalar ketma-ket yopila boshladi. Ko'pgina kapitalistlar sanoat mollari narxini oshirish maqsadida ishlab chiqarishni to'xtatib qo'ydilar. Shaxtalarda va metallurgiya zavodlarida ko'mir hamda metall zahiralari tog'-tog' bulib uyulib qoldi, bular ataylab iste'mol qilinadigan joylarga jo'natilmas edi, vaholanki, korxonalar ko'mir va metall bo'lmaganligi uchun to'xtab yotar edi. May-iyul oylarida 439 zavod yopib qo'yildi. Ocharchilik shafqatsizlik bilan yaqinlashib kelmoqda edi. G'alla, don bilan savdo qiluvchilar non tanqisligini ataylab kuchaytirar edilar. Burjuaziya yuksalib kelayotgan inqilobni ochlikning yovuz changali bilan bo'g'ib tashlashga urinmoqda edi. Burjua hukumati yopirilib kelayotgan iqtisodiy halokatning oldini olish uchun hech qanday chora ko'rmadi.

Urushning cho'zilib ketganligidan, oziq-ovqat mahsulotlarining tobora qimmatlashayotganligidan, mamlakatdagi iqtisodiy va umumiy vayronagarchilikdan, yer to'g'risidagi masalaning hal qilinmay kelayotganligidan, burjua Muvaqqat hukumatning mamlakatni inqirozdan chiqarishga noqobilligidan xalq ommasining noroziligi kundan-kunga kuchayib ketayotgan edi. Buning ustiga hujum yirik harbiy mag'lubiyat bilan yakunlandi. Petrogradning g'azablangan aholisi 1917 yil 4 iyulda ommaviy namoyishga chiqdi. Unda 500 mingdan ortiq kishi qatnashdi. Namoyishchilar Muvaqqat hukumatning iste'foga chiqishini va hokimiyatning Sovetlar qo'liga berilishini talab qildilar. Namoyish hukumat qo'shinlari tomonidan bostirildi. Ikki hokimiyatchilik tugatildi, hokimiyat to'laligicha Muvaqqat hukumat qo'liga o'tdi.

8 iyulda esa A.F.Kerenskiy Muvaqqat hukumat boshlig'i qilib tayinlandi. Menshevik-esserlar Sovetlarining Markaziy Ijroiya Komiteti Kerenskiy hukumatini inqilobni «qutqarib qoluvchi hukumat» deb e'lon qilib, unga favqulodda vakolatlar berdi. Kerenskiy hukumati bundan foydalanib frontda o'lim jazosini tikladi, harbiy-dala sudlarini joriy qildi, harbiy senzura o'rnatdi, bolsheviklarning markaziy gazetasi «Pravda»ni va boshqa shaharlardagi bir qancha bolshevistik gazetalarni ta'qiqladi.

24 iyulda Kerenskiy boshliq burjua va mayda burjua partiyalari vakillaridan iborat ikkinchi koalitsion muvaqqat hukumat tuzildi. Hukumat sostavi aksilinqilobchilardan iborat bo'lib, burjuaziya manfaatini ifodalar va uning hokimiyatini ta'minlar edi. Burjuaziya behad xursand, u ishchilar inqilobiga barham berdim, deb o'ylar edi. Ammo xursandchilik qilishga hali erta edi. Iyul voqealari mamlakatdagi siyosiy vaziyat tubdan o'zgarganligini ko'rsatdi va burjua-demokratik inqilobning o'sib sotsialistik inqilobga o'tish jarayonida burilish nuqtasi bo'ldi.

Iyul namoyishi bostirilganidan so'ng bolsheviklar partiyasining e'tibori va ta'siri anchagina o'sdi. 1917 yil sentabr oyida partiyaning a'zolari soni 300 mingdan ortib ketdi. Bu paytda mamlakat siyosiy hayotining ikki asosiy markazi - Petrograd va Moskva Sovetlari bolsheviklar nazorati ostiga o'tgandi.

Iyul voqealaridan keyin burjuaziya inqilobni batamom tor-mor keltirish uchun va imperialistik urushni oxiriga yetkazishni ta'minlay oladigan ochiq harbiy diktatura o'rnatish uchun kuch to'plashga kirishdi.

Oliy bosh qo'mondon general L.G. Kornilov Stavkasi aksilinqilobiy kuchlarini safarbar etuvchi asosiy markazlardan biri bo'lib, burjuaziya uni diktator deb e'lon qilishni mo'ljallagan edi.

12 avgustda Moskvada Davlat kengashi ochildi, Muvaqqat hukumat bu kengashni butun aksilinqilobiy kuchlarini jipslashtirish maqsadida chaqirgan edi. AQSH prezidenti Vilson kengashga tabrik telegrammasi yubordi, unda «barcha ichki va tashqi dushmanlarga qarshi» kurashda Rossiya hukumatiga har tomonlama moddiy yordam ko'rsatishni va'da qilib AQSH Muvaqqat hukumatga 100 mln. dollar miqdorida yangi zayom berdi.

25 avgustda Kornilovning buyrug'i bilan maxsus tuzilgan «Petrograd armiyasi» A.I.Krimov ko'moqdonligida yurishni boshladi. Petrograd ustiga bu aksilinqilobiy yurishni frontlarning qo'mondonlari, mamlakatdagi barcha aksilinqilobchi kuchlar tabrikladilar. Antanta davlatlari Kornilovning isyoni yordamida Rossiyada harbiy diktatura o'rnatishni, o'sib borayotgan sotsialistik inqilobni tor-mor keltirishni va G'arbda kuchayib borayotgan inqilobiy harakatni barbod qilishni mo'ljallagan edilar. Bolshevistik partiya bir necha kun ichida poytaxtda uni himoya qilish uchun Qizil gvardiyachilar, inqilobchi soldat va matroslardan (hammasi bo'lib qariyb 60 ming kishidan) iborat yirik qurolli kuchlarni barpo qilishga muvaffaq bo'ldi. O'n minglarcha mehnatkashlar Petrograd atrofida okoplar kovladilar, sim to'siqlar qo'ydilar. Poytaxt kornilovchilar kira olmaydigan mustahkam qal'aga aylandi. Bolshevistik propaganda ta'siri ostida soldatlar va kazaklar ishchilar tomoniga o'ta boshladilar. General Krimov o'z soldatlarini tashlab Petrogradga qochib ketishga majbur bo'ldi, chunki soldatlar uni qamoqqa olishni talab qilgan edilar. Kornilov avantiyurasi barbod bo'lganligiga ishonch hosil qilganidan keyin Krimov o'zini-o'zi otib o'ldirdi.

1917 yil kuzida umummilliy inqiroz behad tez yetilib bordi. Bu avvalo xo'jalik vayronagarchiligining keskin chuqurlashib ketganligida, ishchilar sinfi va keng mehnatkashlar ommasi ahvolining yanada yomonlashganligida namoyon bo'ldi. Mamlakat ustiga xo'jalik halokati va ocharchilik rahmsizlik bilan yopirilib kelmoqda edi. 1917 yilda sanoat yalpi mahsuloti 1916 yildagiga nisbatan 36,5 foiz qisqardi.

Chayqovchilik misli ko'rilmagan darajada avj olib ketdi. May oyidan to avgustgacha keng iste'mol mollari narxi qariyb ikki marta oshib ketdi. 1917 yilda ishchilarning real ish haqi 1913 yildagiga nisbatan ikki baravar kamayib ketdi. Mehnatkashlarning ahvoli kun sayin yomonlasha bordi.

Mamlakat chuqur moliya inqirozini boshidan kechirayotgan edi: 1917 yil budjetining tanqisligi qariyb 82 foizga yetib, buni qoplash uchun borgan sari ko'p miqdorda qog'oz pul – «kerenka» (xalq bu pulni masxara qilib shunday deb atar edi) chiqarildi. Bu esa so'mning xarid quvvatini keskin ravishda pasaytirib yubordi. 1917 yil oktabrida uning real qimmatini urushdan oldingidan o'n baravar kam edi.

Rossiya chet el davlatlariga tobora ko'proq qaram bo'lib bormoqda edi. Muvaqqat hukumat vaqtida davlatning chet davlatlardan qarzi ikki hissa ko'payib, juda katta miqdorga - 16 mlrd. so'mga yetdi.

Markaziy komitetning qaroriga binoan, Lenin 7 oktabrda yashirish holda Finlyandiya Moskvaga keldi va qo'zg'olonni tayyorlash ishlarining hammasiga rahbarlik qildi. Ertasi kuni Lenin «Chekkadagi kishining maslahati» degan maqola yozib, unda qurolli qo'zg'olon o'tkazishning batafsil va aniq rejasini belgilab berdi.

1917 yil 25 oktabrda bolsheviklar hokimiyatni o'z qo'llariga oldilar. Amalda Peterburgda to'ntarishga qarshi turadigan kuch qolmagan, hech kimning Muvaqqat hukumatni himoya qilish niyati ham yo'q edi. Sovetlarning ikkinchi syezdi to'ntarish yakunlanganidan keyin hokimiyatga bolsheviklar partiyasi kelganligini tasdiqladi, yer haqida, tinchlik haqida dekretlar va «Rossiya xalqlari huquqlari deklaratsiyasi»ni qabul qildi.

25 oktabrga o'tar kechasi bolsheviklarning qurolli guruhlar Nikolay va Boltiq vokzallarini, markaziy elektr stansiyasini egalladi. Soat 13 da Muvaqqat hukumat joylashgan Mariin saroyi qo'lga kiritildi. Soat 18 da Qishki saroy o'rab olindi va tez orada zabt etildi. Muvaqqat hukumat to'la tarkibda qamoqqa olindi. Harbiy-inqilobiy qo'mita davlat to'ntarishini amalga oshirib, 25 oktabrda hokimiyatni o'z qo'lga oldi.

Rossiyada oktabr to'ntarishidan boshqa yo'l bormidi? Rossiya taraqqiyotning boshqacha yo'lidan ketishi mumkinmidi? Ayrim olimlarning fikricha, agar podshoh hokimiyati burjua -

demokratik respublikasi bilan almashtirilganida edi, Rossiya jahonning sanoati eng rivojlangan ikkinchi mamlakati bo'lishi, terror, ommaviy qatog'onlar, hayotning past darajasi va axloqiy tanazzul kabi ayanchli qismatdan qutulishi mumkin edi.

Ammo har qanday inqilobiy voqea - uni vujudga keltirgan moddiy va ma'naviy sharoitlarning in'ikosidir. Rossiyada feodal aqidalarning saqlanib qolganligi, shuningdek, burjuaziyanning kuchsizligi, uning siyosiy jihatdan tarqoqligi, eskirgan boshqaruv tizimiga asoslangan avtokratiyaning shafqatsizligi tufayli vaziyat murakkablashgan edi. Rossiyaning eng asosiy nuqsoni iqtisodiyotning xorijiy sarmoyaga qaram bo'lib qolganligi edi. Buyuk imperiya so'nggi Romanovlar hukmronligi davrida yarim mustamlaka edi, deyish mumkin. Rossiya ko'mir konlarining 90 foizi, kimyo sanoatining 50 foizi, mashinasozlik korxonalarining 40 foizi, bank jamg'armalarining 42 foizi G'arb davlatlariga tegishli edi. Milliy sarmoya juda oz, milliy daromad mamlakat ehtiyojlarini qondirish va iqtisodiy taraqqiyot uchun kamlik qilardi. Milliy daromadning yarmidan ko'pini aholining eng faqir qismi bo'lgan dehqonlardan olinadigan soliqlar tashkil etardi.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida barpo etilgan Rossiya temir yo'llari xorijiy sarmoya hisobiga ko'rilgan edi. 1917 yil oktabr voqealaridan keyin Yevropa sanoatchilari o'z daromadlarini yana Rossiya sanoatiga qayta olib kirishdan manfaatdor emas edilar. Rossiya faqatgina sarmoya to'plash bo'yicha favqulodda choralar ko'rish, qishloq xo'jaligidagi barcha imkoniyatlarni safarbar etish, o'z ishchilarini ekspluatatsiya qilish evaziga sanoat ravnaqiga erishishi mumkin edi. Bolsheviklarning dasturiga ko'ra, iqtisodiy tadbirlarning asosini xorijiy mulklarni milliyalashtirish, podsho hukumatining qarzlarini to'lashdan voz kechish va majburiy mehnat tashkil etardi. Tabiiyki, burjua-demokratik hukumat bularning birortasini ham amalga oshirmagan bo'lur edi.

Ishchilar amalda bolsheviklar partiyasini qo'llab-quvvatladilar. Ammo ular aholining shu qadar oz qismini tashkil etardilarki, Rossiya tarixi jarayoniga hal qiluvchi ta'sirlari haqida gap ham bo'lishi mumkin emas. Ammo ishchilarning 80 foizi Petrograd va Moskvada jamlangan edi. Bu esa hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Ishchilar eski dunyoni buzish va yangisini qurish ishtiyoqi bilan band edilar. Ular butun jamiyatni sotsiallashtirish, ya'ni barcha ishlab chiqarish vositalarini umumiyalashtirish, ishlab chiqarish ustidan ishchi nazorati joriy etish va davlatda o'z hokimiyatlarini o'rnatish niyatida edilar.

Bolsheviklar taktik harakatlar uchun keng imkoniyatga ega bo'ldilar. 1918 yil 3 martida Brest-Litovsk shahrida Germaniya bilan tinchlik shartnomasi imzolandi. Shu tariqa inqilobning asosiy shiori «bajarildi». Brest-Litovskdagi tinchlik shartnomasi aslida Germaniyaga tasdim bo'lish bilan barobar edi. Ammo Rossiya og'ir va tahqirlovchi bo'lsa-da, uzoq kutilgan tinchlikka erishgan edi. Shartnomaga ko'ra, Rossiyadan Litva, Kurlyandiya, Liflyandiya, Estlyandiya, Belorussiyaning bir qismi ajratib olindi, Kars, Ardagan va Batumi Turkiyaga berildi.

Sovet hokimiyatining hayot mamotini hal qiladigan tub masala sulh masalasi edi. Rossiyaning bundan buyon ham urushda ishtirok etishi Sovet hokimiyatiga german naysalaridan muqarrar ravishda halok bo'lish xavfini tug'dirayotgan edi. AQSH, Angliya, Fransiyaning hukmron doiralari sulh tuzish to'g'risida eshitishni ham istamas edilar. Sovet hukumatining bu masala yuzasidan qilgan barcha murojaatlarini ular javobsiz qoldirdilar.

Sovet hukumati sulh muzokaralarini boshlash to'g'risida bir necha bor qilgan taklifiga Antanta hukumatlaridan javob olmaganidan keyin Germaniya va uning ittifoqchilari bilan bir yoqlama muzokaralar boshlashga majbur bo'ldi. 2 (15) dekabrda Sovet Rossiyasi bilan Germaniya blokidagi mamlakatlar (Germaniya, Avstriya-Vengriya, Bolgariya va Turkiya) o'rtasida yarash bitimi tuzildi. Bir haftadan keyin Brest-Litovskda sulh shartnomasi tuzish to'g'risida yana muzokaralar boshlandi.

1918 yil 9 yanvarda o'n kunlik tanaffusdan keyin sulh konferensiyasi ishini yana davom ettirdi. Tanaffus kunlarida Sovet hukumati Rossiyaning sobiq ittifoqchilarini muzokaralarga jalb qilishga yana bir karra urinib ko'rdi. Germaniya delegatsiyasi Rossiya ittifoqchilari sulh muzokaralarida ishtirok etishdan bosh tortganligini bahona qilib, anneksiyasiz va

kontributsiyasiz sulh tuzish prinsipini rad etdi. U Rossiya bilan Germaniya o'rtasida yangi chegara belgilashni taklif qildi, o'shanda Polsha, Litva, Estoniyaning bir qismi, Latviya, Belorussiya, Ukraina, Moonzund orollari va Riga qo'ltig'i Germaniyaga o'tar, bu esa Germaniyaga Fin va Botnicheskiy ko'rfazlariga olib boradigan dengiz yo'llarini nazorat qilib turish imkonini berar va Petrogradni xavf ostida qoldirar edi. Nemislarning sulh shartnomasini imzolash to'g'risida ultimatum tarzidagi talablariga javoban Brestda Sovet delegatsiyasiga boshchilik qilgan Trotskiy 10 fevralda, Sovet Rossiyasi shartnomani imzolamaydi, ammo urushni to'xtatadi, armiyani esa tarqatib yuboradi, deb bayonot bergandan keyin vaziyat yana yomonlashdi.

Trotskiyning sulh shartnomasini imzolashdan bosh tortganidan foydalanib, nemis qo'mondonligi yarash shartlarini buzdi va o'z qo'shinlarini butun front bo'ylab rus armiyasiga qarshi xujumga tashladi. Nemis qo'shinlari Petrogradga xujumni davom ettirdilar, Ukraina va Belorussiyaga bostirib kirdilar, butun Litvani, Estoniyani bosib olib, u yerlarda Sovet hokimiyatini tugatdilar. Mamlakat xavf ostida qoldi. Hamma yerda Qizil Armiya qismlari tuzilib, frontga jo'natildi. 23 fevralda Pskov va Narva yonida Qizil Armiya otryadlari dushman qo'shinlari bilan shiddatli jang qildi. Nemislarning «bir zarba bilan» g'alaba qozonish plani barbod bo'ldi. Urush davomli tus olmoqda edi. Bu hol nemis qo'mondonligini qaytadan sulh muzokaralari boshlashga majbur etdi. Biroq ular yangi, yanada og'irroq shartlar qo'ydi.

3 martda Brest-Litovskda sulh shartnomasi imzolandi. Uning shartlari Rossiya uchun juda og'ir va mushkul edi. Latviya, Litva, Polsha, Estoniya, Ukraina, Belorussiyaning bir qismi, Ardagan, Kars, Batum Sovet Rossiyasidan ajratib olindi. Sovet hukumati Ukrainani nemis imperialistlariga berib qo'ygan Markaziy Rada bilan shartnoma tuzishi hamda armiya va flotni demobilizatsiya qilishi kerak edi. 1918 yil avgustida Germaniya Brest shartnomasiga qo'shimcha ravishda RSFSRni iqtisodiy masalalar yuzasidan tuzilgan shartnomani imzolashga majbur etdi, bu shartnomaga ko'ra Germaniyaga 6 milliard marka kontributsiya to'lanishi kerak edi. Ukraina va Finlyandiya mustaqil davlatlar deb e'tirof etildi. Rossiya o'zining 780 ming kv.km.hududini yo'qotdi. Rossiya, shuningdek, butun armiyasini darhol tarqatib yuborishi, flotini portlarga qaytarishi va qurolsizlanishi zarur edi.

1916 yilda Rossiya bilan ittifoqchi mamlakatlarning siyosiy doiralarida g'alati bir xujjat paydo bo'ldi. Ittifoqchilar urushdan keyin Rossiyani bo'lib olish haqida yashirincha shartnoma tuzdilar. Reja quyidagicha edi: Rossiya Germaniya bilan urushda mag'lub bo'ladi, armiya va flotini yo'qotadi va siyosiy jihatdan kuchsizlanadi. Shundan keyin Germaniya bilan yarashish va birgalikda Rossiyani bo'lib olish mumkin.

Bu paytda Rossiya Germaniya armiyasining katta qismini o'ziga jalb etish uchun so'nggi kuchlarini safarbar etgan, ittifoqchilarni qo'llab-quvvatlash uchun nemislarga qarshi yomon qurollangan, yomon tayyorgarlik ko'rgan polklarni hujumga tashlamoqda edi. Ittifoqchilar esa Rossiyani mag'lub qilish va uni davlat sifatida yo'qotishni mo'ljallamoqda edilar. Ukraina Fransiyaning protektoratiga aylanishi, Kavkaz va Turkiston esa Angliya protektorati bo'lishi ko'zda tutilgandi. Uzoq sharqqa yaponlar da'vogarlik qilar, amerikaliklar esa Rossiya temir yo'llarini egallab olish ishtiyoqida edilar.

Garchi siyosiy dushmanlari sharmandali bitim deb hisoblasa-da, Lenin Germaniya bilan sulh tuzib, Rossiyani milliy falokatdan saqlab qoldi. Oradan 8 oy o'tgach, Germaniyada inqilob ro'y berdi va mazkur shartnoma bekor qilindi. G'arb davlatlari Rossiyani kuch bilan jangda yanchib tashlashga ahd qildilar. 1918 yil mart oyida Rossiyaga qarshi intervensiya boshlandi.

1918 yilning bahori va yozida Rossiyaning shimoli (Murmansk, Arxangelsk) ingliz, fransuz va amerikan qo'shinlari tomonidan okkupatsiya qilingan edi; Uzoq Sharqqa yapon, ingliz va amerikan interventlari, bularning ketidan esa Fransiya, Italiya, Kanada qo'shinlari, O'rta Osiyo va Bokuga ingliz qismlari kelib tushdilar. Interventlar paydo bo'lgan joylarning hammasida Sovet hokimiyatini ag'darib tashlab, uning o'rniga aksilinqilobiy oq gvardiyachilar diktaturasini, shafqatsiz okkupatsiya rejimini o'rnatardilar. Shunday tasavvur paydo bo'ldiki, go'yo bu harakat oldindan rejalashtirilganu, hamlaga bir ishora kerak bo'lgan xolos. G'arb davlatlarining Rossiyadagi harakatlari mustamlakachilik, bosqinchilik yo'nalishiga ega edi.

Ammo qanchalik mantiqqa zid tuyulmasin, mazkur intervensiya bolsheviklarning g'alabasini ta'minladi. Interventlar bilan birga mamlakatga yirik mulkdorlar, fabrika va zavodlarning egalari ham qaytib keldi. Xalq ularning hokimiyatga qaytishini istamas edi. Bolsheviklar xalqni ularga qarshi kurashga chaqirdi va ko'pchilik bolsheviklarni qo'llab-quvvatladi. Siyosat iqtisodiyotdan ustun chiqdi - xalq bolsheviklarning mantiqsiz iqtisodiy yangiliklarini kechirish va ular bilan birga interventlarga qarshi jang qilishga tayyor edi. Urushdan tinkasi qurigan xalq yana qo'lga qurol oldi.

Janubda intervensiyani avj oldirish bilan bir vaqtda Antanta Shimolda va Sharqda ham urush harakatlarini faollashtirdi. Murmansk va Arxangelskda interventlarning ingliz-fransuz-amerikan kuchlari to'xtovsiz to'ldirib turildi, natijada ularning soni 1918 yil oxirlarida oq gvardiyachi qismlar bilan birga 40 ming kishiga yetdi. Ular Kotlasga yorib kirish maqsadida janubi-sharqqa qarab yurdilar, bundan muddao sharq tomondan Sibirdan hujum qilib kelayotgan Kolchak qo'shinlari bilan o'sha Kotlasda birlashish edi.

1918 yil 18 noyabrga o'tar kechasi Omskda sobiq chor admirali Kolchak Antanta davlatlarining ko'rsatmasiga va bevosita madadiga tayanib to'ntarish qildi va hokimiyatni o'z qo'lga oldi. Antantaning planiga binoan Kolchak barcha ichki aksilinqilobiy kuchlarini o'z atrofida birlashtirishi kerak edi. 18 noyabrda Kolchak «Butun Rossiya hukumati Ministrlar Sovetining qarori bilan u oliy hukmdor qilib tayinlanganligi va Rossiyaning butun piyoda hamda dengiz kuchlari ustidan oliy qo'mondonlik vazifasini ijro etishga kirishganligi» to'g'risida buyruq chiqardi. Kolchak hokimiyatini Denikin, Yudenich va Rossiya aksilinqilobchilarning ko'zga ko'ringan boshqa rahbarlari tan oldilar. Kolchak tamomila AQSH va Antanta xizmatiga o'tdi. U podsho qarzlarini to'lash majburiyatini oldi, butun temir yo'l transportini Antanta mamlakatlari kontroliga topshirish uchun bayonot berdi. Harbiy operatsiyalarga umumiy rahbarlik ishlari ham Antanta harbiy missiyalari qo'lga o'tdi. 1919 yil yanvarida Fransuz generali Janenni «Baykaldan g'arbgacha bo'lgan Sibir va Sharqiy Rossiyadagi rus va ittifoqchi kuchlar qo'mondoni» qilib tayinlash to'g'risida Kolchak bilan Antanta vakillari o'rtasida tuzilgan konvensiyaga qo'l qo'yildi. Kolchak oq gvardiyachi qo'shnlarni qaytadan tuzib va to'ldirib, AQShdan juda ko'p miqdorda qurol-aslaha olib, 1918 yil noyabrining oxirlarida Permga hujum boshladi.

AQSH, Angliya, Fransiya hukumatlari Denikinga Kolchakka, Yudenichga va Rossiyaning boshqa aksilinqilobchi kuchlariga juda ko'p miqdorda qurol-aslaha, o'q-dori yubordilar. Ular Sovet respublikasiga qarshi urush olib borishga majbur qilish maqsadida Ruminiya, Polsha, Finlyandiya qattiq tazyiq ko'rsatdilar. Baltika bo'yidagi aksilinqilobchilarga yordam berish uchun Boltiq dengiziga ingliz floti yuborildi. 1919 yilning yanvaridayoq interventlar va ichki aksilinqilobchilarning birlashgan kuchlari Estoniyada Sovet hokimiyatini ag'darib tashlashga muvaffaq bo'ldi. G'arb davlatlari o'zlari istamagan holda o'z harakatlari bilan bolsheviklar tuzumini mustahkamladilar va kuchaytirdilar. AQSH, Angliya, Fransiya va Yaponiya ishtirok etgan chet el intervensiyasi Rossiyada ichki va tashqi qamalni vujudga keltirdi. Mamlakat nonsiz, yoqilg'i va xom ashyosiz qoldi. Bolsheviklar o'z faoliyatlarini hayot uchun ayovsiz kurashdan boshlashga majbur bo'ldilar.

Chet el intervensiyasi va fuqarolar urushi Sovet davlatidan mamlakat iqtisodiyotini harbiy izga solib yuborishni, interventlarni va oq gvardiyachilarni tor-mor keltirish uchun respublikaning barcha xo'jalik resurslarini safarbar etishni, vaziyatga muvofiq iqtisodiy siyosat olib borishni talab qildi.

Harbiy iqtisodiyotning eng qiyin va hayotiy muhim vazifalaridan biri-oziq-ovqat masalasi edi. Interventlar va oq gvardiyachi qo'shinlari Sovet respublikasidan mamlakatning asosiy g'allakor rayonlarini: Ukraina, Shimoliy Kavkaz, Qrim, Ural, Sibir va boshqa rayonlarni kesib qo'ygan edi. 1918 yil noyabrda Sovet respublikasining hududi 25 gubernada (shu jumladan 15 tasi iste'mol qiluvchi gubernada)dan iborat edi. G'alla quloqlar qo'lida edi, ammo ular uni davlatga sotishdan mutlaqo bosh tortar edilar. Ma'lum miqdorda ortiqcha g'allasi bo'lgan hatto o'rta dehqon ham g'allasini xarid quvvati juda tez pasayib ketayotgan qog'oz pullarga sotishni istamas edi. O'sha paytda uning g'allasi evaziga yetarli miqdorda sanoat mollari berishning iloji yo'q

edi. 1918 yil yozida ko‘rilgan keskin tadbirlar (oziq-ovqat diktaturasi, kombedlar tuzilishi, qishloqlarga ishchilardan iborat oziq-ovqat otryadlarining yuborilishi) g‘alla, oziq-ovqat tayyorlashni ancha kuchaytirishga imkon berdi. Biroq, bu tadbirlar mamlakatni oziq-ovqat bilan ta‘minlash vazifasini hal qilolmadi. 1918 yil 30 oktabrda joriy qilingan oziq-ovqat solig‘i ham kutilgan natijani bermadi.

Sovet hukumati zarur bo‘lgan eng minimum miqdordagi g‘allani razvyorstka yo‘li bilan yig‘ib olishga majbur bo‘ldi. Bu dekret 1919 yil 11 yanvarda joriy qilingan edi. Oziq-ovqat razvyorstkasi sinfiy belgiga qarab olinar edi: kambag‘al dehqonlardan hech narsa olinmas edi, O‘rta dehqondan - normaga binoan dehqonlarga iste‘mol qilish va ekin ekish uchun zarur miqdorda don-dun, shuningdek mollar uchun zarur miqdorda yem-xashak qoldiriladi edi. Qolgan hamma g‘alla qat‘iy baholarda tortib olinar edi. Dekretida o‘jar va o‘z zapaslarini qasddan yashiruvchi dehqonlarga nisbatan mol-mulkini musodara qilishga va xalq sudi hukmi bilan ozodlikdan mahrum qilishgacha chora ko‘rish ko‘zda tutilgan edi.

Ocharchilikni yengish, ishchilarni to‘ydirish, chayqovchilikni tugatish, ishchilar sinfini tanazzul va tushkunlikdan qutqarish - inqilobiy hukumat oldida turgan asosiy vazifalar mana shular edi. 1918-1919 yillarda Lenin shu munosabat bilan mamlakat iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotining yangi konsepsiyasini ishlab chiqdi. Bu «kommunizm»ga to‘g‘ri olib borishi kerak bo‘lgan «harbiy kommunizm» siyosati edi.

Mazkur konsepsiya asosida mamlakatda don uchun «harbiy yurish» e‘lon qilindi. «Temir proletar intizomi» joriy etildi, donni davlatga berishdan yashirgan «quloqlar» ayovsiz jazolandi. 1918 yil may oyida don topish uchun qurolli guruhlar tashkil etildi. Proletar davlati o‘z xalqiga zo‘ravonlik qildi, mehnat bilan yetishtirgan donini tortib ola boshladi. Ayrim qurolli guruhlar bosqinchilik bilan shug‘ullandilar. Ular qishloqlardagi donni tamomila olar, har qanday qarshilikni isyon deb baholab, ayovsiz shaklda bostirar edilar.

Lenin shu bilan bir qatorda qat‘iy chora-tadbirlar vositasida xususiy tijoratni tugatish, ishlab chiqaruvchilar bilan iste‘mol kommunalari o‘rtasida rejali oziq-ovqat almashuvini yo‘lga qo‘yishni mo‘ljallagan edi. Tijoratni rejali, davlat miqyosida tashkil etilgan oziq-ovqat taqsimoti bilan almashtirish ko‘zda tutilgandi. Pulni yo‘qotish, uning o‘rniga omonat daftarchalari, cheklar, jamoat oziq-ovqatini olish huquqini beruvchi qisqa muddatli biletlar joriy etish rejalashtirilgan edi. Shu munosabat bilan mazkur siyosatning o‘zi ham kommunizm deb ataldi - pulni bekor qilish, xizmatlar, transportda yurish, uy-joyi tekin qilishga urinish uning asosiy belgilari edi.

Oziq-ovqat razvyorstkasi dehqonni o‘z ishlab chiqarishini kengaytirishga moddiy rag‘batlantirmas edi, albatta, shuningdek, u shahar bilan qishloq o‘rtasidagi xo‘jalik aloqalarining maqsadga muvofiq bir formasi ham emas edi. Bunday tadbirni ko‘rishga urush, muhtojlik, ocharchilik majbur etgan edi. «razvyorstka «ideal» emas, - deb ta‘kidlagan edi bolsheviklar dohiysi V.I.Lenin, - balki achchiq va achinarli zaruratdir».

«Harbiy kommunizm», siyosati urush hamda vayronlik natijasida majburan kiritilgan edi. U proletariatning xo‘jalik vazifalariga javob bera oladigan siyosat bo‘lgan emas va bo‘la olmas edi ham. U muvaqqat bir chora edi - deb tan olgan edi bolsheviklar dohiysi V.I.Lenin.

1918 yil bahorida qishloqdan donni majburiy olish boshlandi. Favqulodda oziq-ovqat guruhlar qishloqlarga yuborilib, ortiqcha don davlat ixtiyoriga olina boshlandi. Bularning hammasi fuqarolar urushiga sabab bo‘ldi. U 1918 yildan 1920 yilgacha davom etdi. Don (Kaledin, Krasnov), Kuban (Denikin), Janubiy Ural (Dutov), Sibir (Semyonov), Qrim (general Vrangel), mamlakat shimoli-g‘arbi (general Yudenich) ichki aksilinqilobning asosiy markazlari edi.

Fuqarolar urushi jarayonida Rossiyaning kelgusi taraqqiyot yo‘li uchun kurash borardi. Dehqonlarning barcha talablari pirovardida shu shiorlarga borib taqalardi: «Kommunistlarsiz Sovetlar uchun» va «Tijorat erkinligi uchun». Yirik burjuaziya, dvoryanlar va oq armiya rahbariyati cheklangan monarxiyani tiklashga intilardi. «Inqilobiy demokratiya» yo‘nalishidagi partiyalar (mensheviklar, eserlar) Rossiyaning demokratiya va erkin ishbilarmonlik yo‘lidan

rivojlanishi tarafdorlari edilar. Bolsheviklar esa proletariat diktaturasi asosiga qurilgan «sotsialistik» davlat barpo etishni o'ylardilar.

Fuqarolar urushi bolsheviklar g'alabasi bilan yakunlandi. Chunki ular sovet hokimiyatini himoya qilish uchun ommani birlashtiradigan yangi mafkurani (jahon urushidan chiqish, yer haqidagi Dekretni amalga oshirish, 8 soatlik ish kuni joriy etish va hokazo) shakllantirishga muvaffaq bo'ldilar. Harbiy kommunizm siyosati iqtisodiyotda va davlat siyosatida salbiy oqibatlarga olib keldi. Buning natijasida sovet hukumati 1921 yil bahorida chuqur iqtisodiy va siyosiy inqirozga duch keldi.

Qishloqda boshlangan dehqon qo'zg'olonlari chinakam dehqonlar urushiga aylanib ketdi, uni bostirish uchun yirik harbiy qo'shinlar tashlandi. Turkiston milliy-ozodlik harakati alangasi ichida edi. 1921 yil 2 martda bir paytlar bolsheviklarning tayanch nuqtasi bo'lgan Kronshtadt qo'zg'aldi. Isyonchi dengizchilar partiyani inqilobga xiyonat qilishda, hokimiyatni zo'rlik bilan egallashda ayblab, rus xalqini kommunistlarning hukmronligiga qarshi bosh ko'tarishga chaqirdilar. Partiya ichida ham bo'linish ro'y berdi, markaziy komitet fraksiyalarga ajraldi.

Bular obyektiv voqelik tomonidan bolsheviklarning xomxayoliga qarshi berilgan birinchi ayovsiz dars edi. Dehqon qo'zg'olonlari zolimona tarzda bostirildi, Kronshtadt isyoni tor-mor qilindi, ish tashlashlar tinchitildi, isyonkor Turkistonning chet bilan aloqasi kesildi. Ammo bolsheviklar rahbariyati zo'ravonlik bilan vaziyatni yaxshilab bo'lmasligini, «harbiy kommunizm» vositasida mamlakatni to'ydirish, kiydirish va isitish mumkin emasligini yaxshi anglar edi. Bu totalitar tuzumning birinchi mag'lubiyati bo'lib, xususan, shiorlar va da'vatlardan ham kuchliroq narsalar borligini, chunonchi, bozor, erkin tijorat, ishlab chiqarish va iste'mol ekanligini yaqqol namoyish etdi.

Harbiy kommunizm siyosati ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishiga g'ov bo'lib qoldi. Oziq-ovqat razvyorstkasi tufayli o'z omborida ortiqcha g'alla saqlash huquqidan mahrum bo'lib qolgan dehqonlar mahsulot yetishtirishni ko'paytirishga moddiy jihatdan qiziqmay qo'ydi. Dehqonlar g'alla va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishni hatto kamaytirmoqda edi. «Shahardagi qurilish vazifalariga bevosita kommunistik yo'l bilan yaqinlashishdan iborat bo'lgan razvyorstkaning qishloqda joriy qilinishi ishlab chiqaruvchi kuchlarni yuksaltirish ishiga xalaqit berdi va bizlar 1921 yil bahorida yo'liqqan chuqur iqtisodiy va siyosiy inqirozning asosiy sababi bo'lib chiqdi»- deb xatosini tan olgan edi V.I.Lenin.

Shu munosabat bilan 1921 yil mart oyida Lenin bolsheviklar taktikasida keskin burilish yasadi. Mamlakatda yangi iqtisodiy siyosat (NEP) joriy etildi. 1921 yil 15 martda RKP (b)X syezdi «Razvyorstkani natura solig'i bilan almashtirish to'g'risida qaror qabul qildi, bu qarorda: «...davlatning oziq-ovqat, xom ashyo va yem-xashak tayyorlash usuli bo'lgan razvyorstka natura solig'i bilan almashtiriladi» deyilgan edi. Bu siyosat iqtisodiyotning ko'p tarzli bo'lishini e'tirof etdi, erkin tijorat va xususiy mulkni qonunlashtirdi. Konsessiyalar berish vositasida xorijiy sarmoyaning mamlakatga kirishga yo'li ochildi. Mayda tijoratchilarning katta armiyasi paydo bo'ldi. Millionlab kosiblar mamlakat iste'mol mollarining to'rtidan uch qismini ishlab chiqara boshladi. Natijada ishchi va dehqonlar turmushi yaxshilandi, dastlabki jiddiy ijtimoiy tadbirlar hayotga joriy etildi.

Yangi iqtisodiy siyosatga o'tish bolsheviklarning mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga munosabatlari jiddiy o'zgarganini anglatardi, va balki, u muvaffaqiyat qozongan yoki uzoq vaqt davom etgan taqdirda, mamlakatda samarali iqtisodiy tizimning yaratilishiga olib kelishi ham mumkin edi.

Yangi iqtisodiy siyosat xo'jalikni rivojlantirish muammosini yarim-yorti hal qilardi. Sovet hokimiyati barcha yirik sanoat, transport, banklar, tashqi savdo, yerni o'z qo'liga olib, xususiy sarmoyani chekladi va tartibga soldi, jamoaviy sektorni o'stirish va mustahkamlashga zo'r berdi.

Qishloqda ham o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu yerda «oziq-ovqat razvyorstkasi», ya'ni ortiqcha oziq-ovqatlarning kuch bilan tortib olinishi oziq-ovqat solig'i bilan almashtirildi. Endi dehqon davlat solig'ini bajarganidan so'ng ortiqcha mahsulotini bozorda erkin narxlarda sotishi

mumkin edi. Savdoga xususiy sarmoya qo'yildi, davlat eng avvalo sanoat mahsulotlarini taklif qiluvchi yirik ulgurji savdoning tashkilotchisiga aylandi.

Dehqonlar 1921 yili bahorgi ekishni baland ruh bilan o'tkazdilar. 1921 yilda Sovet davlati qishloqlarga o'n minglab plug, borona, seyalkalar, pichan o'rish mashinalari va boshqa qishloq xo'jalik asboblari yubordi va shu bilan dehqonlarga kattagina yordam qildi. 1921 yili Volga bo'yi, Ukraina, Qrim, Shimoliy Kavkaz va boshqa joylarda bo'lgan juda qattiq qurg'oqchilik qishloq xo'jaligiga g'oyat katta zarar yetkazdi. Qurg'oqchilik natijasida 22 million kishi ochlikka uchradi. Ochlikdan bir millionga yaqin kishi o'ldi. Ikki million bola yetim qoldi.

Sovet hukumati ochlikka uchraganlarni o'limdan saqlab qolish uchun choralar ko'rdi. Qurg'oqchilikdan zarar ko'rgan rayonlarga 85 million pud g'alla yubordi, ijtimoiy ishlar yo'lga qo'yildi (bu ishlarda qatnashganlarga oziq-ovqat payoklari berildi), umumiy ovqatlanish tashkil etildi. Davlat ocharchilik hukm surayotgan rayonlardagi bolalarga alohida g'amxo'rlik ko'rsatdi. Yuqumli kasalliklarning paydo bo'lishiga va tarqalishiga yo'l qo'ymaslik uchun bu rayonlarga keng miqyosda tibbiy yordami berildi. Davlat ocharchilikka qarshi kurashga oltin hisobida 156 million so'm sarfladi.

1919 yilda tuzilgan «Sovet Rossiyasiga texnika yordami berish AQSH va Kanada jamiyati» hamda 1921 yilda AQShda tashkil etilgan «Sovet Rossiyasi do'stlari jamiyati» bu sohada katta ish boshlab yubordi. Bu jamiyatlar mashina, traktor va boshqa ishlab chiqarish qurollarini sotib olish uchun mablag'lar yig'dilar, Sovet Rossiyasiga yuborish uchun ixtisosli ishchilar orasidan kishilar to'pladilar.

1921 yil yozida mamlakatga amerikalik agronom Garold Ver boshliq bir gruppaga ishchilar keldi. Amerika ishchilari o'zlari bilan 21 ta traktor keltirdilar, bu traktorlar «Sovet Rossiyasi do'stlari jamiyati» to'plagan mablag'larga sotib olingan edi.

2-§. Iqtisodiyotni boshqarishning markazlashtirilishi va mustabid Sovet tuzumining ichki siyosati

Yangi iqtisodiy siyosat bilan bir vaqtda Sovet davlati iqtisodiyotni boshqarishni imkon qadar markazlashtirish chora-tadbirlarini faol amalga oshirdi. 1920 yil dekabrda GOELRO rejasi-mamlakatni davlat miqyosida elektrlashtirish rejasi qabul qilindi. U sanoat sohasidagi ishlab chiqarishni urushdan oldingi darajaga yetkazish, butun iqtisodiyotni yangi texnik baza va yirik sanoat asosida qayta qurishni ko'zda tutardi. Xususiy sanoat, qishloq mehnatini jamoalashtirish, xalqning farovonligi va madaniyatini oshirish rejalashtirildi.

Mamlakat xalq xo'jaligini byurokratik markazlashtirishda 1921 yilda tashkil etilgan Rossiya Davlat banki muhim ahamiyatga ega edi. U barcha pul va kredit operatsiyalarini boshqarardi. Hukumat ko'rsatmalari asosida Davlat banki mamlakatda pul massasining aylanishini tartibga solardi.

Xalq xo'jaligining alohida sohalarini boshqarish maqsadida sohalar bo'yicha xalq komissarliklari tashkil etildi. Ular xo'jalikni boshqarishning qat'iy markazlashtirilishiga, hokimiyat tizginining markaziy davlat apparati qo'lga o'tishiga erishdilar.

Shunday qilib, mamlakatda bir vaqtning o'zida ikki: bir-biriga zid jarayon kechdi. Iqtisodiyotning tabiiy rivojlanishi bolsheviklarni xususiy tadbirkorlik, erkin bozor munosabatlari bilan hisoblashishga majbur qildi, biroq g'oyaviy va siyosiy mulohazalar ishlab chiqarish vositalariga davlatning egalik qilishiga asoslangan ulkan xo'jalik birlashmalarining tuzilishiga olib keldi. Bunday iqtisodiyot barcha korxona, zavod, fabrika, yer, savdo va moliya tashkilotlarini to'liq milliyllashtirishni ko'zda tutardi.

Yangi iqtisodiy siyosatning birinchi yiliyoq katta falokat - qurg'oqchilik ro'y berdi. Rossiyaning ulkan hududi ochlik sirtmog'ida qoldi. Ocharchilik ro'y bergan hududlarda 20 mln.ga yaqin aholi yashardi. Falokat bu yerda salkam bir yil davom etdi. Yuz minglab odamlar ochlikdan, to'yib ovqat yemaslik oqibatida paydo bo'lgan kasalliklardan halok bo'ldilar. Ko'plab odamlar oziq-ovqat serob o'lkalar, xususan, O'rta Osiyoga ko'chdi.

G'arb davlatlarining sovet davlatiga munosabati bu beqarorlikni yanada chuqurlashtirdi. Angliya va Fransiya Rossiyani 1924 yilgacha tan olmadi, Mamlakat iqtisodiy qamal iskanjasida edi. O'zaro hisob-kitob qoidalari yo'qligi sababli valyuta-pul munosabatlari o'rnatilmagandi. Sovet hukumatining savdo aloqalarini rivojlantirish to'g'risidagi barcha takliflariga G'arb podsho davridagi qarzlarni to'lash va milliyashtirilgan mulkni qaytarish talabi bilan javob berardi. 1924 yilgacha savdo-sotiq faqat Germaniya va qator Skandinaviya davlatlari bilan olib borildi. Hatto o'ta foydali shartlar asosiga ko'rilgan takliflar ham G'arbning munosabatini o'zgartirmadi.

Sovet davlati ijtimoiy ta'minot sohasida muhim islohotlarni amalga oshira boshladi. 8 soatlik ish kuni joriy etildi, ayollarning mehnatiga erkaklar mehnati bilan teng haq to'lash belgilandi, nafaqalar, haq to'lanuvchi ta'tillar, mehnat qobiliyatini yo'qotganlar uchun kasallik varaqalari, ishchi va xizmatchilarga bepul tibbiy xizmat joriy qilindi. Qrimdagi sobiq shoh saroylari, Kavkazda, Qora dengiz bo'yida, Moskva va Petrograd tevaragida kurortlar, sanatoriylarda, ishchilarning dam olish uylari ochildi. Yuz minglab ishchi va xizmatchilar birinchi marta o'z yozgi ta'tillarini oromgohlarda o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Ko'pchilik dam oluvchilarga yo'llanmalar bepul berildi.

Biroq, iqtisodiy qonunlarning buzilishi iqtisodiy rivojlanishdagi beqarorlikka olib keldi. Faqat 1927 yilga kelibgina ishlab chiqarish 1913 yil darajasiga yetdi. Qishloq xo'jaligi bu yili urushdan oldingi darajasi ham yeta olmadi. Hosildorlik beqaror edi. 1924 yil ham qurg'oqchil keldi. Chorvachilik 20-yillarda urushdan oldingi darajaga yeta olmadi, dehqon xo'jaliklarining 30%i otsiz edi.

Xo'jalikni boshqarishning ma'muriy-buyruqbozlik usullari qiymatni belgilashda tartibsizliklarni keltirib chiqardi. Sanoat mahsulotlari narxлари sun'iy ravishda oshirildi. Natijada qishloq aholisi sanoat mahsulotlarini xarid qilish imkoniyatidan mahrum bo'ldi, sanoat mahsulotlari omborlarda qolib keta boshladi, korxonalar ishchilarga hatto maosh to'lay olmasdilar. Bolsheviklar iqtisodiy konsepsiyasining barbod bo'lgani ko'zga aniq tashlanib qoldi. «Davlat sotsializmi»ning ma'muriy buyruqbozlik tizimi iqtisodiy yuksalishni ta'minlay olmadi. Amaldorlarning o'zboshimchaligi, chayqov bozori, korrupsiya, intizomsizlik, rejani bajarish yo'lida ishlab chiqarish texnologiyasini buzish va shu kabi qator illatlar ko'zga tashlanib qoldi.

Ishchilar orasida ishsizlikning paydo bo'lishi eng jiddiy hodisa bo'ldi. Qishloq aholisi tirikchilik ilinjida shaharga ko'chib kela boshladi. Bu yerda esa ish yo'q edi. 1923 yili mamlakatda ishsizlar soni 641 ming kishini tashkil qildi, 1924 yilda bu son 1240 ming kishiga yetdi. Uy-joy tanqisligi sezildi. Yangi qurilishlar deyarli olib borilmasdi. Aksariyat ishchilar suv, elektr va boshqa hayotiy zarur sharoitlar bo'lmagan barak va yerto'lalarda kun kechirardilar. Oziq-ovqat mahsulotlari muttasil yetishmasdi. Davlat shahar aholisini oziq-ovqat bilan yetarli miqdorda ta'minlay olmasdi.

Tashqi savdoga davlat yakka hokimligi 1917 yildayoq joriy etilgan bo'lib, unga doir masalalar Moskvadagi amaldorlarning tor doirasi tomonidan ko'rilishi, bu masalaning ko'pchilik muhokamasiz xal qilinishi tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga to'sqinlik qildi. G'arb bilan aloqa qilishdan, G'arb taraqqiyoti va madaniyatining ta'siridan qo'rqish, keng avj olgan josuslik vasvasasi sovet iqtisodiyotini dunyo miqyosida rivojlantirish yo'liga to'g'anoq bo'ldi.

1925-1926 yillarda xususi, shu jumladan, mayda va hunarmandchilik ishlab chiqarishi jami ishlab chiqarishning bor-yo'g'i 23%ini, xususi sektorning umumiy ishlab chiqarishdagi hissasi esa atigi 15%ni tashkil qildi. 1922 yil dekabrda to'rtta mustaqil Sovet respublikalari: Rossiya Sovet Federativ Sotsialistik Respublikasi (RSFSR), Zakavkaziya Sovet Federativ sotsialistik Respublikasi (ZSFSR), Ukraina Sovet Sotsialistik Respublikasi va Belorussiya Sovet sotsialistik Respublikasi ittifoq davlati - Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqi (SSSR) bo'lib birlashdilar. Sovet Sotsialistik Respublikalar Ittifoqining tashkil topishi mamlakat rahbariyatida Stalin boshchiligidagi o'ta ekstremist, ulug' davlatchilik kuchlarning g'alabasi bo'ldi. Sovet Ittifoqining butun hududida ma'muriy-buyruqbozlik tizimi qaror topdi. Shu bilan birga Milliy Respublikalarning xom ashyo manbalarini sanoatlashtirish extiyojlari uchun istagancha va deyarli bepul olib chiqib ketish imkonini beruvchi yagona xo'jalik tizimi vujudga keldi.

O'zbekistonda paxtachilikning rivojlantirilishi mamlakatdagi barcha to'qimachilik fabrikalarini paxta, kimyo sanoatini esa maxsus komponentlar bilan ta'minlash hamda iste'mol mollari ishlab chiqarishni oshirish imkonini berdi. Donbass ko'miri, Ozarbayjon nefti, Ukraina g'allasi va shakari, Qozog'istonning chorvachilik mahsulotlari, Qirg'iziston bergan jun sanoatlashtirishning rivojlanishida hal qiluvchi omil bo'ldi.

Respublikalar Sovetlarining 1924 yil yanvar oyida bo'lgan syezdlari SSSR Konstitutsiyasini ratifikatsiya qildi. SSSR Konstitutsiyasi 1924 yil 31 yanvarda Sovetlarning Butunittifoq 11 syezdida uzil-kesil tasdiqlandi.

SSSR Konstitutsiyasi tekstiga Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqi tuzish haqidagi Deklaratsiya va Shartnoma tekstlari ham kiritildi. Konstitutsiyada SSSR oliy hokimiyat organlari hal qiladigan bir qancha masalalar: tashqi siyosat, urush e'lon qilish va sulh tuzish, SSSR va respublikalarning chegaralari, SSSR sostaviga qabul qilish, SSSR Qurolli Kuchlari, transport va aloqa, xalq xo'jaligini planlashtirish masalalari belgilandi. Bulardan boshqa hamma masalalarni har qaysi respublika o'zi mustaqil ravishda hal qilishga haqlidir. Har qaysi respublika uchun SSSRdan erkin ajralib chiqish huquqi saqlandi. Barcha mavjud bo'lgan sovet sotsialistik respublikalarining ham, kelgusida tashkil topishi mumkin bo'lgan sovet sotsialistik respublikalarining ham Sovet Ittifoqi sostaviga kirishi uchun keng yo'l ochib qo'yildi.

SSSRni tashkil qilish to'g'risidagi shartnoma o'ta markazlashgan qo'shma davlatni vujudga keltirdi. Unda markaziy hukumat qo'liga imkon qadar ko'proq hokimiyatni olishga urindi, milliy respublikalarning huquqlari esa juda ozchilikni tashkil qildi. Budget markaz tomonidan belgilandi, pul markazdan turib taqsimlandi, respublikalardagi xalq komissarliklari, markaziy xalq komissarliklariga bo'ysundi, markaz armiya, ichki ishlar xalq komissarligi, tashqi siyosat va tashqi savdo, aloqa va aloqa yo'llarini o'z qo'liga oldi.

To'g'ri, Shartnomaning 26-moddasi har bir respublika Ittifoqdan chiqish huquqiga egaligini ko'zda tutardi. Biroq, hech bir respublika hech qachon bu «huquq»dan foydalana olmadi. Jinoiy huquq Ittifoqning yaxlitligiga qarshi har qanday daxlni og'ir jinoyat deb hisoblab, uni sodir etganlik uchun o'lim jazosini ko'zda tutdi. Markazning ixtiyorida armiya va OGPUning jazo idoralari bo'lib, ular mustaqillikka bo'lgan har qanday intilishni shafqatsiz jazolardi.

1924 yilning sentabrida Turkiston ASSR Markaziy Ijroiya Komiteti sessiyasi, shuningdek, Sovetlarning V Butun Buxoro qurultoyi va Sovetlarning Butun Xorazm qurultoyi milliy davlat chegaralanishi o'tkazish to'g'risida qaror chiqardi. 1924 yilning oktabrida SSSR Markaziy Ijroiya Komitetining 2-sessiyasi bu qarorlarni tasdiqladi. Milliy-davlat chegaralanishi natijasida o'zbek xalqi yagona O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasiga, turkman xalqi Turkmaniston Sovet Sotsialistik Respublikasiga birlashdi, tojik xalqining yaxlit yashovchi asosiy ko'pchilik qismi Tojikiston ASSRni tashkil qildi. Tojikiston ASSR O'zbekiston SSR sostaviga kirdi, qirg'izlar Qoraqirg'iston avtonom oblastiga birlashdilar (1925 yildan e'tiboran u Qirg'iziston avtonom viloyati deb yuritila boshladi), bu avtonom viloyat RSFSR sostaviga kirdi; qoraqalpog'lar Qoraqalpog'iston avtonom viloyati barpo qildilar, bu avtonom viloyat Qozog'iston ASSR sostaviga kirdi. Turkiston ASSRning qozoqlar yashab kelgan viloyatlari Qozog'istonning qolgan qismi bilan yangidan birlashdi. Buxoro SSR va Xorazm SSR, shuningdek Turkiston ASSR tugatildi.

1925 yilning fevralida O'zbekiston va Turkmaniston respublikalari Sovetlarining syezdlari bo'ldi, bu syezdlarda shu respublikalarning Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqi sostaviga kirishi to'g'risida qaror qabul qilindi. 1925 yil 13 mayda SSSR Sovetlarining uchinchi syezdi O'zbekiston SSR bilan Turkmaniston SSRni Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqi sostaviga qabul qildi. Tojikiston ASSR 1929 yilda O'zbekiston SSR sostavidan chiqib, o'zini mustaqil deb e'lon qildi va ittifoqdosh respublika huquqidan SSSR sostaviga kirdi.

Hukumatning yuqori doiralarida hokimiyat uchun muntazam kurash ketardi. Biroq, Lenining obro'si katta bo'lgani sababli uning tirikligida ichki ixtiloflar yashirin kechdi. 1922 yilda Lenin og'ir betobligi tufayli faol siyosiy hayotdan deyarli ketdi. 1924 yilda Leninning o'limi hokimiyat uchun kurashning boshlanishiga turtki bo'ldi. Partiya rahbariyatida ikki bosh guruh yuzaga keldi. Birini Trotskiy (L.Bronshteyn, 1879-1940), ikkinchisi esa 1922 yilda partiya

Bosh kotibi qilib tayinlanib, partiyada va mamlakatda ulkan hokimiyatni qo'lga kiritgan Stalin (I.Jugashvili, 1879-1953) boshqardi.

Qizil armiyaga bosh qo'mondonlik qilgan Trotskiy tinch aholiga qarshi ommaviy terror uyushtirish, harbiy asirlarni yo'q qilish, o'ziga yoqmagan komandirlarni otib tashlash kabi ayblarni sodir etgan edi. U eng qat'iy choralarni qo'llash— «kasaba uyushmalarini davlatga bo'ysundirish» tarafdori hisoblanardi. Shuningdek, Trotskiy «harbiy kommunizm» dasturi mualliflaridan biri bo'lib, «mehnat armiyalari»ni tashkil qilish va davlatni harbiy lagerga aylantirishni talab qilardi. U ayniqsa dehqonlarga nisbatan shafqatsiz edi. O'sha paytda mashhur bo'lgan «dehqonning yelkasida kommunizmga qadam qo'yish» iborasi Trotskiyga tegishli bo'lib, u dehqondan sotsializm qurish uchun zarur barcha narsani tortib olish lozimligini anglatardi.

Birinchi zarba Trotskiyga qarshi qaratildi. 1927 yilda u egallagan barcha lavozimlaridan bo'shatildi, partiyadan haydaldi va mamlakatdan badarg'a qilindi. Trotskiydan so'ng boshqalarga ham navbat keldi. Ularning birinchisi Buxarin bo'ldi. Buxarin aqlli, nazariy jihatdan kuchli siyosatchi bo'lib, erkin dunyoqarashi bilan ajralib turardi. U Rossiyada «sotsializm qurish» rejalari borasida erkin fikr bildirdi. Buxarin sanoatlashtirish va jamoalashtirish bilan bog'liq avantiyuristik rejalar, iqtisodiyot, transport va moliya sohasining haddan ortiq markazlashtirilishiga qarshi turdi va iqtisodiyot ustidan bunday zo'rlik ijtimoiy taraqqiyot qonunlari hamda iqtisodiyotdagi tabiiy aloqalarning buzilishiga olib kelishi haqida ogohlantirdi. 1929 yili Stalin N. Buxarin va uning tarafdorlarini o'z g'oyalarining xato ekanini tan olish va tavba qilishga majbur qildi.

Partiyaning atoqli arbobi, taniqli nazariyotchi, publitsist sanalgan Buxarinning taslim bo'lishi Stalin uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega edi - bu Stalinning mamlakatda mutlaq hokimiyatni qo'lga kiritganligidan dalolat berardi. Partiyada endi har qanday mustaqil siyosiy fikr bo'g'ilgan, bahslarga, dohiyning qarorlari muhokama qilinishiga yo'l qo'yilmas, uning daholigi va uzoqni ko'ra bilishiga shubha qilish ham mumkin emas edi. Partiya yig'ilishlari Stalinning xalq va jahon proletariati oldidagi xizmatlarini ko'kka ko'tarib maqtashdan iborat bo'lib qoldi, partiyaning o'zi esa unga madhiyalar kuylovchi yakdil va jo'r ovoz xorga aylandi.

Sovet davlati rahbarlari qoloq Rossiyani sanoatsiz qudratli zamonaviy davlatga aylantirib bo'lmasligini yaxshi tushunardilar. 1925 yil dekabrda yalpi iqtisodiyotni rivojlantirishning hal qiluvchi vositasi sifatida sanoatlashtirishga o'tish to'g'risida e'lon qilindi. Mamlakatda yangi zamonaviy sanoatni barpo etish bo'yicha ulkan ishlar boshlandi. Qisqa vaqt ichida o'nlab yangi elektr stansiyalari barpo etildi, Kerch, Krivoy Rog, Magnitogorsk, Kuznetsk va Sibirda dunyoda eng yirik metallurgiya korxonalari qurilishi boshlandi. Kimyo sanoati, mashinasozlik, traktor va avtomobilsozlik sanoatlarini rivojlantirishga katta e'tibor berildi. 1926-1927 yillarda jami 582 ta yangi korxona barpo etildi.

Mamlakatda ishlab chiqaruvchi kuchlarni oqilona joylashtirish hamda milliy respublikalarning iqtisodiy va madaniy jihatdan qoloqligiga barham berish vazifalarini hal qilishga katta e'tibor qaratildi. Bunda 1927-1930 yillarda qurib bitkazilgan Turkiston-Sibir temir yo'li (Turksib) muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Uzunligi 1500 km bo'lgan bu temir yo'l g'alla, o'rmon va ko'mirga boy Sibirni O'rta Osiyoning paxtakor respublikalari bilan bog'ladi. Qurilishda 50 mingdan ortiq ishchi mehnat qildi.

Yangi sanoat korxonalarining barpo etilishi ishchi kuchi va muhandis-texnik kadrlarga bo'lgan katta talabni paydo qildi. Yangi sanoat bazasi yangi, zamonaviy fan-texnika darajasidagi ishchilar sinfi va texnik kadrlarni dunyoga keltirdi. 1926 yilda zavod va fabrikalarda 2 mln. ishchi mehnat qildi, bir yildan so'ng ularning soni 3 mln.ga yetdi. Texnik kadrlarning yetishmasligi ko'plab yangi oliy texnika o'quv yurtlarining ochilishiga turtki bo'ldi. Talabalar soni qisqa vaqt ichida 48 mingtadan 235 mingtaga yetdi.

Mamlakatni rivojlantirishning birinchi besh yillik rejasi qabul qilinishi mamlakatni sanoatlashtirishda muhim bosqich bo'ldi. Bu rejada aql bovar qilmas vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutildi. Umumiy sanoat ishlab chiqarishi besh yil ichida ikki yarim baravarga o'sishi lozim edi. Asosiy e'tibor elektrlashtirish, qora va rangli metallurgiya, kimyo sanoati, ko'mir,

neft, torf qazib chiqarish, mashinasozlik, elektr sanoatini rivojlantirishga qaratildi. Og'ir sanoatdagi umumiy o'sish 230%ni tashkil qilishi, elektr energiyasini ishlab chiqarish to'rt baravarga, cho'yan ishlab chiqarish uch baravarga, ko'mir qazib olish esa ikki baravarga oshishi lozim edi.

Sovet davlati xalq xo'jaligidagi asosiy kamchilik turli sohalarning nomutanosib rivojlanishi bo'ldi. Xalq xo'jaligida asosiy e'tibor sanoat mahsulotlarini oshirishga qaratilib, bu 30-yillardayoq kartochka tizimining joriy etilishi va inflyatsiyaning kuchayishiga olib keldi. Iste'mol mollari ishlab chiqaruvchi yengil sanoatning hissasi dunyo miqyosida eng oz bo'lib qoldi. Yengil sanoatni rivojlantirishga faqat bir foiz sarmoya jalb qilindi. Mamlakatda keng ehtiyoj mollari-kiyim-kechak, mebel, uy jihozlari, poyafzalning doimiy taqchilligi kuzatildi.

Sanoatlashtirish yangi texnika bo'lgan ulkan talabni paydo qildi. Xarajatli iqtisodiyot texnika va yangi texnologiyalarning rivojlanishi, fan-texnika yutuqlarining tadbiiq qilinishiga imkon bermasdi, shu sababli yangi texnikaning asosiy oqimi faqat rivojlangan G'arb davlatlaridan kelishi mumkin edi. Buning uchun davlatda pul yo'qligi, uni texnika uskunalarini rivojlangan Yevropa mamlakatlaridan oltin, o'rmon, g'alla va shu kabilarni sotish evaziga xarid qilishga majbur qildi. Ermitaj xazinasidagi Rembrandt, Rubens, Van Deyk kabi musavvirlarning bebaho asarlari sotilib, ular xususiy kolleksiyalardan o'rin oldi. Hukumat cherkov ta'siriga qarshi kurash va ateizmi joriy qilish bahonasida rus pravoslav cherkovining ulkan boyliklarini musodara qildi. Cherkovlar talandi, oltin va kumush buyumlar - oltin krestlar, ikonalar qoplamlari, shamdonlar musodara qilindi. mamlakat hukumati aholidan ham oltin buyumlarni ola boshladi, maxsus tashkil qilingan «Torgsin» (Xorijiy davlatlar bilan savdo) do'konlari oziq-ovqat mahsulotlari va keng iste'mol mollari (kiyim-kechak, poyafzal, uy jihozlari)ni faqat oltin va tilla buyumlar evaziga sota boshladi. Bu yo'l bilan xalqdan olingan tilla buyumlarning umumiy miqdori qariyb 3 ming tonnani tashkil qildi. Ularning barchasi G'arbdan mol va uskunalar sotib olishga sarflandi.

Sanoatlashtirishni mablag' bilan ta'minlovchi boshqa bir muhim manba - chet milliy o'lkalarni Rossiya sanoatining xom ashyo «dumi»ga aylantirish bo'ldi. Mavjud markazlashgan va rejali iqtisodiyot hamda ko'p sonli ma'muriy kanallar sanoatlashtirish uchun mablag'ning katta qismini milliy respublikalardan jalb qilish imkonini berdi.

Sovet totalitarizmi xalqni yangi sanoatlashgan davlatni qurishga safarbar qila oldi. U qoloq davlatning iqtisodiy rivojlanishida samarali vosita bo'ldi. 1929-1932 yillarda, Yevropadagi barcha mamlakatlar va AQSH jahon iqtisodiy inqirozini boshdan kechirayotgan bir paytda, SSSR tashabbuskorlik va majburiy mehnatga asoslangan ulkan qurilish maydoniga aylandi.

30-yillarda SSSR sanoatni jadal rivojlantirish davriga qadam qo'ydi. Umumiy ishlab chiqarish 1928 yildan 1939 yilgacha bo'lgan davrda 6 baravar, elektr energiyasini ishlab chiqarish - 14, qora metallurgiya - 6, kimyo va neft-kimyo sanoati - 15, mashinasozlik - 15 baravar o'sdi. Yangi shaharlar, sanoat gigantlari, ishlab chiqarish komplekslari barpo qilindi. Biroq, bu rivojlanish hanuz bir tomonlama edi. Asosiy e'tibor og'ir sanoat - metall, po'lat, ko'mir, elektr energiyasini ishlab chiqarishga qaratildi. Iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish past darajada qoldi. Og'ir sanoatni rivojlantirish uchun mablag' bu yillarda, ichki ehtiyojga xilof bo'lsa-da, chet mamlakatlarga g'alla sotish evaziga olindi.

SSSR xalq xo'jaligining bir maromda, barqaror rivojlanishiga 1929-1932 yillarda o'tkazilgan qishloq xo'jaligini jamoalashtirish qattiq zarba berdi. U qishloqning yangilanishi g'oyasini qo'pol ma'muriylashtirish, zo'ravonlik, xo'jasizlik va aholining qashshoqlashishi bilan bog'ladi. Mamlakat qishloq xo'jaligi tabiiy iqtisodiy qonunlar asosida emas, yuqoridan berilgan buyruq va yo'l-yo'riqlarga ko'ra rivojlana boshladi.

Bu buzilishlar, birinchidan, kollektivlashtirish sur'atlari nihoyatda jadallashtirilib, dehqonlarning kolxozlarga ixtiyoriy kirish prinsipi qo'pol suratda buzilganligida; ikkinchidan, kommunalar ommaviy ravishda joriy etilib, asosiy ishlab chiqarish vositalarigina emas, balki uy-joy binolari, qo'y-echki, parranda va shu singarilar ham umumlashtirilganligida ifodalandi; uchinchidan, quloq qilish ko'p hollarda yoppasiga kollektivlashtirish bilan qo'shib olib borilmadi va kolxozlarga kirishni istamagan o'rta hol dehqonlarni ham quloq qilish hollari uchrab turdi;

to'rtinchidan, mamlakatning bir qancha tumanlarida mahalliy bozorlar yopib qo'yilib, dehqonlarga o'z mahsulotlarini bozorda sotish taqiqlandi va hokazo.

Bularning hammasi mehnatkash dehqonlarning jiddiy noroziligiga sabab bo'ldi. 1929 yilda VKP (b) Markaziy Komitetining noyabr plenumida «Kolxoz qurilishining yakunlari va bundan buyongi vazifalari to'g'risida»gi masala muhokama qilinganida ba'zi obro'li partiya rahbarlarining tutgan pozitsiyasi ham buzilishlarning kelib chiqishiga imkon beruvchi vaziyatning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Masalan, VKP (b) Shimoliy Kavkaz o'lka komitetining sekretari A.A.Andreyev Markaziy Komitet Plenumida, Shimoliy Kavkazda kollektivlashtirish asosan 1931 yil yoziga kelib amalga oshirilishi mumkin, degan mo'ljalni aytgan bo'lsa, V.M.Molotov: «Biz Shimoliy Kavkazda kollektivlashtirishni 1930 yil yozida asosan tugallaymiz», - deb qat'iy qilib aytdi.

Buzilish hollarining sabablaridan biri shunda ediki, dehqonlarning ishlab chiqarish vositalarini umumlashtirishni o'tkazish haqida joylarga aniq konkret ko'rsatmalar berilmagan edi. 1930 yil 6 fevralda e'lon qilingan qishloq xo'jalik artelining namuna Ustavida kolxozchilarning tomorqalari haqida, chorva mollarini umumlashtirish tartibi to'g'risida va shu singarilar haqida hech gap aytilmagan edi.

Joylarda xodimlar yo'l qo'ygan ko'pgina xatolarning sababi, shubhasiz, shunda ediki, ularning ko'plari siyosiy jihatdan yetarli darajada yetuk bo'lmay, ana shunday juda murakkab sotsialistik o'zgarishni o'tkazish tajribasiga ega emas edi va hokazo. VKP (b) Markaziy Komiteti 1930 yil 25 fevraldagi qarorida bu haqda yana bir marta ogohlantirib, bu qarorda qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish sohasida O'zbekiston SSRning ba'zi tumanlarida, Shimoliy Kavkazning bir qancha milliy viloyatlarida yo'l qo'yilgan yaramas metodlarni qoraladi.

Kolxozlar davrining birinchi yiliyoq Rossiya tarixida bo'lmagan ocharchilikni yuzaga keltirdi. U 30 mln. aholini qamrab oldi. Ocharchilik Ukraina, Don, Shimoliy kavkaz, Volgabo'yi, Janubiy Ural, Qozog'istondagi g'alla yetishtiruvchi hududlarda ro'y berdi. Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan eng kam darajada ta'minlash maqsadida mamlakatda kartochka tizimi joriy qilindi.

G'alla tayyorlash kompaniyalari 1932 yildan boshlab dehqonlarga qarshi chinakam urushlarga aylandi. Har kuzda qishloqlarga g'alla bo'yicha maxsus vakolat olgan xodimlar yopirilardi. Sabr kosasi to'lgan dehqonlar qo'lga qurol oldilar. «Quloqlar isyonlari»ni bostirishga Qizil armiya qismlari tashlandi. O'n minglab dehqonlar sudsiz otib tashlandi, yuz minglab dehqonlar badarg'a qilindi, ularning ko'pchiligi surgun qilingan yerlarda halok bo'ldilar. «Quloq» - iqtisodiy jihatdan erkin tovar ishlab chiqaruvchi - iqtisodiyotni ma'muriy boshqarish tizimi doirasiga sig'mas edi. O'z xo'jaligida yollangan ishchi kuchidan foydalangani uchun u ekspluatatsiya qiluvchi, demak, sovet hukumatining dushmani deb e'lon qilindi. Xo'jaligini yo'lga sola bilgan millionlab dehqonlar sinfiy dushman deb e'lon qilinib, mamlakatning olis hududlariga surgun qilindi.

Jamoa xo'jaliklari (kolxozlar) SSSR totalitar tuzumining ajralmas bo'g'iniga aylandi. Maxsus tashkil qilingan tizim qishloqdan shahar, armiya, sanoatni ta'minlash uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni sog'ib olish bilan shug'ullandi. O'ringa o'rin qilib qishloqqa mahsulot qaytarilmadi. Mustaqil, qonun bilan muhofaza qilingan dehqon o'rniga qishloqda ishining sifati, mehnatining natijasiga befarq yollanma ishchi yetakchi o'ringa chiqdi. Uning bu befarqligi sababi shunda ediki, yer ham, uning ne'matlari ham unga tegishli emasdi.

Bularning barchasi qishloq xo'jaligida turg'unlikning yuzaga kelishi, dehqonlarning qishloqdan shaharga qochishlari, qishloqlarning bo'shab qolishiga sabab bo'ldi. Dehqonlarni ma'muriy ravishda qishloqlarga bog'lash - ularga pasport bermaslik chorasi ham dehqonlarning qishloqlarni ommaviy ravishda tashlab ketishlarini to'xtatolmadi.

1932-1933 yillarda Volgabo'yi, Shimoliy Kavkaz, G'arbiy Sibir hududlarida ro'y bergan qurg'oqchilik natijasida SSSRda ocharchilik boshlandi. Biroq, shunga qaramay, g'alla tayyorlash rejalari oshirildi, bunga ko'ra g'allani eksport qilish ham oshdi. 1932 yil 7 avgustdagi qonunga muvofiq «sotsialistik mulkni qo'riqlash» bo'yicha o'ta keskin choralar ko'rila boshlandi. Xalq orasida «boshloqlar to'g'risidagi qonun» nomi bilan mashhur bu qonunga muvofiq kolxoz

mulkini o'g'irlaganlik (dalada boshqoq terganlik) uchun butun mulkini musodara qilgan holda o'lim jazosi yoki 10 yil muddatga surgun ko'zda tutildi.

Ocharchilik oqibatida yuz minglab dehqonlar halok bo'ldilar, ayniqsa, Ukraina aholisi ocharchilikdan qattiq talofat ko'rdi.

SSSR 20-30 yillarda madaniyat va ta'lim sohasida erishgan natijalar madaniy inqilob deb nomlandi. 1939 yilga kelib SSSR yoshi katta aholi o'rtasida savodsizlik deyarli tugatildi, 13 mln. dan ortiq kishi o'rta ma'lumotga ega bo'ldi. Bepul oliy ta'lim tizimining joriy qilinishi ishchi va dehqonlarning farzandlariga texnikum va oliy o'quv yurtlarida o'qish imkonini berdi. 20-30 yillarda Belorussiya, Gruziya, Armaniston, Ozarbayjon va O'rta Osiyo respublikalarida texnikum va oliy o'quv yurtlari ochildi. Jumladan, 1920 yilda Toshkentda, respublikadagi birinchi oliy o'quv yurti - Turkiston davlat universiteti ochildi.

Madaniy qurilish sohasidagi eng birinchi vazifa - aholi o'rtasida savodsizlikni va chala savodlilikni tugatishdan iborat bo'ldi.

1920 yilgi aholi ro'yxati ma'lumotlariga qaraganda, har 1000 erkak kishiga hammasi bo'lib 409 savodli, har 1000 xotin-qizga faqat 244 savodli kishi to'g'ri kelar edi Binobarin, necha o'n millionlab kishilarga savod o'rgatish zarur edi. Bu vazifani savodli aholi keng ommasining aktiv ishtiroki bilangina hal etish mumkin edi.

1923 yilda «Bitsin savodsizlik» degan ko'ngilli jamiyat tashkil etildi. Bu jamiyatning raisi qilib M.I.Kalinin saylandi. 1932 yilda «Bitsin savodsizlik» jamiyati besh milliondan ko'proq kishini birlashtirgan edi. 1939 yil 17 yanvar ro'yxatiga binoan, mamlakatdagi har bir ming aholiga 812 savodli kishi to'g'ri kelar edi.

1939 yilga kelib jami ziyolilarning 80%ini mamlakatdagi barcha millat va elatlarga mansub mehnatkashlarning farzandlari tashkil qildi.

Biroq, aholining turmush darajasi Yevropa standartlaridan ancha past bo'lib qoldi. Aholining turar joy, oziq-ovqatga extiyoji katta edi. Tantanali e'lon qilingan inson huquqlari moddiy jihatdan ta'minlanmadi, ularning shunchaki quruq shior ekani ko'rinib qoldi. Insonning kundalik hayoti ko'plab taqiqlar bilan chegaralangan edi: barcha uchun bir pasport tartibi va kolxozchilarda pasportlarning yo'qligi harakatlanish erkinligini qat'iy chegaralardi; mafkuradan har qanday chetga chiqish, o'zgacha fikrlash ta'qib ostiga olinardi; har narsadan shubhalanish, qo'rqish va chaqimchilik ayniqsa avj oldi, sudsiz jazolash, ma'muriy surgun qilish va sudsiz xususiy mulkdan mahrum etish tizimi keng tarqaldi.

30-yillarning o'rtalariga kelib, ana shu paytda vujudga kelgan Stalin shaxsiga sig'inishning salbiy ko'rinishlari mamlakat ijtimoiy hayotiga tobora kuchliroq ta'sir ko'rsata boshladi.

Stalin 1922 yildan beri partiya Markaziy Komitetining Bosh sekretari bo'lib, partiyaning bosh yo'li uchun, antileninchi, antipartiyaviy trotskiychilar va o'nglarning guruhlariga qarshi keskin kurash olib borishi bilan partiya va xalq orasida katta obro' qozondi.

Biroq, xalqning sotsialistik qurilishda erishgan muvaffaqiyatlari 20-yillarning oxirlaridan boshlab tobora ko'proq shaxsan Stalin nomi bilan ko'rsatila boshlandi. Kamtarlikdan mahrum, shuhrastparast kishi bo'lgan Stalin, garchi ahyon-ahyonda o'z shaxsining ulug'lanishiga qarshi gapirib qo'ysa ham, aslida o'z shaxsining ulug'lanishini rag'batlantirar edi. Ana shu vaziyatda Stalin hokimiyatni tobora ko'proq o'z qo'liga ola boshladi va hokimiyatdan noto'g'ri foydalana boshladi. Ana shu paytda sanoatning ayrim tarmoqlari rivojlanishida ko'ringan jiddiy disproporsiyalar (nomutanosiblik), asosan yoqilg'i, elektr energiyasi yetishmasligi oqibatida ko'pgina korxonalarning notekis ishlash hollari «xalq dushmanlari»ning zararkunandachilik ishlari deb ko'rsatila boshladi. VKP (b) Markaziy Komitetining 1937 yil fevralidagi Plenumida Stalin: «chet el davlatlari agentlarining zararkunandachilik va qo'poruvchilik-josuslik ishi... hamma yoki deyarli hamma tashkilotlarimizga, xo'jalik tashkilotlarimizga ham, ma'muriy va partiyaviy tashkilotlarimizga ham ma'lum darajada o'z ta'sirini ko'rsatdi», - degan edi.

Stalinning ana shunday pozitsiyasi oqibatida ko'pgina sof dil xodimlar tuhmat bilan zararkunandachilikda, josuslikda, ko'poruvchilikda ayblanib, qatog'on qilindi.

Davlat xavfsizligi organlari faoliyati ustidan Stalin o'z shaxsiy kontrolini o'rnatdi. 30-yillarda davlat xavfsizligi organlariga rahbarlik qilgan Yejov, so'ngra esa Beriya (Beriya keyinchalik partiya va xalqning dushmani ekanligi fosh etildi) davlat xavfsizligi organlarini o'ch olish quroliga aylantirdilar, tergovning taqiqlangan, vahshiyona metodlari va usullarini qo'lladilar. Favqulodda jinoiy qonunlar qabul qilindi, xalq dushmanlari ishini odil sud bilan hech qanday aloqasi bo'lmagan bema'ni tartibda hal etgan bir qancha suddan tashqari organlar (NKVD huzuridagi «alohida kengash», NKVD mahalliy organlari huzuridagi «troyka»lar va shu singarilar) paydo bo'ldi.

30-yillarning ikkinchi yarmida ko'pgina atoqli arboblardan hech qanday asossiz repressiya qilindi. Qizil Armiyaning eng yirik komandirlari, fuqarolar urushining qahramonlari, xo'jalik xodimlari, madaniyat arboblari va shu singarilarga bo'hton qilinib, ular otib tashlandi.

Stalin inqirozlarni asoslamoq uchun, 1937 yilda: mamlakatimiz tobora rivojlanib borgan sari, sinfiy kurashning keskinlashuvi muqarrar ekanligi haqidagi tezisni ko'tarib chiqdi. Biroq, bu mutlaqo noto'g'ri tezis edi, chunki SSSR da ekspluatator sinflar tugatilishi bilan sinfiy kurashning keskinlashuvi uchun hech qanday negiz qolmagan edi.

Mamlakatda o'zgacha fikrlovchilar va hukumat olib borayotgan siyosatga qarshi chiqishlarni bostirish maqsadida «Davlat ahamiyatiga molik jinoyatlar to'g'risida»gi nizom e'lon qilinib, u terrorni qonunlashtirdi va huquqiy jihatdan asosladi. Stalin o'z siyosiy raqiblari va mavjud tuzum dushmanlarini yo'q qilish huquqini beruvchi qonunga ega bo'ldi. Shu vaqtdan boshlab ishdagi har qanday kamchilik, Stalinning buyruq va ko'rsatmalaridan har qanday chekinish davlat jinoyati xususiyatiga ega bo'la boshladi. OGPU (Birlashgan davlat siyosiy boshqarmasi) terror va qatag'onni amalga oshiruvchi idoraga aylandi. 1934 yilda u qayta tuzilib, NKVD (Ichki ishlar xalq komissarligi)ga aylantirildi.

«Buzg'unchilik» hatti-harakatlarini isbotlovchi barcha dalillarga ayblanuvchilarning iqrorlari asos qilib olindi. Sudda ular sabotaj va buzg'unchilik borasidagi ayblovning bosh asosiga aylandilar. Aksariyat iqrorlar ma'naviy va jismoniy tazyiq vositasida olinardi. Tashkil qilingan jarayonlarning ko'pchiligida ayblanuvchi sifatida qora kursidan taniqli iqtisodchi olimlar hamda eski mutaxassis va olimlar sirasidan bo'lgan rahbarlar o'rin oldilar. Bunday sud jarayonlari yordamida davlat rahbariyati mamlakatda umumiy ishonchsizlik ruhini o'rnatish va fuqarolar ongida qatag'onni yanada kuchaytirish zarurligiga ishonch tuyg'usini qaror toptirishga urindi.

1936 yildan boshlab Moskvada qator ko'rgazmali jarayonlar o'tkazildi. Eng yuqori lavozimlarda ishlagan sovet rahbarlari bo'yulariga qo'yilgan barcha siyosiy ayblarni sodir etganliklariga iqrorga bo'ldilar. Ularning ko'pchiligi o'zoq muddatlarga qamoq jazosiga hukm etildi, aksariyati esa qatl qilindi. Arxivlardagi xujjatlarni o'rganish, zamondoshlarning guvohliklari «jinoyatlar» qiynoq va qo'rqitish yo'li bilan ularning bo'yiga qo'yilganini ko'rsatdi. Ular oilalarining kelajagidan qo'rqib, ochiq-oydin yolg'on ko'rsatmalar berdilar va o'zlariga o'zlari tuhmat qildilar.

Terror harbiy rahbarlarni ham chetlab o'tmadi. Yirik harbiy qo'mondonlar, hatto fuqarolar urushi qahramonlari ham josuslikda ayblanib, qatl qilindilar. Jazolovchi idoralar va ularning qurbonlari soni yil sayin oshib bordi. 1936-1938 yillarda Moskvada bolsheviklar partiyasining sobiq rahbarlari ustidan sud jarayonlari bo'lib o'tdi. N.I.Buxarin, G.YE.Zinovyev, L.B.Kamenev, A.I.Rikov, M.P.Tomskiy va boshqalar fitna, diversiyalar uyushtirganlik, josuslikda ayblanib, o'lim jazosiga hukm qilindilar. Shundan so'ng Stalin yakka diktatorga aylandi. Ommaviy axborot vositalari uning qo'lida Stalin shaxsiga sig'inishni, tuzumning amaldagi va ehtimoliy dushmanlarini ma'naviy va ruhiy terror qilishni targ'ib qiluvchi vositaga aylanib qoldi. Partiyaning oliy boshqaruv idorasi hisoblangan syezdlar 1939 yildan 1952 yilgacha biror marta ham chaqirilmadi. Diktator hokimiyatni hech kim bilan bo'lishishni istamadi.

Lenin tomonidan yaratilgan davlat sotsializmi Stalin hukmronligi davrida puxta yo'lga qo'yilgan terror va qatag'on mashinasiga aylandi. Davlatni boshqarish idoralari tizimining o'zi

shunday qurilgan ediki, u mamlakatning butun aholisini qarshilik ko'rsatish befoydaligiga, hokimiyatga qarshi bo'lgan har bir inson yo'q qilinishiga ishonitirishga urinardi.

1936 yilda davlat sotsializmining totalitar tizimi mamlakatning yangi konstitutsiyasi bilan mustahkamlandi. Bu xujjatdan fuqarolarning huquqlari, demokratiya va qonuniylik, adolat va insonparvarlik to'g'risida ko'p gapirilardi. Aslida esa konstitutsiya ham proletariat diktaturasi ham demokratiya o'rniga kelgan kommunistik partiya oliy idorasining diktaturasini mustahkamlardi. Partiya qarorlari endi bajarilishi shart bo'lgan qonunlar bilan tenglashtirildi. Partiya apparati davlat apparati o'rnini egalladi. U bir vaqtning o'zida qonun chiqaruvchi va ijrochi hokimiyatga aylandi. Hukumat idoralari endi faqat partiya apparati irodasini so'zsiz bajarish bilangina shug'ullanuvchi itoatgo'y idoralarga aylandilar.

Biroq, yangi konstitutsiyaning qabul qilinishi natijasida yuzaga kelgan siyosiy tizim samarasiz bo'lib chiqdi. U iqtisodiyotning real qonun-qoidalarini bilan to'qnashuvda mag'lubiyatga uchradi. Ma'muriy xo'jalik tizimi iqtisodiy nuqtai nazardan bema'ni sanalgan qarorlar ham so'zsiz bajarilishi lozimligi tufayli samaradorlik, sifat va raqobatbardoshlik masalalarini hal qila olmadi. Mehnatning past samaradorligini qoplash maqsadida korxonalar juda past ortiqcha ishchi kuchlarni saqlab turdilar. Rahbarlikning boshqaruv usullari qattiqlashishi natijasida boshqaruv apparati jadal sur'atlarda o'sib bordi. Harbiy xavfning kuchayishi, armiya soni va mudofaa uchun xarajatlarning jiddiy oshishi bu muammolarni yanada keskinlashtirdi.

Ushbu munosabat bilan davlat idoralari intizomni tartibga solish va kadrlarning qo'nimsizligiga barham berish maqsadida shafqatsiz repressiv choralarni keng qo'llay boshladilar. Sababsiz ishga kelmaganlik, kech qolganlik, ishdan ruxsatsiz ketganlikni qattiq jazolovchi qator choralar qabul qilindi. Ishdan qolganlik yoki ruxsatsiz ketganlik uchun to'rt oy muddatgacha qamoq jazosi ko'zda tutildi. Farmon qabul qilinganidan keyingi bir oyning ichida yuz mingdan ortiq bunday jinoiy ishlar qo'zg'atildi. Ishchilar shu taxlit ish joylariga ipsiz bog'landilar, o'z ixtiyorlari bilan ular ish joylarini o'zgartira olmasdilar. Mavjud iqtisodiy tizimning samaradorligini oshirish maqsadida xalq xo'jaligida mahbuslar mehnatidan keng foydalanila boshlandi. OGPU davlat buyurtmalarining eng yirik ijrochisiga aylandi. Yangi qurilishlarning 15%idan ortig'i OGPUga topshirilib, ularda GULAG mahbuslarining mehnatidan foydalanildi. **GULAG- Axloq tuzatish-mehnat lagerlari va qamoq joylari Bosh boshqarmasi bo'lib, 1934 yilda tashkil topdi va 1956 yilgacha faoliyat ko'rsatdi. GULAG tizimida 30-50-yillardagi shaxsga sig'inish davri ommaviy qatag'onlari hamda SSSRdagi totalitar tuzum qurbonlari saqlandi.**

Mahbuslar o'z mehnatlari uchun haq olmasdilar, buning evaziga ularga tegishli darajada va sifatli maxsus lager kiyim va ovqat berilishi ko'zda tutilardi. Shunday qilib, qashshoq dehqonlar va mahbuslar butun dunyoga ishchi va dehqonlarni ekspluatatsiyadan ozod qilgani to'g'risida jar solgan mamlakatni moliyaviy halokatdan saqlab qoldilar.

3-§. Sovet totalitar tuzumining tashqi siyosati

30-yillarda SSSR tashqi dunyo bilan aloqalarda ko'plab qiyinchiliklarga duch keldi. Jumladan, eng avvalo podsho hukumatining qarzlarini to'lash, xorijiy mulkni ularning eski egalari qaytarish, xalqaro aloqalardagi teng huquqlilik va mustaqillik muammolari bilan bog'liq bo'ldi. Ammo bu qiyinchiliklarga qaramay, sovet diplomatiyasi tashqi munosabatlarni sekin-asta o'zgartirishga erishdi.

1941 yil arafasidayoq Sovet mamlakati bilan Estoniya, Latviya, Litva, Finlyadiya, Polsha o'rtasida diplomatik munosabatlar mavjud edi. Sovet davlati 1921 yil mart oyida Angliya bilan savdo bitimi tuzdi. Bu bitim Angliyaning haqiqatda Sovet hukumatini taniganligini bildirardi.

Shundan keyin, ko'p vaqt o'tmay, 1921-1922 yillarda Germaniya, Norvegiya, Avstriya, Shvetsiya, Chexoslovakiya, Italiya bilan ham savdo bitimlari tuzildi.

Yevropa mamlakatlari va AQSH bilan iqtisodiy aloqalarning bir maromda rivojlanishiga tashqi savdoning davlat tomonidan monopoliyalashtirilgani to'g'anoq bo'ldi. Bu tufayli AQSH SSSR bilan savdo aloqalari o'rnatishni qat'iyan rad etdi.

Sovet hukumati AQSH bilan SSSR o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishga harakat qildi. 1921 yil 20 martda Butun Rossiya Markaziy Ijroiya Komitetining raisi M.I.Kalinin Amerika kongressiga va AQShning yangi prezidenti Gardingga telegramma yuborib, Sovet hukumatining AQSH bilan do'stona munosabatlar o'rnatishga tayyorligini bildirdi. Shu maqsad bilan ikkala mamlakat o'rtasidagi hamma masalalarni, shu jumladan savdo munosabatlarini yangidan boshlash masalasini hal qilish uchun AQShga maxsus delegatsiya yuborish istagi borligi ma'lum qilindi. Ammo AQSH hukumati bu taklifni rad qildi.

Sovet diplomatiyasi SSSR da kolonializmga qarshi kurashda o'z ittifoqchisini ko'rgan Osiyo mamlakatlari bilan do'stona munosabatlarni o'rnatishda ma'lum muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritdi. 1921 yilda Eron, Afg'oniston, Turkiya va Mongoliya bilan do'stlik va hamkorlik to'g'risida bitimlar tuzildi.

1921 yil 26 fevralda Moskva Eron bilan imzolagan shartnomada chor Rossiyasining Eron bilan tuzgan va Eron uchun asoratli bo'lgan hamma shartnoma va bitimlari bekor qilinganligi ta'kidlandi. RSFSR hukumati chor hukumatining Eron territoriyasidagi barcha konsessiyalaridan, pul da'volaridan voz kechdi, Kaspiy dengizida Eronning o'z flotini saqlash huquqiga ega bo'lishiga rozi bo'ldi va hokazo. Shartnomaning 6-moddasi ayniqsa muhimdir. Bu modda qanday bo'lmasin biron davlat Eron territoriyasini bosib olish yoki Eron territoriyasini Sovet Rossiyasiga qarshi urush harakatlari bazasiga aylantirish maqsadida Eron territoriyasiga qurol kuchi bilan bostirib kirgan taqdirda Sovet hukumati o'zini mudofaa qilish manfaatlarini ko'zlab zarur choralar ko'rish uchun Eronga o'z qo'shinlarini kiritish huquqi borligi aytilgan.

1921 yil 28 fevralda Sovet Rossiyasi bilan Afg'oniston o'rtasida do'stlik shartnomasi imzolandi, bu shartnoma ikkala mamlakatning o'zaro mustahkam va do'stona munosabatlariga negiz bo'ldi.

1921 yil 16 martda RSFSR bilan Turkiya o'rtasida do'stlik va birodarlik haqida shartnoma imzolandi. Yakkalanib qolgan Turkiya o'z mustaqilligi uchun kurash olib borayotgan dolzarb vaqtda imzolangan bu sovet-turk shartnomasi milliy Turkiyaning xalqaro pozitsiyasini mustahkamlashga, uning dushman imperialistik davlatlar qurshovini yorib o'tishiga imkon berdi. Zakavkazyedagi sovet respublikalari 1921 yilning oktabrida Turkiya bilan shartnoma tuzdilar.

1921 yil martda Suxe-Bator boshchiligida tashkil topgan Mo'g'uliston xalq-revolutsion hukumatining iltimosiga binoan, 1921 yilda RSFSR hukumati baron Ungernning bostirib kirgan oq gvardiyachi qo'shinlaridan Mo'g'ulistonni ozod qilish uchun kurashayotgan Mo'g'uliston xalq armiyasiga yordam berdi. Qizil Armiyaning yordami bilan 1921 yil yozida Ungren qo'shinlari tor-mor qilindi. Bir-birini tanish va bir-biriga elchi yuborish haqida 1921 yilning 5 noyabrida Mo'g'uliston Xalq Respublikasi bilan RSFSR o'rtasida shartnoma imzolandi.

Sovet hukumati Xitoy bilan do'stona munosabatlar o'rnatishga intildi va chor hukumati bilan Xitoy o'rtasida tuzilgan, teng huquqlilikka asoslanmagan, Xitoy uchun asoratli bo'lgan hamma shartnomalardan voz kechganligini necha martalab bildirdi. Ammo 1920-1921 yillarda olib borilgan Sovet-Xitoy muzokaralari muvaffaqiyatsiz tugadi.

O'zaro da'volarni muhokama qilish va sulh shartnomasini uzil-kesil tuzib chiqish uchun konferensiya chaqirish haqida Sovet hukumatining 1921 yil oktabrida qilgan taklifini Angliya, Fransiya, Italiya, Germaniya hukumatlari va boshqalar qabul qildilar. 1922 yilning aprel-may oylarida Italiyaning Genuya shahrida Yevropa davlatlarining moliyaviy-iqtisodiy konferensiyasi bo'ldi.

Konferensiyada sovet delegatsiyasiga memorandum topshirildi. Memorandumda quyidagi asosiy talablar, ya'ni: chor hukumatining, burjua Muvaqqat hukumatining va fuqarolar urushi vaqtida Rossiya territoriyasida bo'lgan har xil oq gvardiyachi «hukumatlar»ning hamma moliyaviy majburiyatlarini tan olish, chet el kapitalistlarining milliyashtirilgan korxonalarini o'zlariga qaytarib berish, tashqi savdo monopoliyasini bekor qilish va hokazo talablar bayon

qilingan edi. Sovet delegatsiyasi bu og'ir talablarni qat'iyon rad qildi. Genuya konferensiyasi hech qanday qaror qabul qilmadi.

Genuya konferensiyasi vaqtida kurort shaharchasi Rapalloda (Genuyaga yaqin joyda) 1922 yil 16 aprelda RSFSR bilan Germaniya o'rtasida diplomatik va iqtisodiy munosabatlarni tiklash, urush xarajatlarini to'latishdan ikkala tomonning ham voz kechishi haqida shartnoma tuzildi. Germaniya nemis fuqarolarining Sovet hokimiyati tomonidan milliyashtirilgan mulklari uchun haq da'vo qilmaydigan bo'ldi. Bu narsa sovet diplomatiyasining jiddiy muvaffaqiyati edi, yirik kapitalistik davlatlarning Sovet Rossiyasiga qarshi qaratilmish birlashgan frontiga bu shartnoma bilan raxna solingan edi.

Rossiya va Germaniya taqdirida 1922 yili Genuyada imzolangan Rapallo bitimi katta ahamiyatga ega bo'ldi. U ikki mamlakat o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatdi. Ushbu bitim G'arb davlatlarining SSSRga nisbatan siyosiy qamalini barbod qildi. Rappalo bitimidan so'ng boshqa davlatlar ham SSSRni tan ola boshladilar. 1924 yilda Angliya va Fransiya bilan diplomatik aloqalar o'rnatildi. Xuddi shu yili Yevropadagi ko'plab davlatlar sovet davlatini diplomatik jihatdan tan olishi va u bilan diplomatik aloqalar o'rnatishini bildirdi. 1925 yil yanvarda sovet-yapon bitimi imzolandi. 1921-1925 yillarda SSSR chet mamlakatlar bilan jami 40 dan ortiq turli bitim va shartnomalar tuzdi. 1924-1925 yillarda Sovet Ittifoqi Angliya, Italiya, Avstriya, Gretsiya, Norvegiya, Shvetsiya, Xitoy, Daniya, Meksika, Fransiya va Yaponiya bilan diplomatik munosabatlar o'rnatdi. Xitoy bilan tuzilgan shartnomaga binoan Sovet hukumati podsho hukumatining Xitoy bilan tengsizlik asosida tuzgan hamma shartnomalarini bekor deb e'lon qildi.

1932 yilda SSSR Polsha, Latviya, Estoniya va Finlyandiya bilan bir-biriga hujum qilmaslik haqida shartnoma tuzdi. O'sha yiliyiq Sovet-Fransiya munosabatlarida burilish yasaldi. Natijada 1932 yil noyabrida SSSR bilan Fransiya o'rtasida hujum qilmaslik haqida shartnoma tuzilishiga olib keldi. 1933 yilda SSSR bilan Italiya o'rtasida hujum qilmaslik haqida shartnoma tuzildi. Sovet hukumati hujum qilmaslik haqida ahdnoma tuzishni Yaponiyaga ham taklif qildi. Biroq, Yaponiya hukumati, SSSRga nisbatan agressiv niyatlari bo'lgani uchun, bunday shartnomani imzolashdan bosh tortdi.

1931 yildayoq Yaponiya Xitoyning shimoli-sharqiy viloyatlarini (Manchjuriyani) bosib oldi va u yerda Sovet Ittifoqiga hujum qilish uchun, Xitoyga hamda Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlariga hujumni davom ettirish uchun platsdarm vujudga keltirdi. Shu tariqa, Uzoq Sharqda jahon urushining birinchi o'chog'i vujudga keldi. Jahon urushining ikkinchi o'chog'i Germaniya fashistlarining hatti-harakatlari natijasida Yevropaning markazida vujudga keldi.

Fashistlar Italiyasi ham agressiya yo'lga kirdi. 1935 yilda u Efiopiyani (Xabashistonni) bosib oldi. Shundan keyingi yilda har ikkala fashistlar davlati Ispaniyada general Franko isyonini uyushtirdilar, so'ngra esa Ispaniya respublikasiga qarshi harbiy intervensiya boshlab, bu respublikani bo'g'ib tashladilar.

Fashistlar Germaniyasi bilan fashistlar Italiyasi 1936 yilda «Antikomintern pakti» deb atalgan o'zaro harbiy ittifoq tuzdilar, 1937 yilda Yaponiya ana shu ittifoqqa qo'shildi va shu yili Xitoyda jinoyatkorona, bosqinchilik urushini boshlab yubordi. Yangi jahon urushini boshlab yuborishga intilgan «Berlin-Rim-Tokio» agressiv qaroqchilik bloki tashkil topdi. Ana shunday bir paytda, 1933 yil noyabrida SSSR bilan AQSH o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatildi.

1935 yilda Sovet Ittifoqi Fransiya va Chexoslovakiya bilan o'zaro yordam haqida paktlar tuzdi.

Chexoslovakiya bilan tuzilgan shartnomada, ayni vaqtda Fransiya ham yordam ko'rsatgan taqdirda, o'zaro yordam, shu jumladan, harbiy yordam ko'rsatish ko'zda tutilgan edi.

1936 yil martida SSSR bilan Mongoliya Xalq Respublikasi o'rtasida tuzilgan o'zaro yordam haqidagi shartnoma yapon imperialistlari uchun jiddiy ogohlantirish bo'ldi. 1937 yilda Yaponiya Xitoyga hech bir vajsiz navbatdagi hujumni boshlagan paytda Sovet Ittifoqi Xitoy xalqiga yordam qo'lini cho'zdi. 21 avgustda SSSR bilan Xitoy o'rtasida hujum qilmaslik haqida shartnoma imzolandi.

Chexoslovakiyaning taqdiri hal qilinayotgan kunlarda, Chexoslovakiya bilan tuzilgan o'zaro yordam ahdomasiga Sovet Ittifoqi, Agar Chexoslovakiya va Fransiya rozi bo'lishsa, ularga yordam qilishga tamomila tayyor ekanligini bildirdi. Sovet hukumati agressorga zarba berishning konkret tadbirlarini muhokama qilish uchun SSSR, Fransiya va Chexoslovakiya Bosh shtablari boshliqlarining kengashini chaqirishni taklif qildi. Ammo Angliya-Fransiyaning hukmron doiralari Chexoslovakiyani himoya qilishda birlashib harakat qilish imkoniyatidan foydalanmadi. Sovet hukumati Germaniya va Chexoslovakiya o'rtasida urush chiqqan taqdirda, Fransiyaning qanday pozitsiya tutishidan qat'iy nazar, Chexoslovakiya hukumatiga yordam qilishga tayyor ekanligini izhor qilishga qaramay, Chexoslovakiyaning, prezidenti Eduard Benesh boshchiligidagi burjua hukumatining o'zi ham o'z davlatining mustaqilligini himoya qilishga istak bildirmadi. Fashistlar Germaniyasi bundan foydalanib, 1938 yilning oktabrida Chexoslovakiyani parchalab yubordi, 1939 yilning martida esa Chexiyaning Germaniyaga qo'shib oldi. Sovet hukumati 1939 yil 18 martdagi notasida Germaniya hukumatiga bu bosib olish eng qo'pol agressiya ekanligini aytdi va Chexiyaning Germaniya imperiyasi sostaviga kiritilishini tan olishdan bosh tortdi.

Yaponiya imperialistlari haqiqatan ham SSSRga xujum qilishga zo'r berib tayyorgarlik ko'rmoqda edi. Ular to'g'ridan-to'g'ri harbiy ig'volar uyushtirish yo'liga o'tib oldi va 1938 yil iyulda yapon qo'shinlari Vladivostokka yaqin joydagi Xasan ko'li rayonidagi Sovet territoriyasiga bostirib kirdi. 6-11 avgustda sovet qo'shinlari yapon agressorlarga qarshi zarba berdilar va uni SSSR territoriyasidan ulotirib tashladilar. Lekin yapon bosqinchilari bu voqealardan o'zlariga tegishli saboq chiqarmadi. Mongoliyani bosib olish, sovet territoriyasiga yorib kirish, Sibir temir yo'l magistralini kesib o'tish va Uzoq Sharqni qirqib qo'yish maqsadida 1939 yil 13 mayda ular Xalxin-Gol daryosi rayonida Mongoliya Xalq Respublikasiga hujum qildi. Yaponiyaning piyoda askarlar va tanklardan iborat katta kuchlari ko'plab harakat qilayotgan aviatsiya yordami bilan uch oy davomida hujumga o'tishga urinib ko'rdi. Ammo ularning barcha xujumi qaytarildi, bunda ular juda katta talofatlar ko'rdi. 20 avgustda sovet va mongol qo'shinlari qarshi hujumga o'tdilar. Dushman qo'shinlari qurshab olindi va sakkiz kunlik jangda deyarli tamomila qirib tashlandi. Angliya va Fransiya hukumatlari agressiyaga qarshi birgalashib kurashish masalasi yuzasidan 1939 yilning bahorida SSSR hukumati bilan muzokara olib borishga kirishdi. Muzokaralar 4 oy chamasi davom etdi va natijasiz tugadi.

Sovet hukumati fashistlar agressiyasiga qarshi barcha uchun barobar asosda o'zaro yordam haqida samarali va amaliy natija beradigan bitim tuzishga bor kuchini sarf qildi. U urush bo'lib qolgan taqdirda kuchli armiya qo'yishga, Polsha, Fransiya, Angliyaga fashistlar Germaniyasi xujum qilgan taqdirda Yevropaga qo'shin yuborishga tayyor ekanligini aytdi. Lekin Angliya o'z ustiga bunday majburiyatlar olishni istamadi. Bu masalada Angliya va Fransiya hukumatlari tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan Polsha, agar sovet qo'shinlariga Angliya va Fransiya yordam berish uchun yo'lga tushish zarur bo'lib qolsa, sovet qo'shinlarini o'z hududidan o'tkazmasligini aytdi. Ana shularning hammasi bir tomondan, SSSR bilan, ikkinchi tomondan, Angliya va Fransiya o'rtasidagi muzokaralarning muvaffaqiyatsiz tugashiga olib keldi.

Ayni bir vaqtda Angliya hukumati Germaniya bilan eng muhim siyosiy, harbiy va iqtisodiy masalalar yuzasidan keng bitim tuzish haqida maxfiy muzokaralar olib bormoqda edi.

Ro'y bergan xalqaro vaziyatni e'tiborga olib, Germaniyaning hujum qilmaslik to'g'risida shartnoma tuzish haqidagi taklifini qabul etishga qaror qildi. Shartnomaga 1939 yil 23 avgustda imzo chekildi. Bu bilan Sovet Ittifoqi bir yarim yil tinch yashash va avj olib borayotgan ikkinchi jahon urushi sharoitida o'z mudofaa qobiliyatini mustahkamlab olish imkoniga ega bo'ldi.

Mavzu: 1918-1939 yillarda xalqaro munosabatlar

1-§. 1918-1923 yillarda xalqaro munosabatlar, Versal-Vashington sistemasining tuzilishi

Birinchi jahon urushi, ayniqsa Oktabr to'ntarishi natijasida kapitalistik sistemaning iqtisodiy, siyosiy va ideologik tomonlarini o'z ichiga oluvchi inqirozi boshlanib, chuqurlashib bordi. Xalqaro miqyosda ham ziddiyatlar keskin tus oldi. Ikki xil ziddiyat; Sovet Rossiyasi bilan kapitalistik davlatlar o'rtasidagi ziddiyat va kapitalistik davlatlarning o'z o'rtalaridagi ziddiyatlar kuchaydi.

Kapitalistik davlatlar Rossiyaning urushdan inqilobiy yo'l bilan chiqib, mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tib olishiga, hokimiyat tepasida ishchi va dehqonlar turgan bir mamlakatning mavjud bo'lishiga chidab tura olmas edilar. Chet el monopolistlari chorizmga va Muvaqqat hukumatga qarz bergan milliard so'mlab pullaridan, Rossiyadagi shaxtalari va korxonalaridan tushayotgan juda katta foydalaridan ajralib qolishni aslo istamas edilar.

Sovet Rossiyasiga qarshi kurashda Antanta davlatlari umumiy bir maqsadni ko'zlagan bo'lsalar-da, ular o'rtasida, kuchli ziddiyatlar mavjud edi. Ayniqsa bosib olingan joylarni taqsimlab olish masalasida kapitalistik davlatlar o'rtasida ziddiyat keskinlashdi. Ular birlarining haddan tashqari kuchayib ketishiga jiddiy qarshilik ko'rsatdilar. Jahon urushi mobaynida juda ham boyib, qarzдор mamlakatdan qarz beruvchi mamlakatga aylangan AQSH xalqaro munosabatlarda asosiy rol o'ynashga zo'r berib intildi. Angliya o'z mustamlaka yerlarini bosib olingan territoriyalar hisobiga kengaytirishga, Fransiya Yevropada gegemon bo'lib olishga va o'z mustamlakalarini kengaytirishga harakat qildi. Italiya o'z territoriyasini Bolqonda, asosan janubiy slavyan yerlari hisobiga kengaytirib olishga, Yaponiya esa Xitoy yeri Shandunni va Germaniyaning Tinch okeandagi mustamlakalarini o'ziniki qilib olishga zo'r berib urindi. Shu negizda AQSH bilan Angliya, Fransiya bilan Angliya, Fransiya bilan AQSH, AQSH bilan Yaponiya o'rtasida ziddiyatlar keskinlashdi.

1971 yil noyabr-dekabr oylarida Sovet Rossiyasi Antanta mamlakatlari hukumatlariga bir necha marta murojaat qilib, Germaniya va uning ittifoqchilari bilan urushni to'xtatish, anneksiyasiz va kontributsiyasiz sulh shartnomalari tuzish uchun muzokaralar boshlashni taklif etdi. Lekin ular Sovet Rossiyasining bu takliflarini rad qila berdilar.

Antanta davlatlari sulh to'g'risida muzokaralar olib borishdan bosh tortganlaridan keyin, Sovet Rossiyasi 1917 yil 3 dekabrda Brest-Litovsk shahrida Germaniya va uning ittifoqchilari bilan muzokaralar boshlashga majbur bo'ldi.

Sovet Rossiyasi 1918 yil 3 martda Germaniya, Avstriya-Vengriya, Bolgariya va Turkiya bilan sulh shartnomasi imzoladi. Sulh shartnomasiga Sovet hukumatining topshirig'i bilan tashqi ishlar xalq komissari G.V.Chicherin imzo chekdi. Bu shartnomaga binoan Sovet respublikasidan sobiq Rossiya imperiyasi tarkibidagi Finlyandiya, Litva, Latviya, Estoniya va Polsha Germaniyaga o'tdi, Ukraina Germaniyaga qaram davlatga aylandi; Sovet davlatiga Germaniya foydasiga 6 milliard oltin marka miqdorida kontributsiya to'lash hamda armiya va flotni demobilizatsiya qilish majburiyati yuklandi. Batumi, Kars va Ardagan Turkiyaga topshirildi.

Brest-Litovskdagi shartnoma Antanta mavqeini anchagina kuchsizlantirdi. Germaniya bundan foydalanib hal qiluvchi zarba berishga ahd qildi.

Germaniya qo'mondonligi jangni g'olibona ta'sirchan zarba bilan yakunlashga qaror qiladi. 1918 yil aprel oyida nemis qo'shinlari Antanta mavqelariga kuchli hujum boshladi. Dastlab ular muvaffaqiyatli hamla qilib, Antanta qo'shinlari mudofaasini yorib o'tdilar va Marna daryosi sohillariga chiqdilar. Uzoqqa otadigan to'plar bilan Parijni o'qqa tutdilar. Ammo muvaffaqiyatini mustahkamlash uchun Germaniya yetarli zahira topa olmadi. Mamlakat holdan toygan, armiyaning harbiy ruhi cho'kkan, xalq urushdan charchagan edi. Ayni paytda Antanta AQShdan to'xtovsiz yordam olib turardi. AQSH «shartnomaga qo'shilgan mamlakat» sifatida 1917 yil aprelda urushga kirgan edi. Germaniya endi hujum qilishdan ojiz ekanligi ma'lum bo'lib qolgach, Antanta mamlakatlari barcha frontlarda qarshi hujumga o'tdilar va nemis qo'shinlarini bosib olingan Fransiya va Belgiya hududlaridan siqib chiqara boshladilar.

Brest sulhining imzolanishi Sovet hokimiyatini mustahkamlashda muhim rol o'ynadi. Biroq, Sovet Rossiyasi tomonidan qo'lga kiritilgan nafasni rostlab olish davri uzoq davom etmadi. 1918 yil mart oyidayoq Antanta davlatlari Sovet Rossiyasiga qarshi harbiy intervensiya boshladilar.

Lekin Antanta davlatlarining muayyan bir antisovet maqsadni ko'zlaganligiga qaramay, kapitalistik lagerdagi ichki ziddiyatlar tufayli ular o'zlarining barcha kuchlarini birdaniga Sovet Rossiyaiga qarshi yubora olmadilar. Shunday bo'lsa-da, 1918 yil martida Angliya, so'ngra Amerika qo'shinlari Murmansk va Arxangelskka tushirilib, bu shaharlar ishg'ol qilindi. 1918 yil aprelida Vladivostokka Yaponiya, so'ngra Amerika qo'shinlari tushirildi. Ular Vladivostok, Primorye va Shimoliy Saxalinni bosib oldilar.

1918 yil mayida O'rta Volga va Sibirda chexoslovak korpusining Amerika, Angliya, Fransiya davlatlari tomonidan uyushtirilgan isyoni ko'tarildi. 1918 yil avgustida inglizlar O'rta Osiyoning bir qismini (Zakaspiy viloyatini) va Bokuni bosib oldilar, amerikaliklar Sibirga bostirib kirdilar.

1918 yil yozida german qo'shinlari Brest sulh shartnomasini buzib, Ukrainani, Belorussiyani, Don-Kuban tumanlarini, Gruziyani, Boltiq bo'yini, Qrimni ishg'ol qildilar. 1918 yil noyabrda sovet elchilari Germaniyadan chiqarib yuborildi. Interventlar ichki aksilinqilobchilarni qo'llab-quvvatladilar va rag'batlantirdilar. 1918 yil kuzida Antanta qo'shinlarining umumiy hujumi natijasida tinkasi qurigan nemis armiyasi ko'p talafot ko'rib chekindi. Germaniyaning ittifoqchilari esa tor-mor qilindi. 1918 yil 29 sentabrda Bolgariya, 30 oktabrda Avstriya-Vengriya Antanta oldida taslim bo'ldi. Mag'lubiyat va boshlangan inqiloblar natijasida Avstriya-Vengriya Gabsburglar imperiyasi yemirildi va parchalandi. Germaniya yolg'iz qoldi hamda jiddiy iqtisodiy va siyosiy qiyinchiliklarga duchor bo'ldi. Inqilobiy vaziyat yetilmoqda edi. Germaniya hukumati 1918 yil 5 oktabrda AQSH prezidenti Vilsonga murojaat qilib, yarash bitimi tuzishni so'radi. 1918 yil 9 noyabrda Germaniyada burjua-demokratik inqilob boshlanib, monarxiya rejimi tugatildi. Respublika e'lon qilindi.

1918 yil 11 noyabrda Fransiyaning shimoli-sharqidagi Kompyen o'rmonida Antanta qo'shinlari bosh qo'mondoni marshal Foshning vagonida Germaniyaning Ersberger boshchiligidagi delegatsiyasi Antanta qo'mondonligi taklif etgan taslim bo'lish aktiga yo'l qo'ydi. Bu aktda Germaniyaga o'z qo'shinlarini Fransiya, Belgiya, Lyuksemburg, Elzas-Lotaringiyadan va Reynning chap qirg'og'idan tezda, ammo Avstriya va Vengriyadan, Ruminiya va Turkiyadan, Rossianing ishg'ol qilingan joylaridan Antanta ko'rsatgan muddatda olib chiqib ketish majburiyati yuklandi. Germaniya g'olib davlatlarga juda ko'p miqdorda yarog'-aslaha, samolyot, harbiy kemalar, transport, chorva mollari va boshqalarni topshiradigan bo'ldi.

Birinchi jahon urushida g'olib chiqqan AQSH, Angliya, Fransiya, Italiya, Yaponiya va boshqa davlatlarning taslim bo'lgan Germaniya, Avstriya, Vengriya, Turkiya va Bolgariya bilan sulh shartnomalarini ishlab chiqish uchun 1919 yil 18 yanvarda Parijda sulh konferensiyasi ochildi. Bu konferensiya 1920 yil 21 yanvargacha davom etdi. Konferensiyada Antanta tomonida turib urushda qatnashgan 27 davlat vakillari ishtirok etdi. Germaniya va mag'lubiyatga uchragan boshqa davlatlar faqat konferensiyaning so'nggi bosqichida, tayyorlangan sulh shartnomasini topshirish vaqtida qatnashtirildi. Konferensiyada kichik davlatlarning fikrlari e'tiborga olinmadi. Konferensiyada AQSH (prezident Vilson), Angliya (bosh ministr Lloyd Jorj), Fransiya (Klemanso, konferensiya raisi) va Italiya (Orlando asosiy rol o'ynadilar. Ulardan tashkil topgan «To'rtlar soveti» eng asosiy organ bo'lib, bir qancha yashirin kengashlar o'tkazdi hamda ular xalqlar va davlatlarning taqdiri yuzasidan surbetlarcha savdolashdilar. Asosiy davlatlarning tutgan mavqelari bir-biriga zid, ko'pincha tamomila qarama-qarshi edi. Eng muhimi, Antanta ittifoqi avval boshdan maxfiy shartnomalar, yashirin bitimlar asosiga qurilgan bo'lib, yangi vaziyatda bu kelishuvlarni amalga oshirib bo'lmadi. Ana shu shartnomalarga ko'ra, Rossiya Istambulni olishi va Dardanell bo'g'ozini ustidan nazorat o'rnatishi, buning evaziga Fransiyaning Elzas-Lotaringiyaga egalik qilish huquqini hamda Angliyaning Misr ustidan nazoratini e'tirof etishi zarur edi. Ruminiyaga Transilvaniyani berish va'da qilingan, ammo bu Vengriya manfaatlariga mos kelmasdi. Angliya arab xalqlariga Usmonli imperiyasidan chiqish va arab

davlatlari tuzishni taklif etdi. Ayni paytda bu taklif Angliya va Fransiyaning Yaqin Sharqni bo'lib olish haqidagi kelishuvlariga zid edi.

G'olib mamlakatlarning manfaatlari ham bir-biriga tamomila zid edi. Fransiya Germaniyadan o'zining kuchsizligini anglagan holda bu mamlakatni batamom kuchsizlantiradigan va Yevropada Fransiyaning ustunligini ta'minlaydigan tinchlik o'rnatilishini istar edi. Italiya Adriatika dengizi sohillari va orollarni qo'lga kiritishdan umidvor edi. Angliya o'zining imperiyasi hududlarini kengaytirishni o'ylardi. Yaponiya Osiyoda ustun mavqega erishishni orzu qilardi. AQSH dengizlarda suzish erkinligini ta'minlashni talab etar, shu yo'l bilan o'zining okean floti ustunligidan foydalanishni mo'ljallardi.

Konferensiya qatnashchilarining doimo diqqat markazida turgan muammo «rus masalasi» edi. Bolshevizm g'oyalarining yoyilishi qarshisidagi qo'rquv Versal konferensiyasining qarorlariga ham o'z muhrini bosdi. G'arb mamlakatlari rahbarlari konferensiya boshlangan kundanoq Rossiyaga qarshi intervensiyani tashkil qilish bilan shug'ullandilar. Ular Rossiyadagi bolsheviklar hukumatini yo'qotish o'z mamlakatlaridagi inqilobiy harakatni va sharqdagi milliy-ozodlik harakatini bostirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi, deb hisoblardilar.

Parij sulh konferensiyasi Germaniya va uning sheriklarining mag'lubiyatini, Avstriya-Vengriya va Turkiya imperiyasining parchalanishini, Yevropa va Yaqin Sharqda yangi davlatlar tashkil topganligini, mustamlakalarning Antanta foydasiga qayta taqsimlanishini aks ettirgan xujjatlarni ishlab chiqdi va qabul qildi.

Bu xujjatlarni ishlab chiqishda va o'ljani taqsimlash masalasida konferensiya qatnashchilari o'rtasida jiddiy kurash hamda talash-tortishlar bo'lib o'tdi. G'olib yirik davlatlarning har biri ikkinchisi hisobiga o'z pozitsiyasini kuchaytirib olishga intildi. Fransiya reparatsiyaning yarmidan ko'pini o'ziga berilishini talab qildi, boshqalar bunga qarshi chiqdilar.

Fransiya davlati Germaniyani zaiflashtirish va bo'lib yuborish uchun, Bavariyani Germaniya tarkibidan chiqarish hamda Reynning so'l qirg'og'idagi yerlarda Reyn respublikasini tuzish uchun kurashdi va uni o'z protektoratiga olish niyatida bo'ldi. Lekin Angliya va AQSH bunga yo'l qo'ymadi. Ular Fransiya, ayniqsa Sovet Rossiyasiga qarshi tura oladigan kuchli Germaniyaning bo'lishini istar edilar. Fransiya Sovet Rossiyasiga va Germaniyaga qarshi o'z ittifoqchisi Polshaning hududini ancha kengaytirish tarafdori bo'ldi. Angliya bilan AQSH esa, Germaniyani juda ham zaiflashtirmaslik maqsadida Polshani ancha kengaytirishga qarshi chiqdi.

Yirik davlatlar o'zaro ba'zi yon berishlar asosida bitimga kela oldilar. Angliya va Fransiya Yaponiyaning va urushda Antanta tomonidan qatnashgan boshqa davlatlarning qo'llab-quvvatlashi bilan AQSH ning jahonda hukmron bo'lib olish rejalariga yo'l qo'ymadilar. Shu bilan birga, ular o'zlarining zaif sheriklarining manfaatlarga e'tibor bermadilar. Tuzib chiqilgan sulh shartnomalarining hammasi Parij yonidagi shaharlarda, saroy va qasrlarda imzolandi.

1919 yil 28 iyunda Germaniya bilan Versal sulh shartnomasi, 1919 yil 10 sentabrda Avstriya bilan Sen-Jermen, 1919 yil 27 noyabrda Bolgariya bilan Neyi, 1920 yil 4 iyulda Vengriya bilan Trianon, 1920 yil 10 avgustda Turkiya bilan Sevr sulh shartnomalari tuzildi. Bu shartnomalarning hammasi «Versal sistemasi» deb ataldi.

Versal sulh shartnomasiga muvofiq, Germaniya va uning ittifoqchilari urushning aybdorlari, deb hisoblandi. Germaniyaning hamma mustamlakalari tortib olinib, Angliya, Fransiya, Belgiya va Yaponiya o'rtasida taqsimlandi, Fransiya va Angliya Afrikadagi Togo va Kamerunni taqsimlab oldilar. Germaniya janubi-g'arbiy Afrikasi Janubiy Afrika Ittifoqiga, Germaniya sharqiy Afrikasi Angliyaga, Yangi Gvineyaning Germaniyaga qarashli qismi Avstraliya ittifoqiga berildi. Germaniyaning Tinch okeandagi Karolina, Mariana va Marshall orollari hamda Germaniyaning Shandun yarim orolidagi (Xitoy) ijaraga olgan territoriyasi va imtiyozlari Yaponiyaga o'tdi. Germaniya Yevropada ham anchagina territoriyadan mahrum bo'ldi.

Fransiya ilgari qo'ldan ketgan Elzas va Lotaringiyani qaytarib oldi; u 15 yil davomida Saar oblasti ko'miriga egalik qiladigan bo'ldi; bu davrda shu oblast Millatlar ittifoqi tomonidan idora qilinadigan bo'ldi. Reyn viloyati zonasi esa demilitarizatsiya qilindi.

Eypen va Malmedi okruglari hamda Morene hududi Belgiyaga, Shimoliy Shlezvig plebissit natijasida Daniyaga o'tdi. Ilgari bosib olingan Polsha yerlarining juda oz qismi, ya'ni Poznanning sharqiy qismi, G'arbiy va Sharqiy Prussiyaning bir qismi (Polsha koridori), Yuqori Sileziyaning bir qismi yangi tashkil topgan Polshaga qaytarildi. Germaniyani Gdansk (Dansig)dan voz kechishga majbur qilindi. Gdansk Millatlar ittifoqi huzuridagi «Erkin shahar»ga aylantirildi. Klaypeda (Memel) ham Germaniyadan ajratib olinib, keyinchalik Litvaga topshirildi.

Lekin Germaniya-Polsha chegarasi Polsha zarariga hal qilindi. Polshaning 100 000 kv.km. yeri va ancha polyak aholisi Germaniya tarkibida qoldi. Polsha Boltiq dengizi bilan Polsha koridori orqali tutashdi, xolos.

Germaniya Polsha, Chexoslovakiya, Avstriya va Finlyandiyaning mustaqilligini tanidi. Elba, Oder, Neman va Dunay (Germaniya doirasida) xalqaro suv yo'li, deb e'lon qilindi. Bu yo'llarni nazorat qilish uchun xalqaro komissiyalar tuziladigan bo'ldi.

Germaniya harbiy tomondan cheklab qo'yildi: Germaniyada umumiy harbiy majburiyat bekor qilindi.; german armiyasining sonini 100 ming kishidan oshirmaslik shart qilib qo'yildi. Germaniyaning harbiy dengiz floti ham qisqartirildi. Unda og'ir artilleriya va harbiy aviatsiya bo'lishiga ruxsat qilinmadi. Armiya bosh shtabi tugatildi. Biroq Reyxsver ministrligi doirasida umum qo'shinlar boshqarmasi tuzilishiga ruxsat berildi.

Germaniya o'zining urush aybdori ekanligini tan oldi va g'olib davlatlar foydasiga reparatsiya to'lab turish majburiyatini oldi. Reparatsiya to'lovlari miqdorini maxsus komissiya 1921 yil 1 maygacha aniqlaydigan bo'ldi. Shunga qadar Germaniyaning reparatsiya to'lovlari hisobidan g'olib davlatlarga 20 milliard marka miqdorida oltin va turli mollar to'lash majburiyati yuklandi. Germaniya majburiyat yuzasidan g'olib davlatlarga deyarli butun savdo flotini, 8 ming paravoz, 230 ming vagon, 40 ming ot, 140 ming bosh qoramol va hokazolarni topshirdi.

Yuklatilgan majburiyatlarning Germaniya tomonidan bajarilishini ta'minlash uchun Reynning so'l qirg'og'i (Reyn zonasi) 1935 yilgacha Antanta qo'shinlari tomonidan ishg'ol qilib turiladigan bo'ldi. Bu qo'shinlar uchun bo'ladigan xarajatlar Germaniya zimmasiga yuklandi.

Bu ochiqcha talonchilikni oqlash uchun ittifoqchilar Versal shartnomasiga 231-bandni qo'shdilar Unda shunday deyilgandi: «Ittifoqchilar va ularga qo'shilgan davlatlar shuni ta'kidlaydilarki, Germaniya va uning ittifoqchilari tajovuzi tufayli ro'y bergan urushda ittifoqchilar va ularga qo'shilgan davlatlar fuqarolariga yetkazilgan talafot va zarar uchun butun mas'uliyatni Germaniya o'z zimmasiga oladi». Nemislar o'z hududlarining 10 foizini yo'qotdilar, bu hududda millionlab odam yashar, ularning bir necha yuz mingi uy-joysiz qolgan, o'nlab shaharlar vayron qilingan, millionlab odamlar nogiron bo'lib qolgan edi. Bunday vaziyatda ulkan miqdorda tovon to'lash aqlga sig'masdi.

Ammo Germaniyaning boshqa chorasi yo'q edi. U ikki mushkul imkoniyatdan birini tanlashi: qo'yilgan shartlar asosida tinchlikka erishishi yoki urushga kirib, shaksiz mag'lubiyat va inqilobiy tartibsizlik alomini totishi lozim edi.

Sen-Jermen sulh shartnomasiga muvofiq, Avstriya o'zining deyarli hamma janubiy slavyan territoriyalaridan voz kechdi: Yuliy Kraina, Triyest bilan birga Istriya, Karintiyaning bir qismi, Trentino oblasti va Janubiy Tirol Italiyaga berildi. Avstriya, Yugoslaviya va Chexoslovakiyaning mustaqilligini tanidi, Chexoslovakiya tarkibiga kirgan Bogemiya va Moraviyadan voz kechdi. Galitsiya Polshaga, Bukovina Ruminiyaga qaytarildi. Sulh shartnomasi Avstriyaning mustaqil davlat bo'lib yashash xalqaro huquqiga asos soldi; Avstriyani Germaniyaga qo'shish (anshlyuya)ni taqiqladi. Lekin bu shartnoma bir qancha xalqlarning huquqlarini poymol qildi.

Avstriyada ham umumiy harbiy majburiyat bekor qilindi. Lekin uning 30 ming kishidan iborat yollanma qo'shin saqlashiga ruxsat berildi. Avstriya reparatsiya to'laydigan bo'ldi. Avstriya reparatsiya hisobiga g'olib davlatlarga o'zining butun savdo va baliq ovlash flotini topshirish majburiyatini oldi.

Sen-Jermen sulhida janubiy slavyan xalqlari yashaydigan hududlarning bir qismini Italiyaga, ukrainlar yashaydigan Bukovinani Ruminiyaga topshirish ko'rsatildi.

Trianon sulh shartnomasiga muvofiq, Vengriya hududining deyarli 70%idan ajraldi. Transilvaniya va Banat Ruminiyaga, Zakarpat Ukrainasi va Slovakiya Chexiyaga, Xorvatiya va Sloveniya Yugoslaviyaga, Burgenland Avstriyaga berildi.

Vengriya Chexoslovakiya va Yugoslaviya mustaqilligini tanidi. Vengriyada umumiy harbiy majburiyat bekor qilindi. Vengr armiyasining soni 35 ming kishidan iborat qilib belgilandi. Vengriya ham reparatsiya hisobiga toshko'mir, parovoz, vagon va shu kabilarni beradigan bo'ldi.

Neyn sulh shartnomasiga muvofiq, G'arbiy Frakiya Gretsiyaga berildi. Bolgariya Egey dengiziga chiqish yo'llaridan mahrum qilindi. Bolgariyadan 1913 yilda tortib olingan Janubiy Dobrudja Ruminiyada qola berdi. Bir necha shaharlar (Saribrod, Bossilegrad va boshqalar) Yugoslaviyaga o'tkazildi. Bolgariya floti g'olib davlatlarga berildi. Bolgariyaga faqat 20 ming kishidan iborat armiya saqlashga ruxsat berildi. Bolgariya ham reparatsiya (2,2 milliard oltin frank) to'laydigan bo'ldi. Bundan tashqari Bolgariya minglab parovoz va vagonlar, toshko'mir, chorva mollari va hokazolarni topshirish majburiyatini oldi.

Sevr sulh shartnomasiga muvofiq, Turkiya o'ziga qarashli hududining 75%idan mahrum bo'ldi. Turkiya hududi Kichik Osiyo, Konstantinopol va uning atrofi bilan cheklab qo'yildi. Turkiyaga qarashli Falastin va Iroq (Mesopotamiya) Angliya nazoratiga, Suriya va Livan Fransiya nazoratiga topshirildi. Turkiya Arabiston yarim orolidagi yerlaridan voz kechdi va u yerda tashkil topgan Hijoz korolligini tanidi; Misrdagi huquqlaridan Angliya foydasiga voz kechdi. Turkiya Armanistonning mustaqilligini tan olib, o'z tarkibidagi arman yerlaridan Armaniston foydasiga voz kechdi. Kurdiston Turkiyadan ajralib chiqdi. Izmir (Smirna), Adrianopol bilan Sharqiy Frakiya, Dardanellning Yevropa qirg'og'i va Gallipoliysk yarim oroli Gretsiyaga topshirildi. Bo'g'ozlar zonasini boshqarish maxsus xalqaro komissiyaga yuklanadigan bo'ldi. Turkiya armiyasining miqdori 50 ming kishilik qilib cheklandi. Turkiya harbiy-dengiz flotining deyarli hammasi ittifoqchilarga topshiriladigan bo'ldi. Lekin Turkiyada ko'tarilgan antiimperialistik, milliy ozodlik kurashi natijasida 1922-1923 yillarda sulton monarxiya rejimi ag'darildi va Sevr sulh shartnomasi bekor bo'ldi.

Birinchi jahon urushi tugaganidan keyin Yevropada xalqaro kuchlarning yangi muvozanatini qayd etgan Versal shartnomalar tartibi shu tariqa shakllandi. Bu tartibning ichida chuqur ziddiyatlar mavjud bo'lib, keyinchalik ular jahon iqtisodiy inqirozlarida, g'olib va mag'lub davlatlar o'rtasidagi nizolarda namoyon bo'ldi.

1919 yili Parij konferensiyasida, Germaniya bilan Versal sulh shartnomasi tuzilgan vaqtda Millatlar ittifoqi tashkil topdi. Bu xalqaro tashkilot birinchi va ikkinchi jahon urushlari o'rtasida ish olib bordi.

Birinchi jahon urushi yillaridayoq bir qator mamlakatlarning burjua doiralari Millatlar ittifoqini tuzish g'oyasini ilgari surgan edilar. AQSH prezidenti Vilson 1919 yil yanvar oyida boshqa mamlakatlarda Millatlar ittifoqi to'g'risida tuzilgan loyihalarni hisobga olib, shu masaladagi o'z loyihasini qaytadan ishlab chiqdi. Parij konferensiyasi ochilgan vaqtda Millatlar ittifoqi nizomini ishlab chiqish uchun Vilson boshchiligida maxsus komissiya tuzildi. Nizomni ishlab chiqishda katta munozaralar yuz berdi. Fransiya Millatlar ittifoqi huzurida xalqaro armiya va doimiy bosh shtab tuzishni taklif qildi, bu esa Fransiyaning Yevropada o'z gegemonligini o'rnatish plani bilan bog'liq edi. Fransiya taklifi Angliya va AQSH tomonidan rad etildi. AQSH Millatlar ittifoqini o'zining jahon hukmronligi uchun kurash quroliga, o'zining «jahon monopol fermasi»ga aylantirish uchun kurashdi. Angliya va Fransiya esa bunga yo'l qo'ymadilar.

1919 yil 14 fevralda Millatlar ittifoqining nizomi Parij sulh konferensiyasining yalpi majlisida qabul qilindi hamda Versal va boshqa sulh shartnomalari tekstiga kiritildi. Bu ittifoqqa AQShdan tashqari 43 davlat a'zo bo'lib kirdi. Dastlab AQSH ham bu tashkilotning «a'zosi» bo'lib hisoblangan edi. Ammo konferensiyada kuchlar nisbati Angliya va Fransiya foydasiga o'zgarganligi va Versal sistemasida ular ustun bo'lib qolganligi sababli AQSH kongressi Versal shartnomasini va uning tarkibiy qismi bo'lgan nizomni tasdiqlamadi, 1920 yilda Qo'shma Shtatlar bu ittifoqqa kirishdan bosh tortdi.

Millatlar ittifoqi o'z ishini Assambleya, beshta doimiy va to'rtta doimiy bo'lmagan a'zolaridan iborat Sovet orqali va Bosh sekretar boshchiligidagi doimiy sekretariat orqali olib bordi. Millatlar ittifoqining asosiy organlari Jenevada bo'lib, unga Angliya va Fransiya davlatlari rahbarlik qildi.

Millatlar ittifoqi rasmiy jihatdan tinchlik va xalqaro xavfsizlikni ta'minlash uchun tuzildi. Nizomda qurollarni qisqartirish, mamlakatlari hududlarining butunligini o'zaro garantiyalash va shu kabilar ko'rsatildi Nizomga muvofiq, agressor davlatga nisbatan iqtisodiy, moliyaviy va harbiy choralar ko'rish ko'zda tutildi. Liga biror marta ham bu jazo choralari qo'llay olmadi, chunki uning ixtiyorida harbiy kuchlari ham, davlatlar o'rtasida obro'-e'tibori ham yo'q edi. Millatlar Ligasi Konvensiyasida uning a'zolari zimmasiga «barcha a'zolarning hududiy butunligini hurmat qilish va asrash» yuklatilgan edi. Ammo keyingi voqealar shuni ko'rsatdiki, hech kim bu shartlarni chindan ham bajarishga tayyor emas edi. Germaniya va Rossiyaning ligadan chiqarilganligi mazkur xalqaro tashkilotning samaradorligini pasaytirdi, uning faoliyati munozara va muzokaralar bilan cheklanib qoldi.

Angliya, Fransiya va Yaponiya davlatlari Germaniya va Turkiyadan tortib olingan mustamlakalarni oshkora suratda o'zlariniki qilib olishga botinolmadilar. Shu sababli ular, bu mustamlaka xalqlari o'z-o'zini mustaqil idora qila olmaydi, degan bahonalar bilan Millatlar ittifoqi vasiyligini - mandat sistemasini vujudga keltirdilar. Angliyaga Falastin, Iroq kabi mamlakatlarni, Fransiya Suriya, Livan va boshqa mamlakatlarni, Yaponiyaga Marian va boshqa joylarni boshqarish mandati berildi. Mandat sistemasi amalda mustamlakachilik tartibi va zulmining yangi formasi edi.

Versal sistemasi Yevropada mustahkam tinchlik o'rnatdi. Bu sistema urushda g'olib chiqqan mamlakatlar bilan mag'lub mamlakatlar o'rtasidagi ziddiyatlarni chuqurlashtirib yubordi. Germaniya mustamlakalarining ko'pchilik qismi Angliya va Fransiya o'zlariga o'tdi. Angliya Yaqin Sharqda, Hindiston va Britaniya dominionlariga borish yo'llarida hukmron bo'lib oldi. Fransiya Yevropa qit'asida, Yaponiya Uzoq Sharq va Tinch okeanda ustunlikka ega bo'ldi. Ulug' davlatlardan Germaniya vaqtincha orqaga surib qo'yildi. Avstriya-Vengriya va Turkiya ulug' davlatlar qatoridan chiqib qoldi.

Buning ustiga dunyo ikki sistemaga bo'linib ketdi. Germaniya va boshqa mamlakatlar Versal sulh sistemasidan qutulishga, qurolli kuchlarni tiklash va hududlarni qaytarib olishga zo'r berib urindilar.

G'olib mamlakatlar o'rtasida ham ziddiyatlar kuchaydi. Italiya Versal sistemasidan norozi edi, chunki uning hudud haqidagi talablari to'la qondirilmagan edi. Angliya va AQSH Fransiyaning Yevropadagi ustunlik roliga qarshi edilar. Fransiya Angliyaning Yaqin Sharqda hukmron bo'lib qolishiga rozi bo'lmadi. Yevropada, Yaqin Sharqda va Afrikada hukmronlik pozitsiyasini egallash uchun Angliya bilan Fransiya o'rtasida, Fransiya bilan Italiya o'rtasida, Angliya bilan Italiya o'rtasida ziddiyatlar keskinlasha bordi. Fransiya Angliyaning Turkiyadagi antiimperialistik kurash bilan bog'liq bo'lgan qiyinchiliklaridan foydalanib, Sharqiy va Janubi-Sharqiy Yevropada o'z pozitsiyasini mustahkamladi. Fransiya Turkiyaning Sevr sulh shartnomasini qayta ko'rib chiqish to'g'risidagi talablarini qo'llab-quvvatladi. 1920-1921 yillarda Fransiyaning yordami bilan va uning ta'siri ostida Kichik Antanta (Chexoslovakiya-Ruminiya-Yugoslaviya siyosiy va harbiy ittifoqi) tuzildi. Fransiya Polsha bilan siyosiy-iqtisodiy aloqa o'rnatdi.

AQSH boshqa imperialistik davlatlarning pozitsiyalari kuchayib ketganidan mutlaqo norozi edi. Versal sistemasi, shu jumladan Millatlar ittifoqining nizomi AQShga hech qanday real ustunlik va imtiyoz bermadi. Shuning uchun ham AQSH kongressining senati Versal shartnomasini, shu jumladan Millatlar ittifoqi ustavini ratifikatsiya qilmadi. Biroq AQSH Yevropa va jahon siyosatiga aralashishni davom ettirdi.

AQSH 1921 yil avgustida Germaniya bilan separat shartnoma imzoladi va Germaniya iqtisodiyotiga faol suqilib kira bordi. AQSH hukumati nemis monopoliyalarini qo'llab-quvvatladi.

1920-1921 yillarda ro'y bergan iqtisodiy inqiroz zaminida imperializmning barcha ziddiyatlari yanada keskinlashdi.

O'zaro ziddiyatlar orasida ayniqsa AQSH bilan Angliya o'rtasidagi, shuningdek AQSH bilan Yaponiya o'rtasidagi ziddiyatlar eng asosiy ziddiyatlar bo'lib qoldi. Angliya va Yaponiya jahonda hukmronlik qilish uchun kurashda AQShning eng xavfli raqibi bo'lib chiqdilar. Uzoq Sharqda AQSH bilan Yaponiya o'rtasida jiddiy nizo vujudga keldi. Yaponiyaning Tinch okeanda, ayniqsa Xitoy (Shandunda) o'z pozitsiyasini kuchaytirib olganligi Amerikaning agressiv muddaolariga zid edi.

Germaniyadan olinadigan reparatsiya masalasi ham g'olib davlatlar o'rtasida, ayniqsa Fransiya bilan Angliya o'rtasida nizolarni keskinlashtirgan sabablardan biri edi. Fransiya reparatsiyaning ko'p qismini talab qildi.

Reparatsiya masalasida 1920-1921 yillarda bir necha marta konferensiya bo'lib o'tdi. 1920 yil iyunida Bulonda chaqirilgan konferensiya reparatsiya summasini 269 milliard oltin marka qilib belgiladi. Konferensiya reparatsiyaning 52%ini Fransiya, 22%ini Angliya, 10%ini Italiya va qolgan qismini boshqa davlatlarga ma'lum foiz miqdorida taqsimladi. 1921 yil yanvaridagi Parij konferensiyasida esa reparatsiya summasi 226 milliard oltin marka miqdorida qilib va to'lash muddati 42 yil qilib belgilandi.

Germaniyaning reparatsiya to'lovlari miqdori 1921 yil aprel-may oylaridagi London konferensiyasida 132 milliard oltin marka miqdorida qilib belgilandi. Antanta Germaniyaga dastlabki mo'ljallarga nisbatan ancha kamaytirilgan reparatsiya shartlarini majburan qabul qildirdi va o'sha yilning may oyidayoq reparatsiya hisobiga 1 milliard oltin marka undirib oldi. Germaniya 1919-1922 yillar mobaynida hammasi bo'lib 8 milliard oltin marka to'ladi. 1922 yil yanvarida Germaniyaning iltimosi bilan reparatsiya to'lash muddati bir yilga kechiktirildi. 1923 yil yanvarida Germaniya to'lov muddatining yana kechiktirilishini so'radi. Fransiya bunga unamadi. Shu asosda yangi nizolar boshlandi.

Urush qarzlari muammosi urushdan keyingi yillardagi chigal va murakkab masalalardan biri bo'ldi. Bu masala ham bir qancha xalqaro kengash va konferensiyalarda muhokama qilindi.

AQSH ittifoqchilarining AQShdan qarzi 11 milliard dollarni tashkil qilar edi. AQSH hukumati o'z ittifoqchilariga ta'sir ko'rsatish uchun ana shu qarzlarni o'ziga katta dastak qilishga urindi. Shu maqsadda AQSH kongressi 1922 yil fevralida bu qarzlarni tegishli foiz bilan ittifoqchilardan so'zsiz undirib olish to'g'risida maxsus qonun qabul qildi. Bu qonunni amalga oshirish yuzasidan alohida komissiya tuzildi. AQSH qarzlarni qistash yo'liga o'tdi. Ittifoqchilarning qarzlarni bekor qilish yoki to'lash muddatini kechiktirish umidlari chippakka chiqdi. Keyinchalik AQSH ayrim ittifoqchi davlatlar bilan (masalan, 1923 yil fevralida Angliya bilan) qarzar masalasida bitimlar imzoladi, Angliya qarzlari 30% kamaytirilib, to'lash muddati 62 yil qilib belgilandi.

AQSH davlati Tinch okean va Uzoq Sharqda o'z pozitsiyalarini mustahkamlashga, Angliya va Yaponiyaning harbiy-dengiz flotidagi vaqtincha ustunligini yo'qotish va zo'r berib qurollanish uchun vaqtdan yutish maqsadida dengiz qurollarini «cheklash»ga, Parij sulh konferensiyasining Uzoq Sharqqa doir qarorlarini qayta ko'rib chiqishga, Parij konferensiyasidagi mag'lubiyat uchun qasos olishga kirishdi.

1921 yil martida hokimiyat tepasiga kelgan prezident Garding boshchiligidagi respublikachilar hukumati Parij konferensiyasining Uzoq Sharqqa doir qarorlarini qayta ko'rib chiqishni o'zining asosiy vazifalaridan biri qilib qo'ydi.

AQSH Angliyaning dengizdagi hukmronligini yo'qotishga, Angliya-Yaponiya ittifoqini tugatishga, Yaponiyaning Xitoyda kuchaygan pozitsiyasiga putur yetkazishga hamda Xitoyda «ochiq eshiklar va teng imkoniyatlar» prinsipiga rioya qilish bahonasi bilan Xitoyning AQSH tomonidan asoratga solinishi uchun sharoit yaratishga zo'r berib intildi.

AQSH o'zining iqtisodiy va moliyaviy quvvatiga tayanib, o'zidan boshqa kapitalistik davlatlarning Uzoq Sharq rayonidagi ziddiyatlaridan foydalandi. AQShning tashabbusi bilan yangi xalqaro konferensiya - Vashington konferensiyasi chaqirildi. Bu konferensiya 1921 yil 12 noyabrdan 1922 yil 6 fevralgacha davom etdi. Konferensiyada 9 davlat: AQSH, Angliya,

Fransiya, Italiya, Belgiya, Gollandiya, Portugaliya, Yaponiya va Xitoy qatnashdi. Bu konferensiyada AQSH asosiy rol o'ynadi.

Konferensiyaning asosiy xujjatlaridan biri-AQSH, Angliya, Fransiya va Yaponiyaning 1921 yil 13 dekabrda qabul qilgan «To'rt davlat shartnomasi»dir. Bu shartnomada mazkur davlatlarning Tinch okeandagi orollarining daxlsizligi ko'rsatildi. Ular bu orollarga boshqa bironta davlat xavf solgan taqdirda o'zaro maslahatlashish to'g'risida kelishib oldilar. Bu shartnomada 1902 yilda tuzilgan Angliya-Yaponiya ittifoqi tugatildi, u o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblandi. Natijada AQSH Angliyani Yaponiyadan ajratib, katta diplomatik yutuqqa erishdi.

Konferensiyaning asosiy yutuqlaridan yana biri-AQSH, Angliya, Yaponiya, Fransiya va Italiyaning 1922 yil 6 fevralda qabul qilgan «dengiz quollarini cheklash to'g'risida shartnoma»degan «Besh davlat shartnomasi»dir. Bu shartnomaga muvofiq, AQSH Angliya flotining o'z floti bilan teng darajada bo'lishiga, Yaponiya flotining AQShnikidan ortiq bo'lmashligiga, Angliya bilan Yaponiyaning o'zlarining Tinch okeandagi orollarida harbiy-dengiz bazalari qurmaslik majburiyatini olishiga erishdi.

Konferensiyaning xujjatlaridan yana biri 1922 yil 6 fevralda qabul qilingan Xitoyga nisbatan siyosat to'g'risidagi «To'qqiz davlat shartnomasi»dir. Bu shartnomaga muvofiq, mazkur davlatlar Xitoyning suverenitetini, mustaqilligi va territorial daxlsizligini tanish «majburiyati»ni oldilar. Ular Xitoyda «teng imkoniyatlar» prinsipiga rioya qilib, Xitoyda alohida imtiyozlar va huquqlarga erishish uchun urinmaslik va ta'sir doiralari vujudga keltirmaslik «majburiyati»ni oldilar. Yaponiya Shandundan, Angliya Vey Xayveydan voz kechdi. Bu shartnoma Xitoyda AQSH hukmron doiralarining «ochiq eshiklar» va «teng imkoniyatlar» deb atalgan doktrinasini mustahkamladi. Amerika imperialistlarining Xitoyga suqilib kirishlari uchun qo'shimcha imkoniyatlar vujudga keldi.

Vashington konferensiyasida qabul qilingan shartnomalar «Vashington sistemasi» deb ataldi. Vashington sistemasi Versal sistemasining davomi bo'ldi.

Versal-Vashington sistemasi mamlakatlar o'rtasida mustahkam tinchlik munosabatlari o'rnatmadi. Tinch okeanda kuchlar nisbatini tenglashtirish tartibi mutlaqo beqaror edi.

Kapitalistik dunyoda Sovet Rossiyasiga nisbatan ikki xil tendensiya vujudga kelgan edi: birinchi tendensiya Sovet Rossiyasi bilan iqtisodiy aloqa o'rnatish tendensiyasi edi. Bu tendensiyadagi davlatlarning ko'pchiligi Sovet rejimining aynib ketishiga va keyin uni taqsimlab olishga umid bog'lar edi. Bu tendensiya vakillari (Angliyada Lloyd-Jorj, Fransiya Errio, AQSHda senatorlar Bora, Uiler va Gudrich)lar edi. Ikkinchi tendensiya qulay imkoniyat topib, Sovet Rossiyasiga qarshi yana qurolli intervensiya qilish tendensiyasi edi. Bu tendensiya vaqti-vaqti bilan oshkora ko'rinib turdi. AQSH prezidenti Garding, davlat sekretari Yuz, Angliyada Cherrill, Kerzon, Fransiya Klemanso, Puankare, Germaniyada Lyudendorf va boshqalar bu tendensiyani zo'r berib qo'llab-quvvatladilar. Kapitalistik dunyoda birinchi tendensiya ikkinchi tendensiyaga nisbatan ustun chiqdi.

1921 yil martida Sovet Rossiyasi bilan Angliya o'rtasida savdo bitimi tuzildi. Bu esa amalda Angliya tomonidan Sovet Rossiyasining tanilishi edi. O'sha yilning may oyida Sovet respublikasi bilan Germaniya o'rtasida vaqtincha savdo bitimi imzolandi. Norvegiya, Italiya va Avstriya bilan ham shunday bitimlar tuzildi. 1921 yil fevralida Sovet Rossiyasi bilan Eron va Afg'oniston o'rtasida shartnomalar, mart oyida Sovet respublikasi bilan Turkiya o'rtasida do'stlik shartnomasi tuzildi. 1921 yilda tuzilgan Mo'g'uliston xalq hukumati bilan Sovet hukumati o'rtasida o'sha yilning noyabrida do'stlik va qardoshlarcha hamkorlik to'g'risida shartnoma imzolandi. Lekin AQSH, Angliya, Fransiya kabi bir qancha yirik davlatlar Sovet Rossiyasi bilan hali diplomatik aloqalar o'rnatmagan edilar.

1921 yilgi iqtisodiy inqiroz kapitalistik mamlakatlarni ancha qiyin ahvolga solgan edi. 1921 yil dekabrda Londonda Angliya va Fransiya bosh ministrilarining, Parijda, Angliya, Fransiya, Italiya va Belgiya ekspertlarining kengashlari bo'lib o'tdi.

1922 yil yanvarida Antanta oliy sovetining kengashi Markaziy va Sharqiy Yevropani iqtisodiy «tiklash» programmasini ishlab chiqish uchun Genuyada xalqaro iqtisodiy konferensiya

chaqirishga qaror qildi va bunga Sovet Rossiyasini, shuningdek Germaniya, Avstriya, Vengriya va Bolgariyani taklif etdi.

Genuya konferensiyasi 1922 yil 10 apreldan 19 maygacha davom etdi, unda 34 mamlakat, shu jumladan Sovet Rossiyasi delegatsiyasi ishtirok etdi. Konferensiyada Angliya va Fransiya asosiy rol o'ynadi. AQShning vakili kuzatuvchi sifatida qatnashdi va konferensiya ishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Konferensiyadagi asosiy masala «rus masalasi» degan masala edi. Konferensiyada Sovet Rossiyasini sobiq chor hukumati va Muvaqqat hukumatning chet el mamlakatlaridan olgan hamma qarzlarini (foizlari bilan birga 18 milliard so'm) to'lashga, inqilobga qadar chet el kapitalistlarga qarashli bo'lib, keyin Sovet hukumati tomonidan milliylashtirilgan zavod, fabrika, kon va boshqa korxonalarni o'sha mulkdorlarga qaytarib berishga yoki kompensatsiya to'lashga, sovet tashqi savdo monopoliyasini bekor qilishga, Sovet mamlakatidagi chet elliklar uchun eksteritoriallik (alohida imtiyozlilik) huquqi tartibini o'rnatishga majbur qilmoqchi bo'ldilar. Ular ana shu shartlar asosidagina Sovet Rossiyasiga zayom va kredit berilishini bildirdilar. Antantadan juda katta zarar ko'rgan Germaniya qiyinchiliklarni yengib o'tish yo'llarini izlar edi. Rus nefti masalasida Angliya-Gollandiya neft kompaniyasi bilan Amerika neft monopoliyalari o'rtasida ziddiyat keskinlashdi.

Sovet delegatsiyasi bu ziddiyatlardan foydalandi; 1922 yil 16 aprelda Rapalloda (Genuya yonida), sovet delegatsiyasining rezidensiyasida RSFSR bilan Germaniya o'rtasida shartnoma tuzilib, diplomatik aloqalar o'rnatildi. Ikki tomon bir-birlariga nisbatan hech qanday iqtisodiy talablarni qo'ymaydigan bo'ldilar. Natijada kapitalistik davlatlar o'rtasidagi ziddiyatlar va Sovet-Germaniya shartnomasining tuzilishi birlashgan antisovet frontni buzib tashladi; Germaniyaning ham xalqaro pozitsiyasini ancha mustahkamladi.

Antanta davlatlari Genuya konferensiyasida o'z maqsadlariga erisha olmadilar. Konferensiya boshi berk ko'chaga kirib qoldi. Muzokaralar Gaaga (Gollandiya) konferensiyasida (1922 yil 15 iyun-19 iyul) davom ettirildi. G'olib davlatlar bu konferensiyada ham o'zlarining o'ylagan rejalarini amalga oshira olmadilar. Turkiyada ko'tarilgan milliy ozodlik harakati natijasida birinchi galda Angliyaning pozitsiyasiga jiddiy zarba berilgan edi. Antanta davlatlari Yaqin Sharqda qiyin ahvolga tushib qoldilar. Turkiyaning Mustafo Kamol boshchiligidagi yangi hukumati Sevr sulh shartnomasini tan olmadi. Antantaning Turkiyaga qarshi uyushtirgan harbiy intervensiyasi xususan Angliya-Gretsiya intervensiyasi 1922 yil avgust-sentabr oylarida tor-mor qilindi. 1922 yil 11 oktabrda Antanta bilan Turkiya o'rtasida yarash bitimi imzolandi. Antantaning, avvalo Angliyaning Yaqin Sharqdagi siyosati barbod bo'ldi.

Hukmron davlatlar Turkiya bilan yangi sulh shartnomasi ishlab chiqish va Yaqin Sharq inqirozini bartaraf qilish maqsadida Lozannada (Shveytsariya) xalqaro konferensiya chaqirdilar. Konferensiya 1922 yil 20 noyabrdan-1923 yil 24 iyulgacha tanaffuslar bilan davom etdi. Konferensiyada Angliya, Fransiya, Italiya, Yaponiya, Gretsiya, Ruminiya, Sovet Rossiyasi, Yugoslaviya va Turkiya vakillari qatnashdi. AQSH vakili kuzatuvchi sifatida ishtirok etdi va konferensiya ishlariga aralashdi. Konferensiyaning asosiy masalalaridan biri - Bosfor va Dardanell bo'g'ozlari rejimi to'g'risidagi masala edi. Bu bitimga ko'ra bo'g'ozlar demilitarizatsiya qilindi, tinchlik davrida va urush vaqtida barcha mamlakatlarning savdo va harbiy kemalari bo'g'ozlardan bemalol o'ta oladigan bo'ldi. Konferensiya oxirida Lozanna sulh shartnomasi tuzildi; kapitulyatsiyalar rejimi, Turkiya moliyasining buyuk davlatlar tomonidan nazorat qilinishi va uning qurolli kuchlarini cheklash bekor qilindi. Turkiyaning yangi chegaralari tan olindi. Sharqiy Frakiya (Adrianopol bilan birga), Armanistonning turklar yashaydigan qismi, Kurdiston va boshqa o'lkalar Turkiyaga qaytarildi. Konferensiya natijasida Turkiya o'z suverenitetining xalqaro miqyosda tanilishiga erishdi.

Versal-Vashington tartibining yaratilishi Yevropa mamlakatlarining asosiy muammolarini hal etmadi. Aksincha, eski muammolar yoniga yangilari qo'shildi va ular Birinchi jahon urushidan keyingi dunyoning tarixiy taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Ayrim mamlakatlarda ular ko'p jihatdan yangi siyosiy vaziyatning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi, yangi

g'oyalar, yangi siyosat va davlat arboblarning, hokimiyatni qo'lga kiritishga intilayotgan yangi siyosiy tashkilotlarning paydo bo'lishiga turtki berdi. Urushdan keyingi dunyo duch kelgan asosiy muammolar quyidagilardan iborat edi.

Iqtisodiy muammolar. Birinchi jahon urushida Angliya 750 ming, Fransiya 1,3 mln., Germaniya 2 mln., Rossiya 1,6 mln. kishi yo'qotdi. 20 mln.dan ortiq kishi yaralandi. Ko'pgina sanoat korxonalari vayron bo'ldi, transport tarmoqlari, konlar yo'q qilindi, ko'plab kemalar cho'ktirildi. Ularni tiklash ko'p mablag' va vaqt talab etar edi.

Urushdan keyingi Yevropa mamlakatlarining ahvoli tubdan o'zgardi. Agar urushgacha ular jahonning asosiy moliyaviy va kredit markazi bo'lgan va kredit oluvchilar, zayomlar, qimmatli qog'ozlarni tarqatish hisobiga qo'shimcha daromadlar olib turgan bo'lsalar, endi AQShdan qarzidor bo'lib qoldilar. Urush paytida oltin zaxirasining katta qismi AQShga o'tib ketdi. Qo'shma Shtatlar bajonidil qarzga oziq-ovqat, qurol-yarog', kiyim-kechak, transport vositalari berar, o'z ittifoqchilarining og'ir ahvolidan foydalanib, o'z mollariga istagancha narx belgilari va katta foyda olar edi.

Yevropa qit'asidagi munosabatlarda ham tub (radikal) o'zgarishlar ro'y berdi. Rossiyaning Yevropa iqtisodiyot tuzilmalaridan chetlatilishi shakllangan qit'a bozorining izdan chiqishiga sabab bo'ldi. Ilgari Yevropa mamlakatlari Rossiyadan xom ashyo, ko'pgina oziq-ovqat mahsulotlari olar va bu mahsulotlar bilan aholini hamda sanoatni barqaror ta'minlab turar edi. O'z navbatida, Yevropa moliyachilari va sanoatchilari o'z sarmoyalarni Rossiya iqtisodiyotiga kiritish hamda katta foyda olish imkoniyatiga ega edilar.

Ayni paytda, Avstro-Vengriya imperiyasi yemirilganidan so'ng uning o'rnida katta mamlakatlarga qaram bo'lgan, iqtisodiyoti kuchsiz bir qator kichik davlatlar vujudga keldi. Joriy etilgan kuchli bojxona to'siqlari mollar va sarmoyalarning harakatini qiyinlashtirib qo'ydi. Natijada oldingi Markaziy Yevropa iqtisodiy mintaqasi buzilib ketdi. Bu esa Yevropa iqtisodiy tartiblari mushtarak tizimini zaiflashtirdi.

2-§. Kapitalizmning qisman stabillashuvi yillarida xalqaro munosabatlar

AQShda 1922 yildan, Germaniya, Fransiya va boshqa kapitalistik mamlakatlarda 1924 yildan qisman stabillashuv boshlandi.

Stabillashuv davridagi xalqaro munosabatlarning eng asosiy xususiyatlari shuki, bir tomondan, SSSRning xalqaro pozitsiyalari mustahkamlanib bordi, ikkinchi tomondan Versal-Vashington sistemasi asta-sekin zaiflashdi. Fransiya 1924 yildayoq, Germaniya 1927 yilda sanoat mahsuloti ishlab chiqarishda urushdan oldingi darajaga yetdi. Angliya sanoat mahsuloti esa, ilgari darajaga to'liq yeta olmadi. AQSH barcha kapitalistik mamlakatlarga nisbatan yetakchi o'rinni egalladi, uning iqtisodiyoti rivojlanib bordi. Yaponiya Yevropa kapitalistik mamlakatlaridan o'tib ketdi. Tashqi bozorlar va ta'sir doiralari masalasida kapitalistik mamlakatlar o'rtasidagi ziddiyatlar keskinlashdi.

Janubiy Amerika, Xitoy, Kanada, Avstraliya bozorlarida AQSH bilan Angliya, Tinch okeanda AQSH bilan Yaponiya o'rtasidagi ziddiyatlar kuchayib ketdi. Germaniya monopolistlari esa, Yevropa bozorlari masalasida Angliya, Fransiya, AQSH va boshqa mamlakat imperialistlari bilan to'qnashmoqda edi.

Stabillashuv yillarida SSSRni tanigan mamlakatlar soni ortib bordi. 1924 yilgacha Sovet davlati bilan Germaniya, Afg'oniston, Eron, Turkiya, Estoniya, Latviya, Litva, Polsha, Finlyandiya o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatilgan edi.

Turli mamlakatlar xalq ommasining SSSR bilan iqtisodiy aloqa qilishdan manfaatdor bo'lganligi natijasida 1924 yil fevral-oktabr oylarida Angliya, Italiya, Norvegiya, Avstriya, Gretsiya, Shvetsiya, Xitoy, Daniya, Meksika, Hijoz va Fransiya, 1925 yili Yaponiya, Kanada SSSRni tanidilar va u bilan diplomatik aloqa o'rnatdilar. Antanta davlatlarining qarshilik ko'rsatishlariga qaramay, 1924 yil 31 mayda SSSR bilan Xitoy o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatildi va Sovet-Xitoy shartnomasi tuzildi.

Germaniyadan olinadigan reparatsiyaning umumiy summasi 1921 yili 132 milliard oltin marka qilib belgilangan bo'lsa-da, lekin uni qanday undirib olish yo'llari belgilanmagan edi.

1923 yil yanvar boshida Parijda chaqirilgan yangi xalqaro konferensiyada Angliya Germaniyaning reparatsiya to'lovlarini 4 yilga kechiktirish va reparatsiyaning umumiy summasini kamaytirib 50 milliard marka miqdorida belgilashni («Bonar Lou plani»ni) taklif qildi. Fransiya bu takliflarni rad qildi va hech qanday bitimga kelinmadi.

Fransiya bu masalada o'zboshimchalik bilan harakat qildi. Reparatsiya komissiyasi a'zolari ko'pchiligining roziligi bilan 1923 yil 11 yanvarda Fransiya va Belgiya qo'shinlari Germaniyaning Rur oblastini ishg'ol qildilar. Natijada Fransiya bilan Germaniya o'rtasidagi ziddiyatlar keskinlashib ketdi. AQSH va Angliya hukumatlari Fransiya-Germaniya janjaliga ochiqdan-ochiq aralashishga majbur bo'ldilar va reparatsiya ishini o'z qo'llariga oldilar.

1923 yil noyabrida Amerika monopolistlarining vakili-bankir Charlz Daues boshchiligida reparatsiya masalasida Ekspertlar komiteti tuzildi. Komitet 1924 yil yanvaridan-aprelgacha ishladi. Yangi reparatsion reja – «Daues reja»si ishlab chiqildi. Bu reja 1924 yil iyul-avgustda London konferensiyasida ma'qullandi va Germaniya hukumati tomonidan ham qabul qilindi. Fransiya va Belgiya qo'shinlari 1925 yil yozida Rurdan olib chiqib ketildi. Daues rejasiga muvofiq, Germaniyaga 1925 yildan 1929 yilgacha har yili reparatsiya to'lovini 1 milliard markadan 2,5 milliard markagacha oshira borib, 1929 yildan keyin har yili 2,5 milliard markadan to'lash majburiyati yuklandi. Daues rejasi nemis xalqini yanada og'ir ahvolda solgan talovchilik rejasi edi.

1924 yilgi London konferensiyasidan so'ng Yevropa siyosatidagi gegemonlik Fransiya va Angliyaga, amalda esa, Daues rejasi tufayli AQSHga o'tdi. AQSH dunyoni moliyaviy tomondan ekspluatatsiya qilish markazi bo'lib qoldi. Germaniya 1924-1929 yillarda chet ellardan, asosan, AQSH va Angliyadan 21 milliard markadan ortiq uzoq va qisqa muddatli kredit oldi. Amerika monopoliyalarining vakili Jilbert Parker reparatsiya ishi bo'yicha bosh agent qilib tayinlandi. U amalda Germaniyaning iqtisodiy diktatori bo'lib qoldi.

1928 yilga kelib Germaniya iqtisodiy jihatdan ancha tiklanib, Versal shartnomasi va Daues rejasi tomonidan cheklanganligiga e'tiroz bildirdi. 1928 yil kuzida Germaniya hukumati g'arbiy davlatlar qo'shinlarining Reyn zonasidan evakuatsiya qilinishini va Daues rejasini qayta ko'rib chiqilishini talab etdi. AQSH Germaniyaning bu talablarini qo'llab-quvvatladi. AQShning tashabbusi bilan amerikalik bankir Ouen Yung boshchiligida AQSH, Angliya, Fransiya, Italiya, Yaponiya, Germaniya va Belgiya moliya ekspertlari komiteti 1929 yilda yangi «Yung rejasi»ni ishlab chiqdi. Bu reja 1929 yil avgustda Gaagadagi xalqaro konferensiyada ma'qullandi va 1930 yil yanvarida ikkinchi Gaaga konferensiyasida tasdiqlandi. Yung rejasiga muvofiq, Germaniyaning reparatsiya to'lash muddati 59 yil (1988 yilgacha) uzaytirildi, bu davrda 113,9 milliard marka reparatsiya to'lash kerakligi ko'rsatildi. Yaqin 37 yil mobaynida reparatsiya to'lovining yillik miqdori 2 milliard marka qilib belgilandi. Endi Germaniya temir yo'llaridan keladigan foydalar va davlat budjetining daromad qismi reparatsiya to'lovlarining birdan-bir manbai deb hisoblendi. German sanoati reparatsiya to'lovlaridan ozod qilindi. Germaniya ekonomikasi ustidan bo'lgan nazorat AQShning tashabbusi bilan butunlay bekor qilindi.

1925 yil 5 oktabrdan 16 oktabrgacha Lokarnoda (Shveytsariya) Angliya, Fransiya, Germaniya, Italiya va Belgiya vakillari ishtirokida xalqaro konferensiya o'tkazildi. Konferensiya oxirida Chexoslovakiya va Polsha vakillari chaqirildi. AQSH konferensiyada bevosita qatnashmasa-da, ammo uning uyushtirilishida va qarorlar qabul qilinishida chetdan turib katta ta'sir ko'rsatdi.

Lokarno konferensiyasi Reyn garantiya ahdnomasini qabul qilish bilan tugallandi. Ahdnomada Germaniyaning Versal sulh shartnomasida belgilangan g'arbiy chegaralarining buzilmasligi, Reyndagi demilitarizatsiya zonasi rejimini bundan keyin ham buzmaslik ko'rsatildi. Garantiya ahdnomasiga muvofiq, Angliya bilan Italiya Fransiya va Belgiyani Germaniya hujumidan, Germaniyani esa Fransiya va Belgiya armiyasi hujumidan qo'riqlaydigan bo'ldilar. 1925 yil 12 oktabrda Germaniya bilan SSSR o'rtasida savdo shartnomasi imzolandi.

1926 yili besh yil muddatga tuzilgan bitim sovet-german munosabatlarining yanada rivojlanishiga yo'l ochdi. Unga ko'ra ikkala davlat uchinchi davlat bilan nizolashgan taqdirda betaraf bo'lishga kelishdi. Germaniya sovet davlatiga qarshi qaratilgan hech qanday ittifoqqa qo'shilmaslik majburiyatini oldi. Bu sovet diplomatiyasining ulkan g'alabasi edi. Bitim Germaniya yetakchilik qilishi lozim bo'lgan sovetlarga qarshi yangi frontning tuzilishiga xalaqit berdi.

Ikkala bitim ham davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning jadal sur'atda o'sishini ta'minladi. 1927 yilda SSSR va Germaniya o'rtasidagi savdo muomalalari 1925 yildagiga nisbatan salkam uch baravarga o'sdi. SSSRga Germaniyadan asosan texnika va uskunalar import qilinardi. Sovet davlati barpo etgan korxonalarning ko'pchiligi Germaniyada ishlab chiqarilgan texnika bilan jihozlangan edi. Mamlakatlar o'rtasidagi savdo-sotiq munosabatlari muntazam o'sib bordi va 1931 yilda u eng yuqori cho'qqiga ko'tarildi. Jahonda iqtisodiy inqiroz avj olgan davrda sovet korxonalari Germaniyaga yuz minglab ishchi o'rinlarini saqlab qolish va o'nlab korxonalarni bankrot bo'lishdan asrashga ko'maklashdi.

1925 yil 12 dekabrda Millatlar ittifoqi Sovetining sessiyasida qurosizlanish bo'yicha tayyorgarlik komissiyasi tuzdilar. Komissiya ishiga Millatlar ittifoqining a'zosi bo'lmagan davlatlardan AQSH, so'ngra SSSR taklif qilindi. SSSR ximiya va bakteriologiya urushini taqiqlovchi Jeneva ahdnomasiga qo'shilganligini bildirdi. Jeneva ahdnomasi-1925 yil 17 iyunda 37 davlat tomonidan imzolandi. SSSR 1927 yilda bu ahdnomaga qo'shildi va unga to'la amal qildi. Bir qator kapitalistik davlatlar ahdnomaga imzo chekkan bo'lsalar-da, unga amal qilmadilar. AQSH esa, bu ahdnomaga qo'shilmadi.

1927 yil aprelda Fransiya tashqi ishlar ministri Brian Fransiyaning pozitsiyasini mustahkamlash va AQSHni o'ziga moyil qilish uchun AQSH davlat sekretari Kellogga murojaat qilib, o'zaro urush qilmaslik to'g'risida shartnoma tuzishni taklif etdi. Kellog Brianning tashabbusidan foydalanib, bunday shartnomaga Angliya va boshqa kapitalistik davlatlarni ham jalb etishni taklif qildi. 1928 yil 27 avgustda Parijda bir qator kapitalistik davlatlarning vakillari tomonidan Parij ahdnomasi – «Brian-Kellog ahdnomasi» imzolandi. Ahdnomada milliy siyosatning quroli sifatida urushdan voz kechish, janjalli masalalarni tinch yo'l bilan hal qilish aytilgan. Sovet hukumati bu ahdnomani tezda kuchga kiritish uchun 1929 yil 9 fevralda bir qancha qo'shni davlatlar bilan protokol tuzdi. 1929 yil yozida «Brian-Kellog ahdnomasi» kuchga kirdi.

Kapitalistik davlatlarni borgan sari kuchli larzaga keltirayotgan Xitoy inqilobi avj olib bormoqda edi. 1926 yil sentabrda Angliya harbiy kemalari Vansyan shahrini o'qqa tutib, 6 mingga yaqin kishini halok qildi. 1927 yil 3 yanvarda Angliya qo'shinlari Uxandagi ommaviy mitingga hujum qildi. Bunda qariyb 30 kishi o'ldirildi va yarador qilindi. 1927 yil bahorida inqilobiy kurash keskinlashgan bir vaqtda AQSH, Angliya, Yaponiya va Fransiya Xitoyga qarshi ochiqdan-ochiq intervensiyaga o'tdilar; ularning 170tacha harbiy kemasi Xitoy sohillariga yaqinlashib, Nankin kabi shaharlarni o'qqa tutdi va Nankinning o'zidagina qariyb 2 ming kishi halok bo'ldi. Milliy ozodlik harakatlarining yuksalib borishi, Sovet Ittifoqi xalqlarining Sharq xalqlari bilan hamkorligi hukmron davlatlarning SSSRga nisbatan qahru g'azabini oshirib yubordi. Angliya va boshqa davlatlar SSSRning Xitoydagi elchixonalariga va sovet diplomatiyasi xodimlariga qarshi bir qancha suiqasd va fitnalar uyushtirdilar, SSSR bilan Xitoy munosabatlarini keskinlashtirib, bu ikki mamlakat o'rtasida urush chiqarmoqchi bo'ldilar. 1927 yil 12 mayda Londonda Angliya-Sovet aksiyali jamiyati-«Arkos» binosiga xujum qilindi. Politsiya po'lat sandiqlarni buzib, Sovet savdo vakolatxonasining xujjatlarini bosib oldi. Angliya hukumati SSSRni Angliyaning ichki ishlariga «aralashish»da ayblashga urindi va soxta xujjatni pesh qilib, 1927 yil 26 mayda SSSR bilan diplomatik aloqani uzdi.

1927 yil oktabrida, G'arbda Sovetlarga qarshi asabiylik avjiga chiqqan bir vaqtda SSSR bilan Eron o'rtasida garantiya va betaraflik to'g'risida shartnoma tuzildi.

1929 yilda xalqaro reaksiya Xitoyda va Xitoy-Sovet chegarasida SSSRga qarshi katta ig'vo uyushtirdi.

1929 yil iyul-avgust oylarida gomindanchi qo'shinlar va rus oq gvardiyachilari Xarbindagi Sovet elchixonasini tor-mor qilib, SSSRga qarashli va Sovet Ittifoqi bilan Xitoy tomonidan teng huquqlilik asosida boshqarilayotgan Shimoli-Sharqiy Xitoy (Dunbey)dagi Sharqiy Xitoy temir yo'liga (KVJDga) va Sovet chegara rayonlariga hujum boshladilar. SSSR va Gomindan Xitoyi o'rtasida diplomatik aloqa uzildi. Biroq, Gomindan Xitoyining iltimosiga ko'ra, 1929 yil dekabrda KVJDda oldingi holatni tiklash yuzasidan Sovet-Xitoy protokoli imzolandi.

Angliyada 1929 yili leyboristlar hokimiyat tepasiga kelgach, SSSR bilan diplomatik munosabatlar tiklandi.

3-§. Jahon iqtisodiy inqirozi va urushning ikki o'chog'i vujudga kelishi yillarida xalqaro munosabatlar

Kapitalistik mamlakatlarda 1929 yilning oxiriga kelib vaqtincha, qisman stabillashuv davri tugadi va jahon iqtisodiy inqirozi boshlanib ketdi. Bu inqiroz birinchi jahon urushidan keyingi xalq xo'jaligining hamma tarmoqlarini chulg'ab olgan birinchi eng chuqur inqiroz bo'lib, 1933 yilgacha davom etdi. Bu inqiroz o'zining keltirgan zararlari va oqibatlari jihatidan birinchi jahon urushi yetkazgan zararlarga tenglashdi. O'zining kuchi va uzoq davom etishi jihatidan g'oyat zo'r bo'lgan bu iqtisodiy inqiroz butun dunyoni larzaga keltirdi. Kapitalistik mamlakatlarda sanoat mahsuloti 36%, po'lat va cho'yan eritish 60-65% kamayib ketdi. Tashqi savdoning hajmi 60-65 % qisqardi. Moliyaviy ahvol yomonlashdi. 1933 yilda butun kapitalistik lagerda ishsizlar soni 30 million kishidan oshdi.

Jahon iqtisodiy inqiroz kapitalistik sistemaning barcha ziddiyatlarini-yirik davlatlar, ya'ni AQSH bilan Angliya o'rtasidagi, AQSH bilan Yaponiya, Fransiya bilan Italiya, Angliya bilan Fransiya o'rtasidagi, jahon urushida g'olib chiqqan davlatlar bilan Germaniya o'rtasidagi, mustamlakachi davlatlar bilan mustamlaka va qaram mamlakatlar o'rtasidagi, mehnat bilan kapital o'rtasidagi, kapitalistik sistema bilan sotsialistik sistema o'rtasidagi ziddiyatlarni keskinlashtirib yubordi.

1930 yil mayida Fransiya tashqi ishlar ministri Brian inqirozdan qutulish, o'zaro hamkorlik qilish bahonasi bilan Yevropa qit'asidagi davlatlarning «federativ ittifoqi»ni, ya'ni «pan-Yevropa» tuzishni taklif qildi. Bu reja aslida Yevropada yana Fransiya gegemonligini o'rnatishga qaratilgan edi. «Pan-Yevropa» rejasini faqat Polsha va Chexoslovakiya yoqlab chiqdi. Angliya Fransiyaning kuchayib ketishidan xavfsirab, bu rejani qo'llab-quvvatlamadi. Boshqa bir qator mamlakatlar Angliya pozitsiyasini ma'qulladilar. Shu tariqa, «pan-Yevropa» rejasi barbod bo'ldi.

Iqtisodiy inqiroz yillarida dunyoni qayta taqsimlash uchun kurash keskin tus oldi. Uzoq Sharqda, Xitoyda bozor va xom ashyo manbalarini ko'proq egallash hamda shu yo'l bilan bu mamlakatlarda o'z pozitsiyalarini mustahkamlash uchun kurashda ayniqsa Yaponiya, AQSH va Angliya o'rtasida raqobat kuchaydi. Yaponiya o'z mustamlakasi bo'lgan Koreyaning shimoliy tumanlarini harbiy platsdarmga aylantirdi. 1931 yil sentabri - 1932 yil fevralida Yaponiya Xitoyning shimoli-sharqiy rayonlarini-Machjuriyani bosib oldi va qo'g'irchoq Manchjou-Go davlatini tuzdi. Xitoyning shimoli-sharqi Yaponiyaning muhim agressiv platsdarmga aylantirildi. Natijada Uzoq Sharqda urushning birinchi o'chog'i vujudga keldi.

Garchi Yaponiyaning Xitoydagi ekspansiyasi G'arbdagi yirik davlatlar, ayniqsa, AQShning manfaatlariga daxl qilgan bo'lsa ham, ular aslida yapon agressiyasini rag'batlantirdilar, unga iqtisodiy va harbiy-texnika jihatdan yordam berib turdilar. Ularning asosiy maqsadi-Yaponiya qo'li bilan Xitoydagi inqilobni bo'g'ish edi.

Millatlar ittifoqi Yaponiya agressiyasiga qarshi chora ko'rmadi: Xitoy hukumati Millatlar ittifoqiga murojaat qilib, Yaponiya agressiyasiga barham berishni so'radi. Ammo Millatlar ittifoqi Xitoyga hech qanday yordam ko'rsatmadi. AQSH hukumati esa Yaponiyaning Xitoydagi agressiyasini so'zdagina qoralab, Xitoy hududining dahlsizligini himoya qilishga qaratilgan biror tadbirni ko'zlamadi.

1931-1932 yillarda va 1933 yil boshida Yaponiya fursatdan foydalanib agressiyani ancha kengaytirdi. AQSH, Angliya va Fransiyaning manfaatlariga qarshi jiddiy xavf tug'ildi. AQSH-Yaponiya, Angliya-Yaponiya ziddiyatlari kuchaydi. Shundan keyingina, 1933 yil fevralida Millatlar ittifoqi qaror qabul qildi. Bu qarorda Yaponiyaga butun Xitoyda «ochiq eshiklar» va «teng imkoniyatlar» prinsipiga amal qilish, Manchjuriyani Xitoy qo'l ostidagi avtonomiya deb tanish, yapon qo'shinlarini olib chiqib ketish taklif qilindi. Yaponiya bu qarorni qabul qilmadi. 1933 yil martida Yaponiya Millatlar ittifoqidan chiqdi. Shunday qilib, Versal-Vashington sistemasi barbod bo'la boshladi. Yaponiyaning agressiv harakati va g'arbiy davlatlarining qarshilik ko'rsatmaslik siyosati Yevropada, avvalo Germaniyada revansh va urush tarafdorlari kuchlarini rag'batlantirdi. 1933 yil yanvarida Gitler boshchiligida fashistik diktatura o'rnatildi. Urush partiyasi bo'lgan fashistlar partiyasi davlat tepasiga chiqib oldi. Fashistik diktatura o'taketgan reaksiyon, eng shovinistik va oshkora terroristik diktatura edi. Shunday qilib, Yevropa markazida urushning ikkinchi va asosiy o'chog'i vujudga keldi.

1933 yil iyulida Rimda to'rt davlat; Angliya, Fransiya, Germaniya va Italiyaning «yakdillik va hamkorlik» ahdnomasi tuzildi. Bundan kuzatilgan asosiy maqsad Germaniyani urushdan keyin tuzilgan shartnomalarda ko'rsatilgan majburiyatlardan qutqarish, uning agressiyasiga bemalol yo'l berib qo'yish, Germaniya bilan Italiyani SSSRga qarshi yo'naltirishdan iborat edi.

1934 yil yanvarida Germaniya bilan Polsha o'rtasida o'zaro hujum qilishmaslik to'g'risida shartnoma tuzildi. Gitlerchilar o'z maqsadlarini amalga oshirishda Polsha reaksiyonerlaridan foydalanib, keyin Polshaning o'zini ham bosib olmoqchi edilar.

1935 yil yanvarida Versal shartnomasiga muvofiq, Saar oblastida plebissit o'tkazildi. Gitlerchilar o'z foydalariga ko'proq ovoz olishga erishdilar. Saar oblasti Germaniyaga qo'shildi.

1935 yildan boshlab Germaniya harbiy-havo va harbiy-dengiz kuchlarini hamda quruqlikdagi qurolli kuchlarini ko'paytirishga astoydil kirishdi. Umumiy harbiy majburiyat joriy qilindi. Germaniya bosh shtabi tiklandi.

1935 yil 18 iyunda Angliya bilan Germaniya o'rtasida dengiz bitimi tuzildi. Bitimda Germaniya harbiy dengiz flotini Angliya suv usti harbiy-dengiz flotining 35%i hajmida va suv osti harbiy-dengiz flotining 45%i hajmida qurish, keyinchalik Germaniyaning suv osti flotini Angliya suv osti flotiga to'la tenglashtirish huquqi ko'zda tutildi. Bu bitim amalda Versal sulh shartnomasiga qaram-qarshi o'laroq Germaniyaning harbiy-dengiz qurollanishiga to'la imkon berdi.

Uzoq Sharqda va Yevropada urush o'choqlarining vujudga kelishi xalqaro vaziyatni o'zgartirib va keskinlashtirib yubordi. Germaniya va Yaponiya jahonga hukmron bo'lishni da'vo qilib chiqdilar. Angliya va Fransiya esa mudofaa holatiga tushib qoldilar. Shu tariqa, bir tomondan, Germaniya, ikkinchi tomondan, Angliya, Fransiya va AQSH o'rtasida dengiz va mustamlaka masalalarida, Yaponiya, AQSH va Angliya o'rtasida Uzoq Sharq va Tinch okeanda ziddiyatlar kuchayib ketdi. 1932 yil iyulida uzoq muzokaralardan keyin SSSR bilan Polsha o'rtasida, 1932 yil noyabrida esa SSSR bilan Fransiya o'rtasida o'zaro hujum qilishmaslik shartnomalari tuzildi. SSSR bilan Latviya, Estoniya va Finlyadiya o'rtasida ham shunday shartnomalar imzolandi.

Jenevada chaqirilgan xalqaro qurolsizlanish konferensiyasida (1932 yil fevral-1934 yil may) Fransiya o'z xalqaro pozitsiyasini mustahkamlash maqsadida Millatlar ittifoqi huzurida xalqaro armiya tuzishni, Germaniya xavfiga nisbatan Angliya va AQShdan garantiya olishni, AQSH va boshqa raqiblar kuchini zaiflashtirishni ko'zlab qurolli kuchlarning 1G'3 qismini qisqartirishni taklif qildi.

Angliya tomonidan kiritilgan takliflarning birida Germaniya qo'shinlari sonini 100 ming kishidan 200 ming kishiga yetkazish, Fransiya armiyasini esa 500 ming kishidan 200 ming kishiga keltirib, Yevropa qit'asida Germaniya bilan Fransiya qo'shinlari sonini tenglashtirish, SSSR qo'shinlari sonini 500 ming kishidan oshirmaslik zarurligi ko'rsatildi.

Germaniya delegatsiyasi boshqa mamlakatlarning qurolli kuchlarini german qurolli kuchlari darajasigacha qisqartirishni yoki german qurolli kuchlarini boshqa yirik

mamlakatlarning qurolli kuchlari darajasiga yetkazishni taklif qildi. Germaniya taklifi qabul qilinmagach, uning delegatsiyasi konferensiya ishini barbod qilishga urindi va 1933 yil kuzida konferensiyadan chiqib ketdi. Konferensiya qatnashchilari mushkul ahvolga tushib qoldi.

Yevropada Germaniya va Osiyoda Yaponiya jahonga hukmron bo'lishni da'vo qilib chiqayotganligini hamda SSSRning kuch-quvvati va xalqaro roli oshib borayotganligi tufayli 1934 yil 15 sentabrda Millatlar ittifoqining 34 ta a'zosi Sovet Ittifoqiga Millatlar ittifoqiga a'zo bo'lib kirishni taklif qildi va SSSR 1934 yil 18 sentabrda Millatlar ittifoqiga a'zo bo'lib kirdi. 1933 yil 16 noyabrda SSSR bilan AQSH o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatish to'g'risida bitim tuzildi.

1933 yili SSSR bilan Ispaniya o'rtasida, 1934 yili SSSR bilan Chexoslovakiya, Ruminiya, Vengriya, Bolgariya, Albaniya o'rtasida, 1935 yili SSSR bilan Belgiya, Lyuksemburg va Kolumbiya o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatildi.

Fransiya hukumati jamoatchilikning qat'iy talablari natijasida, hamda mamlakatda o'z mavqeini mustahkamlash va xalqaro miqyosda Fransiya pozitsiyasini kuchaytirish maqsadida 1935 yil 2 mayda Parijda Sovet Ittifoqi bilan o'zaro yordam to'g'risida shartnoma tuzdi. 16 mayda SSSR bilan Chexoslovakiya o'rtasida ham shunday shartnoma imzolandi. Ayni mahalda Fransiya bilan Chexoslovakiya o'rtasida ham shu kabi shartnoma tuzildi. Chexoslovakiya hukumatining talabi bilan Sovet-Chexoslovakiya shartnomasida agressiya yuz berganda Fransiya yordam ko'rsatgan taqdirdagina o'zaro yordam berish haqida modda kiritildi.

4-§. Ikkinchi jahon urushi arafasida xalqaro munosabatlar

Agressiv davlatlar-Germaniya, Yaponiya va Italiyada iqtisodiyot harbiy maqsadlarda qayta qurilganligi natijasida ishlab chiqarishning pasayib ketishiga yo'l qo'yilmadi. 1938 yil Germaniya sanoat mahsuloti Angliya va Fransiyaning sanoat mahsulotidan oshib ketdi. 1938 yil Yaponiyada sanoat mahsuloti 1929 yildagiga nisbatan 185%ni, Germaniyada esa 121%ni tashkil etdi. Yaponiya, Italiya, ayniqsa Germaniya bozor va xom ashyo manbalarini, mustamlakalarni qayta taqsimlashni talab qila boshladilar.

1930 yillarning ikkinchi yarmida kapitalistik dunyoda Germaniya AQShdan keyingi qudratli davlat edi. U sanoatning ba'zi tarmoqlari bo'yicha (sintetik mahsulotlar, metall ishlash uskunalari, alyumin tarmoqlari) kapitalistik mamlakatlar orasida birinchi o'rinni egallagan edi. Mashinalar eksport qilishda ham Germaniya AQShni quvib yetmoqda edi.

Yevropa, ayniqsa Markaziy va Sharqiy Yevropa bozorlarida Germaniyaning iqtisodiy pozitsiyasi kuchaydi va bu rayonlarida uning g'arbiy mamlakatlar bilan konkurensiyasi juda keskinlashdi. Angliya, Fransiya va AQShning bu jihatdan pozitsiyasi zaiflashdi.

Germaniya Lotin Amerikasida ham kuchli pozitsiyani egalladi. Germaniyaning Lotin Amerikasi mamlakatlari bilan savdosi 1938 yil 171% ga yetdi, 1933 yilda esa 11,5% edi, xolos. Germaniya bu mamlakatlarning importida birinchi o'rinni egalladi hamda AQSH va Angliya pozitsiyasini zaiflashtira bordi.

1935 yil oktabridayoq Italiya qo'shinlari urush e'lon qilmay, Habashistonga (Efiopiyaga) hujum boshladilar. Italiya-Habashiston urushi tayyorlanayotgan jahon urushining yangi bir tuguni edi. Italiyaning agressiyasi Angliya va Fransiya manfaatlariga zarba berdi hamda ularning Yevropadan Osiyoga boradigan dengiz yo'llari uchun katta xavf tug'dirdi. Shunga qaramay, Angliya va Fransiya hukmron doiralari bu gal ham agressorga qarshilik ko'rsatmadilar. Faqat Sovet delegatsiyasining qattiq turishi natijasida Millatlar ittifoqi Italiyani agressor deb hisobladi va unga qarshi iqtisodiy sanksiya (jazo choralari) qo'llash, Italiyaga xom ashyolar va harbiy materiallar kiritishni cheklash to'g'risida qaror qabul qildi. Lekin Angliya va Fransiya aybi bilan bu sanksiya to'la amalga oshmadi. AQSH hukumati 1935 yilda «betaraflik» siyosatini e'lon qilib, shu niqob ostida agressorlarni rag'batlantirdi. Italiya bundan foydalanib, 1936 yil mayida deyarli butun Habashistonni bosib oldi va o'z mustamlakasiga aylantirdi.

1936 yil martida Germaniya Versal va Lokarno shartnomalarini buzib, Reyndagi demilitarizatsiya qilingan zonaga o'z qo'shinini kiritdi. Yirik davlatlar bunga nisbatan yuzaki norozilik bildirish bilan cheklanib qoldilar.

1936 yil iyulida general Franko boshchiligidagi ispan fashistlari Germaniya va Italiya yordami bilan Ispaniya inqilobiy demokratik kuchlariga, respublikaga qarshi isyon ko'tardilar. Tez orada Germaniya bilan Italiya Ispaniya respublikasiga qarshi ochiqdan-ochiq harbiy intervensiya boshladi. 1936-1939 yillar mobaynida Ispaniyaga Italiya 150 ming, Germaniya 50 ming soldat va ofitser, harbiy mutaxassislar, texnika va aviatsiya yubordi. Ular Angliya va Fransiyaning Afrika va Osiyoga boradigan dengiz yo'llarini egallab ola boshladilar. Urushning yangi tuguni vujudga keldi.

Fransiya sotsialistik partiyasining lideri o'sha vaqtdagi Fransiya hukumatining boshlig'i Leon Blyum 1936 yil avgust boshida Angliyaning Bolduin boshchiligidagi konservativ hukumati bilan birgalikda, mamlakatlarni Ispaniyadagi urushga «aralashmaslik»ka chaqirdi. Bir qancha mamlakatlar, hatto Germaniya va Italiya bu taklifga qo'shildi. Ulug' davlatlarning Ispaniya ishlariga haqiqatan aralashmasligi Ispaniya respublikachilari uchun foydali ekanligini nazarda tutib SSSR ham bu taklifni quvvatladi. 1936 yil 9 sentabrda Londonda Angliya diplomati lord Plimut boshchiligidagi 27 davlat vakillaridan iborat «Aralashmaslik komiteti» tuzildi. Komitet ishtirokchilari betaraflikni saqlab, Ispaniyaga qurol sotmaslik va Ispaniya uchun yuboriladigan yarog'-aslahalarni o'z mamlakatlari territoriyasidan o'tkazmaslik majburiyatini oldilar.

Lekin ko'p o'tmay, amalda, «Aralashmaslik komiteti»ning siyosati eng sharmandali bir siyosat ekanligi aniqlandi. Fashistik davlatlar dastlab o'z agressiv maqsadlarini yakka-yakka amalga oshirishga kirishgan bo'lsalar, keyinroq ular bu agressiv harakatlarini kengaytirish uchun harbiy-siyosiy blokka uyushdilar. 1936 yil oktabrida Germaniya-Italiya protokoli imzolandi. «Berlin-Rim o'qi» vujudga keldi. Germaniya Italiyaning Efiopiyani bosib olganini tan oldi hamda uning Dalmatsiya, Albaniya va Gretsiyani bosib olish yo'lidagi intilishlarini quvvatladi. Italiya Germaniyaning Avstriyani qo'shib olish maqsadlarini ma'qulladi. Italiya va Germaniya Ispaniya masalasida birgalikda harakat qilish to'g'risida ham til biriktirdilar.

Uzoq Sharqda esa Yaponiya ig'vogarlik bilan Sharqiy Xitoy temir yo'liga va undagi sovet xodimlariga ketma-ket hujumlar uyushtirdi. Sovet hukumati Yaponiya bilan munosabatlarning keskinlashuviga sabab bo'lgan bahonalarni bartaraf qilish maqsadida KVJDni Yaponiya va Manchjou-Goga sotdi, bu haqda 1935 yil martida shartnoma tuzildi. Lekin Yaponiya 1935-1936 yillarda Mo'g'uliston Xalq Respublikasi chegaralariga bir necha marta hujum uyushtirib, Uzoq Sharqda tinchlikka tahdid qila berdi. SSSR Mo'g'ulistonni qo'llab-quvvatladi va 1936 yil martida o'zaro yordam to'g'risida Sovet-Mo'g'uliston shartnomasi imzolandi. Bu shartnoma Yaponiya urushqoq harbiylarini birmuncha tiyib qo'ydi.

1936 yil noyabrida Germaniya bilan Yaponiya o'rtasida «Kominternga qarshi ahdnoma» tuzildi, 1937 yil noyabrida Italiya ham bu ahdnomaga qo'shildi. Uch fashist-agressor davlatning - Germaniya, Yaponiya va Italiyaning Kominterngagina emas, balki shu niqob ostida barcha mamlakatlarga qarshi qaratilgan, dunyoni o'zaro qayta taqsimlashni ko'zda tutgan agressiv uchlar bloki (agressiv «uch burchak»)-«Berlin-Rim-Tokio o'qi» tashkil topdi. 1939 yil fevralida Vengriya va Manchjou-Go, martda Franko Ispaniyasi «Kominternga qarshi ahdnoma»ga qo'shildi.

1937 yil iyulida Yaponiya militarizmi Xitoy xalqiga qarshi ochiqdan-ochiq keng miqyosda urush boshlab yubordi. Bu urush Yaponiyaning Xitoydagi agressiyasining yangi bosqichi edi. Yaponiya qo'shinlari Shimoliy, Markaziy, so'ngra Janubiy Xitoyga bostirib kirdilar.

Yaponlar Xitoyning Pekin, Tyanszin, Shanxay, Nankin Xankou kabi katta shaharlarini, deyarli hamma portlarini ishg'ol qildilar. Biroq yapon harbiylarining Xitoyda «yashin tezligida urush» qilish plani barbad bo'ldi.

Yevropada g'arbiy davlatlarning Gitler Germaniyasi va fashistik Italiya bilan Myunxenda tuzgan bitimidan (1938 yil sentabr) ruhlangan Yaponiya reaksiyasi 1938 yil noyabridayoq

«Sharqiy Osiyoda yangi tartib» e'lon qildi, bu «yangi tartib» Sharqiy Osiyoda faqat Yaponiyaning mustamlakachilik hukmronligini o'rnatishdan iborat edi.

Angliya, AQSH va Fransiya davlatlari Yaponiyaning bu hatti-harakatidan norozi bo'ldilar. Ular «Xitoy-Yaponiya janjali»ni bartaraf qilish maqsadida «Xalqaro Uzoq Sharq konferensiyasi»ni, «Tinch okean konferensiyasi»ni chaqirish to'g'risida fikr bildirishdi.

1939 yil 24 iyulda Tokioda Angliya bilan Yaponiya o'rtasida «Kreygi-Arita bitimi», ya'ni «Uzoq Sharq Myunxeni bitimi» tuzildi. Kreygi-Angliyaning Yaponiyadagi elchisi, Arita-Yaponiya tashqi ishlar ministri edi. Angliya va Yaponiya bir-birlarining Xitoydagi manfaatlariga qarshi harakat qilmaslik to'g'risida, Xitoydagi ozodlik kurashini bostirish uchun Angliyaning Yaponiyaga xalaqit bermasligi to'g'risida kelishib oldilar. Yapon militaristlari Manchjuriyadan turib 1938 yil 29 iyulda Vladivostok yaqinidagi Hasan ko'li rayonida Sovet Ittifoqi chegarasiga qo'qqisdan hujum qildilar. Ular Sovet Uzoq Sharqi hududiga bostirib kirishni mo'ljallagan edilar. Sovet Armiyasi yapon bosqinchilarini tor-mor keltirib chegaradan ulotqirib tashladi. O'sha yili 11 avgustda bu rayonda urush harakatlari to'xtadi.

1939 yil may-avgust oylarida yaponlar Sovet Ittifoqiga bostirib kirish va Sibir temir yo'lini ishg'ol qilib, Sovet Uzoq Sharqini SSSRdan ajratib qo'yish maqsadida Xalxin-Gol daryosi rayonida Mo'g'uliston Xalq Respublikasiga hujum qildilar. Sovet hukumati bilan Mo'g'uliston Xalq Respublikasi o'rtasida 1936 yilda tuzilgan o'zaro yordam shartnomasiga amal qilib, SSSR Mo'g'ulistonni qo'llab-quvvatladi. Sovet Armiyasi mo'g'ul Armiyasiga yordam ko'rsatib, bu gal ham yapon bosqinchilariga qaqshatqich zarba berdi.

Yaponiya bilan Germaniya o'rtasida ham (garchi bo'lar «Kominternga qarshi ahdnoma»ning ishtirokchilari bo'lsalar-da) ziddiyatlar mavjud edi. Germaniya 1938 yil fevraliga qadar Manjou-Goni tanimagan edi. Germaniya Xitoyda bir qancha imtiyozlarga ega bo'lishni, Birinchi jahon urushidan keyin o'zining Yaponiyaga o'tib ketgan Tinch okeandagi sobiq mustamlakalari masalasining qayta ko'rib chiqilishini istardi. Germaniya yashirin yo'llar bilan chan-kay-shichilarga qurol-yarog' va maslahatchilar yuborib turdi. Yaponiya Germaniyaning talablariga rozi bo'lmadi. Shu tariqa, Yaponiya-Germaniya munosabatlarida ixtiloflar bo'lib turdi. Gitlerchilar Germaniyasi bir qator tadbirlardan so'ng, 1938 yil 11 martda zo'rlik bilan Avstriyani bosib oldi. Bu Versal va Sen-Jermen sulh shartnomalarining to'g'ridan-to'g'ri buzilishi edi. «Aralashmaslik» va «betaraflik» siyosatlarini niqobi ostida Angliya, Fransiya va AQSH Avstriyaning bosib olinishini ma'qulladi va tanidi. Imperialistik davlatlarning hukmron doiralari Avstriya masalasining Millatlar ittifoqida muhokama qilinishini istamadilar. Natijada gitlerchilar agressiyasi Janubi-Sharqiy Yevropaning ichkarisiga yoyilib bordi.

German fashistlari Avstriyani bosib olganlaridan keyin butun diqqatni Chexoslovakiyaga, avvalo uning Sudet oblastiga qaratdilar. Germaniyada Chexoslovakiyaga qarshi tashviqot avj oldirildi. Nemis-fashist qo'shinlari Chexoslovakiya chegaralariga to'plana boshladi. «Sudet inqirozi», ya'ni Germaniya-Chexoslovakiya janjali boshlanib va keskinlashib ketdi. Chexoslovakiyaga nisbatan xavf kuchaydi. 1938 yil 28-29 aprelda Londonda Angliya va Fransiya bosh ministrleri va tashqi ishlar ministrilarining kengashi bo'lib o'tdi. Bu kengashda Yevropada «tinchlik uchun» kurash va Chexoslovakiyaga «yordam» masalasi muhokama qilindi hamda Sudet oblasti masalasini «tinch» yo'l bilan hal qilish to'g'risida qaror qabul qilindi. Angliya hukumati tomonidan 1938 yil yozida Chexoslovakiyaga yuborilgan Rensimen o'taketgan yuzsizlik va munofiqlik rolini o'ynadi. U, Chexoslovakiya hukumatidan Sudet oblastini Germaniyaga berishni, Sovet-Chexoslovakiya o'zaro yordam shartnomasini bekor qilishni talab etdi.

Fransiya hukmron doiralari 1938 yil fevralidayoq, Chexoslovakiya bilan 1935 yilda tuzilgan shartnoma o'z kuchini yo'qotdi, deyishgacha borib yetdilar va Fransiya Chexoslovakiyaga Angliyasiz yordam bera olmaydi, dedilar. Gitlerning Sudet oblasti haqidagi talabi tobora qat'iylashdi; Chexoslovakiyadagi gitlerchilar yanada faollashdi, 1938 yil 13 sentabrda Chexoslovakiyada fashistik isyon ko'tarildi. Isyon bostirilgach, Gitler g'azablanib, chegaradagi qo'shnlarni jangovar holatga keltirdi. Lekin Gitler bu kuchlarni ishga solmasdanoq G'arb davlatlari unga juda epcchilik bilan yordam qildilar. 1938 yil 15 sentabrda Angliya bosh

ministri Chamberlen Germaniyada Gitler huzurida bo'lib, uning Chexoslovakiyadagi Sudet oblasti va boshqa territoriyalar haqidagi talabini ma'qulladi. 18 sentabrda Londonda Angliya va Fransiya hukumatlarining bosh ministrleri va tashqi ishlar ministrlerinin yana kengashi bo'lib, uzil-kesil yordam berishga qaror qildilar. Sovet hukumati Chexoslovakiya bilan tuzilgan shartnomaga amal qilib, unga yordam ko'rsatishga tayyor ekanligini ta'kidlab keldi va bu haqda Gitler hukumatini ham ogohlantirgan edi.

Benesh Sovet hukumatining bu pozitsiyasiga e'tibor bermadi va sovet takliflarini javobsiz qoldirdi. Benesh 16 sentabrda Angliyaning «vositachisi» Rensimenga urush bo'lgan taqdirda ham SSSR bilan hech qanday maxsus bitim tuzilmasligini, Fransiyaning tashqari hech qanday chora ko'rmasligini surbetlarcha bildirdi.

21 sentabrda Angliya va Fransiyaning Pragadagi elchilari Benesh huzurida bo'lib, agar Chexoslovakiya Angliya-Fransiya talablarini qabul qilmasa va natijada Germaniya-Chexoslovakiya urushi boshlanib qolsa, Angliya va Fransiyaning Chexoslovakiyaga hech qanday yordam bermasligi to'g'risida, agar Chexoslovakiya SSSR dan yordam olsa va natijada Germaniya Chexoslovakiyaga va SSSRga qarshi urush ochsa, Angliya va Fransiyaning Germaniya tomonida bo'lishi to'g'risida ogohlantirdilar.

22 sentabrda Chamberlen yana Gitler huzuriga kelib, Germaniyaning Sudet to'g'risidagi «huquqlari»ni tanidi. Shuningdek Chamberlen Gitlarning Polsha va Vengriyaning hududi talablarini qondirish to'g'risidagi taklifini ham qabul qildi.

Angliya, Fransiya va AQSH siyosatidan rag'batlangan Gitler 26 sentabrda so'zlagan nutqida, agar Chexoslovakiya hukumati Germaniyaning talablarini tezda va so'zsiz bajarmasa, Chexoslovakiya yakson qilinadi, deb do'q qildi. 28 senyabrda esa Gitler 10 kun ichida Sudet oblastini butun sanoati, transporti va istehkomlari bilan birga Germaniyaga berishni Chexoslovakiyadan qat'iy talab etdi.

1938 yil 29-30 sentabrda Myunxenda xalqaro fashist banditlari-Germaniya va Italiya diktatorlari Gitler va Mussolini Angliya va Fransiya bosh ministrleri Chamberlen va Daladye bilan uchrashdilar. Bu xalqaro munosabatlar tarixida o'taketgan xiyonatkorona va sharmandali kengash Myunxen konferensiyasi edi. Unda Chexoslovakiya vakillarining ishtirokidan tashqari chexoslovak xalqining taqdiri hal qilindi.

Myunxenda gitlerchilar talab qilgan rayonlarni Germaniyaga topshirish, Polsha va Vengriyaning talablarini ham qondirish to'g'risida sharmandali bitimlar tuzildi. 30 sentabrdayoq Chexoslovakiya hukumati va prezident Benesh Myunxen konferensiyasining qarorlarini qabul qildi, va Germaniya fashizmi oldida xiyonatkorona taslim bo'ldi. Tez orada Myunxen qarorlari amalga oshirilib, Chexoslovakiya taqsimlana boshlandi.

1938 yil oktabrida Gitler Germaniyasi Sudet oblastini va Chexoslovakiyaning boshqa chegara rayonlarini bosib oldi. 1939 yilning martida esa Germaniya qo'shinlari butun Chexoslovakiyani ishg'ol qildi. Chexoslovakiya parchalab tashlandi; Chexiya va Moraviya Germaniyaning «protektorati» deb, Slovakiya «mustaqil» davlat deb e'lon qilindi. Amalda bu «mustaqil» davlat Gitler Germaniyasining mustamlakasiga aylandi. Zakarpat Ukrainasi vengr xortistlari tomonidan, Teshin Polsha tomonidan zabt etildi. Germaniya Avstriya va Chexoslovakiyani bosib olganidan keyin, Yevropadagi siyosiy va strategik ahvol Gitler foydasiga o'zgarib ketdi. 1939 yil martida Ispaniyada fashistik tartib o'rnatildi. O'sha yilning martida Memel oblastini (Klaypedani) Germaniyaga topshirish to'g'risida Litva-Germaniya bitimi imzolandi. Ruminiya iqtisodiyoti fashistik Germaniyaga bo'ysundirildi. Ruminiya, so'ngra Vengriya gitlerchilar blokiga kirdi. 1939 yil aprelida fashistik Italiya Albaniyaga hujum qilib, uni bosib oldi. Germaniya fashizmi esa Polshaga nisbatan hududiy va boshqa talablarni qo'ydi. 1939 yilda Gitler Dansigning Germaniyaga topshirilishini, Polsha koridori orqali Sharqiy Prussiyaga qadar tor izli temir yo'l va avtostrada qurishga ruxsat berilishini qat'iy talab qildi. Germaniya va Polsha munosabatlari keskinlashdi. Germaniya 1934 yilgi shartnomani bekor qildi. 1939 yil 22 mayda Germaniya va Italiya o'rtasida harbiy-siyosiy shartnoma («Po'lat ahd») imzolandi.

Germaniya va Italiyaning yangi agressiv harakatlari natijasida xalqaro munosabatlarda jiddiy inqiroz boshlandi. Yevropa urush yoqasiga kelib qoldi. 1939 yil 15 aprelda AQSH prezidenti Ruzvelt Gitler va Mussoliniga murojaat qilib, ularni Yevropa va Yaqin Sharq mamlakatlarining birontasiga ham hujum qilmaslik to'g'risidagi majburiyat olishga chaqirdi. Gitler va Mussolini bu talabni keskin suratda rad etdilar. G'arbiy Yevropa ikki qarama-qarshi harbiy-siyosiy blokka: Germaniya-Italiya blokiga va Angliya-Fransiya blokiga ajraldi.

1939 yil aprelda Angliya bilan Polsha o'rtasida Londonda o'zaro yordam to'g'risida deklaratsiya imzolandi. Fransiya Polsha bilan ilgari tuzilgan shartnomaga amal qilajagini bildirdi.

1939 yil martida SSSR Yeropada fashizm va urush xavfining g'oyatda kuchayib ketganligi tufayli, agressiyaga qarshi birgalikda harakat qilish masalalarini muhokama qilish uchun manfaatdor davlatlarning konferensiyasini chaqirib, muzokaralar boshlashni taklif etdi.

Angliya va Fransiyaning SSSR bilan muzokaralari 1939 yil mart oyidan avgustgacha davom etdi. Muzokaralar diplomatik yo'l bilan, so'ngra harbiy vakillar orqali olib borildi. Sovet rahbariyati Fransiya ham, Angliya ham kollektiv xavfsizlik tizimini tashkil qilish istagi va biror aniq dasturiga ega emasligiga qat'iy ishonch hosil qildi. Muzokarlarda hech qanday istiqbol ko'zga tashlanmadi. G'arb davlatlari Germaniya va Sovet Ittifoqini osongina urushtirib qo'yishi mumkin bo'lgan shartlarni ilgari surdilar.

Muzokarlarda Angliya va Fransiya tomoni AQShga tayanib teng munosabatdan va teng majburiyatlarni olishdan bosh tortib, qalloblik bilan ish ko'rdi.

SSSR bilan muzokaralar borayotgan choqda 1939 yil iyun-avgustida Angliya fashistlar Germaniyasi bilan yashirin muzokaralar (bosh ministr Chamberlen ko'rsatmasi asosida tashqi ishlar ministri Galifaks, savdo ishlari ministri Xadson va Chamberlenning maslahatchisi Garold Vilson bilan Gitlerning iqtisodiy ishlar maslahatchisi Voltat va Germaniyaning Londondagi elchisi Dirksen o'rtasida muzokaralar) olib bordi.

Sovet hukumati agressiya ro'y bergan taqdirda Angliya, Fransiya va Polshaga yordam ko'rsatish uchun sovet qo'shinlarining Polsha territoriyasi orqali o'tkazilishiga Polsha hukumatining rozilik berishi kerakligini bildirdi. SSSR Boltiq bo'yi mamlakatlarini ham garantiya qilishni talab etdi. Angliya va Fransiya bu takliflardan, o'zlariga majburiyat olishdan surbetlarcha bosh tortdi. Ularga suyangan Polsha hukumati esa, SSSR bilan hamkorlik qilmasligini, sovet qo'shinlarining Polsha hududiga kirishiga rozi emasligini bildirdi. Litva, Latviya va Estoniya hukumatlari ham garantiyadan bosh tortdilar.

SSSRning talabi bilan 1939 yil 12-21 avgustda Moskvada bo'lgan harbiy muzokarlarda ham Angliya va Fransiya SSSRning konkret takliflariga e'tibor bermadilar.

1939 yil avgustidagi Moskva muzokaralari Angliya-Fransiya tomonining aybi bilan boshi berk ko'chaga kirib qolgan va imperialistik davlatlar SSSRni yakkalantirib, fashistik Germaniyani unga qarshi qo'yish uchun zo'r berib urinayotgan bir vaqtda, SSSR siyosiy jihatdan batamom yakkalab qo'yilgan va SSSRga nisbatan ikki tomondan: G'arbda-Germaniya va Uzoq Sharqda Yaponiya tomonidan urush xavfi kuchayib ketgan bir paytda Sovet hukumati Gitler hukumatining SSSR bilan Germaniya o'rtasida o'zaro xujum qilmaslik ahdnomasi tuzish to'g'risidagi taklifini qabul qilmay iloji yo'q edi. 1939 yil 23 avgustda Moskvada SSSR bilan Germaniya o'rtasida o'zaro hujum qilishmaslik ahdnomasi tuzildi.

Bitimga muvofiq ikkala tomon bir-biriga qarshi hujum qilmaslik va agressiya uyushtirmaslik majburiyatini olardi: uchinchi davlat kelishuvchi tomonlardan biriga hujum qilgan taqdirda boshqa tomon hujum qilgan tomonni qo'llab-quvvatlamasligi lozim edi. Tomonlar davlatlarning kelishayotgan tomonlardan biriga qarshi ittifoqlariga qo'shilmaslik, o'rtalaridagi barcha bahslarni tinch yo'l bilan hal qilish majburiyatini oldilar.

Bitimning e'lon qilinmagan maxfiy bandlari Polshaning ikki davlat o'rtasida bo'lib olinishini ko'zda tutardi, Sovet Ittifoqiga Boltiqbo'yi mamlakatlari -Litva, Latviya, Estoniyani hamda Bessarabiyani qo'shib olishga ruxsat berardi. Bu hududlar oldin Rossiya imperiyasi tarkibiga kirgan bo'lib, Brest-Litovsk bitimiga ko'ra, undan zo'rlik bilan ajratib olingan edi. Ular sovet davlatining strategik xavfsizligi nuqtai nazaridan juda katta ahamiyatga ega edi, chunki

g'arbiy chegaralarni 400-500 km.ga nari siljitardi. Ular sovet-german urushida hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Gitlerchilar bu hududlarni bosib o'tish uchun 2-3 oy vaqt ichida Qizil armiya Sibirdagi zahiralarini G'arbgga tashlab ulgurdi.

G'arb davlatlari Myunxen siyosatining barbod bo'lishi Germaniya, Yaponiya va Italiya bloki bilan Angliya-Amerika Fransiya bloki o'rtasidagi ziddiyatlarni keskinlashtirib yubordi. Bu ziddiyatlar natijasida 1939 yil sentabr boshlarida G'arb davlatlari o'rtasida ikkinchi jahon urushi boshlandi.

Mavzu: IKKINCHI JAHON URUSHI BOSHLANISHI OLDDAN HARBIY KUCHLAR NISBATI. URUSHNING BOSHLANISHI VA TAVSIFI.

1-§. Urush boshlanishi oldidan fashistlar blokidagi davlatlarning harbiy kuchlar nisbati

Ikkinchi jahon urushi yaqinlashgan sari Gitler Germaniyasining urushga zo'r berib tayyerlanganligini ko'ramiz. 1939 yilning 30 avgustida Gitler imperiyani himoya qilish bo'yicha ministrlar kengashini tuzish to'g'risida dekret chiqardi. Yangi harbiy kabinetning qo'liga urush vaziyatida butun mamlakatning taqdiri topshirildi. Unga doimiy a'zolar etib, Gering (rais), Gess (portfelsiz ministr), Funk (iqtisod ministri), Frik (ichki ishlar ministri), Dammers (imperiya kanselariyasi boshlig'i) va Keytellar (qurolli kuchlar bosh qo'mondonligi shtabi boshlig'i) kiritildi.

Fashistik diktatura faoliyatida ayniqsa, milliy- sotsialistik partiya katta rol o'ynadi. Bu partiyaning a'zolari Gitlerga quyidagicha qasamyod qilardilar: «Men buzilmas sadoqat bilan Adolf Gitlerga so'zsiz itoat etishga qasamyod qilaman».

Fashistik partiya mamlakatda bir qator tashkilotlarning va uyushmalarning ustidan rahbarlik qilardi. Jumladan, shturmchi (SA) va soqchi qo'riqchi (SS) otryadlar, avtomobillarning milliy-sotsialistik ittifoqini, gitlerchi yoshlar tashkiloti, nemis talabalari va dotsentlarining milliy-sotsialistik ittifoqi, xotin-qizlarning milliy-sotsialistik jamiyati va boshqa shunga o'xshagan o'nlab tashkilotlarning ustidan nazorat qilar edi. Gitlerning 1937 yil oxiridagi bayonotiga qaraganda milliy-sotsialistik partiyaning a'zolari unga buysungan tashkilotlar, jamiyatlar va ittifoqlarning a'zolari bilan birga 25 mln kishiga yetgan edi.

Qurollanish uchun juda katta mablag' va ishchi kuchi kerak edi. Shuning uchun 1933-1939 yillarda harbiy xarajatlarga Reyxstagda Gitlerning aytgan so'ziga qaraganda 90 mlrd. marka mablag' sarflangan. G'arbiy Germaniyalik moliya ishlari mutaxassisi F.Federauning ma'lumotiga qaraganda 1933-1939 yillarda harbiy harajatlarga 60 mlrd. marka mablag' sarflangan.

1939 yilning iyunida Germaniyaning harbiy sanoatida (Avstriya va Sudet bilan birga) 2 mln. 400 ming kishi faoliyat ko'rsatar, bu esa ishchilarining 21,9%ini tashkil etardi.

G'arbiy Germaniyadagi iqtisodiy tadqiqotlar ilmiy-tekshirish institutining ma'lumotlariga qaraganda, 1933-1940 yillarda harbiy sanoat 10 marta, samolyotsozlik 23 marta o'sdi. Lekin baribir, 1939 yilda Germaniyaning harbiy sanoatida 631 ming ishchi kuchi yetishmasdi. Shuning uchun imperiyaning mehnat ministrligi ishga yaroqlilar hisobini olib chiqdi va 1939 yilning 23 iyunida aholini yoppasiga safarbar qilish masalasini ko'rdi. Imperiyaning mehnat ministri Gitlerga axborot berib, mamlakatda 43,5 mln. ishga yaroqli kishi borligini ma'lum qildi va shulardan vermaxtda (qurolli kuchlarda) 7 mln erkak va 250 ming ayolni, iqtisodiyotda va boshqa sohalarda 19,2 mln erkak va 17,1 mln ayolni ishlatish mumkinligi to'g'risida ko'rsatmalar berildi. Shunga o'xshash barcha urinishlarga qaramay, Germaniyaning moliyaviy ahvoli urush arafasida og'ir ahvolda edi. Uning tashqi qarzi 60 mlrd. markani tashkil etar edi.

Germaniya urushga tayyorlanar ekan, ayniqsa, o'zining quruqlikdagi qo'shinlari qudratini oshirishga harakat qildi.

Urush boshlanishi arafasida Germaniyada piyoda qo'shinlarda 2 mln 700 ming kishi, zahira armiyada esa 1 mln kishi bor edi. Ofitserlar korpusi 70524 kishini tashkil etib, shundan 21 ming 768 kishi safda, 48 ming 756 kishi zahirada edi.

Germaniyada harbiy havo kuchlarini kuchaytirishga ham katta e'tibor berildi. Urush boshlangan vaqtda Germaniyada 4093 ta samolyot bo'lib, 3646 tasi jangovor holatda edi, shundan 1176 tasi bombardimonchi (Xe 111, Do-17, YU-88), 517 ta sho'ng'uvchi bombardimonchi YU-87, 408 ta qiruvchi bombardimonchi Te-110; 771 ta qiruvchi samolyot, 40 ta shturmchi samolyot; 613 ta razvedkachi samolyot; 552 ta transport-samolyot va 16 ta gidrosamolyot bor edi. 1939 yil avgustida harbiy-havo kuchlarida 373 ming kishi bo'lib, shundan aviatsiya va havo-desanti qo'shinlarida 208 ming kishi, zenit artelleriya qo'shinlarida 107 ming kishi va havo-aloqa qo'shinlarida 58 ming kishi bor edi. Shulardan 20 ming kishi

uchuvchilar edi. Ofitserlar soni harbiy havo kuchlarida 1939 yili iyunida 12 ming kishidan 1939 yil avgustiga kelib 15 ming kishiga yetdi.

Urush boshlanganda Germaniyaning harbiy dengiz kuchlaridagi tayyorgarlik darajasi ancha past edi. M: u Angliya flotidan 7 marta, Fransiya flotidan 3 marta past darajada edi. Admiral Denits aytganidek, «Germaniya 1939 yilning yozida Angliya dengiz flotiga qarshi tura oladigan darajada kuchga ega bo'lgan harbiy dengiz flotiga ega emas edi».

Urush boshlanganda Germaniyaning harbiy dengiz flotida 150 ming 557 ta kishi va 107 ta harbiy kema bor edi. Shundan 2 ta linkor, 2 ta og'ir va 6 yengil keyser (tez yurar katta harbiy kema), 3 ta «kormanno'x» kreyser, 37 ta mina tashuvchi va joylashtiruvchi kema, 57 ta suv osti kemasi bor edi.

Italiyaning qurolli kuchlari ham uch xil bo'lib, piyoda, harbiy havo, harbiy dengiz kuchlaridan iborat edi. 1939 yil yozida Italiyaning qurolli kuchlarida hammasi bo'lib, 1 mln 753 ming kishi bor edi.

Quruqlikdagi qo'shinlar 88 ta diviziyadan iborat bo'lib, bulardan 450 ming kishi jangovor holatga keltirilgan edi.

Italiyaning harbiy havo kuchlarida urush arafasida 2802 ta harbiy samolyoti bo'lib, shundan 2132 tasi urush frontlarida edi.

Italiyaning harbiy dengiz kuchlari qudrat jihatidan Angliya va Fransiyadan keyin dunyoda 3-chi o'rinda turardi. Suv osti kemalari bo'yicha (105 ta) dunyoda 1-chi o'rinda turardi.

Urush boshlanganda Italiya dengiz flotida 4 linkor, 22 ta kreyser, 128 ta esminets va mina tashuvchi, 105 ta suv osti kemasi bor edi.

Yaponiyaning quruqlikdagi qo'shinlarida 1939 yil martida 1 mln 240 ming kishi bor edi. Jangovor harbiy diviziyalar soni 40 ta edi. Har bir diviziyada 13-16 ming kishi bo'lgan. 1000 ta samolyoti bo'lib, 44 ming kishi jalb qilingandi.

Harbiy dengiz flotida 1939 yilning oxirida 10 ta linkor, 6 ta avianosets 396 ta samolyoti bilan, 35 ta kreyser, 121 ta minonosets va 56 ta suv osti kemasi bor edi.

2-§. Fashizmga qarshi blokda davlatlarning harbiy kuchlar nisbati

1939 yilning mart-may oylarida so'ngra avgust oyida Angliya va Fransiyaning harbiy bosh shtablari agar Yevropada urush bo'lib qolsa birgalashib harakat qilish to'g'risida kelishib oldilar. Unda Angliya va Fransiyaning qurolli kuchlari urush bo'lib qolgan taqdirda bir qo'mondonlik ostida harbiy harakatlarni va operatsiyalarni birgalikda olib boradilar deyilgandi. Kelishuvga muvofiq Angliya qo'mondonligi harbiy dengiz flotida va aviatsiya qo'shinlarida dastlabki kundan boshlab faollik ko'rsatadi, hamda Fransiya 4 ta piyoda diviziyasini yuboradi deyilgandi. Fransiya esa quruqlikdagi qo'shinlarning asosiy qismini (100 ta diviziya) Yevropa urushi teatriga tashlashni o'z zimmasiga oldi. Shuning uchun ham quruqlikdagi qo'shinlarga qo'mondonlik Fransiya zimmasida bo'lib, Angliyaning ekspeditsion qo'shinlari unga bo'ysunadigan bo'ldi.

1939 yilning mayida Angliya-Polsha va Fransiya-Polsha o'rtasida harbiy muzokoralar bo'lib, Polshaga yordam ko'rsatish masalalari ko'rildi. 1939 yilning 25 avgustida imzolangan Angliya-Polsha o'rtasidagi o'zaro yordam shartnomasi, 4 sentabrda imzolangan Fransiya-Polsha shartnomasi Polshaning Angliya-Fransiya kaolitsiyasiga rasmiy ravishda qo'shilganligini bildirdi. Belgiya va Gollandiya betaraflik pozitsiyasida turdilar.

1939 yilning aprelida Angliya bilan Fransiya shunday kelishib oldilarki, «Agar dushman Gollandiya va Belgiyaga bostirib kirsas, Angliya bilan Fransiya dushmanning hujumini to'xtatishga harakat qiladi va o'zlarining ilgarilab borish frontini tuzadilar».

Agar Italiya Shimoliy Afrikada harbiy harakatlar boshlasa, Yevropadagi «muvaffaqiyatli mudofaa taktikasiga» zarar yetkazmay qarshi operatsiyalar o'tkazadilar deyilgandi.

Angliyaning qurolli kuchlari asosan quruqlikdagi qo'shinlari, harbiy havo qo'shinlari va harbiy dengiz qo'shinlaridan iborat qilib tuzilgandi. Doimiy harbiy qo'shinlar 18 yoshdan 25

yoshgacha bo'lgan ko'ngillilardan iborat bo'ldi. Qurolli qo'shinlar bosh qo'mondoni rasmiy ravishda qirol hisoblanib, amalda unga premyer-ministr bosh qo'mondonlik qildi.

1939 yilning iyulida metropoliyada majburiy harbiy xizmat to'g'risida qonun qabul qilindi, unga muvofiq 20 yoshga yetgan har bir erkak 6 oy davomida doimiy armiyada xizmat qilishi majbur qilib qo'yildi, keyin esa 3,5 yil davomida hududiy qo'shin tarkibida xizmat qiladigan bo'ldi.

II-jahon urushi boshida Angliyaning harbiy-dengiz flotida 7 ta avianosets, 79 ta kreyser, 184 ta esminets, 45 ta tralshik (dengizdagi minalarni topib zararsizlantiradi) va qirg'oq qo'riqchilari kemalari, 58 ta suv osti kemasi bor edi. Qirg'oq qo'mondonligi aviatsiyasida 232 ta jangovor samolyot bo'lib, ular 17 eskadriliyaga birlashgandi. 490 ta samolyot esa zahirada turardi.

Urush boshida Angliyaning harbiy havo kuchlarida 1456 ta jangovor samolyot bo'lib, shulardan 536 tasi bombardimonchi samolyotlar edi. 2000 ta samolyot esa zahirada turardi. Bundan tashqari, Angliyaning mustamlaka va dominionlarida ham 435 ta samolyot bor edi.

Angliyaning quruqlikdagi qo'shinlari 2 qismga bo'lingandi: Metropoliyadagi va Metropoliyadan tashqaridagi hududiy qo'shinlarga bo'lindi. Urush boshlangan vaqtda Angliya 9 ta doimiy va 16 ta hududiy diviziyaga, 8 ta piyoda, 2 ta otliq, 9 ta tank brigadalariga ega edi.

Fransiyaning ham qurolli qo'shinlari uch qismga: quruqlikdagi, harbiy-havo va harbiy-dengiz qismlariga bo'linardi.

Mamlakatda 20 ta harbiy okrug bo'lib, har birida 1-2 harakatdagi diviziyalar bor edi. Agar urush bo'lib qolsa, safarbarlik rejasiga ko'ra ushbu qo'shimlarning bazasida 80-100 ta diviziyalarni tuzish ko'zda tutilgandi. Fransiya qurolli qo'shinlarida 1939 yilga kelib 1 mln. kishi xizmat qilardi. Urush holati bo'lib qolsa, 6 mingga yaqindagi kishini safarbar qilish mumkin edi.

1 mln armiyadan quruqlikdagi qo'shinlarda 865 ming, (550 mingi metropoliyada, 199 mingi ekspeditsion armiya va 116 mingi koloniyalarda tuzilgan edi) harbiy havo qo'shinlarida 50 ming va harbiy-dengiz qo'shinlarida 90 ming kishi bor edi.

1939 yil avgust oxiriga kelib, qo'shimcha chaqiriqlardan keyin qo'shinlar soni 2 mln. 674 ming kishiga yetdi. Shundan 2 mln. 438 mingi quruqlikdagi 110 mingi harbiy-havo, 126 mingi harbiy-dengiz qo'shinlarida edi.

Mavjud Fransiya armiyasi texnik jihozlanishi va harbiy moharati jihatidan ancha qoloq edi.

Harbiy havo qo'shinlarida 3335 samolyot bo'lib, shundan 36%ni qiruvchi samolyotlar tashkil qilardi. 25%ni razvedkachi, 39%ni bombardimonchi samolyotlar tashkil qilardi.

Fransiya harbiy-dengiz floti 4-chi o'rinda turardi va uning tarkibida 7 ta liniya kemasi, 1 ta avianosets, 19 ta kreyser, 32 ta eskadron mina tashuvchi kema, 38 ta mina tashuvchi kema, 20 ta tralshiklar va 77 ta suv osti kemasi bor edi.

Urush arafasida Fransiya yuqorida ko'rsatilganidek salmoqli harbiy kuchga ega edi, biroq agressorni sharqqa, ya'ni SSSRga yo'naltirib yuborish uchun olib borilgan siyosat va o'ng kuchlarning fransuz millatiga nisbatan xiyonatkorona siyosat yuritishi, mamlakatni urushga tayyorlab borishning qoniqarsiz olib borilishi Fransiyaning 1940 yilgi fojiasiga olib keldi.

AQShning qurolli kuchlari quruqlikdagi qo'shinlarga va harbiy-dengiz qo'shinlariga bo'linardi. Harbiy-havo kuchlari va quruqlikdagi qo'shinlar tarkibiga kirardi.

AQSH qo'shinlarining soni 1939 yilda 544 ming 700 kishini tashkil etib, 190 ming kishi doimiy armiyada, 200 ming kishi milliy gvardiyada va 154,7 ming kishi harbiy-dengiz qo'shinlarida xizmat qilardi.

AQShning harbiy doktrinasiga muvofiq, harbiy-dengiz qo'shinlarini takomillashtirishga, uni yangi zamonaviy kemalar va avianosetslar bilan jihozlashga ko'proq e'tibor qaratildi. Urush boshlangan vaqtda AQShning harbiy-dengiz qo'shinlarida 300 dan ortiq jangovor kemalar bo'lib, shundan 15 tasi liniya kemalari, 5 tasi avianosets, 36 tasi kreyserlar, 181 tasi esminets, 99 tasi suv osti kemalari, 7 tasi kanoner (bir nechta o'rta kalibrli to'plar bilan qurollangan kichik kema) kemasi va 26 tasi mina topuvchi tralshik (dengizdagi minalarni topadigan va zararsizlantiradigan) kemalardan iborat edi. Harbiy dengiz kuchlari tarkibida 300 ta jangovor samolyotlar ham bor edi.

Harbiy-dengiz kuchlarining asosiy qismi Atlantika okeanining qirg'og'idagi Norfolkda, Tinch okean qirg'og'idagi San-Diyegoda va Gavay orollaridagi Pyorl-Xarborda joylashtirilgan edi.

Quruqlikdagi qo'shinlar tarkibiga kirgan harbiy-havo kuchlarida 1939 yili 1576 ta jangovor samolyot bor edi. Ikkinchi jahon urushi boshlanishi bilan samolyotsozlikka katta mablag' ajratildi va qisqa vaqt ichida harbiy samolyotlar soni 2 hissa oshdi. Tezkorlik bilan Panamada, Alyaskada, Puerto-Rikada va Gavay orollarida harbiy havo bazalari qurildi.

Polshaning qurolli kuchlari: quruqlikdagi qo'shinlar va harbiy - dengiz qo'shinlariga bo'lingan edi.

1939 yil 1 iyunda Polshaning qurolli kuchlari 439 ming 718 kishidan iborat bo'lib, shundan 418 ming 474 kishi quruqlikdagi qo'shinlarda, 12 ming 170 kishi aviatsiyada va 9074 kishi harbiy-dengiz qo'shinlarida xizmat qilardi. Zahira armiyada 1 mln 500 ming kishi bor edi. Armiyaning asosiy qismini (70% ni) dehqonlar tashkil etardi. Armiyaning 30-40% gachasini mayda millatlarning (ukrainlar, beloruslar, litvaliklar va boshqalarning) vakillari tashkil etardi. Armiyaning tashkilotchisi va rahbar kuchi-ofitserlar va unter-ofitserlarning hammasi hukmron millat vakillaridan edi.

1939 yil iyulida Polsha qurolli kuchlarida hammasi bo'lib, 887 ta yengil tank va tanketkalar, 100 ta zirhli avtomobil, 10 ta zirhli poyezd bor edi. 824 ta harbiy samolyot bo'lib, 6 ta aviatsiya polkiga, 2 ta alohida yengil samolyotlarda uchadigan batalyonga, 2 ta dengiz-havo kuchlari diviziyasiga bo'lingan edi.

Harbiy-dengiz kuchlari harbiy flotga va qirg'oqsoqchiligi qismlariga bo'linib, uning tarkibiga 4 ta eskadrilya mina tashuvchi kema, 5 ta suv osti kemasi, mina qo'yuvchi zagradingel (mina, sim va hokazodan to'siq quyuvchi harbiy kema) 6 ta tralshik va qirg'oq qo'ruvchi 8 ta batalyon kirgan edi. Polshaning qurolli kuchlari ko'pgina sohalar bo'yicha 1914 yilgi darajada turardi. Armiyani takomillashtirish ishi sekinlik bilan bordi. Umumiy safarbarlik faqat 1939 yilning 31 avgustida e'lon qilindi. 1939 yilning 1 sentabri ertalab Polsha quyidagi harbiy kuchlarga ega edi: 21 ta piyoda diviziya, 3 ta zahira diviziya, matorlashtirilgan brigada, 8 ta kavaleriya brigadasi, 3 ta tog'-o'qchi brigadasi, 56 ta milliy mudofaa batalyonlari va chegara qo'shinlari qismlari hamda dengiz qirg'oqlarini qo'riqlovchi soqchi qismlarga ega edi. Birinchi operativ eshelonda 840 ming soldat bor edi.

Polsha ko'proq Angliya va Fransiyaning madad berishiga tayanardi, ammo u o'ylaganday bo'lib chiqmadi va Germaniya tomonidan bo'lgan kuchli zarbaga bardosh berolmadi.

3-S. Urushning boshlanishi va tavsifi

Ikkinchi jahon urushini gitlerchilar Germaniyasi boshchiligida tajovuzkor guruhga birlashgan davlatlar tayyorlashdi va o't oldirishdi. O'z navbatida bu munosabatlar Versal tizimiga borib taqalar, u esa birinchi jahon urushida g'alaba qilgan va Germaniyani xo'rlangan holatga tushirib qo'ygan mustabid davlatlarning hukmronlik siyosati bilan bog'liq edi. O'shandayoq Germaniyada qasos olish g'oyasi paydo bo'lishga sharoit yaratilgan va Yevropa markazida militarizm o'chog'i paydo bo'lgan edi.

Germaniya imperializmi yangi moddiy-texnika bazasiga tayangan holda o'zining harbiy-iqtisodiy poydevorini qayta qurdi va kengaytirdi, bu borada unga g'arb mamlakatlarining yirik sanoat konsernlari va banklari madad berdi. Germaniyada va u bilan ittifoqchi bo'lgan davlatlar Italiya hamda Yaponiyada terrorchilik diktaturasi tantana qilib, irqchilik va shovinizm kuchayib borayotgan edi.

«Ikkinchi toifadagi» xalqlarni qirib tashlash va yo'qotish sari yo'naltirilgan gitlerchilar «reyx»ning bosqinchilik dasturida Polshani dunyo siyosiy xaritasidan yo'q qilish, Fransiyaning tor-mor etish, Angliyaning qit'ada siqib qo'yish, Yevropa xom ashyosiga ega bo'lish, keyin esa Sharqqa yurish qilib Sovet Ittifoqini yo'qotish va uning yerlarini egallab «yangi hayotiy zarur hudud»larni qo'lga kiritish kabi maqsadlar yotar edi. Rossiyaning iqtisodiy boyliklari ustidan nazorat o'rnatgach, Germaniya navbatdagi bosqinchilikni boshlashni o'ylar, nemis monopoliyasi

hukmronligini Osiyo, Afrika va Amerikaning bepoyon hududlariga yoyishni mo'ljallardi. Gitlerchilar Germaniyasi va uning ittifoqchilari tomonidan boshlangan urush boshidan oxirigacha imperialistik, bosqinchilik va adolatsizlikdan iborat bo'lgan urush edi.

Angliya va Fransiyaning burjua-demokratik rejimdagi hukumatlari g'arb jamiyatining an'anaviy qadriyatlarini saqlashni yoqlashsa-da natsizmning umumbashariyatga solayotgan xavf-xatarini tushunib yetmasdilar. Ular Germaniya va Yaponiyaning Sovet Ittifoqi bilan to'qnashuvi natijasida ularning holdan toyib, kuchsizlanishiga ro'y-rost ishonardilar. Ammo ular fashizm va militarizmni yo'q qilishni hayoliga ham keltirmas edilar. Ingliz va fransuz arboblari Sovet Ittifoqiga ishonchsizlik bilan qarab Germaniya hukumatining natsistik siyosati bilan Stalinning yakka hukmronlikka asoslangan totalitar siyosatini bir pog'onaga qo'yardilar. G'arb davlatlari hukumatlarining urush arafasi va boshlanishi paytidagi hatti-xarakatlari bu mamlakatlarning xalqlariga katta zarar yetkazdi.

1939 yil 31 avgust kuni kechqurun qurollangan SS chilar bir guruhi o'sha davrda Polsha bilan chegaradosh hisoblangan nemis shahri Gleyvits (Gliwice) radiostansiyasi joylashgan binoga bostirib kirdi. Mikrofon oldida bir qancha o'q otganlaridan so'ng, Germaniyaning Polshaga hujum qilishga murojaati polyak tilida o'qildi. Shunga o'xshash sun'iy ig'volar nemis va polyak chegaralarining bir qancha uchastkalarida ham uyushtirildi. «Ishonchli» bo'lishi uchun SSchilar polyak harbiy kiyimi kiygizilgan kishilarni otib tashladi. Bu kishilar soqchilar tomonidan konslagerlardan olib kelingan polyak mahbuslari edi. Tez orada Germaniya radiostansiyalari, polyak harbiylarning nemis chegaralariga hujum qilganligi to'g'risidagi shoshilinch xabar tarqatildi. Ashyoviy dalil sifatidan otib tashlangan «polyak harbiylari» ko'rsatildi.

Oradan ko'p o'tmay Oberzalsbergda Gitler o'z generallari bilan bo'lgan suhbatida surbetlarcha shunday deb bayonot berdi: «Men urushni boshlash uchun mafkuraviy sabab topib beraman. Bu sabab haqiqatga to'g'ri keladimi yoki yo'qmi, buning hech qanday ahamiyati yo'q. G'olibdan esa uning gapi to'g'ri yoki noto'g'riligini so'rashmaydi». Shunday qilib bu sun'iy ig'volar Gitler uchun bahona bo'lib xizmat qildi. Angliya va Fransiyaning Polshaga hech qanday yordam bermasligiga ishongan Germaniya 1939 yil 31 avgustda Dansigda harbiy to'ntarish qildi. 1939 yilning 1 sentabri soat 4 dan 45 minut o'tganda nemis-fashist aviatsiyasi Polshaning aerodromlarini, barcha aloqa nuqtalarini iqtisodiy va ma'muriy markazlarini qattiq bombardimon qildi. Quruqlikdagi qo'shinlari Shimoldan Sharqiy Prussiya orqali, G'arbdan Sharqiy Germaniya orqali va Janubdan Slovakiya orqali Polsha hududiga bostirib kirdi. Germaniyaning linkori «Shlezvig-Golshteyn» oldindan Polsha qirg'oqlariga yaqinlashib kelgan edi va u Vasterplyatt yarim oroliga qaratib o't ochdi. Germaniyaning Polshaga hujum qilishi bilan 2-chi jahon urushi boshlanib ketdi. Germaniya tashviqoti «urush Polshaning aybi bilan, ya'ni erkin shahar Dansigni Germaniyaga bermaganligi uchun, u yerdan Sharqiy Prussiyaga o'tish uchun magistral avtomobil yo'li va tor izli temir yo'l qurishga ruxsat bermaganligi uchun boshlandi» deb fashizm agressiyasini oqlashga va xaspo'shlashga zo'r berib urindi. Haqiqatda esa, urush Dansig uchun boshlanmagandi, bundan ko'zlangan maqsad fashistik Germaniyaning uzoq-uzoqlarga borib taqaladigan siyosiy va harbiy strategik rejalarini amalga oshirish edi.

«Gap Dansig ustida emas, bizning hayotiy manfaatlarimiz bo'lgan Germaniya chegarasini kengaytirish va ta'minlash ustida ketmoqda, gap Boltiq masalasini hal qilish ustida ketmoqda», - deb aytgan edi Gitler.

1939 yilning 1-sentabrida Chamberlen va Daladye hukumatlari Angliya, Fransiya, Germaniya, Italiya va Polsha vakillari ishtirokida konferensiya chaqirishga kelishib oldilar va Versal shartnomasini qayta ko'rib chiqishga rozi ekanliklarini Gitlerga bildirdilar. Angliya va Fransiya hukumatlari chaqirilajak konferensiyada Germaniyaga yon berishga rozi ekanliklarini bildirdilar. Bu safar ular Polsha hisobiga yon berishni va shu yo'l bilan o'zlariga bo'ladigan xavfning oldini olmoqchi bo'ldilar. Biroq, ularning bu safargi urinishlari befoyda ketdi. Gitler bunga rozi bo'lmadi. Gitler o'z ittifoqchilariga Chamberlen haqida gapirib: «Bu «soyabonli odam» mening huzurimga Berxtesgadenga kelishga jur'at qilib ko'rsin, men uni orqasiga tepki berib zinapoyadan tushurib yuboraman», - degan edi. Endi 3-chi reyx boshlig'ini «Yangi

Myunxen» shartlari hecham qoniqtirmas edi, u g'olibona urush olib borib Germaniyaning hukmronlik qudratini tiklash niyatida edi. Fashistik Germaniya Polshaga qarshi boshlangan urushni jahonga hukmronlik qilish uchun olib boriladigan urushning birinchi bosqichi deb hisobladi.

Ilgari Polshaga yordam qilish majburiyatini olgan Angliya va Fransiya hukumatlari Polshaga harbiy yordam ko'rsatish o'rniga Germaniya qo'shinlarining Polshadan olib chiqib ketilishini, urush harakatlarining to'xtatilishini «talab qildilar». 3 sentabrda bu talabni Germaniyaga qat'iy ravishda bayon qildilar. Germaniya bunga e'tibor bermagach, 3 sentabr soat 11 da Angliya hukumati Germaniyaga urush e'lon qildi, 6 soat o'tgandan keyin Fransiya ham Germaniyaga urush e'lon qildi. Angliyadan keyin Germaniyaga qarshi uning dominionlari ham urush e'lon qildi: 3 sentabrda Avstraliya va Yangi Zelandiya, 6 sentabrda Janubiy Afrika Ittifoqi, 10 sentabrda Kanada.

Ba'zi bir Yevropa davlatlari, shuningdek AQSH o'zlarining betarafliklarini e'lon qildilar. Italiya o'zini «urishmaydigan» mamlakat qilib ko'rsatdi. Biroq, u Germaniyaga ham siyosiy ham iqtisodiy jihatdan yordam berishga tayyor turar edi.

Angliya bilan Fransiya Polshaga yordam berish uchun yoki «fashizmga qarshi kurashish uchun» urush e'lon qilmadilar, ular Germaniya o'z kuch-qudratiga ishonib o'zining yaqindagi xomiylariga xavf sola boshlaganligi uchun ham urush e'lon qildilar.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, Germaniya barcha sohalar bo'yicha ustunlikka ega edi. Tanketka - pulemyotli tezyurar kichkina tank.

Polshaning ittifoqchilari G'arbda tez harakat qilmadilar, xolbuki ularning harbiy kuchlari Germaniyanikidan ustun darajada edi. M: Fransiya urush boshlanguncha o'z armiyasini maxfiy ravishda Germaniya chegaralariga olib kelib joylashtirgan edi. 10 sentabrga kelib ularning soni 90 ta harbiy tuzilmalarga yetgan edi. Fransiya armiyasi tanklar va artelleriya jihatidan ham Germaniyadan ustun edi.

General Golderning ma'lumoticha g'arbiy frontda nemis qo'mondonligi diviziyalar artelleriyasini qo'shib hisoblaganda 300 ta zambarak, to'p va artelleriya qurollariga ega edi. Xolbuki Fransiyani 1600 ta edi. Yana Fransuz armiyasida 2000 ta tank ham bor edi, nemis-fashist qo'shinlarida esa bitta ham tank yo'q edi.

Bundan tashqari g'arbiy frontda Angliyaning 1500 ta samolyoti, shundan 1144 tasi bombardimonchi va qiruvchi samolyotlar edi. Fransiya 1400 ta jangovor samolyotga ega edi.

Bu faktlar ittifoqchilarning g'arbda katta ustunlikka ega bo'lganligini, Germaniyaga qarshi salkam 3000 ta samolyotni qarshi tashlab, urushning borishini o'zgartirishlari mumkinligini ko'rsatadi. Aksincha, ular katta ustunlikka ega bo'lishiga qaramay, qo'l qovushtirib Polshaning taslim bo'lishini kutib turdilar.

Germaniya bosh qo'mondonligi shtabining boshlig'i general-feldmarshal V.Keytel: Agar Angliya va Fransiya hujum taktikasini qo'llaganlarida bormi, ularga qarshi arzimagan kuchimizni mudofaaga tashlashdan boshqa choramiz qolmagan bo'lardi», - degan edi., urushdan keyingi esdaliklarida.

1939 yilning 16 sentabrida Polsha hukumati mamlakat xalqini o'z holiga tashlab Ruminiyaga qochib o'tdi. Germaniya Polshaga hujum boshlaganda Sovet rahbariyati SSSRning «betarafligini» e'lon qilgan edi.

Keyinchalik nemis manbalaridan shu narsa ma'lum bo'ladiki, Berlin SSSRdan Polshaga qarshi harbiy harakatlarni boshlashni 1, 3, 5, 8, 12 sentabrlardagi notalarida talab qiladi. Shunday bir vaziyatda SSSR 1939 yil 23 avgust bitimining mahfiy bandlariga muvofiq 1939 yilning 17 sentabrida Polsha xududga bostirib kirdi va 12 kun ichida G'arbiy Belorussiya G'arbiy Ukrainaning 12 mln aholiga ega bo'lgan 190 ming kv kmlik hududini bosib oldi. Sovet tomoni G'arbiy Ukraina va G'arbiy Belorussiya aholisining hayoti va mulkini o'z himoyasiga olishda o'zini burchli sanadi. Moskvaning go'yoki Polsha davlati yo'q qilinganligini asoslovchi fikri xalqaro huquqqa zid kelardi, negakim, vaqtinchalik okkupatsiya biror-bir davlatning mutloq yo'qqa chiqarilishiga sabab bo'la olmas edi. Tarixiy manbalarga asoslanadigan bo'lsak, Sovet qo'shinlarining Polshaga bostirib kirishi to'qnashuvlarsiz bo'lmadi. Dastlab Lvov va Lyublyanke

hududlarida qurolli to'qnashuvlar sodir bo'ldi. Lekin bu to'qnashuvlar Germaniya va SSSR qo'shinlarining Brestda hamkorlikda o'tkazilgan harbiy paradiga xalaqit bera olmadi. Sovet Ittifoqining 1939 yil 17 sentabrda Polshaga taqdim etgan notasiga asosan, Polsha hukumati SSSR bilan urush holatida emasligini ma'lum qildi. 17 sentabrda hali Polsha hududini tark etmasdanoq Polsha qo'shinlarining bosh qo'mondoni marshall Ridz-Smigli qo'shinlariga quyidagi mazmunda buyruq bergan edi: «Sovetlar kirib kelishdi. Ruminiya va Vengriyaga eng yaqin yo'llar bilan tezlikda chekinishni buyuraman. Sovetlar bilan jang qilmanglar, faqatgina ular tomonidan tazyiq o'tkazilganda yoki harbiy qismlarimizni qurolsizlantirishga urinilgandagina jang qilishga ruxsat beriladi. Varshavani nemislardan himoya qilish vazifasi o'z kuchida qoladi. Sovetlar bilan to'qnash kelib qolgan otryadlar ular bilan tezlikda muzokoralar olib borsin. Muzokoralardan maqsad Vengriya yoki Ruminiya hududlariga yetib olish».

Xuddi shunday buyruqni Lvovning mudofaasiga boshchilik qilgan general V.Lyanger ham olgan edi: «Biz faqatgina Germaniya bilan urushayapmiz, bolsheviklar bundan mustasno. Agar Sovet qo'shinlari hujum qilishmasa, ularga qarshi o'q otilmasin». Polsha qo'shinlarining bir qismi Qizil Armiyaga o'z qurollarini topshirishgan bo'lsa, bir qismi harbiy xarakatlarni to'xtatishmadi. Sovet qo'shinlari Lvovga yetib kelgach general Lyanger ular bilan muzokoralar boshlab yubordi. Polshadagi so'nggi qarshilik janglari 2 oktabrda bo'ldi va bir oylik urushdan so'ng Polsha okkupatsiya qilib olindi. Polsha armiyasidan 66,3 ming kishi o'ldi, 133,7 ming kishi yarador bo'ldi. 420 mingga yaqin kishi asir olindi. Nemis fashistlar armiyasidan 10,6 ming o'ldi, 30,3 ming yarador bo'ldi va 3,4 ming kishi bedarak yo'qoldi.

Tashqi ishlar komissari V.M.Molotov 1939 yil 31 oktabrda Sovet qo'shinlaridan - 739 kishi halok bo'lganligi va 1862 kishi yarador bo'lganligi to'g'risida axborot berdi. Polyaklarning talofotlari esa aniq emas edi. Sovet matbuotida ko'rsatilgan ma'lumotlarga qaraganda, Ukraina fronti tomonidan 181 ming askar va 10 ming zobitlar qurolsizlantirildi. Belorussiya fronti bo'yicha bu ko'rsatkichlar e'lon qilinmagan edi. Polyak manbalarida esa bu ko'rsatkich, biroz ko'proq ko'rsatilgan: 230-250 ming kishi qurolsizlantirilgan (shularning ichida 10-12 ming zobit bor edi). G'arbiy Ukraina va G'arbiy Belorussiyada yashovchi aholiga mansub askarlar o'z uylariga tarqatib yuborildi. Qolganlar esa lagerlarga joylashtirildi. 1939 yil oktabr oyidan repatriatsiya (o'z vataniga qaytarish) boshlansada, bu Polsha armiyasining zobitlar tarkibiga, politsiya va jandarmeriyaning yuqori lavozimli kishilariga nisbatan qo'llanilmadi. Sovet qo'shinlari 1919 yilda belgilangan «Kerzon chizig'i» chegarasida to'xtadi. 1939 yil 28 sentabrda Moskvada SSSR va Germaniya o'rtasida do'stlik va chegara to'g'risida imzolangan shartnomaga muvofiq «har ikkala davlat manfaatlari» chegarasi Narev, San va G'arbiy Bug daryolari bo'ylab belgilandi. Polshaning katta hududi Germaniya tomonidan okkupatsiya qilindi. Ukraina va Belorussiya yerlari esa, SSSRga qo'shib olindi. Ikki davlat o'rtasida chegaralarning etnik bo'lib olinishining tan olinishi, xalqaro huquq normalarining qo'pol ravishda buzilganligini bildirardi. Keyingi manbalardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, kelishuvlar 1939 yil 23 avgustda imzolangan shartnomaning quyidagi yashirin protokollarida o'z aksini topgan edi.

1. Maxfiy protokol - Sovet davlati ixtiyoriga o'tadigan va uning manfaatlarini ifodalaydigan hududlardan nemis millatiga mansub bo'lgan kishilarning Germaniya hududlariga ko'chishiga, to'sqinlik qilmaslikka Sovet hukumati rozi bo'ldi. O'z navbatida, Germaniya hukumati ham Ukraina va Belorussiyaga nisbatan xuddi shunday majburiyatni o'z zimmasiga oldi. 2. Mahfiy protokol-Litva hududi SSSRning davlat manfaatlari doirasiga o'tdi. O'z navbatida, Germaniyaga Lyublin va Varshava voyevodinalari hududlari o'tdi. 3. Maxfiy qo'shimcha protokol-har ikkala davlat Polsha tomonidan o'zlarining manfaatlariga zid bo'lgan tashviqotlarning olib borilishiga yo'l qo'ymaslikka kelishib oldilar. Shunday qilib, Polsha Germaniya va SSSR tomonidan surbetlarcha taqsimlab olindi. 1939 yil sentabr oyida Polshaning mag'lubiyati polyak xalqi uchun eng fojeali voqea bo'ldi. 1939 yil 8 oktabrda fashist hukumatining Dekreti bilan 9,5 mln kishilik aholi yashaydigan hududni nemis o'lkalari deb e'lon qildi. Polshaning katta qismi 3- Reyxga qo'shib olindi. Polsha davlati endi yo'q edi. Sovet qo'shinlari uning taqdirida hech qanday o'rin tuta olmadi. Shu orada Sovet armiyasi tomonidan polyaklarning qurolsizlantirilgan, asirga olingan soldat va zobitlarining taqdiri to'g'risida

to'xtalib o'tsak. 1939 yil 17 sentabrda boshlangan xarakatlar natijasida, Sovet qo'shinlari tomonidan Polshaning bir necha ming sonli zobitlari qurolsizlantirildi va asirga olindi. Ularning ko'pchiligi o'qituvchi, shifokor va chegara xizmatchilariga mansub kishilar edi.

Beriyanning Stalinga bergan ma'lumotiga ko'ra, 1940 yilning mart oyida Sovet harbiy lagerlarida 14736 ta polyak mahbuslari bo'lganligini ko'ramiz. Bundan tashqari Ukraina va Belorussiyaning G'arbiy viloyatlaridagi qamoqxonalarda yana 10685 ta polyak harbiylari bor edi. Ruslarning polyak zobitlari saqlanayotgan yirik lagerlari Kozelsk, Ostashkov va Starobelskda joylashgan edi.

1940 yilning bahorida Polsha jamoatchiligi o'rtasida bu lagerlar yopilganligi va asirlar noma'lum yo'nalishga olib ketganligi haqida mish-mishlar tarqaldi. 1943 yilda Gitlerchilar Germaniyasi tomonidan okkupatsiya qilingan Smolenskka qarashli Katin o'rmonida polyaklarning ommaviy tarzda ko'milgan mozorlari topildi. Keyingi yillarda, NKVD va KGBga tegishli bo'lgan maxfiy xujjatlarda bu qirganbarotning Sovet hukumati tomonidan amalga oshirilganligi aniq bo'ldi. Stalin, Molotov, Voroshilov, Mikoyan, Kalinin Kaganovich va Beriylarning bevosita boshchiligida polyak harbiylaridan 21857 kishi otib tashlangan edi. Mana shu ma'lumotlarning o'zidan ham Sovet hukumatining bosqinchilikdan iborat bo'lgan tashqi siyosatini anglab olish qiyin edi.

1939 yil sentabridan 1940 yil apreligacha 7 oy davomida g'arbiy frontda faol urush harakatlari bo'lmadi, faqat dengizlardagina birmuncha urush harakatlari bo'lib turdi.

Angliya va Fransiya 1939 yil 3 sentabrda gitlerchilar Germaniyasiga urush e'lon qilgan vaqtida, Polshada urushning uchinchi kuni davom etmoqda edi. K.Klauzvetsning so'zlari bilan aytganda G'arb davlatlarining rahbarlari «qalamni qilichga» almashtirdi-yu, biroq bu qilich bilan dushman ko'ksiga zarba berishga shoshilmadi.

Barcha jangovor holatga keltirilgan harbiy qismlar chegaralarda o'z o'rnini egallab, biron-bir harbiy harakatga kirishmadilar. U.Churchill bu davrga quyidagicha izox berdi: «Gar frontdagi tinchlikni faqatgina ba'zida otilgan zambarak o'qlari-yu, razvedkachi patrullar buzishardi. Barcha davlatlarning armiyalari hech bir davlat tomonidan istilo qilinmayotgan zamin uzra bir-biriga qarab turishardi».

Fransiya jurnalisti Derjeles bu urushga «g'alati urush» nomini berdi va shundan so'ng bu davr chet el matbuotida «G'alati urush» deb atala boshladi. Churchill bu davrni «qosh qoraygan payt» (sumerki voyno') deb atadi. Germaniyada g'arbdagi urushni «zitskrig», ya'ni o'troq urush deb atashgan. Aslida bu urushda hech qanday g'alatilik yo'q edi, chunki Angliya va Fransiyaning Chamberlin va Daladye boshliq hukumatlari Germaniyaga nisbatan harbiy jihatdan ustun bo'lsalarda, Germaniyaga qarshi urush qilishni istamadilar. Chunonchi, 1939 yil sentabrda Germaniyaning hammasi bo'lib 105 diviziyasi, 4.400 samolyoti, 100 ta harbiy kemasi, Angliya va Fransiyaning esa birga qo'shib hisoblaganda 125 diviziyasi, 7300 samolyoti, 500 harbiy kemasi bor edi. Germaniya o'sha vaqtda urush qilishga to'la tayyor emas edi. Uning chegara istehkomini («zigfrid chizig'ini») yorib o'tish mumkin edi. Ammo, g'arb davlatlari yangi Myunxen siyosati bilan SSSRga qarshi til biriktirish mo'ljalida bo'ldilar. Fransiya va Italiya o'rtasida Germaniya bilan yarashish to'g'risida g'ayri rasmiy muzokoralar bo'ldi. 1939 yil 19 oktabrda Angliya va Fransiya Turkiya bilan Finlyandiya urushiga aralashdilar.

Germaniya Polshani bosib olgandan keyin o'zining agressiyasini G'arbiy Yevropaga qaratdi. G'arbiy Yevropadagi «g'alati urush»dan foydalanib, Gitler Germaniyasi o'z harbiy kuchlarini (135 ta piyoda askarlar diviziyasini, 10 ta tank diviziyasini, 4000 samolyotni) bimalol g'arbiy chegaralarga to'pladi va hujum rejalarini ishlab chiqdi. Gitlerchilar Germaniyasi Angliya va Fransiya davlatlarining antisovet qarashlari va qurolli kuchlarning harakatsizligidan juda ustamonlik bilan foydalandi. Fashistlarning tashviqot mashinasi vermaxt qurolli kuchlarining «yengilmasligi» to'g'risida afsonalar tarqatdilar. Shu bilan bir vaqtda Germaniyaning «tinchliksevarligi» va ittifoqchilar ko'z o'ngida antisovet fitnaga qatnashishi mumkinligi haqidagi fikrlar juda ko'p bor aytili.

1939 yil sentabr-oktabr oylarida Gitler bir necha bor Germaniya g'arb davlatlari bilan urushishni istamasligini va Fransiya chegarasini eng oxirgi nuqta deb hisoblashini ta'kidlab

o'tgan edi. Bundan tashqari, Angliya Germaniyaga birinchi jahon urushi davrida tortib olingan mustamlakalarini qaytarib berishiga umidvor ekanligini ham eslatib o'tdi.

Ammo, haqiqatda, ahvol boshqacha edi. 1939 yil 27 sentabrda Germaniya qurolli kuchlari bosh qo'mondonlari va shtab boshliqlarining Kengashida Gitler G'arbga hujum uyushtirish rejalarini tezkorlik bilan ishlab chiqishga farmoyish berdi. Urushdan maqsad, Angliyani tiz cho'ktirish va Fransiyaning tor-mor keltirishdan iborat edi.

1939 yil 9 oktabrda ishlab chiqilgan № 6 direktiva muhim ahamiyat kasb etdi. Vermaxt quruqlik qo'shinlarining Bosh qo'mondoni 1939 yil 19 oktabrda qo'shinlarning g'arbga hujum uyushtirishlarini ko'zda tutgan «Gelb (Sariq) operatsiyasi» nomli rejani o'z ichiga olgan direktivaga qo'l qo'ydi. Direktiva nemis qo'shinlarining g'arbiy frontning shimoliy yo'nalishi orqali Gollandiya, Belgiya, Lyuksemburg va Shimoliy Fransiya bostirib kirishni ko'zda tutgan edi. Ammo, hujumga yaxshi tayyorgarlik ko'rmaganlik, ob-havoning noqulayligi, g'alaba qozonishga to'la ishonchning yo'qligi sababli hujum 1940 yilning 29 martiga qoldirildi. Bu orada Germaniyada harbiy qurollar asosan tank, samolyot va og'ir artilleriya to'plari ishlab chiqarish keskin o'sdi. Qurolli kuchlarning tarkibi ham kuchaydi.

1940 yil bahorida Germaniya 156 diviziyaga, Angliya va Fransiya esa birgalikda 142 diviziyaga ega edi. 142 diviziyadan 102 tasi Germaniyaga qarshi qaratilgan edi. Gitler ham qat'iy va shiddatli harakat qildi. U G'arbda asta-sekin qurolli kuchlarni to'plab, 1940 yil bahorida Belgiya va Fransiya chegaralarida 135 dan ortiq diviziyaning jamladi, askarlar soni texnika va aviatsiyada sohasida juda katta ustunlikni qo'lga kiritdi. Biroq, Germaniya qo'mondonligi oldin Skandinaviyada harbiy-dengiz va havo bazalarini barpo etishga qaror qildi, chunki ulardan turib Angliya flotining faol harakatlariga qarshilik ko'rsatish mumkin edi.

1940 yil 1 martda Gitler Norvegiya va Daniyaning bosib olishni ko'zda tutgan «Vezeryubung» («Vezerdagi mashqlar») nomli harbiy rejani o'zida mujassam etgan direktivaga qo'l qo'ydi. «Vezeryubung» rejasiga ko'ra gitlerchilar havo va dengiz desant qo'shinlarini qo'llash orqali har ikkala davlatga bir vaqtning o'zida hujum qilmoqchi edi. Bu rejani amalga oshirish uchun mo'ljallangan quruqlikdagi qo'shinlar (9 ta diviziya va brigada) general N.Falkenxorst qo'mondonligidagi 21 armiya qo'shilmasiga birlashtirildi. Bu operatsiyani amalga oshirish uchun 96 ta harbiy va transport kemalari, 35 ta suv osti kemasidan tashkil topgan harbiy dengiz floti hamda 500 ta transport samolyotidan iborat 5-harbiy havo kuchlariga qarashli 10-aviatsiya korpusining ham qatnashishi mo'ljallangan. Bundan tashqari nemis fashist qo'mondonligi Germaniyaning Norvegiyadagi eski agenti Kvisling boshchiligidagi mahalliy fashistlarning ham yordamiga katta umid bog'ladi. Norvegiya qurolli kuchlari ancha kuchsiz edi. Jumladan, quruqlik qo'shinlari 150 ming kishidan iborat bo'lib, zahirada 100 ming kishi bor edi. Harbiy havo kuchlari eski rusumdagi 180 ta samolyotdan, harbiy dengiz kuchlari 4 ta og'ir kreiser, 30 ta mina tashuvchi 9 ta suv osti kemasi, 11 ta (minnix zagradyeyley) va bir necha 10 lab qo'shimcha kemalardan iborat edi.

1940 yil aprel-mayida Germaniya shimoliy va g'arbiy Yevropada shiddatli operatsiyalarini boshlab yubordi.

1940 yil 9 aprelda «Vezeryubung» operatsiyasi boshlandi, biroq qo'shinlari qarshilikka duch kelmay mamlakat ichkariga shiddat bilan kirib bora boshladi. Shu bilan bir vaqtda nemislarning dengiz desanti Zeyeland, Fyunen va Falster orollariga tushirildi.

Daniya qiroli Kristian X tomonidan chaqirilgan kengashda nemislarga qarshilik ko'rsatmaslik va taslim bo'lish haqidagi qaror qabul qilindi. Daniya qisqa vaqt ichida taslim bo'ldi, biroq Norvegiya qarshilik ko'rsatishni davom ettirdi. Skandinaviya yarim orolining bosib olinishi natijasida nemislar juda muhim strategik punktga ega bo'lishini anglagan Angliya va Fransiya qo'shinlari harakatga kela boshladilar. 14 aprelda 24 ingliz piyoda brigadasi Narvikka kelib tushdi. Bundan tashqari inglizlarning 146-piyoda brigadasi, fransuzlarning 5-brigadalari ham yordamga yetib kelishdi. Ammo nemislarning 10 mayda boshlagan hujumlari tufayli, ittifoqchi qo'shinlar o'z hududlarini himoya qilish maqsadida olib ketildi. Nemislar tomonidan Tronxeyn va Norvikda harbiy bazalar barpo etildi. Ularda Germaniya dengiz flotining asosiy qo'shilmalari haqida suv osti flotining asosiy qismi jamlandi. Bundan tashqari, Bergen va

Tronxeynda harbiy-havo bazalari barpo etildi. Angliya bilan Fransiya Norvegiyaga yordam berishni va'da qilsada, biroq ular amaliy yordam qilmadilar. Norvegiya ham taslim bo'lgandan keyin Germaniya g'arbga qarab yurishini betaraf davlatlar territoriyasidan boshlamoqchi bo'ldi. Buning uchun u provakatsiya ishlatdi. Fashistlar samolyoti Germaniyaning shahri Freyburgga qarab uchish qildi. Germaniya bu uchishni Belgiya, Gollandiya va Lyuksemburg aviatsiyasiga to'nkadi va fashistik hukumat 40-yilning 10 mayida bu davlatlarga bostirib kirish to'g'risida buyruq berdi. Bir vaqtning o'zida Fransiya ham hujum boshlandi.

1940 yil 10 mayda bu uch davlatni tor-mor keltirishni ko'zda tutuvchi «Gelb» operatsiyasi boshlandi. «G'alati urush»(1939 yil sentabr - 1940 yil may)davri tugadi. Nemis qo'shinlarining bosqini Gollandiya, Belgiya, Lyuksemburg va Fransiyaning aerodromlari, qo'mondonlik punktlari, harbiy omborlari va muhim sanoat markazlariga kuchli havo hujumi bilan boshlandi. 14 mayda Gollandiya taslim bo'ldi. Angliya-Fransiya va Belgiyaning katta harbiy kuchlari nemis qo'shinlari tomonidan dengizga Dyunkerk yaqinida qisib qo'yildi. Faqat ularning bir qismi Britaniya orollariga evakuatsiya qilindi, 28 mayda Belgiya taslim bo'ldi.

Dengiz bo'yidagi ittifoqchilar qo'lida bo'lgan so'nggi yirik port Dyunkerk xavf ostida qoldi. Angliya qo'mondonligi o'z qo'shinlari va Belgiya-Fransiya qismlarini evakuatsiya qilishga qaror qildi. 1940 yil 4 iyungacha davom etgan Dyunkerk operatsiyasi davomida 338000 ga yaqin kishi, shu jumladan 123 ming fransuz va belgiyaliklar olib chiqib ketildi. Bor og'ir harbiy texnika evakuatsiya hududiga tashlab ketildi va gitlerchilarning qo'liga tushdi. Angliyaliklar evakuatsiya davrida 224 ta kema va transport (sudna), hamda 106 ta samolyotdan ajralib qoldi.

Vermaxtning g'arbiy Yevropadagi birinchi harbiy operatsiyasi mana shunday tugadi. Unga ko'ra, gitlerchilar Gollandiya va Belgiyaning harbiy kuchlarini taslim ettirdi va 28 ta fransuz diviziyasini tor-mor keltirdi.

Nemis-fashist qo'shinlari Fransiyaning shimoldagi qo'shinlariga ketma-ket zarbalar berib, Fransiya shimolidan janub va janubi-g'arbiy tomonlarga kirib bordilar. Fransiyaning asosiy harbiy kuchlari Fransiya-Germaniya chegarasida, «Mojino chizig'i»da qolib ketaverdi.

5 iyunda Germaniya Parij tomon hujum boshladi, 10 iyunda Italiya ham Angliya bilan Fransiya urush e'lon qildi. Fransiya hukumati nemis-fashist qo'shinlariga qat'iylik bilan qarshi chiqolmadi va u Parijdan Tur shahriga qochib o'tdi. Fransiya armiyasining bosh qo'mondoni Veygan yarashish taklifini kiritdi. Biroq, Parij nemislar tomonidan 14 iyunda ishg'ol qilindi. Parij olingandan keyin, Fransiya hukumati Bardo shahriga qochib o'tdi va 17 iyunda Fransiya premer ministri Peten Germaniya hukumatiga juda og'ir majburiyatlar va shartlar bilan bo'lsa ham yarashishni iltimos qildi. 19 iyunda Fransiyaning 10-armiyasi harbiy harakatlarini to'xtatdi.

1940 yilning 22 iyuni soat 18 dan 32 minut o'tganda Fransiya hukumati nomidan general Xontsiger so'zsiz taslim bo'lish aktiga imzo chekdi. 1918 yilning 11 noyabridagi holat qaytarildi. Marshal Foshning vagoni muzeydan Kompen o'rmoniga olib borildi. Bu marosimda Gitlerning o'zi ham qatnashdi. Germaniya tomonidan aktga Keytel imzo chekdi. Germaniya Fransiyaning butun Shimoliy qismini va Atlantika okeaniga tutashgan barcha qirg'oqlarini ishg'ol qildi.

Ishg'ol qilinmagan qismi Germaniyaga vassal bo'lib qoldi va xom ashyo, oziq-ovqat hamda ishchi kuchi yetkazib berib turadigan bo'ldi. Yarashishga binoan Fransiyaning harbiy-dengiz va harbiy-havo floti qurolsizlantirildi, ammo Germaniyaning ixtiyoriga berilmadi. Germaniya bilan kelishuvga va yarashishga muvofiq Fransiyaning ba'zi bir hududlari demilitarizatsiya qilindi, ya'ni qurolsizlantirildi va harbiy sanoatdan mahrum qilindi.

Fransiyaning tor-mor keltirilishi Yevropa davlatlarining urush boshlashishi arafasidagi Germaniyaga qarshi koalitsiyasi barbod bo'lganligini bildirardi. Angliya va Fransiya hukumatlarining Myunxen bitimi bo'yicha qilgan harakatlari, ularning natsistlar agressiyasiga qarshi kurashda xalq ommasiga tayanishni istamasligi, ittifoqchilar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarning mavjudligi, strategiyaning sustkashligi - bularning barchasi ingliz-fransuz ittifoqi halokatining asosiy sabablaridir. SSSRning navbatdagi bosqinchilik rejasi Boltiq bo'yi

respublikalariga qaratildi. SSSR 28 sentabrda Estoniya bilan, 5 oktabrda Latviya bilan va 10 oktabrda Litva bilan tazyiq o'tkazish yo'li orqali o'zaro yordam ahdomalarini imzoladilar.

Kelishuvlarga ko'ra, Sovet Ittifoqi Estoniya va Latviya hududlarida harbiy dengiz bazalari va aerodromlar qurish, Litva hududining ma'lum joylarida piyoda qo'shinlar va harbiy-havo kuchlarini saqlash huquqini qo'lga kiritdi. Litva bilan bitimga ko'ra Sovet Ittifoqi Litva respublikasiga uning 1920 yilda Polsha qo'shinlari tomonidan bosib olingan qadimiy poytaxti Vilnyusni va Vilnyus viloyatini topshirdi.

Biroq bu bilan SSSR qanoatlanib qolmadi, bu respublikalarni SSSR tarkibiga qo'shib olish uning maqsadi bo'lganligi uchun 1940 yilning 14-16 iyunida Sovet hukumati Boltiq bo'yi mamlakatlari hukumatlaridan o'zaro yordam shartnomalariga amal qilishni talab etdi, hamda antisovet ig'volarga yo'l qo'ymaslik uchun bu mamlakatlar hududiga Sovet harbiy qismlarini kiritdi. 1940 yilning yozida bu respublikalarda sun'iy ravishda «sotsialistik inqiloblari» amalga oshirildi va avgust oyi boshida SSSR tarkibga olindi.

Sovet hukumati 1939 yil kuzidan Finlyandiya xalqaro reaksiya kuchlarining SSSRga qarshi platsdarmiga aylanib qolgan, Finlyandiya tomonidan SSSRning shimoliy chegaralariga, xususan chegaradan 32 km berida bo'lgan Leningradga, shuningdek, Kronshtadt va Murmanskka xavf solinmoqda, Kareliya bo'yida g'arb davlatlarining yordami bilan kuchli harbiy istehkomlar («Mannerleym chizig'i») qurilgan va fin armiyasi eng yangi qurollar bilan qurollanib, SSSRga qarshi urushga tayyorlanmoqda degan bahonalar bilan Finlyandiyaga qarshi kompaniyani boshlab yubordi. Sovet hukumati 1939 yilning oktabr-noyabr oylarida Finlyandiya hukumatiga dastlab yordam aktini tuzishni, so'ngra Leningrad va Murmansk temir yo'li xavfsizligini ta'minlash choralarini ko'rishni (Karelya bo'yidagi hududning bir qismini SSSRga berishni, Fin ko'rfaziga kirishga yaqin joyda harbiy-dengiz bazasi uchun ijaraga kichik hudud berilishini) talab qildi va bu masalalar yuzasidan Moskvada muzokoralar olib borildi. Finlyandiya hukumati SSSRning zo'ravonlikka asoslangan talablariga ko'nmasi va o'z chegarasi bo'ylab umumiy safarbarlik e'lon qildi. 1939 yilning 29 noyabrida Sovet hukumati Finlyandiya bilan diplomatik aloqani uzishga va o'z qo'shinlariga chegaradan o'tishga buyruq berdi. Urush harakatlari 30 noyabrda boshlandi. Sovet-Finlyandiya urushi (1939 yil 30 noyabr-1940 yil mart)da Angliya Finlyandiyaga 101 samolyot, 200 dan oshiq to'p, bir necha yuz ming snaryad, aviabomba va tankka qarshi minalar; Fransiya esa 175 samolyot, 500 ga yaqin to'p, 5 mingdan ortiq pulemyot, 1 mingga yaqin snaryad, qo'l granatasi va boshqalar yetkazib berdi. AQSH esa Finlyandiyaga 30 mln dollar xajmda ikki marta zayom berib, harbiy materiallar yubordi. Guver boshchiligida AQSHda «Finlyandiyaga yordam komiteti» tuzildi. Bunday komitetlar Angliya va Fransiyada ham tuzildi. Bulardan tashqari 1940 yil bahorida Finlyandiyaga Angliyadan yana 100 samolyot, Fransiyadan 50 ming kishilik ekspeditsion armiyani yuborish mo'ljallandi. SSSR agressorlikda ayblanib 1939 yilning dekabrida Millatlar ittifoqidan chiqarildi. Shvetsiya hukumati urushning Skandinaviyaga yoyilib ketishidan xavfsirab ikki o'rtada vositachilik rolini o'ynadi. 2-3 haftaga mo'ljallangan urush 105 kunga cho'zilib ketdi. Uzoq tortishuvlardan so'ng 1940 yilning 12 martida SSSR bilan Finlyandiya o'rtasida Moskvada sulh shartnomasi tuzildi va yangi chegara chizig'i belgilandi. Leningrad, Murmansk va Murmansk temir yo'lining xavfsizligi ta'minlandi. Finlyandiyaning Xanko Yarim oroli va unga yondosh orollar 30 yil muddat bilan SSSRga ijaraga berildi va u harbiy bazaga aylantirildi. SSSR hududi tarkibiga Vo'borg shahri, Vo'borg ko'rfazi va orollari bilan Kareliya bo'yni, Ladoga ko'lining Shimoliy va G'arbiy qirg'oqlari, Kandalakshining g'arbiy qismi, Barents dengizi bo'yidagi Ribachiy va Sredniy yarim orollarining g'arbiy qismi qo'shildi. Chegara Kareliya bo'ynidan 120 km shimolga surildi. Shartnomaga ko'ra har ikkala tomon ham bir-biriga hujum qilmaslik, bir-birlariga qarshi ittifoqlarga qo'shilmaslik majburiyatlarini oldilar. Finlyandiya SSSRga o'tgan yerlar o'sha vaqtda tashkil topgan Karelo-Fin Sovet Sotsialistik Respublikasining bir qismini tashkil etdi.

1940 yilning iyni oxirida 1918 yil yanvaridan beri burjua Ruminiyasi qo'lida qolib kelayotgan Bessarabiya masalasini hal qilish kerak edi. Bu masala tinchlik yo'li bilan hal qilindi. 1940 yilning 28 iyunida Bessarabiya va Shimoliy Bukovina Ruminiyadan olindi. Shimoliy

Bukovina va Bessarabiyaning janubiy rayonlari Ukrainaga qo'shildi. Bessarabiya esa Moldaviya ASSRga qo'shib, u 1940 yilning avgusti boshida Moldaviya SSRga aylantirildi.

Shunday qilib, mustabid Sovet tuzimi davrida «Sovet chegaralarining mustahkamlanishi» deb nomlangan bosqinchilik tadbirlari SSSR tomonidan shu tariqa amalga oshirildi.

1940 yil yozi o'rtalarigacha nemis-fashistlar Norvegiya, Daniya, markaziy va shimoli-g'arbiy Yevropadagi davlatlar ustidan o'z hukmronligini o'rnatib bo'lgan edi va shu bilan bir qatorda strategik mavqei ham oshib bordi. G'arbiy Yevropadagi hujum davomida vermaxt qo'shinlari katta harbiy tajriba to'pladi. Yengil g'alabalardan sarmast bo'lgan nemis-fashist hukumatining rahbariyati Sovet Ittifoqiga urush boshlash imkoni paydo bo'ldi deb baholay boshlashdi. Buning uchun esa G'arbiy Yevropada to'la hukmronlikni qo'lga kiritish, Angliyani tor-mor keltirish kerak edi. Germaniya ixtiyorida endi urushni g'alaba bilan tugallash uchun manba yetarli edi. 1940 yil 16 iyulda Oliy qo'mondonlikning «Zeyeleve» («Dengiz sheri») nomli desant tashlash operatsiyasini tayyorlash to'g'risidagi direktivani e'lon qilishdi. Operatsiya 1940 yil 15 avgustga belgilangan edi, biroq, u Angliya floti yaqqol ustunlikka ega bo'lgani uchun, amalga oshmay qoldi. Bundan tashqari, gitlerchilarga Angliya osmonida ustunlikka erishish imkoni bo'lmadi. Nemis-fashist qo'shinlarini La-Mansh orqali Buyuk Britaniya orollariga olib borish uchun vositalari ham yetishmas edi. Xullas, bu reja qog'ozda qolib ketdi va Angliyani vahimaga solish vositalaridan biri bo'lib xizmat qildi.

Fashist rahbariyati Britaniya orollarini surunkali bombardimon qilishni boshlab, shu yo'l bilan Angliya hukumatini taslim bo'lishga majbur qilishni ko'zladi. Germaniya Lyuft Vaffet qo'mondonligidagi G.Gering o'z aviatsiyasining imkoniyatlarini juda yuqori baholadi.

1940 yil avgust oyida inglizlar havo hujumidagi mudofaa tizimini ancha mustahkamlashga erishdilar. Dushmanga qarshi turish uchun 4 ta aviatsiya guruhlarini tashkil etildi. Avia guruhlarini birlashtirgan, qiruvchilar qo'mondonligi ixtiyorida 700 ta jangovor samolyot 290 ta zahira samolyot ham bor edi. Bundan tashqari, Angliyaning Germaniyaga qarshi hujumlar uyushtira olish imkoniyatiga ega bo'lgan 430 ta bombardimonchi jangovor samolyotlari ham bor edi.

Angliya havo hujumidan mudofaa tizimi 2000 ga yaqin zenit artilleriya to'plari bilan qurollangan bo'lib, radarlar dushman samolyotlarini 160 km masofadan aniqlab olish imkoniyatiga ega edi.

Nemis qo'mondonligi yirik havo bosqinida qatnashish uchun ikkita harbiy-havo flotini jalb qildi. 1480 ta bombardimonchi, 980 ta qiruvchi va 140 ta razvedka bilan shug'ullanuvchi samolyotlar hujum uchun shay qilib qo'yildi. Xujum 1940 yil 13 avgustda yirik havo bosqini bilan boshlanib, unda 800 ta bombardimonchi va 1140 qiruvchi samolyotlar qatnashdi. O'sha kuni Angliyaning Janubi-Sharqiy hududlaridagi aerodromlar va radiolokatsion stansiyalar bombardimon qilindi. Keyingi kunlarda, deyarli har kuni Britaniya orollarini 1500 ga yaqin samolyot bombardimon qilardi.

Havoda ustunlikka erishish uchun olib borilgan janglar 7 sentabrigacha davom etdi. Endilikda har kuni 1000 ga yaqin jangovor samolyotlar Britaniya orollarini bombardimon qilardi. Ammo, ingliz uchuvchi va zenitchilarining mardonavor kurashlari tufayli, nemislar ham katta talofatlar ko'rishga majbur bo'lar edi. Britaniya orollarining mudofaasida polyak va chex uchuvchilari ham faol qatnashdi. Sentabr oyining boshlariga kelganda, nemis fashist qo'shinlarining qo'mondonligi, ingliz aviatsiyasini tor-mor keltirish va osmonda ustunlikka ega bo'lish uchun qilingan harbiy harakatlar muvaffaqiyatsiz chiqqanligiga amin bo'ldi. Nemis aviatsiyasining keyingi harbiy harakatlari rejasi keskin o'zgartirildi; 5 sentabrda harbiy-havo flotlari endilikda havo xujumlarini aviatsiya inshootlariga emas, balki yirik shaharlarga yo'naltirish to'g'risidagi buyruqni oldi. Asosan, yirik sanoat va ma'muriy markazlar London, Koventri, Birmingem va boshqa shaharlar 7 sentabrdan noyabr oyining o'rtalarigacha surunkali havo hujumlariga duchor bo'ldi. Masalan, 15 sentabrda birgina London shahrini 1000 ga yaqin jangovor samolyotlar bombardimon qildi. Shahar ko'chalari va maydonlarida kuniga minglab bombalar portlar edi. Minglab tinch aholi halok bo'ldi.

Noyabr oyining o'rtalaridan boshlab gitlerchilar aviatsiyasining asosiy yo'nalishlari Londondan, yirik iqtisodiy va port shaharlarga qaratildi. Bundan maqsad Angliyaning harbiy sanoat bazasi va savdo flotini zaiflashtirishdan iborat edi. 1940 yil noyabr oyining o'rtalaridan 1941 yil fevral oyining o'rtalarigacha havo hujumlari natijasida Angliyada ko'plab turar joy binolari vayron etildi, 40 mingga yaqin kishi halok bo'ldi va 46000 ga yaqin kishi yaralandi. 15 noyabr kuni tunda uyushtirilgan havo hujumi natijasida, yirik sanoat shaharlaridan hisoblangan Konventri yer bilan yakson qilindi. 1941 yil mayigacha 190 mingga yaqin bomba tashlandi. Biroq, Gitler rahbariyatining havo urushi yo'li bilan Angliya qarshiligini yengish borasidagi strategik rejasi puch bo'lib chiqdi.

Angliya jang qilishni bilardi. Xalqning ma'naviy ruhi sinmadi, urushni g'alabagacha yetkazish niyati yanada qat'iylashdi. Angliya havo xujumidan mudofaa tizimi ixtiyoridagi keng tarmoqli radiolokatsiya tarmoqlari juda katta foyda keltirdi. Lyuft Vaffet qo'mondonligining qo'qqisidan qilingan hujumlar bilan shoshirish rejasi chippakka chiqdi. Germaniya aviatsiyasi endi har bir hujumda 10-15 samolyot yo'qotardi. Umuman, Angliyaga nisbatan uyushtirilgan havo hujumlari tufayli, nemislar 1700 (203 tasi polyak uchuvlari va 71 tasi chex uchuvchilari tomonidan urib tushirildi) inglizlar esa 900 ta samolyotidan ajraldi. Angliya Germaniya aviatsiyasining buyuk qudrati haqidagi afsonasini yo'qqa chiqardi.

Gitler Germaniyasi havodan hujum qilish va harbiy vahimalarni tarqatish asosida Angliya bilan kelishib olishga va uni o'z siyosatiga itoat ettirishga erishmoqchi bo'ldi. Biroq ingliz xalqining antifashistik kayfiyati kuchli edi, Cherchill hukumati jamoatchilik fikri bilan hisoblashishga majbur bo'ldi va Angliyaning milliy mustaqilligi uchun kurash olib bordi. Angliya hukumati Germaniyaga tobe holda u bilan ittifoqchi bo'lishni xohlamas edi. Gitler esa o'zining asosiy kuchini SSSRga qarshi urushga saqlab turganligi uchun La-Manshdan o'tishga botinolmadi.

4-§. 1939 yil 23-avgust bitimi va Sovet-Germaniya iqtisodiy aloqalari. Urushning birinchi davridagi harbiy harakatlar

1939 yil 23 avgustda Germaniya va SSSR o'rtasida hujum qilmaslik to'g'risida tuzilgan bitim har ikki davlat uchun ham katta ahamiyat kasb etdi. Germaniya ham Sovet ittifoqi ham bitimdan imkon qadar foydalanishga urindilar. 1939 yil 19 avgustda sovet-german kredit shartnomasi tuzildi. Unga ko'ra SSSR imtiyozli shartlarda 2 yil muddatga 200 mln marka kredit olib, eng zamonaviy uskunalarni Germaniya korxonalarida ishlab chiqarish uchun buyurtma berish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bunga javoban Germaniya SSSRdan 180 mln. marka miqdorida xom ashyo olishga ega bo'lish, Uzoq Sharqdan 50 %li chegirma bilan tranzit mahsulotlarini olish huquqini qo'lga kiritdi. 1940 yil ikki davlat o'rtasida 1942 yil 1 avgustgacha bo'lgan muddatga 600-700 mln. markacha miqdorida bo'lgan xo'jalik shartnomasi imzolandi. Ushbu shartnomaning SSSR uchun katta ahamiyati bor edi. Chunki o'sha paytda SSSRning Finlyadiya bilan olib borayotgan urushi tufayli u Angliya va Fransiya bilan ham to'qnashuv chegarasida turgan edi. Ular SSSRga «iqtisodiy urush» e'lon qilishgan edi. Bu shartnomaga ko'ra Germaniya Sovet Ittifoqiga sanoat ashyolari, uskuna va qurol-aslaha yetkazib berdi. Xususan, Germaniya tomoni «Xeynkel-100», «Missershmidt-109 va 110», «Yunkers-88», «Dorno'ye-215», «Vyukker-131», «Byukner-133», «Fokke-Vulf-58» rusumli eng zamonaviy samolyotlarini taqdim etdi. Barcha samolyotlar qurol-aslaha bilan to'liq jixozlangan edi. Gitler eng yangi qurol-aslaha namunalarini berishga cho'chimadi, chunki Sovet mutaxassislari ularni ishlab chiqarish sirlarini egallay olmaydilar deb ishonardi. Biroq, fashistlar dohiysi adashdi. Germaniyaning har bir turdagi samolyotlaridan 2 dan 5 tagachasi sovet konstruktorlari va harbiy uchuvchilari tomonidan o'rganib chiqildi, bu esa SSSRda samolyotsozlik sanoatining taraqqiy etishida katta ahamiyat kasb etdi. 1940 yil may-noyabr oylarida SSSRda Germaniyaning harbiy texnikasi puxta o'rganildi. Harbiy texnikani o'rganish uchun 21 ta zavodning konstruktorlari va injenerlari, 3 ta konstruktorlik byurosi, va harbiy-havo kuchlari vakillaridan 3500 ga yaqin kishi

jalb qilindi. Natijada 1941 yil o'rtalariga kelib sovet harbiy zavodlarida nemis harbiy texnikasidan bir necha baravar kuchli qurol-aslahalarni ishlab chiqara boshladi.

1941 yil 10 yanvarda SSSR bilan Germaniya o'rtasida kengaytirilgan xo'jalik shartnomasi imzolandi. Unga ko'ra SSSRga sanoat uskunalarining oqimi kela boshladi. 1940 yil 11 fevralda imzolangan shartnomaga asosan SSSR Germaniyaga 12 oy ichida 500 mln marka miqdorida, 1939 yil 19 avgustdagi savdo-kredit shartnomasida ko'zda tutilgan 500 mln. markalik xom ashyo mahsulotlariga qo'shimcha tarzda 100 mln. marka miqdorida xom ashyo yetkazib berish majburiyatini oldi. Jumladan, SSSR Germaniyaga 1 mln. tonna miqdorida boshqoqli ozuqa mahsulotlari (120 mln. marka), 900 ming tonna neft (115 mln. marka), 500 ming tonna fosfat, 100 ming tonna xrom rudasi, 500 ming tonna temir rudasi, 300 ming tonna cho'yan va temir parchalari, 2400 kg platina, shu bilan birga ozroq miqdorda marganets va boshqa xom ashyo mahsulotlari yetkazib berish majburiyatini oldi.

SSSRning «Uchinchi reyx»ga eksport qilgan mahsulotlarining miqdori, 650 mln. markani tashkil etdi. Bundan tashqari nemislar birinchi navbatda olishlari shart bo'lgan 28 xildagi mahsulotlarning ro'yxatini taqdim etdilar. Bu ro'yxat 12 mln. markalik-oltin qoldiqlari, 12 mln. markalik-teri va charm mahsulotlari, 4 mln. markalik-temir rudasi, 8 mln. markalik- mo'yna, 4,5 mln. markalik - kimyoviy farmatsevtik va dorivor o'simliklar, 4 mln. markalik - tamaki mahsulotlari, 2 mln. markalik - fosfat, 200 ming tonna yonilg'i, 150 ming tonna avtobenzin, 500 ming tonna texnika moylari, 2 mln. tonna bug'doy, 500 ming tonna kunjara, 100 mln dona tuxum, 120 mln markalik - yog'och-taxta materiallaridan iborat edi. Bu davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar SSSR uchun ham foydali edi. Chunki buning natijasida SSSR sanoati, asosan harbiy sanoat Germaniyadan zamonaviy stanoklar va asbob-uskunalar, hamda nihoyatda kamyob bo'lgan sanoat mahsulotlarini olardi. Bu asbob-uskunalar, ayniqsa, tog'-kon sanoati; nikel, qo'rg'oshin va mis eritish zavodlarida: benzin va kauchukka o'xshash sun'iy maxsulotlar ishlab chiqarishda paravozlar va temir yo'l vagonlari, elektrostansiyalar, burg'ulash uskunalari, gidroenezatsiya qurilmalari, yo'l-qurilishi mashinalari, aloqa vositalari, turli xil stanoklar va boshqa narsalardan iborat edi. Yengil sanoat va qishloq xo'jaligi uchun esa sun'iy jun ishlab chiqarishga mo'ljallangan fabrikalar uchun asbob-uskunalar, paxtani sug'orishga mo'ljallangan vositalar, muzlatgichlar, hosildor urug'lar va zotdor mollar olib kelindi.

Germaniya va SSSR o'rtasidagi aloqalar, Yevropadagi ko'pgina davlatlarda norozilikka olib keldi. Germaniya Polsha, Fransiya, Angliya va G'arbiy Yevropadagi davlatlar bilan urush holatida bo'lgan vaqtda Sovet-German iqtisodiy aloqalari Germaniyaga qo'llanilayotgan iqtisodiy qamal choralarining darz ketishiga olib keldi. Boshqacha qilib aytganda, SSSR agressorga iqtisodiy yordam ko'rsatmoqda edi. Germaniya imperiyasining iqtisodiy ministri bu haqda shunday deydi: «ruslar hozirgi vaqtda bizga suv va havodek zarur bo'lgan bug'doy, neft, fosfat va boshqa ko'pgina mahsulotlarni yetkazib berdilar. Bundan keyingi davrda ham bunaqangi mahsulotlarni olib kelishni ko'paytirish istaklari mavjud. Bu esa birinchi galda Germaniyaning harbiy sanoatini va boshqa ko'pgina xo'jaliklarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi». Bu haqda vermaxtning oliy martabali zobitlari ham o'z fikrlarini bildirganlar. Jumladan, gross-admiral E.Redder shunday deb ta'kidlab o'tgan edi: «Stalinning iqtisodiy yordami hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi, keyingi takliflari shu darajada saxovatliki, Germaniyaga nisbatan qo'llanilayotgan iqtisodiy qamal tanazzulga yuz tutishi ko'rinib qoldi». Boshqarma shtabi boshlig'i polkovnik Vagner sovet-german savdo-sotiq bitimlarini «Oxiri najot» deb baholagan edi. Sovet Ittifoqidan yetkazib berilgan xom ashyo Germaniyaning harbiy-strategik bazasini mustahkamlashga qo'llanilayotgani aniq bo'lib qoldi. Lekin shuni ta'kidlab o'tish kerakki, bu aloqalar Germaniya umumiy importining kichik bir bo'lagi edi, xolos.

1939-1940 yillarda Germaniyaning umumiy importi mablag' hisobida bir yilda 4,8 mlrd. markadan 6,9 mlrd. markaga yetdi. Sovet Ittifoqidan yetkazib berilishi rejalashtirilgan xom ashyo xajmi 650 mln. marka ekanligini hisobga olsa, bu ko'rsatkich 10 % tashkil etardi. Stalin Germaniyani Sovet davlati bilan kelajakda iqtisodiy va harbiy sohada hamkorlik qilish yuzasidan bergan va'dalariga ishonardi. Urush boshlanishiga ikki oy qolgandi (1941 yil aprel) «Leofigvefe» delegatsiyasi vakillari Sovet Ittifoqining bir qadar harbiy korxonalarini ko'rishga

muvaffaq bo'ldi. SSSR ushbu kelishuvga: hujum qilmaslik, do'stlik, chegara yuzasidan tuzilgan shartnomalar singari ishonardi.

Nemis manbalariga qaraganda, urush boshlangunga qadar Germaniya SSSRdan 200 ming tonna bug'doy, 1 mln tonna neft, 100 ming tonna paxta va boshqa ko'pgina mahsulotlarni, jumladan strategik jihatdan muhim bo'lgan metallarni olgan. 1940-1941 yillarda o'zaro tovar ayirboshlash hajmi keskin oshdi. 1939 yilda Germaniyaning SSSR bilan mahsulot ayirboshlash hajmi 61 mln. markani (30 mln. marka import, 31 mln. marka eksport) tashkil etgan, bo'lsa 1940 yilga kelib bu ko'rsatgich 10 baravarga oshib 607 mln. markani (391 mln marka import va 216 mln. marka eksport) tashkil etdi. Amalda bu ko'rsatgich Germaniya umumiy importining 7,8 %ini va umumiy eksportning 4,4%ni tashkil etardi.

SSSR o'zining katta hajmidagi eksportining asosiy qismini Germaniyaga yuborar edi. Jumladan, Germaniyaga yuborilayotgan fosfat SSSRdagi umumiy fosfat eksportining 49,9 %, xrom 62,4 %, marganets rudasi 40,7%, asfalt 77,7%, neft 75,2% va paxta 66% tashkil etdi.

1941 yil 10 yanvarda imzolangan xo'jalik shartnomasiga asosan, SSSR-Germaniya savdo aloqalarining xajmi 1941 yil 11 fevraldan 1942 yil 1 avgustga qadar eng yuqori darajaga ko'tarilishi ko'zda tutildi. Unga ko'ra SSSR Germaniyaga 620-640 mln. marka miqdorida mahsulot yetkazib berish majburiyatini olgan edi. Germaniya hukumati esa SSSRga shu miqdordagi mahsulotni faqatgina 1941 yil 11 maydan 1942 yil 1 avgustgacha yetkazib berish majburiyatini oldi. 1941 yil 11 fevraldan 11 maygacha bo'lgan davrda SSSR Germaniyaga yetkazib berishi kerak bo'lgan mahsulotlarning qiymati 115 mln. markaga teng edi. Shunday qilib, gitlerchilar urush muddatini oldindan belgilab olgan holda va SSSRni aldash yo'li bilan 220 mln. marka miqdoridagi mahsulot kreditiga ega bo'ldi. Natijada, Stalin Germaniyadan 200 mln. marka qiymatidagi mahsulot krediti olish o'rniga, «Uchinchi reyx» iqtisodiyotiga bundan ham ko'proq foydani keltirdi.

G'arbiy Germaniya tarixchisi T.E. Folkmannning bergan ma'lumotlariga qaraganda 1940-1941 yillar mobaynida Germaniya va SSSR davlatlarining mahsulot yetkazib berish hajmi o'rtasidagi farq faqatgina 57-67%ni tashkil etgan. Germaniya metall buyumlari, mashinalar, elektrotexnika asbob-uskunolari va boshqa mahsulotlar yetkazib berish bo'yicha o'z majburiyatlarini to'la bajarmadi. 1940 yil 10 yanvarda imzolangan xo'jalik shartnomasiga asosan Germaniyaning SSSRga yetkazib bergan mahsulotlarining umumiy hajmi 287,7 mln. markani tashkil etgan.

SSSR Germaniya o'rtasidagi iqtisodiy va savdo aloqalari Sovet Ittifoqining Sharqiy Yevropa davlatlari bilan savdo munosabatlariga ta'sir ko'rsatdi. 1939-1940 yillarda SSSRning Sharqiy Yevropa davlatlari bilan umumiy savdo hajmi keskin kamayib ketdi va 1940 yilda 14,4 mln. rublni tashkil etdi. Jumladan, bu raqam Bolgariya bilan 8,7 mln. rublni, Vengriyada - 0,7, Ruminiyada-0,6, Chexoslovakiyada - 4,2; Yugoslaviyada - 0,2 mln rublga teng bo'ldi.

SSSR va Germaniya o'rtasidagi savdo va iqtisodiy aloqalar SSSRning AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya va boshqa davlatlar bilan aloqalariga salbiy ta'sir ko'rsatdi. 1940 yil mayida AQSHning SSSRdagi eksport hajmi 500 mln. dollarga tushib qoldi. Faqatgina 1941 yil 22 yanvaridagina AQSH davlat departamenti SSSRga nisbatan qo'llanilgan «axloqiy embargo»ning bekor qilinganini e'lon qildi.

Angliya va Fransiya xalqaro savdo doirasida SSSRga qarshi iqtisodiy urushni qo'lladi. 1940 yil may-avgust oylaridagina Buyuk Britaniya SSSR bilan savdo aloqalarini qayta tikladi. Yana shuni ta'kidlab o'tish lozimki, nemis sanoatchilarining g'arb davlatlari sanoatchilari bilan yashirin aloqalari butun ikkinchi jahon urushi mobaynida davom etib turdi. «G'alati urush» davridagina bu aloqalar biroz zaiflashdi. Germaniyani strategik xom ashyo bilan ta'minlash uchinchi davlat orqali amalga oshirildi. Shuning uchun, nemis agressiyasini iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlashda, faqatgina SSSR favqulodda o'rin egalladi desak, haqiqatdan yiroq bo'ladi. Germaniyaning SSSRga qilgan hujumi arafasigacha, har ikkala davlat o'rtasidagi aloqalarning mustahkamligi g'arb davlatlari olib borgan «Myunxen bitimi», «Tinchlashtirish», «G'alati urush» siyosatlarining natijasi edi. Chunki aynan shu davrda SSSRda harbiy-texnika sanoat bazasi yaratildi. Eng zamonaviy harbiy texnika ishlab chiqarila boshlandi va haqiqatda bu yutuq

urushda katta ahamiyat kasb etdi. Agar 1941 yilda Sovet Ittifoqi ulkan hududi va harbiy kuchlarini yo'qotgan bo'lsa, 1939 yilda urush uni halokatga olib kelgan bo'lardi. Shu o'rinda, urush arafasida SSSR va Germaniya davlatlarining harbiy tayyorgarligi to'g'risida ham to'xtalib o'tsak. Ikkinchi jahon urushining boshlanishi barcha davlatlar kabi SSSRni ham sergaklantirdi. 1939 yil sentabrda Sovet hukumati 1940-1941 yillar davomida 9 ta yangi aviazavodni qurib va 9 ta eski aviazavodni qayta ta'mirlash to'g'risida qaror qabul qildi. Bu ishlarning amalga oshirilishi tufayli Sovet Ittifoqi aviatsiya sanoatining ishlab chiqarish quvvati Germaniyalikidan 1,5 baravar oshib ketishiga olib kelardi. Urushgacha bo'lgan ikki yil davomida S.V.Ilyushin, S.A.Lavochkin, A.I.Mikoyan, V.M.Peshlyakov, A.I.Tupolev, A.S. Yakovlev va boshqalar boshchiligidagi konstruktorlik byurolari aviatsiya sanoatining vakillari bilan hamkorlikda zamonaviy rusumlardan qolishmaydigan YAK-1, MIG-3, LAGG-3 kabi qiruvchi samolyotlarni, Pe-2 rusumli sho'ng'ib uchuvchi bombardimonchi samolyot va IL-2 rusumli hujumchi samolyotlarini yaratdilar. 1939 yil yanvardan 1941 yil 22 iyungacha qurolli kuchlari salkam 18 mingga yaqin, shundan 2,7 mingga yangi rusumdagi samolyotlarni qabul qilib oldi.

1941 yilning yoziga kelganda tank ishlab chiqarish quvvati ham nemislarnikidan 1,5 baravar kuchli edi. J.Y.Kotin boshchiligidagi konstruktorlik byurosi KV nomli og'ir tankni ixtiro qildi. M.A.Koshkin, A.A.Morozov va I.A.Kucherenko boshchiligidagi konstruktorlik byurosi T-34 rusumli o'rta og'irlikdagi tankni ixtiro qildilar. Bu tank g'arb mutaxassisleri tomonidan ham yuqori baholandi. 1939 yil 1 yanvardan 1941 yil 22 iyungacha qurolli kuchlar sanoatdan 7 mingga yaqin, shundan 1864 ta yangi rusumdagi tanklarni oldi. 1940 yil may oyidan urush boshlangungacha bo'lgan davrda artilleriya to'plarining soni 1,5 baravar oshdi. 1939-1940 yillar davomida kemasozlik sanoatining quvvati 3 baravarga o'sdi. 1939-1941 yillar davomida harbiy dengiz floti 265 ga yaqin yangi rusumdagi kemalarga ega bo'ldi.

1937 yil 1 yanvardan 1941 yil 22 iyunga qadar pulemyotlar va o'rta kalibrli to'plar soni 2 baravar, minamyotli to'plar 2,5 baravar, yirik kalabrli to'plar 3,5 baravar, tankka qarshi qurol-yarog'lar 4 baravar va zenit qurollari 5 baravarga oshdi. 1939 yil avgustdan 1941 iyungacha SSSR qurolli kuchlarining soni 3,4 mln. kishiga yetib, 2,5 baravarga oshdi.

Biroq, I.V.Stalin 1939 yil 23 avgustdagi bitimga ishonib xatoga yo'l qo'ydi. U Gitler bilan munosabatlarga «do'stlik» maqomini berishga urinib, u bilan keyin ham murosila qilishni ko'zlatdi. 1939 yil 28 sentabrda Moskvada do'stlik haqidagi sovet-german bitimi imzolandi. Germaniya tashqi ishlar vaziri I.Ribbentrop nomiga yo'llangan telegrammada Stalin shunday degan edi: «Germaniya va Sovet Ittifoqi xalqlarining qon bilan mustahkamlangan do'stligi uzoq va mustahkam bo'lishi uchun barcha asoslar mavjud». Bu do'stlikning qanday «qon» bilan mustahkamlangani ham noma'lum edi.

Gitler SSSR bilan tuzilgan bitimlarga oz ahamiyat berdi. 1940 yilning yozidanoq Germaniyada SSSRga qarshi hujum rejasi ishlab chiqilayotgan bo'lsada, Germaniya hukumati SSSR XKK raisi, tashqi ishlar xalq komissari V.M.Molotovni muzokoralar o'tkazish uchun Berlinga taklif qildi. Molotovning Berlinga qilgan tashrifi 1940 yil 13 oktabrda Stalinga maxsus xat bilan murojaat qilgan «Uchinchi reyx»ning taklifiga binoan 12-13 noyabrlarda bo'lib o'tdi. Uning asosiy mohiyati shundan iboratki ediki, Gitler Stalinga 1940 yil sentabrda imzolangan uch tomonlama bitimga qo'shilishni va uning ishtirokchilari bo'lgan - Germaniya, Italiya va Yaponiya bilan har bir mamlakatning keng masshtabdagi qiziqishlari doirasini aniqlashni taklif qilgandi.

V.M.Molotovning «Uchinchi reyx» poytaxtiga tashrifi Germaniyada alangalangan ikkinchi jahon urushining fojeali muxitida bo'lib o'tdi. «Uchinchi reyx» Yevropaning katta qismida o'z hukmronligini o'rnatib, 1940 yilda Polsha, Fransiya, Belgiya, Gollandiya, Lyuksemburg, Daniya va Norvegiyani bosib oldi. Germaniya qo'shinlari, shuningdek, Finlyandiya va Ruminiyada ham bor edi. Shuni ta'kidlash kerakki, 1940 yil 14 oktabrda Stalin va Molotovlar SSSR qurolli kuchlari bosh shtabi ishlab chiqqan 1940-1941 yillarda Sovet Ittifoqi qurolli kuchlarining G'arb va Sharqdagi strategik harakatlarning asoslari haqidagi mulohazalar tezkor rejasini tasdiqlashdi. Uning birinchi qismida raqib davlatlar haqida quyidagi xulosalar qilingan edi: «Shunday qilib, Sovet Ittifoqi 2 frontda kurashga tayyor bo'lishi kerak.

G'arbda Italiya, Vengriya, Ruminiya, Finlyandiya qo'llab-quvvatlaydigan Germaniyaga va Sharqda esa qurolli neytralitet pozitsiyasini egallagan, har damda ochiq to'qnashuvga o'tish mumkin bo'lgan Yaponiyaga qarshi tayyor bo'lishi kerak edi». Asosiy raqib esa Germaniya deb ko'zda tutilgan edi. 1940 yil 12-13 noyabrda nemis-sovet muzokoralarida yagona fikrga kelinmadi va SSSR 1940 yil sentabrda rasmiylashgan fashist davlatlarining Berlin ahdiga qo'shilmadi.

1940 yilning ikkinchi yarmidan e'tiboran Germaniyaning sa'yi-harakati SSSRga qarshi urushga tayyorgarlik va agressiv blokni kengaytirishga qaratilgan edi. Fyurer buyrug'iga ko'ra, bosh shtab maxfiy «Barbarossa» rejasini ishlab chiqdi. 1940 yilning 18 dekabrda Gitler 21-direktivani tasdiqladi. Uning asosiy maqsadi Sovet davlatini yo'q qilish va bu yerdagi xalqlarni qulga aylantirishdan iborat edi. Germaniyaning SSSR bilan yaxshi munosabatlarni o'rgatishga bo'lgan urinishlari niqobdan boshqa narsa emasdi. G'arbdagi urushdan natija chiqmasligiga ishongan sari, Gitlerning e'tiborini Sovet Ittifoqi o'ziga tortib borardi. Gitler M.Bormanga o'zining hayotidagi asosiy maqsadi bolshevizmni tor-mor etish ekanligi to'g'risida gapirganini hisobga olsak, uning bu urushga jiddiy tayyorgarlik ko'rganini bilish qiyin emas. Gitler fashizm tomonidan ishlab chiqilgan «Ost» («Sharq») rejasida Sharqiy Yevropa xalqlarini yo'q qilishni mo'ljallagan edi. Bu rejani «oqlash» uchun esa, natsistlarning vaxshiyona irqiy nazariyasi ishlab chiqilgan edi. «Ost» rejasiga binoan, bosib olingan hududlardagi rus, ukrain, belorus, polyak, chex va boshqa millatlarni yo'q qilish yoki qulga aylantirish ko'zda tutilgan edi. 30 yil davomida Polsha hududida va SSSRning g'arbiy qismini taxminan 31 mln. aholidan tozalash rejalashtirildi. Nemis rahbariyati tomonidan bu raqam 46-51 mln. kishigacha oshirildi. Bu aholining asosiy qismini Sibirga surgun qilish kerak edi. «Ozod etilgan» hududlarga 10 mln. nemis aholisini ko'chirib keltirish va 14 mlnga yaqin mahalliy aholini esa asta-sekinlik bilan nemislashtirib borish taklif etildi. Agressiyaning iqtisodiy maqsadlari SSSRning boyliklarini bosib olish va o'zlashtirish, mamlakatni xom ashyo manbaiga aylantirish, davlatning va xalqning moddiy va ma'naviy boyliklarini «Uchinchi reyxx»ga xizmat qildirishdan iborat edi. 1941 yil fevralida «Sharqiy masala» bo'yicha bo'lib o'tgan kengashda G.Gering shunday bayonot bergan edi: «Vazifa, bosib olishimiz mo'ljallangan yangi Sharqiy hududlardan eng ko'p miqdordagi qishloq xo'jalik mahsulotlari, xom ashyo va ishchiga ega bo'lishdir».

SSSRga hujum qilish va uni bosib olishga, Germaniya o'z agressiyasining hal qiluvchi bo'g'ini sifatida qaradi. SSSR qurolli kuchlarini tor-mor keltirish uchun deyarli Germaniya qurolli qo'shinlarining hammasidan, shuningdek, Finlyandiya, Ruminiya, Vengriya qo'shinlaridan ham foydalanish ko'zda tutildi.

General-feldmarshal F.Bok qo'mondonligidagi «Markaz» gruppirovkasi esa g'arbiy yo'nalishda joylashgan edi. Bu gruppirovkaga Belorussiyadagi harbiy kuchlarni tor-mor keltirish Smolensk-Moskva yo'nalishi bo'ylab harakatlanish vazifasi topshirilgan edi.

General-feldmarshal G.Rundshtendt boshchiligidagi «Janub» gruppirovkasi Kiyev yo'nalishida joylangan edi. Bu gruppirovkaga Ukrainaning g'arbiy hududlarini bosib olish, Kiyev va Dneprning Sharqiy qismidagi hujumini ta'minlash vazifasi yuklatilgan edi.

Finlyandiya hududidan kirib keladigan nemis-fin qo'shinlariga Murmansk, Petrozavodsk va Leningrad shaharlariga, Ruminiya hududidan kirib keladigan nemis-rumin qo'shinlariga esa Vilnyus va Odessa bo'ylarida hujum qilish vazifasi belgilab berilgan edi.

«Barbarossa» rejasi bo'yicha yana boshqa bir qancha yo'nalishlarda hujum qilish ko'zda tutilgan bo'lib, maqsad sovet qo'shinlarining talofatsiz chekinishga yo'l qo'ymaslik edi.

Ishlab chiqilgan «Barbarossa» «rejasini» 1940 yilning 18 dekabrda Gitler tomonidan ma'qullandi, hamda 1941 yilning fevralida Gitler huzuridagi kengashda uzil-kesil qabul qilindi. «Barbarossa» rejasi avantiyuristik reja edi. Rejaga muvofiq SSSR chegaralariga yaqin joyga nemis qo'shinlarini maxfiy to'plash, hujum tayyorgarliklarini 15 iyungacha tugallash, to'satdan hujum qilish, o'z ittifoqchilari bilan «Yashin tezligida» urush olib borish, 1941 yil qishi kirmasdan Arxangelsk-Volga liniyasiga chiqib olish, SSSRni tor-mor qilish va uni yo'q qilish mo'ljallangandi. «Reja»ga muvofiq Finlyandiya tomonidan ham SSSRga xujum qilish rejasii ishlab chiqildi.

SSSR tor-mor qilingandan keyin Germaniya 1941 yil kuzidan boshlab Afg'onistonni bosib olish va Hindistonga hujum qilishni, O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlarini egallashni, so'ngra Angliyaga bostirib kirishni, Ispaniya va Portugaliyaga qo'shin kiritib, Gibroltarni ishg'ol qilishni va Angliyani xom ashyo manbalaridan mahrum qilib uni qamal qilishni rejalashtirdi.

1940 yil 27 senyabrda Berlinda Germaniya Italiya va Yaponiya bilan harbiy-siyosiy ittifoq to'g'risida uchlar ahdomasini imzoladi. Bunda birlashib harakat qilish va dunyoni ta'sir doiralari bo'lib olish to'g'risida kelishib olindi. Yaponiya Germaniya va Italiyaning Yevropa va Afrikada hukmron bo'lishiga, Germaniya va Italiya esa Yaponiyaning Osiyoda hukmron bo'lishiga rozilik bildirdi. Berlin ahdomasi Angliya va AQShga ham qarshi qaratilgan edi.

Gitler Germaniyasi Shimoliy va G'arbiy Yevropadagi g'alabalaridan keyin o'zining diplomatik va harbiy kuchini Yevropaning sharqiga va janubi-sharqiga qaratdi. 1940 yil sentabrda Ruminiya gen. Antanesku fashistik diktaturasi o'rnatildi. 1940 yil oktabrida Ruminiya va Vengriyaga nemis-fashist qo'shinlari kiritildi. Noyabr oyida Vengriya, so'ng Ruminiya va Slovakiya fashist davlatlarining harbiy-siyosiy ittifoqiga qo'shildi. 1941 yilning martida Bolgariya, so'ng Yugoslaviya shu ittifoqqa tortildi va Bolgariya hududi nemis-fashist qo'shinlari tomonidan ishg'ol qilindi. Bu davlatlar va fashistlar blokiga tortilgan Finlyandiya Gitler Germaniyasining vassaliga va platsdarmiga aylandilar va SSSRga qarshi urushda qatnashishga rozi bo'ldilar.

Buning evaziga Gitler Vengriyaga Galitsiyani va Dnestrgacha bo'lgan Karpat tog' etaklarini, Ruminiyaga Shimoliy Moldaviyani va Ukraina Janubini, Finlyandiya Sovet Kareliyasi va Leningrad oblastini va'da qildi hamda Finlyandiya hududiga nemis-fashist qo'shinlari kiritildi. 1940 yilning 28 oktabrida fashistik Italiya Albaniya orqali Gretsiyaga hujum qildi, lekin o'zi ko'p talofat ko'rdi. Germaniyaning yordamisiz og'ir harbiy vaziyatni o'zgartira olmadi. 1941 yilning 6 aprelida 300 ming kishilik nemis-fashist qo'shinlari Yugoslaviyaga va Gretsiyaga urush e'lon qilmay hujum boshladi hamda bu mamlakatlarni bosib oldi. Gretsiyaning Krit orolini ham bosib oldi. Natijada nemis-fashistlar butun Janubi-Sharqiy Yevropani o'zlariga bo'sundirdilar.

Agar qaysidir tomon uchinchisi bir davlat tomonidan harbiy harakatlar obyekti holatiga tushib qolsa, ikkinchi tomon butun mojaro davomida betaraflik holatini saqlashi zarur.

Bitim o'z kuchini 5 yil davomida saqlaydi. Bir vaqtning o'zida hududiy butunlikni hamkorlikda himoya qilish va Mongoliya, Manchjougo chegaralarini dahlsizligini ta'minlash haqida deklaratsiya qabul qilindi. Yapon konsepsiyasini Shimoliy Saxalinda bitim imzolagandan boshlab 6 oy davomida tugatish haqida kelishildi. Yapon matbuotida SSSR bilan betaraflik haqidagi bitim imzolanishi ijobiy kutib olindi. Yaponiyaning harbiy-siyosiy boshliqlari bu bitimga unchalik ahamiyat berishmadi. Yaponiya armiyasining genshtabidagi «Urushning yashirin kundaligi»da: «bitim Sovetlarga qarshi boshlanajak urushga, mustaqil qaror chiqarishga qo'shimcha vaqt beradi», - deyilgandi.

Kvantun armiyasining qo'mondoni general YE.Umudzu «Germaniya va Rossiya o'rtasidagi munosabatlar o'zgarishi bilan Yaponiyaning ham betaraflik bitimi haqidagi munosabati albatta o'zgaradi»-degandi.

1941 yil aprelda Yaponiyaning bosh vaziri Todzio «bitimni yuz xotir qilmasdan, biz SSSRga qarshi harbiy tayyorgarlikni jadal amalga oshirishimiz zarur. Sovet ittifoqiga qarshi tazyiqni kuchaytirish zarur»-degandi.

28 mayda Matsuokaning rasmiy talabiga Ribbentrop xabar berdi: «Xozir Germaniya va SSSR o'rtasida urush muqarar, armiya hujumga tayyorgarlik ishlarini tugatdi»-degandi. 6 iyunda Germaniyadagi Yaponiya elchisi Osimo Tokioga xabar bera turib, «Gitler Yaponiyaning SSSRga qarshi bo'ladigan urushda hamkor bo'lishini xoxlaydi»-dedi. Germaniyaning SSSRga qarshi hujumi haqidagi xabar olingandan so'ng Matsuoka janubga qarab harakat qilishni, Sibirni Irkutskka qadar bosib olishni bir chetga surib qo'ydi. Biroq Yaponiyaning Sovet ittifoqiga hujum qilishdan shu narsa to'xtatar ediki, bu regionda Qizil Armiyaning 1 millionlik harbiy qismlari bor edi. Qaysiki Xolxil-Gol jangida o'z qobiliyatini namoyon qilgandi. Germaniya, Yaponiya va Italiya agressiyasining kuchayib borishi bilan AQSH bilan Angliya G'arbiy Yarim sharni

birgalikda himoya qilish to'g'risida bitim tuzdilar. Shartnomaga ko'ra AQSH Angliyaga 50 ta eski Esminetsni berib, Angliyaning Atlantika va Karib dengizidagi 8 ta (Nyufaundlend, Bermud, Bagami, Yamayka va boshqalar) harbiy-havo bazalarini 99 yillik muddat bilan ijaraga oldi.

1941 yilning yanvar-martida ikki tomonning maxfiy kengashi bo'lib o'tdi. Kengash Germaniyani o'zining eng asosiy dushmani deb birgalikda harakat qilish to'g'risida kelishib oldilar.

1941 yil 11 martda AQSH Kongressi Lend-Liz to'g'risida («Lend-qarzga, liz-ijaraga demakdir») qonun qabul qildi va AQSH Germaniya va uning ittifoqchilariga qarshi urishayotgan davlatlarga qarzga yoki ijaraga qurol-yarog' va harbiy materiallar berishni zimmasiga oldi. Shu tariqa Angliya-AQSH davlatlari bloki rasmiylashdi.

1941 yilning mayiga kelganda Germaniya Yevropaning ko'pchilik mamlakatlarini o'ziga buysuntirdi. Yaponiya esa Osiyoda o'z mavqeini mustahkamlashni davom ettirdi. Germaniya 290 mln. aholisi bo'lgan butun Yevropaning deyarli iqtisodiy va harbiy kuchiga ega bo'ldi.

Angliya bilan yarashish va uni SSSRga qarshi urushga jalb qilish maqsadida 1941 yilning 10 mayida Gitler o'zining o'rinbosari Rudolf Gessni Angliyaga yubordi. U Londonda hukumat vakillari Saymon va Kirkpatriklar bilan muzokara olib bordi. Muzokaralarda separat sulx shartnomasi tuzish va birga SSSRga qarshi urush boshlash, yoki urushda bir-biriga xalaqit bermaslik kabi takliflar Gess tomonidan kiritildi. Biroq, Gess missiyasi natijasiz tugadi. 1941 yil 18 iyunda Germaniya Turkiya bilan do'stlik va hujum qilmaslik to'g'risida shartnoma tuzdi, 1941 yil 1 aprelda Iroqda davlat to'ntarishini amalga oshirdi.

1-ilova

1939 yilgi safarbarlik davridagi ahvol quyidagicha edi:

№	Qismlar va birlashmalar	1933	1935	1937	1938	1939
1	Harbiy okruglar va gruppalar qo'mondonligi soni	2	3	4	6	11
2	Korpus qo'mondonligi soni	-	10	13	19	26
3	Diviziyalar soni	10	29	39	51	102
4	Alohida tank brigadalari	-	-	-	-	-
5	Otliq askarlar brigadalari	-	-	-	-	-
6	Piyoda qo'shinlar polklari	21	77	112	129	292
7	Artilleriya polklari	7	25	43	57	128
8	Motorlashtirilgan o'qchi polklari	-	3	4	13	13
9	Tank polklari	-	6	10	14	14
10	Tankka qarshi divizionlar	-	9	11	17	17
11	Motorlashtirilgan razvedka batalyonlari	-	9	11	17	17
12	Saperlar batalyoni	7	28	55	75	133
13	Aloqa batalyoni	7	10	55	69	160

2-ilova

1939 yili urush boshlanganda Germaniyada harbiy havo kuchlarini kuchaytirishdagi ahvol quyidagicha edi:

№	Qismlar, birlashmalar	1934	1935	1936	1937	1938	1939
1	Havo floti	-	-	-	-	3	4
2	Aviatsiya diviziyasi	1	-	-	-	6	7
3	Aviaeskadrilyalar	-	-	8	13	22	23
4	Aviaguruhlar	3	13	37	66	85	89
5	Zahiradagi aviaotryadlar	-	6	14	15	16	-
6	Zenit diviziyalari	12	19	42	55	74	284
7	Parashyut batalyonlari	-	-	1	1	1	4
8	Harbiy havo kuchlari aloqasi batalyonlari	1	1	8	8	21	59

3-ilova

Buyuk Britaniya qurolli qo'shinlarining tarkibi va soni quyidagicha edi:

№	Mamlakatlar	Shaxsiy tarkib soni (ming kishi hisobida)			
		Quruqlik dagi qo'shinlari	Harbiy dengiz qo'shinlari	Harbiy havo qo'shinlari	Hammasi
1	Angliya (metropoliya)	897	180	193	1 mln, 270
2	Hindiston	205	2	3 ming 700	210 ming 700
3	Kanada	61,5	1,8	4,0	67 ming 30
4	Avstraliya ittifoqi	45,7	9,3	3,7	58,7
5	Yangi Zelandiya	3,0	1,3	0,5	4,8
6	Jan.Afrika Ittifoqi	22,5	-	1,5	24,0
7	Afrikadagi koloniyalar	19,0	-	-	19,0
8	Angliya-Misr Sudani	7,5	-	-	7,5
	JAMI:	1.261.200	194400	206400	1.662.200

3-ilova

Germaniya-Polsha urushida kuchlar nisbati quyidagicha edi:

№		Germaniya	Polsha
1	Qurolli kuchlar	1,6 mln chel	1,0 mln chel
2	Diviziyalari	62	39
3	Tanklari	2800 ta	870 ta (tanketkalar bilan)
4	Artelleriya qurollari va minomyotlari	6000	4300
5	Jangovor samolyotlari	2000	407

3-ilova

1940 yilning 10 mayidagi Shimoli-Sharqiy frontdagi kuchlar nisbati:

№		Fran siya	Ang liya	Bel giya	Golland iya	Ittifoq hammasi	Germa niya
1	Shaxsiy tarkibi	2 mln 440 ming	395 ming	600 ming	350 ming	3 mln 785 ming	3 mln 300 ming
2	Diviziyalar	104	10	23	10	147	135
3	Tanklar soni	2789	310	-	-	3099	2580
4	Samolyotlar	1648	1837	186	120	3791	3824
5	Artelleriya qurollari 75 mm va undan yuqori	11200	1350	1338	656	14544	7378

Mavzu: IKKINCHI JAHON URUSHINING 1941-1945 YILLARDAGI ASOSIY JANGLARI. URUSHNING TUGASHI VA UNING NATIJALARI

1-§. SSSRga qarshi urushning boshlanishi va dastlabki talofatlar sabablari

1941 yil 22 iyunda erta tongda Gitler Germaniyasi xiyonatkorona ravishda SSSRga hujum boshladi. Germaniya bilan birga Italiya, Ruminiya, Vengriya, Finlyandiya va Slovakiya ham SSSRga qarshi urush boshladilar. Germaniya va uning ittifoqchilari o'z qurolli kuchlarining 65-70 %ni SSSRga qarshi qo'ydilar. Germaniya o'zining o'sha vaqtdagi 214 diviziyasi va 7 brigadasidan 152 diviziyasi va 2 brigadasini, ya'ni 5,5 mlnga, yaqin soldat va ofitserini, ittifoqchilari 38 diviziyani hammasi bo'lib 190 diviziyani, tank va mexanizatsiyalashgan 35 diviziyani (3,5 ming tankni) 5000 ga yaqin samolyotni, 50 mingdan ortiq to'p va minomyotni SSSRga qarshi tashladilar. Fashist Ispaniyasi «Zangori diviziyasi» bilan, Vishi hukumati «Ko'ngillilar Legioni» bilan SSSRga qarshi urushda ishtirok etdi. Podsho Bolgariyasi Germaniyaga yordam ko'rsatib turdi. Bir qator betaraf mamlakatlar-Shvetsiya, Shveytsariya, Turkiya, Portugaliya gitlerchilarga harbiy-strategik materiallar bilan yordam berib turdilar. Dushmanning urush tajribasiga va eng zamonaviy qurollarga ega bo'lgan «Norvegiya», «Shimol», «Markaz» va «Janub» nomli gruppirovkalari uch asosiy yo'nalishda hujum boshladilar. 15 kun ichida dushman 400 km ichkariga kirdi. Butun mamlakat harbiy legarga aylandi. Shu yerda haqli ravishda savol tug'iladi; nima uchun qisqa vaqt ichida bunday talofat va kutilmagan darajadagi fojiali chekinish yuz berdi?

Urush to'g'risida yozilgan ko'pchilik ishlar, jumladan «Ikkinchi jahon urushi» (1939-1945 gg. T 1-12. M. 1973-1982 gg) «Sovet Ittifoqi Ulug' Vatan urushi tarixi» (1941-1945 gg. T. 1-6 M. 1960-1965 g) «Sovet Ittifoqi Ulug' Vatan urushi», qisqacha ocherk. M. 1970., G.K.Jukov. Vospominaniya i razmo'shleniya. T. 1-3. M. 1988 va boshqa adabiyotlarda 1941 yil fojiasini ko'pincha Sovet armiyasini to'la qurollantirish uchun vaqt yetishmaganligi bilan, yangi turdagi samolyotlar va tanklar ishlab chiqarish uchun yetarli vaqt bo'lmaganligi bilan izohlaydilar. Bu haqiqatda to'g'ri emas. Sovet davlati tashkil topgandan keyingi yillarda armiyani qurollantirish uchun hech qanday mablag'ini ayamadi. Agar 1920 yillar oxirida Qizil armiya hammasi bo'lib, 89 ta tankka va 1394 ta samolyotga ega bo'lgan bo'lsa, 1941 yilning yoziga kelib, SSSR tanklar va harbiy samolyotlar jihatidan Germaniya, Italiya, Ruminiya, Finlyandiya, Vengriya va Yaponiya armiyasini birga qo'shib hisoblaganda ham ulardan ustun turardi. Bu ko'rsatkichlarga qisqa vaqt ichida 1929 yildan 1941 yilgacha bo'lgan vaqtda erishildi.

Xo'sh, unda 1941 yil fojiasining sababi nimada? Buning asosiy sababi shundaki, Stalin rejimi davrida Sovet Armiyasi o'z qo'mondonlaridan, o'z boshliqlari va sarkardalaridan ajralgandi.

Bu haqda 1941 yil yanvarida Gitler qurolli kuchlar rahbarlari va vakillari bilan bo'lgan kengashda ham gapirgandi, xususan u V. Brauxich, V.Keytel, A.Yodl, F.Paulus, A.Xayzinger va boshqalarga qarata: «Rossiya har qanday yo'l bilan bo'lsa ham majaqlanishi kerak, buni hozir qilish kerak, ayniqsa, rus armiyasi rahbarsiz qolgan hozirgi paytda», - deb ta'kidlaydi.

Qizil armiyaning rahbarlaridan qancha kishi qatag'on qilindi, bu haqda aniq bir ma'lumot aytish qiyin, faktlar bir-biriga qarama-qarshi. M: Mudofaa xalq komissari K.YE.Voroshilov 1938 yilning 29 noyabrida harbiy Sovet kengashida gapirib, «1937-38 yillarda Qizil Armiyani tozalash vaqtida biz 40 mingdan ko'proq odamni qatag'on qildik» degan edi. Mudofaga Xalq komissari muovini B.A.Shadenkoning ma'lumotnomasida 1937 yildan 39 yilgacha faqat quruqlikdagi qo'shinlardan 36898 kishi qatag'on qilingandi, shundan 11178 kishi keyinchalik VKP (o) MKning qarori bilan o'z vazifasiga qaytariladi.

1937 yilning mayidan 1938 yilning sentabrigacha flotdan 3 mingdan ortiqroq kishi qatag'on qilinadi. 1937-1939 yillarda harbiy okrug qo'mondonlarining hammasi almashtiriladi, o'rinbosarlarining 90%, diviziya va korpus rahbarlarining 80%i, polk komandirlari va o'rinbosarlarining 91 %i almashtiriladi. Ikkinchi bor 1939-1941 yillarda harbiy okrug

qo'mondonlarining 82%, armiya qo'mondonlarining 53,6%, korpus qo'mondonlarining 68,6%, diviziya qo'mondonlarining 71 %i yangilandi. Faqat 7 va 8 mart (1941 y) kunlari 4 ta armiya qo'mondoni, 42 ta korpus qo'mondoni, 117 ta diviziya qo'mondonlari o'z vazifalariga qaytariladi.

Buning ustiga Sovet Armiyasini rahbar kadrlar bilan ta'minlash qoniqarsiz ahvolda edi. Qo'mondonlar yetishmas edi, ko'pincha qo'mondonlikka harbiy bilim yurtlarini bitirib borgan va tajribaga ega bo'lmagan kadrlarni qo'yishga to'g'ri keldi. Bu esa qo'mondonlar tarkibining sifatini pasaytirib yubordi. Natijada, urush boshlanganda ham armiyani rahbar kadrlar bilan to'la ta'minlashning iloji bo'lmadi. M: Quruqlikdagi qo'shinlarga 66900 ta rahbar kadr kerak edi yoki 16 %ga ta'minlanmagan edi, harbiy havo kuchlarida 32,3% uchuvchi texniklar yetishmas edi. Harbiy-dengiz flotida esa qo'mondonlik yetishmovchiligi 22,4% ni tashkil etardi.

Sovet Armiyasini joy-joyiga qo'yib taqsimlash, uni mamlakatning g'arbiga ko'chirib o'tkazish, ya'ni safarbarlik masalasi ham kechiktirib amalga oshirildi. 1941 yilning iyun oyi o'rtalarida Germaniya va uning Yevropadagi ittifoqchilariga hammasi bo'lib 240 diviziyani qarshi tashlash ko'zda tutilgan edi. Shundan 186 diviziya 1-chi eshelonni tashkil etishi kerak edi, 54 ta diviziya 2-chi eshelonni tashkil etib bu Bosh qo'mondon zahirasida turishi kerak edi. 1-chi strategik eshelon asosan mamlakatning g'arbiy chegara rayonlaridagi harbiy okruglardan tuzilishi kerak edi. Bu 170 ta diviziya edi. Qolgan 16 tasi mamlakatning ichkarisidan, Baykal orti rayonlaridan keltirilishi kerak edi.

Biroq urush arafasidagi vaziyat shuni ko'rsatdiki, Sovet harbiy rahbariyati qo'shinlarni ushbu tartibda safarbar qilishni o'z vaqtida amalga oshirolmadi. Stalin va uning atrofidagi kishilar-Molotov, Beriya, Voroshilov va oliy bosh qo'mondonlardan Timoshenko, Jukovlar Germaniyaning hujumi to'g'risida aniq ma'lumotni olgan bo'lsalar ham bu ishni paysalga soldilar. 1941 yilning may oyi oxiri va iyun oyi boshlarida chegara qo'shinlari harbiy okruglaridan Germaniya o'z harbiy kuchlari va texnikasini chegara tumanlariga zarbdor suratda tezkorlik bilan joylashtirayotganligi to'g'risida tashvishli xabarlar kela boshladi. O'shanda ham harbiy okruglarni jangovor holatga keltirib chegara rayonlariga joylashtirish ishi kechiktirildi. 14 iyun kuni Jukov bilan Timoshenko Stalin huzuriga kirib, tashvishli xabarlar haqida ma'lumotlar berdilar va chegara qo'shinlari harbiy okruglarini jangovor holatga keltirib qo'yishni aytishdi. Biroq, Stalin olingan ma'lumotlarga ishonmadi, chegara qo'shinlari harbiy okruglarini jangovor holatga keltirish Germaniya uchun bahona bo'lishi mumkin deb rad javobini berdi. U urush 1941 yilda boshlanmaydi deb qattiq ishongandi.

1941 yilning 21 iyunida SSSRning Germaniyadagi elchisi V.G. Dekanozov, Fransiyaning Vishi shahridagi Sovet harbiy kishilari I.A.Suslaparov va Berlindan V.I.Tupikovlar Germaniyaning SSSRga 22 iyunda hujum qilishi to'g'risida aniq ma'lumot beradilar.

O'sha kuni Beriya Stalinga yozma ma'lumot yo'llab yolg'on ma'lumot jo'natayotgan va SSSR bilan Germaniya o'rtasidagi munosabatni buzib urushni keltirib chiqarishga harakat qilayotgan V.G. Dekanozovni Berlindan chaqirib olish to'g'risida iltimos qiladi.

22 iyunga kelib, mamlakatning g'arbiy tumanlaridagi diviziyalar soni 186 taga yetgan bo'lsa ham ular chegaraga olib borib joylashtirilmadi.

Bunga qarshi dushman tomon 176 diviziyani chegara tumanlariga to'plab jangovor holatga keltirib qo'ygandi. Shundan Germaniyaniki 157 ta va ittifoqchilariniki 19 ta edi. Bularda 3 mln 400 ming kishi bor edi, 31,1 ming minomyot va to'p, 4 ming atrofida tank va BTR, 4,9 ming samolyoti bor edi.

Shunday qilib, urush arafasida, Sovet armiyasi bilan dushman armiyasini solishtirganimizda, dushman armiyasining faqat son jihatdan ustunligini va rahbar qo'mondonlar bilan ta'minlash masalasining to'la hal qilinganligini aytib o'tish kifoyadir.

Sovet armiyasi faqat odam soni jihatidan kam bo'lsa-da, biroq texnika va qurollar soni jihatidan ustun edi. Ammo bu qurollar va texnikalar Germaniyanikidan sifat jihatidan ancha orqada edi. Shu sababli urushning dastlabki oylarida Sovet Armiyasi o'z boshidan katta qiyinchiliklarni kechirdi, ko'p talofotlar ko'rib orqaga chekindi.

2-§. Ikkinchi jahon urushining asosiy janglari va fashistlar Germaniyasining tor-mor qilinishi

Sovet-German fronti 11-jahon urushining hal qiluvchi fronti bo'lib qoldi. 1942 yil noyabrda Gitler Germaniyasining va uning sheriklarining Sovet-German frontidagi diviziyalari soni 268 ta, 1943 yil avgust-sentabrda 230 ta edi. 1943 yil avgustida Gitler Germaniyasining 294 diviziyasidan 196 tasi, 1945 yil 313 diviziyasi va 32 brigadasidan 185 tasi va 21 brigadasi SSSRga qarshi qo'yildi. Xolbuki, G'arbiy frontda 1941 yilda Germaniyaning 10-11 ta diviziyasi, 1941-1942 yillarda Shimoliy Afrikada Germaniya va Italiyaning 15 ta diviziyasi, 1945 yil yanvarida G'arbiy frontda va Italiyada 108 diviziyasi harakat qildi, xolos.

1941 yilning yozida Angliya va «Ozod Fransiya» qo'shinlari gitlerchilarning Iroq, Suriya va Livandagi qo'poruvchilik faoliyatiga, SSSR va Angliya gitlerchilarning Eron territoriyasidagi hatti-harakatiga zarba berdilar.

1921 yilgi Sovet-Eron shartnomasining 6-moddasiga muvofiq, 1941 yil 25 avgustda Sovet qo'shinlari Eronning Shimoliy viloyatlariga kiritildi, Janubiga ingliz qo'shinlari, keyinroq AQSH qo'shinlari ham kiritildi. SSSR va Angliya hukumatining talabi bilan Afg'oniston hukumati o'z mamlakatidan Gitler agentlarini chiqarib yubordi va fashist davlatlari bilan diplomatik aloqani uzdi.

11-jahon urushining doirasi kengayib bordi. 1941 yil 7 dekabrda Yaponiya urush e'lon qilmay, AQSH va Angliyaning Tinch okeandagi harbiy-dengiz va harbiy-havo kuchlariga hujum qilib, jiddiy zarar yetkazdi. Pirl-Xarbor (Gavay orollari)ga hujumi natijasida AQShning Tinch okeandagi harbiy kemalarining deyarlik yarmisi yo'q qilindi. AQShning Pirl-Xarbordagi talofati juda og'ir talofat bo'ldi: shu bazadagi 8 linkorn ishdan chiqarildi, uning yarmisi cho'ktirib yuborildi; 316 samolyoti shikastlandi va yakson qilindi; 3 mingga yaqin amerikaliklar halok bo'ldi.

Yaponiya tezlik bilan hujum boshlab, 1941 yil oxiri - 42 yil boshida Tailand, Birma, Gonkong, Indoneziya orollari, Singapur, va Filippinni ishg'ol qildi. AQSH va Angliyaning Tinch okeandagi bir qator orollarini (Guam, Ueyk, Yangi Britaniya, Yangi Gvineyaning bir qismi va boshqalarni) egalladi.

Yaponiya Tinch okeanda urush harakatlarini boshlab yuborgandan keyin, o'sha 1941 yil 11 dekabrda Germaniya va Italiya AQSH ga qarshi, 8 dekabrda AQSH Yaponiyaga, so'ng Germaniya va Italiyaga qarshi, Angliya o'z dominionlari bilan birga Yaponiyaga qarshi urush e'lon qildilar. Xitoy rasmiy ravishda Yaponiya, Germaniya va Italiyaga qarshi urush e'lon qildi. Uch agressiv davlat- Germaniya, Italiya va Yaponiya 1941 yil 11 dekabrda Uchlar ahdnomasiga (1940 y) qo'shimcha yangi harbiy ahdni imzoladilar: birgalikda va barcha vositalar bilan Angliya va AQShga qarshi urush olib borish, o'zaro roziliksiz ular bilan yarashmaslik va sulh tuzmaslik majburiyatlarini oldilar. Ular harakat zonalarini ham belgilab olishdi. 1942 yil 18 yanvar kelishuviga muvofiq Yaponiyaning zonasi qilib, Urol tog'laridan AQShning g'arbiy qirg'oqlarigacha bo'lgan joylar belgilandi, Germaniya va Italiyaning zonasi qilib, Uroldan G'arbg'a - AQShning sharqiy qirg'oqlarigacha bo'lgan yerlar va Amerika qit'asi belgilandi. Mafkuraviy va ijtimoiy-siyosiy tuzumi turlicha bo'lishiga qaramay, SSSR-Angliya-AQSH davlatlarining gitlerchilarga qarshi qudratli kaolitsiyasi tashkil topa boshladi. 1941 yil 12 iyulda SSSR va Angliya o'rtasida Germaniyaga qarshi urushda birga harakat qilish to'g'risida bitim tuzildi. 1941 yil 2 avgustda AQSH hukumati agressiyaga qarshi kurashda SSSRga iqtisodiy yordam qilishga qaror qilganini bayon qildi. 16 avgustda Angliya bilan SSSR o'rtasida savdo va kredit to'g'risida bitim tuzildi; Angliya SSSRga 10 mln funt sterling hajmda 3%li kredit berdi. 9-14 avgustda Ruzvelt va Cherrill Atlantik okeanda (Nyufaulnd orolida) uchrashib, SSSRga yordam ko'rsatish masalasini ham muhokama qildilar. 1941 yilning 29 sentabr-1 oktabrlarda SSSR, AQSH, Angliya vakillarining Moskva kengashi bo'lib, bunda o'zaro yordam rejalari ishlab chiqildi. AQSH-Angliya 9 oy ichida SSSRga beriladigan qurol-aslahalar va strategik materiallar to'g'risida, SSSRning esa ularga yetkazib beradigan strategik ashyolari to'g'risida kelishib olindi. 7 noyabrda AQSH Lend-Liz haqidagi qonnnuni SSSRga ham tadbiq etib, 1 mlrd.

dollar hajmida foizsiz kredit berdi. Shunday qilib, 1941 yil oxiriga kelib SSSR, Angliya va AQShdan iborat antifashistik kaolitsiya vujudga keldi.

Ruzvelt bilan Cherrillning 1941 yil 9-14 avgustda Nyufaunlenddagi uchrashuvi Atlantik xartiya degan xujjatning qabul qilinishi bilan tugadi. Bu xujjatda birovlarining yerini bosib olmaslik, xalqlarning mustaqil bo'lib yashash huquqini tan olish, savdoda tenglik, iqtisodiy hamkorlik, natsistlar zulmini bitirish, agressorlarni qurolsizlantirish, tinchlik o'rnatish to'g'risida vazifalar bayon qilindi. 1941 yilning 24 sentabrida SSSR Xartiyaning asosiy prinsiplariga roziligini bildirdi va unga qo'shildi. 1942 yilning 1 yanvarida Vashingtonda fashizmning yovuz kuchlariga qarshi kurash to'g'risida 26 davlatning Deklaratsiyasi qabul qilindi. Davlatlar Atlantik Xartiyaning ma'qullab, bir-birlari bilan hamkor bo'lish, dushman bilan separat yarashuv yoki sulh bitimlari tuzmaslik majburiyatlarini oldilar. Eron ham antifashistik kaolitsiyaga qo'shildi. 1942 yil 29 yanvarda SSSR, Angliya va Eron o'rtasida ittifoqlik shartnomasi tuzildi; Eron territoriyasining butunligi va siyosiy mustaqilligi ta'minlandi. Deklaratsiyaga qo'shilgan davlatlar «Birlashgan millatlar» deb ataldi.

1942 yil 26 mayida SSSR va Angliya o'rtasida ittifoqlik va urushdan keyingi hamkorlik va o'zaro yordam to'g'risida (20 yilga) shartnoma, 1942 yil 11 iyunda SSSR bilan AQSH o'rtasida agressiyaga qarshi urush olib borishda o'zaro yordamga doir prinsiplar to'g'risida bitim tuzildi. Bu shartnoma va bitimlarni tuzish paytida Angliya bilan AQSH Yevropada Gitler Germaniyasiga qarshi 2-chi frontni 1942 yilda ochish to'g'risida majburiyat ham olgandilar.

Biroq, Angliya va AQShning urushda Germaniya va SSSRni kuchsizlantirib ularni tobe bo'lgan mamlakatlarga aylantirib qo'yish fikri ham yo'q emas edi. M: O'sha vaqtda AQSH senatori (keyinchalik Ruzveltdan so'nggi prezident) Garri Trumen imperialistlarning qabih niyatlarini ifodalab shunday degan edi: «Agar biz Germaniyaning qo'li ustun kelayotganini ko'rsak, Rossiyaga yordam berishimiz kerak, agar Rossiya yutib chiqadigan bo'lsa, u holda Germaniyaga yordam berishimiz kerak. Shu tariqa ular bir-birlarini mumkin qadar ko'proq o'ldiraverishsin».

Ikkinchi frontni ochish masalasi paysalga solindi. Cherrill 1942 yil avgust oyida Moskvada olib borilgan muzokoralarda 1942 yilda 2-chi front ochish mumkin emasligini isbotlashga urinib, 1943 yilda albatta ochishga va'da berdi. Biroq, 1943 yilda ham u ochilmadi. Angliya va AQSH vakillari yashirin suratda Germaniya bilan ham muzokoralar olib bordilar. M: 1941 yil sentabrida Lissabonda Angliya vakili bilan Germaniya vakili o'rtasida, 1943 yil fevralida Jenevada AQShning vakili Dalles bilan Germaniya knyazi M.Gogenloe o'rtasida muzokoralar bo'ldi. Bunday yashirin muzokoralar 1945 yil bahorigacha davom etdi. 1942 yil oktabrida Cherrill Ruzveltga yozgan xatlarida SSSRga harbiy materiallar yuborishni to'xtatish, Kavkazga Angliya-AQShning quruqlik va harbiy havo kuchlarini yuborish to'g'risida xiyonatkorona istaklarni bildirdi.

AQSH harbiy kuchlari urush yillarida 12 mln 245 ming kishiga, Angliyaniki 9 mln 500 ming kishiga yetdi, shunga qaramay, ular Yevropada 2-chi frontni ochmay, asosiy harbiy kuchlarini 2-chi darajali bo'lgan Tinch okean va Afrikada urush ketayotgan rayonlarga to'pladilar.

Gitlerchilar Sovet-German frontining eng asosiy vazifasi Moskva tomon borish deb bilib, 80 ga yaqin diviziyasini va katta harbiy-havo kuchlarini shu tomonga tashladi. Ular noyabrning oxiri va dekabr oyining boshlarida Moskvaga 23-25 kmgacha yaqinlashib keldilar, 1941 yilning 5-6 dekabrda boshlangan qarshi hujum natijasida dushmanning 50 tacha diviziyasi majaqlandi va 1942 yilning 23 fevraligacha dushman Moskva yonidan 120-400 km g'arbga uloqtirib tashlandi. Nemis-fashist armiyasining «yengilmasligi» to'g'risidagi afsona «Barbarossa rejasi» uzil-kesil barbod bo'ldi.

Moskva ostonasida dushman mag'lubiyatini g'arb tarixchilari qishning qattiq bo'lganligi bilan izohlaydilar. Xususan, ular; «1941 yil noyabr oxiri va dekabrda havo 63 darajagacha sovib ketdi», deb izohlaydilar. Xolbuki sovuqning maksimal kuchayishi, ba'zi bir kunlari 31 darajadan oshmagan edi. Nemislar «General qish va General botqoq ruslarga yordamga keldi» deb o'zlarining mag'lubiyatlarini xaspo'slashga urindilar.

Dushman 1942 yilning iyun oxirida katta kuch bilan yana hujumga o'tdi. Biroq, Sovet qo'shinlarining yangi shiddatli janglari natijasida 1942 yilning 19 noyabridan 1943 yilning 2 fevraligacha nemis-fashistlarning 330 minglik 2 ta armiyasi tor-mor qilindi. Bulardan 147 mingi halok bo'ldi, 91 mingdan ortig'i feldmarshal Pauls boshchiligida asir olindi. Italyan, rumin va venger diviziyalari yakson qilindi, hammasi bo'lib dushman 800 mingdan ortiq soldat va ofitserini, 2000 tank, 3 ming samolyot, 70 ming avtomashinasini yo'qotdi. Germaniyada umumiy motam e'lon qilindi.

Nemis tarixchilari Stalingrad ostonasida nemis-fashistlarning mag'lubiyatini kuchlar teng bo'lmaganligining natijasi bilan izohlaydilar, ya'ni «Sovet Armiyasi odam soni jihatidan 21 barovar ustun edi»-deb izohlaydilar. Aslida 1942 yilning noyabrida Stalingradda kuchlar nisbati deyarlik teng edi: Sovet qo'shinlari 1 mln 5 ming jangchiga, nemis-fashistlar 1 mln 11 ming jangchiga ega edilar; tank va artelleriyada Sovet qo'shinlari ustunlikka ega edi, samolyotlarning soni jihatidan esa dushman qo'li baland edi. Stalingrad jangi 11-jahon urushida tubdan burilish jangi bo'ldi, bu jang Yaponiya bilan Turkiyaning SSSRga qarshi urush boshlash rejalarini barbod qildi.

Biroq, nemis-fashistlar 2-chi frontning ochilmaganidan foydalanib, 1943 yilning yozida Sovet-German frontida o'zlarining 257 diviziyasini to'pladilar. Kursk yonida ular «Sitadel» deb nomlangan operatsiyani amalga oshirish uchun 900 ming soldat va ofitserini, 10 mingga yaqin to'p va minomyotni, 3 mingga yaqin tank va o'zi yurar to'plarni, 2 mingdan ortiq samolyotni tashladilar. 1943 yilning 5 iyulida ular hujum boshladilar, biroq, 12 iyulda Sovet qo'shinlari qarshi hujumga o'tib 23 avgustgacha dushmanning katta kuchini tor-mor qilib tashladi. Dushman o'zini o'nglab ololmaydigan darajaga kelib qoldi. Kursk ostonasidagi jang 2-jahon urushining eng katta janglaridan biri hisoblanib, tubdan burilish tugallandi. Faqat Kursk ostonasida dushmanning 30 ga yaqin diviziyasi yakson qilindi.

G'arb davlatlarining liderlari Sovet-German frontining jahon urushidagi salmog'ini va Qizil Armiyaning rolini tobora tan olishga majbur bo'ldilar. Gitlerchilarning Moskva ostonasidagi mag'lubiyatini sharxlab, Cherchill «ruslarning qarshilik ko'rsatishi german armiyasining belini sindirdi» dedi.

1942 yilning oktabrida Ruzvelt Cherchillga yozgan xatida «Rus fronti bizning eng buyuk umidimizdir» dedi.

Nemis-fashistlarining Stalingrad ostonasida so'ngra Kursk yonida bo'lgan katta mag'lubiyati Yevropada fashizmga qarshi milliy-ozodlik kurashining boshlanishiga olib keldi. Yugoslaviya, Fransiya, Italiya, Chexoslovakiya, Polsha, Bolgariya, Albaniya, Gretsiya, Ruminiya, Norvegiya, Gollandiya va boshqa mamlakatlarda bunday kurashlar o'sdi.

Osiyoda va Tinch okean havzasida-Xitoyda, Koreyada, Hindi-Xitoyda, Filippin orollarida, Birma, Malayya va Indoneziyada erksevar xalqlar Yaponiya bosqinchilariga qarshi milliy-ozodlik kurashini boshladilar.

1941 yil kuzida Angliya-Amerika qo'shinlarining asosiy qismi Shimoliy Afrikada edi. Dushman asosiy kuchlarining Sovet-German frontida bo'lishi Angliya-Amerikaga Shimoliy Afrikada xujumga o'tish imkoniyatini tug'dirdi. 1941 yil kuzida Shimoliy Afrikada Germaniya va Italiya 100 ming kishilik harbiy kuchga, Angliya esa 150 ming kishilik harbiy kuchga ega edi. 1941 yil noyabrida gen. Montgomeri qo'mondonligidagi ingliz qo'shinlari hujumga o'tib, 1942 yil yanvarida Kirenaikani egalladilar. Lekin gen. Rommel qo'mondonligidagi nemis-italyan qo'shinlarining qarshi hujumlari natijasida inglizlar yana Misrga Al-Alamaynga chekindilar. 1942 yilning 23 oktabrida ingliz qo'shinlari qarshi hujumga o'tib, agressorlarni Misrdan surib chiqardilar, Kirenaika va Tripolitaniyani egalladilar. 1942 yilning 8 noyabrida Amerika generali Eyzenxauer boshchiligidagi 700 ming kishilik ingliz-amerika qo'shinlari uch guruhga bo'linib hujum boshladi va Shimoliy-G'arbiy Afrika, Fransiya Marokashi va Jazoir hududlarini egallab Tunis hududiga kirdilar.

1943 yilning 20-21 martida ittifoqchilar hujumni davom ettirdilar. Italyan-nemis qo'shinlari ko'p talofat ko'rib, O'rta yer dengizi qirg'oqlariga chekindilar. Angliya-Amerika armiyasi Tunisni ishg'ol qildilar va nihoyat 1943 yilning 12 mayida Shimoliy Afrikada italyan-

nemis qo'shinlari taslim bo'ldi. Bu g'alaba ittifoqchilar uchun 2-chi frontni ochish uchun imkoniyat tug'dirib berdi. Biroq, ular 2-chi frontni ochishni paysalga solishni davom ettirdilar. Ular Shimoliy Afrikadagi g'alabalarini bo'rttirib maqtashdilar, Al-Alamayn yonidagi jangni 2-chi Stalingrad deb atashdilar. Xolbuki, Stalingrad ostonasidagi jangda dushmanning 1 mlnga yaqin armiyasi ishtirok etgan bo'lsa, Al-Alamayn yonidagi jangda dushmanning 80 ming kishilik armiyasi qatnashdi. Demak, 2-chi Stalingrad jangi deb ko'klarga ko'tarib maqtash, bo'rttirish bo'lgan ekan. Gitler Germaniyasi ittifoqchilarining, ayniqsa, fashistik Italiyaning ahvoli g'oyat darajada yomonlashib ketdi. Sovet-German frontida Italiya 11 ta diviziyasidan mahrum bo'ldi. Shimoliy Afrikada u katta talofat ko'rdi. Mamlakat iqtisodiy tanglikni boshidan kechirmoqda edi, xom ashyo yetishmasdi. U Germaniyaning qaramiga aylandi, 500 ming ishchi Germaniyaga olib ketilgan edi. Moliyaviy ahvol og'irlashib, aholi sulhni talab qilib chiqa boshladi. Italiya soldatlari to'da-to'da bo'lib ittifoqchilar tomoniga o'tib keta boshladi. Italiyaning tang ahvolda qolganligidan foydalanib, Kursk janglari ketayotgan paytda Ittifoqchilar armiyasi 1943 yil iyulida Sitsiliya oroliga qo'shin tushirdi va uni egalladilar. 1943 yil 19 iyulda Verona shahrida Mussolini Gitler bilan uchrashib, undan yordam so'radi, biroq Gitler buni rad qiladi va Shimoliy Italiyanigina «birga himoya qilish»ni taklif qiladi. U bu bilan Germaniyani janub tomondan himoya qilishda Italiyaning qolgan qo'shinlaridan foydalanishni ko'zda tutgan edi. Veronadagi kengash Italiya fashistik partiya Sovetiga ma'qul bo'lmadi.

Sovet 24 iyulda Oliy bosh qo'mondonlik lavozimini Mussolini qo'lidan olib korolga topshirish to'g'risida qaror qabul qildi. Mussolini barcha lavozimlaridan mahrum qilindi va Marshal Badalyo boshchiligida yangi hukumat tuzildi. Mussolini qamoqqa olindi. 15 avgustda Badalyo hukumati gen. Eyzenxauer bilan muzokoralar olib bordi va 3 sentabrda yarashuv va so'zsiz taslim bo'lish aktiga imzo chekdi. Shu kuni Angliya-Amerika qo'shinlari Janubiy Italiyaga tushirildi. Gitlerchilar vahimaga tushib, Italiyaning shimoliy va markaziy rayonlarini, shuningdek janubning bir qismini ishg'ol qildilar. Korol va Badalyo hukumati ittifoqchi qo'shinlar panohiga qochdi.

12 sentabrda Gitler Mussolinini qamoqdan ozod etib, samolyotda Germaniyaga olib bordi. Gitler bilan muzokoralar bo'lib o'tgach Mussolini gitlerchilar yordami bilan Shimoliy Italiyada qo'g'irchoq hukumatni tuzdi. Gitlerchilar taslim bo'lgan italyan qo'shinlarini qurolsizlantirib, ularga nisbatan shafqatsizlik bilan munosabatda bo'ldilar. 13 sentabrda Badalyo hukumati fashistik Germaniyaga qarshi urush e'lon qilishga va antigitler kaolitsiyaga qo'shilishga majbur bo'ldi. Biroq, ittifoqchilar Italiyaning Shimoliga qarab hujum qilishni tezlashtirmadilar, faqat 1943 yilning noyabridagina Neapol shimolidagi nemislar ishg'ol qilgan pozitsiyalarga yetib bordilar.

Ma'lumki, militaristik Yaponiya 1941 yil dekabr - 1942 yil mayida Janubi-Sharqiy Osiyoning katta qismini va Tinch okeanda bir qancha orollarni egallagan edi. U Avstraliyaga hujum qilishga tayyorlanmoqda edi. Biroq, amerikaliklar tashabbusni egallab, 1942 yilning mayida Yangi Gvineyada va Marjon dengizida Yaponiyaning harbiy kemalariga zarba berdi. Yaponiya 2 yirik harbiy kemadan va 80 ga yaqin samolyotidan mahrum bo'ldi. 4-5 iyunda Gavay orollarida bo'lgan jangda ham Yaponiya mag'lubiyatga uchradi va u Tinch okeanda mudofaaga o'tishga majbur bo'ldi. 1943 yilda ham Tinch okeanda bo'lgan urushlarda Yaponiya muvaffaqiyatsizlikka uchradi. 1944 yil iyulida Tinch okeanda urushni olib borgan general Tadzio hukumati quladi. Yaponiyaning Tinch okeanda va Osiyodagi ahvoli yomonlasha bordi.

1943 yil 19-30 oktabrda Moskvada SSSR, AQSH va Buyuk Britaniya tashqi ishlar ministrlarining konferensiyasi bo'lib o'tdi. Konferensiya SSSR taklifi bilan urushning borishi, uning muddatini qisqartirish va urushdan keyingi tartib to'g'risidagi masalalarni muhokama qildi. Konferensiya urush davrida va urushdan keyin ittifoqchi davlatlar hamkorligi to'g'risida Deklaratsiya qabul qildi. Deklaratsiya dushman taslim bo'lguncha urushni davom ettirish, urushdan keyin butun kuchlarni tinchlik va xavfsizlikning mustahkamlashga qaratish, xalqaro tinchlik va xavfsizlik tashkilotini tuzish, urushdan keyin janjalli masalalarni hal qilishda o'zaro kelishmay turib harbiy vositalarni ishga solmaslik kabi masalalarni bayon qildi.

Konferensiya Stalin, Ruzvelt va Cherrill imzosi bilan e'lon qilingan gitlerchilarni javobgarlikka tortish to'g'risidagi Deklaratsiyani ham qabul qildi.

1943 yil 28 noyabr-1 dekabrda Tehronda uch buyuk davlat - SSSR, AQSH, Buyuk Britaniya hukumatlari rahbarlari, tashqi ishlari ministrleri va Bosh shtab boshliqlari ishtirokida konferensiya bo'lib o'tdi. Konferensiyada harbiy hamkorlik, 2-chi front masalasi, urushdan keyingi Germaniya masalasi muhokama qilindi. Tegishli xujjatlar, Deklaratsiyalar qabul qilindi.

Sovet delegatsiyasining qat'iy talabi bilan 1944 yil 1 maydan kechiktirmay La-Mansh bo'g'ozi orqali Shimoliy Fransiyaga o'tib, Yevropada 2-chi frontni ochish to'g'risida bitimga kelindi. Germaniya masalasida esa bir fikrga kelinmadi. SSSR urushdan keyin Germaniyani yagona demokratik davlat bo'lib qolishi to'g'risida bayonnoma berdi. AQSH Germaniyani besh davlatga bo'lib yuborish taklifini kiritdi. Angliya esa Prussiyani Germaniyaning boshqa qismidan ajratib yuborishni, Germaniyaning Janubiy viloyatlarini «Dunay federatsiyasi» tarkibiga kiritish taklifini kiritdi.

Eron to'g'risida deklaratsiyada unga iqtisodiy yordam ko'rsatish, uning mustaqilligiga, hududiy butunligiga ziyon yetkazmaslik haqida majburiyatlar olindi. Ayrim kelishmovchiliklarga qaramay Tehron konferensiyasi Gitlerga qarshi qaratilgan kaolitsiyani mustahkamlashda katta rol o'ynadi. Gitlerning antifashistik kaolitsiyani bo'lib yuborish uchun qilgan harakatlari befoyda ketdi.

1944 yilning yozi va kuzida Sovet qo'shinlari nemis-fashist qo'shinlarini quvib borib, o'zining Shimoliy dengizdan Qora dengizgacha bo'lgan davlat chegarasini tikladi va fashizm qulligiga tushib qolgan davlatlarni ozod qilish uchun holoskorlik missiyasini boshladi.

AQSH va Angliya 1944 yilning 6 iyunida nihoyat 2-chi frontni ochdilar. General Eyzenxauer qo'mondonligidagi ingliz-amerika qo'shinlari La-Manshdan o'tib, Fransiyaning shimolidagi Normandiyaga kirdilar. 15 avgustda Angliya, Fransiya va AQSH qo'shinlari Fransiyaning janubiga Tulan rayoniga tushirildi. 13 avgustda Fransiyaning shimolida olib borilgan bir qator operatsiyalardan keyin nemis-fashistlarning 100 mingga yaqin qo'shinlari asir olindi. 1944 yil 25 avgustda fransuz vatanparvarlari tomonidan ozod qilingan Parijga kirdilar va Fransiya respublikasi muvaqqat hukumati Londondan Parijga keldi.

1944 yilning sentabrida ittifoqchilarning qo'shinlari Fransiyani, Lyuksemburni, Belgiyani va Gollandiyaning bir qismini ozod qildilar, hamda Germaniya chegarasiga o'tdilar.

G'arbdagi front fashistik Germaniyaning 85 ta diviziyasini o'ziga jalb qildi, xolbuki 1944 yil yozida ham dushmanning 228 diviziyasi va 28 ta brigadasi Sovet German frontida edi. Shu sababli 1944 yil sentabrida Cherrill «shu rus armiyasi German harbiy mashinasining ichak chavog'ini olib tashladi va hozirgi daqiqada ham o'z frontida dushmanning tengsiz katta qismiga bardosh bermoqda», deb iqror bo'lishga majbur bo'lgan edi.

1944 yil oxiri va 1945 yil boshiga kelganda kuchlar nisbati to'la Sovet armiyasi foydasiga o'zgargandi. Lekin dushman hali kuchli edi, uning 204 diviziyasi Sovet-German frontida edi, faqat 70 dan kamroq diviziyasi G'arbiy Yevropa frontida edi.

Shunga qaramasdan 1944 yil 16 dekabrda nemis qo'shinlari G'arbiy frontda hujum boshlab, Angliya-Amerika qo'shinlari frontini yorib o'tdi va Fransiyaning Shimoli-Sharqiga tutashgan Belgiyaning Ardenn tog' rayonlarida Angliya-Amerika qo'shinlarini og'ir ahvolda qoldirdi. Ittifoqchilarning qo'shinlari 100 kmcha orqaga chekindi va ko'p talofat ko'rdi. 1945 yil yanvarida nemis-fashistlar Elzasda ham hujumga o'tdi. Cherrill 1945 yil 6 yanvarda Stalinga murojaat qilib, Sovet qo'shinlari hujumini tezlatishni va shu yo'l bilan yordam berilishini so'radi. 20 yanvarga mo'ljallangan hujum 12 yanvarda boshlandi va 1200 km kenglikda dushman kuchlariga qaqshatqich zarbalar berildi. Bu hujum operatsiyalarida 150 ta Sovet diviziyasi qatnashdi. Sovet qo'shinlari odam va texnika jihatidan dushmandan ancha ustun edi. Gitler qo'shinlari bir necha yuz kilometr g'arbga uloqtirib tashlandi va 60 ta nemis diviziyasi tormor qilindi. 17 yanvarda Varshava, 13 fevralda Budapesht, 4 aprelda Bratislava ozod qilindi. 9 aprelda Kengsburg, 13 aprelda Vena ishg'ol qilindi. Sovet qo'shinlarining bu hujumlari nemis-fashist qo'shinlarining g'arbiy frontdagi hujumlarining to'xtatilishiga olib keldi. Gitler qo'mondonligi bir qancha diviziyalarni g'arbiy frontdan olib Sharqiy frontga tashlashga majbur

bo'ldi. Angliya-Amerika qo'shinlari o'zlarini o'nglab olib 1945 yil martidan nemislarga qarshi hujumga o'tishga muvaffaq bo'ldilar.

1945 yil 4-12 fevralda Qrimning Yalta shahrida uch buyuk davlat-SSSR, AQSH, Buyuk Britaniya hukumat boshliqlari-Stalin, Ruzvelt, Cherchill va ularning maslahatchilari ishtirokida konferensiya bo'lib o'tdi. Konferensiyada Germaniyaga qarshi birgalikda urush harakatlarini tezlashtirib olib borish rejalari, urush harakatlarini Germaniya so'zsiz taslim bo'lgandan keyin to'xtatish haqida bitim qabul qilindi. Konferensiyada AQShning Germaniyani 5 qismga, Angliyaning esa Germaniyani 3 qismga bo'lish to'g'risidagi takliflari rad etilib, kelgusi Germaniyani yagona davlat sifatida saqlab qolish to'g'risida ham bir bitimga kelindi.

Konferensiya gitlerchilar keltirgan zararlar va xarobalar uchun Germaniyadan 20 mlrd. dollar (SSSRga 10 mlrd) miqdorida reparatsiya olish to'g'risida kelishib oldilar. Konferensiyada tinchlik va xavfsizlikni saqlash va ta'minlash uchun Birlashgan millatlarning xalqaro tashkilotini tuzish to'g'risida ham kelishib qaror qabul qildilar.

Konferensiyada Germaniya so'zsiz taslim bo'lgandan keyin 2-3 oy ichida SSSRning Yaponiyaga qarshi urushga kirishi to'g'risida yashirin bitim tuzildi; Janubiy Saxalinni, unga yaqin orollarni va Kuril orollarini Yaponiyadan SSSRga berilishi masalasi, Port-Artturni SSSRning harbiy-dengiz bazasi sifatida qayta ijaraga berish va boshqa masalalar ko'rildi.

1945 yil aprel o'rtalarida gitlerchilar Sovet qo'shinlariga qarshi 214 diviziya va 14 brigada, ittifoqchilarga qarshi 60 diviziyaga ega edi. 1945 yilning 16 apreldan Berlin operatsiyasi boshlandi. 23 aprelda Sovet qo'shinlari Berlinga kirdilar, 25 aprelda Berlin hamma yoqdan qurshab olindi. G'arbdan ittifoqchi qo'shinlar Reyndan o'tib, Elba daryosi tomon yurdilar va 25 aprelda Sovet qo'shinlari Amerika qo'shinlari bilan uchrashdilar.

Berlin operatsiyasi ikkinchi jahon urushining eng buyuk janglaridan biri bo'ldi. Berlinni shturm qilishda Sovet tomonidan 2,5 mln kishi, 41 ming 600 zambarak va minomyot, 6300 tank va o'zi yurar to'plar, 7500 jangovor samolyot va boshqa harbiy texnikalar qatnashdi; nemis-fashistlar tomonidan 1 mln kishi, 10 ming 400 zambarak va minomyot, 3300 samolyot va boshqa harbiy texnikalar qarshi qo'yildi. 30 aprelda Sovet qo'shinlari Reyxstagni shturm qilib oldilar va soat 14 dan 25 minut o'tganda Reyxstag binosi ustiga G'alaba bayrog'ini o'rnatdilar. Shu kuni Gitler, undan keyin esa Gebbels o'zini-o'z otib o'ldirdi. 2 mayda fashistlarning Berlin gornizoni taslim bo'ldi va Berlin Sovet qo'shinlari tomonidan batamom ishg'ol qilindi.

G'arb tarixchilari Berlin operatsiyasi vaqtida nemis-fashist armiyasi ruslarga qarshilik ko'rsatmadilar deb xaspo'shlaydilar, xolbuki 1945 yil 16 apreldan 2 mayigacha Berlin uchun bo'lgan janglarda Qizil Armiya 102 ming kishisidan ajraldi.

1945 yil 25 aprelda Shimoliy Italiyadagi xalq qo'zg'oloni natijasida Mussolini rejimi bitirildi, qo'lga tushgan Mussolini partizan sudi hukmi bilan 28 aprelda osib o'ldirildi.

Gitlerning vasiyatiga ko'ra 1 mayda Shimoliy Germaniyada admiral Denits boshchiligidagi yangi fashistik hukumat tuzildi.

1945 yil 8 mayda SSSR, AQSH, Angliya va Fransiya qo'mondonliklarining vakillari ishtirokida Germaniya qo'mondonligining vakillari (Keytel va boshqalar) Germaniyaning so'zsiz taslim bo'lganligi to'g'risidagi aktga imzo chekdi. 1945 yil 23 mayda Sovet qo'mondonligining talabi bilan Denits va uning «hukumati» qamoqqa olindi.

1945 yil 5 iyunda Berlinda Germaniyaning mag'lubiyati haqidagi qabul qilingan Deklaratsiyaga muvofiq Germaniyada oliy hokimiyat 4 ittifoqchi davlat ixtiyoriga o'tdi. Germaniya 4 zonaga: SSSR, AQSH, Angliya va Fransiya qo'shinlari okkupatsiya zonasiga, Berlin esa 4 sektorga bo'lindi.

Qrim konferensiyasi qarorlariga ko'ra 1945 yil 25 apreldan 26 iyunigacha antifashistik kaolitsiyaga kirgan davlatlarning-Birlashgan Millatlarning San-Fransiskoda konferensiyasi bo'lib o'tdi. 46 mamlakatdan 300 ga yaqin vakillar qatnashdi, keyinroq yana 4 davlatdan delegatsiyalar bordi, shu jumladan Ukraina SSR va Belorussiya SSR vakillari ham qo'shildi. Konferensiyada xalqaro tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash va ta'minlash uchun Birlashgan Millatlar Tashkilotini tuzish masalasi ko'rildi. Nihoyat 1945 yil 26 iyunda BMTning ustavi qabul

qilindi. O'sha yili 24 oktabrda BMT a'zosi bo'lgan davlatlar tomonidan Ustav tasdiqlandi. 24 oktabr - BMT kuni deb ataldi.

1945 yil 17 iyul - 2 avgustda uch buyuk davlat - SSSR, AQSH, Buyuk Britaniya hukumatlari boshliqlarining-Stalin, G.Trumen (1945 yil 12 aprelda prezident Ruzvelt vafotidan keyin vitse-prezident G.Trumen prezidentlik lavozimini egallaydi), U.Churchill, 25 iyuldan boshlab K.Etlli (Angliya parlament saylovlarida g'alaba qilgan leyboristlar partiyasining vakili) va ularning maslahatchilari ishtirokida Berlin yaqinida Potsdamda konferensiya bo'lib o'tdi. Potsdam konferensiyasi g'oyat muhim qarorlar qabul qildi. Konferensiyadagi bosh masala-Germaniya masalasi edi. Siyosiy prinsiplar bo'yicha Germaniyani to'la qurolsizlantirish (demilitarizatsiya), fashizmni bitirish (denatsifikatsiya), Germaniyaning siyosiy hayotini demokratik asosda qayta qurish (demokratizatsiya), iqtisodiy prinsiplar bo'yicha harbiy-iqtisodiy potensialni va kartellarni tugatish choralari, okkupatsiya davrida ham Germaniyani «iqtisodiy tomondan yaxlit» deb qarash ko'zda tutildi. Harbiy jinoyatchilarni qamoqqa olish va sud qilish to'g'risida kelishib olindi. Xalqaro harbiy tribunal tuzildi. Konferensiyada reparatsiya masalasi ko'rib chiqildi va 50 % (10 mlrd dollari) SSSR foydasiga deb belgilandi. Uch davlat Germaniyaning harbiy-dengiz va savdo flotini teng bo'lib olish to'g'risida kelishib oldilar.

Konferensiyada Polshaning g'arbiy chegaralari qilib, Oder va Neyse daryolari belgilandi. Kenigsberg shahri va uning atrofidagi joylar SSSRga beriladigan bo'ldi.

3-§. Ikkinchi jahon urushining so'ngi davrida urush harakatlari, militaristik Yaponiyaning tor-mor qilinishi. Urushning tugashi va natijalari

Potsdam Konferensiyasida militaristik Yaponiyani tezlikda tor-mor qilish masalasi ham ko'rib chiqilgan edi.

1945 yil 6 va 9 avgustda prezident Trumen buyrug'i bilan Yaponiyaning Xirosima va Nagasaki shaharlariga atom bombasini tashladilar. Xirosima butunlay vayron qilindi. Hammasi bo'lib 300 mingga yaqin kishi halok bo'ldi, 200 mingga yaqin kishi yarador, mayib-majrux bo'lib qoldi. Xirosimaga tashlangan bombaning quvvati 12 kiloton edi.

Sovet hukumati Yaponiyaning urush davridagi antisovet pozitsiyasini hisobga olib, 1945 yil 8 avgustda 9 avgustdan boshlab Yaponiyaga qarshi urush boshlayajagini bildirdi.

9 avgustda Sovet qo'shinlari shiddatli hujumlarini boshlab yubordi va 1945 yilning 2 sentabrida Yaponiya so'zsiz taslim bo'lish aktiga imzo chekdi. Janubiy Saxalin va Kuril orollari SSSRga o'tdi. Yaponiyaning taslim bo'lishi bilan 2-chi jahon urushi ham tugadi.

Ikkinchi jahon urushi 5 davrga bo'linadi.

Birinchi davr-(1939 yilning 1 sentabri-1941 yilning 22 iyuni) G'arbiy Yevropa davlatlarining mag'lubiyatga uchrashi, kuchlar nisbatining fashizm foydasiga o'zgarishi bilan, xarakterlanadi.

Ikkinchi davr - (1941 yil 22 iyun - 1942 yil 19 noyabr) Yashin tezligida urush olib borish rejasining barbod bo'lishi, Antifashistik koalitsiyaning tuzilishi va 2-jahon urushida tub burilishining boshlanishi bilan xarakterlanadi.

Uchinchi davr - (1942 yil 19 noyabr - 1943 yil oxiri) Strategik tashabbusning to'la Sovet Ittifoqiga o'tishi va urushda tub burilishning yuz berishi bilan xarakterlanadi.

To'rtinchi davr - (1944 yil yanvar - 1945 yil 9 may). Germaniyaning, uning Yevropadagi ittifoqchilarining tor-mor qilinishi va taslim bo'lishi bilan xarakterlanadi.

Beshinchi davr - (1945 yil 9 may - 1945 yil 2 sentabr). Militaristik Yaponiyaning tor-mor qilinishi bilan xarakterlanadi.

2-jahon urushi 6 yil davom etdi va deyarli barcha mamlakatlarni o'ziga tortdi. Urushda 61 davlat ishtirok etdi, 40 ta mamlakat hududida urush xarakatlari bo'ldi. Jahon aholisining 80 % urushda faol qatnashishga majbur bo'ldi. Hammasi bo'lib, 110 mln kishi qurollantirildi, 60 mlnga yaqin kishi halok bo'ldi, 35 mln kishi mayib-majrux bo'lib qoldi. Yevropadagi qamoq va o'lim lagerlarida 12 mlndan ortiq kishi halok bo'ldi. Urushda AQSH 300 ming, Angliya 250 ming, SSSR 24 mln, Germaniya 12; mln, Polsha 6 mln kishidan ajraldi.

2-jahon urushi keltirgan zararlar 3 trillion 300 mlrd dollarga yetdi. Harbiy harajatlarni ham qo'shib hisoblaganda 4 trillion dollarga tenglashdi. SSSR ko'rgan zarar 2 trillion 600 mlrd. so'mga yetdi. Sovet-German frontida hammasi bo'lib, 507 ta nemis diviziyasi va uning ittifoqchilarining 100 ta diviziyasi tor-mor qilindi. SSSR ittifoqchilari-AQSH va Angliya dushmanning 176 diviziyasini tor-mor qildilar. Dushmanni tor-mor qilishda Sharqiy frontning roli katta bo'ldi. AQShning sobiq davlat sekretari Stetinnus o'z asarlarining birida (1950 y) shunday deb yozadi: «Amerika xalqi o'zining 1942 yilda halokat yoqasida turganini esdan chiqarmasligi kerak. Agar Sovet Ittifoqi o'z frontini ushlab qolmaganda, nemislar Buyuk Britaniyani zabt etish imkoniyatiga ega bo'lardilar. Shuningdek, ular Afrikani bosib olishga so'ngra esa Lotin Amerikasida platsdarm yaratishga qodir bo'la olar edilar».

«Stalingraddagi jasorat degan edi F.Ruzvelt - barcha erksevar kishilar qalbini mangu ruhlantiradi».

1945 yil 8 avgustda London shahrida SSSR, AQSH, Angliya va Fransiya vakillarining konferensiyasi bo'lib, bunda Xalqaro harbiy tribunal tuzish va uning nizomini ishlab chiqish masalasi ko'rildi, hamda fashistik harbiy jinoyatchilar ustidan sud jarayonini olib boradigan Xalqaro harbiy tribunal tuzilganligi to'g'risida bitim tuzdilar. Qisqa vaqt ichida bu bitimga 19 ta davlat qo'shildi. Tribunalda asosiy qoralovchi davlatlar SSSR, AQSH, Angliya va Fransiyadan iborat Qoralovchilar komiteti tuzildi.

29 avgustda fashist bosh aybdorlarining ro'yxati e'lon qilindi, ular 24 ta bo'lib, natsist siyosatchilari, harbiylari, diplomatlari, ideologlari va ishlab chiqarishdagi mutaxassislaridan iborat edi. Jumladan, Gering, Gess, Ribbentrop, Borman, Keytel, Ley, Krupp, Kaltenbrunner, Rozenberg, Frank, Frik, Shtreyxer, Shaxt, Funk, Denits, Reder, Shirax, Zaukel, Iodl, Papen, Zeyss-Inkvart, Shpeyer, Neyrat va Frichlardan iborat edi.

18 oktabrda qoralovchilar Komiteti tomonidan ularning ro'yxati barcha xujjatlari bilan Xalqaro harbiy tribunalga topshirildi, uning sekretariati orqali har bir qoralovchiga ham yetkazildi. Tribunal raisi, Angliyalik sudya lord Dj. Lorens «Tribunal bosh qoralovchilar Komiteti tomonidan tayyorlab topshirilgan ishlardan mamnunki u yetarli darajada barcha xujjatlar asosida tayyorlangan», -degan edi.

Nyurnberg jarayoni, xalqaro jamoatchilik ko'zi oldida oshkora olib borildi. 403 ta ochiq sud majlisi bo'lib o'tdi. Sud zaliga 60 mingta ruxsatnoma tarqatilgan edi. Radio, kino, matbuot millionlab kishilarni bo'layotgan sud jarayonidan xabardor qilib bordi. Buning uchun ommaviy axborot vositalarining vakillariga zaldan ko'p o'rin ajratildi, 350 o'rinning 250 tasi ularga berildi.

Nyurnberg jarayoni 22 ta bosh nemis-natsistlari ustidan 2500 ta xujjatli faktlar keltirdiki, ularning oqlovchi-himoyalovchilari ham biron-bir ish qilolmay qoldilar. Nima uchun 22 ta dedik, shuning uchunki, Borman delosi u yashiringanligi uchun sirtdan ko'rildi va hukm chiqarildi, Krupp kamerada o'zini urib, shol qilib tashlaydi, shuning uchun uning ishi to'xtatiladi. Ley qoralovchi xujjatning xulosasi bilan tanishib chiqqandan keyin kamerada o'zini-o'zi osib qo'yadi.

Nyurnberg sud jarayoni 10 oy davom etdi va 1946 yilning 1 oktabrida Xalqaro harbiy tribunal o'zining hukmini chiqardi: Gering, Ribbentrop, Keytel, Rozenberg, Frank, Frik, Shtreyxer, Zaukel, Yodl, Zeys-Inkvart, Kaltenbrunner va Borman (sirtdan) osib o'ldirish bilan o'lim jazosiga hukm qilindi; Gess, Reder va Funk - umrbod qamoqqa, Shirax va Shpeyer - 20 yilga; Neyrat - 15 yilga; Denits- 10 yilga qamoq jazosiga hukm qilindi. Shaxt, Papen va Frichlar oqlandilar.

SSSRdan qoralovchi Rudenko va Tribunal a'zosi I.T.Nikitchenkolar Shaxt, Papen va Frichlarning oqlanishiga norozi bo'lganligini va Gessga yengil jazo berilganligini ma'lum qildilar. Tribunalning Nizomi prinsiplari va hukmi 1946 yilning 11 dekabrda BMTning Bosh Assambleyasi tomonidan tasdiqlandi.

Xalqaro harbiy tribunalning Nizomiga muvofiq, sud jarayonlari mamlakatlarning milliy huquqiy organlari tomonidan ham o'tkazildi.

1945 yilning dekabridan 1946 yilning yanvarigacha fashist jinoyatchilari ustidan Kiyev, Minsk, Riga, Leningrad, Smolensk va Bryansk shaharlarida sud jarayonlari o'tkazildi, 1952 yil fevralida SSSR Oliy sudining harbiy kollegiyasi general - feldmarshallar E.Fon Kleyst va F.SHernerlarni uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etdi. Sharqiy Germaniyada SSSR harbiy ma'muriyatining sud organlari 48 ming kishi ustidan tergov ishlarini olib bordi va shundan 17 ming 175 kishi turli muddatlarga ozodlikdan mahrum etildi. (10063 tasi SSChilar, 1988 tasi gestopachilar, 806 tasi SD chilar, 4317 tasi boshqa fashistik tashkilotda xizmat qilganlar edi.) Sovet okkupatsion zonasida 390 ming kishi siyosiy va jamoat ishlarida ishtirok etishdan mahrum etildi. 1981-1986 yillarda SSSRda 60 ta sobiq gitlerchi-jinoyatchilar ustidan sud jarayoni bo'ldi va ular turli muddatlarga ozodlikdan mahrum qilindi. Yevropaning boshqa mamlakatlarida ham shunday sud jarayoni bo'lib o'tdi.

M: GDRda 1945 yil 8 maydan 1984 yil 31 dekabrigacha 12 ming 873 ta gitlerchi-jinoyatchilar ustidan sud jarayoni o'tkazilib, ko'pchiligi tegishli jazolarini oldilar. Polshada 1945-1965 yillarda 8000 ta sobiq natsistlar ustidan sud jarayoni o'tkazildi, shundan 5400 tasi «Uchinchi Reyx»ning fuqarolari edi. AQShga kelsak, Nyurnbergning o'sha saroyida Amerika harbiy sudi, 12 ta sud jarayonini o'tkazdi va 176 ta natsist jinoyatchilarini tegishli jazoladi. Umuman olganda AQSH harbiy sudi tomonidan 1941 ta gitlerchi-jinoyatchilar sud qilindi, shundan 324 tasi o'limga, 367 tasi oqlandi, 57 ta delo tugallanmay qoldi. Angliya sudi 1085 ta jinoyatchi ustidan sud jarayoni o'tkazdi va shundan 240 tasini o'limga hukm qildi. Fransiya sudi 2107 ta deloni ko'rib chiqdi va 104 tasini o'lim jazosiga hukm qildi. Ko'pchilik G'arb mamlakatlarida o'limga hukm qilinganlarning aksariyat qismi umrbod qamoq jazosi bilan almashtirildi.

1957-1958 yillarda deyarli barcha huquqiy jinoyatchilar AQSH, Angliya va Fransiya turmalaridan chiqarib yuborildi. Ko'pchilik natsistlarga «yashirinish» uchun imkoniyat berildi, shundan 10000 tasi AQShdan boshpana topdi.

Sud jarayoni GFR hududida ham olib borildi. 1945 yil 8 maydan 1982 yil 31 dekabrigacha GFRda 87 ming 765 kishi ustidan jinoiy ishi qo'zg'atilib, shundan 6456 kishi javobgarlikka tortildi.

XULOSA

Birinchi jahon urushi va 1917 yil oktabr to'ntarishi tufayli dunyoning yaxlit sistema yashashiga chek qo'yildi. Dunyo bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan kapitalistik va sotsialistik sistemalarga bo'lindi. Birinchi jahon urushida Germaniyaning yengilishi-dunyoda hukmron bo'lish uchun kurashda Angliya, Fransiya va AQSH ning eng kuchli va asosiy raqibining yengilishi bo'ldi. Bu davlatlar o'zlarining harbiy qudrati va halqaro roli oshib borayotganidan foydalanib, o'sha vaqtda tashkil topgan. Xalqaro tashkilot-Millatlar Ittifoqi orqali mustamlakachilik siyosatining yangi rejimi bo'lgan mandat sistemasini joriy qildi. Buning natijasida Germaniya va Turkiyaning mustamlakalari Angliya va Fransiya tomonidan bo'lib olindi. Germaniya va uning ittifoqchilari ustidan qozonilgan g'alaba kapitalistik dunyoda kuchlar nisbatini o'zgartirib yubordi; Angliya jahonda moliya ustunligidan mahrum bo'ldi, urush xarakatlari 11 mlrd. 645 mln. funt sterlingni tashkil etdi. Davlat qarzi 7 mlrd. 800 mln. dunyo sterlingga yetdi. Urushdan oldin dunyoning ko'pgina mamlakatlarga qarzlar berib kelgan Angliya AQShning o'zidan 850 mln. funt sterlingdan ortiq qarzdor bo'lib qoldi. Jahon bozorida Angliyaning pozitsiyasi sezilarli darajada bo'shashib qoldi. Uning iqtisodi uzoq yillar davomida turg'unlik holatida bo'ldi, sanoat mahsulotining hajmi 1934 yilda 1911 yildagiga nisbatan 96%ni tashkil etdi. Urush Fransiyaning xaliq xo'jaligiga katta zarar keltirdi, uning xalqaro sudxo'rlik pozitsiyasiga zarba berildi. Kapitalistik dunyoda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda Fransiyaning hissi 1913 yilda 7,2% bo'lsa, 1937 yilda 5,1%ga tushib qoldi.

Urush tufayli Italiyaning moliyaviy ahvoli yomonlashib, Angliya va AQShga qaramligi kuchaydi. Mamlakatdagi ziddiyatlarning keskinlanishi fashizm tendensiyalarining kuchayishiga olib keldi. Birinchi jahon urushi tufayli AQShning xalqaro miqyosidagi roli oshib ketdi, u

dunyoning kreditoriga aylandi va dunyo oltin zahirasining 50%idan ko'prog'ini o'z qo'lida to'plab oldi. Rossiyada oktabr to'ntarishi yuz berib ijtimoiy-siyosiy tuzumi o'zgarib ketdi. Hokimiyat tepasiga kelgan Sovetlar urushdan bir tomonlama chiqdi va vayron bo'lgan xo'jalik xarobalari ustida yangi jamiyat qurishga o'tdi. Buning natijasida Antantaning bo'linishi yuz beribgina qolmay, balki shu bilan bizga dunyoning ikki sistemaga bo'linib ketishi ham yuz berdi. Germaniya va uning ittifoqchilarining urushda yengilishi kuchlar nisbatini Angliya va Fransiya foydasiga o'zgartirib yubordi. Germaniya buyuk davlatlar qatoridan chiqarib qo'yildi, Versal sulh shartnomasi orqali unga og'ir majburiyatlar yuklandi. Avstriya-Vengriya monarxiyasi parchalandi, u buni davlatlar safidan butunlay chiqib ketdi.

Dunyo davlatlari siyosatida shunday bir holat vujudga keldiki, urushda yengilgan davlatlar bilan yengan davlatlar o'rtasida, g'olib davlatlarning o'zlari o'rtasida, kapitalistik davlatlar bilan SSJI o'rtasida ziddiyatlar kuchayib bordi.

Bir tomondan g'olib davlatlar «Versal Vashington» sistemasini saqlab qolishiga harakat qilishsa, ikkinchi tomondan Germaniya va uning ittifoqchilari bu sistema shartlarining bekor qilinishi uchun, ilgari mavqeilarini tiklab olib, o'ch olishni o'ylar edilar. O'z navbatida bunday holat Germaniyada, Parij sulh konfereyasi natijalaridan nazozi bo'lgan Italiyada fashizmning vujudga kelishiga olib keldi.

Urushdan keyingi xalqaro munosobatlarni tartibga solib turishi uchun tuzilgan Millatlar Ittifoqi Angliya va Fransiya davlatlarining tipik tashkilotiga aylandi. Bu tashkilot qurolsizlanishi masalalarini hal qilmadi, tinchlik va xafsizligini ta'minlash uchun, fashizm xavfining oldini olib qolish uchun keskin choralar ko'rmadi.

((asr 30 yillari boshlariga kelib, notekis taraqqiyotning keskinlashishi davlatlar o'rtasidagi ziddiyatlarni chuqurlashtirib yubordi. Versal-Vashington sistemasi yangi sharoitlarga mos kelmay qola boshladi. Imperialistik Yaponiya Vashington sistemasidan, fashistik Germaniya va Italiya Versal sistemasidan mutlaqo nazozi edilar. Yaponiya Osiyoda va Tinch okeanda, Gitler Germaniyasi jahonga hukmronlik qilishga zo'r berib urindi. Ular o'zaro til biriktirib dunyoni qaytadan taqsimlab olishni maqsad qilib qo'yidilar. Yirik kapitalistik davlatlar-AQSH, Angliya va Fransiya o'z pozitsiyalarini saqlab qolishi hamda yangi pozitsiyalarni egallash uchun zo'r berib xarakat qilishdi. Bu davlatlar keskinlashib borayotgan ziddiyatlarni Xitoy va Sharqiy Yevropa davlatlari hisobiga, birinchi navbatda SSJI hisobiga bartaraf qilishga harakat qildilar.

O'z navbatida SSJI ham dunyo buyuk davlatlari siyosatida faol qatnashishga va mavjud bo'lgan ziddiyatlarni o'zidan uzoqlashtirishga harakat qildi. Ikkinchi jahon urushi arafasidagi xalqaro vaziyatdagi yirik davlatlarning ishtiroki, xuddi teatr sahnasida rol bajarayotgan aktyorlarni eslatardi. Hamma narsa sahnada aktyorning rolni mahorat bilan o'ynashiga bog'liq bo'lib qolgan edi. Bir tomondan Versal-Vashington sistemasi bunyodkorlari-Angliya, Fransiya va AQSH davlatlari bilan fashist davlatlari -Germaniya, Yaponiya va Italiya davlatlari o'rtasida, ikkinchi tomondan SSJI bilan Angliya, Fransiya va AQSH davlatlari o'rtasida, uchunchi tomondan SSJI bilan fashist davlatlari o'rtasida diplomatik kurashlar kuchayib bordi. O'z navbatida bu ikkinchi jahon urushining ham tayyorlab borilganini bildirardi. Pirovardida fashizm kuchlar bilan antifashistik tinchliksevar kuchlar o'rtasida insoniyat tarixida hali shu vaqtgacha yuz bermagan dahshatli to'qnashuv yuz berdi. 60 milliondan ortiq kishining yostig'ini quritgan ikkinchi jahon urushi fashizm kuchlarining mag'lubiyati bilan tugadi. Butun tinchliksevar kuchlar g'alabaning 60 yilligini nishonlagan hozirgi paytida dunyo urushqoqlari qizg'inbarot urushning dahshatlarini ko'z oldilaridan bir o'tkazib qo'ysalar bo'lardi.

1-ilova

1941 yil 22 iyun arafasidagi kuchlar nisbati:

Harbiy kuchlar	SSSR	Germaniya (ittifoqchilari bilan)	Nisbat
Odam soni	5373000 (2680000)	5500000	01:1,2
To'plar va minamyot	67000 (39000)	47000	1,4:1
Tank va o'zi yurar to'plar	9500 (1475)	4300	2,2:1
Samolyotlar	8500 (1540)	4980	1,8:1

a) Qovusdan tashqarida barcha harbiy kuchlar va texnikalar soni ko'rsatilib, ularning katta qismi jangovor holatga keltirilmagandi, SSSRning g'arbiy chegara rayonlariga ko'chirilmagandi yoki eskirgan texnikalar edi.

b) Qovus ichidagi raqamlar jangovor holatdagi va g'arbiy chegaralarga olib borilgan harbiy kuchlar va texnikalardir.

2-ilova

G'arbiy frontdagi kuchlar nisbati (1944 yil - sentabr, 1945 yil - fevral)

Harbiy kuchlar	Ittifoqchilar	Fashistlar	Nisbati
Odam soni	4859000	1820000	2,7:1
To'plar va minamyotlar	37000	30000	1,2:1
Tanklar va o'zi yurar to'plar	11300	2000	5,7:1
Samolyotlar	11700	1000	11,7:1

3-ilova

Berlin operatsiyasi (1945 yil 16 aprel - 2 may).

Harbiy kuchlar	SSSR	Germaniya	Nisbati
Odam soni	25000000	10000000	2,5:1
Zambaraklar va minamyotlar	41600	10400	4,0:1
Tanklar va o'zi yurar to'plar	6250	1500	4,1:1
Samolyotlar	7500	3300	2,3:1

4-ilova

Sovet-Yaponiya frontidagi kuchlar nisbati (1945 yil avgust)

Harbiy kuchlar	SSSR	Yaponiya	Nisbati
Odam soni	1500000	1200000	1,2:1
To'plar va minamyot	26000	8500	3,5:1
Tank va o'zi yurar to'plar	5500	1155	5:1
Samolyotlar	3800	1800	2,1:1

mavzu: IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYINGI YILLARDA YEVROPA VA AMERIKA MAMLUKATLARI

Ko'rib chiqiladigan masalalar:

- 1. XX asrning 2-yarmida xalqaro munosabatlar.**
- 2. Dunyo siyosatida markazga intilish tendensiyalari.**
- 3. Ko'p qutbli dunyo chizgilari.**
- 4. Sotsializm yemirilishining sabablari va oqibatlari.**

Tayanch so'zlar:

Ikki qutbli dunyoda AQSH va SSSRning yetakchiligi. Germaniyaning taqsimlanishi. GFR va GDRning tuzilishi. NATOning tuzilishi. Kuba inqilobi va Karib krizisi. AQSH va SSSRning qurollanish poygasini boshlashlari. qurollanish qiymati. Yaqin Sharqda mojaroning boshlanishi. Isroil-Arab davlatlari urushi. Falastin qochoqlari. AQShning Vyetnamga xujumi. O'rta Sharqdagi tangliklar. Afg'onistonda SSSRning bostirib kirishi. Eron-Iroq kurashi. Iroqning quvaytni bosib olishi. AQSH-Iroq urushlari. Ko'p qutbli dunyoning vujudga kelish sabablari. SSSRning parchalanishi. Yevropadagi o'zgarishlar. O'zbekistonning xalqaro munosabatlardagi o'z yo'li.

Darsning maqsadi:

Ikkinchi jahon urushidan keyingi vaqtda va XXI asr boshlarida Yevropa va Amerika mamlakatlarining tashqi siyosati, o'zaro munosabatlari, xalqaro maydondagi o'rni va dunyo sahnasida gegemonlik qilishga intilishlari, ikki qutbli dunyo o'rtasidagi kurash, sotsializm sistemasining yemirilishi hamda SSJning parchalanishi bilan ko'p qutbli dunyoning vujudga kelishi masalalari yoritiladi.

1. XX asrning 2-yarmida xalqaro munosabatlar.

XX asrning 2-yarmidagi xalqaro munosabatlar tarixini to'raligicha ikki yirik bosqichga bo'lsa bo'ladi: "Sovuq urush" davrida ikki qutbli dunyoviy tartibning shakllanishi (40-yillarning 2-yarmi 70-yillar) va "sovuq urush"i tugagandan so'ng ko'p qutbli dunyoviy tartibni tasdiqlashishi (80-90-yillar).

1) "Sovuq urush"ning boshlanishi va 50-70 yillarning 1-yarmida ikki qutbli dunyoviy tartibning shakllanishi.

Ikkinchi jahon urushi jahon sahnasida mavjud sharoitni o'zgartirib yubordi. AQSH va SSSR boshchiligidagi ikki harbiy-siyosiy bloklar- NATO va Varshava Shartnomasining qarama-qarshiligi xalqaro munosabatlarning 2 qutbli shaklini vujudga keltirdi. Ikki bloklar orasidagi nizo dunyo miqyosidagi mafkuraviy, siyosiy va harbiy qarama-qarshiliklarning jamiyat namunasining qarshisidagi aksi edi. SSSR va AQSH o'rtasidagi nizo "sovuq urush" - ikki qudratli davlatlarning mafkuraviy kurashi va geosiyosiy qarama-qarshiliklari natijasida yuzaga keldi. Bir tomondan AQSH va Buyuk Britaniya, ikkinchi tomondan SSSR antigitler ittifoqchilari orasidagi nizo - ikkinchi jahon urushi oxirlarida urushdan keyingi boshqaruv to'g'risidagi savollar, kun tartibida qo'yilgan paytda antigitler koalitsiyasi ittifoqchilari - bir tomondan AQSH va Buyuk Britaniya, ikkinchi tomondan SSSR orasidagi nizo o'sib bordi. Buyuk Britaniya, ikkinchi tomondan SSSR orasidagi nizo o'sib bordi. Buyuk Britaniyaning oldingi premyer-ministri U.Churchil ilgari ittifoqchilar orasidagi to'liq uzilishni va "Sovuq urush"ning boshlanishini birinchilardan ochiqcha e'lon qildi. U 1946 yil 5 martdagi Fulton (AQSH)dagi nutqida kapitalistik mamlakatlarga kommunizmni eksport qilish rejalari va SSSRga qarshi kurashish uchun anglo-amerika ittifoqini tuzishga chaqirdi. Sovet Ittifoqi o'z navbatida natsizm bilan kurashishda va xalqaro sahnada dunyoviy sotsialistik tizimni yaratishdagi mavqeini mustahkamlashdagi

yutuqlarini ko'rib chiqardi. G'olib davlatlarning qattiq qarama-qarshiligi natijasida 1947-1949 yillarda okkupatsion Germaniyasida ikki davlat - Germaniya Demokratik Respublikasi (GDR) va Germaniya Federativ Respublikasi (GFR)ni paydo bo'lishiga olib keldi. Dunyoning bo'linishi aniq chizgilarni oldi.

Keyingi yillarda AQSH boshchiligidagi g'arb mamlakatlari Sovet Ittifoqi munosabatida "kuchlar mavqeidan" siyosat o'zaniga doir bir necha tadbirlar o'tkazishdi. Ular ichida eng muhimi dunyo bo'ylab "kommunizmga qarshi salib yurishi" ga boshchilik qilgan Trumen doktrinasi (1947 yil) Yevropa mamlakatlariga iqtisodiy yordam dasturi - Marshall rejasining tadbiri etilishi (1948-1952 yy), atlantika harbiy siyosiy bloki - NATO (1949 y)ning tuzilishi va shunga o'xshash Osiyodagi bloklar (SEATO, SENTO, ANZYUS) shular jumlasidan. Dunyoviy antikommunizmning qurilishi bevosita urushdan so'ng iqtisodiy va harbiy-siyosiy munosabatlarda eng qudratli sanalib AQShga asoslangan edi. Amerikalik boshliqlar ikkinchi jahon urushi tugashining 1-kunlaridan AQShning dunyo hamjamiyatidagi ildam o'rnini mustahkamlashga harakat qilishdi. 1949 yil oxiriga SSSR o'zining 1-atom bombasini sinagunga qadar, AQSH yagona atom quroliga ega mamlakat sanalardi. Vashington xalqaro tashkilotlar orasida, ya'ni Amerika Davlatlari Tashkilotlari (ADT), Dunyo banki va Xalqaro valyuta fondi, Narx va savdo bo'yicha bosh shartnomasi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti va boshqalar asosiy o'rin egalladi. Ayniqsa, 40-yillarning oxiri 50-yillarda Koreya yarim orolida, Yaqin Sharq, Kongo, Kiprdagi nizolar vaqtida AQSH BMTning Bosh Assambleyasidan bir necha marotaba o'zining imperik maqsadlarida foydalandi. Bunga bahona bo'lib, "ittifoqning to'g'ridan-to'g'ri aralashuviga halaqit berish" deklaratsiyasiga intilish xizmat qilardi. O'sha yillarda mashhur gazeta magnati G.Lyus "Urush tugashi AQShga shu darajada ta'sir ko'rsatadiki, natijada Amerika asri keladi" g'oyasi bilan chiqdi. "Amerika asri" XX asrning 2-yarmida dunyo sahnasida Amerika siyosatining shiori bo'ldi.

Biroq, AQSH o'zining harbiy va siyosiy qudrati bilan urushdan so'nggi dunyoda yagona yo'l boshchi bo'la olmadi. Xalqaro darajada AQSH, o'z ta'siri ostidagi hududlarga aralashadigan begonalar bilan qattiq kurashadigan boshqa mavjud yirik davlat SSSR bilan hisoblashishga majbur edi.

Sovet Ittifoqi urushdan qudratli harbiy-siyosiy davlat bo'lib chiqdi va AQSH kabi eng qudratli davlat bo'lishga harakat qilardi. Gitler Germaniyasini yengishda muhim rol uynagan. Sovet Ittifoqi dunyoda o'zining ta'siri va obro'sining oshishiga erishdi. Urushdan keyingi tartibga solish natijasida Sharqiy Yevropa (Bolgariya, Chexoslovakiya, Vengriya, Polsha, Albaniya va Yugoslaviya) va Osiyodagi (Xitoy, Vyetnam, KXDR va boshqalar) mamlakatlarning bir guruhi SSSR ta'siriga tushib qoldi. Dunyoviy sotsialistik tizim shakllanishiga zamin yaratildi va bunga 60 yillarda Kuba ham qo'shildi. SSSR va boshqa sotsialistik mamlakatlar tobe xalqlar va davlatlarda milliy-ozodlik harakatlarni qo'llab-quvvatlashdi. Natijada uchinchi dunyoda sotsialistik yo'l tanlagan davlatlar guruhi vujudga keldi va roli oshib bordi.

Urushdan so'ng vayron bo'lgan iqtisodiyotni tiklagan sovet Ittifoqining rahbariyati diqqatni harbiy qudratni mustahkamlashga qaratdi. AQShning yadro monopoliyasini yengish uchun SSSR shaxsiy yadro qurolini yaratish dasturini ishlab chiqdi. 1949 yil Sovet Ittifoqida atom bombasining sinovi bo'lib o'tdi. Shu yili Yevropa sotsialistik mamlakatlari o'zaro iqtisodiy yordam kengashini tashkil etishdi va keyinchalik bunga Mongoliya, Kuba va Vyetnam qo'shildi. Bu tashkilot sotsialistik mamlakatlarning bir-biriga iqtisodiy yordam, iqtisodiy hamkorlik rejalarini boshqarish va xalqaro mehnat taqsimotini vujudga keltirishda katta rol uynadi. Sotsialistik lagerni biriktirish va NATOning harbiy xujumidan himoyalash uchun 1955 yil mayida Varshavada SSSR va Sharqiy Yevropa sotsialistik davlatlari Polsha va Chexoslovakiya, Ruminiya, Bolgariya, Vengriya, Albaniya (1968 yil shartnomani 1 tomonlama denansatsiya qildi) bilan do'stlik, hamkorlik va o'zaro yordam haqidagi shartnoma asosida mavjud Varshava harbiy pakti dunyo miqyosidagi kuchlar muvozanatini saqlashda muhim rol uynadi.

2. Shunday qilib 50-yillar boshlaridagi mafkuraviy siyosiy va harbiy-siyosiy munosabatlar dunyoviy kenglik ikki qarama-qarshi qismga ajratilgan edi. Shu bilan birga ikki

tizimning har biri o'zini xalqlarning umid va qiziqishlarini ifodalovchi va himoyalovchi hisoblar, ayniqsa, o'zining g'alabasini to'liq va qarama-qarshi tomonning halokati muqarralligini asoslar edi. O'z holatining g'oyaviy asosini ishlab chiqib AQSH o'zini ozod dunyo himoyachisi deb SSSR o'z navbatida dunyo demokratiya va sotsializm tayanchi deb e'lon qildi.

"Sovuq urush" qudratli davlatlar orasidagi ishonchsizlik qurollanish poygasining tezlashishi, harbiy bloklar yaratilishi xalqaro munosabatlarda harbiy kuchlarning ishlatilishi, janjalli savollarni kelishuv asosida hal qilishdan bosh tortish va boshqalar bilan ta'riflanadi. SSSR va AQSH o'rtasidagi munosabatlar qulayligi har bir davlat tashqi siyosiy yo'nalishining asosi edi. Bu vaziyat ikki yirik davlat orasida bo'lingan dunyoni doimiy diqqatini qaratardi. Dunyoviy jamiyatda ikki qutbli iyerarxik tuzilish vujudga kelib, buning boshida ikki qudratli davlat, ulardan so'ng buyuk davlatlar BMTning Xavfsizlik Ittifoqi a'zolari, keyin xalqaro maqsadlarni yechishda qo'shiladigan davlatlar turardi.

Ushbu geosiyosiy qiziqishlar o'yinida yer kurrasining barcha joyidagi nizolar bir-biriga qarshi tomonlarning global kurashlarining asosiy qismi sifatida ko'riladi. Har ikki tomonlarning ko'zida ushbu nizolarni masalalarning yechimini Sharq yoki G'arbning yutug'i yoki mag'lubiyati sanalardi. Shu bilan birga u yo bu tomondan koinotning biror joyini yoki biror davlatning olishi boshqa tomonning mag'lubiyati hisoblanadi. Ikki qudratli davlatlar va ularning bloklarining bosh harakatlanuvchi asoslardan biri o'zining xavfsizligini ta'minlash edi. Ayniqsa, ikki tomonning diqqat markazida harbiy qudrat oshirish turardi. Xalqaro munosabatlarning rivojlanishi qurollanish poygasining tezlanishi bilan bog'liq bo'lib, odamzot taqdiriga katta xavf tug'dirgani uchun dunyoning ilg'or mamlakatlarining kuchlaridan jiddiylikni talab etardi.

Biroq, dushman bloklarning boshchiligida urushlardan keyingi dunyo adashgan ikki qutblilikka sig'mas edi. Bundan tashqari keyingi o'n yilliklarda, ayniqsa, 60-yillardan boshlab uni ko'pgina omillar buzardi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi jarayonlar kolonial imperiyalarning yemirilishi va ko'pgina yangi mustaqil har xil g'oyaviy va siyosiy yo'nalishlarga ega davlatlarning tashkil topishi muhim ahamiyat kasb etadi. Asosan dunyo uch xil turli dunyolarga: 1-kapitalistik, 2-sotsialistik, 3-rivojlanuvchi, iqtisodiy taraqqiyot bosqichi bir-biridan farq qiluvchi dunyolarga bo'lingan edi.

3. Ikkinchi jahon urushi Afrika va Osiyo davlatlarining ichki taraqqiyotida chuqur va bir necha o'zgarishlarga olib keldi. Birinchi jahon urushidek bu davlatlar xalqlari ixtiyorsiz jang qiluvchi davlatlar tomonidan urushganlar. Masalan, Hind diviziyalari Birmada, Shimoliy va Sharqiy Afrikada, Yaqin Sharqdagi ittifoqchi kuchlarning yirik platsdarmilariga xizmat qilishib jang qilishgan. Urush davomida kolonial va tobe davlatlar og'ir yo'qotishlar berishdi. Masalan, Yaponiya bilan 8 yil mobaynida urushda Xitoyda halok bo'lgan va yaradorlar 18 mln.ni tashkil etdi. 1943 yil bir hind provinsiyasi Bengaliyadagi ocharchilikda 4,5 mln. kishi halok bo'ldi. Yapon okkupatsiyasi davrida ocharchilik va og'ir mehnatdan 4 mln.ga yaqin indoneziyalik halok bo'ldi.

Shu bilan birga ikkinchi jahon urushi tegishli davlatlar xalqlarining bundan keyingi milliy kapitalizmining rivoji va milliy o'zlikni anglashni o'sishiga imkon berdi. Birinchi jahon urushiga nisbatan u katta masshtablarda koloniyalarga va metrologiyalarga qarama-qarshiligini tezlashishiga, ayniqsa milliy ozodlik harakatlarning ko'tarilishini rag'batlantirdi. Urush og'irliklari ko'pchilik odamlarning kayfiyatini tubdan o'zgarishiga imkon berdi. Jamiyat o'z-o'zini anglashiga koloniya va mute davlat aholisini harbiy harakatlarga qatnashish tajribasi katta ta'sir ko'rsatdi. Urush qatnashchilari harbiy, texnik va tashkiliy amaliyotga ega bo'lib, bu ularning urushdan keyingi milliy-ozodlik urushida o'z foydasini berdi.

Urush natijasida Yaponiya qattiq mag'lubiyatga uchrab, o'zining koloniyalaridan ajralib qoldi va vaqtincha buyuk davlat statusini yo'qotib Amerika okkupatsiyasidan qutilgan Koreya o'z mustaqilligiga erishdi, biroq 1950-1953 yilgi harbiy nizo natijasida u ikki qarama-qarshi davlatga - Shimolga Koreya Xalq Demokratik Respublikasi, Janubga - Koreya Respublikasiga bo'lindi. Indoneziya va Hindixitoy xalqlari fransuz va golland kolonizator bilan uzoq va dahshatli janglarda o'z mustaqilliklarini qo'lga kiritish uchun kurashishdi.

Xitoy ikki jahon urushlari oralig'ida yarim mustamlakadan 1945 yil Buyuk davlat statusi va BMT Xavfsizlik xizmatining doimiy a'zoliciga bo'lgan yo'lni bosib o'tdi. Biroq, 40-yillarning 2-yarmida bu davlatda fuqarolar urushi boshlanib, 1949 yil Xitoy Xalq Respublikasi tashkil topishi bilan tugadi. Boshqa Buyuk Osiyo-davlati Hindiston ikkinchi jahon urushi oxirida Angliya mustamlakasi edi, ammo mustaqillik uchun kurashuvchi xalqlarning harakati natijasida 1947 yil ikki mustaqil davlatlar Hindiston va Pokiston vujudga keldi.

Ikki qutbli dunyo tartibi asosida 50-yillar oxirida Sovet-Xitoy munosabatlarining yomonlashuvi natijasida kamchiliklar bilindi. Boshida XXR to'raligicha SSSR va boshqa sotsialistik ittifoqlar andoza olardi. Biroq, 50-yillarning oxirida vujudga kelgan siyosiy va g'oyaviy kelishmovchiliklar SSSR va Xitoy rahbariyatini ochiq qarama-qarshilikka olib keldi. Bu uzilish xalqaro munosabatlarda yangi element olib keldi. Xitoy rahbariyati Xitoy Kommunistik partiyasi MK raisi Mao Szedun boshchiligidagi, Sovet Ittifoqi bilan munosabatlarni uzib Moskvadan mustaqil ish olib bordi. Bosqichma-bosqich u AQSH va SSSR orasidagi kuchlar tengligini o'zining tashqi va himoya siyosatida asosiy faktor sifatida ko'rdi. Hindixitoy bosqichi AQSHning Vyetnamga qarshi 1964 yilda boshlangan agressiv urushi edi. 50-yillarda Fransiyaga qarshi antikolonial urushi natijasida Vyetnam qurolli otryadlari Dyenbenfu yonida kolonizatorlarga qaqshatqich zarba berishdi, ammo mamlakat 2 ga bo'lindi. Shimolda Vyetnam Demokratik Respublikasi vujudga keldi. Janubda AQSH ko'magi bilan Janubiy Vyetnam Respublikasi tashkil topdi.

Biroq keyinchalik Saygon rejimining kuchsizligi vatanparvar kuchlardan yengilganidan so'ng bilindi. Rejimni saqlab qolish uchun AQSH rahbariyati Vyetnam xalqiga qarshi harbiy harakatlarni amalga oshirdi. Urush AQShga ko'pgina zarar yetkazdi. mamlakatda Amerika qo'shinlarining soni 1965 yilda 185 mingdan 1969 yil 543,4 ming odamga yetdi. Urush davrida AQSH 141 mlrd.dollar xarajat qildi. 56,5 ming kishi halok bo'lgan va 303,6 ming yarador soldat va ofitserlar yo'qotishdi. Biroq, ular sharmandali mag'lubiyatga uchradi.

1972 yil yanvarda AQSH prezidenti R.Nikson boshchiligidagi hukumat Vyetnamda urushni tugatish va tenglikni tiklash shartnomasini imzoladi. bu Vyetnam xalqining bosqinchilar ustidan to'liq g'alabasini anglatdi. Ushbu shartnoma davlatni birlashishiga yo'l ochdi. 1975 yil aprelda Vyetnam qurolli kuchlari va Janubiy Vyetnam vatanparvarlari Janubiy Vyetnam poytaxti - Saygonni qo'lga kiritishdi. Bu voqea Vyetnam xalqining mustaqillik va davlatni birlashtirish uchun harakatining tugaganligini bildirardi.

Urushdan keyingi vaqtda eng muhim masalalardan biri Yaqin Sharqdagi savol bo'lib qoldi. Masala markazida urushdan so'ng boshlangan Yaqin Sharqda mustaqil Falastin davlatini tuzish qiyinchiliklari turardi. Bu masalani Britaniya imperiyasiga tegishli hududlarda 2 mustaqil davlat - Yevropa va Falastin davlatini tuzish bilan yechilmoqchi edi. Izrail boshchiligidagi yevrey davlati 1949 yilda tashkil topib, bu huquq falastinliklarga berilmagan edi. Yaqin Sharqdagi urushdan keyingi tarixi Falastin xalqining milliy davlat mustaqilligi uchun kurashi bilan o'tdi. bu masalaning yechilmasligi bir necha arab-isroil urushlariga olib keldi.

Eng muhimi 1967 yildagi urush natijasida Isroil katta hududlarni Falastinda (Iordan daryosi g'arbiy qirg'og'i va G'ozza sektori) va qo'shni davlatlar - Suriya va Misrni falastinliklar tomonidan kurashgani uchun bosib oldi. Faqatgina 90-yillarda Falastin xalqining Falastin ozodlik tashkiloti boshchiligidagi kurashganda Isroil hukumati falastinliklarga antonomiya berishga rozi bo'ldi. Ammo Yaqin Sharqdagi muammo chigalligicha qoldi.

4. Uchinchi dunyo davlatlarining siyosiy faolligi xalqaro munosabatlar tizimida qudratli asos bo'lib xizmat qildi. 1967 yildagi Isroil va arab davlatlari orasidagi urush Yaqin Sharqda Bmtning rolini susaytirdi. Izma-iz kelgan Dominikan Respublikasi Yaqin Sharqdagi, Chexoslovakiyadagi krizislar, Vyetnam va Shimoldagi urushlar, Nigeriyadagi fuqarolik urushi davlatlarning bir-biri bilan kelishmasligini ko'rsatardi. Bu sharoitda qo'shilish harakatiga qo'shilmaslik katta ahamiyat kasb etgan. Xalqaro birlashgan davlatlarning tashqi siyosatdagi asosiy prinsipi qudratli davlatlarning harbiy-siyosiy ittifoqlariga qo'shilmaslik edi. qo'shilmay 25 davlatlarning oliy darajadagi 1-konferensiyasi 1961 yil sentabrning boshida Belgradga Yugoslaviya, Hindiston, Misr, Indoneziya va Gana tashabbusi bilan chaqirilgan edi. Ikki o'n

yillik davomida tartib va geografik harakatlar kengayib bordi. Natijada 1983 yil ularning a'zolari 101 taga yetdi. Dunyo davlatlarining 3G'2 qismini birlashtirdi. qo'shilmaslik harakati dunyo siyosatida tinchlikni mustahkamlash va davlatlar orasida qo'shniçilik munosabatlarini saqlashda asosiy omil bo'lib xizmat qildi.

Ikki qutbli sxemaga Yaponiyaning qudratli iqtisodiy davlatga aylanayotganligi, Xitoyning yadro davlatiga, shuning bilan birga OPEK - neft ishlab chiqaruvchi davlatlarning tashkiloti, ya'ni o'z oldilariga industrial rivojlangan davlatlar diktaturasidan qutilishni o'z oldiga qo'ygan davlatlarning rivojlanishi bir necha o'zgartirishlar kiritdi. Shu bilan birga dunyo valyuta sistemasi vayron bo'la boshladi, natijada 1971 yil brettton-vud jahon moliya tizimi va oltin standarti bekor qilindi. Xalqaro hisob valyutasi hisobida dollarning tushib ketishi AQShning dunyo moliya bozorlaridagi o'rnini yo'qotdi.

Shunday qilib ikki qutbli qarama-qarshilikning yumshashiga asosiy sabab AQSH va SSSRning tugamas harbiy, iqtisodiy, siyosiy va g'oyaviy qarama-qarshiligi zaiflanishi bo'ldi. Harbiy qudratning oshib borishi natijasida iqtisodiy o'sish kamaydi. Shu bilan birga AQSH va SSSR ittifoqdoshlari iqtisodiy va harbiy qudratining oshishi muhim rol uynadi. Natijada 70-yillarda yadro-strategik nufuz uchun davlatlar qarama-qarshiliklardan voz kechib harbiy xavfsizlik yuzasidan hamkorlikka kelishildi. Ko'pgina masalalar ikki qutbli dunyo tartibi ramkalarida ochilsada, dunyo jamiyati manfaatini ko'zlab hamda yechilardi.

2. Dunyo siyosatida markazga intilish tendensiyalari.

XX asrning 2-yarmida iqtisodiy va siyosiy integratsiyaning o'sishi tendensiyasi bilan xarakterlidir. U ko'pgina xalqaro davlatlararo va davlat tashkiloti bo'lmagan tashkilotlarning vujudga kelishi bilan shakllangan. Ikkinchi jahon urushidan oldin ularning soni bir necha o'nta bo'lsa, hozirgi kunda birinchi turdagi tashkilotlar soni bir necha yuztani, ikkinchi tipdagi 2,5 mingga yaqin. Ikkinchi jahon urushidan keyin BMT, NATO, Dunyo banki kabilar vujudga keldi.

Hozirgi kunda asosiy rolni davlatlarning bir guruhi, dunyoviy va regional tashkilotlar, Yevropa Ittifoqi, Amerika davlatlar tashkiloti (ADT), Neft eksporti davlatlar tashkiloti (OPEK), Afrika birdamlik tashkiloti (ABT), "Islom konferensiyasi" tashkiloti va boshqalar o'ynaydi. AQSH, Kanada, Meksika tarkibiga kiruvchi Shimoliy Amerika zonasida erkin savdoni (NAFTA) shakllantirish jarayoni boshlandi. 1989 yil Osiyo-tinch okeani iqtisodiy ittifoqi (APEK) tashkil etildi. Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlar Assotsiatsiyasi (ASEAN), Osiyo rivojlantirish banki va boshqa ittifoq va tashkilotlar faol harakat qilmoqdalar.

Bunday tashkilotlar soni ortib bormoqda. Turli davlatlarning siyosiy partiyalarining hamkorligi katta maktablarda kengayib bormoqda. G'oyaviy bir xil partiya rahbarlari xalqaro darajada o'z o'rnini egallashga harakat qilmoqdalar. Bunga guvoh, masalan, 1961 yilda tashkil topgan Dunyoviy xristian demokratik ittifoqi bo'lib, uning tarkibiga bir necha davlatlarning markaziy partiyalari kirgan edi. 1983 yil Xalqaro demokratik ittifoq tashkil qilinib, G'arbiy Yevropa konsevratiya partiyalarni, AQShning respublikachilar partiyasini, Yaponiyaning liberal-demokratik partiyasi va Avstraliya konservatorlarini birlashtirgan edi.

Hozirgi dunyo siyosatida asosiy faktorlardan biri bo'lib har yili "katta yettilik" kengashi - yetti rivojlangan industrial davlatlar - AQSH, GFR, Fransiya, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Italiya va Kanada asosiy iqtisodiy va tashqi siyosiy savollar bo'yicha kengash hisoblanadi. Yettilik kengashlarida asosiy diqqat iqtisodiy rivojlangan, tashqi siyosiy munosabatlarning tekislanish, inflyatsiya va ishsizlik va hokazo masalalarni yechishga qaratiladi. Harbiy-siyosiy va tashqi siyosiy savollar ham muhim o'rin tutadi.

Eng ilg'or integratsion jarayonlar Yevropada bo'ldi. 1948 yil martda Fransiya, Buyuk Britaniya, Belgiya, Niderlandiya va Lyuksemburg ("G'arbiy Ittifoq") o'rtasida harbiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarida hamkorlik qilish shartnomasi - Bryussel pakti imzolandi. O'sha yili may oyida Gaagada Yevropani birlashtirish harakati kongressi bo'lib o'tdi. 1949 yil Yevropa Ittifoqi tashkil topib Yevropa kontinentida parlament demokratiya va qonunning inson huquqlarini himoya qilishda boshchilik qilishi, Yevropa davlatlari o'rtasida kelishuv

munosabatlarning shakllantirishga xizmat qilardi. Natijada Buyuk Britaniya uzoq vaqt Yevropa integratsiyasi jarayondan chiqdi, ammo GFR faol ishtirok etdi. G'arbiy Yevropa integratsiyasining siyosiy yo'nalishi iqtisodiy aloqalarga almashtirildi. 1951 yil aprelda fransuz tashqi ishlar ministri Shuman tashabbusi bilan Yevropa ko'mir va temir tashkiloti (YEOUS) tashkil topib, Fransiya, FRG, Italiya va Benilyuks davlatlarni birlashtirdi. YEOUS ushbu sanoatning umumiy bozorini vujudga keltirdi. 1957 yil "oltilik" Rim shartnomasida YEKT asosida Yevropa iqtisodiy jamiyatini tashkil etishga kelishdi. Yevropa iqtisodiy jamiyati ichida - Kengash, Komissiya, Assambleya va Sud tashkil etildi.

Yevropa iqtisodiy jamiyatida qatnashuvchi davlatlarning siyosiy mustaqilligi saqlanar, keyinchalik bojxona to'lovlari kamaytirildi, yagona agrar siyosat o'tkazildi. bu masalalar to'lagicha 1968 yil qilindi. 60-yillar oxiridan G'arbiy Yevropa integratsion jarayonining 2-etapi boshlandi. Fransuz prezidenti J.Pompidu tashabbusi bilan 1969 yil Gaaga kelishuvida "oltilik" rahbarlari "integratsiyani chuqurlashuvi va kengaytirishni tugatish" dasturini ishlab chiqdi. Ushbu kelishuvga binoan Yevropa iqtisodiy jamiyati 1972 yilda kengaytirildi. Ushbu jamiyat tarkibiga Ispaniya, Portugaliya, Gretsiya, Irlandiya, Daniya, Buyuk Britaniya kirdi. Ularga 1995 yil 1 yanvaridan Avstriya, Shvetsiya va Finlandiya qo'shildi.

Siyosiy integratsiya ichida 70-yillar oxirida muhim o'zgarishlar bo'ldi. Yevropa Iqtisodiy jamiyatida Kengashning roli sezilarli darajada oshdi. 1978 yildan boshlab Yevroparlamentga to'g'ridan-to'g'ri saylovlar o'tkazildi. Ushbu tadbirlar 80-yillarning 1-yarmida Yevropa ittifoqini tashkil etish uchun yangi etap vazifasini o'tadi. Ushbu ishning qiyinchiliklari katta ishni ko'rib o'tilishiga olib keldi. 1992 yil Maastrix shartnomasidan so'ng Yevropa Ittifoqi reallikka aylandi.

Maastrix bitimining asosiy maqsadi - yagona iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, informatsion va madaniy kenglikni vujudga keltirish edi. 1993 yil 1 yanvardan 350 mln. yevropaliklar, Yevropa Ittifoqida yashovchilar erkin harakatlanish huquqini oldi. Yagona kapitallar, mahsulotlar va maishiy xizmat bozori vujudga keldi. Kelajakda valyuta tizimini to'liq birlashtirish, yagona fuqarolik institutini yaratish, Yevropa davlatlarining keyingi harbiy-siyosiy yaqinlikni va xavfsizlikni mustahkamlash rejalashtirilgan edi. Maastrix keyingi yillardagi Yevropa jamiyatlarining rivojlanish yo'nalishlarini belgilab berdi.

5. Xalqaro hamkorlikni mustahkamlash va kengaytirishda BMT muhim rol o'ynab ikkinchi jahon urushidan so'ng xalqaro tizimda muhim element hisoblanardi. Urush davrida Millatlar Ligasi o'rnini bosuvchi xalqaro tashkilot tuzish savoli vujudga keldi. Bu savol 1945 yil aprelda San-Fransiskoda bo'lib o'tgan konferensiyada o'z yechimini topdi. Unda BMT va uning nizomini tuzish masalasi ko'rildi.

Urushdan keyingi davrda yangi maxsus qo'shinlar tuzilib xalqaro hayotning turli jabhalarida keng foydalanildi. 1948 yil BMTning maxsus tashkiloti-madaniyat va fan masalalari bilan YUNESKO tashkil etildi. 1972 BMTning yana bir maxsus tashkiloti-tabiati muhofaza qilish ishlari bilan shug'ullanuvchi YUNEP - tuzildi.

Energetika va xom ashyo masalalari bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilotlar muhim rol uynashdi. Ular ichida muhim o'rinni atom energiyasi bo'yicha BMTning Xalqaro agentligi (MAGATE)- yadro qurolini tarqalishini oldini olish va atom energiyasini tinchlik maqsadida ishlatish agentligi egallaydi.

BMTning say'i harakati bilan xalqaro siyosatda hozirgi kunda inson huquqlari muhim masala qilib ko'tarildi. Bu harakat va tashkilotlar harakat qilishgan. Bu kurash 1948 yil Bmtning Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan "Inson huquqlari umumiy deklaratsiyasi"ga mantiqiy qo'shilish edi. BMT asosiy diqqatini rivojlantiruvchi davlatlarning iqtisodiy masalalarini yechishga qaratdi. 1974 yil BMTning Bosh Assambleyasi yangi xalqaro iqtisodiy tartibni o'rnatish Deklaratsiyasi va Dasturini qabul qildi.

BMT davlatlararo nizolarni yechishda muhim rol uynadi. 1948 yildan 1991 yilga qadar BMT tinchlikni saqlash uchun 23 operatsiyani o'tkazdi. BMT Bosh sekretoari qo'lida tanklar, yuk mashinalar, sputnik aloqa va shunga o'xshash vositalar mavjud ediki, boshqa davlat boshliqlari havas qilishardi. Bugungi kunda BMT kuchlari yer sharining hoxlagan qismida 50

ming palatka tutishi yoki 1 mln. qochoqni ovqatlantirish qudratiga ega. Uning oziq-ovqat dasturi butun davlatlar aholisini hayotini qo'llash imkoniyatiga ega.

Biroq BMTning qoloq davlatlarga yordam berishi boshqa masalalarga nisbatan kamdir. Bu qiyinchiliklar asosan BMTning moliyaviy qiyinchiliklaridan kelib chiqadi. 90-yillarda BMTning tenglikni saqlash rolining oshishi Fors ko'rfazi va Namibiyadagi nizolarni yechishga yordam berdi. 1990 yil BMTning Xavfsizlik Ittifoqi o'zining ko'p millatli kuchini Iroqqa qarshi quvaytni bosib olgani uchun ishlatdi. Namibiya nizosi barcha kurashuvchi tomonlarni kelishuv jarayoniga qatnashishiga jalb etib yechildi. BMT o'ziga qo'yilgan ishni, ya'ni barcha hududlarda tinchlikni saqlash, ovoz berishni nazorat qilish va Namibiya va Angoladan chet qo'shinlarni chiqarish kabi ishlarni a'lo darajada amalga oshirdi.

Ammo, shu bilan birga BMT Liberiya, Samoli, Ruanda va boshqalar nizoli zonalarda o'z kuchsizligini ko'rsatdi. BMT boshqaruvini boshqa qudratli davlatlar o'z qo'liga olgandi faqatgina, aniq harakat qilishi mumkin. Ammo, ular orasida kelishmovchiliklar bo'lmasa, barcha tadbirlar mag'lubiyat bilan tugaydi. Ko'pgina harbiy aktlar BMT tomonidan sanksiya qabul qilinib, u boshchiligida emas, balki AQSH boshchiligida: Koreyada (1950-1953) Iroqda (1990-1991), Samolida (1992-1993), Yugoslaviyada (1999) amalga oshirildi.

6. 80-yillarning 2-yarmi 90-yillar boshida sotsialistik muhitni va SSSRning yemirilishi "sovuq urush" va ikki qutbli dunyo tartibining tugashiga olib keldi. G'arb va AQSH SSSR bilan tarixiy musobaqada to'liq g'olib chiqqanini inkor qilib bo'lmaydi. G'arb g'alaba qozonmadi, chunki Sovet Ittifoqi o'zini-o'zi o'ldirgan edi.

"Moid" fransuz gazetasi muxbirining so'ziga qaraganda, Berlin devorining qulashi - bu kapitalizmning "kommunizm ustidan sirtqi g'alabasi". Chunki, hech kim bilmasdi yana qancha kuch va resurslar kerak edi. Sovet Ittifoqining rahbarlari reformatsiya yo'lida turib unga o'lim hukmiga qo'l qo'yishar edi. "Sovuq urush" o'zining oxirgi nuqtalariga dunyodagi geosiyosiy vaziyat o'zgarganda keldi.

"Sovuq urush"i tugashida AQSH va SSSR muhim rol uynaydi. Ikki tomon ham "sovuq urush" tugashiga o'z hissasini qo'shdi. Urushning tugashi 60-yillar boshlarida mo'ljallangan hamkorliklarning kulminatsion nuqtasiga aylandi. Bu vaqtda xalqaro sahnada 70-80 yillar davomida yig'ilib qolgan kuchlarning joylashuvi va davlatlarning ta'siri vujudga keldi.

Atlantika va Tinch okeanlari AQSH va boshqa G'arbiy yarim shar mamlakatlarini harbiy bosqindan himoya qiluvchi gigant oraliq sifatida o'z ahamiyati yo'qotdi. Front chizig'i yo'qoldi. masalan 1- va 2-jahon urushlarida qatnashmagan amerikaliklar Uzoq Yevropa va Osiyodagi urushlarda qatnashishdi, ammo hozir urush boshlanishining 1-soatlaridayoq AQShning hohlagan rayoni yadro quroli bilan vayron etilishi mumkin.

Raketa-yadro quroli davlatlarning geografik joylashuvidan aholi sonidan va iqlimidan qat'iy nazar bir-biri bilan kuchlarini tenglashtirib qo'yadi. Hozirgi dunyoda havo kengligi va kosmos harbiy-siyosiy nuqtai nazaridan quruqlik va dengizdan ko'ra katta ahamiyatga ega. kontinental xalqlar yoki iqtisodiy, texnik va informatsion nazoratning trans milliy turlari vujudga keldi. Hozirgi texnologiyalarning kirish kuchi shu darajadagi uni hech bir to'siq, devor va chegaralar to'xtata olmaydi.

Hamma xalqlarning iqtisodiy, milliy va boshqa qiziqishlari bitta umuminsoniy qiziqishiga birlashtirildi. davlatlar va xalqlar iqtisodiy, umumsiyosiy va madaniy sohada ko'p tomonlama hamkorliksiz yashay va rivojlana olmadilar. Odatiy kasalliklar hisoblangan vabo, tif, chuma kabi kasalliklarni milliy-davlat chegaralari bilan to'xtatish mumkin, "XX asr vabosi"-SPIDni to'xtatib bo'lmaydi. Sekin o'ldiruvchi radiatsiya milliy davlat chegaralarini tan olmaydi.

Davlatlar orasidagi hamkorlik ular bir-birini qanday qabul qilishi bilan ko'pincha xarakterlanadi. Xalqaro munosabatlarning tezlashishi yoki sustlashishi, urushni to'xtatish va qurollanish poygasini oldini olishga doir shartnomalarning bir-biroviga ishonchsizligi natijasida vujudga keldi.

Odamzodning butun tarixi davomida u yo bu davlatning strategiyasi, davlat xavfsizligi, uning obro'si davlat qo'liga mavjud qurollar soni va sifati bilan belgilangan. Yadro quroli bu harbiy - strategik qulayliklarni yo'qqa chiqardi. Urushlar-qurolli kuchlar yordamida siyosiy

maqsadlarga erishish uchun siyosiy javob natijasidir. Oldin urushga siyosat vositasi sifatida qaralar edi. XIX asr mashhur harbiy teoritigi Klauzenits “urush-bu siyosatning boshqa vositalarda davom etishi” deb hisoblardi. Raketa-yadro quroli siyosat bilan urush oralig‘idagi bog‘liqlikni to‘laligicha uzdi, chunki ongli siyosat jahon arenasi butun odamzotni o‘ldiruvchi yadro qurolini ishlatishga yo‘l qo‘ymaydi.

Yadro quroli “sovuq urush” davrida ikki qudratli davlatlarning ushlab turuvchi asbob sifatida xizmat qildi. 2-jahon urushidan so‘ng atom quroli monopoliyasiga ega AQSH SSSRning tashqi siyosatda siyosiy strategiyasini o‘zgartirishga ta’sir ko‘rsata olmadi. Bundan tashqari 1945-1949 yillarda SSSR va Xitoyning ta’sirini kengayishi kuzatildi. AQSH o‘z atom quroli bilan bunga xalaqit bera olmadi. Yadro quroli Koreya va Vyetnam urushlarning borishi va natijasiga ta’sir ko‘rsata olmadi.

50-yillar oxiri 60-yillar boshida Fransiyaning atom quroli mavjud bo‘lsada Aljir hududidan chiqishga majbur bo‘ldi. Xuddi shu narsa Vyetnamda AQSH bilan bo‘ldi. 1982 yil Argentina Buyuk Britaniyaga qarshi go‘yo bu davlat yadro quroliga ega bo‘lmagan davlatdek urush boshladi. Afg‘on urushida Sovet Ittifoqi o‘zini yadro qurolini bilmaganday tutdi. Yadro quroliga ega bo‘lish Varshava pakti va Sovet Ittifoqining yemirilishiga qarshi kafil ham bo‘la olmadi.

Bularning barchasi ikki qudratli davlatlar va harbiy-siyosiy bloklarning munosabatida o‘ziga xos yadro qatag‘oni tasdiqlanishi bilan tushuntiriladi. 1961 yil BMTning Bosh Assambleyasi tinch aholi o‘rtasida ko‘p qurbonlar keltiruvchi va xalqaro huquq va umum qabul qilingan inson huquqlarida zid keluvchi yadro qurolini ishlatishni man etuvchi rezolyutsiyani qabul qildi. G‘arbiy va Sharqiy bloklar rahbarlari yadro urushidan voz kechishni tushunib borishdi. O‘zining jangari arizalari bilan mashhur AQSH prezidenti R.Reygan har yilgi “Davlatning sharoiti haqida” kongressga jo‘natgan nomasida 1984 yil 25 yanvarda “Urushni yengib bo‘lmaydi va u hech qachon yechilmasligi kerak” deb e’lon qildi.

Sovet Ittifoqi esa, yadro asri boshidan har qanday o‘zining alohida deklaratsiyalarida uning to‘liq man etilishini ilgari surardi. “Biz sizlarni ko‘mamiz” deb kapitalistlarga do‘q uruvchi S.N.Xruhyov yadro qurolini qo‘llashga qat’iyan qarshi edi. U yadro urushi boshlansa “tiriklar o‘liklarga havas qiladi” deb ta’kidlardi.

Bu yadro quroli siyosiy masalalarni yechishga umuman ahamiyat kasb etmaydi degani emas. Uning siyosiy ahamiyati davlatning qudrati sifatida saqlanardi. Siyosiy maqsadlarga erishish uchun kuchidan foydalanish yoki qo‘rqitish uchun foydalanardi, ammo yadro quroli strategik qudrat ishlatiladigan joylarda ma’lum maqsadga erishish uchun ishlatilgan. Bu eng avvalo raqib davlatning hayotiy qiziqishlarini boshqaradi. Yadro quroli u yoki bu maqsadlarda ishlatilmasada, urushning keyingi 5 ta o‘n yilliklarga tobe davlatlarda urushlar bo‘layotgan bir vaqtda xalqaro munosabatlar markazida tinchlik hukmronlik surardi. 1962 yil kuzida AQSH va SSSR o‘rtasida vayron bo‘lgan raketa krizisi hozirgi dunyo tarixining burilish nuqtasi deb hisoblasa bo‘ladi. U qarshi tomonlarning yadro qurolini ishlatganda vujudga keladigan dunyoviy vayronagarchilikni anglashga yordam berdi.

Bu voqealarning rivojlanishiga 1963 yil avgustda SSSR, AQSH va Buyuk Britaniya o‘rtasidagi yadro qurolini uch sferada atmosferada kosmik kenglik va suv ostida qo‘llashni man etish haqidagi Shartnomaning imzolanishi sabab bo‘ldi. 1968 yil yadro qurolini tarqatmaslik Shartnomasi imzolandi. Birinchilardan shartnomaga qo‘l qo‘ygan 62 davlatga keyinchalik o‘nlab davlatlar qo‘shildi.

Yadro qurolidan hali zonalarini tashkil etish g‘oyalari vujudga keldi. Yadrodan xoli zonalarini tashkil etishning asosiy maqsadi 1968 yil yadro qurolini tarqatmaslik Shartnomasining hayotga tadbiiq etish edi. Bu zonalar to‘liq va so‘zsiz bu hududlarda yadro qurolini taqiqlashni nazorat qiladi. Yadroviy davlatlar boshqa hududlarga yadro qurolini tarqatmaslik, ularga bunday qurolga ega bo‘lishga yordam bermaslik va bu davlatlarqa qarshi uni qo‘llamaslikni o‘z zimmasiga oldi.

Bu shartnomaning xulosasiga qadar, 1959 yil Antarktika hududi yadro qurolini tarqatish hududidan chiqarildi va u yadrosiz zona bo‘lib qoldi. Lotin Amerikasida yadro qurolini

ta'qiqlash Shartnomasiga (Tlatelolko Shartnomasi) va 1 va 11 protokollarga binoan 1967 yil Lotin Amerikasi yadrosiz zona deb e'lon qilindi.

60-yillarning oxirida strategik qurollanishni cheklash haqidagi sovet-amerika, undan so'ng ikki davlat o'rtasida munosabatlarni normallashtirish haqida sovet-g'arbiy Germaniya muzokaralari boshlandi. Yevropa va butun dunyoda xalqaro xavfsizlikni ta'minlash uchun SSSR va GFR yaqinlashishi muhim ahamiyat kasb etdi. 1970 yil ikki davlat o'rtasida davlatlararo bitimning tuzilishi o'z amaliy natijasiga ko'ra G'arbiy Germaniya Yevropada urushdan keyingi chegaralarni o'zgartirishga bosh tortdi. Bu o'zgarishlar natijasida 1971 yil Berlin bo'yicha SSSR, AQSH, Buyuk Britaniya va Fransiya o'rtasida to'rt tomonlama shartnoma va shu bilan birga GFR va GDR o'rtasida shartnoma tuzildi. 1972 yil Sovet Ittifoqi va AQSH o'rtasidagi raketaga qarshi himoya haqidagi shartnoma eng muhim ahamiyat kasb etadi. Undan so'ng ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi strategik bosqin qurollarini cheklash haqidagi shartnomalar imzolandi.

Xalqaro xavfsizlikni mustahkamlash jarayonidagi muhim voqea 1975 yil 30 iyul - 1 avgust kunlari Xelsinkida Yevropada xavfsizlik va hamkorlik to'g'risidagi yig'ilish bo'ldi. Uning ishida 35 davlat (33 ta yevropalik, AQSH va Kanada) ishtirok etdi. Yig'ilish tomonidan qabul qilingan xulosaviy aktda Yevropada urushdan keyingi chegaralarni hal qilish, inson huquq va erkinliklarni hurmat qilish va boshqa prinsiplar o'z o'rnini topdi.

Xalqaro munosabatlar tizimidagi muhim o'zgarishlar 1985 yil SSSR rahbariyatining almashuvi bilan amalga oshirildi. Bu transformatsiya eng muhim nuqtasi "sovuq urushi"ning oxirgi nuqtasini bildiruvchi 1989 yil Maltada J.Bush va M.S.GOrbachyov bilan uchrashuvi bo'ldi. Keyingi voqealar koleydoskopik tezlikda rivojlandi. 1991 yil oxirida ikki qarama-qarshi lagerlarni bo'lib turuvchi "temir parda"-Berlin devorining qulashi, Varshava pakti, sotsialistik ittifoq yemirildi. Sovet Ittifoqi tarqaldi, "baxmal inqiloblar" natijasida Sharqiy Yevropa davlatlari kommunistik rejimni tugatishdi. Germaniya birlashdi. Yugoslaviya bo'lindi va boshqalar.

3. Ko'p qutbli dunyo chizgilari.

"Sovuq urush"ning tugashi kun tartibida geosiyosiy kuchlarning yangi konfiguratsiyasi, ikki qutbli dunyo tartibli tizimini almashtirishni olib chiqdi. Xalqaro-siyosiy sahnada 2 qudratli davlatlarning birini yo'qolishi, boshqa qudratli davlat - AQSH boshchiligidagi bir qutbli dunyo tartibini shakllanishi xulosasini beradi. Biroq, shuni ham esdan chiqarmaslik kerakki, o'zgarishlar natijasida faqatgina Rossiya emas, balki AQShning ham geosiyosiy sharoiti o'zgaradi. "Sovuq urush" davridagi o'lchamlar yangi sharoitlarga to'g'ri kelmaydi. Har qanday davlatga, shu bilan birga Rossiya va AQShga yangi sharoitdagi dunyo geopolitik kengligida o'z roli va o'rnini izlashga to'g'ri keldi.

G'arb boshqaruv doirasining bir qismi AQSH yangi sharoitida yagona qudratli davlat bo'la olmasligini to'raligicha anglashdi. Boshqa qismdagilar bunga qo'shilishlari qiyin bo'ldi. Bu qism vakillari dunyo jamiyatida AQShning yagona sardorlik rolini saqlab qolishga harakat qilishdi. Buni tadbiq etishdagi muhim asboblardan biri sifatida Amerika boshliqlari NATONi tanlashdi.

NATO harbiy-siyosiy ittifoq ikki qutbli dunyoning bir qutbi sifatida tashkil topdi. "Sovuq urush"ning tugashi va Sovet Ittifoqining yemirilishi bilan NATO tuzilishining eng muhim sabablari yo'qoldi. Biroq g'arb davlatlari boshliqlari, boshqalardan ko'ra AQSH harbiy-siyosiy blokning mustahkamlash va keyinchalik kengaytirish, xalqaro xavfsizlikni ta'minlashdagi rolini oshirish rejasini amalga oshirishdi.

AQShning dunyoda sardorlik uchun kurashi, NATONing kengayishi hisobida uning to'g'ri harbiy-siyosiy ta'sirining kengayishi amerikalik boshliqlarning xalqaro tashkilotlarga nisbatan qattiq sharoiti dunyo siyosati tizimining tekis shakllanishi, bu "sovuq urush"ning davomi deb da'vo qiluvchi davlat boshliqlariga katta xavf tug'dirdi. Biroq zamonaviy siyosatda "Amerika faktori" eng muhim sharoit sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Yer sharining hamma

burchaklaridagi odamlar avlodlariga Amerika siyosiy qaramlik va moddiy qiyinchiliklardan qutilish yo'lini ko'rsatuvchi nur sifatida xizmat qildi. Katta Shimoliy Amerika kontinentining tez egallanishi, qishloq xo'jaligi va yengil sanoatning tez rivojlanishi, tarixda ko'rilmagan moddiy boyliklarning oshib borishi ko'pgina xalqlarning boshqa davlat va xalqlarning taqdiridan ko'ra uning taqdiri yaxshiligiga ishonirdi.

Har qanday boshqa g'oyaday, Amerika g'oyasi o'zining rivojlanish va rivojlangan devorlariga egadir. U uchun rivojlangan davr "sovuq urush" davri bo'ldi. Shuning uchun Vashingtonga tarix darslariga o'qish va tegishli xulosalar chiqarishi qiyin, chunki AQShga bir qutbli dunyoda yagona qudratli davlat statusini berishni yoqlab chiqqanlar bo'ldi. "XX asr Amerika asri edi. XXI asr ham Amerika asri bo'ldi", deb yozgan mashhur politolog S.Xantington bu vaziyatning g'oyaviy bazasini keltirdi.

Albatta, amerikaliklarning birinchi ko'rinishga bunga yetarli moddiy, mafkuraviy, psixologik va geosiyosiy xarakterga ega sabablari mavjud edi. Tarixda SSSR nomi bilan sobiq bosh raqibi vayron bo'ldi. Amerika esa o'z qudratining oxirgi nuqtasiga yetdi. U dunyodagi eng qudratli iqtisodiy va harbiy-siyosiy davlat sanalib, kelajakda ham shunday bo'lib qoladi. Lekin hozirgi kungi sharoitdan kelib shuni aytish kerakki, bir davlat u qanchalik qudratli bo'lmasin hozirgi qiyin turli masalalar bilan to'la dunyoni boshqara olmaydi. Oxirgi o'n yilliklarda AQShning bir o'zi dunyoni boshqara olmasligiga guvohlik beruvchi ko'pgina aniq ma'lumotlar mavjud. Undan tashqari eng qudratli davlat nomi hozirgi kunda yo'qolib ketmoqda.

7. Vujudga kelgan aniqliklarga ko'ra ikki qutbli dunyo tartibi bo'lmasdan bir necha davlat boshliqlari va teoretiklari tomonidan geosiyosiy kuchlarning uchburchakli joylashuvi - uch markazi AQSH, G'arbiy Yevropa va Yaponiyaga tayanuvchi tartib ilgari surilmoqda. Industrial dunyoning bu markazlari orasidagi iqtisodiy yoki boshqa nizolarni yangilik deb bo'lmaydi. Ammo, "sovuq urush"ning tugashi bilan ular yangi o'lcham va yangi sifatlarni qabul qilmoqdalar. Bu shakllanayotgan ko'p qutbli dunyo tartibining tabiatidan kelib chiqmoqda. Iyerarxik tizimidagi davlatlarning "sovuq urush" davri uchun an'anaviy davrdan yangi tuzimiga o'tish rejalashtirilgan.

AQSH va uning ittifoqchilari o'rtasida sifatli o'zgarishlar bo'lib o'tdi. Oxirgi Amerikaga nisbatan "kichik ukalik" kompleksidan, ya'ni urushdan keyingi davrda sovet bosqinidan yonini oluvchi kompleksdan birin-ketin ozod bo'lindi. G'arb va Sharq o'rtasidagi g'oyaviy va tizimlararo nizo tugagan paytda, u yoki bu davlatga harbiy yoki harbiy-siyosiy ta'siri ko'p tomonlama o'z ahamiyatini yo'qotdi.

Davlatning kuchi, potentsiali va qudratini ko'rsatuvchi asosiy ko'rsatkichlar iqtisodiy, ilmiy va texnikaviy, undan so'ng harbiy imkoniyatlaridan kelib chiqdi. Bu sohalarida AQSH tez rivojlanuvchi industrial davlatlar-Yevropa iqtisodiy Ittifoq a'zolari va Yaponiyadan orqada edi. Amerika g'oyasiga qarshi ikkinchi tug'ilishni boshdan kechirayotgan Yevropa g'oyasi va Xitoy modeli, yangi industrial davlatlar (Janubiy-Sharqiy Osiyoning "kichik ajdaholar") o'z modellari bilan chiqishdi.

Dunyo siyosatida Yevropani rolini oshirish uchun bu hududda integratsion jarayonning omadlari, umumiy iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy imkoniyatlarga oshib borishi asos bo'ldi. 70-yillarda G'arb tafakkur doiralarida Yevropaning yiqilish tezisi mashhur bo'lsa, 1990 yil 344,6 mln aholisi bor Yevropa jamiyati AQShga nisbatan (5,47 trln.dollar) 5,53 trln.dollar ko'p mahsulot ishlab chiqardi. 80-yillarda hamma Yevropaning qayta tug'ilishi-geosiyosiy va ruhiy kuch sifatida ishonarli gapira boshlashdi, "katta" va "kichik uka" munosabatlardan teng hamkorlar munosabatiga o'tishiga asos yaratdi.

Yevropa davlatlarning bundan "yevropezatsiya" siyosati, o'zini-o'zi boshqarishni qo'lga kiritishi 80-yillarning boshlarida Yevropa davlatlari amerikaliklarning SSSR bilan munosabatda qattiq yo'nalishiga qarshilik ko'rsatayotgan bir paytda boshlandi. "Sovuq urushi" tugashi bilan bu tendensiya kuchaydi. Yevropaliklar Vashington qo'l ostidan chiqishni ochiq aytishdi. Ular xalqaro sahnada va NATODA o'z rolini kengaytirishi, ayniqsa, nizolarni yechishda javobgarlik va katta yukni o'z zimmasiga olishga tayyorgarligini aytishdi. Bu kontekstdagi o'sib boruvchi rol ni G'arbiy Yevropa davlatlarning harbiy-siyosiy alyansi hisoblanadigan G'arbiy Yevropa Ittifoqiga

(ZES) berildi. G'arbiy Yevropa Ittifoqi antonom boshqaruv tizimini yaratish rejalari ishlab chiqilmoqda. Voqealarning bunday rivojlanishiga ko'ra NATO yagona emas, balki Yevropa xavfsizlikni ta'minlovchi ikki tanyachdan biri bo'lib qolishi mumkin.

SSSRning yemirilishi va Yevropa kontinentida siyosiy xaritaning o'zgarishi Yevropa Ittifoqini past sotsialistik mamlakatlarning tortish markaziga aylandi. Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlari to'g'risini aytganda Yevropa bilan birlashishdi. "Sharqiy Yevropa" va "Markaziy Yevropa" so'zlari yana o'zining ilgarigi siyosiy-geografik va geosiyosiy ma'nosini oldi. Totalitar tizimning yemirilishini boshidan kechirgan xalqlar uchun "yagona Yevropa" "tog'dagi shahar"ga aylandi.

Yevropa markazidan tashqari hozirgi dunyo taqdiriga Osiyo-Tinch okeani hududi katta ta'sir ko'rsatdi. XIX asr oxirida AQShning o'sha paytdagi davlat (sektori) kotibi J.Xey "O'rta yer dengizi - o'tishi okeani, Atlantika okeani-hozirgi okean, Tinch okeani-kelajak okeani" tezisini ifodaladi.

Rivojlanuvchi Osiyo (aniqrog'i Sharqiy) Rossiyaning Uzoq Sharqi va Koreyadan Shimoli-Sharqqa Avstraliyagacha janubga va Pokistonga sharqda yirik uchburchak shaklida o'z yerini ichiga oladi. Ushbu uchburchak ichida taxminan koinot aholisining yarmi yashaydi va ko'pgina davlatlar - Yaponiya, Xitoy, Yangi Zelandiya, Tayvan, Janubiy Koreya, Gongkong, Singapur va boshqalar. XX asr davomida iqtisodiy tez rivojlanuvchi davlatlar kiradi. 1960 yil AQShdan tashqari ushbu hududdagi davlatlarning umumiy yalpi milliy mahsuloti dunyo yalpi milliy mahsulotining 7,8% tashkil etgan bo'lsa, 1982 yilga kelib u 2 baravar ko'paydi. 16,4% tashkil etdi. 2000 yilga kelib bu raqam dunyo yalpi milliy mahsulotining 20% tashkil qilib, AQSH yoki Yevropa hissasiga teng. Shunday qilib Osiyo-Tinch okeani hududi dunyo iqtisodiy qudratining asosiy markazlaridan biriga aylandi.

Osiyo-Tinch okeani hududida integratsiya jarayoni tez yoyilmoqda. ARES -Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi bo'yicha hukumatlararo konferensiyasi (1989 yil Osiyo va Shimoliy Amerika davlatlari tomonidan tuzilgan forum). RESS -Tinch okeani iqtisodiy hamkorlik kengashi RVES -Tinch okeani havzasida iqtisodiy kengashi, ATES Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy kengashi va boshqa obro'li tashkilotlar tashkil etildi. 1967 yil tashkil etilgan subregional siyosiy-iqtisodiy tashkilot - Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlar Assotsiatsiyasi (ASEAN)-e'tibori va ta'siri olib bormoqda, uning tarkibida birinchilardan Indoneziya, Malayziya, Singapur, Tailand, Filippin va Bruney kirgan edi. Janubi-Sharqiy Osiyoda tinchlikni o'rnatish, a'zo davlatlarning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va turdagi hamkorliklarni rivojlanishi bu tashkilotning asosiy maqsadi edi. U davlatlarning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga, ularning bu hududda siyosiy ta'sirini o'sishiga muhim rol uynadi.

Ushbu hududda siyosiy iqlimning yaxshilanishi kuzatilmoqda. Ayniqsa, Rossiya-Xitoy va Xitoy-Hind, Xitoy-Vyetnam munosabatlarining yaxshilanishi, Koreya davlatlari o'rtasida faollikni oshirdi. ASEAN davlatlari bilan Vietnam o'rtasidagi yaqinlashish tendensiyasi ko'rilmogda. "Sovuq urush"ning tugashi va Sovet Ittifoqining yemirilishi Osiyo-Tinch okeani hududida Yaponiya va Xitoyning ta'siri va e'tibori omiliga (to'g'ri keldi) va shu bilan birga bu bir qator yangi industrial davlatlarning rivojlanishiga to'g'ri keldi. "Sovuq urush" tugashiga Yaponiya iqtisodiy qudratli davlatga aylanib, har qanday Yevropa davlatidan o'tib AQSH bilan iqtisodiy sohada raqobatlashishi mumkin edi. Uning tashqi kapitallari 1 trln. dollardan oshdi, bu esa AQShning ko'rsatkichidan ko'p edi.

Yaponiya izidan dunyo sahnasiga dunyo bozorida o'z o'rnini topish va uchun bir qancha ko'zga ko'rinarli g'alabalarga erishgan yangi industrial davlatlar chiqdi. Xitoydagi iqtisodiy o'zgarishlar o'z natijalarini berdi va u iqtisodiy va siyosiy qudratini oshirgan davlatga aylandi. Xitoy Sharqiy va Janubiy -Sharqiy Osiyo xalqla vari davlatlarini o'ziga torta oluvchi aholi resurslariga boy, tabiiy va iqtisodiy imkoniyatlari keng, texnik hamda harbiy strategik kuchga ega bo'lgan markaziy davlatga aylandi. Bu sifatda Xitoy butun Osiyo-Tinch okeani hududi shakli va tuzilishini shakllanishiga muhim rol o'ynaydi.

Xitoy, Gongkong, Makao, Tayvan, Singapurni o'z ichiga oluvchi "Katta Xitoy" nomini olgan jarayonning jadal rivojlanishi bormoqda. Ularning hamkorlikdagi eksport potentsiali

Yaponiyanikidan oshadi. 2002 yil Jahon bankining bergan ma'lumotiga ko'ra Xitoyning Gongkong va Tayvan bilan birga tashqi milliy mahsuloti 9,8 trln.dollarni tashkil etishi mumkin. AQShning km.ning 9,7 trln.dollariga nisbatan.

Xitoy harbiy sohada ham bu yutuqlarga erishdi. Xitoy yaqin kelajakda qudratli iqtisodiy va harbiy kuchga, shu bilan tugamas odam resursiga ega bo'lgan yadroviy davlatga aylanishi mumkin. Bu Xitoy xalqaro ta'sirda yagona yirik qutb bo'lib qolishidan dalolat beradi. Xitoyliklar esa XXI asr "Xitoy sivilizatsiyasi asri" bo'lishiga intilganligini aytishmoqda.

Ushbu barcha ma'lumotlar shu haqda guvohlik beradiki, Yevropa va Shimoliy Amerikaning iqtisodiy-siyosiy markazlari yonida yangi markazlar vujudga keldi. 80-yillarning boshida ikki qutbli dunyo modeli o'rniga o'z ichiga SSSR, AQSH, G'arbiy Yevropa, Yaponiya va Xitoyni oluvchi beshburchakli modeli keldi. Bu Yaponiya va Germaniyaning Xavfsizlik Ittifoqiga doimiy a'zo bo'lish talabida o'z ifodasini topdi. Shuni esda tutish kerakki, Xitoy va Hindiston o'zlarining demografik gigantlik statusini o'zida saqladi, bu esa ularning dunyo masalalarini yechishda rolini oshirmasligi mumkin emas. Strategik resurslar doirasida Yaqin Sharq va Janubiy afrika o'z mavqelarini saqlamoqdalar.

Shu bilan birga hech qachon hisobdan mustahkam bo'lmagan yirik hudud bo'lgan va global masshtabdagi o'zgarishlar epitetrida qolgan Rossiyani chiqarib tashlash mumkin emas. Rossiya boshidan kechirgan qiyinchiliklar oldida uni "kuni bitdi" deyish mumkin emas.

Mavjud yirik resurslar zonasi va ularning qo'lga kiritish rejalari Markaziy Osiyoni geosiyosiy nuqtainazardan muhim bir hududga aylanishiga zamin yaratmoqda. Bu va boshqa markazlar bilan hamkorlik va raqobat qila oluvchi geoiqtisodiy va geosiyosiy kuchga ega bo'lgan mustaqil markazga aylanishi mumkin.

Shunday qilib ko'p qutbli dunyo tartibining chiqishi torayib borardi, ammo dunyo holatini o'zi boshqara oluvchi u yo bu davlatlarning qudratli davlat sifatida chiqishi yoki saqlash imkoniyati berilmadi. Dunyo bir vaqtning o'zida ko'proq bir xil va ko'proq har xil bo'lib, ba'zi imkoniyatlar ko'payib, boshqalari qisqarmoqda, yagona jamoaviy va milliy saylash imkoniyati kengaymoqda.

Ko'pgina yuqorida sanab o'tilgan davlatlar -har biri alohida yoki boshqa markazlar bilan hamkorlikda - dunyo siyosatida boshqa a'zolarga nisbatan u yo bu qudratli davlatning diktatini to'sishi yoki qabul qilmasligi mumkin edi. Jiddiy ilmiy-texnik va moliyaviy qudratga ega mayda davlatlarning ta'siri va obro'si oshib borishi kuzatilmoqda. Davlat va mintaqalarning ko'payishi natijasida yirik davlatlarning geosiyosiy o'yinidagi an'anaviy konsertida oddiy rol bajarilmay qoldi.

Ular shaxsiy siyosatini o'tkazish va ustalik bilan boshqarishni mustaqil o'rganib olmoqdalar. Dunyoni uning dunyoga bo'linishi yoki "Uchinchi dunyo" o'z ma'nosini yo'qotdi. Yangi industrial davlatlarga keladigan bo'lsak, ularning safi yil sayn kengayib, eski industrial davlatlar klublarning haqiqiy a'zolariga aylanmoqda.

Janubning bir qator davlatlari yangi turdagi qurollarni so'rayveradigan o'zining jangari boshliqlari bilan diktatlik hukmronlik qilishi mumkin. Bir qator uchinchi dunyo davlatlarining yadro qurolini qo'lga kiritish aniq ko'rinish olmoqda. Bu dunyo jamiyatining shakllanish ko'rinishlariga o'zgartirish kiritdi. ikki qutbli dunyo tartibida ikki bloklar yoki qutblar o'rtasidagi chegara aniq, mustahkam o'tib bo'lmas edi. Bu qarama-qarshilik aniq va sodda edi; bu dushman, bu biz, bu esa 2 dunyo orasidagi chegara. shuning uchun har qaysi tomon qayerdan va qanday hujum bo'lishini bilardi. Hozir esa hammasi o'zgardi. Urushdan keyingi o'n yilliklarda xalqaro tizimda mustahkamlik kuchi o'zgardi, aniqlik noaniqlikka o'rnini bo'shatdi, hukmronlik va ta'sir o'zgarib egasiz bo'lib qolmoqda.

Vaziyatdan o'tish "yoki-yoki" prinsipi asosida ikki imkoniyatdan birini tanlash o'rin qoldirdi, bunda ko'pgina davlatlarning tanlash diapozoni ko'paygani sababli, ularning ko'pgina variantlarni tanlash imkoniyati bo'ldi. Ularning har biri aniq milliy-davlat manfaatidan kelib chiqib, u yo bu blok bilan maslahatlashmasdan tashqi siyosiy qaror qabul qilishi mumkin. Vaziyatning yangiligi shundan iboratki, birga ildam a'zolarning tashqi siyosati koinot masshtabida ko'p vektorli joylashuvni qo'lga kiritmoqda. Bir vaqtning o'zida davlatlar turli

koalitsiyalarda qatnashishi mumkin bo'lmogda. masalan, Sharqiy Osiyo hududida buyuk davlatlar juftligi o'z-o'zini boshqaradigan mazmunni kasb etdi. AQSH-Yaponiya, AQSH-Xitoy, AQSH-Rossiya, Yaponiya-Xitoy, Yaponiya-Rossiya, Rossiya-Xitoy.

Hozirgi vaziyatning ahamiyatli tomoni shundaki, dunyoviy siyosatning faol a'zolari dunyoviy voqealarga ta'sir eta oluvchi yangi davlatlar, mintaqaviy guruhlar, xalqaro tashkilotlar va transmilliy korporatsiyalar bilan to'ldirildi. Bularning hammasi chegaralarning o'tkazuvchanligini ko'paytirilishi bilan birgalikda kerakli tartib va tinchlikni saqlash, bir-biri bilan qarshi harakatlanuvchi davlatlar, davlat bloklari, mintaqalar o'rtasida muvozanatni saqlashda qiyinchilik tug'diradi. Ikki bloklar ramkasida bir qutbli dunyo tartibida vertikal bir-biriga bog'liq davlatlar o'rniga gorizontaal bir-biriga bog'liq davlatlar keladi. Mintaqaviy birlashmalar yakka bloklar bo'lmayapti.

Bunday xalqaro sahnada bir qancha uzoq vaqt vaziyatni aniqlaydigan sharoitda geosiyosiy kuchlarning joylashuv imkoniyatlari haqida gapirish qiyin. Bunday sharoitni kutish ham mumkin, davlatlar, mintaqalar, siyosiy-iqtisodiy yoki boshqa davlatlar bloklarining o'zaro munosabati doimiy o'zgarishlarga moyil bo'ladi. Buning natijasida ikki qutbli o'zini tutishdan tartibsiz va nazoratga berilmaydigan o'zaro o'zini tutishi qayta tug'ilib, kuchlarning ishlatilishi davlatlar va xalqlarning o'zaro munosabatlar tizimida doimiy belgi bo'lib qoladi.

Urush va qonli nizolardan ozod dunyo odamzod tafakkuridagi eng yaxshi yuksak maqsad edi. Biroq, tarixiy tajribaning kursatishicha odamlar oliy baxt deb hisoblashmagan. Bir xillari boshqa davlat va xalqlarning o'z hukmronligiga olishga intilishar, boshqalari harbiy shuhratini istashar, uchinchilari esa tizzada turib yashagandan ko'ra tik turib o'limni afzal ko'rishardi. Bu g'oyalar XX asrdagi 2-jahon urushidagi katta yo'qotishlarga qaramasdan bizning kunlarimizda ham yashamoqda.

Hozirgi dunyodagi davlatlarning o'zaro munosabatlarini hammaga qarshi urush deb tasavvur qilib bo'lmaydi. Zo'ravonlik yoki zo'ravonlikni qo'llash dag'dag'asi davlatlar va xalqlar ustidan uchib yuribdi deb tasavvur qilib bo'lmaydi. Lekin urush va nizolar mavjudligini tan olish shart. Hozirgi dunyoviy jamiyat o'zining tizimlarni vujudga keltiruvchi xarakteri, stixalari, tuzilish tarkibi va funksiyalarini namoyish qilmoqda. Natijada o'z ta'sirini har bir davlat butun jahon jamiyati ishlariga kiritilmoqda.

Iqtisodiyotdagi yangi o'zgarishlar va shunga bog'liq siljishlar natijasida geosiyosiy masalalarning butun kompleksining tasavvurida bu milliy xavfsizlikni ta'minlashi bilan bog'liq. Oldin jahon sahnasida davlatlar hukmronlik uchun armiya va mafkura bilan kurashsalar, hozirda valyuta kursi va bozorning natijasiga o'tishdi. Boshqacha aytganda, "sobiq urush" vaqtida harbiy haqiqat global strategiyani aniqlar va iqtisodiy tasavvur qilsa, hozir iqtisodiy haqiqat dunyoni shakllantirmoqda. Bu o'zgarishning maqsadi o'z maydonini kengaytirmoqchi bo'lgan davlatlarning "kuchlar o'yini"dan iqtisodni rivojlantirish maqsadi qo'yilgan "yaxshilik o'yinlari"ga o'tishdir.

XX asrning 70-90 yillari dunyo shari-butun mintaqalar va davlatlar, xalqlari iqtisodiy, ekologik, siyosiy va madaniy hamkorlikning keyingi kengayishi va chuqurlashuvi davri bo'ldi. Bu esa o'z navbatida mavjud masalalarni bir milliy davlat alohida yecha olmasligini anglashishiga olib keldi. Ularning yechimi xalqaro hamkorlik va barcha davlatlar kuchlarining birlashishini talab qiladi.

4. Sotsializm yemirilishining sabablari va oqibatlari.

Xozirgi kunda barcha xalqlar va davlatlar yer yuzida bo'layotgan voqealar, taraqqiyot jarayonlari bilan uzviy bog'langan sharoitda yashamoqdalar. Chunki, dunyoning u yoki bu mintaqasida bo'layotgan keskinlik albatta, qo'shni mintaqalarda ham o'z ta'sirini ko'rsatishi tabiiydir. Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimovning 2000 yil sentabr oyida BMT Bosh Assambleyasida so'zlagan nutqini eslash joizdir. «Kimki qandaydir tor xavfsizlik qobig'iga o'ralib, bu Yevropa, Amerika yoki boshqa biron mintaqaga taalluqli deya «o'zga» davlatlar muammolaridan go'yo chetda turishga intilayotgan bo'lsa, mavjud voqelikdan tamomila

yiroqdir, bugun dunyo mamlakatlari bir-biri bilan uzviy bog'liq va ajralmasdir»□. Shu sababli sodir bo'lgan bunday o'zgarishlarni chuqurroq o'rganib, ularga o'z munosabatimizni bildirishimiz muhimdir. XX asrning oxirida yuz bergan buyuk voqea sifatida tarixga kirgan sotsializm sistemasining yemirilishi shubhasiz tarixchilarning diqqat markazida turishi tabiiydir. Markaziy va Janubi-Sharqiy Yevropadagi sotsialistik davlatlarda shuningdek, SSSRda yuz bergan o'zgarishlar jarayonining kelib chiqish sabablari va oqibatlarini chuqur o'rganish hamda tegishli xulosalar chiqarish, amalga oshirilayotgan islohotchilik harakatlarini qiyosiy ravishda tahlil qilish nihoyatda ahamiyatlidir.

Aftidan 1989 yil 1848 yilga o'xshab tarixda ramziy yil bo'lib qoldi. Markaziy va Janubi-Sharqiy Yevropa ko'z o'ngimizda o'zgarib ketdi, ommaning kuchli harakatlari natijasida avtoritar tuzumlar quladi, kommunistik partiyalarning yakka hukmronligiga chek qo'yildi. Ba'zan fojiali va oldindan aytib bo'lmaydigan voqealar sodir bo'ldi.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, sobiq sovet kishilarining aksariyati uchun voqealarning bunday burilish olishi kutilmagan hol bo'ldi va deyarli esankiratuvchi ta'sir ko'rsatdi. Buni shunday tushuntirsa bo'ladi: Markaziy va Janubi-Sharqiy Yevropa davlatlarida va SSSRda keyingi yillarda yuz bergan real ichki jarayonlar, aytish mumkin, Vengriya va Polshani istisno qilganda, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar va hamkorlikning murakkab muammolari sovet ommaviy axborot vositalarida aynan mushohada qilinmadi hamda yoritilmadi. Ular o'tmishning ayanchli an'analariga mahliyo bo'lib, odatda bu mamlakatlardagi ishlarning haqiqiy ahvolini ancha bo'yab tasvirladilar, bunda yaqinda hokimiyatdan chetlashtirilgan doiralarning rasmiy nuqtai nazarini ifodaladilar. Shu bilan bir vaqtda u yerda sotsial keskinlik kuchaya bordi, oxiri 1989 yili oxirida bo'ronga aylandi va totalitar hamda avtoritar boshqaruv rejimlariga chek qo'yildi.

Markaziy va Janubi-Sharqiy Yevropadagi, shuningdek, SSSRdagi muhim o'zgarishlar jarayoni kontinentdagi muqitni tubdan o'zgartirib yubordi. Sovuq munosabatlar urushiga chek qo'yilib, /arb bilan Sharq o'rtasida ishonch ruhi vujudga keldi, German davlatlarining birlashish jarayonini tezlashtirdi, mustaqil davlatlarning tashkil topishiga zamin tayyorladi.

Avvalo shuni aytib o'tish kerakki, sobiq sotsialistik mamlakatlardagi o'zgarishlar jarayoni jamiyatdagi inqirozlar oqibatida, xalqlarning uzoq yillar davomida yetilib kelgan pinhoni noroziliklari natijasida yuzaga keldi. Demak, 40-yillar oxirida «sotsialistik» inqiloblar g'alaba qilgan va forma jihatidan sotsialistik tuzum o'rnatilgan davlatlarda ommaning antiavtoritar va antitotalitar chiqishlari bu tizimning taqidirini hal qildi. Bunday o'zgarishlar Ruminiyadan tashqari boshqa sotsialistik davlatlarda qon to'kishlarsiz amalga oshirildi.

Demak, sotsialistik davlatlardagi o'zgarishlar jarayoni birdaniga yuzaga kelgan yo'q, buning boshlanishini oldingi 10-yilliklardan izlamoq kerak. Bu haqda mutaxassislarning bir necha marta bahslari va munozarali tortishuvlari bo'lib o'tganligini eslash joizdir. Unda sotsialistik davlatlarda yuz berayotgan va yetilib kelayotgan krizisli jarayonlar muhokama qilingandi, undan qutulish yo'llari qidirilgandi. Biroq olimlarning fikrlari ma'muriy-buyruqbozlik apparati rahbarlari tomonidan inobatga olinmadi. Natijada 1989 yilning oxiridagi voqealarning shiddatli kechishi GDR, Ruminiya, Bolgariya, Chexoslovakiya, Polsha va Vengriyada mavjud bo'lgan sotsialistik tuzumni ostin-ustun qilib tashladi. Bu voqealar ushbu davlatlarda siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy krizislarning yuqori cho'qqisiga chiqqanligining oqibati bo'ldi. Yana shuni ta'kidlash lozimki, ushbu jarayonlar yuz berishining asosiy sababi, 2-chi jahon urushidan keyingi yillarda asosan, 1947-48 yillarda sotsializm qurish sovetcha modelining ushbu davlatlarga aynan ko'chirilishi oqibatida bo'ldi. Jamiyatni boshqarishning Stalincha ma'muriy-buyruqbozlik usulining mahalliy va milliy xususiyatlarni hisobga olmay Markaziy va Janubi-Sharqiy Yevropadagi sotsialistik davlatlar hayotiga aynan ko'chirilishi noto'g'ri ekanligini hayotning o'zi ko'rsatdi. To'g'ri o'sha paytda sotsializm qurishning sovetcha modelidan boshqa yo'l yo'q edi, bu yo'l yagona, to'g'ri yo'l deb qabul qildirilgandi. Biroq, ushbu sovetcha yo'lni qabul qildirishda xalqlarning ko'p ming yillik milliy an'analari, urf-odatlar va qadriyatlari, mahalliy sharoitlari va milliy xususiyatlari, diniy e'tiqodi va chegaralari hisobga olinmadi.

Yevropada sotsializm yoʻliga oʻtgan davlatlarda mavjud sovet modelini koʻp partiyaviylik asosida milliy va mahalliy xususiyatlarga qarab oʻzgartirishga urinishlar darhol bugʻib tashlandi. Sovet modelidan boʻyin tovlash, yoki siyosiy va iqtisodiy reformalar qilishga boʻlgan har qanday urinishlar darrov davlatlar oʻrtasidagi kelishmovchiliklarning kelib chiqishiga sabab boʻlardi. Masalan, 1948 yilgi Yugoslaviya bilan kelishmovchilik shunday kelib chiqqan edi. Oʻsha vaqtda deyarlik barcha kompartiyalar VKP (b) yoʻlini maʼqullab Yugoslaviya kompartiyasi faoliyatini dastlab, burjuacha millatchilikka burilishda, soʻngra fashizm tomon burilishda va keyinchalik toʻgʻridan-toʻgʻri Yugoslaviya xalqining milliy manfaatlariga xoinlik qilishda aybladilar.

Bu ayblashlar 1948 yil iyunida boʻlgan Kominformbyuro rezolyutsiyasida, xususan «Yugoslaviya kompartiyasidagi ahvolga doir» degan xujjatda va 1949 yil noyabrda qabul qilingan «Yugoslaviya kompartiyasi qotillar va josuslar hokimiyati tepasida» degan xujjatda oʻz aksini topdi.

Jamiyatga begona boʻlgan modelning tiqishtirilishi, xalqlarning va mamlakatlarning tarixiy, milliy xususiyatlarini hisobga olmasak, uni oʻtmish qadriyatlari va anʼanalaridan, Yevropa va dunyo mamlakatlari bilan yuritib kelgan koʻp asrlik aloqalaridan ajratib qoʻyish siyosatidan noroziliklar Yugoslaviyadan tashqari boshqa mamlakatlarda ham sotsializm qurishning dastlabki yillaridanoq boshlangan edi. Maʼqul boʻlmagan sovetcha modeldan voz kechish yoki uni isloh qilish uchun boʻlgan urinishlarni biz 1953 yil Berlinda, 1956 yil Polsha va Vengriyada, 1968 yil Chexoslovakiyada, 1980-81 yillarda Polshada yuz bergan voqealar bilan izohlaymiz. Afsuski, bunday harakatlar turli xil yoʻllar bilan, jumladan: kuch ishlatish yoʻli bilan, SSSRning «harbiy yordami» bilan mamlakat rahbarlarini almashtirish yoʻli bilan va «revizionizmga» qarshi juda qattiq kurash olib borish yoʻli bilan bostirilardi.

Markazga boʻysunishni susaytirmaslik, imperializmga qarshi kurashda sotsializm bloking birligini saqlab qolish, yagona mafkuraviy frontning birligi uchun kurash olib borish siyosati xalqlarning va davlatlarning tarixiy va milliy qiziqishlaridan ustun qoʻyildi. Masalan: Varshava Shartnomasi Mudofaa Tashkiloti aʼzolaridan 5 davlatning (SSSR, GDR, Vengriya, Polsha, Bolgariya) kollektiv «internatsional» aktga birlashgan holda 1968 yil bahorida Chexoslovakiya davlati hududiga oʻz qoʻshinlarini kiritishlari mavjud tizimda boshlangan inqirozning oldini olib qolish uchun va kuch ishlatish yoʻli bilan jahon sotsializm sistemasining oʻzini ham saqlab qolishga boʻlgan urinish edi.

Kommunistik harakatning zarbdor kuchlari va rahbarlari bunday holatning kelib chiqish sabablarini bilar edilar. Shuning uchun ham /arbiy Yevropa davlatlari kompartiyalarining faol aʼzolari orasida munozarali diskussiyalar ham boʻldi, Yevropaning oʻz xususiyatlarini hisobga olib, ish yuritish tarafdorlari boʻlgan «Yevrokommunizm» oqimi ham vujudga keldi. Biroq, 1969 yilgi Kommunistik va ishchi partiyalari vakillarining Xalqaro kengashidan keyin bunday holatlar aniq koʻrina boshlagan boʻlsa ham, masalani kollektiv boʻlib muhokama qilishdan, krizisli holatlarni bartaraf qilish yoʻllarini izlashdan koʻpincha chetlab oʻtildi. Kommunistik va ishchi partiyalari vakillarining kengashlari va uchrashuvlarida asosan «kommunistik birlik uchun», «tinchlik va qurolsizlanish uchun» kurash masalalari muhokama qilindi. «Sotsialistik hamkorlik» ideologlari asosan, oʻzlarining saʼyi-harakatlarini kommunistik qurilishning «umumiy qonuniyatlari»ni ishlab chiqishga qaratdilar. Xususan, 1957 yilda boʻlgan kengashda ushbu mazmundagi bir qancha xujjatlar qabul qilindi. Voqeylikka va sotsializm qurish ishiga yangicha yondoshish harakatlari inkor qilib kelindi. Yetilib kelayotgan «kasallik» sabablari oʻrganilish oʻrniga u yashirib kelindi. Shu yoʻl bilan sotsialistik hamjamiyatdagi portlash jarayonlari bir muncha orqaga surilgan edi. Bunday siyosat yuritish asosan, 60-yillar oxiri va 70-yillar boshlariga kelganida oʻzining nomaqbul siyosat ekanligini koʻrsata boshladi. Ayniqsa, qurollanish poygasini yuqori darajada olib borish orqali NATO bloki bilan Varshava Shartnomasi Harbiy Tashkiloti oʻrtasidagi kuchlar muvozanatini saqlab turishga urinish oʻta xavfli siyosat ekanligidan butun jahon tashvishga tusha boshladi. Bu oʻz navbatida sotsializmga ixlosi bor mamlakatlarning ham undan yuz oʻgirib ketishlariga sabab boʻldi. Toʻgʻri, bunday

holatlar tashqi siyosat yuritish borasida sotsialistik mamlakatlarni ma'lum darajada ijobiy siljishlar qilishga majbur qildi.

70-yillar boshida Germaniya masalasini tinch yo'l bilan hal qilishga urinish, 1970 yil 12 avgustda SSSR bilan GFR o'rtasida davlat shartnomasining imzolanishi, 1975 yilda Xelsinkida Umumevropa Kengashining chaqirilishi, Yevropa kontinentida xalqaro keskinlikni yumshatishga erishish va boshqalar sotsialistik «hamdo'stlik» mamlakatlari bilan kapitalistik mamlakatlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni bir muncha yumshatganday bo'ldi. Biroq, sotsialistik «hamdo'stlik» mamlakatlari iqtisodiy hayotidagi ilgari boshqarish usuli va markazdan qochuvchi kuchga qarshi kurash yo'li saqlanib qolaverdi-ki, bu o'z navbatida sotsialistik «hamdo'stlik» mamlakatlari xalq xo'jaligining jahon mamlakatlari xalq xo'jaligida bo'layotgan buyuk o'zgarishlardan orqada qolib, ilmiy-texnika inqilobi talablariga javob berolmay qolishiga olib keldi. Masalan: GDRni olaylik, u yerga xalq xo'jaligini yuritishning sovetcha modeli aynan ko'chirilgandan keyin, urushdan oldin va urush yillarida GFR xalq xo'jaligi bilan bir xil darajada turgan GDR xalq xo'jaligi sotsializm qurilishi yillarida butunlay orqada qolib ketdi. 1989 yilga kelganda GDRdagi mehnat unumdorligi GFRdagidan 40 foiz past bo'ldi.

So'z bilan qurilayotgan sotsializm va kommunizm bilan amaldagi sotsializm o'rtasidagi jarlik tobora chuqurlashib bordi. Shuni aytib o'tish kerakki, SSSR da ham va sotsialistik hamdo'stlik mamlakatlarining birontasida ham o'tgan yillar mobaynida xalq ommasining turmush farovonligini ta'minlagan va ta'minlay oladigan, rivojlangan kapitalistik mamlakatlar xalq xo'jaligiga yaqin bo'lgan mustahkam xalq xo'jaligi tizimi yaratilmadi. Sotsialistik xalq xo'jaligidagi krizisli holat yildan-yilga chuqurlashib bordi, ishlab chiqarish va milliy daromad ko'rsatkichlari pasayib bordi. Inflyatsiya kuchayib, davlatlarning tashqi qarzi oshib bordi.

Qaror topgan sotsialistik jamiyat demokratiyaning eng oliy formasi sifatida atalsada, ammo qog'ozdagi deklaratsiya demokratiyasi haqiqiy hayotiy demokratik jamiyatdan juda yiroqda turar edi. Inson huquqlari masalasining eng oddiy elementlariga ham z'tibor berilmadi. SSSRdagi kabi hamdo'stlik va Yevropadagi sotsialistik mamlakatlarda ham sotsialistik jamiyat nuqsonlarini, kompartiyalar siyosatidagi xatolarni tanqid qilish, kamchiliklarni ochib tashlash uchun urinish sotsializmga dushmanlik sifatida baholandi va tegishli jazo choralari qurildi.

Sotsialistik jamiyatning xato va kamchiliklardan xoli bo'lgan jamiyat sifatida baholanishi va siyosat yuritilishi, xalq ommasi keng tabaqalarining fikri bilan hisoblashmaslik, amalda ularni jamiyatni boshqarish ishlaridan chetlashtirib, faqat topshiriqlar va buyruqlarni bajaruvchi passiv ijrochilarga aylantirib qo'yish, fikrlash, novatorlik va kashfiyotlar qilish huquqidan mahrum qilib qo'yish va hokazolar ma'muriy - buyruqbozlik usulida ish yuritayotgan kompartiyalar rahbarlariga nisbatan norozilikni kuchaytirib bordi.

SSSR hamda Markaziy va Janubi-Sharqiy Yevropadagi sotsialistik davlatlarning ichki ahvolini keskinlashtirgan, demokratiya mavjud bo'lmagan vaziyatda siyosiy-mafkuraviy nostabillik uchun shart-sharoit yaratgan boshqa muhim omillar ham bor edi. Avtoritar rejimlar jamiyatni demokratik asosda qurish bilan muvofiq kelmas edi. Xalq manfaatlarini, uning xohish-istaklari hukmron doiralar uchun hech narsa emas edi.

Fikrlar xilma-xilligi isyonkorlik deb hisoblanar va ta'qib qilinardi. Zero, har qanday boshqacha fikrlashning oldini olish uchun repressiya mashinasi doimo tayyor turardi. «Dissidentlar» deb atalmish kishilar, ko'pincha shunday nom olgan taniqli yozuvchilar, masalan Chexoslovakiyaning o'zgarishlar jarayonidan keyingi Prezidenti V.Gavel kabilar, shuningdek, madaniyat arboblari, olimlar qamoq va sudlarga duchor qilinardi yoki mamlakatdan surgun qilinardi. GDR aholisining 1989 yil 2-chi yarmida mamlakatdan GFR tomon ommaviy ravishda o'tib ketishga urinishlari, 1-chi navbatda iqtisodiy sabablar bilan emas, balki siyosiy erkinliklar yo'qligi bilan bog'liq ekanligini o'tkazilgan sotsiologik so'rovlar ko'rsatdi. Mintaqa mamlakatlarida qonunchilikni buzishlar, poraxo'rlik, xazina o'g'irligi keng yoyildi. E.Xonekker va GBSPning boshqa rahbarlari yashagan uylarning aql bovar qilmaydigan darajada jihozlanishini GDR televideniya orqali xalqqa ko'rsatganda, bu narsa portlagan bomba singari taassurot qoldirdi. Yoki boshqa bir misol, T.Jivkovning davlat hisobidan shahar tashqarisida 40 dan ortiq qarorgoh, dala hovli va ovchilik uylari qurishi, ov qilish uchun maxsus

qo'riqxonalarining tashkil qilinishi, yoki bo'lmasa, N.Chaushesku cho'miladigan vannaning jumragi oltindan, YE.Chaushesku cho'miladigan vannaning jumragi kumushdan qilinishi, xullas bularning hammasi sotsialistik mamlakatlar rahbarlarining barchasiga tekkan kasal bo'lib, umumdavlat manfaatlariga zid va yot bo'lgan hatti-harakatlar edi. Bular «real sotsializm»ga putur yetkazgan va uning inqirozga yuz tutishiga o'z hissasini qo'shgan omillardan bo'lib hisoblanardi.

Yevropadagi sobiq sotsialistik davlatlarning barchasi hokimiyat qo'lidan tortib olinib, hukmronlik mavqeini yo'qotgan kompartiyalarning takdiri ayanchli kechgan paytda bitta savol tug'ildi: ushbu partiylarning dohiylari, ideologlari va nazariyotchilari partiya va hukumat faoliyatidagi halokatga olib boruvchi xatolarni nahotki ko'rmagan bo'lsa? Albatta, ularni ko'rmadi yoki sezmedi deb ayta olmaymiz, ular nimalarnidir hayotga qo'llab ko'rgandek bo'lishdi. Xalq xo'jaligini boshqarishda dunyo tajribasidan foydalanayotgan ham bo'lishdi, yangi-yangi partiya dasturlari, uzoq muddatli istiqbolli rejalarini ham qabul qilishdi, ushbu dasturlarda sotsializm juda katta yutuqlarga erishayotgan jamiyat qilib ta'riflandi. Mavjud sotsializmni qanday sotsializm deb atash kerakligi to'g'risida ko'pgina munozara va diskussiyalar bo'ldi. Uni rivojlangan sotsializm, rivojlanayotgan sotsializm, o'tish davrida turgan sotsializm yoki umuman va uzil kesil g'alaba qilgan sotsializm deb atash kerakligi to'g'risidagi tortishuvlar bo'ldi. Sotsializm afzalliklarini ilmiy-texnika inqilobi yutuqlari bilan bog'lab olib borish kerakligi to'g'risida bilag'onliklar qilishdi. Biroq bularning hammasi kosmetika laboratoriyasi chegarasida qolib ketdi, amaliyotda qo'llanmadi.

Savol tug'iladi, Yevropadagi sotsialistik mamlakatlarda hukmronlik mavqeini yo'qotib, tarqatib yuborilgan va rahbarlari jinoiy javobgarlikka tortilgan kompartiyalarda islohotlar qilish mumkinmidi, shu partiylar o'z siyosatlarida ijobiy, xalqchil bo'lgan qayta qurish va yangilanishlarni amalga oshirib, o'z hukmronliklarini saqlab qolishlari mumkinmidi? Shuni aytib o'tish kerakki, har bir narsani o'z vaqtida qilmasa, yoki vaqtdan kechiktiribroq qilsa og'ir oqibatlarga olib kelishi turgan gap. Masalan: 1985 yilda SSSRda boshlangan qayta qurishni KPSS rahbariyati boshladi. Lekin bu qayta qurish juda kech boshlanganligi uchun, shu qayta qurishni boshlab bergan shaxs ham, uning partiyasi ham hokimiyatda qololmadi.

Agar Chexoslovakiyani oladigan bo'lsak, mamlakatda reformani 1968 yil bahorida boshlash kerak edi, chunki CHKP faoliyatini ommaning katta qismi qo'llab-quvvatlagan edi. CHKP shunday yo'l tutganda omma orasida o'z obro'sini saqlab qolgan bo'lardi. Partiya rahbarlarining almashtirilishi bilan bu reformaning yo'li to'sib qo'yildi va CHKPning omma orasida obro'sining tushib ketishiga olib keldi.

«Praga bahori» mobaynida olg'a surilgan, ko'p yillar davomida qattiq tanqid qilinib, «turg'unlik» ideologlari tomonidan sotsial-reformizm ramzi deb e'lon qilingan «demokratik sotsializm» davlatini bunyod etish g'oyasi hozirda butunlay boshqacha qabul qilinayotganligini tushunib olish qiyin emas. Yangi ijtimoiy tuzum o'z qiyofasini mehnatkashlar ommasi sari burmasa, bunday tuzumning umri qisqaligini hayotning o'zi ko'rsatdi.

Bizning nazarimizda, 1989 yilning 4-dekabrida SSSR va uning ittifoqchilari tomonidan qoralangan, Varshava Shartnomasi Harbiy Tashkiloti qo'shinlarining 1968 yil Chexoslovakiyaga kiritilishi bilan Yevropadagi sotsialistik mamlakatlarda ma'muriy-buyruqbozlik tizimining metindek mustahkamligini qaror toptirishga da'vat etilgan edi. Sotsializmning «oliy maqsadlari» bilan oqlanuvchi bu narsa teskari natija keltirdi - uning nufuziga jiddiy va halokatli zarba berdiki, yigirma yildan so'ng sodir bo'lgan «Praga kuzi», go'yo «Praga bahori»dan estafetani qabul qilib olayotganday bo'ldi. Uning rahbarlaridan biri A.Dubchek yana siyosiy sahnada paydo bo'lib, milliy majlisning raisi bo'ldi.

GDRning ba'zi bir sobik, rahbarlarining fikricha, respublikada o'zgarishlar jarayonini 1983-84 yillarda boshlash bilan mamlakatdagi normal holatni saqlab qolish mumkin edi. Bunday bo'lmagailigining sababi, Sharqiy Yevropadagi sotsialistik davlatlarning rahbarlari mavjud vaziyatga to'g'ri baho bera olmadilar, tarixiy jarayonlar pallasi yetilib kelganligini va zo'ravonlik siyosati bilan eski boshqarish sistemasini saqlab qolish mumkin emasligini anglab yetmadilar. Tarix o'z ishini qildi, rahbarlarning ba'zi birlarining taqdiri fojiali kechdi, ba'zi

birlariniki qamoq va ta'qib ostida bo'ldi. Natijada sotsialistik jamiyat qurish uchun qilingan 40 yillik urinishlar ostin-ustun bo'lib ketdi. Shunisi xarakterliki, qabul qilingan barcha deklaratsiya va konstitutsiyalarga, xujjatlar va dasturlarga qaramay Yevropadagi sotsialistik davlatlarda to'laonli insonparvar jamiyat qurilmagan edi. Ushbu mamlakatlarda 60-yillarning oxirlarida sotsializm asoslarini qurish to'g'risida gap borsa-da, biroq keyingi yillarda sotsializm qurish yo'lidagi harakatlar qiyinchiliklar bilan siljidi, amalda turg'unlik hukm surdi.

Hozirda Yevropa mamlakatlarida yuz bergan voqealar SSSRdagi qayta qurishning bevosita oqibatidir, deyuvchi keng tarqalgan fikrni tez-tez eshitish mumkin. Jilovlar yechildi, oqibatda shunday bo'ldi deyuvchilar qattiq adashadi. Albatta, SSSRdagi qayta qurish, «Brejnev doktrinasi»dan voz kechish Yevropa regionidagi inqilobiy jarayonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Aniqrog'i ularni tezlashtirdi. Biroq biz ko'rsatayotgan ibratomuz o'zgarishlarning chuqur ichki xarakterga ega ekanligini hamda stalincha va yangi stalincha tipdagi ijtimoiy tizimning inqirozi bilan chambarchas bog'liqligini unutmaslik kerak.

Sotsializmning buyruqbozlik-byurokratik modeli Yevropadagi sotsialistik mamlakatlarda ijtimoiy manfaatlarda bir necha marotaba to'qnash kelganligini yuqorida aytib o'tdik.

1956 yil Vengriya voqeasining bostirilishini vengerlar hozirgi paytda kattagina miqyosdagi islohotlarni amalga oshirishga halaqit bergan «milliy fojia» deb hisoblamokdalar.

SSSRda boshlangan qayta qurishni demokratik qayta qurishlarni amalga oshirishga to'siq bo'lib kelgan g'ovning olib tashlanishi deb baholashimiz mumkin.

Xo'sh, g'ov olib - tashlanibdi, unda nima uchun Yevropadagi sotsialistik davlatlarda o'zgarishlar jarayoni 1985 yildan boshlanmadi? Buni shunday izohlash mumkin: SSSRda boshlangan qayta qurishning dastlabki yillaridagi qiyinchiliklar bilan, shuningdek, 1956, 1968, 1980 - 81 yillardagi tarixiy jarayonlarning achchik, saboqlari Yevropadagi sotsialistik davlatlarni birmuncha o'ylantirib qo'ydi. Ular agar o'zgarishlar jarayonini boshlasak boshimizga yana og'ir kulfatlar tushmasmikan degan xadiksirash va qurquv bilan kutib turdilar. Buning ustiga 1981 yidda boshlangan Polshadagi tarixiy jarayonning inqirozli holatda cho'zilib ketishi, eski hokimiyatni saqlab qolish uchun hamma vositalar ishga solinib 1981 yilning dekabrda harbiy holatning e'lon qilinishi ham qo'shni sotsialistik davlatlarni birmuncha o'ylantirib qo'ygan edi.

1986 yilning noyabrida Moskvada sotsialistik davlatlar rahbarlarining uchrashuvida SSSR rahbari bundan buyon SSSR Yevropadagi sotsialistik davlatlarga nisbatan o'z hukmini o'tkazishdan voz kechganligini, ularning ichki ishlariga bundan buyon aralashmasligini ma'lum qildi. Shunda ham ular bu aldov emasmikan degan o'yda kutib turishdi. Nihoyat 1989 yilning 15 fevralida Sovet qo'shinlarning Afg'onistondan olib chiqilishi va shu mamlakatga qo'shin kiritishning xato bo'lganligini sovet hukumati tomonidan tan olinishi, 1956 yil Vengriyaga, 1968 yil Chexoslovakiyaga qo'shinlar kiritilishining ham bu davlatlarning ichki ishlariga zo'rlik bilan aralashish deb baholanishi va mazkur ishlar uchun bu davlatlardan kechirim so'ralishi sotsialistik hamdo'stlik mamlakatlaridagi hadiksirashlarga chek qo'ydi.

Shundan keyin o'zgarishlar jarayoni shiddatli kechdi. SSSRning aralashmaslik pozitsiyasida turishi bir-biriga qarshi turuvchi kuchlarning birini afsuslantirsa, ikkinchisini kurashga otlantiradi. Natijada Chexoslovakiya, Bolgariya, GDRg Polsha, Vengriya va Ruminiya davlatlarida xalq ommasining shiddatli chiqishlari byurokratik boshqarish tizimining to'g'onini qo'porib tashladi. Ruminiyada ahvol yanada fojiali kechdi, Yugoslaviyada kurashlar shu darajada keskinlashib ketdiki, uning parchalanib ketishi yetmaganday qirg'inbarot fuqarolar urushi uzoq yillarga cho'zildi.

SSSRda va Sharqiy Yevropadagi sotsialistik davlatlarda bo'lgan o'zgarishlar jarayoni Sharq va g'arb tarixchilari orasida ham, davlat arboblari orasida ham «Sotsializm - va kommunizmning tarixiy taqdiri halokatli tugadi» degan xulosani tug'dirdi. Masalan: AQShning sobiq davlat arboblari biri Z.Bjezinskiy o'zining «Buyuk ag'darilish, XX asrda kommunizmning tug'ilishi va o'lishi» degan kitobida: - «Kommunizm bugun mafkuraviy jihatdan ham, sifat jihatdan ham umumiy inqiroz holatidadir» - deb yozgan edi. Professor Z.Bjezinskiy SSSRga alohida e'tibor berib: «20-yillarda dunyo davlatlari SSSRdagi kommunistik qurilish tajribasini biron-bir natija beradi deb kutgandilar. Bu taxmin ayniqsa 2-chi

jahon urushidan keyin 60-yillargacha ishonch qozonib kelajak takdiri kommunizm bilan bog'liq bo'ladi deyishga asos bo'lgan edi. Biroq keyingi yillarda SSSR kishilarni va davlatlarni o'ziga jalb qilmaydigan, xalq xo'jaligi turg'unlikka yuz tutgan davlatga aylanib qoldiki, bu kommunistik jamiyatning kelajagi yo'qligini ko'rsatadi», - degan edi.

Sharqiy Yevropadagi sotsialistik davlatlarda yuz bergan o'zgarishlar jarayoni tarixga zo'ravonlik hukmini o'tkazishga urinishning yaroqsizligini, kuch ishlatish va gegemonlik yo'li bilan siyosat yuritishning og'ir oqibatlar bilan tutashligini ko'rsatdi. Ko'pgina partiyalar va siyosiy kuchlar shunday yo'l tutishlari oqibatida tarix maydonidan mag'lub bo'lib chiqib ketdilar.

Biroq, shuni aytish lozimki, jamiyatning mazmunini va partiyalarning yaxshi yoki yomonligini ularning qanday nom bilan atalishi belgilamaydi, aksincha, amalga oshirilgan ishlarning ko'lamini va xalqparvarligi belgilaydi. Shu nuqtai nazardan oladigan bo'lsak, jamiyatning sotsializm deb siyosiy yetakchi kuchlarning kompartiyalar deb nomlanishini qoralash unchalik to'g'ri emas. Faqat shunisi achinarliki, o'zlarini xalq manfaati uchun xizmat qiluvchi, uning dardi va g'ami bilan yonuvchi kishilar qilib ko'rsatgan rahbar kommunistlarga aybdordirlar. Kommunistik partiya ham sotsializm jamiyati ham shuning uchun kishilar nazarida yomon ko'rinib qoldiki, yuqoridagi chinovnik-byurokratlar barcha qilg'iliklarini sotsializm va kommunistik partiya nomidan qildilar.

1989 yilning oxiridagi anketa so'rovlarning natijasi shuni ko'rsatdiki, Chexoslovakiyadagi oddiy kishilarning ko'pchiligi «Hokimiyat tepasida kommunistlar turadimi, demokratlar turadimi bizga baribir. Eng muhimi kishilarning yaxshi yashashi va mehnat qilishi uchun sharoit yaratib berilsa bo'ldi, shunisi achinarliki, bizni uzoq yillar davomida kaltafahmlar boshqarib qeldi», - deyishdi.

Yevropadagi sobiq sotsialistik davlatlarda bo'lgan o'zgarishlar jarayonidan keyin ko'plab partiyalar siyosiy maydonga keldi. Bo'lib o'tgan demokratik parlament saylovlarida ular ishtirok etsalarda, bu partiyalarning qaysilari qancha vaqt yashab turishi mumkiiligi to'g'risida biron narsa deyish qiyin bo'ldi. Parlament saylovlaridan keyin hokimiyatga o'ng sentristlar bloki chiqib oldi, ba'zi bir mamlakatlarda hal qiluvchi rol ni sinfiy partiyalar emas, balki yangidan tuzilgan Polshadagi «Birdamlik» formasidagi xalq harakatlari o'ynadilar. Xususan, Slovakiyada «Zo'ravonlikka qarshi jamoatchilik harakati», Bolgariyada «Demokratik kuchlar ittifoqi» va hokazo. Bir qancha hukmron partiyalar Polsha BIPni hisobga olmaganda, jumladan VSIP, GBSP, RKP, YUKP va CHKP qayta qurishning dastlabki davridayoq o'z faoliyatlarini to'xtatdilar.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, 1989 yildan boshlangan o'zgarishlar jarayoni forma jihatidan Yevropa qit'asida «orqaga qaytish» protsessini boshlab berdi. Varshava Shartnomasi mudofaa tashkiloti o'z faoliyatini to'xtatdi. O'zaro Iqtisodiy Yordam Kengashi tugab ketdi, GDR GFR bilan qo'shilib, yagona Germaniya davlati tashkil topdi. Chexoslovakiya Chexiya va Slovakiya davlatlariga, Yugoslaviya bir qancha mustaqil davlatlarga bo'linib ketdi. SSSR qurolli kuchlari Markaziy va Janubi-Sharqiy Yevropa davlatlaridan olib chiqib ketildi. Rossiyaning so'nggi qo'shinlari ham Germaniya davlati hududidan 1994 yilning oxirida olib chiqib ketildi.

Markaziy va Janubi-Sharqiy Yevropadagi sobiq sotsialistik davlatlarda ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda nishonlanib kelingan bayram kunlari ham o'zgartirildi. Masalan; Bolgariyada 9 sentabr (1944 yil frontining tuzilishi) kuni o'rniga 3 mart – (1878 yil San Stefano bitimi imzolanishi) kuni; Ruminiyada 23 avgust (1944 yil Antonesku diktaturasining ag'darilgan) kuni o'rniga 1 dekabr - (1918 yil Ruminiyaga Transilvaniyaning qo'shilgan) kuni; Chexoslovakiyada 9 may (1945 yil Chexoslovakiyaning ozod qilingan) kuni o'rniga 28 oktabr (1918 yil Chexoslovakiyaning mustaqilligi e'lon qilingan) kuni; Polshada 22 iyul (1944 yil Polsha millatini ozod qilish komiteti e'lon qilingan) kuni o'rniga 11 noyabr - (1918 yil Polshaning mustaqilligi e'lon qilingan) kuni; Vengriyada 4 aprel' (1945 yil fashizmdan ozod qilingan) kun o'rniga 23 oktabr (1956 yil Budapesht qo'zg'oloni boshlangan) kuni milliy bayram kunlari sifatida nishonlanadigan bo'ldi.

mavzu: GERMANIYA 1945-2005 YILLARDA.

Ko'rib chiqiladigan masalalar:

- 1. Germaniya Ikkinchi jahon urushidan keyin. Ikkita nemis davlatlarining vujudga kelishi.**
- 2. GFR va GDR 50-80 yillarda**
- 3. Germaniyada G. Kol' davri.**
- 4. GDRning GFR bilan qo'shilishi va Sharqiy Germaniyadagi o'zgarishlar.**

Tayanch so'zlar:

2-chi jahon urushidan keyin Germaniyada vujudga kelgan G'arbiy va Sharqiy zonalar. 1949 yil may oyida "Bonn Konstitutsiyasi"ning ishlab chiqarilishi. Bonn konstitutsiyasi asosida o'tkazilgan saylovlar va GFRning tashkil topishi. Ikki palatali parlament: Bundestag va Bundesrat. GFRda parlament respublikasining takomillashuvi.

1950 yildagi GFRning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy taraqqiyoti. "Nemis iqtisodiy mo'jizasi" va uning sabablari. 1969 yilgi saylovlar va V.Brand boshchiligidagi GSDPning hokimiyat tepasiga kelishi. V.Brand hukumatining ichki va tashqi siyosati. G.Kol hukumatining ichki va tashqi siyosati. 1989 yil Sharqiy Yevropa mamlakatlaridagi tanazzul va Gdrdagi tinchlik. Germaniya birlashuvi. 2-chi jahon urushidan keyingi davrda GFR va GDRni o'rganish tarixshunosligi va manbalari. GFR-O'zbekiston munosabatlari.

Darsning maqsadi:

Ikkinchi jahon urushida fashistik Germaniyaning yengilishi bilan uning parchalab tashlanishi, GFR va GDRning tashkil topishi, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyoti, ikki nemis davlatlarining birlashtirilishi, G.Kol siyosati hamda GFRning hozirgi davrda Yevropa va dunyo siyosatidagi o'rnini yoritib berishdir.

1. Germaniya Ikkinchi jahon urushidan keyin. Ikkita nemis davlatlarining vujudga kelishi.

Germaniya masalasining urushdan keyin hal qilinishi.

Germaniya taqdiri masalasi Gitlerga qarshi koalitsiya davlatlari rahbarlari tomonidan urushdan keyin tartib o'rnatish muhokamasida eng asosiy masalalardan biri edi. Bu muzokoralarning asosiy maqsadi urush sababchilarini haqqoniy jazolash va dunyo hamjamiyatini Germaniya tomonidan navbatdagi tajovuzdan xolos etish g'oyalaridan iborat edi. 1941 yil dekabrda Moskvada bo'lib o'tgan Sovet-Angliya muzokoralaridayoq ikkala tomon tomonidan reyx hududining bir qismini taqsimlash, ya'ni Avstriya mustaqilligini tiklash, Sharqiy Prussiyani Polshaga, Sudet viloyatini esa Chexoslovakiyaga qaytarib berish hamda Reyn viloyati va Bovariyada mustaqil davlatlar barpo etish masalasi muhokama qilingan edi. AQSH ma'muriyatida Germaniyani parchalash g'oyasi ham tarafdorlarga ham qarshilarga ega edi. 1949 yilning oktabrida Moskva konferensiyasida AQSH "Germaniya taslim bo'lishining asosiy tamoyillari" nomli hujjatni taqdim etdi. Unda gap "reyxga Prussiya ta'sirini susaytirish" maqsadida Germaniyada markazlashishga barham berish haqida borardi.

1943 yilning noyabrida Tehron konferensiyasida AQSH va Angliya delegatsiyasi Germaniya masalasini shafqatsizroq usulda hal qilinishini yoqlashdi. Germaniyani beshta muxtor davlatlarga bo'lish yoki Janubiy Germaniya yerlarini (Yer Germaniyada ma'muriy-hududiy bo'linish birligi-U.M.) Avstriya va Vengriya bilan birgalikda Dunay federatsiyasiga qo'shish taklif qilingan edi. Bu masalada Stalinning fikri boshqacha edi. U Germaniyani parchalash nemis millatchiligi va revansizmi (qasoskorligi)ning yana jo'sh urishiga olib keladi, ammo

koalitsiyaning hamkorligi Germaniyada militarizmi va natsizmni yo'q qilish yordam beradi deb hisoblar edi. 1944 yil 15 yanvarda Britaniya hukumati tomonidan Germaniyani okkupatsiya (bosib olinishi) mintaqalariga bo'lish rejasi taklif qilindi. Unda, ilk bor keyinchalik, GFR va GDR chegarasiga aylangan chiziq aniq ko'rsatilgan edi. 1944 yil oktabridagi Kvebek (Kanada) konferensiyasida Cherrill AQSH moliya vaziri Genri Morgentau tomonidan ishlab chiqilgan Germaniyaga nisbatan urushdan keyingi siyosatni ma'qulladi. Bu loyihada Germaniyani hududiy bo'lish, uning sanoat salohiyatini qisqartirish va qattiq xalqaro nazorat ostida agrar ishlab chiqarishni rag'batlantirish ko'zda tutilgan edi. Faqatgina urush tugashi arafasida AQSH va Buyuk Britaniyaning Germaniyaga nisbatan siyosati biroz yumshadi. 1945 yildagi Yalta konferensiyasida Germaniyani hududiy jihatdan bo'lish masalasi to'g'ridan-to'g'ri qo'yilmadi. Faqatgina okkupatsiya mintaqalari loyihasi tasdiqlandi. Unda AQSH va ingliz okkupatsiya mintaqalaridan Fransiya okkupatsiya mintaqasi ajratib olindi. Yalta kommyunikesida birinchi marta Germaniyani urushdan keyingi boshqaruvining umumiy shakli, ya'ni "mamlakatning demilitarizatsiya (harbiysizlantirilishi)si va demokratlashtirilishi" xalqqa ma'lum qilindi. Bu vazifalarni bajarish Germaniya siyosiy tizimni millisizlantirish va nemislarga Germaniya harbiy-sanoat salohiyatini yo'q qilishga qaratilgan mamlakat iqtisodiyotini monopoliyasizlantirish va davlat tizimini shakllantirish huquqini berishni talab etardi. Sovet delegatsiyasi tomonidan qo'yilgan Germaniyadan reparatsiya (tovon) undirish masalasi (muhimligini barcha delegatlar tan olishiga qaramasdan) hal etilmadi.

Germaniya masalasi 1945 yil 17 iyulidan 2 avgustigacha Potsdamda bo'lib o'tgan konferensiyada uzil-kesil hal etildi. Konferensiya Germaniya mag'lubiyati to'g'risidagi Dekloratsiya va Yaltada ishlab chiqilgan Germaniya nisbatan siyosat tamoyillari ko'rsatilgan kommyunike-ni tasdiqladi. Germaniya, jumladan, Berlin hududi 4 ta okkupatsiya mintaqalariga ajratildi. Bunda sovet okkupatsiya zonasi Germaniya hududining 40%-ini, aholisining 30%-i, ishlab chiqarish salohiyatining 33%ini o'z ichiga olardi. Tartibga solish uchun beshta davlat (SSSR, AQSH, Fransiya, Buyuk Britaniya, Xitoy) tashqi ishlar vazirlari Kengashi, Bosh qo'mondonlar nazorat Kengashi hamda Berlinda qo'shma komendaturalar tashkil qilindi. Germaniyaning iqtisodiy birligini va nemis xalqining yagona demokratik davlat tuzish huquqini saqlab qolish tamoyili qat'iy belgilandi. Ammo shu narsaga e'tibor berish kerakki, Potsdam kelishuvi matniga "G'arbiy mintaqalar" degan tushuncha allaqachon kiritilgan edi.

Potsdam konferensiyasi Germaniyaning yangi chegaralarini belgiladi: Sharqiy Prussiya SSSRga berildi, Odergacha bo'lgan hudud va G'arbiy Neyse-Polshaga, Sudet viloyati Chexoslovakiyaga qaytarildi, Avstriya mustaqilligi tiklandi. Polsha, Chexoslovakiya va Vengriyada yashovchi nemislar majburan Germaniyaga ko'chirib kelindi.

Tovon (reparatsiya) hajmi va manbalari to'g'risidagi masala bahs-munozaralarga sabab bo'ldi. Oqibatda AQSH delegatsiyasi taklifi qabul qilindi. Unga ko'ra har bir hukumat o'z okkupatsiya zonasidan va Germaniyaning Korindagi mablag'lari (Bolgariya, Vengriya, Ruminiya, Finlyandiya, Avstriya) hisobidan tovon undirishi kerak edi. SSSR Germaniyadan G'arb mamlakatlari foydasiga undirilgan oltindan voz kechdi, ammo G'arbiy okkupatsiya zonalaridagi sanoat jihozlarining 10%iga ega bo'ldi. Germaniya floti SSSR, AQSH va Buyuk Britaniya o'rtasida teng bo'lib olindi. Tovon to'lovlarining aniq summasi belgilanmadi, chunki Britaniya va AQSH delegatsiyasi Germaniya SSSR talabini qondira olishiga shubha qilishdi.

SSSR, AQSH, Buyuk Britaniya va Fransiya bosh qo'mondonlaridan iborat Ittifoq Nazorat Kengashi (INK) 1945 yilning iyun oyida tashkil qilindi. INK o'z faoliyatining birinchi oylarida Potsdam konferensiya kommyunikesiga aniqlik kirituvchi "vermaxtga barham berish", "nemis yarim harbiy tashkilotlarini tarqatib yuborish", "Germaniyada harbiy qurilishlarni taqiqlash" to'g'risidagi qarorlarni qabul qildi. INK Germaniya hududida to'la hokimiyatni qo'lga oldi. Uning qarorlari har bir tomonning veto huquqidan foydalanish hokimiyati bilan konsepsus asosida qabul qilinar edi. Ammo okkupatsiya zonalarida ma'muriy boshqarish mustaqil amalga oshirilardi. Okkupatsion hukumatlar nazorati ostida mahalliy o'z-o'zini boshqarish va nemis siyosiy partiyalari tiklana boshlandi. Yagona Germaniya hukumatini barpo etishga ilk qadam

sifatida markaziy boshqarmalarni (moliya, transport, tashqi savdo va sanoat boshqarmalari) tuzish ko'zda tutilgan edi. Bu boshqarmalar INK nazorati ostida faoliyat ko'rsatishi kerak edi.

Okkupatsiya davri.

Urushdagi qaqshatqich mag'lubiyat Germaniyani iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik tazyiq iskanjasiga qo'ydi. Faqatgina vermaxt talofati 13,5 million kishini tashkil etdi. Hammasi bo'lib urush yillarida Germaniya aholisini o'ndan bir qismidan mahrum bo'ldi. Ko'pgina shaharlar, ayniqsa, Sharqiy hududlarda butunlay vayron qilindi. Sanoat korxona va jihozlarining asosiy qismi bombardimonlarda vayronaga aylandi yoki g'oliblar tomonidan demontaj (qismlarga ajratish) qilindi. 1946 yilda sanoat ishlab chiqarishi urush oldingi davrga nisbatan ham uch baravar qisqardi, qishloq xo'jaligi o'ttiz yil orqaga surildi. Iqtisodiyotga ishchi kuch yetishmas edi. Transport tuzilmasi va energiya tizimi butunlay ishdan chiqqan edi, mintaqalararo savdo aloqalar uzildi. Yoppasiga olib-sotarlik, "qora bozor" va do'konlarning bo'm-bo'sh rastalari odatiy holga aylandi. Urushdagi vayronalar va aholi ko'chishi tufayli uy-joy masalasi og'irlashdi. 1945 yilda aholining eng zarur narsalar bilan ta'minlanish darajasi aholi jon boshiga quyidagicha edi: bir juft oyoq kiyimi - 12 yilga, kostyum-50 yilga, tarelka-5 yilga, "pelyonka"- 5 yilga. Ocharchilik hukm surardi.

Moddiy talofatga moliyaviy tizimning butunlay ishdan chiqqanligi qo'shimcha edi. Muomalada bo'lgan pul miqdori mavjud bo'lgan mahsulotga nisbatan bir necha marta ko'p edi, davlat qarzlari 1938 yil oxiridagi 27,2 mlrd. markadan 1945 yil mayiga kelib 377,3 mlrd markaga yetdi. Inflyatsiya urushdan oldingi davrga nisbatan 600%ni tashkil etdi. Ish kuni 16 soat va undan ko'p davom etardi, ammo oylik 1940 yil darajasi saqlanib qolgan edi.

Nemis jamiyatini qamrab olgan psixologik shok ham qattiq zarba berdi. Odamlar kayfiyatini asosan ichki OPUSTOSHENOST, APATIYA siyosati nafrat, kelajakdan umidsizlik tashkil etardi. Milliy o'zlikni - anglashning tiklanishi dunyoda yangi o'z o'rnini anglash, o'zini urushga sababchisi deb his etish muammolarini hal etish juda qiyin edi. Fuqarolik boshqaruv organlarini shakllantirish nihoyatda murakkablashgan edi. Aholi katta qismining siyosiy faolligi juda past edi. Ilgarigi amaldorlar va siyosatchilarning katta qismi natsistlar bilan aloqada bo'lganlikda ayblanib ijtimoiy lavozimlardan chetlashtirildi. Fransiya va Italiyadagi kabi yangi boshqaruv organlarini tuzish masalasida kelisha olmas edilar.

1945 yilning oktabridayoq AQSH ma'muriyati Potsdam konferensiyasi qarorlari asosida nemis Markaziy boshqaruvlarini yaratish masalasini qo'ydi. Ammo bu takliflarga Germaniyani butunlay markazsizlantirish (detsentralizatsiya) tarafdori bo'lgan Fransiya qat'iy qarshilik qildi. Fransiya vetosiga qarshilik ko'rsata olmagan AQSH 1945 yil noyabrida INKga ikki yoki uch mintaqa uchun markaziy boshqarmalar yaratish to'g'risidagi taklifni kiritdi. Fransiya bilan do'stona munosabatlarni saqlab qolishga intilayotgan va AQShga shubha bilan qaraydigan Sovet tomoni AQSH taklifini Germaniyaning to'rt tomonlama boshqarilishi tamoyilining buzilishi va unga barham berishga qaratilgan qadam deb baholadi. Tiklanish jarayonini boshqarish to'liq okkupatsion hukumatlar ixtiyorida qoldi.

Germaniyadagi Sovet Harbiy Ma'muriyati (GSHM) faoliyati aholining moddiy ta'minoti va sanoat jihozlari, iste'mol mollari, transport va xom ashyoni tovon hisobiga olish muammolarni birgalikda hal qilish zarurati tufayli murakkablashdi. Germaniya hududidan 22 ming vagon "xo'jalik mollari", 73 ming vagon "uy-joy mollari", jumladan, 154 vagon matolar va mo'ynalar va hattoki 24 vagon musiqa asboblari olib chiqib ketildi. SSSRga 2 million bosh qoramol olib ketildi. 3474 ta sanoat va xo'jalik obyektlarida sanoat jihozlari demontaj qilindi. Faqatgina 1947 yil yanvaridan boshlab, demontajni to'xtatish va yirik korxonalarda sovet hissadorlik jamiyatlarini yaratish va ularda ishlab chiqarilgan mahsulotni reparatsiya (tovon) hisobiga undirishga qaror qilindi.

GSHM ofitserlari tajribaga ega emas edilar va qattiq boshqaruv metodlari hamda tartiblashgan xo'jalik tizimini joriy qilishdi. GSHM tarkibida Xavfsizlik Xizmati hamda Tashviqot va Senzura Boshqarmasi asosiy o'rinni egalladi. Sharqiy Germaniyada NKVD (Ichki Ishlar Xalq Komissariyati) va SMERSH (?) ham faollik ko'rsatishdi. G'arbiy okkupatsion

mintaqalardan farqli o'laroq, Sharqiy Germaniyada tezda nemis boshqaruv organlari tashkil qilindi. Ammo ularning faoliyati to'la sovet ma'muriyati tomonidan belgilanar edi.

1945 yil oxiridan boshlab sovet mintaqasida iqtisodiy islohot o'tkazish bo'yicha faol qadamlar tashlandi. Harbiy yoki natsist jinoyatchi deb tan olingan shaxslardan sanoat korxonalarni musodara qilish nihoyatda keng tarqaldi. GSHM musodara qilingan korxonalar taqdirini belgilash maqsadida referendumlar o'tkazdi, ular natijasida bu korxonalar xalq mulki deb e'lon qilindi. Shunday qilib, Sharqiy Germaniya sanoatining 60% i iqtisodiyotning davlat sektori ixtiyoriga o'tdi. Bu sektor faoliyati rejalashtirish tamoyillari asosida va zavodlardagi kengashlar va kasaba uyushmalariga o'z-o'zini boshqarish bo'yicha keng huquqlar berish bilan amalga oshirilardi.

1945-1946 yillarda agrar islohot ham o'tkazildi. Yunkerlar va bauerlardan musodara qilib olingan 3,3 mln. gektar yer, ulardagi xo'jalik inshootlari, chorva va 6 mingta traktorlar bilan birgalikda 560 mingta yersiz va kam yerga ega bo'lgan dehqonlarga bo'lib berildi. Bu yerlar Sharqiy hududlardagi agrar yerlarning 33 %ini tashkil etardi. Ularda dehqonlarning o'zaro yordam obhina birlashmalari tuzila boshlandi, 1949 yilda esa islohot davomida dehqonlarga berilgan yerlar hamma yerlar xalq mulki deb e'lon qilindi va jamoa xo'jaliklar ("xalq mulklari") tuzish uchun asos bo'ldi.

G'arbiy mintaqalardagi iqtisodiy o'zgarishlar boshidan boshqacha tus oldi. Vayronalarning Sharqiy hududlarga nisbatan kamligiga qaramasdan aholi ahvoli bu yerda yomonroq edi. Urushning oxirgi oylari davomidayoq Germaniya janubida qochoqlar to'plana boshlagan edi. Sovet mintaqasidan chiqqan muhojirlar Chexoslovakiya, Vengriya va Polshadan chiqqan qochoqlar ham shu yerga kelishayotgan edi. Agar 1945 yilda Sharqiy Germaniyada aholi 17 mln. nemisdan iborat bo'lsa, ular g'arbiy yerlarda 44 mln.ni tashkil etardi. Keyinchalik bu farq yanada kattalashdi.

Nemis aholisining og'ir ahvoli G'arbiy ma'muriyatni mahsulotlar va sanoat jihozlarni tovon hisobiga undirishdan voz kechish hamda nemis ishchilariga oylik maoshi to'lanishini kafolatlashga majbur etdi. Bepul nemis sanoat mahsulotlarning oqimi "o'ta qizishgan" AQSH iqtisodiyoti uchun dempingni keltirib chiqarishi ham muhim edi. Shuning uchun G'arbiy zonalaridan asosan xom ashyo hamda ilmiy laboratoriyalar va texnika markazlaridagi maxsus qurilmalar olib ketilar edi. Umuman, urush oqibatida G'arbiy Germaniyaning iqtisodiy salohiyatining qisqarishi urushdan oldingi davrning 20%ini, demontajlar oqibatida esa 12%ini (Sharqiy Germaniyada mos ravishda 45 va 25%) tashkil etdi.

G'arbiy mintaqalardagi okkupatsion hukumatlar avvaliga iqtisodiy tadbirlarning aniq rejasiga ega emas edilar. Uchala mintaqada harbiylar va natsist-jinoyatchilarning mulkini musodara qilish bo'yicha choralar amalga oshirildi. Ammo u yoki bu mintaqa doirasida biror-bir markazlashgan boshqaruv tuzilmalarini shakllantirish va milliyalashtirish bo'yicha tayyorlangan loyihalar amalga oshirilmadi. Bundan tashqari eng yaxshi ta'minlangan AQSH soldat va ofitserlari uchun "qora bozor"ning saqlanishi qulay edi.

Okkupatsion hukumatlarning barqarorlikni shakllantirish bo'yicha turlicha qarashlarga ega ekanliklari 1946 yil mayida Parijda bo'lib o'tgan Tashqi Ishlar Vazirlari Kengashi (TIVK) sessiyasida oshkor bo'ldi. Unda na Germaniya bilan sulh shartnomasi tuzishning umumiy tamoyillari, iqtisodiy o'zgarishlarning yagona rejalari ishlab chiqilmadi. Tezda bosib olingan mamlakatni parchalashi ham urinishlar bo'lib o'tdi. bunga mintaqalararo olib sotarlik avj olganligi bahona bo'ldiki, uning davomida doimiy oylik maoshi bilan ta'minlangan g'arbiy mintaqada yashovchilar Sovet zonasidan arzonroq mahsulotlar va oziq-ovqatni sotib olardi. To'rttala tomon ma'muriyati roziligi bilan 1946 yil 30 iyunida Sovet va g'arbiy mintaqalar o'rtasidagi chegarada odamlar va mahsulotlar oqimi ustidan qattiq nazorat o'rnatildi.

1946 yil yozidan boshlab Germaniyadagi ahvol keskinlasha boshladi. Iyul oyida AQSH davlat departamenti ma'muriy boshqaruv samaradorligini oshirish maqsadida AQSH va Britaniya okkupatsion mintaqalarini birlashtirish to'g'risidagi istagini e'lon qildi. "Iqtisodiy birlashgan mintaq" (Bizoniya) tuzish to'g'risidagi kelishuv 1946 yil dekabrda imzolandi. Birlashgan okkupatsion mintaqalar doirasida iqtisodiy infratuzilmani, iste'molchi bozorini,

barqarorlashgan mehnat bozorini tiklashga qaratilgan tartibga solingan siyosat amalga oshirila boshlandi. Bu jarayonda allaqachon nemis boshqaruv organlari, jumladan L.Erxard rahbarlik qilayotgan iqtisodiy Kengash muhim rol uynadi. Bu choralarning hammasi GSHM roziligisiz amalga oshirildi.

Germaniya Sharqiy va G'arbiy yerlardagi siyosiy o'zgarishlar ham keskin farq qila boshladi. avvaliga bu jarayon Potsdam kelishuvlari doirasida ro'y berdi. Keyinchalik, NSDAP (?) va uning "docherniye organizatsii", Germaniya qurolli kuchlari, ofitserlar korpusi, yarim harbiy tashkilotlar tarqatib yuborildi. Siyosiy faoliyatga aralashish va fuqarolik lavozimlarga egalik qilish faqat siyosiy va ma'naviy sifatlariga ko'ra Germaniyada demokratiyani rivojlantirishga yordam bera oluvchi shaxslarga ruxsat etildi. Fuqarolik, irqiy, milliy tenglik tamoyillari asosida sud tizimi qayta tashkil qilindi. 1945 yil noyabri 1946 yil oktabrida Nyurnbergdagi xalqaro tribunal faoliyat ko'rsatdi. Uning davomida natsist va harbiy jinoyatchilar javobgarlikka tortildi. Denatsifikatsiya (milliysizlantirish) bo'yicha mahalliy nemis komissiyalari (shpruxkemmer) tashkil qilindi. Ular ittifoqchilarning tribunallari bilan birgalikda ayblanuvchilarning aybdorlik darajasini aniqlardi. Bunday jinoiy ishlarning hammasi bo'lib besh toifasi ajratildi: ("asosiy jinoyatchilar", "jazo yuklanganlar", "jazo bilan kamroq yuklanganlar", "hamtovoqlar" va "teginmaganlar"). Jinoiy javobgarlik faqat birinchi toifa uchun belgilandi, shuning uchun ayblanuvchilarning 95%i oqlandi va qisman huquqlardan mahrum qilindi.

Milliysizlantirish va demokratlashtirish jarayoni yangilangan nemis siyosiy elitasining shakllanishi bilan birgalikda ro'y berdi. G'arbiy va Sharqiy mintaqalarda partiya qurilishi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ldi. Sovet ma'muriyati 1945 yilda Sharqiy Germaniya yerlarida 4 ta partiya faoliyat ko'rsatishiga ruxsat berdi: Germaniya kommunistik partiyasi (GKP), Germaniya sotsial-demokratik partiyasi (GSDP), Xristian-demokratik ittifoq (XDI), Germaniya liberal-demokratik partiyasi (GLDP). 1948 yildayoq GSHM yordami bilan milliy-demokratik partiya (MDP) va Demokratik dehqonlar partiyasi (DDP). Bu partiyalar so'l blokning ijtimoiy bazasini to'ldirishlari kerak edi. GSHM yordami bilan kommunistlar yangi politsiya va sud prokratura organlari uchun yangi kadrlar tanlash uchun imtiyozga ega bo'lishdi. Ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, ijodkor ziyolilar faoliyatini nazorat qilishda hal qiluvchi rol o'ynar va agrar islohot tashabbusi bilan chiqdi. GKP rahbariyatida ortodoks mafkuraviy tamoyillarni va Germaniyada sotsializm qurishni yoqlovchi Valter Ulbrixt rahbarligidagi kuchli so'l-radikal qanot mavjud edi. GKP rahbari Vilgelm Pik pozitsiyasi yumshoqroq bo'lib, 1945-1946 yillarda u partiyaning butun nemis davlati doirasida parlamentar demokratik respublika yaratishga yo'naltirishni yoqladi.

GSDPdagi so'l-radikal va mo'tadil oqimlar o'rtasidagi kurash yanada keskinroq edi. Ulardan birinchisi O.Groteval rahbarlik qilayotgan Berlin Markaziy qo'mitasi boshqarsa ikkinchisini Britaniya mintaqasi qo'llab-quvvatlashiga suyanuvchi K.Shumaxer boshqarayotgan partiyaning (GSDP) Gonnoverdagi byurosi boshqarardi. GSDP rahbariyati kommunistlar bilan qo'shilish va yagona Germaniya so'l partiyasini tuzish tarafdori edi. Bu yo'nalish 1946 yil aprelida GKP va GSDP birlashtiruvchi syezdida tantana qildi. Yangi partiya Germaniya yagona sotsialistik partiyasi (GYASP) deb nomlandi. Uning dasturi dolzarb iqtisodiy muammolarni hal qilish "ekspluatatsiya va zulm, qashshoqlik, ishsizlik va imperializm tahdididan xolos bo'lish"ga, istiqbolli rejasi sotsializm qurishga qaratilgan edi. GYASPning ikki teng huquqli rahbarlari V.Pik va O.Groteval bo'lishdi. Yagona ishchilar partiyasining rejalarini qo'llab-quvvatlamagan GSDP a'zolari yangi partiya safidan chetlashtirildi.

Shumaxer guruhi birlashtiruvchi syezd natijalarini tan olmadi. O'ng sotsial-demokratlar 1946 yil mayida Gonnoverdagi syezdda GSDPni qayta tiklashdi. Shumaxer kommunistlar va ularga qo'shilgan sotsial demokratlarga nisbatan qattiq pozitsiyani egalladi va ulardan birini "sovet partiyasi", ikkinchisini "nemis milliy manfaatlar sotqinlari" deb atadi. Sharqiy yerlarda faoliyat ko'rsatishdan voz kechgan GSDP, Oder-Neysedan o'tgan chegarani qayta ko'rib chiqish va hamma okkupatsion zonalarda tovon to'lovlarini bas qilishni talab qilardi. Shumaxer ayirmachilikning ashaddiy dushmani edi va yagona, mustaqil nemis davlati tarafdori edi. Ammo urushdan keyingi sharoitda Sovet harbiy-siyosiy ta'siridan qutulish uchun hattoki mamlakat parchalanishiga ham tayyor edi. Ichki siyosat bobida GSDP o'rta radikal pozitsiyani egalladi va

burjuaziyani to'la EKSPROPRIATSIYA qilib "sotsializmni joriy etish"ga harakat qildi. Shumaxerning o'zi natsistlar lagerida 10 yilni o'tkazgan murosasiz antifashist sifatida juda mashhur edi.

GYASP ning tashkil etilishi va bir vaqt ro'y bergan Germaniyada sotsial-demokratik harakatning parchalanishi G'arbda ham kommunistik harakat o'ziga xos bo'lishiga sabab bo'ldi. G'arbdagi okkupatsion hukumatlar GYASP bayrog'i ostida yagona kommunistik va sotsial-demokratik tashkilotlar tuzishni taqiqlab qo'yishdi. 1948 yil aprelida G'arbiy Germaniya kommunistik tashkilotlari Maks Reyman rahbarligida o'z rahbariyatini sayladi. GKPning GYASPDan to'liq ajralib chiqishi 1949 yilning 3 yanvarida ro'y berdi.

Germaniyaning urushdan keyingi siyosiy elitasida xristian demokratlar muhim o'ringa ega bo'ldi. Germaniya ko'p asrlik xristian siyosiy harakati an'alariga ega edi. Ammo Veymar respublikasida na "Markaz" katolik partiyasi, na protestant nemis xalq partiyasi yetakchi pozitsiyaga ega bo'la olmagan edi. Ahvol 30-yillarga kelib o'zgara boshladi. Unda cherkov natsistik Germaniyada yetakchi muxolifat kuchlaridan biriga aylandi. Ikkinchi jahon urushi tugagandan so'ng nafaqat Germaniya, balki Italiya, Avstriya, Fransiya, Gollandiya, Belgiyada ham xristian-demokratik harakatning birlashuvi ro'y berdi. Xristian demokratiyasi mafkuraviy sintez asosida rivojlandi: davlat qurilishi to'g'risidagi liberal-demokratik qarashlar ijtimoiy katolitsizm, "taraqqiyotning uchinchi yo'li" mafkurasi bilan qorishib ketgan edi.

Ijtimoiy katolitsizmning korporativ g'oyalaridan voz kechgan xristian demokratiyasi ijtimoiy birdamlik qadriyatlari, jamiyatni yagona o'zaro bog'langan organizm deb qarash, insonni Xudo tomonidan yaratilganligini tan olish, insonning o'z vijdoni va Xudo oldida javobgarligi g'oyalariga asoslanar edi. Xristian demokratik partiyalar klerikalizmga voz kechib, xristianlikni siyosatning atigi ma'naviy-axoqiy asosi deb hisoblar va jamiyatning yangilanishi va insonparvarlik g'oyalarini yoqlar va o'z dasturlarini pragmatizm asosida tuzar edilar. Konservativ-an'anaviy qadriyatlar (intizom, barqarorlik, davlat, oila, millat) ularning dasturlarida erkin bozorni rag'batlantirish, shaxs huquq va to'la erkinligini ta'minlashga qaratilgan neoliberal qarashlar bilan mujassamlashgan edi.

Germaniya uchun xristian-demokratiyasining uyg'onishi, nihoyatda muhim edi. Xristian demokratiyasi, vayronaga aylangan, o'z o'tmishidan hafsalasi pir bo'lgan va kelajakka umidsizlik bilan qarayotgan mamlakatda yuzaga kelgan ma'naviy bo'shliqni to'ldira oldi, milliy g'oya haqqoniyligini saqlab qoldi, yangi qadriyatlarga samoviy qarashlarni shakllantirdi.

XDIning umumgermaniya tashkiloti 1945 yil yunida Berlinda tashkil qilindi. Uning rahbari Andros Germes tezda sovet ma'umriyati tazyiqi ostida o'z lavozimini tark etishga majbur bo'ldi. Uning o'rmini kasaba uyushmalari rahbari Yakov Kayzer egalladi. XDI sovet zonasida iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshirish masalalarida so'l partiyalarga faol raqibga aylandi. GYASB tashkil qilingandan so'ng xristian demokratlar yanada radikal pozitsiyani egallashdi. 1947 yil oktabrida Berlinda bo'lib o'tgan XDIning 2-syezdida Kayzer partiyaning "dogmatik markaizm va uning totalitar (mustabid) qarashlariga qarshi VOLNOREZga aylantirishga zarurati haqida gapirdi. Kayzer josuslikda ayblandi. Ta'qiblar ostida Kayzer va uning bir qator hamkasblari G'arbiy Germaniyaga ketishga majbur bo'lishdi. butun Sharqiy Germaniya partiyasiga aylangan XDI rahbari O.Nushke bo'ldi.

G'arbiy Germaniya xristian demokratiyasi rahbari 1933 yilda natsistlar tomonidan o'z vazifasidan ozod etilgan va keyinchalik AQSH tomonidan shahar ozod qilinganda qayta saylangan sobiq Keln shahri meri Konrad Adenauer bo'ldi. Keln Britaniya okkupatsion zonasiga o'tganidan so'ng Adenauer yana vazifasidan ozod qilindi. Britaniya hukumati Shumaxerga yon bosar, konservativ g'oyalari va Germaniya tiklanishi g'oyalari bilan mashhur bo'lgan tajribali va talabchan Adenauerga ishonmas edilar. Adenauer 1945 yil 2 sentabrida Kelndagi syezdda tashkil etilgan g'arbiy yerlar XDI sig'a rahbar etib saylandi. AQSH hukumati yordami bilan u obro'li jamoat arboblari va yirik siyosiy guruh vakillaridan o'z partiyasi yadrosini shakllantira boshladi. U partiya qurilishining "aktivistlar" modelidan voz kechdi. XDI taktikasi saylovchilarning iloji boricha keng doirasi qo'llab-quvvatlashiga erishish va bu asosda yangi demokratik davlatchilikning ijtimoiy asosini shakllantirishga asoslangan edi. XDI "barcha xristianlar" va

“barcha qatlamlar” birlashmasi, ya’ni barcha ijtimoiy guruhlar hamda ikkala xristian konfessiyaning manfaatlarini himoya qiluvchi partiya deb qaralardi. Shu bilan birga Adenauer XDIning qat’iy antikommunistik yo’nalishini ta’kidlab, ham natsistik, ham marksistik mafkuraviy ekstremizmni inkor etardi.

G’arbiy mintaqalardagi okkupatsion hukumatlar tomonidan XDIning qo’llab-quvvatlanishi 1946 yilning oxiridan, ittifoqchilar munosabatlarda uzoqlashish o’sib borishi, Germaniyaning parchalanishi tobora yaqqol bo’lib borayotgan davrda kuchayib boshladi. Adenauer G’arbiy Germaniya davlatini tuzish g’oyasini ochiqchasiga qo’llab-quvvatlovchi nemis siyosatchilaridan biri edi. Adenauer nemis ruhiga ishonmas, prusscha an’analarni ko’rar ko’zi yo’q va G’arb sivilizatsiyasi doirasida Germaniya buyukligini tiklashni orzu qilardi. Adenauer Reynlik ayirmachidan oldin Germaniya, keyinchalik Yevropa birlashishi g’oyasining faol himoyachisiga bo’lgan yo’lni bosib o’tdi. Bunday siyosatni amalga oshirishda 1946 yilda Katolik xristian partiya (keyinchalik konfessiyalararo) sifatida Bavariyada tashkil topgan Xristian Ijtimoiy Ittifoqi (XII) ishonchli ittifoqchiga aylandi. XII rahbari Frans-Yozef Mtraus bo’ldi. Xristian demokratiyaning umumiy tamoyillarini Adenauerning siyosiy dasturini yoqlagan XII rahbariyati o’z faoliyatida mustaqillikni saqlab qolishga intilar edi. Boshqa G’arbiy Germaniya yerlarida xristian demokratik harakatning birlashishi 1947 yilda ro’y berdi. Partiyaning umumiy dasturi fevral oyida qabul qilingan Britaniya zonasidagi XDIning Alen dasturi bo’ldi.

Liberal yo’nalishdagi siyosiy partiyalar urushdan keyingi davrda Germaniyada so’llar va xristian demokratlar kabi mustahkam partiya ega bo’la olmadi. Liberal-demokratik partiya sharqiy zonada 1945 yildayoq tashkil qilindi, ammo Sovet ma’muriyatining qattiq tazyiqi ostida butun Germaniyaga o’z ta’sirini tarqata olmadi. 1946 yilning boshidan G’arbiy zonalarda liberallarning mustaqil siyosiy harakati shakllana boshladi. Bu harakat asosida 1948 yilning dekabrda Erkin demokratik partiya (EDP) tashkil topildi. Uning rahbari Teodor Xeys edi. EDPning dasturiy yo’nalishlari avvaliga nihoyatda eklektik xarakterga ega edi. Ulardan milliy-liberal g’oyalar va klassik liberal-demokratik qadriyatlar birlashgan edi. EDP siyosatning ham konfessionallashtirishi, ham etatizatsiyasiga (davlatlashtirilishi) qarshi chiqib xristian demokratik blokka va GSDPga raqib bo’ldi.

1946 yilda bo’lib o’tgan yer hukumatlari (landtag)ga saylovlar Germaniyadagi yetakchi siyosiy kuchlar deyarli tang ekanligini namoyish etishdi. Hattoki sovet zonasida ham saylovlar demokratik muhitda o’tkazildi. Bu yerda GYASP landtaglar va yerlar hukumatlari tarkibida GLDP va XDilar birgalikda egallagan mandatlar soniga teng mandatlariga ega bo’ldi. G’arbiy zonalarda xristian-demokratlar 6 ta, sotsial-demokratlar 5 ta yer hukumatlariga ega bo’lishdi. Ammo tezda Sharqiy va G’arbiy Germaniya siyosiy elitalarining o’ziga xosligi namoyon bo’la boshladi. Bunga okkupatsion hukumatlarning to’g’ridan-to’g’ri aralashuvidan tashqari nemis jamiyatining o’zini mintaqaviy xususiyatlari ta’sir qildi.

Shimoliy va Sharqiy Germaniya bir necha o’n yillar davomida ishchilar harakatining yaxshi tashkil qilinganligi, Germaniya hududida kommunistlarning ta’siri eng kuchli bo’lgan hudud sifatida ajralib turardi. Tarixan bu yerda ijtimoiy hayotda davlat boshqaruvining katta ahamiyatga ega bo’lishi, “prusscha psixologik xususiyat”- siyosiy va ijtimoiy faoliyatning markazlashgan shakllariga moyillik, harbiy va davlat xizmatiga hurmatga qaratilgan Lyutercha siyosiy madaniyat ustun edi. Aynan shu mintaqa nemis tuprog’ida sotsialistik tuzumning rivojlanishi uchun eng tabiiy tayanch bo’ldi. G’arbiy va Janubiy Germaniya tarixan ayirmachilik harakatlari va katolitsizm hukmronlik qilgan mintaqa edi. Reyn va Bovariya nemislari o’ziga xos etnopsixologik xususiyatlarga egaki, bu xususiyatlar ularni nemis millatining etnik asosidan ajratib turadi. Muhojirlar va qochoqlarning ommaviy oqimi ham nemis jamiyati va siyosiy elitesining qutblanishiga ta’sir ko’rsatdi. Kommunistik tahdidga ko’nikishni xohlamaydigan ko’pgina nemislar G’arbiy yerlarga qochib ketishdi. Kanslagerlar va muhojirlikdan qaytgan kommunistlar va so’l sotsialistlar, albatta mamlakat sharqida to’planayotgan edi.

1948 yildagi Berlin inqirozi va Germaniyaning parchalanishi.

1947 yilning boshidayoq Germaniyaning taraqqiyot yo'llari to'g'risidagi ittifoqchilar o'rtasidagi siyosiy muzokora boshiberk ko'chaga kirib qolgani yaqqol bo'lib qolgan edi. TIVKning Moskvadagi 1947 yil mart-aprelida bo'lib o'tgan sessiyasida Sovet delegatsiyasi tayyor mahsulotni reparatsiya (tovon) hisobiga undirishni yana talab qila boshladi. Uning raqiblari tovon-undirishni bas qilish va nemislarga iqtisodiy tizimni tiklashga imkon berishni talab qilishdi. bahs-munozara biror aniq natijaga olib kelmadi. Barcha Germaniya yerlari vakillarining tiklash chora-tadbirlarining yagona strategiyasini ishlab chiqishga qaratilgan yig'ilishini o'tkazishga bo'lgan urinishlar ham zoye ketdi. TIVKning navbatdagi 1947 yil dekabrda Londonda bo'lib o'tgan sessiyasi ham mutlaqo natijasi bo'ldi. Unda hattoki keyingi sessiyani qachon va qayerda o'tkazish kelishib olinmadi.

Germaniya masalasining keskinlashishi SSSRning tovon undirishiga qattiq turib olishidan tashqari AQShning tashqi siyosati o'zgarishi bilan ham bog'liq edi. "Trumen doktrinasi"ning qabul qilinishi va ikkala "buyuk davlatlar" o'rtasida ochiqchasiga qarama-qarshilik boshlanishi eng avvalo yevropa mamlakatlari taqdiriga ta'sir ko'rsatdi. AQSH Yevropaga harbiy blok strategiyasi nuqtai nazaridan qaray boshladi. Bu yo'nalishdagi ilk qadam "Yevropaning tiklanishi va rivojlanishi" (Marshall rejasi) dasturining ishlab chiqilishi bo'ldi. 1947 yilning iyunida qabul qilingan va 1947 yil iyulida Parij konferensiyasida ko'rilgan bu xujjat 1948 yil aprelda AQShda qonun kuchga kirdi. avvaliga na Germaniya (butunlay), na uning g'arbiy mintaqalari iqtisodiy yordam dasturi qatnashishchi sifatida qaralmadi. Vaziyat 1948 yilda o'zgardi.

1948 yil yanvarida Bizoniya vazirlar majlisida bu yerlarda iqtisodiy islohotni tayyorlash bo'yicha bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish to'g'risida qaror qabul qilindi. Oliy sud va Markaziy Bank tashkil qilindi. Iqtisodiy kengash va direktoratga birlashtirilgan markaziy boshqarmalarning vazifalari kengaytirildi. Fransiya hukumati bilan kelishuvga erishildi. Tovu to'lovlar evaziga Fransiya Saar viloyatining garovga berilishidan so'ng Fransiya o'z okkupatsion zonasining AQSH va Angliya okkupatsion zonasiga qo'shib olinishiga rozi bo'ldi. 1948 yil fevralda Trizoniya tashkil etildi. Saar viloyati ega 1955 yildagi referendum natijalariga ko'ra 1957 yilda GFR tarkibiga kiritilishiga qadar Fransiya ixtiyorida qoldi.

1948 yilning fevral-iyun oylarida Germaniya masalasi bo'yicha London konferensiyasi bo'lib o'tdiki, unda ilk bor sovet delegatsiyasi ishtirok etmadi, ammo Belgiya, Gollandiya va Lyuksemburg vakillari qatnashgan edilar. Konferensiya yangi Germaniya davlatining konstitutsiyasini ishlab chiqish uchun ta'sis yig'ilishini chaqirishga qaror qildi. O'sha davrda AQSH ma'muriyati Marshall rejasini Germaniyaning g'arbiy okkupatsion zonalariga joriy etish to'g'risida qaror qabul qildi. Bu masalaga oid shartnomada ta'kidlanishicha G'arbiy Germaniya iqtisodiyotining tiklanishi individual erkinlik, erkin idoralar, "sog'lom iqtisodiy muhit", mustahkam xorijiy aloqalar va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash tamoyillariga asoslangan Yevropa rivojlanish rejasining asosiy qismi edi. Iqtisodiy islohot ustidan AQShning maxsus organlarining nazorat qilishi, nemis bozorida bojxona cheklashlarini bekor qilish, monopoliyaga barham berish siyosatini davom ettirish ta'minlandi. Marshall rejasi amalga oshirila boshlaganining birinchi yilidayoq G'arbiy Germaniya AQShdan 2,422 mlrd dollar (bu ko'rsatkich Fransiya va Buyuk Britaniya birgalikda olgan mablag'iga teng bo'lib, Italiya olgan mablag'dan qariyb 3,5 baravar ko'p) mablag' oldi. Ammo Germaniyada ishlab chiqarilgan mahsulotning bir qismi qarz hisobiga AQShga jo'natila boshlaganligi sababli, oqibatda Germaniya hisobiga AQSH yordamida eng katta qismi emas balki, 10%i (6,7 mlrd.dollar) to'g'ri keldi.

Germaniyada iqtisodiy islohotni amalga oshirishning asosiy muammosi "qattiq valyuta"ni yaratish, giperinflyatsiyaning halokatli oqibatlarini bartaraf etishdan iborat bo'ldi. Iqtisodiy kengashda 1947 yildan beri markazlashgan rejaviy xo'jalik va monetor siyosat tarafdorlari o'rtasidagi qizg'in bahs-munozaralar davom etmoqda edi. Lyudvig Erxard rahbarligidagi bir guruh mutaxassislar qadrsizlangan pulning katta hajmidan qutulishga

qaratilgan moliyaviy islohot loyihasini tayyorladi. Erxardni o'zining fikricha bunday islohotni amalga oshirish ishlab chiqarishni faol rag'batlantirish va iste'molchilarning eng nochor qatlamini himoya qilish, iste'molchi bozorini barqarorlashtirish va iste'molchi va ishlab chiqarishni yo'naltirishga qaratilgan bir qator qo'shimcha chora-tadbirlar bilan birga yo'lga qo'yilishi kerak edi. Avvaliga AQShning ushbu islohotni barcha 1948 yilga kelib 4 ta okkupatsiya zonalarining hammasida o'tkazish haqiqatdan uzoq edi va ko'zda tutilgan ishlar faqat Trizoniya doirasida tayyorlana boshlandi.

G'arbiy zonalarda pul islohoti 1948 yil 20 iyunda boshlandi. Almashishning rasmiy nisbati 10 reyxsmarkaga 1 yangi nemis markasi qilib belgilandi (bundan tashqari har bir fuqaro 1:1 kurs bo'yicha 40 markani almashtira olishi mumkin edi. Avvaliga almashtirilgan pulning faqatgina 5%ini qo'lga olish mumkin edi. Daromadlarning qonuniyligi aniqlangach soliq hukumati tomonidan yana 20%, keyinchalik, 10% berilardi. qolgan 65% bekor qilindi. Almashinuv kursining so'ngi kvotasiga ko'ra 6,5, nemis markasiga 100 reyxsmarka to'g'ri keldi. Pensiya (nafaqa), oylik maosh, ijtimoiy yordamlar 1:1 nisbatda qayta hisoblandi. Davlatning barcha oldingi qarzlari bekor qilindi. Shunday qilib, katta pul hajmi qisqartirildi. "Ishonchli pullar"ning paydo bo'lishi "qora bozor"ga barham berdi va barter ayirboshlashlar tizimini izdan chiqardi.

Islohot boshlanishidan ikki kun o'tgach markazlashgan rejalashtirishni bekor qiluvchi va narxlarni erkinlashtiruvchi qonun xujjatlari kuchga kiritildi. Ammo shu bilan bir vaqtda transport va pochta xizmati, asosiy oziq-ovqat mahsulotlari, uy-joy narxlari ustidan cheklovchi nazorat saqlab qolindi. Haqiqiy ishlab chiqarish IZDERJKasi va "haqqoniy daromad"ni hisobga oluvchi "maqbul narxlar" ro'yxatlari muntazam nashr etilardi. Aholini eng zarur mollar bilan arzon narxlarda ta'minlashga qaratilgan maxsus "har bir kishi uchun" dasturi qabul qilingan edi. Erxard monopoliyaning eng ashaddiy shakllariga yo'l qo'ymaslik siyosatini saqlab qolish, "davlat tadbirkorligi" (jamiyat uchun zarur bo'lgan xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarishda, transport, energetika, axborot infratuzilmasini rivojlantirishda davlatning bevosita aralashuvi) tizimini rivojlantirishni talab qilishda davom etdi.

Bunday iqtisodiy mexanizmni Erxard jamiyat va shaxs manfaatlarini birday qondiruvchi "sotsial bozor xo'jaligi" deb baholadi.

1948 yildagi muvaffaqiyatli iqtisodiy islohot Germaniyada siyosiy vaziyatning keskinlashuvi bilan birga o'tdi. G'arbiy zonalarda pullarni almashtirishga tayyorgarlik ketayotganligi to'g'risidagi ma'lumotlarga qaramasdan (G'arb gubernatorlari ko'zda tutilgan islohot to'g'risida sovet tomoniga islohot amalga oshirila boshlashidan ikki kun qolganda xabar berishgandi, ammo operativ ma'lumotlar butun tayyorgarlik jarayonini kuzatishga imkon berardi) GSHM Sharqiy Germaniyada iste'mol bozorini izdan chiqaruvchi katta hajmdagi qiymatini yo'qotgan eski markalarining paydo bo'lishini oldini olishga qaratilgan hech qanday chora ko'rmadi. Albatta, 1946 yil 30 iyunda yopilgan zonalararo chegara bunga to'sqinlik qilishi mumkin edi, ammo to'rtta sektorga bo'lingan Berlin bundan mustasno edi. 24 iyunda Sovet qo'shinlari G'arbiy Berlinni qurshab olib uni g'arbiy zonalaridan uzib qo'yishdi. Bu harakat ko'proq siyosiy xarakterga ega edi. Shunday qilib, G'arbdan katta pul hajmi oqib kelishi xavfi bartaraf qilindi. G'arbiy Berlining muhosara qilinishi esa G'arb mamlakatlariga tazyiq o'tkazish vositasi edi. Ammo harakat kutilganidan teskari natijaga olib keldi.

G'arbiy Berlin aholisini qutqarish uchun AQSH havo ko'prigini barpo etdi. Keyingi 324 kun davomida har bir necha daqiqada transport samolyotlari Tempelxou aerodromining qo'nish polosasiga qo'nib turardi. Har kuni shaharga 13000 tonna oziq-ovqat kelib turardiki, bu oldingi oylardagi mahsulotlarga nisbatan 3 marta ko'p edi. Javob chorasi sifatida G'arb tomoni sovet zonasiga mahsulot kiritishga nisbatan embargo joriy qilishdi. Keskin muzokoralardan so'ng 1948 yil 30 avgustda Berlinda g'arbiy markani bekor qilish to'g'risida ikki tomonlama kelishuvga kelindi. Ammo uni amalga oshirish texnik sabablarga ko'ra uzoq cho'zildi va G'arbiy Germaniya davlatchiligi rasmiylasha borgan sayin amri mahol bo'lib qoldi.

Berlin muammosi eng qizg'in pallaga kirganda 1948 yil 15-22 iyulda Ryudesxaymda G'arbiy yerlarning vazir-prezidentlari yig'ilishi bo'lib, unda Berlin ober-burgomistri Ernst-

Reyter tezda G'arbiy Germaniya davlati - "yadro"ni tuzib unga G'arbiy Berlinni qo'shishga da'vat etdi. Yig'ilish qatnashchilari 1948 yil 1 sentabrda ta'sis majlisini chaqirish to'g'risidagi qarorni tasdiqlashdi. Ammo keyinchalik, ayirmachilik to'g'risidagi bahs-munozaralardan qutulish uchun "ta'sis majlisi" va "konstitutsiya" atamalari olib tashlandi. Yer landtaglari vakillari tarkibidan parlament kengashi tuzildiki u Germaniya birlashishiga qadar vaqtincha konstitutsiya vazifasini bajaruvchi Asosiy qonunni ishlab chiqish vakolatiga ega bo'ldi.

1949 yil aprelda Parlament kengashiga uchta hukmron davlat tomonidan ishlab chiqilgan va AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiyaning G'arbiy Germaniya tashqi siyosati, tashqi savdosi va xorijdagi mablag'lari ustidan nazorat qilishini va ularning konstitutsiyaviy nazoratini mustahkamlovchi "Okkupatsion statut" topshirildi. 1949 yil 8 mayda parlament kengashi 12 mayda harbiy gubernatorlar tomonidan ma'qullangan (tasodifan o'sha kunda Berlin "muhosarasi" va g'arbiy "kontrmuhosara"ni to'xtatish to'g'risidagi ittifoqchilar shartnomasi kuchga kirgandi) Germaniya Federativ Respublikasining asosiy qonunini va bu kun GFR tashkil etilgan kun bo'ldi. 20 iyunda Germaniyada harbiy gubernatorlar institutining Bosh komissarlar institutiga aylantirilishi g'arbiy Germaniyani cheklangan suverenitet bilan ta'minladi.

Bir vaqtda Sharqiy Germaniya davlatchiligi ham shakllana bordi. 1947 yildayoq sovet zonasida Nemis Xalq Kongressi (NXX) faoliyat ko'rsata boshlagan edi. Uning 1947 yil dekabrda bo'lib o'tgan birinchi sessiyasi davomida yagona Germaniya uchun keng ommaviy harakatni shakllantirish masalasi qo'yilgan edi. 1948 yildagi ikkinchi NXX barcha nemis yerlarida Germaniyaning yagonaligi to'g'risidagi referendum o'tkazish tashabbusi bilan chiqdi. Ammo bir vaqtda Nemis Xalq Kengashi ham tashkil qilindiki u sharqiy Germaniya davlati konstitutsiyasi loyihasini tuzish vakolatiga ega bo'ldi. Bu loyiha GYASP vakillari tomonidan ishlab chiqildi va 1949 yil 19 martdagi NXX yig'ilishida qabul qilindi. 1949 yilning 29-30 mayida bo'lib o'tgan uchinchi NXX Germaniya Demokratik Respublikasi konstitutsiyasini tasdiqladi va demokratik Germaniya partiyalararo milliy frontini yetakchi siyosiy kuch deb e'lon qildi. 1949 yil 7 oktabrida muvaqqat xalq palatasi tashkil qilindi va bu kun GDR tashkil etilgan kun bo'ldi. Germaniyaning parchalanishi yakunlandi. 1949 yil may-iyunida Parijda bo'lib o'tgan TIVK bu jarayonga to'sqinlik qilmadi. Germaniya muammosi urushdan keyingi davr tarixidagi eng murakkab masalalardan biriga aylandi.

2. GFR va GDR 50-70 yillarda GFRning konstitutsiyaviy tuzumi.

Nihoyatda murakkab vaziyatga qaramasdan G'arbiy Germaniyaning yetakchi siyosiy kuchlari qisqa muddatda mamlakatning mo'tadil va samarali rivojlanishi uchun asosi bo'la oladigan konstitutsiyaviy loyihani yaratishga muvaffaq bo'lishdi. XDI, XII, EDP va GSDP konstitutsiyaviy-huquqiy qurilish sohasida yagona tamoyillarga ega edilar. Yangi nemis konstitutsion ongi davlatni na jamiyat taraqqiyotiga hukmronlik qiluvchi va uni yo'naltiruvchi kuch va na insonni siyosiy va ijtimoiy tazyiqdan himoya qiluvchi "tungi soqchi" sifatida ham ko'rishga qarshi edi. Konstitutsiyaviy doktrinaning asosi erkinlik va ijtimoiy javobgarlik g'oyalari inson huquqlarini himoya qilish va individualizmni cheklash, millatni umumiy ijobiy maqsadlar va manfaatlarga ega haqiqiy ijtimoiy organizm deb e'tirof etish, fuqarolik jamiyatini boshqarishda davlat rolining oshganligi va shu bilan birgalikda uning sinfiy yoki irqiy hukmronlik vositasi emasligini e'tirof etish tashkil qilardi. Konstitutsiyaviy nazorat doirasi ijtimoiy munosabatlarning asosiy va muhim turlari-iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, tashqi siyosiy munosabatlarni qamrab oldi. Har bir individning to'laqonli rivojlanishi uchun sharoit yaratish zaruratini e'tirof etgan nemis konstitutsionalizmi inson va jamiyatning huquq va burchlarining ajralmasligiga tayanardi. U davlatni erkinlik, adolat, birdamlik kabi tayanch qadriyatlar asosida tuzilgan hamjamiyat deb e'tirof qilardi.

GFRning Asosiy qonuni demokratik va sotsial federativ davlat tuzishni e'lon qildi. Asosiy qonun ijodkorlari konstitutsion qurilishning asosiy maqsadi nemis xalqining butun dunyoda tinchlik uchun xizmat qilishi, uning teng huquqli a'zo sifatida birlashgan Yevropaga kirishi va "Xudo va odamlar oldidagi majburiyatining bajarishi" deb e'tirof etishdi.

Konstitutsiyaning birinchi bo'limida inson huquqlari, jumladan, yashashga va shaxsiy daxlsizlikka, e'tiqod va vijdon erkinligi saylovlarda qatnashish va ittifoqlarga birlashishi, harakatlanish va kasb tanlash, adolat sohasidagi daxlsiz huquqlar mustahkamlangan edi. Davlat maxsus javobgar bo'lgan sohalar nikoh va oila hamda maktab ta'lim tizimi deb belgilandi. Asosiy qonun umumiy faravonlik tushunchasini kiritdi va mulk instituti uchun uning nufuzini belgiladi. ("Mulikka egalik qilish javobgarlikni keltirib chiqaradi: unga egalik qilish umumiy faravonlikka xizmat qilishdir"). Konstitutsion tuzumni qulatilishga qaratilgan har qanday urinishga qarshi kurashish-nemis xalqining maxsus jamoaviy huquqi deb belgilandi.

Germaniya Federativ Respublikasi 9 ta yerni birlashtirdi (G'arbiy Berlin muxtoriyatni saqlab qoldi, ammo G'arbiy Germaniya parlamentida o'z vakillariga ega edi; Saar viloyati 1957 yilda 10-chi yer bo'ldi). Federatsiyaning har bir subyektiga o'z konstitutsiyasi, vakillik va boshqaruv organlari, qonunchiligiga ega bo'lish huquqi berildi. Federatsiya va yerlarning vakolatlari aniq belgilab qo'yilgan edi. Asosiy qonun Federatsiyaning so'zsiz qonunlari amal qiluvchi va "raqobat qiluvchi qonunchilik" doiralarini aniq ajratib berdi. Federativ qonunlar doirasiga tashqi siyosat, mudofaa, fuqarolik instituti, harakat erkinligi, moliya, bojxona va savdo huquqlari kirdi. Yerlar bu sohalarda faqat konstitutsiya ko'rsatmasiga ko'ra o'z qonunlariga ega bo'lishlari mumkin edi. Yer siyosatining konstitutsiyaga mos kelmasligini oldini olish uchun Federatsiya ekzekutsiya (majburlash) huquqiga ega bo'ldi. Raqobat qiluvchi qonunchilik sohalarida (fuqarolik, jinoyat, protsessual huquqlari, sud amaliyoti va advakatura ittifoq va birlashmalar tuzish huquqi va h.k.) yerlar afzallikka ega bo'lishdi. Federatsiya bu sohalarda faqatgina umumiy manfaatlarini himoya qilish, mamlakatning huquqiy va iqtisodiy yagonaligini saqlab qolish uchungina o'z qonunlarini qabul qilishi mumkin. Buning uchun federatsiya "cheklovchi ko'rsatmalar"ni nashr etadi va yerlar qonunchiligi bu ko'rsatmalar asosida ishlab chiqiladi. Subsidiya tamoyiliga asoslangan federalizmning bu ko'rinishi Germaniyada "kooperativ" federalizm deb nomlandi.

GFRda hukumat markaziy organlarining tuzilishi konstitutsiyaviy tuzumning strategik maqsadi-demokratik va sotsial davlatni shakllantirishni aks ettirdi. Demokratiya xalq suvereniteti tamoyilini kuchaytirish, hokimiyatni taqsimlash tizimi, umumiy saylov huquqi va referendum amaliyotini joriy qilish orqali ta'minlandi. Konstitutsiya adolat (odil sudlov) sohasi, konstitutsion adliya, sudlar korpusining huquqiy mavqeini chuqur (batafsil) nazorat qilardi. qurolli kuchlarning huquqiy bazasini yaratish, "mudofaa holati"ni belgilash, favqulodda holatlar qonunchiligini shakllantirishga maxsus bo'limlar bag'ishlandi. Sotsial mamlakatni yaratish esa nafaqat keng ko'lamdagi fuqarolik huquqlarini mustahkamlash, balki siyosiy faollikni ta'minlash, davlat javobgarligini, uning nemis xalqi umumiy manfaatlarini himoya qilishi, ijtimoiy taraqqiyot dinamikasini ta'minlashni talab qildi. Buning ta'sirida hokimiyatni taqsimlash tamoyili nemis konstitutsiyaviy tuzumida o'ziga xos xususiyatga ega bo'ldi.

Markaziy hokimiyat tuzilmasi kansler rahbarligida parlament, prezident va federal hukumatdan iborat bo'ldi. Parlament oliy hokimiyat organi bo'lib, konstitutsiyaga ko'ra bir palatali deyiladi. Ammo parlament tizimiga ikkita organ-fuqarolar tomonidan saylanuvchi Bundestag (Federal syezd) va yerlar hukumatlari tomonidan tayinlanuvchi Bundestag (Federal kengash) kiradi. Rasman parlament qismi bo'lmagan Bundestag amalda Yuqori palata vazifasini bajara boshladi. Uning tarkibiga 4 yilga yer hukumatlari tarkibidan saylanuvchi 69 kishi kirdi. Bundesrat qonun chiqaruvchilik jarayonida muhokama qilish va nazorat qilish funksiyalariga ega bo'ldi, ammo uning vetosi Bundestagning ko'pchilik a'zolari tomonidan rad etilishi mumkin. Bundestagning afzallikka ega bo'lishi faqatgina quyi palata nemis xalqining bevosita vakillik organi bo'lganligi bilan sharhlanardi. Bundestagning 496 ta a'zosi 4 yil muddatga to'g'ridan-to'g'ri aralash tarzdagi umumiy saylovlarda (yarmi bir mandatli okruglarda nisbiy ko'pchilikning afzalligi asosida, yarmi - ko'p mandatli yer okruglarida partiya ro'yxatlari va proporsional tizim asosida) saylanar edi. qonun chiqarishdan tashqari Bundestagning nufuzli mavqei uning prezident va kanslerni saylashdagi roli bilan aniqlanadi.

Asosiy qonunga ko'ra respublika prezidenti Bundestag a'zolari va teng sondagi yer landtaglari tomonidan saylangan deputatlardan iborat maxsus organ- Federal majlis tomonidan

saylanadi. Prezident faqatgina vakillik va tashkilotchilik vakolatlariga (veto huquqisiz) ega bo'ldi. Kansler saylovi va Bundestag ixtiyorida bo'lib, kanslarga ishonchsizlik bildirish ham (bu hukumatning iste'foga chiqishiga olib keladi) Bundestag ixtiyoridadir. bu huquqning cheklanishi faqatgina "konstruktiv ishonchsizlik ovozi" amaliyoti bo'ldiki, unga ko'ra, Bundestag yangi nomzodni tasdiqlagandagina kansler iste'foga chiqishi mumkin. Konstitutsiyaga ko'ra federal kansler butun ijro etuvchi hokimiyatga jumladan, hukumat tarkibini tayishlan va qonun chiqaruvchilik tashabbusi bilan chiqish huquqiga ega. Kansler Bundestagda muhim qonun loyihalari muhokamasida o'ziga ishonch votumi (ovozi) masalasini qo'yishi va ishonchsizlik bildirilgan vaziyatda prezident orqali parlamentni tarqatib yuborish imkoniyatiga ega. Kansler saylov tartibiga ko'ra parlamentdagi ko'pchilik vakilidir (va, albatta, eng yirik partiya rahbari hamdir) va keng hokimiyat vakolatlariga ega. Shu sababli GFR davlat modeli kansler respublikasi nomini oldi. Uning maqbulligi sotsial davlatning hayoti uchun zarur bo'lgan qudratli siyosiy markaz bilan belgilanadi.

GFR K.Adenauerning kanslerligi davrida.

GFRda konstitutsiyaviy tuzumning samarali amal qilishiga mamlakatdagi siyosiy barqarorlik yordam berdi. 1949 yilning 14 avgustida bo'lib o'tgan Bundestagning birinchi saylovlari uchta yetakchi siyosiy yo'nalishlarning afzalligini yaqqol ko'rsatdi. XDI 25,2% (115 mandat) ovozga ega bo'lib XII bilan birga (5,8% ovoz, 24 mandat) ko'pchilikni tashkil etdi. Muxolifotdagi GSDPni saylovchilarning 29,2%i (131 mandat) qo'llab-quvvatlashdi. EDP (11,2% ovoz, 52 mandat) hukumat koalitsiyasiga kirganiga qaramasdan, "uchinchi kuch"ga ylandi. 12 sentabrda mamlakat prezidenti EDP rahbari T.Xeyye bo'ldi, 15 sentabrda esa K.Adenauer federal kansler lavozimini egalladi. shakllangan "ikki yarimlik" partiya modeli keyinchalik ham saqlanib qoldi. 1952 yildagi saylov tizimi islohoti katta rol uynadi. Unga ko'ra partiyalarning o'z deputatlarini parlamentga o'tkazishlarida 5% lik cheklanish joriy qilingan edi.

Xristian demokratlarning mafkuraviy konsepsiyasi GFRning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini belgiladi. 1953 yil saylovlari arafasida qabul qilingan XDIning Gamburg dasturida G'arbiy Germaniya davlatida konstitutsiyaviy -huquqiy tuzumning va sotsial bozor xo'jaligining milliy iqtisodiy tizim sifatida asosiy tamoyillari, partiyaning nemis xalqi ma'naviy tiklanishiga yo'nalganligi belgilab qo'yildi. XDI rahbariyati qat'iy ravishda antikommunistik yo'lni tanlash, sharqiy Germaniya davlatini tan olmaslik, Shimoliy Atlantika ittifoqi va Yevropadagi integratsion strukturalar bilan yaqindan hamkorlik qilishga harakat qilardi. K.Adenauer rahbarligida XDI 1983, 1957, 1961 yillarda saylovlarda g'olib chiqdi (va mos ravishda 36,;% va 191 mandat, 39,7% ovoz va 217 mandat, 35,8% va 192 mandatga ega bo'ldi) Bavariyadagi XSI bu yillar davomida o'z muxtoriyatini saqlab qoldi, ammo 1951 yildan "ishchilar hamdo'stligi" doirasida hamkorlikni mustahkamladi. XDIG'XSI bloki turg'un parlamentdagi ko'pchilikka asos bo'ldi, yagona fraksiyani tashkil etib, birlashgan siyosat olib bordi. O'zining mintaqaviy faoliyatiga qaramasdan F.Y. Shtraus partiyasi saylovchilarning ko'p ovozigaga ega bo'lib, hatto deputatlik mandatlari soni bo'yicha EDPni "uchinchi partiya" o'rnidan siljitishga muvaffaq bo'ldi. XII 1953 yil saylovlarida 8,8% ovoz va 52 mandatga, 1957 yilda - 10,5% ovoz va 53 mandatga 1961 yilda- 9,5% ovoz va 50 mandatga ega bo'ldi. XDIG'XII bloki vakili G.Lyubke 1959 yilda prezident lavozimiga saylandi.

Erkin demokratlar partiyasi 50-yillarda o'z mafkurasini belgilash kabi murakkab jarayonni boshdan kechirayotgan edi. 1949 yilda EDP hukumat koalitsiyasi a'zosiga aylandi va Adenauer mahkamasida bir nechta ikkinchi darajali vazirlik lavozimlariga ega bo'ldi. Ammo xristian demokratlar bilan hamkorlik partiya saylovchilarining birlashishiga halaqit berar va uning siyosiy ta'sirining pasayishiga olib kelishi mumkin edi. 1954 yilda partiya rahbari lavozimligiga T.Deler kelganidan so'ng EDPning XDIG'XSIdan uzoqlashishi boshlandi. Ikki yildan so'ng uning vazirlari hukumat tarkibini tark etishdi va 1957 yil saylovlarida u muxolifot tomoniga o'tdi. Avvaliga bu omad keltirmadi. Agar 1953 yilda EDPni 9,5% saylovchilar (48 mandat) qo'llagan bo'lsa, 1957 yilga kelib bu ko'rsatkich 7,1% ga (41 mandat) tushdi. Ammo o'z siyosiy va elektoral yo'lining izlanishi davom ettirildi. E.Mende rahbarligidagi Dyuseldorf guruhi ta'sirida EDPning dasturiy asoslari yaqqol liberal xarakterga ega bo'ldi. Partiya

iqtisodiyotga davlat aralashuvini qisqartirish va soliq siyosatini liberallashtirish, uchun fuqarolik huquqlarini cheklashga qarshi (u qonun tartibotni mustahkamlasada) faol kurasha boshladi. EDP byurokrtiyaga barham berish va o'zga millat vakillari va boshqa dinga e'tiqodchilarga nisbatan o'zaro bag'rikenglik g'oyalarini himoya qilardi. 1961 yildagi saylovlarda EDP 12,8% ovoz va 67 mandatga ega bo'ldi. XDIG'XSI fraksiyasining qisqarishi hisobiga erkin demokratlar yanada teng huququli hamkorlar sifatida hukumat koalitsiyasiga kirish huquqiga ega bo'lishdi. O'sha paytdan boshlab EDP shunday "sharnir partiya" vazifasini o'tay boshladiki, uhukumat koalitsiyasidagi ko'pchilik va muxolifatning o'zaro nisbatiga katta ta'sir ko'rsata olardi.

Murosasiz K.Shumaxer rahbarlik qilayotgan GSDP "prinsipial muxolifat"ga aylanib qoldi. Sotsial-demokratlar sotsial (ijtimoiy) bozor xo'jaligiga qarshi chiqib, iqtisodiyotda ijtimoiy tashabbusni kuchaytirishga da'vat etishardi. Tashqi siyosat sohasida GSDP Adenauer hukumatining antikommunistik yo'lini qo'llab-quvvatlar, ammo yagona Germaniyani barpo etishni kechiktiruvchi har bir qadamni qoralar edi. GSDP rahbariyati hukumatning G'arbiy Germaniyaning to'la suvereniteti tiklanmasdan uni qayta qurollantirish, Shimoliy Atlantika blokining harbiy-siyosiy tuzilmalariga kiritish, G'arbiy Yevropadagi integratsiya jarayoniga jalb etishga bo'lgan urinishlariga shubha bilan qarar edi. 1952 yilda Shumaxer vafot etganidan so'ng va Erix Ollenxauerning partiya rahbari lavozimiga saylanishi bilan GSDP dasturining asta-sekin tuzatilishi boshlanib ketdi. U ikkinchi jahon urushidan so'ng sotsialistik internatsional poydevorga bo'lgan demokratik sotsializm konsepsiyasiga yaqinlashdi. Yangi avlod sotsial-demokratlari nafaqat proletariat diktaturasi va kapitalizmga inqilobiy yo'l bilan barham berish balki sinfiy kurashning ijtimoiy taraqqiyotning asosi deb qaraydigan konsepsiyadan voz kechishdi. GSDPning mafkuraviy radikalizm (keskinlik)dan voz kechishi uning saylovchilari doirasining tezda kengayishiga olib keldi. 1953 yildagi saylovlardayoq 28,8% ovozga (ya'ni, 4 yil oldingiga ko'ra kamroq) ega bo'lib, GSDP parlamentdagi o'z fraksiyasini 151 deputatga yetkazdi. 1957 yildagi faol saylov kompaniyasi 31,8% ovoz va 169 ta deputat mandatlarini taqdim etdi. GSDP mafkuraviy konsepsiyasining yangilanishi 1959 yilda Bad-Bodesbergdagi syezdda "Prinsipial dastur"ning qabul qilinishi bilan yakunlandi. Unda sotsializmga "axloqiy imperativ" nuqtai nazaridan baho berilib, partiyaning siyosiy vazifalari zamonaviy ijtimoiy muammolarning - pragmatik tahlili asosida belgilanar edi. Bad-Godesberg dasturining mualliflari Gorbort Verner boshchiligidagi xristian demokratlarning tashqi siyosatini ma'qullab, GFRning umumiy bozorga kirishini qo'llab-quvvatlashdi va iqtisodiyotni milliyalashtirish (davlat tasarrufiga o'tkazish) g'oyasidan voz kechishdi. 1960 yilda GSDP rahbari etib, partiyaning islohotchi qanoti vakili bo'lgan G'arbiy Berlin burgomistri Villi Brandt saylandi. U partiyaning yangilangan dasturiga tayanib, GSDPni mamlakat siyosiy tizimiga qo'shish, "realpolitik" tamoyillarining qaror topishiga harakat qildi. Bu strategiya muvaffaqiyat keltira boshladi. 1961 yildagi saylovlarda GSDP 36,2% ovoz va 190 mandatga ega bo'ldi.

G'arbiy Germaniyadagi yetakchi siyosiy kuchlarning asta-sekin birlashishi siyosiy radikalizm, eng avvalo so'l radikalizmga qarshi kurash bilan birga davom etdi. GKP hukumat doiralari tomonidan Sharqiy Germaniya rejimi va sovet maxsus xizmatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ekstremistik partiya deb qaralardi. GFRdagi siyosiy elita va jamoatchilikning katta qismi kommunistik harakatning totalitar (mustabid), nemis jamiyatining demokratlashuvi va huquqiy davlat qurilishiga zid bo'lgan kuch sifatida taqiqlashni talab qilardi. 1950 yilning sentabridayoq ma'muriyatga davlat va maishiy xizmat tashkilot va korxonalaridan kommunistlar va o'ng radikallarni chetlashtirish huquqi berilishi to'g'risida qaror qabul qilingan edi. 1951 yilda davlatga qarshi siyosiy harakatlar uchun jazolash to'g'risida qonun qabul qilindi. Bir yildan so'ng konstitutsion sud neonatsistik sotsialistik imperial partiyaning taqiqladi. Kommunistik tashkilotlar, Sovet-Germaniya do'stlik jamiyatlari faoliyati qattiq nazorat ostiga olindi. Buning oqibatida GKP ta'siri kamaya bordi. Agar 1949 yildagi saylovlarda kommunistlar 5,7% ovoz va 15 ta o'rin (Bundestagda)ga ega bo'lgan bo'lishsa, 1953 yilga tuzish uchun yetarli emas edi. 1956 yilda GKP konstitutsiyaga zid tashkilot sifatida butunlay taqiqlandi.

Adenauerning siyosiy vaziyatni barqarorlashtirish, G'arbiy Germaniyada ijtimoiy taraqqiyotning mustahkam hududiy asosini yaratishga bo'lgan urinishlari muvaffaqiyatli bo'ldi.

Tajribali huquqshunos va administrator, qat'iy va talabchan siyosatchi bo'lgan Adenauer Bonn hukumati faoliyatiga nihoyatda DELOVOY tartibli ko'rinish bera oldi. Barqarorlik va mo'tadillikka intilish Adenauer siyosiy uslubining o'ziga xos xususiyatiga aylandi. Maqbul nihoyatda samarali iqtisodiy islohotlar o'tkazish ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Uning mafkuraviy yordamchisi tengi yo'q iqtisodiyot vaziri Lyudvig Erxard edi.

Erxard siyosati natijasida yaratilgan ijtimoiy bozor xo'jaligi modeli ordoliberalizm - Valter Oykenning Frayburgdagi maktabi tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiy nazariya konsepsiyasiga asoslanar edi. Ordoliberalalar, davlat ishtirokisiz emas, balki davlat aralashuvi bilan rivojlanuvchi erkin bozor munosabatlari tarafdorlari edilar. Ular iqtisodiy faravonlik asosi xo'jalik tartibini mustahkamlash, ya'ni erkin bozorda "o'yin qoidalarini" belgilovchi barcha ijtimoiy institutlarning o'zaro kelishuvdagi faoliyatida deb hisoblashar edi. Bunday holatda davlat asosiy rol o'ynar edi. Uning aralashuvi bozor mexanizmlari harakatini o'zgartirishi emas, balki ularning amal qilishi uchun sharoit yaratishi va shunday tartib joriy etishi kerak ediki, unda erkin ishbilarmonlik va raqobat tanlanishi va talab va taklif muvozanatini tiklashi kerak edi. Erxard davlatning bu funksiyasini iqtisodiyotda "doiraviy sharoitlar"ning yaratilishi deb ta'rifladi.

Adenauer hukumati iqtisodiy islohotning eng murakkab davrida (1949-1950 yillarda) nihoyatda qat'iylikni namoyish qildi. O'sha davrda pul massasining qisqartirilishi va narxlarning liberallashtirilishi aholi daromadlari past bo'lgan bir paytda narxlarning oshishiga olib keldi. Ishlab chiqarishning qayta qurilishi esa, ishsizlikning o'sishi bilan birga ro'y berdi. Ammo 1951 yildayoq yaxshi tomonga o'zgarish sezila boshladi, 1952 yilda esa narxlar o'sishi to'xtadi, ishsizlik kamaya boshladi. Keyingi yillarda keskin iqtisodiy o'sish ro'y berdi: yiliga 9-10%, 1953-1956 yillarda esa yiliga 10-15% gayaa. GFR g'arb mamlakatlari ichida sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha ikkinchi o'ringa chiqib oldi (faqatgina 60-yillarning oxirida Yaponiyadan ortda qoldi). Katta eksport mamlakatda Angliya, Fransiya va Shvetsiyalarning umumiy zahirasiga teng oltin zahira yaratishga imkon berdi. Germaniya valyutasi Yevropada eng kuchli valyutaga aylandi. 50-yillarning oxirida ishsizlik amalda yo'qoldi, aholining real daromadlari 3 marta oshdi.

Nemis "iqtisodiy mo'jizasi"ning bir qator omillari mavjud edi. Erxard tanlagan iqtisodiy tizim (unda liberal bozor mexanizmi davlatning maqsadli soliq va kredit siyosati bilan birga amal qilardi) o'zining samarali ekanligini isbotladi. Sanoatdagi lobbi (o'z narxlarini himoya qilish) bilan ko'p yillik bahs-munozaradan so'ng Erxard qattiq monopoliyaga qarshi qonun qabul qilinishiga ishbilarmonlarning raqobatni cheklovchi har qanday davlat ruxsatnomasiga ega bo'lgan shartnomasi haqiqiy emas deb hisoblandi. Investitsion dasturlarni amalga oshirish uchun Marshall rejasi tadbirlari asosida tuzilgan yirik moliyaviy fondga ega edi. GFRning 1955 yilda NATOGa a'zo bo'lishiga qadar harbiy xarajatlarning yo'qligi hamda xorijiy investitsiyalar (3,5 mlrd.dollar) oqimi ham katta rol o'ynadi. Urush yillarida vayron qilingan nemis sanoatida ommaviy asosiy kapitalni yangilash davom etayotgan edi. Bu jarayonga hamohang bo'lgan eng yangi texnologiyalarning joriy etilishi hamda nemis xalqining an'anaviy bo'lgan yuqori ishlash qobiliyati mehnat samaradorligining tez o'sishiga olib keldi.

G'arbiy Germaniyada qishloq xo'jaligining muvaffaqiyatli rivojlanishi 1941-1949 yillarda okkupatsion hukumatlar yordami bilan amalga oshirilgan agrar islohot natijasi edi. O'shanda yer mulklari qayta taqsimlab berildiki, unda yer fondining katta qismi yirik yer egalaridan o'rta va kichik yer egalariга o'tdi. Keyingi yillarda qishloq xo'jaligi sohasida band bo'lganlar soni kamaya bordi, ammo dehqonlar mehnatining mexanizatsiyalashtirilishi va elektrlashtirilishi bu sektorda ishlab chiqarish o'sishini ta'minladi. qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi tuzilmasi ham o'zgardi. Eng nufuzli soha chorvachilik bo'ldi (butun qishloq xo'jalik mahsulotlarining 70%i).

Liberallashtirilgan iqtisodiyotning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun turg'un iste'mol talabini ta'minlash alohida ahamiyat kasb etdi. Ijtimoiy soha va mehnat munosabatlari bo'yicha hukumat siyosati bu muammoni hal etishga imkon berdi. Nafaqa fondi, uy-joy qurilishi, bepul va imtiyozli ta'lim olish va kasbiy tayyorgarlik tizimini kengaytirish bo'yicha qo'yilgan yetarlicha

faol qadamlar bilan birgalikda ishbilarmonlar va ishchilar o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri munosabatlarni rag'batlantirishga ham katta e'tibor berildi. Hukumat shiori ushbu tezisdan iborat bo'ldi: "Kapital mehnatsiz, mehnat esa kapitalsiz mavjud bo'la olmaydi".

1952 yildagi "Korxonalarda ishchilar ahvoli" to'g'risidagi qonunga ko'ra ishlab chiqarishni boshqarish sohasida mehnat jamoalarining hududlari kengaydi, ammo ularning siyosiy faoliyat ko'rsatishi taqiqlangan edi. Ish haftasi 52 dan 46 soatga tushirildi, oylik maosh esa urushdan oldingiga nisbatan oshdi. Mehnatga haq to'lash tizimi alohida korxonadagi mehnat stajiga mos ravishda turlicha belgilangan edi. 1960 yilda "ishlayotgan yoshlar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun" qabul qilindi, 1963 yilda barcha mehnatkashlar uchun eng kam mehnat ta'tili belgilandi.

Hukumat tomonidan ishbilarmonlarga ishchi xodimlarga qo'shimcha to'lovlarini rag'batlantirishga qaratilgan hamda oilaviy daromad va bolalar sonini hisobga oluvchi ("ijtimoiy mezon") soliq imtiyozlari tizimini ishlab chiqdi. 60-yillardan boshlab "investitsion oylik maosh" tizimi joriy etildi. Soliq siyosati oylik fondi bir qismini korxonalar ishchi xodimlari o'rtasida tarqatiluvchi maxsus "xalq aksiya"lari (xalq tashabbuslari)ga o'tkazishni rag'batlantirar edi. Hukumatning barcha mazkur choralari iqtisodiy o'sish davrida unga mos aholining sotib olish qobiliyatining o'sishini ta'minladi. Germaniyaning iste'molchilar faolligi qamrab oldi.

Iqtisodiyot siyosat sohasida tashabbusni Erxard qo'liga bergan Adenauer GFRning xalqaro mavqeini mustahkamlash uchun harakat qila boshladi. Uning ideali ramon va anglosaks madaniyatidan bir asrlik uzoqlashishni bartaraf etgan, Yevropaning iqtisodiy va siyosiy muhitiga birlashgan mustaqil va Yevropaning iqtisodiy va siyosiy muhitiga birlashgan mustaqil va qudratli Germaniya edi. Bu sohadagi ilk qadam GFRning endigina shakllanayotgan Shimoliy Atlantika blokiga qo'shilishi bo'ldi. "Sovuq urush" tufayli G'arbiy Germaniya qisqa muddatda bosib olingan, suvereniteti chegaralangan mamlakatdan g'oliblarining faol sherigiga aylandi. 1949 yilning noyabridayoq AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya va GFR Petersberg shartnomasini imzolashdi. Bu xujjat GFRga mustaqil ravishda tashqi aloqalar o'rnatish, jumladan, xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lish borasida muzokoralar olib borishga imkon berardi.

1950 yilda GFR Yevropa Kengashi a'zosiga aylandi va Yevropa integratsiyasi loyihalariga bag'ishlangan muzokoralarda faol qatnasha boshladi. Adenauer Vashington bilan o'rnatilgan aloqalardan Fransiyaning tarixiy raqibiga nisbatan shubhalanishini bartaraf etishda ustalik bilan foydalandi. U G'arbiy Yevropa mamlakatlarining harbiy-siyosiy birlashish g'oyalarini quvvatlar va bu g'oyalarning amalga oshirilishini Germaniya suverenitetining tiklanishiga bog'lardi. Bu borada eng muhim erishish "Pleven rejasi"ga ko'ra "Yevropa mudofaa jamiyati"ni tuzish haqidagi muzokoralar bo'ldi. Bu loyihada GFRning qatnashishiga 1952 yilda umumiy yoki okkupatsion statutning o'rnini bosgan AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya va GFRlarning Bonn shartnomasining imzolanishidan keyin yo'l ochildi. Unda okkupatsion rejimning bekor qilinishi, GFRga ichki va tashqi ishlarda mustaqillik berish e'tirof qilingan, ammo AQSH, Angliya, Fransiya G'arbiy Germaniya hududida qo'shnlarni joylashtirish hamda G'arbiy Berlinni nazorat qilish huquqlari saqlab qolingan edi. Umumiy Shartnomaning kuchga kirishi bir kundan keyin imzolangan YEMH to'g'risidagi shartnomaning amalga oshirilishi bilan bir vaqtda ro'y berdi. Ammo bu shartnoma ratifikatsiyasining Fransiya parlamentida bekor qilinishi Umumiy Shartnomaning ham kuchga kirishini kechiktirdi. Uning asosiy punktlari 1954 yildagi G'arbiy Yevropa Ittifoqi (G'YEI)ni tuzish to'g'risidagi Parij shartnomasiga kiritildi, GFR G'YEIning a'zosi bo'ldi. 1955 yilda GFR NATOga a'zo bo'ldi.

1955 yilda GFR hukumati SSSR bilan munosabatlarni normallashtirishga harakat qildi. Ikkala mamlakat o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatildi, Adenauer esa 1955 yilning sentabr oyida Moskvaga rasmiy tashrif buyurdi. G'arbiy Germaniyaning bu diplomatik harakati xalqaro miqyosda Germaniya muammosini hal qilishda tashabbusni qo'ldan boy bermaslikka harakat qilish bilan izohlanar edi. Uch oy oldin Jenevada urushdan keyingi davrda ilk bor AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya va SSSRning hukumat boshliqlari uchrashuvi bo'lib o'tdi va unda Germaniyaning qo'shilish istiqbollari muhokama qilindi. Muhokamalar boshi berk ko'chaga kirib qolganligi sababli Germaniya muammosini "nemis xalqining milliy manfaatlari

va Yevropa xavfsizligiga mos ravishda” hal etish zarurligi to’g’risida neytral bayonot kelishib olindi. Adenauerning Moskvadagi muzokoralari ham hech qanday ijobiy natija bermadi. Tez orada GFR Sharqiy Germaniyaga zid bo’lgan eng qat’iy choralardan birini amalga oshirdi. 1955 yilning dekabr oyida “Xolshteyn (GFR Tashqi Ishlar Vazirining Shtate- kotibi familiyasi) doktrinasi ” qabul qilindi, unga ko’ra GFR u bilan aloqa o’rnatgan davlatlarni GDRNi tan olishdan voz kechishga chaqirdi. Bu chora oqibatida GFR 1957 yilda Yugoslaviya bilan, 1963 yilda Kuba bilan aloqalarni uzdi. 1961 yildagi Berlin inqirozi GFRning SSSR bilan munosabatlarining nihoyatda sovuqlashishiga olib keldi.

Atlantik hamdillik tamoyiliga yon berishini namoyish etgan Adenauer AQSH yo’ldoshiga aylanishdan saqlanishga harakat qilardi. Bu borada GFRning Yevropadagi integratsion jarayonda qatnashishi va Fransiya bilan o’zaro munosabatlari ahamiyatli bo’ldi. 1950 yildayoq Adenauer “Shuman rejasi”ni faol qo’llab-quvvatladi, 1952 yilda esa GFR YEOUS(?) ta’sischilaridan biriga aylandi. 1955-1957 yillarda Saar muammosining maqbul yechimi Fransiya bilan keyinchalik yaqinlashishga zamin tayyorladi. Bu mamlakatlar 1957 yildagi Yevropa hamjamiyatlari tizimini yaratish to’g’risidagi Rim shartnomalarining tayyorlanishi va imzolanishida katta rol uynashdi. Adenauer Fransiya prezidenti Sharl de Goll bilan nihoyatda yaqin shaxsiy munosabatlar o’rnatishga muvaffaq bo’ldi. Ikkala rahbarning 1960 yilda Rambuy, 1962 yil iyulida Parijda uchrashuvlari, hamda 1962 yil sentabridagi Sh. de Gollning tantanali sayohati ikkala mamlakatning strategik ittifoqini rasmiylashtirishga imkon tug’dirdi. 1963 yil yanvar oyida Fransiya va GFRning turli sohalarda hamkorlik qilishi, tashqi siyosatning tartibga solishi, mamlakat rahbarlari (kamida bir yilda 2 marta) va tashqi ishlar hamda mudofaa vazirlari (uch oyda bir marta) ishtirokida muntazam konsultatsiyalar olib borish to’g’risida shartnoma imzolandi. Adenauer Fransiya bilan hamkorlikda GFRning xalqaro mavqei tiklanishini ko’rardi:”Yevropaning hech qanday siyosati Fransiya ishtirokisiz yoki Fransiya qarshi bo’lolmasligi kabi, Germaniyasiz yoki Germaniyaga qarshi ham hech qanday Yevropa siyosati bo’lishi mumkin emas”.

L.Erxaddan K.Kizingergacha nemis “Faravonlik davlati”ning gullashi va inqirozi.

60-yillarning boshiga kelib Adenauerning siyosiy obro’si tusha boshladi. Uning konservativligi, o’zgalar fikriga toqatsizligi, shubha qilishi hukumatning samarali faoliyat ko’rsatishiga halaqit berar va partiyada norozilik tobora oshishiga sabab bo’lardi. 1963 yil 23 aprelda XDI deputatlar fraksiyasi yig’ilishida Erxardni 87 yoshli kansler o’rniga saylash haqida qaror qabul qildi. Murosaga moyil bo’lgan romantik obro’si, sigaretasi qo’ldan tushmaydigan ochiq ko’ngil baqaloqning tashqi ko’rinishi, “iqtisodiy mo’jiza” otasi obro’si Erxardni ham saylovchilar, ham mamlakat siyosiy elitasi uchun jozibali qilardi. Erxard demokratik edi, bahs-munozaradan bosh tortmas va Adenauerning avtoritar boshqaruv usullariga yo’l qo’ymaslik kerak deb hisoblardi. 1963 yil 15 oktabrda 14 yildan keyin, Adenauer iste’foga chiqdi va bir kundan keyin Bundestag majlisida Lyudvig Erxard federal kansler etib saylandi. U o’z hukumati maqsadi ijtimoiy tinchlik va hamkorlikni ta’minlash, “markaz va o’zaro hamdillik siyosati”ni yurgizish ekanligini e’tirof etdi. Erxard umummilliy manfaatlarni amalga oshirish uchun barcha siyosiy kuchlarni birlashtirishga, manfaatlar muvozanatini izlash va konfrontatsiya (qarama-qarshilik)dan voz kechishga da’vat etdi. Vitse-kansler lavozimini EDP rahbari Erix Mende egalladi. Erxard GSDPni o’zaro manfaatli hamkorlikka chaqirdi.

G’arbiy Germaniyadagi iqtisodiy va ijtimoiy ahvol hukumat rejalariga qulaylik tug’dirardi. Agar 60-yillarning boshlarida retsessiya (?) alomatlari kuzatilib, rivojlanish sur’atlari 1961 yilda 5 %dan 1969 yilda 3,5% ga tushib qolgan bo’lsa-da, 1964 yildan boshlab taraqqiyot sur’atlari ilgarigi “oltin o’n yillik” darajasiga yetdi. Bir yilning o’zida YAMMning o’sishi 9,5%ni (sanoat ishlab chiqarishi 8% ga o’sdi) tashkil etdi. Bunda mehnat samaradorligining o’sishi ishchi xodimlar sonini oshirish hisobidan emas, balki asosan mehnat unumdorligini oshirish hisobiga erishildi. 1965 yilda iqtisodiy o’sish davom etdi va faqatgina 1966 yilda yana retsessiya boshlandi. Ammo o’sish sur’atlarining pasayishi inqiroz belgisi emas edi. Ishlab chiqarish hajmini oshirish ko’lamlarini saqlab qolish iqtisodiyotning “qizib ketishi” bilan tahdid solardi va hukumat investitsion faollikni biroz pasaytirish bo’yicha choralar ko’rishga majbur

bo'ldi. Bu yillar davomida mehnat bozoridagi ahvol nihoyatda yaxshi edi. Bo'sh ish o'rinlari muntazam o'sib borar va doim ishsizlar sonidan ko'proq edi. Ishchi kuch importi odatiy holga aylandi. Erxard hukumati agrar siyosatga katta ahamiyat berdi. 1964 yildagi "yashil reja" "agrar tuzilmani yaxshilash" uchun qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini yo'naltirish jarayonini rag'batlantirish masalasini qo'ydi. qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarga to'g'ri kreditlar berish va qishloq joylarda transport va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun budget xarajatlari oshirildi. 1964 yilning o'zida bu maqsadda 2,5 milliard marka sarflangan edi.

"Iqtisodiy o'sish"ning davom etishi nihoyatda yuqori turmush darajasini saqlab qolishga imkon berdi. 1966 yilda o'tkazilgan so'rovlarga ko'ra, nemislarning 89% o'z daromadlaridagi qoniqishlarini, 45%i esa "keragidan ham ortiqroq daromad qilayotganliklarini", atigi 10%i daromadlardan norozi ekanligini aytishgan. Bunday vaziyatda hukumat obro'si juda baland edi. Ammo xristian demokratlarning ko'p yillik siyosiy hukmronligi nemis jamiyatida ruhiy charchashni keltirib chiqardi. XDIning o'zida g'oyalar inqirozi sezila boshlandi. Vaziyatdan chiqish uchun Erxard partiya dasturini yangilashga faol kirishdi.

1965 yildagi (mart oyida) partiya syezdida Erxard ilk bor "shakllangan jamiyatning o'z konsepsiyasini batafsil bayon qildi. U nemis jamiyati o'z taraqqiyotining prinsipial yangi bosqichiga yaqinlashmoqda deb taxmin qildi. Sanoq boshi deb Erxard proletariat va burjuaziya ziddiyatiga asoslangan" XIX asrning sinfiy jamiyatini ko'rsatdi. Birinchi jahon urushidan keyin boshlangan keyingi rivojlanish bosqichi, sinflar ziddiyatini bartaraf etayotgan, ammo "manfaatlar guruhi" yoki "ittifoqlar" (korxonalar, kasaba uyushmalari, iste'molchilar va h.k.lar ittifoqlari) raqobati bilan xarakterlanadigan "imperialistik jamiyat shakllanishidan iborat edi. Uchinchi bosqichda ("shakllangan jamiyatda") guruhiiy manfaatlar xilma-xilligi "umumiy faravonlikka bo'ysundiriladi". Erxard taxminicha bunday jamiyat mohiyatan kooperativ jamiyat, ya'ni barcha guruhlar va manfaatlar hamkorligiga asoslangan jamiyat bo'ladi.

"Shakllangan jamiyat" konsepsiyasi romantik (PROJEKTERSTVO) va harbiy jamiyat taraqqiyotining real yo'nalishi, ijtimoiy motivatsiyaning an'anaviy andozalari tahlili va iste'molchilik psixologiyasining qarama-qarshi sintezidan iboratligi ayon bo'ldi. Erxard yaqinlashayotgan "iste'molchilar jamiyati" inqirozni his qila turib, ijtimoiy hayotning barcha sohalarini "insoniylashtirish" yo'llarini izlashni talab qilar, nemislarni "faqatgina shaxsiy manfaatlar emas, balki butun jamiyat manfaatlari uchun qayg'urishga, ijtimoiy faravonlik faqatgina ishlab chiqarish, iste'mol, iqtisodiy o'sish bilan belgilanmasligini eslashga da'vat etardi. Ammo uning konsepsiyasini "faravonlik hamma uchun" g'oyasi, jamiyat barcha qatlamlari manfaatlarini qondirish uchun ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy o'sishning maqbul muvozanatini izlash tashkil etardi. "Shakllangan jamiyat" konsepsiyasining bu varianti 60-yillarda barcha G'arb mamlakatlarida gullab yashnagan, ammo o'z inqiroziga tobora yuz tutayotgan "faravonlik davlati" modelining mafkuraviy asoslash shakllaridan biri edi.

Xristian-demokratik harakatning o'sib borayotgan inqirozi 1965 yilda bo'lib o'tgan saylovlarda ayon bo'ldi. Saylovda 39,5% ovoz va 202 deputatlik mandatiga ega bo'lgan GSDP yetakchilik qildi. XDI faqatgina ikkinchi o'rinni olishga muvaffaq bo'ldi. Uni saylovchilarning 38,1% sayladi, bu esa 196 mandatga ega bo'lishga imkon berdi. 9,5% ovoz va 49 tadan mandatga ega bo'lgan XSI va EDPlarning qo'llab-quvvatlashi XDIGA parlamentda ko'pchilikni saqlab qolishga imkon berdi. Ammo bu koalitsiyaning siyosiy barqarorligi susayib borardi.

Hukumat mavqeini mustahkamlashga Erxardning tashqi siyosati ham yordam bermadi. Bu sohada kansler tabiiy faoliyatsizlikni namoyish etdi. Erxard Adenauer tomonidan hukmronlikning oxirgi yillarda tanlangan Yevropaparast faol siyosatdan voz kechdi. Fransiya bilan o'zaro munosabatlarda kelishuv bordek edi, ammo Erxard de Gollni Yevropa komissiyasi raisi V.Xolshteyn bilan qarama-qarshilikda qo'llab-quvvatlashni xohlamadi. Bundan tashqari siyosiy integratsiya va Yevropa hamjamiyatlarida davlatlardan yuqori nufuzga ega institutlar rolini kuchaytirish g'oyalarini qo'llab-quvvatlovchi Xolshteyn tarafdorlari ham nemis hukumatida oz emas edi. O'zining Yevropaga oid siyosatida Erxard atigi 1962 yilda qabul qilingan qishloq xo'jaligi dasturining turli jihatlarini tartibga solishga katta e'tibor berdi.

Tashqi siyosatga doir boshqa masalalarda ham Erxard “sentristlik” (markazparastlik)ni saqlab qolishga harakat qildi. U 1963 yilda AQSHDa taklif qilingan NATOning ko‘p millatli yadro kuchlari g‘oyasini qo‘llab-quvvatladi va GFR hududida NATO mamlakatlarining harbiy ishtirokini saqlab qolishga harakat qilardi. “Atlantik hamdillik” tamoyili Bonnlarning tashqi siyosatidagi ustivor yo‘nalish deb hisoblandi. Ammo shu bilan bir vaqtda Erxard 1963 yil avgustida AQSH, Buyuk Britaniya va AQShning atmosfera, kosmik fazo va suv ostida yadro sinovlarini to‘xtatish to‘g‘risidagi Moskva shartnomasiga ham ijobiy baho berdi. 1966 yilda Erxard hukumati Bundestagga qurosizlanish to‘g‘risidagi xalqaro kelishuv loyihasini taqdim etdi. Ammo loyiha parlamentda ko‘pchilik tomonidan ma‘qullanmadi. Erxard GFRdagi barcha yetakchi siyosiy kuchlarni qondirishi mumkin bo‘lgan Umumgermaniya muammosi yechimini ham topa olmadi.

1966 yilda Erxard hukumatda va o‘z partiyasida murakkab ahvolda qoldi. Uni korrupsiya (poraxo‘rlilik), parlamentdagi fraksiyadagi tarqoqlikka yo‘l qo‘yganligi va partiyada faol ishlashdan voz kechganligi uchun tanqid ostiga olishdi. 1967 yil budjetini muhokama qilish davrida budjet tanqisligini bartaraf etish metodlari to‘g‘risida bahs-munozaralar boshlanib ketdi. Erxardning soliqlarni oshirish to‘g‘risidagi taklifi EDP vakillari tomonidan rad etildi. Bu hukumat inqiroziga sabab bo‘ldi va 1966 yil 1 dekabrda Erxard iste‘foga chiqdi. Uning o‘rnini xristian demokratlarning yangi rahbari Kurt Kizinger bo‘ldi. Hukumat tarkibiga ilk bor GFRdagi barcha yetakchi siyosiy kuchlar vakillari kiritildi. Vitse-kansler va tashqi ishlar vaziri lavozimini GSDP raisi V.Branut egalladi, uning o‘rinbosari G.Vener esa umumgermaniya masalalari bo‘yicha vazir lavozimini egalladi. Erxardning ko‘pgina iqtisodiy g‘oyalariga sherik bo‘lgan sotsial-demokrat Karl Shiller Iqtisodiyot vazirligiga bosh bo‘ldi, XSI rahbari F.Y.Shtraus esa moliya vaziri bo‘ldi. O‘ziga xos hukumat bloki “katta koalitsiya” deb nom oldi.

Mafkuraviy-siyosiy jihatdan juda turli-tuman mahkamaning samarali faoliyat ko‘rsatishiga bo‘lgan umid kansler shaxsi bilan bog‘liq bo‘lgan edi. Kizinger o‘ziga xos ish qobiliyati va ishbilarmonligi bilan ajralib turgan yaxshi tahlilchi (analistik) qattiq qo‘l rahbar sifatida mashhur edi. U Shiller va Shtrauslarning samarali hamkorlik qilishlaricha muvaffaq bo‘ldi. Bu hamkorlik natijasida 1967 yildagi “Barqarorlik va iqtisodiyotni jonlantirishga yordam berish to‘g‘risidagi qonun” ishlab chiqildi. Uning asosi Shiller taklif qilgan “global tartibga solish” konsepsiyasi tashkil etardi. Hukumat kredit va soliq siyosati ustunligidan voz kechdi va federatsiya hamda Yerlar darajasida iqtisodiy rivojlanishning o‘rtacha va qisqa muddatli rejalari kompleksini ishlab chiqishga kirishdi. Shtraus o‘z navbatida rejalashtirishning asosiy maqsadi budjet-moliyalash tizimi barqarorligi, inflyatsiya jarayonlarini oldini olish, narx belgilash jarayoni barqarorligini ta‘minlashdan iborat bo‘lishiga muvaffaq bo‘ldi. Bu indikativ (ko‘rsatkichli) rejalashtirishning nemischa variantini fransuz va inglizlar tajribasidan farqlanishini ko‘rsatardi. Mikro-iqtisodiy tartibga solish sohasida Shiller-Shtraus dasturi Erxardning ijtimoiy bozor xo‘jaligi bilan moslikni saqlab qolgan edi.

Hukumat faolligi iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlarining yaxshilanishiga sabab bo‘ldi. 1966-1967 yillarda G‘arbiy Germaniya urushdan keyingi davrdagi eng chuqur retsessiyani boshdan kechirdi. YAIM 0,1%ga pasaydi (sanoat ishlab chiqarishi 3%ga). Ammo 1968 va 1969 yillarga kelib sanoat o‘stishining ilgari sur‘atlari tiklangan edi (11,8% va 12,9%). Moliyaviy bozor mustahkamligi hamda hukumatning eng ko‘p zarar ko‘rgan sohalarga (qurilish, metallurgiya, mashinasozlik) qaratilgan kredit siyosati bunga ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi. Oxirgi o‘n yillik davomida nemis sanoatida fan yutuqlarining keng joriy etilishi, uning strukturaviy-sohaviy qayta qurilishining tugashi va eksportning tez o‘stishi ham katta ahamiyatga ega bo‘ldi. NIOKR (?) ga xarajatlar 60-yillarda budjetning eng asosiy bo‘limlaridan biriga aylandi va 5,2 marta oshdi. Eng yangi sohalari, ayniqsa, elektronika, kimyo va atom energetikasi sohalari jadal rivojlandi. 60-yillarning oxiriga kelib YEIH (YEES) mamlakatlariga G‘arbiy Germaniya eksportining 47% va importining 53% to‘g‘ri keldi.

“Katta koalitsiya” faoliyati davrida GFRning Yevropa Hamjamiyatlari bo‘yicha sheriklar bilan siyosiy munosabatlari ham ancha mustahkamlandi. Bu Fransiya prezidenti bilan Yevropa komissiyasining ziddiyati tugatilishi va 1966 yilda Lyuksemburgda kelishuvga erishilishi

yordam berdi. Ammo asosiy o'zgarishlar Sharqiy Yevropaga oid siyosatga kiritilgan edi. GSDPning yangi rahbarlari, V.Brandt, G.Vener va G.Shmidt "do'stlik ko'priklari" o'rnatish siyosati, SSSR va boshqa sotsialistik mamlakatlar bilan munosabatlarni yaxshilash, Umumgermaniya muammosini o'zaro kelishuv orqali hal qilishga harakat qilishdi. Ularning xarajatlari tufayli GDR hukumati bilan ilk aloqalar o'rnatildi, Yugoslaviya bilan diplomatik munosabatlar tiklandi, Ruminiya bilan iqtisodiy aloqalar kuchaytirildi. GFR bu yillar davomida g'arbiy mamlakatlar ichida SSSRning asosiy eksportchisiga aylandi. Ammo bu qadamlar hukumatning konservativ kayfiyatdagi qismi tomonidan qarshilikka uchradi.

"Katta koalitsiya" partiyalari o'rtasidagi qarama-qarshiliklarning oshib borishiga kansler atrofidagi mojaro sabab bo'ldi. Kizinger natsist rejimi davrida tashqi ishlar vazirligining siyosiy tashviqot bo'limida ishlagan edi. XDI rahbari tarjimai holidagi bu sahifalar keng ommaga ma'lum qilindi. Mamlakat ikkita qarama-qarshi lagerga bo'linib qolindi: totalitar (mustabid) tuzum davr talabi ekanligini tan olib, yaqin o'tmish bilan kelisha oluvchilar va tarixiy xotiraga nisbatan butunlay murosasiz bo'lganlar. Kizinger atrofidagi shov-shuvlar atigi "aysberg cho'qqisi" edi, xolos. 60-yillar oxirida GFRni ijtimoiy norozilik qamrab oldi. G'arbnining boshqa mamlakatlaridagi kabi, uning sababi "iste'molchilar jamiyati"ning o'sib borayotgan inqirozi, butunlay turlicha ijtimoiy va madaniy qadriyatlarga yo'nalgan avlodlar o'rtasidagi ziddiyat, sinfiy jamiyatning ijtimoiy guruhlarining murakkab iyerarxiyasiga aylanishi va "faravonlik davlati"ning halokati edi.

GFRdagi "60-yillar inqirozi"ning o'ziga xosligi uning siyosiylashganida edi. 1967-1968 yillarda GFR universitetlarida talabalarning norozilik harakatlari amal qildi. Yoshlar ta'lim tizimining KOSNOST iga qarshi, byurgercha iste'molchilik g'oyalarning majburiy singdirilishi, siyosatning konservativligiga qarshi norozilik bildirar edi. Ko'pgina nemis yoshlari, AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Gollandiyadagi tengdoshlari kabi "chek kitobchalari va to'la muzlatgichlar dunyosi"ga o'z e'tiqodlarini - "rok-n-roll va narkotiklar"ni qarama-qarshi qo'yishadi. Ammo tez orada talabalar harakati siyosiy shaklga ega bo'la boshladi. Sotsialistik talabalar harakati bayrog'i ostida AQShning Vyetnamdagi urushi, Bonn hukumatining Afrika va Yaqin Sharqdagi diktatura rejimlari bilan hamkorligiga norozilikni bayon qiluvchi namoyishlar bo'lib o'tdi. Talabalar ichida atrof-muhit himoyachilari - ("yashillar") bilan harakati shakllana boshladi. "Yangi so'llar" (jumladan, Frankfurt maktabi faylasuflari T.Adarno, G.Markuze, Y.Xabermas, A.Shmidt) g'oyalari hamda Maochilik, tronkiychilik, anarxistik nazariyalar mashhur bo'la boshladi.

Yoshlarning ekstremistik harakatlari ichida 60-yillar oxirida ilk terrorchilik guruhlari shakllana boshladi. Ular ichida eng yirigi "qizil Armiya Fraksiyasi" (qAF) bo'ldi. U 1968 yilda politsiya harakatlariga norozilik sifatida Frakfurtdagi univermagga o't qo'yishni tashkil etgan Andreas Baader va uning tarafdorlari tomonidan tuzilgan edi. qAF mamlakatda proletar kommunistik inqilobni amalga oshirishni o'z maqsadi deb e'tirof etdi. qAF ideologi, shov-shuvga sabab bo'lgan "Shahar gerilyasi (partizan urushi) konsepsiyasi" kitobi muallifi, jurnalist Ulrika Maynxof (Meinhoff) bo'ldi. U hukmron rejimini o'zining "fashistik mohiyatini" oshkor etishiga majbur qilish va mehnatkashlarni "siyosiy karaxtlik"dan chiqarish uchun terror usullaridan foydalanishga da'vat etardi. 1967 yil 2 iyunida politsiya tomonidan talaba B.Onezorgning namoyish paytida o'ldirilishiga nisbatan norozilik shaklida Frits Toyfel tomonidan yana bir mashhur so'l terroristik guruh tashkil topdi. Bu guruh mos nomga ega bo'ldi: "2 iyun harakati" (D-ch). Toyfel o'z guruhini "mehnatkash xalq" vakili sifatida tanishtirishga harakat qilar va ishlab chiqarishda terroristik harakatlar va qo'poruvchilikni amalga oshirardi. So'l radikallari tez-tez individual terrorni amalga oshirib turishardi.

60-yillar oxirida GFRda asosan millatchilik, neonatsistik xarakterga ega bo'lgan o'ng radikal harakat ham paydo bo'ldi. Ammo avvaliga o'ng ekstremistlar terror usulini qo'llamasdan o'z g'oyalarni keng ommalashtirishga harakat qilishdi. 1964 yilda millatchi Germaniya Milliy-Demokratik Partiyasi (GMDP) tashkil qilingan edi. Uch yil ichida uning a'zolari soni 40 000 taga yetdi. 1967 yilda GMDP ni 5%-li to'siqdan oshib o'tish va parlament fraksiyasini tashkil etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan Adolf Tadden boshqarib bordi. 1968 yilda Gerbert Mis

rahbarligida tashkil etilgan Germaniya kommunistik partiyasi (GKP) ham kurashning qonuniy usullarini tanladi. A'zolari soni kamligiga (20 mingtadan ortiqroq) qaramasdan GKP so'1 yoshlar guruhlarini bilan ittifoq tuzish va kasaba uyushmalarini siyosiylashtirishga umid qilardi.

Hukumat siyosiy radikalizm oshishiga qarshilik qilishga harakat qilardi. Politsiya norozilik harakatlarini shafqatsiz bostirardi, 1969 yilda esa Kizinger Bundestagga muhokama uchun "Favqulodda holat" joriy etish tartibi va mos vakolatlarini cheklash bilan birgalikda, bu qonun sudlarga davlat hukumati harakatlarini inson huquqlari poymol qilinishi asosida g'ayri konstitutsiyaviy deb hisoblovchi shaxslar shikoyatlarini ko'rib chiqishni yuklar edi.

60-yillar oxiridagi ijtimoiy-siyosiy inqiroz "katta koalitsiya"da ziddiyatlar o'sishiga olib keldi. Bu siyosiy uyushma muvaqqat edi va uning ishtirokchilari navbatdagi parlament saylovlariga faol tayyorgarlikni boshlashdi. GSDP rahbarlari ijtimoiy-iqtisodiy va tashqi siyosiy yo'nalishga chuqur tuzatishlar kiritishga tayyor ekanliklarini namoyish qilishdi. Brandt partiyaning islohotchilik qiyofasidan faol foydalanar, "haqiqatni gapirish"ga, aldovlar va konservativlikni tugatishga da'vat etardi. 1967 yildagi syezdda yangi "107 tezis" nomli dasturni qabul qilgan EDP ham chetda qolmadi. Erkin demokratlar marksistik nazariya ham, "siyosiy kurashdan dindan foydalanish" ham halokatga olib kelishini ta'kidlar yana bir marta eng yirik partiyalardan uzoqlashishga harakat qilishdi. EDP GFR tashqi siyosatini yangilash, Sharqiy Yevropa mamlakatlari bilan ijobiy munosabatlarni o'rnatish tarafdori edi. 1968 yilda EDP rahbari etib GSDP bilan sheriklik munosabatlarini saqlab qolishga intilayotgan Valter SHeyel saylandi. Erix Mendening o'ng guruhi oldingidek xristian demokratlar bilan yaqinlashishga chaqirardi.

XDI rahbariyati o'z mafkuraviy konsepsiyasini mo'tadillik va pragmatizm tamoyillari asosida yangilashga harakat qildi. 1967 yilda qabul qilingan partiyaning yangi dasturi ijtimoiy bozor xo'jaligi asosiy tamoyillarini tan olish barqaror moliyaviy siyosat ustivorligini e'tirof etish, atrof-muhitni muhofaza qilish, dehqonlarning proteksionistik himoyasi hamda "Atlantik ittifoqni saqlagan holda Birlashgan Yevropa" g'oyasini rivojlantirishga u XSI bilan munosabatlar yomonlashishiga to'sqinlik ham qila olmadi. Xristian sotsialistlarning talabchan rahbari Shtraus Kizinger rahbarligi bilan zo'rg'a hisoblashardi va ko'pincha mustaqil ish tutardi. 1968 yilda XSI yangi dasturni qabul qildi. Unda partiyaning ham Bavariya va Germaniya, ham Yevropada yagona ekanligi, XSIning Xristian an'analariga sodiqligi, Fransiya bilan aloqalar ustivorligi va AQSH bilan yanada teng huquqli hamkorlik qilish zarurati ta'kidlangan edi.

1969 yil 29 sentabrdagi saylovlar sotsial-demokratlarga muvaffaqiyat keltirdi. GSDP 42,7% ovoz va 224 mandatga ega bo'ldi. XDI 36,6% va 193 mandat, XSI -9,5% va 49 mandatga ega bo'lishdi. Shunday qilib, hukumat taqdiri 5,8% ovoz va atigi 30 mandatga ega bo'lgan EDP mavqeiga ega bo'ldi. O'z partiyasi parchalanishi xavfiga qaramasdan Valter SHeyel sotsial-demokratlar bilan qo'shilishni afzal ko'rdi (bu esa 1970 yilda EDP tarkibidan E.Mende guruhi chiqishiga sabab bo'ldi). "Sotsial liberallar koalitsiyasiga" tayangan Villi Brandt kansler lavozimiga ega bo'ldi. GSDPning siyosiy nufuzi 1969 yilda prezidentlik lavozimiga G.Xaynemanning saylanishiga sabab bo'ldi.

"Sotsial-liberal davr".

Villi Brandt (haqiqiy ismi - Gerbert Fran), ko'p yildan beri G'arbiy Germaniya va Yevropa sotsial -demokratiyasi yetakchisi, o'tmishda natsistlar hukmronligi davrida Germaniyadan muhojir bo'lgan jurnalist va urushdan keyin G'arbiy Berlin burgominstri nemsilar uchun siyosatda "yangi shamol"ni o'zida mujassam etgan edi. Brandt jamiyatning muammolari to'g'risida ochiqchasiga gapira boshlagan, siyosatga oshkoralik va oydinlik ruhini olib kirgan GFRning birinchi davlat rahbarlaridan biri edi. O'zidan oldingi rahbarlarga xos konservatizm unga begona edi va ijtimoiy islohotlarni ijtimoiy taraqqiyot dinamikasini ta'minlashning eng samarali usuli deb hisoblardi.

Brandt hukmronlik davrida saylovda 18 yoshdan katta yoshlarga qatnashish huquqi beruvchi saylov islohoti o'tkazildi, oliy ta'lim tizimini isloh qilish boshlandi. 1971 yilda stipendiya bilan ta'minlash va bepul ta'lim olish, ilmiy darajalarni himoya qilishga ko'maklashish to'g'risida federal qonunlar qabul qilindi. 1972 yilda qabul qilingan "Davlat

xizmatida antikonstitutsion kuchlarga munosabat to'g'risidagi Nizomga" muvofiq ekstremistik (o'ng yoki so'l) kayfiyatda bo'lgan shaxslarga ta'lim muassasalarida ishlash, hamda boshqa ijtimoiy lavozimni egallash ta'qiqlandi. Brandt ma'muriyati ijtimoiy budjet dasturlarini ancha kengaytirdi. 1970 yilda bolalarga ijtimoiy to'lovlar, kam ta'minlangan oilalarga uy-joy uchun dotatsiyalar hajmini oshirish to'g'risidagi qonunlar, 1971 yilda talablar va o'qituvchilarni majburiy sug'urta qilish amaliyotini kengaytiruvchi "Ijtimoiy sug'urta tizimi to'g'risidagi qonun", 1972 yilda "Nafaqani isloh qilish to'g'risidagi qonun" qabul qilindiki, bu qonunga ko'ra nafaqaga chiqishning yoshi belgilanishining egiluvchan tizimi joriy etildi.

Sotsial mamlakat ekspansiyasi hukumatning iqtisodiy siyosatidagi ustivor yo'nalishlarni qayta ko'rib chiqishni talab etardi. Sotsial-demokratlar rejalashtirishni rivojlantira borib, iqtisodiy jarayonlarni ko'rsatkichli tartibga solishni kuchaytira bordilar. Soliqlar ham oshirildi. Agar 1960 yilda soliq va ijtimoiy chegirmalar oylik maoshning o'rtacha 15,9%ini tashkil etgan bo'lsa, 1973 yilda bu ko'rsatkich 26,1% ga teng bo'ldi. Ishbilarmonlarga soliq tazyiqi yanada kuchaydi. Shunga qaramasdan hukumat barqaror budjet tanqisligi bilan hisoblashishga majbur bo'ldi. Ijtimoiy xarakterdagi o'sib borayotgan to'lovlar tufayli faqatgina 1970-1975 yillar davomida ijtimoiy mahsulotlardagi davlat xarajatlari foizi 29 dan 51%ga ko'tarildi. Shu bilan birga bu o'sishning eng katta qismi ijtimoiy sug'urtaning turli shakllarini rivojlantirishga, ya'ni noishlab chiqarish sohaga sarflandi. Iqtisodiy konyuktura yomonlashib borayotgan bir davrda bu xavfli edi. 70-yillarning boshlarida GFRda ishsizlik o'sdi, ilk bor inflyatsiya sezilarli darajada ko'tarildi, kapitalning nihoyatda to'planib qolishi (eng avvalo daromad normasining pasayishi) belgilari paydo bo'ldi. 1973 yildagi "net inqirozi" G'arbning boshqa mamlakatlariga nisbatan GFRga kamroq zarar keltirgan bo'lsa-da, ishlab chiqarish hajmining keskin pasayishiga turtki bo'ldi. YAIMning o'sishi bir yil ichida 1%ga pasaydi. Ayon bo'ldiki, bunday vaziyatda hukumat o'z iqtisodiy strategiyasini qayta ko'rib chiqishi kerak edi. Tanqid ostiga qolgan iqtisodiyot vaziri K.Shiller 1972 yilning oxiridayoq iste'foga chiqishga majbur bo'ldi.

Muxolifat tomonidan amalga oshirilgan qat'iy qarama-qarshilik Brandtni ham tashqi siyosat sohasida qat'iy qadamlar tashlashga majbur etdi. "Islohotchi kansler" fikricha, Germaniyaning dunyoni boshqa mamlakatlari bilan o'zaro munosabatlari uslubini tubdan yangilash payti kelgan edi. Brandt "Yevropa xalqlarining nemislar oldida tarixiy qo'rquviga" barham beruvchi insonparvarlik madaniy aloqalarni faollashtirishga katta e'tibor berdi. G'arbiy Germaniya diplomatiyasi Fransiya va Benilyuke mamlakatlarining Yevropa integratsiyasining yangi bosqichini boshlash, jumladan Yevropa hamjamiyatlari tarkibini kengaytirish, iqtisodiy va valyuta ittifoqi ("Verner rejas") loyihasini tayyorlash bo'yicha tashabbuslarini faol qo'llab-quvvatladi. Ammo Brandtni tashqi siyosatning asosiy vazifasi Yevropa Sharqida "ko'priklar barpo etish"dan iborat bo'lib qoldi.

Brandt hukumati SSSR, Polsha va Chexoslovakiya bilan keng muzokoralar olib bordi. Bu muzokoralar "Sharqiy shartnomalar" (2 avgust 1970 yildagi Moskva shartnomasi, 1970 yil 7 dekabrda Varshava shartnomasi, 11 dekabr 1973 yildagi Praga shartnomasi)ning imzolanishi bilan yakunlandi. Bu shartnomalar ishtirokchilari urushdan keyingi chegaralarning daxlsizligini (jumladan, Oder-Neyse bo'yicha chegaralarning ham) e'tirof etishar hududiy da'vogarlikdan va xalqaro munosabatlarda kuch ishlatishdan voz kechishlarini tasdiqlashdi.

1971 yil noyabrda G'arbiy Berlin bo'yicha, AQSH, Fransiya, Buyuk Britaniya va SSSR o'rtasida to'rt tomonlama kelishuv imzolandi. U 1972 yildan kuchga kirdi va G'arbiy Berlin masalasini hal qilishda kuch ishlatishdan voz kechishni ko'zda tutar va urushdan keyin tuzilgan shartnomalar asosida belgilangan huquq va majburiyatlarni tasdiqlardi. Kelishuvda tasdiqlanishicha, G'arbiy Berlin GFR hududining bir qismi hisoblanmas edi, fuqarolarning Tranzit bo'yicha harakatlanishi, transport, telefon va telegraf aloqalari va hokazo masalalar bo'yicha GDR, G'arbiy Berlin va GFRning mutasaddi organlari o'rtasida uch tomonlama munosabatlar mexanizmi belgilangan edi. Ammo G'arbiy Berlinda GFR tomonidan tuzilgan xalqaro kelishuvlar va shartnomalar amal qilar edi. GFR G'arbiy Berlin shahri xavfsizligi va mavqeiga bog'liq bo'lmagan masalalar bo'yicha G'arbiy Berlin fuqarolari manfaatlarini himoya

qiluvchi vakolat huquqiga ega bo'ldi. Boshqa hollarda G'arbiy Berlin nomidan xalqaro miqyosda AQSH, Buyuk Britaniya va Fransiya ish yuritishi mumkin edi.

G'arbiy Berlin mavqei bo'yicha murosali kelishuvning imzolanishi GDR va GFR o'rtasidagi munosabatlar asoslari bo'yicha Shartnoma imzolashga turtki bo'ldi (1972 yil 21 dekabrda) GDR Bonn hukumati tomonidan suveren mustaqil davlat deb tan olindi. Ikkala tomon yaxshi qo'shnihilik munosabatlarini rivojlantirish, suverenitet, chegaralar daxlsizligi va diskriminatsiya (kamsitish)ga yo'l qo'ymaslik tamoyillariga ko'ra amal qilmoqchi ekanliklarini ta'kidlashdi. Shartnomada ko'rsatilishicha hech bir nemis davlati ikkinchisi nomidan xalqaro sohada ish yurita olmaydi. Diplomatik vakolatlar bilan almashindi. Tezda GDR va GFRning BMTga a'zo bo'lishilari bo'lib o'tdi.

Brandtning tashqi siyosati muxolifotning jon-jahdi bilan hukumatni iste'foga chiqish uchun harakat qilishiga sabab bo'ldi. Birinchi xujum 1972 yil 27 aprelda bo'lib o'tdi, unda XDIG'XSI deputatlari Bundestagga Brandtga rasmiy ishonchsizlik bildirishdi va kansler lavozimiga xristian demokratlarning yangi rahbari Rayner Barselni taklif etishdi. Ammo muxolifot g'alaba qozonishi uchun ikkita ovoz yetmas edi. Bir kundan keyin budjet loyihasini ovozga qo'yish jarayonida ovozlar tengligi (247:247) kuzatildi. Bunday vaziyatda Brandt o'zining parlamentni tarqatib yuborish huquqidan foydalandi. Yangi saylovlar 1972 yil 19 noyabrda ro'y berdi va hukmron koalitsiyaning ishonchli g'alabasi bilan yakunlandi. GSDPni saylovchilarning 45,8%i qo'llab-quvvatladi va bu ularga 230 ta mandat taqdim etdi. 8,4% ovoz va 41 mandatga ega bo'lgan erkin demokratlar o'z mavqelarini ancha mustahkamlab oldilar. XDI 35,2% ovoz va 177 mandat, XSI esa 3,7% ovoz va 48 mandatga ega bo'ldi.

Hukmron koalitsiya nufuziga ta'sir qila olmagan muxolifot shaxsan kanslarga qarshi shov-shuvli ayblovlarni kompaniyasini boshlab yubordi. Brandt tarjimai holidagi turli faktlar uning obro'sizlangan davlat va jamoat arboblari bilan bo'lgan o'tmishdagi aloqalari muhokama qilindi. Hukumatning iqtisodiy siyosatda yo'l qo'ygan haqqoniy xatolari ham muhokama qilinardi. Muammoning yechimi kansler referenti M.Giyomning GDR maxsus xizmatlari agenti ekanligi fosh qilinganda ro'y berdi. Tergov davomida shaxsiy xarakterga ega shov-shuv (sharmandalik) oshkor bo'ldi ma'lum bo'lishicha Norvegiyaga bo'lgan rasmiy safar davomida Giyom Brandtning qizlar bilan uchrashuvini tashkil qilgan ekan. 1974 yil 5 mayda Brandt iste'fo berdi. Uning joyini Gelmut Shmidt egalladi. EDPning rahbari ham o'zgardi. SHeyelning prezidentlikka saylanishidan so'ng partiya rahbari Gans Ditrix Gensher bo'ldi. Hukumatda Gensher vitse-kansler va tashqi ishlar vaziri lavozimlarini egalladi. Sotsial-liberal koalitsiyaning siyosiy rahbariyati yanada mo'tadil va pragmatik xarakterga ega bo'ldi. "Temir kansler" laqabini olgan Shmidtning qattiq, jiddiy, ratsional rahbarlik uslubi islohotchilik romantizmi davrini yakunladi.

Shmidt hukumatiga nihoyatda murakkab iqtisodiy vaziyatda amal qilishga to'g'ri keldi. 1974 yildan boshlab G'arbnining yetakchi mamlakatlarida takror ishlab chiqarish davriy inqirozi boshlandiki, bu ishlab chiqarishning industrial modelini qayta qurish uzoq muddatli jarayonini boshlab yubordi. 1974 yilda GDRda YAIM 4%ga, sanoat ishlab chiqarish darajasi 7,5%ga pasaydi. Ishsizlik 1,2 million kishidan oshdi, ammo 1975 yildan vaziyat barqarorlashdi, 1977 yilga kelib GFR iqtisodiyoti inqirozdan oldingi darajadan oshdi. Umuman inqiroz yillarida GFR G'arbnining boshqa yetakchi mamlakatlariga nisbatan kamroq zarar ko'rdi. Bunga ham G'arbiy Germaniya iqtisodiyotining samaradorligi ham hukumatning muvaffaqiyatli harakatlari sabab bo'ldi.

Shmidtning inqirozga qarshi dasturining asosini sanoatni strukturaviy yangilash, mehnat munosabatlarini yaxshilash, moliya tizimini mustahkamlash bo'yicha choralar tashkil etdi. Hukumat davlat tomonidan rejalashtirishning keng amaliyoti va to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqarishga mablag' qo'yishdan voz kechdi. Asosiy e'tibor erkin tadbirkorlikni rag'batlantirishga qaratildi (80-yillarning boshlariga kelib soliqqa tortish umumiy darajasi chorakka kamaydi). Kichik va o'rta biznesni kredit orqali qo'llab-quvvatlashga e'tibor berildi. 70-yillarning o'rtalarida FRGda 1,9 millionga yaqin kichik tadbirkorlar mavjud bo'lib, hukumat siyosati tufayli inqiroz yillarida ham hattoki o'sa bordi. Kichik biznes sohasida bu yillar davomida veneur kompaniyalar qatlami shakllana boshladi. Ular ko'pgina eng yangi texnologik

loyihalarni tayyorlashni o'z zimmlariga olishgan edi. Hukumat bunday kompaniyalarning ilmiy-tadqiqot tayyorlashda faol homiylik qilib, ularning davlat ilmiy-tadqiqot idoralari bilan aloqasini rag'batlantirmoqda edi. NIOKR (?) doirasida hukumat mikroprotessor texnikasi, kommunikatsiya tizimlari, energiyani tejash texnologiyalariga e'tibor berdi. Tuzilmaviy siyosatning yana bir yangiligi sanoat ishlab chiqarishning bir qismini, asosan, rentabelligi past yoki ekologik jihatdan xatarli bo'lgan korxonalarni hamda konveyerli terish korxonalarini xorijga ko'chirib ketishni rag'batlantirishdan iborat bo'ldi.

Mehnat munosabatlari tizimini tartibga solish uchun Shmidt hukumati kasaba uyushmalarni jamoaviy shartnomalar tuzish amaliyotidan voz kechishga chaqirdi. 1976 yilda "Ishchilarning sanoat korxonalarini boshqarishda ishtiroki to'g'risidagi qonun"ning qabul qilinishidan keyin kasaba uyushmalari korxonalarning nazorat kengashlari faoliyatiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatish imkoniyatidan mahrum bo'lishdi.

80-yillarning boshlarida yangi takror ishlab chiqarishning davriy inqirozi davrida bir necha o'ziga xos qadamlar amalga oshirildi. 1980 yilda ishbilarmonlar guruhiy ishdan ozod etish huquqiga ega bo'ldilar. 1982 yilning boshida ishchi kuchni ratifikatsiya qilishning yangi tartibi joriy etildi - oyligi farqlanuvchi va qattiq imtihon qoidalariga ega bo'lgan beshta malakaviy kategoriya (toifa)lar tashkil qilindi. Hukumat ishsizlarni ish bilan ta'minlash tizimini yaxshilashga harakat qildi, ammo ishmizlik nafaqasini oshirishdan voz kechdi. Bu yillarda ishsizlik darajasi ishga yaroqli aholining 4-4,5%ini (1 million kishi) tashkil etdi. Bu ko'rsatkich G'arbning boshqa yetakchi mamlakatlariga nisbatan ancha past edi.

Shmidt hukumati inflyatsiya o'sishini to'xtatishga urinib ko'rdi va budjet tanqisligidan siyosiy qurol sifatida foydalanishdan voz kechdi. 1975 yilda "budjet tizimini yaxshilash" to'g'risida qonun qabul qilindi. Unga ko'ra ijtimoiy dasturlarga ajratilgan xarajatlar nihoyatda qisqartirildi. Nafaqa va sug'urta fondlarini moliyalashda jismoniy shaxslarning ulushi nihoyatda kuchaydi. Inqirozdan chiqqandan so'ng kredit-pul siyosati biroz yumshadi. 1977 yilda "Kelajakdagi investitsiyalar dasturi" qabul qilindi, unda davlat xarajatlarini bandlik muammosini hal qilish, shahar qurilishi, ijtimoiy infra strukturani rivojlantirish, atrof-muhitni himoya qilishga yo'naltirilgan edi. ammo moliyaviy tizimning barqarorligi hukumat siyosatining eng ustuvor yo'nalishi bo'lib qoldi. 70-yillarning ikkinchi yarmida oltin-valyuta zahiralarini jamlashga qaratilgan tadbirlar amalga oshirildi. Ularning umumiy o'sishi 40 milliard markani tashkil etdi. AQSH dollariga nisbatan marka kursi 1972-1979 yillarda 85%ga, fransuz frankiga nisbatan - 48% ga, funt sterlingga nisbatan - 98% ga oshdi. Marka xalqaro hisob-kitoblarning keng tarqalgan vositasiga aylandi va turli mamlakatlarning valyuta zahiralaridan joy oldi.

Iqtisodiyotning ustunligi Shmidt hukumatining tashqi siyosatini ham ko'p jihatdan belgilardi. Fransiya prezidenti Jiskar d Esten bilan birgalikda Shmidt Yevropa integratsiya jarayonini rivojlantirishda katta shaxsiy hissa qo'shdi. Ularning harakatlari natijasi Yevropa moliya tizimini shakllantirish va hisob-kitob uchun EKYU pul birligini joriy etish, Yevropada tartibga solingan valyuta kurslari tizimini (YEIH "valyuta iloni") shakllantirishdan iborat bo'ldi. Fransiya bilan yaqinlashgan Shmidt Buyuk Britaniyaning Hamjamiyatlar budjetini moliyalash tartibini va YEIH qishloq xo'jaligi siyosatini o'zgartirish to'g'risidagi da'volariga nisbatan murosasiz mavqeini egalladi. O'sha yillardagi Fransiya -G'arbiy Germaniya hamkorligi natijasi hamjamiyatlarning davlatlararo organlarini mustahkamlash, jumladan, Yevroparlamentga to'g'ridan-to'g'ri saylovni joriy etish, Yevropa Kengashi vakolatlarini kengaytirishdan iborat bo'ldi. Shmidt Bonilyuke mamlakatlarning Yevropa ittifoqi loyihasini ishlab chiqish bo'yicha tashabbusini ("Gendemans rejasi") qo'llab-quvvatladi. GFR tashqi ishlar vaziri Geniyer o'zining italiyalik kasbdoshi Kolombo bilan birgalikda 1981 yilda Yevropa hamjamiyatlari huquqiy bazasini birlashtirish va integratsiya jarayonining yangi yo'nalishlarini ishlab chiqishga qaratilgan qo'shma "Yevropa Akti" loyihasini taqdim etishdi. "Geniyer-Kolombo rejasi"ni amalga oshirish 1983 yildan boshlandi.

Global dunyoviy siyosat masalalarida Shmidt hukumati "suvozanat strategiyasi" ga amal qilishga harakat qildi. 1975 yilda GFR Yevropada xavfsizlik va hamkorlik bo'yicha Xelsinki yig'ilishi qarorlariga qo'shildi. 1978 yilda Bonnga L.Brejnev tashrif buyurdi, ikki yildan so'ng

bo'lib o'tgan GFR hukumat delegatsiyasining Moskvaga javob tashrifida esa ikkala mamlakat o'rtasida ilk bor hamkorlik to'g'risida uzoq muddatli shartnoma imzolandi. Ammo Shmidt bir vaqtning o'zida AQSH bilan ham yaqinlashishga harakat qildi. Bu borada burilish yasagan voqea 1974 yilda NATOning Bryusseldagi sessiya tomonidan blok doirasida yanada teng huquqli sherik bo'lishga erishishni ko'zda tutgan Atlantik munosabatlar to'g'risida yangi Deklaratsiyaning qabul qilinishi bo'ldi. 1976 yilda GFR o'z hududi joylashgan AQSH harbiy qismlarini ta'minlash uchun to'lovlar berishni to'xtatishga erishdi. O'sha yili aynan GFR nafaqat yadro qurolini NATOga a'zo Yevropa mamlakatlari hududiga joylashtirish, balki ularni yadro qurolini qo'llash strategiyasini ishlab chiqishga, raketa qo'shinlarini boshqarishga jalb qilishni ko'zda tutgan NATOning "yuqori darajali mudofaa" konsepsiyasining qabul qilinishi tashabbuskorlariga aylandi.

Sharqiy Yevropa mamlakatlari hududida SS-20 sovet raketalarining joylashtirilishidan so'ng GFR NATOning yadro qurollarini yangilashni qo'llab-quvvatlashda faol ishtirok etdi. Ammo natija G'arbiy Germaniya diplomatiya kutganidan ham yuqori bo'ldi. AQSH G'arbiy Yevropada o'rta va kichik masofali raketalarining yangi sinfini joylashtirishni talab qila boshladi. Mos qaror NATOning 1979 yildagi Bryussel sessiyasida qabul qilindi. G'arbiy Germaniya hududida 108 ta "Pershing-2" va 96 qanotli raketalarni joylashtirish ko'zda tutilgan edi. Shmidt faqatgina "Ikki yuzlama qaror"da turib oldi xolos, ya'ni raketalar SSSR bilan qurolsizlanish bo'yicha muzokoralarni davom ettirish sharti bilan joylashtirilishi mumkin. Tez orada xalqaro vaziyat yana keskinlasha boshladi. GFR NATOdagi sheriklari bilan birgalikda SSSRni Afg'onistonga intervensiyasini (agressiyasini) keskin qaroladi. Nemis sportchilariga Moskvada bo'lib o'tgan 1980 yil olimpiadasiga qatnashmaslikka ko'rsatma berildi. Ammo, bu Shmidtning o'ziga 1980 yilning yozida Moskva tashrif buyurib xalqaro xavfsizlik bo'yicha muzokoralarni boshlash uchun vositachi rolini bajarishga harakat qilishga halaqit bermadi. G'arbiy Germaniya diplomatiyasi 1981 yil Jenevada boshlangan Sovet-Amerika muzokoralarini qo'llab-quvvatladi va ularning to'xtatilishi munosabati bilan tashvishda ekanligini bildirdi.

Shmidt hukumati butun 70-yillarning ikkinchi yarmi davomida mamlakatda siyosiy barqarorlikni saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi. 1976 va 1980 yillardagi parlament saylovlari sotsial-liberal koalitsiyaning ustunligini yaqqol namoyish etdi. GSDP eng mashhur partiyaligicha qolib, 1976 yilda 42,6% ovoz va 214 mandat, 1980 yilda esa 42,9% ovoz va 218 mandatga ega bo'ldi. Ilgarigidek uning rahbari lavozimida bo'lgan V.Brandt 1976 yilda Sotsialistik internatsional prezidenti bo'ldi. U. Palshe, B.Krayskiy, G.Morug, F.Gonsaleslar bilan birgalikda u sotsial-demokratlar yangi avlodining rahbarlik qiluvchi qanotini tashkil etdi. Bu yillarda GSDPning xalqaro obro'si ancha oshdi, partiyaning o'zida esa fraksilararo kurashlar to'xtadi.

EDPning mavqei yanada mustahkamlandi. Erkin demokratlar 1976 yilda 7,6% ovoz va 39 mandatga, 1980 yilda esa 10,3% ovoz va 52 mandatga ega bo'lishga muvaffaq bo'ldi. ammo partiyada ichki vaziyat keskinlasha bordi. Uning so'l qanoti GSDP bilan ittifoqni faollik bilan himoya qilardi. Ammo Genjer 1977 yilda yangi koalitsion taktikani taklif etdi. Parlamentda sotsial-demokratlar bilan hamkorlikni davom ettirib, bir qator yerlarda landtag saylovlarida XDI bilan koalitsiya tuzib ishtirok etishdi. Bunday siyosat "partiya frontlarini yumshatish" deb nomlandi. Nihoyat, EDPning o'ng qanoti ("iqtisodiy" qanot) X.Frideriks, M.Bongemon va O.Lambedorflar tomonidan boshqarilar va XDIG'XSI bilan koalitsiya bilan butunlay birlashishga chaqirdi. Bu qaror 1981 yilda Kelndagi EDP partiya syezdida ko'pchilik tomonidan ma'qullandi, bu esa hukmron sotsial-liberal koalitsiyani ancha susaytirdi.

XDIG'XSI bloki ilgarigidek parlamentdagi eng yirik fraksiyani tashkil etar, ammo hozircha o'z hukumatini tuzish uchun kurasha olmas edi. Ikkita demokratik xristian partiyalarning o'zaro munosabati ham murakkabligicha qolmoqda edi. 1976 yildagi saylovlarda (o'shanda XDI 38% ovoz va 190 mandat, XSI esa 10,6% ovoz va 53 mandatga ega bo'lgan edi) ushbu koalitsiya o'z tarixida jiddiy inqirozni boshdan kechirayotgan edi. XDIning Gamburgdagi 1973 yil noyabrida bo'lib o'tgan syezdida saylangan yangi rahbar Gelmut Kol partiyaning mafkuraviy poydevorini yangilashni endigina boshlagan edi. XDIning yangilangan konsepsiyasining dastlabki tamoyili 1978 yilda qabul qilingan "Tamoyillar dasturi"da namoyon

bo'ldi. Kol o'z siyosiy harakatining an'anaviy fikrlari va zamonaviy g'oyalar o'rtasida kelishuv o'rnatishga harakat qilardi. Dasturda atlantik yakdillik tamoyili va YEXHK (Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Kengashi) bayrog'i ostida Butun Yevropa xavfsizligini mustahkamlash muhimligini e'tirof etish birlashtirilgan; Germaniya masalasi "ochiq" deb e'lon qilingan, ammo oxirgi paytlarda GFR va GDR o'rtasida tuzilgan barcha bitimlarga rioya qilish zarurligi ta'kidlangan; sotsial bozor xo'jaligi konsepsiyasiga sodiqlik e'lon qilingan, ammo milliy iqtisodiy tizimni yangilash zarurligi isbotlangan edi. Xristian demokrat K.Karstenning 1979 yilda prezident etib saylanishida Kolning qo'llab-quvvatlashi muhim rol uynadi.

XDIdagi chuqur tashkiliy va mafkuraviy qayta qurish F.Y.Shtraus tomonidan butun koalitsiya rahbarligi uchun hal qiluvchi kurashni boshlashiga chaqiriq bo'ldi. 1976 yildagi XSI dasturida xristian demokratiyaning an'anaviy g'oyalariga muhim e'tibor berildi. XSI tartib, barqarorlik, javobgarlik g'oyalariga sodiq bo'lgan "xalq partiyasi" deb e'tirof etildi. Tashqi siyosiy doktrina ilgorigidek ayirmachilik xarakteriga ega bo'lib, xalqaro siyosatda G'arb va Sharqni bir-biriga qarama-qarshi qo'yishga asoslangan edi. Keskin yevropaparastlik Shimoliy Atlantika uyushmasiga sodiqlik bilan birlashgan edi. Koalitsiyaning parchalanish xavfi ostida Shtraus 1979 yil yozida XDIG'XSI nomidan o'z nomzodini kansler lavozimiga ko'rsatdi. Ammo 1980 yildagi saylovlar xristian demokratlarga yana mag'lubiyat keltirdi, bu esa Shtrausning shaxsiy da'volariga ham yakun yasadi. Shu bilan birga XSI o'zining parlamentdagi mavqeini (10,6% ovoz va 53 mandat) saqlagan bo'lsa, XDI bor-yo'g'i 34,2% ovoz va 174 mandatga ega bo'ldi.

GFRdagi 70-yillar oxiridagi ichki siyosiy vaziyatning o'ziga xos xususiyati "parlamentdan tashqari muxolifat"ning faolashidan iboratligicha qoldi. Mamlakatda yadro qurolining joylashtirilishi sabab bo'lgan urushga qarshi harakat tobora keng quloch yozdi. Terrorizm xavfi ham jiddiyligicha qolmoqda edi. RAF ("qizil Armiya Fraksiyasi") va B-2dagi jangarilarning harakati faollashdi. 1974 yilda birinchi o'ng radikal terroristik tashkilot Gofman harbiy-sport guruhi; 1979 yilda esa feministik terroristik guruh "Inqilobiy yacheykalar" paydo bo'ldiki, u erkaklarning ayollar ustidan hukmronligiga qarshi kurashishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

G'arbiy Germaniyadagi "yashillar" harakati tez kuchaya bordi. Bu yo'nalishdagi birinchi partiya 1977 yil may oyida quyi Saksoniyada ta'sis etildi. 1978-1979 yillarda "yashil" partiyalar Bavariya, Bremen, Gamburg, Baden-Vyurmemberg va Gessenda paydo bo'ldi. 1979 yil iyunida G'arbiy Germaniya "yashillari" "maxsus siyosiy uyushma -yashillar" ittifoqini tuzib, Yevropa parlamentiga saylovlarda yagona nomzodlarni ko'rsatishdi (va 3,2% ovozga ega bo'lishdi). 1980 yilning yanvar oyida Karlsrueda "yashil federal partiyasining ta'sis syezdi (qurultoyi) bo'lib o'tdi.

Uning maqsadi iqtisodiy o'sishga ko'proq e'tibor berish, hayotning ekologik, ijtimoiy va demokratik ehtiyojlardan ustunlik qiluvchi ijtimoiy sharoitni bartaraf etishdan iborat deb e'lon qilishdi. "Daromad iqtisodiyoti", "industrial jamiyat"ni tanqid ostiga olgan "yashillar" ishlab chiqarishni markazdan tarqatish (detsentralizatsiya), korxonalarda mustaqil boshqaruvni joriy etish, to'liq bandlikni ta'minlash, erkak va ayollarning teng huquqligi, GFRda yashovchi nemislar va xorijiytlarning teng huquqligi, ta'lim tizimini demokratiyalashtirish uchun kurashishdi. Ekologik muammolarni hal qilish zarurligiga asosiy e'tibor qaratildi. Parlament uchun kurashga kirishgan "yashillar" davlat apparatini demokratiyalashtirish va mahalliy o'z-o'zini boshqarish huquqlarini kengaytirish uchun kurashishdi. Partiya faoliyatining eng muhim tamoyili kuch ishlatishdan voz kechish bo'ldi. "Yashillar" xalqaro siyosatda kuch ishlatishga, yadro qurollari poygasiga qarshi chiqib, harbiy bloklarni yo'q qilishni yoqlab chiqishdi. 1980 yilda "yashillar" ilk bor parlament saylovlarida qatnashishdi, ammo avvaliga kichik natijalarga erishishdi va hatto parchalanish yoqasiga kelib qolishdi. 1980 yil oktabrida partiya tarkibidan G.Grulning o'ng guruhi ajralib chiqdi.

Siyosiy vaziyat sotsial-liberal koalitsiyaning saqlanib qolishiga imkon berdi. Ammo 1980-1982 yillarda hukumat ahvoli tez yomonlasha boshladi. G'arbnining barcha yetakchi mamlakatlariga zarar keltirgan davriy takror ishlab chiqarish inqirozi ro'y berdi. GFRda uning

miqyosi, 1974-1975 yillardagiga nisbatan ham ancha katta edi. Ishsizlik ancha oshib, yollanma ishchilarning 9% (2,5 mln. kishi)ni tashkil etdi. Budjet tanqisligi ikki baravar oshdi. Urushdan keyingi davrda birinchi marta G'arbiy Germaniyada sanoat va moliya korxonalarining kasodga uchrashi (bankrot) ro'y berdi. Hukumatning qattiqqo'l inqiroza qarshi choralarni ko'rishi koalitsiyada va eng avvalo EDP saflarida parchalanishga olib keldi. Ko'pgina sotsial-demokratlar va EDPdagi so'l guruhlar davlatning ijtimoiy ta'minot tizimiga barham berishi va hukumatning monetar siyosatga o'tishidan norozi edilar. EDPning o'ng qanoti, aksincha, bu siyosatni ma'qullar edi, ammo uni amalga oshirish uchun javobgarlikni erkin demokratlar va XDIG'XSI bloki olishi kerak deb hisoblardi.

1982 yil aprelida bo'lib o'tgan GSDP syezdi Shmidt o'z partiyasining qo'llab-quvvatlashidan mahrum bo'lganligini namoyish etdi. Syezd delegatlarining so'l ko'pchiligi bandlikni oshirish, davlat sanoat investitsiyalarini oshirish, ishbilarmonlarning soliq imtiyozlarini qisqartirish bo'yicha keng dasturlarni amalga oshirishni talab qilardi. Yechish 1982 yil iyulida yangi yil budjeti muhokama qilinyotganda qo'lga kiritildi. EDPning "iqtisodiy" guruhi budjetning barcha xarajatlarini 5-10%ga qisqartirish, ishsizlik uchun nafaqa to'lash muddatini qisqartirish, nafaqa fondini moliyalashda davlat ulushini kamaytirish, uy-joy to'lovi darajasini tartibga solishdan voz kechish, stipendiyalardan qisman o'qish uchun kredit berishga o'tishni ko'zda tutgan o'z inqirozga chiqish loyihasini taqdim etdi. GSDP rahbariyati bu loyihaga salbiy munosabatda bo'lganligi sababli hukumat falajlanib qoldi. Shmidtning murosaga kelishga urinishlari zoye ketdi. 1982 yil sentabrda EDP sotsial-demokratlardan ajralishini ma'lum qildi, 1 oktabrda esa parlamentda ovoz berish paytida Shmidtga ishonchsizlik bildirishnomasini qo'llab-quvvatladi. Yangi kansler XDI rahbari Gelmut Kol bo'ldi.

GDRda sotsializm qurilishi

Germaniya Demokratik Respublikasi konstitutsiyasi 1949 yil may oyida NXK (Nemis Xalq Kongressi) tomonidan tasdiqlandi va 7 oktabrda muvaqqat Xalq palatasi tashkil qilingandan keyin kuchga kirdi. 10 oktabrda GSHM SNK (Sovet Nazorat Komissiyasi)ga aylantirildi. 11 oktabrda V.Pik respublika prezidenti etib saylandi, 12 oktabrda esa Xalq palatasi O.Grotevan rahbarligidagi GDR hukumati tarkibini tasdiqladi. 1949 yil 15 oktabrida GDR va SSSR o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatildi.

1949 yil konstitutsiyasi Sharqiy Germaniyada "proletariat diktaturasi davlati" tashkil qilinganligi e'tirof etdi, ammo shu bilan birgalikda xalq hokimiyati, davlatning demokratik tuzumi, davlatning antifashistik xarakteri kabi konstitutsion tamoyillarni ham o'z ichiga olgan edi. Konstitutsiyada rasman demokratik huquq va erkinliklarni, jumladan, so'z, uyushmalarga birlashish, matbuot erkinligi, nikoh va oilani, hamda kichik millatlar huquqini himoya qilish bo'yicha davlat javobgarligi belgilab qo'yilgan edi. Ijtimoiy manfaat uchun cheklash imkoniyati bilan mulkka egalik qilish huquqi ham e'tirof etildi.

GDRda ko'p partiyaviy tizim saqlanib qoldi, ammo u o'ziga ko'rinishga ega edi. Barcha qonuniy partiyalar (GYASP, Milliy demokratik partiya, Dehqonlar demokratik partiyasi, GLDP, XDI) Milliy frontga birlashtirildi. Xalq palatasiga saylov o'tkazish uchun Milliy front barcha partiyalarining yagona ro'yxati belgilanib, unda o'rinlar (ovozlar) oldindan belgilab qo'yilar edi (GYASP uchun 117 mandat, 52 mandat boshqa partiyalar uchun). Saylovlar natijasi oldindan ma'lum edi. Rasmiy statistikaga ko'ra saylovchilarning qatnovi ham oldindan belgilangan ro'yxatni ma'qullaganlar soni ham doim deyarli 100% bo'lib chiqardi.

To'g'ridan-to'g'ri umumiy saylovlar orqali saylanadigan Xalq palatasi 1949 yil konstitutsiyasiga ko'ra oliy hukumat organi edi. Avvaliga yerlarning proporsional hukumat asosida parlament yuqori palatasi - Yerlar palatasi ham tuzilgan edi. Ammo 1952 yildagi G'arbiy Germaniyaning ilgarigi beshta Yerga bo'linishiga barham bergan ma'muriy islohotdan keyin uning mavjudligi ortiqcha bo'lib qoldi. 1958 yilda Yerlar palatasi butunlay yo'q qilindi va GDR parlamenti bir palatali bo'lib qoldi. 1960 yilda prezidentlik lavozimi ham bekor qilindi. 1949 yildan 1960 yilgacha vafot etganicha bu lavozimni V.Pik egallagan edi. Keyinchalik, davlat rahbari vazifasini Kollegial (hamkorlik) asosida bajaruvchi organ - Davlat Kengashi tuzildi. Ijro

etuvchi hokimiyat xujjatga Vazirlar Kengashiga tegishli bo'lib, u ham Davlat Kengashi kabi Xalq majlisi tomonidan saylanar edi.

Sharqiy Germaniya davlat tuzumining shakllanishida GYASPning 1950 yil iyulida bo'lib o'tgan 111-syezdi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Unda GYASP Mq (Markaziy qo'mita) bosh kotibi etib V.Ulbricht saylangan edi. SSSRning ijtimoiy va iqtisodiy tajribasidan nusxa olish, GYASPning "yangi tur partiyasi"ga aylanishi, ijtimoiy hayotning barcha sohalarining partiya tomonidan nazorat qilinishi boshlanib ketdi. Shu narsa ahamiyatlilik, aynan partiya syezdi 1950 yilda xalq xo'jaligini tiklash ikki yillik rejasini bajarilishi natijalarini muhokama qildi va rivojlanishning birinchi besh yillik rejasini ishlab chiqdi. GYASP va VKP (b) bo'lgan siyosiy hayot tarzi xos bo'la bordi. Dunyoning imperiazizm "josus va agentlar"ga, trotskiychilikka, Titochilikka qarshi kurash boshlandi. O'sha 1950 yilda hamma narsaga qodir bo'lgan GDR davlat xavfsizligi vazirligi (- davlat xavfsizligi, "Shtazi") tashkil qilindi.

Tashkil qilinganidan boshlab GDR sovet bloki doirasida imtiyozli mavqega ega bo'ldi. Bu ikkala nemis davlati o'rtasidagi munosabatlaridan o'zaro bellashuv ruhi bilan bog'liq edi. GDRning muvaffaqiyatlari sotsialistik tuzumning afzalligi isboti deb qaralardi. GDRda amalga oshirilayotgan o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlash uchun sovet hukumati 1950 yilda reparatsiya (tovon) to'lovlarini ikki marta qisqartirdi, xom-ashyo va texnika tashib kelish hajmini oshirib borardi. Urushdan keyingi yillarda yaratilgan ko'pgina sovet hissadorlik korxonalari GDRning davlat sektoriga topshirildi. 1950 yil oktabrida Pragada bo'lib o'tgan 8 ta Sharqiy Yevropa mamlakatlari konferensiyasida ilk bor "Germaniyaning birlashgan qurolli kuchlarda ishtiroki" to'g'risida so'z bordi.

1952 yilda GDRda sotsialistik tuzum asoslarini yaratish boshlanishi to'g'risida rasman e'lon qilindi. Bu keng ma'muriy islohotga turtki bo'ldi, uning davomida davlat boshqaruvini markazlashtirish darajasi nihoyatda kuchaydi. Politsiyada xodimlar tarkibining siyosiy tozalanishi o'tkazildi. qishloq joylarni majburiy ravishda kooperativlashtirish, sanoatni keng miqyosda davlat tasarrufiga o'tkazish boshlandi. Ammo mamlakat sanoat potensiali (salohiyati)ni tiklashda qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatlar yirik ijtimoiy chegirmalar hisobiga erishilgan edi. Aholining turmush darajasi pastligicha qolaverdi. Individual ishbilarmonlik tashabbusini cheklash, ishchilarga ishlab chiqish normalarini oshirish, soliqlar oshirilishi, diniy-ma'rifatning ta'qib qilinishi va "sotsializm asoslarini qurish"ga xos bo'lgan boshqa jarayonlar xalq uchun juda og'ir edi.

Stalin o'limi GDR rahbariyatiga o'z siyosatiga o'zgarish kiritishga harakat qilishga imkon berdi. 1953 yil 10 iyunda GYASP Mq "yo'l qo'yilgan xatolar"ni tuzatish uchun "yangicha yo'l" tutish to'g'risidagi qarorni bosmadan chiqardi. Dehqonlar va hunarmandlarga nisbatan soliq siyosatini yumshatish bo'yicha choralar amalga oshirildi. Ammo bu 16 iyunda Berlin ishchilarining mehnat normalarini oshirishni bekor qilish uchun chiqishlariga sabab bo'ldi. 17 iyunda bu to'lqin ko'pgina sharqiy Germaniya shaharlarini qamrab oldi. Bu tarqoq harakatning asosiy leytmotivi GYASP siyosatidan norozilik, past turmush darajasi va mamlakat hududi sovet qo'shinlarining mavjudligidan norozilikka asoslangan edi. Bu chiqishlarni bostirish uchun sovet tank qismlari ishga solindi. qurbonlar soni 25 dan 300 tagacha tashkil etdi.

17 iyun voqealari GYASP rahbariyatini islohotlar jarayoniga tuzatishlar kiritishga majbur qildi. SSSRning kreditlari va moddiy yordamidan foydalanib, chakana narxlarni pasaytirish va ishchilar va xodimlar oyligini oshirishga muvaffaq bo'lishdi. Yengil sanoat va uy-joy qurilishga investitsiyalar oshirildi. qishloq xo'jaligi kooperativlariga ixtiyoriy qo'shilish tamoyili izchillik bilan amalga oshirildi. Mayda buyumlar xususiy ishlab chiqarishida sezilarli "erkinlashtirish" ro'y berdi. 3 mingdan ortiq musodara qilingan xususiy do'konlar o'z egalari qaytarildi. Keyinchalik, shu bilan GDRda iqtisodiy tizimni butunlay davlat tasarrufiga o'tkazish ro'y bermadi, ammo umumxalq mulki va xalq xo'jaligi rivojlanishining rejaviyligi shubha ostiga olinmas edi. 1953 yil inqirozining siyosiy natijasi GYASP ortodoks qanoti mavqeining kuchayishi bo'ldi. Ulbricht guruhi ijtimoiy-iqtisodiy sohada radikal o'zgarishlardan voz kechib, mavjud vaziyatdan partiyaning islohotchi qanotini obro'sizlantirish uchun foydalandi.

GDR rahbariyati umumiy Germaniya muammosini hal qilish masalasiga nisbatan ham o'ta murosasiz mavqeni egalladi (G'arbda bu siyosat "Ulbrixt doktrinasini" deb nomlandi). Umumiy bitim (1954 yil 26 mayda) imzolanishi paytida GDR hukumati GFR bilan chegara bo'ylab "taqiqlangan dona" yaratishini e'lon qildi. U tikonli sim, post, patrul va hokazolar bilan jihozlangan mustahkam mintaqa qo'rinishiga ega bo'ldi. Germaniya muammosida SSSR va G'arb mamlakatlari o'rtasidagi 1953-1955 yillardagi muzokoralarning muvaffaqiyatsizlikka uchrashi GDRning butunlay Sovet blokiga qo'shilishi uchun qulaylik yaratdi. 1954 yilda SSSR reparaatsiyaning qolgan qismini olishdan voz kechdi va GDRga o'ziga qarashli Sharqiy Germaniya hududidagi sanoat korxonalarini topshirdi. GDRga iqtisodiy dasturlarni amalga oshirish uchun qo'shimcha kreditlar berildi va hududidagi sovet harbiy tarkiblarini ta'minlash uchun beriladigan to'lovlarini qisqartirildi. 1954 yil mart oyida SSSR va GDR o'rtasida GDRga to'liq davlat suverenitetini berish to'g'risida bitim tuzildi. SSSR faqatgina GDR xavfsizligi va to'rt mamlakat kelishuvlarida ko'zda tutilgan tashqi siyosatini nazorat qilish majburiyatini oldi. 1955 yilda GDR OVD (VSHT) a'zosi bo'ldi.

50-yillar oxiridan GDR atrofidagi siyosiy vaziyat yanada keskinlashdi. 1958 yil 10 noyabrda Sovet-Polsha do'stligi mitingidagi nutqida Xrushchev "Berlindagi okkupatsion rejim qoldiqlari"dan voz kechish maqsadga muvofiqligi to'g'risida bayonot berdi. AQSH, Buyuk Britaniya va Fransiya hamda GDR va GFRga 27 noyabrda yuborilgan xatda G'arbiy Berlinni "harbiysizlantirilgan erkin shahar"ga aylantirish to'g'risida taklif kiritilgan edi. SSSR G'arbiy Berlin va GFR o'rtasidagi transport harakati tartibini qayta ko'rib chiqishini ma'lum qildi. To'rt mamlakat tashqi ishlar vazirlarining bu masala bo'yicha Jeneva yig'ilishi natijasiz yakunlandi. Amerikaning U-2 (?) -si bilan bo'lib o'tgan voqea, Parijdagi oliy martabali uchrashuvning muvaffaqiyatsizlikka uchrashi, 1961 yil iyunidagi Xrushchev va AQShning yangi prezidenti Kennedi o'rtasidagi muvaffaqiyatsiz muzokoralardan so'ng GDR atrofidagi vaziyat nihoyatda keskin bo'lib qoldi.

1961 yil yozidan boshlab GDRdan Berlindagi ochiq chegara orqali aholining G'arbgacha ko'chishi boshlandi. Agar 1959 yilda GDRni 144 ming kishi, 1960 yilda 203 ming kishi tark etgan bo'lsa, 1961 yilning faqatgina iyul oyida GFRga 30 ming kishi, avgust oyining birinchi va ikkinchi haftasida 48 ming kishi qochib o'tdi. 1961 yilning 13 dan 14 avgustga o'tar kechasi Berlining g'arbiy va sharqiy sektorini ajratib turuvchi devor qad rostladi. Bu choralarni GDR hukumati davlat chegarasini mustahkamlash va "g'arb agentlari" harakatlariga barham berish uchun qo'llanilgan choralar deb sharhladi. Berlin devori Yevropani ikki qarama-qarshi lagerga bo'lgan "temir parda" ramziga aylandi.

60-yillarda GDRning taraqqiyoti Vengriya va Chexoslovakiyadagi jarayonlarga o'xshash edi. 1963 yilda GYASP ning U1 syezdi partiya dasturini qabul qildi. Unda GDRning sotsialistik taraqqiyot bosqichi boshlanganligi e'lon qilindi, mehnat unumdorligi va xalq xo'jaligi kompleksi samaradorligini oshirish fuqarolar o'rtasida "sotsialistik munosabatlar" o'rnatilishi, Germaniyaning milliy birligini tiklash vazifalari qo'yildi. 1963 yildan "sotsialistik bozor" modelini yaratishga qaratilgan iqtisodiy islohotni amalga oshirish boshlandi. Sanoat mahsulotlariga davlat dotatsiyalari berish qisqartirildi. Xalq korxonalari xo'jalik hisobiga o'tkazildi, ularning ishlab chiqarishdagi mustaqilligi oshirildi. GDR taraqqiyotning yuqori sur'atlariga erishdi va sotsialistik hamdo'stlikning yetakchi mamlakatlaridan biriga aylandi. SSSRdagi yangi mavkurafiy to'lqinlari qo'llab-quvvatlagan Ulbrixt sotsializmni marksistik-lenincha kommunistik jamiyatga o'tish davri deb ta'riflanishidan farqli o'laroq "nisbatan mustaqil formatsiya" deb qaray boshladi. Bu asosda GDR rahbariyati "sotsialistik hamdo'stlik"da o'z mavqeini o'zgartirishga intilar edi. SSSR tomonidan faqatgina sotsialistik taraqqiyotning ilk bosqichlarida bo'lgan mamlakatlarga nisbatan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan ortiqcha siyosiy va mafkuraviy boshqaruvdan voz kechish zarurligi to'g'risidagi fikr o'rtaq tashlandi. GYASPning 1967 yildagi U11 syezdining "rivojlangan sotsialistik ijtimoiy tuzum"ni yaratish to'g'risidagi qarori aynan shunday mazmunga ega edi. 1968 yilda qabul qilingan yangi konstitutsiya GDRni "nemis millatining sotsialistik davlati" deb e'lon qildi. Ilgarigi davlat tuzumini saqlab qolgan 1968 yil konstitutsiyasi GYASP rolini yanada aniqroq

belgilab qo'ydi. Ulbrixt va uning tarafdorlari partiya yetakchi mafkuraviy-siyosiy kuch bo'lishi, ammo ma'muriy boshqaruv Davlat Kengashi tasarrufida bo'lishi kerak, deb hisoblashardi. GYASP rahbariyatida bu davr ichida apparat (boshqaruv) xodimlari ta'siri ancha kamayib texnokratlar, professional iqtisodchilar vakillari ko'paydi. Shu bilan birga hech qanday tub siyosiy islohot haqida so'z bormas edi. GDR rahbariyatining 1968 yildagi "Praga bahori" voqealariga munosabati namoyishkorona edi. Ulbrixt OVD (VSHT) mamlakatlarining Chexoslovakiyaga nisbatan qattiqqo'lligini qo'llab-quvvatladi hamda Sharqiy Germaniyaning harbiy tarkibi harbiy operatsiyada ishtirok etdi.

1971 yil bahorida Ulbrixt "o'z iltimosiga ko'ra" GYASP Mq birinchi kotibi vazifasidan ozod qilinib, partiyaning faxriy rahbariyaga aylandi. GDRning yangi rahbariyati Erix Xonekkyor rahbarligida SSSRga nisbatan har qanday FRONDERSTVO (asosiy shartlarga rozi bo'lib, ba'zi xususiy hollarga qarshilik qilish)dan voz kechdi. Faol iqtisodiy va siyosatni saqlab qolish bilan birgalikda jamiyat ustidan mafkuraviy nazorat kuchaytirildi. GYASP saflarida birlikni mustahkamlagan va nokommunistik partiyalarga tazyiqni kuchaytirgan E.Xonekker turmush darajasini ko'tarish orqali jamiyatda ijtimoiy tinchlikka erishishga harakat qilardi. 70-yillarda Gdrda narxlar barqaror saqlanishi sharoitida davriy ravishda oylik maoshi va nafaqa to'lovlari oshirib borildi. Dunyodagi noqulay iqtisodiy vaziyatga qaramasdan 70-yillarning birinchi yarmida milliy daromad uchdan birga kuchaydi.

Xonekker rejimi Umumiy Germaniya masalasiga munosabatni tubdan o'zgartirdi. 1971-1972 yillarda G'arbiy Berlin masalasida ikkita Germaniya davlatlari o'rtasidagi munosabatlarda oldingi siljish ro'y berdi. Ammo bu yangiliklarni qo'llab-quvvatlagan Xonekker "alohidalashish" (ajralish, ayrilish, uzoqlashish, to'siq yaratish) siyosatini qo'lga oldi. Sotsialistik nemis millatining konsepsiyasi rasman qabul qilindi. GDR konstitutsiyasining yangi tahriridan (1974 y) Germaniyani birlashishiga erishish davlat siyosatining asosiy maqsadi tomonini e'tirof etuvchi band olib tashlandi. Uning joyiga yangi satrlar kiritilib, ularga ko'ra GDR - "sotsialistik hamdo'stlikning ajralmas qismidir" va SSSR bilan ittifoqchilik munosabatlari "abadiy va daxlsiz" ekanligi bayon qilindi. Muassasa va tashkilotlar nomidan "Germaniya" va "germaniyaning" so'zlari olib tashlash bo'yicha keng ishlar amalga oshirildi. Sotsialistik turmush tarzini ommaviy targ'ibot qilish, jumladan mashhur Sharqiy Germaniya "sport mashinasi"ni yaratish hisobiga tashviqot qilish amalga oshirildi. Ikki nemis davlati fuqarolari o'rtasidagi aloqalar cheklab qo'yildi. GFR bilan chegaralar bo'ylab, kesib o'tuvchilarni otib tashlash hollari tez-tez ro'y berib turdi. GYASP a'zolariga norasmiy "g'arb bilan aloqalar"ni saqlab turish taqiqlandi. GDRdagi qarindoshlaridan xabar olmoqchi bo'lgan GFR va G'arbi Berlin fuqarolari juda noqulay kurs bo'yicha GDRda bo'lish muddatiga proporsional (mutanosib) bo'lgan doychmarkalarning ma'lum miqdorini almashtirishga majbur bo'lishdi. Ammo, "uzoqlashish" siyosati Sharqiy Germaniya rahbariyatiga "mahbuslar bilan savdo-sotiq qilish"ga xalaqit bermadi: ma'lum to'lov evaziga GDRda "davlatga qarshi jinoyat"da ayblangan shaxslar ozod qilinib GFRga jo'natilar edi. Bu amaliyot 60-yillardayoq GFR tashabbusi bilan boshlangan edi, ammo aynan Xonekker hukmronligi davrida nihoyatda kengaydi. 1964-1989 yillarda jami 33 ming kishi o'rtacha "narx"da 95847 doychmarkadan sotildi.

3. "Kol davri": nemis neokonservatizmi (yangi konservatizmi) va Germaniyaning birlashishi.

G.Kol va nemis neokonservatizmi

Hokimiyat tepasiga kelganida Gelmut Kolning obro'si yetarlicha yuqori emas edi. Uning qiyofasi (imiji) o'tgan o'n yilliklar davomida shakllangan G'arbiy Germaniya siyosiy elitasi yetakchilari to'g'risidagi tasavvurlardan keskin farq qilar edi. Bo'yi 193 sm, og'irligi 100 kilogrammdan ancha oshiq bo'lgan og'ir vaznli, ko'ngilchan va mehribon ko'rishuvchi, ammo vaqti-vaqti bilan qat'iyatli va cho'rtkesar bo'ladigan Kol ataylab tushunarli, oddiy, o'z xalqining barcha kamchilik va fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan "oddiy nemis" obrazini yarata bordi. Ammo XDida Kol siyosiy intrigalar, nozik boshqaruv o'yinlari ustasi, kerakli odamlar bilan

“do‘stlasha oluvchi” va sodiq tarafdorlarni qadrlaydigan odam sifatida ma’lum edi. Kol 1930 yilda tug‘ilgan bo‘lib, urushni ko‘rgan, ammo aybdorlik va g‘am ruhiyatidan xoli bo‘lgan avlodga mansub edi. Tarbiya va qarashlari bo‘yicha katolik va konservator bo‘lgan, XDI safiga talabalik davridayoq kelgan Kol uchun dunyoning qanday bo‘lsa shundayligicha qabul qilish o‘zgarishlarga javob berish va ularga mos ravishda o‘zgarish qiyin emas edi.

Gelmut Kol ruhiyati va asoslariga ko‘ra neokonservativ mafkuraga yaqin bo‘lgan xristian-demokratiyaning yangi konsepsiyasini ishlab chiqayotgan siyosatchilarga rahbar edi. Uning eng yaqin hamkasblari partiya bosh kotibi Kurt Bedinkorf, uning o‘rinbosari Xayner Goysler, hamda ijtimoiy qo‘mitalar rahbari Narbert Blyumlar bo‘lishdi. Germaniyaning neokonservatorlar, amerikalik va ingliz hamkasblari kabi GMK (?) davriga xos bo‘lgan etatizm (davlatni ijtimoiy taraqqiyotning asosiy maqsadi va eng yuksak yutug‘i deb hisoblovchi siyosiy oqim), “faravonlik davlati” g‘oyasi, ijtimoiy IJDIVENCHESTVO va mas’uliyatsizlik psixologiyasi, ijtimoiy qurilishning “ideal modelini” izlovchilarga xos bo‘lgan projektchilikni (amalda erishib bo‘lmaydigan loyihalar bilan qiziqish) tanqid qilar edilar. Ular jamiyatning an’anaviy asoslarini tiklash, ma’naviy sog‘lomlashish, ijtimoiy tuzilmaning asosiy elementlari - oila, cherkov, mulk, davlatni kuchaytirishga da’vat qilishar edi. Shu bilan bir vaqtda “neokonservativ inqilob” haqida ko‘zlashishdan o‘zinib tiyar, o‘z dasturini urushdan keyingi demokratik-xristian an‘analariga qarama-qarshi qo‘yishni zarur deb hisoblamas edi. Agar 1978 yildagi XDIning “tamoyillar dasturi” xristian demokratlar yangi avlodining yangilanish da’volarini aks ettirgan bo‘lsa, keyinchalik Kol davlat boshqaruvini siyosiy lashtirishdan, agressiv fraksiyalararo va partiyalararo qarama-qarshilikdan voz kechib, pragmatik vazifalar va katta ta’sirga ega ijtimoiy kuchlarga tayanishga e’tibor berishga harakat qildi.

Germaniyaning yangi konservatorlari Erxard tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy bozor xo‘jaligining klassik tamoyillariga tayanar edilar. Industrial iqtisodiy modelning strukturaviy inqirozi sharoitida dirijizmni liberalizmga, boshqaruvchi va rejali iqtisodiyotni raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyotiga qarama-qarshi qo‘yishdan voz kechish hamda amaldagi bozor mexanizmining o‘zi eng ijtimoiy iqtisodiy tuzum ekanligi va o‘z mehnati bilan qo‘lga kiritilgan va shaxsiy javobgarlikka asoslangan moddiy faravonlik insonning ma’naviy, axloqiy rivojlanishining muhim omili bo‘lishi to‘g‘risidagi g‘oyalarning o‘ta dolzarbligi namoyon bo‘lardi. Nemis yangi konservatizmi konsepsiyasiga urushdan keyingi xristian demokratiyaning asoslari, ya’ni individ erkinligi o‘z yo‘lini mustaqil tanlash huquqi va unga javobgarlikning birligi sifatida siyosiy plyuralizm (xilma-xillik) va siyosiy jarayonning kurashga asoslanganligi bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy faoliyatning raqobatga asoslanganligi, xo‘jalik, ijtimoiy, siyosiy, madaniy sohalarni ketma-ket subsidlar tarzda (mablag‘ qo‘yib) qo‘llab-quvvatlash prinsipining amalga oshirilishi bilan qo‘lga kiritiladigan ijtimoiy barqarorlik; individning iqtisodiy va siyosiy tazyiqdan himoyalanganligi va faol hamda puxta siyosat yurita olishga qadar bo‘lgan kuchli mamlakat mavjudligining birligi kabi asosiy prinsiplar kiritildi.

G.Kol so‘l sotsial-demokratlarning iqtisodiyotning rejaviy asosini kuchaytirishga ijtimoiy ta’minot tuzimini kengaytirishga, budjet tanqisligi hamda soliqlarni oshirishdan sotsial mamlakat barpo etuvchi vositalar sifatida foydalanishga bo‘lgan urinishlarini qattiq tanqid ostiga oldi. Ammo shu bilan birgalikda u sotsial-liberal kaolitsiyaning inqirozga qarshi siyosiy tajribasiga tayana oldi. Allaqachon Shmidt ham boshqa mamlakatlardagi “yangi konservatizm inqirozi” asosini tashkil etuvchi quyidagi ko‘pgina usullarni qo‘llagan edi: monetar siyosat, aholining barcha qatlamlarini qamrab oluvchi ijtimoiy ta’minotdan tanlab qo‘llab-quvvatlash dasturlariga o‘tish, budjetni tejash siyosati, kichik biznes va NIOKR (?)ning zamonaviy yo‘nalishlarini rag‘batlantirish. Shunday qilib, nemis neokonservatizmi mafkuraviy qarama-qarshilik ruhi va pafosi(?)dan xoli bo‘lib chiqdi. G.Kol o‘z strategik maqsadlarini yaqqol fahmlagan holda barcha siyosiy kuchlar bilan konstruktiv (samarali) muloqot olib borishga e’tiborini qaratdi. qaror qabul qilishda “shoshilmaslik”, konyukturaviy (mansabdorlar shtatini o‘zgartirish) shoshma-shosharlikka yo‘l qo‘ymaslik va muammoni “pishib yetishigacha kutish”ga harakat qilish, ko‘rilayotgan chora natijasi eng yaxshi va boshqa iloj qolmaganligi yaqqol bo‘lib qolganligini voqealar rivojiga ta’sir ko‘rsatish G.Kolga xos bo‘lib qoldi. Shu bilan birga G.Kol o‘zining

g'ayratli va nostandart usullardan foydalanish ustasi ekanligi tufayli sustkashlikda ayblashga o'rin qoldirmas edi. Bunday siyosiy uslub tufayli G.Kol nemis jamiyatining turli qatlamlari vakillari ishonchini qozongan. Germaniyaning eng mashhur va obro'li siyosatchilaridan biriga aylantirdi.

G.Kol parlamentda o'z mavqeini mustahkamlashga harakat qilib, Bundestagni tarqatib yuborish va navbatdagi saylovlar o'tkazishni amalga oshirdi. Saylovlar 1983 yil 6 martda bo'lib o'tdi va hokimiyat tepasidagi yangi koalitsiyaning ishonchli g'alabasi bilan yakunlandi. XDI 38,2% ovoz va 192 mandatga, XSI - 10,6% ovoz va 52 mandat, EDP - 7% ovoz va 34 mandatga ega bo'ldi. GSDP 38,2% ovozga ega bo'lib, rasman eng yirik fraksiya (193 mandat)ga aylandi, ammo ta'sir bo'yicha parlamentdagi ilg'or koalitsiyadan ortda qolayotgan edi.

1983 yil saylovlaridagi asosiy kutilmagan hodisa "yashillar" muvaffaqiyati bo'ldi. Ular 5,6 % ovozga ega bo'lib, ilk bor Bundestagda o'z fraksiyalariga ega bo'lishdi. Saylovda "yashillar" 1983 yil yanvarida partiya U syezdida qabul qilingan yangi dastur bilan chiqishdi. Uning shiori quyidagicha edi: "Maqsadli mehnat qilish-yakdillik bilan yashash. Ishsizlik va ijtimoiy huquqlarni cheklashga qarshi". O'z harakatlarining eng muhim tamoyillarini saqlab qolgan holda "yashillar" o'z dasturlariga energetika, transport, uy-joy qurilishi, ishsizlik, inflyatsiya, ijtimoiy va sotsial xizmatlar faoliyatini to'xtatishga qarshi kurashga qaratilgan bir qator dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni kiritishdi. Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ishlab chiqarish vositalarini keng o'z-o'zini boshqarishni ko'zda tutuvchi "yangi ijtimoiy mulk shakli"ga o'tkazish taklif qilingan edi. "Yashillar" strategik maqsad sifatida ham inson, ham tabiatni ekspluatatsiya qilishga yo'l qo'ymaydigan totuv va demokratik jamiyat, yangi "ekologik tuzum"ni barpo etishni qarashardi.

"Yashillar"ning partiyaviy spektrning doimiy elementiga aylanishi GFRdagi butun siyosiy tizimini barqarorlashuvi uchun katta ahamiyatga ega edi. "Yashillar" partiyasi rahbarlari "parlament tashqarisidagi muxolifat"ni (ya'ni xalqaro GrinPIs tashkilotiga intiluvchi radikal-ekologlarni, qonun chiqarish jarayonida qatnashishga harakat qiluvchi mo'tadil "parlament qanoti", urush va fashizmga qarshi kurashuvchi guruhlar, talaba faollarni) birlashtirishga muvaffaq bo'lishdi. Shu bilan "yangi ijtimoiy harakat"larni mamlakat siyosiy tizimiga qo'shishni o'ziga xos mexanizmi shakllandi. Bundan faqatgina o'ng radikal guruhlar mustasno edi. Bu guruhlarining eng yirigi 1983 yilda tashkil qilingan Respublikachilar partiyasi edi. Uning dasturidan ekstremistik xarakterdagi millatchilik va qasoskorlik (revansizm) o'rin olgan edi. Terrorizm ilgorigidek barqarorlikka zarba beruvchi rol o'ynardi.

Yangilangan xristian-demokratik harakatning siyosiy ustunligi butun o'n yillik davomida yaqqol edi. 1984 yil GFR prezidenti etib XDIning eng obro'li rahbarlaridan biri Rixard fon Veytszekker saylandi. 1987 yildagi parlament saylovlarida XDIG'XSI blokining mavqei yomonlashdi. XDI 34,5% ovoz (174 mandat), XSI 9,8% ovoz (49 mandat)ga ega bo'ldi. Ammo hukumat koalitsiyasi ustunligi 9,1% ovoz (46 mandat)ga ega bo'lishga erishgan EDP tufayli saqlab qolindi. 37% ovozga ega bo'lgan GSDP fraksiyasi 187 mandatgacha kamaydi. Bu saylovlarda sotsialistlar elektorastining bir qismi rivojlanayotgan "yashillar" partiyasi uchun ovoz berdi (8,3 ovoz, 42 mandat).

Ijtimoiy-iqtisodiy siyosat sohasida G.Kol katta o'zgarishlar kiritishga majbur bo'lmadi. Budjetni tejash, ta'lim va kasbiy mahorat oshirishdan boshqa ijtimoiy dasturlarga qaratilgan xarajatlarni qisqartirishga yo'naltirilgan siyosat davom ettirildi. Bu budjet kamomadini tezda pasaytirishda yordam berdi. 1983 yildayoq kamomad darajasi 30 milliard markaga qisqartirildi. Shmidt hukumati tomonidan boshlangan mehnat munosabatlari tizimidagi huquqiy islohot davom ettirildi. Hukmron koalitsiya parlament orqali kasaba uyushmalari huquqlarini cheklash, mehnat shartnomalari tuzish jarayonida ish beruvchi vakolatlarini oshirish, mehnatga haq to'lash tizimini differensiya qilish (turlicha haq to'lash)ga qaratilgan qonunchilikka 250 ta tuzatishlar kiritdi. Bu choralar yollanma mehnat unumdorligini oshirish va mahsulot tonnarxini pasaytirishga qaratilgan edi. Saylovoldi va'dalarga qaramasdan ishsizlikka qaratilgan to'g'ridan-to'g'ri xarakterli oshirilmaganligicha siyosiy qoldi. Yangi konservatorlarning fikricha faqatgina tabiiy iqtisodiy mexanizmlar samarali mehnat bozorini tiklashi mumkin edi.

Tuzilmaviy siyosatning yangi elementi xususiylashtirish dasturlarini amalga oshirishdan iborat bo'ldi. Ammo g'arbning boshqa ilg'or mamlakatlaridan farqli o'laroq nemis neokonservatorlari bu sohani ustivor deb hisoblamadilar. Xususiylashtirishning birinchi o'n yilligi davomida G.Kol hukumati (1982-1992) budjeti atigi 10 milliard marka jalb qila oldi, xolos. Shu bilan birga xalq xo'jaligi faoliyatida katta rol o'ynamaydigan unchalik katta bo'lmagan korxonalar xususiylashtirildi. Kichik va o'rta biznesga nisbatan yuritilgan rag'batlantirish siyosati muhimroq rol o'ynadi. Bu siyosatning asosiy usuli korporativ mablag'ga cheksiz imtiyozlar beruvchi soliq-moliya islohotini amalga oshirishdan iborat bo'ldi. E'tibor o'rta tadbirkor qatlamlarga qaratildi. Tiklanayotgan iqtisodiyot skeletini biznes bilan shug'ullanuvchi (bozor konyukturasi yuqori investitsion xatarga ega, innovatsion texnologiyalarning faol jalb qiluvchi 20 dan 200 million marka aylanma kapitalga ega bo'lgan 15 mingta kompaniya tashkil etdi. Jismoniy shaxslarning aloqalari esa, aksincha oshirildi.

qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi sohasida asosiy e'tibor yirik ishlab chiqaruvchilarga qaratildi. Kol hukumati qishloq xo'jaligida band bo'lgan sonini qisqarishi (u 80-yillarning oxiriga kelib, iqtisodiy faol aholining 4,5% gacha tushib qoldi) va yer mulklarni birlashtirishni rag'batlantirdi. qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar maydoni qisqardi. Bu davrda qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining o'sishi o'simliklarning yangi serhosil navlarini yaratish va hayvonlar zotlarini seleksiya qilish, ekinlarni kimyoviy himoya qilish vositalarini yangilash va ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish hisobidan ta'minlandi. GFR agrar sektorda daromad olish bo'yicha hali ham Fransiya, Gretsiya, Ispaniya, Portugaliyadan ortda edi, ammo bu sektor mamlakatning oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojining 75:ini qondira olardi.

Kol hukumati ichki siyosatining omadli ekanligi ko'p jihatdan iqtisodiy sikl doirasida o'sish fazasi boshlanganligiga bog'liq edi. Takror ishlab chiqarish inqirozdan chiqish 1983 yildan boshlandi va keyingi 8 yil davomida ishlab chiqarish hajmi barqaror o'sib bordi. O'sish cho'qqisi 1980 yilga to'g'ri keldi, YAIM o'sishi o'sha yili 4,5%ni tashkil etdi. Ayniqsa, mashinasozlik, avtomobil, kimyo, elektron-texnik sohalar yuqori sur'atlar bilan rivojlandi. Fan yutuqlarini jalb qilingan tovarlar bozorida GFR Yaponiyani ortda qoldirib, dunyoda ikkinchi o'ringa chiqib oldi (20%). Eksport operatsiyalari umumiy hajmi bo'yicha ham GFR AQSHdan keyin ikkinchi o'rinni egalladi. Sanoat ishlab chiqarishi o'sishi natijasida eksportning tez o'sib borishi tashqi savdo musbat saldosi barqaror oshirib borishga imkon berdi. 1990 yilda u allaqachon 148,5 milliard markani tashkil etdi (ikki yil oldin 128 mlrd.marka). Ishsizlik muammosiga ham asta-sekin hal qilina bordi. Ishsizlik darajasi sekin, ammo bir maromda pasaya bordi. 1990 yilda u o'n yil ichida ilk bor 2 mln. kishidan (iqtisodiy faol ahamiyatining 7%i) kamroqni tashkil etdi. O'sish yillarida GFR moliyaviy tizimining barqarorligi, markaning xalqaro hisob-kitoblarda ishlatiladigan pul birligi sifatidagi rolini saqlab qolishga imkon berdi.

Tashqi siyosatdagi ustivor yo'nalishlar G.Kol tomonidan kansler lavozimi uchun kurash davridayoq e'lon qilingan edi. U GFRning demokratiya va xalqaro-huquq tizimini mustahkamlash, Atlantik yakdillik prinsipiga rioya qilish, ammo NATO a'zolari o'rtasida teng huquqli munosabatlarga intilgan holda Yevropa integratsiyasida Fransiya-G'arbiy Germaniya ittifoqining asosiy rolini tan olgan holda integratsiyaga faol yordam berishga harakat qiluvchi dunyo ham jamiyati a'zosi sifatida rolini mustahkamlash zarur deb hisoblar edi. G.Kol GDR suverenitetini so'zsiz tan olar, ammo ikkita nemis davlati o'zaro munosabatlarning ("ichki Germaniya masalasi") xalqaro-huquqiy xarakterga ega bo'lishi noto'g'ri deb hisoblardi.

G.Kol hokimiyat tepasida bo'lishining ilk yillarida NATO bo'yicha strategik sheriklar bilan munosabatlarni mustahkamlashga e'tibor qaratdi. Urushga qarshi harakatning keng yoyilishiga qaramasdan uning hukumati GFR hududida o'rta va kichik uchar raketalarni joylashtirish bo'yicha barcha shartnomalarga qat'iy rioya qilardi. G'arbiy Germaniya diplomatiyasi Buyuk Britaniyaning Folklend (malvin) orollari uchun kurashi va AQShning Grenadagi botirib kirishini ma'qulladi. Hukumat darajasida GFR SOI (?) dasturiga qo'shildi. 1986 yil Reysyevikdagi R.Reygan va sovet rahbari muzokoralarida Reyganning qat'iy pozitsiyasini qo'llab-quvvatladi. Shu bilan bir vaqtda ittifoqchilar bilan tenglarcha munosabatda

bo'lishga eirshdi. 1984 yilda 1954 yildagi Parij kelishuvlaridagi harbiy ishlab chiqarish va qurolli kuchlarni rivojlantirishdagi eng oxirgi cheklashlar bekor qilindi.

G.Kol tashqi ishlar vaziri lavozimini o'zida saqlab qolgan Gensherning faol qo'llab-quvvatlashiga tayanib, Yevropadagi integratsion jarayonning yangi bosqichini boshlashga katta hissa qo'shdi. "Gensher-Kolombo rejasi"ni amalga oshirish doirasida G.Kol 1989 yildagi Shtutgartda bo'lib o'tgan Yevropa hamjamiyati rahbarlari uchrashuvida va "Yevropa Ittifoqi to'g'risidagi tantanali deklaratsiyasi"ning imzolanishida ishtirok etdi. 1984 yildan Fransiya G'arbiy Germaniya aloqalari faollasha bordi. Ularning tez-tez ro'y berishi va strategik xarakteri Adenauer va de Goll davrini eslatardi. Shu narsa diqqatga sazovorki agar 80-yillarning birinchi yarmida Reygan va Tetcher bilan uchrashuvlarda Gol ko'pincha G'arbdagi o'sha davr konservativ kuchlarining umumiyliigi (ularga G'arbiy Germaniya xristian demokratiyasini ham qo'shib, to'g'risida fikr yuritgan bo'lsa, Mitteran bilan yaqinlashgandan so'ng bunday o'xshatishlar unga xos bo'lmay qoldi. Fransiya-G'arbiy Germaniya hamkorligi, "Yagona Yevropa Akti"ning ishlab chiqilishi va 1986 yilda qabul qilinishiga sabab bo'lgan eng muhim omillardan biri bo'ldi.

80-yillar o'rtalaridagi xalqaro munosabatlar xarakterining o'zgarishi bilan GFRning global siyosatiga tuzatishlar kiritildi. G.Kol oliy darajadagi Sovet-Amerika muloqotini faol qo'llab-quvvatladi. U o'rta va kichik masofalarga uchuvchi raketalar masalasining hal etilishida (qurolli kuchlarni qisqartirish bilan Amerika yadro kollaklari bilan jihozlangan nemis raketa tashuvchilarini hisobga olish (ro'yxatga olish)ga rozi bo'lish bilan) hal etuvchi rol uynadi. 1988 yil oktabrida G.Kolning Moskvaga safari va 1989 yiliyunidagi M.Gorbachevning javoban tashrifi ikkala mamlakat rahbariyati o'rtasidagi samarali va intensiv muloqotga zamin yaratdi. Sovet-G'arbiy Germaniya hamkorligining asosiy yo'nalishlaridan biri SSSRda yashovchi nemis millatiga mansub fuqarolar taqdiri, ularning tarixiy vataniga ketishlarini qonuniylashtirish va ta'minlash muammosi bo'ldi. Keyinchalik, SSSR hududida bo'lgan siyosiy o'zgarishlarga qaramasdan Sovet-Germaniya aloqalarining ijobiy va barqarorligi saqlanib qoldi. Bu samarali hamkorlik G'arbiy Germaniya diplomatiyasining asosiy vazifasi- Germaniya birlashishi muammosining hal etilishini ancha yengillashtirdi.

4. Sharqiy Germaniyada sotsializmning tanazzulga yuz tutishi va Germaniyaning birlashishi.

80-yillarda ikkala nemis davlatlari munosabatlarida yangi xususiyatlar namoyon bo'la boshladi. GDRdagi rasmiy targ'ibotda kutilmaganda umumgermaniya motivi faollashdi. "Umumiy madaniy meros" to'g'risidagi tez-tez qo'llana boshlandi, Fridrix 11 va Bismark kabi shaxslar "tiklandi". Xonekkerning GFRda "demokratik kuchlar" g'alabasidan keyin Germaniyaning birlashish imkoniyati to'g'risidagi bayonoti shov-shuvli bo'ldi. 1981 yildagi Xonekker va Shmidt uchrashuvida ilk bor Yevropa qit'asida xavfsizlik uchun GFR va GDR ning "umumiy javobgarligi" tushunchasi tilga olindi. Bu qadamlar 80-yillar boshidagi "sovuq urush"ning yana avj olish davrida, ayniqsa, ko'proq ko'zga tashlandi. Faqatgina SSSRda hokimiyat tepasiga M.Gorbachyov kelgandan so'ng Xonekkerning "o'ziga xos mavqei" OVD bo'yicha ittifoqchilar harakatlariga moslashib bordi.

Sharqiy Germaniya rahbariyatining yangi yo'li Bonnda qo'llab-quvvatlandi. Voqealar rivojini tezlashtirmasdan va o'z qadamlari to'g'risida jar solmasdan G.Kol hukumati GDRni iqtisodiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha choralari ko'rdi. 1983-1984 yillarda umumiy qiymati 1,9 milliard markadan iborat kredit berish to'g'risida shartnoma tuzildi. Ikkala hukumatning so'zsiz (jim) roziligi bilan ikkala mamlakat universitetlari, shahar jamoalari, ijodkor ziyolilar guruhlari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqalar o'rnatildi. 1987 yilda tarixda ilk bor GDR rahbari Bonnga tashrif buyurdi. Uning "ishchi xarakteri"ga qaramasdan, GFR rahbarlari xorijiy davlat rahbarlarini qabul qilishdagi barcha tantanaviy normalarga rioya qilishga harakat qilishdi. Ammo Xonekker hech qanday liberal-islohotchi emas edi. GFR bilan munosabatlarni yumshatishga harakat qilish o'z hokimiyatini mustahkamlashga bo'lgan pragmatik intilishdan iborat edi. GDR

hukumatining ichki siyosatida, aksincha konservativ kayfiyatlar kuchaydi. Xonekker va uning atrofida gilarining hokimiyati yaqqol avtoritar xarakterga ega bo'la boshladi. O'zgacha fikrlovchilarni qatag'on bilan yo'q qilish usullari ko'proq qo'llanila boshlandi.

SSSRda qayta qurish boshlanganidan so'ng GDR rahbariyati Gorbachevning islohoti yo'lidan borishdan voz kechdi. Bu haqda 1987 yilda "Shtern"ga bergan intervyusida GYASpning asosiy mafkurasi K.Xaker ochiqchasiga shunday dedi: "Agar qo'shinsiz devoriy bezaklarni almashtirsa, bu siz ham ta'mirni boshlashingiz kerak degani, emas-ku?!". 60-yillardagi islohot natijalari o'z kuchini yo'qota boshladi. Sharqiy Germaniya iqtisodiyoti tez sur'atlar bilan rentabellik va dunyo bozorida raqobatbardoshlik boshladi. Tashqi zayomlarning asosiy qismi G'arbdan umumiste'mol mollari, oziq-ovqat va shaxsiy foydalanish uchun avtomobil sotib olishga sarflanar edi. 80-yillarning oxirida GDRning barcha fuqarolari "Intershop" (sovet "Berezka" tizimiga o'xshash) savdo tizimi xizmatlaridan foydalanish huquqini qo'lga kiritishdi. Faravonlik davlat qarzlarning keskin o'sib borish hisobidan saqlanib turdi. Agar 1971 yil GDRning g'arbiy davlatlardan qarzi 3,5 mlrd markidan iborat bo'lgan bo'lsa, 1989 yilga kelib u 10 baravar oshdi. Moliyaviy inqiroz xavfi real bo'lib qoldi. GDR aholisi o'rtasida APATIYA ijtimoiy IJDITENIYESTVO kayfiyatlari paydo bo'lishi bilan birga talabchanlik oshishi G'arb iste'mol standartlariga moslashish kuzatila boshlandi. Barcha muammolarni Germaniyaning qo'shilishi orqali hal qilish g'oyasi tobora ommaviylashib bordi.

O'sib borayotgan ichki siyosat inqirozi Xonekker hukumatini ochiq demagogiya va terrorni qo'llashga majbur etdi. GDR fuqarolarining G'arbga qochib o'tishga urinishlari berahmlik bilan jazolanar edi. "Shtazi" maxsus xizmati keng qamrovli josuslik tizimini yaratdi. GDR aholisi atigi 8,4 mln. kishini tashkil etgani holda davlat xavfsizligi vazirligi shaxsiy tarkibi bu yillarda 100 ming kishidan ortiq bo'lib, yana shuncha kishi "Shtazi" agentlik tarmog'iga jalb qilingan edi (shu bilan birga, shuni hisobga olish kerakki, 2 mln. kishidan ortiq BYASp a'zolari ham bor edi). Ammo baribir sotsialistik tuzum tanazzulga uchrayotgan edi. Uning darakchisi 1989 yil kuzidagi Chexoslovakiya bilan ochiq chegara orqali Avstriya va GDRga yo'nalgan qochoqlar oqimi bo'ldi.

Muammo yechimi GDRning 40-yilligini nishonlash kunlarida qo'lga kiritildi. M.Gorbachevning 6 oktabr 1989 yildagi safari sirtdan "do'stona" vaziyatda o'tgan bo'lsada GYASPdagi ichki partiyaviy muxolifatga ishonch bag'ishladi, 7-8 oktabrda bo'lib o'tgan va politsiya bilan to'qnashuvlarga olib kelgan ommaviy chiqishlar davlat rahbarlarini siyosiy xatolarda ayblashga asos bo'ldi. 1989 yil 18 oktabrda GYASPning 1X plenumida Xonekker egallagan lavozimlaridan chetlashtirildi. Uning o'rnini Egon Krens egalladi.

Hukumat yuqori eshelonlarida tozalash boshlandi. Ammo GYASPning yangi rahbariyati mamlakat boshqaruvini tezda qo'ldan bera boshladi. Deyarli har kuni GDRning turli shaharlarida ommaviy mitinglar va namoyoishlarga bo'lib o'tirdi. 7 noyabrda Vazirlar Kengashining butun tarkibi Villi Inter rahbarligida iste'foga ketdi. 8 noyabrda esa GYASP Mqning tarkibi tubdan o'zgartirildi. 13 noyabrda Xalq palatasi Vazirlar Kengashining yangi raisi lavozimiga mashhur partiyaviy muxolifoti GYASPning Drezdendagi okrug qo'mitasi birinchi kotibi Xans Madrovni sayladi. Madrov tezda GFR bilan "shartnomaviy hamjamiyat" tuzish rejasini ma'lum qildi. Unda bosqichma-bosqich ikkala Germaniya davlatlarining iqtisodiy, valyuta va transport ittifoqini shakllantirish, konferensiya tuzish va kelgusida federatsiya tuzish ko'zda tutilgan edi. Bu reja G.Kol tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

1989 yil dekabrda tez ro'y bergan "Sharqiy Germaniyacha qayta qurish" GYASP siyosiy monopoliyasining barham topishiga olib keldi. 1 dekabrdayoq GDR konstitutsiyasidan partiyaning rahbarlik roli to'g'risidagi modda chiqarib tashlandi. Ikkikun o'tgach GYASP Mq X11 plenumi partiya safidan Xonekker rahbarligidagi sobiq yetakchilarni chetlatish to'g'risida qaror qabul qildi. 8 dekabrda GYASP Favqulodda syezdida E.Klens ham o'z vazifasidan ozod qilindi. Syezd partiya rahbari etib sobiq GYASP faollari tomonidan partiya ustavini buzilishi va uning qonuniyligini tergov qiluvchi maxsus guruh rahbari Gregor Gizini sayladi (Bosh kotib lavozimi va siyosiy byuro bekor qilindi). Partiyaning o'zi Demokratiya sotsializm partiyasi (DSP)ga aylantirildi.

1989 yil noyabridan boshlab GDRda mavjud partiyalarning o'zgarib borishi va yangilarining shakllanish jarayoni ro'y berayotgan edi. Yangi fuqarolik harakatlari ichida eng obro'lilari "Yangi forum", "Demokratik PRORO'V", "Yashil partiya", "Demokratiya hozir", "Tinchlik va inson huquqlari uchun tashabbus". G'arbiy Germaniyadagi GSDPning faol yordami bilan sotsial-demokratik partiya (SDP) tashkil qilingan edi. 1990 yil yanvarida o'z dasturiy asoslariga ko'ra Bovariyadagi XSIga juda yaqin bo'lgan Nemis Sotsial Ittifoqi (NSI) ta'sis etilgan edi. Tez orada NSI va XSI o'rtasida o'ta mustahkam aloqalar o'rnatildi, axir NSI asosan GDRning janubiy rayonlarida faoliyat ko'rsatardi. G'arbiy Germaniyadagi XDI esa, aksincha, o'zining Sharqiy Germaniyadagi sherigi bilan yaqinlashishga shoshilmas edi. Faqatgina GDRdagi ilk erkin saylovlar arafasida G.Kol Sharqiy Germaniya xristian demokratlari rahbari Lotar de Mezyeni ochiqchasiga qo'llab-quvvatlashga botindi. EDP ham uzoq muddat o'zining "tarixiy ittifoqchisi"-Germaniya liberal demokratik partiyasi bilan aloqa qilishdan bosh tortib turdi. Rahbariyati o'zgarishiga qaramasdan ko'pgina nemislar GLDPniilgarigi siyosiy yo'l bilan rivojlanish uchun javobgarlardan biri deb hisoblashardi. GYASPning Demokratik blokka kiruvchi boshqa sheriklari - Milliy-demokratik partiya va dehqonlar demokratik partiyasi FRGga o'z sheriklariga ega bo'lishmadi va murakkab ahvolda qolishdi.

1990 yil 18 martdagi saylovlar arafasida GDRda siyosiy kuchlarning birlashuvi ro'y berdi. 5 fevralda G. Kol taklifi bilan Sharqiy Germaniyadagi XDI, NSI va Demokratik PRORIV "Germaniya uchun Alyans"ga birlashishdi. Bu koalitsiya amalda GFR rahbariyati tomonidan rasman qo'llab-quvvatlandi va ikkala Germaniyani birlashish bo'yicha yanada radikal dastur bilan chiqdi. "Yangi forum", "Demokratiya hozir", va "Tinchlik va inson huquqlari uchun tashabbus" esa "Ittifoq-90"ga birlashishdi. "Erkin demokratik ittifoqi" blokini GLDP, "Germaniya forumi partiyasi" va GDRda paydo bo'lgan EDP bo'limlari tashkil etishdi. Sharqiy Germaniya ekologik, fashistik va nokommunistik so'l guruhlar yagona ro'yxatga tushish haqida kelishib olishdi.

18 martdagi saylovlar kutilgan natija berdi. XDI 40,9% ovozga ega bo'ldi, NSI-6,32%, "Demokratik PRORIV"-0,92% (shunday qilib, "Germaniya Alyansi" 48,14%) ovozga ega bo'lishdi. SDP-21,64%, DSP-16,38%, "Erkin demokratlar ittifoqi"

-5,28%, "Ittifoq-90"-2,9%, Dehqonlar demokratik partiyasi-2,18%, Milliy demokratik partiya-0,39% ovozga ega bo'ldi. "Yashillar", "Demokratik xotin-qizlar ittifoqi" va "Birlashgan so'l kuchlar" ro'yxati uchun 2,47% ovozga ega bo'lishdi. Shunday qilib, GFR tomonidan to'g'ridan-to'g'ri qo'llab-quvvatlangan partiyalarning siyosiy ustunligi shubhasiz edi. Ammo Xalq palatasi tarkibi juda turli-tuman bo'lib, NSI rahbariyati "Alyans"dagi sheriklari bilan parlamentar koalitsiya tuzishdan bosh tortdi. Hukumat tuzish uchun G.Kolning shaxsan aralashuvi bilan murakkab muzokaralar o'tkazish kerak bo'lib qoldi. 23 martda barcha uch partiya "Germaniya Alyansi", SDP va "Erkin demokratlar Erkin demokratlar ittifoqi" (unga Milliy-demokratik partiya ham qo'shildi) ishtiroki bilan "yirik koalitsiya" tuzish bo'yicha qaror qabul qildi. Murosaga keluvchi muxolifotni fuqarolik harakatining birlashgan fraksiyasi tashkil etgan bo'lsa, DSP esa "murosasiz" fraksiyani tashkil etdi. "Katta koalitsiyani" L.de Mezyer boshqardi. Germaniya birlashishi uchun yo'l ochiq edi, ammo bu masalani xalqaro jihati ham bor edi.

Germaniya birlashishining xalqaro-huquqiy formulasi "2q4" birlashma (FRG, GDR va ikkinchi jahon urushlari g'oliblari- AQSH, SSSR, Buyuk Britaniya, Fransiya)ning muzokoralari mavzusiga aylandi. Bu muzokoralar 1990 yil mayida boshlandi. Britaniya va Fransiya rahbarlarining shoshilmaslik pozitsiyasiga qaramasdan, bu muzokoralar ishtirokchilari nemis xalqining o'z taqdirini o'zi hal qilish huquqini tan olishdi. SSSR prezidenti Gorbachevning birlashgan Germaniya rahbariyatiga mamlakatning harbiy va iqtisodiy blokiga kirish masalasini o'z ixtiyoriga berish va GDRdan sovet harbiylari guruhini chiqarish to'g'risidagi qarori muhim rol uynadi. Umuman, GDRni GFRga qo'shib olish bilan Germaniyani birlashtirishga rozi ekanligini Gorbachev G.Kolga 1990 yilning 10 fevralidayoq aytgan edi.

12 sentabr 1990 yilda "2q4" ishtirokchilari tomonidan "Germaniya masalasini" uzil-kesil hal etish to'g'risidagi shartnoma imzolandi. Bu xujjat imzolanishi bilan Germaniyaning urushdan

keyingi huquqiy rehabilitatsiyasi yakunlandi. Shartnomada Germaniyaning urushdan keyingi chegaralari daxlsizligi FRGning ommaviy qirg'in quroliga ega bo'lishi, foydalanishi yoki ishlab chiqarishi mumkin emasligi qat'iy belgilangan edi. Shartnomaga ko'ra Germaniya o'z qurolli kuchlarini kerakli darajada qisqartirishi va uning yeridan "faqat tinchlik tarqalishi" uchun talablarga qat'iy rioya qilishi kerak edi. Sharqiy Germaniyada Sovet qo'shinlarining 1994 yilgacha bo'lishi va ularni chiqarish tartibi ham tartibga solindi.

Ikki nemis davlati integratsiyasi qo'shilishning xalqaro jihatlari tartibga solinmasdan boshlangan edi. 1990 yilning may oyidayoq GDR va GFR hukumatlari tomonidan 1 iyulga kuchga kirgan ikki mamlakatning iqtisodiy, valyuta va ijtimoiy ittifoqi to'g'risidagi shartnoma imzolangan edi. 22 avgustda GDR Xalq palatasi GFRning saylov huquqi asosida (besh foizlik cheklanish ham hisobga olingan holda) umumgermaniya saylovlari o'tkazish to'g'risida qonun qabul qildi. GDRni GFR asosiy qonuni 23-moddasiga ko'ra, bu qonun amal qilish doirasiga qo'shish to'g'risida qaror qabul qilindi. Bu esa GDRning davlatchiligi barham topishi va uning hududida G'arbiy Germaniya qonunchiligi joriy etilganligini bildirardi. Bu voqea sanasi sifatida 1990 yil 3 oktabri belgilandi. 24 avgustda Bundestagga Xalq palatasining GDRni GFRga qo'shish to'g'risidagi qarorini qo'llab-quvvatladi va umumgermaniya saylovlari 1990 yil 2 dekabrda belgilangan edi. Bu qarorlar 31 avgustda imzolangan va 1990 yil 3 oktabrda kuchga kirgan "Germaniyaning birlashishi to'g'risidagi Shartnomada" kiritilgan edi. 3 oktabrdan boshlab GDR dunyo xaritasidan yo'qoldi. Oktabrning o'rtalarida Sharqiy Germaniyadagi ma'muriy tizim G'arbiy Germaniyadagi bilan birlashtirilgan edi: okruglarga bo'lish o'rniga oldingi beshta yerlarga bo'lish tiklandi. Yerlardagi landtaglarga (mahalliy parlament) saylovlar 14 oktabrda bo'lib o'tdi. Brandenburgda sotsial-demokratlar, qolgan to'rtta yer-xristian demokratlarning qo'li baland keldi. 2 dekabrda butun Germaniya hududida Bundestag uchun saylovlar o'tkazildi. Bu saylovlar hukmron koalitsiyaning ishonchli g'alabasi bilan yakunlandi. XDI 36,7% ovoz va 268 mandat, XSI-7,1% ovoz va 51 mandat, EDP-11% ovoz va 79 mandatga ega bo'lishdi. 33,5% ovoz va 23 mandatga ega bo'lgan GSDP o'z pozitsiyalarini ancha mustahkamlab oldi. DSPni atigi 2,4% saylovchilar qo'llab-quvvatlashdi, ammo parlament tarkibiga bir mandatni okruglarda g'alaba qozongan 17 ta deputati kirishga muvaffaq bo'ldi. Shunday yo'l bilan atigi 12% ovozga ega bo'lgan "yashillar" ham 8 deputatdan iborat kichik fraksiyani saqlab qolishga muvaffaq bo'lishdi. Bundestagning 20 dekabr 1990 yildagi Ta'sis majlisida kansler G.Kol rahbarligida birinchi umumgermaniya hukumati tuzildi. GDRning oxirgi rahbari L. de Madyer bu jarayonda allaqachon yo'q edi, chunki 17 dekabrda uni qo'yilgan GDR MXV (Milliy Xavfsizlik Vazirligi) bilan hamkorlik haqidagi ayblov tufayli o'z vakolatlarini topshirishiga majbur bo'lgan edi.

Birlashgan Germaniyaning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti.

Germaniyaning birlashishi mamlakatning xalqaro mavqeini ancha mustahkamladi. Ammo dunyo siyosati tizimidagi yangi mavqe' nafaqat imtiyozlar, balki buyuk davlatga xos yangi siyosiy, moliyaviy va axloqiy majburiyatlarni olib keldi. 1990 yilning yanvaridayoq G.Kol GFR boshqa xalqaro muammolarni hal qilish, mojarolarni bartaraf etishdan chetga qola olmasligini ta'kidlagan edi. Bu juda ramziy bayonot edi, chunki uning vaqti BMT bayrog'i ostida Fors ko'rfazi mintaqasida harbiy harakatlarning boshlanishi bilan mos tushdi. Gap GFR harbiy doktrinasini tubdan o'zgartirish to'g'risida borayotgan edi. Uzoq davom etgan bahs-munozaralardan so'ng federal Konstitutsiyaviy sud "Germaniya barqarorligi va birligiga zarar keltirishi mumkin bo'lgan mojaro va krizislarni bartaraf etish uchun" Bundesverni GFR va NATO a'zolari hududlaridan tashqarida ham ishga solish qonuniyligi to'g'risida qaror qabul qildi. qurolli kuchlar tarkibi ham qayta tuzildi Bundesver tarkibida 54 ming kishidan iborat "keskin vaziyatlarga javob berish (REAKSIYA) kuchlari" paydo bo'ldi. Keyingi yillarda GFR NATOning xalqaro xavfsizlikni ta'minlash, strategiyasi jumladan bu blokni Yevropa sharqiga kengaytirish rejalarini qo'llab-quvvatlab keldi. Bundesver uchun birinchi sinov Bosniya va Gersogovinadagi tinchlikparvarlik operatsiyasida qatnashishdan iborat bo'ldi.

GFRning Natodagi siyosiy mavqeining o'zgarishi uning ittifoqchilari tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlandi. AQSH prezidenti Katta J.Bush Shimoliy Atlantika blokida

rahbariyatida GFRning ishtirokini ko'zda tutgan holda "teng huquqli rahbarlik" g'oyasini ilgari surdi. Ammo G.Kol shu bilan birga Rossiya ham mustahkam aloqalarni saqlab qolishga urindi. Bu yo'nalishda hal qiluvchi qadam uning 1992 yil dekabrda Moskvaga tashrifi davomida qo'yildi. Yelsin va Kolning 1992 yil 16 dekabrda birgalikdagi bayonoti o'zaro da'volardagi (NULEVOD RESHENIYE (?))ni mustahkamladi: Rossiya tomoni Rossiya (sobiq sovet) G'arbiy guruh qo'shinlarining kuchmas mulkiga da'vosida Germaniya esa Rossiya qo'shinlari joylashtirilgan joylarda atrof-muhitga yetkazilgan zararni qoplash bo'yicha da'vosidan voz kechdi. Rossiya qo'shinlarining shoshilmaslik tarzda olib chiqilishiga vatanga qaytgan harbiylarni ish va yashash joyi bilan ta'minlash uchun to'langan qo'shimcha 550 million marka sabab bo'ldi. Rossiya qo'shinlarining Germaniyadan chiqarilishi 1994 yil 31 avgustda yakunlangan edi. Keyinchalik, Kol va Yelsin o'rtasidagi munosabat do'stona xarakterga ega bo'ldi. 90-yillarning o'rtalarida Rossiya-Germaniya siyosiy muloqotining xalqaro munosabatlar tizimi rivojlanishidagi ahamiyati 80-yillardagi Sovet-Amerika munosabatlari kabi edi.

G.Kol rahbarligi davrida Germaniya tashqi siyosatidagi eng ustivor yo'nalish G'arbiy Yevropadagi integratsiya jarayoni bo'lib qoldi. Mamlakat birlashuvi keltirib chiqargan ulkan iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramasdan, GFR Maastrixt kelishuvlari asosida integratsiyani chuqurlashtirishning faol tarafdorlari bo'lib qoldi. 1995-1996 yillarda Fransiyaning yangi prezidenti J.Shirak bu masalada shoshilmasligi davrida, G.Kol Yevropa integratsiyasi jarayonida yetakchilik rolini o'z qo'liga oldi. 1996 yilda Parij va Bonn Yevropa Hamjamiyatlari ta'sis hujjatlaridagi bir qator nizomlarni o'zgartirish va Maastrixtda bayon qilingan integratsiya dasturlarga aniqlik kiritish bo'yicha tashabbus bilan chiqishdi. Gap eng avvalo valyuta ittifoqiga o'tish mexanizmlari va Yeining kelgusida kengayishi muammosini hal etish to'g'risida borardi. G.Kol sanab o'tilgan barcha masalalarni muhokama qilishda va Yeining XXI asr boshida rivojlanish strategiyasini belgilab bergan 1997 yildagi Amsterdam shartnomasini imzolashga tayyorlashda hal qiluvchi rol o'ynadi.

Birlashgan Germaniyaning Yevropa ittifoqida yetakchilik qilish da'volari faqatgina uning rahbariyati da'volaridan emas, balki yangi geopolitik vaziyatdan ham ko'rinardi. Germaniya u bilan hamkorlik qilishni mo'ljallagan qo'shnilar va bozorlar qurshovida qolgan edi. Benilyuks mamlakatlari, Avstriya va Yeiga kirgan Skandinaviya mamlakatlarining ko'pchiligi bilan birgalikda Germaniya norasmiy, ammo yaqqol ko'zga tashlanuvchi Markaziy Yevropa yadrosini - Germaniya diplomatiyasining ko'p yillik orzusini tashkil etdi. Germaniya, Vengriya, Chexiya, Polsha, Baltika mamlakatlari uchun jalb etuvchi strategik ittifoqchiga aylangan holda Sharqiy Yevropada ham faollashib bormoqda edi. 1991 yildagi Germaniyaning qat'iy diplomatik harakati keskin oqibatlariga olib keldi. Unda Germaniya hukumati Yugoslaviyadan ajralib chiqqan birinchi ikkita respublikalar suverenitetini tan olgan edi. Bu federatsiyaga qattiq zarba berish, ammo Sloveniya va Xorvatiyada Germaniya ta'sirini kuchaytirdi.

Germaniya birlashishining ichki oqibatlari ancha murakkab bo'lib chiqdi. Turlicha ijtimoiy tuzumda o'nlab yil yashash qo'shni mamlakatdan dushman obrazini yaratishga qaratilgan rasmiy tashviqotning faolligi, ijtimoiy hatti-harakat va hayotiy qadriyatlarni turlicha qabul qilish, tarixan shakllangan psixologik xususiyatlar - buning hammasi haqiqiy yagona nemis millatini shakllanishini qiyinlashtirardi. Birlashish lazzati izidan o'zaro qarama-qarshilik, jirkanish, G'arbiy Germaniyadagi ishbilarmon va siyosiy doiralar tomonidan sharqiy nemislarni yashirincha kamsitishlar ro'y berdi. GDR aholisining ilgarigi elitar guruhi-harbiy xizmatchilar, sportchilar, madaniyat xodimlari, o'qituvchilardan sanoqli kishilargina yarasha (arzigulik) ish joyiga ega bo'lishdi. Va aksincha, Sharqiy yerlardagi yangi va ishbilarmon va ma'muriy elita GFRning oldingi hududi yashaganlardan iborat bo'lib qoldi. Germaniya birlashishining mo'jizaviy iqtisodiy sanasi haqidagi umidlar xom-xayol bo'lib chiqdi. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni birlashtirish strategik rejalashtirishsiz, sinovlar va xatolar yo'li bilan amalga oshirildi. Oldingi ishlab chiqaruvchi va savdo infratuzilmasining barbod bo'lishi, tuzilmaviy qayta-qurishning boshlanishi "yangi yerlar"da ishlab chiqarishning keskin pasayib ketishiga olib keldi. Bu yerda ishchi o'rinlarning 50%dan ko'prog'i yo'q qilingan edi. Ishsizlik, ichki shakllarini hisobga olgan holda 30%ni tashkil etdi. 1990 yil iyulida pul islohotining o'tkazilishi Sharqiy

Germaniya uchun “SHOKOVAYA TERAPIYA” bo‘ldi. GDV markalari doychmarkalarga almashtirildi. O‘tish davrida oylik maoshi, stipendiyalar, nafaqalar, yashash joyi uchun ijara to‘lovlarining oldingi hajmi saqlab qolindi va aholi uchun almashtirish 1:1 koeffitsient bilan bolalarga 2 ming markagacha, kattalarga 4 ming markagacha va nafaqaxo‘rlarga 6 ming markagacha summada amalga oshirildi. Bundan ortiq mablag‘lar 1:2 nisbatda almashtirildi. Ammo tez orada Sharqiy Germaniyadagi mahsulot bozori izdan chiqdi va bu yerlarda aholi turmush darajasi nihoyatda pasayib ketdi.

1990 yil avgustida GDR va GFR o‘rtasida imzolangan shartnoma GSHM tomonidan 1945-1949 yillarda uning ilgarigi egalari foydasiga musodara qilingan mulkni qayta taqsimlashdan voz kechishni qat’iy belgiladi. Bu yer mulkiga ham tegishli edi. Sharqiy Germaniya iqtisodiyotini isloh qilishning asosiy usullari odatdagi KOMMERCHESKAYA asosda xususiylashtirish dasturlarini amalga oshirish va bozor menejmentini joriy etishdan iborat bo‘ldi. Eng yirik xoldinglardan birining bazasida xususiylashtirishni amalga oshirish uchun Berlin homiylik boshqarmasi tuzilgan edi. Uning ixtiyoriga (ishonchli shaxs sifatida) sobiq GDRning 14 mingta davlat korxonalari topshirilgan edi. Ammo xususiylashtirish rejasi amalda barbod qilindi. Sotuvga qo‘yilgan korxonalarning past rentabelligi investorlarni jalb qilishga to‘sqinlik qilardi. Bir yil ichida homiylik boshqarmasi eng rentabel korxonalarning 1 mingtasini xususiylashtirishga muvaffaq bo‘ldi, ammo bunda budjet 4 mlrd. markaga ega bo‘ldi. Shu bilan birga sharqiy yerlarga mablag‘ qo‘yish ham allaqachon o‘nlab milliard markani tashkil etdi.

Sharqiy Germaniya sanoatini ma‘muriy qayta qurishga urinish ham xuddi shunday samarasiz bo‘ldi. G‘arbiy germaniyalik mutaxassislar hisobiga ma‘muriy personalni yoppasiga yangilash, menejmentning eng yangi tamoyillarini joriy etish, butunlay boshqa ishlab chiqarish madaniyati, asbob-uskunalarining texnologik qoloqligi, an‘anaviy bozorlarning izdan chiqishi sharoitida kam samara berardi. Buning hammasi GFR hukumatini sharqiy yerlarni yangilash federal dasturlarini uzoq muddat ichida saqlab turishga majbur qildi. Yerlarga moliyaviy mablag‘ qo‘yishlar 1991 yilda 140-mlrd markani, 1992 yilda - 152 mlrd. markani, 1993 yilda esa 182 mlrd. markani tashkil etdi. GFR esa bu davrda yangi iqtisodiy krizisni boshdan kechirayotgan edi.

90-yillarning boshida G‘arbdagi yetakchi mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotida retsessiya (tanazzul) sezildi. Ammo Germaniya iqtisodiyoti ahvoli eng og‘ir edi. Inqirozning eng yuqori nuqtasi 1993 yilga to‘g‘ri keldi, unda YAIM 1,2% ga pasaydi. Mashinasozlikning yetakchi tarmoqlarida ishlab chiqarishning pasayishi 20-25%ni tashkil etdi. Ishsizlikning turg‘un o‘ssishi boshlandi, u 1991 yilda 5,5%ni, 1993 yilga kelib esa 8,9%ni tashkil etdi. Bunday jiddiy iqtisodiy inqiroz sabablari qisman birlashish muammolari bilan bog‘liq edi. Sharqiy Germaniya iqtisodiyotini yangilash dasturlarini amalga oshirish o‘nlab yillar davomida G‘arbiy Germaniya iqtisodiyoti barqarorligi poydevori bo‘lgan moliyaviy tizim zo‘riqishiga sabab bo‘ldi. Budjet muvozanati uzoq muddat ichida izdan chiqqan edi. Allaqachon 1991 yilda hukumat xarajatlari balansi salbiy bo‘lib qoldi. Bu holat keyinchalik ham, butun 90-yillar davomida saqlanib qoldi. Davlat qarzlari o‘sa bordi, inflyatsiya belgilari paydo bo‘la boshladi. Hukumat soliqlarni va banklardagi protsent stavkalarini oshirishga majbur bo‘ldi. Ammo bu tadbirlar, moliyaviy yo‘qotishlarni juda kam miqdorda qoplab, ishbilarmonlik faoliyatini pasaytirdi va ishlab chiqarish qisqarishini yanada chuqurlashtirdi.

Germaniyaning G‘arbiy yerlarida sanoat ishlab chiqarishining pasayishiga o‘ziga xos sabablarga ega edi. Hal qiluvchi omil ishchi kuchining nihoyatda qimmatligidan iborat bo‘ldi. Sotsial bozor iqtisodiyoti sharoitida to‘g‘ri va bilvosita to‘lovlar, bonuslar va rag‘batlantirishlar murakkab tizimi asosida shakllanuvchi mehnatga haq to‘lash hajmi o‘ziga xos bo‘ldi. 90-yillarning boshlarida GFRDa bir soatlik ish 45 marka turardi, vaholanki bu ko‘rsatkich Yaponiyada-30, AQShda-24,8, Buyuk Britaniyada-22,8 markani tashkil etdi. Liberallarning ijtimoiy fondlarga to‘lovlari bilan birgalikda bu holat mahsulot tonnaxining oshishi va xorijiy investitsiyalarni nemis korxonalari jalb etishini ta‘minladi. 90-yillarning boshlarida nemis kapitalining xorijga qarab oqishi ham ro‘y berdi. 1994 yilda iqtisodiy konyukturaning jonlanishi ko‘zga tashlandi. YAIMning o‘ssishi 2,8%ni tashkil etdi. Ammo 1995-1996 yildayoq yangi

inqiroz boshlandi. Ishlab chiqarishning chuqur pasayishi ro'y bermagan bo'lsa-da, barcha makroiqtisodiy ko'rsatkichlar jiddiy tizim nomutanosibliklari saqlanib qolishidan guvohlik berardi. Ishsizlik turg'un o'sib borardi, uning eng yuqori cho'qqisi 1997 yil bo'ldi, o'shanda ishsizlar iqtisodiy faol aholining 11,3%ini tashkil etdi. O'n yillik boshida YAIM 40%ini tashkil etgan davlat qarzlari ham muntazam o'sib bordi va 1996 yilga kelib YAIMning 60%dan oshib ketdi. YAIM o'sishi bilan birga yo'l bergan 1997 yildagi inqirozni yengish asosan eksportning oshishi bilan bog'liq edi. Ammo investitsion faollik, to'lovga qodir bo'lgan ichki talab stagnatsiyasi GFR iqtisodiyotining butun inqirozdan chiqishiga umid bog'lashga xalaqit berardi. Bunday sharoitda hukumat o'z siyosatiga tuzatishlar kiritishi kerak edi. Asosiy shior har tomonlama iqtisod qilish bo'lib qoldi. G.Kol hukumati umumiy ish haqining yarmidan ko'proq darajasigacha soliqlarni oshirishga, davlat xajaratlarini, jumladan sharqiy yerlarni iqtisodiy qo'llab-quvvatlash uchun xarajatlarni keskin kamaytirishga majbur bo'ldi. "Mehnatga ko'maklashish to'g'risdagi qonun"ga muvofiq (1986 y) malaka oshirish, qayta tayyorlash uchun mablag'lar (assignotsiyalar), ishsizlik nafaqasi ancha qisqartirilgan edi. Sog'liqni saqlash va nafaqa bilan ta'minlash bo'yicha xarajatlar kamaytirildi. Bunday noommaviy choralarning qo'llanilishi hukumat obro'sining tezda tushib ketishiga sabab bo'ldi.

Germaniyada 90-yillarning birinchi yarmi davomida siyosiy vaziyat barqaror edi. Jada ro'y bergan mamlakatning birlashishi uning tashkilotchisi - xristian demokratlar ustunligini mustahkamlashga xizmat qildi. 1994 yil G.Kol partiyasiga navbatdagi tantanani tuhfa etdi. May oyida mamlakat prezidenti etib, XDI vakili, 1987 yildan GFR konstitutsion sudi raisi bo'lgan, 60 yoshli huquqshunos R.Xersog tanlandi. Kuzda Bundestagga navbatdagi saylovlar bo'lib o'tdi. Muxolifat o'z mavqeini ancha mustahkamlashga muvaffaq bo'ldi. GSDP 36,4% ovoz va 252 mandatga ega bo'ldi. DSP deyarli 5%li cheklanishgacha yetib bordi - 4,4% ovoz, sharqiy yerlardagi saylovchilarning qo'llab-quvvatlashi DSP fraksiyaning 30 deputatgacha oshirishga imkon berdi. Sharqiy yerlardagi o'z sheriklari va "Ittifoq 90" blokidagi huquqni himoya qiluvchi partiyalar bilan koalitsiyaga birlashgan "yashillar" yana muvaffaqiyatli ishtirok etishdi. Bu koalitsiya 7,3% ovoz va 49 mandatga ega bo'ldi.

Shunga qaramasdan hukumat koalitsiyasi parlamentda ko'pchilikni saqlab qoldi. XDI 34,2% ovozga (244 mandat), XSI - 7,3% ovozga (50 mandatga) ega bo'ldi. Yomon iqtisodiy ahvolni hisobga olgan holda, bu yutuq G.Kolning katta shaxsiy muvaffaqiyati, nemis xalqining uni Germaniyani birlashtirishdagi xizmatlarini qadrlashi e'tirof etildi. Eng ko'p zarar ko'rgan XDIG'XSI ittifoqchisi-erkin demokratlar partiyasi bo'ldi, u atigi 6,9% ovoz va 47 mandatga ega bo'lgan edi. EDP rahbariyati yangi vaziyatga mos keluvchi jiddiy dasturni taqdim eta olmadi. Natijada partiya rahbari K.Kinkel o'z lavozimidan mahrum bo'ldi, Genner ham faol siyosiy faoliyatdan chetlashdi.

Navbatdagi 1998 yildagi parlament saylovlarigacha qolgan to'rt yil mobaynida xristian demokratlar na o'z obro'larini oshirishga, na dasturlarini yangilashga muvaffaq bo'lishmadi. Faqatgina 1918 yil davomida iqtisodiy ko'rsatkichlarning oshishi saylov kompaniyasi omadli bo'lishiga umid qilishga mos bo'lishi mumkin edi. YAIMning o'sishi dastlabki 8 oy ichida 2,2% ni tashkil etdi, Osiyo moliyaviy inqirozi Germaniyaga unchalik ta'sir ko'rsatmagan edi. XDI saflarida yangi ko'zga tashlanuvchi rahbar paydo bo'ldi- Volfgan Shoyble - Bundestagdagi XDIG'XSI birlashgan fraksiyasi raisi. Saylovlarda xristian demokratlarni Kol-Shoyble juftligi boshqarardi va partiyaning ilgarigi xizmatlari va uning kelajagi ramzi edi.

1998 yil saylovlari arafasida sotsial-demokratlar safida ham ikkita rahbar bor edi. Ulardan birining (Oskar Lafonten) bu darajaga ko'tarilishi 80-yillarning boshidayoq boshlangan edi. Lafonten modernistlar guruhi vakili edi. Modernistlar- an'anaviy so'l sotsial demokratiyadan qat'iyon farq qiluvchi partiyaning yangi so'l qanoti edi. Partiya oqsqaqollari - V.Brandt, E.Epler, E.Bar yordami bilan Lafonten xalqaro xavfsizlik, ekologiya, terrorizmga qarshi kurash, jamiyatning dolzarb muammolarini yechish masalalariga bog'liq bo'lgan GSDP dasturining yangi jihatlarini ishlab chiqa boshladi. U so'zsiz bandlikni kengaytirish, sanoat ishlab chiqarishi o'stirish, iste'molchilik g'oyalarini rag'batlantirishdan voz kechish uchun kurashib, sotsial davlat modelini buzish emas, balki uni qayta qurishga, uning markazlashganligi, byurokratlashganligini

kamaytirishga chaqirardi. Bu g'oyalar GSDP tarafdorlarini ham "yangi sotsial harakatlarning" "e'tiroz bildiruvchi saylovchilari" hisobidan ham G'arbda oshib borayotgan "nomaterialistik yashash tarzi" tarafdorlari hisobidan ko'paytirishga qaratilgan edi.

Uzoq muddat davomida Lafonten partiya raisi X.Y.Fogel soyasida qoldi. 1990 yil saylovlarida GSDP bir yil oldin partiya yetakchisi faol ishtiroki bilan tasdiqlangan yangilangan dastur bilan tayyorgarlik ko'rgan edi. Uning leytmotivi radikal Yevropaparastlik g'oyasidan iborat edi. Ammo Germaniya birlashishi davrida ro'y bergan saylovdagi mag'lubiyat Fogelning siyosiy e'tiborining so'nishini boshlab berdi. 1994 yilga kelib, Lafonten so'zsiz GSDP ning ma'naviy yetakchisi edi, saylovdagi navbatdagi omadsizlikdan so'ng partiya rahbari lavozimiga ham ega bo'ldi. Ammo Lafontenning bo'sh joyi o'ta radikal obrazi, favqulodda keskin bahs-munozaraga kirishish va oshkora CHESTOLYUBIYE edi. Matbuot uni qoralab "yashil oyatulloh" va "kichik Napoleon" deb atadi. Saylovlarda muvaffaqiyatga erishish uchun partiyaga o'zga qiyofaga ega rahbar kerak edi. Bu rahbar Gerxard Shreder edi.

G.Shreder ham GSDP rahbariyatida yangi odam emas edi. 1978-1980 yillarda u GSDP yoshlar tashkilotini boshqardi, 1986 yildan esa partiya boshqaruviga kirar edi. Yuridik ma'lumot olishga muvaffaq bo'lgan ishchi oila farzandi, tajribali siyosatchi bo'lgan Shreder nafaqat partiya, balki umummilliy yetakchi qiyofasida chiqdi. U saylovchilarning ko'pchiligi uchun qiziqarli bo'lgan tamoyillarga tayandi. Bu tamoyillar asosi individual yutuqlar hisobga olinganda teng imkoniyatlar g'oyasi, ichki siyosatdagi liberal pragmatizm, muvozanatga keltirilgan tashqi siyosatdan iborat edi. Saylovchilarni Shrederning "so'l" va "o'ng"lar o'rtasidagi mafkuraviy kurashdan chetlanishi, yangilanish strategiyasining ijtimoiy javobgarlik bilan samarali mujassamlashishini totishi, ZDRASTVO'Y SMO'SL siyosatiga o'tishi o'ziga jalb qilardi. Shreder ko'p yillik inqirozdan chiqish yo'lini boshqaruvning texnokratik usullaridan voz kechish, hukumat faoliyatini "kuzatib borish mumkinligini" ta'minlash, jumladan, "kelishilgan harakatlar" (ishbilarmonlar, kasabab uyushmalari va davlat vakillari tomonidan birgalik muhokama qilishning o'ziga xos "ishtirok etish" modeli) institutlarning qayta tiklashdan izlashni taklif qilardi. 1998 yildagi partiya syezdida Shreder partiya shiorini tuzdi: "Biz hamma narsani o'zgartirmaymiz, ammo biz yaxshiroq qilamiz".

1998 yil saylovlari sotsial demokratlarga uzoq kutilgan g'alabani hadya etdi. GSDP 40,8% ovoz va 298 mandatga ega bo'ldi. Parlamentda ko'pchilikni tashkil etish uchun "alvon-yashil koalitsiya" tashkil qilindi. 67% ovoz va 47 mandatga ega bo'lgan "Ittifoq 90 G' yashillar" fraksiyasi uning a'zosi bo'ldi. Birinchi marta DSP 5%li to'siqni oshib o'tdi (5,1% va 35 mandat). XDIG'XSI bloki 35,3% ovozga (245 mandatga), EDP esa-6,2% ovoz (44 mandatga) ega bo'ldi. Gerxard Shreder Germaniyaning yangi kansleri bo'ldi. Lafonten avvaliga moliya vaziri lavozimini egalladi, ammo ikki yetakchining birga bo'lishi uzoq davom etmadi. Shreder talabchan sherik homiyligidan qutulish va uni layoqatliroq bo'lgan Gane Eyshel bilan almashtirishga shoshildi. Shreder hukumatda tashqi ishlar vaziri "Ittifoq 90 G' yashillar" bloki yetakchisi Yoshka Fisher bo'ldi. 1999 yil may oyida sotsial-demokratlar muvaffaqiyatli prezident saylovlari o'tkazishdi. Bu lavozimni Yoxannes Rou egalladi.

Ichki siyosatda Shreder "neokonservativ to'lqin" joyini egallagan yangi siyosatchilar Bler va Jospen tajribasidan foydalanishga muvaffaq bo'ldi. Ustivor yo'nalishlar kompaniyalar soliqlarini kamaytirish, mehnat bozori egiluvchanligini ta'minlash va ish kuni davomiyligini o'zgartirish, mehnatga haq to'lash uchun chegirmalarni qisqartirish, iqtisodiyotdagi ijtimoiy sektorni yangilashdan iborat bo'ldi. Sotsial bozor iqtisodiyot tizimini tubdan qayta tuzish amalga oshirilmadi, ammo iqtisodiy o'sish davridagi maqbul siyosat juda samarali bo'lib chiqdi. Davlat xarajatlarini tejashga asosan yerlar budjeti hisobidan erishildi. 1999 yilda hukumat ta'lim sohasini keng miqyosda isloh qilish qarorini ma'lum qilib, bu sohaga bo'lgan xarajatlarni ratsionallashtirish va uning samaradorligini oshirishga xarakat qildi. Istiqbolli ilmiy-texnik tadqiqotlar uchun qo'shimcha assignatsiyalar ajratila boshlandi.

Tashqi siyosatga ham Shreder katta tuzatishlar kiritdi. 1999 yilda Yeining raisi bo'lishiga qaramasdan, Germaniya valyuta ittifoqini shakllantirishga qaratilgan umumevropa dasturlari loyihalarini ma'qullashga shoshilmadi. Germaniya integratsiya jarayoniga qatnashishga tayyor

ekanligini namoyish etdi, ammo boshqa mamlakatlar uchun mablag' to'lashdan bosh tortdi. 1999-2000 yillarda Germaniya NATO tarkibida faolroq bo'ldi. Shreder Kosovadagi mojaroga nisbatan o'ta murosasiz pozitsiyani egalladi va bu bilan hatto demokratsion muxolifotga ham ma'qullandi. Rossiya bilan o'zaro munosabatlarda esa sovish davri boshlandi. Oxirgi parlament saylovlari davomida Rossiya prezidenti Yelsin tomonidan Kolning ochiqchasiga qo'llab-quvvatlanishi Moskvaning yangi hukumat bilan yaqinlashishiga to'sqinlik qildi. 2000 yilda shu yo'nalishda Germaniya diplomatiyasi Rossiyaning tashqi qarzlari masalasida yetarlicha murosasiz pozitsiyani egalladi.

mavzu: IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYINGI DAVRDA AQSH.

Ko'rib chiqiladigan masalalar:

- 1. Iqtisodiy rivojlanish.**
- 2. Siyosiy rivojlanish.**
- 3. Ijtimoiy rivojlanish. Mehnat munosabatlari. Irqiy tenglik muammosi.**
- 4. AQSH tashqi siyosati.**

Tayanch so'zlar:

AQShning ikkinchi jahon urushidan keyingi davridagi tarixini o'rganish manbalari va tarixshunosligi. AQSHning iqtisodiy va siyosiy taraqqiyoti. G.Trumenning ichki va tashqi siyosati. D.Marshall rejasi va uning mohiyati. Shimoliy Atlantika (NATO) blokining vujudga kelishi. 1962 yilda Karib inqirozi va Sovet-Amerika munosabatlari.

1963 yil 22 noyabrda Texas shtatida uyushtirilgan suiqasd va Kennedining otib o'ldirilishi. L.Jonsonning prezidentligi. Vyetnam muammosi. 1968 yil prezident saylovlarida R.Niksonning g'alabasi. Uning ichki va tashqi siyosati. J.Ford prezidentligi (1973-1976). R.Reygan va J.Bush prezidentligi yillarida Sovet-Amerika munosabatlari. 1992 yil prezident saylovlarida demokrat B.Klinton g'alabasi va uning MDXga nisbatan olib borgan siyosati. AQSH-O'zbekiston munosabatlari.

Darsning maqsadi:

AQShning ikkinchi jahon urushida ishtiroki, g'alabaga qo'shgan hissasi, uning iqtisodiy rivojlanib ketish omillari, ijtimoiy rivojlanishi va mehnat munosabatlari, qulchilik hamda tashqi siyosati, uning jahon miqyosida gegemonlik qilishi chun agressiv tashqi siyosat olib borishi masalalari yoritiladi.

AQShda urushdan keyingi ahvol. "Adolatli yo'l".

Boshqa mamlakatlarga nisbatan AQSH Ikkinchi jahon urushida eng kam nisbiy va moddiy talofat ko'rdi; 300 ming odam halok bo'ldi va bedarak yo'qoldi. Bundan tashqari Amerika iqtisodiyotining jadal o'sishining omiliga aylandi. Masalan urush yillarida AQSH sanoatining quvvati ikki baravar eksport hajmi esa besh baravarga ko'paydi. AQSH urushdan eng qudratli iqtisodiy va harbiy siyosiy ilg'or manyuketga aylandi. 1948 yilda kapitalistik dunyo ishlab chiqarishida AQSH ko'lami 54,6% ni, uning oltin zaxiralari esa dunyo zaxiralarining 53,3% ni tashkil etdi. Urush so'ngida AQSH kapitalistik dunyodagi eng ko'p sonli va qudratli armiyaga ega edi. 1949 yilgacha u atom quroli monopoliyasiga egalik qilar va undan foydalanardi. Shuning uchun, AQShning o'zini "erkin dunyo" manfaatlari himoyachisi deb e'lon qilishi ajablanarli emas. Bu mamlakatlar barcha kapitalistik mamlakatlarni qamrab olardi.

Urushdan keyingi davrda iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda prezident F.D.Ruzveltning "yangi kurs (yo'l)" dasturi doirasida boshlangan islohotlar davom ettirildi. 1944-1946 yillarda harbiy harakatlar tugagandan so'ng demobilizatsiya qilinishlari kerak bo'lgan harbiylar hamda aholining qashshoq qatlami ahvolini yaxshilashga yo'naltirilgan bir qator qonunlar qabul qilindi. Bu qonunlarga, jumladan, urush qatnashchilari uchun katta imtiyozlar berishni ko'zda tutuvchi "soldat bil", ishsizlikni qisqartirishga qaratilgan bandlik to'g'risidagi qonun, nafaqa va to'lovlarni oshirish akti kirardi. 1945 yil aprelida F.D.Ruzvelt o'limidan so'ng AQSH prezidenti bo'lgan G.Trumenning o'z siyosatini "adolatli yo'l" deb atagani tasodifiy emas edi.

Ijtimoiy-siyosiy hayotda o'ng-konservativ burilish.

Shu bilan birga, urushdan keyingi ahvol aholi keng qatlamlari kayfiyati so'l tomonga og'ishi bilan xarakterlanuvchi ko'pchilik Yevropa mamlakatlaridan farqli o'laroq, AQShda o'ng

va konservativ kuchlar chiqishi kuzatildi. Bu xususan, 30-yillarda qabul qilingan ijtimoiy qonunlarni qayta ko'rib chiqishga urinishlarda o'z ifodasini topdi. Amerikalik qonun chiqaruvchilari pozitsiyalaridagi eng yorqin o'zgarishlar 1947 yilda mohiyatan ishchilarga qarshi bo'lgan Taft-Xarli (AQSH kongressidagi bu qonun tashabbuskorlari nomiga ko'ra shunday nomlangan) qonunining qabul qilinishi bo'lib, uning asosiy maqsadi kasaba uyushmalari faoliyatini cheklash va nazoratga olishdan iborat edi. Bu qonun, jumadan, davlat xizmatchilari uyushtirgan va barcha siyosiy yo'nalishga ega noroziliklarni boykot va tiketlarni ta'qiqlab qo'yardi. Hukumat norozilik namoyishlari va stachka (ish tashlash)larni 80 kun davomida to'xtatib qo'yish huquqiga ega bo'ldi.

Ishchilar harakatini nazorat qilishning yanada kuchaytirishga qaratilgan bu yo'nalish 1959 yilda qabul qilingan va mehnat vazirligining kasaba uyushmalari ichki ishlari, xususan ularning moliyalari va kasaba uyushmasi oliy rahbariyatini tanlash mexanizmi ustidan nazorat o'rnatishni ko'zda tutuvchi Lendrem Griffin qonunini qabul qilish bilan davom ettirildi. Shuni o'zi bilan mehnat munosabatlarining davlat tomonidan tartibga solinishi tizimi yanada qat'iylashtirildi.

O'ng tomonga burilishning yaqqol namoyon bo'lishining ko'rinishlaridan biri jamoatchilik fikridagi antisovet va antikommunistik kayfiyatlarning kuchayishi edi. 1947 yilda davlat xizmatchilarini "yaroqlilikka tekshirish" nomli ishlar boshlanib ketdi. Bu ishlar aslida kommutum va SSSRga xayrixolikda shubha qilingan barcha boshqacha fikrlovchi va ishonchsiz shaxslardan davlat apparatini tozalash kompaniyasiga aylanib ketdi. 1949 yil yanvarda o'ng doiralar tashabbusi bilan keng sonli AQSH kommunistik partiyasiga qarshi sud jarayoni boshlab yubordi. Partiya yaroqsizlikda va hatto sal bo'lmasa Sovet Ittifoqi foydasiga josuslik qilish deb ayblandi. 9 oy davlm etgan bu jarayon natijasida kommunistik partiya Milliy qo'mitasining o'n bir nafar a'zosi va turli muddat bilan qamoq jazosiga mahkum qilindi.

Ammo eng mukammal (tugallangan) va keskin shaklda o'ng konservativ burilish 1950-1953 yillarda makkartizmga namoyon bo'ldi. Senator J.Makkorti rahbarligida o'ng doiralar tomonidan keng miqyosdagi antikommunistik va antisovet kompaniyasi shunday nomlandi. Haqli ravishda "alvastilar ovi" deb atalgan bu kompaniya, go'yoki Sovet Ittifoqi boshchiligidagi dunyoviy kommunizm tomonidan AQShga qarshi til biriktirish oldida vahima tushishini singdirishga qaratilgan edi. Kommunistlar va ularning tarafdorlari hukumat oliy doiralariga yo'l olganliklari haqida uqtirilardi.

Islahotchi prezident F.D.Ruzveltning hukmronlik davri "sotqinlikning yigirma yili" deb nomlandi. Oliy maqomdagi mansabdor shaxslar, ijodiy ziyolilar namoyandalari, taniqli olimlar va jamoat arboblari badnom etilar edi. Ularning ba'zilariga qarshi sud jarayonlari amalga oshirildi. Makkarti davlat departamenti, Pentagondagi "kommunistlari" izlab topardi. va Eyzenxauer ma'muriyatini Xitoy bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarni saqlayotgan Angliyaga iqtisodiy yordam berishda ochiqchasi ayblovlari bilan chiqdi. Buzg'unchi "unsurlar" va immigrant (muhojir)lar to'g'risida qonunlar ham qabul qilindi. Xususan, 195 yilda AQSH kongressi kommunistlarni nazorat qilish to'g'risida qonun qabul qildi. Bu qonunda kommunistik partiya a'zolarini har yili "xorijiy agent" sifatida adliya vazirligida ro'yxat olishni ko'zda tutgan edi.

Ammo hukmron doiralar, o'zlarining AQShga qarshi til biriktirishiga qarshi ayblovlari hech qanday chegara bilmaydigan jo'shqin senator va uning tarafdorlarining faoliyati mamlakat obro'siga putur yetkazishi mumkinligiga tobora yaxshiroq ishonch hosil qilishayotgan edi. 1954 yilda AQSH senati Makkarti oliy qonun chiqaruvchi organi ayblashda hamda "kommunizmga qarshi kurash"ga ajratilgan davlat mablag'larini noqonuniy sarflashda ayblab javobgarlikka tortishga majbur bo'ldi. Shu yilning 2 dekabrda esa senat ovozlarning mutloq ko'pchiligi bilan senatorni aybladi va bundan keyin u siyosiy sahnani juda tez tark etdi.

Tashqi siyosiy kursdagi urushdan keyingi o'zgarishlar.

Hukmron doiralar mavqeidagi o'ng tomonga burilish xususan tashqi siyosat sohasida yaqqol ko'zga tashlandi. Urushni tugashi arafasidayoq antigitler koalitsiyasi bo'yicha ittifoqchilar o'rtasidagi kelishmovchiliklar tobora o'sayotgan darajada o'zini namoyon qilardi. Urush tugashi bilan bu qarama-qarshiliklar hmmaga oydin bo'lib qoldi. Bu qarama-

qarshiliklarning keskinlashuvi avval koalitsiyaning amalda parchalanishiga, keyin “sovuq urush”ning boshlanishiga olib keldi. Bu masalada tashabbus AQSH tomonida edi.

“Sovuq urush” va uning natijasida yuzaga kelgan “kuch nuqtai nazaridan” siyosati “urush yoqasida tenglashtirish”, “umumdunyoviy o‘zaro kurash” va boshqalar kabi tashqi siyosiy doktrinalar xalqaro tenglikning oshishiga va yangi jahon urushi xavfining kuchayishiga olib keldi. “Sovuq urush” siyosati doirasida Trumen ma’muriyati bir qator tashqi siyosiy qadam va tashabbuslarni qabul qildi. Ular tarkibida Trumen doktrinasi va Marshall rejasi ham bor edi. Bosh maqsadi “kommunizmni ushlab turish” yoki soddaroq qilib aytganda SSSRga qarshi turish bo‘lgan Trumen doktrinasi so‘l kuchlarning g‘alaba qilishlari va SSSRning ta’sirini kuchayishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun Gretsiya va Turkiyaga yordam berishni ko‘zda tutardi.

J.Marshall rejasi (uning muallifi-o‘sha paytdagi davlat kotibi nomiga qo‘yilgan) AQSH ittifoqchi-mamlakatlariga urush paytida ishdan chiqqan iqtisodiyotni qayta tiklash keng qamrovli dasturdan iborat edi. Bu dasturning to‘rt yillik (1948-1952) amal qilish davrida AQSH juda katta bo‘lgan 12,5 mlyard dollarni sarfladi. Amerikaliklar Yevropa mamlakatlarida ishdan chiqqan iqtisodiyotni tiklashga qaratilgan keskin choralar ko‘rilmasa bu mamlakatlarda ijtimoiy yoki boshqa hodisalarning xavfi borligi to‘g‘risida mutlaqo haq edilar va Yevropada vaziyat barqaror bo‘lishidan manfaatdor edilar.

1949 yilda AQSH tashabbusi bilan G‘arbning sanoati rivojlangan mamlakatlari harbiy-siyosiy ittifoqi-Shimoliy Atlantika Shartnomasi Tashkiloti (NATO) tashkil qilindi. Avvaliga blok 12 mamlakatni o‘z ichiga olardi, keyinchalik yana uch mamlakat uning a‘zolariga aylanishdi. 1982 yilda esa Ispaniyaning qo‘shilishi bilan uning a‘zolari soni 16 taga yetdi. 1950 yilda amerikaliklar Janubiy Koreyalik Li Sin Monning qo‘g‘irchoq rejimini qo‘llab fuqarolar urushiga aralashdilar. 1951 yilda Yaponiyaga “o‘zaro xavfsizlik” to‘g‘risidagi shartnomani zo‘rlab qabul qildirib, AQSH rahbariyati yapon yerida o‘z qo‘shinlarining katta qismining saqlab qolinishiga muvaffaq bo‘ldilar.

Respublikachilar g‘alabasi. D.Eyzenxauer siyosati.

1952 yilda prezident saylovlarida 1932 yildan beri oppozitsiyada bo‘lgan respublikachilar partiyasi mashhur general D. Eyzenxauer rahbarligida g‘alaba qozondi. U ikkinchi jahon urushi davrida Yevropadagi AQSH qo‘shinlariga rahbarlik qilar va Ittifoqchilar qo‘shining Fransiya sohiliga kiritilishi operatsiyasiga rahbarlik qilardi. Urush tugashi bilan Eyzenxauer AQSH qurolli kuchlari shtab boshliqlari qo‘mitasi raisi 1947 yilda esa Kolumbiya Universiteti prezidentiga (rektoriga) aylandi. 1951 yilda general Yevropada G‘arbiy Yevropa mamlakatlari-NATO a‘zolarining quruqlikdagi, dengizdagi va harbiy havo kuchlariga rahbarlik qildi. 1952 yilga kelib u mamlakatning mashhur va obro‘li kishisiga aylandi.

Eyzenxauer g‘alabasiga, boshqalardan ko‘ra, shu narsa ham turtki bo‘ldiki, u keng jamoatchilik orasida 5 ta Koreya jangchini tugatishga va‘da bergandi. Bu urush Amerika xalqiga katta talofatlar yetkazdi. Eyzenxauerning o‘zi memuarlarida ta’kidlaganidek, bu urush ikkita jahon urushlari va grajdan urushi hisobga olinmasa, AQSH tarixidagi eng qonli urush bo‘ldi. AQSH Koreyada 398 ming o‘lganlar, yaralangan va asirlrni, ittifoqchilari esa 29 ming kishini (Janubiy Koreyadan tashqari) yo‘qotdi. Shuning uchun Eyzenxauer o‘z urinishlarini Koreya urushini to‘xtatishga qaratdi.

Umuman, respublikachilar ma’muriyatining tashqi siyosati Sovet ittifoqiga nisbatan “kuch nuqtai nazaridan” siyosat olib borishni davom ettirilishi bilan xarakterlanardi. Ammo Eyzenxauer qo‘shma Shtatlarning shunday arboblardan biri ediki, Amerika hamma narsaga qodir emas va unga hamma narsa ne dovoleno. Bu narsa ayniqsa, 1957 yil oktabr oyida Sovet Ittifoqida dunyodagi birinchi sun‘iy yo‘ldosh uchirilishidan keyin yanada yaqqolroq namoyon bo‘ldi. Bu SSSR yadro qurollarini AQShning hayotiy muhim markazlariga yetkazish vositalariga ega bo‘lganligini bildirar edi. Bundan buyon AQSH raqibning to‘g‘ri hamlasiga neuyazvimiyy emas ekanligi ayon bo‘lib qoldi. Shuning uchun Eyzenxauer Sovet Ittifoqi bilan hamkorlik qilish zaruriyatini tushunar, fan, san‘at va madaniyat sohalarida sovet-amerika aloqalarini rivojlantirishni muhim deb hisoblardi. Eyzenxauerning yana bir xizmati shundan iborat ediki, u qurollanishni yanada oshirishini yoqlab chiquvchi harbiy sanoat kompleksining o‘ta tirishqoq

namoyandalarini to'xtatib qoldirdi. U, agar bunday shaxslarga boshqaruvsiz hokimiyat berilsa, AQSH partizan davlatga aylanib qolishiga ishonardi.

Oq Uyga kelgandan keyin Eyzenxauer boshqa saylovoldi va'dalarini, ayniqsa, ichki siyosat masalalariga oid va'dalarni bajarishga shoshilmas edi. Bunda shuni hisobga olish kerakki, respublikachilarning saylovoldi dasturida yangi kursni tartibga solish, davlatning boshqaruvchilik rolini qisqartirish, erkin raqobat va erkin bozor tamoyillarini tiklash asosiy o'rin tutardi. Ammo, siyosat bobida realist bo'lgan Eyzenxauer Amerika kapitalizmi allaqachon korporativ shaklga ega bo'lgani va davlatning iqtisodiyot va ijtimoiy sohada qisqartirish emas, balki faqat oshirish mumkinligini tushunardi. Shuning uchun ichki siyosatda, ayniqsa, ijtimoiy sohada uning ma'muriyati o'zlaridan oldin hukmronlik qilgan demokratlar siyosatini kichik tuzatishlar bilan davom ettirayotgan edi.

J.Kennedi. Demokratlarning qaytishi.

AQShning urushdan keyingi tarixida 1960 yildagi prezident saylovlarida demokratlar partiyasi nomzodi Massagusetlik 48 yoshli senator J.Kennedining g'alabasi muhim bosqichni tashkil etdi. V.Vilson va F.Ruzveltlar an'anasini davom ettirib, Kennedi "yangi sarhadlar" nomli islohotlar dasturini olib chiqdi. O'z yo'nalishi va siyosiy dunyoqarashiga ko'ra u F.Ruzveltga juda yaqin edi va ham davlat ichida ham xalqaro sahnada vaziyatga to'g'ri realistik baho berilishi bilan farq qilardi. Juda badavlat oiladan chiqqan hamda intellektual va siyosiy elita namoyandasi bo'lgan Kennedi aholining keng qatlamlari ahvolini yaxshilash va ularning bozor iqtisodiyoti va siyosiy demokratiya ideallari kurashchilariga aylantirish uchun davlat siyosatini doimo takomillashtirib borish zarurligini

yaxshi tushunardi.

Kennedi hukumati iqtisodiyotni barqarorlashtirish va ijtimoiy yordam bo'yicha dasturlarini kengaytirishga qaratilgan bir qator choralarni qabul qildi va amalga oshirdi. Jumladan, u alohida sohalar, masalan, elektra texnika va po'lat quyish sohalarini narxni ko'tarishni ta'qiqladi. qashshoq mintaqalar (eng avvalo ko'mir qazib oluvchi mintaqalar)ga yorlam berish, ishchilarni yangi kasblarga o'qitish va malakalarini oshirish, voyaga yetganlar orasida savodsizlikni tugatish bo'yicha dasturlar ishlab chiqilgan edi. Kennedi ma'muriyatining eng muhim yutuqi shundan iborat ediki, respublikachilarning hukmronligi davridayoq (1957 va 1960 yy) qabul qilingan maktab va mansabdor shaxslarni saylashda irqiy kamsitishni ta'qiqlovchi qaror va qonunlarni rivojlantirgan holda jamoat joylari va ishga qabul qilish paytida irqiy kamsitishga qarshi yo'naltirilgan yangi qonun loyihasini kongressga taqdim etdi.

Kennediga tashqi siyosat masalalarini hal qilishda ham g'ayri odatiy yondashuv xos edi. Uning davrida "tinchlik korpusi" tashkil qilindi. Bu tashkilot qoloq mamlakatlarda iqtisodiyot, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa sohalarda ishlashga istak bildirgan ko'ngillilardan iborat bo'lgan 10 yilga mo'ljallangan va keng ommaviylashtirilgan "Taraqqiyot yo'lida birlashuv" nomli dasturga muhim e'tibor qaratildi. Bu ikkala dasturlarning asosiy maqsadi AQShning xalqaro miqyosdagi ta'sirini kuchaytirishdan iborat edi.

AQSH paytda aynan Kennedining hukmronlik davrida, 1959 yildagi inqilobdan so'ng AQShning ta'sir doirasidan chiqqan Kuba huzurida sovet Rone toparining joylashishidan keyin yuzaga kelgan 1962 yildagi Kuba raketa inqirozi ro'y berdi. Inqiroz shu darajada keskinlashdiki urushdan keyingi davrda birinchi marta dunyoni termayadro urush yoqasiga olib keldi. Ammo, J.Kennedi va o'sha paytdagi sovet rahbari N.S.Xrushev juda chigil va dunyo taqdiri uchun 5 ta xavfli bo'lgan bu vaziyatdan har ikkala tomonga maqbul kelishuvga kelishga muvaffaq bo'lishdi.

1963 yilda Kennedi ma'muriyati atmosfera, suv osti va koinotda yadro sinovlarini ta'qiqlash to'g'risida Moskva shartnomasini imzolashdi. Shunisi, e'tiborliki, o'sha yili Kennedi yadro ostida ikkita qudratli mamlakatlar o'rtasidagi urush bema'ni ekanligi va bu urushda g'oliblar bo'la olmasligini tan oldi.

1963 yil 22 noyabrda o'zining mamlakat bo'ylab saylovoldi sayohati paytida Dallas shahrida (Texas shtati) Kennedi yollangan qotil (yoki qotillar) tomonidan o'ldirildi. Bu fojeali voqea nafaqat Amerikaning o'zi balki butun dunyodagi zamondoshlarini larzaga soldi. Lekin, asr

jinoyati deb nomlangan bu qotillik hozirgacha ochilmaganicha qolmoqda va ehtimol Amerika tarixidagi jumboqlardan biri bo'lib abadiy qoladi. AQSH prezidenti lavozimiga 1964 yilda ishonchli g'alabaga erishgan vitse-prezident L.Djojon ayblandi.

Kennedi yo'lini davom ettirib, Jojon "Buyuk jamiyat" dasturini e'lon qildi va uning doirasida bir qator islohotlar kompleksi ishlab chiqildi va amalga oshirildi. Masalan, 1963, 1965 va 1968 yillarda negrlarning ta'lim sohasida va ishga qabul qilishda irqiy kamsitishning eng tarqalgan shakllarini tugatishga qaratilgan fuqarolik huquqlari to'g'risidagi yangi qonunlar qabul qilindi. "Buyuk jamiyat" doirasida, shuningdek, qashshoqlikka qarshi kurash dasturi ham amalga oshirildi. Aholining kambag'al qatlamiga ijtimoiy yordam ko'rsatish ko'lami sezilarli darajada oshirildi. Ammo Vyetnamdagi urushning tobora kengayib borishi sharoitida Jojon ma'muriyati bir qator eng ko'p xarajatli ijtimoiy dasturlarni qisqartirish yoki butunlay to'xtatishga majbur bo'ldi.

1964 yil boshlangan bu urush, 1965 yilda tobora keng yoyilmoqda edi. Chegaralanmagan qudrat yarim armiyaning qatnashishiga qaramasdan amerikaliklar Vyetnam xalqi ustidan g'alaba qozonishmadi. Balki, ular o'zlariining sharmandalarcha mag'lubiyatlarini tanolishga majbur bo'lishdi.

60-yillarda fuqarolik huquqlari uchun kurashlarining o'sishi.

XX asrning 60-yillari AQShda keng norozilik harakatlari bilan xarakterlandi. Shu nuqtai nazardan, 1955 yildayoq mamlakatdagi ikkita eng yirik kasaba uyushmalari - Amerika Mehnat Federatsiyasi (AMF) va ishlab chiqarish kasaba uyushmalari kongressining (ICHKUK) o'z safida 15-16 mln a'zoga ega bo'lgan yagona umummilliy tashkilotga birlashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, rangli aholining ijtimoiy va siyosiy hayotning turli sohalarida (maishiy, ta'lim, ishga qabul qilish va b.) irqiy kamsitishning saqlanib qolishidan keyin qo'zg'atilgan negrlar harakati to'ldini eng muhim voqea bo'ldi. Bu chiqishlar davomida yosh negr ruhoniysi Martin Lyuter King katta shuhrat qozondi.

1960 yilda "zo'rashlarsiz harakatlar" boshlangandan so'ng negrlar harakati yangi bosqichga o'tdi. Bu harakatning asosiy mo'ljallaridan biri irqiy segregatsiya, ya'ni negrlar va oq tanlilarni mamlakatlarda ajratib o'qitish, negrlarni faqat oqlarga mo'ljallangan jamoat joylariga yaqinlashtirmaslik va boshqalar edi. O'z huquqlari uchun kurash vositalari sifatida negrlar ommaviy marsh va yurishlar, namoyishlarni tashkil qilishar, oqlarga "mo'ljallangan" kafe, restoran va boshqa jamoat joylariga borishardi. Aynan shu chiqishlar mamlakat rahbarlarini negrlarning fuqarolik huquqlari to'g'risida bir qator qonunlar qabul qilishga majbur qilishdi.

60-yillar o'rtalarida negrlar harakatida shunday guruhlar ajralib chiqishdiki, o'z huquqlari uchun kuch ishlatish yo'li bilan kurashishga chaqiruvchi shiorlar bilan chiqishardi. Bu narsa, xususan, 1965 yilda Los-Anjelesda bo'lgan to'qnashuvlarda namoyon bo'ldi. To'qnashuvlar ko'lami haqida shu fakt guvohlik beradiki, qatnashuvchilarni tinchlantirish uchun 10 ming nafar Milliy gvardiyachi va politsiyachi safarbar etildi. Asosiy maqsadi "kapitalistik tuzumni qulatilish uchun qurollangan irqiy urush"dan iborat "qora yuzlar" tashkiloti yuzaga keldi. Ammo Amerikaning irqparast doiralari ham qo'l qovushtirib o'tirishmagan edi. 1968 yil 6 aprelda ular yollagan qotil dastidan Martin Lyuter King halok bo'ldi. Uni dafn etish marosimida 150 000 kishi qatnashdi va qora tanli aholiga nisbatan zo'ravonlikka qarshi siyosiy namoyishga aylanib ketdi.

O'sha davrda, 1964 yilda Berkli shahrida bo'lgan yoshlar va talabalarining chiqishlaridan boshlanib ketgan talabalar harakati ommaviy xarakterga ega bo'ldi. Bu harakat dasturlarida ijtimoiy adolatsizlik, qashshoqlik, irqiy kamsitish, Vyetnamdagi urush va boshqalar asosiy o'rin egallardi. Turli mintaqalar va mamlakat universitet markazlarida talabalarining chiqishi va faoliyatini tartibga solishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yan turli talabalar tashkiloti yuzaga kela boshladi.

Ular orasida "talabalar va demkoartik jamiyat" uyushmasi sezilarli rol o'ynadi. Bu harakatning asosiy tarkibini "yangi so'llar" tashkil etardi. Ularning bunday nomlanishiga sabab shu ediki, ular ijtimoiy adolat va tinchlik, irqiy kamsitishni tugatish, milliy, konfessual va boshqa kichik jamoalar huquqlarini hurmat qilish, ta'lim tizimini mukammallashtirish va boshqalar

qurilgan yangi ijtimoiy-siyosiy tuzumni barpo etishga chaqiruvchi soʻl kayfiyatdagi shiorlar bilan chiqishardi. Ammo, marksizm gʻoyalariga asoslanib, oʻzgarishlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida ishchilar sinfini eʼtirof etuvchi anʼanaviy soʻllardan farqli oʻlaroq, ular bunday kuch sifatida ziyolilar va talabalarni eʼtirof etishardi.

Vyetnamdagi urushga qarshi harakatlar keng koʻlamga ega boʻldi. Butun mamlakat boʻylab marsh va namoyishlar, armiyaga chaqirilishdan bosh tortishlar va chaqiruv qogʻoz (kartochka)larini yoqish avjiga chiqdi. Bu haraatning eng yaqqol namoyon boʻlishi AQShning harbiy mahkamasi-Pentagonning qamal qilinishi boʻlib unda 300 mingtacha odam qatnashdi. Bu harakatning muvaffaqiyatdan shu fakt dalolat beradiki, 1968 yilda Jojon AQSH, Vyetnam Demokratik Respublikasi rahbariyati bilan tinchlik muzokalari olib borishga rozi ekanligini eʼlon qildi. Bundan tashqari Jojon 1968 yildagi prezident saylovlariga oʻz nomzodini qoʻymasligini maʼlum qildi. Mamlakat gʻalayonlarning keskinlashuvi haqida yana bir fakt guvohlik beradi: 1968 yil avgust oyida saylovoldi chiqish paytida Kingdan keyin J.Kennedining ukasi - mamlakatdagi mashhur siyosat arbobi, prezidentlikka nomzod R.Kennedi ham oʻldirildi.

Natijada prezident saylovlarida demokratlar partiyasidan G.Xemfri nomzodi koʻrsatildi. Vyetnam urushi va toʻplanib qolgan ijtimoiy muammolarning yuki demokratlar uchun ogʻirlik qildi va saylovda arziyas ustunlik bilan respublikachilar partiyasi nomzodi R.Nikson gʻalaba qozondi.

2. AQSH 1970-1990 YILLARDA.

Respublikachilar revanshi.

Niksonning hokimiyat tepasiga kelishi Amerikaning siyosiy tarixida respublikachilar bosqichining boshlanishi deyish mumkin. Bu tezis shu bilan asoslanadiki demokratlar partiyasi vakili boʻlgan J.Nartyaning (1976-1980) toʻrt oylik rahbarligini hisobga olmasak, 1968-1992 yillardagi 6 ta muddatning 5 tasida Oq uydagi oliy lavozimni respublikachi-prezidentlar egallashdi.

Nikson juda ogʻir merosga ega boʻldi. 60-yillar oxiri - 70-yillar boshlaridan boshlab AQShning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tobora chuqurlashayotgan tartibsizliklar koʻzga tashlandi. Inflyatsiya oʻta keskinlashgan atigi 2 yil (1972-1974) mobaynida 24 %ga oshgan edi. 1975 yilning oxirida, Gʻarbning arab-isroil urushida Isroilni 1979 yil oktabrida qoʻllab-quvvatlayotganiga norozi boʻlgan bir qator neft ishlab chiqaruvchi mamlakatlarning neft natijasida, butun sanoati rivjlangan mamlakatlar, jumladan AQShni ham energiya tanqisligi qamrab oldi. Neftning yetishmasligi uning keskin qimmatlashuviga olib keldi, bu esa oʻz navbatida 30-yillardan keyingi davrda eng oʻtkir iqtisodiy inqirozni keltirib chiqardi. Bu inqiroz 1975 yil oʻrtasiga kelib eng yuqori choʻqqiga koʻtarishdi. Bunda sanoat ishlab chiqarish hajmi inqirozdan oldingi davrga qaraganda 12,7 % ga qisqardi, avtomobillar, poʻlat, elektroenergiya ishlab chiqarilishi pasaydi, ishsizlar soni keskin oshib, 8,5 mln kishini tashkil etdi.

Respublikachilar maʼmuriyatining ichki siyosati asosan iqtisodiy inqirozni bartaraf etishga qaratilgan edi. Barcha koʻrsatkichlarning pasayib borishi sharoitida 1971 yil avgustida Nikson “yangi iqtisodiy siyosat”ni eʼlon qildi. Unda eng avvalo narxlar va maosh toʻlovlarini, qashshoqlik taʼlimni qoʻllab-quvvatlash kabi ijtimoiy dasturlarni qisqartirishni koʻzda tutardi. “qonun va tartib” shiori ostida urushga qarshi va talabalik harakatlariga qarshi keskin choralar ishlab chiqildi. Bu tadbirlar 1970 yil 4 mayda oʻzining eng yuqori choʻqqisiga koʻtarildi. Oʻshanda Kent universiteti talabalariga qarshi qurol ishlatildi, natijada toʻrt nafar talabalar politsiyachilar tomonidan oʻldirildi.

Nikson maʼmuriyatining xizmati deb shuni aytish mumkinki, u 1973 yilda Vyetnamdagi urushni toʻxtatdi. Janubiy Vyetnamdagi AQSH qoʻshinlarining ketishi bilan AQSH tomonidan mablagʻ va qurol bilan taʼminlash davom etayotganiga qaramasdan tezda Saygon rejimi agʻdarildi. 1975-1976 yillarda Vyetnamning yagona davlatga birlashishi uzil-kesil hal boʻldi. Bu Janubiy-Sharqiy Osiyoda AQSH agressiyasining bataomom magʻlub boʻlganini bildirardi.

Prezident Nikson davrida dunyodagi keskinlik (taranglik)ni yumshatuvchi sovet-amerika munosabatlarida ijobiy o'zgarishlar bo'lib o'tdi. Masalan, 1970 yildan boshlab, 1968 yildayoq imzolangan yadro qurolini tarqatmaslik to'g'risidagi shartnoma kuchga kirdi. Xususan, Niksonning 1972 yildagi Moskva shahriga tashrifi bilan SSSR hamda AQSH o'rtasida 10 ta kelishuvning imzolanishi katta ahamiyatga ega edi. Bu kelishuvlar ichida ikki davlat o'rtasidagi "o'zaro munosabat asoslari", Raketaga qarshi Mudofaa (PRO) va hamla qilishga mo'ljallangan strategik qurollarni muztish bo'yicha vaqtinchalik yeklashuv markaziy o'rinni egallardi. Bularni to'ldirgan holda 1973 yilda yadro urushini bartaraf etish va keyinchalik raketaga qarshi mudofaani qisqartirish to'g'risidagi kelishuvlar imzolandi.

Bu va keyingi kelishuvlar nafaqat sovet-amerika munosabatlari, balki xalqaro miqyosda ham keskinlikning ancha pasayishiga olib keldi. Bu ijobiy o'zgarishlarning ko'rsatkichi, jumladan 1975 yil 15-25 iyuldagi sovet-amerika kosmik ekstremiti (tajribasi) bo'lib, unda fazoda ikki davlat kosmik kemalari - "Soyuz" va "Appalon" ulandi (jipslashdi). Nikson prezidentligi 1972 yildagi prezidentlar saylovlaridan so'ng (bu saylovda respublikachilar partiyasi vakili, bu marta ishonchli g'alabaga erishgan edi) ro'y bergan shov-shuv (skandal) bilan qoralangan edi. Saylovoldi kompaniyalar davomida aniqlangan qonunni burish hollarini tergov qilish paytida hukumatning yuqori organlariga korrupsiyaning yo'l olganligi va yuqori lavozimli shaxslar tomonidan o'z mansabidan suiste'mol qilish hollari aniqlandi. Xususan, shu narsa ayon bo'ldiki, saylov davomida respublikachilarning vakillari demokratik partiya shtab kvartirasi joylashgan "Uotergeyt" mehmonxonasiga buzib kirib xujjatlarni o'g'irlashga urinib ko'rishgan.

Ko'p shov-shuvga sabab bo'lgan va keng yoyilgan "Uotergeyt ishi" paydo bo'ldi. Shov-shuvli fosh etishlar natijasida, Nikson impichment, ya'ni sud aralashuvi va majburiyat prezidentlik lavozimida bo'shatilish xavfi ostida o'z xohishi bilan iste'fo berishga majbur bo'ldi. Bu Amerika tarixida mamlakat prezidentining muddatdan ilgari lavozimdan chetlashishidan iborat birinchi voqea edi. Konstitutsiyaga ko'ra prezidentlik lavozimi vitse-prezident J.Forga topshirildi.

AQSH 70-yillarning ikkinchi yarmida kayfiyatlarning o'zgarishi.

1976 yilda qo'shma Shtatlar mustaqillik e'lon qilinishining 200-yilligini keng nishonlashdi. Shu yili navbatdagi prezident saylovlari bo'lib o'tdi va unda demokratik partiya nomzodi J.Karter g'alabaga erishdi. Uning saylovoldi dasturida markaziy o'rin egallagan korrupsiyani tugatish, harbiy xarajatlarni qisqartirish, sog'liqni saqlash va ta'lim sohalarini yaxshilash, ishsizlikni kamaytirish, amerikalik saylovchining ma'naviy tozalash bo'yicha chora-tadbirlar o'tkazish haqidagi va'dalari saylovchilarga o'z ta'sirini o'tkazdi.

Ko'pchilik saylovchilarning nigohida respublikachilar partiyasi va uning nomzodi J.Fard yaqindagina fosh etilgan karra hukumatning yuqori organlaridagi korrupsiya va maxsus Uotergeyt voqeasi bilan gavdalanardi. Karter jamoasi esa uni ommaviy axborot vositalarida ma'naviy toza (obro'siga dog' tushmagan) arbob, Vashingtonda hukumat argonlaridagi korrupsiya va shov-shuvlardan xoli va oddiy amerikaliklarning manfaat va istaklarni amalga oshirishga qadar bo'lgan shaxs sifatida tanishtira oldi. Karter yana saylovchilar uchun maroqli bo'lgan xalqaro keskinlikni yumshatishni kengaytirish va davom ettirish, barcha mamlakatlarda u yerda hukmron bo'lgan ijtimoiy va siyosiy tuzumda qat'iy nazar inson huquq va erkinliklari uchun kurashishga da'vat etuvchi shiorlar bilan chiqishga ham muvaffaq bo'ldi.

Karter ma'muriyati aktiviga SSSR va AQSH rahbarlari uchrashuvi davomida yangi strategik qurollanishni kamaytirish to'g'risidagi sovet-amerika shartnomasining imzolanishini kiritish kerak. AQSH senati bu shartnomani retifikatsiya qilmagan bo'lsa-da, ikkala tomon o'zaro kelishuvga asosan uning asosiy qoidalarini rioya etishdi. Kemp Devid (AQSH prezidentlarining shahar tashqarisidagi qarorgohi) AQSH vositachiligi bilan Isroil va Misr (1978 yil, sentabr) o'rtalarida tuzilgan shartnoma ham dunyoda turlicha qabul qilindi. Bu shartnoma, mohiyatan, Misrni Isroilga qarshi kurashayotgan arab mamlakatlari yagona blokidan chiqardi. Karter yana Panama bilan 2000 yilda unga Panama kanalini qaytarish to'g'risidagi kelishuvga (unga Vashington uchun qulay bo'lgan bir qator shartlarni qo'ygan holda) imzo qo'yishga majbur edi.

Lekin, umuman olganda, Karter o'zining barcha saylovoldi va'dalarini bajarishga muvaffaq bo'lolmadi. Ayniqsa, uning tashqi siyosiy sohasidagi boshqaruvi qoniqarsiz bo'ldi. AQSH siyosati va obro'siga eng qattiq zarbalardan biri, bu 1979 yilda Erondagi inqilob bo'ldi. Eronlik talabalar tomonidan amerikalik diplomatlarni garovda ushlab turilishi, ularni kuch ishlatib ozod qilishga bo'lgan urinishlarning zoye ketganligi, butun dunyoga AQSH ma'muriyati g'ayriodatiy hollarda yuzaga keladigan tashqi siyosiy vaziyatlarning yechimini topishga qodir emasligini namoyish etdi.

O'sha paytda vaziyatga ko'ra mamalakat ijtimoiy ongida konservativlik kayfiyatning yuzaga kelishi sharoitida Karter ma'muriyati xalqaro keskinlashuvning yumshatilishiga nuqta qo'ygan bir qator choralarni ko'rdi. Bular qatoriga, 1979 yil dekabr oyida Vashington talabiga ko'ra Bryussel uchrashuvida NATO rahbariyati tomonidan qabul qilingan o'rta ta'sir radiusiga ega raketalarni 1981 yildan boshlab G'arbiy Yevropada joylashtirish haqidagi qarorni kiritish mumkin. Sovet-amerika munosabatlari keskin yomonlashib, "sovuq urush" tomonga siljish ro'y berdi.

Har tomondan Karterga, ko'pincha haqqoniy bo'lgan uning sustkashligi, ma'lum murakkablikdagi ichki va tashqi siyosiy muammolarni yecha olmasligi to'g'risidagi ayblovlar yog'a boshladi. Navbatdagi prezidentlik saylovlarida 1960 yilda Karter, respublikachilar partiyasi nomzodi, sobiq mashhur kinoaktyor va Kaliforniya shtati gubernatori R.Reygandan mag'lubiyatga uchradi.

R.Reygan ma'muriyati faoliyati.

Iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida davlat rolini oshirish, xususi tashabbuskorlik (tadbirkorlik)ni rag'batlantirish, kambag'allarga yordam dasturlariga davlat mablag'larini ajratishni keskin qisqartirish, kasaba uyushmalari faoliyatini cheklab qo'yish, Sovet Ittifoqiga nisbatan siyosatni, shiori ostida chiqqan Reyganning g'alabasi, aholining ko'pchiligi ongida, kayfiyatida hamda mamlakat boshqaruv doiralari strategiyasida o'ng tomonga burilish ro'y berganidan dalolat beradi. Ichki siyosiy sohada, o'ng yoki konservativ burilish, amerikalik, ellik yildan ortiqroq davom etayotgan va juda katta, ko'pincha oqlanmagan xarajatlarga majbur qiluvchi eski davlat boshqaruv tizimidan norozi ekanliklarini ko'rsatdi. Ularning nigohida Reyganning tobora chuqurlashayotgan inflyatsiya va ishsizlik muammolarini "davlatning xalq yelkasidan olish" va davlat byurokratiyasini yo'qotish orqali hal etish haqidagi va'dasi maxsus dolzarblik kasb etdi.

Reyganning ijtimoiy-iqtisodiy dasturi "reyganomika" nomi bilan mashhur bo'ldi. Reygan ma'muriyati o'zining asosiy maqsadlari 80-yillar boshida iqtisodiyot uchun asosiy to'siq bo'lgan inflyatsiyani jilovlash, AQSH ilmiy-texnik salohiyatini oshirish, iqtisodiyot tuzilmasini qayta qurish, AQShning dunyo bozoridagi raqobatchilik mavqeini kuchaytirishni ko'rsatdi. Bu maqsadlarga erishishning quyidagi yo'llari taklif qilindi: davlatning iqtisodiyotga aralashuvini cheklash va bozor asoslarini har tomonlama rag'batlantirish; keyinchalik iqtisodiyotga investitsiya qilish uchun aholi jamg'armalarini oshirish; ijtimoiy harakatlar, ya'ni ishsizlar va nogironlar nafaqalarini, tibbiy yordam va boshqalarni kamaytirish orqali federal hukumat xarajatlarini cheklash; federal budjet tanqisligini kamaytirish;

Reygan Karter davridayoq boshlangan iqtisodiy tushkunlikni bartaraf etishdan inflyatsiya va ishsizlikni qisqartirishga, daromad solig'ini pasaytirishga, iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirishga, norozilik harakatlarini jilovlashga erishdi. Bu va ba'zi boshqa omillar unga 1984 yildagi prezident saylovlarida ikkinchi marta g'alaba qozonishga imkon berishdi.

Tashqi siyosat sohasida yaqinlashayotgan sovet tahdidi haqidagi tashviqotdan vahimaga tushgan ko'pchilik amerikalik saylovchilar uchun Reyganning go'yoki AQShning raketa-yadro sohasida SSSRdan orqada qolayotganligi natijasida yuzaga kelgan Amerikaning sini yopish to'g'risidagi shiori alohida jozibadorlik kasb etdi. Sovet Ittifoqini "Yovuzlik imperiyasi" deb atagani holda Reygan uni holsizlantirish va to'xtatib bo'lmas qurollanish poygasiga majbur qilib iqtisodiy jihatdan susaytirishni o'z oldiga qo'ygan maqsadi sifatida e'lon qildi.

Reyganning hokimiyat tepasiga kelishi bilan sovet-amerika munosabatlarining yanada keskinlashuvi kuzatildi, qurollanish poygasi, yangi yuksakroq darajaga ko'tarildi. Harbiy

xarajatlar 1979-1980 moliyaviy yilda 134 mlyard dollardan Reygan prezidentligining oxiriga kelib 291 mlyard dollarga ko'tarildi. Uning davrida "yulduzli janglar" deb nomlangan "strategik mudofaa tashabbusi" o'ta qimmat tadqiqot dasturi amalga oshirildi. Unda fazoviy joylashish elementlariga ega bo'lgan keng miqyosdagi raketaga qarshi mudofaa (PRO) tizimini yaratish ko'zda tutilgan edi. Uni amalga oshirish uchun milliardlar ajratildi. Ammo, keyinchalik ma'lum bo'lishicha, bu dasturning ko'pgina qismlari yetarlicha hisoblanib ishlab chiqilmagan ekan va shuning uchun ularni amalga oshirish amri mahol edi.

Reygan hukmronligining ikkinchi muddati davrida AQSH boshqaruv doiralarining tashqi siyosiy strategiyasida navbatdagi realizmga yuz tutish va Sovet Ittifoqi bilan munosabatlarni yaxshilashga qaratilgan burilish kuzatildi. Bunga bir qator omillar, engavvalo, AQSH bilan munosabatlarni yaxshilash, "yangicha fikrlash"ga asoslangan yo'l topmagan 1985 yilda SSSRning M.S.Gorbachev boshchiligida yangi rahbariyatning kelishi sabab bo'ldi. Bundan tashqari AQSH boshqaruv doiralari tomonidan qurollanish poygasinikuchaytirish strategiyasining istiqbolli, yadro urushida g'alaba qozonishi esa kelajagi yo'qligini tushunib yetishlari ham katta ahamiyatga ega bo'ldi.

1986 yil oktabrida Reykyavikdagi SSSR va AQSH rahbarlarining uchrashuvi sovet-amerika munosabatlaridagi keskinlikni susaytirish yo'lidagi muhim voqea bo'ldi. Barcha hayotiy muhim masalalardagi ikkala tomon kelishmovchiliklarning mavjudligiga qaramasdan strategik qurollar hamda o'rta uzoqlikdagi raketalarni borasida kelishib olishga muvaffaq bo'lindi. Bu kelishuvni o'zaro javobgarlikka asoslangan shartnoma darajasiga ko'tarishga erishilmagan bo'lsa-da, Reykyavikdagi uchrashuv qurollarni kamaytirish uchun kurashni yangi balandlikka ko'tarib, sifat jihatdan yangi vaziyatni yuzaga keltirdi.

Sovet-amerika munosabatlarining yaxshilanishida eng muhim, ko'zga ko'ringan voqea Gorbachevning 1987 yil dekabrda AQShga tashrifi bo'ldi. Tashrif davomida ikki mamlakat rahbarlari o'rta va kichik uzoqlikdagi raketalarni yo'q qilish to'g'risidagi shartnomani imzolashdi. Unda G'arbiy Yevropa mamlakatlari va SSSRning g'arbiy mintaqalarida joylashtirilgan bu turdagi barcha raketalarni demontaj qilish ko'zda tutilgan edi.

AQSH 90-yillarda.

R.Reygan ma'muriyati siyosatidagi ijobiy siljishlar respublikachilar partiyasiga 1988 yildagi prezident saylovlarida osongina navbatdagi g'alabani qo'lga kiritishga imkon berdi. Amaldagi prezident omma orasida katta obro' edi, faqatgina konstitutsiya normalari uchinchi muddatga saylanishga imkon bermasdi. Mamlakatning 41-chi prezidenti qilib, Amerikaning urushdan keyingi davrdagi tarixida birinchi marta vitse-prezidentlikdan to'g'ridan-to'g'ri, Katta J.Bush saylandi. U AQShning Ikkinchi jahon urushining qatnashchisi bo'lgan oxirgi prezidenti edi. U o'zining uzoq muddatli siyosiy () sida katta tajribaga ega edi. Bush AQShning BMTdagi vakili, Xitoydagi elchisi, hamda MRB (SRU) direktori bo'lgan edi.

Bushning Oq uyda avvaliga vitse-prezident, keyinchalik mamlakat rahbari sifatida kelishi qo'shma Shtatlar boshqaruv doiralarining siyosatiga katta ta'sir ko'rsatgan dunyo miqyosidagi ulkan voqealar davrida ro'y berdi. Gap "sovuq urush" tugashi, yadro urushi xavfining pasayishi, Sovet Ittifoqi va sotsialistik hamdo'stlikning barham topishi, Germaniyaning qo'shilishi, Isroilning arab mamlakatlari bilan ochiq muzokaralar olib borishining boshlanishi, hozirgi dunyo siyosiy xaritasidagi o'zgarishlar haqida boryapti. Sovet Ittifoqi kabi eng qudratli harbiy-siyosiy raqibning siyosiy sahnaning tark etishi. AQSH rahbarlari ongida AQShning yagona va umume'tirof etilgan dunyoviy LIDERS () ga aylanishi va AQSH boshchiligida yagona qutbli dunyoviy tuzumning vujudga kelishi haqidagi xom xayollarini vujudga keltirdi.

Mamlakat ichida oshib borayotgan iqtisodiy qiyinchiliklar va budjet tanqisligining kuchayib borishi davrida respublikachilar ma'muriyati oldida vujudga kelgan yangi tashqi siyosiy imkoniyatlar istiqbolli edi. J.Bush o'zining keng siyosiy tajribasiga tayangan holda AQShning mudofaasini kuchaytirish va dunyo sahnasida ochilgan yangi imkoniyatlardan samarali foydalanishni o'z oldiga maqsad qilganini ma'lum qildi.

Ichki siyosat sohasida J.Bush prezidentligining boshlanishi davlat kreditlash tizimidan inqiroz bilan bir davrda to'g'ri keldi. Ma'muriyatning bir qator jamg'arma muassasalarini

tugatish va 1989 yilda qabul qilingan moliyaviy institutlarni isloh qilish to'g'risidagi qonunga tayanishga bo'lgan urinishlari muvaffaqiyatsiz bo'ldi va federal depozitlarni sug'urta qilish zarurati natijasida budget xarajatlarning keskin oshishiga olib keldi. 1991 yilda boshlangan iqtisodiy pasayish keyinchalik budget tanqisligini oshishiga ta'sir qildi va prezident Reyganning konservativ moliyaviy dasturini davom ettirish haqidagi saylovoldi va'dasidan voz kechishga majbur bo'ldi. Katta J.Bush ma'muriyati tezda soliqlarni oshirish, ijtimoiy ehtiyojlarga ajratilgan mablag' va qisman harbiy xarajatlarni kamaytirishga o'tdi. Soliq siyosati tubdan qayta ko'tarildi, katta daromadli shaxslardan soliq olishdagi bir qator cheklanishlar bekor qilindi. Shu bilan bir vaqtda kichik korxonalarni qo'llab-quvvatlash hamda ma'muriyat ixtiyoridagi soliq vositalari, eng avvalo, soliq imtiyozlarining egiluvchan tizimi kabi davlat tomonidan tartibga solish turi orqali erkin savdoni ta'minlash dasturi ishlab chiqila boshlandi. Prezident bu dasturni amalga oshirishga erisholmadi. U davlat xarajatlarning yangi moddalarini joriy qilish nomumkinligi sababli qiyin vaziyatga tushib, homiylikni () rag'batlantirish va kengaytirish bo'yicha katta ishlarni boshladi. Shu sababli uning ma'muriyati bir qator zarur tabiatni muhofaza qilish choralarni mablag'ni atrof-muhitni ifloslantiruvchi xususiy sanoat hisobidan to'lashga majbur edi.

Respublikachilarning tashqi siyosati ancha muvaffaqiyatliroq edi. Bush ma'muriyatining Amerika qit'asidagi faoliyati AQShda ma'qullandi va qo'llab-quvvatlandi. 1989 yil dekabrda general M.A.Norvegi rejimini qulatilish va saylangan hukumatni barqaror etish maqsadida AQSH qo'shinlari Panamaga kiritildi. G'arb yarim shari mamlakatlarining iqtisodiy hamkorligi rivojlandi. 1990 yilda, "umumamerika tashabbusi"- qarzlarni o'zaro hisoblash va kelishuv qatnashchilari o'rtasida bojxona to'lovlarini bekor qilish yo'li bilan Amerika davlatlari iqtisodiyotiga investitsiya kiritish va savdoni kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar o'zining amaliy bosqichiga o'tdi. AQSH, Kanada, Meksika o'rtasida erkin savdo to'g'risida Shimoliy Atlantik kelishuvini qabul qilish to'g'risidagi muzokaralar muvaffaqiyatli o'tdi.

J.Bush xalqaro keskinlikni susaytirish va "sovuq urush" asoratlarini bartaraf etish siyosatini olib bordi. Uning SSSR rahbari M.Gorbachev bilan birinchi uchrashuvi 1989 yil dekabr oyida bo'lib o'tdi. 21-punktdagi AQSH tomonidan taklif qilingan sovet-amerika munosabatlarini rivojlantirish dasturi deyarli to'la qabul qilindi. Keyinchalik, SSSR rahbariyati u tarqalgandan so'ng esa, Rossiya rahbarlari bo'lgan bir qator uchrashuvlarda bu mamlakatlar munosabatini yomonlashtirib turgan bir qator bahs munozarali masalalar AQSH foydasiga qilindi. AQSH tomoni SSSRni jahon iqtisodiyotiga to'liq kirishiga yordam berishni taklif qildi. Ayni paytda G'arbiy Yevropadan sovet va amerika qo'shinlarini chiqarish, qurollanishni nazorat qilish va Yevropa xavfsizligini yangi tizimini yaratishda SBSE (1975 y) roli haqida muzokaralar olib borildi.

AQSH ma'muriyatining faol ishtiroki ostida Sharqiy va G'arbiy Germaniyaning qo'shilishi masalasi muhokama qilindi. Ko'p tomonlama muzokaralar 12 sentabr 1990 yilda Moskva shahrida shunday shartnoma imzolandiki, unga ko'ra SSSR NATOning to'la huquqli a'zosi sifatida yagona Germaniyani tuzishga rozilik bildirdi. 1990-1991 yillardagi Yevropadagi qurolli kuchlar, hamda oddiy va strategik hujumga mo'ljallangan qurollarni katta miqyosda qisqartirish to'g'risidagi shartnomalar tuzildi.

90-yillarning boshida J.Bush ma'muriyati "yangi dunyo tartibini" o'rnatish vazifasini ma'lum qildi. AQSH hukumati 1990 yilda, quvaytga xujum uyushtirgan Iroqqa qarshi g'arb davlatlari kaolitsiyasini tuzdi va uning ustidan yengil g'alaba qozondi. Shu bilan birga, "sovuq urush"dan keyin ikki dunyoviy tuzum raqobati davrida AQShning xalqaro siyosiy strategiyasiga tayanadigan tashqi siyosiy masalalardagi ichki siyosiy konsepsus barham topdi. Xitoyda 1989 yildagi tinchlik namoyishlarni tarqatish vaqtida inson huquqlarining paymol qilinishi munosabati bilan bu mamlakatga qarshi iqtisodiy sanksiyalarni qo'llashdan bosh tortgan J.Bush ma'muriyatiga AQSH keng jamoati tanqidiy munosabatda bo'ldi. Fors qo'ltig'ida urush tugaganidan so'ng qo'shma Shtatlarda chuqur iqtisodiy inqiroz boshlandiki, faqat 1992 yil boshida kelib uni qisman to'xtatishga muvaffaq bo'lindi.

1992 yilda bo‘lib o‘tgan prezident saylovlarida respublikachilar ma‘muriyati qiyinchiliklaridan ustalik bilan foydalana olgan demokratlar partiyasi vakili Uilyem Jefferson Klinton Oq uy xo‘jayiniga aylandi. Uning g‘alabasining eng muhim omillaridan biri shu ediki, u demokratik partiyani saylovchilar oldidagi “yuzini” tubdan o‘zgargan o‘ta moddiy islohotlarni o‘tkazishga muvaffaq bo‘ldi. “Reyganomika”ning mafkuraviylashgan prinsiplaridan voz kechib, Klinton o‘z partiyasining an‘anaviy shiorlaridan uzoqlashishni afzal ko‘rdi. B.Klinton respublikachilarning bir qator mashhur shiorlari, jumladan, federal budjetni muvozanatga keltirish majburiyatini o‘zlashtirib oldi. Markazlashgan siyosatga tayangan holda, umuman olganda, demokratlar, mamlakat ijtimoiy va iqtisodiy hayotida davlat aralashuvi tizimi asoslarini yaratgan Ruzvelt-Kennedi an‘analarida sodiq qolishdi. Klinton neokeys yondashuvga asoslangan yangi “iqtisodiy falsafa”ni e‘lon qildi. Bunda davlatning sotsial funksiyasi to‘la saqlanadi., ammo u tanqischiликsiz moliyalash yo‘li bilan amalda oshirilishi kerak edi. Ayni paytda Klinton va uning tarafdorlari fuqarolarning shaxsiy tashabbusini qo‘llab-quvvatlash, bozor prinsiplarini amalga oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy yordam va shunga o‘xshash sohalarni isloh qilish to‘g‘risidagi va‘dalar bilan chiqishdi.

Klintonning eng muhim ijodlaridan biri AQShning dunyo miqyosidagi peshqadamligini ta‘minlash uchun iqtisodiyotni gullab-yashnashi va ichki barqarorlikka urinishiga da‘vat qilishdan iborat edi. Bu vazifani amalga oshirishda asosiy rol davlatga topshirildi, davlat esa bozorni to‘ldiradi, erkin raqobat qoidalarini belgilaydi. Klinton ma‘muriyatining iqtisodiy strategiyasi budjet tanqisligini qisqartirish, odamlarga investitsiya qilish, xorijiy bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan edi. Klinton ma‘muriyati avval iqtisodiyotni barqarorlashtirish, keyin uni barqaror rivojlantirishga erishdi, bu esa o‘z navbatida ishchi o‘rinlarning keskin oshishiga, inflyatsiyaning qisqartirishiga, aholining xaridorlik qobiliyatining yaxshilanishiga olib keldi.

Bu va bir qator boshqa omillar prezidentga 1996 yildagi saylovlarda ham g‘alaba qilishga imkon beradi. Klintonning ikkinchi muddatdagi prezidentlik davrida bir qator shov-shuvlar tarqaldi va ular sal bo‘lmasa, uni ishpichmentga, ya‘ni sud aralashuvi bilan prezidentlik lavozimidan chetlatishga olib kelgandi.

Ikki prezidentlik muddatida B.Klinton harbiy harajatlarni ancha qisqartirdi hamda bir qator ijtimoiy dasturlarning samaradorligini oshirish va ularning oshishini cheklash yo‘li bilan sotsial ta‘minotga qaratilgan xarajatlarni isloh qilish yo‘lini tutdi. Hukumat tepasiga demokratlar bo‘lgan vaqt ichida AQShda 20 million yangi ish o‘rinlari yaratildi. 1998 yildan boshlab qo‘shma Shtatlar ijobiy (musbat) budjet saldosi- erishdi. Bir necha o‘n yilliklar davomida ilk bor federal hukumat daromadlari xarajatlardan osha boshladi. B.Klinton 2000 yil 27 yanvardagi mamlakatdagi vaziyat to‘g‘ridagi xotira bu profitsitni yaqin o‘n besh yil davomida milliy qarzlarni to‘lashda ishlatishni taklif qildi.

Ma‘muriyatning muhim iqtisodiy muvaffaqiyati inflyatsiya jarayonini ikki baravar sekinlashishi bo‘ldiki, bu amerikaliklarning yuqori darajadagi turmush tarzini saqlashga imkon berdi. Budjet tanqisligini harbiy xarajatlarni qisqartirish yo‘li bilan bartaraf etishga erishildi. Harbiy maqsadlar uchun mablag‘ ajratish 1998 yilda federal budjetning 16 % ni tashkil etdi. Natijada hukumatning ijtimoiy xarajatlari harbiy xarajatlardan uch baravar ko‘paydi. Hukumat dasturlarida uzluksiz texnologik inqilobni boshdan kechirayotgan iqtisodiyot sharoitida ishchi kuchlarning yuqori malakaviy darajalarini ta‘minlaydigan muhim funksiya, ta‘lim sohasini qo‘llab-quvvatlashga muhim e‘tibor qaratildi. Klinton davrida federal budjet fan sohasidagi barcha xarajatlarning uchdan bir qismini (bu miqdorning yarmini esa fundamental tadqiqotlar uchun) o‘z zimmasiga olgandi.

Klinton ma‘muriyatining tashqi siyosiy strategiyasi iqtisodiy salohiyat, samarali harbiy ta‘minotni yangilash, televediniya, kino, internet orqali erishilgan madaniy-axborot sohadagi mustahkam mavqega tayangan holda AQShning “dunyo lideri” sifatidagi rolini saqlashga asoslanardi. 1993 yildan boshlab Shimoliy Amerika Erkin Savdo Mintaqasi (NAFTA)ni tuzish to‘g‘risidagi kelishuv kuchga kirdi. 1994 yilda AQSH prezidenti tashabbusi bilan “Amerika Erkin Savdo Mintaqasi” (TAFTA) tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. AQSH Osiyo-Tinch

okean iqtisodiy hamjamiyatida faol ishtirok etadi. Yangi “Yevro-Atlantik bozor”ni yaratish rejalari ishlab chiqilmoqda.

Shu bilan birgalikda harbiy kuch AQSH tashqi siyosatining asosiy vositalaridan biri bo‘lib qoladi. 90-yillar boshida Raketaga qarshi Mudofaa (PRO-DAR) rivojlantirish dasturiga e’tibor qaratib, Strategik Mudofaa Tashabbusi (SOI-SDI) dan voz kechdi. Ammo 1998 yilda Hindiston va Pokistonda yadro quroli Eron va Shimoliy Koreyada o‘rtacha uzoqlikdagi raketalar sinovining o‘tkazilishi prezident PROga o‘z munosabatini o‘zgartirishga majbur qildi. 1999 yilda Klinton harbiy xarajatlarning oshirilishi va harbiy qurilishining yangi bosqichi (bunda yangi avlod qurollarni sotib olishini amalga oshirish nazarda tutilgan) haqida e’lon qildi.

Shu bilan birgalikda Klintonning tashqi siyosiy faoliyati tanqidiy fikrlarni ham keltirib chiqardi. Uning Rossiya, BMT, Yaqin Sharq mamlakatlari bilan munosabati, AQSH qurolli kuchlarining xorijdagi to‘qnashuvlarda qatnashganligidan ostiga olindi. Xalqaro Valyuta Fondi (XVF) mutaxassislarining baho berishlaricha asr oxirida AQSH iqtisodiyotida “qizib ketish” alomatlari ko‘zga tashlanmoqda va iqtisodiy inqiroz tahdid solmoqda.

2000 yildagi saylovlar AQShda fojiali xarakterga ega bo‘ldi. Demokratlar hukmronligi davrida ko‘zga tashlangan iqtisodiy muvaffaqiyatlar ular nomzodi, vitse-prezident Albert Gorning g‘alabasiga umid bog‘lashga asos bo‘lardi. Respublikachilar ishtiyoqida edilar. Ular jamiyatning an’anaviy qadriyatlarini himoya qilish ishlari ostida saylovchilarni o‘zlari tomon og‘dirish uchun hamma imkoniyatlarni ishga soldilar. O‘zlarining saylovoldi kompaniyalarida respublikachilar B.Klinton tajribasini hisobga olishdi. Bunda ular demokratlarning ba’zi shiorlarini o‘zlashtirib va markazlashgan yondashuvga tayanib, demokratlar mavqeiga yaqin mavqeda turishdi. O‘ta uzoq davom etgan iqtisodiyotning gullab-yashnashi saylovchilar kayfiyatida namoyon bo‘ldi. Natijada saylovoldi muzokaralarni muhokamalarda an’anaviy bo‘lgan iqtisodiy muammolar 2000 yilga kelib ikkinchi darajali masalalarga aylanib, ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’limot masalalari, hamda din, jamiyatning oilaviy va ma’naviy huriyatlariga bog‘liq mavzular birinchi darajali muammolarga aylandi. Bu masalalarda respublikachilar mavqei aholining ko‘pchilik qismi tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

Saylov natijalari inkor etib bo‘lmas xarakterga ega edi. Albert Gor uchun 542 mingdan ko‘proq saylovchilar ovoz berganiga qaramasdan, tanlovchilar kollegiyasida ozgina farq bilan respublikachilar tarafdorlari ko‘proq edi. Bunaqa holatga AQSH saylov tizimining o‘ziga xos xususiyatlari olib keldi. Gorni faqat 20 ta shtat, Kolumbiya federal okrugi qo‘llab-quvvatladi. Kichik J.Bush esa 30 shtatda g‘alaba qozondi. Ayni paytda aholisi yarim millionlardan ko‘p shaharlar aholisi Gorga 1:3 kabi nisbat ovoz berilgan bo‘lsa, kichik shaharlarda 60% ovoz Bushga tegishli bo‘ldi. Demokratlarni qirg‘oqdagi kichik hududda joylashgan yirik shaharlar, respublikachilarni esa mamlakat ichkarisidagi mudofatlarni qo‘llab-quvvatlashdi. Saylov natijasini belgilashda respublikachilarning Florida shtatida saylov varaqalarini qayta sanashga yo‘l qo‘ymaganliklari bo‘ldi. Florida shtatidagi saylov natijalari demokratlarning bir qancha noroziliklariga sabab bo‘lgandi. Natijada AQSH Oliy Sudi qaroriga ko‘ra, AQShning 43-chi prezidenti etib kichik J.Bush e’lon qilindi.

MAVZU: 1945-2005 YILLARDA FRANSIY.

Ko'rib chiqiladigan masalalar:

1. **Fransiyada urushdan keyingi muvaqqat rejim.**
2. **4-chi respublika davrida Fransiya**
3. **5-chi respublika davrida Fransiya**
4. **Hozirgi davrda Fransiyaning O'zbekiston bilan munosabatlari.**

Tayanch so'zlar:

Fransiyaning ikkinchi jahon urushidan keyingi davrini o'rganishga bag'ishlangan manbalar va tarixshunoslik.

1944 yilda Fransiyaning Gitlerchilar istibdodidan ozod etilishi va Sh. De Goll boshchiligidagi Muvaqqat hukumatining faoliyati. 1U-chi respublikaning qulashi va U-chi respublikaga asos solinishi. U-chi respublikaning Konstitutsiyasi. U-chi respublika-Prezidentlik respublikasi. Sh. De Gollning (1958-1968) ichki va tashqi siyosati.

Prezident Valeri Jiskar D.Esten davrida Fransiya (1974-1981). 1981 yil Prezident saylovlari va sotsialist F.Mitteranning prezidentlikka saylanishi. 1988 yilgi prezident saylovlarida F.Mitteranning prezidentlikka qayta saylanishi. F.Mitteranning ichki va tashqi siyosati. Fransiya-O'zbekiston munosabatlari.

Darsning maqsadi:

Urushdan keyin Fransiyaning qayta tiklanishi, muvaqqat rejim davri, to'rtinchi respublika davrida Fransiyadagi ijtimoiy-siyosiy tuzum, beshinchi respublikaning o'rnatilishi va uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, siyosiy tuzilish, Fransiyaning BMT va boshqa siyosiy tashkilotlardagi o'rni va uning Yevropa va jahondagi mavqei masalalari yoritiladi.

1. Ikkinchi jaxon urushidan keyingi davrda Fransiya. To'rtinchi respublika.

Vaqtinchalik rejim. To'rtinchi respublikaning konstitutsion-huquqiy jihatdan rasmiylashishi.

Fashizm zulmidan ozod etilgan Fransiyada hokimiyat organlarini tashkil etilishini nazorat qilishni qarshilik ko'rsatish harakatining ikki yirik tashkiloti - de gollchilarga tegishli bo'lgan Milliy ozodlik harakati Fransiya qo'mitasi va Lui Sayyan boshchiligidagi Milliy qarshilik ko'rsatish harakati o'z zimmlariga oldi. 1944 yil 2 iyunida Milliy Ozodlik harakatining Fransuz qo'mitasi o'zini "Muvaqqat hukumat" deb e'lon qildi. Fransuz qo'mitasi rahnomoligida Jazoirda qarshilik ko'rsatish harakatidagi ko'pgina guruh vakillarini birlashtirgan Maslahat assambleyasi ish boshladi. Fransiyada urush harakatlari tugashi bilan hokimiyat MOHning departament qo'mitalari ixtiyoriga o'ta boshladi. FNS (Fransuz ichki kuchlari) tomonidan qo'llab-quvvatlangan departament qo'mitalari vishi hukumati ma'muriyatini bartaraf qilib, xalq tribunallari va militsiyasini tashkil etishdi.

Parij ozod etilgandan so'ng, de Goll o'z hokimiyatini mustahkamlay boshladi. Muvaqqat hukumatning 1944 yil 21 avgustda chiqargan ordonansiga ko'ra departamentlarga tayinlangan prefektlar bosh va munitsipal (mahalliy boshqaruv organi) kengashlarni qayta tikladi. "Respublika komissarlari" muvaqqat hukumatning yirik shaharlardagi vakillariga aylanishdi. 28 avgust kuni de Goll FNS (Fransiya ichki kuchlari) ni tugatish haqida buyruq chiqardi. 1944 yil 15 sentabrda xalq tribunallari, 28 oktabrda esa militsiya qismlari tarqatib yuborildi. 1944 yil oktabr oyida Avinyonda Milliy ozodlik harakati qo'mitalarining syezdi-General shtatlar

chaqirildi. Syezdda ishtirok etgan delegatlar hukumat tarkibiga mamlakat ichkarisida faoliyat olib borgan qarshilik ko'rsatish harakati vakillarini ham kiritish sharti bilan muvaqqat hukumatning boshqaruv hokimiyatini tan olishdi.

Muvaqqat hukumat zimmasida mamlakatdagi iqtisodiy-ijtimoiy infrastrukturani qayta tiklash konstitutsion-huquqiy islohotlar o'tkazish uchun sharoit yaratish kabi o'ta dolzarb masalalar turgan edi. Mamlakatda siyosiy vaziyat nihoyatda murakkab bo'lib, urush fransuz millatini mafkuraviy jihatdan tarqoqlashtirib, jamiyat birligiga putur yetkazdi. Davlat byurokratiyasi nomoyandalari va tadbirkorlarning asosiy qismi Peten hukumati bilan hamkorlik qilishdan manfaatdor edi. Vishistlarning qishloq xo'jalik va oila sohasidagi siyosatini dehqonlarning keng ommasi qo'llab-quvvatlagani holda, harbiylarning katta qismi esa de Gollning, rasman bo'lsada, qonuniy hisoblangan xukumatga qarshi chiqish haqidagi chaqirig'iga qo'shilmadi. Fransiya ozod etilgach, 190 mingdan ortiq kishi kollaboratsionizmga ayblandi. Shulardan 100 ming kishiga yaqinda ozodlikdan mahrum qilindi, yoki ayrim huquqlari cheklab tashlandi.

Qarshilik ko'rsatish harakatida 170 mingdan ortiq kishining ishtirok etishi ham, mamlakatdagi siyosiy vaziyatning keskinlashishiga olib keldi. Harakat ko'lamining bu darajada kengligi, nafaqat 1940 yilda yuz bergan harbiy halokat bilan bog'liq edi. Fransiyadagi ijtimoiy kayfiyat 30-yillardayoq keskin o'zgara boshlagan edi.

Urushdan keyingi davrdagi Fransiyaning ko'pgina partiyalari va harakatlari qarshilik ko'rsatish harakati an'analariga chambarchas bog'lanib qoldi. Ammo, ularning g'oyaviy maqsadlari va dasturlari turlicha edi. Ular ichida gollchilarning o'ziga xos o'rnini bor edi. Umummillat qaxramoniga aylanishga da'vogarlik qilayotgan de Goll o'z tarafdorlarining harakatiga ma'lum bir shakl berishga unchalik shoshilmayotgan edi. Hozircha de Goll ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshirish dasturini ilgari surmayotgan edi. Uning asosiy maqsadi Fransuz davlatchiligi qayta tiklash va konstitutsion-huquqiy islohotni amalga oshirish edi. De Gollni "Fransiyaning buyukligi" g'oyasini va "millatni qutqaruvchi" sifatida tan oluvchi, turli xil ijtimoiy guruhlarning vakillari qo'llab-quvvatlar edi.

Ikkinchi jahon urushi qaysidir ma'noda Fransiya'dagi kommunistik harakatining gullab-yashnashga turtki bo'ldi. Kommunistlar qarshilik ko'rsatish harakatining mamlakat ichkarisida faoliyat ko'rsatgan yetakchi kuchlaridan biri sifatida tanildi. FKPning keng xalq ommasi orasidagi obro'si oshib ketdi. 1945 yil boshlarida uning saflarida 500 mingga yaqin a'zosi bo'lsa, 1946 yilda bu raqam qariyb 900 mingga yetdi. FKPning rahbarlari - partiyaning bosh kotibi Moris Torez va deputatlar guruhining boshlig'i Jak Dyuklo siyosiy kurashda ekstremistik metodlardan voz kechib, parlamentar demokratiyani mustahkamlash tarafdori bo'lib chiqdi. Kommunistlar davlat boshqaruvini demokratizatsiyalash, antimonopolistik siyosatni yoqlash bilan bir qatorda, mustamlakachilik va "atlantika birdamligi" siyosatiga qarshi chiqdi.

Sotsialistik partiyaning mavqei ham yetarli darajada mustahkam edi. SFIO son jihatidan FKPdan deyarli uch marta ozchilikni tashkil qilsa-da, "demokratik sotsializm"ni targ'ib qiluvchi konsepsiyasi kommunistlarning yangi dasturidan unchalik farq qilmas edi. SFIO (SP)ning raisi L.Blyum boshchiligidagi oldingi rahbariyati FKP bilan yaqin aloqa o'rnatishga tayyor edi. 1946 yilda SFIO bosh kotibi lavozimiga Gi Mollening kelishi bilan antikommunistik kayfiyat kuchayib ketdi. SFIOning yangi rahbariyati atlantika birdamligi prinsipini va mustamlakalarda harbiy-siyosiy jihatdan qaramlikni kuchaytirishni yoqlab chiqdi. 1946 yilda qabul qilingan va partiya dasturi statusiga ega bo'lgan "Prinsiplar deklaratsiyasi", SFIO partiyasini sotsializm g'alabasi yo'lida sinfiy kurashni qo'llab-quvvatlaydigan partiya'ga aylantirib qo'ydi.

Mamlakatda nufuzli partiyalardan yana biri Xalq respublikachilik harakati (MRP) hisoblanardi. Partiyaning asosini qarshilik ko'rsatish harakatining 1944 yilda birlashgan "Liberte", "Rezistans", "Komba" kabi neokommunistik Qarshilik ko'rsatish guruxlari tashkil etardi. Xalq respublikachilik harakatining raisi "Ozod Fransiya" radiosining direktori M.Shuman, bosh kotibi esa R.Bishe edi. XRH tashkil topishida qarshilik ko'rsatish Milliy harakati raisi J.Bidoning xizmatlari ancha katta bo'ldi. 1944 yilda bo'lib o'tgan Ta'sis syezdida XRHning maqsadi haqida shunday bayonot berildi: "siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy demokratiyani

oʻrnatish, fuqarolarning erkinligi va shaxs huquqlariga rioya etilishini taʼminlash, mehnatning kapital shaxsiy xizmatlarning imtiyozlar ustidan birinchi oʻrinda turishiga erishish kabi vazifalar koʻrsatib oʻtildi”. XRH Fransiyaning davlat tuzumini “inqilobiy” yoʻl bilan keskin yangilash masalasiga eʼtibor qaratdi. Bu koʻrsatmalar XRHni Fransiya­dagi radikal demokratik partiyalardan biriga aylantirdi. Bu davrga kelib XRH FKPga qaraganda ancha ommaviylashib ketdi. 1945 yilga kelganda, XRH tarkibida 235 mingdan ortiqroq kishi bor edi. XRH tarafdorlari ichida dehqonlar, ishchilar va shaharda yashovchi oʻrta hol tabaqa vakillari koʻpchilikni tashkil etar edi. 1945-1946 yillarda XRH tarkibi, asosan katoliklar hisobiga koʻpaydi. Bu partiyaning dasturiga ham oʻz taʼsirini oʻtkazmasdan qol­madi. Radikal demokratik gʻoyalarga asta-sekinlik bilan xristian diniga xos qarashlar aralashib ketdi. Muvaqqat hukumatning bir qator sanoat korxonalarini davlat tasarrufiga oʻtkazish va davlatning iqtisodiyot ustidan nazoratini kuchaytirish yoʻlidagi tadbirlarini qoʻllab-quvvatlash bilan bir qatorda XRH asosan, korxonalarni boshqarishda ishchilarning ishtirokiga imkon beradigan tizimni tashkil etishning faol tashabbuskorlaridan biri edi. XRH de Gollning muvaqqat rejim davridagi tadbirlarini qoʻllab-quvvatlasada, gollchilarning “kuchli davlat” gʻoyasiga oʻz noroziliklarini bildirib, parlamentar demokratiyaning klassik prinsiplari tarafdori boʻlib chiqdilar. Tashqi siyosatda XRH partiyalar orasida Yevropaga mamlakatlari bilan yaqin aloqalar oʻrnatish gʻoyasini ilgari surdi.

Mamlakat siyosiy hayotida qarshilik koʻrsatish harakatidan chiqqan kichik guruhlar ham faol ishtirok etishdi. Shunday guruhlardan bir nechasining birlashishi tufayli 1945 yilda qarshilik koʻrsatish harakatining Demokratik va Ijtimoiy Ittifoqi (YUDSR) tashkil etildi. U FKP va XRH dan farqli ravishda “parlamentar partiya” hisoblanib, doimiy aʼzolarga va keng mintaqaviy strukturaga ega emas edi. YUDSR rahbariyatida uch oqim ajralib turdi. Bu oqimlardan biri de Goll tarafdorlari boʻlib, unga J.Sustel, A.Frele va R.Kapitalu boshchilik qildi. Oxir oqibatda ularning koʻpchiligi gollchilar harakatiga qoʻshilib ketdi. Partiyaning raisi Rene Pleven atrofida fransuzlarga xos anʼanaviy parlamentar demokratiyani saqlash va sentristlar kaolitsiyasini tashkil etish tarafdorlari hioblangan moʻtadilchilar toʻplangan edi. Konslagerlarda boʻlgan harbiy asirlar va mahbuslarning Milliy harakati rahbari Fransua Mitteran YUDSRning soʻl qanotini boshqardi. Ular partiya ichidagi de Gollchilarga qarshi chiquvchilarni birlashtirib, nokommunistik soʻl sentrizm blokini tashkil etish tarafdorlari edi.

Koʻppartiyaviylik parlament kaolitsiyasi anʼanalarini tiklash gʻoyasini radikal va radikal-sotsialistlarning Respublika partiyasi ham qoʻllab-quvvatlar edi. Uchinchi Respublika davrida faoliyat koʻrsatgan yirik partiyalar ichidan, Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda oʻz taʼsirini saqlab qolgan yagona partiya edi. Ammo fraksiyalar oʻrtasidagi kurash oqibatida, partiyaning jipsligiga putur yetdi. Partiya raisi Eduard Errio ham oʻng va soʻl oqimlarning ajralib ketishiga toʻsqinlik qilolmadi. E.For boshchilik qilayotgan soʻl radikallar Milliy front strategiyasiga qaytish, kommunist va sotsialistlar bilan hamkorlikni tiklash tarafdori boʻlib chiqdi. 1947 yilda rahbariyatni bu gʻoyaning qatʼiy tarafdorlari P.Kot, J.Keyzer, P.Lebryun va boshqalarni partiya tarkibidan chiqarib tashladi. Ular FKPga yondosh boʻlgan “parlamentar guruhni” tashkil etishdi. Partiyaning maʼmuriyati direktori L.Martino-Depla va A.Moris boshchiligidagi oʻng radikal oqimi esa antikommunistik pozitsiya tarafdori edi. Radikallarning sentristik guruhi (bu guruh Parijdagi “Valua” koʻchasi nomidan olingan “valuachilar” nomida ham yuritilardi) urushdan oldingi davrdagi radikallar harakatining oʻziga xos anʼanalarini saqlab qoldi. Ularning dastur koʻrsatmalarida mayda mulkdor, fermer va hunarmandlarning manfaatlarini himoya qilishga katta eʼtibor berildi. Radikallar davlat tuzumini isloh qilishga qarshi chiqqan holda, Tuligi respublikaning konstitutsion prinsiplarini saqlab qolishga harakat qilishdi.

Bundan tashqari, urushdan keyingi davrdagi Fransiya davlatining siyosiy hayotida bir qancha “moʻtadil” guruhlar ham ishtirok etishdi. Ulardan uch yirik guruh - Ozod Respublika Partiyasi (RPL), Dehqonlar partiyasi va “mustaqil respublikachilar” guruh 1945 yilda tashkil etilgan edi. Bu guruhlardan RPL gina qarshilik koʻrsatish harakati bilan yaqin aloqada boʻlgan. RPL namoyondalaridan J.Lanyel, P.Jakino, A. Sharpantyelar urushga qadar Demokratik alyans va Respublika federatsiyasi kabi yirik “liberal-huquqiy” partiyalarning tarkibida boʻlishgan. RPL parlament demokratiyasini himoya qilish, respublika erkinliklarini targʻib etgan holda,

hukumatning iqtisodiyotni boshqarish, rejalashtirish va davlat tasarrufiga o'tkazish kabi tadbirlar o'tkazishga qarshi edi. RPLchilar mustamlaka imperiyasini saqlab qolish tadbirlarini qo'llab-quvvatlar edi. Bundan tashqari, AQSH va g'arbiy Yevropa mamlakatlaridan iborat, antisovet harbiy siyosiy blokini tashkil etish tarafdori edi.

"Mustaqil respublikachilar" guruhi tarkibida ham Demokratik alyans va Respublikachilar federatsiyasidan chiqqan, ko'pgina taniqli siyosatchilardan P.Reyno, R.Koti, A.Pinelar bor edi. Ijtimoiy harakat Dehqon partiyasining rahbarlari P.Antye, K.Loran, J.Bordular edi. Partiyaning dastur ko'rsatmalari asosan dehqonlarning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish, iqtisodiyotning liberal xususiyatini mustahkamlash, katolinizmning ma'naviy qadriyatlari, ta'lim-tarbiya tizimini saqlab qolishdan iborat edi. Ko'ppartiyaviylik parlamentar demokratiya yoqlab chiqqan dehqonlar partiyasi, antisovet va antikommunistik qat'iy siyosat tutdi.

Urushdan keyingi davrdagi birinchi saylovlar arafasida 1945 yil oktabrda de Goll ikki masala yuzasidan referendum o'tkazdi. Birinchi masala saylanayotgan vakillik organiga Ta'sis Majlisi statusi berish, ikkinchisi esa uning funksiyalari faqatgina konstitutsion qurilish masalalari bilan cheklash edi. SFIO, MRP va YUDSRlar bu taklifni qo'llab-quvvatlab chiqishdi. Kommunistlar Ta'sis Majlisini chaqirish g'oyasini ma'qulladi. Undan tashqari Ta'sis Majlisini vakolatlarini cheklamasdan, katta imtiyozlar berishni yoqladilar. "Radikallar va mo'tadillar" o'z tarafdorlarini referendumga qo'yilgan har ikki masalaga qarshi ovoz berishga chaqirishdi.

Referendumda ishtirok etganlarning 96,4% Ta'sis Majlisni chaqirishligini yoqlab ovoz berishdi. Ikkinchi masala yuzasidan esa saylovchilarning ijobiy ovozlari 66,3% ni tashkil etdi. Referendum bilan bir vaqtda saylov ham o'tkazildi. Saylovda asosan qarshilik ko'rsatish harakatida faol ishtirok etgan partiyalar ko'p ovozga ega bo'ldi. Ta'sis Majlisida Kommunistlar 25,4%, YUDSR bilan bir alyansga birlashgan sotsialistlar-24%, MRP-23,6% ovoz oldi. Gollchilarga nisbatan oppozitsiyada bo'lgan radikal va "mo'g'tadillar" saylovda 10,8% va 15% ovoz bilan mag'lubiyatga uchradilar. Ammo de Gollning g'alabasi vaqtinchalik holat edi. Hukumat tarkibiga de Gollni qo'llab-quvvatlovchi "partiyasiz" 6 ta tarafdorlaridan tashqari FKP, SFIO va MRP dan 5 tadan vakillar kirdi. 1945 yil dekabrdayoq hukumat ichidagi siyosiy vaziyat inqiroz darajasiga kelib qoldi. Oradan bir oy o'tib, de Goll o'zining iste'voga chiqishini e'lon qildi. Muvaqqat hukumat boshlig'i lavozimini sotsialistik F.Guen egalladi.

Asosan so'l sentrist partiya vakillaridan iborat bo'lgan, Konstitutsion komissiya, 1946 yil aprelida konstitutsiyaning yangi loyihasini tayyorlab taqdim etishdi. U bir palatali parlament tashkil etishni ko'zda tutar edi. Bu parlament qonunchilik qonunchilik bilan shug'ullanib, prezident va ministrlar soveti raisini saylash, hukumatning tarkibi, dasturi va tizimini tasdiqlash vakolatlariga ega edi. 1946 yil 19 aprelida Ta'sis Majlisi Konstitutsiya loyihasini ma'qulladi, may oyida esa u umummilliy referendumga qo'yildi. Loyihaga faqatgina gollchilar va "mo'tadillar" qarshi chiqishgan bo'lsada, referendum salbiy natijaga ega bo'ldi. Referendum ishtirokchilarining 51,6 % qarshi ovoz berishdi. Referendum natijalari mamlakatdagi siyosiy vazift yanada yuksaklashib ketganini, ikkinchi Ta'sis Majlisini chaqirish va yangi saylovlarni o'tkazish zarurligini ko'rsatdi. Saylov kompaniyasi chog'idayoq MRP va radikallarning manfaatlarini yaqinlashayotgani ko'rinib qoldi. Ta'sis Majlisining yangi tarkibida kuchlar nisbatida keskin o'zgarishlar bo'lmagan bo'lsada, eng ko'p ovozni MRP (28,1%) oldi. FKP 26,4%, SFIO-21,1% ovoz oldi. qolgan partiyalar esa vakillik darajasinigina saqlab qolishdi.

Muvaqqat hukumat va Konstitutsion komissiyani MRP vakillari J.Bido va P.Kosma-Florlar boshqara boshlashdi. Bu orada, de Goll yana siyosat maydoniga qaytdi. U 1946 yil 16 iyunda Bayye shahri ozod etilganining ikki yillik yubileyiga bag'ishlangan tantanalarda nutq so'zladi. Bu nutqida de Goll birinchi marta o'zining konstitutsiya loyihasini ifodalab berdi. Uning asosida Fransiyaning "buyukligini", Millatning birdamligi va mustaqilligini ta'minlashga imkon beradigan "kuchli davlat" syosati g'oyasi yotar edi. De Goll parlamentar Respublikachilik siyosatini qattiq qoralab chiqdi. Uning fikricha, bu g'oya "partiya rejimi"ning mustahkamlanishi va hukumat tuzumining batamon buzilishi xavfini keltirib chiqaradi.

Gollistlarning ta'sir doirasi o'sib borayotgani bilan to'qnash kelgani uchun Ta'sis Majlisida yetakchilik qilayotgan partiyalar yangi konstitutsiya loyihasi bo'yicha kompromissga kelishga

shoshilisha boshlashdi. Bu loyiha Ta'sis Majlisi muhokamasiga 1946 yil 29 sentabrda qo'yildi va 440:106 nisbat bilan to'liq qo'llab-quvvatlandi. Konstitutsiya to'g'risidagi referendum 1946 yil 13 oktabrida bo'lib o'tdi va 53,1% ovoz oldi. 1946 yilning 24 dekabridan To'rtinchi Respublikaning konstitutsiyasi kuchga kirdi.

Fransiyaning 50-yillaridagi siyosiy hayoti . To'rtinchi Respublikaning Konstitutsion-huquqiy inqirozi.

1946 yil 10 noyabrda Milliy Assambleyaga bo'lib o'tgan dastlabki saylov Ta'sis Majlisidagidek siyosiy kuchlarning nisbatini saqlab qoldi. FKP va MRP Milliy Assambleyada 182 va 173 o'ringa ega bo'lgan holda, son jihatidan yirik fraksiyalarni tashkil etishdi. SFIO fraksiyasi 102 ta deputatga ega bo'ldi. qolgan partiyalar esa son jihatidan kamroq deputat o'rinlarini egalladi. Radikallar quyi palatada 43 ta, YUDSR-26 ta, "mo'tadillar" guruhlar - 67 ta, gollistlar Ittifoqi vakillari 10 ta mandat o'rinlarini band qilishdi. Yuqori palata hisoblangan Respublika Kengashiga saylovlar 1946 yil noyabrda bo'lib o'tdi. Yuqori palatadagi mandatlar nisbati quyi palatadagi o'rinlar nisbatiday bo'ldi. To'rtinchi Respublikaning birinchi prezidenti eib, sotsialist Vensai Oriol saylandi. MRP partiyasi vakili Shampetye de Rib Respublika Kengashining raisi, radikal Eduard Errio esa Milliy Assambleyani boshqara boshladi.

FKP, SFIO va radikallardan iborat uchpartiyalik koalitsiya tufayli ular, Muvaqqat hukumatda so'l sentristik parlamentar ko'pchilikni tashkil etishga olib keldi. Hukumatga sotsialist Pol Ramadye yetakchilik qildi. Ammo 1946 yil oxirlariga kelib, FKP va uning ittifoqchilari o'rtasidagi o'zaro ziddiyatlar koalitsiyaning zaiflashuviga sabab bo'ldi. 1947 yil may oyida tortishuvlarga barham berildi. Kommunistlar fraksiyasi parlamentda hukumatga o'z ishonchsizliklarini bildirib, votum uchun ovoz berdilar. Oriol va Ramadyelar kommunistlarni hukumat tarkibidan chiqarishdi. Ammo shuni ta'kidlab o'tish kerakki, boshqa g'arbiy davlatlardan farqli o'laroq Fransiya'dagi kommunistlarning ta'sir doirasi mamlakat siyosiy hayotida ancha katta bo'lgan. Kommunistlar parlamentlarda doimo katta fraksiyalarda ega bo'lishgan. Bundan tashqari kommunistlar keng xalq ommasini o'ziga jalb etgan shu'ba tashkilotlari-fransiyalik xotin-qizlar Ittifoqi va respublika yoshlari Ittifoqlarini tashkil etishgan edi.

Uch partiyali koalitsiyaning inqirozi va FKPNing so'l radikal oppozitsion kuch sifatida ajralib chiqish, gollistlar harakatining jipslashish vaqtiga to'g'ri keldi. 1946 yil Gollistlar Ittifoqining tashkil topishi va birinchi saylovlarda ishtirok etishi stixiyali xarakterga ega bo'ldi. Gollistlar Ittifoqining rahbari Rene Kapitan de Gollning qarshilik ko'rsatish harakatidagi yaqin safdoshlaridan biri edi. Shunday bo'lsada, Rene Kapitan general de Goll tomonidan ochiqdan-ochiq qo'llab-quvvatlanmadi. Bundan tashqari, YUDSR partiyasidan chiqqan Kapitan gollistlar chap qanotining vakili hisoblanar edi. 1947 yil bahoriga kelganda mamlakatdagi siyosiy vaziyat keskin o'zgardi. De Goll o'z tarafdorlarining harakatini tashkil etishga qaror qildi. De Gollning yaqin safdoshlari J.Sustel, J.Shaban-Delmas, A.Malro, R.Kapitan, J.Bomellar ko'magida harakatning mintaqaviy qo'mitalari tashkil etila boshlandi.

1947 yil aprelda de Goll birlashgan fransuz xalqi (RPF) nomli siyosiy tashkilotni tashkil etish to'g'risida rasman bayonot berdi. Bu siyosiy tashkilotning vazifalariga 1946 yilda qabul qilingan Konstitutsiyani bekor qilish, "partiya rejimini bartaraf etish", "uyushgan demokratiya" tizimini tashkil qilish, Fransiyaning xalqaro statusini qayta tiklash kabilar kiritilgan edi. De Goll RPF ni parlament hayotida ishtirok etadigan siyosiy partiya emasligini qat'iy ta'kidlar edi.

Kommunistlar va gollchilarning ta'siridagi himoyalaniish maqsadida hukumat doiralari "uchinchi kuch" deb ataluvchi koalitsiyani tashkil etish rejalashtirildi. "Uchinchi kuch"ning tarkibiga SFIO, radikallar va MRP vakillari kiritildi. "Uchinchi kuch" koalitsiyasi 1951 yil saylovlarigacha yangi parlamentar ko'pchilikni saqlab keldi. Bu vaqt davomida ministrlar Kengashi raisi lavozimini radikallar partiyasi vakillari 4 marta (jumladan uch marta Anri Key), MRP vakillari esa 3 marta (jumladan, Rober Shuman ikki marta) egalladi. Sotsialistlarning koalitsiya tarkibidagi ta'siri kamayib bormoqda, partiya ichida esa fraksiyalar orasidagi kurash

faollashib ketmoqda edi. “Uchinchi kuch” koalitsiyasida MRP o‘ng qanot vakili sifatida faoliyat ko‘rsatdi. 1945-1946 yillarda o‘z inqirozini boshidan kechirayotgan radikal va radikal sotsialistlar partiyasi, hech kutilmaganda koalitsiyada yetakchi siyosiy kuchga aylandi. 1950 yilda hukumat rahbari lavozimiga YUDSR yetakchisi Rene Pleven saylandi. U o‘z partiyasida “mo‘tadil oqim” vakili hisoblanardi. 1951 yilgi parlament saylovlari arafasida “uchinchi kuch” koalitsiyasi saylov tizimida islohot o‘tkazdi.

1951 yil 17 iyunda bo‘lib o‘tgan saylovlar natijasida gollchilarning RPF siyosiy tashkiloti parlamentda 119 ta o‘ringa ega bo‘ldi. FKP (108 ta) va SFIO (104 ta) ovozlar bo‘yicha deyarli bir-biriga tenglashib qoldi. YUDSR va radikallarning saylovdagi alyansi 93 ta, MRP-85 ta, “mo‘tadillar”-97 ta mandatlarini band etishdi. Respublikachilar partiyasining muvaffaqiyati asosan “birlashgan ro‘yxati” taktikasidan foydalanganligi bo‘ldi. Saylovda qatnashganlarning 48 % oppozitsion partiyalarga berildi (kommunistlar uchun 5 mln ortiq kishi va gollistlar uchun 4 mln ortiqroq).

Milliy assambleyning yangi tarkibida MRP, radikallar, YUDSR va “mo‘tadillar”dan iborat hukmron o‘ng sentrist koalitsiya tashkil topdi. Koalitsiyaning dastlabki hukumatini R.Pleven boshqardi. Shundan so‘ng Ministrlar Kengashi raisligi lavozimini radikallar 4 marta, “mo‘tadillar” vakillari ikki marta egalladi. Bu hukumatlarning mavqei o‘ta zaif edi. Ular parlamentda ozchilikni tashkil etib, siyosiy qadamlari FKP, SFIO va RPFning birgalikdagi harakatlari tufayli yo‘qqa chiqishi mumkin edi. Ammo oppozitsiyadagi kuchlarning jipslashishiga amalda imkoniyat yo‘q edi. FKP hali ham baykot holatida edi. Partiyaning u yoki bu siyosiy kuchlar bilan hamkorlik qilish harakati ham vaziyatni o‘zgartirmas edi. RPFdagi holat yanada jiddiy edi. Partiyaning obro‘si tez tushib keta boshladi. O‘sha davrda partiya tarkibi 400 ming kishidan 125 ming kishiga qisqarib ketdi. RPF ichida oppozitsion kuchlar paydo bo‘ldi. 1951 yilda partiya tarkibidan “respublika va ijtimoiy harakat guruhleri” chiqib ketdi. 1952 yil martida RPF fraksiyasining bir qismi birinchi marta hukumatga ishonch bildirib votum uchun ovoz berishdi. Avvalgi taktikasini saqlab qolish imkoniyati yo‘qligi bilgach de Goll 1953 yil mayida RPF dan saylangan deputatlarga to‘la mustaqillik berish haqida bayonot berdi. Fraksiyaning ham faoliyat ko‘rsatishdan to‘xtadi. Gollchi deputatlar “Respublikachilarning ijtimoiy faoliyati Ittifoqi” nomli mustaqil parlamentar guruhni tashkil etishdi. Asta sekinlik bilan partiya ham tarqalib keta boshladi. 1955 yilga kelib J.Shoban-Delmas va R.Freylar RPF qoldiqlarini “Sotsial respublikachilarning Milliy markazi”da birlashtirishga harakat qilib ko‘rishdi. Ammo de Goll jarayonga qarshi chiqdi va RPF mahalliy bo‘limlarining o‘z faoliyatlarini to‘xtatishlari haqida ko‘rsatma berdi. O‘zi esa siyosiy faoliyatini to‘xtatish haqida bayonot berdi.

1953 yilda sotsialistlar yetakchisi Gi Molle Respublikachilar frakti nomli yangi nokommunistik so‘l sentristik koalitsiyaini tashkil etish g‘oyasini ilgari surdi. Hukumat tarkibiga kirmagan partiyaning bo‘ holati SFIO rahbariyatiga bu loyihani amalga oshirish imkoniyatini bermadi. Ammo 1954 yil iyunidan boshlab vaziyat o‘zgara boshladi. Ministrlar Kengashining raisi etib radikallarning reformatorchilik qanotining yetakchisi Mendes-Frans saylandi. U “milliy yangilanish” siyosatini amalga oshirish lozimligi, bundan tashqari kolonial ziddiyatlarni tinch yo‘l bilan bartaraf etish, ijtimoiy sohadagi qonunchilikni kengaytirish, hukumat bilan kasaba uyushmalari o‘rtasidagi muloqotni normallashtirish to‘g‘risida fikr yuritdi. Bu vazifalarni amalga oshirish parlamentda tashqi siyosat borasida yuzaga kelgan keskin diskussiyalardan so‘ng to‘xtab qoldi. 1955 yil fevralida Mendes-Frans o‘z lavozimidan iste’foga chiqishga majbur bo‘ldi. Hukumat inqirozi radikallar orasida ham tarqoqlikni keltirib chiqardi. 1955 yil may oyida partiyaning navbatdagi syezdida o‘ng va so‘l guruhlar o‘rtasida to‘qnashuvlar kelib chiqdi. Mendes-Frans tarafdorlari partiya saflaridan o‘ng qanotning eng floye vakillarini chiqarishga muvaffaq bo‘ldilar. O‘nglar yetakchisi L.Martino- Detla egallab kelgan partiyaning ma’muriy direktori lavozimi tugatildi. Mendes-Frans partiyaning vitse-prezidentiga aylandi.

Bu kabi o‘zgarishlar hukumat koalitsiyasidagi boshqa partiyalarda ham yuz bermoqda edi. MRP yetakchilari o‘z partiyalarining obro‘-e’tiborini tiklash uchun ko‘p kuch sarflashdi. 50-yillarning boshlarida MRP Fransiyadagi eng “yevropist” partiyaga aylanib ulgurdi. R.Shuman,

J.Bido, A. Kost-Florelar yevropa integratsiyasi rejalarini qo'llab-quvvatlab va ularning hayotga tadbiq etilishida faol qatnashdilar. R.Shuman g'arbiy yevropa integratsion jarayoni konsepsiyasini amalga oshirish ishining ibtidosida turdi. U KPEB tizimini tashkil etish loyihasini taklif qildi. 1956 yilda MRP vakillari tarkibining keskin qisqarishi davri tugadi. Partiya a'zolari 40 mingni tashkil etdi.

1954 yilda SIIPda ham parchalanish yuz berdi. Partiya tarkibidan chiqqanlarning asosiy qismi Dehqonlar partiyasining sobiq faollari bo'lib, ular o'z tashkilotlarini qayta tashkil etdi. Ammo, yangilangan Dehqonlar partiyasining siyosat maydonida kelajagi yo'q edi. Partiya tarafdorlarining kattagina qismi, 1955 yilda tashkil etilgan "savdo xodimlari va hunarmandlarni himoya qilish Ittifoqi"ni qo'llab-quvvatladi. Bu harakatning yetakchisi, mayda baqqol Pyer Pu Jad bo'lib, u konstitutsiyani qayta ko'rib chiqish, kolonial "yagona va bo'linmas imperiyani" saqlab qolish, davlat tasarrufiga o'tkazilgan korxonalarni o'z egalariga qaytarib berish, kasaba uyushmalari va ijtimoiy sohadagi qonunchilikni cheklash tarafdori bo'lib chiqdi. Pujadni vishistlarning ko'pgina tarafdorlari hisoblangan mayda ishlab chiqaruvchilar, savdo xodimlari va hunarmandlar qo'llab-quvvatladilar.

1956 yil yanvarida navbatdagi parlament saylovlari bo'lib o'tib, unda FKP ishonchli g'alabaga erishdi. Hattoki, majoritar sistema shartlariga rioya qilgan holda ham FKP parlamentining quyi palatasida 150 o'ringa egalik qildi. SFIO fraksiyasini 100 ta deputat tashkil etdi. Radikallar YUDSR bilan birgalikda 91 ta, MRP-74 ta, "mo'tadillar"-98 ta, J.Shaban-Delmas yetakchilik qilayotgan "sotsial - respublikachilar"-22 ta o'rinni band etishdi. Kommunist va sotsial respublikachilarning ko'magida Gi Molle hukumati ishonch vatimini olish imkoniyatiga ega bo'ldi. Yangi hukumat tarkibiga sotsialist va so'l radikallar ham kiritilgan edi. Respublikachilar frontining koalitsiyasi kuchayib bordi. Gi Molle hukumati sotsial qayta qurishlarning keng ko'lamli dasturlarini amalga oshirishga harakat qildi. Bu hukumat Tunis va Marokash davlatlarining mustaqilligini tan oldi. Respublikachilar fronti parlamentda mustahkam ko'pchilikka ega bo'lolmadi. Tez orada hukmron koalitsiya o'rtasida ham ichki nizolar kuchayib ketdi. 1956 yil oktabrida radikallar partiyasining syezdida Mendes-Frans hukumatining Fransiyani ham Suvaysh inqiroziga aralashtirish siyosatiga qarshi chiqdi. Bunga javoban o'ng radikallarning bir qismi partiya tarkibidan chiqib, "Respublikachilar Markazi" nomli guruhni tashkil qildi. 1957 yilda radikallar o'rtasidagi ziddiyatlar Jazoir muammosini hal qilish jarayonida yanada kuchaydi. Mendes-Fransning hukumat tarkibidan o'zboshimchalik bilan chiqishi nafaqat o'ng radikallar balki, o'z tarafdorlari ichida ham jiddiy noroziliklarga sabab bo'ldi. U partiyaning vitse-prezidenti lavozimidan chetlatilgach, bunga javoban uning saflaridan chiqib ketdi.

Gi Molle boshchiligidagi hukumat Jazoir muammosini hal etish uchun parlamentdan favqulodda vakolatlar olgan bo'lsada, mamlakat ichidagi siyosiy inqirozning oldini ololmadi. 1957 yil mayida Gi Molle iste'foga chiqishga majbur bo'ldi. Uning o'rnini radikallar vakili M.Burjes-Monuri egalladi. U rasmiy jihatdan Respublikachilar frontining koalitsiyasining vakili hisoblanar edi. 1957 yil oktabrida barcha yirik nokommunistik partiyalarning vakillarini o'z tarkibiga kiritgan "Respublikani yangilash va himoya qilish hukumati" tashkil etildi. Unga o'ng radikal Feliks Gayar yetakchilik qildi. Parlamentda konstitutsion islohotlarni amalga oshirish yo'llari haqida munozaralar boshlanib ketdi. Shu narsa yaqqol namoyon bo'la boshladiki, hukumat tuzumini tubdan isloh etmasdan turib, Jazoir masalasi va umumandoiy ravishda bo'lib turgan hukumat inqirozlarini oldini olishning imkoniyati yo'q edi. To'rtinchi Respublikaning rejimi chuqur konstitutsion huquqiy inqirozga yuz tuta boshlagan edi. Fransiyadagi hukumat tuzumini isloh qilish zaruriyati, 1946 yilda qabul qilingan konstitutsiyada ayrim kamchiliklarning mavjudligi ham keltirib chiqardi. Konstitutsiyadagi ayrim bo'limlar bir-biriga zid kelib, ularni hayotga tadbiq qilish nihoyatda qiyin edi. Bular hukumatni tashkil etish, ishonchsizlik bildirish va to'liq ovoz berish va parlamentni tugatish kabi muhim masalalarda o'z aksini topgan edi. Ayrim bo'limlar esa, umuman amaliyotga tadbiq qilinmay qolib ketdi. (masalan, Fransiya Ittifoqi, "mahalliy jamoalar to'g'risida"). 12 yil davomida hukumat tarkibi 22 marta o'zgardi.

40-50 yillarning ikkinchi yarmida Fransiyaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti.

Urush davomida Fransiyaning ko'rgan moddiy zarari 1440 mlrd frakni tashkil etdi. Urush vaqtida 1100 ming kishidan ajraldi. 700 ming kishidan ortiq kishi Germaniyaga ishlash uchun olib ketildi. Mamlakatning 30 ta departamenti talofat ko'rdi. 50 mingga yaqincha sanoat korxonalari batamom yoki qisman ishdan chiqarildi. Ko'plab ekstrostansiyalar, shaxtalar, verflar yakson qilib tashlandi. Transport tarmoqlari yaroqsiz holga keltirildi. Fransiya deyarli harbiy va savdo flotidan mahrum bo'ldi. Neftni qayta ishlash korxonalarining 80 % o'z faoliyatlarini to'xtatgan edi. Mamlakatdagi 101 ta damka pechidan 7 tasigina foydalanishga yaroqli holatda edi. Ko'mir qazib chiqarish 4 baravarga qisqardi. Sanoat mahsulotlarini umumiy ishlab chiqarish hajmi urushdan oldingi davrdagiga nisbatan 38 %, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmi esa 60 % ni tashkil etdi. 1400 ming gektar ekin maydonlari tashlandiq holga kelib qoldi. Moliya tizimi batamom izidan chiqdi. Inflyatsiya haddan tashqari yuqori darajaga, frankning qadr-qimmati urushgacha bo'lgan davrdagidan 6 baravarga kamaydi. 1945 yilda mamlakat budjetidagi defitsit deyarli 200 mln frankni tashkil etdi.

Sanoat va qishloq xo'jalik tarmoqlarini qayta tiklash muvaqqat hukumat oldida turgan muhim masalalardan biri edi. Xo'jalikni qayta tiklash tadbirlarning asosini ko'mir, gaz, aviatsiya, avtomobil ishlab chiqarish tarmoqlarini davlat tasarrufiga o'tkazish tashkil etardi. 1945-47 yillarda Fransiya sanoatiga tegishli bo'lgan korxonalarning 20 % davlat mulkiga aylantirildi. Yirik banklardan 5 tasi davlat nazoratiga o'tkazildi. (bularning ichida Fransiyaning bosh emission tashkiloti sanaladigan Fransuz banki ham bor edi). Bundan tashqari, jamg'arma g'aznasi va sug'urta kompaniyalarining bir qismi ham davlat nazoratiga o'tkazildi. Davlat tasarrufiga o'tkazish kompensatsiya to'lash asosida olib borilib, kollaboratsionizmga ayblangan mulkdorlar bundan mustasno etildi. Davlat tasarrufiga o'tkazilgan korxonalarda ishchilar ishtirokida ma'muriy kengashlar tuzilib, ish haqlarini oshirish, mehnat shartnomalarini tuzish, turar-joy bilan ta'minlash kabi muhim masalalar maslahatlashgan holda o'z yechimini topar edi. 1946-1950 yillarda bu ko'rsatgich 27 % dan 50 % ga o'sdi.

Muvaqqat hukumat ichidagi siyosiy ixtiloflarga qaramay, 1947 yil bahoridayoq barqarorlik dasturi ko'zga ko'ringan natijalarni berdi. Shu yili sanoatdagi ishlab chiqarish ko'rsatgichlar urushgacha bo'lgan davrdagi darajaga yetdi (qishloq xo'jaligida - 1950 yilda) 1949 yilda VVP (Yalpi ichki mahsulot) darajasi urushgacha bo'lgan davrdagidan oshdi, oziq-ovqat mahsulotlarining kartochka tizimi bekor qilindi. Shunday bo'lsada, davlat tepasida bo'lgan so'lsentristik koalitsiya hukumatni boshqarishning faol metodlaridan voz kechmadi. 1946 yildayoq Jana Monne boshchiligida iqtisodiyotni rejalashtirish bilan shug'ullanuvchi Bosh kotibiyat tashkil etildi. Bu tashkilot mamlakatni rivojlantirish dasturlarini to'siq bilan shug'ullanar edi. "Fransuzcha rejalashtirishning" konseptual asoslarini ishlab chiqqan Monne texnokratik elitaning vakillaridan biri edi. U iqtisodiy taraqqiyotning hukumat tomonidan boshqarilishi, jumladan rejalashtirish ham siyosiy mafkuraga bog'liq bo'lishi salbiy oqibatlariga olib kelishini ta'kidlab o'tgan edi. Rejalashtirish, Monnening fikriga ko'ra, konsepsus va ishonchga asoslanib o'ziga xos iqtisodiy diplomatiya bo'lib hisoblanadi.

1947-1953 yillarga mo'ljallangan, rivojlantirishning dastlabki milliy dasturlaridan biri 1947 yilda qabul qilindi. U "Monne rejas" yoki "qurollanish va modernizatsiyalash rejas" deb nomlandi. Bu dasturning asosida davlat tasarrufiga o'tkazilgan korxonalarning ishlab chiqarish quvvatlarini keskin yangilash, sanoatda ishlab chiqarish hajmini oshirishga erishishi, metrologiya va dengizorti hududlari o'rtasida savdo-sotiqni kengaytirish mehnat unumdorligini oshirish kabi tadbirlar yotar edi. Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash ham muhim masalalardan hisoblandi. 1947 yilning kuzida moliya ministri R.Mayyer moliya tizimida kompleks islohotlar o'tkazishni boshladi.

1948 yil yanvarida frankning devalvatsiyasi amalga oshirildi. Unga ko'ra frank tarkibidagi oltin miqdori 44 % ga kamaytirildi.

Moliyaviy barqarorlikning yuzaga kelishida Fransiyaning Marshall rejasiga qo'shilishi muhim ahamiyat kasb etdi. 1948-1951 yillar mobaynida AQSH Fransiyaning 2,5 mlyard dole hajmidagi kreditlar oziq-ovqat mahsulotlari va asbob-uskunalar bilan ta'minladi. 1958 yilga

kelganda, amerikaliklar bergan yordamining umumiy hajmi 12 mlyard dollarni tashkil etdi. Bu dasturni amalga oshirish jarayoni, sarmoyasining Fransiyaning iqtisodiy makoniga faol kirib kelishi uchun keng yo'l ochib berdi. Fransiya hukumati, qabul qilingan majburiyatlarga ko'ra, AQSH xo'jalik tarmoqlari va maxsus korxonalarining ishlab chiqarish ko'rsatgichlari hamda tashqi savdodagi mahsulot aboroti strukturasi haqidagi to'liq ma'lumotlarni berib turish lozim edi. Bunday qaramlik Fransiya siyosiy hayotidagi ko'pgina kuchlarning keskin noroziligiga sabab bo'ldi. Ammo shuni ta'kidlab o'tish kerakki, aynan amerikalik tadbirkorlar doirasining sa'i-harakati tufayli Fransiya iqtisodiyotida strukturaviy o'zgarishlarning amalga oshishi oson kechdi.

40-yillarning oxirida Fransiya mehnat munosabatlari masalasida muhim islohotlar amalga oshirildi. 40 soatlik ish haftasi, haq to'lanadigan ta'til qayta tiklandi. Ish vaqtidan tashqari bajariladigan ishlar uchun qo'shimcha haq to'lash joriy etila boshladi. Erkak va ayol mehnatiga haq to'lashda tenglik prinsipi kafolatlandi, ishsizlarga hukumat tomonidan yordam ko'rsatish tizimi kengaytirildi. Ishlovchilarning soni 50 tadan oshgan korxona va tashkilotlarda ma'muriyat vakillari, ishchilar, muhandis va texniklardan iborat "korxona qo'mitalari" tashkil etildi. Ularga mehnat sharoitlarini tartibga solib turish sohasida konsultatsiyalar berib turish funksiyasi berilgan edi. Nominal ish haqi va nafaqalarning miqdori ancha o'sdi. 1950 yildan e'tiboran kafolatlangan umummilliy ish haqining minimumi kiritildi. U yashash minimumi ming dinomikasiga qarab o'zgartirilib turiladigan bo'ldi. qarilik va nogironlik nafaqasiga chiqish vaqti 65 yosh etib belgilandi. Ijtimoiy sug'urta bo'yicha hukumatning yagona tizimi tashkil etildi. Bu tizim qishloq xo'jalik sohasidan tashqarida ishlaydigan barcha yollanma ishlarga nisbatan qo'llaniladigan bo'ldi. Bu tizimni mablag' bilan ta'minlash mehnatkashlarning badallari (ish haqining 6 %) va sohibkorlar ajratgan chegirmalari (ish haqi fondining 10 % miqdorida) hisobiga olib borilar edi.

Arzon turar joylar qurish ishlari boshlandi. Hukumat xo'jaliklari urush davrida ziyon ko'rgan dehqonlarga va o'z xo'jaligini tashkil etishga harakat qilayotgan yosh dehqonlarga ssudalar ajratib bera boshladi.

"Barqarorlik sharoitida modernizatsiyalash va texnologiya bilan ta'minlash rejasi" 1954-1957 yillarga mo'ljallangan ikkinchi dastur edi. U Fransiya sanoatining raqobatbardorligini va mahsulot sifatini oshirishni ko'zda tutgan edi. Endi ustunlik xususiy sektorga berilgan edi. Hukumat va firmalar o'rtasida tuzilgan maxsus shartnomalarga asoslanib, tadbirkorlar asbob-uskunalar sotib olish kreditlar olish va muhim loyihalarni amalga oshirish uchun imtiyozli soliqlar to'lash imkoniyatiga ega bo'ldi. Ikkinchi rejada ko'rsatilgan ko'rsatkichlar oshig'i bilan bajarildi. 50-yillarning o'rtalariga kelganda, ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining umumiy hajmi urushgacha bo'lgan davrdagi darajadan 60 % ga oshib ketdi. Og'ir sanoatdagi o'sish nihoyatda barqaror bo'ldi. Fransiya sanoatida jiddiy strukturaviy qayta qurish boshlandi. Sanoat jihozlarini yangilash ommaviy xususiyat kasb etdi.

Sanoatning investitsion bazasini mustahkamlashda tashqi bozorga sarmoya olib chiqishning kamayishi muhim ahamiyat kasb etdi. Yirik banklarning davlat tasarrufiga o'tkazilishi tufayli milliy iqtisodiyotni sarmoya bilan ta'minlash asosiy yo'nalishga aylanishi, chet el ssudalari va zayomlarini ikkinchi darajaga tushirib qo'ydi. Agar, XX asr boshlarida tashqi bozorga kapital eksporti miqdori Fransiya sanoatiga sarflangan mablag'dan 10 barobar ko'p bo'lsa, 50-yillarning oxiriga kelib chetga olib chiqilayotgan sarmoya miqdori, ichki bozorga investitsiya qilinganidan 6 marta kam edi. Sarmoya asosan, og'ir sanoat va energetika kompleksiga ajratildi. Bu sohalarga sanoatni taraqqiy ettirish uchun ajratilgan mablag'larning 90 % yaqini yuborilayotgan edi. 50-yillarning o'rtalariga kelganda esa sarflanayotgan mablag'larning asosiy qismi kimyo sanoati, avtomobil ishlab chiqarish, samolyotsozlik sohaslarini modernizatsiyalash uchun ishlatila boshlandi. Keyinchalik esa yangi sohalar - atom, elektron, plastik massalar ishlab chiqarishga katta e'tibor berildi. Sanoatning asosiy sohalarida yirik korporatsiyalarning o'rni mustahkamlanib bordi. Avtomobil ishlab chiqarishning 98 % 4 ta trest, alyuminiy ishlab chiqarish 2 trest, po'lat ishlab chiqarishning 72 % 5 ta trest nazorati ostida edi. Yirik korxonalarda ishlayotgan ishchilar soatda band bo'lgan ishchilarning 30 % ni tashkil

etardi. Lekin shuni ta'kidlab o'tish joizki, Fransiyaning o'ziga xos xususiyatini ishlab chiqarish konsentratsiyasining yuqori emasligi bo'ldi. Bir korxonada ishlayotgan ishchilarning soni o'rtacha 13 ta kishini tashkil etdi.

50-yillarning oxiriga kelganda, iqtisodiy taraqqiyotning aralash modeli o'zining oldingi samaradorligini yo'qota boshladi. Umummilliy boylikning 36 %ni tashkil etgan davlat sektori taraqqiyotning oldingi sur'atlarini saqlab qolish qiyinlashib boraverdi. 50-yillarning ikkinchi yarmiga kelganda, Fransiyada inflyatsiya muammosi yana kuchayib bordi. 1957 yilga kelganda narxlar o'rtacha urushgacha bo'lgan davrdagidan 25 baravar, nominal ish haqi esa 21 baravarga oshdi.

Hukumatning qishloq xo'jaligi sohasida olib borayotgan siyosati ham keskin o'zgarishni kutayotgan edi. 50-yillarda bu sohada olib borilgan ximiyalashtirish va yuqori texnologiya bilan ta'minlash ishlari amalga oshirilgan bo'lsa-da, fermerlar mehnatining samaradorligi ancha pastligicha qolayotgan edi. Fransiya dunyoda qishloq xo'jalik mahsulotlarini eksport qilish bo'yicha ikkinchi o'rinda bo'lib, AQSH birinchilikni bermay kelayotgan edi. Fransiyadagi ekin ekiladigan yerlarning 25 % gina zamonaviy tipdagi xo'jaliklar ixtiyorida edi. Taxminan, dehqon xo'jaliklarining 80%ida foydalanilayotgan traktor va boshqa texnikalar asosan qisqa muddatli ijaraga olib turish yo'li bilan mavsumiy ishlatilar edi.

Iqtisodiy taraqqiyotning 111 rejasi (1958-1961 yy) qabul qilinayotgan vaqtda, proteksionizmdan "ochiq iqtisodiyotga" o'tish yo'li qabul qilindi. Bu qaror, Yevropa integratsiyasining kelajakdagi taraqqiyot jarayoniga asoslanib qilingan edi. 1957 yilda KBEP to'g'risidagi shartnomaning imzolanishi, Yehligida (YEIH, Yevroatom) mukammal tizimining yuzaga kelishi, G'arbiy Yevropa iqtisodiyotining taraqqiy etishida tamoman yangi bosqich sifatida qaraldi. Fransiya hukumatidagi yevropeistlar doirasi, ishlab chiqarish aloqalarining bevosita mustahkamlanishi, bojxona to'siqlarini to'la liberalizatsiyalash, yirik davlat sektorining mavjudligi va uni keng miqyosda rejalashtirish samaradorligining yo'qolishiga sabab bo'ladi deb hisoblardi. Liberal siyosiy partiyalar iqtisodiyotning davlat tomonidan to'la nazorat etilishini qattiq tanqid ostiga oldilar. Ammo "ochiq iqtisodiyot" konsepsiyasini amalga oshirish siyosiy barqarorlikni talab qilar edi.

To'rtinchi respublikaning yuzaga kelayotgan inqirozi sharoitida tadbirkorlik faoliyati yanada susayib ketayotgan edi.

Urushdan keyingi davrdagi xalqaro munosabatlarda Fransiyaning o'rni. Jazoir inqirozi va davlat tepasiga general de Gollning kelishi.

Qarshilik ko'rsatish harakatining natsizmga qarshi olib borgan faol kurashi natijasida Fransiya o'zining xalqaro statusini tiklash imkoniga ega bo'ldi. Bunda sobiq SSSRning tutgan siyosati ham muhim ahamiyat kasb etdi. 1944 yil noyabr-dekabr oylarida de Goll boshchiligidagi Fransiya delegatsiyasi Moskvaga tashrif buyurdi. Bu muzokoralar natijasida "Ittifoqchilik va o'zaro yordam haqidagi shartnoma" imzolandi. Shartnomada Germaniya separativ muzokoralar olib borishdan voz kechish bitim imzolanayotgan tomonlarga qarshi qaratilgan har qanday ittifoqlar qatnashmaslik majburiyati ham ko'zda tutildi. Sobiq SSSR va Fransiya o'rtasidagi shartnoma davlatlar safidan joy olishga imkoniyat yaratdi. Bu masala uzil-kesil Yalta konferensiyasida hal etildi. Fransiya Germaniyada o'z okkupatsion zonasini tashkil etish huquqini olgan to'rtta yirik davlatlardan biri bo'ldi. Potsdam konferensiyasi qarorlariga ko'ra, uning vakili Tashqi ishlar ministrarlari Kengashiga kiritildi. Bu kengashning asosiy vazifasi, urushdan keyingi davrdagi Germaniya masalasidagi muammolarni bartaraf etishdan iborat edi.

Potsdam konferensiyasi va Tashqi ishlar ministrarlari Kengashining yig'ilishlarida Fransiya Germaniya masalasi bo'yicha olib borilgan muzokoralarda o'ta qat'iy pozitsiyani egalladi. Fransuz diplomatiyasi o'zining tarixan azaliy dushmanini maksimal darajada zaiflashtirishga, Germaniya ustidan xalqaro nazoratni o'ta qattiqqo'llik bilan o'rnatishga hattoki mamlakatni bo'lib tashlash darajasiga olib erishishni maqsad qilib oldi. Fransiyaning vakili Ittifoqchilar nazorat Kengashining umumgerman hukumatining asosini tashkil etadigan- "Markaziy nemis departamentlarini" tashkil etish haqidagi qarorga veto berdi. 1945 yil noyabrida AQSH INKga inom yoki uch zona uchun markaziy departamentlar tashkil etish taklifi bilan chiqdi. Sobiq Sovet

tomoni bu taklifni Germaniyani to'rttomonlama boshqarish prinsipini buzish deb hisoblab rad etdi. Bu bilan ma'lum ma'noda Fransiyaning manfaatlarini ham himoya qildi. Bir yil o'tar o'tmas vaziyat keskin darajada o'zgarib ketdi. Ittifoqchilar o'rtasidagi munosabatlaridagi kelishmovchiliklar, ochiqdan-ochiq konfrontatsiyaga aylandi.

Anglo-amerikaliklarning birlashgan okkupatsion zonasining tashkil etilishi separativ xarakterga ega bo'lib, fransuz okkupatsion zonasining qo'shilishi G'arbiy Germaniyada davlat tashkil etilishiga imkon yaratildi. Nemis davlatining parchalab tashlanishi, GFRning g'arbiy davlatlar uchun harbiy va iqtisodiy zonaga aylantirilishi, Fransiya diplomatiyasi manfaatlariga mos kelar edi.

AQSH va Fransiya o'rtasida 1946 yili Vashington shartnomasining imzolanishi, bu davlatlarning ajratgan ittifoqchilarga aylanishi uchun birinchi qadam bo'ldi. Bu shartnomaga asosan, AQSH Fransiya kredit beradigan va uning oldingi qarzlaridan voz kechadigan, ikki tomonlama iqtisodiy munosabatlar erkinlashtiriladigan (liberalizatsiyalash), hukumatlar o'rtasida mustahkam kontaktlarni o'rnatish va madaniy aloqalarni faollashtirish ko'zda tutildi. 1947-1948 yillarda Germaniya inqirozining eskalatsiyasi (o'sishi, kuchayishi), fransiyaliklar-amerikaliklar yaqinlashishini tezlashtirdi. Fransiyaning Marshall rejasiga qo'shilishi esa Fransiya tashqi siyosatidagi "atlantika birdamligi" g'alaba qozonishiga olib keldi. Fransiyaning ko'pgina yirik partiyalari uni o'zlarining eng asosiy dasturiy ko'rsatmalaridan biri sifatida qarar edi. Fransiya tashqi siyosatida atlantik kursining kuchayishi muqarrar ravishda sobiq SSSR-Fransiya munosabatlarining buzilishiga olib keldi.

Fransiya g'arbiy davlatlarning harbiy-siyosiy alyansining tashkil topishida faol ishtirok etdi. Fransiya 1948 yil 17 martda Bryusselda imzolangan shartnomaga ko'ra tashkil etilgan G'arbiy Ittifoqning tashkilotchilaridan biri bo'ldi. Bir yil o'tib, Fransiya 1949 yil 4 aprelida imzolangan Shimoliy Atlantika shartnomasiga a'zo bo'ldi. qisqa vaqt ichida Fransiya AQShning Yevropadagi asosiy harbiy platsdarmiga aylandi. Uning hududlarida NATOning harbiy va transport infrastrukturalarining katta qismi joylashtirilgan edi. Fontenbloda NATOning bosh shtabida joylashdi. 1950 yil 27 yanvarda imzolangan shartnomaga ko'ra, Fransiya AQSH o'zining Yevropadagi Ittifoqchilariga berayotgan harbiy va moddiy yordamlarining asosiy qismini olayotgan edi. Fransiyaning harbiy-sanoat kompleksi tezkor sur'atlar bilan taraqqiy eta boshladi.

40-yillarning oxirlaridan boshlab, Fransiya Yevropa integratsiyasi jarayonida faol ishtirok eta boshladi. Uning strategiyasi 1948 yilda panevropa tashkilotlari tomonidan o'tkazilgan Yevropa kongressida faol muhokama qilindi. Kongressda federalistik va yunionistik ambitsioz konsepsiyalar bir-biriga to'qnash keldi. Har ikkilasi ham barcha sohalarda Yevropa mamlakatlarining mustahkam integratsiyasini, jumladan iqtisodiy, siyosiy, huquqiy ijtimoiy hamkorligini ko'zda tutgan edi. 1949 yilda Yevropa Kengashining tashkil etilishi esa bu yo'ldagi muhim qadamlardan biri bo'ldi. Ammo, Yevropa davlatlari taraqqiyotida turli rivojlanish darajasi bunday loyihalarni amalga oshirishda to'sqinlik qilar edi.

Urushdan keyingi davrdagi fransuz diplomatiyasining yetakchilari J.Bido, R.Shuman, R.Pleven, J.Monnelar Yevropa integratsiyasi jarayonida o'ziga xos konsepsiyasini ishlab chiqdilar.

1950 yilda Fransiya shu konsepsiyaga mos keladigan tashabbus bilan chiqdi. 9 mayda Robert Shuman G'arbiy Yevropa mamlakatlaridagi ko'mir va po'lat sanoatini integratsion birlashuvini ko'zda tutadigan loyihasini e'lon qildi. "Shuman rejas" tor sohadagi integratsion birlashuvlarni ko'zda tutsa-da, G'arbiy Yevropa integratsion jarayonlaridagi tayanch prinsiplariga asos soldi. 1951 yilda "Shuman rejas"ning amalga oshishi natijasida Yevropa Ittifoqi tizimidagi birinchi tashkilot-KPEB ga asos solindi.

1950 yil oktabrida Rene Pleven Yevropa mudofaa birlashmasining o'zagini tashkil etishi mumkin bo'lgan birlashgan Yevropa qurolli kuchlarini tashkil etish rejas bilan chiqdi. Fransuz siyosatchilari buni KPEBning mustahkamlanishi uchun qo'shimcha qadam deb baholashdi. Uzoq davom etgan muzokaralardan so'ng, 1952 yil may oyida "oltilikka" a'zo bo'lgan davlatlar o'rtasida YEMB to'g'risidagi shartnoma imzolandi. Unga ko'ra, millatlararo boshqaruv va

budjetga ega bo'lgan umumiy qurolli kuchlarni tashkil etish ko'zda tutildi. Ammo, bu shartnoma baribir kuchga kirmadi. 1951 yil saylovlaridan so'ng tashkil etilgan Fransiya parlamentining yangi tarkibi shartnomani ratifikatsiya etishni rad etdi. YEMB to'g'risidagi bahslar 1954 yil avgustigacha davom etdi va shuni ko'rsatdiki, Yevropa integratsiyasi muammolari Fransiya ichki siyosiy hayotidagi eng muhim masalalardan biriga aylandi. Integratsiya aloqalarining kerakligi hech shubha uyg'otmasada, millatlararo Yevropa institutlarning kuchayishi ko'pgina siyosatchilar tomonidan milliy suverenitetga xavf solishi mumkinligi e'tirof etildi. Shunisi qiziqki, YEMB shartnomasi ratifikatsiya etishdan bosh tortganiga bir oy o'tgach Fransiya, G'arbiy Yevropa Ittifoqini tashkil etish to'g'risidagi shartnomaga qo'shildi. G'arbiy Yevropa Ittifoqi strukturasida Milliy qurolli kuchlarning mustaqilligi to'la saqlanar edi.

50-yillarning oxirida To'rtinchi Respublikadagi inqirozning kuchayishiga qaramasdan, Fransiya Yevropa birlashmasi tizimining taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shishni davom ettirdi. 1957 yilda fransuz diplomatiyasi Yevropa Iqtisodiy Hamdo'stligi va Yevropaning atom energiyasi bo'yicha hamkorligini tashkil etish loyihasini qo'llab-quvvatladi.

Urushdan keyingi Fransiyaning tashqi siyosat sohasidagi eng muammoli masala-mustamlakachilik masalasi bo'ldi. Ikkinchi jahon urushi yillarida mustamlaka tizimiga darz ketdi. Imperiyaning tiklashning imkoniyati yo'qligini tan olgan Fransiyaning yangi siyosiy elitasi bu vaziyatdan chiqib ketish uchun, Fransiya Ittifoqi huquqiy formulasi ko'rinishidagi kompromiss variantini o'rta tashladi. Ammo, bu huquqiy formulani ham amalga oshirishning imkoni bo'lmadi. Bunga To'rtinchi Respublika rejimining siyosiy jihatdan barqaror emasligi, koloniyalardagi mahalliy ma'muriyatning jiddiy qarshiligi va fransuz jamiyatining ijtimoiy ongida mustamlakachilik qarashlarning keng tarqalganligi ham sabab bo'ldi. 1945 yil mayida mustamlaka hukumati Jazoiridagi qo'zg'olonni dahshatli ravishda bostirdi. Bir yarim yil o'tib, xuddi shunday hodisa Madagaskarda ham bo'lib o'tdi. Mahalliy aholi ichidagi qurbonlar soni 80 mingdan ortiq kishini tashkil etdi. Hindixitoydagi harbiy majoro ham Fransiyaning siyosiy hayotiga salbiy-ta'sir ko'rsatdi.

1945 yilning 19 avgustida vyetnamdagi qo'zg'olonchilar qo'shining boshlig'i Xo Shi Min tomonida mustaqil davlatning tashkil etilganligi e'lon qilindi. Fransiya va Vyetnam xukumatlari o'rtasida Fransiya ittifoqiga kiradigan Vyetnam Respublikasining mustaqil davlat sifatida tan olingani to'g'risidagi shartnoma imzolanganiga qaramay, tez orada mustamlaka ma'muriyati "Koxinxin Respublikasi qo'g'irchoq xukumatning tashkil etilishini ko'llab-quvvatladi. 1946 yil noyabridan boshlab, Hindixitoy-yarim oroli xududida harbiy harakatlar boshlandi. U yetti yilga cho'zildi. 10 ming kishilik Vyetnam armiyasi partizan urushi metodlaridan foydalanib, fransiyaliklarining do-ming kishilik ekspeditsion korpusiga karshi chiqdi. AQSH tomonidan qo'llab-quvvatlangan Fransiya kontelgentining sonini 180 mingga yetkazdi. Vyetnamning ham armiyasi tarkibida 100 mingdan ortiq jangchi bor edi.

1950-1951 yillarda general de Latrama de Tassini boshchiligidagi fransiya armiyasini qisqa muddatli muvaffiqiyatlardan so'ng, tashabbus vyetnamliklarga o'tdi. Bunda Fransiyalarning Dyenbyenfudagi mustahkamlangan hududining kun oylar mobaynida qamal qilinishi aholini kasb etdi. qamal o'z nihoyasiga yetishidan oldin, ya'ni 1954 yilning yanvar- fevral oylarida Fransiya, Buyuk Britaniya, AKSH va sobiq SSSR davlatlari tashqi ishlar ministrilarining Bermen kengashida, 1954 yilning aprel oyida Jenevoda hindixitoyda tinchlik o'rnatish masalasida mahsus kengash chaqirish to'g'risida kelishib olingan edi. 1954 yil 7 mayda Dyenbyenfu garniztning kapitulyasidan so'ng, kompaniyaning va Jeneva muzokaralarining natijasi oldindan hal bo'lib qoldi. Fransiya hukumat tepasiga Mendens- Fransiyaning kelishi yetti yillik "sharmandali urushga" oxirgi nuqtani qo'ydi. Bu urushda Fransiya o'ldirilgan, asirga tushgan va yarador bo'lganlarni hisoblasa 140 ming kishidan ajraldi. 1954 yil 21 iyulida Jenevada "Jeneva shartnomasi" nomi bilan bitim imzolandi. Unga ko'ra, 17-parallel chegarasidan Shimoliy va Janubiy Vyetnamda mustaqil suveren davlatlar tashkil etildi. Fransiya Hindixitoy hududidan o'z qurolli kuchlarini olib chiqib ketish majburiyatini oldi, bundan tashqari, Janubiy Vyetnam qurolli kuchlari ustidan nazorat o'rnatish huquqini ham saqlab qoldi.

50-yillar boshlarida Fransiya va uning Shimoliy Afrikadagi protektoratlari hisoblangan - Tunis, Marokash davlatlari o'rtasidagi munosabatlar keskinlashib ketdi. Bu davlatlar Fransiya Ittifoqiga "qo'shilgan davlatlar" holatida kirgan edi. 1951 yilning oktabr oyida Tunis hukumati to'la mustaqillik berish talabi bilan chiqdi. Fransiya davlatining ma'muriyati bunga qatag'onlar to'liqini bilan javob berdi. Bu qatag'onlar asosan Tunisdagi Neo-Destur milliy partiyasining faollariga qarshi qaratilgan edi. Mahalliy hukumatning premyer ministri SHenik qamoqqa olindi, Tunis kasaba uyushmalarining bosh kotibi Xashed o'ldirildi. Tunisda partizanlar urushi boshlandi. Marokashdagi vaziyat ham o'ta keskinlashdi.

1952 yil dekabr oyida "Istiqlol" Milliy partiyasi va Marokash Kommunistik partiyasining faoliyati ta'qiqlab qo'yildi. Fransuz hukumati qonuniy hisoblangan Sulton Muhammad ibn Yusufni taxtdan ag'darib tashlashni qo'llab-quvvatladi. 1954 yilda Jazoirda Milliy Ozodlik Frontining tashkil topishi, Milliy Ozodlik harakatining kuchayishiga olib keldi. 1955 yilda Fransiya parlamenti Jazoirda favqulodda holatni e'lon qilishga majbur bo'ldi.

Hukumat tepasiga Gi Mollening kelishi, vaziyatning keskin o'zgarishiga olib keldi. 1956 yil martida Marokash va Tunisning mustaqilligini tan oladigan shartnomalar tuzildi. Jazoir muammosi bundan ham murakkab edi. Mamlakatda 1 mlndan oshiq yevropaliklar istiqomat qilib, ular bir necha o'n yillar davomida Fransiya va boshqa Yevropa davlatlaridan kelib qolgan va mahalliy aholi bilan chatishib ketgan kishilarning avlodlari edi. Ular mahalliy xalq bilan etnik, madaniy va lingvistik sintez oqibatida tashkil topgan, o'ziga xos ijtimoiy guruh edilar. Yevroalirliklar o'zlarini bu mamlakatning asl xo'jayinlari hisoblab, fransuz jamiyati ongida esa Jazoir hattoki mustamlaka emas, balki Fransiyaning bo'linmas hududi bo'lib qolgan edi. XIX asrning oxiriga kelganda, Jazoir Fransiya Milliy hududining bir qismi ekanligi haqidagi statusiga ega bo'ldi. Musulmon aholisi ichida milliy ozodlik harakatining avj oldirilishi tufayli fuqarolar o'rtasidagi ziddiyatlar, keng miqyosli harbiy harakatlarga aylanish xavfini keltirib chiqardi.

Hattoki, dekonolizatsiyalash jarayoniga huquqiy tus berishga intilayotgan Gi Molle hukumati ham, Jazoirda harbiy kuchlarni saqlab turish zaruriyati to'g'risida bayonot berishga majbur bo'ldi. Gi Molle bu nizodan chiqib ketish yo'li, saylov tizimida islohot o'tkazish deb hisoblar edi. Bu islohotga ko'ra, mahalliy (tub) va yevropaliklarga oid aholining saylov huquqini tenglashtirish lozim edi. Ammo bu loyiha, nizo qilayotgan har ikki tomonni ham qoniqtirmas edi. Gi Molle hukumatiga favqulodda vakolatlarning berilishi, yuzaga kelgan inqirozning kuchayishiga olib keldi. Jazoirga qo'shimcha ravishda 100 mingdan ortiq askar va rezervistlar jo'natildi (yuborildi). Oradan uch oy o'tib, 1956 yil iyulida shu hukumatning o'zi Suvaysh kanalini davlat tasarrufiga o'tkazgan Misr hukumatiga qarshi uyushtirilgan diplomatik demarشلarni faol qo'llab-quvvatladi. qat'iy antimisr kursi, Fransiyaning 1956 yil oktabrida Suvaysh harbiy mojarosida ishtirok etishiga olib keldi. Bu mojaroda fransuz diplomatiyasining mag'lubiyatga yuz tutishi, Jazoirdagi vaziyatning yanada keskinlashishiga sabab bo'ldi.

1957 yil yanvarida fransuz hukumatining Jazoirdagi vakili, harbiy havo kuchlari bo'linmasi qo'mondoni general Massyuga Jazoirdagi boshqaruv vakolatini berdi. Bu yuzaga kelgan nizoni siyosiy metodlar bilan bartaraf etib bo'lmashligini tan olishdan boshqa hech narsa emas edi. Yangi hukumat boshlig'i F.Gayaraning Jazoir muammosini amerikalik diplomatiyasi yordamida bartaraf etish uchun qilgan urinishlari, yevrojazoirliklar ichida yanada kuchli noroziliklarni keltirib chiqardi. Ularning rahbariyati ichida general de Gollning tarafdorlari muhim o'rin tuta boshladi. "Fransuz Jazoirini yangilash va saqlab qolish uchun kurash ittifoqi"ning tashkilotchisi J.Sustel general Massyu bilan birgalikda Jazoirda o'ta o'ngchilar fitnasining tashabbuskorlari bo'ldilar. 1958 yil 13 mayda ular boshchiligidagi "Milliy qutqarish qo'mitasi" Jazoirdagi hukumat to'la ravishda ular ixtiyoriga o'tganligi e'lon qilindi. O'sha kunning o'zidayoq Fransiya'dagi hukumat T. Pflimlen boshchiligidagi koalitsion hukumat ixtiyoriga o'tdi. hukumat rahbariyati bilan general De Goll' o'rtasida qisqa muokara bo'lib o'tdi. Muzokara De Goll' boshchiligida "Millatni qutqarish hukumati"ni tuzish va masalani Milliy Assambleyada ko'rish bilan tugallandi. 1958-yil 1-iyunda ovoz berish bo'lib o'tdi va ko'pchilik ovoz bilan De Goll' boshchiligida "Millatni qutqarish hukumati" tuzildi.

2. Gollizm va Beshinchi respublikaning tashkil topishi.

Gollizmning siyosiy filosofiyasi. Beshinchi respublikaning konstitutsion- huquqiy tuzumi.

Yana millatning qutqaruvchisi sifatida siyosat maydoniga chiqqan general de Goll Jazoir muammosini yechishdan tashqari, mamlakatda siyosiy qat'iyatsizlikni keltirib chiqarayotgan davlat tizimini tubdan o'zgartirishni taklif qilib chiqdi.

Uzoq vaqt davomida prinsipial oppozitsiyada bo'lib, hokimiyatga qaytgan de Goll o'zining oldingi xatolarini qaytarmaslikka harakat qildi. U ommaviy, yaxshi tashkil etilgan partiyaga tayanar edi. 1958 yilda gollchilarning barcha tarafdorlari yangi respublika qurish uchun ittifoq (YUIR)ga birlashdi. Shaxsiy avtoritet keng qamrovli mafkuraviy konsepsiya bilan mustahkamlandi. Yangilangan gollizm favqulodda spetsifik, yaxlit siyosiy falsafani mujassam etish bilan bir vaqtda Fransiyaning milliy-siyosiy an'analariga to'g'ri keladigan g'oyalarni ham o'zida saqlab qolgan edi.

Gollizm g'oyasining o'zagida, davlat qurilishidan tortib to iqtisodiyotni nazorat qilishgacha bo'lgan umumiy siyosatning asosida Fransiyaning "Milliy buyukligi" masalasi yotardi.

"Fransiyaning buyukligi" to'g'risidagi gollchilar g'oyasi an'anaviy millatchilik milliy ustunlikni targ'ib qiluvchi shovinistik qarashlardan ancha yiroq edi. Fransiyaning Buyukligi de Goll uchun abstrant maqsad emas, balki bajarsa bo'ladigan real ijtimoiy prinsip edi. de Goll: "Mening fikrimcha, buyuklikdan mahrum etilgan Fransiya, Fransiya bo'lishdan to'xtaydi"- degan edi. Gollchilar tomonidan Fransiya, millionlab fransiyaliklar yashayotgan mamlakatdan ham katta narsa sifatida qabul qilishar edi. Fransiya gollchilar uchun bu o'tmishda yashagan va kelajakda yashab fransuz nomini olishga intilayotgan barcha avlodlarni birlashtirgan.

De Gollning fikricha, faqatgina kuchli davlatgina milliy mustaqillik, birlik, ijtimoiy tartib, adolat parvarlik g'oyalarining amalga oshishida kafolat bo'la oladi. "Kuchli davlat - bu diktatura emas, balki sinflar va shaxsiy manfaatlardan ham yuqorida turuvchi, umummilliy manfaatlarni himoya qiluvchi davlatdir".

Ammo partiyalar korporativ institutlar sifatida o'zining tabiatidan kelib chiqib, yagona va kuchli davlatga qarshi turadi. De Goll "Partiyalar rejimi"ga qarama-qarshi ravishda xalqning suverenitetiga asoslangan, haqiqiy demokratiyani tiklashni taklif qildi. Konstitutsiyaga oid boshqaruv shakli yosh hukumat rahbari to'g'risidagi fundamental muammolar referendum o'tkazish yo'li bilan o'z yechimini topishi lozim edi.

Partiyalarning qarama-qarshiligini aks ettirayotgan parlament, davlat hukumatining Markazi bo'la olmaydi. De Gollning ta'kidlashicha; birlik, birdamlik, ichki tartib-intizom hokimiyatining ajralmas xususiyatlaridan sanaladi.

1958 yil 1 iyunda Milliy Majlis de Gollga hukumat boshlig'i lavozimini taqdim etdi. Bu qaror uchun "mustaqillar", MRP, "ijtimoiy respublikachilar" fraksiyasidan qisman esa - SFIO va radikallardan 329 ta deputat ovoz berdi. 224 ta deputat esa "qarshi" ovoz berdi. Gollizmga qarshi kommunistlar, F.Mitteran boshchiligidagi YUDSR, so'1 radikallar, K.Pinova va A.Gazye yetakchiligida sotsialistlar oppozitsiyada birlashdi. 3 iyunda parlamentda konstitutsiyada belgilangan qonun qabul qildi, unga ko'ra hukumatga 6 oy mobaynida to'la vakolat berildi. Faqatgina jamoat huquqlari va erkinliklar sohasidagi qonunchilik faoliyati mustasno edi. Hukumat konstitutsiyani qayta ko'rib chiqish vakolatiga ham ega bo'ldi. Ammo 3 iyundagi qonun o'zgartirish mumkin bo'lmagan konstitutsiyaga oid 5 ta prinsipni ko'rsatib berdi; uning umumxalq saylov orqali saylanish xuquqi, hokimiyatning qonun chiqaruvchi va ijroiya xokimiyatga bo'linishi, hukumatning parlament oldida hisob berishi, sud hokimiyatining erkinligi, Fransiya va unga qaram hisoblangan xalqlar o'rtasida yangi munosabatlarning tashkil etilishi. Parlamentning tarqatib yuborilishi bilan To'rtinchi respublikaning tuzumiga ham barham berildi.

Beshinchi respublika konstitutsiyasining loyihasi hukumat va parlamentning har ikkala palatalari vakillaridan tashkil topgan konsultativ komissiya ishtirokida Mishel Debre boshchiligidagi ishchi guruhi tomondan tayyorlandi. 1958 yil 28 sentabrda loyiha referendumga

qo'yildi va 79,2 % ovoz bilan ma'qullandi (referendumda registratsiya qilingan saylovchilarning 83,8 % qatnashdi).

1958 yildagi Konstitutsiya Fransiyada aralash, prezidentlik-parlamentlik rejimiga asoslangan davlatni tashkil etdi. 7 yil saylanadigan prezident tashqi siyosat, mudofaa va milliy xavfsizlik sohalarida katta vakolatlarga ega bo'ldi. Agar risoladagi vakolatlarni doirasida qabul qilingan prezident aktlari, hukumatning kontrasichnaturasini talab qilib qolgan taqdirda, prezident favqulodda holat e'lon qilishi yoki yadro qurolidan foydalanishi mumkinligini o'zi qaror berishi kerak edi. Prezident ijroiya hokimiyat ustidan o'z nazoratini Ministrlar Kengashida raislik qilishi huquqi asosida amalga oshirdi, bundan tashqari yuqori lavozimli amaldorlarni tayinlaydi. Bu sohada prezidentning asosiy imtiyozlari premyer-ministrni tayinlash va iste'foga chiqarish huquqi turadi. Ammo hukumat tashkil etilishi jarayonida parlamentning quyi palatasi Milliy majlisning ishonch votumi lozim bo'ladi.

Beshinchi respublikaning prezidenti qonun chiqaruvchilik jarayonida qatnashish huquqiga ega edi. Parlament tomonidan qabul qilinayotgan qonunlar prezident tomonidan ko'rib chiqilishi va ma'qullanishi lozim edi. Bundan tashqari prezident kechiktirish veto huquqiga, shuningdek kontrasichnaturasiz muhim qonun loyihalarini referendumga qo'yish huquqiga ega edi. Prezident parlamentning quyi palatasini favqulodda holat va magistraturaning birinchi yilini mustasno etganda, hoxlagan vaqtda tarqatib yuborish huquqiga ega edi. Prezident, hukumatning faoliyatini nazorat etadigan - Davlat Kengashi va saylov jarayoni, qonunchilikning konstitutsionligini nazorat etadigan konstitutsion Kengash kabi ikki muhim davlat tashkilotlarining tarkibini tasdiqlaydi. Prezident faqatgina davlatga xiyonat qilgan taqdirda jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin edi.

Fransuz parlamentining qonun chiqaruvchilik vakolati 1958 yil konstitutsiyasiga ko'ra ancha chegaralandi

Shunday qilib, 1958 yilgi konstitutsiya Uchinchi va To'rtinchi respublikalar davridagi parlament ustunligi o'rniga hokimiyatni taqsimlashning markazlashgan tizimini tashkil etdi.

Ijtimoiy mazmuni jihatidan 1958 yilgi Konstitutsiya o'zidan oldingi asosiy qonunning sotsial mazmunini saqlab qolishga harakat qildi. Uning tarkibiga "Inson va fuqarolarning huquqlari Deklaratsiyasi" va 1946 yilgi konstitutsiyaning preambulasi hech bir o'zgarishsiz kiritildi. Yangi konstitutsiya shuning bilan fuqarolarning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan keng doiradagi huquqlarini kafolatladi. Fransiya avvalgidek, bo'linmas, dunyoviy, demokratik va sotsial respublika sifatida belgilandi. Fransiya Ittifoqi o'rniga esa, suveren davlatlarni kiritgan Fransiya hamdo'stligi ta'sis etildi.

1958 yilgi konstitutsiya qabul qilinganidan so'ng, hukumat saylov Kodeksiga qo'shimcha ilovani ishlab chiqdi. Unga ko'ra, Milliy Majlisning 577 ta deputatlari bir mandatli okruglarda ikki turda matoritar tizimda saylanishlari belgilab qo'yildi. Bu tizim yirik partiyalarga foyda keltirar edi.

Yangi tizim bo'yicha parlamentga birinchi saylovlar 1958 yilning 23-30 noyabr kunlari bo'lib o'tdi. Bu saylovlar parlamentning quyi palatasiga kuchlar nisbatini keskin darajada o'zgartirib yubordi. 188 mandatga ega bo'lgan. YUNR parlamentda ko'pchilik ovozga ega bo'ldi. 4 mlnga yaqin saylovchilar tomonidan qo'llab-quvvatlangan FKP ikkinchi turda parlamentga bor yo'g'i 10 ta deputatni o'tkazishga muvofiq bo'ldi. SFIO va radikallar 40 ta o'rin, MRP esa 44 ta o'rin egallashga muvaffaq bo'ldi. Gollchilarning konstitutsiya tashabbuslarining hammasini qo'llab-quvvatlagan SNIP ning g'alabasi ko'nilmagan holat edi. "Mustaqillar" 133 ta deputatda iborat Fransiyaning tashkil etdilar. Shunday qilib, parlamentda de Goll tarafdorlari qat'iy ko'pchilikka erishdi. 1958 yil dekabrda de Goll prezident etib saylandi. U Mishel Debrega yangi hukumat tashkil etish vazifasini topshirdi. Bu hukumat tarkibiga, dastavval gollchilardan tashqari, MRP va "mustaqillar" dan vakillar hamda sotsialist va radikallarda 1 tadan vakil kiritildi. De Goll o'z faoliyatini koalitsiyadagi sheriklari bilan kelishgan holda olib borishni umuman hoxlamas edi. Bundan tashqari, prezidentning sohasida qolib ketishdan cho'chigan ko'pgina partiyalarning yetakchilari hukumat va prezidentning faoliyatida masofa saqlashga harakat qildi. 1959 yilda sotsialistlar va radikallar ham tamoman

oppozitsiya tarafiga o'tib ketdi. Bundan tashqari, tarkibidan, 1958 yildayoq, Muxtor sotsialistik partiyani tashkil etgan so'l radikal guruh ajralib chiqqan edi. 1960 yilda bu partiya yillarning so'l sotsialistik Ittifoqi bilan qo'shilib, Birlashgan sotsialistik partiyani tashkil etgan edi. 1960 yilda moliyaviy islohotlarning yo'llari to'g'risidagi tortishuvlar SNIP rahbariyati ichida ixtilof kelib chiqishiga (olib keldi) sabab bo'ldi. "O'ng liberal" guruhlarning vakili hisoblangan A.Pine de Gollning talabi bilan moliya va iqtisodiyot Ministri lavozimidan chetlatildi. Natijada, uning o'rnini "mustaqillar" texnokrati qanotining yosh yetakchilaridan hisoblangan Voleri Jiskar d Esten egalladi. Gollchilar bilan hamkorlik qilish maqsadga muvofiqligi haqidagi bahs tufayli 1962 yilda SNIPda ajralish yuz berishiga olib keldi va uning tarkibidan Jiskar d Esten boshchiligidagi guruh mustaqil bo'lib chiqdi. Ular "mustaqil respublikachilar" nomli deputatlar guruhini tashkil etishdi va koalitsion hukumat tarkibida qolishdi. De Gollning YEIH ga nisbatan tutgan qat'iy siyosatidan norozi bo'lgan MRP vakillari 1962 yilda hukumat tarkibidan chiqib ketishdi.

60-yillarning boshlari gollchilar harakatining rivojlanishi uchun muhim bosqichlardan biri bo'ldi. 1961-1962 yillarda joriy muammosi bo'yicha o'tkazilgan referendumlar tufayli Jazoirga mustaqillik berildi, YUNR dan esa J.Sustel boshchiligidagi radikal qanot ajralib chiqdi. "Ultra" De Gollni millatga xoin sifatida baholadi. Real siyosiy kuch bo'lish imkoniyatiga ega bo'lolmagani tufayli, ular oxir-oqibatda terroristik metodlardan foydalana boshladi. Prezidentga nisbatan bir necha marta suiqaqd uyushtirishga harakat qilindi Gollizm konsepsiyasining taraqqiy ettirish va partiyaning faol qurilishi uchun harakat qilayotgan M.Debre boshchiligidagi guruhning mavqeiga jiddiy putur yetdi. 1962 yil aprelida Debrening o'rniga Jorj Pompidu Premyer-ministr lavozimini egalladi. Hukumatning yangi boshlig'i obro'li gollistik guruhlar tarkibida bo'lmasada, shaxsan de Gollga eng yaqin siyosatchilardan biri edi. U uzoq vaqt davomida de Goll kotibiyatining rahbari lavozimini bajargan edi. YUNR rahbariyatida Jak Shaban-Delmas boshchiligidagi "empiriklar" guruhining ta'siri kuchaydi. Ular de Gollga so'zsiz sodiqligi va pragmatik siyosat tarafdorlari ekanligi bilan ajralib turardi. "So'l gollchilar" ham faollasha boshladi. Ularning yetakchilari R.Kapitan, L.Vallan, L.Amonlarning ham de Gollning eng yaqin safdoshlari hisoblansalarda, J.Sustel tarafdorlarining radikalizmiga norozilik belgisi sifatida YUNRning tashkil etilishida qatnashmagan edi. Ular 1959 yilda o'zlarining Demokratik Mehnat Ittifoqi (YUDT) partiyasini tuzdi. Jazoir muammosining hal etilishi va hukumat siyosatida ijtimoiy faollikning oshishi ikki gollistik partiyalarning yaqinlashishi uchun asos bo'ldi. 1962 yilda ular YUNR-YUDT yagona blokini tashkil etdilar. Partiya spektridagi radikal o'zgarishlar de Gollni konstitutsion islohot o'tkazishni tezlashtirdi. U 1962 yilda prezidentlikka saylovlarni to'g'ridan-to'g'ri umumiy saylovlar orqali o'tkazish tashabbusi bilan chiqdi. Prezidentlik hokimiyati ustidan parlament nazoratining susayishiga olib kelishi, ko'pgina fransuz partiyalarining bu loyiha qarshi chiqishiga sabab bo'ldi. De Goll quyo' palatani tarqatdi va prezidentlik saylovi masalasini referendumga qo'ydi. 1962 yil 28 oktabrida bo'lib o'tgan referendumda, ovoz berganlarning 61,7 % prezidentning loyihasini qo'llab-quvvatladi. Ammo referendum vaqtida antigollistik oppozitsiyaning yaqinlashuvi yuz berdi. SFIO, radikallar, MRP va SNIP partiyalari "Yo'q" javobi tarafdorlarining kartelini, so'ngra esa uning asosida - "Demokratik inoqlik" (hamjixatlik) saylov oldi blokini ham tashkil etdilar. Uzoq vaqt davomida birinchi marta kommunistlar va sotsialistlar kelgusida bo'ladigan parlament saylovlarining ikkinchi turida bir-birlarini qo'llab-quvvatlashlari to'g'risida kelishib oldilar. So'l partiyalarning bunday taktikasi "respublikachilik intizomi" nomini oldi.

1962 yil noyabrida bo'lib o'tgan saylovlar natijasida, Milliy Majlisda ikkita qutb yuzaga keldi. FKP va SFIO fraksiyalari 41 va 67 deputatga ega bo'ldi. YUNR-YUDG va Jiskar d Esten boshchiligidagi "mustaqil respublikachilar" guruhi o'z navbatida 229 va 32 ta o'ringa ega bo'ldi. "Demokratik hamjihatlik" sentristik partiyalari asta-sekinlik bilan o'z lavozimlarini yo'qota boshladi. Radikallar 44 ta, MRP-38, SNIP-18 mandatga ega bo'lishdi Yangi hukumatni yana J.Pompidu boshqardi.

De Gollga hol qiluvchi zarbani oppozitsiya 1965 yildan prezident saylovlari vaqtida berishni mo'ljallashgan edi. Shu narsa aniq ediki, hukumatda rahbarlik mavqeini egallamagan u

yoki bu partiyaning yetakchilari prezidentning avtoritetiga yakka-yakka holda qarshi chiqolmas edi. Jon Lekanyue boshchiligidagi MRP rahbariyati kelajakda sentristik partiyalarining birlashishi tashabbusi bilan chiqdi. 1962 yil oxiridan boshlab, partiyalararo asosda “Demokratik markaz” nomli siyosiy koalitsiya tuzila boshladi. Uning tarkibiga MRP va SNIP tarkibidagi ko‘pgina guruhlar kirgan edi. Lekanyuening o‘zi esa “Demokratik markaz”dan prezidentlik saylovida nomzod bo‘ldi. Uning dasturi asosan, de Gollning tashqi siyosatini, ayniqsa Yevropa masalasi bo‘yicha siyosatini tanqid qilishdan iborat edi.

Radikallar va sotsialistlar orasida kommunistlar bilan ham hamkorlik qilishni mustasno qilmaydigan, keng doiradagi so‘l blokni tuzish tarafdori ko‘p edi. O‘ng radikallar esa “Demokratik birlashuv” nomli partiyalararo blokni tuzish tashabbusi bilan chiqishdi. Bu g‘oyani Marsel Meri Gaston Deffer va Lion meri Pyer Morua boshchiligidagi o‘ng sotsialistlar ham qo‘llab-quvvatladi. Deffer esa so‘l sentristik kuchlarning prezident saylovlarida nomzodlikka da‘vogarlardan biri edi. Ammo SFIO yetakchisi Ga Molle ta‘sirida sotsialistik partiya boshqa strategiyani qabul qildi. SFIO va so‘l radikallar barcha so‘l nokommunistik guruhlarini so‘l kuchlarning sotsialistik va demokratik Federatsiyasiga (FSDL) birlashtirish tashabbusi bilan chiqdilar. Federatsiyaga qo‘yilgan YUDRS yetakchisi Fransua Mitteran, FSDLning saylovdagi nomzodi bo‘ldi. Mitteran urushdan keyingi davrdagi Fransiyaning eng ko‘zga ko‘ringan siyosatchilaridan va de Gollning eski muxoliflaridan biri sifatida mamlakatda mashhur edi. Uning, hukumatining iqtisodiy va ijtimoiy siyosatini, Beshinschi respublikaning konstitutsion tuzumini tanqid ostiga olgan dasturini kommunistlar ham qo‘llab-quvvatladi. Shunday qilib, Mitteran bir necha o‘n yilliklar davomida egallash uchun ko‘rsatgan yagona nomzodi bo‘ldi. “Ultra” va boshqa radikal o‘ng guruhlar saylovda Tiksy-Vinyakurni nomzod sifatida tanlashdi.

1965 yilning 5 va 19 dekabrilarida ikki turda bo‘lib o‘tgan prezident saylovlari de Goll uchun juda qiyin g‘alabani olib keldi. De Goll birinchi turda 461 % Mitteran-32 %, Lekanyue-16 %, Tiksy-Vinyankur-5 % ovoz olishdi. Ikkinchi turda de Goll 44,7 % ovoz bilan, 37,4 % ovoz olgan F.Mitteranni ortda qoldirdi. Saylovda de Gollning obro‘si ancha tushganligi ko‘rinib qolgan bo‘lsada, unga oppozitsida bo‘lgan kuchlarning ham kuchsiz tomonlari yaqqol ko‘rinib qoldi. Ularning dasturlari asosan, hukmron doiralarni tanqid qilish hisobiga tuzilgan edi.

2) De Goll prezidentlik qilgan davrda Fransiyaning ijtimoiy taraqqiyoti.

De Gollning hokimiyat tepasiga kelishi bilan mamlakatda dirijizm amaliyotida yangi burilish qilingan edi. De Gollning fikricha iqtisodiy liberalizm prinsipining absalyutlashtirishdagi asosiy sabablardan biri mamlakatda “ochiq iqtisodiyot”ni targ‘ib etishga mo‘ljallangan III rejaning to‘xtatib qo‘yilishi bo‘ldi. 1960 yil bahorida hukumat moliyaviy jihatdan barqarorlashtirish tadbirlariga asoslangan “vaqtinchalik reja”ni qabul qildi. IU va U rejalarida (1962-1965 yillarga va 1966-1970 yillar) ham ustunlik fan-texnika taraqqiyotiga asoslangan sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishga, ishlab chiqarishning bir yerga (bir qo‘lda) to‘planish jarayonini rag‘batlantirish, tashqi savdodagi hajmining o‘sishiga e‘tibor berildi.

1958 yil oxirida ishlab chiqilgan, moliyaviy barqarorlik dasturi, budget xarajatlarining ratsionalizatsiyasini ko‘zda tutgan edi. (ijtimoiy sug‘urta dasturini qisqartirish, transport va yonilg‘iga tariflarning o‘sishi, egri soliqlarning oshishi). Frankning yangi devalvatsiyasi (17%) amalga oshirildi, pul emissiyasiga cheklashlar kiritildi. Budget defitsiti Fransuz banki avanslari hisobiga emas, kredit bozoridagi davlat zaymlari hisobidan to‘ldirilayotgan edi. Pul muomalasini tartibga solish uchun 1960 yilda pullarni yangi “frank” kutorslari bilan almashtirish bo‘yicha islohot o‘tkazildi. Unga ko‘ra yangi frank eskisiga nisbatan 1:100 proporsiyada almashtirildi. Mana shu tadbirlar qisqa vaqt ichida “qat’iy” Milliy vakolatining paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi.

1965 yilga kelib, Fransiyaning AQShga bo‘lgan tashqi qarzini to‘lashi ham moliyaviy barqarorlikning yuzaga kelishiga yordam berdi. Shu vaqtdan boshlab Fransiya yirik kapitalning eksportchilaridan biriga aylandi va shu vaqtdan buyon tashqi savdodagi ijobiy saldo balansini saqlab qolmoqda. 60-yillarda tashqi savdoning umumiy hajmi urushgacha bo‘lgan davrdagidan to‘rt marta oshiq bo‘ldi. Fransiyaning tashqi savdosi ikkita asosiy omillar tufayli rivojlanayotgan edi. Bir tarafdin, de Goll hukumati mustaqillikka erishgan sobiq mustamlakalar bilan savdo aloqalarini mustahkamlashga harakat qilayotgan edi. qoidaga ko‘ra, suvirenetit berishga rozi

bo'lish, sobiq metropoliya mustamlakalar o'rtasida iqtisodiy, harbiy va texnika sohasida kompleks shartnomalar tuzish bilan birgalikda amalga oshirilar edi. Bunday yondoshish, hattoki Fransiya imperiyasi mustamlakachilikka barham berilayotgan davrida uchinchi dunyoda iqtisodiy mavqeining oshishiga ham sabab bo'ldi.

Fransiyaning YEI dagi sheriklari bilan savdo aloqalarining rivojlantirishga erishishi katta muvaffaqiyatlarga olib keldi. 60-yillar oxirida Fransiyaning umumiy bozor doirasidagi tashqi savdo oboroti uning Fransiya hamdo'stligi mamlakatlari bilan olib borayotgan savdo hajmidan 3 baravar oshib yetdi. (1958 yilda bu raqamlar taxminan barovar edi). Fransuz diplomatiyasining sayi-harakatlari tufayli sanoat mahsulotlarining umumiy bozori mo'ljallanganidan 1,5 yil avvalroq, 1968 yilda tuzildi. Fransiyaning YEIHda ishtiroki, qishloq xo'jaligidagi ahvoliga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Budjet-moliyaviy tizimning barqarorligi va fermerlar ishlatilayotgan bevosita xarajatlarning qisqartirilishi, hukumatga sanoatda yuqori texnologiyaga asoslangan sohalarni rivojlantirishga yordam berdi. Ayniqsa, aviasanoat, kimyo va avtomobil sohalari tez taraqqiy etdi. Plastmass-hisobla qurilmalarini ishlab chiqarish ancha ko'paydi. Harbiy sanoat kompleksida atom, raketa va aerokosmik kabi yangi sohalar yuzaga keldi. Fransiya dunyoning uchinchi yadroviy mamlakatiga aylandi. Shu maqsadlarda mamlakatning turli hududlarida yangi sohaga oid korxonalar qurildi; masalan: Tuluza atrofida-aerokosmik kompleks, Grenobl yaqinida yadroviy, Brejalida elektron sanoat korxonasi va K.Marsel hududi va boshqa g'arbiy qirg'oq bo'ylarida port-sanoatlashtirilgan komplekslar kengaytirildi va mustahkamlandi.

O'n yil davomida, ya'ni 1958 yilgacha Fransiya'dagi sanoat ishlab chiqarish hajmi 60 % dan oshdi; sanoat mahsuloti hajmining o'sish sur'atlari yiliga 55 % tashkil etdi. qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish 66 % ga oshdi. Sanoatdagi monopollashtirish sezilarli darajada tezlashdi. Agar oldingi davrlarda bu jarayon asosan kichik va o'rta korxonalarning birlashishi hisobiga yuz bergan bo'lsa, keyinchalik yirik korxonalar tomonidan kichik korxonalarning yutib yuborilishi ko'proq amalga osha bordi. 60-yillarda yirik bank yoki xolding tomonidan tashkil etilgan moliyaviy-sanoat guruhi, sanoat korxonalarining asosiy tashkiloti bo'lib qoldi. O'nta yirik moliyaviy-sanoat guruhi xususi sektorning 40 % nazorat qilar va davlat sektorining taraqqiy etishida muhim ahamiyat kasb etar edi. Shunday bo'lsada, Fransiya sanoat konsentratsiyasining darajasi jihatdan, boshqa rivojlangan mamlakatlardan ancha orqada edi.

Gollchilar hukumati jamiyatning ijtimoiy strukturasiga o'zgartirish kiritishga faol harakat qilayotgan edi.

3. De Gollchilar Fransiya'sining tashqi siyosati.

De Goll atlantik birdamlik g'oyasidan voz kechdi va dunyoni ikkita markazga bo'lib boshqarish tizimiga qat'iy tarzda qarshi chiqdi. Fransiya G'arb va Sharq o'rtasidagi muzokaralarda tayanch bo'la oladigan mamlakat sifatida o'zini namoyon qiloldi. Bu Fransiya - sobiq SSSR munosabatlarining yaxshilanishiga olib keldi. 1958-1959 yillarda hukumatlararo munosabatlar yangidan faollashdi va ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar yanada kengaydi. 1960 yilda N.Xrushevning Fransiya'ga qilgan tashrifidan so'ng, bu davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda keskin burilish yuzaga keldi.

1966 yilda de Gollning SSSRga uyushtirgan rasmiy tashrifi, Fransiyaning NATO harbiy strukturasidan chiqish vaqti bilan to'g'ri kelishi katta siyosiy shov-shuvlarga sabab bo'ldi. 1959 yilda tashkil etilgan "Fransiya-Sharqiy Yevropa" qo'mitasi boshchiligidagi Fransiya va Sharqiy Yevropa sotsialistik mamlakatlari o'rtasidagi birinchilardan bo'lib, GDRning mavjudligini tan oldi. De Goll kommunistik rejim bilan hamkorlikni rivojlantirish, ularda demokratiyalashtirishni amalga oshirish uchun eng samaradorli usul deb hisobladi.

60-yillarda Fransiyaning AQSH bilan munosabatlari ko'zga ko'rinarli darajada keskinlashdi. De Goll Fransiyaning milliy xavfsizligi sohasida to'la mustaqillikka erishishini ta'minlash uchun qilayotgan sa'y-harakatlari eng muhim masalalardan hisoblanar edi. Dastlabki vaqtda de Goll NATO bo'yicha ittifoqchilari bilan qarama-qarshiliklarga berishni istamagan edi.

Fransuz diplomatiyasining NATO tarkibida “triumvirat” - AQSH, Fransiya va Buyuk Britaniya kabi davlatlarning yetakchilik guruhini tashkil etish g'oyasiga qiziqishi namoyon bo'ldi. Parij amerikaliklardan NATO dagi yadroviy kuchlariga yagona nazorat o'rnatish fikrlaridan voz kechishni talab qildi. 60-yillar boshlarida Karib va Berlin inqirozlari tufayli xalqaro vaziyatning keskinlashishi, siyosiy tashabbuslarning muvaffaqiyatsizliklarga uchrashi de Gollga mustaqil milliy xavfsizlikni tashkil etishni kuchaytirishga majbur qildi. 1962 yilda yadroviy qurollar tizimini rivojlantirish bo'yicha olib borilgan anglo-fransuz va anglo-amerika muzokaralari chegaraviy ahamiyatga ega bo'ldi. Buyuk Britaniya fransiyaliklarning birgalikda milliy yadroviy kuchlarni tuzish haqidagi loyihani rad etdi va aksincha, NATO tarkibida “ko'p tomonlama yadroviy kuchlarni tuzish masalasi bo'yicha amerikaliklarning loyihasini qo'llab quvvatladi.”

1963 yilda Fransiya “atlantik birdamlik” yo'nalishidan batamom voz kechdi va mustaqil “yadroviy kuchni” tuzish uchun harakat qila boshladi. Suvosti atom kemalari va 3 ming km radiusgacha harakat qila oladigan “yer-yer” tipidagi yadroviy raketalarni olib ucha oladigan “Mirast-1U-2” samolyotlarini qurish ishlari boshlanib ketdi. 1964 yil iyulda bo'lib o'tgan matbuot konferensiyasida de Goll Fransiyaning yadroviy mamlakatga aylanayotganligi haqida tantanali bayonot berdi. Keyingi yildan Fransiya AQSH nazorati ostida bo'lgan harbiy siyosiy tizimlardan asta-sekinlik bilan chiqib keta boshladi. 1965 yilda Fransiya SEATO Kengashi yig'ilishlarida qatnashishni to'xtatdi. Bu esa o'z navbatida Fransiyaning SEATOdan chiqqanligini anglatar edi. 1966 yil martida fransuz hukumati NATOning harbiy tashkilotidan chiqishi to'g'risida bayonot berdi. Bu qaror xalqaro vaziyatning o'zgarganligi G'arb uchun real xavf xatarning yo'qligi, milliy yadroviy kuchlarning ko'p millatli qurolli kuchlar bilan yaxlit holga keltirishning imkoniyati yo'qligi kabi dalillar bilan asoslandi. NATO rahbariyatiga qisqa muddatlarda Fransiya hududlarida joylashtirilgan 40 minglik AQSH va Kanada harbiylarini Yevropaning boshqa mamlakatlari hududlariga joylashtirishni taklif qildi. Fransiya hududida NATOning infrastrukturasini uchun amerikaliklar so'ragan 2,5 mlyard doll konsepsiyasini to'lashdan bosh tortdi. Bu infrastruktura o'z ichiga 46 ta aerodrom, 100 lab km neft quvurlari, telegraf va radioaloqa tizimini, shuningdek dengizdoklari va omborxonalarini ham kiritgan edi.

1967 yilda Fransiya qurolli kuchlari Bosh shtabining boshlig'i general Sh.Ayyere tomonidan mamlakatning yangi harbiy doktrinasi ishlab chiqildi. Unga ko'ra yadroviy kuchlar milliy xavfsizlikning tayanchi hisoblandi. Bu qurolni urush boshlash uchun emas, balki uni to'xtatish uchun ishlatish ko'zda tutildi. Bu doktrina “barcha azimutlar bo'yicha mudofaa” degan nomni oldi, chunki dushman sifatida endi faqatgina sovet bloki ko'zda tutilmayotgan edi. Suveren Fransiyadan tashqari, “uchinchi kuch”ga birlashgan Yevropa kiritilar edi. 60-yillarda Fransiya qat'iy ravishda integratsion jarayondagi yetakchi mavqeini qaytarib oldi.

De Goll YEIHning millatlarini boshqaruvchi tashkilotga aylanishiga qarshi chiqdi va “Yevropa yagona-Vatan ” shiorini ilgari surib, mustaqil davlatlar hamdo'stligini tuzishni yoqladi, “Yevropa” tushunchasiga Atlantikadan Uralgacha bo'lgan hududni kiritishni taklif etdi. “Yevropa yagona-Vatan ” konsepsiyasini taraqqiy ettirish davomida fransuz diplomatiyasi 1960 yilda “Fushe plani” loyihasini ilgari surdi. Unga ko'ra, Yevropadagi “oltilik” davlatlar NATOga bo'ysunmagan holda Yevropaning xavfsizlik tizimini ishlab chiqishi, tashqi siyosatni koordinatsiya qilishi, iqtisodiy jihatdan rivojlanish strategiyasini birgalikda ishlab chiqish orqali integratsion jarayonlarni chuqurlashtirish ko'zda tutilgan edi. “Fushe plani ”ga ko'ra, kelgusida Yevropa davlatlarining Ittifoqini tuzish istiqboli bor edi. Bu ittifoqning a'zolari o'z mustaqilliklarini saqlagani holda, jahon sahnasida yagona kuch sifatida namoyon bo'lishlari lozim edi. Ammo, Fransiyaning YEH ligidagi sheriklari NATOga putur yetkazishi mumkin bo'lgan bu loyihani rad etdilar.

“Fushe rejasi” barbod bo'lgach, de Goll Yevropadagi tizimini davlatlar ustidan nazoratining kuchayishiga qarshi kurashdi. 1965 yilda de Goll Yevropa komissiyasining raisi V.Xolshteyning Yehning vakolatlarini oshirishi haqidagi rejasini qattiq qoralab chiqdi.

Yevropa hamdo'stligidagi sheriklari ichida de Goll GFR kansleri K.Adenauerning tutgan pozitsiyasini yuqori baholar edi. Fransiya diplomatiyasi tomonidan “Parij-Bonn” o'qi dunyo siyosatida, ayniqsa, yayevropada eng asosiy kuch sifatida qoralar edi. 1963 yilda fransuz-

nemislar o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi shartnomaning imzolanishi ikkala davlatning yaqinlashishi natijasi bo'ldi. Ammo, GFRda kansler lavozimiga L.Erxardning kelishi va tashqi siyosatda atlantik yo'nalishning kuchayishi oqibatida har ikkala davlat o'rtasidagi aloqalar zaiflashib ketdi.

De Gollning hokimiyat tepasiga kelishida yuzaga kelgan vaziyatga qaramasdan, uning tashqi siyosatida mustamlakachilik masalasi birinchi o'rinda turmas edi. Mustamlakachi imperiyasidagi boshqaruv yo'llarining o'zgarishi masalasi, mamlakat uchun katta ahamiyatga ega edi. Prezidentning ko'pgina safdoshlari, unga Jazoir muammosiga barham bera oladigan, imperiyaning parchalanib ketishini to'xtatib qoladigan qattiqqo'l kishi sifatida qarardi. Ammo, de Goll, endi an'anaviy kalonializm davribarham topganiga ishonchi komil edi. U uchinchi dunyo mamlakatlari bilan bo'ladigan aloqalarning asosida o'zaro foydali iqtisodiy hamkorlik va Fransiyaning har qanday davlatning o'z taqdirini o'zi belgilashiga befarq qaramaydigan va yordam beradigan davlat sifatida obro'-e'tibori oshishini istar edi. Gollizm fransuzlarga neokoalonial siyosatini ishlab chiqdi.

1958 yil konstitutsiyasiga ko'ra Fransiya Ittifoqi Xamdo'stlik deb qayta o'zgartirildi. Hamdo'stlik suveren davlatlardan tashkil topib unga ko'ra, har bir a'zo davlat to'la mustaqillik olishi va tashkilotdan erkin chiqib ketishi huquqiga ega bo'ldi. Ittifoqqa a'zo hisoblangan davlatlar o'tkazilgan referendumlar asosida o'zlarining hamdo'stlikdagi ishtiroki formulasini aniqlab olishga harakat qildilar. Faqatgina Gveniya unga a'zo bo'lishdan voz kechdi va 1958 yil 1 oktabrida mustaqil davlat bo'ldi. Tez orada, tashkilotga a'zo davlatlar hamdo'stlik safidan birin-ketin chiqib keta boshladi. 1960 yil yanvarida Kamerun sal keyinroq, Gogo, G'arbiy Afrika va Ekvatorial Fransiya tarkibiga kiruvchi boshqa davlatlar ham mustaqillikka erishdi. "Afrika yili" sifatida tarixga kirgan 1960 yilda, Fransiyaning Afrikadagi mustamlakalaridan 14 tasi mustaqil davlatlarga aylandi. Ammo, gollchilar hukumatining tabirkor va puxta siyosati tufayli, Fransiya bu hududlarda o'zining iqtisodiy va siyosiy nufuzini nafaqat saqlab qoldi, balki yanada mustahkamladi. Konstitutsiyadagi "Hamdo'stlik" to'g'risidagi nizom (qonun) 1995 yilga kelib tamomila bekor qilindi.

Fransiyaning uchinchi dunyo mamlakatlari bilan munosabatlarining shakllanishida Jazoiridagi nizoning barham topishi muhim ahamiyat kasb etdi. Goh Jazoir millatchilari, goh "ultra" tomonidan amalga oshirilayotgan har qanday ekstremistik harakatlarni tugatish uchun qattiqlik bilan kurashayotgan de Goll bu masalani huquqiy yo'l bilan yechishga tayyorgarlik ko'ra boshladi. 1959 yilning oktabridayoq prezident "Jazoir muammosini" jazoirliklarning o'z taqdirini o'zlari belgilash yo'li bilan yechishga erishmoqchi ekanligi to'g'risida bayonot berdi. Bunga qarshi "Ultra" yangi ekstremistik va zulmkorlik harakatlari bilan javob berdi. 1960 yil yanvar oyida Jazoir poytaxtida "barrikadalar haftasi" nomini olgan fitnaga urinish bo'lib o'tdi. Bu voqealar gollchilar harakatining zaiflashuviga va undan radikal qanotning ajralib chiqishiga sabab bo'ldi.

1961 yil 8 yanvarda Fransiya hukumati "Jazoir o'z taqdirini o'zi belgilash to'g'risidagi" huquqini berish haqida referendum tashkil etdi. Bu loyihani qo'llab-quvvatlash 75% saylovchi ovoz berdi. Bu voqealar tufayli "ultra" davlat to'ntarishini amalga oshirishga urinib ko'rdi. Ular 22 aprelda Jazoirda dislokatsiya qilingan harbiy qo'shilmalar yordamida, poytaxtdagi hokimiyatni egallab olishdi va Fransiya prezidentining ag'darilganini e'lon qilishdi. Fitnaga Salan, Jou, Shal va Ziller kabi generallar boshchilik qildi. Hattoki, metrologiya aerodroilarida Jazoiridagi harbiy qismlardan parashyutchilar tashlash xavfi ham paydo bo'lib qoldi. Bunday keskin harakatlar qilishga isyonchilarning yuragi dov bermadi. Hukumatga sodiq bo'lgan harbiy kuchlarning Jazoirga qayta dislokatsiya qilganidan so'ng fitna bostirildi. "Ultra"ning radikal guruhlari. Maxfiy armiya tashkiloti nomli terroristik tashkil etdilar va yashirin (neolegal) faoliyat ko'rsata boshladilar.

Deyarli bir yil mobaynida olib borilgan muzokaralardan so'ng, 1962 yil 18 martida fransuz hukumati va Jazoir Milliy Ozodlik harakati o'rtasida Evian bitimi imzolandi. Unga ko'ra o't ochishni to'xtatish, Jazoirning o'z taqdirini o'zi belgilash shartlari va kelajakda Fransiya-Jazoir o'rtasidagi munosabatlarning qonun-qoidalari ishlab chiqildi. 1962 yil 1 iyulda Jazoirda

o'tkazilgan referendumdan so'ng, fransuz hukumati bu mamlakatning mustaqilligini rasman tan olganligi haqida e'lon qildi. Jazoiridagi inqirozning barham topishi, Fransiyaning arab mamlakatlari bilan aloqalarining kengayishiga turtki bo'ldi. 60-yillarning ikkinchi yarmida Fransiyaning uchinchi dunyo siyosatida bu yo'nalish ustivor bo'ldi.

mavzu: BUYUK BRITANIYA 1945-2005 YILLARDA

Ko'rib chiqiladigan masalalar:

- 1. Buyuk Britaniya ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda.**
- 2. Buyuk Britaniyada konservatorlar xukmronligi .**
- 3. Buyuk Britaniya 60-70 yillarda .**
- 4. Buyuk Britaniyada M.Tetcher xukmronligi.**
- 5. Leyboristlar hokimiyatda.**

Tayanch so'zlar:

Angliyaning 2-chi jahon urushidan keyingi siyosiy tarixini o'rganadigan manbalar va tarixshunosligi.

1945 yil Parlament saylovlari. K.Ettli boshchiligidagi hukumatning (1945-1951) ichki va tashqi siyosati. Leyboristlarning "Kelajakka boqish" dasturi "demokratik sotsializm" ta'limoti. U.Churchill konservativ hukumatining (1951-1954) ichki va tashqi siyosati.

50-60 yillardagi ichki va tashqi siyosiy ahvol. 1964-1966 yillarda parlament saylovlarida leyboristlarning hokimiyat tepasiga kelishi. Vilson hukumatining ichki va tashqi siyosati (1964-1970).

1970 yilgi parlament saylovlari va konservatorlar g'alabasi (1970-1974). Leyboristlar partiyasining 1974-1979 yilgi hukumati. 1978 yil saylovlarida konservatorlarning hokimiyat tepasiga kelishi. M.Tetcher. M.Tetcherning ichki va tashqi siyosati. J.Meyjor-M.Tetcherning vorisi. Angliya-O'zbekiston munosabatlari.

Darsning maqsadi:

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda Angliyaning ijtimoiy-iqtisoiy taraqqiyotini, konstitutsiyaviy davlat tuzulishini, konservatorlar va leyboristlar partiyalarining navbatma-navbat hokimiyatga kelishini, tashqi siyosatini, uning Yevropada, xalqaro tashkilotlarda va dunyoda tutgan mavqei yoritib berishdir.

1945 yilda Britaniya inqilobi.

Ikkinchi jahon urushi Buyuk Britaniya iqtisodiyotiga katta zarar keltirdi. Ishlab chiqarish hajmi 10%ga kamayib ketdi. Urush vaqtida ingliz korxonalaridagi asbob-uskunalar batamom eskirdi, texnik taraqqiyot sekinlashdi. Xom ashyo zaxiralari tugadi, ayniqsa, sanoatning an'anaviy sohalarida ishlab chiqarishning o'ta pasayishi kuzatildi (qog'oz sanoatida - 50% ga, ko'mir qazishda - 16 % ga, poyafzal ishlab chiqarishda- 13 % ga). Mamlakatdagi davlat qarzlar 7,2 funt sterlingdan (1939 y), 23,7 funt sterlinggacha (1946 yilda) oshib, shundan 3 mlrd funt sterlingi tashqi qarzni tashkil etdi. AQShning harbiy ta'minot xarajatlarini to'lash uchun Buyuk Britaniya o'zining xorijga qo'ygan mablag'lari hisobidan 1000 mln funt sterling mablag'ini AQShga berishga majbur bo'ldi. Urush yillarida Buyuk Britaniyaning savdo eksporti keskin kamaydi. 1938 yilda Buyuk Britaniyaning savdo eksporti hajmi 417 mln funt sterling miqdorida baholangan bo'lsa, 1944 yilga kelib bu ko'rsatkich 266 mln. funt sterlingni tashkil etdi. Savdo flotining katta qismi boy berilgan edi. Urush yillarida halok bo'lgan fuqarolarning uchdan bir qismini baliqchilar va savdo-sotiq bilan mashg'ul dengizchilar tashkil etdi. Mustamlakalar bilan munosabatlar Metropoliya1 bilan birgalikda urush qiyinchiliklarini baham ko'rgan Britaniya dominionlari o'zlarining iqtisodiy va siyosiy mustaqilliklarini talab qilish borasida tobora faollashib bormoqda edilar. Mustamlakalarda milliy ozodlik harakatlari keng yoyilib borayotgan edi. Arab Sharqi va Janubiy-Sharqiy Osiyo bozorlaridan foydalanish nihoyatda qiyinlashgani

tufayli, uning jahon eksportidagi urushini 1937 yilda 11,3% dan 1947 yilda 9,8%ga kamayishiga olib keldi. Mamlakat savdo balansidagi tanqislik Buyuk Britaniya iqtisodiyotining surunkali muammosiga aylanib qoldi.

Umuman, Ikkinchi jahon urushi yillarida Buyuk Britaniya o'z milliy boyligining 25% ini yo'qotdi. Ammo G'arbiy Yevropa mamlakatlari ichida u eng yomon holatda emas edi. Urush qurbonlari soni Birinchi jahon urushi yillaridagidan deyarli to'rt marta kamroq edi-o'ldirilganlar 245 ming kishi, yaradorlar 278 ming kishi bedarak yo'qolgan 53 ming kishini tashkil etdi. Nemis bombardimonlaridan keyingi talofatlar qit'a mamlakatlaridagi yer bilan yakson qilingan joylarga nisbatan ancha kam edi. Buyuk Britaniya 30-yillarda tashqi siyosat sohasidagi xatolari asoratlarini bartaraf etib, urushdan keyingi dunyo taqdiriga ta'sir ko'rsatgan holda g'olib mamlakatlar safiga qo'shildi. matbuot vakillari tomonidan "Britan inqilobi" deb atalgan 1945 yildagi siyosiy holat kutilmagan hodisa bo'ldi.

Hukumatning Uzoq Sharq frontining saqlanishi va urushdan keyingi davrda dunyo taqdiri borasidagi murakkab muzokoralarning olib borilayotganligiga qaramasdan jahon urushi to'liq tugamasdan parlament saylovlarini o'tkazishga urinish bir qancha sabablarga ega edi. Hukumat hali ham 1935 yildayoq saylangan parlament qo'lida edi. Urush sharoiti hisobga olinib uning vakolati uzaytirilgan edi, ammo Yevropada urush tugagandan keyin saylovlarni kechiktirishga hojat yo'q edi. Hukumatning o'zi favqulodda xarakterga ega edi. Uning rahbari U.Cherrill, o'zining shaxsiy shon-shuhrati va urush yillarida nasib etgan cheksiz hokimiyatga ega bo'lishiga qaramasdan o'zini millatning to'la huquqli vakili deb hisoblay olmas edi. Uning rahbarligida tori hech qachon saylovlarda g'olib bo'lmagan va konservativ partiyasiga ega u hukumat boshlig'iga aylanayotgandan keyin rahbarlik qila boshladi. Cherrill hukumati urush yillarida tayangan konservatorlar, leyboristlar va liberallar koalitsiyasi millatning birlashuvida muhim rol o'ynadi. Ammo tinchlik qurilishi davriga o'taverib partiyalararo ilgari qarama-qarshiliklar bu koalitsiyaning parchalanishi tayin edi. Shuning uchun Cherrill qulay psixologik sharoitdan ustalik bilan foydalanib "g'alaba cho'qqisida" bo'lgan vaqtda saylov o'tkazishga harakat qilardi.

1945 yil 18 mayda u leyboristlar partiyasiga ultimatum xarakteriga ega taklifni jo'natdi. Unda leyboristlarga Yaponiya bilan urush tugaguncha koalitsiya tarkibida qolish (bu Cherrillning shaxsiy rahbarligini to'la tan olishni bildirardi) yoki navbatdan tashqari saylovlar o'tkazish uchun hukumatni tark etish taklif qilingan edi. Leyboristlar partiyasi Ijroiya qo'mitasi saylovlarni kuzda o'tkazish va ungacha koalitsiyaning oldingi tarkibini saqlab qolishni taklif qildi. Shunga qaramasdan, Cherrill 1945 yil 23 maydayoq iste'foga chiqishini ma'lum qildi va qirolidan parlamentning quyi palatasini tarqatib yuborishni so'radi. qirolning topshirig'iga ko'ra u "o'tish davri hukumati"ni tuzdi. Bu hukumat 5 iyulga mo'ljallangan parlament saylovlarigacha faoliyat ko'rsatdi. Konservatorlar saylovoldi harakatlari markazida o'z rahbarlari shaxsini mashhurligidan foydalanish turar edi. Cherrill "urushda g'alaba qilgan odam" va "ishni tugatish kerak bo'lgan yagona odam" sifatida targ'ib qilindi Saylovchilarga qaratilgan murojaatlar keskin anti leyboristik va antisovet shiorlar bilan boyitilgan edi. 4 iyuldagi Cherrillning radio orqali birinchi saylovoldi chiqishi shov-shuvli xarakterga ega bo'ldi. "Biror sotsialistik tuzum siyosiy politsiyasiz barpo etilishi mumkin emas - uqtirardi Cherrill agar saylovda leyboristlar g'alaba qilsa, Angliyada gestapo tashkil qilinadi". Uning nutqlarida muxolifat rahbarlari to'g'risidagi shaxsga qaratilgan haqoratovuz ham kam emas edi.

Leyboristlar partiyasi saylovoldi xarakatlarni ancha faolroq olib bordi. Leyboristlarning ijroiya qo'mitasi Britaniyada iqtisodiyot va ijtimoiy sohani qayta qurishga qaratilgan ko'p sonli loyihalar tayyorladi. Bu loyihalarning leytmotivi (biror faoliyatning asosiy maqsadi) davlat boshqaruvini kuchaytirish va jamiyatning barcha vakillarining faravonligini barqaror o'sishini ta'minlashdan iborat edi.

Leyboristlar dasturi o'zining siyosiy radikalizmi (keskinligi) bilan ajralab turardi. Leyboristlar o'zlarini "sotsialistik partiya" deb atashar va "bu bilan faxrlanishi" hamda asosiy maqsadlari "Buyuk Britaniya sotsialistik hamdo'stligini" tashkil etishdan iboratligini bayon qilishardi. Ayni paytda "aralash iqtisodiyot"ni yaratishi davlat sektoriga xos urushini oshirish,

eng muhim sohalarini milliyalashtirish sinfiy siyosat emas, balki umumiy farovonlikning poydevori hisoblanardi. Leyboristlar dasturida barcha sohalarida, jumladan, uy-joy qurilishi, ijtimoiy sug'urta, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash sohalarida faol ijtimoiy siyosat yuritish ko'zda tutilgan edi. Dasturning tashqi siyosatga oid qismi leyboristlar partiyasining xalqaro sahnada tinchlikni saqlash tamoyillarini qo'llab-quvvatlashini targ'ib qilardi.

5 iyul 1945 yildagi saylov natijalari juda kutilmagan hodisa edi. Leyboristlar nafaqat g'alaba qozonishdi, balki obshinalar palatasida ham ilk bor mutloq ko'pchilikni tashkil etishdi (konservatorlar va ularning ittifoqchilari - natsional-liberallar, olstarnik yunionistlar va boshqalar egallagan 213 ta o'ringa nisbatan 393 ta o'rin). Liberallar partiyasi 12 mandatni, erkin siyosatchilar 14 mandatga ega bo'lishib, 8 mandatni kichikroq partiyalar vakillari bo'lib olishdi.

K.Ettli hukumatining ichki siyosati.

Klement Ettli uchinchi bor hokimiyat tepasiga kelgan va ilkbor parlamentda ko'pchilikni tashkil etgan leyboristlik hukumatni boshqardi. U "o'nglar" va "so'llar" o'rtasidagi eng maqbul munosabatni o'rnatib, partiyaning eng obro'li kishilarini o'z atrofida to'plashga muvaffaq bo'ldi. Hukumat tarkibiga juda tajribali va mahoratli siyosatchilar jalb qilindi.

Urushdan keyingi iqtisodiyotni tiklash va qayta qurish rejalarini amalga oshira turib, Ettli hukumati bir qancha eng murakkab muammolarga duch keldi. Xom ashyoning doimiy tanqisligi ishlab chiqarish turg'unligiga (stansiyasiga) olib kedi. Oziq-ovqat zaxiralari tugash arafasida edi: 1954 yilgacha asosiy ozuqa mahsulotlari, benzin va eng zarur mollar kartochkalar yoki norma asosida tarqatildi. Extiyoj mollari bozori aholining xaridorlik qobiliyatining pasayishi ta'sirida qotib qolgan edi. Leyboristlar bu muammolarning ochishini iqtisodiyotda rejalashtirishni keng joriy etish va davlatning ijtimoiy dasturlarida deb hisoblashdi. Davlat boshqaruvining asosiy sohaları transport, ko'mir, po'lat quyish sanoati va energetika bo'ldi. Oziqovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'paytirish maqsadida 1947 yilda hukumat to'rt yillik qishloq xo'jaligini rivojlantirish dasturini qabul qildi. Bu dasturda minimal narxlarni muzlatish va maydonlarning hosildorligini hamda chorvachilik samaradorligini oshirishi uchun fermerlarga subsidiyalar (pul mablag'lari) berish ko'zda tutilgan edi. Hukumat iqtisodiy siyosatining asosiy qismi iqtisodiyotning eng muhim sohalarini milliyalashtirishdan iborat bo'ldi. Bu yo'nalishdagi birinchi jiddiy qadam 1946 yil fevralida qo'yildi - Ingliz banki milliyalashtirildi. 1946 yildan 1948 yilgacha bo'lgan davrda temir yo'llar, fuqaro aviatsiyasi, transport, kabel va telegraf aloqasi, hamda ko'mir qazish va elektrotexnika sanoati davlat mulkiga aylantirildi. 1948 yilda hukumat gazni, 1949 yilda temir va po'lat ishlab chiqarishni milliyalashtirishga sanksiya oladi. Bu siyosat natijasida davlat sektorida sanoatning 20%i birlashtirildi. Shu bilan birga Ettli hukumati bir necha marta "yoppasiga milliyalashtirish" rejaları yo'qligini ma'lum qilgandi. mulkchilik shaklini belgilovchi mezon eng avvalo iqtisodiy samaradorlik tamoyilidan iborat edi.

Leyboristlar hukumati ijtimoiy siyosat bobida katta faoliyat ko'rsatdi. 1927 yildagi kasaba uyushmalari to'g'risidagi qonun bekor qilindi va ularning norozilik namoyishlari va stachkalar o'tkazishga bo'lgan huquqlari tiklandi. 1946 yilda qonunlar paketi qabul qilindi va unga Milliy sug'urta Akti, sanoat xodimlarini himoya qilish akti va milliy sog'liqni saqlash akti kirardi. 1948 yilda paket milliy qo'llab-quvvatlash vazirligini yaratish to'g'risidagi xujjat bilan to'ldirildi. Bu qonunlarga ko'ra barcha aholiga qarilik nafaqasini (erkaklarga 65, ayollarga 60 yoshdan keyin va ishsizlik nafaqasini to'lash) kasallik, homiladorlik, o'lish paytida moddiy yordam berish kafolatlangan edi. Sug'urta fondlari sug'urtalanganlarning, to'lovlari (35 %), hamda tadbirkorlar to'lovlari va davlat tomonidan moliyalash hisobidan shakllandi. Islohot natijasida jami davlatning ijtimoiy sug'urta xarajatlari 2,5 marta ko'paydi.

Milliy sihat salomatlik Aktiga ko'ra aholiga bepul tibbiy yordam ko'rsatish joriy qilindi, sohaning yagona boshqaruv tizimi tashkil qilindi. Aholiga dori-darmonlar, protez va ko'zoynaklarni bepul tarqatish ko'zda tutildi. So'l leyboristlar rahbari Enyurin Biven tibbiyot sohasini to'la milliyalashtirish va xususiy doktorlik amaliyotini bekor qilishni talab qildi, ammo bu loyiha rad etildi.

Tibbiyot sohasidan tashqari qurilish sohasiga ham mas'ul bo'lgan Biven tashabbusiga ko'ra, mamlakatda 2 milliondan ortiq munitsipal (shahar) uylar qo'rildi. Davlat uy-joy narxlarini urush davridagi qiymatini ushlab turish yo'li bilan ijara to'lovi hajmini qat'iy nazorat qilardi. 1947 yildagi shahar va qishloqni rejalashtirish to'g'risidagi Aktga ko'ra shahar hokimiyat organlari ularga topshirilgan obyektlarni rivojlantirish rejalarini tuzishlari kerak edi.

Ta'limni isloh qilish loyihalarini keng muhokama qilinishiga qaramasdan leyboristlar 1944 yilda "Milliy hukumat" tomonidan qabul qilingan "Batler qonuni"ga biror o'zgarish kiritishmadi. Unga ko'ra Buyuk Britaniyada uch yo'nalishli ta'lim tizimi joriy qilingan edi. (zamonaviy o'rta maktablar, grammatik o'rta maktablar va texnik o'rta maktablar). Ta'lim tizimining bu bo'limlarining hammasida ham davlat ham xususiy o'quv yurtlari faoliyat ko'rsatardi. "Batler qonuni" "ko'ngilli maktablar"ni ham qonuniylashtirgan edi. Bu maktablar asosan ko'ngilli to'lovlarga tayanadigan diniy maktablardan iborat edi. 1944 yildagi Akt ijrochi hukumat va mehnat boshqaruv organlariga bu sohani boshqarishda katta vakolatlar berardi. "Batler qonuni"ga ko'ra o'quvchilarga bepul tibbiy xizmat ko'rsatish joriy qilingan edi. Uni to'ldiruvchi yagona qonun 1947 yilda chiqdi. Unda maktabni tugatish yoshi uzaytirilgan edi - endi bolalar maktabni 15 yoshda tugatar edilar.

Leyboristlar hukumatining faoliyati 1948 yildayoq urushdan oldingi iqtisodiy rivojlanish darajasiga va mamlakatdagi ijtimoiy holatni ancha barqarorlashtirishga erishga imkon berdi. Sanoat mahsulotining yillik o'sishi 6 %ni tashkil etdi. 50-yillarning boshiga kelib ishlab chiqarish ko'rsatkichlari 1937 yilga nisbatan 1g'3 marta o'sdi. Lekin keng davlat boshqaruviga keskin o'tilishi xususiy tadbirkorlik faoliyatini qiyinlashtirdi va bu sohaga qilinayotgan investitsiyaning qisqarishiga olib keldi. Hukumatning o'zi o'z dasturlarini mablag' bilan ta'minlash borasida qiyinchiliklarga duch kela boshladi. Passiv savdo balansi, importga bog'liqligining oshishi, harbiy qarzlarning to'lanishi valyuta zahirasi keskin kamayishiga olib keldi. Shu bilan birga iste'mol mollari taklifining chegaralanishi o'sayotgan pul massasi bilan birgalikda kuchli inflyatsiyaga moyillikni keltirib chiqardi. O'z navbatida inflyatsiya investitsiya bozoriga qaqshatqich zarba berdi va sanoat ishlab chiqarilishi yo'lidagi yengib bo'lmas to'miqqa aylanib qoldi.

1945 yildayoq Buyuk Britaniyada moliyaviy tizimning ishdan chiqish xavfi yaqqol bo'lib qolgandi. Avgust oyida AQSH hech qanday ogohlantirishsiz lend-liz bo'yicha mahsulot kiritishni to'xtatib qo'ydi. Endi Buyuk Britaniya import to'lovlarni dollarda amalga oshirishi kerak edi. Buning uchun yetarli valyuta zaxiralari bo'lmaganligi sababli Ettli hukumati funtni dollarga erkin almashtirishni joriy etish majburiyatini olgan holda AQShdan qarz so'rashga majbur bo'ldi.

Moliyaviy tizimning barqarorlashuvigi umidlar 1946 yildayoq puchga chiqdi. AQShda narxlarni tartibga solib turishning bekor qilinishi eksport mahsulotlarining keskin qimmatlashishiga olib keldi. Buyuk Britaniya olingan qarzni bir yil ichida sarflab bo'ldi. 1947 yilning iyul oyida hukumat funtni dollarga erkin almashtirishni joriy qilgan paytda, buni ta'minlash uchun zaxiralar atigi bir oyga yetarli edi. Mamlakat o'tkir moliyaviy krizisga yuz tutdi. Hukumat oziq-ovqat importini kamaytirishga majbur bo'ldi, bu esa oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining keskin oshishiga olib keldi. Iqtisodiyot vaziri Stafford Krillis davlat tomonidan ijtimoiy harakatlarning keskin kamaytirishni ko'zda tutuvchi qattiq iqtisodiy dasturni taqdim etdi. Ammo Buyuk Britaniyaning Marshall rejasiga qatnashishiga katta umid bog'langan edi. Bu loyiha doirasida Buyuk Britaniya 2,3 milliard dollar olardi.

Moliyaviy barqarorlashtirishning yana bir yo'li deb "sterling mintaqasini" tuzish hisoblanardi. Uni 1944-1945 yillarda milliy valyutalari kursi funtga "biriktirilgan" mamlakatlar tashkil qilishgan edi. Ammo 1949 yildagi iqtisodiy inqiroz davrida AQSH sterling mintaqasi mamlakatlaridan import qilishni qisqartirdi va u yerda dollar va oltinga bo'lgan talab oshib ketdi va buning natijasida Britaniya g'aznasi funt sterlingni katta xajmlarda almashtirish zaruratiga duch keldi. buyuk Britaniyaning o'zida esa oltin va valyuta zaxiralari juda kam edi. Oltin va valyutaning chetga oqib ketishini to'xtatish uchun leyboristlar hukumati 1949 yil sentabrida funt sterlingni 30,5 % devalvatsiya qildi. Funt kursi 4,03 dan 2,8 dollarga tushirildi. 1950 yilda

hukumat Marshall rejasiga qatnashishni to'xtatishga qaror qildi, chunki amerikalik yordamining sharti bo'lgan ichki bozordagi erkin valyuta-moliya operatsiyalari milliy iqtisodiyot barqarorligiga jiddiy tahdid solardi. Albatta, funtning bu qadrsizlanishini faqat Ettli hukumatining xatosi deb bo'lmaydi, ammo bu mamlakatdagi iqtisodiy vaziyatni og'irlashtirdi. Moliyaviy inqiroz hukumat obro'sining keskin pasayishiga olib keldi. Leyboristlarning tashqi siyosat sohasidagi xatolari ham xuddi shunday salbiy natijalarga olib keldi.

Fulton aks sadosi. Buyuk britaniya va “sovuq urush”ning boshlanishi.

Buyuk Britaniyada oliy siyosiy rahbariyatning almashishi Potsdam konferensiyasi vaqtida ro'y berdi. Ammo Cherrillning ketishi va konferensiyaga yangi bosh vazirning kelishi Britaniya delegatsiyasi mavqeini o'zgartirmadi. Ettlining o'zi ham, uning tashqi ishlar vaziri YE.Bevin ham G'arb va Sharq o'rtasidagi konstruktiv muloqotga emas, balki “atlantik hamjixatlik” siyosatiga moyil edi. Yevropa ustidan “temir parda” tusha boshladi. Yangi jahon tartiboti bashoratchisi roli Uinston Cherrill zimmasiga tushdi.

Cherrillning 1946 yil 5 martda Fultonda so'zlagan nutqi juda mashhur bo'ldi. Unga Eron krizisi bahona bo'lgan edi. 1942 yildagi ittifoqchilik shartnomasiga ko'ra, Sovet qo'shinlari Eron hududida urush tugagandan so'ng yana olti oy qolishi mumkin edi. Bu muddat 1946 yil 2 martda tugadi. Bu kun arafasida SSSR xalq-demokratik qo'zg'olon ko'tarilgan Eron Ozarbayjondan boshqa hududlardan o'z qo'shinlarini chiqarishini ma'lum qildi. G'arbiy mamlakatlar siyosiy doiralari bunga separatistlarni harbiy qo'llab-quvvatlash va Eron hududining bir qismida prosovet rejimini o'rnatishga urinish deb baholashdi. Bu kunlarda dam olish maqsadida Floridada bo'lgan Cherrill bundan yangi psixologik xujum uyushtirish uchun foydalanishga ulgurdi. U Fultondagi Vestminster kolleji talabalari oldida alohida shaxs sifatida chiqqaniga qaramay, sobiq bosh vazirni tinglash uchun qariyb 30 mingta odam yig'ildi.

Cherrill namoyishkorona o'z g'oyalarini “umumjahon siyosatining o'ta strategik konsepsiyasi” deb atardi. Yangi dunyoviy tuzum asosi deb “Amerika demokratiyasining tantanasi” deb hisoblanardi. Bunda Cherrill Amerika demokratiyasi deb ingliz dunyosining umumiy qadriyatlari va hattoki butun G'arbnning ma'naviy birligini tushunardi. Uning fikricha butun xristian sivilizatsiyasi boshiga “cheksiz ijtimoiy azob-uqubatlar” bilan tahdid soluvchi xavf xatar yog'ilgan edi. “Barcha narsaning asosi bo'lgan erkinlik tushunchalari”, “haqiqiy ozodlik va demokratiyaning” asosi - konstitutsion tartib, so'z, fikr erkinligining hajmiy tantana qilishi bilan birga xalqning hukumat shakli va xarakterini o'zgartirish huquqi, jamiyatning har qanday porti ta'siridan erkinligi xavf ostida qoldi. Dunyoga, Cherrill fikriga ko'ra, zulm tahdid solmoqda va bu zulm aniq rejimda - sovet kommunizmida mujassamlashgan. Cherrill barcha demokratik xalqlarni o'zlarining erkinlikka bo'lgan huquqlarini himoya qilish uchun birlashtirishga chaqirdi. Aslida gap kommunizm xavfi oldidan “temir parda”ni tushirishga xizmat qiluvchi AQSH va Buyuk Britaniyaning harbiy-siyosiy ittifoqini tuzish haqida borayotgan edi.

Keyinchalik ko'p tarqalgan “temir parda” tushunchasi Cherrill tomonidan ilk bor 1945 yil 16 avgustda “Temir parda tushira boshlandi” deb nomlangan parlamentdagi nutqida ishlatilgan edi. Fulton nutqidan so'ng bu tushuncha “sovuq urush” ramziga aylandi. Cherrill Fultonda SSSRning o'z g'arbiy chegaralari xavfsizligi kafolatini ta'minlash, uning eng ilg'or mamlakatlar orasidan joy olishiga bo'lgan huquqlari qonuniyligi haqida aniq va ravshan gapirdi. “Ammo mening burchim- Yevropada hozirgi vaziyatning ba'zi faktlari va jihatlarini o'z tushunchasi asosida sharqlashdan iborat - davom ettirdi. Cherrill-Boltiq dengizidagi Shtottindan tortib Adrnatika dengizidagi Triyesgacha qit'a o'rtasidan (eniga) temir parda tushirildi”.

Sobiq Britaniya rahbarining Fultondagi nutqi G'arb siyosiy elitasi orasida keng tarqalgan yangi geosiyosiy falsafaning uyg'unlashgan birinchi ifodasi bo'ldi. Uning asosiy maqsadi dunyoning ochiq to'qnashuvga tayyor bo'lgan ikkita qarama-qarshi tuzumlarga bo'linganligini tan olishdan iborat edi. Dunyoni saqlab qolish raqibni mahdudlash, dunyoning “issiq” urush domiga tushib qolishini bartaraf etish uchun tezda “sovuq urush”ni boshlashni talab qilardi. Bu

AQShning harbiy-siyosiy gegemoniyasini soʻzsiz tan olishni bildirardi. Fulton nutqi Gʻarb global strategiyasi kaliti sifatida oʻzaro bogʻlangan ingliz-amerika tashqi siyosati asoslarini bayon qildi. AQSH bilan “maxsus munosabatlar”, atlantik hamjihatlik tamoyiliga soʻzsiz sodiqlik Buyuk Britaniya tashqi siyosatining muhim yoʻnalishlariga aylandi. Bu moʻljalni, yoʻnalishni oʻzgartirish nafaqat Britaniya hukumati nishoni afzal koʻrishishi, balki xalqaro munosabatlar rivojlanishining qonuniyatlarini aks ettirdi - “Pax Britannika” vayronalarida “Pax Americana” yuzaga kela boshladi va Buyuk Britaniya bu olamda oʻzining yangi oʻrnini egallashi kerak edi.

Cherchill tomonidan bayon qilingan “atlantik yoʻl” leyboristlar mahkamasi siyosatiga toʻla mos kelardi. AQSH bilan siyosiy Ittifoq Britaniya iqtisodiyoti kelajagi uchun oʻta zarur boʻlgan AQSH moliyaviy yordami toʻgʻrisidagi murakkab muzokaralarni soddalashtirishi mumkin edi. Bundan tashqari leyboristlar Buyuk Britaniyaning Vashingtonni “kichik hamkor”iga aylanib qolishimomkinligiga yetarlicha xayrixoxlik bilan qarashardi. Koʻpgina tori(lar)dan farqli oʻlaroq ular oʻtmishdagi “Britaniyaning buyukligi”ni tarixning yopilgan sahifasi deb qarashar va bu buyuklik yoʻlida endigina shakllanayotgan ikki qutbli dunyoviy tuzum sharoitidagi mamlakat istiqbollarini qurbon qilmaslik kerak deb hisoblashardi. 1946 yildayoq Ettli hukumati toʻla loyqlik bilan atlantin hamjihatlik siyosatiga oʻtib AQShdan Trumen maʼmuriyati bilan birga “sovuq urush” tashabbuskoriga aylandi. Chuqurlashib borayotgan moliyaviy inqirozga qaramasdan, qurollanishni oshirishga qaratilgan qatʼiy tadbirlar koʻrildi. Oʻsha 1946 yilning oʻzidayoq Britaniya atom bombasini ishlab chiqarish toʻgʻrisida qaror qabul qilindi. 50-yillarning boshiga kelib, toʻgʻri harbiy harakatlar milliy daromadning 10-11% ini tashkil etdi. (30-yillar oʻrtalarida esa bu koʻrsatkich bor-yoʻgʻi 2,5% ni tashkil etardi. 1949 yilda AQSH va Buyuk Britaniya NATOni tuzish tashabbuskorlari sifatida chiqishdi.)

“Sovuq urush” Yevropani yana global qarama qarshiliklarning bosh sahnasiga aylantirdi. Bu “urush”ga tortilgan Britaniya diplomatiyasi qitʼaning ikkita lager boʻlishida katta rol oʻynadi. Aynan Buyuk Britaniyaning aralashuvi 1946-1947 yildagi Gretsiya siyosiy inqirozining chuqurlashishiga olib keldi. Bunda Britaniya monarxiyani tiklash haqidagi referendumni oʻtkazishga majbur qildi va Maksimosning ijtimoiy (reaksion) hukamatini qoʻllab-quvvatladi. Germaniya masalasini hal qilishda AQSH tutgan siyosiy yoʻlning boshlovchisi ham Buyuk Britaniya boʻldi. Bunda katta burilish 1946 yil 2 dekabrda Germaniya hududidagi AQSH va Britaniyaga tegishli hududlarning birlashuvida yasaldi. Shundan soʻng separat (ajrimli) Gʻarbiy Germaniya davlatining shakllanishi toʻla AQSH tomonidan boshqarildi.

Germaniya masalasini hal qilish yoʻllarini muhokama qilishda Britaniya siyosatchilari chiqishlarida ilk bor Yevropaning integratsiyasi (birlashuvi) mavzusi yangradi. Tashabbusni yana Cherchill namoyon qildi. U urushdan keyingi davr siyosatchilari ichida birinchi boʻlib, nafaqat Germaniyaning butunevropa integrallashuvida qatnashishi zarurligini taʼkidladi, balki Germaniyani “qitʼa yuragi” deb koʻrsatdi. Cherchill bir vaqtda Yevropa oilasini qayta barpo etishda Fransiya va Germaniyaning hamkorligi birinchi qadam boʻlib xizmat qilishini taʼkidlab oʻtdi. Aynan shu ikki mamlakatlar ittifoqi Yevropa qoʻshma Shtatlarini tuzishda asos boʻlib xizmat qiladi. Taklif qilinayotgan loyihaning asl mazmuni AQSH strategik hamkoriga aylana oladigan Yevropa harbiy-siyosiy blokini tuzishdan iborat edi. Buning natijasida Buyuk Britaniyani AQShning “maxsus ittifoqchisi” mavqeini saqlab qolar, Gʻarbiy Yevropa mamlakatlariga nisbatan nufuzliroq rahbar mavqeiga ega boʻlardi.

1948 yil bahorida Buyuk Britaniya Gʻarbiy Ittifoqni tuzish toʻgʻrisidagi Bryussel taktiga qoʻshildi. 1949 yilda Britaniya Yevropa Kengashiga kirdi. Ettlining atlantik siyosatiga qarshi boʻlgan leyboristlar guruhi ham buyuk Britaniyaning integratsiya jarayoniga yanada faolroq qoʻshilishini qoʻllab-quvvatladi, ammo keyingi yillarda iqtisodiy integratsiyalashgan tuzilmalarni tashkil etish loyihalarini ishlab chiqishda qatnashishdan bosh tortdi. Bu masala Britaniya millatlar hamdoʻstligi bilan mustaqil aloqalarni saqlab qolish foydasiga hal qilindi.

Ettli hukumati tobora chuqurlashib borayotgan Britaniya imperiyasi inqiroziga duch kelishga toʻgʻri keldi. Britaniya Hamdoʻstligining siyosiy va tashkiliy asoslarini qayta koʻrib chiqish masalasini Hindiston muammosini tezlashtirdi. 1946 yil boshidan boshlab Britaniya

hukumati Hindistondagi vaziyat boshqaruvini butunlay boy berdi. Millatlararo to'qnashuvlarda yuzlab odamlar halok bo'ldi. 1946 yil bahorida Ettli hukumati hech qanday boshlang'ich shartlarsiz Hindistonga dominion mavqeini berishga majbur bo'ldi. 1947 yil yodiga kelib vitse-shoh Lyuis Mautbatten Hindistonni ikkita Hindiston va Pokiston dominionlariga bo'lish rejasini ishlab chiqdi. 1947 yil 15 avgustida Dehli va Karachi shaharlarida Britaniya Hamdo'stligiga o'z ixtiyori bilan kirgan ikki mustaqil davlat barpo qilinganligi to'g'risida rasman e'lon qilindi.

Hindiston mustaqilligining e'lon qilinishi Britaniya Hamdo'stligi evolyutsiyasida yangi bosqichni boshlab berdi. "Britaniya fuqarosi" tushunchasi o'rniga yangi "Hamdo'stlik fuqarosi" iborasi paydo bo'ladi. 1947 yildan boshlab "dominion" tushunchasi tez-tez "hamdo'stlik a'zosi" tushunchasi bilan almashtirildi. (Rasmiy xujjatlardan "dominion" tushunchasi 1952 yilda olib tashlandi). 1948 yilda Seylon va Birma mustaqillikka erishdi. Britaniya tashkil qilinishi bu vaqtda eng muhim siyosiy-huquqiy ahamiyatga ega bo'ldi. Ta'sis majlisi Biriyan mustaqil suveren respublika deb e'lon qilishga qaror qildi. Yangi davlat tomonidan respublika boshqaruv shaklining qabul qilinishi uning hamdo'stlik a'zosi bo'lishini inkor etardi. Shuning uchun Britaniya parlamenti 1947 yil dekabrda Birma mustaqilligi to'g'risidagi Akti qabul qildi. Bu aktga ko'ra Birma Hamdo'stlikka kirmagan mustaqil respublikaga aylandi.

1949 yilda London shahrida Hamdo'stlik mamlakatlari bosh vazirlari konferensiyasi bo'lib o'tdi. Konferensiya ilgarigi "qiroлга (tojga) umumiy sodiqlik" tomoyilidan voz kechishdan qaror qildi. Bundan buyon Angliya qiroli faqatgina mustaqil a'zo davlatning erkin assotsiatsiyasi ramzi va shu mavqeda Hamdo'stlik rahbari sifatida chiqishi mumkin edi.

Sobiq imperiya ittifoqini huquqiy asosda qayta tashkil etish jarayonini amalga oshirishga qaratilgan urinishlarga qaramasdan, Ettli hukumati ba'zan ochiqchasiga fuqarolik urushlariga aylanib boruvchi yirik milliy-ozodlik harakatlariga duch kelishni davom ettirardi. Iqtisodiy qiyinchiliklar 1948 yilda Gakoda (Oltin qirg'oq) xalq chiqishlari to'loqini keltirib chiqardi. Siyosiy faollik yorqini Markazi Afrikada, jumladan, Shimoliy Roderiya (Zambiya), Janubi Roderiya va Nyasalend (Malavi)da kuzatildi. Bu yerda to'qnashuv irqiy xarakterga ega edi. Janubiy Afrikada 1948 yil 26 may saylovlari natijasiga ko'ra, aporent, ya'ni irqnlarni ajratish siyosatini hayotga tadbii qilishni asosiy maqsad qilib olgan Millatchilar partiyasi hukumat tepasiga keldi. Malayyadagi millatchilik chiqishlari Britaniya hukumatining faol aralashuvini talab etdi. Asosan xitoyliklardan iborat bo'lgan kommunistik qo'zg'olonchi-partizanlar kauchuk plantatsiyalari ishchilari va politsiyaga qurolli hujumlar uyushtirar, hukumat muassasalarini vayronaga aylantirishardi. 1948 yil 18 iyunda Malayya favqulodda holat rejimiga o'tkazildi, Britaniya qo'shinlari tezda qo'zg'olon o'choqlarini bartaraf etishdi.

O'rta va Yaqin Sharqdagi voqealar Buyuk Britaniyaning xalqaro obro'siga qattiq zarbalar berdi. 1951 yilda Eron hukumati tomonidan neft sanoatini milliyalashtirish qaroridan keyin Eron va Buyuk Britaniya o'rtasida diplomatik aloqalar butunlay uzildi. Buyuk Britaniya Eronni iqtisodiy muhosari (blokada) qilish tashabbusi bilan chiqdi. Britaniya Harbiy-Dengiz floti Eronga tegishli suv hududlarida harbiy namoyish o'tkazdi. Ammo AQSH buni qo'llab-quvvatlamadi va Erondan neft konlarini ishlab chiqish bo'yicha yangi xalqaro konsorsiumni yaratish bo'yicha muzokaralar tashabbuskoriga aylandi. Buyuk Britaniyaga esa bor-yo'g'i a'zoldardan biri bo'lish vazifasini bajarish nasib etdi, xolos. Britaniya manfaatlarining muhim mintaqalaridan biri Falastin edi. Ikkinchi jahon urushidan oldingi davrdayoq Buyuk Britaniya yahudiy emigrant (muhojir)larining o'zlarining tarixiy vataniga ko'chib o'tishini boshqarish javobgarligini o'z zimmasiga olgan edi. Ammo yahudiylarning ko'chib o'tishini boshqarishga qaratilgan Falastinning britan ma'muriyatining harakatlari hech qanday natija bermadi. Arab aholi yahudiy yashovchilarga oshkora dushmanlik (qarshilik) ko'rsatardi. Yaqin Sharqda vaziyatning keskinlashuviga Britaniya hukumati javoban Falastinni ikki alohida mustaqil davlatlarga bo'lishni taklif qildi. "Morrisan plani" deb atalgan bo'lish rejasii 31 iyul 1916 yilda hukumatga taqdim qilindi. Bu masaladagi kelishmovchilik leyboristlar partiyasini ikki qarama-qarshi bloklarga ajratdi. Britaniya hukumati Arab-Isroil kelishmovchiligini hal qilolmagach, 1947 yil 14 fevralda vositachilikni BMTga topshirishini e'lon qildi. 1948 yil 14 mayda kutilmagan voqea ro'y berdi. Falastindagi Britaniya mandati muddatining tugashiga bir necha

soat qolganda yahudiylar rahbari David Ben-Gurion Isroil respublikasi tashkil qilinajagini e'lon qildi.

50-yillar boshida Britaniyaning Koreya inqiroziga aralashuvi jamoat noroziligini yana qo'zg'atdi. Koreya urushida Britaniya kuchlari ishtirok etardi. Bu jangda o'lganlar 686, yarador bo'lganlar 2498 kishini tashkil etdi. Bu paytda Ettli AQShlik harbiylarning qat'iy qarorlarini bartaraf etish va vaziyatni yumshatishga harakat qilardi. Bunday tutilgan yo'l ham patsistik kayfiyatdagi London muxolifati tomonidan ham urush kayfiyatidagi guruhlar tomonidan tanqidga uchradi. Koreyadagi urush Buyuk Britaniyaning iqtisodiy ahvoliga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Mudofaa harakatlari budjet imkoniyatlaridan oshiq edi. Leyboristlar hukumatining ma'naviy-ahloqiy obro'si juda pasayib ketdi.

2.Konservatorlar hukmronligi: “bekorga sarflangan o'n uch yil” yoki “o'zgarishlar shamoli”

“Yangi konservatizm”ning tug'ilishi. 1950-1951 yillardagi saylov.

1945 yil saylovlaridagi mag'lubiyat Britaniya konservatizmining katta miqyosdagi tashkiliy va mafkuraviy yangilanishi, “yangi konservatizm”ning tug'ilishini tezlashtirdi. 30-yillardanoq, N.Chemberlen va U.Cherrillarning ayovsiz kurashi davrida partiyada yangi, “texnokratik” qanot shakllana boshlagan edi. Uning asosini ham ishlab chiqarish, ham ijtimoiy sohani davlat tomonidan faol boshqarilishini ko'zda tutuvchi “tashkiliy kapitalizm” barpo etish g'oyasini ilgari suruvchi Gorsid Makmillan rahbarligida “yosh konservatorlar guruhi”ni tashkil etdi. “Yangi konservatorlar” Dizraeli davridagi “sotsial konservatizm” g'oyalariga qaytishga, kasaba uyushmalar bilan o'zaro konstruktiv muloqotga kirishga hamda ijtimoiy taraqqiyotning “aralash modeli”ni tan olishga da'vat etardi. 1940 yilda partiya rahbari U.Cherrilning kelishi bilan “yosh konservator”larning mavqei yanada kuchaydi. Ularning g'oyalariga yon bosmasdan, Cherrill yangi islohotchilar faolligidan torilar “eski gvardiyasi”ga qarshi kurashishda foydalanishga harakat qilardi. 1945 yildagi siyosiy mag'lubiyatdan so'ng partiyaning ichki hayotini tartibga solish vazifasi partiyaning yangi rahbari, Lord Vultonga topshirildi. O'z faoliyatida u siyosiy rahbariyat emas, balki partiya qilish salohiyatidan foydalanishga harakat qildi. Vulton, ayniqsa, konservativ siyosiy markaz va partiya markaziy byurosining Tadqiqotlar bo'lishiga katta umid bog'ladi. Kitob sotish do'konlarining keng tarmog'i, yaxshi nashriyotchilik bazasi, haftalik va oylik jurnal byulletenlarni o'z vaqtida nashr qilish tufayli Markaz partiya faollari malakasini oshirish tarmoqlangan tizimga aylandi.

Prezident o'sha paytda Antoni Iden bo'lgan konservativ va yunionist yoshlar assotsiatsiyasi partiya rahbariyati tomonidan katta diqqat va e'tiborida bo'ldi. Konservativ va yunionist talabalar assotsiatsiyasi federatsiyasiga birlashgan talabalarining konservator tashkilotlariga ham katta e'tibor berildi. “Eski tori”lar orasidagi noroziliklarga qaramasdan Vulton qat'iyat bilan partiya rahbariyatining barcha darajasida va partiya yillik anjumanlarida ayollar va erkaklar vakolatining tengligi prinsipiga amal qilishni taklif qilardi. 1947 yildan boshlab, u partiya tarixida birinchi marta Markaziy Kengash agentlari lavozimlariga ayollarni tayinlay boshladi.

Cherrill, partiya rahbariyatini qayta qurish tashabbusini topshirib, o'z atrofida partiyaning istiqbolli ideologlarini birlashtirishga harakat qildi. Uning tanlovi G.Makmillan va R.Batlerda to'xtadi. Konservatorlarning 1946 yildagi yillik anjumanining asosiy mavzusi partiya dasturini yangilash prinsiplaridan iborat bo'ldi. Cherrill ta'siri ostida “yangi konservatizm” mo'tadilroq xarakterga ega bo'ldi. Cherrill zamonaviy jamiyatdagi real voqealarga asoslanib partiya strategiyasini ishlab chiqish tarafdori edi, ammo davlat boshqaruviga asoslangan leyboristik islohotchilik (reformizm) ga qarshi chiqdi. Umumiy farovonlik masalasini hal etish uchun “xususiy mulkchilik demokratiyasi” tizimi to'la unumli deb taxmin qilinardi.

Keyingi ikki yilda “yangi konservatizm” mo'tadil varianti g'oyalari Konservatorlar partiyasining barcha dasturiy xujjatlari asosini tashkil qildi. “Sanoat xartiyasi” xususiy mulk va bozor munosabatlarining o'zgarish qiyamatga ega ekanini tan olishga asoslangan edi. ammo

iqtisodiyotning davlat tomonidan boshqarilishi amaliyotini qisman saqlab qolish, jumladan, “konservativ rejalashtirish”, “undovchi choralar” (ya’ni ishlab chiqarishni rag’batlantirish), monopoliyalarining “adolatsiz imtiyozlarini” cheklash, maxsus holatlarda chakana narxlarining o’sishi ustidan nazorat qilishni saqlab qolishning zarurligi ham ta’kidlangan edi. Xartiyaning fikricha bir qator korxona va sohalarni davlat ixtiyorida qoldirish, leyboristlar tomonidan amalga oshirilgan keng milliylashtirishni esa qayta ko’rib chiqish kerak edi. Asosiy maqsad sifatida iqtisodiyotning milliylashtirilgan sohalari va xususiy firmalar o’rtasidagi adolatli raqobatni ta’minlash qaralardi.

Partiya qiyofasini muvaffaqiyatli o’zgarishi, barcha tashkiliy resurslarni harakatga keltirish va osoyishta, mafkuraviy asosni mohiyatan isloh qilish konservatorlarga 1950 yillardagi saylovlarda peshqadam bo’lishga imkon berdi. 1950 yil 24 yanvarda “Mana to’g’ri yo’l” nomi ostida saylov monifesti nashr qilindi. U ijtimoiy shiorlarga moyillik bilan “yangi konservatizm”ning asosiy postulatlarini o’z ichiga olardi. Konservatorlarning 1950 yil saylovoldi kompaniyasidagi eng katta g’alabasi liberallar bilan taktik yaqinlashish edi. 60 dan ortiq saylov okruglarida birlashgan konservativ liberal qo’mitalar tashkil qilindi. Ular obshinalar palatasi uchun qo’shimcha saylovlarda ikki partiyadan birortasi vakilining nomzodini ko’rsatishdi. Leyboristlar partiyasi birlashgan muxolifotga biror narsani qarshi qo’ya olmadi. 1945 yil saylovlarida konstruktiv pragmatizm bayrog’i ostida g’alaba qozongan Britaniya leyborizmi moddiy konseptual g’oyalarning yetishmasligini his qilardi. Ettlining hukmronlik davrida leyboristlar qayta tiklash davri doirasidan chiquvchi va uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini taklif etuvchi o’z dasturlarini ishlab chiqa olishmadi. 1950 yil saylovlari arafasida leyboristlar partiyasining “Keling qiyinchiliklarga birgalikda barham beraylik” nomli manifesti keng ommaga topishtirildi. Uning leytmativ davlat siyosatining umummilliy afzalliklarini kuchaytirish, mulkchilikning turli shakllarini birlashtirishning samarali yo’llarini izlash hamda sinfiy va etnik-diniy to’qnashuvlarga yo’l qo’ymaslik zarurligini uqtirardi. Tashqi siyosatdagi xatolarning ayon bo’lib qolganida o’sayotgan moliyaviy muammolar davrida bunday siyosat yuritish ijobiy saylovni ta’minlay olmasdi. Leyboristlar saylovda hali muvaffaqiyat qozonishlari mumkin edi, ammo reytingi katta sur’atda tushayotgan edi.

1950 yil 23 fevralida bo’lib o’tgan saylovlardan keyin obshinalar palatasida leyboristlar - 315, konservatorlar - 278, liberallar o’rniga ega bo’lishdi. Boshqa partiyalar bor-yo’g’i 3 mandatga ega bo’lishdi, mustaqil deputatlar ega partiya tarkibida umuman qolmadi. Shunday qilib leyboristlar yana hukumat tuzish huquqiga ega bo’lishdi, ammo saylovlar natijasi konservatorlar g’alabasi bilan yakunlandi deb baholandi. Konservatorlar yana 85 o’ringa ega bo’lishdi, leyboristlar ega 78 mandatni yo’qotishdi. Hatto liberallar ham tantana qilishga haqli edi - parlamentda boy berilgan uchta o’ringa qaramasdan, ular o’z saylovchilari sonini 2,2 mln.dan 2,6 mln.gacha ko’paytirishdi. Bunda leyboristlar palatadagi mutloq ko’plikni qo’ldan boy berishdi. Shuning uchun muddatdan ilgari saylovlarni o’tkazish zarur bo’lib qoldi.

To’rtinchi leyboristlarning hukumati bir yarim yil davomida hokimiyat tepasida bo’ldi. Bu hukumat davlat siyosati yo’nalishiga biror o’zgarish kiritishga erisha olmadi. Bundan tashqari, mamlakat Koreya urushiga aralashgan, Eron bilan keskin kelishmovchilik davom etardi. Tashqi siyosatdagi ahvol ichki siyosiy kurashishning ham asosiy predmeti bo’lib qoldi. Paletoni tarqatib yuborish va muddatdan ilgari saylovlar o’tkazishga qaror qilgan leyboristlar rahbariyati to’la tashqi siyosatga bag’ishlangan. “Bizning asosiy burchimiz-tinchlik” nomli manifestni nashr qildi. Leyboristlar yana ijtimoiy-iqtisodiy o’zgarishlarning yangi kompleks dasturini taklif qila olishmadi. Bunga partiya ichidagi kelishmovchiliklar sabab bo’ldi. Mamlakatning keyingi rivojlanish yo’llari to’g’risidagi bahslashuvlar leyboristlarning o’ng va so’l guruhlar o’rtasidagi munosabatlarni o’ta keskinlashtirdi. O’nglar atlantik birdamlik doirasida faol va qat’iy tashqi siyosat yuritish bayrog’i ostida birlashishdi. So’llar esa mamlakat ichida ijtimoiy islohotlarni chuqurlashtirish tarafdori edi. 1951 yilning aprel oyida so’l leyboristlarning rahbari, sog’liqni saqlash vaziri E.Bivenning namoyishkorona iste’foga ketishi partiya rahbariyatining inqirozidan darak berardi.

Yangi saylovlar arafasida konservatorlar ham o'z mafkuraviy jamg'armalarini yangillashmadi. 1951 yil oktabr oyida nashr qilingan "Britaniya - iqtidorli va ozod" nomli saylovoldi manifesti allaqachon ma'lum bo'lgan "yangi konservatizm" ruhida tuzilgan edi. Unda tashkiliy tayyorgarlikka ko'proq e'tibor berilgan edi.

1951 yil 25 oktabrdagi saylovlarda konservatorlar obshinalar palatasida bashorat qilingan 321 ta o'ringa ega bo'lishdi. Leyboristlar ixtiyoriga 295 ta o'rin, liberanl-6, qolgan partiyalar-3 ta o'ringa ega bo'lishdi. Shunday qilib, konservatorlar mutlaq ko'pchilikka erishib, barqaror hukumat tuzishga muvaffaq bo'ldilar. Unga 77 yoshli Uinston Cherrill rahbarlik qildi.

"Gigantning oxirgi kunlari"

Bosh vazir lavozimiga qaytgan Cherrill hukumat tarkibiga oxirgi yillarda eng faol bo'lgan siyosatchilarni jalb qildi. Lord Vulton lord-prezident, lavozimiga ega bo'ldi. R.Batler g'azna boshqaruvini qulga oldi. G.Makmillan esa uy-joy qurilishi va mahalliy boshqaruv vaziri lavozimiga ega bo'ldi. Ammo, umuman olganda, mahkama torilar "eski gvardiyasi" vakillaridan iborat bo'ldi. Cherrill rahbariyatning eski avtoritar usuliga qaytdi va hukumatni shakllantirishda o'zining shaxsiy fikrlariga asoslanardi. Konservativlar partiyasidagi vaziyat ham ancha o'zgardi. Oxirgi yillarda o'tkazilgan tashkiliy o'rin almashtirishlar saylov kompaniyasi tugaganda ham o'z ta'sirini o'tkazdi, ammo partiyadagi oldingi dinamizm va faollikni saqlab qolishga urinishlar kamroq sezilardi. Cherrill ham partiyaning mafkuraviy g'oyalarining rivojlantirish yo'llari haqidagi bahslashlarni ham boshqa ma'qullamasdi.

"Chidamlilik va konstruktivlik" yo'lini tanlagan Cherrill o'z oldingi rahbarlarning siyosatini tubdan o'zgartirmadi. Bu konservatorlarning diqqat markazida turgan ijtimoiy sohada ham o'z aksini topdi. Hukumatning bu sohadagi faoliyati yo'nalishi uy-joy qurilishi, ta'lim va sog'liqni saqlashni rivojlantirish dasturlaridan iborat bo'ldi. Hukumat uy-joy qurilishining barqaror o'sishiga erishdi. Agar 1951 yilda 234 ming yangi uylar qurilgan bo'lsa, 1952 yilda - 261 ming, 1953 yilda - 314 ming, 1954 yilda - 347 ming yangi uylar qurildi. qurilish ishlarida yangi texnologiyani joriy etish va mehnat sig'imini kamaytirish orqali foydalanishga topshiriladigan uy-joylarning narxini biroz pasaytirishga erishildi. Leyboristlardan farqli o'laroq konservatorlar nafaqat uy-joy fondi o'sishi va uning narxlarining pasayishiga, balki xususiy mulkchilik sektorining rivojlanishiga ham katta ahamiyat bera boshlashdi.

Sog'liqni saqlash ham katta qayta qurishlarni boshdan kechirmadi. Cherrill hukumati leyboristlar tomonidan yaratilgan Milliy sog'liqni saqlash xizmati va uning tarmoqlangan ma'muriy apparti hamda yuksak davlat ixtiyoridagi sog'liqni saqlash umassalarini saqlab qoldi. Ayni paytda bepul tibbiy xizmat ko'rsatish tarqoqlashdi. Retseptlar yozib berish uchun pul to'lash kengroq joriy etildi, dantistlar qabuliga pulli kirish tashkil qilindi, maxsus tibbiy asbob-uskunalaridan foydalanish pulli bo'ldi. Fuqarolarning sog'liqni saqlash fondiga haftalik to'lovlari oshirildi. (8,5 dan 32,5 pens gacha). Shu bilan birga konservatorlar sog'liqni saqlashga budjetdan ko'proq mablag' ajrata boshlashdi. Tibbiy xizmat ko'rsatish tartibga solingan edi, shifokor qabulida kutish vaqti qisqartirildi, shifoxonalarda bolalarning o'z ota-onalari bilan kelishlari ruxsat etildi, nostatsioner muolajani talab qiluvchi bemorlarni ko'chirish (transportirovka qilish) joriy qilindi.

Konservator va leyboristlarning ta'lim sohasini isloh qilishga bag'ishlangan dasturlari umuman bir-biriga o'xshash bo'lganligi sababli Cherrill hukumati bu sohada biror katta xajmdagi islohot o'tkazish uchun tashvishdan xoli bo'ldi. Lekin unga xususiy o'quv yurtlari mavqei to'g'risidagi bahs-munozaralarga duch kelishga to'g'ri keldi. Opponentlar konservatorlarni o'quv muassasalarining norasmiy tuzilishini saqlab qolishga urinishda ayblashdi. Hukumat mavqeini ta'lim vaziri D.Ekkld quyidagicha bayon qildi: "Umumta'lim maktabni qo'llab-quvvatlovchilar tenglik tarafdorlaridir. Janobi Oliyalarining hozirgi hukumati adolat tarafdoridir". Shunga qaramasdan, Cherrill hukumati ommaviy maktabni rivojlantirish uchun ta'lim tizimiga budjet xarakatlarini ancha oshirdi.

O'zining saylovoldi va'dalariga amal qilgan holda Cherrill hukumati davlat korxonalarining keng xususiylashtirishga kirishmadi. Faqatgina po'lat quyish va avtomobil transportlari sohalari xususiylashtirildi xolos. Mulkchilik shaklini belgilashda ishlab chiqarish

samaradorligi hal qiluvchi rol uynadi. Konservatorlar rahbarlari bu sohadagi har qanday siyosiy bahs-munozaralardan o'zlarini chetga olishardi. Ayni paytda hukumat iqtisodiyotning davlat tomonidan boshqarilishi, ishlab chiqarish rivojlanishining yangi strategiyasini ishlab chiqarishga yo'l qo'ymas edi.

50-yillarda Buyuk Britaniyada iqtisodiyotning o'sish dinamikasiga ancha yaxshilandi. Shu o'n yillik boshida ishlab chiqarish ko'rsatkichlari 1937 yildagi ko'rsatkichlardan 1g'3 hissa ko'proq edi. Ilm-fan keng joriy etilgan bir qator sohalar, jumladan, elektroenergetika, mashinasozlik, kimyo sanoati sohalarida barqaror o'sish kuzatildi. Ko'mir sanoati va tekstil sohalarida ko'rsatkichlar yaxshi emas edi. Umuman 50-yillarning birinchi yarmida yalpi milliy mahsulotning yillik o'sishi o'rtacha 2,7% ni, sanoat ishlab chiqarishida esa 3,3 % ni tashkil etdi. (30-yillar oxirida mos ravishda 1,75 % va 2,7 %). Ishsizlar soni ham barqaror kamayib bordi. 1953 yilda ular 0,5 million kishini 1955 yilda esa 298 ming kishini tashkil etdi. Buyuk Britaniya hali ham sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha AQShdan keyin ikkinchi o'rinni egallab turardi.

Shunday qilib, Cherrill hukumati iqtisodiyotga aralashishning keskin zaruratidan qutulgan edi. To'g'ri, bu loqaydlik o'zining salbiy natijalariga ham ega bo'ldi. Ilmiy-texnikaviy inqilob davrida alohida mamlakatlarning iqtisodiy farovonligi mezonlari o'zgarib boshladi. Keskin pasayish va inqirozlarning yo'qligi ham jahon bozori egallangan mavqeining saqlab qolishini kafolatlab olmas edi. O'sish sur'atlarini asta-sekin oshirib borish, ishlab chiqarish texnologiyasini mukammallashtirish, bozor infrastrukturasining eng yangi shakllarini rag'batlantirish talab etilardi. Bu masalalarni xususiy sektorning o'zi hal qila olmasdi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarilishidagi dunyo tajribasi krizisga qarshi siyosat doirasidan chiqa boshladi. Uning maqsadi butun iqtisodiy tuzumni tizimini boshqarishga aylandi. Faqatgina kuchli moliyaviy, intellektual va siyosiy salohiyatga ega bo'lgan davlat rentabelligi past, ammo o'ta muhim fundamental tadqiqotlar o'tkazishni, katta investitsiyalarini jalb qiluvchi strategik ilmiy sohalarini rivojlantirishni, kadrlarni keng ko'lamda qayta o'qitish va malakasini oshirishni o'z zimmasiga olishi mumkin edi. Konservatorlar boshqaruvchi davrida Buyuk Britaniya hukumati bu vazifalarni o'z oldiga maqsad qilmagan edi. Konservatorlarning iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarilishidagi bu loqaydligi muxolifatga ularning hukmronlik davrini "turg'unlik davri", "bekorga sarflangan yillar" deb baholashlariga asos bo'ldi.

Konservatorlardan tashqi siyosat sohasida ham biror prinsipial o'zgartirish kiritish talab qilinmas edi. Muxolifat safida bo'lgan yillardayoq Cherrill va Idenlar Buyuk Britaniyaning umumdunyoviy maqsadlarini urushdan keyingi real ahvolga moslashtirishga da'vat etuvchi "uch doira" konsepsiyasini ishlab chiqishdi. Bu konsepsiyaga ko'ra Britaniya tashqi siyosati mamlakatning o'ziga xos geografik joylashishi va tarixiy an'anani hisobga olib uchta asosiy javobgarlik mintaqalari doirasida tuzilishi kerak. Bu uch doira Atlantika hamjamiyati, Yevropa va Britaniya millatlar hamdo'stligidan iborat edi. Cherrillning ta'kidlashicha, gap geografik joylashishida emas, balki mental (milliy), mafkuraviy va siyosiy birlik omillari nuqtai nazaridan tashkil qilingan maxsus mintaqalar haqida boryapti. "Men insoniyat taqdirini kuzatib kelajakka nazar solar ekanman - deydi u - Erkin xalqlar va demokratiya orasida uchta ulkan sferani (mintaqani) ko'raman. Biz uchun birinchisi, albatta Britaniya Hamdo'stligi va imperiya. Keyin anglosakslar dunyosi bo'lib, u AQShga teng keladi va unda biz Kanada va Britaniya dominionlari katta rol uynaydi. Va nihoyat uchinchi, bu birlashgan Yevropa. Bu uchta sehrli doira birga mavjud, agar ular birlashishsa, ularni qulata oluvchi yoki ularga jiddiy tahdid soluvchi kuch bo'lmaydi. Bizning mamlakatimiz bu doiralarning har birida muhim rol uynaydigan yagona mamlakatdir".

Millatlar hamdo'stligi va imperiya taqdiri konservatorlar uchun tashqi siyosat yo'nalishida hal qiluvchi risola edi. 1952 yildagi hamdo'stlik bosh vazirlarining maxsus chaqirilgan anjumani 1949 yil qarorlari, hamda ingliz qirolining hamdo'stlik rahbari mavqeini tasdiqladi. Bu titul taxtga o'tirgan Yelizaveta 11 ga topshirildi. 1952 yil anjumani "hamdo'stlik fuqarosi" ("Britaniya fuqarosi" o'rniga) tushunchasini butunlay qonuniylashtirdi. Mamlakatning uchinchi dunyo davlatlariga ta'sirini kuchaytirish maqsadida Cherrill hukumati Koreya urushini tinchlik bilan hal qilishni faollik bilan qo'llab-quvvatlardi. Aynan Britaniyaning oldindan

yarador va bemor harbiy asirlarni almashtirish bo'yiga taklifi chigal vaziyatni bartaraf etdi. Buyuk Britaniya Hindixitoy masalasida yetarlicha qat'iy vaziyatni egalladi. Hindixitoydagi fransuz koloniyasini tashkil etish mag'lubiyatga uchragani tabiiy edi, AQShning esa u yerda ham siyosatni Koreyadagidek yuritishiga urinishi Londonni qanoatlantirmasdi. Buyuk Britaniya Sovet Ittifoqining Hindixitoy masalasi bo'yicha rahbarlar davrasida xalqaro yig'ilish o'tkazish to'g'risidagi taklifini qo'llab-quvvatladi. Bu yig'ilish 1954 yilda Jenevada o'tkazildi va harbiy harakatlarni to'xtatish haqida qaror qabul qilishga erishildi. Shu yili Tehronda Eron hukumatining xalqaro konsorsium bilan Eron neft konlarini foydalanishga topshirish shartlari haqida kelishib olindi. Bu shartnoma xuddi oldingisidek Buyuk Britaniyaga biror foyda keltirmadi, ammo kelishmovchiliklar qisman barham berildi.

50-yillar boshida Misr atrofidagi vaziyat keskinlashdi. 1951 yilning oktabrida Misr hukumati 1936 yildan Sudan kondominioni va Suvaysh kanali to'g'risidagi shartnomani bekor qilish haqida qaror qabul qildi. Sudan mamlakati Misrning ajralmas qismi deb e'lon qilindi. Ammo, Misr qiroli Faruk Buyuk Britaniya bilan ochiqchasiga to'qnashishdan cho'chib turardi. Uzoq davom etgan muzokoralar boshlandi. Bu muzokoralar davrida ingliz harbiylari Suvaysh kanali atrofidagi aholining norozilik chiqishlarini bostirardi. qohiradagi davlat to'ntarishidan so'ng 1952 yil iyulida G.Nosirning inqilobiy hukumati Sudanga to'la erkinlik berish haqida ma'lum qildi va bu qaror 1953 yildagi ingliz-misr kelishuvida qayd etildi. 1954 yil 19 oktabrida Suvaysh kanali taqdirini ham hal qiluvchi shartnoma ham imzolandi. Unga ko'ra ingliz qo'shinlari 20 oy davomida evakuatsiya qilinishi kerak edi. Kanal fuqarolik xizmatchilar ixtiyorida bo'lib, ular kanalni harbiy sohada ham ishlata olishga qodir edilar.

Cherchill hukumati Yevropa siyosati masalasida ma'lum faollikni namoyon qildi. ammo Britaniya siyosatchilari fransuzlarning nadnatsionalnaya boshqaruv organlari tuzish bilan iqtisodiyotni integratsiya qilish loyihalariga shubxa bilan qarashdi. "Shuman rejasi"ga xilofan rasmiy London Yevropa erkin savdo mintaqasini tuzish g'oyasini ilgari surardi. Unga Yevropada iqtisodiy hamkorlik tashkilotining barcha 17 a'zosi kirishi kerak edi, hamda o'zaro bojxona to'lovlarini va import cheklashlarni bekor qilish ko'zda tutilgan bo'lib, keyinchalik, mablag' harakatining erkinlashishi va to'g'ridan-to'g'ri savdoni tashkil etishga erishish kerak edi. Bu loyihada nadnatsionalnaya tashkiliy tuzilmani yaratish, birlashgan iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va yagona qonunchilik tizimini barpo etish ko'zda tutilmagan edi.

1952 yilda sohaviy birlashgan blok YEOXSning tashkil qilinishi Britaniya hukumati rejalariga mos kelmas edi. Siyosiy mag'lubiyatni bartaraf etish (kompensatsiya qilish) maqsadida Britaniya diplomatiyasi harbiy-siyosiy birlashuv loyihalarini faol qo'llab-quvvatlardi. 1952 yilda "Pleven rejasi"ni muhokama qilishda Buyuk Britaniya G'arbiy Germaniyaning okkupatsiya mavqeini bekor qilish va uning qismlarini "Yevropa qo'shinlari" safiga qo'shish g'oyasini qo'llab-quvvatladi. Yevropa mudofaa hamjamiyati loyihasi inqirozga uchragandan so'ng Buyuk Britaniya AQSH bilan birgalikda NATO bayrog'i ostida GDG ni Atlantika Xavfsizlik tizimiga kiritish tarafdori bo'ldi.

1954 yil noyabr oyida konservatorlar rahbarining 80 yoshligi tantanali nishonlandi. Uning yoshi iste'foga chiqishni talab etardi. 1954 yil davomida rahbarlik qilayotgan partiya rahbarining chiqishlari ochiqchasiga hammaning g'ashiga tegardi. Hal qiluvchi voqea obshinalar palatasida vodorod bombasining ishlab chiqarilishi haqidagi shov-shuvli munozaralarning boshlanishi bo'ldi. Ketma-ketliksiz va ayni paytda urushqoqlik va murossasizlik mavqeini egallagan Cherchill. Konservativ partiyaning ham ko'pchilik vakillari orasida norozilik uyg'otdi. Cherchillning iste'fosi 1955 yil 5 aprelda sodir bo'ldi. Konstitutsion rusumga ko'ra Cherchill qirolichaga iste'fo haqida yozma iltimosnoma berdi, hamda hukumatning yangi tarkibini tuzish uchun "Iden izidan yuborish"ni iltimos qildi.

A.Iden hukumati. Suvaysh inqirozi.

Bosh vazir lavozimiga konservativ partiyaning sobiq rahbari Antoni Idenning kelishi ko'pchilik tomonidan Cherchill davrining davomi sifatida qabul qilindi.

1955 yilda bosh vazir lavozimiga ega bo'lgan va oldingi davlat siyosatini unchalik o'zgartirmaslikka qaror qilgan Iden, baribir "o'rta avlod" vakillarining partiyadagi mavqeini

kuchaytirdi. Makmillan tashqi ishlar vaziri lavozimiga ega bo'ldi. Batler moliya vaziri lavozimida qoldi. "Partiya yoshlari"ning eng yorqin vakillaridan biri Edvard Xit partiya "qamchisi" (parlament fraksiyasining bosh tashkil etuvchisi) qilib tayinlandi. Shu birlan birga Iden hukumat safida ko'pgina "eski tori"lar va avlodi aristokrat bo'lgan vakillarni ham saqlab qoldi.

O'z shaxsiy mavqeining mustahkam emasligini bilgan holda Iden o'ti kutilmagan ishga qo'l urdi - u parlamentni tarqatib yubordi. Bu haqda 15 aprelda e'lon qilindi. qolgan uch hafta ichida quyi palata ishi davomida konservatorlar yangi budjetli qabul qilishga ulgurishdi. Unga ko'ra daromad solig'i kamaytirildi va bir qancha ommaviy choralar ko'rildi. Bosh vazirning o'zi saylovoldi kurashlarda birinchi marta televizion chiqish salohiyatidan hamda usti (professional) imojmeyner (qiyofa yaratuvchi)lar xizmatidan foydalandi. 1955 yil saylovlari konservatorlarga ishonchli g'alaba keltirdi. Ular 345 deputatlik mandatiga, leyboristlar obshinalar palatasida 277 o'ringa, liberallar 6 o'ringa ega bo'lishdi.

Ammo Iden hukumatining xatosiz faoliyati yarim yil ham davom etmadi. 1955 yil yozidan boshlab mamlakatda iqtisodiyot konpakturaning yomonlashuvi sezila boshladi. Hukumat bir qator ijtimoiy dasturlarni qisqartirishga, ba'zi kosvenniy soliqlarni oshirishga hamda pochta hukumati narxlarini oshirishga majbur bo'ldi. Bu choralar juda o'z vaqtida qo'llanilgan edi, ammo konservatorlarning saylovoldi va'dalaridan keskin farq qilardi. Mamlakatda norozilik harakatlari kuchaydi, ilgari hukumatni to'la qo'llab-quvvatlab turgan matbuot mavqei o'zgardi. Davlat siyosatini o'zgartirish kerakligini tan olgan Iden hukumat a'zolari lavozimini o'zgartirishga kirishdi. Moliya vaziri Batlerni Makmillan almashtirdi.

Tashqi siyosatdagi vaziyat ham tobora murakkablashayotgan edi. SSSRdagi siyosiy o'zgarishlardan keyin xalqaro keskinlikni yumshatish imkoni tug'ildi. Yangi vaziyatdan Buyuk Britaniya obro'sini oshirish uchun foydalanishga uringan Iden global siyosatdagi dolzarb muammolar bo'yicha muzokaralar jarayonini kengaytirish tashabbusi bilan chiqdi. Britaniya diplomatiyasining urinishlari muvaffaqiyatli bo'ldi. 1955 yil 18 iyulda Jenevada oliy maqomdagi AQSH, SSSR, Fransiya va Buyuk Britaniya delegatsiyasi ishtirokidagi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Ammo anjuman davomida shu narsa ma'lum bo'ldiki SSSR va G'arb mamlakatlari bir-birlarining takliflariga sinchkovlik bilan munosabatda bo'lishadi va hali aslida o'z strategiyalarida biror-bir o'zgartirish kiritishga shoshilmaydilar. Konferensiya natijasida bor-yo'g'i iqtisodiy va madaniy hamkorlikni rivojlantirish kerakligi haqidagi fikrlargina bayon etilishiga erishildi, xolos.

1956 yil aprelda Xrushchev va Bulganin Londonda bo'lishdi. Safarning siyosiy dasturi uchinchi dunyo mamlakatlari bilan o'zaro munosabat muammolariga bag'ishlangan edi. Xuddi Jenevadagidek tomonlar biror-bir jiddiy siyosiy kelishuvga kelishga erishilmadi. Bundan tashqari safar davomida mash'um diplomatik mojaro ro'y berdi. 19 aprelda Portsmut qirg'oqlarida suvga sho'ng'ish paytida ofitser-g'avvos Layonel Krabb sirli halok bo'ldi. Bu paytda esa Portsmut havzasida sovet delegatsiyasini olib kelgan "Odjonikidke" kreyseri turardi. Bu voqeaning maxsus uyushtirilganligi hech kimda shubha qoldirmadi. Iden palatalar obshinasida so'zga chiqib Protmutdagi voqealar hukumat ruxsatisiz ro'y berganligi hamda ijtimoiy tinchlikni saqlash uchun tafsilotlarni maxfiy saqlash kerakligi haqida bayonot berishga majbur bo'ldi.

Yaqin Sharq mintaqasi 50-yillarning o'rtalariga kelib dunyoviy siyosatning eng muhim mintaqalaridan biriga aylandi. Londonda bu yerda eng yirik arab mamlakatlari ishtirokida ulkan harbiy-siyosiy blok yaratish loyihasi paydo bo'ldi. Unda taxmin qilinishicha, uzoq muddatli tarixiy aloqalar mintaqada Britaniyaning kuchli harbiy bazalari borligi va Buyuk Britaniyaning boshqaruvi ostida Suvaysh kanali atrofi tegishli bo'lganligi tufayli bu blok urushdan keyingi yagona "ingliz" bloki bo'ladi. 1955 yilda Britaniya hukumati qo'llab-quvvatlashi ostida Turkiya va Iroq o'zaro mudofaa majburiyatlar haqida kelishib olishdi. Buyuk Britaniya bu kelishuvga qo'shilgan holda Iroq bilan xuddi shunday kelishuvga keldi. Keyinroq bu kelishuvga Eron va Pokiston qo'shilishdi. Shunday qilib, 1978 yilgacha faoliyat ko'rsatgan Markaziy shartnoma tashkiloti (SENTO) yoki Bog'dod pakti paydo bo'ldi.

Britaniya siyosatchilari Misrni ham SENTO tarkibida ko'rishni kutgandilar, ammo Nosir hukumati bu blokka a'zo bo'lishga shoshilmasdi, balki sovet bloki bilan aloqalarni asta-sekin kengaytira bordi. Iden Iordaniyaning ham Bog'dod paktiga qo'shilishiga harakat qilish, tezroq uni rasmiylashtirishga urinardi. Bu mamlakat hududida general Glabb qo'mondonligi ostidagi ingliz qo'shinlari bor edi, qirol Husayn esa Londonga moyillikni namoyon qilardi. Iordaniyaga uning Bog'dod paktiga qo'shilgan mamlakatlar bilan iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi shartnomalarni tuzishni tashkil etish uchun makmillan jo'nab ketdi, general Glabb rahbarligidagi kuchlar esa aholining aksulingliz namoyishlarini bostirishga kirishdi. Ammo bu choralar teskari natija berdi - 1956 yil 2 martida qirol Husayn general Glabbni bosh qo'mondon lavozimidan chetlashtirdi va ingliz ofitserlarining katta guruhini mamlakatdan chiqarilishini talab qildi. Iordaniya 1955 yil kuzida Nosir tashabbusi bilan tuzilgan Suriya va Misr birlashgan qo'shinlariga qo'shilish haqida qaror qabul qildi.

1956 yil 26 iyulida Nosir Suvaysh kanalining milliyashtirilishi haqida e'lon qildi. Bu London uchun kutilmagan voqea bo'ldi. Buning bevosita sababi Buyuk Britaniya va AQShning Asuan plotinasi qurilishidan moliyalashtirishdan bosh tortganligi bo'ldi. Bunday o'ta keskin choraga qo'l urgan Nosir SSSR tomonidan katta yordamga umid bog'lagan edi. Suvaysh kanalining milliyashtirilishi Buyuk Britaniya iqtisodiy manfaatlariga to'g'ridan-to'g'ri zarba berdi bu kanal uning import va eksportining choragini ta'minlab turardi. Buyuk Britaniyaning Markaziy Sharqda qazib olgan neftning deyarli 40%-i shu kanal orqali o'tardi. Iden hukumati qat'iy javob qaytardi. 26 iyuldayoq davlat g'aznasi Misrning barcha sterling hisobidagi kapital aylanmasi va aktivlarini muzlatdi. Buyuk Britaniya Suvaysh kanali aksiyalarining bir qismiga egalik qiluvchi Fransiya bilan birgalikda Misr ustidan shikoyat bilan BMT Xavfsizlik Kengashiga murojaat qildi. Ammo SSSR veto huquqidan foydalangan holda biror rezolyutsiya qabul qilinishiga yo'l qo'ymadi. Iden kuch ishlatish borasida Eyzenxauer bilan maxfiy muzokaralar olib bordi, ammo saylovoldi kompaniyasining boshdan keirayotgan AQSH prezidenti yana bir harbiy to'qnashuvdan manfaatdor emas edi. Shunga qaramasdan, Londonda harbiy xarakatlarga tayyorlanish haqida qaror qabul qilindi.

1956 yil avgustida Yaqin Sharq mintaqasida ingliz va fransuz harbiy qismlarining jalb etilishi boshlandi. Ikki g'arb mamlakatlarining ittifoqchisi Isroil bo'ldi. Avgust oxiridan boshlab Isroilning Misr va Iordaniya bilan chegarasida jiddiy to'qnashuvlar bo'lib o'tdi, 15 oktabrda esa Iordaniya Isroilni rasman agressiya (bosqinchilik)da aybladi. 25 oktabrda Buyuk Britaniya va Fransiya tashqi ishlar vazirlari Isroil bosh vaziri Ben-burion bilan Misrga qarshi birgalikda harbiy harakat olib borish to'g'risida maxfiy bayonnomani imzoladilar. Maxsus operativ reja ishlab chiqardi. Unga ko'ra birlashgan kuchlar Sinay yarim orolini egallab olishlari va butun kanal boshqaruvini o'z qo'llariga olishlari kerak edi. Bu operatsiyaning boshlanishiga Isroil armiyasining Sinay yarim oroliga xujumi ("Kadesh-tozalash") operatsiyasi bahona bo'lishi kerak edi. Buyuk Britaniya va Fransiya Misr va Isroil qo'shinlariga 10 iyul masofaga orqaga surilish haqida ultimatum talab qo'yishga tayyor edi. Bu talabni esa Misr qabul qilmasligi aniq edi. Butun operatsiya "Mushketyor" deb nomlandi, qo'mondonlik esa ingliz generali Charlz Keytliga topshirildi. 50 mingdan ortiq Britaniya askarlari va 100 ga yaqin harbiy kema safarbar qilindi.

29 oktabr 1956 yil kechqurun soat 5 da 400 ta isroillik parashyutchilar polkovnik A.Sharon rahbarligida Sinay yarim orolining o'rtasiga tushirildi, tank qismlari esa Sinay shimoli-sharqida xujumga o'tishdi. 30 oktabr Isroil qo'shinlarining hali Suvaysh kanaliga yetib borishganligiga qaramasdan Britaniya va Fransiya xukumatlari mintaqasidan butun qo'shinini olib chiqish va kanaldan erkin foydalanish maqsadida uni vaqtinchalik egallab olishini taklif qildilar. Misr tomonining javobini kutmasdan ingliz-fransuz harbiy-dengiz kuchlari Maltadan chiqdi, 31 oktabrda Britaniya aviatsiyasi barcha Misr aviabazalariga xujum uyushtirildi. Prezident Nosir asta-sekin yarim-orol ichkarisiga chekinish haqida farmon berdi. Tezda Misr hukumati BMT dan urushni to'xtatish haqida taklifni oldi. Shunga qaramasdan inglizlar bombardimon qilishni davom ettirdilar. 5 noyabrda mingdan ortiq ingliz-fransuz parashyutchilari Sinay yarim orolining strategik nuqtalariga tushirildi. Agressiyaga esa faqat SSSRning o'ta

maxfiy mavqei nuqtai qo'ydi. O'zining Idenga jo'natgan ultimativ xatida Xrushchev SSSR hatto yadro qurolidan foydalanishga tayyor ekanligini ma'lum qildi.

Shunday qilib, Britaniya siyosiy doiralarining Suvaysh kanali atrofidagi siyosiy o'yini mamlakatni yadro to'qnashuvi yoqasiga olib keldi. London va Parij harbiy xarakatlarini tezda to'xtatish haqida farmon berishga majbur bo'lishdi. 22 dekabrda ingliz-fransuz qo'shinlari Misr hududini tark etdi, 1957 yil 8 martga kelib esa Isroil qo'shinlari Sinay yarim orolidan olib chiqildi. To'qnashuv mintaqasiga BMT qo'shinlari kiritildi. Suvaysh voqeasiga bog'liq og'ir siyosiy mag'lubiyatdan so'ng Iden hukumatining taqdiri hal bo'lgan edi.

“O'zgarishlar shamoli”.

Idenning o'z ixtiyori bilan iste'foga ketishidan keyin Batler va Makmillan konservativ partiya rahbari lavozimini egallash uchun teng imkoniyatlarga ega edi. Partiyadagi obro'li Makmillanni qo'llab-quvvatlagan torilar fikri hal qiluvchi rol uynadi. Ammo yangi mahkama tarkibi partiya rahbariyatining tezda almashishi haqida guvohlik berardi. Vazirlarning ko'pchilligi rahbardan 8-10 yosh kichik edi. “Eski gvardiya” va hatto “o'rta avlod” vakillari safidan partiya juda kamchilik kirdi.

Garold Makmillan davlat siyosatini o'zgartirish tarafdori edi. U “o'zgarishlar shamoli” shiorini elon qildi va o'sha davr jamiyatidagi reallikni loqaydlik bilan tan tan olmasdan dinamik va progressiv milliy rivojlanish modelini yaratishga faol kirishishga da'vat etdi. Bunda Makmillan partiya safida bo'linishlarga va o'ta radikal islohotchilikka yo'l qo'ymaslikka harakat qilardi. U oldingidek “yangi konservatizmga” yon bosar uni sinflar ustidan birlashish va ijtimoiy faollikning umummilliy mafkurasi deb bilardi. Yangi rahbar hamkasblarga davlat intizomiga, javobgarlikka va pragmatizmga da'vat etardi.

Makmillan hukumati ijtimoiy siyosatni ancha faollashtirdi. Bu nafaqat mafkuraviy tamoyillarga balki yangi makroiqtisodiy strategiyaga asoslangan edi. G'arbning ilg'or mamlakatlarida barqaror iqtisodiy o'sish, talab va taklifni keng rag'batlantirishga asoslangan “faravon mamlakat” ijtimoiy modelining shakllanib borishi boshlandi. Bozor mexanizmi tenglashuvining asosiy omili bo'lgan talabning o'sishi mehnat munosabatlarini tartibga solish va davlat ijtimoiy infrastrukturasini kengaytirish orqali amalga oshirildi.

1957 yilda Britaniya hukumati faoliyatida ikki asosiy yo'nalish ko'zga tashlandi - ijtimoiy budjet dasturlari keng ko'laminnig saqlab qolinishi va bank foizlari darajasini oshirish va g'aznani to'ldirish maqsadida davlat qimmatli qog'ozlari qiymatini keskin ko'tarish. Ammo oxirgi bir yarim -ikki yil ichida iqtisodiy konyuktura ancha yomonlashdi. Oshgan talab narxlarning inflyatsion ko'tarilishiga, import tovarlarning nisbatan arzonlashishi va ularning oshishi sababli mamlakat to'lov balansida kamomad sezildi. Suvaysh inqirozidan keyin dunyo bozorida yomonlashgan vaziyat ham salbiy ta'sir ko'rsatdi. Makmillan hukumati “qimmat kredit” siyosatidan voz kechishga majbur bo'ldi.

Praknt stavkalar pasayishi bilan birga olib borilgan faol ijtimoiy siyosat 1950-1960 yillarda ishbilarmonlik faoliyatining keskin faollashishiga olib keldi. Bunday qulay vaziyatda konservatorlar 1959 yil saylovlarida ishonchli g'alabani ko'lga kiritdilar. 49,4% saylovchilar konservatorlarni, 43,8%-leyboristlarni, 2,7% esa liberallarni qo'llab-quvvatlamadi. Obshinalar palatasida ham tori ixtiyoridagi mandatlar leyboristlarga qaraganda 100 taga ortiq edi. Hukumat to'la ishonchni qo'lga kiritdi, ammo 1960-1961 yillardayoq inflyatsiyaning yana keskin o'sishi davrida uning ahvoli yana yomonlashdi.

Iqtisodiy ahvolning yomonlashuvining bevosita sababchisi funt sterling mavqeini pasaytirgan xalqaro valyuta-moliyaviy bozordagi keng ko'lamli chayqovchilik bo'ldi. Ammo bu o'z navbatida, Britaniya iqtisodiyotidagi chuqur ichki nomutanosibliklarning natijasi edi. Urushdan keyingi davrdagi muvaffaqiyatlarga qaramasdan Buyuk Britaniya sanoati ixtisoslashish darajasi, texnologiya bilan ta'minlanish sohasida Amerika, Germaniya va Yaponiya sanoatidan keyingi o'rinlarda edi. Unda tovarlar tonnaxi ham yuqori edi. Britaniya iqtisodiyotining oldingi yetakchilari-kolonial-xom ashyo monopoliyalari tez suratlarda o'z mavqelarini boy bera boshlashdi. Ular xorijga, oldingi mustamlakalardagi qazib oluvchi korxonalarga investitsiya qo'yishga kirishishdi. Bu esa Buyuk Britaniyaning o'zidagi eng yangi

sohalarga kapital qo'yishga to'sqinlik qilardi. Buning natijasida paradoks haloti yuzaga keldi. Britaniya sanoatining an'anaviy sohalariidagi har bir yangi siljish salbiy oqibatlariga olib kelardi. Bunday ishlab chiqarish hajmining o'sishi import (asosan xom ashyo)ning o'sishi bilan birga kechardi, ammo bu importga mos keluvchi Britaniya mahsulotlari eksporti ko'lami ancha kam edi. Bu tashqi savdo balansining salbiy saldosi ga olib keldi. Buning natijasida budjet tanqisligi va inflyatsiya kelib chiqdi.

60-yillar boshiga kelib ikkala eng yirik partiyalar iqtisodiyot bo'yicha eksportlarining inqirozga qarshi strategiya borasidagi umumiy mavqei shakllandi. Bu konsepsus "batekellizm" (o'sha paytdagi moliya vaziri R.Batler va leyboristlar rahbari X.Geytskell nomlaridan olingan) deb ataldi. Ularning taxminicha, iqtisodiyotning haddan tashqari "zo'riqishi" (iqtisodiy o'sish va mos ravishda inflyatsiyaning ham o'sishi) sharoitida hukumat xo'jalik faoliyatini cheklashi kerak edi. Bu choralar moliya tizimini tartibga solish bilan birga katta mablag' talab etuvchi sanoat ishlab chiqarishini qisqartirish hamda xorijdan keltirilgan xomashyoning iste'mol qilinishini kamaytirishi kerak edi. Importning kamayishi esa to'lov balansi muvozanatining tiklanishi va inflyatsiyaning kamayishiga olib kelishi mumkin edi. Konyukturani "muzlatish" davrida esa hukumat, aksincha tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirishi va iqtisodiy o'sishning tezlashuviga olib kelishi kerak. Bunday rag'batlantiruvchi va to'xtatib qoluvchi iqtisodiy strategiya Buyuk Britaniyada "to'xta-harakat qil" degan nom oldi.

1961-1962 yillarda "to'xta-harakat qil" siyosati doirasida Makmillan hukumati iqtisodiy konyukturani "muzlatish" bo'yicha qadam bosdi. Angliya bankidagi hisob stavkasi yana oshirildi, soliq va boshqa to'lovlar ko'paytirildi, kredit berish cheklandi, budjetning xarajat qismi qisqartirildi. Shu bilan bir vaqtda iqtisodiyotni "muzlatish" uchun "kuchaytirish"ga va aksincha o'tishga imkon beruvchi iqtisodiyotning davlat tomonidan egiluvchan boshqarilishi mexanizmini ishlab chiqishga harakat qilindi. Britaniya hukumati tomonidan "to'xta-harakat qil" taktikasining qo'llanilishi dunyo bozorida raqobatga dosh beruvchi yirik ishlab chiqaruvchilarning soliq va moliyaviy qo'llab-quvvatlashlari bilan birga kechardi. Bu masalaning yechilishini siyosiy jihati ham bor edi. Yangi iqtisodiy vaziyatda Buyuk Britaniyaning sobiq mustamlakalar bilan munosabati va uning Yevropa integratsiyasi jarayoniga qo'shilishi katta rol uynardi.

50-yillardagi Britaniya mustamlakachilik imperiyasining parchalanish jarayoni qaytmasligi aniq bo'ldi. Makmillan torilar partiyasi rahbarlaridan biri bo'lib bu sohada o'zgarishlar amalga oshirish kerakligini ta'kidladi. "O'zgarishlar shamoli" shiorining o'zi mustamlakachilikdan keyingi davridagi real vaziyatni tasvirlash uchun ishlatilardi. 1960 yildayoq Makmillan hukumati Afrika mamlakatlari ga nisbatan "plavno'y va liberal rivojlanish" siyosatini yuritishga bel bog'laganini e'lon qildi. Bunda Buyuk Britaniyaning hukmronlikni qora tanlilarga topshirgan holda Sharqiy va Markaziy Afrikadan asta-sekin ketishi ko'zda tutilgan edi.

Britaniya hukumatining harakatlari doni ham mustaqillikka erishgan mamlakatlarda yangi ijtimoiy tuzumning yuzaga kelishi bilan birga ro'y beruvchi millatlararo va irqilararo to'qnashuvlarni bartaraf etolmasdi. Masalan, Britaniya diplomatiyasi Nigeriyadagi fuqarolik urushining oldini ololmadi. 1962 yilda mustamlakachilar ma'muriyati ketgandan so'ng qabilalararo to'qnashuvlar natijasida qon to'kishlar sodir bo'ldi. Keniya uchun esa eng o'tkir muammo partizanlar harakati va siyosiy terrorchilik bo'ldi. Britaniya diplomatiyasi Markaziy Afrikada jiddiy mag'lubiyatga uchradi. 1984 yilda London vositachiligida Molovi (sobiq Ayasalend), Zambiya (sobiq shimoliy Radeziya) va janubiy Radeziyalarni o'z ichiga oluvchi federatsiya tuzish haqidagi loyiha tayyorlangan edi. Ammo janubiy Radeziyada oq tanli muhojirlar siyosiy hukmronlikni to'la saqlab qolishdi. Mamlakatda ochiq irqiy to'qnashuvlar boshlanib ketdi. Shunga o'xshash voqealar 1960 yilda o'zini mustaqil deb e'lon qilgan janubiy Afrikada ham rivojlanayotgan edi.

Afrika qit'asida milliy-ozodlik harakatining rivojlanishi Britaniya diplomatiyasini yana bir yangi muammoga duchor etdi. Hamdo'stlikda Afrika "lobbi"si kuch to'playotgan bo'lib, uning mavqei har doim ham Britaniya manfaatlariga mos kelmas edi. Makmillan bor kuchi bilan hamdo'stlikning iqtisodiy va siyosiy tizimini hayotga qaytarishga urinardi. O'zining ko'p sonli tashriflarida bosh vazir yosh mamlakatlar rahbarlari, obro'li siyosatchilari va jamoatchilik

vakillari bilan uchrashardi. Aynan, Makmillan “ko‘p irqli assotsiatsiya” mafkuraviy konsepsiyasiga asos soldi.

Yangi millatlar hamdo‘stligi shakllanishi bilan birgalikda qiyinchiliklar Buyuk Britaniyaning Yevropacha siyosati muhimligini oshirardi. 1957 yilda Yevropa hamjamiyatlari tizimining tuzilishi Buyuk Britaniyaning Yevropa bozoridan ajralib qolishi bilan tahdid solardi. Bunga javoban 1980 yilda London Yevropa Erkin Savdo Assotsiatsiyasini tuzdi. 1960 yildagi Stokgolm ta‘sis shartnomasiga ko‘ra “erkin savdo mintaqasi” tashkil qilinib, uning doirasida bojxona ta‘riflarini bekor qilish ko‘zda tutilmagan edi, so‘z bor yo‘g‘i tovar (mahsulot) almashinishidagi diskriminatsion chegaralashni bekor qilish va dumping narxlaridan bosh tortish haqida borayotgan edi. Tez orada Britaniya diplomatiyasi mamlakatning Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyatiga qo‘shilishi masalani ham o‘rtaga tashladi.

Buyuk Britaniyaning Yevropa Hamjamiyatlarida ishtirok etishi maxsus xarakterga ega bo‘ldi. Bir tomondan, London YEIH doirasida o‘zining Buyuk Britaniyaning uchinchi dunyo mamlakatlari bilan integratsion aloqalarini tan olishga asoslangan maxsus mavqega ega bo‘lishini talab etardi. So‘z eng avvalo hamdo‘stlik, hamda YEAST a‘zolari haqida borayotgan edi. Ikkinchi tomondan Buyuk Britaniya o‘zining Yevropa masalasidagi manfaatlarini ko‘zlab AQSH bilan “maxsus munosabatlar”dan ham voz kechishni istamas edi. Muammoning aynan shu siyosiy jihati vaziyatni keskinlashtirdi. Yevropa hamjamiyatlariga Britaniya “troya oti”ning qabul qilinishining qat‘iy raqibi Fransiya prezidenti Sh. de Goll bo‘ldi. 1962 yildagi Makmillan bilan shaxsan uchrashgan paytida u ma‘lum qildiki, faqatgina Fransiya va Britaniyaning Yevropa yadro qurolini yaratish borasidagi hamkorligining boshlanishigina Buyuk Britaniyaning umumiy bozorga kirishiga asos bo‘la oladi. Britaniya diplomatiyasi “Atlantik hamjihatlik” siyosatini qo‘shilish rejalari yo‘lida qurbon qilishga tayyor emas edi. Bunga javoban Buyuk Britaniyaning YEIH (YEES)ga qo‘shilishi borasidagi har qanday muzokoralarga Fransiya veto huquqini qo‘lladi.

Makmillanning diplomatik mag‘lubiyati shu qadar xavfli ediki, u hukumatning iqtisodiy strategiyasi samaradorligini shubha ostida qoldirdi. Yangi tashqi bozorlarga qat‘iy kirib borish va tashqi iqtisodiy saldo va dunyo moliyaviy bozorida funt sterling holatini tubdan o‘zgartirishsiz Britaniya iqtisodiyoti o‘sish sur‘atlarining barqaror pasayishi va inflyatsiyaning davriy qo‘zg‘alib turishiga mahkum edi. 1963-1964 yillarda hukumatning ilgari “to‘xta harakat qil” siyosatiga qaytish esa yangi g‘oyalar va yechimlar yo‘qligini namoyish etardi, xolos. Partiya rahbariyatining reytingi tez tushayotgan edi. qaltis holat harbiy vazir Trefyumaning “porachayushiye” aloqalarda ayblanishidan yuzaga keldi.

Hukumat inqirozi Makmillanning qattiq kasal bo‘lib qolish vaqtiga mos keldi. Bunday vaziyatda u iste‘foga chiqishga qaror qildi. 1961 yilda Alek Dugles Xyum yangi bosh vazir bo‘ldi.

A.Duglos Xyumning bosh vazir lavozimiga kelishi Britaniya davlatchiligining huquqiy bazasidagi muhit o‘zgarishlar bilan boy bo‘ldi. Unga 1958 yildayoq Makmillan hukumati tomonidan o‘tkazilgan Lordlar palatasining isloh qilinishi asos bo‘ldi. O‘shanda umrining oxirigacha “per”lik haqidagi Akt qabul qilingan edi. Unga ko‘ra Toj (qirol) Lordlar palatasida o‘tirish va ovoz berish huquqini beruvchi perlikni bera olish imtiyoziga ega bo‘ldi. Bu amaliyot aslida 1856 yildagi voqea (pretsedent)ga muvofiq paydo bo‘lgan edi. Ammo uzoq muddat bir umrlik perlik lordlar palatasida o‘tirish “faxriy lavozimi” bilan emas, balki yerga egalik qilish bilan bog‘liq bo‘lgan unvon edi, xolos. 1958 yildagi Akt esa bir umrlik perlik institutni teng huquqligini tasdiqladi. Bu esa muhim siyosiy natijalarga ega bo‘ldi. Bunday unvonning berilishi shaxsiy xizmatlarning qadrlanishi deb qaralardi. Yuqori palata xizmat ko‘rsatgan siyosatchilar va mashhur jamoat arboblari hisobidan to‘ldirilardi. Shu bilan u o‘zining siyosiy qarashlariga muvofiq zamonaviylashayotgan, Britaniya jamiyati ko‘z oldida obro‘liroq bo‘layotgan edi.

Keyingi qadam 1963 yildagi perlar haqidagi Akt bo‘ldi - Makmillanning eng oxirgi tashabbuslaridan biri. Uning asosiy jihati shu ediki, unda merosiy per bo‘lganlarga o‘z ixtiyori bilan bu unvondan voz kechish huquqi berilishi ko‘zda tutilgan edi. Bunday qarorni amalga oshirishga shu narsa asos qilindiki, XX asrning boshidan obshina palatasidagi bosh vazirlikni

nomzodning majburiyligi joriy qilingan edi, chunki an'anaga ko'ra lord "obshinalar palatasiga aylanishi mumkin emas". 1963 yildagi perlik haqida Akt tufayli per bo'lgan tori partiyasining obro'li siyosatchilari eng oliy siyosiy lavozimga o'z nomzodlarini qo'yishlari mumkin edi. Lord Xeylikm va Lord Duglos-Xyum birinchilardan bo'lib bu huquqdan foydalanishdi. Perlik huquqidan voz kechganlaridan keyin ikki hafta o'tgach Duglos-Xyum bosh vazir lavozimini egalladi.

Ikki sobiq lord va boshqa partiya rahbarligiga da'vogarlarining bellashuvi torilar partiyasidagi ichki o'zgarishlar bilan bir vaqtda ro'y berayotgan edi. Konservativ partiyaning an'analarida hech qachon rahbarni demokratik yo'l bilan saylash ko'zda tutilmagan edi. Torilarning parlamentdagi fraksiyasi a'zosi E.Tremenning 1921 yilda aytgan iborasi juda mashhur bo'ldi: "partiyaning buyuk yetakchilari saylanmadi. Ular o'z-o'zidan tanlanadi. Menimcha, biz tantana bilan rahbarni saylash uchun to'plangan kunimiz ayanchli bo'ladi". Ammo 60-chi yillar boshlarida torilar partiyasi ancha o'zgardi. Siyosiy sahnadan uning "eski gvardiyasi"ning ketishi bilan partiya rahbariyati va uning parlamentdagi fraksiyasida jamiyatning o'rta qatlamdagi vakillari o'zlarini ko'proq namoyish eta boshlashdi.

1961 yilda ro'y bergan yangi bosh vazir nomzodligi borasidagi ichki partiyaviy bahs munozara konservativ partiyaning demokratiyalashuvida hal qiluvchi hodisa bo'ldi. Birinchi marta tori-parlamentariylar orasida eng maqbul va nomaqbul nomzodlar to'g'risida so'rov o'tkazildi. Parlament fraksiyasi va partiya faollari orasida Duglos-Xyumning nomzodini ko'pchilik quvvatlamadi. Ammo sobiq rahbar - Makmillanning fikri hal qiluvchi bo'ldi. Partiya ichidagi keskin bahs munozaralar rahbariyat mahkamasi obro'siga putur yetkazdi.

Konservativ partiyaning siyosiy inqirozi davlat strategiyasini ham chuqur o'zgartirish, isloh qilish zaruratini aniqladi. "O'zgarishlar shakli" siyosatining o'z vaqtida mosligiga qaramasdan uning Britaniya sanoati tuzilmasini isloh qilish, ijtimoiy infratuzilmani zamonaviylashtirish, mintaqaviy siyosat nuqtai nazaridan juda yuzaki ekanligi yaqqol bo'ldi. Britaniya iqtisodiyoti o'sish sur'atlari bo'yicha tobora ko'proq G'arb mamlakatlaridan orqada qolayotgan edi. 50-60 yillarda sanoat ishlab chiqarishining o'sishi Britaniya yiliga atigi 3%-ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich AQShda - 4 % ni, GFR va Italiyada 7,4 % dan, Paraugariyada - 6,2 %, Ispaniya va Gretsiyada - 7,5 %, Yaponiyada - 15,2 % ni ashkil etdi. G'arbning yetakchi mamlakatlari ichida Buyuk Britaniya ta'lim darajasining eng past ko'rsatkichini ham saqlab turardi. Mehnat bozorida ortiqcha palatasi past bo'lgan ishchi xodimlar mavjud edi. Ixtisosliklar, mutaxassisliklar va sohalar bo'yicha ishchi kuchga bo'lgan talab va taklifning mos kelmasligi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida hududiy nomutanosiblikni yanada kuchaytirardi.

60-yillarda Britaniya jamiyatiga yangi psixologik muammolarni his etishga to'g'ri keldi. Bu muammolar asosan mustamlakachilik imperiyasining parchalanishi bilan bog'liq edi. Mustamlakachilikni bekor qilishning o'zi ko'pgina inglizlar tomonidan hatto ijobiy qabul qilindi. "Oq tanli odam og'irligi" tobora yuqoriroq darajadagi og'ir yuk hisoblanardi. Inglizlarni hayajonga soluvchi narsa ko'proq vatanning xalqaro obro'sining tushishi, buyuk mamlakat mavqeini boy berishi edi. O'sish sur'atlarining pasayishi, G'arb yetakchi mamlakatlarining ikkinchi qatoriga tushib qolishi ham shunday qabul qilindi. Yaqindagi raqib bo'lgan mamlakatlar - Germaniya, Yaponiya, Italiyalarning muvaffaqiyati alamli edi. Britaniya hukumati milliy faravonligining asosiy mezonini sifatida erishilgan talab (ehtiyoj) darajasini qabul qilish bilan endi qoniqmas edi. Bu javobgarlik konservatorlar bo'ynida edi. Ularni "bekorga sarflangan o'n uch yil"da ayblayotgan leyboristlar da'vat (chaqiriq)ni qabul qilishlari kerak edi.

3. BUYUK BRITANIYA 60-70 YILLARDA. “TEXNOKRATIK DAVR” (“Texnokratiya erasi”).

Gorold Vilsonning texnokratik inqilobi.

Leyboristlar muxolifotda bo'lgan davrda leyborizmning g'oyaviy asosini tubdan yangilashga urinishlar ularga xos bo'ldi. Bu jarayonni keskin fraksiyalararo kurashlar murakkablashtirdi. 1951 yildagi saylovdagi mag'lubiyatdan keyin sal o'tmasdan leyboristlar yetakchisi K.Ettli va partiya raisi G.Laski o'rtasida kelishmovchilik yuzaga keldi. Laski partiyaning ichki hayotini demokratiyalashtirish, yagona markaz tamoyilidan voz kechishni ta'kidlardi. Ettli esa qat'iy ravishda yetakchining daxlsiz huquqlarga ega bo'lishi kerakligi tarafdori edi. Uning bu fikrini 1955 yilda partiya yetakchisi lavozimiga saylangan Xyu Geytskell ma'qulladi. Yangi rahbar “jamoaviy partiya” (ijroiya qo'mitasi va partiyaning “quyi” tashkilotlari) faollarining “parlamentar partiya” (parlament quyi palatasidagi leyboristlar deputatlar)ga (nisbatan) o'z ta'sirini o'tkazishga bo'lgan har qanday o'rinishlarni qat'iy bartaraf etardi.

X.Geytskell leyboristik doktrinani yangilashning tashabbuskori bo'lib, partiyaning o'ng qanoti vakili edi. 1950-1951 yillardagi muvaffaqiyatsiz saylov kompaniyalari davrida boshlangan bahs-munozaralarning birinchi davri 1952 yilda “yangi fabian ocherklar” nomli maqolalar to'plashining nashr qilinishi bilan yakunlandi. Uning mualliflari sotsial-demokratik islohotchilik an'analariidan “faravon davlat” zamonaviy modelini shakllantirishga qaratilgan umummilliy siyosatga o'tishga da'vat qilishardi. Geytskell leyboristlarning urushdan keyingi dasturi asosiy tezisi, ya'ni iqtisodiyotning qudratli davlat sektorini yaratish maqbulligini ham qayta ko'rib chiqishga urindi. Uning fikricha bozor muhitiga o'zining tabiiy raqobat qonunlari bilan birga davlatning faol kirib borishi samaraliroq bo'lardi.

Leyboristlar partiyasining so'l qanoti 50-yillarda odatiy bo'lmagan “konservatorlar” roliga bo'lishdi. Uning yetakchisi E.Biven ishchilar harakatining klassik tamoyillarini saqlab qolish tarafdori edi. Leyboristik partiyaning konsolidatsiyasida 1957 yildagi konferensiya muhim qadam bo'ldi. Uning davomida X.Geytskell va E.Biven guruhlar partiya doktrinasining barcha prinsipial masalalari bo'yicha yagona mavqega kelishga muvaffaq bo'lishdi. So'l tomonga yon bosish iqtisodiyotning rejaviy asoslarni kuchaytirishning muhimligini, boshqaruvchilar (menejerlar) faoliyati ustidan “demokratik nazorat” o'rnatishni, soliq siyosat va ijtimoiy siyosat yordamida daromad va mulk sohasidagi tengsizlikni asta-sekin kamaytirish muhimligini tan olishdan iborat bo'ldi.

1959 yil saylovlaridagi mag'lubiyatdan so'ng leyboristlar partiyasida bahs-munozaralar yanada kuchaydi. 1960 yilda Skarboroda bo'lib o'tgan partiya konferensiyasi partiyaning eng muhim xujjati “Vexi 60-x gg”ning qabul qilinishi bilan yakunlandi. Uning mualliflariga institutsionalizm nazariyasining ta'siri yaqqol edi. Bu yo'nalish namoyandalari ITI (ilmiy texnikaviy inqilob) davrini sanoat tizimining ekspluatatsion mohiyatining kamayishi va ijtimoiy taraqqiyotning texnokratik modelining shakllanishi, “ijtimoiy nazorat”ning faollashuvi, jamiyatning markazlashtiruvchi institutlari mavqeining oshishi bilan bog'liq bo'lgan sanoat tizimining yangi sifat darajasi deb qarashardi.

1962 yildagi X.Geytskellning vafoti partiya rahbariyatidagi kurashni keskinlashtirdi. Rahbar lavozimiga Jorj Braun da'vogarlik qilardi. U leyborist parlamentlari orasida mustahkam mavqega ega bo'lgan va “parlament partiya”ning timsoli bo'lgan o'ng qanot vakili edi. So'l markazlashgan doiralar Jeyms Kallagenni qo'llab-quvvatlashga moil edilar. U leyborizmning klassik tamoyillari tarafdori emas edi, ammo “jamoaviy partiya” va kasabab uyushmalari harakati bilan bo'lgan aloqalari tufayli so'llarga maqbul edi. “Sentrist” (markazni qo'llab-quvvatlovchi) Baralu Vilsonni esa, “o'nglar” va “so'llar”ning mafkuraviy munozaralarida o'tmishni qadrlashni ko'ruvchi va keyinchalik texnokratik, mafkuradan xoli etilgan dasturlarning ishlab chiqilishiga umid bog'lagan siyosatchilar qo'llab-quvvatlashdi. “yangi fabianchilar”ning texnokratik g'oyalari bilan bog'liq yo'nalishni tanlagani va eng yangi siyosiy texnologiyalar Vilsonga 1963 yildagi partiya ichidagi saylovlarda ishonchli g'alaba erishishga imkon berishdi.

1963 yilda bo‘lib o‘tgan leyboristik partiya konferensiyasi “leyboristlar va fan inqilobi” nomli dasturnomani qabul qildi. Uning asosiy jihatlarini asoslash maqsadida so‘zga chiqqan Vilson ta’kidladi: “Bu konferensiyada o‘zimizning kelgusidagi barcha rejalarimizda biz fan inqilobi sharoiti va talablariga mos ravishda sotsializmni qanday tushunishimizni qayta aniqlaymiz va konkretlashtiramiz. Vilson fanni iqtisodiy rejalashtirish bilan birlashtirish” tarafdori edi. U buni nafaqat Britaniya iqtisodiyotini sog‘lomlashtirish garovi, balki sotsializmning haqiqiy ideallari tantanasiga eltuvchi eng to‘g‘ri yo‘l deb hisoblardi.

1964 yildagi parlament saylovlari arafasida leyboristlarning “texnokratik inqilob”ning asosiy g‘oyalarini birlashtiruvchi dasturiy manifesti e‘lon qilingan edi. Unda davlat “sanoatning ikkala tomoni” (tadbirkorlar va treu-yunionlar) bilan hamkorlikda moddiy resurslarni jamlash va to‘g‘ri qayta taqsimlashga qodir bo‘lgan fan-texnika inqilobini asosiy yurituvchi kuch sifatida tasvirlangan Britaniya sanoatini har tomonlama zamonaviylashtirish, moliya-budjet tizimini kuchaytirish zarurati ta’kidlandi. Mafkuraviy konsepsiyaning yangi jihati yollanma ishchilarning ishlab chiqarishni boshqarish va daromadni taqsimlashdi “qatnashuvi” muammosini atroflicha tahlil qilishdan iborat bo‘ldi. Bu “texnokratik” saylov kompaniyasida ommaviy axborot vositalaridan unumli foydalanildi.

15 oktabr 1964 yildagi saylov paytida ovozlar yetakchi partiyalar o‘rtasida teng bo‘lindi. Leyboristlar ovozlarning 44 % ini, konservatorlar 43 % ini olishdi. Ammo majoritar (ko‘pchilikni qo‘llashga qaratilgan) saylov tizimining o‘ziga xosligi tufayli leyboristlarning sal ko‘proq ovozga ega bo‘lishi “ko‘pchilikdan iborat hukumat” tuzish uchun yetarli bo‘ldi. Ularning parlamentdagi fraksiyasi bundan buyon 3,7 deputatdan iborat bo‘ldi, konservator esa atigi 30 %, liberallar - 9 mandatga ega bo‘lishdi.

Hukumat asosini Ettli mahkamasida eng muhim lavozimlarni egallagan leyboristik partiyaning eski a‘zolari tashkil qilishdi. Ammo partiyaning siyosiy qiyofasi ancha o‘zgardi. Vilson hadeb hukumat iqtisodiy taraqqiyot masalalari bilan shug‘ullamoqchi “real siyosat” yuritmoqchi ekanligini ta’kidlardi. U tobora ko‘proq leyboristlarga xos bo‘lgan sotsialistik iboralardan voz kechib “mafkura tugashi erasi”ni e‘lon qildi.

Vilson hukumati duch kelgan eng murakkab muammo to‘lov balansidagi turg‘un tanqislik va o‘sib borayotgan inflyatsiya jarayonlari edi. “To‘xta harakat qil” sxemasi bo‘yicha rag‘batlantiruvchi va cheklab qo‘yuvchi siyosatning almashib kelishi tobora kamroq samara berardi. Obyektiv tarzda keyinchalik tutiladigan ikkita yo‘l bor edi: milliy valyutani devalvatsiya qilish bilan bog‘liq bo‘lgan siyosat va tadbirkorlik faoliyati va pul almashishi ko‘lamlarini cheklashga asoslangan qat’iy deflyatsion siyosat. Avvaliga Vilson hukumati ikkinchi variantni qabul qildi.

Deflyatsion siyosat doirasida 1964 yil noyabrida moliya vazirligi sug‘urta va benzinga bojxona to‘lovlarini oshirishni ko‘zda tutuvchi “krizis budjeti”ni taqdim etdi. 1965 yilning bahorida foyda solig‘ini oshirish rejalashtirilayotgandi. Korparatsiya tipidagi korxonalarga katta soliqlar solindi. 1964 yil dekabrda hukumat treu-yunion va tadbirkorlik doiralar vakillari tomonidan imzolangan samaradorlik, narx va foydani rejalashtirishga ko‘ra qo‘shma qaror qabul qilindi. Oylik maoshning tez ko‘tarilishiga bog‘liq bo‘lgan turli norozilik namoyishlari va boshqa xatti-harakatdan voz kechishdi. Tadbirkorlar oylik maoshni kerakli darajada saqlab turish javobgarligini o‘z zimmlariga olishdi va asossiz ravishda mahsulot narxini ko‘tarishni rad etishardi. Oylik maoshning yillik o‘sishining chegarasi 3,5%, narxlar o‘sishi chegarasi esa 4 % deb belgilandi. Avvaliga daromad va narxlar o‘sishini cheklash tizimida tred-yunion va tadbirkorlarning qatnashuvi ko‘ngilli xarakterga ega bo‘ldi.

Inflyatsiyani to‘xtatish va muvozanatlashtirilgan to‘lov balansini ta’minlash vazifasi faqatgina davlat budjetining xarajat qismini qisqartirganda samarali hal etilishi mumkin edi. Ammo leyboristlarga o‘zlarining “barqaror” saylovchilari kayfiyatini hisobga olish va hali unchalik mustahkam bo‘lmagan siyosiy afzallikni kuchaytirish haqida g‘amxo‘rlik qilishga to‘g‘ri keldi. Bunday sharoitda Vilson hukumati nafaqat budjet xarajatlarni qisqartirishga botina olmadi, balki ijtimoiy siyosatning ko‘pgina yo‘nalishlarini ham faollashtirdi. 1964 yilning oxiridayoq nafaqalar oshirildi va tibbiy retseptlarga qo‘yilgan soliq bekor qilindi. Uy-joy

qurilishi vazirligi ijara to'lovi to'g'risidagi qonun loyihasini tayyorladiki. U kvartira oluvchilarning imtiyozlari ko'lamini oshirdi. Shahar uy-joy qurilishi keng miqyosda boshlab yuborildi. 1965 yil budjetida ijtimoiy ta'minotdagi nafaqalarining summasini doimiy ravishda oshirib turish ko'zda tutilgan edi.

Deflyatsion siyosat va faol hamda ijtimoiy mo'ljallangan budjet elementlarining qarama-qarshi birlashmasi to'lov tanqisligining yangidan keskinlashuvi bilan tahdid solardi. Vilson iqtisodiy o'sishning jadallashuvi va iqtisodiyotda rejaviy asoslarni yanada mustahkamlash bu xavfni bartaraf qilishga umid qilardi. Iqtisodiy rivojlanish bo'yicha Milliy kengash tuzildi. 1965 yilgacha u besh yillik "Milliy iqtisodiy rejani" tuzib bo'ldi. Ilk bor bunday xujjat qonuniy kuchga kirdi. Unda ishlab chiqarishning yillik 4-5%ga o'sishi ko'zda tutilgan edi. Ishsizlikning past ko'rsatkichlarini saqlab qolishga katta e'tibor berilardi. Hukumat ishbilarmonlarning ishlab-chiqarish texnik-texnologik bazasini yangilashlarini rag'batlantirish uchun amartizatsion imtiyozlarni qo'llashni nazarda tutgan edi. Bandlikni ta'minlash uchun maxsus tanlanma soliq turi ham joriy qilingan edi. Uni barcha ish beruvchi tashkilotlar to'lardi, ammo istiqbolli sohalarda u qaytarilardi. Bu esa mohiyatan investitsion vositalarning qayta taqsimlanishini bildirardi.

Hukumat faolligi butun 1965 yil davomida qulay investitsion sharoitni saqlab qolish va asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilashga imkon berdi. Bunday sharoitda 1966 yil 28 fevralda Vilson o'z huquqidan foydalanib qirolichadan parlamentni tarqatib yuborish va yangi saylovlarni o'tkazishni belgilashni so'radi. Buning uchun nihoyatda qulay vaziyat tanlangan edi. Saylovlar 31-martda o'tkazildi. Saylovchilarga kasbiy mahorat va ishbilarmonlik ustivorligiga asoslangan hukumat qiyofasi ta'sir ko'rsatdi. Leyboristlarning "hal etishlar vaqti" nomli manifesti iqtisodiy o'sishni oshirish, rejalashtirishni ratsionallashtirish, transport infratuzilmasi va uy-joy fondi, ta'lim tizimi hamda sog'liqni saqlash sohalarini rivojlantirish bo'yicha hukumatning harakatlari yanada kuchaytirilishini va'da qilardi. Konservatorlar partiyasi esa chuqur tashkiliy va mafkuraviy qayta qurish davrini boshidan kechirayotgan edi. Saylovda leyboristlarni saylovchilarning 48,1%i (364 mandat), konservatorlarni -41,9%i (253 mandat), liberallarni-8,5%i (12 mandat) qo'llab-quvvatlashdi.

60-yillarning oxiriga kelib qo'lga kiritilgan moliyaviy barqarorlik yana xavf ostida qoldi. Buning sababi passiv savdo saldosi tashqari turg'un inflyatsiya bo'ldi. G'arbning boshqa mamlakatlaridagidek, Buyuk Britaniyada ham tartibga solishning Keynscha usuli, ya'ni budjet tanqisligiga asoslangan siyosat, ortiqcha kredit pullarini hosil qilish (aholining real daromadlaridan ko'p bo'lgan kreditni rivojlantirish) yo'li bilan butun talab va taklifni qo'llab-quvvatlash usulining salbiy oqibatlari namoyon bo'la boshladi. Faol budjet siyosati surunkali budjet tanqisligiga olib keldi. Yevropa mamlakatlari ichida faqat Shvetsiya budjetning ijobiy saldosi turg'un saqlashga erishayotgan edi. Ammo Buyuk Briatniyada bu ko'rsatkich xatarli qiymatga yaqinlashayotgan edi.

Vilson hukumati har qanday yo'llar bilan inflyatsiyaning oldini olish va funt sterling kursining pasayishiga yo'l qo'ymaslikka urinardi. 1966 yilning ikkinchi yarmi davomida mutaxassisliklar tomonidan "Buyuk Britaniyada 1949 yildan beri o'tkazilgan eng qattiq deflyatsiya" deb baholangan bir qator choralar amalga oshirildi. Ijara haqi, avtomobillar narxi (40%ga) va spirtli ichimliklar, neft va benzinga ikkinchi soliqlar, pochta xizmati narxi (10% ga) oshirildi. Sanoatning milliyashtirilgan sohalariga investitsiyalar kamaytirildi. Xalqaro valyuta operatsiyalari qattiqashtirildi. Hamdo'stlik mamlakatlaridagi harbiy va fuqarolik xarajatlari kamaytirildi. 1967 yilda Ingliy Bankining hisob qo'yilmalarini oshirish joriy qilindi ("qimmat kredit" siyosati), oylik maosh va narxlarni oshirishda yangi cheklashlar joriy qilindi (ular ixtiyoriy bo'lmay qoldi), ko'pgina budjet to'lovlari qisqartirildi, kechiktirilgan to'lov orqali sotib olishdi va kapitalni chetga olib chiqishga bir qator cheklashlar joriy qilindi. qattiq deflyatsion siyosat o'tkazilishidan tashqari hukumat eksportni faollashtirish orqali mamlakatning to'lov balansini yaxshilashga urinardi. Bunda Buyuk Britaniyaning Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyatlari "Umumiy bozori"ga qo'shilishi hal qiluvchi rol o'ynashi mumkin edi. 1967 yilning may oyida hukumat Daniya va Norvegiya bilan birgalikda Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyatiga a'zo bo'lish

haqidagi arizani tayyorladi. Ammo Fransiya yana murosasiz pozitsiyani egalladi va 1967 yil noyabrida Buyuk Britaniyaga bu ariza rad etilgani haqida rasman xabar berildi. YEIHga qo'shilishga yana bir harakatning behuda ketishi xalqaro vaziyatning keskinlashuvi vaqtiga to'g'ri kelgan edi. 1967 yil iyunidagi Isroil va Misrning "Olti kunlik urushi" jahon bozorining barqarorligini buzdi. Arab mamlakatlari tomonidan bir necha oy davomida Buyuk Britaniya neft eksport qilishga embargo joriy qilingan edi. Suvaysh kanalining yopilishi (Buyuk Britaniya uchun) va London hamda Liverpool shaharlaridagi dokerlar qo'zg'oloni ham Britaniya tashqi savdosiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bunday vaziyatda Vilson hukumati milliy valyutani devalvatsiya qilishga majbur bo'ldi.

1967 yil 18 noyabrida funt sterling kursining 14,3%ga pasayganligi haqida e'lon qilindi. Keyingi bir yarim yil davomida bu qadam "sterling mintaqasidagi" 25 ta mamlakatda zanjir reaksiyasini va valyuta inqirozini keltirib chiqardi. 1969 yilda esa Fransuz frankining devalvatsiyasi "frank mintaqasiga" kiruvchi 14 ta Afrika mamlakatlarda milliy valyuta kurslarining pasayishiga olib keldi. 1971 yilda esa AQSH ma'muriyati rasmiy kurs bo'yicha dollarni oltinga almashtirishni vaqtinchalik to'xtatib qo'yilishi haqida e'lon qildi. Milliy valyuta kursini egiluvchan (elastik) sharoitida o'zgarishi amaliyoti keng tarqalayotgan edi. qat'iy valyutaga nisbatan biriktirilgan kurslarga asoslangan Bretton-vud moliyaviy tizimi tarixi o'z nihoyasiga yetmoqda edi.

Jahon moliyaviy-valyuta bozorining tubdan yangilanishi sharoitida qayta ishlab chiqarish omillari, milliy iqtisodiy tizimlarning real salohiyati hal qiluvchi mavqega ega bo'layotgan edi. Britaniya hukumati mutaxassislari valyutaning pasaytirilgan kursining ishlab chiqarishga qattiq ta'sir qilishini bashorat qilishdi. Britaniya mahsulotlari tonnarxining pasayishi mos ravishda eksport ko'lamining oshishi va importning arzonlashuviga olib kelishi kerak edi. Ammo inflyatsiyaga qarshi siyosatning ijobiy salohiyatini ishlatish Britaniya sanoati zahiralarning tez o'sishi, uning raqobatbardoshligiga bog'liq edi. Hukumat ixtiyorida qo'shimcha investitsion vositalarning yo'qligi tashqi qarzlarni so'rash uchun murojaat qilish, eng avvalo Xalqaro valyuta fondiga murojaat qilishga majbur qilardi.

XVF kredit ajratib Britaniya hukumati oldiga bir qator barqarorlashtiruvchi choralarni amalga oshirish shartini qo'ydi. Hukumat ishlab chiqarishdan boshqa sohalarga budjet to'lovlarini qisqartirishi, milliy valyutaning kelgusidagi keskin tebranishlariga yo'l qo'ymasligi, kreditni qat'iy talablar asosida ajratishi va kechiktirilgan to'lovni sotib olishdagi cheklashlarni saqlab qolishi kerak edi. Shu bilan bir vaqtda hukumat qo'shimcha moliyaviy manbalarni izlashga harakat qilayotgan edi. 1968 yilda tibbiyot retsptlarga soliq joriy qilindi, pochta xizmatlariga soliqlar oshirildi, uy-joy qurilishi bo'yicha rejalar qisqartirildi. Maktablarda bepul sut berish bekor qilindi. 1969 yil budjeti doirasida benzin, sigareta, viski, haydovchilik guvohnomasi, ish bilan ta'minlash korporatsiyalariga soliqni oshirish rejalashtirilayotgan edi.

Iste'molchilarga soliqlar bilan tazyiq o'tkazish ishlab chiqaruvchilarga nisbatan rag'batlantiruvchi siyosat yuritish bilan birgalikda olib borilayotgan edi. Fanni talab qiluvchi sohalarning rivojlanishini hukumat qirolik mukofotlari tizimi orqali rag'batlantirardi. Ishchi xodimlarning malakasini oshirish va menejmentning eng yangi shakllarini joriy qilish maqsadida kadrlar tayyorlash bo'yicha kengashlar ta'sis etildi. Bu kengashlar eng avvalo yo'l transporti, mehmonxonalarga xizmat ko'rsatish, fuqarolik aviatsiyasi, benzin quyish biznesi sohalarida ishlay boshlashdi. Hukumat nisbatan past foyda solig'ini saqlab turardi. Moliyaviy va siyosiy jihatdan eng avvalo dunyo bozorida raqobatga dosh bera oluvchi eng yirik Britaniya kompaniyalari qo'llab-quvvatlandi. Yirik ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashning radikal usuli davlat tomonidan katta mablag'lar qo'yish bilan amalga oshirilayotgan milliyalashtirishdan iborat bo'ldi. 1967 yilda davlat tomonidan eng yirik metallurgiya monopoliyasi hisoblangan "British Stil Korporeyshn" tuzildi va uning himoyasi ostida butun po'lat quyish sanoati milliyalashtirildi. Ammo hukumat xususiy bank va sanoat kapitali quyilishini qo'llab-quvvatlashni ishonchliroq hisoblardi. 1969 yilda G'arbiy Yevropadagi eng yirik 20 ta xususiy kompaniyalarning 8 tasi Buyuk Britaniyada edi.

Vilson hukumatining iqtisodiy siyosatini o'z mohiyatiga ko'ra mahorat bilan va o'z vaqtida amalga oshirilgan deb hisoblash mumkin. Mamlakat to'lov balansi yaxshilanib boshladi va 1970-1971 yilga kelib Britaniya budjeti ko'p yillar davomida ilk bor ijobiy saldogga ega bo'ldi. 1968 yilda bosh vazir kutilayotgan iqtisodiy mo'jiza to'g'risida jo'shqinlik bilan nutq so'zladi. Ammo uning bashoratlari ancha bo'rttirilgan edi. Buyuk Britaniya ilgorigidek G'arbning yetakchi mamlakatlaridan Yalpi Ichki Mahsulotning (YAIM) o'rtacha yillik o'sishi bo'yicha ortda qolardi Jahon sanoat ishlab chiqarishida ham uning ulushi pasayib yetdi. Bundan tashqari, Vilson hukumatining iqtisodiy jihatdan oqlanmagan qattiqligi mamlakatda o'sib borayotgan ijtimoiy norozilikka sabab bo'ldi.

Eng katta norozilikni aholining aynan leyboristlarining saylovchilaridan iborat qatlami - yollanma ishchi va xizmatchilar tashkil etdi. Agar 1963 yilda 2081 norozilik harakati bo'lib unda 533 ming kishi qatnashgan bo'lsa, 1966 yilda 1951 norozilik harakatida 22398 ming kishi, 1969 yilda esa -3146 norozilik harakatida 1665 ming kishi qatnashdi. Kasaba uyushmalari rahbariyatida eng radikal qanot faollashgan edi. Bundan tashqari hukumat ommaviy axborot vositalaridan uslubiy jihatdan chegara bilmas tanqidlarga ham duch keldi. Jamoatchilikning salbiy fikrini bartaraf etish uchun Vilson hukumati dolzarb ijtimoiy muammolarni yechish uchun bir qator choralarni ko'rdi. 1965 yilda har qanday irq vakillariga maishiy xizmat va transport sohalarida ishga yollanishga ruxsat beruvchi irqga mansublik to'g'risidagi Akt (Xujjat) qabul qilindi. Irqiy kamsitishlar bo'yicha imkoniyatlarni ko'rib chiqish uchun irqiy mansublik bo'yicha Kengash ta'sis etildi. 1968 yilda immigratsion (muhojirlik) qonunchilikda ishga joylashish va uy-joyga ega bo'lish sohasida kamsitishga yo'l qo'yimaslikka qaratilgan o'zgartirishlar kiritildi.

Hukumat ayollar emansipatsiyasi (xotin-qizlarni erkinlikka chiqarish) jarayonini tezlashtirishga harakat qilayotgan edi. 60-yillar oxirida ajralishlar haqida Akt qabul qilindi. Bu aktning qabul qilinishi ajralishlar sonining keskin ko'payishiga olib keldi. 1967 yilda oilani rejalashtirish davlat xizmati ish boshladi va konsepsiyani targ'ib qilish bilan shug'ullandi. O'shandayoq abort haqidagi Akt ham qabul qilindi. Unga ko'ra, klinikalar ayol sog'ligi xavf ostida qolgan bo'lsa, yoki mayib-majruhlara bola tug'ilishi ehtimoli bor bo'lsa, abort qilish uchun barcha zarur bo'lgan vositalar ta'minlashlari kerak edi. 1967 yilning iyulida besoqolbozlik (gomoseksual) aloqalarni qonuniylashtiruvchi qonun nashr qilindi.

1969 yilda hukumat parlament orqali xalq vakilchiligi to'g'risidagi Bill (AQShda Angliya va uning sobiq dominionlaridagi qonun loyihasi)ni o'tkazdi. Unga ko'ra saylanish huquqiga ega bo'lish yoshi 18 yoshgacha pasaytirildi. Bu tadbir leyboristlar hukumatining yoshlar siyosati sohasidagi dasturining tarkibiy qismi edi. Hukumat maktab ta'lim tizimida ham radikal yangilashni amalga oshirildi. Davlat maktablari "umumta'lim" maktablariga aylantirildi. Bu maktablarda esa o'qitish dasturi va mazmuni umumiyashtirilishi kerak edi. Ta'lim xizmatlari sohasida xususiy sektor kattagina davlat qo'llab-quvvatlashidan mahrum bo'ldi. 1969 yilda Buyuk Briatniya tarixida birinchi marta narkotiklarni iste'mol qilishga qarshi qonun qabul qilindi.

60-yillar oxirida Vilson hukumati duch kelgan ko'pgina ijtimoiy muammolar faqatgina Britaniyaga xos emas edi. Bu davrda ko'pgina G'arb mamlakatlarda talabalik va urushga qarshi harakatlarning keskinlashuvi, avlodlar o'rtasidagi kelishmovchiliklarning kuchayishi muqobil yoshlar madaniyatining yuzaga kelishi milliy va irqiy muammolarning murakkablashuvi, shahvoniy inqilob va feshinizm (burjua tuzumi sharoitida ayollarning erkak bilan teng huquqli bo'lishi uchun kurashuvchi xotin-qizlar harakati)ning rivojlanishi kuzatilayotgan edi.

Olsterdagi diniy-siyosiy to'qnashuvlar 60-yillar oxirida Buyuk Britaniyada ijtimoiy-ruhiy ahvolning keskinlashganini ko'rsatuvchi ramzi bo'lib qoldi. 1919-1921 yillardagi to'ntarishdan so'ng mustaqil Irlandiya respublikasi va Birlashgan qirollik tarkibida 6 ta shimoliy Irlandiya grafliklari muhtoriyatga erishishdi. Shundan keyin Olsterda ahvol ancha yil davomida tinch edi. Yagona Irlandiya davlatining birlashuvi to'g'risidagi moddani o'z ichiga olgan Irlandiya respublikasi konstitutsiyasining 1937 yilda qabul qilinishi va 1949 yilda Irlandiyaning Hamdo'stlik tarkibidan chiqishi London va Dublin o'rtasidagi o'zaro manfaatli muloqotga to'sqinlik qilardi. Ammo 50-yillarda Irlandiya respublikasida va Shimoliy Irlandiya grafliklarida

mo'tadil siyosiy kuchlar ko'pchilikni tashkil etardi. Shimoliy Irlandiya parlamenti (starmont)da mintaqaning yagona Britaniya davlatiga mustahkamroq birlashishiga bo'lgan ko'pchilikni tashkil etgan protestantlarning intilishlarini ifoda etuvchi Olsterning Yunionistlar partiyasi yetakchilik qilardi. 1969 yilgacha Shimoliy Irlandiya mintaqaviy hukumati deyarli to'liq protestantlardan iborat edi.

1967 yilda katolikchilik harakati faollari Shimoliy Irlandiya fuqarolik huquqlari uchun kurashish asotsiatsiyasini tuzdilar. Bu tashkilot katoliklar va protestantlar uchun fuqarolik teng huquqlilikni talab etardi. 1968 yil kuzida Shimoliy Irlandiya ichki ishlar vazirining ta'qiqlashlariga qaramasdan, assotsiatsiya katolik aholi huquqlarini himoya qilish shiorlari ostida bir qator norozilik mitinglari o'tkazdi. Namoyishlar ko'pincha politsiya bilan to'qnashuvlar bilan yakun topardi. Bu voqealar 1969 yildagi Shimoliy Irlandiya hukumati inqirozini keltirib chiqardi. Uning tarkibida eng radikal protestant guruhlar, jumladan, 1795 yildayoq tuzilgan "oranjestlar ordeni" vakillarining mavqei kuchaydi. Olster qirollik politsiyasi va protestantlar tomonidan boshqariladigan maxsus "Bi-speshialz" (V-Specials) aksulterror bo'linmalar asta-sekin diskriminatsion konfessual siyosat quroliga aylanayotgan edi. Bunga javoban ekstremistik katolik guruhlar faoliyati kuchaydi. Siyosiy sahnaga yana IRA chiqdi. Uning radikal qismi ("IRAning vaqtinchalik qanoti") terroristik kurash yo'llarini qo'llardi.

Konfessiyalararo to'qnashuvlar 1968 yilga kelib tez-tez ro'y beradigan bo'ldi. Bularning onageyi Londonderridagi hodisa bo'ldi. Unda protestantlarning oktabr oyidagi tinch namoyishi tarqatib yuborilgan edi. To'qnashuvlarda 77 kishiga zarar yetkazildi. 1969 yil 3 avgustda ekstremist-protestantlar Belfasda ig'vo (provakatsiya) qilib qurolli tartibsizliklarni uyushtirdilar. Bunga o'xshash hodisalarga yo'l qo'ymaslik uchun London hukumati 1969 yil avgustida Shimoliy Irlandiya hududiga muntazam armiya qismlarini kiritdi. Mahalliy politsiya qurolsizlantirildi va uning joyiga huquqni nazorat qilish vazifasini olgan Olster Mudofaa Polki tashkil qilindi. Ammo zo'ravonlikning oshishini to'xtatib qolishga erishilmadi. Asta-sekin ingliz qo'shinlari katoliklar va protestantlarning to'qnashuvlariga aralashadigan bo'ldi. Shimoliy Irlandiya fuqarolik urushi yoqasiga kelib qolgandi. Saylovchilarning ishonch votumiga tayanishga urinib, Vilson hukumati yangi parlament saylovlari o'tkazishga qaror qildi. Bu saylovlar 1970 yil 18 iyunda bo'lib o'tdi. So'nggi uch yil davomida o'tkazilgan siyosatning ikki yuzlama natijalari Vilsonni ilgari saylov strategiyasidan voz kechish va kompaniyani shaxsiy impravizatsiyasi (tayyorgarliksiz) asosida o'tkazishga majbur qilishdi. Partiya tashviqoti ilgari qat'iylik va pragmatiklikni yo'qotib qo'ygan edi. Leyboristlar rahbariyatining sustkashligini ijtimoiy so'rovlarning ijobiy natijalari ham tasdiqlardi. Partiya elektorati saylovi ham kutilmagan natija berdi: konservatorlar 46,4%, leyboristlar esa 42,9% ovozga ega bo'lishdi. Bu muvaffaqiyat tufayli konservatorlar partiyasi parlamentning quyi palatasida yana qo'shimcha 43 mandatga ega bo'ldi (jami 330 o'rin). Leyboristlarga 287, liberallarga 6 ta mandat qoldi.

Buyuk Britaniya 70-yillar boshida E.Xitning "yangi konservatizmi".

Konservatorlar partiyasi muxolifatda bo'lgan davrida uning mafkuraviy doktrinasini va tashkiliy tuzilishi tubdan o'zgardi. Bu yo'nalishdagi birinchi qadam partiya rahbarini saylash huquqi partiya parlamentdagi fraksiyasi deputatlariga birlashtirilishi bo'ldi. Bunday saylovlar ilk bor 1965 yilda bo'lib o'tdi. Asosiy kurash uch nomzod o'rtasida bo'lib o'tdi - Edvard Xit, Redjinald Modling va Enok Pauell. Har uchala siyosatchi ham 50-yillarning boshida "Yagona millat" nomli partiya orasidagi guruhni tuzish bilan o'zlarini namoyon qilgan konservatorlar yangi avlodi vakillari hisoblanar edilar.

"Yagona Millat" guruhi "orqa kursichilar"-torilar safidan chiqqan yosh intellektual (bilimdon)larning o'ziga xos bahs klubidan iborat edi. Uning yetakchilari - A.Mod, K.Elport, E.Xit, E.Pauell, Y.Makleod, keyinchalik R.Modling - "yangi konservatizm" g'oyalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishni qo'llab-quvvatlar va Makmillan hamda Batlarning "eski gvardiya"ga yaqinlashishini ma'qullamas edilar. Guruh nomi Angliyada burjuaziya-aristokratiyani ishchilar sinfiga qarama-qarshi qo'yishdan butunlay voz kechishga chaqirishni ifoda etardi. Yosh konservatorlarning yangi avlodi mehnat va kapitalning muloqotini emas,

balki, umummilliy siyosat yurgizish, maqsadi va g'oyalari yagona bo'lgan jamiyatni shakllantirish tarafdorlari edilar.

“Yagona millat” guruhi konsepsiyasida asosiy rolni “mulkdorlarning demokratiyalashuvi” g'oyasi egallardi. Davlat va xususiy sektorning birgalikda mavjudligi shartligini tan olgan holda uning tarafdorlari bozor tamoyillariga asoslangan iqtisodiyotning aralash modelini rivojlantirish uchun kurashib, texnokratik g'oyalarga qat'iy qarshi chiqardilar. Iqtisodiyotni boshqarish, ularning nazarida jamiyatni boshqarish kabi xavfli bo'lishi mumkin edi. “Yangi konservatorlar” iqtisodiy jarayonlarni boshqaruvchi ma'muriyat saflarini qisqartirish va markazlashgan rejalashtirishdan iste'molchilar talabining o'zgarishiga elastik (egiluvchan) moslashuvni tashkil etish tarafdori edilar. Davlat iqtisodiy siyosatining bunday shaklini ular samarali moslashtirilmoq deb nomlashdi.

“Yagona Millat” guruhining “yangi konservatorlari” daromadlar sohasidagi cheklashlarni bekor qilish, jumladan o'sib boruvchi soliqqa tortishdan voz kechishni eng muhim vazifa deb hisoblashardi. Tadbirkorlik sohasida soliq yukining yengillashishi sarmoyaning o'sishi va milliy boylik jamlanishining asosiy vositasi bo'lishi kerak edi. Milliy iqtisodiyotning dinamik rivojlanishida mayda kapitalning roliga katta e'tibor berilardi.

“Yagona Millat” guruhi nazariyotchilari “jamoaviy iste'molchilik” tizimidan voz kechishga chaqirgan holda davlat ijtimoiy siyosatini faravonlik, ammo o'ta serobgarchilik emas qoidasi bilan almashtirish zarurligini ta'kidlashar edi. Mavjudligi aniq bo'lgan har bir insonning ehtiyojini va mamlakatning bu “jamoaviy jannat”ni ta'minlay olish qobiliyatini hisobga olmagan holdaboylikni jamiyatning har bir a'zosiga taqsimlash o'rniga aniq yo'naltirilgan ijtimoiy siyosat kelishi kerak edi. “Ta'lim, uy-joy qurilishi va sog'liqni saqlash alohida fuqarolarning ishlab chiqarishga bo'lgan ehtiyojini uyg'otish va javobgarlikni taqsimlanishiga sabab bo'lishi kerak edi. Bu esa erkin demokratiyaning mohiyatidir”-deyishardi “yangi konservatorlar”. Ularning fikricha, ijtimoiy sohada individual javobgarlik va xususiy tashabbus prinsiplarining mustahkamlanishi millat ruhini sog'lomlashtirishga, shaxs va jamiyat erkinligi kafolati bo'lishga qodir.

Partiya yetakchiligi uchun kurashda E.Xit o'zining “Yagona Millat”dagi azaliy safdoshlari - R.Makleod va A.Modlarga tayanardi. Xit tomoniga “orqa kursichilar”-torilarning eng obro'li vakillarida biri - Edvard Dyu Kann o'tdi. U an'anaviy tarzda parlament fraksiyasining oddiy a'zolarini o'z ichiga olgan “1922 yil qo'mitasi” nomli partiya ichidagi guruhga rahbarlik qilardi. Keyinchalik Dyu Kani partiya raisiga aylandi. O'zining yetakchi lavozimiga saylangan paytidanoq E.Xit Modling va Pauell bilan o'zaro manfaatli munosabatlarni tiklashga urindi. Modling hatto partiya yetakchisi o'rinbosari lavozimini egalladi.

Intellektual va siyosiy jihatdan o'ta kuchli jamoani tuzgan Xit partiyaning muxolifotda qolish davridan uni qayta tuzishga foydalanmoqchi bo'ldi. Dyu Kani va Modlinglar rahbarligi ostida konservatorlar partiyasining Markaziy byurosi qaytadan tuzildi, parlamentda deputatlikka nomzodlarni ko'rsatishning saralash tizimi takomillashtirildi. Xitning o'zi yashirin kabinet faoliyati xarakterini o'zgartirish uchun ko'p urindi. Kabinet majlislari muntazam o'tkaziladigan bo'ldi. Ularning mavzusi nafaqat parlament taktikasi, balki asosiy siyosiy va mafkuraviy muammolarni ham qamrab olardi. “Yashirin kabinet”ning har bir a'zosiga ma'lum ish mintaqasi - “javobgarlik zonasi” birlashtirilgan edi. Agar ilgari faol mavkuraviy ijodi saylov oldi kompaniyalaridan oldingi davrga to'g'ri kelgan va ijtimoiy-falsafiy va targ'ibotchilik xarakteriga ega bo'lgan bo'lsa, endi Xit davlat siyosatining barcha yo'nalishlari bo'yicha “yashirin kabinet” batafsil dasturini ishlab chiqish amaliyotini joriy qildi. Partiyaning saylovoldi xujjatlarini tayyorlash vazifasi alohida intellektuallardan olib yashirin hukumatning ishchi apparatiga yuklatildi.

1966 yildagi saylovlardagi mag'lubiyatga qaramasdan konservatorlar partiyasi asta-sekin o'z mavqelarini mustahkamlab bordi. 1967 yildan boshlab u hukumat mahalliy organlari va parlamentga qo'shimcha saylovlarida ko'proq muvaffaqiyatlarga erishdi. Ammo partiyaning rahbariyatidagi ahvol tobora keskinlashib borayotgan edi. Keskin to'qnashuv 1967 yilda ro'y berdi. Unda “1922 yil qo'mitasidagi” “orqa kursichilar” “narxlar va daromadlar” siyosatiga

qat'iy qarshi chiqishdi. Ammo Xit, Modling va Makleodlar, aksincha hukumatning bunday choralari qo'llab-quvvatlashdi. Buning bahonasida Xit partiya rahbari E.Dyu Kannning lavozimidan chetlashishi va uning o'rniga o'zining tarafdori A.Barbar tayinlanishiga erishdi. 1967 yilda "yashirin kabinet" tarkibidan tori "eski gvardiyachilarining" oxirgi vakillari ham chetlashtirildi.

Konservatorlar partiyasining rahbariyatidagi ixtiloflar Xitning shaxsiy obro'sini ancha tushirib yubordi. 1970 yil yanvar oyida ijtimoiy fikr so'rovi natijasiga ko'ra saylovchilarning butun muxolifat davrida eng ko'p qismi konservatorlarni qo'llab-quvvatlashgan paytida, ularning 44%i Xitni yomon rahbar deb va faqat 31%i yaxshi rahbar deb baholashgan. 1970 yildagi parlament saylovlaridagi g'alabadan so'ng Xit xavfli raqiblarni yo'qotishga harakat qildi. Hukumat tarkibiga Dyu Kann va Pauelllar kiritilmagan edilar. R.Modling o'zining ilgarigi obro'sini yo'qotdi. 1972 yilda esa hukumatdan umuman chiqarildi. Y.Makleod moliya vaziri lavozimiga ega bo'ldi, ammo bir oydan so'ng olamdan o'tdi. Mahkamadagi asosiy mavqelarni Xitning sodiq tarafdorlari egallashdi. Yangi hukumat tarkibida K.Joze va M.Tetcherlar rahbarligida partiya o'ng qanotining kam sonli vakillari ma'lum mustaqillikni namoyon etishardi. Saylovdagi g'alabadan ko'p o'tmasdan Xit va partiyaning parlamentdagi fraksiyasi o'rtasida ham yaxshi munosabatlar o'rnatilmaganligi ma'lum bo'ldi. "ORqa kursi egalari" orasida tarqalgan Xitning sustkashligi va qat'iyatsizligi haqidagi fikr fraksiyaning ochiqcha FRONDERCHILIK (murosa qila olmaydiganlar)ni keltirib chiqardi. Vaqt o'tishi bilan Xit hukumat siyosati masalalari to'g'risida parlament fraksiyasi bilan umuman maslahatlashmay qo'ydi. Bu kelishmovchilik parlament faoliyati tashkiliy asoslari islohotini o'tkazishni tezlashtirdi. qonun loyihalarini tayyorlash vazifasi hukumat amaldorlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan maxsus sohaviy qo'mitalarga topshirildi. "Deputat so'rovlari" amaliyoti ancha qisqartirildi. Unga ko'ra, hukumat vakillari palata savollariga javob berishlari kerak edi. "Yashil kitoblar"- qonun loyihasini parlamentga taqdim etishdan oldingi bahs-munozaraviy xujjatlarni nashr qilish odati ancha kamayib ketdi.

Parlament islohoti davlat boshqaruvi tizimidagi tashkiliy yangilanishlar bilan birga o'tkazildi. Xitning rahbarlik davrida vazirliklarning tuzilishi yanada oydinlashdi va ularning soni kamaytirildi. Hukumatning moliyaviy sohadagi vakolatlari oshirildi. Hukumat har yili mahalliy hokimiyat organlari moliyaviy holatini taftish (reviziya) qilish va "noto'g'ri xarajatlar" uchun kengash a'zolari va boshqa mansabdor shaxslardan jarima undirish huquqiga ega bo'ldi. Mahalliy boshqaruv tizimining o'zi esa 1972 yildagi qonunga muvofiq ancha tartibga solindi. Grafliklar soni qisqartirilib ularning hududlari kattalashtirildi. Mahalliy hokimiyat vakolati barcha darajalarda kengaytirilgan va unifikatsiyalashtirilgan (bir shaklga keltirish) edi. 1972 yildagi qonunga muvofiq mahalliy ijrochi hokimiyat rahbarlari vazifasini o'tab kelgan kengashlar rahbarlarining vakolatlari biroz kengaytirilgan edi.

Davlat boshqaruvining islohoti Angliya, hamda Uelsga taalluqli bo'ldi. qiyinchilik, o'ziga xos ma'muriy tuzilishga ega bo'lgan Shotlandiya va Shimoliy Irlandiyada yuzaga keldi. Oldingi leyboristik hukumatdan farqli o'laroq Xit bu mintaqalarning o'z-o'zini boshqarishini kengaytirish g'oyasini qo'llab-quvvatlamadi. Shotlandiya ma'muriy islohotini ishlab chiqish to'xtatilgan edi. 1972 yildan boshlab shimoliy Irlandiyada to'g'ridan-to'g'ri boshqarish usuli joriy qilingan edi. Mahalliy hukumat barcha vakolatlardan mahrum qilindi, stormont esa tarqatib yuborildi. Shimoliy Irlandiyaning siyosiy muhtoriyati rasman bekor qilinmagan bo'lsa-da, uning hududida favqulodda qonunchilik amal qila boshladi. Uning asosini 1973 yildagi "Shimoliy Irlandiya to'g'risidagi" va 1974 yildagi "Terrorizmning oldini olish to'g'risidagi" qonunlar tashkil qildi. Favqulodda qonunchilikning terrorizmga qarshi kurashga qaratilgan faoliyati butun Birlashgan qirollik hududiga yoyildi.

Qat'iy choralarning ko'rilishi Olster muammosini hal bo'lishiga olib kelmadi. Britaniya harbiy qismlari ozchilikni tashkil etgan katoliklar tomonidan bosqinchilar armiyasi sifatida qabul qilindi va terroristik harakatlar nishoniga aylandi. Ijtimoiy kayfiyatni keskin o'zgartirgan hodisa 30 dekabr 1972 yilda bo'lib o'tgan "qonli yakshanba" bo'ldi. Unda ingliz qo'shinlari qo'zg'algan katoliklarga qarata o't ochdilar va Londonderrida 13 kishining o'limiga sabab

bo'ldilar. Bunga javoban g'azablangan olomon Dublindagi Britaniya elchixonasiga bostirib kirib uni butunlay yoqib yuborishdi. Shundan keyin IRA sulh tuzishdan qat'iyon bosh tortdi va amalda ingliz hukumatiga qarshi terroristik urushni boshladi. Faqatgina 1972-1975 yillarda Shimoliy Irlandiyada 475 kishi o'ldirildi. Keskinlikni bartaraf etish maqsadida Britaniya hukumati mamlakat tarixida ilk bor referendum o'tkazishga qaror qildi.

1973 yil 8 martda Shimoliy Irlandiya fuqarolariga Olsterning Birlashgan qirollik tarkibidan chiqib Irlandiya Respublikasiga qo'shib olinishiga nisbatan o'z hoxish irodasini bayon qilishga imkon berildi. Ammo referendumning siyosiy samarasi nihoyat past bo'ldi. Ko'pchilikni tashkil etgan protestantlar ajralishga qarshi chiqdi, ozchilik bo'lgan katoliklar esa referendumga boykot e'lon qildi.

Olster muammosini yechish uchun oxirgi marta Buyuk Britaniya va Irlandiya hukumatlari 1973 yilning dekabrda urinib ko'rishdi. U paytda ular Irlandiya Kengashi-Irlandiya Respublikasi va Shimoliy Irlandiyaning vazir va parlamentlaridan iborat davlatlararo konsultativ organni tuzish bo'yicha Sanningdeyl shartnomasiga imzo qo'yidilar. Ammo bu shartnomaning ratifikatsiyasi protestant ekstremistlarning chiqishi tufayli puchga chiqdi.

Izchil, ammo har doim ham samarali bo'lmagan "hukumatni birlashtirish" siyosati Xit tomonidan keng ko'lamli ijtimoiy-iqtisodiy yangilanishlarini amalga oshirish uchun qat'iy harakat qilishning zaruriy asosi deb qaralardi. Bu yangilanishlarning konseptual asosi "Yagona millat" g'oyalari bo'ldi. Xitning hukmronlik davrida davlat strategiyasini ishlab chiqish asosan, partiya tahliliy markazlarini emas, balki hukumat tuzilmalarining funksiyasi bo'lib qoldi. Bunda asosiy rolni 1970 yilda lord Rotshild rahbarligi ostida tuzilgan hukumatning siyosatni tahlil qilish Markaziy shtabi o'ynadi. Hukumat siyosati yo'nalishini ishlab chiqishda ta'lim sohasi vakillari (ular liberal kayfiyatda edilar) katta ta'sir ko'rsatishdi, masalan G.Jojon (London iqtisodiyot maktabi), F.P.Peysh va A.Prost (Manchester universiteti), R.Boll (London biznes maktabi). Ularning hammasi Keyns nazariyasiga qarshi edilar va Britaniya hukumati iqtisodiy strategiyasini tubdan o'zgartirish tarafdori edilar. Konservatorlarning yangi avlodi davlatda ijtimoiy taraqqiyot muammolarini yechish bo'yicha to'lov javobgarlikni olish kuchi borligini tan olishmasdi. Asosiy muammo ijtimoiy munosabatlarning tabiiy mexanizmlarini rag'batlantirish, har bir odamning faolroq, harakatchanroq va tadbirkorroq hayotiy mavqe'ga undash hisoblanardi. Hukumat oldiga davlat xarajatlarini tartibga solish va ijtimoiy siyosat boshqaruvini va shu bilan bir vaqtda xususiy tashabbuskorlik hamda raqobatni har tomonlama qo'llab-quvvatlash vazifasi qo'yilgan edi.

1973 yildagi sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish to'g'risidagi qonunda barcha toifadagi tibbiyot xodimlariga xususiy amaliyot bilan shug'ullanish huquqini berish, jamoaviy kasalxonalarida markazlarga mo'ljallangan joylarni ko'paytirish (agar ular davolash haqini o'zlari to'lasa) shifokorlarga o'zining xususiy mijozini davolash uchun kasalxona va klinikalardagi asbob-uskunalaridan foydalanish huquqini berish ko'zda tutilgan edi. Hukumat, davlat tuzishda bozor tamoyillarining tarqalishiga umid bog'lagan holda sog'liqni saqlash sohasida davlat va xususiy sektorni ajratishdan bosh tortdi. Ikkala sektor yagona milliy sog'liqni saqlash xizmatiga birlashtirildi.

M.Tetcher rahbarligi ta'lim sohasida islohot o'tkazildi. Ta'lim muassasalariga ta'lim jarayoni mazmunini tanlash va uning shakllarini belgilash bo'yicha to'la erkinlik berildi. Tetcher o'quvchilarning talabalari, qobiliyati va imkoniyatiga asoslangan eng differensial (individuallashtirilgan) ta'lim modelini joriy qilmoqchi edi. Uning fikricha xususiy ta'lim muassasalari, davlat maktablarini butunlay siqib chiqara olmaydi, ammo ular ta'lim tizimining elitor (nufuzli) qismi bo'lib kelishi kerak. Davlat maktablariga kelsak, ularni ta'minlash uchun ajratiladigan budjet mablag'lari keskin kamaytirildi. Oliy maktablarda ham bu xarajatlar kamaytirildi, ammo bu talabalar sonining keskin pasayishiga olib keldi. Konservatorlar ta'lim sohasini kommersiallashtirishga (tijoratlashtirilgan) o'tish haqida ochiqchasiga e'lo6 qilishmadi, ammo amalda bunga to'la sharoit yaratib berishdi.

Davlat tomonidan bosib chiqarilgan "uy-joy qurilishidagi odilona yo'l" nomli davlat dasturi bu sohani bozor prinsiplariga o'tkazish zaruratidan kelib chiqqan edi. Har bir oilaga uyni

egalik qilish va ijara olish huquqini berish va uy-joy to'lovlari uchun dototsion va imtiyozli yordamlarni taqsimlashda tenglashtirishni bekor qilish juda muhim hisoblanar edi. Shahar qurilishidagi davlat subsidiyalari qisqartirildi, bunday dasturlarni moliyalashtirishning asosiy uy-joy to'lovlari bo'ldi. Ammo xususiy uy-joy sektori qurilishi, aksincha har tomonlama rag'batlantirilar edi. Bu jarayonni qo'llash uchun davlat yer narxlarini nazorat qilishni va yerga egalik qilish amallarini boshqaruvchi yer qo'mitasini bekor qildi.

Ijtimoiy dasturlarni qisqartirish E.Xit hukumati tomonidan "iqtisodiyotni davlatning keraksiz ta'siridan (aralashuvidan) xolos etish" shiori ostida amalga oshirildi. Bu yo'nalish sanoat siyosatida ham qo'llandi. Davlat va xususiy sektorlar munosabati tobora xususiy sektor manfaatiga moslashtirildi. Hukuman keng ko'lamni xususiylashtirishni boshlashga harakat qilmadi, ammo davlat kompaniya va korxonalar aksiyalari paketini qisman sotishni boshladi. Bu tajriba sudralma denatsionalizatsiya (natsionalizatsiya qilingan mulklarni egalari qaytarish) deb nomlandi. Ayni vaqtda davlatning xususiy sektorni boshqaruvga aralashuvi qisqartirildi. 1970 yilda sanoatni qayta tuzish kompartiyasi va iqtisodiy rivojlanish rejalarini ishlab chiqish bilan bog'liq bo'lgan ba'zi boshqa hukumat muassasalari bekor qilindi.

Iqtisodiyotni liberallashtirish (erkinlashtirish) bo'yicha umumiy siyosat jarayoni doirasida Xit hukumati soliqqa tortish tizimini isloh qilish choralarini qo'lladi. To'g'ri (pryamo'x) soliqlarni kamaytirish va egri soliqlarni oshirish iqtisodiyotning "real sektori"ni rag'batlantirishi, sanoat ishlab chiqarishi sohasi sarmoya qo'yishlar rentabelligini (samaradorligini) oshirish kerak edi. Har bir funt sterlingdan daromad solig'ini 6 pensdan kamaytirish jiddiy targ'ibot samarasi natijasi o'laroq yuz berdi. (So'nggi 11 yil ichida bir marta). Aholining eng kam ta'minlangan qatlami (deyarli 10 million kishi) daromad solig'idan umuman ozod qilingan edi. Yirik korporatsiyasi foydasi uchun soliqlar hajmi ancha kamaytirildi. Kompaniyalarni alohida daromadiga qarab soliqqa tortish tizimi yagona soliq savdosi bilan almashtirildi. Bu esa eng samarador va raqobatbardosh ishlab chiqaruvchilarga afzallik berdi. Dastlabki sarmoya qo'yishlar uchun soliq imtiyozlari oshirildi.

Xit hukumati mehnat munosabatlari sohasida davlat tomonidan nazorat qilish darajasi hamda tizimni ham ancha kamaytirdi. Vilson hukumati tomonidan joriy qilingan tanlab olinadigan bandlik solig'i butunlay bekor qilindi. Hukumat ishsizlik bilan kurashish bo'yicha yirik dasturlardan bosh tortdi. 1970-1971 yillarda ilgari hukumatlarning daromad va narxlarni boshqarish to'g'risidagi qarorlari asta-sekinlik bilan bekor qilindi. Maosh miqdorining oshishini chegaralash darajasi haqida qaror qabul qilish yirik korporatsiya va tredonatsion vakillarining bitishtiruvchi qo'mitalari zimmasiga davlat ishtirokisiz yuklatildi. 1970 yildagi "sanoatdagi munosabatlar to'g'risidagi" qonun bilan siyosiy aksiyalar va birdamlik namoyishlari (stachkalari) ta'qiqlangan edi. Barcha kasabab uyushmalari maxsus davlat imperiyasida ro'yxatdan o'tishlari kerak edi. Bunda ustav maqsadlar ham belgilanishi ko'zda tutilgan edi. Xit hukumati tomonidan amalga oshirilayotgan rag'batlantiruvchi chora-tadbirlar ishbilarmonlik faollashuvi va ishlab chiqarish hajmining o'sishiga olib keldi. To'g'ri, sarmoya qo'yishlar dinamikasining o'sishi ishonchsizligicha qolaverdi. 1970 yilda ichki investitsiyalar oldingi yilgi ko'rsatkichdan 2,5% ko'p edi, ammo 1971 yilda biroz orqaga chekinish ro'y berdi, 1972 yilda esa sarmoya qo'yishlar 1%ga oshdi. Bunday vaziyatda hukumat yirik investitsion dasturlarni amalga oshirishga majbur bo'ldi, bu esa sanoat sarmoya qo'yishlardagi davlat moliyasi hissasini 50% (1964 yilda-45%)gacha oshirishni talab qilardi. Bu 1973 yildayoq ishlab chiqarish 7% ga oshirishga imkon berdi. Ammo shu bilan bir vaqtda davlat qarzlari ham oshib ketdi. Leyboristlarning barqarorlashtiruvchi siyosati bilan ta'minlangan to'lov balansining pasayishi va inflyatsiyaning kamayishi xavf ostida qoldi.

Britaniya iqtisodiyotiga 70-yillar boshida ro'y bergan xalqaro valyuta tizimini tubdan o'zgartirish ham salbiy ta'sir ko'rsatdi. Jahon moliyaviy bozorining liberallashuvi Yevropa valyuta hududiga dollarning bosimini yanada kuchaytirdi. Barqaror bo'lmagan Britaniya moliya bozori turli chayqovchilik xujumlari uchun qulay bo'lib qoldi. Bu esa inflyatsiyaning yana o'sishiga sabab bo'ldi. 1972 yil iyulida muomalaga kiritilgan funt sterlingning "erkin suzishi"dan so'ng, uning kursi tez pasayib keta boshladi. 1972 yil noyabrda Xit hukumati o'z

iqtisodiy strategiyasini tubdan o'zgartirishi va "inflyatsiyaga qarshi siyosat"ning yangi bosqichga o'tishini ma'lum qildi. Uning asosiy yo'nalishlarini ishbilarmonlar doirasi va kasaba uyushmalari vakillari bilan kelishib olib amalda mag'lubiyatga uchradi. Hukumat yana narx va daromadlarni majburiy boshqarish tajribasiga qaytishga majbur bo'ldi.

Inflyatsiyaga qarshi siyosatning faollashuvidan tashqari, hukumat yana sanoat ishlab chiqarishini faol boshqarishga qaytishga majbur bo'ldi. Milliy manfaatlar uchun muhim hisoblangan sohalardagi xususiy korxonalar va subsidiyalar berish tiklandi. Bu dotatsiya vositalari esa, ishlab chiqarishni yangilash uchun emas, balki bandlik darajasini saqlab turish uchun ishlatildi. Natijada hukumat rentabelligi (samaradorlik darajasi) eng past korxonalarni nafaqat qo'llab-quvvatlash, balki ularni milliyashtirishga (bu siyosat "cho'loq o'rdaklar"ni qo'llab-quvvatlash nomini oldi) majbur bo'ldi. qishloq xo'jaligidagi sohalarga ham dotatsiya ajratilardi. Hukumat faolligi sanoat ishlab chiqarishi o'sish ijobiy dinamikasini saqlab qolishga imkon berdi. Ammo, jahon bozorida Buyuk Britaniya pozitsiyasi yomonlasha bordi. 1973 yilda uning jahon eksportidagi urushi 6,6%gacha pasaydi.

Bunday sharoitda Buyuk Britaniyaning YEIHga qo'shilish uchun uchinchi urinishining muvaffaqiyati katta ahamiyat kasb etdi. 1973 yil 1 yanvardan boshlab Buyuk Britaniya, Daniya va Irlandiyalar Yevropa Hamjamiyatining to'la huquqli a'zolariga aylanishdi. Ammo birlashishning iqtisodiy samarasi uzoq istiqbolda namoyon bo'lishi mumkin edi. Hozircha Britaniya hukumatiga jiddiy yon bosishlar jumladan, ichki ingliz bozorida qishloq xo'jaligi mahsulotlariga narxlarni ancha oshirish, Hamdo'stlik mamlakatlari bilan tuzilgan savdo kelishuvlarini YEIH talablari asosida qayta ko'rib chiqish, xalqaro savdo zahira valyutasi sifatida funt sterlingdan foydalanishdan bosh tortish, YEIH budjetiga Buyuk Britaniya a'zolik to'lovining miqdorini oshirish kafolatlarini berishiga to'g'ri keldi. Natijada Bunda Britaniyaning "Umumiy bozor"ga qo'shilishi boshida mamlakat to'lov balansining yaxshilashi emas, balki yomonlashuviga olib keldi.

1971 yil oxirida Britaniya iqtisodiyoti yana bir jiddiy imtihonga "neft inqirozi"ga duch keldi, oktabr oyida OPEK neftning har barrali narxining misli ko'rilmagan darajada 3 dan 18,65 dollargacha oshirish haqida qaror qabul qildi. Bu G'arb mamlakatlari iqtisodiyotini global energetik inqiroz yoqasiga olib keldi. Sanoat ishlab chiqarishning ilg'or sohalari energiya sarf qiluvchi texnologiyalarga asoslangan edi. Bu hodisa nafaqat katta zarar, ishlab chiqarishning pasayishi va investitsiyalarning chekinishiga olib keldi, balki ishlab chiqarish texnologik asosini qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltirdi. Bu jarayon o'n yil davom etdi va sanoat iqtisodiy modelining tuzilmaviy (struktura) inqiroziga sabab bo'ldi. U hozircha urushdan keyingi qayta ishlab chiqarish inqirozining debochasi bo'ldi.

Energetik inqiroz bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni oshirish, xo'jalikning barcha sohalarida mahsulot tonnarxining ulgurji va chakana savdo narxlarining keskin oshishiga olib keldi. Undan keyin ro'y bergan sotib olish qobiliyati va talabning pasayishi hamda investitsiyaning kamayishi inqiroz boshlanishiga olib keldi.

O'zining neftga bo'lgan ehtiyojining 2G'3 qismini O'rta Sharqdan import qilinuvchi neft hisobidan qondiruvchi Buyuk Britaniya bu inqirozdan katta talofat ko'rди. Bu vaziyatda Xit navbatdan tashqari parlament saylovlarini o'tkazishga qaror qildi. Saylovchilar esa mamlakatni inqirozdan olib chiqishni Xitga ishonishni hal qilishlari kerak edi.

G.Vilson va J.Kallagenning "Ijtimoiy shartnomasi".

1974 yil 4 mart kuniga belgilangan parlament saylovlariga hukumat lageri g'alabaga to'la ishonch bilan tayyorlangan edi. Xit "olomon fikri"ga bog'liq bo'lmagan va har qanday vaziyatda ham faoliyat ko'rsatishga qodir bo'lgan "kuchli hukumat" yaratish haqida bayonot berdi. Leyboristlar partiyasi esa, aksincha saylov kompartiyasini faol o'tkazishdi. Ammo ular shubhasiz yangi g'oya va yetakchiga muxtlj edi.

Leyboristlar partiyasining o'ng qanotida 1970-1971 yillarda ikkita qutb yuzaga keldi. Ulardan biri, qayta tiklangan Fobianchilar jamiyatini tuzgan bo'lsa, ikkinchisi R.Jenkins atrofida jipslashdi. Yangilangan Fabian jamiyati yetakchisi Antoni Kroslend va uning tarafdorlari

partiyani an'anaviy qadriyatlarini, ishchilar harakatining sotsialistik ideallarini tiklash tarafdori edi. O'ng leyboristlar uchun bunday g'ayriodatiy bo'lgan pozitsiyani partiyani an'anaviy saylovchilarini tarqalishi va uning siyosiy qiyofasini yo'qotishidan qo'rqish bilan asoslash mumkin. Roy Jenkins o'z atrofida sobiq partiya yetakchisi X.Geytekellning "umummilliy siyosatiga" qaytish tarafdorlari bo'lgan o'ng leyboristlarni to'pladi.

Leyboristlarning so'l qanoti ham mafkuraviy, ham tashkiliy jihatdan o'z xilma-xilligini yetarli darajada saqlab qoldi. Uning yetakchilari Maykl Fut rahbarligida "orqa kabenit" tarkibiga kiritildi va ular partiya rahbariyati bilan qattiq to'qnashuvdan ehtiyot bo'lishardi. "So'l markaz" shakllanishida Entoni Vejud Benn katta rol o'ynadi. Lordlar palatasi a'zosi bo'lgan Vejud perlikdan voz kechdi va o'z ismini "xalqchilroq"-hisoblashgan -Toni deb o'zgartirdi. Uning Fut guruhi bilan yaqinlashishi Truyunionlarning faol siyosiy chiqishlarini qo'llab-quvvatlashda namoyon bo'ldi. Ularni Kraslendning takliflarini tanqil qilish ham birlashtirardi. Ular uni "Egalitar-roq" daromadlar siyosatiga chaqirishardi.

So'l va o'ng qanot guruhlar faollashayotgan bir davrda Vilson tez turli fraksiyalarning manfaatlarini kelishtirishga majbur bo'ldi. Bundan albatta partiya dasturining to'laligi va izchilligi zarar ko'rdi. Kelishuvga mamlakatda, jumladan, soliqqa tortish sohasida, nafaqa ta'minoti va ijtimoiy sug'urta sohasida, tibbiy xizmat ko'rsatish va ta'lim davlat tizimini rivojlantirishda faol ijtimoiy o'zgarishlar bo'yicha dasturlar asos bo'ldi. 1973 yildagi konferensiya partiya rahbari etib saylangan Jeyms Kollagenning shaxsiy obro'si oshib borayotganligini namoyish etdi. 1974 yilning fevral oyida bo'lib o'tadigan saylovlar uchun tayyorlangan leyboristlar partiyasining saylovoldi dasturi radikal xarakterga ega edi. Unda keng milliyalashtirish, davlat boshqaruvi tizimini kuchaytirish, harbiy xarajatlarni qisqartirish, Buyuk Britaniyaning Umumiy bozorda qatnashishi borasida umumxalq referendumini o'tkazish ko'zda tutilgan edi. Saylov natijalari shuni ko'rsatdiki, Buyuk Britaniya yetakchi partiyalarining dasturlari saylovchilarning katta ishonchini qozonolmaydi. Konservatorlar 37%, leyboristlar - 38% ovozga ega bo'ldi. Tarqalib ketish xavfi yoqasida turgan liberal partiyani kutilmagan muvaffaqiyatli ramziy ma'noga ega bo'ldi. Liberallar uchun saylovchilarning beshdan bir qismi ovoz berdi. Natijada leyboristlar 301 deputatlik mandatga, konservatorlar-296, liberallar-13, mandatga ega bo'lishdi. Shunday qilib, parlamentning quyi palatasida biror bir partiya mutloq ko'pchilikka ega bo'lmadi.

Xitning liberallar rahbariyati bilan koalitsion kabinet tuzish to'g'risida konsultatsiyalar o'tkazishga urinishlari muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Undan keyin Xit qirolicaga iste'foga chiqish haqida iltimosnoma berishga majbur bo'ldi. Bosh vazir vakolatlari Vilsonga topshirildi. Leyboristlarning "ozchilik hukumati" boshqa fraksiyalarning birlashgan ovoz berishlariga qarshilik qila olmasligi sababli, uning rahbari an'anaga ko'ra tezda parlamentni tarqatib yuborishi va yangi saylovlar o'tkazishi mumkin edi. Ammo Vilson boshqacha yo'l tutdi. Bir necha oy davomida u "pishib yetmagan" qonun loyihasini taqdim etmadi va o'z rahbarlariga uning siyosatiga o'z reytinglarini saqlab qolish yo'li bilan qarshilik ko'rsatishga imkon bermadi. Saylovoldi va'dalari ustidan chiqqan holda leyboristlar hukumati triyunionlar noroziligiga sabab bo'lgan "sanoatdagi munosabatlar to'g'risidagi" qonunni bekor qildi, shexterlarning oylik maoshni oshirish to'g'risidagi talablarini qondirdi, hamda boshqa sohalarida oylik maoshni oshirish darajasini cheklash masalasida diktatdan voz kechdi. "Soliqlar siyosati" erkin xarakterga ega bo'ldi. Ishsizlikka qarshi kurash bo'yicha dasturlarni amalga oshirish boshlandi. Davlat tomonidan moliyaviy yordam ko'rsatilishi natijasida ko'pgina korxonalarda to'liq ish haftasi tiklandi. Nafaqalar hajmi oshirildi, oziq-ovqat mahsulotlari narxлари va kvartira to'lovlari vaqtinchalik "muzlatildi", ko'p bolali oilalarni qo'llab-quvvatlash to'g'risida qonun qabul qilindi.

Vilson Olster muammosini hal qilishga ham qadam qo'yishga harakat qildi. 1974 yil aprel oyida o'zining Shimoliy Irlandiyaga bo'lgan safarida u Sonningdeyl shartnomasini ratifikatsiya qilish bo'yicha takliflarni taqdim etdi. Ammo ekstremistik guruhlar harakatlarini to'xtatishga muvaffaq bo'lmadi. Olsterda protestant ultra tomonidan tashkil qilingan umumiy siyosiy g'alayonning boshlanishidan so'ng Britaniya hukumati Shimoliy Irlandiya

assambleyasini tarqatib yuborish va yana to'g'ri boshqarish hajmiga qaytishga majbur bo'ldi. 1974 yil iyulida "Shimoliy Irlandiya konstitutsion akti" qabul qilindi. Unga ko'ra Olsterda yangi mahalliy vakillik organi - konstitutsion Konventni tuzish ko'zda tutilgan edi. Ammo bu loyihani amalga oshirishga hech qanday imkoniyat bo'lmadi. Olster muammosini yechish bo'yicha tashabbusning tuvaflariyatsizlikka uchrashiga qaramasdan Vilson o'z faoliyatining daslabki oylarida o'z hukumatining nufuzini oshirishga erishdi. Rag'batlantiruvchi soliq va investitsion siyosat mehnat munosabatlari va ijtimoiy ta'minot sohasidagi ommaviy tadbirlari bilan birga ingliz jamiyati turli tabaqalarida ijobiy taassurot qoldirdi. Bir vaqtda milliy va jahon bozorida barqarorlikning buzilishi belgilari yaqqolroq ko'zga tashlanib bordi. 1974 yilning birinchi yarmida barcha G'arb mamlakatlari iqtisodiyoti chuqur strukturaviy inqirozga uchray boshladi. Ammo, oddiy inglizlar uchun "og'ir damlar"ning boshlanishi hozircha oldingi konservativ kabinetga bog'liq ravishda qabul qilinardi. Parlamentni tarqatib yuborishga erishgan leyboristlar o'zlarining ommaviylashtirish siyosatlari natijalarida foydalanish va saylov kompaniyasini yana ilgari konservatorlar siyosati tanqidi asosida olib borish imkoniyatiga ega bo'lishdi.

Kuzgi saylovlardan oldin tayyorlangan leyboristlar dasturi bor-yo'g'i bitta yangilikni o'z ichiga olardi. Bu Kollagen tomonidan taklif qilingan "ijtimoiy shartnoma" g'oyasi edi. Unda "hokimiyat va boylikni ishchilar foydasiga tubdan va abadiy qayta taqsimlash" uchun davlat va kasaba uyushmalarining yaqindan hamkorlik qilishlari ko'zda tutilgan edi. Bu dasturning asl mazmuni yanada to'laroq va qat'iyroq tarzda "davlat faravonligi" g'oyasini amalga oshirishga harakat qilishdan iborat edi. Kollagenning taxminiga ko'ra, inqiroz bilan kurashish va yashash tarzini yuqorigi darajada saqlab turish iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarni davlat tomonidan boshqarilishini kengaytirish orqali amalga oshirilishi kerak edi.

1974 yil 10 oktabrda bo'lib o'tgan saylovlar natijasi parlamentda barqaror ko'pchilikni egalik qilish uchun yetarli bo'ldi. Leyboristlar parlamentning quyi palatasida 319 ta o'ringa (saylovchilarning 39,3% ovozi), konservatorlar - 296 (35,8%), liberallar esa 13 (18,3%) ga ega bo'lishdi. Bunda ilk bor quyi palatada 11 ta o'ringa ega bo'lgan Shotlandiya milliy partiyasi yaqqol muvaffaqiyat qozondi.

1974 yil oxiridan boshlab Vilson hukumati iqtisodiy ahvollarning keskin yomonlashuviga duch keldi. Bir necha oy davomida Buyuk Britaniyada sanoat ishlab chiqarishi 10% dan ko'proq kamaydi. Sanoat quvvalarining 30%i yetarlicha foydalanilmadi, bu esa o'z navbatida ishsizlikning o'sishiga olib keldi. Agar 1974 yilning boshida ishsizlar soni 700 ming kishini tashkil qilsa, 1975 yilda bu ko'rsatkich 1400 ming kishiga yetdi. Inflyatsiya jarayonlari kutilmagan tarzda kechardi. Bozor iqtisodiyoti tarixida birinchi marta ishlab chiqarishning barqaror qisqarishi narxlarning ko'tarilishi bilan birga ro'y berdi ("stagflyatsiya" jarayoni). Buyuk Britaniyada 1974 yilda chakana narxlar 19%ga, 1975 yilda -24%ga oshdi. Bu inflyatsiya shiddatli - yeldirilgan deb ataldi, uning yuzaga kelishi esa tartibga solishning Keynschilik usullaridan uzoq muddat foydalanish oqibatida bo'ldi. Bu usulda umumiy talabni defitsit budjet siyosati bilan yuzaga keltirish, ortiqcha kredit pullarini hosil qilishdan iborat edi.

1975 yil yozidan boshlab Vilson hukumati inflyatsiya o'sishini to'xtatish, investitsiyalar faolligini saqlash va mehnat kelishmovchiliklarini bartaraf etishga barcha kuchni sarf etishiga to'g'ri keldi. "Ijtimoiy shartnoma" dasturi o'zining birinchi shakli (mazmuni)da amalda puchga chiqarildi. Hukumat kasabab uyushmalari bilan bor yo'g'i ularning oylik maoshni oshirishni cheklash to'g'risidagi talablari (yiliga 10%) to'g'risida shartnoma tuzishga erishdi, xolos. "Ommaviy bo'lmagan" choralari ham o'tkazildi: iste'mol mollari nisbatan soliqlarning oshishi, ijtimoiy va madaniy dasturlarda davlat xarajatlarini qisqartirish. Ammo, hukumatning inqirozga qarshi dasturi asosan passiv, kutuvchi xarakterga ega edi. Siyosiy sinfdan butunlay yangi ijtimoiy mafkurani ishlab chiqishni talab etuvchi bir vaziyatda leyboristlar hukumati bor-yo'g'i "og'ir damlarni chidab o'tkazish"ga chaqiruvchi vaqtinchalik choralarni taklif qila oldi, xolos. Ko'pgina leyboristlar yetakchilarining ham ruhli jihatdan toliqqani sezilib turardi. Vilsonning 1976 yil 16 martida bosh vazir lavozimidan ketish to'g'risidagi qarori unchalik kutilmagan hodisa bo'lmadi.

Vilson iste'fosidan keyin bo'lib o'tgan partiya ichidagi saylovda oltita nomzod qatnashdi. Birinchi turda M.Fut (90 ovoz), J.Kollagen (84 ovoz) va R.Jennikslar (37 ovoz) yaxshiroq mavqeida edi. Ikkinchi tur Kollagen ustunligini ko'rsatdi, ammo bu ham mutloq xarakterga ega emas edi. Uchinchi urinishdagina u M.Fut ustidan g'alaba qozondi. 1976 yil 5 aprelida Buyuk Britaniya yangi bosh vazirligini bildi.

Bosh vazir lavozimiga ega bo'lgan Jeyms Kollagen budjetni tejash siyosatiga butunlay o'tish, inflyatsiyaga qarshi choralarning nufuzini oshirish, milliylashtirish rejalaridan butunlay voz kechishni ma'lum qildi. "Ijtimoiy shartnoma g'oyasi butunlay bekor qilinmadi, ammo u endi inqirozga qarshi siyosatga bog'liq tarzda qaralardi. Hukumat tutgan yo'lning asosiy apponenti ishchilar harakati bo'ldi. 70-yillarning ikkinchi yarmida Buyuk Britaniyani norozilik namoyishlari qurshab olgan edi. Namoyishlar tufayli shifoxonalar, transport vositalari, pochta va yong'inga qarshi kurash xizmati vaqti-vaqti bilan ishlamay qolardi. Metallurglar, shaxtyorlar, avtomobilsozlar, haydovchilar va temiryo'lichilar kasaba uyushmalari mehnat sharoitlarini yaxshilash uchun birgalikda namoyish qilishdi. Uyushgan ishchilar harakati oylik maoshlarni oshirish uchun kurashdan sanoat korxonalarining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, to'liq bandlikni ta'minlash, soliqqa tortish tizimini o'zgartirish, import ustidan qattiq nazorat o'rnatishni talab qilishga o'tdi. Hukumat qiyinchilik bilan bo'lsada kasabab uyushmalarining siyosiylashuvini va eng radikal chiqishlarni bartaraf etardi. Kollagen hattoki kabinet tarkibidan partiya chap qanotidan bir necha vakillarni chiqarishga majbur bo'ldi. Ammo bu choralarning barchasi leyboristlarning sonini kamayishiga sabab bo'ldi. Hukmron partiyaning obro'sini tushganligini 1977 yil may oyidagi munitsipal saylovlar natijalari ham ko'rsatdi. Unda ko'p ovoz bilan konservatorlar partiyasi g'alaba qozondi.

Fuqaro tinchligiga nafaqat tred-yunionlarning radikal qanotining chiqishlari, balki natsionalistik (millatchi) va terroristik tashkilotlarning harakatlari ham xavf solardi. 70-yillarning o'rtalaridan boshlab separatistik shiorlar ostida Shotlandiya va Uelsdagi norozilik harakatlari ko'paydi. Oldini olish (preventiv) chorasi sifatida hukumat ekspertlari Uels va Shotlandiya avtonomiya (muxtoriyati)sini kamaytirish loyihasi tayyorlashdi. Unda, ta'lim tibbiy xizmatlar, yo'l va uy-joy qurilishi, ekologiya sohasida ancha vakolatlarni mahalliy idora organlariga topshirish ko'zda tutilgan edi. 1975 yil noyabrida hukumatning yuqoridagi loyihasi bayon qilingan "Oq kitob" nomida e'lon qilindi. Ammo, 1976 yilda Kollagen hukumati parlamentga ancha yangilangan qonun loyihasini taqdim etdi. Unda Shotlandiya va Uelsda mahalliy qonun chiqaruvchi tashkilotlarni ta'sis etish ko'zda tutilgan edi. Bu esa ko'zlangan islohot, mohiyatini tubdan o'zgartirdi.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, birlashgan qirollik murakkab tuzilishdagi Unitar davlatdan iborat, ya'ni ham sodda ma'muriy-hududiy birliklar, ham muxtoriyatlarni o'z ichiga oladi. Britaniyaning hududiy doktrinasi mayda millatlar yashovchi hududlarda milliy-hududiy muxtoriyatlarning mavjud bo'lishini nazarda tutadi. Ammo ingliz huquqshunoslik adabiyotida "muxtoriyat" va unga bog'liq hududiy tuzilmalarning tasnifi (klassifikatsiyasi) uchramaydi. Ingliz huquqshunoslari suverenitetini saqlagan holda markaziy hukumat tomonidan qirllilikning alohida qismlari (submilliy birliklar)ga vakolatlarning berilishini anglatuvchi "devolyutsiya" istilohini (termin) afzal ko'rishadi. Bunda qonun chiqaruvchi (Mahalliy boshqaruv organlariga qonunlar chiqarish huquqlarini berish) va ma'muriy (markaz tomonidan qabul qilingan qonunlar va yuritilgan siyosatni mahalliy sharoitlarga moslashtirgan holda boshqarish) devolyutsiya farqlanadi. Devolyutsiya Birlashgan qirollikning asosiy 4 qismining uchasi, ya'ni Uels, Shotlandiya va Shimoliy Irlandiyaga nisbatan ishlatiladi. Bulardan oldingi ikkitasi tarixan Britaniya davlati tarkibiga ma'muriy devolyutsiya asosida kiritilgan edi.

Shotlandiya va Uelsda vakillik hokimiyatning mahalliy organlarining tashkil etilishi Butun Birlashgan qirollik doirasida qonunga chiqaruvchi devolyutsiya tizimiga butunlay o'tishni bildirdi. Siyosatchilar tomonidan hayotga tatbiq etilayotgan islohot Britaniya davlatchiligi doktrinaviy asoslari nuqtai nazaridan juda muhim edi. Shotlandiya va Uelsda mahalliy hukumat organlari vakolatini kengaytirish g'oyalarini rad etmagan holda, Konservatorlar hamda Leyboristlar partiyalarining ko'pgina siyosatchilari bunday darajadagi radikal o'zgarishlarning

to'g'riligiga shubha qilishardi. qonun loyihasining umum palatasidagi muhokamasi bir yarim yilga cho'zildi. Faqatgina milliy partiyalarga mansub deputatlarining ovozlari hisobiga hukumat 1978 yildagi "devolyutsiyalar" haqidagi billarning qo'llab-quvvatlanishiga erishdilar. Ammo ularning hayotga tadbiriq etilishi bevosita Shotlandiya va Uelsdagi referendumlarga bog'liq edi. Ular ijobiy natija berishi uchun ro'yxatga olingan saylovchilarning 40% ining ovozlari kerak edi. 1979 yil boshida bo'lib o'tgan referendumlar Kallagen hukumati uchun jiddiy mag'lubiyat keltirdi. "Devolyutsiya"ni Uelsda yashovchilarning atigi uchdan bir qismi va Shotlandiyaliklarning 40%igina qo'llab-quvvatlashdi.

Shimoliy Irlandiyada ham vaziyat keskinlashdi. Britaniya harbiy kuchlari faqatgina ko'pchilikni tashkil etuvchi protestantlarni qo'llab-quvvatlab xatoga yo'l qo'ydi. Protestant ultrachilari, asosan katoliklar yashaydigan kvartallarda chiqishlar tashkil etishar va bu namoyishlar ko'pincha qonli to'qnashuvlar bilan yakun topardi. Katolik-ekstremiyatik tashkilotlar, o'z navbatida Britaniyaning huquqini himoya qiluvchi organlari va protestant jamoalari yetakchilariga hujumlar uyushtirishni davom ettirishdi. 1975 yilda IRA tarkibidan Irlandiya milliy-ozodlik armiyasini IMOA tashkil etgan radikal guruh ajralib chiqdi. IMOAning vazifasi Irlandiya Respublikasiga qo'shilish emas, balki Olsterning mustaqil bo'lishiga erishish va uni "Marksistik-leninistik ishchi-dehqon respublikasi"ga aylantirishdan iborat bo'ldi. 1978-1979 yillarda Irlandiya ekstremistlari Britaniyaning ko'zga ko'ringan siyosat arboblari qarshi individual terror taktikasiga o'tishdi. Bunga javoban hukumat repressiyalar (qatag'on)ni kuchaytirdi. Olsterdagi ko'pgina inson huquqlarini poymol qilish holatlari Yevropa sudini 1978 yil yanvarida ingliz politsiyasiga "mahbuslarga nisbatan g'ayriinsoniy va kamsituvchi munosabatlar uchun javobgarlikni o'z bo'yniga olishni talab qiluvchi qaror qabul qilishga majbur etdi.

Ichki siyosiy vaziyatning keskinlashuviga qaramasdan Buyuk Britaniya iqtisodiy rivojlanishi dinamikasi asta-sekin yaxshilana bordi. Hal qiluvchi holat 1977 yil bahorida ro'y berdi. Bu vaqtga kelib inqiroz cho'qqisi bartaraf ettirilgan va ishlab chiqarish darajasi asta-sekin ko'tarilayotgan edi. Inflyatsiya 16%ga pasaydi. Ijobiy tendensiyalarni mustahkamlash uchun hukumat tadbirkorlarning faollashuvini qo'llab-quvvatlashga urinib ko'rdi. Xususiy biznes uchun soliq imtiyozlari joriy qilindi, asosiy kapitalni yangilash uchun assignatsiyalar oshirildi. Ammo shu bilan birgalikda oylik maoshini oshirishda qattiq cheklashlar va ijtimoiy dasturlar sohasida budjetni tejash saqlab qolindi. Inflyatsiyaning yanada avj olishini bartaraf etish uchun hukumat banklarga foiz stavkalarini ko'tarish va kredit berish hajmini qisqartirishni buyurdi. Bunday ikkiyoqlama siyosat ishbilarmon doiralari, hamda tred-yunionlarning noroziligiga sabab bo'lardi. Partiya tezda o'zining "barqaror" saylovchilarning qo'llab-quvvatlashidan ham mahrum bo'ldi.

1977 yil yozida Kallagen hukumati jar yoqasiga kelib qoldi. qo'shimcha parlament saylovlaridan keyin leyboristlar 8 ta deputatlik o'rnini va umum palatasida mutloq ko'pchilikni qo'ldan boy berishdi. Kollagen Liberal partiya yetakchisi Devid Stil bilan parlament fraksiyalarining birgalikda kelishib harakat qilishlari to'g'risidagi shartnoma tuzib, hukumat inqirozini bartaraf etishga erishdi. Liberallar bilan birga imzolangan pakt barqarorlashtiruvchi siyosatni davom ettirishga imkon berdi. Buning natijasida narxlarning o'sish sur'atlaridan keskin pasayishi kuzatildi. 1978 yilda inflyatsiya 8%gacha pasaydi. Norozilik namoyishlari ham birmuncha kamaydi. Keng miqyosdagi milliy lashtirish va daromadlarni qayta taqsimlash loyihalaridan voz kechish ishbilarmonlar doirasida leyboristlar ta'sirini kuchaytirdi. 1978 yil iyunida qo'llab-quvvatlanish darajasiga ko'ra hukmron partiya yana konservatorlarga yetib oldi (taxminan 45% dan).

1978 yil kuzida siyosiy vaziyat yana keskinlashdi. Sentabr oyida bo'lib o'tgan Britaniyaning tred-yunionlari kongressi syezdida, kongress o'zining hukumatga nisbatan muxolifatda bo'lishini tasdiqlovchi rezolyutsiyani qabul qildi. Keyingi oylar davomida o'ta tajovuzkor norozilik namoyishlari bo'lib o'tdi. Ommaviy noroziliklar va ko'p sonli piketlar mamlakatdagi barqaror vaziyatni buzdi. Axlatchilarning ish tashlashlari va norozilik namoyishlari natijasida ko'p shaharlarning ko'cha va maydonlari axlatdan to'lib ketdi. Dafn

qilish va shoshilinch tibbiy yordam xizmatlari faoliyatlarida ham to'qnashlar kuzatila boshlandi. 1908 yil oxiriga kelib, jamiyat orasidagi norozilik eng yuqori nuqtagacha ko'tarildi.

1978 yil oktabrida D.Stil liberallarning partiyalarning birgalikda harakat qilishlari to'g'risidagi paktdan bosh tortishlarini e'lon qildi. Ikki oy o'tgandayoq hukumat siyosatining asosiy yo'nalishlari umum palata doirasida ko'pchilik tomonidan tanqid qilindi. Hukumat, faqatgina milliy partiyalar, xususan Shotlandiya milliy partiyasining parlamentar fraksiyasining qo'llashi tufayligina iste'fodan qutulib qoldi. Ammo Shotlandiya va Uelsdagi referendumlarning muvaffaqiyatsizligidan keyin hukumat iste'fosi aniq bo'lib qoldi. Kollagen parlamentni tarqatib navbatdan tashqari saylovlarni o'tkazishdan boshqa chorasi qolmadi. Bu saylovlar 1979 yil 3 mayida o'tkazildi. Saylovchilarning 43,9%i konservatorlarni yoqlab ovoz berdi. Bu ularga 339 deputatlik mandatlariga ega bo'lish va palatada mutloq ko'pchilikni tashkil etishga imkon berdi. Leyboristlarni jami 39,6% saylovchilar (umum palatasida 268 o'rin) qo'llashdi. Liberallar ixtiyorida 11 ta deputatlik o'rini qoldi. Milliy partiyalarning fraksiyalari soni ham kamayib ketdi.

Buyuk Britaniya 60-70 yillarning ikkinchi yarmidagi xalqaro munosabatlar tizimida.

Iqtisodiy rivojlanishning yomonlashib borish sharoitida Buyuk Britaniyaning Yevropa integratsiyasida qatnashuvi uning tashqi siyosatidagi asosiy yo'nalish bo'lib qoldi. G.Vilson bu muammoni 1965 yil yanvar oyida Londonda U.Cherrillning dafn marosimida qatnashayotgan Fransiya prezidenti de Goll bilan norasmiy uchrashuvi vaqtida muhokama qildi. Ammo parlamentning yakdillik bilan bu masalaga munosabat bildirishga erishish juda qiyin edi. Faqatgina, 1967 yil 2 mayida YEIHga qabul qilinish to'g'risidagi rasmiy ariza berish masalasini hukumat umum palatasi muhokamasiga qo'ydi va xujjatning to'la qo'llab-quvvatlanishiga erishdi (qo'llaganlar-488 ovoz, qarshilar 62 ta)

Fransiya rahbari bu gal ham Bkyu Britaniyaning "umumiy bozor"ga qo'shilishiga qarshi chiqdi. Ammo ilgari "temir veto"dan farqli o'laroq de Goll bu muammoning barcha iqtisodiy jihatlarni muhokama qilish uchun kechiktirish kerakligini bayon qildi. Buyuk Britaniyaning Yevropa "oltiligi" bilan to'la mosligini ta'minlash uchun, uning fikricha, London Hamdo'stlik mamlakatlari bilan imtiyozli iqtisodiy munosabatlardan voz kechishi va jahon moliyaviy bozoridagi siyosatga mos holda yagona qishloq xo'jaligi siyosatini tartibga solishi kerak edi. Fransiyaning "barqut vetosi" leyboristlar hukumatining Yevropaga bog'liq bo'lgan rejalarini o'zgartirmadi. 1968 yilda Fransiya va Gfrning YEIHga a'zo bo'lish talablarini qo'shimcha tarzda kiritgan takliflarini rad etib, ular Yevropa mamlakatlari poytaxtlariga reja asosidagi diplomatik hujumlar uyushtirdi. Italiya rahbariyati hamda Beshlyuks davlatlari hukumatlari tomonidan bu qadamlar qo'llab-quvvatlana bordi. De Goll hokimiyat teppasidan ketganidan so'ng, g'alaba bo'lgan ishonch yana oshdi. Fransiyaning yangi prezident J.Pompidu va uning hukumati integratsion jarayonlarning faollashuvi, jumladan "Yagona Yevropa"ning kengayishi tarafdori edi. 1969 yilning oxiridan boshlab Buyuk Britaniyaning YEIHga a'zo bo'lishi shartlari haqida muzokoralar boshlandi.

E.Xit juda uzoq davom etgan "Yevropa uchun kurash" jarayonining iloji boricha tezroq nihasiga yetkazishga ishtiyoqmand edi. Buyuk Britaniyaning Yevropa Hamjamiyati tizimiga qo'shilishi haqidagi siyosiy qarorga 1971 yil may oyida E.Xitning Pompidu bilan uchrashuvi chog'ida qabul qilingan. Fransiya va Britaniya diplomatiyasi federalistik loyihalarga emas, balki Gollchilarning "Vatanlar Yevropasi" g'oyasiga nisbatan moyillik bildirdilar. Keyingi muzokoralarda Buyuk Britaniyaning "Umumiy bozor"ga kirishi shakli ham aniq belgilandi. Besh yillikka mo'ljallangan "moslashish davri"ni o'tkazish ko'zda tutilayotgan edi. Buyuk Britaniya va YEIH o'rtasida savdo-sotiqqa oid bojlarning miqdori asta-sekin yiliga 20% dan qisqara boshladi. Shu davr mobaynida Buyuk Britaniya Hamdo'stlik mamlakatlari bilan imtiyozi savdoni bosqichma-bosqich qisqartirib borishi kerak edi. Buyuk Britaniyaning "Umumiy bozor"ga qo'shilishi shakli masalasidagi asosiy muammo valyuta-moliya sohasiga tegishli edi. 1970-1974 yillarda YEIHning o'zida budjetni isloh qilish muhokamasi bo'layotgan edi. Yangi qoidalarga ko'ra, budjetini moliyalash uchun Buyuk Britaniya va Hamjamiyatining boshqa davlatlari Hamjamiyatlari fondiga uchinchi dunyo mamlakatlari (jumladan, Hamdo'stlik

mamlakatlari)dan keltirilgan qishloq xo'jaligi importiga soliqlar, uchinchi dunyo mamlakatlaridan importning barcha bojxona to'lovlari, hamda ustama narx uchun olinadigan soliqning bir qismini o'tkazishlari kerak edi. Buyuk Britaniyaning Hamjamiyatiga bosqichma-bosqich kirib borishi hisobga olingan holda uning umumiy budjetga to'lovlari 1973 yilda 100 million funt sterlingdan, 1980 yilda 300 million funt sterlinggacha ko'tarilishi kerak edi. Shunday qilib, Buyuk Britaniya "Umumiy bozor"ga kirayotganida Hamjamiyat budjetining 8%ini, 1977 yilda deyarli 19%, 1980 yilga kelib esa 24%dan ko'prog'ini to'lashi kerak edi.

qabul qilish shartlari to'g'risidagi muzokoralarning natijalari Briatniya parlamentdagi Yevropeistlik kayfiyatini biroz tinchlantirdi. Ikkala partiyada ham "yevro skeptik"lar va "yevroromantik"lar guruhlarini tuzildi. Keskin bahs-munozaralardan so'ng, 1971 yil 28 oktabrida umum palatasi ko'pchilik 356 ta ovoz (244 ta qarshi va 22 ta ovoz berishmagan) bilan integratsion loyihani qo'llab-quvvatladi. 1972 yil 22 yanvarda Bryusselda Buyuk Britaniyaning 1973 yil 1 yanvardan boshlab Yevropa Hamjamiyati tarkibiga kirishi to'g'risidagi shartnoma imzolandi. Bu qarorga qarshi bo'lganlar mamlakatda referendum o'tkazishni talab qilishsa, Xit va Vilsonlar bu shartnomani parlamentda tasdiqlanishi tarafdorlari edi.

Buyuk Britaniyaning Yevropa Hamjamiyati tizimlariga qo'shilishining huquqiy jihatlarini o'ziga xos bo'ldi. Yevropa huquqi uchun ikkita asosiy tamoyillarining birligi xarakterli edi: Hamjamiyat hududining milliy huquqlarga nisbatan ustunligi va Yevropa hududining a'zo mamlakatlar hududida to'g'ridan-to'g'ri amal qilishi. Buyuk Britaniya uchun ushbu huquqiy doktrina, undagi o'ziga xos konstitutsion tamoyil birligi sababli to'g'ri kelmas edi. Bu tamoyilga ko'ra ("parlament ustunligi") parlament huquqiy xujjatlarining har qanday tashqi manbalar, jumladan xalqaro shartnomalardan ham ustunligi e'tirof etilardi. Shu sababli Buyuk Britaniyada implementatsiya, ya'ni xalqaro shartnomalarning Milliy huquq normalariga bo'ysundirilishi shakllangan.

Xalqaro shartnomani mamlakat hududida amalga tatbiq etish uchun Britaniya parlamenti implementatsiya tartibida xalqaro shartnoma matnini saqlab qoluvchi yoki uni ingliz huquqi asosida qayta yozilishi asosida qonuni chiqaradi. Bu xalqaro huquq normalarining boshqa mamlakatlardan ratifikatsiyasi (kuchga kirishi)dan tubdan farq qiladi va shartnomaning oliy boshqaruv organlari tomonidan tasdiqlanishidan iborat. Buyuk Britaniyada ushbu amaliyot natijasida to'g'ridan-to'g'ri faqat milliy huquq amal qiladi, ingliz huquqlari esa milliy huquqqa, ichki davlat va xalqaro, zarur bo'lgandagina amal qiluvchi huquq sifatida ko'rsatishadi.

Britaniyaning hukumat ekspertlari va xalqaro komissiyalarining sa'i-harakatlaridan so'ng 1972 yil yoziga kelib, Yevropa Hamjamiyati uchun yagona bo'lgan Yevropa huquqining Buyuk Britaniya hududi amal qilish tartibi ishlab chiqildi. U "dualistik model" nomini oldi va bu holatda Yevropa va Milliy huquqlar yetarlicha mustaqil tizim ekanligini ta'kidlardi. Yevropa huquq aktlarini Buyuk Britaniya hududiga amal qilishi uchun implementatsiya amaliyoti qo'llanishi kerak edi, ammo Yevropa huquq normalariga zid bo'lgan milliy qonunlar o'z kuchlarini yo'qotardi.

1973 yil 1 yanvarida Buyuk Britaniya Yevropa Hamjamiyatining to'laqonli a'zosiga aylandi. Ammo leyboristik partiyaning so'l qanoti va konservatorlar - "yevrosketik"lar ilgariidek Buyuk Britaniyaning YEIHga a'zolik prinsiplarini qayta ko'rib chiqishni talab etishardi. Bu talabning jarchisi J.Kollagen bo'ldi. Vilson esa 1974 yildagi parlament saylovlaridagi g'alabadan so'ng, aksincha "Yevropacha siyosatni" tubdan isloh qilishdan voz kechdi.

Uzoq muddatli "Yevropa uchun kurash"ga 1975 yil 5 iyunda ro'y bergan referendum nuqta qo'ydi. Referendum a'zolarining uchdan ikki qismi mamlakatning Yevropa Hamjamiyati tarkibida bo'lishini yoqlab ovoz berishdi. Ammo bosh vazir lavozimiga Kollagen kelgandan so'ng Britaniya diplomatiyasi Hamjamiyat budjeti to'laydigan mablag'lar miqdorini kamaytirishga harakatlarni davom ettirdi. Buyuk Britaniya YEIH ga "yagona hisob-kitob birligi" (EKYU)ni joriy etish, valyuta ittifoqini tashkil etish loyihasi va Yevroparlamentga to'g'ridan-to'g'ri saylovlarga nisbatan salbiy munosabatda edi. Kollagen bunday saylovlarni 1980 yilgacha (Buyuk Britaniyada) kechiktirilishiga erishdi. Britaniya diplomatiyasining yana bir muhim

g'alabasi shundan iborat ediki, Yevrokomissiya 1975 yilda Milliy Hamdo'stlik mamlakatlari bilan YEIH davlatlari o'rtasida imtiyozli iqtisodiy munosabatlar o'rnatish haqida shartnoma tuzish to'g'risida qaror qabul qildi.

Buyuk Britaniyaning Yevropaga oid siyosatining faollashuvi Londonning Vashington bilan "maxsus" munosabatlarini susaytirdi. Atlantik hamdillikni rad etmasdan G.Vilson AQShning "kichik sherigi" ro'ldan voz kechardi. AQShning 60-yillardagi o'ta avantyuristik siyosati Londonda unga nisbatan nafratni kuchaytirdi. Ingliz-Amerika munosabatlaridan yaqqol ko'rsatuvchi voqea Londonning Vyetnamga hech bo'lmasa ramziy harbiy kuchlarni jo'natishdan bosh tortganligi bo'ldi. O'z navbatida Amerika diplomatiyasi Buyuk Britaniyaning Gonkong, Malayya va Fors qo'ltig'idagi mavqeini kuchaytirish yo'lidagi sa'i harakatlarini qo'llab-quvvatlashdi.

Xit hukumatining hokimiyat tepasiga kelgan davrida ham Ingliz-Amerika munosabatlaridagi sovuqlik o'zgarmadi. Ikkala mamlakat manfaatlari to'qnash kelishiga hech qanday asos bo'lmasada, lekin diplomatik qarama-qarshiliklar tez-tez bo'lib turardi. 1971 yilda bo'lib o'tgan ikkinchi Hindiston-Pokiston urushi davrida Buyuk Britaniyaning betaraf bo'lishga harakat qilishi va vositachi bo'lishga urinishiga qaramasdan AQSH Pokistonni qo'llab-quvvatladi. O'sha vaqtda AQSH Xitoy bilan o'ziga xos siyosiy muloqot yurgizib, o'zining hatti-harakatlarida Buyuk Britaniyaning janubiy Osiyodagi manfaatlarini hisobga olmadi. O'z navbatida Buyuk Britaniya ham 1965 va 1973 yillarda Yaqin Sharqda yuz bergan halqaro inqirozlar vaqtida AQShning arablarga qarshi tutgan keskin pozitsiyasidan ikki xil tushunib bo'lmaydigan darajada oraliq masofa saqlashga harakat qildi.

1974 yilda leyboristlar hokimiyat tepasiga qaytganidan so'ng Ingliz-Amerika munosabatlarida ko'zga tashlanarli ilqlik boshlandi. Leyboristlar hukumati Yevropaga nisbatan va atlantik siyosatini muvozanatga keltirishga urinib ko'rdi. Kollagen hattoki Yevropa Amerika siyosiy muloqotida vositachi bo'lishga da'vogar bo'ldi. Bunga Vashingtonning NATO doirasida ancha teng huquqli munosabatlarga o'tishi ham yordam berdi.

60-yillarda Sovet-Britaniya munosabatlari juda sovuq xarakterga ega bo'ldi. Bu munosabatlardagi normallashtirish tashqi ishlar vaziri Duglas-Xyumning yangi 1973 yilda va ngi bosh vazir Vilsonning 1974 yilda Moskvaga tashrifidan so'ng ro'y berdi. Keyingi yillarda London nafaqat G'arbiy Germaniyada "ko'priklar qo'yish" siyosatini qo'lladi, balki Umumevropa xavfsizlik tizimining shakllanishida ham ishtirok etdi. Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik bo'yicha yig'ilishni tayyorlashning oxirgi bosqichida Buyuk Britaniya delegatsiyasi uni samarali ishlashida faol yordam berdi. 1975 yil 1 avgustda Bosh vazir G.Vilson boshqa mamlakatlar rahbarlari bilan birgalikda Xelsinki yig'ilishining so'nggi aktiga imzo qo'ydi. Bosh vazir lavozimiga J.Kollagen kelgan paytlarda Britaniya tashqi siyosatining SSSR bilan iqtisodiy hamkorlik, siyosiy qurolsizlanishini qo'llab-quvvatlash, Umumevropa Xavfsizligini ta'minlash yanada kuchaydi.

Murakkab muammo Buyuk Britaniyaning uchinchi dunyodagi rolini aniqlashdan iborat edi. Britaniyaning "Suvayshdan sharqqa qarab" siyosati tamoyillarini qayta ko'rib chiqish kerakligi 60-yillarning boshlaridayoq yaqqol bo'lib qoldi. Ammo Makmillanning "o'zgarishlar shamoli"ni tan olishga chaqiruvchi hali globalistik kayfiyatlardan butunlay voz kechishini bildirmasdi. U paytda gap siyosiy usullarni o'zgartirish to'g'risida borardi, an'anaviy ta'sirlik taqalarini tark etish haqida emas. Hokimiyat tepasiga kelagn G.Vilson hattoki "Britaniya chegaralari Himolaydan o'tishi" haqida jar soldi.

Britaniya pozitsiyasiing uchinchi dunyo mamlakatlarida susayganligi Hindiston-Pokiston to'qnashuvlarida yaqqol namoyon bo'ldi. 1965 yil bahorida Londonning vositachilik harakatlariga qaramasdan Hindiston va Pokiston o'rtasidagi keng ko'lamdagi harbiy harakatlarning oldini olishga muvaffaq bo'linmadi. Faqatgina sentbrga kelib bu mamlakatlar BMTning urushni to'xtatish haqidagi talabiga bo'ysunishdi, ulardagi vaziyatni tinchlik yo'li bilan hal qilish SSSR tomonidan amalga oshirildi. Hindiston-Pokiston o'rtasidagi yangi to'qnashuv 1971 yil dekabrda ro'y berdi. Bu galda SSSR amalda ochiqchasiga Hindistonni qo'llab-quvvatladi va BMTning Xavfsizlik Kengashining urush harakatlarini to'xtatish

to'g'risidagi rezolyutsiyasini bajarmadi. AQSH Pokistonga yordam berdi. Hindiston armiyasining g'alabasi Bangladeshda mustaqil davlatining tashkil etilishiga olib keldi. Pokiston shu davrdan boshlab AQShning strategik hamkoriga aylandi, Hindiston esa SSSR bilan yaqinlashdi, Buyuk Britaniyaning esa bu mintaqadagi ta'siri ancha pasayib ketdi.

Britaniya diplomatiyasining Yaqin Sharq inqirozini hal qilishga bo'lgan harakatlari ham muvaffaqiyat keltirmadi. Buyuk Britaniyaning bu mintaqadagi manfaatlari asosan Suvaysh kanalidan foydalanish muammolari va Yamandagi protektorat taqdiriga bog'liq edi. 1962 yilda Shimoliy Yamanda inqilob ro'y berdi. Fuqarolik to'qnashuviga yirik arab mamlakatlari ham jalb qilindi (Misr respublikachilarni, Saudiya Arabiston monarxistlarni qo'llab-quvvatladi). Buyuk Britaniya bu voqealardan amalda uzoqlashib, Janubiy Yamandagi boshqaruvini (hukmronligini) saqlab qolishga harakat qildi. U yerda 1962 yilda 17 ta Britaniya protektoratlari asosida Janubiy Arabiston Federatsiyasi tashkil qilingan edi. Ammo bir yil o'tmasdan bu yerda ham kelishmovchilik ro'y berdi. Milliy frontning qurolli otryadlari Britaniya harbiy qismlariga qarshi harbiy harakatlarni boshladi. 1964 yilda hokimiyat teppasiga kelgan leyboristlar hukumati Yaman muammosini huquqiy yo'l bilan bartaraf etishga urinib ko'rdi. Janubiy Yamanga suverenitet berilishi jarayoni 1968 yilga kelib yakunlandi.

60-yillarning oxirida Arab-Isroil to'qnashuvlari ham keskinlashdi. 1967 yil 5 iyunda Isroil va Misr-Suriya harbiy kuchlari o'rtasida harbiy harakatlar boshlandi. Isroil uchun muvaffaqiyatli bo'lgan "olti kunlik urush" portlash xavfi bo'lgan mintaqadagi keskin vaziyatni yana keskinlashtirdi. 1970 yilda Nosirning vafotigacha Misrning sovetparast rejimi AQShga tayangan Isroilga qarshilik ko'rsatib keldi. Britaniya diplomatiyasi esa aksincha biror bir faol pozitsiyada voz kechdi. Aynan, 1967 yil oxirida Vilson hukumati "Suvayshdan sharq tomon"dagi mintaqalarni "tark etish" haqida amalda e'lon qildi. Bu Londonning sobiq ishtirokchilik, globalistik kayfiyatlardan butunlay voz kechganligini bildirardi.

1973 yildagi Arab-Isroil urushida Buyuk Britaniya Yevropaning boshqa mamlakatlari qatorida so'nggi marta tinchlik yo'li bilan hal qilishda tashabbus ko'rsatishga urinib ko'rdi va hattoki Isroilda ishlatilayotgan Britaniya harbiy texnikasi uchun Isroilga Buyuk Britaniyadan ehtiyot qismlar jo'natilishiga emborga ham qo'ygan edi. Ammo, oxir-oqibatda London AQShning qadamlarini to'la qo'llab-quvvatladi, bu esa 1979 yilda Kempdevid shartnomasining imzolanishiga olib keldi.

60-70 yillarning ikkinchi yarmida Millatlar Hamdo'stligining iqtisodiy va siyosiy-huquqiy asoslarining takomillashtirilishi va uning tarkibining kengayishi davom etdi. Bu o'zgarishlarning umumiy leytmotivi (asosiy g'oyasi) Hamdo'stlikning xalqaro tashkilotlarning umum qabul qilingan qonunlariga yaqinlashishi bo'ldi. Hamdo'stlik tabiatini aniqlashga yangicha yondashuv ilk bor 1965 yilda "Hamdo'stlik Kotibiyati to'g'risidagi muvofiqlashtirilgan memorandum"da aks ettirilgan edi. Bu xujjatda ta'kidlanishicha Hamdo'stlik mustaqil davlatlar birlashmasi bo'lib, xalqaro huquq nuqtai nazaridan norasmiy tashkilot xarakterini saqlab qoladi va o'z a'zolaridan biror-bir umumiy qarorlarni qabul qilish yoki biror yagona harakatlarni bajarishni talab qilmaydi.

Hamdo'stlik faoliyatining umumiy asoslarining to'laroq xarakteristikasi (tavsifi) 1971 yildagi Hamdo'stlik tamoyillarining Singapur deklaratsiyasida berildi. Unda yozilishicha "Hamdo'stlik-bu mustaqil suveren davlatlarning ko'ngilli birlashmasi bo'lib, bu davlatlarning har biri o'z siyosati uchun javobgar, ammo ular o'z millat va xalqlar umumiy manfaatlari va xalqaro yakdillik va tinchlik yo'lida o'zaro maslahatlashadilar va bellashadilar". Uning faoliyatining asosiy shakllari "maslahatlar, muhokamalar va hamkorlik" deb ataldi. Deklaratsiyada ko'rsatilishicha Hamdo'stlikka a'zolik butunlay ixtiyoriydir va Hamdo'stlikka qabul qilingan har qanday davlat uning tarkibida qolish jumladan undan chiqish masalalarini butunlay o'zi mustaqil hal qiladi.

Hamdo'stlikning ko'pchilik yangi a'zolari uchun irqiy muammo va mustamlakachilikka qarshi harakatlar masalasi juda muhim edi. Singapur deklaratsiyasi Hamdo'stlikning eng muhim maqsadlarining biri sifatida mustamlakachilik hukmronligi va irqchilikning har qanday shakliga qarshi kurashishni e'lon qildi. Deklaratsiya Hamdo'stlik a'zolariga o'z davlati hududida

irqchilikka qarshi faol kurash olib borish, hamda irqiy kamsitishga yo‘l qo‘yayotgan har qanday mamlakatni qo‘llab-quvvatlamaslik majburiyatini yukladi. Xitning hukumati bu yo‘nalishni umuman qo‘llab-quvvatladi, ammo Hamdo‘stlikning Britaniya davlatining ichki ishlariga, ayniqsa, muhojirlar siyosatiga aralashuviga yo‘l qo‘yildi. Singapur konferensiyasida Xit hukumatining Janubiy Afrikadagi rejimga qurol sotishni yana qaytadan tiklash haqidagi qarori keskin bahs-munozaralarga sabab bo‘ldi.

Sobiq mustamlakalar hududidagi Milliy va irqiy to‘qnashuvlar isloh qilinayotgan hamdo‘stlik uchun eng og‘ir muammo bo‘ldi. 1967 yil kuzida Nigeriyaning federal hukumati Buyuk Britaniyadan ayirmachi (separatist)larga qarshi kurashda ko‘mak so‘radi. Ammo, Londonning sustkashligidan norozi bo‘lgan holda SSSRga harbiy texnik yordam uchun murojaat qildi. 1969 yil martida Vilsonning shaxsan o‘zi Nigeriyaga tinchlikni barqarorlashtirish uchun borishga majbur bo‘ldi. 1970 yilga kelibgina to‘qnashuv bartaraf etildi.

Britaniya hukumati Janubiy Rodeziyadagi voqealarga nisbatan esa yanada ko‘proq o‘jizligini namoyish qildi. 1964 yilda Yan Sintning irqchilikka moyil rejimi hokimiyat tepasiga keldi va bir yildan so‘ng mamlakat mustaqilligini e‘lon qildi. Vilson hukumati Rodeziyadagi tuzumning o‘zaro hamkorlikdan bosh tortganligini qoraladi, ammo muammoni hal qilish uchun zo‘ravonlik choralarini qo‘llash imkoniyati yo‘qligini ma‘lum qildi. Afrikaning Hamdo‘stlik tarkibidagi davlatlari Sint rejimga nisbatan qat‘iy chora ko‘rishni talab etishdi. Vilsonning 1966 va 1968 yillarda Sint bilan yakkama-yakka uchrashuvlari hech qanday natija bermadi. Rodeziya hukumati Janubiy Afrika Respublikasiga tobora yaqinlasha borib, undagi apartsid xususiyatlaridan nusxa olib boshladi. Tez orada Rodeziya muammosini bartaraf qilishga oid tashabbusni AQSH diplomatiyasi o‘z zimmasiga oldi, bu masalaga esa 1979 yilda M.Tetcher boshchiligidagi yangi Britaniya hukumati uzil-kesil nuqta qo‘ydi.

4. M.TETCHERNING NEOKONSERVATIZMIDAN E.BLERNING “YANGI LEYBORIZM”GA.

M.Tetcher va Britaniyada “neokonservativ inqilobi”.

Konservatorlarning 1974 yili o‘tkazilgan saylovdagi mag‘lubiyati ichki partiyaviy muxolifatning faollashuviga chaqiruv bo‘ldi. Uning g‘oyaviy yetakchisi hukumat tarkibida bo‘lgan vaqtlardayoq Margaret Tetcher bilan birgalikda bir necha bor Xitning siyosatiga qarshi chiqishlar qilgan Xit Jozef edi. Jozef guruhining tashkiliy shtabi 1974 yilda tashkil etilgan siyosiy tadqiqotlar markazi (direktori Alfred SHerman edi). Partiyaning huquqiy qanotiga tayanib, Jozef o‘z qarashlarini nafaqat Xitga, balki torilarning makmillanchilarning yangi tarafdorlariga ham qarshi qo‘yishga harakat qildi. Xit Jozef Tetcher va SHermanlar bilan birgalikda g‘arb jamiyatining 70-80 yillardagi ma‘naviy qiyofasini o‘zgartirgan umumiy neokonservativ to‘lqinga hamohang bo‘lgan “yangi konservatizm” konsepsiyasining uchinchi variantini ishlab chiqishga harakat qilayotgan guruhga rahbarlik qildi.

Jozef va “yangi konservatizm”ni tubdan o‘zgartirishning boshqa tarafdorlari Britaniya jamiyaidagi muammolarning ildizini barcha urushdan keyingi hukumatlarning qat‘iylik bilan “odamlarning ko‘p, ko‘proq soni uchun iloji boricha ko‘proq, ko‘proq bajarish, iqtisodiyot va jamiyatni bir namuna asosida qayta qurishga” harakat qilishlarida ko‘rardi. Ular urushdan keyingi “ijtimoiy davlat” modelini tubdan o‘zgartirish zarurligini ta’kidlashdi. Xit 1974 yil kuzidagi saylov kompaniyalari vaqtidayoq bu qarashlarga yon bosishga majbur bo‘ldi. Xit partiya rahbarini qayta saylash uchun saylov o‘tkazishga qaror qildi.

Vaziyatning keskin o‘zgarishi tufayli K.Jozef saylov kompaniyasidan tez orada chiqib ketdi. 19 oktabrda u parlamentdagi nutqida g‘ayrat bilan jamiyatning “aqliy va ma‘naviy sog‘lomlashtirish” yo‘llarini muhokama qilishga kirishib ketdi. Zamonaviy inqirozning eng muhim sabablaridan biri deb u past tabaqalar o‘rtasidagi tug‘ilishning yuqori ko‘rsatkichlari tufayli “inson zahiralarining yomonlashuvi”ni ko‘rsatdi. Keyingi kunlar davomida esa Jozef boshiga maltuschilik g‘oyasini targ‘ib qilish tarafdori degan ayblovlar yog‘ildi. Bunday

vaziyatda u partiya yetakchiligi uchun kurashishdan voz kechishini ma'lum qilishga shoshildi va bu jarayonda qatnashishni M.Tetcherga taklif qildi.

Tetcherning o'zi esa bu vaqtda o'zining siyosiy qiyofasini qat'iy o'zgartirdi. Uning keskin qoralashlar, betga choparlik va hattoki keskinlik bilan so'zlangan nutqlari, Xitning ma'rifiy va bosiq nutqlaridan keskin farq qilardi.

1975 yilda Tetcher o'ta og'ir inqirozni boshdan kechirayotgan partiyaning rahbari bo'ldi. Parlamentdagi fraksiya va partiyaning butun rahbariyati guruhlarining keskin raqobati natijasida susaygan edi. 50-yillarning boshiga nisbatan partiya a'zolari soni ikki marta, "yosh konservatorlar" harakati a'zolari soni esa uch martagacha kamaygan edi. Bularning hammasi Tetcherga partiyaning ichida tozalash o'tkazishdan voz kechishga emas, balki partiya elitasini birlashtirishga majbur etdi. Uning "yashirin kabinetida"gi muhim lavozimlarni nafaqat Jozef va Nivlar, balki yaqindagina siyosiy jihatdan raqib bo'lgan Prayor va Xaular ham egallashdi. Uaytlau esa hattoki, partiya yetakchisining o'rinbosariga aylandi. Tetcher atrofida "eski gvardiya" a'zolaridan Lord Tornikfort, R.Modling, A.Madler ham paydo bo'lishdi. Shu bilan bir vaqtda Tetcher "orqa kursichilar" o'rtasida ham o'z ta'sirini mustahkamlash uchun ko'p harakat qildi. U norasmiy tarzda oddiy deputatlar bilan muloqotda bo'lar, ko'p yillik an'anaga qarshi o'laroq lanch paytida past nufuzli parlament kafelarida bo'lar, muhim muammolarni stol atrofida yoki navbatlarda muhokama qilar, mintaqaviy va yoshlar tashkilotlari vakillari bilan ko'plab uchrashuvlar o'tkazardi.

Tetcher ataylab partiya rahbariyati uslubini o'zgartirarli. U yuzlab partiya faollarining qo'llab-quvvatlashsiz "ommaviy partiyaning" tubdan o'zgartirishsiz ijtimoiy yangilanish radikal dasturlarini amalga oshirish mumkin emasligiga qattiq ishonardi. Partiyaga Xit kabi siyosatchi emas, balki yangi toifadagi yetakchi, tolmas kurashchi va qat'iyatli siyosatchi kerak edi. Tetcher ustalik bilan "millatni ozod etish" uchun "qo'shinni" "jangga" olib boruvchi "general" rolini o'z zimmasiga oldi. Ammo, "temir xonim" nufuziga ega bo'lgan Tetcher, partiyaning oddiy a'zolari uchun o'sha muhitdan chiqqan, fikrlash, qadriyatlarga munosabat va hayotiy tajriba jihatidan yaqin bo'lgan "o'zining odam" qiyofasini saqlab qolishga harakat qilardi. Bunday siyosiy usul Britaniya neokonservatizmining eng muhim farqlanuvchi belgisi bo'lib qoldi.

1976-1978 yillarda Konservatorlar partiyasining mafkuraviy yangilanishini aks ettiruvchi dasturiy xujjatlar kompleksi ishlab chiqilgan edi. Asosiy yo'nalishlar antietatistik va antibyurokratik to'ntarish, xususiy tadbirkorlik asosidagi iqtisodiy o'sish dinamikasini ta'minlash, raqobatni rivojlantirish, soliqlarni kamaytirish g'oyalaridan iborat bo'ldi. Neokonservativ dasturning o'ziga xos xususiyati "yagona millat" tiklanishi va ijtimoiy totuvlikni ta'minlash g'oyalaridan iborat edi. Xitning jamoasi tomonidan ishlab chiqilgan "mulkdorlar demokratiyasi" konsetsiyasi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan Tetcherning yangi konservatizmi zamonaviy iqtisodiy nazariyaga asoslangan edi. Uning asosini M.Fridmanning Chikago monetarizm maktabi va taklif nazariyasi tarafdorlari A.Laffer va R.Riganlarning asarlari tashkil etardi. Buyuk Britaniyaning o'zida monetaristik nazariya 60-yillardan boshlab Manchester Universiteti iqtisodchilari va M.Parkin va D.Loydler, hamda Birmingem universitetidan A.Uolterslar tomonidan rivojlantirilayotgan edi. 70-yillarda ularga Liverpul universitetdan P.Minford guruhi va London iqtisodiyoti maktabidan B.Griffitslar qo'shildi. Uolters o'sha paytdayoq M.Tetcherning iqtisodi bo'yicha maslahatchisi etib tayinlangan edi.

Neokonservativ yo'nalishdagi iqtisodchilar davlat tomonidan makroiqtisodiy boshqaruv iqtisodiy o'sishni ta'minlay olmasligini isbot qilishardi. Iqtisodiy o'sishning asosini faqatgina tashqari ta'sirsiz, tabiiy raqobatga, bozordagi ishbilarmonlik va ishlab chiqarish madaniyatiga asoslangan tarqoq tartib tashkil etishi mumkin. Davlatning vazifasi bunday iqtisodiy tuzumning barqarorligini ta'minlash, eng avvalo inflyatsiyaga qarshi kurashishdan iborat bo'lishi kerak. Davlat tejamli budjet to'lovlari amaliyoti, daromadlarning tez oshib ketishi, faol dotatsiya siyosatidan voz kechishi kerak. Iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarning saqlab turishga, neokonservatorlarning fikricha, umumiy talabni oshiruvchi omillarni rivojlantirish orqali emas, balki samarali taklifni ta'minlash-kapital va ishchi kuchning harakatlanishi, ularni taqdirlashni "tabiiy ishsizlik" sharoitida mehnat bozoridagi raqobatga mulkni xususiy sektor foydasiga qayta

taqsimlashga, biznesning muvozanatlashtirilgan tuzilmasini shakllantirish, jumladan, kichik tadbirkorlikni rivojlantirishga, ishbilarmonlik faoliyatini har tomonlama rag'batlantirgan holda ijtimoiy PATERNALIZMdan voz kechishga qaratildi.

Tetcher va uning tarafdorlarining muhim xizmati monetarizm iqtisodiy nazariyasini to'laqonli dunyoqarash darajasidagi ijtimoiy-siyosiy ta'minot darajasiga ko'tarishdan iborat bo'ldi. Taklif qilinayotgan iqtisodiy model samaradorligini hisoblashdan tashqari, Britaniya konservatorlarining yangi avlodi shaxsning ijtimoiy faolligi va javobgarligining yangilanishi, davlat yordamiga umid bog'lamasdan o'z hayoti uchun o'zi kurashadigan konkret inson manfaatlari ustunligi zarurligidan kelib chiqdilar. Bu ijtimoiy mafkuraning ramzi "bepul pishloq faqat qopqonda bo'ladi"-dan iborat bo'ldi. Britaniya neokonservatizmi siyosiy fikrining asosiy xususiyati ma'naviy argumentatsiya(dalliar keltirib isbotlash)ning katta roli inglizlarning "tabiiy" konservatizmga Britaniya jamiyatining an'anaviy viktorianlikka xos ma'naviy qadriyatlar- oila va dinga, qonun va tartibga, mehatsevarlik va ehtiyotkorlikka nisbatan hurmatga nisbatan appelyatsiyadan iborat edi. Tetcher siyosiy dasturi uchun "qonun va tartib" shiori markaziy shiorga aylandi. Jamiyatning turg'un va karaxtligiga qarshi kurashgan holda u o'ta tartibsizlik chalkashlikka emas, balki barqaror va harakatchan jamiyatni barpo etishga chaqirardi. O'zgarmas hissiyotga beriluvchanlik, keskinlikka asoslangan, "temir xonim"ning siyosiy usuli, chiqishlarining jo'shqinligi, qo'yilgan maqsadlarga erishish yo'lida qat'iylik va izchillik bilan birgalikda - bu pastulatlarning hammasi Britaniyaga xos neokonservativ siyosiy falsafaning asosini tashkil etdi.

1977 yil may oyida bo'lib o'tgan mahalliy saylovlardagi g'alaba konservatorlar partiyasining yangilanishida keskin burilish yasadi. Hukmron partiya, aksincha saylovchilarning ishonchini yo'qota boshladi. 1979 yildagi "issiq qish"ning norozilik to'lqini ko'pgina inglizlarni Tetcherning dalillari to'g'riligiga ishontirdi. Konservatorlar partiyasi tarafdorlari uchun 1979 yil martida Irland ekspremistlari tomonidan Eyri Nivoning o'ldirilishi qattiq zarba bo'ldi. 28-mart kuni konservatorlar umum palatasiga hukumat ishonchsizlik votumi bilan rezolyutsiyani taqdim etishda va u bir ovozdan qabul qilindi. Hukumat parlament tarqatilishini uyushtirishga majbur bo'ldi. 1979 yil 3 martdagi saylovlarda konservatorlarni saylovchilarning 43,9%i qo'llab-quvvatladi va ular 339 ta (635 tadan) mandatni qo'lga kiritishdi.

Hukumat tarkibini tanlashda Tetcher bu gal o'z tarafdorlari, ya'ni qat'iy monetar siyosat tarafdorlariga yon bosdi. Asosiy vazirliklar hisoblangan, moliya va sanoat vazirliklari Jefri Xau va Kit Jozefga topshirildi. Tetcher kollegial (bamaslahat) va har qanday bo'linishga chek qo'yib hukumat ishlashi xarakterini tubdan o'zgartirdi. Hukumatda ilgari Tetcherning parlamentdagi chiqishlari ruhida keskin bahs-munozaralar olib borish rasm bo'lib qoldi. qarorlar ko'proq komissiya va kabinet ishtirokisiz kichik doiradagi siyosatchilar va bosh vazir ishtirokida qabul qilinadigan bo'lib qoldi. 1981 yildayoq "Temir xonim" hukumat tarkibidan yetarlicha qat'iyatli bo'lmagan siyosatchilarni chetlashtirib, uni "tozaladi".

Tetcher hukumati o'ta murakkab iqtisodiy va ijtimoiy siyosat muammolariga duch keldi. 1979 yil o'rtasi uchun xos bo'lgan iqtisodiy jarayonlarning ijobiy dinamikasi tezda o'sayotgan inqiroz bilan almashdi. "Neft inqirozi" salbiy oqibatlarga olib keldi. 1979 yilda Eronda shohlik tuzumining ag'darilishi va Eron-Iroq urushining boshlanishi munosabati bilan OPEK mamlakatlari neft narxini ikki baravar oshirishdi. 1980 yildayoq G'arb mamlakatlari yana bir qayta ishlab chiqarish inqiroziga duch kelishdi. Buyuk Britaniyada sanoat ishlab chiqarishi 12%ga, qayta ishlovchi sanoatda 16%, yengil sanoat sohalarida 27%gacha pasayish kuzatildi. Inqiroz yangi inflyatsiyaning avj olishi va ishsizlikning tez o'sishi bilan birga o'tardi. 1980-1981 yillarda ishsizlar soni 1,5 dan 3,3 million kishigacha oshdi. Ammo bunday salbiy sharoitlarga qaramasdan Tetcher hukumati o'zining oldingi iqtisodiyotni strukturaviy isloh qilish rejasidan voz kechmadi.

Monetar konsepsiyasi mantig'iga ko'ra, hukumat oldin inflyatsiya sur'atlarini pasaytirishga urindi. Bu vazifa sanoat korxonalariga dotatsiya qilish amaliyotidan voz kechishni, emissiya ustidan qattiq nazorat o'rnatishni, "qimmat kredit" siyosatiga qaytishni talab qilardi. Soliq tizimi qayta ishlab chiqildi. Daromad solig'ining pasayishi va alohida shaxs va

korxonalarni to'g'ridan-to'g'ri soliqlar tortishdan egri soliqlarga o'tish natijasida katta daromadlardagi to'g'ri soliqlar 3,5 mlrd. funt sterlingga kamaydi, shu bilan bir vaqtda budjet daromadlarida egri soliqlar urushi 34% (1979 y)dan 39% (1981 y)gacha ko'tarildi. Ko'pgina iste'mol mollari, maishiy xizmat, tibbiy xizmat ko'rsatish va boshqalarga joriy qilingan oshirilgan narxlardagi soliqlar stavkasi 8%dan 15%gacha oshirildi. Bu choralarning hammasi shaxsiy iste'molni qisqartirishni tashviqot qilish bilan bir vaqtda amalga oshirildi. Neokonservatorlar millati "mablag'ga qarab" yashashga chaqirdilar.

Ijtimoiy xarajatlarga qaramasdan Tetcher hukumati kommunal va yo'l qurilishi xo'jaligi, madaniyat, ta'lim sohasidagi davlat xarajatlarini keng ko'lamda kamaytirishga qaror qildi. 1980-1981 yillarda budjetdagi harakat moddalariga mos xarajatlar 4 mlrd.funt sterlingga qisqartirildi. Shu bilan birga davlat apparatida xodimlar sonini kamaytirildi va uni ta'minlash uchun xarajatlar ham qisqartirildi. Budjet vositalarini tejash shiori ostida mavjud davlat boshqaruv tizimini tubdan qayta qurish amalga oshirilayotgan edi. 1982 yilga kelib, hukumat tarkibidagi barcha soha vazirliklari bekor qilingan edi.

Inflyatsiyaga qarshi siyosatning eng muhimi va tarkibiy qismlarida iqtisodiyotni liberallashtirishning radikal vositasi davlat korxonalarining xususiylashtirishidan iborat edi. Ularning ko'pchiligi zarar keltiruvchi edi va doimiy dotatsion xarajatlarni talab qilardi. Bu yukdan qutulish va xususiylashtirishdan kelgan mablag'lar budjet balansini ancha yaxshilashi mumkin edi. Bunday qadam natijasida noiloj yana bir ishsizlik avj olishi va ijtimoiy norozilikning oshishini boshdan kechirishga to'g'ri keldi.

"Keskin" antiinflyatsion va strukturaviy siyosat allaqachon 1981-1982 yillarda ijobiy natijalar bera boshladi. Bu davrning tugashi arafasida inflyatsiya 4-5% ga pasaydi. 1982 yilning ikkinchi yarmidan boshlab Britaniya iqtisodiyotidan o'sish belgilari ko'zga tashlana boshlandi. 1983 yildan boshlab esa ishlab chiqarish qat'iy sur'atlar bilan o'sa boshladi. Eng rentabel (daromadli) kompaniyalarning aksiyalari kursi ancha ko'tarildi, xususiylashtirish yuqori sur'atlar bilan oshdi (10,3%ga). Aholining iste'molchilik harajatlari ham 6,5 %ga oshdi. Ammo "keskin davolash" rentabelligi sust bo'lgan sohalarda ishlab chiqarishning pasayishi, xususiylashtirilgan korxonalarda bandlikning kamayishi, mehnat bozorida kurashning keskinlashuviga olib keldi. 1981 yilga kelib mehnatga layoqatli aholi orasida ishsizlik 10% dan oshdi, yoshlar o'rtasida esa bu raqam to'rt baravar ortiq edi. Faqatgina 1980-1983 yillarda ishsizlar soni 2 milliondan 3 milliongacha oshdi. "Ichki shahar hududlari"- an'anaviy sohalarda faoliyat ko'rsatgan ishchilarning shahar-markazlarida joylashgan ilgari hududlari xarobazorlarga aylangan edi. Bu keskin muammoni keltirib chiqardi. Jinoyatchilik va terroristik harakatlarning o'sishi qayd qilindi.

1981 yilda Buyuk Britaniyaning yirik shaharlarini (London, Birgingem, Bristol, Liperpol) tarqoq norozilik namoyishlari qamrab oldi, bu namoyishlar ko'p hollarda namoyishchilarning politsiya bilan to'qnashuvlari bilan yakun topardi. Hukumat bunday namoyishlarni politsiya yordamida bosishga qaror qildi. Uyushgan ishchilar harakatiga nisbatan ham hukumat qat'iy pozitsiyada turib oldi. 80-yillarning boshida kasaba uyushmalarining norozilik namoyishlar o'tkazish huquqlarini cheklash to'g'risida bir qator qonunlar qabul qilindi. Barcha birdamlik namoyishlari g'ayriqonuniy deb e'lon qilindi. 1982 yilda ishga qabul qilinayotganda kasaba uyushmalari a'zolariga ishtiyoq beruvchi nizom bekor qilindi. Shimoliy Irlandiyadagi norozilik harakatlarini bostirish uchun hukumat yanada shafqatsizlarcha munosabatda bo'ldi. 1981 yilda u yerga qo'shimcha harbiy kuchlar jo'natildi. Katolik tashkilotlar faollarining sud tomonidan ta'qib qilinishi yanada kuchaydi. Bunga javoban Irlandiyalik mahbuslar ochlik e'lon qilib, hukumatdan o'zlariga nisbatan oddiy jinoyatchilarga qilinadigan muomalada bo'lmaslikni, balki ular o'zlariga siyosiy mahbuslarga nisbatan qilinadigan muomalada bo'lishini talab qilib chiqdilar. Ulardan 10 nafarining, jumladan parlament a'zosi B.Sendisning o'limiga qaramasdan hukumat mahbuslarga nisbatan o'z ta'qiblarini to'xtatmadi.

Buyuk Britaniyadagi ichki siyosiy vaziyatning keskin o'zgarishida 1982 yildagi Folklend (Malvin) orollari bilan bog'liq bo'lgan tushunmovchiliklar tufayli Argentina bilan sodir bo'lgan harbiy to'qnashuvlar tub burilish yasadi. Mamlakat hududidan 8000 milya uzoqlikda ro'y bergan

harbiy harakatlarning muvaffaqiyati hukumatning pozitsiyasini yanada kuchaytirdi. Bu to'qnashuv 11 hafta davom etib, bu vaqt mobaynida Tetcher harbiy harakatlarning siyosiy, moddiy va diplomatik ta'minoti bilan shaxsan o'zi shug'ullandi va o'zining "temir xonim" sifatidagi shuhratini butunlay tasdiqladi. qulay fursatdan foydalanib u navbatdan tashqari parlament saylovlari o'tkazishga qaror qildi. Saylov kompaniyasi hujumkor ruhda tashkil qilingan edi. Konservatorlar individual muvaffaqiyat va shaxsiy javobgarlik g'oyalari qo'llab-quvvatlovchi Britaniya jamiyati a'zolariga yon bosdilar.

Chuqur qayta qurish davrini boshidan kechirayotgan muxolifat saylov kurashiga tayyor emas edi. 1981 yilda leyboristlar partiyasining anchadan beri, pishib yetilgan (muqarrar bo'lib qolgan) parchalanishi ro'y berdi. Roy Jenkins boshchilik qilgan guruh, partiya tarkibidan butunlay chiqib ketdi va Buyuk Britaniyaning sotsial-demokratik partiyasini tuzdi. Uning rahbariyati liberallar partiyasiga yaqinlashishga harakat qildi. Liberal va Sotsial-demokratik partiyalarning an'anasi saylov kompaniyasini Tetcherizmning qat'iylik va berahmliгинi tanqid qilish va parlamentning vakolatlarini hukumatning imtiyozlariga zarar keltirish, evaziga hamda davlatning huquqiy asoslarini yana mustahkamlash kabi shiorlarni ilgari surishdi.

Leyboristlar partiyasida bu yillar davomida mafkuraviy jihatdan so'l tomonga siljish kuzatildi. So'l leyboristlar yetakchisi Maykl Fut 1980 yilda Kollagen iste'fosidan keyin partiya rahbarlik qila boshladi. Jenkins guruhining partiyani tark etishi o'ng qanotni zaiflashtirib yuborgan edi. Ammo kutilmaganda Maykl Futga uning yaqin vaqtdagi ittifoqchisi Entoni Vejvud Benn tahdid qila boshladi. Ikkala yetakchi kurashi yagona mafkuraviy va saylov "maydonida" ro'y berayotgan edi. Raqiblik kayfiyatida ikkovlon tobora radikal g'oyalarni ilgari surishar, sotsializmning klassik qadriyatlarini tiklash, sanoatni milliyalashtirishning keng dasturlarini amalga oshirish, kasaba uyushmalari huquqlarini himoya qilish, mamlakatning Yevropa Hamjamiyati tarkibidan chiqishini qo'llab chiqishardi. Bu voqealarning noto'g'ri va xayoliy ekanligi tushunarli edi.

1983 yilning 9 iyunida bo'lib o'tgan saylovlar natijasida konservatorlarni 42,4% saylovchilar (ya'ni 1979 yilga nisbatan 1,5% ga kamroq) qo'llab-quvvatlab chiqishdi, ammo ularning parlamentdagi fraksiyalarining mandatlari 339 dan 397 ta deputat o'rniga oshdi, leyboristlarga 28,3%, Alyans partiya esa 26% saylovchilar ovoz berishdi, leyboristlar 209 ta liberallar va sotsial-demokratlar esa 23 ta mandatga ega bo'lishdi.

80-yillarning o'rtalarida Tetcher hukumati tomonidan izchil va keng ko'lamli yangilashlar (o'zgarishlar) amalga oshirildi. 1984-87 yillarda davlat ixtiyorida bo'lgan sanoat transport va kommuniya tashkilotlarining taxminan 3/1 qismi, jumladan gaz sanoati va telekommuniatsiya sohalaridagi 9 ta eng yirik konsernlar xususiyalashtirilgan edi. qimmatli qog'ozlar bozorida hukumat "British petroleum" neft kompaniyasi, po'lat qo'yish, aviakosmik sanoat, elektroenergetika, suv ta'minoti, havo transporti korxonalarining ko'pchiligining aksiyalarining paketlari sotuvga chiqarildi. Shimoliy dengizda neft konlarini izlab topish va ishga tushirish, radioaktiv izotoplarni ishlab chiqarish, ko'mir shaxtalaridan foydalanishda xususiy sarmoya qatnashuvi yanada kengaytirildi. O'n yillik islohotlar davomida 35 mlrd. funt sterling hajmidan ishlab chiqarish fondlari xususiyalashtirildi. Davlat sektorining ulushi 10 dan YAMM (Yalpi Milliy Mahsulot)ning 6,5%gacha pasaydi.

Xususiyalashtirishdan tashqari Tetcher hukumati davlat korxonalariga subsidiyalar berish va yordam berishning barcha formalari keskin qisqartirildi (1980-1987 yillar mobaynida taxminan 10 marta). Xususiy sektorning imtiyozli moliyalashtirish ham kamaydi. Xususiyalashtirish jarayonida davlat sektorining qisqartirishi hisobidan bo'lgan kishilar soni 1,9 dan 3 millionga ko'tarildi. 80-yillar oxirlarida ishchilar soni 20 dan kam bo'lgan korxonalarda xususiy sektordagi ishchi kuchning 35%i band edi.

Kichik va o'rta biznesni rivojlantirishdan tashqari, neokonservatorlar yangi ijtimoiy falsafaning qaror topishi uchun muhim vositalardan deb "mulkning tarqalishi"-mulkdorlar toifalarining kengayishini tushunishardi. Keng ko'lam xususiyalashtirish aholining keng qatlamlariga hissador (aksioner) bo'lishga imkon berdi. Fransuzlarning xususiyalashtirish tajribasidan farqli o'laroq Buyuk Britaniyada seksiyalarning katta qismi kichik partiyalarda

sotuvga chiqarilgan edi. Bunday aksiyalar imtiyoz bilan sotilardi, bunda har bir fuqaro qat'iy cheklangan miqdordagi aksiyalarni sotib olishi mumkin edi. Aksiyalarni xususiylashtirilayotgan korxonalarning ishchi yoki xizmatchilarining o'zlari ham xarid qilishlari mumkin edi. 80-yillarning oxirida Buyuk Britaniya hissadorlar soniga ko'ra AQShdan keyin dunyoda ikkinchi o'rinda turardi.

“Mulkdorlar jamiyati”ni shakllantirishga qaratilgan siyosatning ajralmas qismi uy-joy xo'jaligi, tibbiy xizmat va ta'limni isloh qilishdan iborat edi. Uning leytmotivi “umumfaravonlik holati” tizimini qayta tuzishdan iborat bo'ldi. Tetcher hukumati munitsipal (shahar) uy-joy mulkini keng xususiylashtirish dasturini amalga oshirishga kirishdi. Xususi uy qurilishi har tomonlama rag'batlantirildi, kredit uchun foizlarni to'lash bo'yicha imtiyozlar, (bu kreditlar uy qurilishi uchun ishlatilardi), qurilish kompaniyalariga uy-joy qurilishiga to'lovlar ikki baravar kamaytirildi. O'z uyiga ega bo'lish, nafaqat shaxsiy uy-joy muammosini hal qilish nuqtai-nazaridan, balki hayotning yagona standartini bekor qilish, maishatning individual estetikasini rivojlantirish, hamda egalik hissining o'zini mustahkamlash nuqtai nazaridan qoralardi.

Sog'liqni saqlash sohasida Tetcher hukumati amalda Xit kabineti siyosatini davom ettirdi. Sog'liqni saqlash Milliy xizmatini xususiylashtirish keng miqyosdagi dastur o'rniga uni “Deetatizatsiya” (davlat tasarrufidan chiqarish) qilishga, unga bozor munosabatlarini kiritishga urinishlar bo'ldi.

Neokonservatorlar “ta'limda fikrlar xilma-xilligi (blyuralizm)”ni tiklash dasturini e'lon qilib, ta'lim sohasida ham egalitarizm (jamiyatda barchaning tengligini asosiy tamoyil deb hisoblovchi kichik burjuaziya utopistlik ta'limoti tarafdorlari J.J.Russo, yakobinchilar Grakx Babyof)ga qarshi kurashni davom ettirdi. 1980 yilda ta'lim jarayonini nazorat qilishda ota-onalar huquqlarini kengaytirish maktabdagi ichki kengashlar vakolatini yanada oshirish, fuqarolarga ta'lim muassasalari to'g'risida to'liq ma'lumotni yetkazishni siyosatning muvaffaqiyatli tugash paytida Tetcher hukumati davlat tomonidan kapital qo'yilishini sezilarli darajada oshirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Ularning asosiy obyektlari avtomobil sanoati, elektron, poligrafiya, sellyuloza qog'oz, kimyo sohalaridan iborat bo'ldi. Ilgarigi “cho'loq o'rdaklarni qo'llash” amaliyotidan farqli o'laroq bu investitsiyalar rentabelligi yuqori bo'lgan ishlab chiqarish sohalarida amalga oshirildi va texnik-texnologik bazani keyinchalik yangilashga sarflandi. Ishchi xodimlar malakasi sezilarli darajada oshdi. Mehnat bozoridagi ma'lum bir napryajennost-ga qaramasdan, 80-yillarning oxiriga kelib ishsizlik kamayib bordi (1987 yilda 9,8% dan 1989 yilda 6,8% gacha). Mehnat kadrlari malakasining oshirilishi va menejmentning eng yangi tizimini kiritish natijasida mehnat unumdorligi katta sur'atlar bilan oshdi.

Britaniya iqtisodiyotining sog'lomlashtirishdan nafaqat uning jahon xo'jalik tizimida raqobatbardoshligining oshganligi, balki shaxsiy ehtiyojning barqaror oshishi ham guvohlik berardi. 80-yillarning ikkinchi yarmida aholi daromadlari yiliga 5%dan oshib bordi. Bu davrga kelib, ingliz oilalarining 64%i o'z uylariga, 70% o'z avtomobillariga ega bo'lishdi, aholining yarmidan ko'pi darajasi yuqoriroq bo'lgan pullik ta'lim muassasalarida o'z bolalarini o'qitishga imkoniyatlari yetarli edi. Aholining bu qatlami o'zlarini “o'rta sinf”ga tegishli deb hisoblashadi.

Iqtisodiy o'sish davrida hukumat parlamentni uning vakolatlari tugashiga bir yil qolganda tarqatib yubordi. Yangi saylovlar 1987 yil 11 iyunda bo'lib o'tdi. Konservatorlar dasturi optimizmga to'la edi va saylovchilar diqqatini o'tgan yillardagi yutuqlarga qaratdi. Hukmron partiyani saylovchilarning 42,3%i qo'lladi (ya'ni oldingi saylovlarga qaraganda 0,1%ga kamroq), bu ularga 376 deputatlik mandatini olib keldi. Liberal va sotsial-demokratik partiyalar alyansi esa saylovchilarning 22,9%i tomonidan qo'llab-quvvatlandi va 22 mandatga ega bo'ldi. Alyans partiyalari uchun tashvishli omil ularning parlamentdagi fraksiyasining bir a'zoga kamaygani emas, balki saylovchilarning ishonchi pasaygani bo'ldi oldingi saylovlarda ularga 4% ko'proq saylovchilar ovoz bergan edi. Leyboristik partiya vaziyatiga esa rahbariyatning almashgani ta'sir ko'rsatdi. Partiya rahbarligiga radikal guruhlar bilan rejali kurashni boshlagan sentristik aholi vakili Nil Kinnok saylandi. Ammo leyboristlar partiyasining yangi rahbariyati yangilangan mafkuraviy dasturning ko'lam (asos)larini aniqlashga muvaffaq bo'lmagan edi. Ular olgan ovozlar ulushi 28,3 dan 32,1%ga ko'tarildi, ularning parlamentdagi fraksiyasi 209 dan 229

deputatga oshdi, ammo obhinalar palatasida kuchlar mutanosibligini o'zgartirish uchun bu muvaffaqiyatlar kifoya emas edi.

Muvaffaqiyatli o'tgan saylovlardan keyin Tetcher hukumat yo'nalishiga biror tuzatishlar kiritmadi. 1988-1990 yillar davomida aeroportlar infratuzilmasi, suv bilan ta'minlash tizimlari va elektroenergetikani qamrab olgan yangi xususiyashtirish amalga oshirildi. Kompaniyalar foyda solig'i hamda daromad solig'i stavkalari yana kamaytirildi. Shahar uy-joylarini xususiyashtirish, xususiy uy qurilishini rag'batlantirish, ta'lim tizimini isloh qilish davom ettirildi. 1988 yilda nafaqa tizimi qayta tashkil qilindi. Bu uning ma'muriy boshqarilishi darajasini pasaytirishga va ijtimoiy yordamni o'z egasiga aniqroq yetkazishga imkon berdi. Uyushgan ishchilar harakatiga yangidan zarba berildi. 1988 yildagi bandlik to'g'risidagi akt noroziliklarni e'lon qilish qoidalarini buzgan kasaba uyushmalariga qarshi ko'riladigan choralarni UJESTOCHIL. 1990 yildagi akt kasaba uyushmalariga u yoki bu korxonaning xodimlari kasaba uyushmasi tashkilotiga butunlay a'zo bo'lish va kasaba uyushmasiga a'zo bo'lmagan shaxslarni ishga qabul qilmaslika imkon beruvchi "yopiq sex" qoidasini bekor qildi.

Qulay iqtisodiy konyuktura saqlangan sharoitda Tetcher hukumati mavqei 80-yillar oxirigacha barqaror edi. Ammo Tetcherizmning salbiy jihatlari ham asta-sekin namoyon bo'la boshladi. "Faravon mamlakat"ni bekor qilishga qaratilgan yo'nalish jamiyatda chuqur ijtimoiy qutblanish (ya'ni keskin qarama-qarshi qismlarga ajralish)ga olib keldi. 80-yillarda aholi jon boshiga o'rtacha daromad 23%ni tashkil etganligiga qaramasdan, deyarli 20% oilalar qashshoqlik yoqasiga kelib qolgan edilar. Jamiyatning bu tabaqasi yangi konservatorlar tomonidan targ'ib qilinayotgan kurashchanlik va raqobat ustunligi (kulti)ni salbiy qabul qilishdi. Ayni paytda tetchirchilar harakatchan, emonsipirovanno'ye ijtimoiy guruhlar, jamiyat qo'llab-quvvatlashi va ta'minotidan voz kechib, mustaqil, o'z hayotini o'zi "yaratuvchi" odam haqidagi g'oyalari ularga xos bo'lgan an'anaviy viktorian qadriyatlar, Tetcher uslubining JESTKOST siyosat va mafkuraviy xilma-xillik bilan ayovsiz kurash bilan mos kelmas edi. Tetcherizmning axloqiy holsizlanganligi namoyon bo'la boshladi.

Tetcherning siyosiy avtoritarizmi bilan kelisha olmaslik sababida 1986-1989 yillarda hukumatda mudofaa vaziri Maykl Xezeltayp va bosh vazir o'rinbosari Jefri Xauning o'z ixtiyorlari bilan iste'foga chiqishlariga olib kelgan bir qator shov-shuvlar bo'lib o'tdi. 1989 yil noyabridagi moliya vaziri Nigel Lousonning iste'fosi esa allaqachon jamiyatda keng norozilik tarqalayotgan paytda ro'y berdi. Bunga mahalliy soliqqa tortish tizimining isloh qilinishi bahona bo'ldi. Mahalliy hukumat organlari va qoidaga ko'ra ko'chmas mulk narxi va biznes hajmi asosida belgilanuvchi soliq o'rniga yagona soliq joriy qilingan edi. Ko'pchilik inglizlar yangi soliqni ijtimoiy adolatsizlikning eng ashaddiy namoyon bo'lishi sifatida qabul qilishdi. qo'llab-quvvatlash (ishonch)ni yo'qatayotgan Tetcher 1990 yilning kuzida partiya yetakchisi saylovlarini o'tkazishga majbur bo'ldi.

Birinchi turda Xezeltayp bilan kurashib, Tetcher 204 ta ovozga ega bo'ldi. Uning raqibi - 152 taga. Bu ikkinchi turda qatnashish uchun yaxshi imkoniyat edi, ammo bunday yetakchilik uchun kurash olib borish partiyani tarqalish yoqasiga olib kelishi mumkinligini fahmlagan Tetcher o'z nomzodligini olishga qaror qildi. Ikkinchi turda Xozeltaypga Tetcher yaqinlaridan ikkita siyosatchi Jon Meyjor va Duglas Xordlar raqiblik qilindi. Meyjorni ham tetchirchilar (jumladan "temir xonim"ning o'zi ham), ham davlat siyosatini o'zgartirish tarafdorlari qo'llab-quvvatlashdi. Uning yoshi ham unga foyda qildi: Tetcherning 47 yoshli merosxo'ri, 57 yoshli muxolifatchi Xezeltayp yoki 60 yoshli Xerdga qaraganda ko'proq partiya rahbariyatining yangilanishi ramziga yaqinroq edi. Ovoz berishning ikkinchi bosqichi natijalariga ko'ra, Meyjor 185 ta, Xezetayp-131, Xerd-56 ovozga ega bo'lishdi.

J.Meyjor va Britaniya yangi konservatizmining "qayta qurilishi"

Jon Meyjor 1989 yil iyul oyida tashqi ishlar vaziri lavozimiga saylangandagina keng ommaga tanildi. Boshqacha vaziyatda uning zudlikda partiya yetakchiligi va bosh vazir lavozimiga tavsiya qilinishi partiya obro'sini tushirishi mumkin edi. Ammo jamoat hukmron partiya rahbariyati o'zgarishishi qoniqish bilan qabul qildi. Bunda Meyjorning shaxsiy qiyofasi

(imij) muhim rol o'ynadi. Yosh OBAYATELNO'Y, doim yaxshilik tilovchi, bosiq, katta "professorcha" ko'zoynaklar orqasida yashiringan kulayotgan ko'zlar va past ovozga ega bo'lgan Meyjor "temir xonim" uslubidan charchagan saylovchilar uchun ayni muddao edi. Matbuot tinmasdan uning ingliz jamiyatining eng quyi qatlamidan chiqqanligi, o'z hayotini o'z qo'llari bilan yaratayotganligini bir necha bor ta'kidlardi. Shu bilan bir vaqtda uning siyosiy irodasi, 1991 yilda Fors qo'ltig'idagi Harbiy inqiroz (konflikt)ga nisbatan ko'rsatgan qat'iyligi ham baholandi.

Bashoratlarga qaramasdan Meyjor parlamentni tarqatib yuborishga shoshilmadi va yil davomida saylovchilar ishonchini tiklashga harakat qildi. "Yostiq (jon boshiga?) solig'i"ni bekor qilish to'g'risidagi qaror katta targ'ibotchilik samarasiga ega bo'ldi. 1991 yilda uning o'rniga fuqarolar daromad darajasiga asoslangan differensiallashgan (qismlarga bo'lingan) soliqqa tortish tizimi joriy qilindi. Rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlarining sezilarli yomonlashganiga qaramasdan hukumat iqtisodiy siyosat sohasida radikal qadamlar qo'yishga shoshilmadi. 1991 yilda Yalpi Ichki Mahsulot 2%ga, sanoat ishlab chiqarishi hajmi 3%ga qisqardi, inflyatsiya yiliga 6%ni tashkil etdi, budget kamomadi YAIMning 3%ini tashkil etdi. Hukumatning biroz passivligi "qayiqni tebratmaslik" (tinchlikni buzmaslik) ga harakat qilish bilan izohlanardi. Navbatdagi parlament saylovlari bo'sag'asida (arafasida) Meyjor Tetcherga xos faol, "barqaror" saylovchilarni harakatga keltirishdan voz kechib jamiyatning keng qatlamlari SIMPATIYA sini o'ziga jalb qilishga harakat qildi.

Leyboristlar rahbari Nil Kinnok uchun 1992 yil saylovlari millat yetakchisi lavozimiga loyiqqligini ko'rsatishi uchun oxirgi imkoniyat edi. U iqtisodiyotda davlat sektori mavqeini tiklash, kasaba uyushmalariga qarshi bo'lgan qonunlarni bekor qilish, Lordlar palatasiga barham berish va keng ko'lamdagi shahar uy-joy qurilishini tiklash haqidagi va'dalardan voz kechgan holda partiya dasturiy asoslarini tubdan yangiladi. O'zining ilgari chiqishlaridan farqli o'laroq Kinnok hatto Buyuk Britaniyaning Yevropaga qo'shilishini faollashtirishni yoqlab chiqdi. 1990-1991 yillardagi mahalliy saylovlardagi yutuqlar saylovchilarning yangilangan leyboristlar partiyasiga qiziqishi ortganligidan guvohlik berardi. Ammo Kinnok leyborizmning yangi ko'rinishining konseptual asosini bayon qila olmadi.

Saylovoldi kompaniya davrida liberal demokratlar favqulodda faollikni namoyish etdilar. Bu harakat tarixida tubdan o'zgarishga olib kelgan voqea 1988 yilda liberal va sotsial-demokratik partiyalar Alyansining yagona liberal-demokratlar partiyasiga birlashgani bo'ldi. Yangi partiya dasturi asosni iqtisodiyotda bozor asoslarini ketma-ket mustahkamlab borish, Buyuk Britaniyaning Yevropa Ittifoqi, jumladan, Yevropa valyuta tizimiga qo'shilishi to'g'risidagi g'oyalar tashkil etdi. Ammo saylovlarga bir oydan kamroq vaqt qolganda liberal-demokratlar partiyasi rahbari Peddi Eshdaun atrofida shov-shuv ko'tarildi. U va uning kotibasi o'rtasidagi ishqiy munosabatlarning fosh qilinishi partiya rahbariyati obro'sini keskin pasaytirdi.

1992 yil 2 apreldagi obhinalar palatasiga bo'lgan saylovlar konservativ partiya yangi g'alaba olib keldi. U saylovchilarning 41,9%i, leyboristlar-34,4%, liberal-demokratlar-17,8% tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Konservatorlar fraksiyasi 338 tagacha qisqardi, ammo ko'pchilikni tashkil etish uchun bu yetarli edi. Leyboristlar 271, liberal-demokratlar 20 mandatga ega bo'lishdi.

Saylovlarning muvaffaqiyatli yakunlanganiga qaramasdan, meymorning partiya va parlamentda o'z mavqeini mustahkamlashi uchun uch yil davomida kurashishiga to'g'ri keldi. Yevropa Ittifoqini tuzish to'g'risidagi Maastrixt shartnomasiga imzo qo'yish borasidagi muzokoralar davrida konservativ partiyadagi "yevroskeptiklar" (skeptizm-ishonchsizlik), hukumat billariga qarshi ovoz berib, haqiqiy qo'zg'olon ko'tarishdi. Meyjor uchun bosh vazirning (uning) budget siyosatiga qarshi bo'lgan moliya vaziri N.Lemontning 1993 yil may oyida iste'foga chiqishi qattiq zarba bo'ldi. Hukmron partiya rahbariyatidagi ko'tilayotgan parchalanish uning saylovchilar orasidagi obro'sining pasayishiga olib keldi. 1994 yilda konservatorlar Yevroparlament saylovlari va mahalliy saylovlarda mag'lubiyatga uchrashdi.

Ichki partiyaviy muxolifotni bartaraf qilish uchun Meyjor eng qattiqqo'l usullarni qo'llashga majbur bo'ldi. 1994 yil noyabrida Yevropa Ittifoqi budgetiga Britaniya to'lovi

to'g'risidagi bill bo'yicha ovoz berish hukumatga ishonch votumi shaklida bo'ldi. Parlament tarqatib yuborilishi tahdid ostida "yevroskeptiklar"-torilar hukumatni qo'llagan holda ovoz berishga majbur bo'lishdi. 1995 yil bahorida Meyjor yetakchilik vakolati va qayta saylov o'tkazishni birlashtirishga qaror qilganligini e'lon qildi. 1995 yil 4 iyulda bo'lib o'tgan saylovlarda Meyjor nomzodligiga 218, uning raqibi Jon Redvudga - 89 ovoz berildi. Bu g'alaba Meyjorga hukumat atrofida siyosiy kurash keskinlashishini ancha pasaytirishga imkon berdi.

Siyosiy vaziyatning barqarorlashishiga Buyuk Britaniyaning iqtisodiy ahvolidan yaxshilanishi yordam berdi. 1992 yilda iqtisodiy pasayish barqarorlashish, keyinchalik, o'sish bilan almasldi. Intensivligi bo'yicha u 1997 yil ikkinchi yarmigacha YEI boshqa mamlakatlar dinamikasidan ham yuqoriroq bo'lgan edi. 1993-1997 yillarda Buyuk Britaniyada Yalpi Ichki Mahsulotning o'rtacha yillik o'sish sur'atlari 2,8%ni tashkil etdi. Ishsizlik darajasi 1995 yilda 8% gacha kamaydi va 1998 yilning boshida iqtisodiy faol aholining 5%ini tashkil etdi (1980 yildan beri eng past ko'rsatkich). Ishlayotganlarning umumiy soni 1,2 million kishiga ortdi. Ayollar orasida ish bilan ta'minlanganlar soni oshdi (1997 yilga kelib ular ishchi va xizmatchilarning umumiy sonini 47%ini tashkil etishdi).

O'sishning asosiy manbalari 80-yillarda o'tkazilgan Britaniya iqtisodiyotining strukturaviy qayta qurish, Britaniya tovarlari eksportini oshirish, gaz va neftni qazib olish va eksport qilishni kengaytirish, shaxsiy iste'solning kengayishi natijasi bo'ldi. Bu siklning o'ziga xosligi oxirgi ikki o'nlikda kuzatilmagan sanoat sektorining uzluksiz kengayishidan iborat bo'ldi. Sanoatda mehnat unumdorligining o'sish sur'atlari yuqoriligicha qolaverdi (yiliga 3-4%). Bu davrda kapital qo'yishlar ancha sekin o'sdi; 1994 yilda 4,3%ga, 1995-1996 yillarda 2% dan kamroq, 1997 yilda 4,3%. Ammo kapital qo'yishlarning o'sishini ishlab chiqarish o'sish sur'atlaridan ortda qolayotganligi kapitaldan kelgan foyda, investitsiyalarning samaradorligi, mehnat unumdorligining oshganligi, sohalar tuzilmasining muvozanatga kelganligidan guvohlik berardi.

Meyjor hukumati iqtisodiyot rivojlanishining innovatsion muhitini yaratuvchi kichik biznesni qo'llab-quvvatlashni davom ettirdi. 1992 yilda "Kichik biznes xartiyasi" ishlab chiqilgan bo'lib, unga ko'ra, kredit berish sohasida tartibga solish va kichik biznesga soliq imtiyozlari berish, boshqaruv va marketing masalalari bo'yicha maslahat qilish, grantlar tizimi orqali to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy yordam ko'rsatish, kichik formalarining eksport faoliyatini rag'batlantirish ko'zda tutilgan edi.

Tuzilmaviy siyosat doirasida Meyjor hukumati xususiylashtirish dasturlarini amalga oshirishni davom ettirdi. Elektroenergetika korxonalarini xususiylashtirish tugatildi, shaxta va temir yo'l xo'jaligini xususiylashtirish davom ettirdi. Shu bilan bir vaqtda monopoliya tuzilishini saqlab qolgan xususiylashtirish sohalarida raqobatni rag'batlantirishga qaratilgan harakatlar amalga oshirildi. Davlat tasarrufida qolgan korxonalarda bandlikni qisqartirish asbob-uskunalarini yangilash choralari amalga oshirildi. Ishbilarmonlikning faollashishi, xorijning Britaniya tovarlariga talabining oshishi va energiya tashuvchi mahsulotlarning o'sib borayotgan eksporti 1994-1995 yillardagi eksport BUM iga asos bo'ldi. O'sha yillarda import yiliga 4-5% oshayotgan bir vaqtda eksport yiliga 10% dan oshib bordi. (YEH mamlakatlarida 14%) 90-yillardagi iqtisodiy o'sish amalda inflyatsiyasiz ro'y berdi. Urushdan keyingi butun davrda birinchi marta iqtisodiy o'sish sur'atlari narxlar o'sishidan oshiq bo'ldi.

qulay iqtisodiy KONYUKTURAgA qaramasdan, Meyjor hukumati munosabatlari sohasida qattiq siyosat yurgizdi. Ilgarigidagidek ish kuchining arzonlashuvi mahsulot umumiy tonnarxining pasayishini asosiy omili sifatida qaraldi. Ish haftasi qancha davom etishi qat'iy normalari belgilanmaganligicha qoldi. Oylik maosh va mehnat unumdorligi o'sish dinamikasi ishchi xodimlar foydasiga o'zgarmadi. Yevropa Hamjamiyatining boshqa mamlakatlardan farqli o'laroq Buyuk Britaniyada 90-yillarda ishchi xodimlar ishdan ozod qilinish shartlari murakkablashtirilmagan va mehnat munosabatlari diskriminatsion amaliyotidan ko'pgina cheklashlar joriy qilinmagan edi. Buyuk Britaniya Yehning "Ijtimoiy xartiyasi"ga qo'shilmadi.

Tetcher kabi, "umumfaravon mamlakatni" qisman tiklanishini ham butunlay inkor etgan Meyjor ijtimoiy siyosatga mohiyatan yangi jihatni kiritdi. Hukumat dasturlarining leytmotivini

fuqarolik jamiyati huquqiy asoslarini mustahkamlash, kurashchanlik va raqobat ideallarining hamjihatlik va hamkorlik bilan birligi tashkil etdi. Hukumat 1992-1993 yillarda “Fuqarolar xartiyasi” umumiy nomi ostida xujjatlar to‘plamini tayyorladi. Uning tarkibiga 18 ta konkret “xartiya”, jumladan, “ota-onalar xartiyasi”, “Iste’molchilar xartiyasi”, “Mijozlar xartiyasi”, “Kvartira oluvchilar xartiyasi”, “Ish zlayotganlar xartiyasi”, “Yo‘lovchilar xartiyasi” va hokazolar kirardi. 1994 yilning oxiriga kelib xartiyalar soni 40 gacha oshdi.

Bu hukumat tashkilot (chora)larining birinchi navbatdagi vazifasi turli davlat xizmatlari va savdo tuzilmalari faoliyatining zamonaviy iste’molchilik va axborot standartlarini yaratish, xususiy tashabbuskorlikda samarali balansni tiklash va ijtimoiy ta’minotning eng muhim sohalarida ijtimoiy boshqaruvni yaratish, tashkil etishdan iborat edi. Ammo ko‘pgina xartiyalar amalda ijtimoiy hayotning u yoki bu sohasida fuqarolarning asosiy huquqlar yig‘indisini va ularning davlat bilan o‘zaro munosabatlari qoidalarini belgilovchi va mustahkamlovchi o‘ziga xos Konstitutsiyalarga aylanishdi.

Meyjorning hukmronlik davrida mintaqaviy siyosat ancha faollashdi. Uning asosiy yo‘nalishlari Shotlandiya, Shimoliy Irlandiya va Uelsning eng qoloq rayonlarida iqtisodiy rivojlantirishni rag‘batlantirish hamda bir qator siyosiy-huquqiy o‘zgarishlarni amalga oshirishdan iborat bo‘ldi. 1994 yilda Shotlandiyada mahalliy hukumat isloh qilindi va uning davomida mintaqaviy boshqaruv organlari ekologik siyosat, yo‘l va uy-joy qurilishi, ta’lim sog‘liqni saqlash sohalarida kengroq vakolatlarga ega bo‘lishdi. Uelsda milliy til mintaqasini konsolidatsiya qilish asosida “korporativ muxtoriyat” elementlari joriy qilingan edi. Vallit (Uellit) tilining mavqei kuchaytirildi, jumladan, Uels maktablarida bu tilni majburiy o‘qitish, uellit tilida televizion kanallar barpo etish, barcha ko‘rsatkichlar va nomlarni ikkala tilda yozish joriy qilindi. 1994 yildagi qonun Uelsning ma’muriy-hududiy bo‘linishini Angliyaga yashash tarzda qonuniylashtirdi. Shotlandiya va Uelsda mahalliy vakillik hukumat organlarini tuzish bo‘yicha bahs-munozara hech qanday natija bermadi.

1993-1994 yillar davomida Meyjor hukumati Shimoliy Irlandiya va Irlandiya Respublikasidagi siyosiy harakatlar yetakchilari bilan keskin muzokoralar olib bordi. 1995 yil boshiga kelib kelgusida Olster mummosini tartibga solishga asos bo‘lgan ikki davlat o‘rtasidagi tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan kelishuvga kelishga muvaffaq bo‘lindi. Irlandiya hukumati o‘z konstitutsiyasidagi yagona Irlandiya mamlakatini birlashtirish (tuzish) to‘g‘risidan ikkita asosiy moddani qayta ko‘rib chiqishga tayyor ekanligini bayon qildi. Britaniya hukumati bu o‘z navbatida Shimoliy Irlandiyani Birlashgan qirollikning “abadiy viloyati” sifatida e’tirof etuvchi qonun xujjatlarini o‘zgartirishga rozi bo‘ldi. Ammo bu loyihaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishga yana Irlandiya ekstremistlarining yangi terrorchilik harakatlari to‘sqinlik qildi.

murosaga kelishga norozilik sifatida 1994 yilda IRA (Irlandiya Respublikasi Armiyasi) tarkibida Irlandiya kurashishni davom ettirish armiyasi (IKDEP) shaklida yangi radikal guruh ajralib chiqdi. Uning jangarilari Olster va Angliyaning bir qator shaharlarida portlashlar uyushtirdi. Keyinchalik, terroristik urushni davom ettirish tashabbusi IRA dan ajralib chiqqan “haqiqiy Irlandiya Respublikasi armiyasi” (HIRA)ga o‘tdi. IKDEP va HIRAning harakatlari 1996 yildagi “Olster forumi”ga saylovlarni o‘tkazishni puchga chiqardi. Bu forum Shimoliy Irlandiya ko‘p partiyali muzokoralariga vakillar doirasini tuzishga qaratilgan saylanganlarni yig‘ishdan iborat edi. Shimoliy Irlandiyada tinch jarayonning buzilishi va London hukumatining Shotlandiya va Uelsdagi milliy harakatlari bilan muloqotining keskinlashib borishi 1997 yildagi parlament saylovlari oldidan konservativ partiya mavqeining yomonlashishiga olib keldi.

80-yillarda va 90-yillarning boshlarida Buyuk Britaniyaning tashqi siyosati.

M.Tetcher hukumatining tashqi siyosiy strategiyasi Buyuk Britaniyaning buyuk davlat mavqeini tiklashni, Britaniya siyosati doirasiga keng global va mintaqaviy muammolarni, jumladan, mamlakat manfaatlariga daxldor bo‘lmagan muammolarni ham kiritishni ko‘zda tutgan edi. “Temir xonim”ning siyosiy uslubiga xos bo‘lgan qat’iylilik va qattqlik Britaniya diplomatiyasi harakatlarida ham namoyon bo‘lard.

Tetcher jamoasining hokimiyat tepasiga kelgandan atigi bir oy o'tganda unga favqulodda keskin vaziyatda diplomatik sahnada o'zini namoyish qilishga to'g'ri kelgandi. Lusakada bo'lib o'tgan 1979 yilda Hamdo'stlik konferensiyasida ko'p yillik Janubiy Rozediya inqirozini hal qilishni qat'iy hal qilishga urinib ko'rildi. Britaniya tomoni Janubiy Rodeziyada konstitutsion islohot hamda saylovlar o'tkazish tashabbuskori va kafili sifatida o'zini namoyon qildi. 1980 yildayoq mustaqil (mamlakatda yashovchi millat nomiga ko'ra) Respublikasi Hamdo'stlik a'zosiga aylandi.

Lusaka konferensiyasida Tetcher nafaqat o'zining Hamdo'stlikni rivojlantirishda faol qatnashishga bo'lgan harakatlarini, balki bunda milliy siyosat manfaatlarini ham himoya qilishga tayyor ekanligini namoyish qildi. Konferensiyada qabul qilingan "Irqchilik va irqchilik aqidalariga oid deklaratsiya"ga qo'shilgan holda Buyuk Britaniya immigratsiya siyosati tamoyillarini, irqiy teng huquqlik tamoyillarini buzayotgan davlatlarga nisbatan hamdo'stlikning kelishilgan siyosatida qanday shaklda ishtirok etishni mustaqil belgilash huquqini o'z ixtiyorida qoldirdi. Keyingi yillarda NSAR dan to'g'ridan-to'g'ri (vega) yordam berishini oldini olish uchun Buyuk Britaniya Hamdo'stlikning bu mamlakatga qarshi fraksiyalarda faqatgina rasman ishtirok etdi.

Hamdo'stlik mamlakatlari bilan iqtisodiy, munosabatlarni rivojlantirayotgan Tetcher hukumati ularni pragmatizm va ratsionallik ruhida tuzmoqchi edi. Hamdo'stlik salohiyati nafaqat eng qoloq mamlakatlarga yordam berish uchun, balki mujassam o'zaro manfaatli hamkorlik uchun foydalana boshlandi. O'zining paternatizm an'analarida voz kechishga bo'lgan harakati tufayli Tetcher Hindistonning eng qashshoq mamlakatlari uchun maxsus iqtisodiy fond yaratish, Yamayka bosh vazirining rivojlanayotgan mamlakatlarga norkomafiya bilan kurashishni qo'llab-quvvatlovchi maxsus xalqaro organni shakllantirish loyihasini bekor qildi.

Tetcher Hamdo'stlikni asta-sekin o'z faoliyatini "maxsus munosabatlar" asosida emas, balki xalqaro huquqning odatdagi normalari asosida tashkil qiluvchi ko'p tomonlama xalqaro tashkilotga aylanishini qo'llab-quvvatlayotgan edi. Bu yondoshuv Hamdo'stlikning 1987 yildagi Venkuver deklaratsiyasida mustahkamlandi. Ammo oqibatda Buyuk Britaniyaning yetakchilik mavqei yanada kuchaydi. Sobiq mustamlakalar bilan ikki tomonlama o'zaro manfaatli munosabatlarga yon bosib, Buyuk Britaniya 80-yillar oxiri, 30-yillarning boshida o'zining an'anaviy ta'sir doirasidagi mintaqalarida o'zining iqtisodiy va harbiy-siyosiy ishtirokini ancha mustahkamlab oldi.

Tetcher hukumati o'z manfaatlarini Yer asarining xohlagan nuqtasida himoya qilishga tayyor ekanligini 1982 yilda namoyish etdi. Bunda Folklend (Molvina) orollari bo'yicha Angliya-Argentina to'qnashuvi ro'y bergandi. Bu arxipelag (orollar to'plami) Atlantika okeanining janubiy-g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, ikkala mamlakat uchun bir yarim asr davomida bahs-munozaraga sabab bo'lgan hudud edi. 1833 yilda u inglizlar boshqaruvida edi. XX asr o'rtalaridan boshlab, Argentina orollarini qayta egallash uchun kurashni faollashtirdi. 1982 yil 2 aprelda Argentina qurolli kuchlari "suverenitet" operatsiyasini bajarish davomida bu orollarga kiritildi. Gubernator L.Xont (orollar gubernatori) vazifasidan ozod qilindi va yuzta dengiz piyoda gornizoni bilan uyga jo'natildi. O'sha kunning o'zidayoq Argentina bilan aloqalarini uzish va Folklend orollariga 40 ta kemadan iborat harbiy eskadrom jo'natishga qaror qilindi.

Aprel oxirida Britaniya ekadrosi Folklend orollari hududida harbiy harakatlarni boshladi. 2 mayda ingliz suvosti kemasi "Konkeror" tomonidan Argentina flotiga tegishli "General Belgrano" kreyseri cho'ktirilgandan so'ng Argentina harbiy kemalari o'z bazalariga qaytishga majbur bo'lishdi. Keyinchalik, urushlar faqat havo orqali amalga oshirildi. Argentina uchuvchilari Britaniyaning eng zamonaviy raketa tashuvchi ESMINETS "Sheffild" va bir nechta boshqa kemalarni cho'ktirishga muvaffaq bo'lindi. 21 mayda Britaniya maxsus harbiy qismlari orollarga qo'nishga erishishdi. Faqatgina 15 iyunga kelib, qaqshatqich urushlardan so'ng Argentina gornizoni taslim bo'ldi. Buyuk Britaniya va Argentina o'rtasida urush harakatlarini to'xtatish to'g'risida biror-bir rasmiy kelishuvga kelinmagan edi (eslatib qo'yish kerakki, aslida, urush ham rasman e'lon qilinmagan edi). Argentina qurolli kuchlari talofati 1300

kishini, inglizlarniki 250 kishini tashkil etdi. Tetcher hukumati “qisqa muddatli g‘alaba keltirgan urush”ning targ‘ibotida juda ustalik bilan foydalanishdi.

Folklend voqeasi Britaniya-AQSH ittifoqchilik munosabatlarini ancha mustahkamladi. BMT Xafvsizlik Kengashida ikkala tomonni qurolli to‘qnashuvni to‘xtatib, masalani muzokora yo‘li bilan hal etishga chaqiruvchi rezolyutsiya taqdim etilganida, Buyuk Britaniya va AQSH uning qabul qilinishiga ikkilangan veto bilan to‘sqinlik qilishdi. Bu davrda Buyuk Britaniya va AQShning yaqinlashishi ko‘p jihatdan Tetcherning prezident Ronald Reygan bilan shaxsiy munosabatlariga ham bog‘liq edi. Ikkala davlat rahbari ham o‘xshash siyosat ideallarga ega bo‘lib, o‘xshash radikal ichki o‘zgarishlarni amalga oshirishgan. Ular “yangi konservativ inqilob”ning DPOYSTVENNO‘Y sotsial-psixologik oqibatlariga duch kelishgan va yorqin diplomatik yutuqlarga zarurat sezishardi.

Tetcherning 1983 yil sentabridagi Vashingtonga tashrifi Buyuk Britaniya va AQSH o‘rtasidagi “maxsus munosabatlar” eng gullagan davrga yetganligini namoyish etdi. 1983 yil oktabrida Vashingtonning Buyuk Britaniyaga nisbatan ochiqchasiga nomaqbul harakatidan so‘ng ham ahvol o‘zgarmadi. O‘shanda amerikaliklar Hamdo‘stlik tarkibiga kiruvchi Grenada namoyishkorona “politsiya” harakatini uyushtirgan edi. 80-yillarning ikkinchi yarmida Buyuk Britaniya mintaqaviy mojarolar masalasida o‘zining strategik ittifoqchisiga muntazam ravishda yon bosib keldi. London AQShning Eronga nisbatan dushmanona siyosatiga Afg‘onistondagi mujohidlarni va ularni qo‘llab-quvvatlayotgan Pokistondagi tuzumga yordam berayotganligini, Nikoraguadagi milliy-ozodlik harakatiga qarshi kurashiga xayrixoh edi. London AQShning 1986 yildagi Liviyaga qarshi harbiy harakatini qo‘llab-quvvatladi va Amerika harbiy havo kuchlari Tripoliga havo zarbalarini berish uchun Britaniya aerodromlaridan foydalanishgan edi. AQSH izidan Fransiya va Italiya bilan birgalikda Buyuk Britaniya ham Livanga tinchlikparvar kuchlarni jo‘natdi. Vashingtonning Kemp-Devid strategiyasini rivojlantirish uchun Britaniya diplomatiyasi Arab-Isroil muzokoralar jarayonini tartibga solishda ishtirok etdi.

Gravel masalalarda Buyuk Britaniya va AQShning ittifoqchilik munosabatlari ancha mustahkamlandi. Tetcherning hokimiyat tepasiga kelishi, ikkala qarama-qarshi harbiy bloklarning Yevropa hududida eng yangi yadro qurollarini joylashtirgani, Sovet armiyasining Afg‘onistonga bostirib kirishi, Polshada harbiy holatning joriy etilishi bilan yuzaga kelgan yangi xalqaro konfrontatsiya (keskin qarama-qarshi frontlarga ajralish) davriga to‘g‘ri keldi. Shovqinli antisovet targ‘ibotga Buyuk Britaniya ham hissa qo‘shdi: Moskvadagi olimpiadaga boykot e‘lon qilinishi qo‘llab-quvvatlandi va SSSR bilan iqtisodiy va madaniy hamkorlik ancha qisqartirildi. Tetcher NATO qurollarini oshirib borishni ma‘qulladi, Buyuk Britaniya hududida 160 ta o‘rta uchar raketalarining joylashtirilishiga va yadro suvosti kemalarni yangi “Traydent” Amerika raketalari bilan jihozlash dasturini amalga oshirishga rozilik berdi. U AQShning SOI loyihasini ham ma‘qulladi.

O‘z hukmronligining dastlabki yillarida qat‘iy antisovet mavqeini egallagan Tetcher SSSRda siyosiy o‘zgarishlar ro‘y bergandan so‘ng xalqaro munosabatlarning o‘zgarishini qo‘llab-quvvatlagan birinchi G‘arb rahbarlaridan edi. 1984 yil oxirida M.Gorbachyov Londonga rasmiy tashrif buyurdi. Tetcher bilan muzokoralarning boshlanishi Gorbachevning dunyo miqyosdagi diplomat sifatida birinchi jiddiy qadam bo‘ldi. Tetcher yangi sovet rahbarining maxsus SHARM sohibi ekanligi, uni ochiq va o‘zaro ishonchga asoslangan muloqotga kirisha olish qobiliyatiga yuksak baho berdi. Keyinchalik, ular o‘rtasidagi munosabat konstruktiv va o‘zaro hurmat asosida amal qildi. 1986-1987 yillarda E.SHeverdnadzening Londonga va M.Tetcherning Moskvaga bo‘lgan tashrifida Sovet-Britaniya o‘zaro munosabatlarining barcha jihatlari bo‘yicha kelishuvlar paketi qabul qilindi.

J.Meyjorga Moskva va Vashington o‘rtasidagi munosabatlar masalasida butunlay yangi muammolarga duch kelishga to‘g‘ri keldi. Sovet va Rossiya rahbarlarining ochiqchasiga qarama-qarshiligi, SSSR respublikalarida milliy harakatning faollashuvi, SSSR parchalanishining geosiyosiy samarasi, yadro quroliga ega buyuk davlatning parchalanishi, xorizmatik Gorbachevning Yelsinga almashishi o‘sha paytdagi G‘arb rahbarlarini og‘ir tanlash muammosiga duch keltirdi. Meyjor ingliz-sovet siyosiy muloqotidan ingliz-Rossiya siyosiy

muloqotiga o'tish samarali yo'lini topishga muvaffaq bo'ldi. Separatizm (ayirmalik)ni to'xtovsiz qoralagani va sovet davlatchiligini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlagani holda u 1991 yil yanvaridayoq Litva va Latviyadagi voqealarga qat'iy munosabat bildirdi (Fransiya, AQSH va Italiyadan farqli o'laroq). 1991 yil avgustida Meyjor Yevropa davlat rahbarlari ichida birinchilardan bo'lib Moskvadagi to'ntarishni (balvoni) qoraladi. Shunday qilib, SSSRning parchalanishini hech bir tantanasiz qabul qilgan Buyuk Britaniya Rossiyaning ikkilanishsiz merosxo'r davlat sifatida qabul qildi. Uzoqni ko'zlay olishini Meyjor keyinchalik ham namoyish etgandi. 1993 yil oktabridagi voqealaridan so'ng u birinchilardan bo'lib Yelsinni qo'llab-quvvatladi. Chechenistondagi urushni qoralagan Mitteran va Koldan farqli o'laroq, Britaniya bosh vaziri Moskvada g'alabani 50-yilligini nishonlash marosimida qatnashib, bu masala bo'yicha biroz "tashvishda" ekanligini bayon qildi, xolos.

Britaniya rahbariyatining Rossiyadagi voqealarga nisbatan to'g'ri pozitsiyasi bu ikkala mamlakat o'rtasidagi konstruktiv va o'zaro manfaatli aloqalar o'rnatilishga asos bo'ldi. Ammo Meyjor va Yelsinlar o'rtasida "maxsus" shaxsiy munosabatlar o'rnatilmadi. Bu Yelsinning 1992 yil noyabrida Londonga qilgan tashrifida namoyon bo'ldi. Rossiya va Birlashgan qirollik o'rtasidagi munosabatlar tamoyillari to'g'risida muddatsiz Shartnomaning imzolanishi ikkala mamlakatning barcha sohalardagi hamkorligida yangi davrni boshlagan bo'lsada, strategik hamkorlik uchun asos bo'la olmadi. Bu holat 1994 yilda, ikkala mamlakat rahbarlari besh marta uchrashganlari, qiroliga Yelizaveta 1 ilk bor Rossiga rasmiy tashrif buyurganidan keyin ham o'zgarmadi.

Meyjor hukmronligi davrida Ingliz-Amerika munosabatlari ham noaniq xarakterga ega bo'ldi. Buyuk Britaniya BMTning Fors qo'ltig'idagi harbiy harakatlarida faol qatnashdi. Allaqachon 1990 yil kuzdan boshlab, Britaniya samolyotlari Saudiya Arabistoni havo hududlarini nazorat qila boshlashdi. O'shandayoq xalqaro koalitsiya tarkibiga kiruvchi 45 minglik Britaniya harbiy qismi qo'ltiq mintaqasiga yuborildi. Buyuk Britaniya 1990 yil noyabrida BMTning Iroqqa quvayt hududidan qo'shinlarini chiqarishini talab qiluvchi Ultimatum qo'yan rezolyutsiyasini qo'llab-quvvatladi. Britaniya jamoatchiligi boshqa G'arb mamlakatlariga nisbatan ham Iroqdagi rejimiga nisbatan pozitsiyani egalladi. 80% dan ortiq inglizlar qo'ltiq zonasidagi harbiy harakatlarda ishtirok etishni qo'llab-quvvatlashdi. Meyjor ham barcha eng yirik siyosiy partiyalar tomonidan qo'llab-quvvatlagan holda Saddam Husayn bilan har qanday muzokoralarga qarshi chiqib, pozitsiyani egalladi.

Iroq masalasida Britaniya diplomatiyasi tutgan mavqe va 1991 yil fevralidagi "sahrodagi bo'ron" operatsiyasida Britaniya harbiy qismlarining qatnashuvi Buyuk Britaniya va AQSH yaqinlashishiga yangi turtki bo'ldi. Ammo 1993 yildan boshlab Ingliz-Amerika hamkorligi kamayib bordi. London AQShdagi prezident saylovlarida ochiqchasiga respublikachilar partiyasini qo'llab-quvvatladi, yangi prezident B.Klinton (demokratik partiya vakili) bilan Meyjor o'rtasida iliq munosabatlar o'rnatilmadi. Keyingi yillarda Britaniya diplomatiyasi Vashington uchun prinsipial muhim bo'lgan masalalarda to'liq mustaqil pozitsiyani egalladi. Bu Bosniya va Gersogovinadagi millatlararo mojaro paytida, qurol sotishga embargoni bekor qilish, serblarga qarata bomba zarbalari berish masalasida Buyuk Britaniya va AQSH qarama-qarshi pozitsiyani egallaganda namoyon bo'ldi. London Yugoslaviyaga qarshi sanksiyalar joriy etishni qo'llab-quvvatladi, ammo xalqaro tinchlikparvar kuchlarni harbiy harakatlar uchun kiritishga qat'iy qarshi chiqdi. Faqatgina 1995 yil aprelida Meyjor Vashingtonga bo'lgan tashrifi paytida Bosniya masalasida yaqinlashishga muvaffaq bo'ldi, 1995 yil dekabrda esa Britaniya diplomatiyasi mojaro tomonlarini tinchlik shartnomasiga imzo qo'yishini tashkil etish vositachisi bo'ldi.

Buyuk Britaniyaning 80-yillar 90-yillar birinchi yarmida tashqi siyosatining asosiy yo'nalishi Yevropa integratsiyasi jarayonida qatnashishdan iborat bo'ldi. M.Tetcher Yevropadagi hamkorlar bilan munosabatlarda o'ziga xos bo'lgan qat'iylik va maqsadga yo'nalganlikni joriy etdi va Buyuk Britaniya uchun noqulay bo'lgan iqtisodiy hamkorlik hamda YEIHning budjetiga to'lovlar masalasini qayta ko'rib chiqishini talab qilardi. 1979 yildan boshlab, uzoq muddatli murakkab muzokoralar davri boshlandi. Ular davomida shov-shuvlar va

savdo urushlari ham bo'lib turdi. Buyuk Britaniya egallagan qat'iy pozitsiya YEIH budget tizimini barqarorlashtirishga to'sqinlik qilar, ko'pgina integratsion dasturlarning amalga oshirilishini kechiktirar va YEIHga Ispaniya va Portugaliyaning qo'shilishi to'g'risidagi muzokoralarni murakkablashtirardi. To'rt yildan keyingina bu masalada kelishuvga kelishga muvaffaq bo'ldi.

YEIHning fermerlarni dotatsiyalar bilan qo'llab-quvvatlash asoslangan agrar siyosati ham Britaniya hukumatida norozilik uyg'otardi. Tetcher YEIHning bu sohadagi narxlar siyosatini bekor qilish uchun tez-tez veto huquqidan foydalanar edi. Britaniya diplomatiyasining qattiq bosimi ostida Umumiy bozor mamlakatlari 1983 yilda qishloq xo'jaligi dasturida xarajatlarni asta-sekin kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilishga majbur bo'lishdi.

80-yillarning ikkinchi yarmida Yevropa siyosatining asosiy muammosi Yevropa Hamjamiyatlari tizimini Yevropa Ittifoqiga aylantirishdan iborat bo'ldi. Bu maqsad 1986 yil fevralida qabul qilingan Yagona Yevropa aktida bayon qilingan edi. Buyuk Britaniya hech qanday davlatlardan yuqori bo'lgan va umumevropa tashkilotlarga qo'shimcha vakolatlar berishsiz siyosiy va tashqi siyosiy hamkorlikni faollashtirish tarafdori edi. 80-yillarning ikkinchi yarmida yangi integratsion tuzilma - Yevropa siyosiy hamkorligi aynan shu asosda shakllandi.

Yevropa Kengashini tuzish g'oyasini inkor etmasdan turib, Tetcher hukumati, bir qator yangi integratsion loyihalar, jumladan, yagona pul tizimiga o'tishni ko'zda tutgan Yevropa valyuta ittifoqini tuzish loyihasiga qarshi chiqardi. Tetcher Buyuk Britaniyaning bunday loyihalarga qo'shilishini iloji boricha kechiktirishga umid qilardi. U soliq, mehnat va immigratsiya (muhojirlik) to'g'risidagi qonunlarni ham yagonalashtirish haqidagi taklifni ham qabul qilmadi. Tetcher 1986 yilda imzolangan SHengen kelishuvlariga Buyuk Britaniyaning qo'shilishiga qarshi chiqdi.

Meyjor Yevropaga nisbatan strategiyani tubdan o'zgartirdi. Uning fikricha Buyuk Britaniya milliy manfaatlarini, integratsiya chuqurlashishiga to'sqinlik qilmasdan, balki Yevropa kelajagi to'g'risidagi o'z tasavvuri asosida, kelajakda Yevropa ittifoqining konsepsiyalari va huquqiy asoslarini ishlab chiqishda faol qatnashish bilan himoya qilish samaraliroq edi. Meyjor Yevropa Ittifoqining tuzilishida federalistik konsepsiyadan voz kechish va "Yevropa ittifoqi" tushunchasini yangi davlatlardan yuqori bo'lgan tuzilma emas, balki Yevropa mamlakatlari hamkorligining yangi bosqichi sifatida talqin etilishida katta rol o'ynadi. Britaniya diplomatiyasining muhim yutug'i Maastrixt shartnomasiga ilova sifatida "Hamjamiyat huquqiy aktlarini qo'llash to'g'risida deklaratsiya"ning ishlab chiqilishi bo'ldi. Unda ta'kidlanishicha YEI qonunlarining amalda qo'llanilishi har bir mamlakatning o'z huquqiy tizimi, institutlari va boshqa holatlar asosida tashkil qilinadi. Meyjor tashabbusi bilan YEI huquqiy konsepsiyasiga subsidiarizm tamoyili kiritildi. Unga ko'ra u yoki bu masalaning hal qilinishi, u davlat hududida samarali va yuqori darajada hal qilinmaydigan taqdirdagina Ittifoq doirasida hal qilinishi kerak edi. Yevropa Ittifoqi to'g'risidagi Maastrixt shartnomasida integratsiyaning uchta asosiy yo'nalishi ko'zda tutilgan edi- yagona Yevropa bozorining yaratilishi (jumladan, yagona valyuta tizimining yaratilishi), tashqi siyosat va mudofaa sohasida yagona yo'lning shakllanishi, a'zo mamlakatlarning ichki va qonunchilik siyosatini yagonalashtirish. Meyjor ham bu umumiy strategiyani qabul qilishga majbur bo'ldi. Ammo Britaniya diplomatiyasi ilgariidek integratsion aloqalarning yangi shakllariga bosqichma-bosqich, tanlagan holda qo'shilishga umid qilardi. Meyjor "turli tezlikdagi integratsiya" g'oyasining yorqin tarafdori bo'ldi. Unga ko'ra, YEI a'zolarining hammasini integratsiya yo'li bir vaqtda (sinxrop) ro'y berishi shart emas, balki milliy xususiyatlar maxsus o'tish mexanizmlarining yaratilishi va YEI dasturiga kirishning turli muddatlarini belgilashga asos bo'lishi mumkin edi. "Turli tezlikda integratsiya" konsepsiyasi Meyjor hukumatiga, boshqa hamkorlar bilan munosabatlarni yomonlashtirmasdan, YEI rivojlanishining bir qator yo'nalishlari bo'yicha ba'zi majburiyatlardan xalos bo'lishga imkon berdi.

Obhinalar partiyasida Maastrixt shartnomasining muhokamasi "yevroromantik" (YEI ta qo'shilishga xayrixohlar) va "yevroskeptik" (Yeiga qo'shilishga shubha bilan qaraydigan deputatlar) guruhlar o'rtasidagi keskin bahs-munozaraga sabab bo'ldi. Hukumat tutgan yo'lga

qarshi kurashish, g'alati tarzda konservativ partiya o'ng qanotini Yeining ijtimoiy qonunchiligiga qo'shilish tarafdori bo'lgan leyboristlar bilan qo'shilishiga olib keldi. Bahs-munozaralar 1993 yil 23 iyunda leyboristlar sal bo'lmasa Buyuk Britaniyani sotsial xartiyaga qo'shilishiga muvaffaq bo'lishganida o'z cho'qqisiga yetgan edi. Meyjor siyosatiga norozilik tarzida bu rezolyutsiya uchun tori partiyasidan 23 ta "yevroskeptiklar" ham ovoz berishdi. Ooz berish natijasi kutilmagan bo'ldi: 317 ovoz 317 ovozga qarshi. Hukumatni faqatgina yagona parlament stikeri ovozi qutqarib qoldi. Keyingi kuniyoq Meyjor Britaniya parlamentlari tomonidan 600 dan ortiq tuzatishlar kiritgan Maastrixt shartnomasi implementatsiyasi to'g'risidagi masalani ham ovozga qo'ydi. Konservatorlarning parlamentdagi fraksiyasi hukumatni boy berishdan qo'rqib, bu xujjatni qo'llab-quvvatlab ovoz berishga majbur bo'ldi.

Parlamentdagi g'alabaga qaramasdan hukumat integratsion siyosatga katta o'zgartirishlar kiritishga majbur bo'ldi. "Turli tezlikdagi" Yevropa Ittifoqi g'oyasini rivojlantirgani holda Meyjor Yeida hamkorlikning "o'zgarayotgan geometriyasi"ni qo'llab-quvvatlardi. Unga ko'ra, integratsion hamkorlikning turli jihatlari Ittifoqning barcha a'zolariga joriy qilinmasdan, mamlakatlarning turli guruhlari kelishuvlari asosida amalga oshirilishi kerak edi. 1996 yilda hukumat iqtisodiy integratsiya tamoyillarining o'zgarishi va referendum o'tkazilganiga qadar ittifoqqa qo'shilish to'g'risidagi qarorni kechiktirish uchun kurashish haqida bayon qildi.

1996 yil aprelida ro'y bergan "sigir inqirozi" tufayli Buyuk Britaniya va YEI bo'yicha hamkorlar o'rtasidagi munosabatlar ancha yomonlashdi. Sigirlarning yoppasiga pufakli ensifalit (quturish) bilan kasallanishidan keyin YEI mamlakatlariga Britaniyada ishlab chiqarilgan mol go'shtini import qilish taqiqlandi. Bu esa 1,2 million bosh qoramolning qirilib ketishi va yirik moliyaviy talofatga (5 milliard funt sterling) olib keldi.

YEI tomonidan embargoni yumshatish va uni bekor qilish sanasini belgilashdan bosh tortilganiga javoban Meyjor kal qilinishi konsepsusni talab etuvchi YEI masalalari hal qilishda to'squinlik qilishni ma'lum qildi. Bu "hamkorlik qilmaslik" siyosati natijasida Britaniya hukumati 1996 yilda 76 ta qaror qabul qilinishini yo'qqa chiqardi. Yevropadagi hamkorlar bilan munosabatlardagi inqiroz davri yangi saylovoldi kompaniya davriga to'g'ri keldi.

Entoni Bler "Yangi leyborizm".

90-yillar davomida leyboristik harajatning yangi mafkuraviy va siyosiy qiyofasini izlash faol davom etdi. N.Kinnok, aynan uning o'zi rahbarligida leyborizmni yangilashga qat'iy burilish yasalgan bo'lsa-da, iste'foga chiqishga majbur bo'ldi. 1992 yilda uning o'rnini egallagan Jon Smit, iste'dodli tashkilotchi va notiq bo'lib, u islohotlarni davom ettirdi. Jon Smit tred-yunionlarning leyboristik partiyaga ta'sirini ancha susaytirishga erishdi. Bunda 1993 yilda bo'lib o'tgan partiya syezdida "qo'shma ovoz berish" (ya'ni, agar biror kasaba uyushmasi a'zolari partiya a'zolari bo'lishsa, bu kasaba uyushmasi a'zolari partiya a'zolari bo'lishsa, bu kasaba uyushmasi raisi barcha a'zolar nomidan ovoz berishi mumkinligi)ning bekor qilinishi hal qiluvchi rol o'ynadi. Syezd ovoz berishda "bir odam-bir ovoz" qoidasini joriy qildi. O'sha 1993 yilda Leyboristik partiya rahbariyatidan leyboristik "ultrasotsializm" vakillari ham chetlashtirildi. Leyborizm ijtimoiy- liberal mafkuraga aylanib bordi.

1994 yil martida ikkita infarktdan so'ng Smitning o'limi ham partiyani isloh qilishni to'xtatmadi. Partiya rahbari, o'zida Britaniya siyosatchilarining yangi avlodini mujassam etgan 40 yoshli Entoni Bler bo'ldi. Bler o'zidan oldingi rahbarlar faoliyati natijalariga suyangan holda leyboristlar qiyofasini o'zgarishga ularning yangi partiya sifatida shakllantirishga asosiy e'tiborni qaratdi. Bu borada ilk qadam partiya ramzi sifatida qizil bayroqni qizil atirgulga almashtirgan Kinnok davridayoq qo'yilgan edi. Bler eng zamonaviy RR- texnologiyalar (PR-publik relatons - ijtimoiy aloqalar)dan foydalangan holda jamiyat ongida "yangi leyborizm"ning novatorik obrazini mustahkamlash, yangi partiya rahbariyati qiyofasini - XX1 asr siyosatchilari avlodi kabi o'zgartirishga harakat qildi. Hal qiluvchi hodisa, partiya ustavini o'zgartirishga bag'ishlangan konferensiya 1995 yilda bo'lib o'tdi. Ustavning yangi tahriri Leyboristlar partiyasini harakatchanlik va raqobatga asoslangan, imkoniyatlar tengligini va qashshoqlikka saqlanish kafolatini bera oluvchi "adolatli jamiyatni" yaratishga asoslangan "demokratik va

sotsialistik” partiya deb ko’rsatar edi. Ustavdan ishlab chiqarish vositalariga jamoat mulki ustunligi to’g’risidagi holat olib tashlandi. “Sotsializm tushunchasining o’zi endilikda jamiyat qurilishining loyihalaridan biri emas, balki individ va jamiyatning o’zaro eng maqbul (optimal) munosabatining idealini aks ettiruvchi ko’proq axloqiy tusga ega bo’ldi. 1995 yil konferensiyasi qarorlariga norozilik shaklida leyboristlar partiyasi tarkibidan Sotsialistik leyboristlar partiyasini tuzgan Artur Skargillning guruhi ajralib chiqdi. Ammo bu parchalanish leyboristlar obro’siga ham, ularning rahbari mavqeiga ham zarracha ta’sir etmadi.

1997 yildagi saylovoldi manifest “yangi leyborizm” g’oyalari ruhida tuzilgan edi. Umuman olganda iqtisodiy sohada Status quo-ni saqlashga harakat qilib, leyboristlar partiyasi huquqiy islohotlar o’tkazish va tashqi siyosatni o’zgartirish zarurati haqida bayon qilardi. Jumladan, Lordlar palatasini isloh qilish referendumlar institutini mustahkamlash, proporsional saylov huquqini joriy qilish, Shotlandiya, Uels va Shimoliy Irlandiyada konstitutsiyaviy islohot o’tkazish taklif kiritildi. Partiya dasturi “Tetcherdan keyingi” davrga yaqin iqtisodiy g’oyalarni va yetarlicha radikal bo’lgan Yevropeistik g’oyalarni o’z ichiga olardi. Bler Yeining sotsial partiyasi va Yevropa valyuta tizimiga qo’shilishga tayyor ekanligini bayon qildi. Saylovoldi kurash davrida “Amerika omili”dan ham foydalanildi - bosh vazirdan farqli o’laroq, Bler B.Klinton bilan do’stona munosabatlar o’rnata oldi.

Hokimiyat tepasida turgan konservativ partiya erishilgan iqtisodiy yutuqlarni targ’ib qilish va raqiblarni tanqid qilishga ishonib, saylov kompaniyasini juda passiv olib bordi. Liberal demokratlar partiyani juda o’ziga xos saylovoldi taktikani qo’lladi. U asosiy kuchni asosan konservatorlar mashhur bo’lgan va mashhur bo’layotgan leyborist nomzodlar bilan to’qnash kelish xavfi kamroq bo’lgan janubi-sharqiy Angliyadagi saylovchilarga qaratdi. Liberal demokratlar dasturi ham o’ziga xos xarakterga ega bo’ldi. Ularning leytmativi “kommunalizm” g’oyalari, mahalliy ijtimoiy va siyosiy hayotda hamjihatlik, “kommunalchilik” asoslarini mustahkamlashdan iborat bo’ldi. Liberal demokratlar eng radikal yevropeistik pozitsiyani egallashdi.

1997 yil may oyidagi saylovlar natijalari oldindan ma’lum edi. Leyboristlar olgan ovozlar ulushi (45%) ularning eng yuqori yutug’i bo’lmasa ham, parlamentda qo’lga kiritilgan o’rinlar soni ancha ko’p (659 dan 419 o’rin) edi. Konservatorlar esa 30,2% ovozga bo’lib, bor-yo’g’i 165 ta o’z nomzodlarini parlamentda joylashtira oldilar. Bu oxirgi 90 yil davomida eng past ko’rsatkich edi. Bu ayniqsa, Shotlandiya va Uelsda konservatorlar tarixda ilk bor birorta ham ovozga ega bo’lmaganligida namoyon bo’ldi. Saylovchilarning atigi 17%i ovoziga egalik qilgan liberal demokratlar o’z taktikalari tufayli 34 ta okrugda g’alaba qozonishga muvaffaq bo’lishdi. Milliy partiyalar yutuqlari kutilmagan hodisa bo’ldi. Shotlandiyaning to’liq mustaqilligi uchun kurashayotgan Shotlandiya Milliy partiyasi bu yerda 22% ovozga ega bo’ldi, “Pleyd Kinf” uchun esa Uels saylovchilarning 1G’10 qismi ovoz berdi.

Partiyalararo kurash matig’iga xilof ravishda Bler Meyjor kabineti harakatlaridan farqli o’laroq hukumatning iqtisodiy strategiyasini deyarli o’zgartirmadi. Hukumat ilgorigidek xususiy sektorning to’la ustunligi, davlatning iqtisodiy jarayonlarga iloji boricha kamroq aralashishi, ishbilarmonlik faoliyatini har tomonlama rag’batlantirish, ishlab chiqarishning texnik-texnologik bazasini yangilashga e’tibor qaratdi.

50-yillar oxirlarida Buyuk Britaniya iqtisodiyoti barqaror o’sish sur’atlarini saqlab qoldi. Yigirma yillik islohotlardan so’ng raqobatbardoshlikning yuqori darajasini ta’minlovchi zamonaviy sohaviy struktura shakllandi. Unumdorlik va bandlik bo’yicha xizmat ko’rsatish sohasi birinchi o’ringa chiqib oldi (Yalpi Ichki Mahsulotning 66,8% i va bandlarning 71,5%). Uning rivojlanishida moliyaviy soha alohida ahamiyatga ega bo’ldi. U YAIM ning 25%i va mamlakat mehnat resurslarining 12%ini (deyarli 4 million kishi) o’z ichiga olardi. YAIMning 31,4%i va bandlarning 26,4%i sanoat va qurilishga to’g’ri kelardi. Zamonaviy Britaniya sanoatining o’ziga xos xususiyati fanning keng tadbqiq qilinishi bo’ldi. Bu ko’rsatkich Yevropa mamlakatlari ichida eng yuqori edi. qishloq xo’jaligi atigi YAIMning 1,8%ini va mehnat resurslarining 2,1%ini o’z ichiga olardi. Bu soha ham yetarlicha samarali edi, ammo “sigirlar quturishi” tufayli katta talofatlar ko’rdi.

Meyjor va Bler hukumatlarining maqbul iqtisodiy siyosati bozor ahvolini va investitsiya holatining yaxshilanishiga uzoq muddat saqlanishiga imkon berdi. Mehnat munosabatlarining tartibga solinishini minimal nazorat qilish, individual daromad solig'i stavkalarini pasaytirish, alohida haq to'lash va xodimlarni ishga jalb etishga asoslangan "rag'batlantiruvchi bandlik" siyosati, ishchi kuchning yuqori darajadagi harakatchanligiga, unumdorligiga, nisbatan arzonligiga, ishsizlikning pasayishiga erishishga imkon berdi. Mehnat unumdorligi o'sish sur'atlarining pasayishiga (5% dan 2%gacha) qaramasdan, Britaniya mehnat bozorining ahvoli Yevropa bo'yicha eng yaxshilardan biri edi. 1999 yil iyunida Bler hukumati asosiy nufuzli yo'nalishlar deb "egiluvchan" mehnat bozorining rivojlanishi, motivatsion kompleksning mustahkamlanishi, bandlikni qo'llab-quvvatlash uchun davlat to'lovlarini qisqartirishni e'lon qiluvchi dasturni qabul qildi. Bunda, faqatgina, amalga oshirilishi uchun 5,7 mlrd. dollar ajratilgan yoshlarni kafolatlangan ish joylari bilan ta'minlash dasturi mustasno bo'ldi. 90-yillarning oxirida Buyuk Britaniyada investitsion faoliyatning favqulodda yuqori darajasi ham saqlandi. Investitsion ("portlash")ning asosiy manbalari juda kichik foiz stavkalari (5,5%), mamlakat umumiy iqtisodiy ahvolidan yaxshiligi va ichki bozordagi keskin raqobatdan iborat bo'ldi. Britaniya iqtisodiyoti Yeiga xorijiy investitsiyalarning 1G'3 qismini jalb qilgan holda xorijiy biznes uchun kapital qo'yishning foydali bozoriga aylandi. Buyuk Britaniyada, yuqori texnologik ishlab chiqarish sohasidagi eng yirik TNKlar bilan birga 13 mingdan ortiq xorijiy kompaniyalar faoliyat ko'rsatadi.

Leyboristlar allaqachon yangi konservatorlar tomonidan tekshiruvdan o'tkazilgan investitsion bozor harakatchanligini ta'minlashning samarali usulidan foydalanishdi. Bu usul imtiyozlarni qisqartirish orqali soliq bazasini kengaytirish bilan bir vaqtda to'g'ri soliqlar stavkasini kengaytirishdan iborat edi. Bler hukumati daromad solig'i umumiy stavkasini 20%gacha individual daromad solig'i minimal darajasini kelajakda 10% gacha kamaytirishga bosqichma-bosqich tayyorlanish to'g'risida bayonot berdi. 1997 va 1999 yillarda korporatsiya va kichik korxonalarni soliqqa tortish ham kamaytirildi. Leyboristlar aholi jamg'armalarini soliqlar bilan rag'batlantirish tizimini individual kapital qo'yishlar orqali investitsiyalarni moliyalashtirishning muhim manbai sifatida saqlanib qolishdi. Umuman, Buyuk Britaniyada rivojlangan mamlakatlar ichida to'g'ri soliqlarning eng past darajasi shakllandi. Ammo bunday rag'batlantiruvchi siyosatning bartaraf etib bo'lmaydigan oqibati "iste'molchilik savati" ning juda yuqori qiymatini saqlab qoluvchi egri soliqlarning to'xtovsiz (bir tekisda) oshishidan iborat bo'ladi.

90-yillar davomida amalga oshirilgan moliyaviy siyosat davlat budjetidagi kamomadni asta-sekin kamayishiga olib keldi. Davlat moliyalarining barqarorlashuvi Buyuk Britaniyaning butun moliyaviy valyuta tizimining sog'lomlashuvi bilan bir vaqtda kechdi. 1999 yilda inflyatsiya darajasi atigi 3,4% ni tashkil etdi. Asta-sekin urushdan keyingi davrdagi Britaniya iqtisodiyotining surunkali muammosi, ya'ni salbiy to'lab balansi ham tuzala boshladi. 1998 yilda Buyuk Britaniya tovarlar eksporti bo'yicha dunyoda 5-o'ringa (uning ulushiga dunyo eksportining 5,1%i (272,7 mlrd. dollar) to'g'ri keldi), import bo'yicha uchinchi o'ringa (ulushi dunyo importining 5,9%ini (316,1 mlrd.dollar) tashkil etdi) chiqib oldi. Tashqi savdoda salbiy saldo saqlanib qolgan edi, ammo atigi 20 mlrd. dollarni tashkil etdi.

Asosiy makro iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha Britaniya iqtisodiyoti 30-yillar oxirida GFR va Fransiyaning ijtimoiy-bozor iqtisodiyotidan ustunroq edi. Ammo yangi konservatorlik islohotlarning natijasi ijtimoiy infratuzilma rivojlanishining susayishidan iborat bo'ldi. Bu sohada allaqachon Meyjor hukumati tuzatishlar kiritishga urinib ko'rgan edi. Bler ham ijtimoiy siyosat sohasida bir qator muhim choralar ko'rdi. Budjetni barqarorlashtirish besh yillik dasturini rivojlantirish uchun 1998 yilda Gordon Braunning maxsus dasturini qabul qildi. Bu dasturda uch yil ichida ijtimoiy strukturani moliyalashtirishning ustuvor yo'nalishlari belgilangan edi. Ustivor yo'nalishlar sifatida ta'lim sohasidagi xarajatlar, kasbiy ta'lim, yoshlar uchun yalpi ish o'rinlari yaratish va sog'liqni saqlash ko'rsatilgan edi. O'sha paytda hukumat telefon aloqasi va transport tizimini yangilash bo'yicha keng ko'lamli loyihani ishlab chiqishga kirishgan edi. 1999 yilda

bolalikni himoya qilish, voyaga yetmaganlar ichida onalik muammosini hal etish, o'smirlar ichida giyohvandlikka qarshi kurashish bo'yicha dasturlar qabul qilindi.

Bler hukumati konstitutsion-huquqiy islohotni o'tkazishni rejalashtirdi. U ushbu uch asosiy yo'nalishni o'z ichiga olgan edi: saylov huquqi tizimida o'zgarishlar, Lordlar palatasini isloh qilish va devolyutsiya tizimini rivojlantirish. islohot to'g'risidagi keskin bahs-munozaralar 1998 yil kuzda hukumatning "parlamentni bosqichma-bosqich isloh qilish" nomli qonun loyihasi taqdim etilgandan so'ng boshlandi. Hukumat yuqori palatani 2000 yilgacha yangilash konsepsiyasini ishlab chiqish bo'yicha mustaqil komissiya tuzimini taklif qildi. Bundan tashqari, asta-sekin aralash, MAJORITAR- proporsional saylov tizimiga o'tish taklif qilindi. Bosh vazir fikriga ko'ra, 1999 yil iyunidagi Yevroparlamentga saylovlar davomida yagona nomzodi ega bir mandatli okruglar bo'yicha saylovni partiyaviy ro'yxat asosidagi saylov bilan almashtirish orqali proporsional saylov tizimini sinab ko'rish zarur edi. Ammo hukumat qonun loyihasi lordlar palatasi tomonidan to'rt marta qaytarildi. Natijada saylov tizimini isloh qilish masalasi yochilmay qolaverdi. Hukumat bu masalani umummilliy referendum orqali hal etishni afzal ko'rdi. 1999-2000 yillarda mahalliy maqomda (1999 yildagi Shotlandiya va Uelsdagi mahalliy hukumat organlariga saylovlar) proporsional saylov tizimini joriy qilish, shahar kengashlari rahbarlari (merlar)ni saylash amaliyotini joriy qilish, saylovlar kunini yakshanbaga (may oyining birinchi payshanbasidan) ko'chirishga bog'liq bo'lgan qisman o'zgarishlar kiritildi.

Saylov tizimini isloh qilish bo'yicha munozaralar Lordlar palatasini o'zgartirishni tezlashtirdi. 1999 yildayoq hukumat uning tarkibi tubdan o'zgartirish bo'yicha loyiha tayyorladi. Merosiy perlik bekor qilindi. Yuqori palatada faoliyat ko'rsatishga huquq beruvchi Lord maqomi bir umrlik bo'ldi va ijtimoiy hayotning u yoki bu sohasidagi ulkan xizmatlar uchun beriladigan bo'ldi. Perlik unvoni berish huquqi faqat qirolicha ixtiyorida edi, ammo nomzodlarni tanlash maxsus mustaqil komissiya vazifasiga aylandi. Lordlarning ozgina qismi fuqarolar tomonidan ham saylanishi mumkin edi. 1999 yil oktabr oyida Lordlar palatasi ko'pchilik ovoz bilan (221 ovoz 81 taga qarshi) o'z tarkibidan barcha merosiy perlarni chiqarib, hukumat qonun loyihasini ma'qulladi. 2000 yilda yangi bir umrlik lordlar uchun nomzodlarni aniqlash bo'yicha maxsus komissiya ish boshladi.

Bler hukumati Birlashgan qirollikning subnatsional mintaqalariga nisbatan devolyutsiya tizimini o'zgartirish bo'yicha qat'iy qadam qo'ydi. 1997 yilda Uels va Shotlandiyada mahalliy qonun chiqaruvchi yig'implarni tuzish bo'yicha referendumlar bo'lib o'tdi. Uelsda referendumda mahalliy saylovchilarning atigi 80%igina qatnashdi. Bu holat hisobga olingan holda konstitutsion islohot bu yerda biroz chegaralangan xarakterga ega bo'ldi. Tuzilishi kutilayotgan mahalliy assambleya mahalliy qonunlarni qabul qilish va soliqlarni belgilash huquqlaridan mahrum edi. Uning vakolati mintaqaning iqtisodiy rivojlanishi, qishloq xo'jaligi, ta'lim, madaniyat va ekologiya masalalari bilan chegaralangan. Assambleya, ilgari Uels bo'yicha vazirga tegishli bo'lgan markaziy hukumat dotatsiyasi (yiliga 8 mlrd. funt sterling)ga egalik qiladi.

Shotlandiyada konstitutsion islohot ovoz berganlarning 74%i tomonidan ma'qullandi. Tuzilayotgan Shotlandiya parlamenti katta vakolatlarga ega bo'ldi, jumladan, milliy qonunlarga zid kelmaydigan mintaqaviy qonunlarni qabul qilish, soliqlarni belgilash va yig'ib olish huquqiga ega bo'ldi. Bunday tashkilotning tuzilishi Shotlandiyaning Birlashgan qirollik tarkibidan ajralib chiqish jarayonining boshlanishiga asos bo'lishi mumkin edi. Ammo Shotlandiya parlamentiga birinchi saylovlar davomida bunchalik radikal variantning tarafdorlari mag'lubiyatga uchradi. Mandatning ko'pchilik qismini (112 dan 56) mo'tadil yo'nalish tarafdorlari bo'lgan leyboristlar egallashdi. Jon Kennedi boshchilik qilayotgan Shotlandiya milliy partiyasi 28 ta mandatga ega bo'ldi. Shotlandiya parlamentining rasmiy ochilishi 1999 yil 1 iyulda bo'lib o'tdi.

Bler Olster muammosini ochishda katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Hukumat tepasiga kelganida u ingliz-irland muzokoralarida Olsterning Shinn Feyn partiyasi vakillarining qatnashishiga tayyor ekanligini aytgan edi. Muzokoralar davomida IRA tinchlikni saqlashga rozi bo'ldi. AQSH vositachiligida 1998 yil aprel oyida Shimoliy Irlandiya bo'yicha uch tomonlama

tinchlik shartnomasi imzolandi. Bu shartnomada Shimoliy Irlandiyaning siyosiy mustaqilligi tiklangan edi. Shimoliy Irlandiyaning milliy assambleyasi, stirmontdan farqli o'laroq, "o'zaro hamjihatlik" qoidalariga ko'ra ishlashi kerak edi, ya'ni har qarorni qabul qilish uchun, ham katolik, ham protestantlar vakillari bo'lgan deputatlarning ma'qullashlari kerak bo'lardi. Irlandiya Olsterga da'vogarlikdan voz kechishi kerak edi, Britaniya hukumati esa chegaralangan vakolatlarga ega bo'lgan umumirland mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarini tashkil etishga rozilik berdi. (bu masalaning amalda hal etilishi Shimoliy Irlandiya Milliy assambleyasi vakolatlari doirasiga kirar edi).

Tinchlik shartnomasi 1998 yil 22 maydagi referendumda tasdiqlangan edi. Olsterda 71%, Irlandiyada 94% saylovchilar qo'llab-quvvatlashdi. 1999 yil iyunda Milliy assambleya deputatlari saylovlari bo'lib o'tdi Reglament tufayli protestant deputatlarning son jihatdan ko'pchilikni tashkil etishi ustunlikka imkon bera olmasdi. Assambleya Shimoliy Irlandiya hukumatini tuzishga kirishdi. London uning ixtiyoriga mintaqaning iqtisodiy rivojlanishi, sog'liqni saqlash, ta'lim, atrof-muhit muhofazasi masalalari hamda "Shimol-Janub" umumirland vazirlar kengashini tuzishni topshirishni taklif qildi. Ammo bu jarayonlar IRA ekstremistlari tomonidan xavf ostida qoldi. 1999 yilda IRA qurolsizlantirish haqidagi va'dani bajarmadi. Terrorchilik harakatlari ham davom ettirildi. Olsterda mintaqaviy hukumat organlari tuzilishining yakunlanishi ham vaziyatni o'zgartirmadi. 2000 yilda Britaniya hukumati Olsterga maxsus harbiy qismlarni kiritishdan voz kechdi, ammo terrorchilikka qarshi qonunchilikni UJESTOCHILO.

E.Bler Buyuk Britaniyaning tashqi siyosiy strategiyasiga katta tuzatishlar kiritdi. Saylovoldi kurash davridayoq u AQSH bilan "maxsus sunosabatlar"ni tiklash va B.Klinton bilan yaqin DELOVO'X va shaxsiy munosabatlar o'rnatish tarafdori edi. 1938 yilda bu Londonning baland siyosiy DEMARShlari bilan tasdiqlandi. Dunyo hamjamiyatining katta qismining fikriga xilof ravishda Britaniya hukumati AQSH tomonidan Sudan va Afg'onistonning "antiterroristik" bombardimon qilinishini qo'llab-quvvatladi. 1998 yil dekabrda birgalikdagi ingliz-Amerika "sahrodagi tulki" harbiy operatsiyasi amalga oshirildi. To'rt kun davomida ingliz-Amerika harbiy qismlari Iroqning harbiy va iqtisodiy infratuzilmasi obyektlariga qarata to'rt yuzga yaqin qanotli raketalar yo'naltirishdi. 1999 yilda Buyuk Britaniya AQSH bilan birgalikda Yugoslaviyaga qarshi eng qat'iy choralar ko'rish tarafdori bo'ldi. Britaniya qurolli kuchlari ham Serbiya hududiga obyektlarni bombardimon qilishda ham Kosovadagi yerdagi harbiy harakatlarda qatnashdi. Keyinchalik ma'lum bo'lishicha, aynan Britaniya hukumat organlari va maxsus xizmatlari Miloshevich rejimiga qarshi targ'ibotchilik xuruji olib borishda, Kosovadagi milliy qatag'onlar to'g'risida noto'g'ri ma'lumotlar tarqatgan holda katta "hissa" qo'shgan edilar. Bu davrda Buyuk Britaniya "NATOning Sharqqa Kengayish" jarayonini va NATOning yangilangan strategik konsepsiyasining qabul qilinishini qo'llab-quvvatladi.

90-yillar oxiridagi eng muhim va eng o'tkir xalqaro munosabatlarga oid muammolarda Londonning amerikaparast pozitsiyasi Buyuk Britaniya va Rossiyaning yaqinlashishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Faqatgina 1998 yil may oyida Birmingemda dunyoning yetakchi mamlakatlar rahbarlarining uchrashuvi arafasida Rossiya-Britaniya aloqalarining jonlanishi mustasno edi. O'shanda aynan Britaniya diplomatiyasining qo'llab-quvvatlashi tufayli rasman "katta yettilik"ni "katta sakkizlik"ka aylantirishga muvaffaq bo'lindi. Rossiya-Britaniya munosabatlari faollashuvining yangi bosqichi 1999 yilda boshlandi, unda Bler Rossiya yangi rahbari Putinga katta ma'naviy PODDEJKA (maralnaya) berdi. Blerning Peterburg va Putinning Londonga norasmiy tashriflari bu hamkorlikka shaxsiy munosabatlar xarakterini berdi.

O'zining saylovoldi dasturidagi Yevropeistlik g'oyalarini amalga oshirgan holda Bler 1997-1998 yillarda YEI bo'yicha hamkor mamlakatlar bilan o'zaro munosabatlarni tartibga solishga katta e'tibor berdi. 1997 yil iyulidayoq, Bler Yevropaning boshqa davlat rahbarlari bilan birgalikda Yevropa Hamjamiyatlari ta'sis xujjatlariga katta o'zgartirishlar kiritgan va Maastrixt hujjatlarida ko'rsatilgan integratsion dasturlar ko'lamini kengaytirgan Amsterdam shartnomasini imzoladi. Britaniya hukumatining bu hujjatga nisbatan ijobiy munosabati, jumladan, Buyuk Britaniyaning Yeining ijtimoiy xartiyaga qo'shilishi, Londonning o'z Yevropaga oid

strategiyasini tubdan o'zgartirishga kirishganidan dalolat berardi. Bler Amsterdam shartnomasida kafolatlangan inson huquq va erkinliklari doirasining kengayishini, Yevropa fuqarolik institutining rivojlanishini, tashqi siyosat sohasidagi hamkorlikning chuqurlashishini, YEI mamlakatlarda ijtimoiy siyosatning tartibga solinishi, Yevropa Ittifoqi tarkibining kengayishini qo'llab-quvvatladi. Britaniya hukumatining 2001 yilgacha Yevropa valyuta tizimiga qo'shilish to'g'risidagi qarori muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Keyingi voqealar Bler mamlakatning Yeiga chuqur kirib borishga tayyor deb xato qilganini ko'rsatdi. Hukumat pozitsiyasi ham "yevroskeptik" konservatorlar, ham ko'pgina leyboristlar tomonidan tanqid ostiga olindi. 1998 yildagi leyboristlar tomonidan tanqid ostiga olindi. 1998 yildagi leyboristlar partiyasining konferensiyasi Buyuk Britaniyaning Amsterdam shartnomasini amalga oshirishda ishtiroki uchun bir qator shartlar qo'yishni taklif etdi, jumladan, milliy va Yevropa parlamenti o'rtasida aloqalarni kengaytirish, Buyuk Britaniyaning YEI budjetining bir qismiga xo'jayinlik qilish huquqini saqlab qolish (bu budjet Yevropaning EKSTERRITORIAL muammolarni hal qilishga qaratilgan edi), Shotlandiya va Uels muxtoriyatini rivojlantirish uchun har yili iqtisodiy grant olish huquqiga ega bo'lish, hamda ichki moliyaviy siyosatni mustaqil belgilash huquqiga ega bo'lish shartlari qo'yilishi kerak edi. Hukumat 1998 yilda valyuta ittifoqiga kirish masalasini qayta ko'rib chiqishini ma'lum qildi va 2002 yil bahorda bu masalaga oid referendum o'tkazishga qaror qildi. 1999 yilda Yevroparlamentga saylovlarda leyboristlarning mag'lubiyati hukumat pozitsiyasining sustligini namoyish qildi. XX1 asr boshida mamlakatning tashqi siyosatini shakllantirishda 2001 yil o'rtalarigacha o'tkaziladigan parlament saylovlari hal qiluvchi ahamiyatga ega.

mavzu: ITALIYA 1945-2005 YILLARDA.

Ko'rib chiqiladigan masalalar:

- 1. Italiyaning siyosiy tuzumi.**
- 2. Italiya Yevropaning rivojlangan mamlakatlaridan biri.**
- 3. Italiya-O'zbekiston munosabatlari.**

Tayanch so'zlar:

2-chi jahon urushidan keyingi Italiya tarixiga bag'ishlangan manbalar va tarixshunoslik.

Mussolini fashistik diktaturasining yemirilishi. Demokratik va progressiv kuchlarning reaksiyaga, fashizmga va monarxiya tarafdorlariga qarshi olib borgan kurashlari. Italiyada respublikaning ta'sis etilishi.

Italiya va Shimoliy Atlantika (NATO) bloki. AQShning Italiya iqtisodiyotiga ta'siri. 1950-1960 yillardagi Italiyaning iqtisodiy-siyosiy taraqqiyoti. Italiyaning 1957 yilda G'arbiy Yevropa mamlakatlarining "Yevroatom" va "Umumiy bozor" to'g'risidagi shartnomalarga qo'shilishi. Italiya-O'zbekiston munosabatlari.

Darsning maqsadi:

Ikkinchi jahon urushida Italiyaning mag'lubiyatga uchrashi bilan uning siyosiy tuzulishida bo'lgan o'zgarishlar, respublika tuzumining qaror topishi, Italiyaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, XDPning hokimiyat tepasiga kelishi, so'l markazning mamlakatni boshqarishi, 80-90-yillarda Italiyadagi o'zgarishlar va nihoyat uning Yevropa va dunyodagi o'rni masalalari yoritiladi.

Respublika tuzumiga o'tish.

Ikkinchi jahon urushida Italiyaning mag'lubiyatga uchrashi xalq ommasini ruhiy jihatdan og'ir ahvolga solib qo'ydi. Mamlakat tang ahvolda qoldi. Italiya o'z milliy boyligining 1g'3 qismidan ajraldi. Urush tufayli 330 ming kishi halok bo'lgan bo'lsa, 85 ming kishi yarador bo'ldi. Urush tugashi arafasida mamlakatda oziq-ovqat mahsulotlarining tanqisligi yuzaga keldi. Chayqovchilik va qora bozor gullab yashnadi. Inflyatsiya juda katta hududni egallab, ishsizlar soni 2 mln kishiga yetdi. Mamlakat hududi ingliz-amerikaliklar qo'shini tomonidan okkupatsiya qilingan edi.

Shu bilan bir vaqtda italiyaliklar fashizm bilan kurashda katta tajribaga ega bo'ldi. qarshilik ko'rsatish harakatining tabiati va an'analari esa urushdan keyingi dastlabki yillardagi demokratik taraqqiyotda o'z izini qoldirdi. qarshilik ko'rsatish harakatida yetakchilik qilgan ishchilar sinfining partiyalari ommabop bo'lib (IKP saflarida 4,5 mlndan ortiqroq kishi, Sotsialistik partiya saflarida esa 0,7 mln kishi), siyosat maydonida katta e'tibor qozondi. So'l va o'ng qutblar o'rtasida, siyosat shkalasining markazida qarshilik ko'rsatish harakatida o'ziga xos muvaffaqiyat qozongan ommaviy partiyalardan yana biri - Xristian-demokratik partiyasi (1 mln kishidan ortiq) ham bor edi. XDP 1919 yilda tuzilgan katolik xalq partiyasi "Popolari"ning negizida 1943 yili tashkil topgan edi. "Xristian demokratiyasi" atamasi xalq partiyasining asoschisi, italiyalik ruhiniy don Luidji Stursoga tegishli edi. XDP dasturining matni 1943 yilning 25 iyulida Mussolini hokimiyatdan chetlatilgan kuni matbuotda e'lon qilingan edi.

Qarshilik harakatining an'analarga ko'ra, urushdan keyingi davrning dastlabki yillarida bu partiyalar o'rtasidagi hamkorlik saqlanib qoldi. Lekin shu narsa ma'lum ediki, fashizmga qarshi qurolli kurash olib borish, Italiyada yangi jamiyatini shakllantirishga qaraganda ancha oson edi. Italiyaliklar Mussolini fashistik rejimi tomonidan oyoq osti qilingan burjua-liberal demokratiyadan uzoqlashishga ulgurishgan edi. Mamlakatda Italiyaning kelgusidagi istiqboli va

taraqqiyot yo'llari haqida qizg'in bahs ketardi. Ayniqsa, boshqaruv tizimi masalasi katta tortishuvlarga sabab bo'ldi. 1946 yil mayida qirol Viktor Emmanuil 111 siyosiy hiylani amalga oshirdi. U o'zining o'g'li shahzoda Umberto 11 foydasiga taxtdan voz kechdi. Shu sababdan italiyaliklar Umberto 11 ga "may qirol" deb nom berishdi.

Fashizm tanazzulga yuz tutgach, italiyaliklarning monarxiyaga munosabati keskin o'zgardi. Dastlab monarxiyaga nisbatan ijobiy fikr bildirilgan bo'lsa, urush tugagach, salbiy munosabatlar kuchayib bordi. Bunga sabab, Italiya monarxiyasining Mussolini fashistik rejimini qo'llab-quvvatlagani bo'ldi. Jamiyatda respublikachilik kayfiyati mustahkamlanib borsada, monarxiyaning tarafdorlari ham asosan liberallar va monarxiyachilar qisman esa xristian demokratlar orasida yetarlicha edi. 1946 yil iyunida davlat boshqaruvi shakli to'g'risida referendum bo'lib o'tdi. Bu referendumda ovoz berganlar foizi nihoyatda ko'p bo'lib, ayollar ham bunday tadbirda birinchi marotaba qatnashdi. Respublika boshqaruv shaklini o'rnatishni yoqlab ovoz berganlar soni 2 mlndan oshiq edi. "May qirol" Umberto 11 ovozlarni sanab chiqishda xatoga yo'l qo'yilganligini va mamlakatdan chiqib ketishdan bosh tortishi to'g'risida bayonot berdi. Bunga javoban juda katta norozilik namoyishlari bo'lib o'tdi va hukumat ham referendum natijalarining to'g'riligini rasmiy jihatdan tasdiqladi. Taxtda bir oycha o'tirgan Umberto 11 xalq ommasiga katta qismining irodasiga bo'ysinishga va vatanini bir umrga tark etishga majbur bo'ldi. Italiya respublikaga aylandi.

Referendum bilan bir vaqtda, Ta'sis majlisiga ham saylovlar bo'lib o'tdi. Saylov natijalariga ko'ra XDP yetakchisi Alcide De Gasperi (1881-1954) Italiyaning o'sha vaqtdagi umumiy siyosiy yetakchisi bo'la olish iqtidoriga ega bo'lgan, jamoat arboblardan biri edi. De Gasperi o'ta o'qimishli inson, antifashist harakatning faol namoyondalaridan biri bo'lib, faoliyatini va boy hayotiy tajribasi tufayli katolik harakatda ko'zga ko'ringan.

Ministrlar Soveti raisining o'rinbosari va adliya ministri lavozimiga, o'sha vaqtda nufuzli partiyalardan hisoblangan IKPning bosh kotibi, mamlakatning obro'li siyosiy arboblardan biri Palmiro Tolyattiga nasib etdi. (1948 yil iyul oyida Tolyattiga suiqasd uyushtirilgan vaqtda (kunduz kuni yosh sitsiliyalik yigit unga o'q otgan edi), bunga javoban mamlakatda yuzaga kelgan norozilik namoyoishida 7 mlnga yaqin kishi qatnashgan edi).

Referendum bilan bir vaqtda saylangan Ta'sis Majlisi konstitutsiya loyihasini ishlab chiqishga kirishib ketdi. Ta'sis Majlisi tarkibidagi deputatlarning 80% antifashistik harakatda faol ishtirok etganlar edi. Yangi konstitutsiya loyihasini ishlab chiqish uchun deputatlarga 272 kun vaqt ketdi. Ta'sis Majlisi tomonidan 1947 yil dekabrda tasdiqlangan yangi konstitutsiya rasman 1948 yilning 1 yanvaridan boshlab kuchga kirdi. Urushdan keyingi davrda siyosat kuchlarining bu tarzda taqsimlanishi Italiya konstitutsiyasini rivojlangan mamlakatlar ichidagi eng demokratik konstitutsiyalaridan biri bo'lishiga imkoniyat yaratdi. Yangi konstitutsiyaga ko'ra Italiyada tarqatib yuborilgan fashistik partiyaning biror bir shaklda bo'lsa ham qayta tiklanishi batamom ta'qiqlandi, fashizm davrida yuqori lavozimlarni egallab kelgan shaxslar konstitutsiya kuchga kirgan kundan boshlab to besh yilgacha hukumat tashkilotlariga saylash va saylanish huquqidan mahrum etildi. Konstitutsiyaga ko'ra zadogonlik unvonlari bekor qilinib, Savayya sulolasining barcha a'zolari va bo'lajak avlodlariga mamlakat hududida yashash ta'qiqlandi, ularning barcha mol-mulkleri esa davlat ixtiyoriga o'tkazildi. Konstitutsiyaning dastlabki moddalari davlatning asosiy prinsiplarini o'zida mujassam etib, Italiya insonlarning haq-huquqlari va kafolatlari tan olingan demokratik respublika deb e'lon qilindi. Chunonchi, bunday huquqlarga; qonun oldida barcha kishilarning tengligi, shaxsning ham kirardi. Konstitutsiyada urushlardan "hech qachon boshqa xalqlarning ozodligiga rahna soladigan qurol sifatida va xalqaro nizolarni bartaraf etishda foydalanmaslik" masalalari qonun bilan mustahkamladi. Konstitutsiyaning 1 qismida fuqarolarning huquqi va burchlari to'g'risidagi moddalari yozilgan edi.

Barcha fuqarolarning mehnat qilish va ularni rag'batlantirish huquqi tan olindi. Teng mehnat uchun teng haq to'lash prinsipi kiritildi, har haftada dam olish, yilida bir marta haq to'lanadigan ta'tilga chiqish huquqini ijtimoiy ta'minot ko'zda tutildi. Kasaba uyushmalarining erkinligi va namoyoish o'tkazish huquqi tan olindi.

Konstitutsiyaga ko'ra, ikki turdagi mulk-davlat va xususiy mulklarga joriy etildi.

Konstitutsiyaning 11 qismi davlat boshqaruv organlari va hokimiyatning bo'linishi prinsiplarining reglamantini aniqlab berdi. Davlat boshlig'i - prezident bo'lib, u parlament tomonidan 7 yil muddatga saylanadi. Prezidentlikka saylanadigan fuqaroning yoshi 50 dan oshgan bo'lishi belgilanib qo'yildi. Prezidentga Ministrlar Kengashining raisini, undan tashqari vatanlarini o'zlarining buyuk xizmatlari bilan mashhur qilgan fuqarolardan beshtasini doimiy (umrbod) senatorlikka tayinlandi; parlamentga hukumatning qonun loyihalarini yuborish, parlamentni tarqatib yuborish, referendumni tayinlash, qonun kuchiga ega bo'lgan dekretlarni qabul qilish, qurolli kuchlarning Oliy bosh qo'mondoni bo'lish va parlament qaroriga asoslanib urush holatini e'lon qilish kabi juda katta vakolatlar berildi. Hukumat tarkibi rais va ministrlardan iborat bo'lib, ular rais taklifi va parlament nazorati ostida prezident tomonidan tayinlanadi. Parlament deputatlar Palatasi va Respublika Senatidan iborat umumiy va to'g'ridan ovoz berish yo'li bilan proporsionallik prinsipiga asoslanib, 5 yil muddatga saylanadi. Parlamentdan tashqari, Italiya xalqi ham qonunchilik jarayonida ishtirok etish huquqiga ega edi. Konstitutsiya xalq tashabbusi bilan petition (50 ming saylovchilar tomonidan qonun loyihasini kiritish) va otlagatel (500 ming saylovchi tomonidan qonunni "xalq veto"si yo'li bilan bekor qilish) shakldagi referendumlar o'tkazishni ko'zda tutgan edi.

Mamlakatda kongressiya an'alarining chuqur iz qoldirganligi tufayli cherkov va davlat o'rtasidagi aloqalar katta ahamiyatga ega edi. 7-moddaga ko'ra "davlat va katolik cherkovi o'zlariga tegishli bo'lgan sohalarda mustaqil va suveren", bo'lib, ularning munosabatlari 1929 yilda qabul qilingan Lateran shartnomalariga ko'ra belgilangan edi. Bu shartnomaga ko'ra, cherkov oilaviy munosabatlar qonunchiligida va maktab ta'limi sohasini o'z nazorati ostiga olgan edi. Masalaning bu tarzda qo'yilishi xristian demokratlar va so'l partiyalar o'rtasidagi kompromissni belgilab berdi. 1947 yilgi konstitutsiya mamlakatning ma'muriy-hududiy bo'linishini 20 ta viloyat, 93 ta provinsiya va 8 mingga yaqin jamoaga ajratdi.

Urushdan keyingi davrdagi dastlabki yillarda Italiyaning siyosiy hayotidagi muhim voqea 1947 yil fevral oyida Parijda Italiya bilan Ittifoqchilar o'rtasida tinchlik shartnomasining imzolanishi bo'ldi. Shartnomaga ko'ra, Italiyadagi fashistik tashkilotlarni tarqatib yuborish, chegaralarni aniqlashtirish, harbiy jinoyatchilarga beriladigan jazolarni tasdiqlash, mamlakat hududida harbiy bazalarni joylashtirishni ta'qiqlash, SSSRga 100 mln dollar, Yugoslaviyaga 125 mln dollar, Gretsiyaga 105 mln dollar, Albaniyaga 5 mln dollar va Efiopiyaga 25 mln dollar miqdorida reparatsiya to'lash kabi masalalar belgilab olindi. Italiya o'z mustamlakalaridan voz kechishga majbur bo'ldi. Ilgari Italiyaga qaragan Xorvatiyaning bir qismi Yugoslaviyaga olib berildi. Gretsiyaga Egey dengizidagi Dodekan orollari (Janubiy Sporadalar) qaytarildi. Anglo-amerikalik harbiy-ma'muriyati nazoratida bo'lgan. Triyest BMT nazorati ostidagi erkin shaharga aylantirildi, (oradan 7 yil o'tgach, 1954 yilda Yugoslaviya va ittifoqchilar o'rtasidagi kelishuvga muvofiq Triyest Italiyaga berildi). 1947 yil oxirida Amerika Buyuk Britaniyaning qo'shinlari va harbiy ma'muriyati Italiya hududidan chiqib ketdi. Tinchlik shartnomasiga ko'ra, Italiyaga mudofaa uchun lozim bo'lgan qurolli kuchlarni saqlash huquqi berildi. Bu qurolli kuchlarning soni 250 ming askar 65 zobitdan oshmasligi belgilab qo'yildi. HHK (harbiy havo kuchlari) va HDK (harbiy dengiz kuchlari)ning shaxsiy tarkibi 25 ming kishi bilan chegaralandi. Italiyaga suvosti kemalari, avianosetslar va torpedo bilan qurollangan katerlarga ega bo'lish ta'qiqlab qo'yildi.

Ijtimoiy-iqtisodiy sohada Italiya oldida muhim va jiddiy masala turar edi. Bunga urush tufayli tanazzulga yuz tutgan hali xo'jaligini qayta tiklash va tinchlik sharoitidagi ishlab chiqarishga moslashtirish, demobilizatsiya o'tkazish va demobilizatsiya qilinganlarni ish bilan ta'minlash kabilarni amalga oshirish kirardi. Shu maqsadda 1948 yil iyun oyida "Marshall rejasi"ga ko'ra, ikki yil muddatga Italiyaga yordam ko'rsatishni ko'zda tutgan bitim imzolandi. Bu bitim italiyaliklar va amerikaliklar o'rtasida imzolandi. "Marshall rejasi"ga ko'ra AQSH Italiyaga 1,5 mlrd dollar hajmida (oziq-ovqat mahsulotlari va sanoat jihozlari) yordam berishni mo'ljallagan edi. Shu bilan bir vaqtda Amerika yordamining siyosiy qiymati - premyer-ministr De Gasperiga tazyiq o'tkazish orqali so'l partiyalarning vakillarini hukumat tarkibidan chiqarish

ko'zda tutilgan edi. Shu narsa ma'lum ediki, hukumat tarkibiga kirgan partiyalarning asosiy maqsadlari turlicha bo'lganligi tufayli ular o'rtasidagi hamkorlik uzoq davom etishi mumkin emas edi. Lekin aynan tashqaridan o'tkazilgan tazyiqlar, garchi mamlakat ichkarisidagi voqealar bahona qilib ko'rsatilgan bo'lsada, hamkorlikning buzilib ketishiga sabab bo'ldi. 1947 yili Sitsiliyada mafianing bir guruh to'dasi bir oz kamayishida ishtirok etgan ishchilarni o'qqa tutdi. Bu voqea mamlakatda inqirozni yuzaga keltirish bilan birga, hukumatning tarqatib yuborilishiga ham sabab bo'ldi, De Gasperi boshchiligidagi tuzilgan yangi hukumat tarkibiga kommunistlar va sotsialistlarning vakillari kiritilmadi. Sotsialistlar yetakchisi Pyetro Nenni agar ahvol shunday davom etaversa, Italiyaning ichki ishlari tashqi omillarga yanada ko'proq bog'liq bo'lib qolishini achinish bilan ta'kidladi. U tashqi faktorlar deganda, Vatikan va AQShni nazarda tutgan edi. O'z tarafdorlari bilan sotsialistik partiya tarkibidan chiqib, kommunistlar bilan hamkorlik qilmaslik siyosatini olib borayotgan Italiya sotsial demokratik partiyasida (ISDP) rahbarlikni o'z qo'liga olishga erishgan sotsialistlar so'l qanotining yetakchisi Djuzeppe Saragat yangi tuzilgan hukumatda premyer-ministr o'rinbosari lavozimiga tayinlandi. Kommunistlarni cherkovdan ajratib tashlash to'g'risidagi dekretni chiqarish bilan, Vatikan antikommunistik siyosatni qo'llab-quvvatladi.

Urushdan keyin dastlabki yillarda neofashistlarning harakati yuzaga keldi. Italiyada fashizm qaqshatqich mag'lubiyatga uchragan va yangi konstitutsiyaga ko'ra, tarqatilib yuborilgan fashistik partiya biror bir shaklda bo'lsa ham qayta tiklanishi tamoman ta'qiqlab qo'yilgan bo'lsada (11 razdel, P.X11 -), jamiyatdagi ba'zi guruhlar o'z hayrihohliklarini saqlab qoldi. Ular fashizmning mag'lubiyatini qayg'u bilan qabul qilishdi. Fashizm tarafdorlari safida monopolistlar, harbiy va davlat amaldorlari, (Mussolini diktaturasi davrida yuqori lavozimlarga ega bo'lganlar) kichik burjuaziyaning ma'lum bir qismi IHH ham bor edi. 1946 yil dekabrda neofashistlarning ijtimoiy harakati partiyasiga asos solindi. Bu partiyaning dastlab DJ. Almirante, keyinchalik esa A.Mikelini boshqardi. Italiya ijtimoiy harakati partiyasi dasturida fashistik korporativ tizimni o'rnatish, fuqarolarni ijtimoiy himoyalash, antimarksizm, tashqi siyosatda "imperik" g'oyalarning ustunligini ta'minlash vazifalari ilgari surildi. Partiya a'zolari ichidagi taktik ba'zan fraksiyalar o'rtasida keskin ixtiloflar yuzaga chiqishiga sabab bo'lsada, umuman IHH legal siyosiy faoliyat olib borish va neofashistlarning o'ng radikal liberal-monarxistik doiralar bilan birlashish yo'lidan bordi. Italiya isteblishmentida IHH kichik partiyalar qatoriga kirib, ularning elektorati parlament saylovlarida ko'pincha, 6 % dan oshmas edi.

1948 yil bahorida parlament saylovlari bo'lib o'tdi. Neofashistlar 2 % ovozga ega bo'ldi. Kommunist va sotsialistlarning birlashgan bloki uchun saylovchilarning 1g'3 qismi ovoz berdi. Xristian demokratik partiya deyarli 50% ovoz olib, katta muvaffaqiyatga erishdi. De Gasperi, parlamentda asosan XDP a'zolaridan iborat bo'lgan hukumatini tuzdi. Bu hukumat De Gasperi boshchiligidagi tuzilgan 5-hukumat edi.

XDP hokimiyat tepasida.

Xristian-demokratlar siyosatda rahbarlik mavqeiga ega bo'lib olishgach, mamlakat iqtisodiyotini tiklash jarayonini boshlab yuborishdi. Bunda, AQShning Marshall rejasiga ko'ra ko'rsatgan moliyaviy yordami muhim ahamiyat kasb etdi. Italiya 40-50 yillar orasida Marshall rejasi asosida 3,2 mlrd dollar miqdorida moliyaviy yordam oldi. Bundan tashqari iqtisodiyotni tiklash va yanada rivojlantirish uchun boshqa mablag'lardan ham foydalanildi. Xo'jalik proteksionizmi (assistensializm, - italyanchada "yordam" ma'nosida), davlat tomonidan moliyalash va kredit berish, davlat sektori shaklida davlat-monopolistik nazoratni kuchaytirish va boshqalar shular jumlasidandir. Italiyaning yirik monopolist-oligarxlarida Anyelli, Pirelli, Orlando, Pezenti, Mardzotto, Ferrutssi va boshqa mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga katta miqdordagi sarmoya (investitsiya)lari bilan o'z hissalarini qo'shishdi. Jahon bozorida xomashyo va energonositeli () lar uchun qo'yilgan arzon narxlar, ishlab chiqarishda fan-texnika inqilobi yutuqlaridan foydalanish, ish haqining o'sishini majburiy ravishda ushlab turish (mehnat samaradorligi 40% ga o'sgan holda, real ish haqi bor yo'g'i 8,9 % ga oshdi) va Italiyaning Yevropadagi iqtisodiy integratsiya jarayoniga qo'shilishi (Italiya 1957 yilda umumiy bozorga

a'zo bo'ldi) nafaqat iqtisodiyotni tiklashda, balki "Italiyaning iqtisodiy mo'jizasi" nomini olgan iqtisodiy taraqqiyotida qo'shimcha kuch bo'ldi. 50-60 yillar boshlarida iqtisodiy taraqqiyotdagi yuqori sur'atlar Italiya Milliy daromadining deyarli ikki baravar oshishiga olib keldi. Infrastruktura, bazis va strategik jihatdan nihoyatda muhim bo'lgan xo'jalik sohalarini o'z ichiga olgan, kuchli davlat sektori yuzaga keldi. Davlat sektorida sanoatni rekonstruksiyalash Instituti (SRI) rahbarlikni o'z qo'liga oldi. SRI - hukumat xoldingi hisoblanib, 1933 yildayoq tashkil topgan edi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda SRI Italiyadagi yirik xo'jalik komplekslaridan biriga aylandi. qudratli davlat sektori, o'rta va kichik biznes hamkorligidagi yirik xususiy sektor bilan birgalikda foydali qazilma boyliklari deyarli yo'q darajada bo'lgan sharoitda iqtisodiyot strukturasini qayta qurish vazifasini amalga oshirdi. Italiya zamonaviy texnologiyalar bo'yicha chet davlatlarining ilg'or patentlarini sotib olish uchun katta miqdordagi sarmoyalarni hech ayamasdan sarfladi. Tashqarisiga "ortiqcha" ishchi kuchini eksport qila boshlagan Italiyaga, AQSH va Yevropa hamdo'stligi mamlakatlaridan katta miqdordagi sarmoya oqib kela boshladi. Chet el sarmoyalarining kirib kelishi, Italiya iqtisodiyotining tez taraqqiyo etishiga imkon berdi. Shu bilan bir vaqtda yirik milliy tadbirkorlar asosan subpodryad va kooperatsiyalar evaziga ko'p sonli kichik tadbirkorlarni monopolistik ishlab chiqarish tizimiga kiritishga muvofiq bo'ldilar. Bundan tashqari, ishchi kuchiga sarflanayotgan harajatlarning nihoyatda pastligi tufayli "tenevoy iqtisodiyot"ning imkoniyatlaridan keng foydalanildi. (Hozir ham foydalanilmoqda). "Tenevoy iqtisodiyot" mavjudligining salbiy oqibatlari ham bor bo'lib, bunga uning strukturasiga mafyaning kirib kelishini misol keltirsak bo'ladi.

Iqtisodiy o'zgarishlar ijtimoiy-siyosiy hayotda jumladan, italiyaliklarning fikrlash doirasi turmush tarzi va iste'mol qilish standartlarida ijobiy o'zgarishlar bo'lishga sabab bo'ldi. Shu bilan bir vaqtda "iqtisodiy mo'jiza" mamlakat uchun bir qancha salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi. Chunonchi, iqtisodiy taraqqiyotning notekisligi va davriyligi sarmoyalari va import texnologiyalariga qaramlik, qishloq xo'jaligining qoloqligi, qishloq aholisining shaharlarga ligratsiyasi (1,8 mln kishi), ishizlar sonining ortishi transport va uy-joy muammosining kuchayishi, ish haqi hajmining sekin o'sishi kabilar shular jumlasidandir. Ayniqsa, "Janub muammosi" o'z keskinligini yo'qotmagan edi. Janubiy mintaqalarning qoloqligi (oltita janubiy viloyatlar, Sitsiliya va Sardiniya orollari) Italiyaning tarixan og'riqli nuqtasi hisoblanib, ishlab chiqaruvchi kuchlarning nomutanosib joylashishiga sabab bo'layotgan edi. 50-yillarning boshlarida Janubiy hududlarning mamlakat qishloq xo'jaligidagi ulushi 33,2 % ni, sanoat ishlab chiqarishida esa 15,1 % tashkil etardi. Mehnat samaradorligi Shimoliy mintaqalarga qaraganda, ancha past ko'rsatkichlarga ega edi. Shu bilan bir vaqtda muammo nafaqat iqtisodiy qoloqlikda edi. Bunda siyosiy va ijtimoiy sohalaridagi passivlik ham muammoning ikkinchi tomonini tashkil etar edi. Janubiy mintaqalar mamlakat hududining 43 % tashkil etib, Italiya aholisining 1g'3 qismidan ko'prog'i shu hududda yashar edi. 50-yillarda aholi jonboshiga to'g'ri keladigan daromad ko'rsatkichi mamlakatning qolgan qismidagi darajaning 50% ni tashkil etar edi. Ishsizlik darajasi shimoliy hududlardagiga nisbatan ikki baravar ko'p edi. Bu yer agrar aholi o'ta zich joylashgan, ishsizlik va nochorlik qilayotgan mintaqa hisoblanib, mablag' topish uchun ish qidirib mamlakatning shimoliy hududlari va xorijiy mamlakatlarga yuz minglab kishilar ketgan edilar (italiyalik muhojirlarning 80 % ga yaqini janubliklar hisoblanar edi). Janub hukumat budjetidan berayotganiga nisbatan ikki baravar mablag' olayotgan edi. Janubning tarixan zaif rivojlanishi, aholining ijtimoiy va madaniy jihatdan qoloqligi, hayotning barcha jabhalarida mafyaning ta'siri, mamlakatning umuman iqtisodiy yuksalishiga to'siq bo'layotgan edi. 1950 yilda qoloq hududlarni uzoq muddatli moliyalashga mo'ljallangan hukumatning ixtisoslashtirilgan fondi - Janub Kassasining tashkil etilishi bilan hukumatning Janubiy hududlarni doimiy va katta miqyosda rivojlantirish siyosati boshlanib ketdi. Janubiy hududlardagi xo'jaliklarni aralash (qo'shma) korxonalar tomonidan moliyalashtirilishi qo'shimcha manba bo'ldi.

Hukumat siyosatida bu masalani hal qilish bo'yicha ikkita asosiy yo'nalish ko'zga tashlandi. Dastlab Janubiy mintaqa iqtisodiyotini mustaqil rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Shu sababli, qishloq xo'jaligi, infrastruktura va keyinchalik sanoat ishlab chiqarishni

rivojlantirish uchun katta miqdordagi sarmoyalar yo'naltirildi. Bir necha yildan so'ng "muxtoriyat" konsepsiyaining zaif tomonlari namoyon bo'lib qolgach, bu reja qayta ko'rib chiqildi va 1956 yili "Vanoni rejasida" (XDPdagi funkcionerlardan biri) ifodalangan g'oya qabul qilindi. "Vanoni rejasi"ning asosi Janubiy mintaqani iqtisodiy jihatdan yuksaltirish uchun uni Italiyaning umumiy iqtisodiy tizimiga kiritish g'oyasi ko'zda tutilgan edi. Bu g'oya amaliy jihatdan 60-70 yillarda "so'l markaz" tomonidan hayotga tadbiriq etildi.

70-yillarda hukumat sarmoyalarining deyarli 50 % ini tashkil etgan moliyaviy oqim, Janubiy mintaqada hattoki og'ir sanoatning metallurgiya va mashinasozlik kabi sohalarini ham barpo etish imkoniyatini berdi. Janubiy mintaqqa qishloq xo'jaligi ustun bo'lgan hududdan industrila-agrar hududga aylandi.

Janubiy mintaqaning taraqqiyoti Shimoliy mintaqalardan kelayotgan mablag' hisobiga amalga oshirilayotgani sababli, nisbatan kuchliroq hisoblangan sherik o'z shartnomalarini qabul qildirishga harakat qilishi tabiiy hol edi. Janubiy mintaqalarning taraqqiyotidagi tobelik modeli saqlanib qolayotgan edi. Janub Shimolning manfaatlaridan kelib chiqib rivojlanayotgan edi.

40 yil davomida "janub siyosati"ni amalga oshirish uchun ishlatilgan katta miqdordagi moliyaviy xarajatlar kamtarona bo'lsada o'z samarasini ko'rsatdi. Aholining yashash tarzidagi farq 10 % ga qisqardi, ko'pgina oilalar hali ham chet mamlakatlarda ishlayotgan qarindoshlari yuborayotgan mablag'lar hisobiga yashayotgan edi. Aholi o'sishidagi yuqori sur'atlar bandlik muammosini bartaraf etish imkonini bermadi.

Janub bilan bog'liq yana bir muammo bo'lib bu yer muammosi edi. Shuning uchun XDP hukumati o'tkazgan muhim tadbirlaridan biri yer islohoti edi. Bu islohot dehqonlar va ijarachilar tomonidan yirik yer egalariining bekor yotgan yerlarini egallab olish uchun misli ko'rilmagan keng miqyosdagi harakatning yuzaga kelishiga turtki bo'ldi. Ommaviy harakatlarning tazyiqi tufayli xristian demokratlarning hukumati Konstitutsiyaning 44 moddasiga muvofiq, 1950 yilda yer islohoti to'g'risidagi qonunni qabul qildi. qishloq va o'rmon xo'jaligi ministri A.Senining loyihasi bu qonun uchun asos qilib olindi. qonunga ko'ra 8000 ga yaqin yirik yer egalari ortiqchasini hukumatga sotishlari kerak edi. Shunday yo'l bilan tashkil etilgan fondga bundan tashqari, ba'zi yirik kompaniyalarning yer uchastkalari va davlat yerlari ham kiritildi. Keyinchalik bu fondagi yerlar qur'a tashlash orqali aniqlanib, 30 yil muddat ichida narxini to'lash sharti bilan muhtoj dehqonlarga sotildi. To'g'ri, yer islohoti barcha yersiz va kam yerli dehqonlarning istaklarini ro'yobga chiqara olmagan bo'lsada, ko'pgina (200 mingga yaqin) kishilar o'z ahvollarini yaxshilab olishdi.

Xristian demokratlarning tashqi siyosat sohasidagi ko'ra g'arb sivilizatsiyasi qadriyatlarining ustunligini tan olib va AQSH bilan yaqinlashishni ko'zda tutar edi. Italiya NATOning tashkil etilishida ishtirok etdi va uning hududida NATO harbiy qo'shilmalari va shtablari joylashtirildi. Italiya hukumati bilan AQSH o'rtasida "mudofaa maqsadida o'zaro yordam ko'rsatish" bitimi imzolandi. Unga ko'ra, AQSH Italiyaga qurol-yarog' yetkazib berishi, Italiya tomoni esa HHK va HDK bazalaridan foydalanishga ruxsat berishi kerak edi. XDPning tashqi siyosatida AQSH bilan yaqinlashish yo'lini tutishi so'l oppozitsiya, asosan sotsialistlar va kommunistlar tomonidan tanqid ostiga olindi.

Italiyaning siyosiy isteblishmentida XDP sentristik pozitsiyada bo'lib, hukumat boshqaruvida ijtimoiy konservatizm unsurlaridan tashqari, ijtimoiy nayranglardan ham keng darajada foydalanar edi. Ommaviy harakatlarning siquvi ostida XDP, ba'zan ijtimoiy masalalarda mehnatkashlarga yon bosishlar berishga majbur bo'lar edi.

Shu bilan birga, ayrim holatlarda bunday chiqishlarda ishtirok etgan namoyishchilarni jazolash va qatag'on qilish choralari ham qo'llanildi. Bunda asosan motorlashtirilgan politsiyaning maxsus bo'linmalari (chelere) astoydil "xizmat" qilishdi. Bu oppozitsion potentsialning to'planishiga sabab bo'ldi. 1953 yili o'tkazilgan navbatdagi parlament saylovlarida XDP 50 % lik marrani egallay olmadi. De Gasperi iste'foga chiqdi va bir yildan so'ng vafot etdi. De Gasperining ketishi XDPning siyosiy yo'liga o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmadi. Endi hukumatga boshqa kishilar intilayotgan edi. XDPda o'ng qanot (gasperistlar) vakillarining ta'siri zaiflashib, sotsialistlarga kaolitsiyani taklif etgan so'l qanot vakillarining mavqei oshdi. Lekin

umuman olganda, XDPning siyosiy kotibi Amintore Fanfani boshchiligidagi sentristik fraksiya ustun edi. A.Fanfani boshchiligida bir necha bor 50,60 va 80 yillarda hukumatlar tuzilgan edi.

Soʻl markaz (1963-1976 yillar).

50 yillar va 60 yillar boshlari, yaʼni “iqtisodiy moʻjiza” davrida xalq xoʻjaligini rivojlantirishdagi salmoqli yutuqlar va shuningdek siyosat maydonida XDPning ustunligi Italiyadagi boshqa siyosiy partiyalarning birinchi navbatda - ISP va IKP ning siyosiy yoʻnalishlarini qayta koʻrib chiqishni talab qildi. Pyetro Nenni boshchiligidagi ISP rahbariyati: oppozitsion partiya statusidan voz kechdi va hukumat tepasiga chiqish uchun kurash boshladi. ISP kommunistlar bilan aloqani uzdi. Kompartiya esa “sotsializmga borishning italyancha yoʻli” strategiyasini qabul qildi. Bu strategiyaning asosida monopoliyaga qarshi faol va ommaviy kurash olib borish, barcha antimonopolistik kuchlarni oʻz tomonlariga ogʻdirib olish, Sotsializmga tinch yoʻl bilan bosqichma-bosqich oʻtish koʻzda tutilgan edi. XDP soʻl partiyalarning jamiyatdagi siyosiy mavqei va elektorati sonining borayotganini eʼtiborga olib, hokimiyatga intilayotgan ISPni oʻziga qaratib va ISDP tomonidan ham qoʻllab-quvvatlanishga harakat qildi. Shu yoʻl bilan XDP jamiyatda oʻz mavqeini mustahkamlab olishni koʻzda tutib, “soʻlmarkazchilik” strategiyasini ilgari surdi. Soʻlmarkazchilik strategiyasi XDPning soʻl partiyalar bilan parlament va hokimiyat boshqaruvida hamkorlik qilishidan tashqari, xristian demokratlar tomonidan soʻl partiyalarning (kompartiya bundan mustasno) baʼzi bir talablarini qabul qilishini ham bildirar edi.

Chunki, reaksioner sifatida tanilgan Piy XI ning vafotidan soʻng (1958) uning oʻrniga kelgan rim papasi Ioann XXIII xristian demokratlar yangi strategiyasining tasdiqlanishiga deyarli hech qanday qarshilik koʻrsatilmadi. Ioann XXIII ning “Patsem in terris” (“Yer yuzida tinchlik boʻlsin”) nomli ensiklikining asosida turli xil siyosiy oqimlarning hamkorligi va yer yuzida tinchlikni mustahkamlash gʻoyalari ustun edi. Cherkovning keng xalq ommasi bilan aloqalari masalasidagi muammo boʻyicha yangilanish tarafdorlari va konservatorlar oʻrtasida kelishmovchiliklar mavjud boʻlib, bu kurashda yangilanish tarafdorlarining qoʻli baland keldi.

Shu bilan bir vaqtda hukumat ichkarisida tez-tez roʻy berib turgan inqirozlar, XDPning siyosat maydonidagi yakka hokimlik davriga chek qoʻyilayotganini koʻrsatib turar edi. XDP ning 1962 yilda boʻlib oʻtgan syezdida “soʻlmarkazchilik” strategiyasi tasdiqlandi. Xristian demokratlarning vakili A.Fanfani xristian demokratlar, sotsial demokratlar, respublikachilar vakillaridan tashkil topgan birinchi hukumatni tuzdi. Bu soʻlmarkazchilik strategiyasini amalga oshirish uchun qilingan birinchi urinish edi.

1963 yildan boshlab esa, “soʻlmarkazchilar” hukumati tarkibiga Italiya sotsialistik partiyasining vakillari ham kiritildi. 1963-1968 va 1974-1976 yillarda yuqoridagi hukumat boshida Italiyaning koʻzga koʻringan siyosiy arboblardan biri Aldo Moro turdi. Xristian demokratlarning vakili Aldo Moro soʻl partiyalar bilan hamkorlik qilish tarafdori boʻlib, inson sifatida yuksak axloqiy prinsiplarga qatʼiy amal qiluvchi biror bir mojaroli ishga aralashmagan siyosatchi sifatida obroʻ qozongan edi. A.Moro (1916-1978 yillar) universitetini yurisprudensiya ixtisosligi boʻyicha tamomlagach, huquq falsafasi boʻyicha doktor boʻldi. Ikkinchi jahon urushida qatnashdi. Xudoga oʻta ishonuvchi A.Moro dastlab yoshlar tashkiloti hisoblangan universitetlardagi katoliklarining Federatsiyasida, soʻngra esa XDPda faoliyat koʻrsatdi. Siyosiy faoliyatini erta boshlagan A.Moro, oʻzining yuksak intellektual potentsiali hamda tirishqoqlik, chidamlilik, sabr-bardoshlik, qatʼiylik kabi ijobiy xislatlari tufayli siyosat maydonida De Gasperi darajasidagi yirik siyosiy arbob sifatida shakllandi va tanildi. Uning eng koʻzga koʻzga koʻringan xizmatlaridan biri XDPdagi strategiyaning oʻzgarishi boʻldi desak, mubolagʻa boʻlmaydi. Chunki, uning davrida XDP de Gasperi davridagi markazchilikdan “soʻlmarkazchilik” strategiyasiga oʻtdi. A.Moro xalq orasida soʻl partiyalar, jumladan kommunistik partiyaning katta obroʻga ega ekanligini hisobga olib va ularning ishtirokisiz hech qanday umummilliy masalalarni hal etib boʻlmashligini birinchilardan boʻlib tushunib yetdi. A.Moro XDPdagi konservativ oqimning ochiqchasiga jiddiy qarshilik koʻrsatishga qaramasdan, nafaqat sotsialistlar, balki kommunistlar bilan ham hamkorlik qilish tarafdori boʻlib chiqdi. Umrining

oxirigacha qat'iy xristian demokrat bo'lib qolgan A.Moroning fikricha, XDP har qanday sharoitda ham o'zining siyosiy hukmronligini yo'qotmasligi kerak deb hisoblar edi.

So'l markazchi hukumat bir qancha islohotlarni amalga oshirdi. 1962 yilda iqtisodiyotning muhim sohalaridan biri hisoblangan - elektro energiya ishlab chiqarish sanoati milliyalashtirildi (davlat tasarrufiga o'tkazildi). Natijada kuchli davlat "Birlashgan milliy elektroenergiya sanoati" tashkil topdi. Davlat tasarrufiga o'tkazishga mo'ljallangan yirik xususiy kompaniyalarning egalari, mulklari evaziga hukumatdan katta miqdorda kompensatsiya oldilar va bu mablag'larni sanoatning boshqa sohalariga ishlatish imkoniyatiga ega bo'ldilar. 1965 yilda davlat sektori uchun majburiy rejalashtirish amalga oshirildi. 1967 yildan boshlab esa milliy 5-yillik rejalashtirish joriy etildi. Shu bilan bir vaqtda, davlat rejalarining direktivalari, xususiy sektor uchun majburiy emas edi. Ta'lim tizimidagi islohotga ko'ra, to'liqsiz o'rta maktablarda o'quvchilarni 14 yoshgacha bepul va majburiy o'qitishni amalga oshirish bo'yicha konstitutsion prinsip joriy qilindi. Ishchilarning hayotida katta ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi. Ular ish haqining oshirilishi ish haqining mintaqaviy darajalarini bartaraf etilishiga, sanoatda mehnat qilayotgan ishchilarga bir haftada 40 soatlik ish kunini joriy etishga kasaba uyushmalarining huquqlarini kengaytirish va pensiya ta'minotini yaxshilashga muvaffaq bo'ldilar.

Ammo, so'l markaz o'z faoliyati davomida ba'zi bir iqtisodiy muammolarga ham duch keldi. Bu davrga kelib iqtisodiy vaziyat yanada og'irlashdi. "Iqtisodiy mo'jiza" davri tugab, Italiya iqtisodiyotining o'sish sur'atlari pasaydi va 60-yillarning o'rtalariga kelib, inqiroz nuqtasigacha borib yetdi. 1974-1975 yillarga kelib esa, Italiya ham jahon iqtisodiy inqirozi girdobiga tushib qoldi. Milliy daromadni taqsimlash, takror ishlab chiqarish strukturasi va mexanizmidagi nomutanosibliklar jiddiy kelishmovchiliklarni keltirib chiqardi. Jahon bozorida narxlarning keskin oshganligi tufayli, iqtisodiyotni xom ashyo va yonilg'i bilan ta'minlash muammosi yanada kuchaydi. Kasaba uyushmalari faoliyatining kuchayishi va stachkasi kurashning o'sishi tufayli mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat keskin o'zgardi.

Inqirozlar tufayli hukumat va tadbirkor doiralar iqtisodiy strategiyalarga o'zgartirishlar kiritish, rivojlangan g'arb davlatlaridan modernizatsiyalashning ilg'or metodlarini o'rganish va joriy etish kabi vazifalarni amalga oshirishga majbur bo'ldi. Italiya tadbirkorlarining elitasi mamlakatni kuchli yettilik safida saqlab qolishga harakat qildi. O'sha davrda Italiyadagi iqtisodiy taraqqiyotning ekstensiv modeli ham o'z potensialini batamom tugatmagani tufayli, 70-yillarning o'rtalariga kelib, kun tartibida iqtisodiy taraqqiyotning ekstensiv yo'llarini yuqori texnologiyali jarayonlar bilan almashtirish masalasi yuzaga keldi. Avvalgi iqtisodiy modeldan tez sur'atlarda ajralishning imkoniyati yo'qligi,

Italiya iqtisodiyoti ichki qayta qurishlarni amalga oshirmaganligi tufayli 70-yillarda jahon bozorida noqulay ahvolda qoldi. Iqtisodiy taraqqiyotdagi notekislik mehnat munosabatlari va ijtimoiy sohaga salbiy ta'sir ko'rsatar edi.

Kasaba uyushmasi va kommunistik partiya talabalarni qo'llab-quvvatladi. 1968 va 1969 yillarda pensiya islohotini o'tkazish va uy-joy muammosini bartaraf etishni talab qilib chiqqan ikkita yirik umummilliy ish tashlashlar bo'lib o'tdi. Hukumat ma'lum bir yon bosishlarni xalq kvartiralarini qurish uchun katta miqdorda mablag' ajratib, 1969 yilning "jazirama kuzi"da yanada yaxshiroq shart-sharoitlarni ta'minlab beradigan yangi jamoa shartnomalarini tuzishni talab qilib, millionlab kishilar ish tashladilar. Buning natijasida 1970 yilning may oyida mehnatkashlarning huquqlari statu qabul qilindi. Bu statutga ko'ra kasaba uyushmalarining korxonadagi o'rni aniqlandi va korxona egalarining ishchilarni ishdan bo'shatish imkoniyati chegaralab qo'yildi.

Italiyaning konstitutsion sudi 1974 yilda ijtimoiy-siyosiy talablar ilgari surilgan ish tashlashlarni qonuniy deb tan olishga majbur bo'ldi. Ish tashlashlar orqali erishilgan yutuqlar tufayli kasaba uyushmalarining tarkibi va ta'siri yanada ortdi. 1969 yildan boshlab kasaba uyushmalari va hukumat vakillari o'rtasida o'tkazilayotgan muzokaralar doimiy holatga kirdi.

1970 yilda so'l kuchlar nikohda ajralishlarga ruxsat beradigan qonunni qabul qildirishga erishdi. Cherkov rasm-rusumlariga ko'ra nikoh buzilmas deb hisoblansada, 1974 yilda o'tkazilgan referendum nikohdagi ajralishlarning qonuniyligi masalasida katta ovozga ega

bo'ldi. Shunday qilib, so'l markaz hukumati ish tashlovchilarning asosiy talablarini bajarib, katta yon bosishlar qilishga majbur bo'ldi.

Siyosiy ekstremizm va terrorizm.

So'l markazning, ayniqsa, 1969 yildagi "jazirama kuz" dan so'ng mehnatkashlar bilan murosa qilishga urinishi, iqtisodiy qiyinchiliklar, ishsizlikning ko'payishi va marginalizatsiya () o'ng radikal oppozitsiya ichida qarama-qarshi reaksiyaning kuchayishiga sabab bo'ldi. Neofashistik guruhga va tashkilotlar faollashib, ularning soni 30 taga yetib qoldi. Ularning ichida "Yangi tartib", "Milliy avangard" va ayniqsa, "Milliy front" eng yiriklari hisoblanar edi. Sobiq harbiy jinoyatchi yirik moliyachilar bilan aloqa o'rnatgan, zolim, beshafqat va o'taketgan mutaassib (fanatik)ligi uchun "qora knyaz" laqabiga ega bo'lgan knyaz Y.V.Borgeze tashkilotida rahbarlikni o'z qo'liga olgan edi. 1969 yili Paduya shahrida bo'lib o'tgan yig'ilishda tasdiqlab olingan "grafik" asosida neofashistlarning terrorchilik aksiyalarining soni keskin ravishda ko'paydi (portlatishlar, faol jamoatchilar va so'l kuchlarning ma'muriy binolariga xujumlar uyushtirish va boshqalar shular jumlasidandir). O'ta o'ngchilar ("qora") terrorizmning asosiy maqsadi mamlakatda davlat to'ntarishi kelib chiqishiga sabab bo'ladigan vaziyatni yuzaga keltirish, juda bo'lmaganda esa minimum rejaga ko'ra mamlakatda "tartib o'rnatish" vazifasi qo'yildi. O'ta o'ngchilarning bu yo'nalishi "keskin strategiya" nomini olgan bo'lib, 1969 yil dekabrda Milandagi Fantana maydonida joylashgan qishloq xo'jaligi banki binosining portlatilishi bu siyosatning boshlanishi desak xato bo'lmaydi. Bu terrorchilik harakati 16 kishining hayotiga zomin bo'lgan bo'lsa, 100 ga yaqin kishi yarador bo'ldi. Fontana maydoni milliy halokat terrorchilikka qarshi kurashning ramziga aylandi. Mana shu fojidan so'ng, yana bir qancha yirik terrorchilik harakatlari bo'lib o'tdi. Chunonchi, 1970-1971 yillarda Redjo-di-Kalabriya shahrida neofashistlarning politsiya va harbiylar bilan bir necha oy davom etgan qonli to'qnashuvlari, barrikada janglari; 1971 yil martida Akvila shahrida barcha siyosiy partiya binolarining portlatilishi; Borgeza boshchiligidagi "Milliy front"ning respublikaga qarshi tayyorlagan fitnasining oshkor bo'lishi; 1974 yil mayida Breshe shahrida o'tkazilgan mitingdagi portlash natijasida 8 kishining halok bo'lishi; 1974 yil avgustida Balonya yaqinida poyezdning portlatilishi oqibatida 12 ta yo'lovchining halok bo'lishi va boshqalar shular jumlasidandir.

Neofashistik harakatning boshida Italiya ijtimoiy harakati (IIH) turgan bo'lib, 70-yillarning birinchi yarmida bu tashkilot a'zolarining soni 400 ming kishiga yetdi. Bu vaqtga kelib neofashistlar saylovlarda ham bir qancha muvaffaqiyatga erishdi. Masalan, 1972 yilda bo'lib o'tgan saylovlarda ular deputatlar palatasida (630 o'rindan) 56 ta o'ringa, senatda esa (315 o'rindan) 26 ta o'ringa ega bo'lishdi. O'z huzur halovatini o'ylab IIH monarxiya talabdorlarining qoldiqlari bilan birlashdi. Bu vaqtincha bo'lsada, IIHning mamlakatda obro' jihatidan to'rtinchi siyosiy partiyaqa aylanishiga olib keldi. 1973 yildan boshlab IIH Italiya ijtimoiy harakati - Milliy o'ng kuchlar (IIX- MO'K) deb atala boshladi va uning raxbari etib yana Jorjo Almirante saylandi. Ishchilar harakatining faollashishidan norozi bo'lgan shimoliy xududlardagi kichik va o'rta burjuaziya vakillari tomonidan qo'llab-quvvatlanishi tufayli IIX ning ta'siri yanada ortib ketdi. Ammo IIXni 70-yillarning boshlarida qo'llab-quvvatlagan tabaqalar asosan shahar aholisining o'rta qatlami, lyumpen-proletariat vakillari va janubning mariginal () qatlamlari bo'ldi. 1972 yilda IIX uchun janub aholisining 1g'3 qismi ovoz berdi. Neofashistlar milliy va chet eldagi reaksiya kuchlari tomonidan mablag' bilan ta'minlab turildi. Kichik sarmoyalardan tashqari, neofashist tashkilotlarga Italiyaning yirik tadbirkorlari ham xomiylik qila boshladi (Pezenti, Monti va boshqalar). Mablag'larning bir qismi Fransiya, Ispaniya, AQSH, Portugaliya banklaridan ham kelib tushardi. So'l markazning tadqiqotlaridan xavotirga tushgan obro'lyi doiralar mamlakatdagi vaziyatni o'zgartirish va "kuchli davlat" siyosatini qo'llab-quvvatlash maqsadida, neofashist tashkilotlarni doimo qo'llab-quvvatlab turishdi.

Fashistlar tomonidan amalga oshirilgan jinoyatlar, ularning obro'si tushishiga olib keldi. 1976 yildagi saylovlarda IIX oldingi saylovlardagiga qaraganda 1g'3 qism oz ovoz oldi. Buning oqibatida, IIX ichida ichki qarama-qarshiliklar kuchayib ketdi. Bu xol partiyaning zaiflashishi va tarqoqlashishiga olib keldi. Bunga 70-yillarning o'rtalaridagi terrorchilik harakatlari va siyosiy

fitnalarning qatnashchilariga nisbatan olib borilgan sud jarayonlari va xibsga olishlar ham sabab bo'ldi. Ammo, mamlakatdagi yetuk partiyalarning bu jarayonlarga nisbatan e'tiborsizligi tufayli neofashistlar ustidan qo'zg'atilgan jinoiy ishlarning aksariyati samarasiz yakun topar edi. Chunonchi, sud jarayonlarida bor-yo'g'i 20 ta neofashist jinoiy javobgar deb topilib, ozodlikdan mahrum etilgan. Almerantining deputat sifatidagi daxlsizlik vakolati olib tashlandi va "Yangi tartib" tashkilotining faoliyati batamom ta'qiqlab qo'yildi.

Shunday qilib 70-yillarning o'rtalariga kelganda o'ng radikallarning "qora" terrori ikkinchi darajaga tushib qoldi va so'l radikallarning "qizil" terroriga o'z o'rnini bo'shatib berdi. So'l ekstremizmning yoshlar orasida keng tarqalganligi, talabalarning 1967-68 yillardagi xarakati bilan chambarchas bog'liq edi. 1968 yilning bahorida talabalarning norozilik chiqishlari Italiyaning barcha 36 ta universitetlariga yoyildi. Talabalar oliy ta'limning eskirib qolgan va nodemokratik tizimiga qarshi bosh ko'tardi. Ammo, tez orada spektitsizm va har qanday avtoritetni rad etish bu chiqishlarga ommaviy isyonkorlik va antikapitalistik tus berdi. Butun mamlakat ommaviy noroziliklar girdobiga tortildi, politsiya bilan to'qnashuvlar bo'lib turdi, ma'muriy binolar ishg'ol etildi va ishchilar bilan talabalar o'rtasida mustahkam aloqalar o'rnatildi. So'llarning o'sha vaqtda tashkil topgan guruxlari ("kurash", "Ishchilar hokimiyati", "Mehnatkashlarning sotsializm uchun kurash harakati", "Manefesto") siyosiy jixatdan sodda pozitsiyalarni egallagan bo'lib, o'zlarini "inqilobiy" kurash olib bormoqdamiz deb ishontirishga harakat qilar edi.

70-yillarning 2-yarmiga kelganda turlicha fikrlashning kriminalashuvi va uning odatiy jinoyatlarga qo'shilib ketishi ("Otayapman, demak mavjudman", "o'g'irayapman, demak pul topayapman") jarayoni yuz berdi, shunda yoshlarning 1968 yil avlodlarining xayoliy (utopistik) rejalaridan ixloslari batamom qaytdi va ular terrorchilik taktikasini tanlashdi. 1977 yilga kelganda, o'ta so'llarning "qizil", "inqilobiy" bayroq ostida faoliyat ko'rsatayotgan 97 ta terrorchilik tashkilotlari borligi ma'lum edi. So'l ekstremistlarning yashirincha faoliyat ko'rsatayotgan terroristik tashkilotlari ichida eng xavflilaridan biri 1970 yilning sentabr oyidayoq tashkil topgan "qizil brigadalar" bo'ldi. Ular mamlakatda zo'ravonlikni yanada kuchaytirish, burjua-demokratik davlatni esa fuqarolar urushi ochish imkonini beradigan repressiv va avtoritar davlatga aylantirish g'oyalarini ilgari surdi. "qizil brigadalar" siyosiy maqsadlarni o'kach qilib olib odamlarni o'g'iray boshlashdi, ular hattoki garov tariqasida taklif etiladigan pullardan ham hazar qilishmas edi. 70-yillarning oxiriga kelganda "qizil brigadalar"ning qurbonlari safida siyosatchilar, sudyalalar, katolik arboblalar, tadbirkorlar, jurnalistlar va politsiya xizmatining yuqori mansabdor kishilar ham bor edi. Bu qurbonlarning ichida Aldo Morodek siyosatchining o'g'irlanishi va vahshiylarcha o'ldirilishi eng shov-shuvli voqea bo'ldi. Ekstremizm davlatning huquqiy normalarini oyoq osti qilib aslida jinoiy guruxlardan biriga aylanib ulgurgan edi.

"Milliy birdamlik" (1976-1979 yillar).

Ekstremistik, terroristik tashkilotlar va mafiyaning faollashishi muhiti so'l kuchlarning ham sezilarli darajada faollashuviga imkoniyat yaratildi. 1975 yili bo'lib o'tgan viloyat va munitsipal saylovlarda, neofashistlar o'z elektoratining bir qismidan mahrum bo'lishgan bo'lsa so'l partiyalar esa saylovchilar soni jihatidan sentrischilar va o'nglardan ham o'zib ketishdi. IKP 70-yillarning o'rtalariga kelganda mamlakat siyosiy hayotidagi o'zni va nufuzini saqlab qolmoqda edi. Saylovchilarning kattagina qismi IKPga demokratiyani himoya qilish va o'ng kuchlarning xujumlarini qaytarishga qodir kuch sifatida qarar edi. IKPning 1975 yili bo'lib o'tgan syezdida bosh kotib Enriko Berminguerning tashabbusi bilan kommunistlar "tarixiy kompromiss" deb nomlanuvchi taktikani qabul qilishdi. Unda kommunistlarning sotsialistlar va hattoki katoliklar bilan ham hamkorlik qilishi ko'zda tutilgan edi. 1976 yil iyunida bo'lib o'tgan parlament saylovlari so'l kuchlar uchun ikkinchi jahon urushidan keyingi davrdan buyon birinchi marta maksimal darajadagi muvaffaqiyatni keltirdi. Kommunistlar va sotsialistlar birgalikda, xristian-demokratlarga nisbatan ko'p ovozga ega bo'ldi. XDP uchun ovoz berganlar, IKP uchun ovoz berganlardan bor yo'g'i 4,4 % ko'p edi. Bu kompartiya va shaxsan Berminguerning

muvaffaqiyati edi. Saylovlar kommunistlarning qo'llab-quvvatlashisiz har qanday hokimiyat tanazzulga yuz tutishi mumkin degan xulosaga olib keldi. So'l markaz tarqalib ketdi. Yangi hukumat faqatgina XDP vakillaridan tashkil topdi. Tajribali siyosiy arbob xristian-demokrat Djulio Andreotti (1989 yilda tug'ilgan) yangi hukumatning premyer-ministri lavozimini egalladi.

Andreotti siyosatchi-katoliklar oilasida o'sib ulg'aydi. Rim papasi Pavel U1 bilan yaqin do'st edi. O'zining siyosiy faoliyatini de Gasperining ko'magida boshlagan. Andreotti ko'pgina hukumatlarda ministr, yetti marta esa premyer-ministr lavozimlarida ishlagan. Unga xristian demokratlarning ayyor, qari va jangovar oti deb baho berishgan. U 50-yillarda partiyaning o'ng qanotiga mansub bo'lsa, 60-yillarda esa so'l markazni qo'llab-quvvatladi. 70-yillarning boshida kommunistlarning "tarixiy kompromiss" taktikasini qo'llab-quvvatladi, keyinchalik esa xuddi shu taktikaning barbod bo'lishiga sababchi bo'ldi.

Kommunistlar va boshqa so'l respublikachilar partiyalari bilan birgalikda parlamentda "betaraflar koalitsiyasi" - deputatlar blokini tashkil etdi. Bu blok parlamentda Andreotti hukumatini qo'llab-quvvatladi. 1976-1979 yillarda XDP boshchiligidagi hukumat "Milliy birdamlik" siyosatini amalga oshirdi.

Italiyaning oltita siyosiy partiyasi va (IKP ham bor) Andreotti hukumati o'rtasida terrorizmga qarshi kurashish, iqtisodiyotni barqarorlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida va boshqa masalalar bo'yicha dasturiy shartnoma imzolandi. Shu dastur doirasida o'tkazilgan chora-tadbirlar natijasida, Italiya 1974-1975 yillardagi jahon iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlariga bardosh berdi. Shu davrda yoshlarni ishga joylashtirish to'g'risidagi qonun qabul qilindi. Bu mamlakat siyosiy hayotida kommunistlarga nisbatan o'tkazib kelinadigan diskriminatsiya siyosatining zaiflashuviga olib keldi.

XDP hukumatining so'l partiyalar tomonidan qo'llab-quvvatlanishi o'ng kuchlarda g'azablanish hissini qo'zg'atgan bo'lsa, so'l ekstremistik terrorchi guruhlarda norozilikni keltirib chiqardi va ular navbatdagi siyosiy bosqinchilik harakatini amalga oshirdi. 1978 yil 16 mart kuni ertalab "qizil brigada"ning terrorchilari 10 daqiqa ichida hech bir qiyinchiliksiz 5 ta qo'riqchini o'ldirib, XDPning raisi Aldo Moroni o'g'irlab ketishdi.¹

U bir qancha vaqt davomida garovda ushlab turildi. Hukumat "qat'iy pozitsiya"da utrishga va terrorchilar bilan hech qanday muzokaralar o'tkazmaslik to'g'risida qaror qabul qildi. Deyarli har kuni 35000 ga yaqin kishi A.Moroni qidirish ishlarida ishtirok etdi, bundan tashqari 1,500 ga yaqin harbiylar kecha-kunduz jangovor navbatchilikda turdi. Politsiya va maxsus xizmat xodimlari har bir uyni sinchiklab tekshirib chiqishga harakat qilishdi.

Atigi bir necha yuz kishini tashkil etadigan "qizil brigada" terrorchilarining shafqatsiz harakati barcha uchun haqoratomuz chaqiriq bo'lib, davlat apparatining zaifligi va inqirozga yuz tutayotganligini yaqqol ko'rsatib berdi. Mana shu vahshiylikka javoban kasaba uyushmalarining chaqirig'i bilan Italiyada umumiy ish tashlash e'lon qilindi. Umumiy ish tashlashda 16 mlndan ortiq italiyaliklar ishtirok etib, demokratiyani himoya etish va terrorizmga qarshi kurashishga tayyor ekanliklarini namoyish etishdi. Terrorchilar tomonidan amalga oshirilgan vahshiyliklar, ularga ergashuvchilar va yoqlovchilar sonining keskin kamayishiga olib keldi.

Terrorizmning yangi to'lqini yana italiyani 70-80-yillar oralig'ida o'z girdobiga tortdi. Navbatdagi siyosiy suiqasdlar, qotilliklar va boshqa zo'ravonliklar sodir bo'ldi. Faqatgina 1980 yilning o'zidayoq 1200 ga yaqin turli terrorchilik aksiyalari amalga oshirildi. Ularning orasida - Balonya vokzalida 1980 yil 2 avgust kuni terrorchilar tomonidan qo'yilgan bombaning portlatilishi o'ta ketgan qonxo'rlik aksiyasi bo'ldi. Portlash oqibatida 85 kishi halok bo'ldi va 200 ga yaqin kishi yaralandi. Hammasi bo'lib, 1969 yildan 1980 yilgacha 7866 ta terrorchilik aktlari qayd etilgan bo'lib, bu harakatlar tufayli 362 kishi halok bo'lgan, 4530 kishi yaralangan.

Mafiya strukturasida ham sifat o'zgarishlari yuz berdi: ayollarni o'ldirishni ta'qiqlaydigan va zaruriyat tug'ilgan taqdirdagina qotillik qilishga ruxsat beradigan mafiyaning or-nomus izzat kodeksi endi o'tmishda qoldi. Mafiyaning Sitsiliya va undan ham shafqatsizroq hisoblangan Kalibriya shu'basi o'z yo'llariga to'g'anoq bo'ladigan har qanday kishining hayotiga zomin bo'lishga tayyor edi. Ular o'z maqsadlari yo'lida har qanday to'siqni ham hech o'ylamasdan parchalab tashlashga bel bog'lagan edi.

Shu bilan bir vaqtda korrupsiya Italiyaning siyosiy hayotining ajralmas xususiyat bo'lib qoldi. U bilan bog'liq bo'lgan mashmashalar yanada balandroq sado bermoqda edi. 1978 yilda xristian-demokratlar partiyasining a'zosi, mamlakat prezidenti Dj.Mone soliqlarni o'z vaqtida to'lamaganlikda va korrupsiya bilan shug'ullanganlikda gumon qilinib, unga AQShning "Loksid" nomli avia komserni bilan bog'liq poraxo'rlikda aloqador degan ayb qo'yildi. Dj.Leone iste'fo berishga majbur bo'ldi. Italiya prezidenti etib ilk marotaba ISP a'zosi, qarshilik ko'rsatish harakatining faol ishtirokchisi Italiya millatining eng yaxshi xususiyatlarini o'zida mujassma eta olganligi tufayli hurmat va samimiyluk obro'ga ega bo'lgan 82 yoshli Aleksandro Pertini tayinlandi. Yuqori lavozimli mansabdor shaxslarning respublikaga qarshi uyushtirgan fitnasi - "P-2" ("Propaganda-2") nomli Masonlar lojasi bilan bog'liq jinoyatini jamiyatda katta shov-shuvga sabab bo'ldi.

Haqiqatda esa "Milliy birdamlik" siyosati mohiyati o'z funksiyasini bajarmay qo'ygan edi. 1979 yilning yanvar oyida kommunistik partiya parlamentdagi ko'pchilikni tark etib XDP hukumatiga qarshi oppozitsiyaga o'tdi. Prezident Pertini tomonidan muddatidan oldin o'tkazilishi e'lon qilingan parlament saylovlari 1979 yilning iyunida bo'lib o'tdi. Prezident saylovlari xristian demokratlar va ayniqsa kommunistlarning bir qism ovozdan mahrum bo'lganligini ko'rsatib berdi. Shunday bo'lsada, kommunistlar hali ham kuchli oppozitsion partiya sifatida faoliyat ko'rsatishga qodir edi. IKP "tarixiy kompromiss" taktikasidan voz kechdi va "demokratik alternativa" nomli yangi dasturni qabul qildi. Unga ko'ra kompartiya hokimiyat uchun kurashda XDP bilan raqobatlasha oladigan so'l partiyalarning koalitsiyasini tuzishni ko'zda tutgan edi. Sotsialistlar, sotsial-demokratlar va radikalar esa aksincha o'z mavqeini yaxshilab olishdi. O'zlarining mavqeilariga katta baho berib yuborganliklari sababli ISP kommunistlar tomonidan ilgari surilgan dasturni qo'llab-quvvatlamadi.

80-yillarda Italiya.

Italiyaning 80-yillardagi ijtimoiy-siyosiy hayotida siyosiy jihatdan barqarorlikning saqlanib qolganligi bilan izohlanadi. Mamlakat parlamentida "mustahkam ko'pchilik"ning yo'qligi, parlament va hukumatlarni boshqarishda koalitsiyalar amaliyotidan foydalanishga sabab bo'ldi. Parlamentni tarqatib yuborish, yangi tarkibni tuzish bo'yicha navbatdagi saylovlar 70-yillardagidek muddatidan oldin o'tkazilar edi. Ko'pgina qonunlar qog'ozdagina mavjud bo'lib, ular bajarilmas edi. Mamlakatda partiyalarning imkoniyatlariga ishonmaslik, hafsalasi pir bo'lish holatlari kuchaydi. Giyohvandlar va mafiyaning qurbonlari soni yanada ortdi. Terrorizm va korrupsiya Italiya siyosiy hayotining ajralmas aylanib qoldi.

1980 yilda beshta siyosiy partiya: xristian demokratlar, sotsialistlar, sotsial-demokratlar, liberal va respublikachilar vakillaridan iborat koalitsion hukumat tashkil topdi. Xristian demokratlar bu safar ham hukumat boshqaruvini o'z qo'llarida saqlab qoldi. Shu bilan bir qatorda XDPning ichida bir-biriga qarama-qarshi oqimlar faoliyat ko'rsatdi. XDPning yetakchisi I.de Mita A. Moro siyosatiga qaytishni taklif qildi. Bu esa XDPning korrupsiyaga qarshi kurashish va so'l tomonga og'ib ketishini anglatar edi. A.Fanfani boshchiligidagi o'ng qanot vakillari esa bu taklifni qo'llab-quvvatlamadi.

Shu davrga kelib, Italiya siyosiy hayotida uchinchi o'rinni egallab turgan Italiya sotsialistik partiyasining boshqaruv tizimida bir qancha o'zgarishlar yuz berdi. 1976 yilda Bensdetto (Bettino) Kraksi ISPning siyosiy kotibi lavozimini egalladi. U o'z oldiga ISPni hukumat tepasiga olib chiqishi va mamlakat tarixida sotsialistlardan chiqqan birinchi premyer ministr bo'lish maqsadini qo'ydi. Kraksi o'zining "Sotsializm injili" nomli risolasida sotsialistlarning kommunistlar bilan hamkorlik qilinishining plyuralizm sharoitida xususiy sektorning iqtisodiy jihatdan katta potensialga ega ekanligi haqidagi tezisini qo'llab-quvvatladi.

1983 yilda sotsialistlar hukumat tarkibidan chiqib ketdi. Premyer ministr Fanfani, parlamentdan ishonch votumini ololmaganligi sababli, iste'foga chiqishga majbur bo'ldi. Italiya prezidenti Pertini tomonidan parlament tarqatib yuborildi va muddatidan oldin parlament saylovlari o'tkazish belgilandi. Saylov natijalariga ko'ra XDP 5% ga yaqin saylovchilar

ovozidan mahrum bo'lgan bo'lsa, ISP esa o'z mavqeini yanada mustahkamlab oldi. XDP Premyer-ministrlik lavozimini boshqa partiya vakillariga bo'shatib berishga majbur bo'ldi.

Besh partiyali hukumatni Italiya tarixida birinchi marta sotsialistlar vakili B.Kraksi egalladi. U jamoatchilik orasida qat'iy va bir so'zli bo'lib, 1983-1987 yillar mobaynida hukumatni boshqardi. Yangi hukumatning strategik dasturi, 1980-1983 yillarda yuz bergan navbatdagi davriy inqirozdan neoliberalizmga xos bozor metodlarini neokonservativ tadbirkor doiralarning manfaatlarini himoya qilish uchun qo'llashni ko'zda tutgan edi. Mamlakat infrastrukturasi deyarli katta qismini tashkil etgan davlat sektorining istiqboli masalasi muhim ahamiyat kasb etdi. Chunon o'sha vaqtda kon sanoatining 3G'4 qismi, shu jumladan, cho'yan va po'lat ishlab chiqarish sanoatining elektromexanik sanoatning 2G'3 qismi davlat sektoriga tegishli edi. Davlat sektoriga nisbatan yuzaga kelgan yangicha yondashishga ko'ra, davlat sektorining ma'lum bir qismini privatizatsiya qilish va ziyon keltirayotgan davlat korxonalarini tugatishdan dolzarb masalalarni amalga oshirish rejasi ishlab chiqildi. Hukumat qishloq xo'jaligi va ishlab chiqarish sanoatiga qarashli, lekin nostrategik hisoblangan korxonalarni xususiy sektorga berishni mo'ljalladi. Shuning bilan bir vaqtda davlat sektoriga qarashli hisoblangan strategik jihatdan tayanch sohalarida texnologik rekonstruksiyanı amalga oshirish va naukoyemkiye ishlab chiqarishni kengaytirish va tirish rejalashtirib qo'yildi. Bundan tashqari, tashqi savdo defitsiti tufayli nomuvozanatlashgan to'lov balansini barqarorlashtirish vazifasi kunning eng muhim masalalaridan hisoblanar edi. Kraksi hukumati ilgari surgan siyosatning asosida, oddiy-mehnatkash xalq yanada zug'um o'tkazish hisobiga "qat'iy iqtisodiyot" siyosatini amalga oshirishga imkoniyat tug'ildi. Buning uchun ish haqidagi "o'zgaruvchan" (sirg'ampa -) shkalaning ta'sir kuchi cheklab qo'yildi va sog'liqni saqlash ijtimoiy ta'minot, ta'lim sohalaridagi davlat xarajatlari qisqartirildi. Shu bilan bir qatorda Kraksi hukumati katolik cherkovning maktab va oila qonunchiligiga ta'sirini biroz bo'lsada cheklab qo'ydi, mafiya va terrorizm bilan qat'iyroq kurash olib borishga harakat qildi: politsiya va sud organlarining vakolatlarini yanada kengaytiradigan (umumiy yalpi tintuv o'tkazish, ibtidoiy (suddan oldingi) qamoqning muhlatini oshirish va boshqa) favqulodda tadbirlar ishlab chiqildi.

80-yillarning birinchi kelganda Italiyada o'ng tomonga konservativ burilish yuz berdi. Bu siyosiy jarayon boshqa davlatlardagi bilan qiyoslaganda o'ng kuchlarning o'ta faolligi sharoitida amalga oshdi. Masalan, 1980-1982 yillarda butun mamlakat bo'ylab 42 mln kishi namoyishlarda ishtirok etdi. Bu ko'rsatkich AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, GFR va Yaponiya davlatlardagi bilan birga qo'shib hisoblaganda ham ikki barobar ko'p edi. AQSH qanotli raketalarining Sitsiliya hududiga joylashtirilishi tufayli mamlakat ichkarisida urushga qarshi bo'lgan harakatlar kuchayib ketdi. Atrof-muhitni himoya qilishni muhim vazifa deb hisoblaydigan "yashillar" harakati yuzaga keldi. Sotsialistlar bilan xristian demokratlar o'rtasidagi raqobat natijasida hukumat doimiy inqirozlar girdobi ostida qoldi. Shu bilan bir qatorda Italiyadagi konservativ burilish boshqa davlatlardagiga nisbatan xususiylashtirish salmog'ining kichikligi va davlat sektorining hukmron mavqeini saqlab qolganligi bilan ajralib turadi.

80-90 yillar arafasida Italiya iqtisodiy sohada rivojlangan industrial davlatlardan biriga aylandi va kapitalistik dunyoda YAIM (yalpi ichki mahsulot) ko'rsatkichlariga ko'ra 5 o'rinni egalladi. Mashinasozlik (turli xil stanoklar ishlab chiqarish bo'yicha kapitalistik dunyoda 4-o'rinni egallaydi) va avtomobil ishlab chiqarish sanoatlari yuqori texnologiyali FIAT konserni bu sohaning yetakchisi bo'lib qolmoqda. Italiya iqtisodiyotida xorijiy sarmoyalarning mablag'lari hisobiga 1200 dan ortiq turli xil korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Shu bilan bir qatorda Italiya sarmoya kiritiladigan davlat bo'lishi bilan bir vaqtda, ustga sarmoya chiqarish imkoniyatiga egadir. Kuyidagi faoliyatlar bu sohadagi eng yirik qadamlar hisoblanadi, chunonchi, oligarx Bermuskot tomonidan Ispaniya televidiniyasidagi beshinchi kanalning sotib olinishi; FIAT konsernining Fransiya va Angliyadagi avtomobil firmalari aksiyalariga bo'lishi; "Olivett"ning elektronika sohasida yetakchilik qilayotgan guruhlar safiga kirib borishi va boshqa misol bo'la oladi. Italiya eksportining asosini qishloq xo'jalik texnikasi, ximikatlar, mebel va qurilish materiallari, tikuvchilik mahsulotlari, oyoq kiyimlari, elektrotexnika va tibbiyot apparaturasi, transport vositalari va sanoat asbob-uskunalari, mevalar, vino, vinochilik mahsulotlari tashkil

etadi. Turizm industriyasining tezkor o'sishi binokorlikning taraqqiy etishi va oziq-ovqat sanoatining rivojlanishiga turtki bo'lish bilan bir qatorda, bu istiqbolli sohada aholini ish o'rinlari bilan ta'minlash imkonini tug'dirmoqda. YAIMda turizmning ulushi va turizm sohasidagi valyuta daromadlarining ko'rsatkichlari

Ammo, Italiya iqtisodiyotida mavjud bo'lgan, ba'zi bir salbiy holatlar hozirgi paytda ham saqlanib qolmoqda. Bu salbiy holatlarga mintaqaviy (shimol-janub) va tarmoqlararo disproporsiya (nomutanosiblik), turumsh qiymatlarining yuqori sur'atlar bilan o'sib borishi, ishsizlik, xom ashyo va yoqilg'i quvvatining importi uchun sarflanayotgan xarajatlarning ko'pligi, yuqori texnologiyalar ishlab chiqarishi sohasida yanada ilg'orroq hisoblangan mamlakatlar oldidagi tobeliklar misol bo'la oladi. Globallashtirilgan iqtisodiyot sharoitida jahon texnologiyalarining darajasi bevosita ilmiy-tadqiqot ishlarining (ITI) holatga bog'liq bo'ladi. 80-90 yillarda Italiyada ITINi assignatsiya (biror bir maqsad uchun mablag' ajratish) qilish qisqartirildi va ITI natijalarining samaradorligini nazorat qilish mavjud emas edi. Davlat va xususiy tarmoqlar o'rtasida ITI va fanning eng yangi yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy qilish sohasida hech qanday organik munosabatlar o'rnatilmagan edi. Kichik va o'rta korxonalarining ko'pligi ilmiy-tadqiqotlarning orqaga ketishiga sabab bo'lmoqda. Chunki bu korxonalar ITI uchun juda kam miqdorda mablag' sarflashmoqda. Masalan, 1991 yilda ITIga ketgan xarajatlar ulushi YAIMning bor yo'g'i 1,4 % ini tashkil etdi. Rejalashtirish muammolari ham o'z aktualligini yo'qotgani yo'q. Jahon bozorlarining globallasuvi uzoq muddatli va yirik masshtabli rejalarni ishlab chiqish zaruriyatini keltirib chiqarayotgan bir davrda, Italiya parlamentidagi barqarorlik tufayli hukumat qisqa muddatli rejalarni asosida faoliyat ko'rsatishga majbur bo'lmoqda.

90-yillarda Italiya.

90-yillarga kelganda, Italiya ijtimoiy-siyosiy hayotidagi beqarorlik va qarama-qarshiliklar yanada kuchaydi. Keskin siyosiy inqirozlar asosan, mo'tadil kelishuvlar bilan tugar edi.

Elektorat dinamikasi shunday dalolat beradiki, 90-yillarning boshida sotsialistlarning obro'si yanada oshdi, bunga qarama-qarshi ravishda esa kommunistlarning nufuzi tushib ketdi. Sharqiy Yevropada sotsializmning inqirozga yuz tutishi sharoitida IKP rahbariyati kompartiyani ommaviy so'l kuchlar partiyasiga aylantirish tashabbusi bilan chiqdi. IKPning 1991 yil boshlarida bo'lib o'tgan XX syezdida, uning saflarida ixtilof oqibatida ajralish yuz berdi. Ko'pchilik, partiyaning Italiyada demokratiyaning o'rnatish va himoya qilishdagi xizmatlarini unutishni o'ziga ma'qul ko'rdi. Yaqin o'tmishda bu partiya uchun saylovchilarning 1G'4 to 1G'3 gacha qismi ovoz berishi ham esadan chiqarildi.

Natijada, kommunistlarning katta qismi (a'zolarining deyarli 2G'3) so'l kuchlarning Demokratik partiyasini (DPL) tashkil etishdi. Yoshlar kommunistik harakatining sobiq yetakchisi va kompartiyaning kundalik gazetasi hisoblangan "Unita"ning redaktori Massimo D Alema 1994 yildan beri DPLning kotibi hisoblanadi. DPL Yevropadagi sotsial-demokratik harakatlarning saflariga singib (qo'shib) ketdi. Sobiq IKPning kichikroq qismi (o'zlarining stalinchilar deb hisoblagan partiyaning a'zolari) esa Kommunistik uyg'otish partiyasini tashkil etdi. Yangi partiyaning kommunistik harakatning faxriysi Fausto Bertinotti boshqardi.

XDP uchun ham qiyin kunlar boshlanib ketdi. 90-yillarning boshidayoq XDP kommunistlarning davlat tepasiga chiqishiga to'siq bo'lgan holda, davlatni boshqa partiyalar koalitsiyasida boshqardi. Bu vaziyatni beqaror muvozanat deb atashdi. Ammo, 90-yillar mobaynida XDP o'zining hukmron partiya sifatidagi rolini mamlakatda yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy voqealar bunga imkon yaratdi. 90-yillarning boshiga kelganda Italiyani yangi siyosiy mojarolar larzaga keltirdi. Bu mojarolarga davlat amaldorlari bilan bir qatorda yirik siyosatchilar ham aralashib qolgan edi. 1992 yil fevralida Milandagi partiyalar uyining direktori M.Kyez qamoqqa olindi. Olib borilgan tergov natijasida shu narsa aniqlandiki, ko'pgina sanoat kompaniyalari yuqori lavozimlarga, davlat buyurtmalariga ega bo'lish va boshqa g'arazli faoliyatlar uchun amaldorlar va turli siyosiy partiyalarning rahbarlari hisobiga sarmoya o'tkazib turishgan. Mablag' o'tkazilib turilgan partiyalar qatoriga: xristian-demokratlar, sotsialistlar, sotsial-demokratlar va kommunistlarni ham kiritish mumkin edi. Shu narsa ma'lum bo'ldiki,

korruptsiya har bir noqonuniy bitim bo'yicha pora olish uchun mustahkam va samarador tizimga aylanib ulgurgan edi. Buning ustiga hukumat manfaatdor tomon sifatida namoyon bo'lib qoldi. Proporsional vakillik prinsipiga asoslangan saylov tizimi hukumat ichida amalga oshirilayotgan firibgarlikning yashirin manbalaridan biri ekanligi ham aniqlandi. Kun tartibiga uni majoritar prinsip bilan almashtirish masalasi qo'yildi.

Bu orada esa siyosiy mojarolar davlat xizmatchilari bilan uyushgan jinoyatchilik o'rtasida mustahkam aloqalar mavjudligi to'g'risida ko'pgina dalillarni ko'rsatib berdi. M.Kyezning hibsga olinishi bilan Italiyada "Toza qo'llar" nomli umummilliy kompaniya avj olib ketdi. Asosan, so'l qarashlarni qo'llab-quvvatlovchi, Milan shahri prokuraturasi xizmatchilarining bir guruhi (magistratlar degan nom bilan atalgan) juda katta tergov jarayonini boshlab yubordi. Bu jarayon tufayli mafiya bilan bir necha minglab kishilar qamoqqa olindi. Ular orasida ko'zga ko'ringan tijoratchilar va tadbirkorlar, yirik va kichik partiyalarning funksionerlari, hukumatda yuqori doiralarning vakillari ham bor edi. Bu sud amaliyotida o'xshashi bo'lmagan (analogi) va keng xalqaro rezonans (jarangdor)ga ega bo'lgan, misli ko'rilmagan operatsiya edi.

Sobiq premyer-ministr, xristian demokratiyasining ustunlaridan biri sanalgan D.Andreattiga nisbatan partiyani noqonuniy yo'llar yordamida mablag' bilan ta'minlash, mafiya bilan aloqadorlikda va buyurtmali suiqasdlar uyushtirish bilan shug'ullanganlikda gumon qilinib ayb qo'yildi. qo'yilgan ayblar shu darajada jiddiy ediki, hatto D.Andreotti o'z ixtiyori bilan deputatlik daxlsizligidan voz kechishga rozi bo'ldi va hibsga olindi. "Toza qo'llar" operatsiyasi sotsialistlar yetakchisi, sobiq premyer ministr B.Kraksini ham siyosiy jihatdan badnom qildi. ISPni 16 yil davomida boshqargan B.Kraksi iste'foga chiqishga majbur bo'ldi. qamalishdan qo'rqib, Kraksi mamlakatni tark etdi. Tunisda quvg'inda yashadi va 2000 yilda shu mamlakatda vafot etdi.

Siyosiy tus berilganligi va ayrim suiste'mollarga yo'l qo'yilganligiga qaramasdan, g'ayri qonuniy harakatlarni fosh qiluvchi "Toza qo'llar" kompaniyasi yetarli darajada samarali bo'ldi va Italiyada yangi siyosiy kurash turi paydo bo'ldi, ya'ni korruptsiyaga qarshi kurashish siyosiy xarakterga ega bo'ldi.

Xristian demokratlar uchun hukumat mablag'larini taqsimlash imkoniyati yanada qisqardi va binobarin partiyaning ommaviy bazasi ham kamaydi. XDPning hukumatidagi doktorati ham ozchilikni tashkil etib, yetakchilarning nufuzi tushib ketdi. XPD ichidagi partiyaviy kurash yanada keskinlashdi. XDP obro'sining tushib ketishiga, xalq ruhiyatida, ayniqsa, yoshlar orasida katolik cherkovi an'analariga bo'lgan qiziqishning susayganligi ham turtki bo'ldi. Italiya jahondagi eng zabardast katolik davlatlardan biri bo'lib qolayotgan bo'lsada, italiyaliklar mentalitetiga cherkovning ta'sir etish samarasi pasayib ketdi. Shunday qilib, XX asrning so'nggi o'n yilligida XDP o'z obro'sini yo'qotdi va quyida "Toza qo'llar" nomli operatsiyaning zarbalari ostida so'l kuchlar bilan ittifoq bilishni maqsad qilib olgan. Xalq partiyasiga o'nglar bilan bir kaolitsiyada bo'lishni mo'ljallagan Xristian-demokratik markazga bo'linib ketdi. O'z navbatida, xalq partiyasining o'zi ham yana 3 ta oqim va bir qancha guruhchalarga ajralib ketdi. Masalan, sobiq xristian-demokrat, Palerio shahrining meeri L.Feando yetakchiligidagi guruh "yashillar" harakati bilan birlashib Sitsiliyada faoliyat ko'rsatuvchi "To'r" nomli partiyani tashkil etdi. Bu partiyaning maqsadlaridan biri mafiyaqa qarshi kurash olib borish edi.

Mamlakatdagi boshqa siyosiy partiyalarning taqdiri ham shu qismatga duchor bo'ldi. Moliyaviy nopokliklar haqidagi ayblovlar yomg'iri avvallari kaolitsion hukumatlar tarkibiga kirgan respublikachilar, liberallar va sotsial-demokratlar kabi partiyalarni amalda siyosat maydonidan tushirib tashladi. Endilikda XDP bu partiyalar uchun tayanch nuqtasi bo'lolmay qoldi.

Isteblishmentdagi o'zgarish, xususan XDP va IKPlarning zaiflashishi o'ziga xos siyosiy vakuumni keltirib chiqardi. O'z navbatida bu siyosiy vaaukumni asosan o'ng partiyalar va qisman DPL to'ldirdi (band etdi).

O'ng partiyalarning peshqadam mavqega ko'tarilishi (chiqishi) 90 yillar siyosiy marketingida yangi hodisa (voqea bo'ldi). Umberto Bossi Boshchiligidagi Shimol Ligasi nomli

o'ng siyosiy gruppirovka janub muammosi Italiya va ayniqsa Shimoldagi barcha kulfatlarning manbai degan fikrni surdi. Liga tarafdorlarining qarashlari uchun separativ (bir tomonlama) kayfiyat xarakterli edi. Rahbariyat esa populistik taktikani asos qilib oldi. Liganing asosiy elektorati, tabiiy ravishda mamlakatning shimoliy viloyatlarida to'plangan edi. 1992 yildagi saylovlarda Shimol Ligasi katta muvaffaqiyatga erishdi. Chunonchi, parlamentda 55 ta (1 ta qarshi) va senatda 25 ta (1 ta qarshi) o'ringa ega bo'ldi. Shimol Ligasi o'ng partiyalar bilan koalitsiyada bo'lish kursini qo'llab-quvvatlaydi. O'ng qanotga oid bo'lgan siyosiy guruhlardan yana biri, ya'ni-neofashistlar 90-yillar o'rtalariga kelganda, siyosiy kurashning respektabel (salobatli, hurmatli,) qatnashchisiga aylanib ulgurdi. Uni ISDstlar harakatining a'zosi va keyinchalik "Italiya ijtimoiy harakati - Milliy o'ng kuchlar" (ISD NPS) partiyasining yetakchisiga aylangan Djanfranko Fini boshqardi. Uni Italiyada ko'pchilik Dj.Almiraning g'oyaviy merosxo'ri deb hisoblashar edi. Fashistik o'tmishdan uzoqlashgan holda Fini neofashizmning ortodokslari (mustahkam e'tiqodli, sobitqadam, sodiq) bilan aloqani uzdi va va 1993-1995 yillar orasida bu partiyaning postfashistik () Milliy alyansga aylantirdi. Bu partiya o'z maqsadlari yo'lida o'ng va markazchi raqiblari bilan siyosiy kompanyon (sharik) bo'lishga ham tayyor edi.

O'ng markazchi guruhlarining asosiy harakatlantiruvchi kuchi 1993 yilda tashkil topgan "Olg'a, Italiya" nomli partiya edi. Bu partiya markaziy siyosiy kuch bo'lishga da'vogarlik qiladi. "Olg'a, Italiya" partiyasining tashkilotchisi va yetakchisi S.Berluskoni hisoblanadi.

Silvio Bermuskonining asli kasbi huquqshunos bo'lib, u o'zining shaxsiy sifatlari va qobiliyati noqulay vaziyatdan muvaffaqiyatli chiqib keta olish iqtidori evaziga juda katta boylik orttirdi. U hozirgi kunda Italiyadagi eng boy kishilardan biri hisoblanadi. Bermuskoni yaxshi tijoratchi va tug'ma tadbirkor sifatida ham tan olingan. U hozirgi kunda mamlakatdagi uchta yirik xususiy telekanal, bir qancha supermarketlar to'riga, katta miqdordagi qurilish kompaniyalari, Italiyadagi 30 ta yirik gazetalarning nazorat aksiyalariga ega bo'lgan "mondadori" nomli nashriyot uyi va "Milan" futbol klubining xo'jayini hisoblanadi. Shubhasiz, oddiy bank xizmatchisi o'g'lining moliyaviy imperiya egasiga aylanib ketish qonunni himoya qiluvchi organlarning e'tiborini tortmasdan ham qolmagan. Turli davrlarda Berluskonini noqonuniy mablag'larni aylantirish, soliqlarni to'lashdan bosh tortish, mafiya bilan hamkorlik qilish (aloqa), siyosiy arboblar, sudyalalar va soliq politsiyasi xizmatchilarini pora berib o'z tomoniga og'dirib olish kabi jinoiy ishlar bilan shug'ullanganlikda ayblashgan. Lekin, shunga qaramasdan medialagnat bu kabi ayblovlarni rad etgan. uning fikricha, guyoki bu mashmashalar uning o'ta boyligidan hasad qiladigan siyosiy raqiblarning ta'na va hiyla-nayranglaridan boshqa hech narsa emas ekan. Berluskoning huquqiy jihatdan (neuyazvimost) mustahkamligini yuqori malkali shaxsiy advokatlari ta'minlab tursada, eng katta madad aloqadorligi evaziga olar edi. Masalan, hisob raqamiga

Berluskoni "Ozodlik Alyansi" nomli saylovoldi blokini tashkil etdi. Blokk "Olg'a, Italiya" partiyasidan tashqari neofashistik Milliy Alyans va o'nglarning siyosiy gruppirovkasi hisoblangan Shimoliy Liga ham kirgan edi. Yangi koalitsiya 1994 yil martida bo'lib o'tgan saylovlarda 38% ovoz bilan g'alaba qozondi. Bu saylovlarda boshqa nufuzli guruh va partiyalarning obro'si ancha tushib ketdi. Masalan, XDP uchun saylovchilar 11% ("Toza qo'llar operatsiyasi boshida 31,7% qarshi ovoz"), sotsialistlar uchun esa bor yo'g'i -2,2% (oldingi saylovlardagi 14,5 % ga qarshi) ovoz berdi. Ozodlik Alyansining g'alabasi tufayli o'nglar Deputatlar palatasida absalyut ko'pchilikka (301-mandat) ega bo'ldi. Saylovlarda "Olg'a, Italiya" partiyasi 21% ovozga ega bo'lib, yetakchilikni o'z qo'lga oldi, Berluskoni esa 1999 yilning may oyida bosh vazir etib tayinlandi.

Bosh vazir Berluskoniga iqtisodiy muammolarni bartaraf etishdan tashqari, "Ozodlik Alyansi"ning bir-biri bilan muxolif bo'lib qolgan ikki vakilini murosaga keltirish muammosi ham paydo bo'ldi. Shimoliy Liga o'ng markazchi koalitsiyalardan chiqib, parlamentdagi ko'pchilikka barham berganida, Berluskonining hokimiyat tepasiga kelganiga bor-yo'g'i 7 oy bo'lgan edi. Bu siyosiy voqealar 1994 yil dekabrda iste'foga chiqishga majbur qildi. Italiyadagi jamoatchilik orasida Berluskonining televizion saltanatini bitta kanalga cheklash va reklama

monopoliyasiga barham berish haqidagi fikrlar to'liqini yuzaga chiqdi. Berluskoni bu g'avg'olardan omon qolgan bo'lsada, yana darhol yangi korrupsiya mashmashasiga aralashib qoldi. Bu mojaro kichik ukasi va unga qarashli bo'lgan "Fininvest" kompaniyasining direktorlariga daxldor bo'lib, Berluskoni bu kompaniya orqali telereklamani monopoliya qilar va Italiyadagi ko'pgina telekanallarning faoliyatini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'lgan edi. Berluskoni poraxo'rlik va soliq nayranglarida hamda neofashistik Milliy Alyans va Shimoliy Liga separatizmini qo'llab-quvvatlash kabi jinoiy ishlarda ayblanib, sud oldida javob berishga majbur bo'ldi. Unga, Kraksi davridagi saylov kompaniyasini noqonuniy moliyalashdagi "xizmatini" ham eslatib qo'yishdi. Sud uni uch marotaba aybdor deb hukm chiqargan bo'lsada, yuqori malakali advokatlarning sayi-harakati bilan qamoq jazosini o'tashdan qutulib qolaverdi.

Mediamagnat iste'foga chiqqanidan so'ng prezident O.L.Skalfaro 1995 yil yanvarida Berluskoni hukumatida moliya vaziri lavozimida faoliyat ko'rsatgan texnokrat Lamberto Diniga partiyasiz hukumat tuzish vazifasini topshirdi. Lamberto Dini o'z davrida VXF da faoliyat ko'rsatganligi uchun, xalqaro moliyaviy doiralarda taniqli shaxs edi. Dini hukumatining asosiy maqsadi mamlakatda moliyaviy tizimni sog'lomlashtirish bo'ldi. Ammo, oktabr oyida yangi yildagi budjet masalasi ishlab chiqilayotgan vaqtda "Olg'a, italiya" va Shimoliy Liga revansh olishni maqsad qilib, parlamentda hukumatga ishonchsizlik bildirish (votum) masalasini ko'ndalang qilib qo'ydi. So'l partiyalarning ko'magi Dini hukumatini vaqtinchalik saqlab qolsada, 1996 yil yanvariga kelib bu hukumat iste'foga chiqishga majbur bo'ldi.

1996 yil aprelida bo'lib o'tgan saylovlarda So'l Demokratik Partiyaga mansub bo'lgan eks-kommunistlar (ustunlik qilgan) muhim o'rin tutgan "Zaytun daraxti" nomli so'lmarkazchi bloki Berluskoni yetakchilik qilgan o'ng markazchi kaolitsiyadan birozgina farq bilan ustunlik qildi. Bu blokning tashkilotchisi va yetakchisi iqtisodiyot professori Romano edi. Romano Prodi o'zining siyosiy faoliyatini xristian demokratlar safida boshlagan bo'lib, u nafaqat Italiyada, balki Yevropadagi ishbilarmonlar doirasida ham e'tiborli arbob edi. Bu hukumat nisbatan barqarorroq (bardoshliroq, chidamliroq) bo'lib, 2,5 yil faoliyat ko'rsatdi. Ammo, 1998 yil kuzida budjet masalasi bo'yicha parlamentda bo'lib o'tgan qizg'in bahslardan so'ng, R.Prodi iste'foga chiqdi. Prezidentning topshirig'i bilan tuzilgan yangi koalitsion o'ng markazchi hukumatni 49-yoshli eks-kommunist (SDP a'zosi) Massimo D Alema boshqardi. U Italiya tarixida sobiq IKP ning hokimiyat tepasiga chiqqan birinchi vakili edi. Massimo D Alema hokimiyatni 18 oy davomida boshqardi.

Hukmron so'l koalitsiya (R.Prodi va M.D Alema) o'zining besh yillik faoliyati davomida (1996-2001 yillar) mamlakat xazinasini davlat sektoriga qarashli korxonalarni milliylashtirish hisobiga 60 mlyard dollarga to'ldirishga muvaffaq bo'ldi. 1 mln ishchi joylarining tashkil etilishi bilan ishsizliklar soni ancha qichqartirildi. qurolli kuchlarda o'tkazilgan islohot tufayli harbiy majburiyat bekor qilishdi va shartnoma asosida xizmat qilish joriy etildi. Italiya Yevropadagi iqtisodiy hamkorlik tizimidagi yagona valyuta-yevo zonasiga qo'shilgan davlatlar qatoridan o'rin oldi. Shu bilan bir qatorda, so'llarning ijtimoiy sohadagi ko'pgina va'dalari qog'ozda qolib ketdi. Yirik shaharlarda jinoyatchilik miqdori ancha o'sdi, fuqarolarda shaxsiy xavfsizlik Albaniya va sobiq Yugoslaviyadan muxojirlarning oqib kelishidan qo'rquv hissi saqlanib qoldi. Mamlakat ichidagi ijtimoiy fikr keskin o'zgardi, "Toza qo'llar" operatsiyasining ta'siri susaydi. Ko'pgina tadbirkorlar, jumladan Berlus qoni bilan bog'liq sud jarayonlari to'xtatildi, D.Andreotti sudda oqlandi va B.Kraksi, esa muhojirlikda vafot etdi. Yuqoridagi omillarning barchasi 2000 yil bahoridagi siyosiy voqealarga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi.

2000 yilning aprel oyida 20 ta viloyatning 15 tasida mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarida ma'muriy saylovlar bo'lib o'tdi. D.Alemaning "yarim kommunistik rejimidan" norozi bo'lgan o'ng oppozitsiya o'zining siyosiy raqiblariga nisbatan qaqshatqich kurash boshladi. O'ng markazchi "Ozodlik qutbi"ning (Ozodlik qutbiga birinchi galda "Olg'a, Italiya", "Milliy Alyans va bir qator boshqa partiya va harakatlar kiradi) yetakchisi Borluskoni yana bir bor Shimoliy Liganing federalchilari bilan birlashdi va qizg'in saylovoldi tashviqotni boshlab yubordi. Cherkov dindorlarni o'ng kuchlarning nomzodlarini yoqlab ovoz berishga chaqirdi.

Natijada, o'nglar shimoldagi sanoatni rivojlangan barcha hududlar bilan qo'shib hisoblaganda, 8 ta viloyatda g'alaba qozondi.

Yaqindagina "so'llar hokimiyat tepasiga uzoq vaqtga keldi" deb bayonot bergan Massimo D'Alema bunday vaziyatda o'z mag'lubiyatini tan olishga majbur bo'ldi va prezidentga iste'foga chiqish haqidagi xujjatni topshirdi. Prezident K.A.Champi (1999 yilda buyon) texnokratlarning o'tish hukumatini belgiladi va G'azna, budjet va iqtisodiy rejalashtirish moslamalari bo'yicha vaziri sotsialist Djuliano Amato hukumatni boshqarishni taklif qildi. Jurnalistlar taniqli iqtisodchi va siyosiy arbob Dj.Amatoni o'ziga xos sezgirligi uchun "o'tkir janob" deb nomlashgan. Yaqin o'tmishda u ISPning rahbarlaridan va B.Kraksining izdoshlaridan biri edi. Yangi bosh vazir uchun meros bo'lib qolgan muammolardan biri saylov tizimidagi proporsional prinsipni bartaraf qilish orqali saylov to'g'risidagi qonunning mohiyatini o'zgartirish edi. Mablag'larni aylantirish jinoyatiga oid qonunchilikni takomillashtirish ham kun tartibidagi dolzarb muammo edi. Chunki Italiyada bu turdagi jinoyat misli ko'rilmagan darajada ko'payib ketdi. To'g'ri, mablag'larni aylantirish jinoyat sifatida tan oliniyu, jinoyat kodeksining moddasiga ko'ra 4 yildan 12 yilgacha ozodlikdan mahrum etih va 2 dan 30 mln liragacha jarima to'lash belgilab qo'yilgan bo'lsada, bu illatga qarshi kurashish samaradorligi uncha yuqori emas.

Shu bilan bir qatorda Italiyani 2001 yilda bo'lib o'tadigan navbatdagi saylovlar kutmoqda edi. 2000 yilda o'ng kuchlar tomonga ro'y bergan tub burilishi yanada ko'z tashlana bordi. 2000 yil bahorida mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlariga bo'lib o'tgan saylovlardagi muvaffaqiyatdan ruhlanib ketgan. Berluskoni "Ozodliklar uyi" nomli yangi Alyansni tashkil qiladi. "Ozodliklar uyi" 2001 yil bahoridan saylovoldi kompaniyasiga kirishib ketadi. Yangi Alyansga markaziy kuch bo'lishga intilayotgan - "Olg'a, italiya" partiyasi, hamda o'nglarga tegishli bo'lgan Milliy alyans va Shimoliy Ligalar qo'shildi. Saylovoldi kompaniyasida Berluskoni imperiyasining butun qudrati ishga solindi. Tashviqot-targ'ibot ishlarida eng yangi siyosiy texnologiyalar, so'l kuchlarning zaif joylarini ochib tashlash, italiyaliklar ruhiyatida hukumatning boshqaruv institutlari va qonunlaridan hafsalarini pir qilish kabi vositalardan ham foydalanildi. bunday sharoitda F.Rutellining "Zaytun daraxti" nomli so'l markazchi kaolitsiyasi uncha ishontirolmaydigan kuch sifatida namoyon bo'ldi. Siyosiy raqiblarning saylovoldi dasturlari bir-biridan unchalik farq qilmas edi. Chunonchi har ikkala blok ham Italiyaning iqtisodiy qoloqligini bartaraf etish tadbirlarini, davlatda tinchlik bo'lishni va bir qancha siyosiy islohotlarni amalga oshirishni rejalashtirib qo'yishgan edi. Shunday bo'lsada, saylovchilarning katta qismi 2001 yil 13 mayda Berluskoni yetakchiligidagi "Ozodliklar uyi"ni yoqlab ovoz berishdi. Ancha vaqtdan beri qonunni hurmat qilmay qo'ygan italiyaliklar, ko'ra bila turib, qonun ta'qib ostiga olgan Berluskonini qo'llab-quvvatlab ovoz berishdi. Ular o'z hayotini shu darajada yaxshi qila olgan kishi, mamlakatga ham yordam bera olishga qodir degan fikrga asoslanib bunday yo'lni tashlashdi.

Saylov natijalariga ko'ra "Ozodliklar uyi" kaolitsiyasi mamlakat parlamentidagi ko'pchilik o'rinlarni egallashga muvaffaq bo'ldi, jumladan deputatlar palatasidagi 630 o'rindan 367 tasiga, senatdagi 315 o'rindan 177 tasiga ega bo'ldi. "Zaytun daraxti" nomli so'l markazchi blok 248 ta, kommunistlar 11 ta va qolganlar esa 4 ta deputat mandatiga ega bo'ldilar. "Olg'a, Italiya" partiyasi mamalkat parlamentidagi eng katta fraksioga aylandi. Oldingi saylovlarga qaraganda, u o'z elektoratini 21 dan 30% gacha oshirishga muvaffaq bo'lgan yagona partiya bo'ldi. parlamentning har ikkala palatasida ham ko'pchilikka ega bo'lgan Berluskoni nazariy jihatdan hukumatni qonun bilan belgilab qo'yishgan. 5 yil muddat davomida to'la boshqarish imkoniyatiga ega. Bosh vazir lavozimi va bir vaqtlar olingan Yevroparlament deputatining statuti Berluskoniga katta immunitet huquqini beradi. YA'ni, uni nafaqat italiyalik sudbyalar va balki boshqa davlatlarning qonunni himoya qiluvchi tashkilotlari ham jinoiy javobgarlikka tortish imkoniyatidan mahrum etilganlar. Yangi bosh vazir oldida undan oldin faoliyat ko'rsatgan o'tmishdoshlari uddalay olmagan muammolarni hal qilish turibdi. Bunday muammolarga; konstitutsion tizimni takomillashtirish, hukumatning asosiy illatlari sifatida saqlanib qolayotgan byurokratizm va korrupsiyani yo'q qilish, yuqori darajadagi ishsizlik (9%), maktab islohoti, soliq tizimini korrektirovka () qilish kabi o'nlab masalalar misol bo'la oladi.

S.Berluskoni muammolarni bartaraf qilish bo'yicha o'z variantini "kontrakt" deb nomlangan saylovoldi xujjatida e'lon qildi. Unga ko'ra, Berluskoni ishsizlarni 1,5 mln kishiga qisqartirish, nafaqalar bo'yicha islohot o'tkazish, kichik biznesga yordam berish, soliqlarni qisqartirish, merosga solinadigan soliqlarni bekor qilish kriminal va byurokratiyaga qarshi kurashishga va'da berdi. Tashqi siyosatda esa chuqur o'zgarishni amalga oshirish ko'zda tutilmagan edi.

Shunday qilib, Italiya XX asrga bloklararo strategiya an'alarini saqlab qolgan holda kirib keldi. Mamlakat isteblishmentida barcha siyosiy partiyalarga tegishli o'zgarishlar yuz berdi: ba'zi birlari o'z faoliyatlarini to'xtatishsa, ba'zilari esa bo'linib ketdi yoki yangilanishdi. O'ng partiyalar bloklararo siyosiy o'yinlarning qoidalarini qabul qilib, mamlakatni boshqarish dastagini ushlab turishga harakat qilishmoqda. Xristian demokratiya esa "Katolik dunyo"ning monopol (yagona) siyosiy vakili bo'lmay qoldi. "Olg'a, Italiya" partiyasi bu lavozimga ega bo'lishga urinmoqda. So'l partiyalar ichida SDPning mavqei ancha yuqori hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda Italiya istiblishmentida so'l va o'ng qanotlarni tenglashtirib, sentrizmni siyosiy oqim sifatida foydalanishga harakat qilayotgan kuchlar ham borligi ma'lum bo'lib qoldi.

mavzu: SSSR URUSHDAN KEYINGI DAVRDA.

Ko'rib chiqiladigan masalalar:

- 1. II – Jaxon urushidan keyingi yillarda iqtisodiy rivojlanish qatag'onlikning avj olishi.**
- 2. Ijtimoiy – siyosiy xayot va inqirozligining muqarrarlighi.**
- 3. Qayta qurish davri.**
- 4. Mustaqillik marshlari, imperiya parchalanishi va merosni taqsimlash.**
- 5. Rossiyada yangi o'zgarishlar jarayoni va isloxotlarning borishi.**
- 6. SSSR tashqi siyosati.**

Tayanch so'zlar:

SSSR ning urushdan g'olibona chiqishi. Xalq xo'jaligining tiklanishi va rivojlanishi qatag'onlik siyosati 50 – 60 yillarda mamlakatda ijtimoiy – siyosiy xayot “Sovuq munosabatlar” urushining boshlanishi. Mamlakat xalq xo'jaliglarida iqtisodiy inqirozning boshlanishi. Mamlakat qayta qurish davri. SSSRning parchalanish imperiya merosini taqsimlash. Rossiyada yangi o'zgarishlar jarayoni va isloxotlarning borishi. SSSRning xalqaro maydonda olib borgan siyosati. Rossiya O'zbekiston munosabatlari.

Darsning maqsadi:

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda SSSRning iqtisodiy rivojlanishi, qatag'onlik siyosati, ijtimoiy-siyosiy noxalqchlik yo'l moxiyati, ijtimoiy-iqtisodiy sohada inqirozning kuchayib borishi, “sobiq urush”ga qo'shilish, “qurollanish poygasi”ning faollashuvi, Gorbachevning qayta qurish siyosati, imperiyaning parchalanishi – yani o'zgarishlar jarayoni va tashqi siyosati masalalari yoritiladi.

Sovet davlati va uning parchalanishi

SSSR fashistlar Germaniyasini mag'lubiyatga uchrashida asosiy rol o'ynadi. Biroq g'alaba katta talofatlar xisobiga qo'lga kiritildi. Chunonchi, SSSR ning 27 mln fuqarosi xalok bo'ldi. Xalok bo'lganlarning 11,5 mln ga yaqin askarlar edi.

Bundan tashqari SSSR milliy boyligining uchdan bir qismini yo'qotdi. Sanoatning xalq istemoli maxsulotli ishlab chiqarish soxasi keskin kamaydi. Qishloq xo'jalik maxslotlari ishlab chiqarish xajmi urushdan avvalgi darajaga nisbatan 40% foizga kamaydi.

Endi Sovet davlati oldida mamlakat xo'jaligini tiklash vazifasi turar edi. Shu maqsadda SSSR Oliy Sovet xalq xo'jaligini rivojlantirishning to'rtinchi besh yillik ish rejasini qabul qildi. Qattiq markazlashtirilgan raxbarlik xamda SSSR tarkibidagi xalqlarning fidokorona mexnati tufayli sanoat ishlab chiqarish xajmi 1950 – yilda urushdan oldingi darajadan oshib ketdi (73 foizga).

Ayni paytda sanoatning tez suratlar bilan rivojlanishi mamlakat qamoqxonalarida saqlanayotgan ko'p millionli sovet tutqinlarining xamda 1,5 mln. Nemis, 0,5 mln yapon xarbiy asirlarining tekin mexnati, Germaniyadan undirilgan 4,3 mlrd dollar xajimdagi tovon, shuningdek kapital mablag' asosiy qismining sanoatga yo'naltirganligi xam katta rol o'ynadi.

Urushdan keyingi yillarda yana o'zgacha o'zgacha fikrlovchi kishilarni qatag'on qilish boshlandi. O'zgacha fikrlovchilarni qatag'on qilish – totalitar sotsializimning yo'ldoshidir. Chunki totalitar sotsializm – kuchga xamda yolg'on aqidalarga asoslangan jamiyat. Biroq xar bir davrda totalitar sotsializm ximoyachilari qatag'on boshlash uchun baxona sifatida nimanidir asos qilib oladilar. Urushdan keyingi qatag'onlarda xam shunday qilindi.

Xo'sh, bu safargi qatag'onga nimalar asos qilib olindi? Sovet ziyolilari urushdan keyin chuqur iqtisodiy va siyosiy isloxotlar o'tkazilishiga umid qildilar. Ularning malum qismi CCCR da xam, G'arbdagi kabi, erkin jamiyat qaror topishini istadilar. Ayni paytda bunday chuqur

o'zgarishlarga islohotlar yo'li bilan erishishni taklif xam etganlar. BMT ning 1948 yil 10 dekabrda qabul qilingan "Inson xuquqlari umumjaxon deklaratsiyasi" ni SSSR xam imzolagani ularda bunday umidni paydo qilgan edi.

Iqtisodiy islohotlar borasida ziyolilarning bir qismi korxonalar o'rtasida raqobat sharoitini vujudga keltirishni, xissadorlik jamiyatlarini tuzishni, davlat taminotini bekor qilishni, xususiy savdoni yo'lga qo'yishni, erkin narx joriy etilishini, kolxozlar mol-mulkini va ularga berilgan yerlarni oilalarga bo'lib berish yo'li bilan kolxozlarni amalda tugatilishini taklif etdilar. Siyosiy soxada esa muqobil saylov, raxbarlikga saylanuvchilarning vakolat muddati cheklanishi, milliy (aslida mustamlaka) rkspublikalarga esa ularning xuquqlarini kengaytirish xaqidagi takliflarni ilgari surdilar.

Biroq SSSR raxbariyati bu taklifni sotsializmni ichdan qo'porish taklif mualliflarini esa sotsializmga qarshi unsurlar deb baxoladi. Bu esa yangi qatag'onlar kompaniyasining boshlanishiga turtki bo'ldi. Natijada ziyolilarning minglab ilg'or qismi partiya-sovet xodimlari, respublikalarning milliy kadrlari qatag'onga uchradi.

O'zbekistonliklar xam qatag'ondan chetda qolmadi. Xususan 1951-yilda mustabid tuzumning tayanchi bo'lmish xavafsizlik xizmati go'yo respublika "Yozuvchilar yushmasi" da ayrim matbuot organlariga "uya qurgan" 12 kishidan iborat "sovetlarga qarshi millatchi gurux"ni "fosh" etdi.

Davlat xavfsizlik xizmatining ushbu "faoliyati" natijasida yozuvchi va shoirlar Shukurullo, Shuxrat, Shayxzoda, adabiyotshunos olim X.Sulaymon qamoqqa olindi va sovetlarga qarshi millatchilik faoliyatida ayblanib, 25 yilga xukm qilindilar.

SSSR da 1930 – 1953 yillar oralig'ida jami 3.8 mln ga, yaqin kishi qatag'on etildi. Ulardan 800 mingga yaqini otib tashlandi. O'zbekistonda 1937-1953 – yillarda 100 ming kishi qatag'on etildi. Ularning 15 mingi otib tashlandi. Islom Karimov Toshkentdagi "Shaxidlar Xotirasi" yodgorlik majmuasining ochilishi marosimida bu daxshatli xolatni tariflab "zulm va zo'rovonlikga qurilgan mustabid beshafqat tuzum davrida o'zligini, millat qadr-qimmatini teran anglagan ijtimoiy-siyosiy ongi yuksak, xalqni uyg'otishgga xalqni boshqarishga qodir bo'lgan, marifat va manaviyat yo'lida fidoiylilik ko'rsatgan barcha aql-zakovat soxiblarining ..." qancha – qanchalari jismonan yo'q qilingaligini takidlagandi.

To'g'ri 1953 yilda I.Stalin vafot etgach, turli yillarda qatag'on etilganlar oqlandi. Biroq mustaqil fikrlovchi shaxslarni qatag'on qilish I.Stalin davridagidek ommaviy va qonli tusda bo'lmagan bo'lsa-da 70-80-yillarda xam davom etdi. Ular yakka Ular yakka-yakka tartibda ta'qib etildi. Ular ustidan turli jinoiy ishlar uyushtirildi va majburan ruxiy kasalliklar kasalxonalariga yotqizildi. Dunyo jamoatchiligiga taniqli bo'lganlar uy qamog'ida yoki badarg'ada saqlandi. Ba'zilar mamlakatdan chiqarib yuborildi.

I.Stalin vafotidan so'ng raxbarlik lavozimini N.Xrushyov egalladi. U 1956-yilda bo'lib o'tgan KPSS ning XX sezdida I.Stalin shaxsiga sig'inish va uning oqibatlarini qattiq qoraladi. Mamlakatning ilg'or qismi chuqur iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar amalga oshadi, deb yana bir bor umid bilan qaray boshladi. Biroq ularning umidlari oqlanmadi. Mamlakatda stalinizm yangi ko'rinishda davom etaverdi.

KPSS ning 1959-yilda bo'lib o'tgan navbatdan tashqari XXI sezdi SSSR da sotsializm «to'la va uzil-kesil g'alaba qozondi», degan xulosaga keldi. Bunga mamlakat iqtisodiy taraqqiyotida ro'y bergan sezilarli ijobiy yutuqlar asos qilib olindi.

Aslida bu kommunitslarning navbatdagi xomxayoliari edi. Sovet davlatining keyingi butun taraqqiyoti buni tasdiqladi. Biroq 1959-yildan boshlab bu xomxayol xodisa ulkan tarixiy g'alaba, deb talqin etildi. Bu jozibador xulosa sovet raxbariyati tomonidan yanada xomxayol bo'lgan boshqa xulosa ilgari surilishiga asos bo'ldi. Bu — SSSR ning endi kommunitistik jamiyat qurilishi keng avj oldirilgan davrga qadam qo'yanligi xaqidagi xulosa edi.

Va, nixoyat, KPSS ning XXII sezdida (1961-yil) KPSS ning yangi dasturi — Kommunizm qurish dasturi qabul qilindi. Xo'sh, kommunistlar fikricha, kommunizm qanday jamiyat edi?

Birinchidan, bu - ishlab chiqarish vositalari to'la umumxalq (aslida davlat) mulki bo'lgan jamiyat edi.

Ikkinchidan, bu — jamiyatning barcha a'zolari ijtimoiy jixatdan batamom teng bo'lgan sinfsiz jamiyat edi.

Uchinchidan, bu — ijtimoiy boylikning barcha manbalar mo'l-ko'l bo'lgan, to'lib-toshib turadigan va, natijada, xar kim qobiliyatiga yarasha ishlaydigan, lekin jamiyat boyligidan xar kim extiyojiga yarasha ulush oladigan jamiyat edi.

To'rtinchidan, bu — mexnat qilish xamma uchun birinchi xayotiy extiyoj, anglangan zaruriyat bo'lib qoladigan jamiyat edi.

Dasturda kommunizm qurish uchun quyidagi 3 ta ulkan vazifani bajarish zarurligi ta'kidlandi:

- kommunizmning moddiy-texnika bazasini yaratish;
- yangi ijtimoiy munosabatlarni vujudga keltirish;
- yangi kishini tarbiyalash.

KPSS dasturida bundanda battarroq xomxayol orzular ilgari surildi. Chunonchi: a) 1960—1970-yillar oralig'idagi o'n yil ichida iqtisodiy taraqqiyotda AQSH ga yetib olish va undan o'zib ketish; b) 1970—1980-yillar oralig'idagi o'n yil ichida kommunizmning moddiy-texnika bazasini yaratish. Vaqt tez orada KPSS va sovet davlati raxbariyati ilgari surgan yuqoridagi vazifalar xomxayol ekanligini tasdiqlay boshladi. Bu esa oliy raxbariyat o'rtasida ziddiyatlarni kuchaytirdi. Buning oqibatida 1964-yilda N.Xrushyov vazifasidan olib tashlandi.

Xokimiyat L. I. Brejnev qo'lga o'tdi. Uning davrida iqtisodiy isloxot o'tkazilishiga urinildi. Biroq bu isloxot mamlakat iqtisodiyotini tubdan qayta qurishni anglatmas edi. Mafkura iqtisodiyotni chulg'ab olgan bir sharoitda bu tabiiy xol edi. Chunki qotib qolgan, xayotdan orqada qolgan kommunistik mafkura xar qanday tub isloxotni sotsializm asoslariga zarba deb baxolardi.

KPSS ning kommunizm qurish rejasi barbod bo'lgach, L.I.Brejnev KPSS ning XXIV sezdidagi (1971-yil) «rivojlangan sotsializm nazariyasini ilgari surdi. Bu nazariyada kommunizm uzoq kelajakda quriladigan jamiyat, deb izoxlandi. Ungacha jamiyat sotsializm va kommunizm oralig'ida rivojlangan sotsializm bosqichini bosib o'tishi lozimligi «asoslandi». Xayot, vaqt bu nazariyaning xam soxta ekanligini tasdiqladi.

SSSR ning iqtisodiy taraqqiyoti borgan sari pasaya boshladi va unda turg'unlik xolati vujudga keldi. Buning asosiy sababi ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotning ilmiy-texnika inqilobi natijalarini qabul qila olmaganligi bo'ldi. Natijada bu iqtisodiyot katta xarajat talab etadigan va kam samara keltiradigan iqtisodiyotga aylanib qoldi.

1982-yilda L. Brejnev vafot etgach, qisqa vaqt ichida yana ikki raxbar almashdi. Bular Y. Andropov va N. Chernenko edilar. Ularning xar ikkisi xam og'ir kasal edilar. Biroq davlat qonunga bo'ysunmaydigan jamiyatda og'ir kasal kishilarning xokimiyat tepasiga kelib qolishi tabiiy xoldir.

Nixoyat, 1985-yil mart oyida M.S.Gorbachyov KPSS ning Bosh kotibi lavozimini egalladi. Shu yilning aprel oyida u qayta qurish va mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirish dasturini ilgari surdi. Unga ko'ra, 15 yil ichida (1985-2000) SSSR ning iqtisodiy qudrati 2 baravar ortishi, ya'ni 15 yil ichida sovet davlati yashab kelayotgan 70 yil davomida erishilgan darajaga teng iqtisodiy qudrat yaratilishi kerak edi.

Jadallashtirish dasturining amalga oshishi 3 omilga tayanar edi. Bular:

- korxonalar mustaqilligini kengaytirib, ularni xo'jalik xisobiga va o'zini o'zi mablag' bilan ta'minlashga o'tkazish;
- mexnatning mazmuni va xarakterida, odamlarning moddiy va ma'naviy turmush sharoitlarida chuqur o'zgarishlar qilish, samaradorlikka qarab xaq to'lash;
- oshkoralik, ya'ni siyosat, ijtimoiy va mafkuraviy muassasalar tizimini faollashtirish.

Aslida jadallashtirish dasturi xam KPSS va Sovet davlati raxbariyatining yana bir xomxayol, orzusi bo'lib chiqdi. Chunki iqtisodiyotda bozor munosabatlarsiz bu vazifalarni amalga oshirib bo'lmas edi. Buning ustiga SSSR axolisi ongi yangi — bozor iqtisodiyotini qabul

qilishga tayyor emas edi. 1988-yildan boshlab qishloq xo'jaligi, 1990-yildan boshlab esa sanoat ishlab chiqarishi pasaya boshladi.

Budjet taqchilligi 100 mlrd. so'mdan ortdi. Davlatning oltin zaxirasi 6 yilda (1985—1991) 10 baravar kamaydi va u atiga 240 tonnaga tushib qoldi. Axolining turmush darajasi shiddat bilan pasaya boshladi. Shunday sharoitda M.S.Gorbachyov «insonparvar, demokratik sotsializm» qurilishini e'lon qildi. Biroq endi uning cho'pchaklariga deyarli xech kim ishonmay qo'ydi. Ittifoq davlati oliy raxbariyati va organlari axoli ko'z o'ngida obro' etiborini, ishonchni yoqotib qo'ydi.

Qarama-qarshilikning keskinlashuvi va inqirozning muqarrarliligi

Mamlakatda «real sotsializm» inqirozi keltirib chiqargan qiyinchiliklar va salbiy holatlarni qalin o'rmonining orqasida turgan sovet oligarxiyasi ko'rishni xohlamas edi. Ko'klarga ko'tarib maqtash, ko'pdan-ko'p davlat mukofotlari bilan taqdirlash, umrining oxirigacha, ya'ni 1982 yil noyabrigacha KPSS MKning Bosh kotibi L.I.Brejnevning shaxsiga sig'inishni qo'llab-quvvatlash «real sotsializm»ning vositasi bo'lib keldi.

L.I.Brejnev haqida esa: «kult bor, ammo shaxs yo'q» deb aytishardi. Ammo nomenklatura unga xos bo'lgan eskilikni yoqlash, ko'ngilchanlik va bemalollik xususiyatlarini hamda xatolarga va suiste'mol qilishlarga beparvoligini qadrlar edi. Undan keyin oligarxiyani boshqargan Y.Andropov «real sotsializm»ning lenincha hayotiyiligiga zarracha shubha qilmasdi. U intizomni mustahkamlash, «sovet xalqi»ni ma'muriy-milliy birlashtirish (ruslashtirish orqali) va mamlakatni harbiylashtirish uchun jon kuydirdi. Uning qat'iyligi va jamiyatni o'rganish zaruratini tan olganligi mamlakatda o'zgarishlarni kutish sukunatini jonlantirdi, ammo u 1984 yil fevralida olamdan o'tdi. Uning vorisi K.Chernenko kasal bo'lishiga qaramay imkoni boricha «Brejnevcha» yo'l tutdi, ammo 1985 yil martigacha ham yashay olmadi.

«Tantanali dafnlar besh yilligida» (uchta bosh kotib) oligarxiyaning asosiy quroli - KPSS hamma narsaga qodirdek tuyulardi. Uning a'zolari soni 19 million kishini tashkil etdi. Siyosiy byuro siyosatini amalga oshiruvchi yuz minglab partiya qo'mitalari barcha sovet xo'jalik va ijtimoiy tashkilotlarini qamrab olgan edi. Ular 18 millionga yaqin turli boshqaruv tuzilmalari xodimlari faoliyatini boshqarar va keng omma jumladan kasaba uyushmalari, «ijodiy uyushmalar» va boshqa ijtimoiy tashkilotlar, hatto filaterist (marka yig'uvchi) va ovchilarning siyosiy hatti-harakatlarini ham yo'lga solib turishardi. Ommaviy axborot vositalari, kino va teatlarda senzura hukmronlik qilardi. Radiotelealoqa, ko'paytiruvchi texnika va kompyuterlardan erkin foydalanishga yo'l qo'yilmasdi.

KPSS bor kuchi bilan hammani yorqin kelajak haqidagi xom xayollarga ishontirish, xalq va hokimiyat manfaatlari birligini uqtirib xalq faolligini oshirishga harakat qilardi: «xalq va partiya bir butundir!». Hatto, KGB 80-yillar boshiga kelib turli huquqshunos liberallar, demokratlar, millatchilar va hokazolarni chegaralash, lager va ruhiy kasalliklar shifoxonasiga joylash yoki mamlakatdan haydash choralari ko'rdi va uning uddasidan chiqdi.

KPSS boshlang'ich tashkilotlari va ularning faol tarkibi «sotsializm afzalliklari», «sotsialistik demokratiya» va «sovetcha yashash tarzi»ning ustunligi, «kommunizm quruvchisi»ni tarbiyalashni targ'ib qilishni kuchaytirar, mehnat kollektivlarini «jamiyatning asosiy yacheykasi»ga aylantirishga harakat qilardi. Ijtimoiy birlik manfaatlari uchun tenglashtirish tendensiyalarining qo'llab-quvvatlangan tadbirlari o'tkazilardi. Odamlarga, ularning butun hayoti va faoliyatining mazmuni «yorqin kelajak» uchun xizmat deb tushunishlarini uqtirardilar.

«Sovet xalqi odamlarning yangi tarixiy jamoasi» sifatida targ'ib qilindi va uning birligi uchun hukumat keng integratsiya jarayonini, millatlararo va elatlararo nikohlar va ruslashtirish siyosatini qo'llab-quvvatlar, elatlar o'rtasidagi o'ziga xoslikni hamda farqlarni kamsitib, ularning ona tilini o'rganishlarini va o'z tillarida kitoblar chop etishni qisqartirib bordi.

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va ilmiy texnika taraqqiyotini jadallashtirish uchun siyosiy byuro «iqtisodiyot iqtisodli bo'lishi kerak!» deb jar solar va ishlab chiqarishning ekstensiv o'sishidan intensiv o'sishga o'tishiga da'vat qilardi. Barcha boshqaruv idoralari

tomonidan rejalashtirish va boshqaruvni yaxshilash, eng yangi sohalarning, brigada va korxonalarni xo'jalik hisobiga o'tkazish va rivojlanishini tezlashtirish, yuksak texnologiyalarni joriy qilish ishchilarning ishlab chiqarishdan manfaatdorligini oshirish bo'yicha choralar qabul qilinardi. Asosiy e'tibor importga, qurollarni yangilash uchun yuqori texnologiyalar yaratishga qaratildi. Butun mamlakat xo'jaligini markaz boshqarib turar, respublikalar hokimiyatidagilar esa o'zlaridagi ishlab chiqarishning ko'pi bilan 15-20%ini boshqara olishardi, xolos. «Ular Moskvadan so'ramasdan turib oddiy mix qoqishni ham uddalay olishmaydi»-ularning konstitutsiyasida «yozilgan» suverenitetini shunday baholar edi M.Gorbachev.

Ammo ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga muvaffaq bo'linmadi. 80-yillarga kelib eskirgan asbob-uskunalar ulushi 40%dan oshdi. Eng yangi mashinalarni yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish uchun SSSRda AQShdagiga ko'ra 9-10 marta ko'proq vaqt sarf etilardi. Sovet ishlab chiqarishida energiya va xom ashyo sarfi G'arbiy Yevropadagidan 1,5-2 baravar ko'p, ammo ishlab chiqarish samaradorligi bir necha barobar past edi. Korxonalarining 25-30%i surunkali ravishda daromad bo'yicha rejalarni bajarmas edi. Agrosanoat kompleksining maxsus tarzda tashkil qilinishiga qaramasdan 70% ga yaqin kolxoz va sovxozlar hatto sovet o'ldovlari bo'yicha zarariga ishlar edi. 80-yillarning o'rtalariga kelib, neftning dunyo bozoridagi narxlari pasayishi munosabati bilan sovet budjeti uchun juda muhim bo'lgan neft eksportidan olinadigan daromad ham ancha qisqardi,

Sovet iqtisodiyoti harbiyligicha qolaverdi. Eng avvalo, harbiy maqsadlarda, strategik xom ashyoni qazib olish oshirilardi, tadqiqotlarning 4G'5 qismi harbiy maqsadlarda o'tkazilar, yangi harbiy texnologiyalar yaratilar, raketalar va sun'iy yo'ldoshlar uchirilardi. Ammo SSSR biror strategik texnologiya bo'yicha AQShdan o'zib keta olmadi va faqatgina bir necha yo'nalish bo'yicha tenglikni saqlab qola oldi xolos. «Ular - deb yozadi raqiblar haqida KGB rahbari V.Kryuchkov - Sovet Ittifoqini lazer texnologiyalari, aviatsiya, harbiy-dengiz floti, oddiy qurollarning ba'zi turlari bo'yicha ancha ortda qoldirishdi». SSSR ustunligi u yoqda tursin, hatto harbiy strategik tenglikni saqlash imkoniyatidan ham mahrum bo'ldi, AQSH esa sifat jihatidan yangi qurolni ishlab chiqarishga kirishdi.

Umuman, ishlab chiqarishning yillik o'sish sur'atlari 13,2 dan 10% gacha pasaya bordi. Yuksak texnologiyalar o'choqlari yaratilishidan qat'i nazar, ishlab chiqarish samaradorligi bo'yicha u elektron axborot ishlab chiqarishga o'tgan mamlakatlardan tobora ortta qolib bordi.

Aholini davlat monopoliyasiga asoslangan ekspluatatsiyasi chuqurlashib bordi. Mehnatga haq to'lash uning natijalariga umuman mos kelmas edi va ishchilar yaratgan daromadning tobora kattaroq qismi ijtimoiy iste'mol fondlari tomonidan mehnat samarasiga nomutanosib tarzda taqsimlanardi. Eng malakali va qobiliyatli larning bor mahorat bilan mehnat qilishi qiziq bo'lmay qoldi, chunki ularning mehnati juda past baholanardi edi. «Umuman SSSRda yaxshi ishlash befoyda edi», - deb guvohlik beradi V.Pavlov

Yuqori darajada rivojlangan mamlakatlarning «iste'molchilar jamiyati»dan farqli o'laroq SSSRda fuqarolik tovarlarini ishlab chiqarish bilan sanoatning atigi 10-15 %i band edi. Buning natijasida mamlakatda 50 million aholiga jon boshiga hisoblaganda o'rtacha 9 m² yashash joyi to'g'ri kelgan va aholining ovqatlanishi ratsion normalaridan ham 40-30-20% kamroq bo'lgan. Dori-darmonlar ham yetishmas edi. 80-yillarning o'rtalariga kelib, hukumatning e'tirof qilishicha, aholining 40 million nafari qashshoq ahvolda yashagan. SSSRda aholining sog'liq darajasi va o'rtacha umr kechirishi eng rivojlangan mamlakatlarga nisbatan ancha yomon edi. Har yili 120 ming nosog'lom bolalar tug'ilardiki, bu aholi genefoni (nasliy aql-zakovati)ga katta zarar yetkazdi.

Neftni eksport qilishdan keladigan daromadning kamaygani sababli import qisqartirildi va aholiga zarur mollar tanqisligi oshdi, hukumat esa o'zining xarajatlarini qoplash uchun pul emissiyasini oshirdi. Bu narxlarning ko'tarilishiga, olib-sotarlikning avj olishiga va noqonuniy korxonalar - «yashirin iqtisodiyoti»ning faollashishiga olib keldi.

Ekologik vaziyat ham tobora murakkablasha bordi, tabiatning atom va kimyoviy chiqindilar bilan ifloslanishining haqiqiy ko'rsatkichlari yashirilardi edi. Yillik ekologik talofotlar SSSRda tabiatni muhofaza qilish uchun sarflangan xarajatlardan 4-5 marta ko'p edi. Ekologik

ofat mintaqalari soni 150 dan oshib ketdi. Orol dengizi qurib borar, Baykal va Ladoga ko'llari zaharlandi, mamlakatda iste'mol qilinadigan suvning 80% i zarur tozalik standartiga (meyoriy o'lchami) javob bermas edi.

Bularning hammasiga qaramasdan SSSRning harbiy xarajatlari Ulug' Vatan Urushining eng qizg'in paytidagidan ham ko'proq edi. Sovet rahbarlari «dunyo tarozisi pallasiga o'zining kuchli salohiyatini qo'rganligi»dan maqtanishar edi. Siyosiy Byuro mamlakat zaxiralari hisobidan Angola, Kuba, Nikaragua, Janubiy Yaman, Habashiston rejimlarini saqlab turishga va boshqa «do'stlar»ga, hamda o'nlab xorijiy kompartiyalarga milliardlab so'm va dollarni jo'natar edi. Uning global da'volarini qondirish maqsadida harbiy baza va yo'llar qurilishi uchun XXR bilan chegara bo'ylab qo'shin saqlash uchun katta xarajatlar amalga oshirildi. Yuzlab sovet kema va atom suv osti kemalari dengiz va okeanlarni kuzatib yurardi. Yuzlab «yo'ldoshlar» raqibni nazorat qilardi.

SSSRning boy berilgan ilgarigi ta'sirini tiklash uchun Siyosiy Byuro qarori bilan 1979 yilning dekabrda Afg'onistonga sovet harbiy intervensiyasining boshlanishi ko'p yillik qon to'kishlarga olib keldi. Unda 620 ming sovet harbiylari qatnashib, 14,5 ming kishi halok bo'ldi, bundan bir necha barobar ko'p kishi yarador bo'lib, katta miqdordagi texnika qo'ldan boy berildi. O'nlab milliard dollarlar ko'kka sovurilib milliondan ortiq afg'onlar yo'q qilindi, ammo g'alabaga erishilmadi. Bu intervensiya barcha mamlakatlarda norozilik uyg'otdi. Muvaffaqiyatsizliklar va obro'ning to'kilishidan g'azabga kelgan sovet militaristlari qurolli kuchlarni ko'paytirishni talab qilishar, ogohlantiruvchi yadro zarbasi g'oyasini qo'llab-quvvatlar va «butun mamlakatni harbiy lagerga aylantirish»ga intilardi. 1984 yilda uchta «operativ-strategik teatrlar»da G'arbiy, Janubiy va Uzoq Sharq bosh qo'mondonliklari tuzildi.

Sovet rahbariyati na XXR bilan aloqalarni yaxshilashning, na Yevropa mamlakatlaridagi «real sotsializm»ni, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi do'stona tuzumlarni mustahkamlashning, na xalqaro tinchlikni saqlashning va na parchalanib borayotgan jahon kommunistlar harakatida o'z gegemoniyasini tiklashning uddasidan chiqa oldi.

SSSR ichidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat keskinlasha bordi. Aholining mamlakat rahbariyatiga nisbatan ishonchi yo'qoldi. Ko'pchilik sotsializmga sodiq qolsada, ammo har bir kishi o'z foydasi nuqtai nazaridan amal qilar, ikkilama standart asosida hayot kechirardi. Ko'pchilik moslashib turib insoniy or-nomus va erkinlikni tinchlik va mayda imtiyozlarga, fuqaro javobgarligini oddiy, ammo nisbatan barqaror maishatga almashtirdi.

Bunda xo'jalikda band bo'lganlar asosiy qismi uchun ishdan qoniqmaslik, past intizom, ish vaqti va uskunalardan noto'g'ri foydalanish, mahsulot sifatiga befarqlik, qo'shib yozishlar bilan «pul ishlash»ga va maoshni talon-taroj qilish yo'li bilan to'ldirishga intilishlar xos bo'ldi. Sotsiologlarning aniqlashlaricha, mamlakatning atigi 15-17% mehnatkashlari vijdonan mehnat qilardi.

Tuzum kamchiliklari va dardlaridan o'z maqsadlari yo'lida foydalanuvchilar ko'payib bordi. Jinoyatchilik katta sur'atlar bilan o'sardi. Ichkilikka suyanib qolgan va hafsalasi pir bo'lganlar soni oshib ketdi. Ichkilikbozlik umumxalq odatga aylandi.

Majburiy migratsiya va ish xarakteridan, maoshdan norozilik natijasida yillik ishchi kuchining tashqariga oqib ketishi ishda bandlarning 25-30%ini tashkil etdi. Shu bilan birgalikda korxona va idoralarda ish vaqtining 15-20%i bekorga sarflanar, millmonlab qalbaki ish bilan bandlar bo'lib, aholisi zich joylashgan Janubiy mintaqalarda ish topa olmayotgan ishga layoqatli soni ortib bordi.

Butun mamlakat bo'yicha ongsiz ommaviy davlat monopoliyasiga asoslangan ekspluatatsiya va ishchi-xodimlarning bevosita manfaatlarini poymol qilishga nisbatan norozilik avj olib bordi. Hukumat uni fuqarolar hayotini ma'muriy cheklash orqali bartaraf qilishga urindi, ammo bu kutilgan natijani bermadi, balki qog'ozbozlikni yanada kuchaytirdi. Rahbariyatining barcha bo'g'inlarida xato va qiyinchiliklarni yashirish, tartibsizlik va mas'uliyatsizlik, korrupsiya va poraxo'rlik orqali mansabparastlik kasaliga giriftor bo'lishi kuchaydn. Oliy rahbariyatning ta'siri ham pasaydi, chunki, u Andropov e'tirof etishicha, Sovet jamiyatini yaxshi bilmas edi. Bajarish uchun hech qanday mablag' va vositalar bo'lmasada buyruqlar tez-tez berilib turar,

bajarilishi mumkin bo'lganlari ham bajarilmas edi. Bundan tashqari, tashvish bilan Gorbochev tan olganidek, «butun tuzumda» laganbardorlik, xo'jako'rsinchilik, shaxsiy aloqalar va turli rahbarlar atrofida turli mafiya (klon)lar hukmron edi.

Aholining eng faol qismi o'zgarishga moil edi. Shuning uchun Andropov mamlakatda dushmanona kayfiyatdagi yuz minglab odamlar bor va tuzum qotag'onlar uyushtirishga majbur deb hisoblar edi. Bu odamlar turlicha harakat qilishardi. «Lenincha g'oyalar»ga qaytishga da'vat etishardi, qatog'onlar tufayli yarim unutilgan va yo'qolib bo'lgan o'z elatlari fuqarolarini yoki tili va madaniyatining erkinliklarini himoya qilishardi. Tuzum jinoyatlarini fosh etishni va liberal qadriyatlar - inson erkinligi va huquqlarini himoya qilishni talab ettirishardi. Diniy erkinlikni talab qilishardi, qurollanish poygasiga va Sovet intervensiyalariga nisbatan norozilik bayon qilishardi.

Ustalik bilan amalga oshirilgan ta'qiblar va qatag'onlarga qaramasdan, Y.Orlov, S.Kovalev, V.Bukovskiy, V.Chernovil kabi qo'rqmas kishilar, deyarli hamma respublikalardagi yirik markazlarda, hamda chet elda faoliyat ko'rsatishardi. Ularning chiqishlari, mamlakat ichida yashirin tarzda bo'lsa ham, keng xalqaro ta'sirga ega bo'lib, Sovet totalitarizmiga qarshi kuchlarning birdamligini oshirishga xizmat qildi. A.Soljenitsinning «Gulag Arxipelagi» kitobi va akademik A.Saxarovning mavjud tuzum va uning agressiyasiga qarshi noroziliklari SSSR haqidagi xom xayollarga qaqshatqich zarba berdi.

Tarqoq norozilik bayon qilib chiqqanlar guruhlar ko'p emas edi, ammo butun mamlakat bo'yicha norozilar-dissidentlar (ularni shunday atashardi) soni 250 mingtaga yetardi. Ularning o'z maqsadlariga erishish yo'llari turlicha va o'ta abstrakt (xayoliy) edi. A.Amalrik kabi SSSR parchalanishini oldindan bilganlar juda kam edi. Ammo ular uning xalqlari sharafini fidoiylik bilan himoya qilishardi.

Ularning chiqishlari va aholining passiv qarshiligi hamda noroziligining o'sishi totalitar (mustabid) rejimni egovlardi. Qiyinchiliklarning o'sib borayotganini e'tirof etgan Y.Andropov: «biz bunday qiyin vaziyatda muammolarni bir urinishda hal etolmaymiz, agar biz barcha yo'llarni ochsak va xalq o'z baxtsizlik va noroziliklarini to'kib soladigan bo'lsa, bu oqim bizni yutib yuboradi va biz uni to'xtata olmaymiz»-degan edi. Inqirozga endi beparvolik bilan qarab bo'lmasdi, ammo uni qanday bartaraf qilish kerakligini ham hech kim bilmas edi.

Mustabid tuzumni qayta qurish va qismlarga ajratish

O'sib borayotgan «salbiy holatlar» oqimini bartaraf etish yo'llarini izlashni faollashtirish maqsadida Siyosiy Byuro 1985 yilning mart oyida Bosh kotib lavozimiga o'z a'zolari ichida eng layoqatli bo'lgan M.Gorbachevni olib chikdi. Albatta, bu «sodiq leninchilar» taraqqiyot yo'lini hech qachon o'zgartirmaslikni hoxlardilar va agar ular tanlagan bosh kotibning kelajakda nimalarga qo'l urishini bilganlarida uni tanlash to'g'risida hech qanday gap so'z bo'lishi mumkin emas edi. Gorbachevning o'zi ham Siyosiy Byuroda: «Biz siyosatni o'zgartirishimiz shart emas. U to'g'ri, haq va haqqoniy siyosatdir»- deb bayon qilgan edi.

Oligarxiyadagi buzilmas tartib tufayli oliy hokimiyat «oqillik» va javobgarlikka ega bo'lgan Gorbachev hamkasblarini aldamayotgan edi. U paytda qiyinchiliklarni bartaraf etishga ishtiyoq totalitar tuzumining barham topishi va keyinchalik oliy maqsaddan voz kechishga olib kelishi uning xayoliga ham kelmagan edi. U «real sotsializm» krizisga uchraganini tan olmasdan, maslakdoshlari va mamlakatni sinov va xatolar yo'lga boshladi. Sovet-partiyaviy an'analariga ko'ra u avtoritar faoliyat ko'rsatdi.

Avvaliga u ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish shiorini o'rta tashladi. Ammo tezda eskirgan asbob-uskuna va texnologiyalarni eng yangilariga almashtirishga ko'proq e'tibor berilishi boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarish qisqarishiga olib keldi. Buni amalga oshirish uchun vositalar ham yetarli emas edi.

Ayniqsa ichkilikbozlikka qarshi olib borilgan ayovsiz kurash bir tomondan alkagolizmni kamaytirgan bo'lsada, ikkinchi tomondan odamlar sog'ligi va ishlab chiqarishga zarar yetkazdi, budjetni bir necha yil spirtli ichimliklarni sotishdan keladigan foydadan - 200 milliard so'mdan (rubldan) mahrum qildiki, bu mamlakat byudjntiga qattiq zarba bo'ldi.

Rivojlanishni jadallashtirish maqsadida intizom qat'iylashtirildi. Sanoatda ishlab chiqarish sifatini yaxshilash maqsadida uni davlat qabul qilib olish tartibini joriy qildi. Ishchilarning tashabbuskorligi va javobgarligini oshirish uchun mehnat jamoalari to'g'risidagi qonun, ularga hattoki rahbarlarni saylashgacha bo'lgan keng huquqlarni berdi. Ammo ishlab chiqarilgan mahsulotning davlat tomonidan qabul qilinishi mahsulotning ilmiy-texnik darajasini ko'tardi, ishchilardagi «xo'jayinlik tuyg'usi» esa «jamoaviy xudbinlikda», ya'ni «qo'lay» rahbarlarni tanlash, narxlar va oylikni ixtiyoriy ko'tarishda namoyon bo'lib, u xo'jalik va jamiyatga katta zarar yetkazdi.

Sanoatda odamlar xavfsizligi ta'minotini inobatga olmaslik oqibatida 1986 yilda Chernobilda yadro reaktori portlashi yuz berdi, u ko'pgina mamlakatlarga zarar yetkazdi va keng mintaqa aholisi uchun fojiga aylandi.

Iqtisodiyotning ko'p tarmoqlarini o'zgartirish zarurligiga ishonch hosil qilgan Gorbachev ilgari Xrushev tomonidan qo'llangan qayta qurish ishlarini o'rta tashladi. KPSSning 1986 yil boshidagi syezdi uni qo'llab-quvvatladi va mehnatkashlarni «sotsialistik o'zaro yordam va talabchanlikni» oshirishga chaqirdi va qisqa muddatda ishlab chiqarishni keskin oshirish, mehnat unumdorligini oshirish, mamlakatni uy-joy va oziq-ovqat bilan ta'minlanish muammolarini hal qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

1987 yilga kelib aholi extiyoji uchun zarur mollar va budget tanqisligini bartaraf qilishga urinib, oliy hokimiyat organlari Gorbachev tashabbusi bilan iqtisodiyot boshqaruvini tubdan qayta qurishga kirishdilar, davlat korxonalari, vazirliklar, respublika idoralari, ta'minot tizimlari, banklar mavqeini o'zgartiruvchi qaror va qonunlar hamda keng ijtimoiy dasturlar qabul qilishdi. Bu choralar xo'jalikni ma'muriy ko'rsatmalar orqali boshqarishni shartnomaviy boshqaruvga almashtirdi, ammo ular har doim ham bir-biri bilan mos tushmas va rejalarining bajarilishini kafolatlay olmasdi. Dasturlarni amalga oshirish uchun esa vositalar yo'q edi.

Ko'rilgan choralar natijasida hokimiyat tomonidan aholi iste'moli uchun yo'naltirilgan mahsulotlar ulushi biroz ko'tarildi. Ishchilarning o'z-o'zini moliyalash, pudrat va ijara asosida ishni tashkil qilish joriy qilindi, rahbarlar ishlab chiqarishni aholi extiyojlariga yo'naltirish, mehnatga haq to'lashni esa uning natijasi bilan bog'liq tarzda amalga oshirishga harakat qilishardi. Keyin kooperativ, mohiyatan ishbilarmonlikka asoslangan, individual mehnat faoliyatiga ruxsat etildi va qonunlashtirildi. Hokimiyat ruxsati bilan qo'shma korxonalar, hatto chet elliklar ishtirokida tuzila boshlandi. Bu choralar aholini davlat tomonidan ekspluatatsiya qilinishining markazlashishini susaytirib, ekspluatatsiya vazifalarining bir qismi tarmoqlar va korxonalar rahbarlari qo'lga o'tdi.

Ammo bolangan iqtisodiy tashabbuskorlik (ishbilarmonlik), sovet sanoatining asosi - harbiy-strategik sanoati u yoqda tursin, hattoki iste'mol mollari ishlab chiqarishni va xizmat ko'rsatishni ham qamrab olmagan edi.

1985-1989 yillarda budget tanqisligi 5 marta oshdi, ammo uni bartaraf etish uchun amalga oshirilgan emissiya SSSR ichki qarzlarini 2,5 martaga - oshirdi. Iqtisodiyot va jamiyatdagi «salbiy holatlar» ko'payishni davom ettirdi. Bu yo'nalishda islohotlar ish bermayotgan edi.

Ammo iqtisodiyotni qayta qurish davom etardi. 1988 yil yozidagi KPSSning Butunittifoq konferensiyasi iqtisodiy o'zgarishlarni chuqurlashtirishga qaror qildi: davlat buyurmali va ko'rsatmalari asosidagi ma'muriy boshqaruvni cheklash, to'la xo'jalik hisobini va uning shaklini mehnat kollektivlari tomonidan tanlanishini joriy etish, hamda iqtisodiy o'z-o'zini boshqarish vazifalari qo'yildi. Iqtisodiyotni liberallashtirishga qaratilgan bu qadam ko'pgina xo'jalik rahbarlarini esankiratib qo'ydi va harbiy sanoat qo'rg'onlariga duch keldi. Ishlab chiqarish o'sishi sekinlashdi va 1990 yilga kelib dunyo Yalpi Mahsulotida SSSR hissasi 8% gacha pasaydi va eng asosiysi oziq-ovqat va boshqa mahsulotlar tanqisligi oshdi. «Magazin (do'kon)lar peshtaxtalarida zarur oziq-ovqat mahsulotlari tobora kam paydo bo'lmokda;... - oxirgi paytlarda baliq, go'sht, yormalar, makaron mahsulotlari savdodan umuman yo'qoldi»- deb joylardan MKga xabarlar kelardi. Oziq-ovqat va eng oddiy sanoat mahsulotlarini «izlab topish» tobora qiyinlashib borar, narxlar ko'tarilib borar, navbatlar cho'zilar, olib sotarlik avjiga chiqayotgan

edi. Hukumat tomonidan ko'tarib chiqilgan «Kuchli ijtimoiy siyosat» shiorini amalga oshirish uchun zahiralari yo'q edi.

1986 yildayoq Gorbachev va uning izdoshlari faqatgina iqtisodiyotni qayta qurish ahamiyati va jozibaliligini ta'kidlab uni inqilob deb atadi. Uning to'g'ridan-to'g'ri xalqqa qayta qurish haqidagi da'vatlari bilan murojaat qilishlari unga Siyosiy Byuroda tan olingan daxlsizlikka erishishiga yordam berdi. Ikki yil ichida u Siyosiy Byuro a'zolarining 70% ini «qayta qurish ish boshqaruvchilari» B.Yelsin, A.Yakovlev, E.Shvardnadze va boshqalar bilan almashtirishga ulgurdi. MK (Markaziy Qo'mita) tarkibi 40%ga yangilandi.

Ko'pgina partiya va davlat arboblarning mutaassibliigi va rasmiyatchiligiga duch kelgan Gorbachev Stalinchka «deformatsiya» va «tormozlash mexanizmini» bartaraf etishga «sotsialistik demokratiya» va «xalqning o'z-o'zini boshqarishi»ni rivojlantirishga da'vat etdi. Uning tashabbusi bilan Siyosiy Byuro va MK oshkoralikni - ancha ilgari yo'q qilingan so'z erkinligini sotsializm doirasida e'lon qildi. Kamchiliklarning va ko'pgina rahbarlar faoliyatining quyidan turib tanqid qilinishi, fuqarolar tomonidan o'z takliflarining o'rta tashlanishi va tarqoq holdagi ommaviy chiqishlar qayta qurishning kengayishi va chuqurlashuviga olib keldi. Natijada viloyat partiya tashkilotlarida 60% kotiblar, hamda ko'pchilik Sovet va xo'jalik rahbarlari almashtirildi.

Mo'ljalni aniq belgilash va qayta qurish konsepsiyasini ishlab chiqish qiyin edi. 1987 yil kuzida Gorbachevning «qayta qurish va yangicha fikrlash mamlakatimiz va butun dunyo uchun» nomli kitobi chikdi. Unda u umuminsoniy qadriyatlar ustunligi va barcha mamlakatlar xalqlari ularning atrofida birlashishi zarurligi haqida yozgan edi. Bu M.Gorbachevga SSSR oliy rahbariyat organlari qo'shma yig'ilishida o'z so'zlariga ishonitirishiga xalaqit bermadi: «Biz yangi olam sari kommunizm olami sari bormoqdamiz». «Bu yo'ldan biz hech qachon chekinmaymiz!». Kitobida esa u gap «umumxalq sotsialistik davlat», «jamoaviy mulk» boshqaruvdagi partiyani o'zgartirish haqida emas, balki ularni rivojlantirish va chuqurlashtirish, SSSRning ichki va tashqi o'tkir muammolarini ochishga noan'anaviy yondoshishni o'zgartirish, markscha-leninchka yondoshuv va jamiyatni yaxshi bilmaslik natijasida konsepsiyasini ishlab chiqish qiyinlashayotgan yangicha siyosat yuritish zarurligini tan olishdan iborat edi.

Gorbachevning «yangilanish mafkurasi» bilan chiqishi konservatorlar («prinsiplaridan voz kecha olmaydigan»), mo'tadil «yangilanganlar» (sotsializmni insonparvar, demokratik qilish uchun), radikallar («ko'p partiyaviylik, respublikalar va fuqarolar huquqlarini kengaytirish uchun») o'rtasidagi qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'ldi.

1988 yildagi KPSSning Butunittifoq konferensiyasi biroz ikkilanib siyosiy tizimni qayta qurish, ichki partiyaviylik demokratiyasini tiklash va qatag'on qurbonlarini oqlashni davom ettirishga qaror qildi.

Gorbachev KPSS rolini mustahkamlashga da'vat etar va shu bilan birgalikda shaxs huquq va erkinliklarini kengaytirish orqali odamlarning qayta qurishda ishtirokini ta'minlashga harakat qildi. Konferensiya delegatlarining deyarli yarmi bunday o'zgarishlarga qarshi bo'lib, uni asosiy yo'nalishdan chekinish deb hisoblashardi.

Konferensiya kommunistik partiyaning mafkuraviy-siyosiy monopoliyasini saqlagan holda kengashlar, kasaba uyushmalari va boshqa tashkilotlarni an'anaviy ma'muriy buyruqbozlik bilan boshqarishdan voz kechish va ularning, ayniqsa kengashlarning rolini oshirishga qaror qildi.

Unutilgan «Butun hokimiyat sovetlarga!» shiorini o'rta tashlab «xalq hokimiyati»ni tiklash va «Sotsialistik huquqiy davlat»ni shakllantirish maqsadida markaziy, respublikaviy va mahalliy sovetlar va ular bilan birga sudlarga mustaqillik berishga intilar, ularning tuzilishi va shakllanish usullarini o'zgartirishardi. Partiya va davlat organlari funktsiya (vazifa)larining ajralishi boshlandi. Bu ilgari hokimiyatni susaytirdi va parchaladi. Siyosiy va iqtisodiy plyuralizm (xilma-xillik) siz yangi hukumatni barpo qila olmasdi.

Mamlakatda va Partiya ichida ham sotsializm va demokratiyaning talqini to'g'risida keskin bahs-muzokoralar boshlanib ketdi. 1988 yil oxiriga kelib liberalizm individual erkinlik va huquqlar ustunligi va natsionalizm o'z millat (elat)ining manfaatlari ustunligi tarafdorlari paydo bo'ldi. O'z ixtiyori bilan faoliyat yuritayotgan ko'pchilik kommunistlar ishtirokida ijtimoiy

uygʻonish boshlandiki, u koʻpgina turli qiyofadagi «norasmiy» - noqonuniy, taʼqiqlanmagan tashkilotlarning va ommaviy harakatlarning, hattoki xalq frontlarining paydo boʻlishiga olib keldi. KPSS nafaqat mamlakat muammolarini hal qilish yoʻllarini muhokama qilish boʻyicha monopoliyadan mahrum boʻldi, balki shu bilan birga xalq ommasi kayfiyati va hatti-harakatini boshqarish imkoniyatidan ham mahrum boʻldi, sovet jamiyatining parchalanishi boshlandi.

Jamiyatning yangi siyosiy tuzulishi, SSSR yangi Oliy organiniig vazifalari va saylovlari toʻgʻrisidagi SSSR konstitutsiyasiga oʻzgarishlar kiritish haqidagi qonunlar hukumatlarni taqsimlash, saylovchilar va mintaqalarning emas, hattoki saylovchilarning oʻzaro teng huquqligini ham taʼminlay olmasdi. Ular «boshqariladigan demokratiya» tizimini yaratishga yoʻnaltirilgan edi. Siyosiy Byuro va ular tomonidan boshqariladigan tashkilotlar oʻz vakillari uchun toʻgʻridan-toʻgʻri joylarning uchdan biriga ega boʻlishardi. Ammo sovet saylovchilari 1989 yil bahorida ilk bor bir nechta erkin nomzodlardan xalq deputatlari syezdiga oʻz delegatlarini saylash imkoniyatidan mamnun edilar.

Saylovlarni KPSS organlari boshqarar va saylovchilarning 80%i kommunistlar edi, ammo partiyaviy intizomning susayishi bois ularni boshqarish qiyinlashdi. Albatta, koʻpchilik Y.Afanasyev nomlaganidek «agressiv itoatkor» edi. Gorbachev syezd tashkil etgan Oliy Sovet raisi etib saylandi, ammo uning (sovetning) «stalincha brejnevcha» koʻpchiligiga ozgina radikallarni qoʻshishga majbur boʻldi.

Radikallar qayta qurish dushmanlari va Gorbachev sustkashligini tanqid qilib, SSSRning asosiy maqsadini shubha ostiga qoʻydi. Ular tomonidan A.Saxarov va B.Yelsinlar rahbarlik qilayotgan mintaqalararo deputatlar guruhi tashkil qilindi, qonuniy muxolifat tiklandi.

Navbatdagi Syezdda, kuzga kelib faollashgan radikallar «sotsialistik yangilanish» uchun, KPSS monopoliyasini siyosiy plyuralizm bilan, unitar davlatni Saxarov (dekabrda vafot etgan) konstitutsiya loyihasida koʻrsatilgan erkin respublikalar ittifoqi bilan almashtirishni, mulkchilikning turli shakllari va bozor munosabatlarini eʼtirof etishni talab qilishdi. Bunda ular, buning hammasini aholi turmush darajasini yomonlashtirmasdan turib amalga oshirish mumkin deb ishonitardi. Bunday chiqishlar «boshqa bunday yashash mumkin emas!»ligiga ishonganlarga ilhom bagʻishlardi. Mamlakatda miting va namoyishlar koʻpayib ommaviy xarakterga ega boʻldi. Ularda yuz minglab odamlar ishtirok etardi. Ular taʼminotni yaxshilashni, fuqaro va xalqlar huquq va erkinliklarini kengaytirishni talab etishar, byurokratizmga qarshi norozilik bildirar, radikallarni qoʻllab-quvvatlardilar. Bunday talablar bilan chiqqan B.Yelsin mashhur boʻldiki, KPSS rahbariyatining unga tazyiqi uning mashhurligini yanada oshirdi.

1989 yildagi oʻzgarishlar natijasida totalitar tuzum tugatildi. Partiya, davlat va xoʻjalik organlariga «yangicha fikrlashni» oʻzlashtirish qanchalik qiyin boʻlsa, konsepsiyasi endigina ishlab chiqilayotgan yangicha siyosat yuritish undan-da qiyinroq edi. Bu oʻz navbatida hokimiyat taʼsirchanligini susaytirardi. Ijtimoiy uygʻonish qayta qurishni nafaqat oldinga surar balki, undan oshib oʻtayotgan edi. Jamiyat tarkibiy qismlaridagi parchalanishining boshlanishi «boshqariladigan demokratiya»ni shakllantirishni qiyinlashtirdi.

Oligarxiya parchalanishi va ideokratiya (mafкура ustunligi)ning qulashi

Taraqqiyot va qayta qurishni jadallashtirishga harakat qilayotgan Gorbachev va uning tarafdorlari mamlakatda bu oʻzgarishlarni amalga oshirish uchun, dunyoning eng yirik mamlakatlari – AQSH va uning ittifoqchilaridan, va XXRdan qurollanish sohasida orqada qolib ketmaslik uchun sarflanayotgan xarajatlarni kamaytirmay erisha olmasligiga qattiq amin boʻldilar. Gorbachev tan olishicha «mudofaa xarajatlari xalq xoʻjaligining deyarli barcha tarmoqlaridan hayot sharbatini sipqirayotgan edi». Shuning uchun yangilangan sovet rahbariyati xalqaro keskinlikni va qurollanish poygasini toʻxtatishga chaqiriqlarni faollashtirdi. Bu yoʻldagi asosiy narsalar Gorbachevning 1986 yil boshidagi qurollarni qisqartirish toʻgʻrisidagi keng miqyosdagi takliflari, uning KPSS syezdidagi urushda ham, qurollanish poygasida ham gʻoliblar boʻlmasligi haqidagi nutqlari, uning AQSH va boshqa yirik mamlakatlar rahbarlari bilan uchrashuvlari boʻldi. SSSRdagi yirik harbiy xarajatlar zarurligi haqidagi shubhalarni Havo

Xujumiga qarshi Mudofaa tizimi tomonidan xorijiy samolyotning qizil maydongacha uchib borganini payqalmagani hamda Afg'onistondagi urushning be'mani va kelajagi yo'qligi kuchaytirdi. Shu narsa ayon bo'ldiki, SSSRning yuksak texnologiyalar sohasida qoloqligi o'sib borayotgan bir paytda AQSH tomonidan boshlangan yangi qurollanish poygasiga qo'shilish o'z joniga qasd qilish bilan barobardir. Siyosiy byuro mamlakatning tinkasini quritgan konfrantatsiya -qarama-qarshilikni to'xtatishning radikal (keskin) choralarini izlashga majbur bo'ldi.

Mamlakat rahbariyati sovet qo'shinlarini Afg'onistondan chiqarishga rozi bo'ldi, dunyo mamlakatlarini harbiy sohalarda aql-idrok bilan ish yuritishga da'vat etdi, «nol-variant», ya'ni Yevropada Buyuk Britaniya va Fransiya raketalari saqlanib qolgani holda SSSR va AQShning o'rta va qisqa masofaga uchiriladigan raketalarining yo'q qilinishiga rozilik bildirdi.

1988 yilning oxirida esa Gorbachev BMTda «umuminsoniy manfaat» va «umuminsoniy konsensusni izlash» (o'zaro kelishuv yo'llarini izlash) ustunligini ma'qullab barcha mamlakatlar tomonidan yashash tarzining o'z siyosiy va ijtimoiy tartibini tanlash erkinligi» haqida bayonot berdi. Bu, mohiyatan, nafaqat sotsializm manfaatlarining milliy manfaatlardan ham ustunligi to'g'risidagi «Brejnev doktrinasi»dan, balki «proletarcha baynalmilalchilik» va SSSRning lenincha-stalincha dunyoviy maqsadidan ham butunlay voz kechishni bildirar edi. 1989 yil 15-fevralda Sovet qo'shinlarining Afg'onistondan chiqarilishi, keyinchalik SSSRning Yevropaning ko'pgina mamlakatlarida «real sotsializm»ni qulagan voqealarga aralashmaganligi hamda 1988 yil oxirida AQSH bilan sovuq munosabatlar urushini tugatish haqida kelishib olishi bu bayonotlarning naqadar jiddiyligidan dalolat berardi. Kommunistlarning bir butun bo'lgan buyuk maqsadining bir qismidan (Bu maqsad yo'lida SSSR yaratildi va rivojlantirildi) uning rahbariyati tomonidan voz kechildi: ideokratiya (mafura ustunligi) kemtik bo'lib qoldi.

Endi o'tkirlashgan inqiroz tufayli zaiflashgan SSSR, Yevropa va boshqa qit'alarda sovuq urush tufayli o'z ahamiyatini yo'qotgan pozitsiyalarini saqlay olmas edi. Bu ma'lum xarajatni ham talab qilardi. Sovuq urush tufayli ittifoqchilarni qo'llab-quvvatlash be'maniligini anglagan sovet rahbariyati ularga yordam berishni to'xtatdi va ittifoqchilardan mahrum bo'ldi. O'zaro Iqtisodiy Yordam Kengashi (O'YOK) va Varshava Shartnomasi Tashkiloti (VSHT) o'z mavqeini yo'qotdi va a'zolarining qaroriga ko'ra tarqatib yuborildi. Sovet qurolli kuchlari qisqara boshladi. Strategik hujumga mo'ljallangan qurollarni qisqartirish to'g'risidagi yangi kelishuvlar tuzildi.

Mamlakatning zaiflashgani va qayta qurish uchun vaqtdan yutishga intilish muzokaralarda ikir-chikirlarni muhokama qilishga imkon bermas edi. Shuning uchun Gorbachev ko'pincha SSSRda hali ko'pchilik tomonidan tanilmagan va tan olinmaganlar bilan kurashda ko'pincha ularga yon berardi? Yevropa va umuman, butun sayyora aholisi esa, o'n yillar davomida boshidan kechirayotgan dunyo yadro urushidan qo'rquv va vahimadan xolos bo'ldi. Mamlakat ichkarisida tinchlikparvarlik obro'sining tushib ketishiga qaramay Gorbachevning xalqaro maydonda obro'si oshib ketdiki, u 1990 yilda Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi. Bu SSSR dunyoning eng boy mamlakatlaridan qayta qurishni amalga oshirish uchun bir necha milliard dollarni qarzga olish imkonini berdi.

Shu bilan bir paytda 1989 yil kuzidan 1990 yilning yozigacha mamlakatda, ayniqsa Moskva va boshqa yirik shaharlarda turli liberal-demokratik guruhlarining fuqarolarning huquq va erkinliklarini talab qiluvchi va KPSSning mafkuraviy-siyosiy monopoliyasiga e'tiroz bildiruvchi miting va namoyishlari soni oshib boraverdi. Ularda konservatorlar tanqid ostiga olinar va Gorbachevni esa qayta qurish samaradorligi pastligida ayblashar edi. Birinchi may namoyishlarida qizil maydonda ko'pchilik «Yo'qolsin KPSS!» «Gorbachev iste'foga!» kabi shiorlar bilan chikdi. Bir qator mintaqalarda aholi turmushi yomonlashishiga qarshi yirik stachka (ish tashlash)lar bo'lib o'tdi. Hamma joyda kooperativ va xususiy korxonalar paydo bo'la boshladi. Ba'zi norasmiy tashkilotlar partiya va siyosiy harakatlarga aylantirildi. Radikallarni qo'llab-quvvatlovchi ommaviy axborot vositalari ta'siri oshib bordi.

Iqtisodiy va siyosiy xilma-xillikning fuqarolar tomonidan amalga oshirilishi «real sotsializm» doirasidan chiqib ketar, ijtimoiy taraqqiyot yo'nalishi liberal-demokratik tus olar va

qayta qurish tashabbuskorlarini yanada ilg'orroq bo'lishga majbur etardi. May oyida SSSR xalq deputatlari syezdi Konstitutsiyadagi KPSSning rahbarlik roli to'g'risidagi moddani bekor qilishga majbur bo'ldi.

Bunga javoban, Siyosiy Byurodagi mo'tadil «yangilanganlar», Markaziy Qo'mitadagi, partiya va davlat apparatidagi, generallar orasidagi g'azablangan konservatorlar faollashdi. Turli partiyalarning, xususiylar mulk va bozor munosabatlarining paydo bo'lishi, Konstitutsiyadan KPSS ustunligi to'g'risidagi moddaning olib tashlanishi konservatorlar tomonidan SSSR asosiy maqsadning ikkinchi qismidan ham voz kechishdek qaror qabul qilindi. Siyosiy Byuro va MKdagi 1990 yilgi kelishmovchiliklar bosh kotibni daxlsizlikdan mahrum qilib, ayni paytda oligarxiyani falajlab, uning parchalanishini boshlab berdi. KPSSda tarqoqlik yuzaga keldi: ba'zilar «prinsiplardan voz kechish»ni xohlamas, ikkinchilar esa turlicha talqin qilinuvchi partiya va mamlakatning yangilanish tarafdorlari edilar. Uchinchilar, nima qilishlarini bilmasdan hafsalasi pir bo'lar, ko'pchilik esa partiyani tark etdi. KPSS o'zining obro'sini va ishga layoqatini yo'qotdi. «Real sotsializm» mafkurasi, siyosiy tizim va iqtisodiyoti parchalanib ketadi. Susaygan hokimiyatni mustahkamlash uchun uzoq va keskin bahs-munozaralardan keyin 1990 yilda xalq deputatlari syezdi SSSR prezidenti lavozimini ta'sis etdi va may oyida 60% ovoz bilan bu lavozimga Gorbachev saylandi. Prezidentga aylangan bosh kotib radikal raqiblarni «do'stona yashash»ga chorlar, ammo ular o'rtasidagi kurash tobora keskinlasha bordi. Birovlarning tashvishi, boshqalarning quvonchi, inqiloblar-Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida «real sotsializm»ning qulashi va liberallashtirish bilan mustahkamlanib bordi.

Partiyani yangilash yo'li bilan kuchlarni islohotlarga safarbar qilish va mamlakatni birlashtirishga intilib, Gorbachev 1990 yil iyulida KPSSning XXVIII syezdini o'tkazishga muvaffaq bo'ldi. Yelsin va boshqa radikallar partiya saflarini tark etishdi. Mo'tadil «yangilanganlar» esa konservatorlar qarshiligini bartaraf etib, SSSR asosiy maqsadining ikkinchi qismini qayta ko'rib chiqib-marksizm-leninizm konsepsiyasini nafaqat xalq ommasiga balki, kommunistlarga ham tushunarsiz bo'lgan boshqa sotsializm konsepsiyasi bilan almashtirishdi.

Syezdi «insonparvar demokratik sotsializm sari» shiorini qabul qildiki, u plyuralistik demokratik va huquqiy davlat qurishga qaratilgan bo'lib, mulkchilikning turli shakllarini va «boshqariladigan bozor munosabatlari»ni tan olardi. Mamlakatda inson huquq va erkinliklari himoya qilinishi kerak edi. Bu g'oyalarni KPSSning yangi dasturiga kiritishga qaror qilindi.

Bunda partiyaning yetakchilik roli, xilma-xillikka asoslangan demokratiya sharoitida g'oyalarni ishlab chiqish, ommani tarbiya qilishga yo'naltirishdangina iborat bo'lardi. Partiya endi respublika partiyalarining federatsiyasiga aylanib va uning siyosiy byurosi esa respublika rahbarlaridan saylanardi. Qayta tashkil qilingan MK o'zgargan sharoitda partiyaning faollashtirish yo'llarini qidirar va keskin vaziyatlarga mo'ljallab yashirin moliyaviy xazinalar shakllantira boshladi.

Ammo na partiya xodimlari va na oddiy kommunistlar ularning tajribasi va ilgari tasavvurlaridan keskin farq qiluvchi g'oyalarni amalga tadbiq qilishga qodir emas edilar. MKga xabar berishicha ilgari ko'pgina tashkilotlar ishdan chiqdi, mahalliy joylarda tashkil qilinganlari esa ishlolmas edi. «Mahalliy rahbarlarga yo'naltirilgan MKning qarorlari bekorga ketar, ularni hech kim amalga oshira olmasdi. Xalq bilan mustahkam bog'lanmagan partiya apparati o'z qozonida qaynayotgan edi», - degan xabarlar MKga yetib kelardi. Xalq KPSS ishini ko'rmas va sezmas edi. Partiya qayerdadir idoralarda edi. Ko'pchilik KPSSni tark etdi. 1990 yil yanvar oyidan 1991 yil yanvar oyigacha uning a'zolari soni 19,2 dan 16,5 millionga tushdi. qolganlar esa faqatgina rasman partiya tarkibida edi.

Partiya siyosiy kuchdan mahrum bo'ldi. Siyosiy byuro esa o'z tarkibi ustidan boshqaruvni qo'ldan boy bergan va respublikalar manfaatlarini muvofiqlashtiruvchi organga aylanib qolgan bo'lib, oligarxiya xususiyatlaridan mahrum bo'ldi va boshqa ideokratiya (mafura ustunligi)ning oliy inspeksiya bo'lmay qoldi.

Kommunistlarning asosiy maqsadidan voz kechilishi bilan parchalangan «real sotsializm»ni hech qanday kuchga ega bo'lmagan insonparvar demokratik sotsializm g'oyasi bilan almashtirishga urinishga qaramasdan ideokratiya imperiya bilan birgalikda yo'qoldi. SSSR

maqsadlari utopiyaga aylandi, u buyuk maqsadga erishish uchun tuzilgan va rivojlantirilgan mamlakatga umuman o'xshamay qoldi. Ammo 1990 yilda ro'y bergan chuqur o'zgarishlarning tan olinishi uchun ilgari davlat va partiya taqdirini hal qilish uchun bir yildan ortiqroq kurashishga to'g'ri keldi.

Konservator kommunistlar bilan birgalikda sotsialistik yo'lni tanlagan Gorbachev ularga mos kelmaydigan demokratik sotsializm sari yurishga harakat qilib, bozor islohoti va SSSRni yangilash yo'llarini izladi. U sotsializmga bo'lgan sadoqatini faollashgan liberal demokratik kuchlardan himoya qilib, sotsializm va liberalizmni birlashtirishga harakat qildi.

Davlat boshqaruvi va mehnat jamoalarining o'z-o'zini boshqaruvida yuzaga kelgan qiyinchiliklarning obyektiv va subyektiv sabablari dezintegratsiya (parchalanish)ga va ishlab chiqarish hamda taqsimotning qisqarishiga olib keldi. N.Rijkov hukumati bir necha yilga mo'ljallangan rejalarni, sotsialistik iqtisodiyotga ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlarini joriy etish dasturini ishlab chikdi. Ammo uni amalga oshirish sharti parchalanayotgan sovet xo'jaligining barqarorlashuvidan iborat deb hisobladi. Ammo bunga erishilmadi. Rijkov hukumati «mafkraning iqtisodiyotdan ustunligi»ni bartaraf etolmasligini tan oldi. Buning ustiga talab yo'q bo'lgan mahsulotni har qanday vaziyatda ham ishlab chiqarish davom etayotgan edi. Hukumat oziq-ovqat narxlarini uning tannarxi bilan muvofiqlashtiruvchi zarur, ammo mashhur bo'lmagan qonunlarni qabul qilishni ham uddalay olmadi.

O'zgarishlarni rivojlantirish maqsadida Gorbachev 1990 yil yozida Rossiya Bosh vaziri o'rinbosari G.Yavlinskiy tomonidan taklif qilingan va RSFSR Oliy Sovet tomonidan ma'qullangan «500 kun» dasturini qo'llab-quvvatladi. Bu dastur bozor munosabatlariga o'tish uchun narxlarni tezda erkinlashtirish va korxonalarni xususiyashtirishni ko'zda tutardi. Ammo SSSR Oliy Soveti mumkin bo'lmagan narsani, ya'ni Rijkov dasturi bilan birlashtirishni so'radi, u mamlakatdagi o'zgarishlarni izdan chiqardi.

1990 yilda «mamlakat hukumati xo'jalik boshqaruvini qo'ldan boy berdi» - deb hisobladi Qozog'iston rahbari N.Nazarboyev. Yil oxirigacha investitsiyalar 4%ga, sanoat ishlab chiqarishi 1,2% ga, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishi 2,3%ga, Yalpi Milliy Mahsulot (YAMM) 2%ga kamaydi. SSSR Yalpi Milliy Mahsuloti AQSH Yalpi Milliy Mahsulotining 10%ini tashkil etdi. Ishlab chiqarishning qisqarishi ishsizlar sonini ko'paytirdi. Davlat budjeti tanqisligi va uni qoplash uchun emissiya ancha o'sdi, hukumat mehnatga haq to'lashni oshirmadi, oziq-ovqat va boshqa mahsulotlar tobora kamayib bordi. Inflyatsiya bir yilda 119% ni tashkil etdi. Uning keskin oshishi bilan jinoyatchilik tobora avj oldi.

Qayta qurishdan o'z ahvoli yaxshilanishini kutgan xalq norozi edi va uning kutilmagan oqibatlaridan g'azabga kelardi. Turmush darajasining yomonlashuvi va islohotlarning sekinligiga qarshi ommaviy chiqishlar ko'lami 1990 yilda SSSRda misli ko'rilmagan darajada ko'paydi. Yil davomida 16 million odam ishtirokida 10 ming miting, namoyish va ish tashlashlar ro'y berdi. Ularning 2G'3 qismida to'qnashuvlar, tartib buzishlar ro'y berdi. Ish tashlashlarda 17 milliondan ortiq kishi soat (ish samaradorligi birligi) boy berildi. Bu xo'jalikni yanada izdan chiqarib, mamlakatni siyosiy barqarorlikdan mahrum qildi. Bu V.Pavlov yozganidek, «hamma narsani qamrab olgan inqirozning barcha ko'rinishlarda namoyon bo'lishidan» dalolat berardi.

Mustaqillik marshlari

Totalitar tuzumning qulashi, jamiyatning parchalanishi, hokimiyat samaradorligining pasayishi va mafkura ustuvorligining susayishi bilan oldingi mazmunini yo'qotgan davlatchilikning parchalanishi boshlandi. Butunittifoq manfaatlari ustuvorligining buzilishi va xo'jalikning markazlashgan boshqaruvining yo'qolishi bilan elatlar, millatlar va mahalliy mintaqalar manfaatlari oldingi sahnaga chiqdi.

Oshkoralik, milliy chiqishlarning faollashuvi, milliy harakatlar va tashkilotlarning paydo bo'lishi hamda kuchayishiga yordam berardi. Bu tashkilotlar va harakatlar SSSR tarkibida o'z hududlari yoki munozaraviy mintaqalarda yashovchi, turli xil fazalarda, ijtimoiy shakllarda turgan 150 dan ortiq elatlarning xilma-xil intilishlarini ifoda etardi. Umuman milliy o'zlikni

anglash o'sishi natijasida 1990 yilga kelib SSSR aholisining atigi 10%i o'zini «Sovet xalqi»ga mansub deb bilsa, qolganlari uzlarini o'z xalqi, millat va qabilalariga tegishli deb hisoblardi.

Qayta qurishning birinchi yillaridayoq SSSRda millatlararo munosabatlar murakkablashdi. Ruslashtirishga qarshi, shimol xalqlarining tirik qolishi uchun, qatag'on qilingan xalqlarni to'la reabilitatsiya qilish talabi bilan, kichik millatlarga qarshi siyosatni qoralab va muxtoriyatlarning huquqlarini kengaytirishga chaqiruvchi chiqishlar yuzaga keldi. 1988-1991 yillarda bu sohada 150 dan ortiq to'qnashuvlar ro'y berdi. Ularning 20 tasida qurbonlar bo'ldi, 600 kishi halok bo'lib, o'n minglab kishilar qochishga majbur bo'ldi. Sumgaitdagi armanlarning qonli to'qnashuvi, Tog'li Qorabog'dagi arman-ozarbayjon urushi, Farg'ona vodiysi, Yangi O'zgan, Abxaziya, Dubossari, Janubiy Osetiya, Ingushetiyadagi millatlararo to'qnashuvlar avj oldi. Armaniston va Ozarbayjon o'rtasidagi urush mamlakatni larzaga keltirdi. Ittifoq markazi bu voqealarning oldini olishga na qurbonlar sababchilarini jazolashga va na bahs munozaralarni hal etishga muvaffaq bo'ldi. Bu uning obro'sini tushirdi.

Ittifoqdosh va ba'zi muxtor respublikalarda milliy harakatlar, asosan, ona tili va madaniyatni himoya qilishdan, milliy o'zlikni anglash, tiklanish va qayta qurishni qo'llab-quvvatlashdan boshlanar edi. Rossiyadan tashqari barcha respublikalarda milliy tilga davlat tili maqomining berilishi ideokratiya tomonidan yaratilgan yagona rus tilidagi boshqaruvni yo'qqa chiqardi. Milliy madaniyat ustunligini ta'minlash, uni SSSRning barcha xalqlari madaniyatini birlashtiruvchi «sotsialistik mazmun»dan xolos etardi, SSSRning madaniy-mafkuraviy birligiga zarba berardi. Milliy o'zlikni anglashning tiklanishi milliy manfaatlarining sotsialistik va Butunittifoq manfaatlaridan ustunligini bildirar edi. Bunda 1991 yilga kelib shu narsa ma'lum bo'ldiki, ittifoqdosh respublikalar o'rtasidagi 23 ma'muriy chegaralardan atigi uchtasida to'qnashlar ro'y bermagan.

Shu bilan birga kichik millatlar - turli respublika va muxtoriyatlardagi 60 million kishining hududlari va madaniyatining rivojlanishi hamda Shimol kam sonli xalqlarining saqlanib qolishi muammolari keskinlashdi.

Aholini eng zarur narsalar bilan o'zlari ta'minlash kerakligiga ishonch hosil qilgan respublika rahbarlari respublikalarni xo'jalik hisobiga o'tkazishni talab qildilar. Bu narsa respublikalarni xalq xo'jaligi kompleksining asosiy subyektlariga aylantirilishini bildirar edi. SSSRdagi ishlab chiqarishning 80%iga egalik qiluvchi sohaviy idoralar bunga yo'l qo'yishni istamas edilar. Siyosiy Byuro, 1990 yilda eng avvalo bu idoralarning manfaatlarini hisobga olib shu qarorga keldiki, respublikalarga ularda yaratiladigan boylikning ko'pi bilan 15%ini qoldirib, 85 %ini Ittifoq markaziy idoralariga berishi kerak edi. Bu respublikalarni hech qoniqtira olmas edi va ular o'zlariga konstitutsiya taqdim etgan, ammo aslida sarob bo'lgan mustaqillik suverenitetlarini amaliyotiga oshirishlaridan boshqa choralari qolmadi. Uning e'lon qilinishi va amalga tadbiq etilishi respublikalardagi barcha ishlab chiqarish va tabiiy resurslari ustidan respublikalar hokimiyatining o'rnatilishiga, respublika qonunlarining ittifoq qonunlaridan ustunligiga va mustaqil tashqi siyosatga ega xalqaro munosabatlar subyekti huquqlariga ega bo'lishga qaratilgan edi.

Ko'pchilik respublikalarning mustaqillik deklaratsiyalarida ularning SSSR tarkibidan chiqishlari qayd etilmagan bo'lsa-da, mustaqillikning amalga oshirilishi respublika rahbarlari so'zlari va xohishlaridan qat'iy nazar Ittifoq markaziga bo'ysunishni puchga chiqarar, Ittifoq davlatchiligini barbod qilardi. SSSR tarkibidan chiqishni respublikalar o'z mustaqillik deklaratsiyalarida bayon qilishdi. Markaz respublikalar ustidan hukmronlikdan mahrum bo'ldi va SSSR parchalana boshladi. Ular bu respublikalar o'rtasida yagona mafkuraviy-siyosiy yo'nalish va hayotiy maqsad bo'lganda yangi konfederativ munosabatlar o'rnatilishi mumkinligini inkor etmas edi; ammo bu SSSR emas, balki boshqa bir mazmundagi konfederativ davlat bo'lar edi.

Gorbachev 1988 yildan boshlangan respublikalarning ketma-ket mustaqilliklarini e'lon qilishlarini kinoya bilan «suverenitetlar marshi» deb atagan edi. 1988 yil noyabr oyida Estoniya oliy soveti mustaqillik deklaratsiyasini ma'qulladi va respublika konstitutsiyasiga ham mos o'zgartishlar kiritdi. Kelasi yil may oyida esa SSSRdan chiqish to'g'risida qaror qabul qilindi.

1989 yil kuzida Gruziya aholisining ko'pchiligi uning mustaqilligini tiklash uchun ovoz berdi va 1991 yil aprel oyidagi referendumdan so'ng mamlakat mustaqil deb e'lon qilindi, Moldaviya respublikasi 1989 yilda o'zining suverenitetini, 1990 yilda mustaqilligini e'lon qildi. 1990 yil bahorida Litva va Latviya o'z mustaqallik va suverenitetlarini tiklab olishdi. 1990 yil yozida Rossiya, Ukraina, Belorussiya, O'zbekiston va Turkmanistonning suverenitetlari e'lon qilindi. 1990 yil oktabrida Qozog'iston, dekabrda Qirg'iziston o'z suverenitetlarini e'lon qildilar. 1990 yilda ittifoqdosh respublikalardan tashqari Tog'li Qorabog', Abxaziya, Janubiy Osetiya, Gagauzlar respublikasi va Dnepr bo'yi Moldaviya respublikasi o'z suverenitetini e'lon qildi.

Bo'lib o'tgan yangilanishlarning tashqi tomonidan ko'ra ichki pritsial o'zgarishlari muhimroq edi. Ko'pchilik respublikalarning suvereniteti va mustaqillik e'lon qilishlari ularda hokimiyat tepasiga milliy-liberal, milliy demokratik yoki liberal-demokratik kuchlarning kelishi bilan bog'liq edi. Ular yoki ular tomoniga o'tgan ilgarigi raxbarlar sodiq kommunistlarni hokimiyatdan chetlashtirar yoki o'zlariga bo'ysundirar, sotsialistik yo'ldan voz kechar, milliy, liberal yoki demokratik qadriyatlarni qo'llab-quvvatlar edilar. Respublikalardagi ijtimoiy-siyosiy tizim shunga mos ravishda o'zgarib borardi. Ularning ba'zilarida mustaqillikka va yangi yo'lga faol qarshilik ko'rsatgan kommunistik tashkilotlar ta'qiqlanib, ularning mulki milliylashtirilgan edi.

Respublikalardagi ijtimoiy-iqtisodiy va mafkuraviy-siyosiy sohadagi yirik tafovutlar ularda yagona va bir vaqtda amalga oshiriladigan islohotlarni yo'qqa chiqarar, ularda yangi mafkuraviy-siyosiy yo'nalishning ishlab chiqilishi esa ularning mustaqillikka bo'lgan intilishlariga nisbatan ancha nomutanosib edi. Bu jarayon 1988 yildan boshlanib, 1990 yilda ko'pgina respublikalarda ro'y berdi va 1991 yilning oxiriga kelib, sotsialistik yo'lga sodiq bo'lgan kommunistlar faqatgina Belorussiya, Ozarbayjon va Tojikistonda hokimiyat tepasida qolgan edi. Bu respublikalarning suverenitet va mustaqillik e'lon qilishlaridan ham ko'ra SSSRdagi sotsializmga yo'naltirilgan davlatchilikka qattiqroq zarba berildi. Undan faqatgina xarobalar qoldi, xolos. O'sha paytda respublikalarning mafkuraviy-siyosiy uzoqlashuvining ahamiyatini xalqlar u yoqda tursin, balki ba'zi rahbarlar anglamagan bo'lsa-da, aynan shu narsa yagona davlat parchalanishini qaytmas jarayonga aylantirdi.

Respublikalar uchun mustaqillikka va suverenitetga erishish, ayniqsa, mafkuraviy siyosiy yo'lni o'zgartirish oson bo'lmadi, Gorbachev Siyosiy Byuro, Markaziy qo'mita, KPSSning syezd va konferensiyalari, hamda xalq deputatlari syezdi respublikalarning suverenitetga ega bo'lishlariga iloji boricha qarshilik ko'rsatdi. Siyosiy Byuro va MKning milliy siyosatga bag'ishlangan plenumlaridan birida, partiya syezdlari tomonidan Sovet rahbariyatining bir qator elatlarga nisbatan yo'l qo'ygan xatolari sharhlab berildi, «Lenincha milliy siyosat»ga kiritilgan tuzatishlar tushuntirildi. Ularning rahbarlari milliy harakat o'choqlarida bo'lishdi, MKning Boltiqbo'yi respublikalari bo'yicha maxsus komissiyasi tuzildi. Gorbachev respublikalarga tobora ko'proq ahamiyat berardi. Ittifoqning partiya va sovet organlari respublikalarning rahbarlari va xalqlariga qaratilgan ko'p sonli murojaatlarida va ommaviy axborot vositalari orqali respublikalarning SSSRdan tashqari yashay olmasligini va muvaffaqiyatli qayta qurish va xalqlar farovonligi uchun Ittifoq davlatini saqlab qolish zarurligini isbotlashga harakat qilishardi. Ittifoqdosh va muxtor respublikalar erkinligini kengaytirish, Ittifoq markaziga esa faqat umumiy muammolarni hal qilish vakolatini berish taklif qilindi. Ammo shu bilan birga sotsialistik yo'lning ustunligi, yagona davlatning oliy rahbariyati belgilovchi jamiyat manfaatlari himoya qilinardi. Ilgarigidek milliy manfaatlar ustunligi-millatchilik va sotsialistik yo'ldan voz kechish qat'iy qoralanar edi. Bu esa kelishmovchiliklarning sababi edi.

Respublikalarning suverenitetiga intilayotgan rahbarlarni xudbinlik va mansabparastlikda ayblashardi. Respublikalardagi mustaqillikka qarshi bo'lgan kuchlar baynalmilal frontlar, kommunistik tashkilotlar va hokazolar ochiqchasiga va yashirincha qo'llab-quvvatlandi. Ittifoqdosh respublikalardagi mustaqillikka intilishni ayirmachilikni qo'llab-quvvatlash, ya'ni ulardagi kichik millatlarning (abxazlar, osetinlar, yoqutlar, polyaklar, gagauzlar va boshqalar) suveren bo'lishga intilishlari bilan qo'rqitish orqali to'xtatishga harakat qilindi. Mustaqillik e'lon qilgan respublikalarga qarshi iqtisodiy jazo (sanksiya) choralari, qamallar qo'llandi. Bu choralari

respublikalar xo'jaligi va aholisiga zarar keltirdi, ammo millatchi-vatanparvarlarni to'xtata olmadi.

Ittifoq hukumati suverenitetga erishishga qaratilgan respublikalar qonunlarini bekor qiluvchi qonunlarni qabul qilar, respublikalar hukumatlari esa o'z qonunlari ustunligida ustivor edilar. Ittifoq hukumati tomonidan qabul qilingan qonun respublikalarning SSSRdan chiqishini butunittifoq referendumida ma'qullanganidan keyingina ruxsat etishligini ma'lum qildi. Aslida bu SSSRdan chiqmaslik to'g'risidagi qonun bo'lib, respublikalar uni e'tiborga olishmadi.

1988-1990 yillarda Yerevan, Stepanokert, Dushanbe, Tbilisi, Boku va bir qator boshqa shaharlarda mustaqillik tarafdorlariga qarshi qurolli kuchlar ishlatildi, qurollangan maxsus qismlar safarbar qilindi. Buning oqibati yuzlab qatl etilganlar, yaradorlar va hibsga olinganlardan iborat bo'ldi. Ammo qurolli kuchlar qarshilikka va parchalanayotgan tuzumga qarshi bo'lganlarning kuchayib borayotganligiga duch keldi. Hatto yirik ommaviy namoyishlar qo'shinlar yordamida bostirilgan Yerevan, Dushanbe va Bokuda milliy harakatlar yangi kuch bilan alanga oldi.

Rossiyada 1990 yil yanvaridayoq Rossiya xalq deputatlari syezdida tayyorgarlik davomida «Demokratik Rossiya» bloki tuzilgan edi. Bahorga kelib unga yangi tuzilgan bir qator partiyalar qo'shildi va u liberal-demokratik tus oldi. Uning a'zolari soni atigi bir necha o'n ming kishidan iboratligiga qaramasdan, uning inson huquq va erkinliklari ustunligi, demokratlashtirish va Rossiya suverenitetini qo'llab-quvvatlovchi shiorlarini RSFSR ning barcha mintaqalarida ro'y berayotgan miting, namoyish va stachkalar (ish tashlashlar)ning yuz minglab qatnashchilari qo'llab-quvvatlayotgan edi.

Rossiyaning ko'pgina kommunistlari «inson qiyofasidagi sotsializm» tarafdorlariga aylanishdi va KPSSda «Demokratik qanot»ga yon bosdilar. Bahorda bo'lib o'tgan Rossiya kompartiyasining ta'sis syezdi (qurultoyi)da «delegatlar partiyasining asosiy vazifalari haqida hech qanday tasavvur yo'kligi» ta'kidlandi. Ammo siyosiy byuro yordami bilan syezdda konservatorlar g'alaba qilishdi va respublika kompartiyalari ichida eng ko'p sonli bo'lgan Rossiya kompartiyasi Demokratik Rossiyaga qarshi qo'yildi.

Turli partiyalar o'rtasidagi keskin kurash 1990 yil bahorida Rossiya xalq deputatlari syezdi saylovida bo'lib o'tdi. Saylanganlarning 86%i kommunistlardan iborat edi, ammo ularning ko'pchiligi kompartiya ko'rsatmalariga endi bo'ysunmas edi. Shuning uchun Rossiya Oliy Soveti shakllanishida liberal demokratlar qat'iy g'alabaga erishishdi. Gorbachev tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan nomzodlarga qarshi keskin kurashdan keyin RSFSR Oliy Soveti raisi etib B.Yelsin saylandi. Bundan tashqari bu Oliy Sovet 1990 yilning 12 iyunida Rossiyani suveren, ya'ni o'z ishlab chiqarish va tabiiy resurslarining to'laqonli xo'jayini deb e'lon qiluvchi deklaratsiyani qabul qildi. Deklaratsiya Rossiyaning ijtimoiy-siyosiy tuzilishini yangilash yo'lidan birinchi qadam bo'lib, xalq hokimiyati, hukumatning taqsimlanishi, fuqarolarniig huquq va erkinliklarining himoya qilinishi, partiyalarning teng huquqliligi va Rossiya qonunlarining ustivorligini e'lon qildi. Bu sana Rossiyaning mustaqilligi bayrami kuni bo'ldi. Keyinchalik hukumat to'g'risidagi dekret orqali Rossiyada KPSSning rahbarlik maqomini bekor qilishga kirishildi. 1991 yil boshida esa Rossiya Oliy Soveti «RSFSRda mulk to'g'risida»gi qonunni qabul qildiki, u ishlab chiqarish vositalari, jumladan yerning xususiy mulk bo'la olishini e'tirof etdi.

Rossiya va bir qator boshqa ittifoqdosh respublikalarning mustaqillikka erishishi va liberal yo'nalishni tanlashga intilishlari markazi «sotsialistik yo'lga» sodiq qoluvchi SSSRni parchaladi. Siyosiy Byuro «barqaror tartib buzilganini, ko'p millatli Sovet davlatining birligi xavf ostida qolganligini» e'tirof etishga majbur bo'ldi.

G'ayriixtiyoriy inqilob va butunlay qulash

Sotsializm himoyachilari bilan liberalizm tarafdorlari o'rtasida unitar (mamlakat bir butunligini saqlab qolmoqchi bo'lgan kuchlar bilan) milliy suverenitet kurashchilari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar tobora keskinlashib borar va hukumat nazoratidan chiqa boshlagan edi.

Bir necha muvaffaqiyatsizliklar va Rossiyadagi yirik magʻlubiyatga qaramasdan Gorbachev sotsializmni qayta qurish uchun kurashni davom ettirdi va SSSRni yangilash shiorini oʻrtaga tashladi. 1990 yil oxirida tajovuzkor konservatorlarning ishonchsizligi va malomatlariga qaramasdan u faollashgan sotsializm va SSSR yagonaligini liberallar va millatchilardan himoya qiluvchilarning «sogʻlom konservatizmi»ga ijobiy baho berdi. Bu konservatorlar va «demokratik sotsializm» tarafdorlarini birlashtirish maqsadida Gorbachev oʻzini «sentrist» deb, qayta qurish muvaffaqiyatini esa Ittifoqni yangilashning maqsadi deb eʼlon qiddi.

1990 yil oxiri-1991 yil boshida u SSSR xalq deputatlari syezdidan favqulodda vakolatlar olishga, Vazirlar mahkamasiga aylangan Sovet hukumatini qayta tuzib oʻziga boʻysundirishga erishdi. «Sentristlar» va konservatorlar natsionalizm va liberalizmga qarshi kurashni kuchaytirishdi. 13 yanvar 1991 yilda Vilnyusda ommaviy axborot vositalari markazlariga desantchilar bilan hujum qilinishi, kommunistlarning Litva, Latviya va Estoniyada hukumatni qaytarib olishga urinishlari vatanparvarlarning qarshiligiga duch kelib magʻlubiyatga uchradi va SSSR aholisining katta qismining nafratini uygʻotdi. RSFSR hukumati Boltiqboʻyi vatanparvarlariga yon bosdi. Millatchi va liberal-demokratik kuchlar barcha respublikalarda faollashdi. Ularni bostirishga tayyorlanib Ittifoq hokimiyatlari turli xil harbiy idoralarning qurolli kuchlari ustidan yagona rahbariyat tashkil qildi. «Rivojlanishning safarbarlik modeli» - avtoritar tuzumning «boshqariluvchi demokratiya» sari yoʻnaltirilgan konsepsiyasi va favqulodda holatni joriy qilish rejalari ishlab chiqildi.

KPSSning parchalanishini toʻxtatish, XXVIII syezd qarorlari asosida partiya tashkilotlarini birlashtirish va ularni millatchilar va liberal-demokratlarga qarshi xujumga safarbar qilish choralari koʻrildi. 1991 yil mart oyida 15 respublikadan 9 tasida referendum oʻtkazildi. Unda fuqarolarning katta qismini haqiqatga xilof tarzda mamlakat buyukligini oʻz farovonligi garovi deb hisoblab, ammo uning yangilanishini istagan holda, yangilangan Ittifoqning saqlab qolishi uchun ovoz berdi.

Bu Gorbachev va uning ittifoqchilarining Rossiya mustaqilligini talab qiluvchilarga qarshi kurashda faollashishiga yordam berdi. 1991 yil mart oyining oxirida ittifoq hukumati Rossiya deputatlari syezdi boʻlayotgan paytda Moskvaga qoʻshin kiritib Yelsinni ogʻdarishga va chetlatishga urinib koʻrdi. Ammo uning liberal-demokratik oʻzgarishlar bilan aholi ahvolini yaxshilash haqidagi vaʼdalariga ishongan koʻpgina shaharliklar koʻchalarga chiqib Yelsinni himoya qildi. Syezd talabiga koʻra qoʻshinlar Moskvadan olib chiqildi, syezdda esa kommunistlarning chiqishlari biror bir natija bermadi.

Bu muvaffaqiyatsizlik konservatorlarni Gorbachevdan liberal-demokratik kuchlarga nisbatan qatʼiyroq choralar koʻrishni talab etishga undadi. «Biz-degan edi oʻzining tashabbusga, faollikka boʻlgan huquqini isbotlayotgan Oʻzbekiston rahbari I.Karimov - Bu yerda (Moskvada) qabul qilingan qarorlarning asiri boʻla olmaymiz». MKning aprel Plenumidagi konservatorlarning taʼna-malomati Gorbachevni bosh kotiblik lavozimidan isteʼfoga chiqishga majbur qildi. Majlis aʼzolarining koʻpchiligi buni qabul qilmadi, ammo Gorbachevning oʻz obroʻsini yoʻqotganligi yaqqol koʻrinib qolgan edi.

Sotsializm himoyachilarining liberallarga qarshi kurashi Rossiya prezidentligiga umumxalq saylovlar vaqtida yanada kuchaydi. Gorbachev va Yelsinning oʻzaro shaxsiy adovati nimadaligidan qatʼiy nazar, ulardagi ziddiyatning mohiyati mamlakatni taraqqiy ettirishning turli yoʻllari, sotsialistik va liberal yoʻllar uchun kurashdan iborat edi. Ularning respublikalar mustaqilligiga turli munosabatda boʻlishi va hokimiyat uchun kurashi ham shu bilan belgilanar edi. Gorbachev va uning ittifoqchilari tomonidan barcha kuchlarni Yelsinning raqiblarini qoʻllab-quvvatlashga safar etganlariga qaramasdan 1991 yilning iyun oyida saylovchilarning 57%i islohotlar oʻtkazishga vaʼda bergan Yelsin uchun ovoz berdi. Yelsin Rossiyaning prezidenti boʻldi. Shunday qilib, koʻpchilik Rossiyaliklar kelajak haqida hech qanday tasavvurlarsiz liberal-demokratik yoʻlni tanladi. Eng yirik ittifoqchi respublika - Rossiyada kommunistlar hokimiyatni qoʻldan boy berdilar.

1991 yil yoziga kelib, Siyosiy Byuro aniqlashicha, «koʻpgina partiya qoʻmitalari va tashkilotlarning faol siyosiy ishga tayyor emasliklari aniq boʻldi», «mamlakatnint koʻpgina

mintaqalaridagi» sovetlarga esa «tarqatib yuborilish taxdidi solinar edi». Joylardan xabar berilishicha «aholi va kommunistlarning o'zi KPSS rahbariyati siyosatini tushunmay qoldilar» va «xalq qayta qurish siyosatiga nisbatan o'zining ishonchsizligini bayon qildi».

V.Pavlov rahbarligidagi SSSR ministrlar kabineti ishlab chiqarishni o'stirish, aholi ta'minotini tartibga solish, qishloq xo'jaligi va sanoat mollarining ananaviy narxleri nisbatini bartaraf etishga bo'lgan harakatlarni faollashtirdi. Mudofaa xarajatlarini ministrlar kabineti raisi «xalq xo'jaligi uchun og'ir yuk» deb atadi. Harbiy ishlab chiqarishni besh yil ichida atigi 10% ga qisqartirish rejalashtirildi, ammo davlat buyurtmalarini bajarish uchun vositalarning yo'qligi sovet iqtisodiyotining bu asosiy qismini falajlashtirgan edi. Gorbachev o'z investitsion siyosatida «ekologik muammolarni samaradorlikning garovi sifatida birinchi o'ringa qo'yishga» chaqirdi. Ammo mablag' ajratish (investitsiya) uchun mamlakat fondlari yetmas edi va hukumat uni topishga ham qodir emas edi.

KPSS rahbariyatining izohlashicha «partiya mulkchilikning barcha turlari teng huquqligini yoqlagan holda uning jamoaviy shakllarini ma'qullaydi». Hukumat tomonidan davlat mulki bir qismini xususiylashtirish, arenda (ijara)ga ko'p e'tibor berish, xorijiyarning mamlakat boyliklariga egalik qilishlariga yo'l qo'ymaslikni ko'zda tutuvchi xususiylashtirish loyihasi tayyorlandi. Ammo yakka tartibdagi va kooperativ faoliyat, kichik tadbirkorlikning alanga olishi va hissadorlik jamiyatlarini tuzish, direktorlar va ishlab chiqarish kollektivlari tomonidan korxonalarning ijaraga yoki sotib olinishining avj olishi bu rejalar doirasidan chiqib ulgurgan edi.

Biroq iste'mol mollarini ishlab chiqarish o'smadi. «Butun mamlakat bo'yicha tovar ayirboshlash va o'z mahsulotlarini sotish xajmi savdo vazirligining Siyosiy Byuroga xabar berishicha - 1990 yil aprel oyiga nisbatan yarimga, bir qator respublikalarda (Armaniston, Ozarbayjoi, Qozog'iston, O'zbekiston, Tojikiston) esa bundan ham ko'proq qisqardi». Aholi uchun zarur mollar tanqisligi sababli, ularni tarqatishni talon tizimini joriy etish orqali tartibga solishga harakat qilinayotganligidan qat'iy nazar, narxlar va navbatlar, olib-sotarlik va jinoyatchilik o'sayotgan edi.

Ittifoq markazidan zarur vosita va mollarning kelishidan umidini uzgan respublikalar hokimiyatlari oziq-ovqat va boshqa mahsulotlarning o'z respublikalari hududidan olib chiqilishini va markaz uchun mo'ljallangan daromadlarni cheklay boshladi. Bu o'z navbatida moliyalashtirishning idoraviy yagonaligi «ildiziga bolta urar edi». Shu bilan birga ishlab chiqarish vositalarining tanqisligi va rublning qadrsizlanishi korxonalarini hech kim tomonidan nazorat qilinmaydigan to'g'ridan-to'g'ri tovar ayirboshlash – barter usuliga o'tishga majbur qildi.

Davom etayotgan ommaviy norozilik va elatlararo to'qnashuvlar xalq xo'jaligiga katta zarar (o'nlab milliard rubl) yetkazdi. Natijada faqatgina 1991 yilning dastlabki oylarida 650 ming kishi zarar ko'rdi. Buning oqibatida 1991 yil natijasiga ko'ra ishlab chiqarish 8% ga, YAIM-17%ga pasaydi, iste'mol mollari narxleri qariyb 2 baravar o'sdi, davlat budjeti kamomadi YAIMning 20%i gacha o'sdi, mamlakat oltin zahirasi esa 1,5 ming tonnaga tushib qoldi.

Hukumat inqirozga qarshi iqtisodiyot va siyosatni barqarorlashtirishga qaratilgan choralarni rejalashtirdi. Ularni amalga oshirish uchun unga respublikalar iqtisodiyoti va moliyasini bo'ysundiruvchi keng vakolatlar kerak edi. Ammo markaz bu hokimiyatni qo'ldan boy bergan edi. Konservatorlar qo'llab-quvvatlashiga qaramay Gorbachev Ittifoqni yangilash va favqulodda choralarsiz sotsialistik yo'nalishni saqlab qolishga umid qilardi. Ammo bu umidlarning muvaffaqiyati kafolatlanmagan edi.

Prezident Ittifoqni 6 respublika tark etganligining asosiy sababi ularning sotsialistik yo'nalishdan voz kechishi va boshqa qadriyatlarga yuz tutishida ekanligini tan olmas edi. U hali ittifoqni tark etmagan bir qator respublikalarda turli xil nosotsialistik yo'nalishlarga bo'lgan moyillikka ham e'tibor bermas edi. Aftidan, u Ittifoqning saqlanib qolishi bunday holatlarni bartaraf etadi deb umid qilardi. Gorbachev 8-9 respublika rahbarlari bilan ko'p marotaba uchrashdi. Iyul oyining oxiriga kelib ular o'rtasida yangi Ittifoq shartnomasi-markaz

vakolatlarini cheklovchi va aralash mafkuraviy-siyosiy yo'nalishga ega bo'lgan federatsiya tuzish to'g'risidagi shartnoma loyihasi kelishib olindi. Ittifoq haqidagi yangi shartnomaning imzolanish kuni 20 avgust qilib belgilandi.

Vaziyat nihoyatda keskinlashgan edi. g'azablangan konservatorlar, Itgifoq to'g'risidagi yangi shartnomaning imzolanishi markaziy hokimiyatning nihoyatda cheklab qo'yilishiga, mamlakatni sotsialistik taraqqiyot yo'lidan mahrum qilinishiga va bir qator respublikalarning undan chiqib ketishiga olib keladi, deb hisoblashardi. Vaziyatga baho bergan KGB (DXK.) rahbari V.Kryuchkov «bizning vatanimiz falokat yoqasida turibdi» degan edi. U SSSRni va «real sotsializm»ni saqlab qolish tarafdorlarini va xalqni birlashishga chaqiruvchi «Xalqqa so'z» nomli xujjatni e'lon qildi. Yangi ittifoq shartnomasi SSSR Oliy Kengashi raisi A.Lukyanov va ko'pgina deputatlar tomonidan tanqidga uchradi. RSFSRda kommunistlarning hokimiyatni qo'ldan boy berishlari va korxona va tashkilotlarda KPSS tashkilotlarining tarqatib yuborilishi bilan vaziyat yanada og'irlashdi. Noyabr oyida yangi dastur qabul qilish uchun KPSSning syezdini chaqirishga qaror qilgan M.Gorbachev MK Plenumining ko'pchilik a'zolari tomonidan tanqid qilindi.

Gorbachev Qrimda dam olayotgan paytida Kryuchkov va uning atrofida to'plangan boshqa mansabdor shaxslar vaziyatdan foydalanib, mamlakatda favqulodda holat joriy etish rejasini tayyorlashdi. Moskva va Boltiqbo'yida ular o'z tarafdorlari va qo'shinlarni hal qiluvchi hujumga qaratishdi. Ular Qrimda dam olayotgan Gorbachevga bu rejalar haqida xabar berishdi. U bu rejaga qarshi edi, ammo ularga halaqit berishga urinib ko'rmadi.

18 avgust kuni SSSR va KPSSning bir guruh oliy martabali kishilari, jumladan, vitse-prezident, prezident ma'muriyati rahbari, hukumat boshlig'i, KPSS MKning ba'zi kotiblari va ba'zi vazirlar prezidentning betoblighi haqida xabar berib mamlakat birligi va sotsialistik tuzumni saqlab qolish uchun Favqulodda Holat Davlat qo'mitasi (FXDQ) tashkil etilganligini ma'lum qildi. Aholining eng zarur ehtiyojlarini qondirishni va'da qilib, qo'mita mamlakatning bir qator mintaqalarida favqulodda holat joriy etilganligini e'lon qildi va Ittifoq shartnomasining imzolanishini bekor qildi. U KPSS tasarrufida bo'lgan ommaviy axborot vositalaridan boshqa hamma ommaviy axborot vositalarini taqiqladi, liberalizm va demokratiya tarafdorlariga qarshi choralar ko'ra boshladi. Moskvaga qo'shin kiritib, RSFSR hukumat organlari joylashgan Oq uyga tanklarni yo'naltirdi va shturm qilishga qaror qilishdi. O.SHenin tomonidan chaqirilgan KPSS MK kotibiyati barcha partiya tashkilotlaridan FXDQni vaqtincha qo'llashni talab qildi va siyosiy byuroning bunga mos bo'lgan qarorini tayyorladi.

Ammo davlat apparati xodimlari, jumladan harbiylar ham FXDQ farmonlarini bajarishga shoshilmadilar. Hatto FHDQni qo'llagan KPSS tarkibidagi kompartiyalar va ba'zi respublika rahbarlari ham bunga mos choralarni ko'rishmadi. Qozog'iston rahbari Nazarboyev FXDQni qo'llab-quvvatlamadi, Boltiqbo'yi respublikalari rahbarlari esa uni qoralashdi. Deyarli hamma joyda kommunistlar turli kayfiyatda edi va hatto FXDQga norozilik bildirishdi. Bu KPSSning to'la layoqatsizligini namoyish etdi.

Rossiya va boshqa respublikalarda aholining faol qismi, hatto yangilangan Itgifoqning saqlanishi uchun ovoz berganlar ham ochiqchasiga yangilanishga qarshi turgan putgacha qarshi edi, qonun buzilganligini, ayniqsa qurolli kuchlarning ishga solinishini keskin qoraladi.

Moskvada davlat to'ntarishiga qarshi bo'lganlar «Demokratik Rossiya» bloki va RSFSR Oliy Kengashi atrofida to'pland. B.Yelsin tank ustida turib demokratik va erkinlik dushmanlariga qarshi kurashga da'vat etdi. U GKCHP (FHDQ) ishlarini qoraladi, SSSR prezidentini himoya qildi, RSFSR hududida joylashgan barcha qo'shinlardan unga bo'ysinishlarini talab qildi.

FXDQga qarshi Oq uy qarshisida to'plangan o'n minglab kishilar norozilik bildirdi. Ular barrikada qurdilar, qurol olishga va hujumni qaytarishga harakat qildi. 20 avgust kuni FXDQ tomonidan jo'natilgan bronetexnika (zirhli mashinalar)ga qarshilik ko'rsatish chog'ida uch kishi halok bo'ldi. Sank-Peterburg va Rossiyaning boshqa shaharlarida mitinglar va norozilik namoyishlari bo'lib o'tdi.

FXDQ Oq uyni shturm qilish va omma qarshiligini sindirishga mavaffaq bo'lmadi. U parchalana boshladi, barcha respublikalar hukumatlari va hattoki ba'zi respublika kompartiyalari rahbarlari undan uzoqlasha boshladi. To'rtinchi kuni uning a'zolari qochib ketishdi va hibsga olindi.

FXDQning mag'lubiyati va Rossiyada liberal-demokratik kuchlarning faol himoya qilinishi natijasida ittifoqqa qarashli organlar o'z faoliyatlarini to'xtatdilar va ularni boshqarayotgan kommunistlar hokimiyatni qo'ldan boy berdi, respublikalar esa haqqoniy mustaqillikka ega bo'ldi. Liberal demokratlarning kutilmagan g'alabasi ularning Rossiyadagi hokimiyatini mustahkamladi. Shunday qilib 19-23 avgustda SSSRda ixtiyorsiz inqilob ro'y berdi va yagona davlat endi mavjud bo'lmay qoldi.

Moskvaga kelgan Gorbachev «butunlay boshqa mamlakatga kelganligini», rahbarlari boshqa Plenumni chaqirishga ham qodir bo'lmagan KPSS bosh kotibi lavozimidan mahrum bo'lganini fahmladi. U vazirlarni ishdan bo'shatdi, ittifoq hukumati o'rniga respublikalararo iqtisodiy qo'mita tuzdi.

SSSR xalq deputatlarining 2 sentabrdagi navbatdan tashqari syezdida e'lon qilingan 10 ittifoqdosh respublika rahbarlarining yangi davlat-respublikalar konfederatsiyasini tashkil etish to'g'risidagi taklifi oldingi davlat, ya'ni SSSR parchalanganining e'tirof etilgani edi. Syezd SSSR Oliy Kengashini tuzmadi, balki o'z vakolatlarini prezident boshchiligidagi Davlat Kengashiga topshirdi. SSSR davlat apparati butunlay parchalandi. Yel'sin qaroriga ko'ra 1991 yil noyabrda Rossiyada KPSS faoliyati ta'qiqlandi va uning mol-mulki davlat hisobiga o'tdi.

Respublikalar hukumatlari endi o'z suverenitet va mustaqilliklarini mustaqamlash uchun qayg'urishlari kerak edi, chunki ba'zilar Rossiya rahbariyatidagi ittifoq markazi funksiyalarini o'z qo'liga olishga bo'lgan moyillikdan tashvishda edilar. Bolva (Putch)dan keyin tezda Moldaviya, O'zbekiston, Qirg'iziston, Ukraina, Ozarbayjon, kuzda Tojikiston va Belorussiya, dekabrda Qozog'iston o'z mustaqilliklarini e'lon qilishdi. Referendumlar sentabrda-Armaniston, oktabrda-Turkmaniston, 1-dekabrda-Ukraina mustaqilligini tasdiqlashdi. 1991 yil kuziga kelib, xujjatlarda aks ettirilmagan bo'lsa-da, SSSR amalda mavjud emas edi.

Hattoki Bolqariya va Checheniston respublikasi (keyinchalik, Ichkeriya) ham mustaqil deb e'lon qilingan edi.

SSSR parchalanganligining xalq ommasi va hattoki siyosiy arboblardan tomonidan anglab yetilishi haqiqatdan ancha orqada qolayotgan edi. SSSR davlat qo'mitasi raisi prezident Gorbachev Iqtisodiy qo'mita tomonidan taklif qilingan respublikalarning iqtisodiy integratsiyasi rejasini ma'qulladi. Uning asosida 8 ta mustaqil respublika rahbarlari Gorbachev bilan birgalikda iqtisodiy hamjamiyat to'g'risidagi Shartnomani imzolashdi. Uni amalga oshirish va tasdiqlash parchalangan xo'jalik va respublikalarning aniq xo'jalik manfaatlari mavhumligiga duch keldi.

Ammo Gorbachev bundan ko'proq narsani talab qila boshladi. O'z maslahatchilariga tayanib, B.Yelsin, N.Nazarbayev va bir qator boshqa respublika rahbarlari ma'qullagan konfederatsiya shaklidagi suveren davlatlar ittifoqi to'g'risidagi shartnomani ishlab chiqishga e'tibor qaratdi. Mohiyatan, gap sobiq davlatni, bor-yo'g'i prezidenti va uning idoralari va ramziy belgilarigina saqlanib qolgan SSSRni tiklash haqida emas, balki yangi davlat tuzish to'g'risida borayotgan edi. Ammo shu bilan birga, Novo-Ogaryovdagi yig'ilishlarda qatnashib turgan respublikalardagi turli siyosiy holatni hisobga olmasdan, sotsialistik yo'nalishni saqlab qolishni ta'kidlar edi. Tabiiyki respublikalar rahbarlari o'z qonun chiqaruvchi organlari tomonidan qarab chiqmasdan bu shartnomaga imzo qo'ya olmas edilar.

Gorbachevning 7 ta respublika rahbarlari bilan olib borgan uzoq va og'ir muzokoralariga Ukrainadagi referendum qaqshatqich zarba berdi. Bu davlatda qabul qilingan mustaqillik konfederatsiyada qatnashishni inkor qilar edi. Albatta, qaysiki, 2-3 respublika yangi ittifoq tuzishlari mumkin edi, ammo u ham mohiyat, ham shakl jihatdan 1988-1991 yillarda parchalanib ketgan ilgari ittifoqqa tenglasha olmas edi.

Turlicha va unchalik aniq bo'lmagan siyosiy yo'nalishlarda bo'lgan respublikalarning sotsialistik yo'nalishdagi markaz bilan konfederatsiya tuzishi amri mahol edi.

Bir hafta o'tgandan so'ng 8-dekabr kuni Rossiya, Ukraina va Belorussiya rahbarlari Viskuli (Belovej puha)da SSSR ning tugatilganligi to'g'risidagi hujjatni imzolashdi, unga «o'lganlik haqida guvohnoma» berishdi. 1988 yilda boshlangan va 1991 yil kuzida yakunlangan jarayonning kechikkan qayd etilishi ro'y berdi. Bu ularning motivlari va kayfiyatlari qanday bo'lishidan qat'iy nazar mustaqil davlatlar qonuniy rahbarlarining siyosiy qarori edi. SSSR parchalanganligi to'g'risidagi qarorning mohiyati va oqibatlarini to'la tushunib yetmagan bo'lsalar-da parchalangan sobiq imperiya hududidagi barcha respublika rahbarlari va parlamentlari ma'qullashdi. Ittifoqning oxirgi idoralari, jumladan, prezident lavozimi tarqatildi va bekor qilindi.

Bu hujjatning mavjud bo'lgan qonunlarga muvofiqligini muhokama qilish ortiqchadir, chunki siyosiy qarorlar kuchlar nisbatiga ko'ra qabul qilinadi va amalga oshiriladi. Bu qaror Viskulida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH)ni yaratish to'g'risidagi kelishuvga imzo chekishga imkon berdi. Unda MDHning bo'lajak a'zolariga kam talab qo'yilgan edi, va dekabr oyi oxirigacha unga umid bog'lab, ko'pchilik sobiq Sovet respublikalar hukumatlari qo'shilishdi. Bundan ortig'iga erishish mumkin emas edi. Bu hujjatlar o'sha paytda yangi mustaqil davlatlar o'rtasida erishilgan kelishuvning eng yuqori darajasi edi.

Imperiya merosini taqsimlash

Tanazzulga yuz tutgan ideokratik imperiyaning merosi mamlakat, jamiyat, mafkuralar «real sotsializm» iqtisodiyoti va davlatining xarobalaridan iborat bo'ldi. Bu xarobalar Yevrosiyo shimoli-sharqidagi 22403,2 ming kvadrat kilometrga yoyilgan edi. Bu hududda qisman o'zlashtirilgan dunyo tabiiy resurslarining 27%i joylashgan, ammo uning hududining 70%ini muzloq yerlar va ekologik ofat o'choqlari qamrab olgan edi.

Aholisi 280 million, 130 millatni o'z ichiga olgan va umuman yuqori darajadagi umumiy savodxonlikka ega bo'lgan mamlakat edi. Ammo bu savodxonlikni sog'lom edi deyish qiyin. Deyarli hamma joyda sanoat ishchilari yetarli bo'lsada, ammo yuqori texnologiya xodimlari juda tanqis edi. Eng asosiysi ulardagi mehnatga munosabat axloqi past darajada edi: mehnat unumdorligi va mahsulot sifatiga javobgarlik yo'q edi. Ko'pchilik ongida o'n yillab davomida tarbiyalangan «tekischilik», huquq va mulkka e'tibor bermaslikka moyillik ustunlik qilardi. Bu hokimiyatni ilohiylashtirish va ijtimoiy boqimandalik, mas'uliyatsizlik, bardoshsizlik va zo'ravonlik bilan uyg'unlashtirilgan edi. O'zgarishdan keyin ham juda oz kishilar o'z manfaatlarini anglab, vaziyatga to'g'ri baho bera olishdi. Fuqarolardagi ichki erkinlik allaqachon erishilgan tashqi erkinlikdan ancha orqada edi.

Respublikalardagi turli millat vakillari bo'lgan fuqarolar o'zlarini yagona xalq deb anglamay ular, qaysi millatga mansublikka ko'proq e'tibor berishardi. Ko'plab sondagi elatlar taraqqiyotning turli bosqichlarida turardi, ular turli ijtimoiy shaklda edilar. Ularning ba'zilar yo'qolib borayotgan edi. Elatlararo munosabatlar oddiy masala emas edi va bir qator mintaqalarda to'qnashuvlar oqibatida anchagina murakkablashgan edi.

Sovet mafkurasining tanazzulga yuz tutganidan so'ng yuzaga kelgan va faollashgan turli xildagi mafkuraviy-siyosiy yo'nalishlarning hech biri gegemonlik qilishga qodir emas edi. Omma «real sotsializm» kamchiliklari va tuzum jinoyatlarini, sovuq urushda va eng rivojlangan mamlakatlar bilan bellashuvda SSSRning mag'lubiyatini to'la tushunib yetmagan edi. Bunday holat imkoniyatlarga to'g'ri baho berish va noto'g'ri da'volardan voz kechishga xalaqit berdi. Ko'pchilik oligarxiya va kompartiyalar o'rtasidagi farqni, shuningdek, partiyalar va xalqlarning har birining javobgarligi nimadaligini tushunmas va parchalangan tuzum jinoyatlarini odil jazolashni eplay olmas edi. Sobiq sovet respublikalarida kommunistlar faoliyati davom etdi, ro'znoma va teatrlarning «kommunistcha» nomlari, sobiq tuzum bayramlari (inqilob, birinchi may, komsamol, chekistlar va boshqalar), «sovet vatanparvarligi» yodgorliklari va tuyg'ulari saqlandi. «Real sotsializm» davrida voyaga yetgan yoshlardan tortib keksalarning xotiralarida avlodlarda, yoshlikdan A.Chexov aytganidek, «o'tmish qanday bo'lgan bo'lishidan qat'iy nazar, xotiralarda faqat jonli, ta'sirli va shodli lahzalargina qoladi»...

Markazlashgan boshqaruvdan mahrum bo'lgan barcha aylanma vositalar, strategik xom ashyoni qazib olish, qurol va harbiy materiallarni ishlab chiqarishga mo'ljallangan va yuqori texnologiyalar o'choqlariga ega bo'lgan qudratli sanoat butunlay to'xtab qoldi va respublikalar hududlari bo'ylab parchalanib qoldi. Biron bir respublikada yagona, yaxlit va yirik ishlab chiqaruvchi kompleks qolmadi. Faqatgina parchalanib ketgan harbiy-iqtisodiy obyektlar va fuqarolik ishlab chiqarish elementlari bor edi, xolos. O'zaro kam bog'langan yoki umuman bog'lanmagan korxonalarni yagona milliy iqtisodiyotga birlashtirish uchun respublikalardan jiddiy sa'yi-harakat va vaqt talab qilinardi. Bu sanoat dastgohlarining ko'pchiligi eskirganligi, harbiy ishlab chiqarishni fuqarolik ishlab chiqarishiga o'tkazish uchun vositalarning yo'qligi bilan yanada og'irlashdi. Qishloq xo'jaligi hamma joyda samarasiz bo'lib qolgan edi.

Respublika va muxtoriyatlar bo'ylab parchalangan va yagona partiyaviy markazdan mahrum bo'lgan sovetlar tizimi mazmunsiz sarqitga aylanib qoldi. Respublikalarda suverenitetga mos bo'lgan davlat apparati o'rnida ilgari idoralarning xarobalari bor edi.

1988-1991 yillardagi «real sotsializm» tanazzuli va SSSRning parchalanishi natijasida Yevrosiyaning shimoli-sharqidagi ulkan hududda 15 ta mustaqil davlat paydo bo'ldi. SSSRning rang-barang hududi, aholisi va ishlab chiqarishini meros qilib olgan respublikalar o'z yo'llarini izlashni ularga meros sifatida berilgan muammolarni hal etishdan boshlashlari, «real sotsializm» xarobalari ustida o'z kelajaklarini qurishlari kerak edi.

Har bir respublikaga o'z hududi va undagi tabiiy boyliklar, aholi, ishlab chiqarish korxonalari va turli darajadagi aholi jon boshiga YAIM ko'rsatkichi nasib etdi.

SSSR merosida respublikalar ulushi

№	Mamlakatlar	hududi %	aholisi %	ishlab chiqarish %	Aholi jon boshiga YAIM %
1.	Ozarboyjan	0,43	2,6	1,8	56
2.	Armaniston	0,15	1,1	1,1	118
3.	Belorussiya	0,93	3,5	3,8	106
4.	Gruziya	0,35	2,0	1,8	90
5.	Qozog'iston	12,23	5,7	5,1	90
6.	Qirg'iziston	0,89	1,4	1,0	60
7.	Latviya	0,28	0,9	0,7	133
8.	Litva	0,29	1,2	1,1	133
9.	Moldaviya	0,15	1,6	1,3	80
10.	Rossiya	76,25	52,0	57,8	114
11.	Tojikiston	0,63	1,5	1,0	50
12.	Turkmaniston	2,21	1,4	0,9	75
13.	O'zbekiston	2,10	7,1	4,4	96
14.	Ukraina	2,75	18,0	17,8	92
15.	Estoniya	0,23	0,5	0,4	140

Zamonaviy «ajralish»-mustaqil davlatlar tomonidan SSSR merosini tinchlik yo'li bilan taqsimlashga 1991 yil dekabrda MDHning tuzilishi va uning faoliyati yordam berdi. Unga asta-sekin 12 respublika a'zo bo'lib kirdi. Faqatgina Boltiqbo'yi davlatlari bundan mustasno.

Eng asosiysi, MDH a'zolari ba'zi ikkilanishlar bilan va Boltiqbo'yi davlatlari respublikalararo ma'muriy chegaralarning davlat chegaralari ekanligini tan olishga va o'zaro hududiy da'volardan voz kechishga rozi bo'lishdi. Armaniston unga qo'shilishga intilayotgan Tog'li Qorabog'ni qo'shib olishdan bosh tortdi. Shunday bo'lsada keskin to'qnashuvlarning oldini olishga muvaffaq bo'linmadi. Bunday mojaro va to'qnashuvlar respublikalarning o'zaro da'volari tufayli emas, balki, Tog'li Qorabog', Abxaziya, Janubiy Osetiya, Dnestr bo'yi, Chechenistonning ayirmachiligi tufayli ro'y berdi.

SSSR hududida va ko'pgina respublikalarda hamda MDH hududidan tashqarida joylashgan qurolli kuchlarning, shuningdek, harbiy flot va yadro qurolining taqdirini hal qilish qiyin bo'ldi. MDH a'zolarining sovet qurolli kuchlarini mustaqil davlatlarning birlashgan qurolli kuchlariga aylantirishga urinishlari zoye ketdi: har bir davlat o'z qurolli kuchlariga muhtoj edi va qisman SSSR sobiq qo'shinlaridan foydalanib o'z qo'shinlarini tuza boshladi. Faqatgina Boltiqbo'yi davlatlari o'z qurolli kuchlarini butunlay yangidan tuzishdi.

Rossiya, Ukraina, Qozog'iston va Belorussiya hududida joylashgan yadro qurollari taqdirini hal qilish oson kechmadi. Oxir-oqibatda barcha raketa-yadro qurollarini zararsizlantirish uchun Rossiyaga topshirildi va boshqa respublikalar zararsizlantirilgan yadro qurollari mahsulotlari va qoldiqlariga egalik qilish huquqini saqlagan holda o'zlarini yadrodan xoli hudud deb e'lon qildilar va yadro qurolini tarqatmaslik shartnomasiga qo'shildilar.

Fuqarolik floti sobiq sovet respublikalarning ishlab chiqarish kuchiga mutanosib ravishda bo'lingan bo'lsa, harbiy flot to'laligicha Rossiyaga nasib etdi. Uning qora Dengiz flotining katta qismiga da'vogarlik qilayotgan Ukraina bilan uzoq muddatli muzokoralari o'zaro manfaatli kelishuvga olib keldi.

SSSR, boshqa mamlakatlar bilan jiddiy o'zaro majburiyatlarni ko'zda tutuvchi 16 ming shartnoma va kelishuvga ega edi. SSSR tashqi davlatlarning ba'zilaridan 80 mlrd. dollarga yaqin qarzdor bo'lsa, uning ko'p ittifoqchilari ham unga shuncha mablag' berishlari kerak edi. Ukraina bilan olib borilgan murakkab muzokoralar va boshqa respublikalar roziligi bilan Rossiya MDHdan tashqaridagi Sovet qurolli kuchlari, SSSRning boshqa mamlakatlar bilan shartnoma va kelishuvlardagi qarz va kreditlari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oldi.

Rossiya Federatsiyasi (1922 yildan keyin) xalqaro munosabatlar subyekti sifatida tiklandi va SSSRning asosiy merosxo'r vorisiga aylandi, BMTdagi SSSR o'rniga ega bo'ldi, BMT Xavfsizlik Kengashi doimiy a'zosiga aylandi, ammo SSSRning dunyo hamjamiyatidagi mavqei va roliga ega bo'la olmadi. Ukraina va Belorussiya BMTning ta'sis etuvchi a'zolari bo'lishgan bo'lsa endilikda boshqa barcha respublikalar BMT a'zolari bo'lishdi. Mustaqillikka erishish davrida ularning har biridagi ijtimoiy-iqtisodiy va mafkuraviy-siyosiy vaziyat o'ziga xos edi. Shuning uchun SSSR hududida paydo bo'lgan 15 ta yangi mustaqil davlatlarning taraqqiyot yo'li turlicha bo'ldi. Avvaldan Estoniya, Latviya va Litvaning liberal yo'nalishi ma'lum bo'ldi. Ko'pgina boshqa respublikalarda Rossiyadagi kabi liberal yo'lni tanlash kuchli muxolifatni bartaraf etishni talab etdi. Ko'pchiligida yangi yo'nalishni ishlab chiqish qiyin bo'ldi va ularda jamiyat va davlatchilikning shakllanishi yanada qiyinroq kechdi.

Ammo, deyarli hamma respublikalar uchun eng og'ir muammolar SSSRdan meros bo'lib qolgan ushbu holatlar edi: parchalangan jamiyat, kam ta'minlangan aholi, tayanch (markaz)ga ega bo'lmagan boshqaruv, hech qanday bozor munosabatlariga ega bo'lmagan tarqoq korxonalar, to'xtab qolgan va konversiya qilishni, ya'ni o'zgartirishni talab etgan qurollar va harbiy materiallarni ishlab chiqarish korxonalari, kollektivlashgan (jamoalashgan) qishloq xo'jaligining past samaradorligi, milliy madaniyatning sustligi va elatlararo ziddiyatlar.

Bu muammolarni bartaraf etish ilgari taxmin qilinganidan ancha ko'p kuch va vaqt talab qiladi. Ko'pchilikning umumiy faravonlikka tezda erishishga bo'lgan umidlari amalga oshmadi. Ko'pchilik bunda sovet merosini emas, balki «real sotsializm» xarobalari ustida qiyinchiliklar bilan yo'l topayotgan islohotchilarni ayblay boshlashdi.

Rossiyada yangi o'zgarishlar jarayoni va isloxlarning borishi

1991 yil avgustida to'satdan bo'lgan inqilobning g'alabasi B.Yelsin va «Demokratik Rossiya»ning yelkasiga kutilmaganda yuk bo'lib tushdi. Rossiya hukumati tub o'zgarishlar dasturi ishlab chiqilguncha shoshilinch tadbirlarni amalga oshirishga majbur bo'ldi. «Demokratik Rossiya» harakatida bundan keyingi olib borilishi kerak bo'lgan ishlarning usul va yo'llarida qarama-qarshilik borligi ayon bo'lib qoldi. Shu sababli Yelsin va uning tarafdorlari avgust-sentabrda radikal islohotlar uchun xalqning ko'tarinki ruhidan foydalana olmadilar.

Ammo sustkashlik qilishga imkon yo'q edi: 1991-1992 yil qishiga Rossiyada na oziq-ovqat, na ularni sotib olishga mablag' va na boshqarish tizimi bor edi. Rossiya xalq deputatlari

syezdining ko'pchilik a'zolariga tuzumning puchligi va uni qayta tiklashning iloji yo'qligi, uning o'rniga shoshilinch ravishda yangi hukumatni tuzish zarurligi ochiq-oydin ma'lum edi. Shunday bo'lsada, turli xil takliflarning ko'pligiga qaramay, SSSRning Rossiyadagi xarobalari o'rnida faqat imkoni bor narsani qilish, faqat yangi rahbarlar va nochor aholi qo'lidan keladigan ishlarni amalga oshirish mumkin edi.

Liberal-demokratik tub o'zgarishlarning asosiy yo'nalishlarini oktabrning oxirida Yelsin syezdga taklif etdi va buni Rossiya deputatlari syezdi esa ma'qulladi. Liberal islohotchilik ishini amalga oshirishdan eng tajribali kadrlar bosh tortgandan keyin, eski rahbariyatning bir qismi bilan reformist hukumat ishga kirishdi. YE.Gaydar «komanda»sini qo'llab-quvvatlash uchun bu ishni prezidentning o'zi boshqardi, uning birinchi o'rinbosari esa «Demokratik Rossiya» harakati rahbarlaridan biri bo'lgan G.Burbulis edi.

Tub o'zgarishlarning qiyin kechishini oldindan ko'ra bilgan ministr-islohotchilar o'zlarini «kamikadze» (o'limga mahkum qilinganlar) deb hisobladilar va bu o'zgarishlarni tatbiq etishni qisqa muddatlarda amalga oshirmoqchi bo'ldilar. Belgilangan islohotchilik tadbirlarini amalga oshirish uchun prezident va hukumatning huquqi yetarli deb o'yladilar, «qaddini rostlagan» kishilarning mafkurasi esa o'z-o'zidan liberal mafkura bo'lib qoladi deb ishonidilar. Buning ustiga hokimiyatning boshqa tarmoqlaridan madad olish uchun qayg'urishmadi. Bu harakat ham xuddi prezident o'ylamasdan turib bir yildayoq ahvolni yaxshilayman deb bergan va'dasidek jiddiy xato bo'lib chiqdi.

Hukumat o'z ishini mehnat haqini va ijtimoiy ta'minotni birmuncha yaxshilash, hamda ma'muriy va moliyaviy tashkilotlarni yangi vazifalarga moslashtirish choralaridan boshladi. So'ngra hukumat ba'zi sohalarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy mulkchilikni tiklash hamda bozor munosabatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan islohotlar rejalarini ishlab chiqdi va amalga oshirishga intildi.

Liberallashtirishga qarshi turgan raqiblarning, hamda uni boshqacha usul bilan amalga oshirish tarafdori bo'lganlarning shafqatsiz qarshiligi, shuningdek, ma'muriy organlarning past darajada ijrochiligi islohotlarni amalga oshirishni qiyinlashtirdi. 1992 yil bahorida mamlakat prezidenti va hukumat markazdan qochish harakatlarini bartaraf etish va Rossiyaning butunligini saqlab qolish uchun «mustaqil respublikalar», o'lkalar, viloyatlar va avtonom okruglar bilan Federativ shartnoma tuzib, har bir subyektga (hududiy birlikka) ular «hazm qila olaolgunlaricha» vakolat berishga majbur bo'ldilar. Tub o'zgarishlar jarayoni parokanda bo'lib tarqalib ketayotgan sovet boshqaruv organlari tomonidan amalga oshirila boshlandi. Bu apparatning xodimlari yangi vazifalarni amalga oshirishning yo'llarini eplay olmadilar, ba'zilar esa xohlamadilar. Buning ustiga apparatda islohotchilarning yangi oqimi yetarli emas edi. Islohotlarni amalga oshirishda sabotaj (ishdan bo'yin tovlash) va har xil hokimiyat organlarining bir-biriga qarama-qarshi buyruqlari halaqit berar edi.

Ammo har xolda Oliy Sovetning bir qator qonunlari va prezidentning ko'plab buyruqlari asosida 2-3 yil ichida xususiy mulkchilikka o'n yilliklar mobaynida nafrat uyg'otilgan bo'lsada Rossiyada nafaqat bozor munosabatlari qayta tiklandi, balki u ustunlik ham qila boshladi.

1992 yilning o'zida barcha mahsulotlarga narxlar erkinlashtirila boshlandi: ehtiyoj va talabdan kelib chiqqan holda ular bozor munosabatlari asosida shakllana boshladi. Yilning oxiriga kelib davlat nazorati ostida faqat davlat budjetidagi ishchi va xizmatchilarning ish haqini va narxlarni belgilash qoldi. Narxlarning bunday liberallashtirilishi rublning yagona to'lov vositasi va xo'jalikni boshqarish quroli bo'lishiga yetarli asos bo'ldi. Hukumat Xalqaro Valyuta Fondining milliardlab dollar kreditlari yordamida rublni mustahkamlashga, budjetni taqchilliksiz qilishga hamda mamlakat moliya tizimini mustahkamlashga intildi. Biroq, mablag'ning yetishmasligi davlat buyurtmalarining qisqarishiga olib keldi. O'z navbatida bu eng asosiy sanoat korxonalaridan tashqari barcha korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish ishining boshlanib ketishiga sabab bo'ldi. Bu korxonalar boshliqlarning va ishchi xodimlarning aksionerlik mulkiga aylandi. Ular boshqa fuqarolarga aksiyalarning katta qismini xususiylashtirish chekiga (vaucherga) sotish huquqiga ega edilar. Vaucherlar hammaga berilar edi - ularni aholining 90 foizidan ko'prog'i asosan fondlar va olib sotarlar orqali olishardi va

sotishardi. Xususiylashtirish kerakli darajada qonuniy asosga ega emas edi. Xususiylashtirilayotgan korxonalarning narxlari baland emas edi ularning baholari, fondlarning abstrakt narxida emas, balki narxlar bozor ehtiyojlarining past darajadagi to'lov imkoniyatlariga mos tarzda belgilanar edi.

Shunday qilib mamlakatda 24 ming korxona va 15% ko'ngilli-fermerlar tashlandiq yerlarga ega bo'ldilar. Turli xil xususiy sanoat va savdo korxonalari, hamda banklar qonuniy yo'l bilan ishga tushdi va ularni tashkil etish tezlashdi. Ammo ko'plab yangi xo'jayinlar ular ichida anchagina ilgaritdan xo'jalik yurituvchilar ham bor edi, ular bozor sharoitlarida ish olib borishni bilmas edilar. Shu sababli samarali ishlab chiqaruvchilarning paydo bo'lishi juda murakkab jarayon bo'ldi, bu esa o'z navbatida ishlab chiqarish jarayonining pasayib ketishiga olib keldi va jonlanishning ancha cho'zilib ketishiga sabab bo'ldi.

Davlatda yetarli mablag'ning yo'qligi buyurtma va sarmoya kutayotgan hamda konversiya uchun resurslarga ega bo'lmagan, shuningdek, bozorga kerakli raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga qodir bo'lmagan sanoat korxonalarining katta qismini falaj qilib qo'ygan edi. Korxonalarning bir-biriga qarzini to'lamay yurishi xo'jalikning izdan chiqishini kuchaytirdi. Natijada bir yilda ishlab chiqarish 20% tushdi va pasayish davom etdi. Juda qiyin ahvolda davlat dotatsiyasi bilan yashayotgan fond, ta'lim, madaniyat, sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot kabi sohalar mablag'siz qoldi.

Mulkchilikni va bozor munosabatlarining qonun tomonidan himoyalashining yo'qligi, huquqni himoya qilish organlari yangilanishining kechiktirilishi suiste'mol va jinoyatning o'sishiga imkon berdi. Rubl missiyasi narxning 26 barobar o'sishiga, pulning qadrsizlanishiga va rublning dollar tomonidan siqib chiqarilishiga olib keldi. Pulning qadrsizlanishi omonat pullarning, vaucherlarning va maoshning quvvatini tushurib, aholining katta qismini nochor ahvolga solib o'ydi. Ishsizlik o'sdi va maoshni o'z vaqtida to'lamaslik ommaviy tus oldi. Aholi daromadi 2 barobar pasaydi. Xalqning ta'minot va farovonlik haqidagi umidlari puchga chiqdi va bu aholining barcha qatlamlarini norozi qildi. Bu voqealar ko'plarga - A.Soljenetsindan tortib to G.Zyuganovgacha, ya'ni barchaga liberallashtirish va xususiylashtirishni talonchilik va xalqqa qarshi harakat deb atashga asos bo'ldi. Kommunistlar xalqning qiynalishining asosiy sababi «real sotsializm» o'n yilliklarining halokatli oqibati emas, balki islohotlarni no'noqlik bilan amalga oshirayotgan yangi hokimiyatdir deb, jar solishdi va shu yo'l bilan mamlakatni yana sotsializm yo'liga qaytarishga urindilar.

Mamlakatdagi qarama-qarshiliklar «Demokratik Rossiya» blokining parchalanishiga olib keldi. Islohotlar sababli bo'layotgan katta sarf-xarajalar noroziliklarni kuchaytirdi va ko'plab oppozitsiyadagi partiya va harakatlarni ruhlantirib yubordi. Oliy Sovetda va Deputatlar Syezdida nafaqat liberal-demokratik tub o'zgarishlarning raqiblari bo'lmish-kommunistlar shu bilan birga monarxistlargacha bo'lgan oppozitsiyadagi kuchlar ham faollashib qoldilar. Vitse prezident A.Rutskoyga o'xshagan vaqtinchalik sheriklar, islohotlarning boshqacha variantlarini tavsiya etuvchi R.Xasbulatov va G.Yavlinskiy kabilar ham faollashib qoldilar. Ularning ta'nalari Yelsinni islohotlarning ba'zi bir sohalarini to'xtatib turishga, hukumat tarkibiga «boshqarmachilarni» kiritishga, so'ngra undan o'zi chiqib, Gaydarga qoldirishga majbur qildi.

1992 yil dekabrda syezd ishini barbod qilishga qaratilgan muvaffaqiyatsiz urinishdan so'ng, Yelsin Gaydarni «boshqarmachilar» va «direktor»lar orasida katta obro'ga ega bo'lgan sobiq sovet vazirlaridan biri V.Chernomo'rdin bilan almashtirishga majbur bo'ldi.

«Boshqarmachilar» ko'pchilikni tashkil etgan V.Chernomo'rdin hukumati xalqning ishonchini ishlab chiqarishni barqarorlashtirish va aholi turmush darajasini biroz yengillashtirish kabi va'dalar bilan qozonmoqchi bo'ldi. «Boshqarmachilar» tub o'zgarishlarni o'zlarining nazoratchilari ostida bo'lgan xoldinglar tuzishga qaratmoqchi bo'lgan bo'lsalarda, hokimiyat liberal vazirlarning zo'r berishi bilan Yelsin quvvatlayotgan islohotlar dasturini, ya'ni xususiylashtirishni hamma joyda, qayerda xususiy mulkchilik davlatnikidan samaraliroq bo'lsa, o'sha joyda amalga oshirishni davom ettirdi va inflyatsiya hamda budjet tanqisligini pasaytirishga intildi. Bu hol bir tomondan Yelsin va hukumat bilan ikkinchi tomondan Oliy Sovet va syezddagi ko'pchilikni tashkil etuvchi oppozitsiya o'rtasidagi nizoni kuchaytirib

yubordi. Oppozitsiya Oliy Sovet syezdining Konstitutsiya bo'yicha oliy hokimiyat bo'lishligidan, hatto Konstitutsiyani o'zgartira olishligidan, hukumat harakatlarini to'xtata olishligidan va mamlakat resurslarini nazorat qila olishligidan foydalana bildi. Syezd vakolatlarini chegaralab qo'yishga intilgan Yel'sin va hokimiyatdan Yelsinni chetlashtirishga intilgan oppozitsiya o'rtasidagi keskin ixtilof 1993 yil 25 aprelda umumxalq referendumini o'tkazishga olib keldi. Referendumda ko'pchilik prezidentga ishonch bildirdi va uning ijtimoiy-siyosatini qo'llab-quvvatladi, ammo na deputatlarni, va na prezidentni muddatidan oldin qayta saylashni istamadilar. Norozi bo'lgan kommunistlar 1 mayda Moskvada katta namoyish o'tkazish bilan hokimiyatni shturm qilib olishga tayyor ekanliklarini bildirdilar.

Oppozitsiya syezdning mutloq hukmronligidan va islohotlarni so'ndirish uchun sovetlarning mutaassib tizimidan foydalanganligi sababli, kommunistlar modernizatsiyalashgan Sovet Konstitutsiyasini saqlab qolish tarafdori edilar. Bu Konstitutsiyani parlamentar respublikasi ruhida yangilashga rozi bo'ldilar, bu taklifni esa prezident tutgan yo'lning liberal-demokratik muxoliflari berishgan edi. Yelsinning safdoshlari yangi Konstitutsiyaga muvofiq liberal-demokratik prezidentlik respublikasini tuzishga intildilar, uning loyihasi esa Yelsinchilar tomonidan chaqirilgan konstitutsion kengash tomonidan tayyorlangan edi.

Oliy Sovet raisi R.Xasbulatov boshqargan oppozitsiya kuchlarining safarbar etilishiga va prezident vakolatlarini cheklashga ko'rilayotgan tayyorgarliklarga qarshi 1993 yil 21 sentabrda Yelsin davlat to'ntarishini amalga oshirishi mumkinligi haqida ogohlantirish bilan chikdi. U o'z farmoyishida, oppozitsiyani hokimiyatni falaj qilganlikda ayblab, bosqichma-bosqich konstitutsion islohotlarni boshlaganligini e'lon qildi. Xalq deputatlari syezdini va Oliy Sovetni tarqatib yuborganligini e'lon qilib, ularning a'zolariga prezident hamma fuqarolar qatori yangi konstitutsiya va yangi huquqiy organlarini saylash haqidagi referendumda qatnashishlarini taklif qildi.

Oliy Sovetning ko'pchilik deputatlari buyruqqa buysunishdan bosh tortdilar. Oliy Sovet Oq uyda xalq deputatlari syezdini chaqirdi va Yelsinni ishdan olinganligini e'lon qildi. Vitse-prezident Rutskoyi vaqtinchalik prezident etib saylashganliklarini bildirdilar. Oq uy oppozitsiyaning tayanch qarorgohiga aylandi va bu yerga ularning tarafdorlari oqib kela boshladilar, ekstremistlar esa hoxlovchilarga qurol tarqata boshladilar va otryadlar tuzdilar. Yelsinni qo'llab-quvvatlagan hukumat tomonidan Oq uyning qamal qilinishi oppozitsiya rahbarlarini Yelsin vakillari bilan muzokora olib borishga majbur etdi, bu vakillar esa nizoni tinch yo'l bilan hal etish tarafdorlari edilar. Patriarx yordami bilan bitim tuzildi. Ammo hamma mahalliy sovetlardan olingan qutlovlar va ekstremistlarning tashabbuslari Xasbulatov-Rutskoy bloki g'alaba qilishiga ishonch uyg'otdi. Shuning uchun tuzilgan bitim ular tomonidan ma'qullanmadi. Qurollangan ekstremistlar 3 oktabrda Moskva meri binosini ko'lga oldilar va telemarkazga xujum uyushtirdilar, Xasbulatov esa kechasi Kremlni qo'lga olishga chaqirdi.

Oppozitsiyaning bir qismi qurolli harakatlarga o'tgani sababli ularga Yelsin qurolli kuch bilan javob berdi, bu kuch esa Yelsinda ko'proq edi. 4 oktabrda Oq uy o'qqa tutildi va oppozitsiya taslim bo'ldi. Oppozitsiyaning boshliqlari esa qamoqqa olindi. Ikki tomondan jami bo'lib 150 kishi halok bo'ldi. Rossiyaning radikal yangilash muxoliflarining o'ziga ishonganligi va ular tomonidan qurol ishlatilganligi qonli to'qnashuvga va qurbonlarga olib keldi. 21 sentabrda boshlanib 4 oktabrda tugagan to'ntarish mamlakatning davlat tuzumini yangilagan Konstitutsiya haqidagi referendumga yo'l ochdi. Referendum yo'lini tozalash uchun oktabr oyida prezident o'zining buyrug'i bilan hamma qatlamdagi sovetlarni tarqatib yubordi. 1917 yilda barpo bo'lgan Sovet tuzumi tugatildi. Aholi bundan hayajonga tushmadi, sababi omma bo'layotgan voqealarni hali oxirigacha tushunib yetmagan edi. Ikkinchidan, sovetlar allaqachondan beri nomigagina ishlayotgan edilar. O'lka-viloyatlarning vaqtinchalik rahbarlari prezident etib saylandilar. Yelsin oppozitsiyaning qurolli harakatiga qo'shilgan shaxslarni va tashkilotlarni referendumda qatnashish huquqidan mahrum etdi. Tub o'zgarishlarga dadil qadam tashlay turib, prezident yerni erkin oldi-sotdi qilish haqidagi buyrug'ini chiqardi va yangi konstitutsiya loyihasini e'lon qildi.

Ammo rivojlanishning har xil yo'nalishlari tarafdorlarining to'qnashuvlari deb baholangan to'ntarish, qon to'kishlarning mohiyati aholiga qorong'u edi va u ko'pchilik tomonidan jizzaki rahnamolarning yoki hokimiyatdagi turli xil toifalarning to'qnashuvi deb tushunildi. Ko'pchilik ommaviy axborot vositalari ham shu haqda fikr bildirdilar. Bu tushunmovchilik juda qimmatga tushdi va Yelsin hamda uning tarafdorlariga bo'lgan ishonch pasayib ketdi.

1993 yil 12 dekabrda Umumxalq referendumida saylovchilarning 54 foizidan ko'prog'i qatnashdi va (Tatariston va Checheniston respublikasidan tashqari), saylovchilarning 58 foizidan ko'prog'i taklif etilayotgan konstitutsiya uchun ovoz berdilar. Saylov natijalari xalq hokimiyatini, inson erkinliklari va huquqlarini ustun deb tasdiqlaydigan yangi konstitutsiya qonuniyligining asosi bo'ldi. Rossiyaliklar sodir bo'layotgan voqealarning aholi tomonidan tushunilish darajasi qanday bo'lishidan qat'iy nazar, yana bir marta o'zlarining liberal-demokratik yo'lining to'g'riligini tasdiqladilar, ammo bu yo'ldan islohotlarni amalga oshirib borish juda qiyin kechdi.

Yangi konstitutsiya oldingi sovet davri konstitutsiyalaridan keskin farq qilar edi. Rossiya demokratik federativ respublika bo'ldi, unda hokimiyat manbai sifatida ko'p millatli xalq ommasi tan olindi, insonparvarlik g'oyalari, inson manfaatlari, huquqlari va erkinliklari, ko'chib yurishlari, xususiy mulk va tadbirkorlik ustuvor va daxlsiz deb e'lon qilindi. Yangi konstitutsiya, federal tuzilishning xilma-xilligini saqlagan holda, federatsiya subyektlarining tengligini, (ular saylagan hukumatlar katta vakolatlarga ega edilar) Rossiya federatsiyasi hududlarining butunligi va buzilmasligini e'lon qildi. Rossiyada hokimiyat tarmoqlarining bo'linishi prezidentning keng vakolatlari, davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilashi, hukumatni tuzishi va buyruqlar chiqarish huquqlari bilan birga qo'shib olib borildi. Federal majlisga ya'ni Davlat dumasida va Federal Sovetga bo'lgan saylov natijalari xalq ommasi keng tabaqalarining erkinlik va demokratiya to'g'risidagi g'ira-shira tasavvurlari, hamda ular katta qismining kommunistik va millatchilik kayfiyatdagi puch orzulari ta'sir ko'rsatib turdi. Liberal-demokratik islohot tarafdorlari Davlat dumasida eng katta fraksiyani tuzishga erishgan bo'lsalarda, biroq ular o'rtasidagi o'zaro nizolar va oppozitsiya kuchlari qonunchilik ishlarining bajarilishiga halal berib turdi.

Baxtga qarshi liberal-islohotchilar tashabbusi bilai boshlangan ko'pgina muhim o'zgarishlarni prezidentning farmonlari bilangina amalga oshirishga to'g'ri keldi. Buning ustiga keng vakolatlarga ega bo'lgan prezident aholining katta qismi tomonidan qo'llab-quvvatlanmaganligi uchun farmonlar, qarorlarning amalga oshirilishi uchun yetarlicha hokimiyatga ega emas edi. Hatto u ta'qib ostiga olinardi. Islohotlardan o'z shaxsiy manfaatlari yo'lida foydalanishga intilgan odamlar prezident atrofida haddan tashqari ko'p to'plangan bo'lib katta ta'sir etuvchi kuchga ega edi. Natijada ular mamlakat xalq xo'jaligi va aholini ijtimoiy himoya qilish uchun sarflanadigan mablag'larning anchagina qismini keraksiz narsalarga: Kreml saroylarini ta'mirlashga va prezidentning yangi rezidensiyalarini qurishga sarfladilar.

V.Chernomerdinning hukumatida 1997 yilgacha «boshqarmachilar» ko'pchilikni tashkil etardi. Ilgarigi sovetlarning boshqarish apparati o'rniga yangi ma'muriy apparatni tuzish markazda ham va federatsiya subyektlarida ham juda sust borardi, federal hokimiyatning yuqori pog'onasi zaifligicha qolmoqda edi. Ilgarigi partiya-sovet xo'jaligi sohalarida ishlagan rahbarlar boshqarishning markaziy organlari xodimlarining 60 foizini, respublikalar, o'lkalar va viloyatlar ma'muriyatlari xodimlarining 80%ni va kuch ishlatadigan, hamda huquqni himoya qilish tuzilmalarining 100%ni tashkil etardilar.

Ammo hukumatda va Prezident ma'muriyatida, shuningdek, Davlat dumasida hali liberal-reformatorlar mavjud edi (A.Chubays va boshqalar), ularning tashabbusi va prezident qo'llab-quvvatlashi bilan tub o'zgarishlar harna bo'lsada davom etardi. Mamlakat ishlab chiqarishining 70% ga yaqini aksionerlar va xususiy kompaniyalar qo'lga o'tdi. Davlat dumasida tomonidan konstitutsiyaga mos keladigan fuqarolar kodeksi qabul qilindi, unda xususiy mulkchilik munosabatlari mustahkamlandi. Yagona sud sistemasi haqidagi qonun chuqur sud islohotlarini boshlab berdi. Asta-sekin konstitutsiyaga mos keladigan mahalliy o'z-o'zini boshqarish sistemasi (tizimi) shakllana boshladi, shaharlarda va tumanlarda sovetlar va upravalalar saylanib

harakat qila boshladilar. SSSRdan meros qolgan qurolli kuchlar asta-sekinlik bilan uch barobarga qisqartirildi.

Ammo hukumat bozor iqtisodiyotiga hos bo'lmagan munosabatlarni yengish uchun chora topolmadi. U davlat mulkidan keladigan daromadni ko'paytira olmadi va soliq yig'ishni ta'minlay olmadi. Ro'yxatdan o'tishni xohlamagan korxonalar -«xufyona iqtisodiyot» mamlakat yalpi ichki mahsulotining 25%dan 45% gacha berib turdi. Ko'plab uddaburonlar katta mablag'ni hatto chet elga ham o'tkazib yuborish yo'lini topdilar. Hukumat mayda va o'rta biznesni hamda fermerlarni qo'llab-quvvatlash uchun juda oz mablag' ajratdi. Kolxoz va sovxozlarning yerga haqiqiy egaligisiz aksioner jamiyatlarga aylantirish nomigagina bo'ldi va qishloq xo'jaligini jonlantirilmadi. Hokimiyat tepasida turganlarning aholini ma'muriy yo'l bilan kerakli tomonga yo'naltirmoqchi bo'lgan urinishlari korrupsiyaning rivojlanishiga imkon berdi. Xokimiyatdagilar mulkchilikning daxlsizligini nafaqat himoya qilaoldilar, balki o'zlari fuqarolarning boshqa huquqlarini ham buzdilar, maosh va nafaqalarni o'z vaqtida berolmadilar. Chernomirdin: «Yaxshi bo'lishini istadik, ammo har doimgiday qolaverdi», - deb ochiqchasiga tan oldi.

Oppozidiya Davlat dumasida yerni erkin oldi-sotdi qilishga va garovga qo'yishga halaqit berardi. «Tabiiy monopoliyalarning» mustahkamlanib olgan rahbarlari, ko'p tarmoqli moliya-sanoat guruhlarining boyib ketgan xo'jayinlari va kolxoz-sovxozlarning «agrariya» deb ataladigan soha rahbarlari hukumatdagilarga o'z manfaatlarini bo'yinturuq qildilar, moliyaviy firibgarlikda kuyib bankrot bo'lgan banklar esa millionlab odamlarni aldadilar.

Hukumat tomonidan kam ta'minlangan qatlamlarga yordam berish, maoshni va nafaqalarni indeksatsiya qilish borasida choralar ko'rildi. Ammo ishlab chiqarishning jiddiy tushib ketishi, ishsizlikning kupayishi va aholi turmush sharoitining yomonlashuvi davom etdi. Ijtimoiy keskin qarama-qarshilik, ayniqsa, «yangi ruslar», «shohona» yashash tarziga o'rganib qolgan byurokratik yuqori tabaqalar va zo'r-bazo'r hayot kechirayotgan ko'pchilikni tashkil etadigan aholi o'rtasida kuchayib ketdi.

Kasaba uyushmalarida mehnatkashlar haq-huquqlarini himoya qilish tajribasi juda oz edi, qaytadan rekonstruksiya qilingan tog'-kon sanoati va sanoatning boshqa tarmoqlarining ishchilari katta ish tashlashlar qilib, temir yo'llarni bekitib qo'yidilar, marsh yurishlari uyushtirdilar, qamal qildilar, piketlar uyushtirib, g'alayonning boshqa turlarini o'tkazdilar. Maosh ololmagan o'qituvchilar va vrachlar ham g'alayon ko'tardilar. Axloq qoidalarining va hokimiyatning zaiflashib ketishi natijasida mulkni qayta bo'lish va boyishning yangi imkoniyatlari tug'ilgan bir vaqtda uyushgan jinoyatchilik va korrupsiyaning nihoyatda rivojlanib ketishiga imkon tug'dirdi. Ko'plar, ya'ni o'zining faravonligini davlatning buyukligiga bog'liq deb hisoblaydigan kishilar, (ular uchun teskari bo'lishi mumkin ham emas edi) liberal-demokratik tub o'zgarishlardan umidlarini ham uzdilar. Natijada turli xil «buyuk davlatchilar» faollashib ketdilar - bular Rossiya Federatsiyasi kompartiyasi va boshqa «murosasiz» partiyalar, sotsializmga qaytishga urinayotgan oppozitsiyachilar, shuningdek, millatchilar, buyuk davlatchilar va turli xil milliy separatistlar: chechen va tatarlardan tortib to tualik va yoqutlargacha faollashdilar.

Prezident siyosati natijalaridan aholining noroziligiga umid bog'lagan kommunistlar 1995 yilda Davlat Dumasiga bo'lgan saylovlarda g'alaba qilishdi. Saylovda yadrosini Rossiya Federatsiyasi Kommunistik partiyasi tashkil etgan oppozitsiya mutlaq ko'pchilik ovozga ega bo'ldi. Kompartiya mamlakatda tub iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlarni o'tkazishga va Rossiya Federatsiyasining xalqaro majburiyatlarini bajarishga xalaqit berdi. Bu xol, ayniqsa, chet el kreditlari va sarmoyalarini jalb etishda yaqqol ko'rindi.

Mamlakat tepasida turganlar asosan ilgari partiya va sovet organlari nomenklaturasida turganlarning qoldiqlaridan va liberal-demokratik oqimlarning rahbarlikka ko'tarilgan vakillaridan iborat edi. Bular g'oyaviy-siyosiy jihatdan o'z manfaatlarini o'ylaydigan raqiblardan iborat edilar. Ularni elita deb hurmat qilganlari bilan ularda na malaka, va na Rossiyaning yangi muammolarini hal etish uchun kerakli tajribalari bor edi. Jamiyatning jipslashishiga etnoslarning xilma-xilligi ham xalaqit berar edi. Ularning ichida eng buyugi ruslar bo'lsa-da, biroq o'zlarining milliy birligi zarurligini yetarli darajada anglay olmaganligi, hamda ko'plab diniy oqimlar

o'rtasidagi qarama-qarshiliklarning mavjudligi, shuningdek, yaqin o'tmishdagi yo'qotishlardan o'zini o'nglab ololmagan pravoslaviya mazhabi o'rtasidagi raqobatlar jamiyatning jipslashishini murakkablashtirib qo'ygan edi. Ko'pchilik respublikalar va okruglarda titulli etnoslar ozchilikni tashkil etardilar. Deyarli hamma okruglar oblast va o'lkalar tarkibida edilar, oblastlar va o'lkalarning esa, ta'minlay oladigan xo'jaligi yo'q edi va markaz dotatsiyasiga qaram edi (dotatsiya - beriladigan qo'shimcha yordam). Federatsiyaning subyektlari o'rtasida esa ilgorigidek, bevosita bozor aloqalari va iqtisodiy o'zaro bog'liqlik yo'q edi.

Federatsiyani jipslashtirish uchun hukumat Rossiya Federatsiyasining 50 tagacha subyektlari bilan ularning vakolatlariga o'zgartirishlar kiritish uchun alohida shartnomalar tuzdi. Ammo markazdan qochma intilishlar kuchaydi, respublikalar, o'lkalar, oblastlar va okruglar tomonidan Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasi moddalarini va federal qopunlarini ko'plab buzilishi odatiy hol bo'lib koldi. Federal mamlakatda yaxshilikning «emaklab parchalanish» davri boshlandi, bunga esa faqat subyektlarning o'zaro hayotiy bog'liqligi to'sqinlik qilishi mumkin edi.

Federal qo'shinlarning o'zini mustaqil deb e'lon qilgan Chechen respublikasiga (Ichkeriyaga) «konstitutsion tartibni» o'rnatish uchun yuborilishi oqibatida 1994-96 yillarda 100 mingga yaqin kishi halok bo'ldi. Vayronagarchilik keltiruvchi urushga sabab bo'ldi. Bu urush mamlakat xom ashyosiga putur yetkazdi, xalqaro obro'yni tushib ketishiga olib keldi va mag'lubiyat bilan tugadi. Ichkeriyaning o'zini mustaqil deb e'lon qilgan statusning Rossiya tomonidan tan olinishi esa keyinga qoldirildi. B.Yelsin va Ichkeriya aholisi tomonidan saylangan prezident A.Maxadovning qo'shma bayonotida Rossiya va Ichkeriyaning munosabatlari xalqaro huquq normalari asosida amalga oshiriladi,» - deb ta'kidlandi.

Aholining prezidentga va hukumatga bo'lgan ishonchiga ancha putur yetgan edi. Ammo, Yelsindan bo'lak islohotlar uchun kurashchilar orasida 1996 yilgi prezidentlik saylovlarida kommunistlarning nomzodi Zyuganovga qarshi turadigan boshqa nomzod topilmadi. Yelsinning g'alabasiga ishonmagan uning atrofidagi bir qism kishilar to'ntarish uyushtirishni, ya'ni Kompartiyani ta'qiqlab qo'yish va saylovlarni orqaga surishni taklif qildilar. Ammo Chubays va boshqa islohotchilarning sa'yi-harakatlari bilan Yelsinning shuhratini oshirishga erishildi va xullas 1996 yilning yozida saylovlarning ikkinchi turida kommunist raqiblarning deyarli hammasi Yelsinga ovoz berdilar. Aldanganligiga, umidlari puchga chiqqanligiga qaramay, ko'pchilik rossiyaliklar liberal tub o'zgarishlar yo'ldan chekinmadilar. Bu narsa Yelsinning g'alabasini ta'minladi va shuningdek, uning atrofidan va hukumatdan to'ntarish tarafdorlari bo'lganlarni chetlashtirish imkonini ta'minladi. Ammo g'alabadan so'ng u yarim yilcha bemor yotdi, Chernomo'rdinning hukumati esa Yelsinning muvaffaqiyatlaridan islohotlarni tezlashtirish uchun foydalana olmadi.

Faqat keyingi yilning bahorida Yelsinning tashabbusi bilan hukumatga Chubays va boshqa «yosh islohotchilar» kirgandan so'ng xujumga o'tish uchun urinish qilindi: yirik kompaniyalarning davlat aksiyalarini tanlov asosida sotish boshlandi, soliq kodeksi, ijtimoiy ta'minot, uy-joy xo'jaligi, qurolli kuchlar va yerni oldi-sotdi qilish masalalarini qayta islohot qilish ko'zda tutildi. Biroq tub o'zgarishlar o'tkazilishining raqiblari, ommaviy axborot vositalaridan va Dumadan keng foydalanib, yosh islohotchilarning obro'yini tushirishga va ularning sa'yi-harakatlarini falaj qilishga erishdilar.

Davlat dumasida ko'pchilik bo'lgan kommunistlar va ular ittifoqchilari ijtimoiy sohalarga, sobiq kolxoz-sovхозlar va harbiy korxonalar uchun belgilangan xarajatlarni ko'paytirishni xukumatdan talab qildi. Ortiqcha xarajatlar uchun mablag' bo'lsa-da hukumat bularning talablarini rad etishga jur'at etolmadi.

Natijada 1998 yilning bahorida Davlat dumasi tomonidan ma'qullangan davlat budjetini amalda hayotga tatbiq etishning iloji bo'lmadi va Yelsin Chernomo'rdinni S.Kiriyenko bilan almashtirdi. Davlat dumasi tasdig'idan qiyinchilik bilan o'tgan yangi premyer ministr falaj bo'lgan mamlakat xo'jaligiga kerak bo'lgan mablag'ni topish imkonini beradigan bir nechta qonunlar paktini ishlab chiqdi. Ahvol jahon moliya-valyuta inqirozi tufayli yanada murakkablashdi. Buning ustiga Davlat dumasidagilarning ko'pchiligi S.Kiriyenkoni xush

ko'rmaganligi tufayli uning takliflarini rad etishdi va shu yo'l bilan ular budjetni oxirgi imkoniyatdan ham mahrum qilishdi. Xalqaro valyuta fondidan kredit olinishiga qaramay, ko'plab bank va korxonalarning ahvoli og'irlashdi. Ishchi va xizmatchilarga maosh to'lamaganligi sababli mamlakat g'alayon va qo'zg'olonlar olovida qolgan edi, g'alayonchi-shaxtyorlar yo'llarni to'sib qo'ygan edilar. Hukumat ijtimoiy-siyosiy jihatdan ham, mablag' olish masalasida ham madad ololmadi. Shuning uchun 1998 yil 17 avgustda S.Kiriyenko davlat o'z majburiyatlari bo'yicha to'lovlarni amalga oshirishga qodir emas deb e'lon qilishga majbur bo'ldi. Rossiya hukumatiga nisbatan ishonchga zil ketdi, rubl tez orada 3 barobar qadrsizlandi, ko'plab banklar sindi, narx-navo nihoyatda ko'tarilib ketdi va aholi yashash sharoiti juda yomonlashdi. Davlat dumasida nafaqat hukumatni, balki prezidentning ham iste'foga chiqishini talab qila boshladi. Kommunistlar prezidentning vakolatlarini cheklashga va hukumatni Davlat dumasida nazorati ostiga olishga intildilar.

Bu chuqur siyosiy inqiroz edi. Prezident Yelsinda na hukumatga madad berishga, va na Chernomo'rdinni joyiga qaytarishga iloj bor edi. 1998 yili sentabrda u ijro hokimiyatiga boshliq qilib kommunistlarga yoqadigan YE.Primakovni qo'yishga qaror qildi. Primakovning hukumatiga anchagina kommunistlar ham jalb qilingan edi. Ammo ularga liberal islohotlar ruhi qat'iylik bilan qarshi turdi. Natijada bunday ahvol iqtisodiy siyosatni parokanda qildi. Inflyatsiya importning qisqarishiga olib keldi, bu xol o'z navbatida importning ko'payib ketishi sababli to'xtab qolgan ba'zi sohalarida 1999 yildan ishlab chiqarishning jonlanishiga olib keldi. Biroq tub islohotchilik o'zgarishlarini tugallash uchun yangi mulkchilikni mustahkamlash, yerlarni, ishchi kuchlarini va uy-joylardan foydalanishni bozor munosabatlariga kiritish bo'yicha bir qadam ham bosilmadi. Kommunistlar mamlakatni rejali xo'jalikka qaytara olmadilar, ammo shunga qaramay tez-tez kasal bo'lib turgan prezidentga xujum qilib turdilar va bahor oyida uni hokimiyatdan chetlatilishini talab qildilar. Kommunistlar mamlakatda barqarorlikni e'lon qilishda taniqli siyosatchi Primakov bilan ittifoqlarining muvaffaqiyatiga umid qilar edilar. Bu esa o'z navbatida liberal tub o'zgarishlar taqdirini xavf ostiga qo'ydi.

Shuning uchun 1999 yil may oyida kommunistlar alyansi bilan «gulobi» hukumat o'rtasidagi ittifoqning yanada mustahkam bo'lishining oldini olish uchun, prezident Primakovni ishdan oldi, Davlat dumasida esa, Yelsinni prezidentlik lavozimidan olish to'g'risida qo'yilgan rezolyutsiya yetarli ovoz ololmadi. Bu xol kommunistlar pozitsiyasini (mavqeini) ancha zaiflashtirdi.

Botqoqqa botgan islohotlar yo'lini asrash maqsadida Yelsin Davlat dumasidagilarning ko'pchiligiga yoqadigan V.Stepashinni hukumat boshlig'i qilib tayinladi. Bu qadam ilgari Kiriyenko tomonidan ko'zda tutilgan moliyaviy-iqtisodiy tizimni mustahkamlashga yo'naltirilgan qonunlarni qabul qilish imkonini berdi. Ammo yangi premyer liberal-demokratik ommani birlashtirib safarbar qila olmadi.

Shunday bir paytda Moskva shahar meri Y.Lujkov tomonidan yetaklangan «byurokratik kapitalizm» tarafdorlari maydonga chiqishdi, ularning shiori - ma'muriy yo'l bilan «kapitalizmchasiga ishlash, ammo sotsializmchasiga taqsimlash» edi. Ular o'zlarini vatan himoyachilari deb e'lon qilib, o'z tomoniga ko'plab gubernatorlarni og'dirib oldilar va Primakov boshchiligida Vatan-Butun Rossiya (OVR) (Otechestvo - Vsya Rossiya) nomli blokni tuzdilar. Prezidentning tutgan yo'liga qarshi hujumda ular hatto to'hmam va uydirmalardan ham foydalanishda kommunistlardan ham o'zib ketdilar. Ular shu bilan liberal-demokratik tub o'zgarishlar yo'liga jiddiy g'ov bo'lib qoldilar.

B.Yelsin 1999 yil avgustida hukumat boshlig'i lavozimiga ko'tarilgan V.Putinga Davlat dumasidagi saylovlarda g'alaba qilishiga va o'zi tutgan yo'lni davom ettirishiga umid bog'ladi. Mamlakatda hali uncha tanish bo'lmagan yangi premyerning chechen jangarilarini Dog'istonga bostirib kirishiga yo'l qo'ymaslik va ularni Moskva hamda boshqa shaharlardagi terroristik xujumlariga chek qo'yishlikdagi qat'iyatligi uni mashhur qilib yubordi.

1996 yilning kuzidan boshlab Ichkeriya haqiqiy mustaqillikka erishgan edi. Ammo aholining partikulyarizmligi va dala komandirlarining beboshligi Ichkeriyada yagona jamiyatning shakllanishiga, davlatchilikning va qonunchilikning mustahkamlanishiga halaqit

berdi. Vahobiylik bilan jamiyatni birlashtirishga bo'lgan urinish g'oyaviy tarqoqlikni kuchaytirdi. Chechen jangarilarining chet el terroristlari tomonidan gijgijlangan avantyurasiya'ni ularning Dog'istonga bostirib kirishi va Rossiya shaharlaridagi qo'poruvchilik harakatlari Ichkeriya aholisini Rossiya harbiylarining zarbasiga duchor qildi. O'n minglab aholi nobud bo'ldi, yuz minglab kishilar qochoq bo'ldilar. Grozniy shahrini vayron qilinishiga, qishloqlarning toptalishiga olib keldi, ommaviy repressiyalarga qarshi aholining bir qismi qarshilik ko'rsatish, partizanlar urushi olib borish bilan javob berdi. Vaziyatni jiddiy siyosiy yo'l bilan, hamma tomonlarning qatnashuvidagi muzokoralar yo'li bilan hal etish va tinchlik o'rnatish mumkin edi. Ko'plab davlatlar va xalqaro tashkilotlar Chechenistondagi va ularni qo'llab-quvvatlagan chet el terroristlarini qoraladilar. Chechenistonga gumanitar yordam yubordilar va shuning bilan birga Rossiya hukumati va harbiylari tomonidan inson huquqlarining buzishlariga qarshi noroziliklar bildirdilar.

1999 yil kuzida ma'muriyat «Yedinstvo» harakatini tashkil etdi. Bu harakat o'zining terrorizm va korrupsiyaga chek qo'yish, huquq tartibot va barqarorlikni ta'minlash kabi talablari bilan o'zining safiga aholining ancha qismini jalb etdn. Bu tashkilot ham saylov kompaniyasiga qo'shildi va yangi nomzodlarni ilgari surdi. Bu tashkilotning rivojlanishiga premyer ministr Putin hamnafas ekanligi ham ularga yordam berdi. Shafqatsiz saylovoldi kurashlarida bu tashkilot oson g'alabaga ishongan kompartiya va OVRga (Otechestvo Vsya Rossiya) qarshi kuchli raqibga aylandi.

1999 yil dekabrda yangi Davlat dumasiga saylovlar natijasida kommunistlar va ularning ittifoqchilari zaiflashib qoldilar, natijada ular ko'p ovoz ololmadilar. Lujkov-Primakov bloki OVR ham hal qiluvchi muvaffaqiyatga erisha olmadi. Dumada Kuchli fraksiyalar paydo bo'ldi «Yedinstvo» fraksiyasi va «Soyuz pravax sil» (O'ng kuchlar ittifoqi) fraksiyasi. Birinchi marta tub o'zgarishlar o'tkazishni davom ettirish tarafdorlari bo'lgan har xil fraksiyalar va guruhlarining birgalikdagi harakatlari, «Yabloko» ham shu jumladan, ularga davlat dumasida ko'pchilik ovoz olish imkonini berdi.

O'zining tutgan yo'liga qarshi turgan raqib kuchlarning navbatdagi prezident saylovlarida jipslashishning oldini olish uchun Yelsin muddatidan oldin - 2000 yilning boshida iste'foga chiqdi. Hukumat boshlig'i V.Putin, «qonun diktaturasi» nomli ommabop shior va bozor iqtisodiyotini jonlantirish rejalari bilan chiqib, nafaqat prezident vazifasini bajaruvchi, balki shu bilan birga mart oyida muddatidan oldin bo'ladigan prezident saylovlarida g'alaba qilish uchun eng ommaviy nomzod ham bo'lib qoldi. Uning ommalashishiga ishlab chiqarishning, neft eksporti va soliq yig'imlaridan kelgan daromadlarning bir qadar o'sishi ham sabab bo'ldi. Putin nomzodi uchun islohotlar tarafdorlarining ko'pchiligi va hokimiyatni kuchaytirishni xohlaydiganlar ovoz berishdi. Natijada 2000 yili Putin Prezidentlikka saylandi.

Davlat dumasida islohotlar tarafdorlarining ko'pchiligi ishtirokida bo'lgan Putinning g'alabasi tub o'zgarishlarni davom ettirishga qulay sharoit yaratdi, uning ommaviyligining va mashhurligining saqlanib turishi esa hokimiyatning samaradorligini oshishiga imkon yaratdi. U tomonidan liberal islohotlarni chuqurlashtirish dasturi belgilab olindi. Bu dasturni amalga oshirish uchun federal hukumat organlari kuchaytirildi va Federatsiya Soveti tarkibi o'zgardi, federatsiya subyektlarining qonunlari Rossiya federatsiyasi konstitutsiyasi va qonunlariga moslashtirildi, iqtisoddagi byurokratizmdan qutulish loyihalari ilgari surildi, «tabiiy» monopoliyalar sudlov, suv, yer, nafaqa, uy-joy va boshqa islohotlar restrukturizatsiya qilindi.

Biroq, regionlarda bozor iqtisodiyotini barqaror o'sishi uchun, sarmoyalar jalb etish uchun, ishlab chiqarishning eskirgan asbob-uskunalarini konversiya qilish va yangilash uchun sharoit hozircha yaratilmadi. Aholining xarid qilish qobiliyati o'sib borayotgan inflyatsiya bilan susaytirildi. Shunday bo'lsada, uy-joylarni issiqlik, yonilg'i va suv bilan ta'minlashning eskicha tizimini buzish tezlashtirildi. Ma'muriy idoralarning inson huquqlari va erkinliklarini buzmasdan «tartib o'rnatishni» eplay olmasliklari, har qanday tashabbusni falaj qilib tashlaydigan byurokratizm va o'sib borayotgan korrupsiya, shuningdek, Chechenistondagi qonli urush, u yerda aholining bir qismi faqat tirik qolish uchungina federal hukumat bilan hamkorlik qilayotganligi, bularning hammasi jamiyatning jipslashuvini qiyinlashtirdi. Qiyinchiliklarga

qaramasdan, liberal-bozor islohotlari va yangi konstitutsiya tufayli Rossiya federatsiyasi jahon hamjamiyatida liberal yo'nalishdagi mamlakatlar sirasiga kirib oldi. Biroq u shu bilan birga SSSRdan ba'zi bir buyuk davlatchilik va militaristik xususiyatlarni ham meros qilib oldi. Bular jumlasiga urushda qo'lga kiritilgan hududlarni ushlab turish, millatlarni o'z taqdirini o'zi belgilashi huquqini cheklash, ma'muriyatni militarizatsiyalash, taxdid qilish va siyosiy masalalarni hal etishda qurolli kuchlardan foydalanish, raketa-yadro va harbiy-dengizda buyuk bo'lishga da'vo qilish, hududiy gegemonlikka intilish, chet elda «vatandoshlar» huquqini himoya qilish, (bular qatoriga SSSRning barcha sobiq fuqarolarini yoki rusiyazon fuqarolarni ham qo'shadilar), kabi masalalar kiradi. Ammo ma'muriyat Rossiyaning o'z ichida ham inson huquqlari buzilishini bartaraf etishga qodir emas edi. Bozor iqtisodiyoti bo'yicha tub o'zgarishlarning tugallanmaganligi, ishlab chiqarishning past darajadali Rossiyaning «o'tish davridagi iqtisodiyotli» mamlakatlar sirasiga kiritadilar. Uning xo'jaligi «asosan erkin emas» deb hisoblanadi, chunki unda davlat to'g'ridan-to'g'ri katta va ma'muriy tarzda aralashadi. Rossiya jahon yalpi mahsulotining 2,67 foizini beradi - AQSH va Xitoydan bir necha barobar oz. Agar yoqilg'ilar, qurollarning ba'zi turlarini va atom energiyasini eksport qilishni hisoblamasak, yetarli darajada bo'lmagan raqobatbardoshligi va tashkiliy-moliyaviy zaifligi Rossiyaning jahon savdosida qatnashuvining kengayishini qiyinlashtiradi. Jahon savdosida Rossiyaning ulushi jahon yalpi mahsulotidagi ulushidan ham past.

Bugungi Rossiya bundan 4-5 yil oldingi Rossiyaga mutlaqo o'xshamaydi. Agar XX asrning oxirida kommunistlar, demokratlar hamda liberal-demokratlar mamlakatda katga kuch hisoblangan bo'lsa, bugun ular o'z mavqelarini yo'qotdilar. Davlat tizimining barcha bo'g'inlarida «Yediniya Rossiya» (Yagona Rossiya)ning oshig'i olchi. Davlat dumasida ham ilgari chaqiriqlar, fikrlar qarama-qarshiligi, ehtiroslar yo'q. Bugungi дума asosan bitta siyosiy partiya vakillaridan yoki shu partiya dasturiga xayrixoh deputatlardan uyushgan parlament hisoblanadi. Bugungi kunda hukumat bilan parlament til topishib ishlamoqda. 2004 yilning mart oyida Rossiyada prezident saylovi bo'lib o'tdi. Vladimir Putin yana Rossiya prezidentligiga saylandi. Mana shu prezident saylovi kompaniyasi ham Rossiyadagi siyosiy kuchlarning bir fikrga kelishib ishlayotganini bildirdi. Natijada, mamlakat iqtisodiyotida o'sish yuz berdi, odamlarning turmush kechirishi ularni ish bilan ta'minlash yaxshilandi. Uning xalqaro miqyosdagi obro'si oshdi.

Agar 2001 yili mamlakat aholisning 30%i kambag'all darajasida yashagan bo'lsa, 2004 yilga kelib, bu ko'rsatkich 18%ga tushdi. Ishlab chiqarishning yillik o'sishi 2005 yilda 6-7% ni tashkil etdi. Tashqi qarz uzib bo'lindi. Chet el investitsiyalarini jalb qilish yildan-yilga o'smoqda. Agar 2002 yili u 4 mlrd, 2003 yili 6 mlrd AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2004 yilda bu ko'rsatkich 10 mlrd AQSH dollaridan oshib ketdi.

Biroq, Checheniston masalasida, Gruziya va Ukraina davlatlari bilan munosabatlar masalasida Rossiya bilan Yevropa Ittifoqi, NATOga a'zo davlatlar hamda AQSH o'rtasida fikrlar qarama-qarshiligi mavjud. Kurill orollari masalasida Yaponiya davlati bilan uzoq yillardan beri tortishuv davom etmoqda.

Rossiya-O'zbekiston munosabatlariga kelsak, o'tgan yillar ichida davlat va hukumat darajasida 150 dan ziyod shartnoma va kelishuvlar imzolaniib, ularning eng muhimlari 1998 yilning oktabrida Toshkentda imzolangan iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi shartnoma hamda 2004 yilning 16 iyunida Toshkentda imzolangan O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi strategik hamkorlik haqidagi bitimdir.

Rossiya O'zbekistonning ilgorigidek yirik savdo partnyori bo'lib qolmoqda. Rossiyaning O'zbekiston tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 1999-2000 yillarda 13% dan 17% gacha o'sganligi ham buning dalilidir. Faqat 2003 yilning o'zida ikki mamlakat o'rtasidagi tashqi savdo aylanmasi 26% ga o'sib, 1 mlrd 150 mln AQSH dollarini tashkil etdi. 2005 yil bu ko'rsatkich 2 mlrd. AQSH dollariga yaqinlashib qoldi.

Rossiya tashqi siyosatining g'oyaviy asosi, sobiq SSSR tashqi siyosatidan farqli o'laroq mamlakat resurslarini ko'p millatli aholining ehtiyojlarini qondirish uchun samarali foydalanishdan iboratdir.

Rossiya ma'muriyati boshqa sobiq sovet davlatlari bilan hamkorlik qilgan xolda tinch yo'l bilan SSSR merosini bo'lishning murakkab masalalarni hal qildi. MDHning samaradorligini oshirish va o'zaro xavfsizlikni kuchaytirish bo'yicha zarur choralar ko'rmoqda. AQSH bilan qurollanishni qisqartirish bo'yicha shartnomalar imzolandi. Kengaygan Yevropa ittifoqi bilan, AQSH, Yaponiya, Hindiston, Eron bilan keng moliyaviy-iqtisodiy va siyosiy hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Xitoy bilan do'stona aloqalar yo'lga qo'yilgan. Rossiya Yevropa Kengashining a'zosi va ko'plab xalqaro tashkilotlar qatnashchisi bo'ldi, shuningdek, Xalqaro valyuta fondida ishtirok etmokda. Rossiya BMT faoliyatida turli regionlarda tinchlikni saqlab turish harakatida faol ishtirok etmoqda, gaz va neft mahsulotlarini, raqobatbardosh zamonaviy qurollarni va yadro reaktorlarini eksport qilishni kengaytirish borasida o'zining o'rniga ega.

Oxir oqibat Rossiyaning kelajak taqdiri uning hukumati va xalqi tomonidan «real sotsializmning» asoratlarini yengish qobiliyatiga, uning ulkan tabiiy resurslaridan foydalana olishiga, nihoyatda katta o'lchamda va og'ir bo'lgan xo'jalikning samaradorligini ko'tarishga, mamlakatning tarixiy birligini ta'minlab, uning bozor infrastrukturasiining zaifligini bartaraf qilib olishga, real manfaatlar bilan izzat-nafsi o'rtasidagi nomutanosibliklarni yengib o'tishga ham juda bog'liqdir. Rossiyaning turmush qiyinchiliklarini yengib chiqishi va uning o'ziga xos xususiyatlari bilan jahon hamjamiyatida yetakchi o'rin egallashi ko'p jihatdan mana shularga bog'liqdir.

Asosiy darsliklar va o`quv qo`llanmalar

1. Новая история стран Европы и Америки. Первый период. Под ред. Е.Е.Юровской и И.М.Кривогуза М., Высшая школа 1998.
2. Новая история стран Европы и Америки. Второй период. Под ред. Е.Е.Юровской и И.М.Кривогуза М., Высшая школа 1998.
3. Разалиев Ю.Н. Новая и новейшая история стран Азии и Африки. М., Высшая школа. 1987.
4. Языков Е.Ф. История стран Европы и Америки в новейшее время. (1918 -1949 гг. М., 2000.
5. История Франция. В 3-х т. М. Наука. 1971,72,73.
6. История Италии. М. Наука. 1971.
7. Нуриддинов З.Р. Ғарб мамлакатларининг энг янги тарихи. (1917-1939) 1-қисм Т., “Ўқитувчи” 1963, 1978.
8. Ғафурова Р., Умаров К., Котляр П., Абдурахмонова М. Осиё ва Африка мамлакатларининг янги ва энг янги тарихи. Т., “Ўқитувчи” 1982.
9. Xidoyatov G. Jaxon tarixi I, II qism Т., “Sharq” 2004.
10. M. Lafasov, U. Jo`rayev, Jahon tarixi. Т., 2005.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Новейшая история стран Европы и Америки XX век. Часть 1. 1990-1945 г.г Москва-2001г.
2. Новейшая история стран Азии и Африки XX век. Часть1. 1990-1945 г.г Москва-2001г.
3. Новая история стран Европы и Америки. Москва-2002 г.
4. История новейшего времени стран Европы и Америки (1918-1945) Москва-1989 г.
5. Г.А.Ҳидоятлов, Х.Г.Ғуломов. Всемирная история новейшей период Европы и США после второй мировой войны (1945-1995) Ташкент-1999 г.
6. Г.Ҳидоятлов. Жаҳон тарихи. Энг янги давр. Биринчи қисм (1914-1945) Тошкент-2000 й.
7. А.И.Строганов. Новейшая история стран Латинской Америки. Москва-1995 г.
8. З.Р.Нуриддинов. Ғарб мамлакатларининг Энг янги тарихи (1917-1939) 1-китоб, Тошкент-1978 й.
9. З.Р.Нуриддинов. Ғарб мамлакатларининг Энг янги тарих (1939-1972) 2-китоб, Тошкент-1976 й.
10. И.М.Кривогуз. Крушение реального социализма в Восточной Европы и судьбы освободившихся народов. Москва-2000 г.
11. История дипломатии в 5-ти томах. Москва-1959-1960 г.г.
12. Всемирная история. том 10, Москва-1965 г.
13. Д.Батлер. Большая стратегия. Москва-1959 г.
14. В.И.Дашичев. Банкротство стратеги Германского фашизма том 1, Москва-1973 г.
15. В.И.Дашичев. Банкротство стратеги Германского фашизма том 2, Москва-1974 г.
16. Вторая мировая война (1939- 1945) в 12-ти томах. Москва-1973-1982 г.г.
17. Великая Отечественная Война Советского Союза (1941-1945) в 6-ти томах. Москва-1960-1965 г.г.
18. История второй мировой войны в 12-ти томах. Москва-1974-1980 г.г.
19. Вторая мировая война. Кратная история. Москва-1989 г.
20. История второй мировой войны. Кратная история. Москва-1984 г.
21. Советская Историческая энциклопедия т 3, Москва-1963 г.
22. Вторая мировая война (итоги и уроки) Москва-1985 г.

23. Путь к войне на Тихом океане. Т 5, Москва-1963 г.
24. История войне на Тихом океане. Т 4, Токио-1972 г.
25. Гальдер. Военный дневник. Перевод с нем. Москва-1968 г.
26. Документы по Мюнхенского сговора 1937-1939 г, Москва-1979 г.
27. Х. Кичкилов. Социализмнинг емирилиши ва мустақил давлатлар тараққиёти. Термиз-2004 й.
28. История США в 4-х томах. Москва-1980-1987 г.
29. История Италия в 3-х томах. Москва-1970-1971 г.
30. История Франции в 3-х томах. Москва-1972-1973 г.
31. А.И.Мухин. Австрия. Москва-1979 г.
32. В.П.Смирнов. Новейшая история Франции. Москва-1979 г.
33. Новая и новейшая история 1989г, № 5.
34. Новая и новейшая история 1990г, № 5,6.
35. Новая и новейшая история 1991г, № 1,3.
36. Новая и новейшая история 1992г, № 3,4,8.
37. Новая и новейшая история 1993г, № 1,2,4.
38. Вопросы истории 1990г, № 5.
39. Вопросы истории 1992 г, № 1,4,5.
40. Вопросы истории 1993 г, № 1,7.
41. Международная жизнь 1990 г, февраль-март.

Qo`shimcha adabiyotlar

1. Каримов И. А. Жаҳон молиявий - иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шаритида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари Т., “Ўзбекистон” 2009.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т., «Маънавият», 2008
3. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Т., “Шарқ”, 1998
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Тарих институти фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида”ги қарори. «Халқ сўзи» 1998 йил 27 июл.
5. Сиёсий партиялар (справочник). Т., 1988.
6. Жаҳон мамлакатларининг ҳуқуқий тизимлари (қомусий лўғат) А.Х.Саидов таҳрири остида. Т. 2006.

Internet saytlari

- <http://grid.rug.nl/ahc/>
- <http://Librory.Byu.edu/-rdh/eurodocs/>
- <http://history.hanover.edu/texts.htm>
- <http://www.ucr.edu/h-gig/horuslinks.html>
- <http://english.www.hss.cmu.edu/history>
- <http://www.ukans.edu/history/vl/>
- <http://www.lib.muohio.edu/inet/subj/history/wwii/index.html>
- <http://www.lib.byu.edu/-rdh/wwl/>
- <http://classics.mit.edu>.

MUNDARIJA

Ma’ruzalarning qisqacha mazmuni

Kirish.....

1917-1939 yillarda Angliya

- 1-§. Urushdan keyingi iqtisodiy va siyosiy inqiroz yillarida Angliya.....
- 2-§. Kapitalizmning qisman stabillashuvi yillarida Angliya.....
- 3-§. Jahon iqtisodiy inqirozi yillarida Angliya.....
- 4-§. Ikkinchi jahon urushi arafasida Angliya.....

1918-1939 yillarda Fransiya

- 1-§. Urushdan keyingi iqtisodiy va siyosiy inqiroz yillarida Fransiya.....
- 2-§. Kapitalizmning qisman stabillashuvi yillarida Fransiya.....
- 3-§. Jahon iqtisodiy inqirozi yillarida Fransiya.....
- 4-§. Ikkinchi jahon urushi Arafasida Fransiya.....

1918-1939 yillarda Germaniya

- 1-§. Urushdan keyingi iqtisodiy va siyosiy inqiroz yillarida Germaniya.....
- 2-§. Kapitalizmning qisman stabillashuvi yillarida Germaniya.....
- 3-§. Jahon iqtisodiy inqirozi yillarida Germaniya. Fashizmning hokimiyat tepasiga kelishi.....
- 4-§. Ikkinchi jahon urushi arafasida Germaniya.....

1918-1938 yillarda Avstriya

- 1-§. Urushdan keyingi iqtisodiy va siyosiy inqiroz yillarida Avstriya.....
- 2-§. Kapitalizmning qisman stabillashuvi yillarida Avstriya.....
- 3-§. Jahon iqtisodiy inqirozi yillarida Avstriya.....
- 4-§. Ikkinchi jahon urushi arafasida Avstriya.....

1918-1939 yillarda Italiya

- 1-§. Urushdan keyingi iqtisodiy siyosiy inqiroz yillarida Italiya.....
- 2-§. Kapitalizmning qisman stabillashuvi yillarida Italiya.....
- 3-§. Jahon iqtisodiy inqirozi yillarida Italiya.....
- 4-§. Ikkinchi jahon urushi arafasida Italiya.....

1918-1939 yillarda Amerika Qo‘shma Shtatlari

- 1-§. Urushdan keyingi iqtisodiy va siyosiy inqiroz yillarida AQSH.....
- 2-§. Kapitalizmning qisman stabillashuvi yillarida AQSH.....
- 3-§. Jahon iqtisodiy inqirozi yillarida AQSH.....
- 4-§. Ikkinchi jahon urushi arafasida AQSH.....

1918-1939 yillarda SSSR

- 1-§. Rossiya 1917 yil to‘ntarishidan keyingi xalqaro intervensiya va fuqarolar urush yillarida.....
- 2-§. Iqtisodiyotni boshqarishning markazlashtirilish va mustabid Sovet tuzumining ichki siyosati.....
- 3-§. Sovet totalitar tuzumining tashqi siyosati.....

1918-1939 yillarda xalqaro munosabatlar

- 1-§. 1918-1923 yillarda xalqaro munosabatlar. Versal-Vashington sistemasining tuzilishi.....
- 2-§. Kapitalizmning qisman stabillashuvi yillarida xalqaro munosabatlar.....
- 3-§. Jahon iqtisodiy inqirozi va urushning ikki o‘chog‘i vujudga kelishi yillarida xalqaro munosabatlar.....
- 4-§. Ikkinchi jahon urushi arafasida xalqaro munosabatlar.....

Ikkinchi jahon urushi boshlanishi oldidan harbiy kuchlar nisbati. Urushning boshlanishi va tansifi

- 1-§. Urush boshlanishi oldidan fashistlar blokidagi davlatlarning harbiy kuchlar nisbati.....
- 2-§. Fashizmga qarshi blokidagi davlatlarning harbiy kuchlar nisbati.....
- 3-§. Urushning boshlanishi va tavsifi.....
- 4-§. 1939 yil 23 avgust bitimi va Sovet-German iqtisodiy aloqalari. Urushning birinchi davridagi harbiy harakatlar.....

Ikkinchi jahon urushning asosiy janglari, urushning tugashi va natijalari

- 1-§. SSSRga qarshi urushning boshlanishi va dastlabki talofatlar sabablari.....
- 2-§. Ikkinchi jahon urushning asosiy janglari va fashistlar Germaniyasining tor-mor qilinishi.....
- 3-§. Ikkinchi jahon urushining so‘nggi davrida urush harakatlari, militaristik Yaponiyaning tor-mor qilinishi, urushning tugashi va natijalari.....

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda Yevropa va Amerika mamlakatlari

- 1-§. XX asrning 2-yarmida xalqaro munosabatlar.....
- 2-§. Dunyo siyosatida markazga intilish tendensiyalari.....
- 3-§. Ko‘p qutbli dunyo chizgilari
- 4-§. Sotsializm yemirilishining sabablari va oqibatlari

1945-2005 yillarda Germaniya

- 1-§. Germaniya Ikkinchi jahon urushidan keyin. Ikkita nemis davlatlarining vujudga kelishi.....
- 2-§. 1948 yildagi Berlin inqirozi va Germaniyaning parchalanishi.....
- 3-§. GFR va GDR 50-70 yillarda GFRning konstitutsiyaviy tuzumi.....
- 4-§. “Kol davri”: nemis neokonservatizmi (yangi konservatizmi) va Germaniyaning birlashishi....

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda AQSH

- 1-§. Aqshda urushdan keyingi ahvol. “Adolatli yo‘l”.....
- 2-§. AQSH 1970-1990 yillarda.....

1945-2005 yillarda Fransiya

- 1-§. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda Fransiya. To‘rtinchi respublikasi
- 2-§. Gollizm va Beshinchi respublikaning tashkil topishi
- 3-§. De Gollchilar Fransiya siyosatining tashqi siyosati.....

Buyuk Britaniya 1945-2005 yillarda

- 1-§. 1945 yilda Britaniya inqilobi.....
- 2-§. Konservatorlar hukmronligi: “bekorga sarflangan o‘n uch yil” yoki “o‘zgarishlar shamoli”...
- 3-§. Buyuk britaniya 60-70 yillarda. “Texnokratik davr”
- 4-§. M.Tetcherning neokonservatizmidan E.Blerning “yangi leyborizmi”ga

Italiya 1945-2005 yillarda

- 1-§. Respublika tuzumiga o‘tish.....

2-§. Siyosiy ekstremizm va terrorizm.....	
3-§. “Milliy birdamlik” (1976-1979 yillar).....	
4-§. 80-yillarda Italiya.....	

SSSR urushdan keyingi davrda

1-§. Sovet davlati va uning parchalanishi.....	
2-§. Qarama-qarshilikning keskinlashuvi va inqirozning muqarrarlighi.....	
3-§. Mustabid tuzumni qayta qurish vaqismlarga ajratish.....	
4-§. Oligarxiya parchalanishi va ideokratiya (mafura ustunligi)ning qulashi.....	
5-§. Imperiya merosini taqsimlash.....	
6-§. Rossiyada yangi o‘zgarishlar jarayoni va isloxatlarning borishi.....	

Adabiyotlar	
--------------------------	--